O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON TARIXI

(Oliy o‘quv yurtlarining nomutaxassislik fakultetlari talabalari uchun darslik)

O‘quv dasturlari, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini qayta ko‘rib chiqish va yangilarini yaratish bo‘yicha Respublika muvofiqlashtirish komissiyasi tavsiya etgan

Toshkent-2005

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng haqqoniy tariximizni o‘rganish uchun keng imkoniyatlar paydo bo‘ldi. Mavjud imkoniyatlardan foydalangan mualliflar jamoasi ko‘plab tadqiqotlar va manbalarga asoslangan holda O‘zbekiston tarixining jahon sivilizatsiyasi tarixida, uning rivojlanishida tutgan munosib o‘rnini ushbu darslikda yoritib berganlar. Shuningdek, darslikda O‘zbekiston hududlarida minglab yillar davomida bo‘lib o‘tgan tarixiy-madaniy jarayonlar tahlil qilinib, O‘zbekiston jahon sivilizatsiyasi o‘choqlaridan biri ekanligi asoslab berildi. Dunyo madaniyati rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan vatandoshlarimiz faoliyati batafsil yoritildi. Ushbu darslik talabalar, O‘zbekiston tarixini chuqur o‘rganishni xohlaganlar, ilmiy izlanishlar olib borayotganlar hamda tarix bilan qiziquvchi kitobxonlarga mo‘ljallangan.

Tarix fanlari doktori, professor ***R.H.Murtazayevaning umumiy tahriri ostida***

Mas’ul muharrirlar:
t.f..n. dotsent ***B.J.Eshov*** *va*
t.f.n. ***A.A.Odilov.***
Taqrizchilar:
tarix fanlari doktorlari,
professorlar ***D.A. Alimova*** *va* ***R.G.Muqminova***

Kirish

O‘zbekiston mustaqilligi yaratib bergan imkoniyatlar tufayli nashr etilayotgan ushbu darslik Vatanimizning boy tarixi va madaniyati milliy istiqlol g‘oyasi bilan sug‘orilgan holda, yangicha, haqqoniy va xolislik bilan yoritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Respublikamiz mustaqil taraqqiyot yo‘lining ijodkori va rahnamosi sifatida tarix fani, uning bugungi ahvoli va istiqbolini chuqur tahlil etib, bu yo‘nalishda tarixchi olimlar oldiga qator vazifalarni qo‘ydilar. Ushbu vazifalardan eng muhimi-yangi jamiyatimizni isloh qilish va yangilash jarayonini boshqaradigan va ta’minlaydigan, hozirgi davr talabi asosida yangicha fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash, muhimi, ular ongiga milliy istiqlol, Vatanga sadoqat va yurtparvarlik g‘oyalarini yanada chuqurroq singdirish va teran anglatishdan iboratdir.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti fakultetlararo O‘zbekiston tarixi kafedrasi professor-o‘qituvchilari tomonidan tayyorlanib, o‘quvchilar hukmiga havola etilayotgan mazkur darslik oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining nomutaxassis yo‘nalishdagi talabalariga mo‘ljallangan. Mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixini har tomonlama va izchil o‘rganish borasida samarali ishlar amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramay, tadqiqotlar yanada chuqurroq va har tomonlama davom ettirilishi lozim bo‘lgan dolzarb mavzular talaygina. Shu nuqtayi nazardan ushbu darslik mualliflari o‘zbek davlatchiligi tarixi, o‘troq dehqonchilikning yoyilishi va dastlabki shahar madaniyati, o‘zbek xalqining kelib chiqishi, Uyg‘onish davri madaniyati, O‘rta Osiyo xonliklaridagi o‘zaro munosabatlar, mahalliy xalqlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti, O‘zbekistonning sovet mustamlakachiligi davri ziddiyatlarga boy tarixi masalalariga alohida e’tibor qaratdilar.

Olimlar e’tirof etganlaridek, O‘zbekiston tarixi nihoyatda boy va rang-barangdir. O‘lkamiz hududlari eng qadimgi davrlardan boshlab jahon sivilizatsiyasi o‘choqlaridan biri hisoblanib, bu yerda dunyo sivilizatsiyasidagi mahalliy xalqlarga xos tarixiy-madaniy jarayonlar bo‘lib o‘tgan. O‘lkamiz hududlaridan dunyo sivilizatsiyasi tarixiy taraqqiyotida o‘chmas iz qoldirgan olimu fuzalolar, davlat arbobiyu, sarkardalar yetishib chiqganlarki, biz ular bilan xaqli ravishda faxrlansak arziydi.

Mualliflar jamoasi 2003-yilda nomutaxassis yo‘nalishdagi talabalar uchun darslik tayyorlab chop ettirgan edi. Ushbu darslikka uning

kengaytirilgan, to‘ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri bo‘lib, ilgari boshqa oliy ta’lim talabalariga mo‘ljallangan darsliklardan farq qilgan holda, bu darslikda har bir mavzuni yoritishda yoshlarda milliy g‘urur, vatanparvarlik, Ona-Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbat tuyg‘ularini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan omillarga alohida e’tibor qaratildi. Undan tashqari mualliflar boy manbalar, arxivlarda saqlanayotgan va hali kam ma’lum bo‘lgan hujjatlar ma’lumotlarini ham ilk marta fanga joriy etdilar. Misol uchun, 1-mavzuda O‘zbekiston tarixi fani predmeti, uni o‘rganishning metodologik tamoyillari, manbalari, obyekti va ahamiyati maxsus mavzuda yoritildi; 3-mavzuda o‘zbek xalqining shakllanishi yangi manbalar asosida o‘rganilgan bo‘lsa, 4-mavzuda ilk shaharsozlik madaniyati masalalari, yozuv haqidagi yangi ma’lumotlar yangi arxeologik izlanishlar asosida talqin etildi. 5-mavzu esa, antik davr O‘rta Osiyo xalqlari madaniyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ellinizm madaniyatiga alohida to‘xtalib o‘tildi. 8-mavzuda esa boshqa darsliklardan farqli o‘laroq IX-XII asrlar madaniyati Uyg‘onish davri madaniyati sifatida alohida yoritildi. 13-mavzuda Turkiston Muxtoriyati hukumati, mintaqadagi Sovet hukumatiga va qizil armiyaga qarshilik ko‘rsatish harakati Buxoro va Xorazm Respublikalarining faoliyati kabi muammolar o‘z ifodasini topgan. 14-mavzuda O‘zbekistonda 20-yillardagi murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat keng yoritilgan. Shuningdek, ushbu mavzuda qatag‘onlik siyosatining asosiy maqsadlari ma’lumotlar asosida ochib berilgan. 16-mavzuda yangi ma’lumotlar asosida O‘zbekistondagi sovet mustamlakachilik tizimining iqtisodiy-siyosiy yo‘nalishlari, uning oqibatlari, xalqning xususan, o‘zbek xalqining ijtimoiy ahvolidagi ziddiyatli holatlarni haqqoniy yoritishga harakat qilindi. Mustaqillik davriga bag‘ishlangan mavzularda O‘zbekiston Respublikasining asrlarga teng 14 yillik davri yakunlari va xulosalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati faoliyati eng yangi ma’lumotlar bilan boyitildi.

Undan tashqari o‘quvchilarga yordam bo‘lishi uchun qo‘llanma so‘ngida xronologik jadval va adabiyotlar ro‘yxati berildi.

Ushbu darslik O‘zbekiston tarixining qadimgi tosh davrlaridan boshlab, hozirgi kungacha bo‘lgan katta davrni o‘z ichiga oladi. Mavzularni yoritish jarayonida 2004-yilda chop etilgan. o‘quv dasturiga asoslangan holda masalaning tub mohiyati, tarixiy-madaniy jarayonlarning asoslari, omillari va rivojlanishi, sabablari, oqibatlari va natijalariga katta e’tibor qaratildi. Shuningdek, Vatanimiz hududida bo‘lib

o‘tgan tarixiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar haqida xolisona xulosalar chiqarishga intildik.

Mualliflar tarixiy adabiyotlar, ilmiy tadqiqotlar, arxiv hujjatlarini tahlil qilgan holda tariximizni haqqoniy va xolisona yoritish yo‘lidan borib, uni o‘quvchilarga yetkazishga harakat qiladilar. Talabalarni tariximizni yanada chuqurroq o‘rganishga hamda uni unutmaslikka da’vat etadilar. Zero, Yurtboshimiz Islom Karimov ta’kidlaganlaridek: “Yangi o‘zbek davlatchiligining tamal toshini qo‘yapmiz. Shunday ekan, tarix saboqlari bizni har xil noto‘g‘ri qadamlardan ogoh etuvchi, saqlab turuvchi omil bo‘lishi lozim. Chunonchi, xalq, millat taqdiriga daxldor masalalarda pala-partish, oqibatni o‘ylamasdan ish tutish yaramaydi. Yaqin o‘tmishimizning yana bir sabog‘i shuki, millat, davlat, jamiyat taqdiri hal bo‘layotgan pallada o‘zligimizni anglash, ma’naviy ildizlarimizni unutmasligimiz katta ahamiyatga ega”.

Ushbu qo‘llanma tarix fanlari doktori, professor R.H.Murtazayeva boshchiligida quyidagi mualliflar jamoasi tomonidan yozildi:

1-mavzu **t.f.n. S.Xolboyev;** 2-3-4-5-7-mavzular **t.f.n. B.Eshov;** 6, 9-mavzular **t.f.n. A.Odilov;** 8-mavzu **t.f.n. M.Tojiyeva;** 10-mavzu **t.f.n. X.Yunusova, t.f.n. A.Odilov;** 11-mavzu **katta o‘qituvchi N.Polvonov;** 12-mavzu **t.f.n. S.Xolboyev, t.f.n. X.Yunusova, katta o‘qituvchi D,O‘roqov;** 13-mavzu **t.f.n. Q.Rajabov, t.f.n. M.Xaydarov, t.f.n. S.Xolboyev, katta o‘qituvchi N.Polvonov;** 14-mavzu **t.f.n. I.Shamsiyeva;** 15-mavzu **katta o‘qituvchi N.Polvonov, t.f.n. D.Inoyatova;** 16-mavzu **t.f.d. R.Murtazayeva, t.f.n. B.Joldasov, t.f.n. M.Haydarov;** 17-mavzu **t.f.n. B.Joldasov, katta o‘qituvchi D.O‘roqov;** 18-mavzu **t.f.d. R.Murtazayeva, t.f.n. M.Xaydarov;** 19-mavzu **t.f.d. R.Murtazayeva, t.f.n. B.Joldasov;** 20-mavzu **t.f.n. X.Yunusova, katta o‘qituvchi N.Polvonov.** Adabiyotlar ro‘yxati va xronologik jadvalni **B.Eshov, M.Xaydarov** va **N.Polvonov** tuzdilar.

Ushbu mavzular bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirgan hamkasblarga avvaldan minnatdorchilik bildiramiz.

R.H.MURTAZAYEVA
tarix fanlari doktori, professor.

1-mavzu. O‘zbekiston tarixi fani predmeti va obyekti, uni o‘rganishning metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati

O‘zbekiston tarixi fanining fan sifatida tutgan o‘rni. Uning o‘rganish predmeti va obyekti

Tarix fani ijtimoiy taraqqiyot va o‘tmishga oid har xil voqea-hodisalarning izchil rivojlanishi, ularning qachon, qayerda, qanday holatda yuz berganligi, insoniyatning paydo bo‘lishi va uning tadrijiy-evolutsion rivojlanish jarayoni va boshqalarni o‘rganadi. Shuningdek, O‘zbekiston tarixi umumjahon-insoniyat tarixining ajralmas qismi hisoblanib, u olamshumul voqeliklarga juda boy. O‘zbekiston tarixi fani mana shu voqeliklarni boshidan kechirgan qadim va yaqin ajdodlarimizning hayoti qanday bo‘lganligi, jahon tarixi taraqqiyotiga qo‘shgan hissalarini xolisona va haqqoniy o‘rganadi.

Tarixiy haqiqat to‘la ro‘yobga chiqishi, haqqoniy tarix yozilishida tarix fanining predmeti va obyektini to‘g‘ri belgilanishi o‘ta muhim ahamiyatga ega. Chunki O‘zbekiston tarixi fani uchun ham boshqa barcha fanlar qatori predmet va obyekt masalasi asosiy masala bo‘lib hisoblanadi. Zero, fan uning o‘rganish predmeti va obyekti aniq bo‘lmasa, uning oldidagi vazifa noaniq bo‘lib, maqsadga erishish mushkul bo‘ladi.

O‘zbekiston tarixi fani boshqa ijtimoiyot va tabiat fanlaridan farqli o‘laroq mustaqil fan. Shuningdek, u barcha fanlar orasida alohida o‘z o‘rni va mavqeyiga ega. U barcha fanlar tarixini ham o‘z ichiga olgan holda ularning rivojiga katta ta’sir etadi. Bu uning o‘rganish predmeti va obyekti hamda vazifasida to‘la namoyon bo‘lmog‘i kerak. Tarix fani o‘z xususiyatiga ko‘ra, birinchidan, o‘zining butun diqqat e’tiborini faqat o‘tmishga qaratadi, undan saboq beradi, xulosa chiqaradi, ajdodlarimizning moziyda qolgan hayot tarzini, ular yaratgan moddiy-madaniy, ma’naviy-mafkuraviy qadriyatlarni o‘rganadi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston tarixi fani boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan aniq fan. U matematika usulidan keng foydalanadi. Tarixiy voqea va hodisalar qat’iy aniqlikda, davriy ketma-ketlik-xronologik asosda o‘rganiladi. Shuningdek, tarixiy voqea va hodisalar, hujjat va dalillarning haqiqiy va haqiqiy emasligi, ular qachon, qayerda, qanday tarixiy muhit va sharoitlarda tarixan voqe bo‘lganligi aniqlanadi. Va nihoyat, bo‘lib o‘tgan voqeliklarning aniq sabab va oqibatlari, shu bilan birga, ularning aniq shakl-shamoyillari va holati aniqlanadi.

Uchinchidan, O‘zbekiston tarixi fani o‘tmishdagi iqtisodiy-ijtimoiy hayotning ahvoli, rivojlanishi va tanazzulining sabab hamda oqibatlarini o‘rganadi, ulardan kelajak uchun saboq va xulosa chiqaradi. Bu esa kelajak avlodlar uchun dasturulamal bo‘ladi.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston tarixi fani ko‘p qirralik va xilma-xillik xususiyatiga ega. U jamiyat taraqqiyoti va inqirozlarining faqat bir tomoninigina emas, balki jamiyatning hamma tomonlarini uzviy o‘zaro bog‘liqlikda, bir butunlikda o‘rganadi. O‘zbekiston tarixi fani, O‘zbekistonning o‘tmishidagi va hozirgi hududida eng qadimgi davrlardan to hozirgacha kechgan voqeliklar, insoniyat hayoti, tabiat va jamiyat taraqqiyoti va tanazzulini tahlil qiladi. Uning o‘rganish predmetiga esa, mana shu makondagi jamiki xilma-xil voqea va hodisalar, ulardagi umumiy aloqadorlik va yaxlit birlik hamda qonuniyatlar hodisasi va jarayonlar, umuman, xalq va insonning yaratuvchanlik faoliyati kiradi. O‘zbekiston tarixi fanining o‘rganish makoni-obyekti O‘zbekistonning tarixidir. Tarixiy obyekt (makon)ga nisbatan O‘zbekiston tarixi fanining maqsadi, vazifasi, yo‘nalishi va harakat (faoliyat) doirasi yoki chegarasi belgilanadi. Ma’lum bir ma’noda obyekt bilan predmet bir-biriga juda yaqin tushuncha bo‘lsa-da, ular tarix fanida tutgan o‘rni va vazifasi bilan farqlanadi.

Obyekt aniq tarixiy davr, makon, zamon va geografik mintaqaviy chegaralar, ma’lum bir xalq, millat, mamlakat tarixi bilan bog‘liq bo‘lib, shular doirasidagi voqea va hodisalarning bir butun va yaxlitlikda o‘z ichiga oladi. Predmet esa mana shu bir butun obyekt ichidagi aniq tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan iboratdir.

O‘zbekiston tarixi fani fan sifatida ijtimoiy-siyosiy, umuminsoniy fan bo‘lib, inson va millat, o‘z o‘tmishini bilishi, o‘zligini o‘zi anglashi hamda kelajagini belgilashida asosiy dasturulamal hisoblanadi. Shu bilan birga, u ijtimoiy-siyosiy hayot sohasidagi yagona fan ham emas. Jamiyat, insoniyat va tabiatning o‘tmishini o‘rganuvchi boshqa soha fanlari ham bor. Masalan, madaniyat, maorif, iqtisodiyot va boshqa fanlar shular jumlasidandir. Ammo, boshqa fanlarning hammasi ham, tabiat, jamiyat ham avvalo, katta tarixda aks etadi. Soha tarix fanlari ham tarix fanining o‘rganish obyekti va predmeti hisoblanadi.

Tarix fani boshqa, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlari bilan mustahkam va uzviy aloqa birligida rivojlanadi. Shuning uchun ham, tarixchilar falsafani, adabiyot va tilni, dinshunoslikni va boshqa fanlarni bilmay turib, haqqoniy tarixni to‘la yoritib berolmaydilar.

Shuni ham aytish lozimki, tarix bilan boshqa ijtimoiy- gumanitar fanlarning o‘rganish obyekti bitta ya’ni jamiyatdir. Predmeti esa inson va tabiat. Shuning uchun ham boshqa fanlar tarix fani taraqqiyotiga, tarixiy haqiqatlarning ro‘yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. Shuningdek, tarix fani ham boshqa soha fanlari rivojiga katta ta’sir etadi. Ammo, shuni ham ta’kidlash joizki, tarix boshqa fanlarni, shuningdek, ijtimoiy-gumanitar fanlarning ham tarixidir. Chunki boshqa fanlarning hammasi ham tarix mahsulidir.

Xulosa shuki, tarix fani ya’ni, Vatan tarixi millat va Vatan taqdirini ravnaq topishida muhim ahamiyatga ega. Masalaning mohiyati shundaki, birinchidan, ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishi har jihatdan tarix fanining naqadar haqqoniy bo‘lishiga bog‘liqdir. Chunki ular tarix bilan bevosita bog‘liq. Ikkinchidan, tarix falsafasi qanchalik to‘la va ravon yuzaga chiqsa, boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning mazmun va mohiyati hamda ta’sirchanligi ham shuncha yuksak darajada bo‘ladi.

Tarix falsafasi deganda, tarix ya’ni o‘tmish tajribasi va sabog‘idan to‘g‘ri xulosa chiqara olish tushuniladi. Boshqacha aytganda, o‘tmish-tarixga qarab, kelajakni to‘g‘ri belgilay olish ham tarix falsafasini anglashni bildiradi. Masalan, bundan bir asr oldin Rossiyadan chiqqan lenincha «bolshevoy» lar uchun kommunizm qurish g‘oyasi ishonch va e’tiqodga aylandi. Buning uchun esa, ular hokimiyatni bosib olib, katta qon to‘kish evaziga jamiyatni o‘zgartirdi. Oxir oqibatda esa, bu «sotsialistik jamiyat» inqirozga uchradi. Tarixda kommunistik g‘oya o‘z isbotini topmadi. Tarix uning xom – xayol – utopiyadan iborat ekanligini 74 yil ichida isbotladi. Yana bir misol: Yevropa mamlakatlari hozir tarix saboqlari – falsafasidan to‘g‘ri xulosa chiqarib, o‘tmishlari qanchalik o‘zaro qonli va qarama-qarshilarga boy bo‘lishiga qaramay, Yevroittifoqqa birlashish harakatida, yagona konstitutsiya qabul qilmoqchi. Bular tarix falsafasi to‘g‘ri anglashining hosilasidir.

O‘zbekiston tarixi fanining metodologik ilmiy-nazariy asoslari va usullari

Har qanday fan kabi O‘zbekiston tarixi fani ham o‘zining metodologik ilmiy-nazariy asoslari va tamoyillariga ega. Bular O‘zbekiston tarixi fanining asosini tashkil etib, uni rivojlanishi, jamiyat va millat manfaati yo‘lidagi nufuzining ortib borishi uchun o‘ta muhim ahamiyatga ega. Eng muhimi, ilmiy-nazariy tamoyillar Vatan tarixining haqqoniy yozilishi, tarixiy haqiqatni yuzaga chiqishiga xizmat qiladilar.

Agar tarix insoniyat yashab rivojlanishi uchun ijtimoiy zaruriyat va ma’naviy-ma’rifiy ehtiyoj bo‘lsa, tarix fani esa, bu ehtiyojlarni ro‘yobga chiqishi uchun ma’sul bo‘lgan yuksak intellektual ilmiy-amaliy faoliyatdir. Buning samarali bo‘lishi, ya’ni tarix fani rivojlanishida metodologik ilmiy g‘oya va nazariyalar hamda usul va uslubiy tamoyillarning ahamiyati benihoya kattadir. Chunki bular tarixning mazmun va mohiyati hamda falsafasini chuqurroq ochib berishga, shuningdek, tarix fanining maqsad va vazifasini to‘laroq ro‘yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. Shuning uchun ham O‘zbekiston tarixi fanining metodologik ilmiy-nazariy asoslari, g‘oya va ta’limotlari nimalardan iborat bo‘lishi o‘ta muhim masala hisoblanadi. Yurtboshimiz Islom Karimov tarixning eng muqaddas milliy va umuminsoniy xotira hamda qadriyat ekanligini ta’kidlab, “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q“, “O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi”, “Tarix xalq ma’naviyatining asosidir” degan tarixiy haqiqatni to‘g‘ri anglatuvchi o‘ta teran tarix falsafasiga oid fikrlarni olg‘a surdi.

Bu kabi tarix falsafasiga oid yuksak xulosalarni o‘z vaqtida buyuk millatparvar jadidlar ham juda aniq anglagan holda Vatanni ozod etish, millatni ijtimoiy g‘aflat uyqusidan uyg‘otib taraqqiy ettirish uchun asosiy e’tiborni tarixga qaratdilar. Va «tarixi yo‘qning o‘zi yo‘q» degan falsafiy tushunchaga amal qilib, tarixda ilk bor tarixni o‘zlari tashkil etgan jadid maktablarida o‘qita boshlashi bilan, millatni o‘z tarixidan bahramand qilishdek o‘ta buyuk ma’rifat ishiga tarixda birinchi bor asos soladilar.

Buyuk jadid Abdulla Avloniy so‘zi bilan aytganda, jadidlar umuman tarbiyani, shuningdek, tarix ta’limi tarbiyasini millat uchun «yo hayot- yo najot, yo halokat – yo saodat, yo falokat masalasidir» deb bildilar. «Qaysi millat yashashni (ravnaqu, taraqqiyotni) istasa, - deydi Abdurauf Fitrat – tarixini bilishi lozim bo‘ladi, zero, tarix bir ko‘zguga o‘xshaydi».

Tarix falsafasi tarix fanining metodologik ilmiy-nazariy asoslari to‘g‘ri va haqqoniy belgilanishida o‘ta muhim ahamiyatga ega. Tarixchi olimlar tarix falsafasini qanchalik chuqur va to‘g‘ri anglasalar, ular tarix fani metodologiyasini shunchalik mukammal qilib belgilay oladilar.

Tarix falsafasi tarix va umuman tarixiy jarayon olimlar tomonidan aqlan har tomonlama to‘g‘ri tasavvur va his etilishidir. Yanada aniqroq aytsak, tarix falsafasi tarixiy jarayonning mazmuni va mohiyati hamda rivojlanish qonuniyatlarini o‘zida aks ettirish bilan birga, ularni bilish va o‘rganish, yozishning eng qulay, to‘g‘ri hamda maqsadga muvofiq yo‘li-usullarini belgilaydi. Umuman olganda, tarix falsafasi tarix sabog‘i va

tajribasidan kelib chiqib, belginlangan obyektiv xulosadir. Lekin, bu obyektivlik subyektiv xarakter va mazmun hamda mohiyatga ega bo‘ladi. Chunki har bir subyekt, ya’ni olim o‘z intellektual bilim salohiyati, tafakkur doirasidan kelib chiqib, obyektivlikka harakat qiladi.

Buning uchun esa, tarixchi olimlar butun insoniyat, millat, xalq va o‘rganish obyekti (ma’lum mavzu) evolutsiyasini, uning ma’no va mazmunini to‘g‘ri bilishi, tahlil qila olishi kerak. Agar tarix falsafasi tarixiy voqealiklar tahlilidan kelib chiqadigan haqiqat (xulosa)larning so‘zdagi aniq ifodasi bo‘lsa, tarix fani metodologiyasi mana shu tarixiy haqiqatlarni ro‘yobga chiqishi – tarix haqiqiy yozilishi uchun birdan-bir to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi dasturamaldir. Eng qisqa va tushunarli qilib aytsak, umuman metodologiya fanlarning fani ya’ni dirijori.

Dastlabki paytda hozirgi mustaqil davlatlar hamjamiyati tarkibidagi sobiq ittifoqdosh mamlakatlar, shuningdek, O‘zbekistonda ham g‘oyaviy-nazariy, mafkuraviy-falsafiy bo‘shliq paydo bo‘ldi. Bu esa, o‘z-o‘zidan boshqa mamalakatlarda bo‘lganidek, bizning Vatanimiz – O‘zbekiston tarixi fani uslubiyati (metodolgiyasi) qayta ishlanishi, aniqrog‘i, butunlay yangidan yaratilishini ilmiy-hayotiy zaruriyatga aylantirib qo‘ydi.

Bu o‘ta muhim ilmiy –amaliy masalani ishlab chiqish, o‘z-o‘zidan tarixchi va boshqa olimlar eski, majburan, qon va qatag‘onlik bilan singlirilgan kommunistik g‘oya, ta’limot va mafkuradan holi bo‘lishi uchun tarixan o‘tish davrini talab etishi tabiiy bir hol bo‘ldi. Mana shuning uchun ham istiqloldan so‘ng tarix va boshqa gumanitar fanlardan yozilgan dastlabki darsliklarda bu fanlarning metodologik ilmiy –nazariy va g‘oyaviy asoslari hamda usullarini ko‘rsatishning iloji bo‘lmadi.

O‘tgan istiqlol yillarida tarixchi olimlarimiz Vatanimiz tarixini butunlay yangidan o‘rgandi va o‘zlashtirdi, uni darsliklar asosida qayta yozishga muvaffaq bo‘ldilar. Bir qator monografik asarlar yozildi va eng dolzarb mavzularda o‘nlab ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi hamda dissertatsiyalar himoya qilindi.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov va hukumat Vatan tarixini qayta yozish va uni asosiy tarbiya quroliga aylantirish uchun «yangi tarix» g‘oyasini olg‘a surdi. O‘zbekiston tarixi yetakchi fan sifatida maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurtlarida ilk bor, keng miqyosda, eng qadimgi davrdan boshlab to hozirgacha o‘rganila boshlandi.

Bularning samarasi o‘laroq, keyingi paytda O‘zbekiston tarixi fani metodologiyasini yaratish imkoniyati paydo bo‘ldi. Avvalo, metodologiya haqida to‘xtalsak, metodologiyaning lug‘aviy ma’nosi grekcha «methodos» va «logos» degan ikki so‘z birikmasidan iborat bo‘lib, **metod**

ya’ni usul – tadqiqot olib borish usuli (yo‘li), nazariya, ta’limot, **logiya** esa **fan** deganidir. Demakki, metodologiya, ya’ni uslubiyat ilmiy tadqiqot olib borish yoki biror bir masalani ilmiy o‘rganishning eng qulay usullari, eng to‘g‘ri va mukammal g‘oyasi, nazariyasi va ta’limotlari majmuyidan iborat bir butun fandir. Boshqa ma’noda esa, metodologiya ilmiy bilish yoki ma’lum bir ilmiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishda qo‘llaniladigan usullar haqidagi fandir. Demak, tarix fani metodologiyasi tarixni o‘rganuvchi va o‘qituvchilarni aniq maqsad sari to‘g‘ri yetaklaydi, ya’ni tarix haqqoniy yozilishi va o‘rganilishiga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi.

Tarix fanining rivoji, uning metodologiyasi rivojiga bog‘liq bo‘lganidek, tarix fani metodologiyasi yuksak darajada takomil topishi tarix fani qay darajada ekanligiga ham bog‘liq. Bu holdagi uzviy ikki tomonlama bog‘liqlik umumiy qonuniyatidir. Mana shu o‘zaro aloqadorlik qonuniyati, qadim mumtoz tarixshunosligimiz va hozirgi zamon tamadduni sivilizatsiyasiga asoslangan holda O‘zbekiston tarixi fani metodologiyasini quyidagi ikki qismga bo‘lish mumkin.

1. O‘zbekiston tarixi fanining uslubiy (metodologik) ilmiy-nazariy, g‘oyaviy-mafkuraviy va falsafiy asoslari. Bunga quyidagilar kiradi:
   - din bilan dunyoviylik o‘rtasida mo`tadil munosabat bo‘lishi va dunyoviylik aslo dahriylik emasligi;
   - tarixni milliy, umuminsoniy, muqaddas hodisa hamda qadriyat deb tushunmoq;
   - tarixga hozirgi zamon sivilizatsiyasi nuqtayi nazari va bag‘rikenglik asosida yondashish;
   - tarixiy taraqqiyot asosini evolutsion – tadrijiy yo‘l va islohotchilik tashkil etadi deb anglamoq;
   - tarix va jamiyat taraqqiyotini markscha – lenincha soxta inqilobiy ta’limotga bog‘lash, mutloq xato, yovvoiylik, aksilinsoniy hatti-xarakat bo‘lgan deb tushunmoq;
   - tarix, jamiyat va tabiat hamda insoniyat (barcha tarixiy voqelik va jarayonlar) dialektika (Gegel) hamda sinergetika (Prigojin) qonuniyatlari asoslarida rivojlanishi haqiqat ekanligi;
   - tarix milliy va umuminsoniy xotira, millat va xalqlarning joni, tani hamda g‘oyaviy-mafkuraviy muhofaza quroli ekanligi.
2. O‘zbekiston tarixi fanining metodologik (uslubiy) ilmiy-usul va tamoyillari quyidagilardan iborat:
   - ilmiy xolislik (obyektivlik);

- tarixiy tahliliylik;
- mantiqiy uzviylik;
- vorislik va izchillik;
- xronologik izchillik;
- g‘oyaviylik va vatanparvarlik;
- halollik va xolislik;
- qiyoslash va kuzatish;
- kuzatish va umumiylashtirish;
- baxslashish, munozara yuritish va isbotlash;
- matematik hisoblash;
- shakllash va modellashtirish;
- ayrimlikdan umumiylikka (induksiya) va umumiylikdan ayrim (juz’iy)likka (deduksiya);
- etnografiya, arxeologiya, antropologiya, geneologiya, matematika va boshqa fanlarning yutuqlari hamda usullaridan ham keng foydalanish;

Bizning tariximiz ham, jahon tarixi ham din (aniqrog‘i dinlar) tarixi bilan uzviy bog‘liq. Ijtimoiy hayotni dindan, dinni ijtimoiy hayotdan ajratib bo‘lmaydi. Agar ajratilsa, tarixga ham, dinga ham mantiqqa ham zid bo‘ladi. Ma’lumki, sovet tarix fani tarixni soxtalashtirdi, din ilmga zid, tarixiy taraqqiyotga to‘sqinlik qiladi degan dahriylikka amal qildi. Tarix qanday bo‘lsa, uni shundayligicha o‘rganish ustivor bo‘lmog‘i kerak. Shuning uchun ham u din bilan mo’tadil, mutanosiblik asosida o‘rganilmog‘i hozir eng asosiy zaruriyat bo‘lib turibdi. Bu esa, yoshlarni har xil din niqobidagi dinga aloqasi yo‘q terroristik guruhlarga adashib kirib qolishlarining oldini oladi, shuningdek, tariximizni haqqoniy va to‘la yozilishiga imkon beradi.

Tarixiy-tanqidiylik ilmiy usul tamoyili tariximizda qadimdan muarrixlar tomonidan qo‘lanib kelingan eng qulay usul hisoblanadi. Bu usul tarixiy voqea va hodisalarning nechog‘liq to‘g‘ri hamda noto‘g‘riligini aniqlashga, tarixni haqqoniy va to‘g‘ri yozilishiga yaqindan yordam beradi.

Istiqlol tufayli o‘z tariximizni o‘zimiz yozish va tarix fani metodologiyasini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ldik. O‘tgan davr ichida O‘zbekistonning yangi tarixi yozildi va tarix fani tez rivojlandi. Butunlay yangi ruh va mazmundagi ilmiy qarash (konsepsiya)lar paydo bo‘ldi, o‘quv qo‘llanma va darsliklar, tarixiy asarlar chop etildi. Bu o‘rinda yuqoridagi metodologik ilmiy-nazariy asos va ularning ahamiyati katta bo‘ldi.

O‘zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi va tarixni o‘rganishda manbalarning ahamiyati

Barcha tarixlarda bo‘lganidek, O‘zbekiston tarixida ham davrlashtirish masalasi o‘ta muhim masala. U shu tarixni o‘rganuvchi tarix fanining metodologik ilmiy-nazariy asoslari va metod (usul)lari bilan bevosita bog‘liq. Demak, tarix fani qanchalik haqqoniy ilmiy-nazariya, g‘oya, ta’limot va metodologiya (uslubiyat) hamda usullar bilan qurollangan bo‘lsa, u shunchalik to‘g‘ri davrlashtiriladi.

Ma’lumki, tariximiz juda qadim va katta davrni hamda juda keng geografik mintaqani, shuningdek, tub burilish, yuksalish va inqiroz bosqichlarini ham o‘z ichiga oladi. U xilma-xil ijtimoiy voqea va hodisalarga, har xil diniy va madaniy qatlam, g‘oyaviy dunyoqarash va falsafiy oqimlarga boy, jahon tarixi va sivilizatsiyasining eng qadimiy va navqiron o‘choqlaridan biri hisoblanadi. O‘tmishda taqdir taqozosiga ko‘ra tariximiz aniqrog‘i Vatanimi hududi jahon miqyosda kengayib va ma’lum geografik mintaqada torayib keldi. Bu tariximizning o‘ta buyuk, shu bilan birga, juda ham murakkab bo‘lganligidan dalolatdir. Shuni ham aytish joizki, bu holat hozirgi jonajon Vatanimiz O‘zbekiston tarixining chegarasi va davrlashtirilishini ancha murakkablashtirdi.

Istiqlol yillari davrida tarixchi olimlarimiz Islom Karimovning “Yangi tarix” g‘oyasiga amal qilgan holda Ona tariximizning ilmiy asosda davrlashtirish sohasida ma’lum yutuqlarni qo‘lga kiritdilar.

Birinchidan, tarixni uzluksiz inqilobiy jarayon, qarama-qarashi murosasiz sinfiy kuchlar to‘qnashuvidan iborat deb tushunish va besh formatsiyaga bo‘lishdan batamom voz kechildi. Asosiy e’tibor esa, tarixni evolutsion-tadrijiy uzliksiz rivojlanish va geografik hududiy mintaqa asosida davlashtirishga qaratildi. Bunga keyingi paytlarda chop etilgan tarixiy asarlar, o‘quv qo‘llanma va darsliklarning mazmun hamda mundarijalari guvohlik berib turibdi. Ushbu darslik maxsus tuzilib tasdiqlangan dastur asosida yozildi. Shuning uchun ham, unda O‘zbekiston tarixi boshdan-oyoq shartli ravishda eng muhim davrlarga bo‘lindi. Bunday xronologik davrlashtirish O‘zbekiston tarixini o‘qitishga ajratilgan soatlarning miqdori va o‘qitishning boshqa o‘ziga xos xususiyatlari hamda usullari hisobga olingan holda amalga oshirildi.

O‘zbekiston tarixi fani va tarixni o‘rganishda tarixiy manbalarning o‘rni va ahamiyati behad katta. Shuning uchun ham ular millat va xalqning ma’naviy-madaniy merosi, bebaho madaniy-tarixiy boyligi

hisoblanib, maxsus arxiv (hujjatxona)larda, kutubxona va muzeylarda hamda oilaviy arxivlarda juda avaylab, ehtiyotkorlik bilan saqlanmoqda.

Tarixiy manbalar davr nuqtayi nazaridan qadimiy va joriy (kundalik) ahamiyatga ega bo‘ladi. Shuningdek, ular o‘z mazmuni va mohiyatiga ko‘ra birlamchi va ikkilamchi ahamiyat maqomiga ham egadirlar. Birlamchi manbaga tarixiy hujjatlarning asl nusxasi kiradi. Ikkilamchi manba deb esa, mana shu birlamchi manbalarning e’lon qilingan nusxalari, maqola va kitob holatiga keltirilganlariga aytiladi.

Manbalar o‘z holatiga ko‘ra, yozma va moddiy ko‘rinishlarga ega bo‘ladi. Yozma manbalar eng qadimgi yozuvlar, bitiklar va kitoblardan iboratdir. Hozirgi kunga qadar o‘lkamiz hududlari va bu yerdan chetda bitilgan o‘rta asrlarga oid yozma manbalarni o‘rganish bo‘yicha talaygina ishlar amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramay, bu yo‘nalishda qilinadigan ishlar nihoyatda ko‘p.

Tariximizning eng qadimgi, ya’ni yozuv paydo bo‘lmagan zamonlarga oid davrini o‘rganishda arxeologik, antropologik va etnografik manbalar yordamga keladi. Bu manbalar turli-tuman bo‘lib, ularga qadimgi manzilgohlar va shahar xarobalari, mozor-qo‘rg‘onlarning qoldiqlari, turmush va xo‘jalikda ishlatiladigan buyumlar, mehnat va jang qurollari, turli-tuman ashyolar kiradi. Moddiy va yozma manba ma’lumotlarini solishtirib, qiyoslab tarixni talqin etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy manbalarni o‘rganishning o‘zi tarix fanining maxsus sohasi bo‘lib, tarix fani rivojlanishi va tarix yozilishida o‘ta muhim ahamiyatga ega. Hozirgi paytda manbashunoslik fani keng rivojlanmoqda. U yuqorida ko‘rsatilgan metodologik ilmiy-nazariy, g‘oyafiy-mafkuraviy asos va ilmiy usullarga tayaanadi.

Manbashunoslik fani asosan tarixiy manbalarni o‘rganish bilan mashg‘ul bo‘lib, manbalarning qimmatini, haqiqiy va haqiqiy emasligini aniqlash bilan birga ularni turkumlarga ajratadi. Masalan, moddiy va ma’naviy yodgorliklar hamda ashyoviy, etnografik lingvistik va og‘zaki (folklor) manbalar shular jumlasidandir.

Manbashunoslik manbalarni aniqlash va saralash, ularning ilmiy qimmatini belgilash, tahlil qilish, yaratilish tarixi, shart-sharoitini o‘rganish kabi sohalarga bo‘linadi. Shu o‘rinda sovet davrida yaratilgan hozirda arxivlarda saqlanayotgan manbalarning haqiqiy tarixiy va notarixiy-sun’iy yasama ekanligini to‘g‘ri aniqlash o‘ta muhimdir. Masalan, hozir sovet davrida o‘zbek xalqi «Buyuk oktyabr inqilobini asrlar davomida orziqib kutgan edi», «o‘zbek xalqi qadim-qadimdan

savodsiz edi», «jadidchilik burjua harakati», «jadidlar xalq dushmani» va boshqa, shu kabi arxiv hujjatlari hamda yozma manbalar notarixiy, uydirma hujjatlar bo‘lib, ular arxivlarda saqlanmoqda.

Xulosa shuki, manbalar tarixiy jarayon va voqeliklarning o‘zida real aks ettirgan bo‘lib, tarixiylikning in’ikosi bo‘lmog‘i kerak. Mana shunda ularning tarixiy ahamiyati, tarixiy ekanligi yuqori bo‘lib, tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishiga yaqindan yordam beradi.

Vatan tarixini o‘qitishning ahamiyati

Taraqqiy etgan millatlarning o‘z tarixini yaxshi bilishi va qadrlashi, tarixiy yodgorlik va obidalarini e’zozlashi ko‘z qorachig‘idek asrashining ko‘pgina sabablari bor. Bu eng avvalo, tarix insoniyat paydo bo‘lganidan to hozirgacha davom etib kelayotgan ijtimoiy jarayon oynasi ekanligi bilan bog‘liqdir. Ikkinchidan esa, butun insoniyat shu tarixga qarab, o‘z o‘tmishi va borligini anglaydi, kelajak rejalarini belgilaydi.

Boshqacha bir ma’noda tarix buyuk faylasuf va donishmanddir. Uning mana shu dono falsafasini to‘g‘ri anglagandagina, xalqlar o‘z kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Xristian (nasroniy)lik falsafasi asoschisi A.Avgustian (354-430-y.) hozirgi eramiz boshidayoq, ya’ni bundan bir ming olti yuz yil oldin tarixning xalq va millatning taqdirida tutajak o‘rnini ko‘rsatib, shunday degan edi; “G‘aflatda yotgan xalqni uyg‘otish uchun avvalo, uning tarixini uyg‘ot”.

XII asrning buyuk allomasi Shahobiddin Muhammad al-Nasaviy ham bu fikrni o‘zining quyidagi to‘rtligida yanada teran ma’noda mana bunday bayon etadi:

Kimki tutmas qalbida tarixni,
U inson ham emas, olim ham emas.
Biroq kimki uqsa o‘tmishini,
Ko‘p boyitar o‘z turmushini.

Salkam bir yarim asr hukmronlik qilgan chor va kommunistik bosqinchilar tarixning jamiyatda va millat hayotida tutgan o‘rnini to‘g‘ri anglab, ongli ravishda tariximizni qoraladi, soxtalashtirdi, millat tarixiy xotirasini o‘chirib, uni abadiy, qalban ma’naviy qaramlikka moslab tarbiyalashga harakat qildilar.

Shu o‘rinda, Farg‘ona harbiy gubernatori M.A.Skobelovning ushbu shovinistik shiorga amal qilganligini aytib o‘tish joizdir: “Millatni yo‘q

qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san’atini, tilini yo‘q qilsangiz bas, tez orada o‘zi adoyi tamom bo‘ladi”.

Mustamlakachi kommunistik partiya tomonidan mahalliy millatlar tarixiga nisbatan olib borilgan siyosat, uning Siyosiy byurosi topshirig‘i asosida SSSR Davlat xavfsizlik qo‘mitasi (KGB)sining 1947-yilda mutlaqo maxfiylikda ishlab chiqqan ko‘rsatmasida o‘z aksini quyidagicha topgan edi: “Tarix darslarida o‘tmishdagi siyosatdonlardan kimlar vatan ravnaqi uchun xizmat qilishgani yoki xizmat qilishga urunishgani xaqida gapirish mumkin emas, e’tiborni faqat podsholar zulmi va ularga qarshi qaratilgan xalq kurashiga burmoq lozim “.

Shuning uchun ham o‘tgan chorakam bir asrlik kommunistik mustamlaka davrida O‘zbekiston tarixi tahqirlandi, soxtalashtirildi, xalq ta’limi sohasida o‘qitiladigan fanlar tizimiga fan sifatida kiritilmadi. Faqat, maktabning 5-sinflaridagina “O‘zbekiston tarixidan hikoyalar” degan ”hikoyalar” predmeti o‘qitildi. Bundan asosiy maqsad xalqimizda o‘z o‘tmishiga nisbatan nafrat ruhini tarbiyalash va teskari tarixiy xotirani shakllantirishdan iborat bo‘ldi. Bu mash’um siyosatning “samarasi” o‘laroq muborak istiqlolning dastlabki yillarida ayrim kommunistik mafkuraga berilgan katta tarixchi olimlar O‘zbekiston tarixini oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilishiga har xil bahonalar bilan qarshilik ko‘rsatdilar. Bu antiqa “qarshilik” to 1993-yilning sentabrigacha davom etdi. Mana shu o‘quv yilidan boshlab Vatanimiz tarixi tarixda birinchi bor oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan fanlarning orasida o‘zining qonuniy o‘rni va nufuziga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston hukumati mustaqillikdan so‘ng Vatan tarixi haqida odilona siyosat yuritdi. Uning millat ma’naviyati va mafkurasi, xalq ta’limida tutgan o‘rniga yuksak baho berib, uni davlat siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan biri darajasiga ko‘tardi.

O‘zbekiston tarixi - hozirgi buyuk va muqaddas istiqlolimiz ila bir yarim asrlik mustamlakachilik g‘aflat uyqusidan ko‘z ochib uyg‘ongan xalqimiz istiqbolimizni belgilashda, zamonaviy mutaxassis kadrlarni tayyorlashda eng zaruriy dasturilamaldir.

Umuman, Ona tarixni o‘qitish va o‘rganish hozirda avj olib rivojlanayotgan islohotchilik va yangilanish harakati davrida ijtimoiy zaruriyatgina emas, balki hayotiy ehtiyojga aylangan. Bu ehtiyoj milliy ma’naviy-mafkuraviy uyg‘onish, madaniy va iqtisodiy yuksalishlarga bo‘lgan ehtiyojlarning bosh mezoni hisoblanadi. Tarixga bo‘lgan millat ehtiyojining qondirilishi taraqqiyot va milliy uyg‘onishning asosidir.

Haqqoniy yozilgan Vatan tarixini o‘rganish va o‘qitish shuning uchun ham kerakki, u soxta tarixiy tushuncha va tarixiy xotirasizlikka barham beradi, milliy g‘oya va mafkura takomillashuvini tezlashtiradi. Vatan tarixini o‘qitish va o‘rganish yana shuning uchun ham zarurki, xalqimiz undan ruhiy quvvat olib, dushmanga bosh egmaslik, qayta mustamlaka qopqoniga tushmaslik, boshqalarga bo‘ysinmaslik, begona g‘oya va mafkura hamda zug‘umlar ta’siriga berilmaslik ma’naviyatiga ega bo‘ladi. Tarixni mukammal bilish, uning mazmun va mohiyati, falsafasini teran anglash millat uchun yuksak fazilat.

O‘zbekiston tarixi fani oldida turgan asosiy vazifa quyidagilardan iboratdir: **birinchidan**, yoshlarga va bo‘lajak mutaxassis kadrlarga chuqur milliy va umuminsoniy tarixiy, g‘oyaviy-siyosiy, ilmiy-nazariy dunyoqarashni singdirish. **Ikkinchidan**, yoshlarda milliy tafakkur, g‘urur va o‘zlikni, milliy vijdon va umuminsoniy barkomollikni tarbiyalash. **Uchinchidan**, yoshlarda otashin vatanparvarlik va harbiy jasoratni, millat va Vatanga sadoqatlikni tarbiyalash. **To‘rtinchidan**, yoshlarga milliy va tarixiy qadriyatlarni e’zozlash, asrab-avaylash ruhini singdirish, ularda yuksak ahloqiy fazilatlar (halollik, poklik, odillik, rostgo‘ylik, mehnatsevarlik, kamtarinlik, imon va e’tiqodlik)ni tarbiyalash.

Beshinchidan, yoshlarni Vatan va xalq, millat, ota-ona, farzand, tabiat va jamiyat oldidagi muqaddas burchlarni chuqur his etish va ularga sadoqatlik ruhida tarbiyalash.

O‘zbekiston tarixi fani mana shu yuqoridagilar va bulardan boshqa o‘zining xilma-xil imkoniyatlaridan kelib chiqib, komil insonni tarbiyalashga behad katta hissa qo‘shadi. Vatan tarixining davlat boshqaruvi va qurilishida, jamiyat va insoniyat taraqqiyotida, millat va xalq hayotida tutgan o‘rni hamda ahamiyati benihoya katta ekanligi qadim-qadimdan e’tirof etib kelinmoqda. Bunga tariximizning o‘zi guvoh. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, tarixning bu ajoyib xislati va tarbiyaviy ahamiyati, kuch-qudratini barchamiz teran his etishimiz va anglab yetmog‘imiz lozimdir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy “Turkiston tarixi kerak” nomli maqolasida yozadi: “Tarixning foydalaridan ba’zisi ushbudirki, bir millatning na tariqada, qaysi yo‘l ila taraqqiy etganin o‘qib, ibrat olmoq yoki bir millatning na sabablardan tanazzul etib, oxiri munqariz bo‘lib (tugab-bitib) ketganin o‘qub mundan ham istifoda etmak mumkindir”

Nushiravon Yovushev esa “Turkiston tarixi” nomli maqolasida tarixga quyidagicha baho beradi: “O‘z milliy tarixini bilmagan millat, o‘z

otasini bilmagan ... bir bolaga o‘xshaydur... Tarix millatning joni-ruhi, moddiy va ma’naviy hayotidur”.

Xulosa shuki, O‘zbekiston tarixini o‘qitishning ahamiyati behad katta. Shuning uchun ham yurtboshimiz I.A.Karimov tarixni o‘qitishga katta e’tibor berib, tarixchilarga qarata da’vatkorlik bilan shunday deydi: «... Millatimizning haqqoniy tarixini yaratib bering, toki xalqimizga ma’naviy kuch-qudrat baxsh etsin, g‘ururini uyg‘otsin».

I. Eng qadimgi davr

2-mavzu. O‘zbekiston insoniyat taraqqiyotining qadimgi o‘choqlaridan biri

Insoniyatning dastlabki ajdodlari. Paleolit davri

Insoniyatning kelib chiqishi va rivojlanishi bir necha asrlar davomida tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilib turli nazariyalar yuzaga kelgan. Chunki “antropogenez” eng qadimgi davr tarixini o‘rganishdagi muhim va dolzarb muammolardan hisoblanadi. Turli mamlakatlarda turli davrlarda yashagan mutafakkirlar insoniyatning paydo bo‘lishi haqida ilmiy ta’rifga yaqin fikrlarni bayon etganlar. Xitoy, yunon faylasuflari mil. avv. VI-V asrlardayoq odamning kelib chiqishi tamomila tabiiy hodisa deb ta’riflashga uringanlar. Ko‘pchilik tadqiqotchilar insonni mehnat va aqliy jihatdan kamol topishi natijasida hozirgi darajasiga yetib kelgan, degan fikrni ilgari surishlariga qaramay odamni xudo yaratganligi, yoki boshqa koinotdan kelib yerga tarqalganligi haqidagi nazariyalar ham bor.

Ingliz olimlari ota-bola Likilar o‘tgan asrning 50-60-yillarida Sharqiy Afrikada (Olduvoy darasida) qazishma ishlari olib borib oddiy tosh qurollar va qazilma odam qoldiqlarini topib, ular bundan 3-3,5mln. yil ilgari mavjud bo‘lgan degan g‘oyani ilgari surdilar. Bu turdagi odamlar fanda “Zinjantrop” (“Ishbilarmon odamlar” yoki “Gomohabilis”) va “Avstralopitek” (“Janub maymuni”) deb nom olgan.

Zinjantroplardan keyingi davrda yashagan qazilma odamlar qoldiqlari Indoneziyadagi Yava orolidan XIX asrning oxirlarida topilgan bo‘lib, fanda ularni “Pitekantrop” (“Maymun- odam”) deb atash rasm bo‘lgan. Pitekantroplar bundan taxminan 1 mln.-700-600 ming yil ilgari (E.Dyubua) yashaganlari aniqlangan. Shuningdek, 1927 yilda Xitoy hududlaridan topilgan (D.Blek) qadimgi odam qoldiqlari (“Sinantrop” - “Xitoy odami”) bundan 600-500 ming yil ilgarigi davrga oidligi

aniqlangan. Undan tashqari eng qadimgi qazilma odam qoldiqlari Germaniyaning Geydelberg, Vengriyaning Budapesht shahri yaqinidan ham topilgan.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda zinjantrop, pitekantrop, sinatroplar eng qadimgi odamlar shakllanib rivojlanishining turli tarixiy bosqichlaridir. Bu turdagi qadimgi odamlar gavdalarini tik tutib yurganlar va toshdan turli mehnat qurollarini yasab, ulardan foydalana bilganlar. Qurol yasay bilishi, o‘simlik ildizlari va mevalarni iste’mol qilishda shu qurollardan foydalanishi, shuningdek, ayrim hayvonlarni ovlashi qadimgi odamlarni hayvonot olamidan ajratib turgan.

Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, “Arxantrop”lar (qadimgi odamlar) eng qadimgi odamlardan farqlanib, ular zamonamizdan 100-50 ming yil keyin yashaganlar. Qadimgi odamlarning qazilma qoldiqlari dastavval Germaniyaning Neandertal vodiysidan topilganligi sababli fanda ularni “Neandertal odami” deb nomlash qabul qilingan.

Eng qadimgi odamlar o‘zlarining rivojlanish bosqichlarida mehnat qurollarining turlarini ko‘paytirib va sifatini yaxshilab borganlar. Natijada ularning turmush tarzida, jismoniy ko‘rinishida o‘zgarishlar bo‘lib borgan. Shuningdek, miya hajmi ham o‘zgarib borgan. O‘rta tosh asridagi turli sabablarga ko‘ra, birinchi navbatda tinimsiz mehnat jarayonida inson tafakkurining rivojlanishi natijasida neandertal qiyofasidagi odamlar hozirgi qiyofali odamlarga aylana bordilar. Ular jismoniy va aqliy jihatdan kamol topib, hozirgi qiyofadagi kishilar vujudga keldi va shu bilan antropogenez jarayoni nihoyasiga yetdi. Odamning paydo bo‘lishi yerdagi eng buyuk hodisalardan biri bo‘lib, u dastlab toshdan oddiy to‘qmoq yasagan bo‘lsa, uzluksiz mehnat, tinimsiz intilish natijasida yuksak madaniyat yaratish darajasiga yetib keldi.

Antropogenez jarayonida **mehnatning o‘zgartiruvchanlik mohiyatini** arxeologiyaga oid turli-tuman manbalar tasdiqlaydi. Turli davrlarga oid moddiy madaniyatning almashishi hamda yangi asoslarda rivojlanishi moddiy manbalarning tashqi ko‘rinishidan ham aniqlanadi. Ko‘p ming yillar davomida rivojlangan tarixiy jarayonlar - odam va jamiyat taraqqiyotida asosiy, bosh mezon **mehnat** ekanligidan dalolat beradi.

Hozirgi davrda olimlarning katta guruhi odamzotning dastlabki vatani Afrika degan fikrni ilgari sursa, yana bir guruh olimlar Yevropa deydilar. Boshqa bir guruh olimlar esa odam dastavval Osiyoning janubida paydo bo‘lgan degan g‘oyani ilgari suradilar.

Yaqin yillarga qadar O‘zbekiston hududlari eng qadimgi odamlar tomonidan 100 ming yillar ilgari o‘zlashtirilgan deb hisoblanib kelinar edi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar O‘rta Osiyo paleoliti haqidagi bahslarda bu jarayonni asosan Yevropa paleoliti bilan bog‘lab kelar edilar. Ammo so‘nggi yillarda O‘zbekiston arxeologlari tomonidan olib borilgan ko‘pgina tadqiqotlar bu masalaga ancha oydinlik kiritdi.

O‘tgan asrning 80-yillarida arxeolog O‘.Islomov boshchiligidagi tadqiqotchilar Farg‘ona vodiysidagi **Selung‘ur** (So‘x tumani) g‘oridan paleolit davri makonini ochishga muvaffaq bo‘ldilar. So‘nggi tadqiqotlar natijalariga qaraganda Selungur **ilk paleolit davriga** oid bo‘lib, o‘n uchta madaniy qatlamdan iborat. Bu qatlamlardan juda ko‘plab ibtidoiy tosh qurollar topilgan. Bu qurollar ko‘p hollarda Olduvoy qurollariga o‘xshab ketadi. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, Selungur topilmalarining yoshi **1 mln. yildan** ziyodroqdir. Selungur topilmalari orasidan eng ahamiyatlisi qadimgi odam jag‘ suyaklari, tishlari va yelka suyaklaridir. Fanda “Farg‘ona odami”-”Fergantrop” deb nomlangan bu qazilma odam qoldiqlari eng qadimgi odam haqidagi tasavvurlarimizni yanada kengaytirish bilan birga O‘rta Osiyo, xususan O‘zbekistonning insoniyat paydo bo‘lib rivojlangan o‘choqlardan biri ekanligini uzil-kesil isbotlaydi.

Undan tashqari Ko‘lbuloq makonidan (Shimoli-sharqiy O‘zbekiston, Toshkent vil.) ham ko‘p qatlamli yodgorlik ochilgan bo‘lib, uning eng pastki qatlamlari ilk paleolit davriga oiddir. Shuningdek, Qizilolmasoy va Toshsoy (Ohangaron) makonlaridan ham ilk paleolit qatlamlari ochilgan hamda bu yerdan 100dan ziyod chopper, nukleus, qirg‘ich va tarashlag‘ich tosh qurollar topilgan.

Tadqiqotchilar Tyanshan etaklaridagi Onarcha (Qirg‘iziston) makonidan hamda Pomir etaklaridagi Qoratov (Janubiy Tojikiston) makonlaridan ham ilk paleolit davri qatlamlarini aniqlab bu qatlamlardan juda ko‘plab tosh qurollar topganlar.

Ilk paleolit (Ashel madaniyati) davri eng qadimgi odamlarning makonlaridagi topilmalarida sodda va qo‘pol tosh qurollar ko‘pchilikni tashkil etadi. Bu davr kishilarining qurollari o‘zining soddaligi, qo‘polligi, turlarining kamligi jihatdan keyingi davrlardan keskin farqlanadi. Ilk paleolit davri odamlari jismoniy jihatdan ham, aqliy jihatdan ham hozirgi qiyofadagi aql-idrokli odamlardan ajralib turadilar. Ular asosan termachilik va ovchilik bilan tirikchilik o‘tkazganlar hamda tabiat oldida juda ojiz bo‘lib, unda mavjud bo‘lgan tayyor mahsulotlarni o‘zlashtirib yashaganlar. Ular na diniy tushunchani, na hunarmandchilikni va na chorvachilikni bilganlar.

O‘rta paleolit (Mustye madaniyati) - qadimgi tosh asrining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. Bu davrga oid dastlabki yodgorlik **Teshiktosh** (Surxondaryo) g‘or makoni 1938-yilda A.Okladnikov tomonidan ochilgan edi. Keyinchalik O‘rta Osiyo hududlarida tadqiqotchilar tomonidan o‘rta paleolit davriga oid ko‘plab makonlar aniqlandi va ularda tadqiqot ishlari olib borildi. Omonqo‘ton (Taxtaqoracha dovoni, Samarqand), Qo‘tirbuloq va Zirabuloq (Zarafshon vodiysi), Qorabura (Vaxsh vohasi), Jarqo‘rg‘on (Shimoliy Tojikiston), Obirahmat (Toshkent viloyati), Ko‘lbuloqning yuqori qatlamlari (Toshkent viloyati), Qizilnur (Qizilqum), Tossor (Qirg‘iziston), Og‘zikichik (Tojikiston), Xo‘jakent (Toshkent viloyati), Qopchig‘ay (Qirg‘iziston) kabi ko‘plab makonlar o‘rta paleolit davriga oid bo‘lib, ularning jami 300 ga yaqinlashib qoladi. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, O‘rta Osiyo hududlarida o‘rta paleolit nisbiy tarzda mil. avv. 100-40 ming yilliklarni o‘z ichiga oladi.

Surxon vohasidagi (Boysuntog‘) Teshiktosh g‘or-makoni topilmalari nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo arxeologiya fanida mashhurdir. O‘rta paleolit davriga mansub bu g‘or-makon shimoli sharqqa qaragan bo‘lib, kengligi 20 m, balandligi 9 m, chuqurligi 21 m. Tadqiqotlar natijasida g‘or-makondan beshta madaniy qatlam aniqlanib, bu qatlamlardan 3000 ga yaqin tosh qurollar topilgan. Undan tashqari turli hayvonlar: qoplon, yovvoyi ot, eshak, quyon va turli qushlarning suyak qoldiqlari aniqlangan. Tosh qurollar orasida qirg‘ich-tarashlag‘ichlar alohida o‘rin egallab, ularning ba’zilari kesgich qurol vazifasida ishlatilgan bo‘lishi ham mumkin.

Eng muhimi shundaki, Teshiktosh g‘or-makonining yuqori qatlamlaridan 9 yashar bolaning skelet suyaklari topilgan. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, bu bola neandertal tipidagi qadimgi odam vakilidir. Bu bola dafn etilganda ibtidoiy dafn marosimlariga amal qilinib, jasad atrofiga tog‘ echkisi shoxlari qadab qo‘yilgan. Shuningdek, g‘or-makondan gulxan izlari va kul qoldiqlari topilib, gulxan o‘rni va atroflaridan tog‘ echkisi suyak qoldiqlari aniqlangan Teshiktosh odami O‘rta Osiyodagi neandertal qiyofadagi qadimgi odamlarning yagona vakili bo‘lib, bu hududlardan hozirgacha boshqa topilmagan.

Toshkent viloyatidagi **Obirahmat** makoni Tyanshan-Chotqol tizmasidagi Paltov soyining yuqori oqimidan topilgan. G‘or-makon yoysimon shaklda bo‘lib, janubga qaragan, sahni keng, quruq va yorug‘. G‘orda 10 metr qalinlikdagi 21ta madaniy qatlam aniqlangan bo‘lib,

ushbu qatlamlar qadimgi odamlar bu yerda uzoq vaqt yashaganlaridan dalolat beradi. Madaniy qatlamlardan ohak toshli chaqmoq toshdan yasalgan xilma-xil mehnat qurollari, jumladan, nukleuslar, parrakchalar, o‘tkir uchli sixchalar, qirg‘ichlar va kurakchalar, uchrindidan tayyorlangan kesgichlar topilgan bo‘lib, ularning umumiy soni 30 mingdan oshadi. Shuningdek, Obirahmatdan hayvon suyaklaridan yasalgan bigizlar hamda bug‘u, tog‘ echkisi, to‘ng‘iz, jayron, arxar va boshqa hayvonlarning suyaklari, gulxan, kul, ko‘mir va boshqa narsalar qoldiqlari ham topilgan. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, Obirahmatda qadimgi odamlar miloddan 120-40 ming yil ilgari yashab terib-termachilik va yovvoyi hayvonlarni ovlab tirikchilik qilganlar.

Topilmalari bilan mashhur bo‘lgan **Qo‘tirbuloq** makoni Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on hududlaridan topilgan. Tadqiqotlar natijasida makondan 5 ta madaniy qatlam aniqlangan. Qatlamlarning qalinligi har xil bo‘lib, ulardagi topilmalar ham bir xilda tarqalmagan. Bu qatlamlarda o‘tkir uchli poykonlar, qirg‘ichlar, teshgichlar, ikki tomoniga ishlov berilgan bargsimon qurollar va boshqa turli-tuman tosh qurollar topilgan. Shuningdek, ko‘plab yovvoyi hayvonlar - fil, bug‘u, yovvoyi ot, quyon kabilarning suyaklari aniqlangan. Qo‘tirbuloqda yashagan qadimgi odamlar mevalar va o‘simlik ildizlari hamda yovvoyi hayvonlarni ovlab turmush tarzi yuritganlar.

O‘rta paleolit davriga kelib qadimgi odamlar O‘rta Osiyoning keng hududlariga tarqala boshlaydilar. Bu davrda, ayniqsa uning so‘nggi bosqichida qadimgi odamlarning turmush tarzida va mehnat qurollarida yangi unsurlar paydo bo‘ladi. Qurollarning turlari ko‘payadi. Ayniqsa, ovchilik bilan bog‘liq bo‘lgan nayzasimon o‘tkir paykonlar, turli pichoqlar, qirg‘ichlar, kesgichlar shular jumlasidandir. Bu davrning ijtimoiy hayotdagi eng muhim xususiyati shundaki, bu davrda ibtidoiy to‘dadan **urug‘chilik jamoasiga** o‘tila boshlandi. Hozirgi zamon odamlariga o‘xshash odamlar (kromanyon) paydo bo‘lishi uchun zamin hozirlandi.

Bu shart-sharoitlarning negizida mehnat qilish bilan bevosita bog‘liq mehnat qurollarining takomillashuvi va shu asosda o‘sha davr kishilarining xo‘jalik hayotidagi dastlabki olg‘a siljishlar yotadi. Demak, bu davr - ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan qurollar takomillashayotgan, nutq madaniyati o‘sib borib, fikrlash nisbatan ancha oshgan, olov sun’iy tarzda yaratila boshlangan, ovchilik ancha rivojlanib, keng hududlarga tarqalgan davr edi.

O‘rta paleolit davri O‘rta Osiyo hududlarida tabiiy iqlim o‘ziga xos bo‘lib, yozda ob-havo iliq va quruq, qishda esa sovuq va namgarchilik bo‘lgan. Bu davrning o‘rtalari va oxirlariga kelib shimoldan ulkan muzlikning siljib kelishi natijasida iqlim tamoman o‘zgaradi. Natijada qadimgi odamlar turmush tarzida katta o‘zgarishlar bo‘lib o‘tdi. Sovuq iqlim tufayli odamlar ko‘proq g‘orlarga joylasha boshlaydilar. Janubdagi kichik tuyoqli issiqsevar hayvonlar qirilib ketib shimol bug‘ulari, mamontlar, ulkan ayiqlar paydo bo‘ladi. Ulkan hayvonlarning paydo bo‘lishi esa o‘z navbatida jamoa bo‘lib ovchilik qilishning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Undan tashqari sovuq iqlim tufayli o‘rta paleolit davri odamlari **olovni kashf etdilar** hamda sun’iy olov chiqarish va uni saqlashni o‘zlashtirdilar. G‘or va ungurlarni o‘zlashtirish, o‘choq yasab uning atrofida to‘planish va nihoyat jamoa bo‘lib ov qilish uslublarining paydo bo‘lishi mintaqamizdagi qadimgi odamlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

So‘nggi paleolit uzoq davom etgan qadimgi tosh asrining oxirgi bosqichi bo‘lib, nisbiy tarzda mil. avv. 40-12 ming yilliklarni o‘z ichiga oladi. Bu davr yodgorliklari mustye madaniyati yodgorliklari madaniyatiga nisbatan kamroq o‘rganilgan. Hozirgi kunga qadar O‘rta Osiyoda bu davrga oid 30 dan ziyod makonlar ochilgan. Samarqand (shaharning o‘zida), Xo‘jag‘or (Farg‘ona vodiysi), Shug‘nov (Pomir etaklari), Ko‘lbuloq (Toshkent viloyati), Qorakamar (Tojikiston), Achisay (Qozog‘iston) yodgorliklari shular jumlasidandir.

Toshkent viloyatida (Ohangaron) joylashgan **Ko‘lbuloq** makonining eng tepadagi uchta qatlami so‘nggi paleolit davriga oiddir. Bu qatlamlardan nisbatan takomillashgan tosh qurollar hamda ko‘plab hayvon suyaklari topilgan. Shuningdek, so‘nggi yillarda Toshkentning g‘arbidagi Bo‘zsuv I makoni ham so‘nggi paleolit davriga oid ekanligi aniqlangan.

Samarqand shahrida 1939-yilda ochilgan yodgorlik mintaqadagi so‘nggi paleolit davriga oid dastlabki makon hisoblanadi. **Samarqand** makoni ko‘p qatlamli bo‘lib bu qatlamlardan ko‘p sonli (7,5 ming) xilma-xil topilmalar topilgan. Ular orasida qirg‘ichlar, kesgichlar, sixchalar, pichoqlar, ushatgichlar, boltalar kabilar bor. Shuningdek, madaniy qatlamlardan gulxan qoldig‘i, ko‘mir parchalari va gulxan atrofidan hayvonlar hamda o‘simliklar qoldiqlari aniqlangan. Bu topilmalar bu yerda yashagan kishilarning ovchilik va termachilik bilan shug‘ullanganliklaridan dalolat beradi.

Umuman olganda, koʻpchilik tadqiqotchilar Oʻrta Osiyo soʻnggi paleolit davrini asosan uchta - Samarqand, Xoʻjagʻor va Koʻlbuloq madaniyatlariga ajratadilar. Bu davrga oid madaniyatlardan faqat Samarqand shahridan soʻnggi paleolit davri odamining qoldiqlari, ya'ni, yelka suyak qismlari, pastki jagʻ va tishlar topilgan boʻlib, tadqiqotchilar bu suyaklarni 25-30 yoshli kromanyon qiyofali ayolga tegishli boʻlgan deb hisoblaydilar.

Soʻnggi paleolit davriga kelib odamlarning hayoti va turmush tarzida ham turli oʻzgarishlar boʻlib oʻtadi. Xususan, odamlar gʻorlardan chiqib yengil turar joylar, chayla va yarim yertoʻlalarda yashay boshladilar. Ular endi faqat togʻli hududlarda yashab qolmay vohalar boʻylab tarqalib, tekisliklarda, daryo va koʻllar boʻylarida joylashadilar hamda qarindosh-urugʻchilik jamoalariga boʻlinadilar. Natijada jamiyatda juft oilalar paydo boʻladi hamda ular ayrim urugʻlarni birlashtirib **urugʻ jamoasini** tashkil etadilar.

Urugʻchilik (matriarxat) qadimgi jamiyat tarixining alohida bosqichini tashkil etib, bu jarayon ijtimoiy hayotdagi qator oʻzgarishlarning paydo boʻlishiga zamin yaratdi. Lekin dastlabki urugʻchilik tuzumi nisbatan rivojlanishning yuqori bosqichiga koʻtarilgan boʻlishiga qaramay, bu davr odamlari ovchilik, termachilik va baliqchilik bilan kun kechirar edilar.

Paleolit davriga xulosa yasab, shuni aytish mumkinki, bu davrda **odamning paydo boʻlishi jarayoni (antropogenez)** asosan tugadi. Qadimgi odamlar xoʻjalik yuritishning eng oddiy yoʻllaridan (terib-termachlab) murakkabroq koʻrinishlariga (ovchilik, baliqchilik)ga oʻtdilar. Olov kashf etildi. Insoniyat toʻda davridan urugʻchilik tuzumiga oʻtdi. Mehnat qurollari takomillashib, ularning turlari koʻpaydi va sifati yaxshilanib bordi.

Bu davrda qadimgi odamlar orasida dastlabki diniy qarashlar paydo boʻldi. Teshiktoshda murdani maxsus qabr qazib koʻmilishi, uning yoniga togʻ echkisining shoxlari va tosh qurollar qoʻyilishi mutlaqo tasodifiy hol emas edi. Bu jarayon paleolit davri neandertal odamlari garchi sodda boʻlsada, koʻmish marosimlariga rioya qilganliklaridan dalolat beradi.

Mil. avv. XII-IV ming yilliklarda Oʻrta Osiyo

Tosh asrining keyingi rivojlanish davri fanda **mezolit (oʻrta tosh) asri** deb qabul qilingan. Oʻrta Osiyoda mezolit davri nisbiy tarzda mil. avv. 12-7 ming yilliklar deb qabul qilingan. Mezolit-odamlarning yer yuzi

bo‘ylab keng tarqalish davri bo‘lib, ular shimol tomonga ham, Pomir kabi baland tog‘li hududlarga ham tarqala boshlaydilar. Kaspiy bo‘ylaridan Tyanshan -Pomirgacha, Markaziy Qozog‘istondan Kopettog‘ etaklarigacha bo‘lgan hududlardan mezolit davri yodgorliklarining namunalari topib o‘rganilgan. Machay (Surxondaryo), Obishir (Farg‘ona vodiysi), Markaziy Farg‘ona, Bo‘zsuv, Qo‘shilish (Toshkent), Aydabol, Jayronquduq (Ustyurt), Oshxona, Chilchorchashma (Tojikiston), Darayi sho‘r (Vaxsh vohasi) kabilar shular jumlasidandir.

Mezolit davriga kelib yer yuzidagi ulkan muzlikning yana shimolga tomon siljishi natijasida iqlim barqarorlashib hozirgi davrdagiga ancha o‘xshab qolgan edi. Buning natijasida O‘rta Osiyo hayvonot olami va o‘simliklar dunyosida ancha o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Paleolit davrining yirik hayvonlari yo‘qola borib ular o‘rniga kichik tuyoqli, tez yuguruvchan hayvonlar - jayron, sayg‘oq, bug‘ular, tog‘ echkisi, arslon, yo‘lbars, qoplon, quyon kabilar ko‘paya boradi. Shuningdek, janubga xos issiqsevar yovvoyi boshoqli o‘simlik va daraxtlar ham tobora ko‘payib bordi. Tabiat va iqlimdagi bu o‘zgarishlar mezolit davri kishilarining hayotida ham o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Bu davrga kelib kishilar nisbatan nozikroq qurollar tayyorlashni o‘zlashtira boshladilar. Xususan, janubiy o‘lkalarda, shuningdek, O‘rta Osiyoda turli geometrik shakldagi mayda qurolchalar-mikrolitlar paydo bo‘lib, ular uchun suyak va yog‘och dastachalardan qadama sifatida foydalanilgan. Undan tashqari, bu davrda insoniyat o‘z tarixidagi dastlabki murakkab moslama - **o‘q-yoyni kashf etdi.** Natijada chopqir, kichik tuyoqli hayvonlar va parrandalarni ov qilish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Bu davrning eng katta yutuqlaridan yana biri yovvoyi hayvonlar -it, qo‘y, echki kabilarning qo‘lga o‘rgatila boshlanib, **xonakilashtirilishidir.** Arxeologik tadqiqotlar natijalariga qaraganda, mezolit davriga kelib Old, Yaqin va O‘rta Osiyoning ba’zi joylarida termachilikdan yovvoyi o‘simliklarni xonakilashtirishga hamda ovchilikdan chorvachilikka o‘tish boshlanadi. Bu jarayon ilg‘or, unumdor ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va tabiiy-geografik iqlim bilan bevosita bog‘liq edi.

Mezolit davrining mashhur yodgorliklaridan biri Surxon vohasidagi **Machay** (Boysun) g‘or makonidir. Daryo sathidan 70 metrcha balandlikda joylashgan bu makon ko‘p qatlamli bo‘lib, ushbu qatlamlardan ko‘plab suyak va asosan tosh qurollar topilgan. Suyak qurollar bigiz, igna, so‘zan kabilardan iborat bo‘lsa, tosh qurollar -

pichoqlar, arrasimon qurollar, kesgichlar, ushlatgich toshlar, nayza va o‘q uchlari kabilardir. Bu qurollarning o‘ziga xos belgilari mavjud bo‘lsa ham Janubiy Qozog‘iston va Yaqin Sharqdagi mezolit yodgorliklaridan topilgan tosh qurollarga o‘xshab ketadi.

Machay makoni topilmalarining eng ahamiyatli tomoni shundaki, bu yerdan antropologik topilmalar - odam bosh suyaklari, tishi, jag‘i va boshqa a’zolari qoldiqlari topilgan bo‘lib, bu topilmalarni o‘rganish tadqiqotchilarga O‘rta Osiyoning janubi mezolit davri kishilarining yevropoid irqiga mansub ekanligini aniqlash imkonini berdi.

Odam suyaklaridan tashqari Machayning madaniy qatlamlaridan bo‘ri, tulki, bars, mo‘ynali suvsar, quyon, jayra, olmaxon kabi hayvonlarning ham suyak qoldiqlari topilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, bu yerda 20 turdan ziyod hayvon suyaklari mavjud bo‘lib, ularning aksariyati mayda, sindirilgan va olovda kuydirilgan. Demak, machaylik mezolit davri odamlari olovdan keng foydalanganlar hamda hayvon va parranda go‘shtlarini olovda pishirib yeganlar.

Farg‘ona vodiysidan mezolit davriga oid **Obishir** g‘or-makonidan tosh qurollar, bigizlar, qirg‘ichlar, pichoq qadamalari topilgan. Shuningdek, topilmalar orasida yovvoyi hayvonlarning maydalangan va sindirilgan suyaklari, baliq tutishda ishlatiladigan qadoq toshlar ham bor. Topilgan ashyolarga asoslanib, obishirliklar baliqchilik, ovchilik va termachilik bilan shug‘ullangan deyishimiz mumkin.

Keyingi 30-35 yil ichida Markaziy Farg‘ona hududlaridan Sho‘rko‘l, Achchiqko‘l, Yangiqadam, Bekobod, Zambar, Toypoqko‘l kabi 80ga yaqin mezolit davri yodgorliklari aniqlandi. Ularning ko‘pchiligi ko‘l yoqalaridan topilgan bo‘lib aftidan bu joylar mezolit davri kishilarining yashashlari uchun ko‘pgina qulayliklarga ega bo‘lgan. Bu yerlardan topilgan ko‘pgina qurol va tosh buyumlar o‘zining nisbatan nozikligi, ixchamligi bilan paleolit davri qurollaridan ajralib turadi. Markaziy Farg‘ona tog‘lari orasida yashagan mezolit davri qabilalarining turmush tarzi yovvoyi hayvonlarni ovlash va termachilik bilan bog‘liq bo‘lib, Markaziy Farg‘onadagi mezolit davri qabilalari xo‘jalik hayotida ovchilik, termachilik hamda baliqchilik qulay tabiiy-geografik sharoiti mazkur hududlarda qadimgi odamlarning keng tarqalib yashashlari uchun keng imkoniyat yaratgan.

O‘rta Osiyo tarixida **neolit davrining** (yangi tosh asri) yuqori chegarasi mil.avv.VI-quyi chegarasi IV-III ming yilliklar bilan belgilanadi. Bu davr O‘rta Osiyoda uchta: Joytun, Kaltaminor va Hisor madaniyatlarining rivojlanishi bilan izohlanadi. Neolit davri qabilalari

aksariyat hollarda daryo sohillari va tarmoqlari yoqasida, ko‘l bo‘ylarida yashab, tabiiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda baliqchilik va ovchilik yoki dehqonchilik va chorvachilik, ayni vaqtda qisman hunarmandchilik bilan shug‘ullanganlar. Neolit davri turli sharoitlarda yashagan odamlarning mehnat qurollari mezolit davridagiga nisbatan takomillasha borgan.

Joytun madaniyati Janubiy Turkmanistonda, Ashgabat shahridan 25 km shimoldagi Joytun manzilgohidan topilgan bo‘lib, bu madaniyat qoldiqlari nafaqat Turkmaniston, balki butun O‘rta Osiyoda mashhurdir. Joytun qishlog‘i bir necha uylardan tashkil topgan bo‘lib, uylarning maydoni 12-14 kv.m dan iborat. Uy devorlari somon aralashtirilgan paxsadan qurilgan. Uylar to‘g‘ri to‘rtburchak bo‘lib, bir xonalik va har bir xonada alohida o‘choq izlari topilgan. Uylar yonida esa omborxona, saroy va xo‘jalik o‘ralari ham bor. Tadqiqotchilar fikrlariga qaraganda Joytunda 30 ga yaqin uy bo‘lib unda 130-150 kishi yashagan, 5-6 kishilik oila yashagan uylarda ona urug‘i hukmron bo‘lgan.

Uylardan ayollarning loy va toshdan yasalgan haykalchalari, shuningdek, har xil taqinchoq va bezaklar topilgan. Joytun xarobalaridan bug‘doy, arpa izlari, yorma tosh, tosh boltalar, parrakchalar, qurol sifatida ishlatiladigan o‘tkir uchli toshlar, teshgich parchalar, qirg‘ichlar, kamon o‘qlarining uchlari-poykonlar topilgan.

Joytun makonidan qo‘lda ishlangan sopol idishlar namunalari ham topilgan bo‘lib, ular O‘rta Osiyodagi dastlabki sopol namunalaridir. Joytun qishlog‘i aholisi mil. avv. VI-V ming yilliklarda yashab asosan dehqonchilik, chorvachilik, qisman esa ovchilik bilan shug‘ullanganlar. Joytunda O‘rta Osiyodagi dastlabki dehqonchilik madaniyati rivojlanadi va bu makon hozircha mintaqadagi dastlabki dehqonchilik qishlog‘i hisoblanadi. Joytunlar sun’iy ariq va kanallar qazib sug‘orma dehqonchilikka asos solganlar. Umuman olganda Kopetdog‘ bilan Qoraqum oralig‘idagi hududlardan ko‘plab neolit davri makonlari ochilgan. Bu makonlardagi xo‘jalik ishlab chiqarishi va madaniyati bir-biriga juda o‘xshashligi sababli ularni fanda Joytun madaniyati (dastlabki topilgan joy nomi bilan) deb atash qabul qilingan.

Kaltaminor madaniyatiga oid makonlar dastlab Amudaryo etaklari va Xorazm hududidan topilgan bo‘lib bular orasida Xorazmdagi Jonbosqal’a makoni diqqatga sazovordir. Bu yerni qazish paytida chayla va yarim yerto‘la shaklidagi makon ochilgan. Bu makon yog‘och ustun, sinchlar bilan ko‘tarilgan. Ustiga ko‘ndalang yog‘ochlar tashlanib, usti qamish bilan berkitilgan. Chayla o‘rtasidan katta markaziy o‘choq

qoldig‘i, atrofida mayda o‘choq qoldiqlari aniqlangan. Makondan nayza poykonlar, kamon o‘qlarining uchlari va boshqa tosh qurollar topilgan. Shuningdek, madaniy qatlamlardan baliq, yovvoyi cho‘chqa, qirg‘ovul suyaklari va jiyda danaklari ham topilgan. Topilmalar orasida sopol idish namunalari ham bo‘lib, tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda ular mil. avv. V-IV ming yilliklarga oiddir.

Kaltaminor madaniyatiga oid yodgorliklar Zarafshon etaklaridagi Darvozaqir makonidan ham topib o‘rganilgan. Bu yerdan topilgan sopol idish namunalari Jonbosqal’a sopollariga juda o‘xshashdir. Quyi Zarafshon va Qashqadaryo etaklaridagi Darvozaqir, Katta va Kichik Tuzkon, Qorong‘isho‘r, Poykent makonlaridan topilgan tosh qurollar va sopol buyumlar hamda boshqa ashyolarni o‘rganish, tahlil etish, Yaqin Sharq, Qozog‘iston, Ural va boshqa joylardan topilgan neolit davri ashyolari bilan qiyoslash natijasida tadqiqotchilar yuqorida eslatilgan makonlar Kaltaminor madaniyatiga mansub bo‘lib mil. avv. IV-III ming yilliklarga oid degan xulosaga keldilar. Bu makonlarda yashagan neolit davri odamlari termachilik, jayron, yovvoyi cho‘chqa, bug‘u va boshqa hayvonlar hamda baliq ovlab kun kechirishgan.

So‘nggi yillarda O‘rta Osiyoning sharqiy hududlaridan, Hisor-Pomir tog‘laridan ko‘plab neolit davri yodgorliklari ochildi va o‘rganildi. Bu o‘ziga xos madaniyat fanda **Hisor madaniyati** degan nom oldi. Asosan tog‘oldi va tog‘liklarga xos bo‘lgan Hisor madaniyatiga mansub yodgorliklar 200 dan ziyod bo‘lib Tutqovul, Soysayyod, Quyi Bulyon, Darayi Sho‘r, Gaziyontepa kabilar shular jumlasidandir. Hisor madaniyatiga mansub yodgorliklar asosan mil. avv. V-III ming yilliklarga oiddir.

Hisor madaniyati sohiblari sopol idishlar yasab, asosan chorvachilik, ovchilik, qisman termachilik bilan shug‘ullanganlar. Hisor makonlaridan topilgan turli-tuman topilmalar ushbu jarayonlardan dalolat beradi.

Demak, O‘rta Osiyoning barcha hududlaridan-shimoldagi Ustyurtdan, Markaziy va Janubiy Qozig‘istondan, Qizilqum va Qoraqumdan, Qashqadaryo va Zarafshon vohalari, Toshkent vohasi va Farg‘ona vodiysidan ko‘plab neolit davri makonlari ochilgan. Xususan, neolit davri **Markaziy Farg‘ona madaniyati** fanda O‘rta Osiyoda to‘rtinchi neolit davri madaniyati deb kiritilgan.

Ushbu makonlarda olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, neolit davriga kelib, mezolitning so‘nggi bosqichlarida kashf etilgan tosh boltalar ancha keng tarqaladi. Parrakchalar, nayza va kamon

o‘qlarining uchlari, pichoqlar, teshgichlar, parmalar, qirg‘ichlar, yorma toshlar, o‘roq va boshqa qurollar takomillashadi. Eng qadimgi davrning dastlabki davrida qo‘lga kiritilgan barcha yutuqlar bu davrga kelib yakunlanadi. Neolit davri odamlari o‘zlarining tinimsiz mehnati, kuzatuvchanlik qobiliyati, ibtidoiy bilimlarini safarbar qilib, xo‘jalikning ilg‘or, unumdor shaklini - dehqonchilik va chorvachilikni kashf etdilar. Geografik muhit va shart-sharoitning turli tumanligi bu davr qabilalarida mehnat qurollari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, turar-joylar va xo‘jaliklarning turlicha bo‘lishiga olib keldi. Xususan, O‘rta Osiyoning janubidagi neolit davri-qabilalari xo‘jalikning dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik shakllarini rivojlantirgan bo‘lsa, shimoldagi qabilalar esa tabiiy sharoitning noqulayligi tufayli uzoq vaqt rivojlanishdan orqada qolgan.

Neolit davrida qadimgi ajdodlarimiz loydan idishlar yasab ularni olovda pishirish yo‘li bilan kulolchilikka asos soldilar. Shuningdek, ip yigirish asosida to‘qimachilikni kashf etdilar. Odamlar yog‘och va qamishdan qayiq yasab (qayiqsozlik) suvda suzishni ham o‘zlashtirdilar. Xullas, neolit davri yutuqlarga boy bo‘lib, o‘zidan ilgarigi davrlarga nisbatan yuksak rivojlanish davri bo‘ldi.

Tadqiqotlar natijalariga qaraganda tosh va bronza davrlari o‘rtasida **mis-tosh (eneolit)** davri bo‘lganligi aniqlangan. Bu davr metall qurollarning barchasi bronzadan qilinmay, sof misdan yasalganligi ma’lum. O‘rta Osiyoda eneolit davri nisbiy tarzda mil. avv. IV ming yillikning oxiri-III ming yillikning boshlarini o‘z ichiga oladi. Bu davrda mis o‘zining kimyoviy xossalari (tez eruvchanlik, egiluvchanlik) tufayli xo‘jalik hayotda ustunlik qila olmadi. Ishlab chiqarishda avvalgidek tosh qurollar asosiy o‘rinda bo‘lib qoldi. Shuning uchun ham bu davr mis-tosh asri deb yuritiladi.

Mezolit oxirida va neolit davrida terib-termachlab, ovqat topishdan yovvoyi o‘simliklarni ekish va o‘tkazish yo‘li bilan madaniylashtirish orqali vujudga kelgan dehqonchilik eneolit zamonida yuqori xo‘jalik turiga aylanib bordi. Dehqonchilik bilan uy chorvachiligi ortiqcha mahsulot yetishtirishga va mol ayirboshlashni tartibga solishga asos bo‘lgan. O‘rta Osiyo hududlarida quyidagi yangi tarixiy-madaniy jarayonlar eneolit davri bilan bog‘liqdir:

1. Xo‘jalikning boshqa hamma turlariga qaraganda haydama dehqonchilikning ustunlik qilishi;
2. Toshdan ishlangan qurollar ko‘p bo‘lgan holda mis qurollarning paydo bo‘lishi;

3. Katta-katta jamoalarning paxsadan va xom g‘ishtdan tiklangan katta-katta uylari;
4. Kulolchilikda muhim texnika yutug‘i - xumdonlarning ishlatilishi;
5. O‘troqchilik xo‘jaligining rivojlanishi, jamoa birlashmalarining uylari va qurilishida xom g‘ishtning paydo bo‘lishi;
6. Turli hayvonlarning loydan yasalgan va ona urug‘i tuzumiga (matriarxatga) xos haykalchalari;
7. Rangdor sopol buyumlar, ya’ni turli tasvirlar ishlangan sopol buyumlarning mavjudligi.

Eneolit davrida O‘rta Osiyo aholisining madaniyati bir bosqich yuqoriga ko‘tariladi. Lekin bu hududlardagi qabilalarning madaniy va ijtimoiy taraqqiyoti bir xil darajada emas edi.

Qadimgi qabilalar mis-tosh davriga o‘tgach, madaniy, xo‘jalik va ishlab chiqarish taraqqiyotining yangi bosqichi boshlanadi. Yangi xo‘jalik turlari - dehqonchilik va chorvachilik avvalgidek, Turkmanistonning janubi-g‘arbidagi qulay geografik sharoitda rivojlanadi. Bu paytda quyi Zarafshon va Amudaryo havzalarida yashovchi qabilalar hali madaniy o‘simliklar o‘stirishga o‘tmagan edilar. O‘rta Osiyoning sharqiy qismidagi tog‘li hududlar aholisi xo‘jaligida esa ovchilik ustun edi. Demak, ilk va rivojlangan mis-tosh davrida O‘rta Osiyo qabilalarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida katta farqlar va notekisliklar saqlanib qoladi.

Dasht va tog‘ hududlaridan topilgan xilma-xil moddiy manbalarni o‘rganish natijalari (sopol idishlar, tosh qurollar, hayvonlar va qushlar suyaklari) qabilalarning iqtisodiy hayotida qo‘shimcha xo‘jaliklar - ovchilik va baliqchilik asosiy manba bo‘lganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga dasht odamlari tarixida chorvachilikning ilk bosqichi boshlanadi deyish mumkin. Lekin neolit davri an’analari o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Aholining asosiy qismi daryolarning irmoqlari sohilida va ko‘llar atrofida yashagan. Tabiiy boyliklar eneolit davri odamlari uchun hayot manbai hisoblangan.

Eneolit davriga oid muhim yodgorliklar Janubiy Turkmanistondagi **Anov** va **Nomozgohtepa** hududlarida aniqlangan. Bu yerdagi uy-joylar xom g‘ishtdan qurilgan. Moddiy topilmalar orasida mis qurollar tosh qurollarga nisbatan kamchilikni tashkil etadi. Shuningdek, bu makonlardan topilgan guldor sopol buyumlar kulolchilikning ham ancha rivojlanganligidan dalolat beradi. Sirti qora bo‘yoqda geometrik chiziqlar va hayvon yoki qush rasmlari bilan bezatilgan bu topilmalar mil.avv. IV ming yillikka oiddir.

O‘zbekiston hududlarida eneolit davri yodgorliklari hozircha yaxshi o‘rganilmagan. Mil. avv. IV-III ming yillik boshlarida Amudaryo va Zarafshon quyi oqimlarida Kaltaminor madaniyati tosh qurollari, sopol idishlari va uy-joylari keng tarqalgan. O‘rta Osiyoning shimoli-sharq dashtlarida va Orol dengizi sohillarida ovchilik, baliqchilik va ilk chorvachilik xo‘jaliklari rivojlanadi. Buxoro vohasidagi **Lavlakon, Beshbuloq** makonlari va **Zamonbobo** qabristonining eng pastki qatlamlari eneolit davriga oiddir. Bu yodgorliklardan so‘nggi Kaltaminor topilmalariga o‘xshash sopol idishlar bo‘laklari va chaqmoqtosh bilan birga misdan yasalgan ignalar va munchoqlar topilgan.

Yuqori Zarafshonning Panjikent shahridan 15 km g‘arbda joylashgan **Sarazm** qishlog‘i xarobasi eneolit davri dehqonchilik qabilalarining O‘rta Osiyoni shimoli-sharqiga yoyilganidan dalolat berib, qadimgi dehqonchilik aholisining dehqonchilik chegaralarini ham ko‘rsatadi.

Umumiy maydoni 90 gektar bo‘lgan Sarazm qishlog‘i xarobalari 10ta tepalikda joylashib, 4ta davrga bo‘linadi. Ular topilmalarga qarab bir-biridan farq qiladi. Dastlabki ikki davr eneolit, keyingi ikki davr esa bronza davriga oiddir. Sarazmdan uy-joy va ro‘zg‘or-xo‘jalik inshootlari qoldiqlari ochib o‘rganilgan. Bu yerlardan sopol idishlar, metalldan va toshdan ishlangan qurollar, (jumladan, tosh ketmonlar) zeb-ziynat buyumlari ko‘plab topilgan.

Sarazm moddiy topilmalarida Janubiy Turkmaniston, Janubiy Afg‘oniston, Eron, Hindiston madaniyatlariga mansub buyumlar ham bor. Ular eneolit davri qabilalari o‘rtasidagi keng madaniy va iqtisodiy aloqalardan dalolat beradi.

Ibtidoiy tasviriy san’at. Bronza davri yutuqlari Yozuv haqida yangi ma’lumotlar

Dunyo tarixida ibtidoiy tasviriy san’at, xususan, g‘orlarning devorlariga turli tasvirlar tushirish so‘nggi paleolit davriga oiddir (Ispaniyadagi Altamir g‘ori). O‘rta Osiyoda ungurlar va qoyatoshlarga ishlangan rasmlar mezolit davrida paydo bo‘ladi. Neolit davriga kelib, bu san’at yangi asosda rivojlanish bosqichiga o‘tadi. Kaltaminor, Hisor, ayniqsa, Joytun madaniyatiga mansub yodgorliklardan ibtidoiy san’atning namunalari topilgan. O‘tmish tariximizning xilma-xil yodgorliklari orasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan va O‘rta Osiyoning tog‘lik tumanlarida keng tarqalgan qoyatosh rasmlari ishlanish usuliga ko‘ra ikki

xildir. Bir xillari bo‘yoq (oxra) bilan, ikkinchi xillari esa-urib-o‘yib ishqalash, chizish usuli bilan ishlangan rasmlar (petrogliflar) keng tarqalgan.

O‘lkamizdagi qoyatosh rasmlarning eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarmishsoy, Bironsoy, Ko‘ksaroy, Takatosh, Teraklisoy kabilar bo‘lib, ular yuzdan ziyoddir. Mazkur joylardagi qoyatoshlarda O‘zbekistonning qadimgi va hozirgi hayvonot olami vakillarining rasmlarini kuzatish mumkin. Ular buqalar, sherlar va yo‘lbarslar, qoplon, tulki va bo‘rilar, bug‘u va jayronlar kabilardir. Rasmlar orasida o‘q-yoy, qopqon kabi narsalar ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Mavjud qoyatosh rasmlari mazmunan boy va manzarasi jihatdan xilma-xildir. Unda odamlar, ov, yirtqich hayvonlar to‘qnashuvlari manzaralari tasvirlangan.

Respublikamizdagi eng qadimgi rasmlar **Zarautsoyda** bo‘lib (Surxondaryo), bu rasmlar mezolit-neolit, ya’ni, mil.avv. VIII-IV ming yilliklarga oiddir. Qoyatosh rasmlari orqali o‘sha davr odamlarining ov, mehnat va jangovar qurollarini bilib olishimiz mumkin. Shuningdek, qoyatosh rasmlar qadimgi avlodlarimizning g‘oyaviy qarashlari va diniy e’tiqodlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga egadir. Undan tashqari, qoyatosh suratlari mazmun va manzaralarining boyligi bilan ajralib turadi va ular keng tarqaladi. Ushbu suratlar ishlanish uslubi xilma-xil bo‘lib, arxeologik yodgorliklarning bir turi hisoblanadi. Ularning mazmun va manzarasi ma’nosidan kelib chiqib, ibtidoiy yoki qadimgi davr kishilarining xo‘jalik hayoti haqida, hayvonlarni ov qilish, qo‘lga o‘rgatish va xonakilashtirish, chorvachilikni paydo bo‘lishi haqida ma’lum tasavvurlarga ega bo‘lishimiz mumkin. Ayni paytda qoyatosh rasmlari o‘ziga xos san’at asari bo‘lib, ular orqali biz ibtidoiy va qadimgi odamlarning san’ati, estetik iste’dodi o‘sha davr nuqtai nazaridan yuqori darajada bo‘lganligini bilib olishimiz mumkin.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar fikriga qaraganda, bronzaning vatani Kichik Osiyo va Mesopotamiya bo‘lgan. Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Eronning janubi-g‘arbida mil avv. III- II ming yillikning boshlarida rivojlangan jamiyat keng ravnaq topadi. O‘rta Osiyoda **bronza davri** mil. avv. III ming yillikdan I ming yillikning boshlarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda bronza asri uchta katta xronologik davrga: ilk, rivojlangan va so‘nggi bronza davrlariga bo‘linadi. O‘rta Osiyoning shimoliy va sharqiy hududlarida mavjud bo‘lgan bronza davri yodgorliklari madaniyati janubiy hududlardagi o‘troq madaniyatdan ajralib turadi.

O‘zbekiston hududida bronza davrida asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullangan qabilalarning moddiy-madaniy yodgorliklari Xorazmda 50 dan ziyod ochilgan bo‘lib, **Tozabog‘yob madaniyati** nomi bilan mashhurdir. Bu madaniyatga mansub sopol buyumlar Qozog‘iston va Sibir hududlaridan topilgan sopol buyumlarga ancha o‘xshab ketsada, o‘ziga xos xususiyatlari bilan Sharqiy Yevropa chorvadorlari yaratgan bronza davri Yog‘ochband madaniyatidan, Qozog‘iston va Sibirdagi Andronovo madaniyatidan ham farq qiladi. Bunga asosiy sabab, tozabog‘yobliklar orasida dehqonchilik keng tarqalgan.

Tozabog‘yob madaniyatiga oid makonlarning ayrimlaridan qadimiy mozorlar (Ko‘kcha), ko‘pchiligidan esa yarim yerto‘la shaklidagi uy-joy qoldiqlari ochilgan. Ulardan zeb-ziynatlar, hayvon suyaklari, sopol idishlar, toshdan va bronzadan ishlangan qurollar topilgan. Tozabog‘yob sopol idishlari asosan qo‘lda ishlangan. Xorazmdagi so‘nggi bronza davriga oid yodgorliklar **Amirobod madaniyati** nomi bilan mashhur bo‘lib, mil. avv. IX-VIII asrlarga oiddir. Bu madaniyat sohiblari Tozabog‘yob madaniyati xususiyatlarini saqlab, yarim yerto‘la turar-joy, sug‘orish inshootlari izlari va qo‘lda yasalgan sopol idishlar bilan izohlanadi.

Quyi Zarafshonning bronza davri yodgorliklari **Zamonbobo madaniyati** nomi bilan ataladi. Bu davrga mansub yodgorliklar orasida Zamonbobo ko‘li yoqasidan topilgan qadimgi qabriston ayniqsa, diqqatga sazovordir. Qabrlar yakka va juft qabrlar bo‘lib, dafn etish jarayonida ko‘mish marosimlariga amal qilingan. Qazishmalar jarayonida erkaklar qabrlaridan o‘q-yoy poykonlari, pichoqlar, pichoqsimon tosh qurollar va turli shakldagi sopol idishlar, ayollar qabrlaridan sopol idishlar, bronza ko‘zgu, upadon, surmadon kabi pardoz buyumlari va yarim qimmatbaho toshlardan turli shaklda ishlangan munchoq va marjonlar topilgan.

Zamonboboliklar chaylasimon kulbalarda istiqomat qilib, dehqonchilik va xonaki chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. Topilgan ko‘plab mehnat qurollari, boshoqli o‘simliklar qoldiqlari va hayvonlar suyaklari shundan dalolat beradi. Shuningdek, zamonboboliklar jamoasida hunarmandchilikning turli tarmoqlari, xususan, kulolchilik, bronzani eritib undan har xil ashyolar yasash, ayniqsa toshni ishlash texnikasi ancha rivojlangan.

Zamonbobo madaniyati janubdagi o‘troq dehqonchilik jamoalari ta’sirida shakllangan. Bu madaniyat xonaki chorvachilik va motiga (ketmoncha) dehqonchiligi bilan kun kechirgan Buxoroning tub aholisiga

mansubdir. Bronza davrida Buxoro vohasining daryo adoqlarida endigina dehqonchilik va xonaki chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi ilk qishloqlar paydo bo‘lib, ular yarim yerto‘la va shox-shabba yengil chaylalardan iborat turar joylardan tashkil topgan. Bularda uy hunarmandchiligining misgarlik, toshtaroshlik, to‘qimachilik kabi turlari mavjud bo‘lsada, ammo hali ular kasb-hunarning rivoj topgan darajasiga yetib bormagan edi.

O‘zbekistonning janubidagi bronza davri yodgorliklari qadimgi sug‘orish hududlari - Ulonbuloqsoy, Sherobod, Bandixon va Mirshodida topib tekshirilgan. Ular **Sopolli madaniyati** nomi bilan mashhurdir.

Sopollitepa markazidan to‘rtburchakli istehkom, istehkom ichida turar-joylar va xo‘jalik xonalari, hunarmandchilik ustaxonalari uchta madaniy qatlamdan iborat ekanligi aniqlangan. Sopollida qurilish, hunarmandchilik va iqtisodiy munosabatlar ancha rivoj topgan. O‘choqlar turar joy xonalari ichidagi devor ichiga o‘rnatilgan. Asosiy qurilish ashyosi paxsa va xom g‘ishtdir.

Sopollitepadagi turar-joylar tagidan bronza davri qabristoni ochilgan. Ko‘pchilik qabrlar yakka qabrlar bo‘lib, jamoa qabrlari ham uchraydi. Ayollar qabrlarida asosan sopol va bezaklar topilgan bo‘lsa, erkaklar qabrlaridan asosan sopol, mehnat va jangovar qurollar topilgan. Sopol topilmalar deyarli naqshlanmagan bo‘lib, kulolchilik charxida tayyorlangan.

Mil. avv. II ming yillikning boshi va o‘rtalariga oid Sopollitepa aholisining xo‘jaligi dehqonchilik va uy chorvachiligiga asoslangan. Shuningdek, daryo toshlaridan va qumtoshdan ishlangan yorg‘uchoqlar va hovonchalar ham ko‘plab uchraydi. Bu topilmalarning barchasi Sopollitepada dehqonchilik ancha rivojlanganidan dalolat beradi. Tadqiqotchilarning fikricha, Sopollitepa hozircha O‘zbekistondagi dastlabki eng qadimgi dehqonchilik qishlog‘idir.

Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida shakllangan Sopollitepa – bronza davridagi daryodan kechuv yo‘lini himoya qiluvchi mustahkam oldingi istehkom (forpost) sifatida paydo bo‘lgan. Keyinchalik o‘troq dehqonchilik jamoalari shimoliy chegaralarining kengayishi munosabati bilan Sopollitepa o‘zining ilgarigi ahamiyatini yo‘qota boshlaydi va bo‘shab qoladi. Asosiy markaz vazifasi esa tog‘ darasidan chiquvchi yo‘l ustidagi mustahkam qal’a sifatida paydo bo‘lgan **Jarqo‘tonga** o‘tadi.

Mil.avv. II ming yillikning o‘rtalariga kelib Jarqo‘ton o‘sha hududlardagi dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholi qabilalari uyushmalarining mustahkam istehkomiga aylanadi. Aynan mana shu

istehkom orqali Hisor tog‘ oldi vohalari va janubiy Tojikistonning g‘arbiy hududlariga shimoldagi aholining ko‘chishlari bo‘lib o‘tadi. Bu hududlardan topilgan yodgorliklar topografiyasi va ularni davlatlashtirish ushbu jarayon izchillik bilan bo‘lib o‘tganligini ko‘rsatadi. Bu jarayonning rivojlanishi mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi o‘troq dehqonchilik turmush tarzi kechiruvchi aholi manzilgohlarida aholi sonining o‘sishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti uchun ham keng imkoniyatlar yaratdi.

O‘zbekiston hududida chorvador qabilalarga mansub bronza davri qabristoni Samarqand yaqinidagi Mo‘minobod qishlog‘idan topilgan.

Quyi Qashqadaryodagi **Gujayli** qabristonidan chorvachilik va dehqonchilik qabilalariga tegishli bo‘lgan ashyolar, Farg‘ona vodiysi Yangiariq hududidan dehqonchilik buyumlari va dehqonchilik bilan bog‘liq qoyatosh suratlar, Chustdan hunarmandchilik va dehqonchilikka oid buyumlar ko‘plab topilgan.

Bu davrda hunarmandchilik sohasida ham katta yutuqlar qo‘lga kiritiladi. Xususan, kulolchilik charxida tayyorlangan sopol idishlar keng tarqaladi. Bunday idishlar qo‘lda ishlangan sopollardan ancha farq qilib, asosan dehqonchilik madaniyati uchun xosdir. Kulolchilik charxining hunarmandchilikka keng kirib kelishi, sopolchilik ishlab chiqarishi yangi texnikasining yaratilishiga sabab bo‘lib, keyinchalik ixtisoslashgan hunarmandchilikka o‘tishning asosiy omillaridan biri bo‘lib xizmat qildi.

Mil. avv. II ming yillikka kelib O‘zbekistonning dasht hududlariga chorvador qabilalar kelib o‘rnasha boshlaydilar. Ularning makonlaridan topilgan moddiy manbalar Janubiy Qozog‘istonning cho‘llaridagi Andronov madaniyatiga o‘xshab ketadi. Dasht qabilalari tarqalganligidan ayniqsa, sopol idishlar, metall buyumlar va chorvador qabilalarga mansub qadimgi qabrlar tuzilishi dalolat beradi. Bu o‘rinda tadqiqotchilar bronza davridayoq O‘rta Osiyo hududlarida ma’lum darajada etnik madaniy jarayonlar bo‘lib o‘tgan degan fikrni ilgari suradilar.

Bronza davrining xo‘jalik sohasida erishgan eng katta yutuqlaridan biri qadimgi dehqonchilikning keng yoyilishi va mil. avv. II ming yillikda chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishidir. Metall qurollar qadimgi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirgani tufayli O‘rta Osiyo dasht va tog‘ oldi hududlarida yashagan aholi boshqa aholidan (dehqonlardan) ajralib chiqadi va asosan chorvachilik bilan mashg‘ul bo‘ladi. Bu tarixiy jarayon - kishilik jamiyati taraqqiyotidagi dastlabki yirik mehnat taqsimoti edi.

Bu davr manzilgohlarini o‘rganib, bu davrda ikki xil madaniyat hukm surgan deyish mumkin. Birinchisi - qadimgi qabilalar dehqonchilik uchun qulay yerlarga joylashib yuksak dehqonchilik madaniyatini yaratgan bo‘lsalar, ikkinchisi - xuddi birinchi madaniyat sohiblari darajasida ishlab chiqaruvchi kuchlarga ega bo‘lgan holda dasht va tog‘ oldi yaylovlarda chorvachilik madaniyatini yaratganlar.

Bronza davri O‘rta Osiyoning ijtimoiy tuzumida ham o‘zgarishlar sodir bo‘lib o‘tdi. Urug‘chilik tuzumi bu davrda ham davom etdi. Ammo, bu davrda ona urug‘ining mavqei yo‘qolib bordi. Metall eritish va xo‘jalikning rivojlanishi natijasida jamiyatda erkaklar mehnat va mavqei birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lib bordi. Natijada jamiyat taraqqiyotida, dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va hunarmandchilikning rivojlanishida erkaklar yetakchilik qiladilar. Xotinlar erkaklar ishlab chiqargan narsalarni iste’mol qilishda ishtirok etsalar ham, unga egalik qilishdan mahrum bo‘ladilar. Ishlab chiqarishda hukmronlik qilish shu tariqa erkaklar qo‘liga o‘tadi va ona urug‘i tuzumi o‘rnini ota urug‘i (patriarxat) tuzumi egallaydi.

O‘rta Osiyo hududlarida yozuv yaqin kunlarga qadar mil.avv. V-IV asrlarda paydo bo‘lgan deb kelinar edi. So‘nggi yillardagi tadqiqotlar boshqacharoq xulosalar bermoqda. Xususan, 2000 yilda Janubiy Turkmanistondagi Gonurtepa qo‘hna shahrida ochilgan qabrlarning biridan mil.avv. III ming yillikka oid o‘yma sopol muhr topildi. Unda mixxat yozuvlar bor edi. Janubiy Turkmaniston qadimiyatining bilimdoni V. Sarianidi va amerikalik mutaxassis T. Sharlachlarning fikricha, bu xildagi muhrlar faqat podsho atrofidagi, podsho saroyiga yaqin shaxslarga tegishli bo‘lishi mumkin. Mesopotamiyadagi Sargon muhrlarini (mil.avv. 2250-2200 yy.) eslatuvchi Gonurtepa muhri mahalliy xom ashyodan tayyorlangan bo‘lib, undagi mixxat yozuvlar «Lukaks xo‘jalik va qullar hukmdori», deb o‘qildi. Ushbu yozuv bu yerdagi bronza davridayoq yakka hukmdor boshqaruvi va Mesopotamiya bilan o‘zaro aloqalardan dalolat beradi.

Shuningdek, so‘nggi arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonning janubidan ham piktografik belgi-yozuvlar topilgan. Tadqiqotchi Sh. Shaydullayevning fikricha, Jarqo‘ton yodgorligidan sopollarga bitilgan 47 ta belgidan iborat yozuvning topilishi ajdodlarimizning bronza davrida piktografik yozuvni yaratgani va o‘z fikrini turli belgilarda ifodalaganini ko‘rsatadi. Shuningdek, Sheroboddagi G‘oz qishlog‘i yonidagi ilk temir asriga oid yodgorlikdan tosh o‘g‘ir (keli) topilgan bo‘lib, uning sirtida umumiy soni 14 ta bo‘lgan piktorafik belgi-

yozuv mavjud. Sh. Shaydullayev bu belgini Misr iyeroglifikasi bilan solishtirib ulardan biri «haqiqat», yana biri esa dunyoning aylanishi, ya'ni, «charxpalak» deb o'qilishi mumkinligini taxmin qiladi. Xullas, bronza davri va uning oxirlariga kelib o'lkamiz hududlarida yozuv paydo bo'lganligi ilmiy asoslanmoqda hamda keyingi tadqiqotlar bu masalaga yanada oydinlik kiritishi shubhasizdir.

3-mavzu. O'zbek xalqining etnik shakllanishi.[1]

Etnogenez va uni o'rganish masalalari

Hozirgi kunga kelib, Respublikamizda milliy-ma'naviy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish, milliy mafkura g'oyalarini fuqorolarimiz ongiga yanada chuqurroq singdirish va yanada teran anglatish kuchayib, O'zbekiston xalqlarining o'z o'tmish va kelib chiqishiga qiziqishi ortib bormoqda. Xususan, o'zbek xalqining etnik tarixi, uning xalq sifatida shakillanishi masalalari dolzarb ekanligi yurtboshimiz I.A.Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida (1998) har tomonlama asoslab berildi. Bu yo'nalishda tarixchilarimiz oldiga yechimi hayotiy zarur bo'lgan vazifalar qo'yildi. Jumladan, yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Movaraunnahr sarhadlariga uzoq tariximiz davomida ne-ne bosqinchilar kirib kelmagan, ko'p yillar, balki, asrlar davomida yutrimizda ne-ne o'zga sulolalar hukmronlik qilmagan deysiz... Erondan Ahmoniylar, Yunonistondan Aleksandr keldi, Arabistondan Qutayba, Mug'ulistondan Chingizxon keldi, rus istilochilari keldi. Lekin xalq qoldiku?..., ana shunday har tomonlama mudhish, chetdan qaraganda xalqimiz, uning madaniyati, milliy tafakkuri, urf-odatlari, turmush tarzi, hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, nasl-nasabi yo'q bo'lib ketishi kerak bo'lgan sharoitda baribir, qator yo'qotishlar bilan bo'lsa ham, millatimiz o'zligini saqlab qololdimi, yo yo'qmi? Olimlarimiz ana shu savolga javob bersinlar".

Etnogenez yoki birorta xalqning kelib chiqish tarixi masalalari tarix fanining yutuqlari bilan chambarchas bog'liqligi ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgani ma'lum. Ammo, tarix fanining boshqa yo'nalishlariga (arxeologiya, etnografiya, antropoliya va bosh.) nisbatan o'zbek xalqi etnogenezi hamon jiddiy tadqiqotlar talab etadi. Etnogenez va etnik tarix masalalari tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu yo'nalishdagi ayrim kuzatishlarni yunon, xitoy, rim, arab, eroniy va turkiy

[1] Ushbu mavzuni tayyorlashda K.SH.Shoniyozovning yangi chop etilgan ma'lumotlaridan foydalanildi.

tillarda yozilgan qadimgi hamda o‘rta asr mualliflari va sayyohlari asarlarida uchratish mumkin. Ular o‘z asarlarida xalqlarning tashqi qiyofasidagi umumiylik, ba’zi urf-odatlarning yaqinligi va tillarning o‘xshashligini ta’kidlaganlar. Ammo ular bu jarayonlarning asl sabablarini ochib bera olmaganlar. XIX-XX asr boshlarida olib borilgan tadqiqotlar nisbatan samarali bo‘lishiga qaramay, bu tadqiqotlar ham xalqlarning etnik kelib chiqishi, madaniyati va tillaridagi o‘xshashlik sabablari va mohiyatini to‘la ochib bera olmadi.

So‘nggi 20-25 yil ichida Respublikamiz hududlarida olib borilgan arxeologik, antropologik va etnografik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirgan antropolog olim T.Q. Xo‘jayov har bir xalqning etnogenezini o‘rganishda quyidagi tamoyillarga asosiy e’tibor berishni taklif etadi:

1) biror xalqning kelib chiqishi tarixi ko‘p qirralik jarayon bo‘lib, u o‘z ichiga shu xalqning madaniyati va ijtimoiy tuzilmasi, uning biologik xususiyatlari, o‘zining jamiyatda tutgan o‘rnini tushunish, tili va o‘zligini tanishni qamrab oladi;

2) etnogenez masalasiga bir tomonlama qarab, uni soddalashtirish bilan chegaralanib qolmasdan, shu xalqning kelib chiqish tarixida ma’lum ahamiyat kasb etgan barcha tarkibiy qismlar ham e’tiborga olinishi shart;

3) etnogenez murakkab va uzoq davom etgan jarayon. Binobarin, bu jarayonni bosqichma-bosqich tiklash maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, A.A. Asqarov o‘zbek xalqi etnogeneziga bag‘ishlangan so‘nggi yillardagi (2002-y.) ishlaridan birida har bir xalq etnogenezi va etnik tarixini o‘rganishda quyidagi nazariy va ilmiy metodologik tamoyillarga amal qilish talab etilishini ta’kidlaydi:

- birinchidan, etnogenez va etnik tarixni o‘rganishda tadqiqotchi birinchi navbatda o‘rgananyotgan xalq etnogenezisi qachondan boshlanganligini aniqlab olmog‘i kerak. Chunki etnos faqat kishilik jamiyati taraqqiyotining ma’lum bir bosqichida paydo bo‘ladi. Etnogenezning boshlang‘ich nuqtasi esa etnosning qadim zamonlarda yashagan «ajdodlariga» borib taqaladi. Bu jarayon mil.avv. II ming yillik oxirlarida yuz berdi.
- Ikkinchidan, etnos bu biologik hosila emas, balki ijtimoiy hodisadir. U kishilik taraqqiyoti ma’lum bir bosqichining hosilasidir. Etnos o‘zining shakllanish jarayonida bir xil sabablarga ko‘ra uning tarkibiga yangidan-yangi etnik qatlamlar qo‘shilib boradi. Yer yuzining barcha xalqlari kelib chiqishi jihatidan ko‘p etnik qatlamlidir. Darhaqiqat, o‘zbek xalqi

etnogenezining ilk bosqichlaridan, to xalq sifatida shakllanib bo‘lguniga qadar uning asosiy tarkibini tashkil etgan mahalliy (avtoxton) so‘g‘du-xorazmiy va qadimgi turkiyzabon qatlamlardan tashqari o‘ziga turli davrda har xil miqdorda mahalliy va tevarak atroflardan kelib qo‘shilgan etnik guruhlarni singdirib yubordi.

- Uchinchidan, har bir xalqning etnik tarixini o‘rganish, etnik birlikning shakllanish jarayonini ilk bosqichidan boshlashni taqozo etadi. Chunki etnik birlikning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va uning etnosga aylanishi juda qadim-qadimgi zamonlardan boshlanib hozirgi kungacha davom etayotgan butun bir tarixiy jarayondir.
- To‘rtinchidan, har bir xalqning etnik tarixi bilan shug‘ullanganda nafaqat etnik birlikning boshlang‘ich jarayonini, balki uning keyingi davrlarini, unga xos muhim etnik belgi va alomatlarni aniqlab, o‘rganib borish talab etiladi.
- Beshinchidan, etnogenetik jarayonni o‘rganishda masalaga har tomonlama yondoshish, ya’ni etnogenezga aloqador fan yutuqlaridan foydalanish muammo yechimiga obyektiv ilmiylik bag‘ishlaydi. Etnogenez muammolarini hal etishda foydalanilayotgan birlamchi manbalarning nisbati va xususiyatini bilish muhimdir. Bu manbalar antropologiya, arxeologiya, etnografiya, yozma yodgorliklar, tilshunoslik, epigrafika va boshqalardir.

Yuqoridagi tamoyillarga to‘la rioya qilingan holdagina, ayrim xalq etnogeneziga oid muammolarni ilmiy nuqtai nazardan mukammal va har tomonlama ochib berish imkoniyati paydo bo‘ladi. Ammo O‘rta Osiyoda, xususan O‘zbekiston hududlarida qadimgi davrlardan sodir bo‘lib kelayotgan etnik jarayonlarni har tomonlama yoritishdan avval ayrim fanlar sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlarni oxiriga yetkazish bilan undan boshqa soha mutaxassislari ham foydalanishi mumkin bo‘lgan darajasiga chiqarish maqsadga muvofiqdir. So‘nggi yillardagi arxeologik izlanishlar qadimgi aholining moddiy va ma’naviy madaniyati, uning turmush tarzi, uy-ro‘zg‘or ashyolari, an’anaviy xo‘jaligi va boshqalar haqida muhim ma’lumotlar olish imkonini berdi. Bu jarayon esa yangi antropologik ma’lumotlar to‘plash va ularni tahlil etishga asos bo‘ldi.

Etnogenez jarayoni turli xalqlarning ajdodlari tarixidan boshlanadi. O‘zbek xalqi ajdodlarining tarixi juda katta tarixiy davrni o‘z ichiga oladi. Uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lida ajdodlarimiz murakkab etnogenez

jarayonlarini boshdan kechirganlar. Bu jarayonlar antropologik qiyofalar, qabilalar, xalqlar va elatlarning aralashib ketishi, madaniy an’analarning qo‘shilib yangi asosda rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan.

Tarixiy adabiyotlardan bizga ma’lumki, fanning ko‘pgina tarmoqlariga, jumladan, xalqlar haqidagi fanga bundan 2-2,5 ming yil ilgari qadimgi Yunonistonda asos solingan. Shuning uchun ham zamonaviy fanda yunon tilidan olingan so‘zlar ko‘p uchraydi. Bunday so‘zlarni xalqlar haqidagi fanlarda ham uchratish mumkin. Qadimgi yunonlarda “xalq“ tushunchasini ifodalovchi bir necha so‘zlar bo‘lgan. Shulardan biri “demos” bo‘lib, bu so‘z orqali aholining asosiy qismi tushunilgan (mas. “demokratiya”-”xalq hokimiyati”, “demografiya”-”xalqlarni ta’riflash” va boshq.). Shunday so‘zlardan yana biri “etnos” bo‘lib, aynan tarjimasi “xalq“ demakdir. Etnografik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, har qanday etnos o‘z shakllanishining dastlabki pallasida bir-biri bilan iqtisodiy jihatdan o‘zaro bog‘liq odamlar jamoasidan iborat bo‘ladi.

Ayrim etnoslarni bir-biridan farqlovchi muhim belgilaridan biri bu madaniy xususiyatlardir. Bu xususiyatlarni har bir xalq o‘z tarixiy-madaniy rivojlanish jarayonida o‘zlashtiradi va avloddan avlodga qoldiradi. Fanda bu jarayon “etnik an’analar” deyiladi. Bunday an’analar har bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy geografik shart-sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lgan u yoki bu tarixiy davrlarda shakllanadi. Etnosni qisqacha qilib, uyushgan til-madaniy jamoasi deyish mumkin. Ilmiy adabiyotlarda “etnik jamoa” degan so‘z ham ko‘p ishlatiladi. Faqatgina alohida xalqlarni emas, balki ularning kelib chiqishida qarindoshchiligi bo‘lgan guruhlarni ham etnik jamoa deb atash mumkin.

Tadqiqotchilarning fikricha, qarindosh-urug‘chilik etnik jamoalari asta-sekinlik bilan urug‘ jamoalariga aylanib boradi. Urug‘-birga yashab, hamkorlikda mehnat qilgan qarindoshlar uyushmasi bo‘lib, ma’lum xalqlarning etnik shakllanishidagi dastlabki bosqichlardan biri sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘lkamiz hududlaridagi qadimgi mahalliy aholi va o‘zbek xalqining shakllanish bosqichlari

O‘rta Osiyo ijtimoiy-siyosiy hayotida turkiy etnik guruhlar juda katta ahamiyatga ega bo‘lganligi va bu qatlamning ildizlari juda qadimiy ekanligi arxeologik ma’lumotlar asosida isbotlanmoqda. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, bronza davriga kelib O‘rta Osiyoning

janubiy viloyatlarida baland bo‘yli, yuzi tor irqning vakillari tarqalgan. Shimoliy dasht va cho‘l hududlarida esa janub aholisidan farq qiluvchi boshi dumaloq, yuzi juda keng va cho‘ziq bo‘lmagan qabilalar yashaganlar. Fanda janubiy qiyofali odamlar O‘rta Yer dengizi irqining vakillari deb ataladi. Ular Old Osiyo, Mesopotamiya, Eron, Afg‘oniston, O‘rta Osiyo, Hindiston kabi katta geografik hududga yoyilganlar. Shimoliy qiyofali odamlar Janubiy Sibir hududidan to Qozog‘iston, O‘rta Osiyoning shimoli-sharqiy qismida Ural, Volga bo‘yi yerlarigacha tarqalgan.

A. Sagdullayevning tadqiqotlariga ko‘ra, bronza davriga kelib, O‘rta Osiyo hududida qadimgi janubiy va shimoliy qiyofadagi odamlar vakillarining qo‘shilish jarayoni boshlanadi hamda aynan mana shu davrda, o‘lkamizda yashab o‘tgan bronza davri qabilalari, O‘rta Osiyoning qadimgi xalqlariga asos solganlar. Bu davr o‘lkamiz hududlarida murakkab etnik-madaniy jarayonlar bo‘lib o‘tgani bilan izohlanadi. Xususan, janubiy hududlardagi hosildor vohalar o‘troq dehqonchilik aholisi tomonidan o‘zlashtirila boshlagan bo‘lsa, shimoliy viloyatlarda ko‘chmanchi chorvador qabilalar tarqala boshlaydi. Ko‘chmanchi chorvadorlar va o‘troq aholining uzviy munosabatlari asosida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-etnik jarayonlar avj oladi.

Mil. avv. II ming yillikning o‘rtalaridan boshlab O‘rta Osiyo hududlariga shimoli-sharqdan chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi yangi etnik guruhlar kirib kela boshlaydi. Mahalliy madaniyatdan farqlanuvchi bu guruhlar madaniyati tadqiqotchilar tomonidan “Tozabog‘yob madaniyati” nomi bilan fanga kiritilgan.

Tozabog‘yob ko‘rinishidagi yodgorliklar keyinchalik Zarafshon daryosinng quyi havzasi hududlaridan topib o‘rganildi. Xuddi shunga o‘xshash etnoslarning izlari Toshkent vohasidan, Farg‘ona vodiysidan va shimoliy Baqtriyaning tog‘li va tog‘oldi hududlaridan topib o‘rganilgan. Juda katta hududlardan, xususan, Qozog‘iston cho‘llari, Oltoy, Janubiy Sibir, Uraloldi hududlaridan tekshirilgan o‘ziga xos madaniyat “Andronov madaniyati” nomi bilan fanga kiritilgan. Ko‘pchilik tadqiqotchilarning e’tirof etishlaricha, bu madaniyat sohiblari bronza davridayoq turkiy tilda so‘zlashganlar.

O‘zbekiston O‘rta Osiyoning qadimdan o‘troq dehqonchilik madaniyati o‘choqlari tarkib topgan hududda joylashganligi boy arxeologik va me’morchilik madaniyatlari bilan izohlanadi. Farg‘ona vodiysining Selung‘ur g‘oridan topilgan qadimgi tosh davriga oid topilmalar va Teshiktoshdan topilgan o‘rta paleolit davriga oid odamzod

qoldiqlari, bizning yurtimiz Afrika va Old Osiyo hududlari bilan bir qatorda insoniyat paydo bo‘lgan hududlar tarkibiga kirganligini hozirgi kunda uzil-kesil isbotlaydi. Shuningdek, mezolit davriga oid Machay g‘oridan topilgan yodgorliklar, neolit davriga oid ovchilik va baliqchilik madaniyatini o‘zida ask ettiruvchi Kaltaminor, janubdagi ilk dehqonchilik madaniyatiga oid bo‘lgan Joytun, Hisor tog‘ madaniyati, bronza davriga oid bo‘lgan xilma-xil-Zamonbobo, Sopolli, Jarqo‘ton, Sarazm, Suvyorgan, Chust madaniyatlari o‘lkamizda qadimgi ajdodlarimiz xo‘jaligining jadallik bilan rivojlanganligini isbotlaydi.

O‘lkamizdagi qadimgi aholi tosh va bronza davrida qanday nom bilan atalganliklari bizga noma’lum. O‘rta Osiyo aholisi haqidagi ma’lumotlar dastlabki marta Sharq va yunon-rim manbalarida tilga olinadi. Yunon tarixchilari ma’lumotlariga qaraganda, Yevrosiyoning katta hududlarida yashovchi qabilalar umumiy “skiflar” nomi bilan ataladi. Gerodot, “bu xalq qadimiylikda misrliklardan qolishmaydi”, deb yuqori baho bergan edi. Pliniy esa, O‘rta Osiyo hududlarida 20 ga yaqin qabilalar borligi xususida eslatib o‘tadi.Yozma manbalarda skiflarning ikkita yirik qabilasi: saklar va massagetlar xususida ko‘proq eslatiladi. Ahmoniylar mixxat yozuvlarida saklar uchta qismga (xaumavarka, tigraxauda, tiay-tara-darayya) bo‘lib ko‘rsatiladi. Massagetlar xususida ham turli fikrlar mavjud bo‘lib, ular mahalliy chorvador-harbiy qabilalar bo‘lganligi ta’kidlanadi. Ammo, yozma manbalar bu xalqlar va qabilalarning qaysi irqqa mansubligi haqida ma’lumot bermaydi.

Ayrim olimlar tomonidan bildirilgan O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekiston qadimgi davrlardagi mongoloid irqi shakllangan hududga kiradi, degan ilmiy yondashuv noto‘g‘ri va asossiz ekanligi so‘nggi yillardagi antropologik ma’lumotlar natijasida aniqlandi. T. Xo‘jayovning fikricha, o‘zbek xalqining kelib chiqish taixini o‘rganishni qancha erta davrlardan boshlasak, uning tarkibida hozirgi kunlargacha saqlanib kelinayotgan irqiy va etnik unsurlarning mahalliy xalq tarkibiga kirgan davri va uning nisbiy miqdori to‘g‘risida shunchalik keng fikr yurita olamiz.

O‘zbek xalqiga xos O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqining shakllanish davri, makoni va tarixi masalalarida fanda yaqingacha yagona fikr yo‘q edi. Bir guruh olimlar bu irq bundan 6-8 ming yil ilgari, ikkinchi bir guruh tadqiqotchilar bundan 3 ming yil ilgari shakllangan desa, uchunchi guruh olimlari esa, XVI asrda shakllandi, deb hisoblar edilar. Keyingi yillardagi boy arxeologik topilmalar natijasida tadqiqotchilar

O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqining shakllanishi bundan 2200-2300 yil ilgari boshlanganligini asoslab berdilar.

Ko‘pgina ilmiy adabiyotlarda o‘zbek xalqining shakllanishida sakkizta muhim davr sanab o‘tiladi. Bular qatorida Ahmoniylar, Makedoniyalik Iskandar, Arab xalifaligi, Mo‘g‘ullar istilosi tilga olinadi. Haqiqatan, bu zabt etishlar O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekiston xalqlari madaniyatiga, tiliga, turmush tarziga albatta o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Ammo bu yurishlarning mahalliy xalqlarni irqiy va etnik tarixiga bo‘lgan ta’siri kam ekanligini ta’kidlash joiz. Antropologik nuqtai nazardan ular mahalliy xalq “qonini” yoki genetikasini tubdan o‘zgartira olmadilar. Ular son jihatdan ko‘pchilikni tashkil etgan mahalliy aholi tarkibiga singib ketganlar. Bu o‘rinda mahalliy (substrat) va kelgindi (superstrat) aholi orasidagi o‘zaro munosabatlarning fanda ma’lum holatlarini eslatib o‘tish joiz. Ya’ni, ko‘p sonli mahalliy aholi tarkibiga kelgindi guruhlarning singib ketishi; kelgindi guruhlarning mahalliy aholidan ustun bo‘lishi; kelgindi aholi teng sonli bo‘lishi va nihoyat, mahalliy va kelgindi xalqlar aralashuvi natijasida ikkalasiga ham o‘xshash yangi xalq, guruh, elat paydo bo‘lishini kuzatish mumkin. T. Xo‘jayovning maxsus antropologik tadqiqotlariga qaraganda, barcha tarixiy davrlarda mahalliy xalq kelgindi aholidan hamisha ustun bo‘lgan.

Ilk temir davridan boshlab (mil. avv. IX-VII asrlar), o‘lkamizning qadimgi dehqonchilik vohalarida yashovchi o‘troq aholi o‘zlari yashab turgan hudud nomlari bilan atala boshlaganlar. Bular So‘g‘diyonadagi-so‘g‘diylar, qadimgi Xorazmdagi-xorazmiylar, qadimgi Baqtriyadagi-baxtarlar, qadimgi Chochdagi-chochliklar, Farg‘onadagi-parkanaliklardir. Bu tarixiy nomlarning ayrimlarini ilk yozma manbalarda, xususan, zardo‘shtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da, Ahamoniylar mixxatlarida, yunon-rim mualliflari asarlarida uchratish mumkin.

Antropologik izlanishlar natijalariga tayanib, o‘zbek xalqining kelib chiqishi tarixida muhim ahamiyat kasb etgan uch tarixiy davrga alohida to‘xtalib o‘tish zarur. Birinchidan, mil. avv. III-II asrlarda O‘rta Osiyo dasht mintaqalarida hozirgi o‘zbek xalqiga xos antropologik qiyofa shakllana boshlagan. Bu esa fanda yaqingacha keng tarqalgan fikrlar, ya’ni o‘zbeklarga xos O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i irqi avvalo, Volga daryosi bo‘ylarida va Uralda sarmat qabilalari tarkibida shakllanib tarqaldi, degan hamda bu irq Baykal ko‘li atrofida va Mo‘g‘uliston cho‘llarida shakllanib, tayyor holda mahalliy aholiga o‘z irqini tarqatdi, degan fikrlardan voz kechishni taqozo etadi.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida o‘zbeklarga xos antropologik qiyofa, dastavval, Sirdaryoning o‘rta havzasi tumanlarida, ya’ni Toshkent vohasi, Farg‘ona vodiysi, qisman Xorazm va Janubiy Qozog‘istonning Chimkent viloyatlarida, Yettisuv mintaqasida mil. avv. I ming yillik oxirida shakllana boshlaganligi aniqlandi.

Mil. avv. III-II asrlarda bu aholi bir necha yo‘nalishda O‘rta Osiyoning markaziy va janubiy viloyatlariga kirib borgan. Ushbu antropologik tadqiqotlar natijalari yozma manbalarda ma’lum bo‘lgan xalqlarning janubga yurishi va Yunon-Baqtriya davlatining istilo etilishi hamda Buyuk Kushon saltanatining barpo bo‘lish davriga mos keladi. Antropologiya bu yurish haqida quyidagi ma’lumotlarni beradi. Ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi cho‘l aholisi Sirdaryo quyi oqimidan Markaziy Qizilqum orqali (Uchquduq, Tomdi, Yuzquduq, Ko‘kpatosh), Samarqand atroflariga (Kattaqo‘rg‘on, Orlat), so‘ngra Qashqadaryoning Qarshi shahri atroflari (Yerqo‘rg‘on) orqali Surxondaryo viloyatidagi (Qo‘hna Termiz, Dalvarzin, Shohtepa, Ayrtom) qadimgi shahar va qishloqlarga kirib joylashganlar. Keyinchalik ular janubiy Tojikistonga o‘tib ketganlar. Ularning ikkinchi guruhi qadimiy Buxoro vohasi orqali Turkmanistonning janubiy viloyatlariga, bir qismi esa hozirgi Shimoliy Afg‘onistonning Shibirg‘on shahri atroflarigacha yetib borgan (Tillatepa). Natijada o‘zbeklar va tekisliklarda yashovchi tojiklarga xos pomir-farg‘ona antropologik unsur O‘rta Osiyoda keng tarqalgan.

O‘zbek xalqi shakllanishidagi ikkinchi muhim davr - bu IX-XII asrlar hisoblanadi. Bu davrda O‘rta Osiyoda, jumladan, O‘zbekistonda hozirgi o‘zbeklarga xos qiyofa, mahalliy aholining asosiy qismini tashkil etadi. Antropolog T. Xo‘jayov tadqiqotlariga qaraganda, IX asrga kelib aholining antropologik qiyofasida keskin o‘zgarishlar yuz berganligi kuzatiladi. Bu o‘zgarishlarni arxeologik tadqiqotlar natijalari ham tasdiqlaydi. Jumladan, marhumlarni astodonlarda ko‘mish marosimlari, aholi orasida keng tarqalgan bosh shaklini sun’iy o‘zgartirish odatlari yo‘qoladi. Antropologik tadqiqotlar natijalardan xulosa chiqaradigan bo‘lsak o‘zbeklarning elat sifatida shakllanish davri IX-X asrlarga oid deyishga jiddiy asoslar bor.

Fanda mo‘g‘ul istilosi O‘rta Osiyo aholisini keskin mo‘g‘ullashtirib, o‘zgartirib yubordi, degan fikr keng tarqalgan. Lekin, tadqiqotchilarimiz bu masalaga ham oydinlik kiritdilar. Mo‘g‘ul istilosi O‘zbekiston aholisining tashqi qiyofasiga sezilarli izlarni qoldirmaganligini ta’kidlab o‘tish joizdir. Sababi, Chingizxon XIII asr boshida tashkil etgan yirik mo‘g‘ul davlatida mug‘ullar soni taxminan 0,7 million kishidan iborat

bo‘lgan. Agar har 6 kishidan bittasi askarlikka olingan bo‘lsa, unda uning qo‘shinlari soni 100-110 ming kishidan iborat bo‘lgan. Lekin, o‘sha davrda mug‘ullar qo‘shinlarining ko‘p qismini yo‘qotganlar. Ular O‘rta Osiyoga bostirib kelganida qo‘shinlarning ko‘pchiligi turkiy xalqlardan tashkil topganligi ma’lum. Bu davrda Muhammad Xorazmshoh davlatida 20 million aholi yashagan. Mo‘g‘ul qo‘shinlari ko‘p sonli mahalliy aholi tarkibiga o‘z asoratini o‘tkaza olmagan. Shuning uchun ham mahalliy aholida mo‘g‘ul irqi alomatlari deyarli namoyon bo‘lmaganligini ko‘rish mumkin.

O‘zbek xalqining shakllanishida uchinchi muhim davr XV asr oxiri va XVI asr hisoblanadi. Bu davrda Dashti Qipchoq o‘zbeklari O‘rta Osiyoga kirib keladi va ular mahalliy aholiga o‘z nomini beradi.

Shunday qilib, o‘zbek xalqini etnik shakllanishi uzoq davom etgan murakkab jarayondir. O‘zbek xalqining asosini hozirgi O‘zbekiston hududida bir necha ming yillar davomida yashab kelgan mahalliy so‘g‘diylar, baxtarlar, xorazmiylar, saklar, massagetlar, qang‘lilar va dovonliklar tashkil qilgan. Turli davrlarda turli maqsadlarda kirib kelgan qabilalar, elatlar va xalqlar davr o‘tishi bilan mahalliy aholiga o‘z ta’sirini qisman o‘tkazgan. Bu o‘rinda shuni alohida qayd etish lozimki, o‘zbek xalqi shakllanish jarayonining barcha bosqichlarida mahalliy aholi tashqaridan kelgan aholiga nisbatan doimo ustunlik qilgan. Kelgindi aholi mahalliy aholiga o‘z tilini berganligini ham inkor etib bo‘lmaydi. Lekin antropologik nuqtai nazardan mahalliy aholining etnik qiyofasini va tashqi ko‘rinishini tubdan o‘zgartira olmadi. Misol uchun, keyingi ikki ming yil davomida O‘rta Osiyoda, jumladan, O‘zbekistonda mahalliy aholining tili uch marta o‘zgardi-sharqiy eron tillari o‘rniga g‘arbiy eron tillari (fors tili) va milodning boshlaridan turkiy tillar keng tarqala boshladi. Ammo mahalliy xalqning “qoni”, ya’ni genetikasi aytarli o‘zgarmadi va qadimiy xalqlarimizga xos antropologik xususiyatlar shu kunlarga qadar saqlanib kelmoqda, O‘zbek xalqining kelib chiqish asosini qadimgi davrlardan boshlab o‘lkamiz hududlarida yashab kelgan mahalliy xalqlar tashkil etgan. Ikki yarim ming yil davomida mahalliy aholiga kelib qo‘shilgan turkiy tilli elat va xalqlar o‘zbek xalqi shakllanishida asosiy tarkibiy qism sifatida qatnashgan.

O‘rta asrlardagi etnik-madaniy jarayonlar. “O‘zbek” atamasi

O‘rta Osiyo xalqlarining etnik shakllanishida bu hududga ko‘chib kelgan turli elat va qabilalar ham ma’lum ma’noda ishtirok etganlar.

Yuyechjilar, xioniylar, kidariylar, eftaliylar shular jumlasidandir. O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i tipi Sirdaryoning o‘rta havzasida aniq antropologik tip bo‘lib shakllangan davrda bu hududlarda ”Qovunchi madaniyati” shakllanadi. So‘nggi arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra milodiy II-III asrlardan boshlab Farg‘ona vodiysi, Samarqand hududlari, IV-V asrda esa Buxoro vohasi, Qashqadaryo va Surxon vohalarida Qovunchi madaniyatining ta’siri seziladi.

IV asrning oxirlaridan boshlab, O‘rta Osiyoda yirik turkiy etnoslar xioniylar va eftaliylarning o‘troqlashuv jarayonlari kuchayadi. V-VI asrlarga kelib, eftaliylar va xioniylarning asosiy qismi turg‘un hayotga o‘tadilar. Bu qabilalar o‘troq hayot kechirib an’anaviy chorvachilik bilan bir vaqtda dehqonchilik bilan shug‘ullanganliklari haqida yozma va arxeologik manbalar ma’lumotlar beradi.

VI asrning o‘rtalaridan boshlab O‘rta Osiyoda eftaliylar va Turkiy xoqonlik o‘rtasida kurash boshlanadi. Tarixiy manbalardan bizga ma’lumki, VI asrning o‘rtalarida Oltoyda, Janubiy Sibir, Yettisuv, Sharqiy Turkistondagi bir necha qabilalar birlashuvi natijasida yirik Turkiy xoqonlik tashkil topadi. Qisqa vaqt ichida xoqonlik kuchayib, O‘rta Osiyoning katta qismini bosib oladi. Turkiy xoqonlik davrida (VI-VIII asrlar) Toshkent vohasi, Zarafshon, Qashqardaryo vohalari, Surxondaryo va Farg‘ona vodiylari Xorazm hududlariga turkiyzabon guruhlarning kirib kelishi yanada kuchaydi va ularning ko‘pchiligi bu hududlarda turg‘unlashib qoldi.

VIII asr boshlarida arablar Movarounnahr va Xorazm hududlariga bostirib kirgan vaqtlarda bu hududlarda o‘troq va yarim o‘troq turkiyzabon aholi, so‘g‘diylar, toxarlar, chochliklar va Xorazmning tub yerli aholisi bosqinchilarga qarshi tinimsiz kurash olib borgan bo‘lishlariga qaramay siyosiy parokandalik tufayli ular zulmi ostiga tushib qoladilar.

Ma’lumki, VIII asrning 2-yarmidan turkiy qarluq qabilalari kuchaya boshlaydilar. IX asrning o‘rtalariga kelib Yettisuv, Chimkent viloyati, Toshkent vohasi, Farg‘onaning shimoliy qismlarini o‘z ichiga olgan Qarluq davlati tashkil topadi. Ko‘pchilik tadqiqotchilarning e’tirof etilishlaricha, o‘zbek elatining shakllanishida Qarluq davlatining ahamiyati katta bo‘ladi. X asr o‘rtalaridan boshlab bu davlat tarixiy manbalarda Qoraxoniylar davlati nomi bilan tilga olinadi.

Yozma manbalarning ma’lumot berishicha (“Hudud al-olam”), IX-X asrlar qarluqlar egallab turgan hududlarda 20 dan oshiq shahar, ko‘plab qishloqlar bo‘lgan. Qarluqlar ko‘p sonli, nufuzli “xalq“ bo‘lib, bir qismi

chorvachilik bilan shug‘ullangan. Qarluqlar yashagan hududlarda yirik etnoslar-chig‘illar, yag‘molar, xalachlar ham yashagan bo‘lib, tadqiqotchilarning fikricha, ular bir-biriga qon-qarindosh bo‘lib turkiy tilda so‘zlashganlar.

XI asrning birinchi o‘n yilligidayoq Janubiy hududlarning to Balx viloyatigacha bo‘lgan yerlari dastlab qoraxoniy turkiylar, so‘ng esa g‘aznaviylar qo‘liga o‘tdi. Buning natijasida navbatdagi katta turkiy qatlam So‘g‘diyona, Xorazm va Toxariston yerlariga kirib boradi. Qoraxoniylar davrida Movaraunnahrning barcha hududlarida turkiy qatlamlar mavjud edi.

Qoraxoniylar davlatida qarluq-chig‘il turkiy til lahjasi keng tarqaldi. Keyinchalik shu til asosida adabiy turkiy til yuzaga kelib, uni Mahmud Qoshg‘ariy “eng ochiq va ravon til” deb atagan. Turkiy tilda IX-XII asrlar mobaynida bir qator asarlar yozilgan bo‘lib, Ahmad Yugnakiyning (775-869) “Hibatul haqoyiq“ (Haqiqatlar tuhfasi) dostoni, Yusuf Xos Xojibning (XI asr), “Qutadg‘u bilik” (Saodatga yo‘llovchi bilim) asari, Ahmad Yassaviyning (1041-1167) “Hikmatlar”i hamda “O‘g‘uznoma”, “Alpomish”, “Go‘rug‘li” kabi dostonlar shular jumlasidandir.

Movarounnahr va Xurosonning forsiy-dariy tilda so‘zlashuvchi aholisi X asrdan boshlab o‘zini “tozik” ya’ni “tojik” deb yurita boshlaydilar. Somoniylar va Qoraxoniylar (IX asr o‘rtalaridan-1213 yilgacha)dan keyin hukumronlik qilgan keyingi sulolalar, G‘aznaviylar (997-1187), Saljuqiylar (1040-1147), Xorazmshoh-anushtegeniylar (1097-1231)ning barchasi turkiy qavmga tegishli bo‘lib, o‘z vaqtida nafaqat O‘rta Osiyo, balki O‘rta Sharqda ham hukmronlik mavqeyiga ega bo‘lganlar. Mug‘ullar istilosi garchi aholi boshiga nihoyatda og‘ir kulfatlar va yo‘qotishlar olib kelgan bo‘lsada, tadqiqotchilar fikricha, o‘zbek xalqi etnogenezi va irqiga deyarli ta’siri bo‘lmadi.

“O‘zbek” etnonomining kelib chiqishi haqida qisqacha fikr yuritadigan bo‘lsak, bu etnonimning kelib chiqishini ayrim guruh tadqiqotchilar Oltin O‘rda xoni O‘zbekxonning (1312-1341) nomi bilan bog‘laydilar. Boshqa bir guruh tadqiqotchilar esa bu fikrni inkor etadilar va “o‘zbek” nomi O‘zbekxongacha Oq O‘rda mintaqasida, uning G‘arbiy Sibir va Qozog‘iston qismida yashagan turkiy qabilalariga mansub (xon nomi qabilalar nomidan olingan bo‘lishi mumkin), degan fikrni ilgari suradilar. Ayrim tadqiqotchilar esa “o‘zbek” atamasini “o‘zi bek”, “erkin”, “mustaqil” so‘zidan kelib chiqib XII-XIV asrlarda xalqimizga nisbatan ishlatila boshlagan deb hisoblaydilar.

O‘zbek etnonimi kelib chiqishi davriga qarab o‘zbek, turkman, qozoq, qoraqalpoq xalqlarini aniq bir vaqtda paydo bo‘lgan deb aytib bo‘lmaydi. Bu xalqlar ming yillar davomida hozirgi yashayotgan mintaqalarida yashaganlar. Lekin u paytda hali hozirgi nomi bilan atalgan emas va bu nomlari bilan aytilmagan. Ular umumiy nom bilan “turkiy” deb yoki bo‘lmasa, o‘z qabilalari nomlari bilan atalganlar.

Tarixning qadimgi davrlarida aholi ko‘p hollarda o‘zlari yashagan joy nomi bilan atalgan bo‘lib, o‘rta asrlarga kelib bu nomlar o‘zgaradi. Xususan, Dashti Qipchoq hududlarida yashagan turkiy aholi Movarounnahr yerlariga kelib, bu yerda yashayotgan o‘troq aholi bilan uyg‘unlashib ketgan va aholini nomi “o‘zbek” deb atalgan. O‘rta asrlar tarixiy adabiyotlarida ham bu nom “o‘zbek”, “o‘zbeklar” sifatida tilga olinadi. Ammo shu narsa aniqki, Dashti Qipchoq hududlaridan kelgan turkiy qabilalar mahalliy aholi etnogeneziga, urf-odat va an’analariga sezilarli darajada ta’sir etmadilar. Aksincha, ular orasiga singib ketib yuqori darajadagi madaniyat ta’sirida bo‘ldilar.

Tadqiqotchi A.Ibrohimovning yozishicha, o‘zbek xalqi asosan ikki etnik qatlamdan tashkil topgan. Birinchi qatlam Turon-Turkiston hududlarida shakllangan. Ikkinchi qatlam esa Volga (Itil) daryo bo‘ylaridan tortib, to Xorazmning shimoli, Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimlarigacha bo‘lgan hududlarda shakllangan. Bu makon o‘tmishda turli nomlar, chunonchi Dashti Qipchoq, Oltin O‘rda, o‘zbek viloyati, o‘zbek mamlakati, o‘zbek ulusi deb atalgan. Xalqimizning bu qatlamini shartli ravishda shimoliy qatlam deb atash mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek xalqining asosini hozirgi O‘zbekiston hududlarida bir necha ming yillar davomida yashab kelgan mahalliy saklar, massagetlar, so‘g‘diylar, baxtarlar, xorazmiylar, qang‘lilar, dovonliklar, chochliklar tashkil etgan. Kelgindi aholi mahalliy aholiga qisman ta’sir etsada, uning genetikasini tubdan o‘zgartira olmagan.

4-mavzu. O‘zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari

Ilk davlatchilikning asosiy omillari. Dastlabki shaharsozlik madaniyati

Yangi tosh asriga kelib, O‘rta Osiyo hududlarida dehqonchilikning paydo bo‘lishi jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini yanada tezlashtirdi. Bronza davriga kelib dehqonchilikdan

chorvachilikning ajralib chiqishi, ixtisoslashgan hunarmandchilik xo‘jaliklarining rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish hajmi ko‘payib, mehnat qurollari yanada takomillashib bordi. Jamiyatda ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning paydo bo‘lishi va jadallik bilan rivojlanishi o‘z navbatida ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi.

Ma’lumki, O‘rta Osiyo, umuman O‘zbekiston hududlarida dastlabki davlatchilikning paydo bo‘lishi masalalari tadqiqotchilar orasida hamon bahslarga sabab bo‘lib kelmoqda. Bu o‘rinda ushbu jarayonga asosiy turtki bo‘lib, yanada jadallashtirgan omillarni aniqlash nihoyatda muhimdir. Bronza davridayoq sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik O‘rta Osiyo xo‘jaligining asosini tashkil etgan. Sug‘orma dehqonchilikning yuqori unumdor shakllari jamiyatda hal qiluvchi o‘zgarishlarga olib keldi. Xususan, dehqonchilik rivoji natijasida qo‘shimcha mahsulot va xususiy mulk ko‘rinishlari paydo bo‘ldi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik O‘rta Osiyo xo‘jaligining asosi hisoblanib, bu jarayon janubiy Turkmaniston, Tojikiston va O‘zbekistonning janubida bronza davrida, Toshkent vohasi, Farg‘ona vodiysi hududlarida esa ilk temir davrida shakllanib rivojlandi. O‘rta Osiyoda ilk davlat uyushmalari sun’iy sug‘orish birmuncha qulay bo‘lgan Amudaryo (yuqori, o‘rta, quyi) oqimlari bo‘ylarida, Murg‘ob vohasida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida shakllanib rivojlanadi. Bunday holatni dunyo tarixidagi dastlabki davlatlar -Misr (Nil) va Mesopotamiya (Dajla va Frot) misolida ham kuzatish mumkin.

Jamiyat hayotida metallning keng yoyilishi ham dastlabki davlatchilikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib, O‘rta Osiyoning juda ko‘plab bronza va ilk temir davriga oid yodgorliklaridan (Sopolli, Jarqo‘ton, Qiziltepa, Anov, Ko‘zaliqir, Afrosiyob, Daratepa, Chust, Dalvarzin va boshq.) ishlab chiqaruvchi xo‘jalik bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan metall qurollar topib o‘rganilgan. Mehnat qurollarining metaldan ishlanishi mehnat unumdorligining yanada oshishiga keng imkoniyatlar yaratdi.

So‘nggi bronza davriga kelib, kulolchilik charxining keng ishlatila boshlanishi natijasida turli shakldagi yuqori sifatli sopol idishlar ishlab chiqarila boshlanadi. Kulolchilikning rivojlanishi natijasida Sopolli, Oltintepa, Gonur, Jarqo‘ton, Afrosiyob kabilarda kulolchilik mahallalari paydo bo‘ladi. Shuningdek, hunarmandchilikning toshga, metalga, yog‘ochga, suyakka ishlov berish turlari ham keng tarqaladi. Hunarmandchilikning ixtisoslashuvi, alohida xo‘jalik tarmog‘i sifatida

shakllanib rivojlanishi jamiyatdagi iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, davlatchilik paydo bo‘lishi uchun muhim bo‘lgan qo‘shimcha mahsulot ko‘payishiga turtki bo‘ldi.

Ilk davlatlarning paydo bo‘lishida o‘zaro ayirboshlash, savdo-sotiq va madaniy aloqalarning ham ahamiyati nihoyatda katta bo‘lgan. Dastavval shuni aytish joizki, O‘rta Osiyo hududlarida yashagan aholi qadimgi davrlardan boshlab o‘zaro munosabatlarni rivojlantirib kelganlar. Bronza davriga kelib shimoldagi ko‘chmanchi chorvador qabilalar va janubdagi o‘troq dehqonchilik aholisi o‘rtasida o‘zaro mol ayirboshlash va madaniy aloqalar yanada jadallashadi. Bu o‘rinda o‘sha davrda shakllanib keyinchalik ancha rivojlangan qadimgi yo‘llarning ahamiyati beqiyos bo‘ldi. O‘rta Osiyo qadimgi aholisi mintaqadan tashqari qo‘shni davlatlar bilan ham o‘zaro aloqalarni rivojlantirganlar. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, qimmatbaho Badaxshon (Tojikiston) lojuvard toshlari mil avv. III ming yillikdayoq, Mesopotamiya va Misr shaharlarida nihoyatda, qadrlangan va bu hududlar bilan o‘zaro mol ayirboshlash munosabatlari o‘rnatilgan. Undan tashqari, Mesopotamiya, Misr, Hindiston, Eron, O‘rta Osiyo yodgorliklaridagi so‘nggi bronza va ilk temir davri topilmalaridagi juda ko‘pgina o‘xshashliklar, bu hududlar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy va madaniy aloqalardan dalolat beradiki, bu jarayon ham ilk davlatchilikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Mil avv. III - II ming yillliklarga kelib O‘rta Osiyo jamiyatida sodir bo‘lgan iqtisodiy taraqqiyot jarayonlari bu hududlarda ilk shaharlarning paydo bo‘lishiga imkon yaratdi. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, ilk shaharlar paydo bo‘lishi dastlabki davlatchilik shakllanishida eng muhim va asosiy omil bo‘lib, bu ikkala jarayon uzviy bog‘liq holda kechgan.

Ma’lumki, mil.avv. II ming yillikka kelib qadimgi O‘zbekistonning dehqonchilik vohalarida o‘troq qabilalar rivojlanib aholining alohida joylashuv manzilgohlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar - o‘troq dehqonchilikning rivojlanishi, aholi zichligining yuqori darajasi, hunarmandchilikning taraqqiy etishi, ijtimoiy tabaqalanish va boshqaruv tizimining murakkablashib borishi, o‘zaro almashinuv, savdo-sotiq va madaniy aloqalarning kuchayishi hamda harbiy-siyosiy vaziyat O‘zbekiston hududlarida dastlabki shaharsozlikning paydo bo‘lishida asosiy omillardan hisoblanadi.

O‘lkamiz hududlarida dastlabki shahar madaniyatining shakllanishi ham jamiyat taraqqiyotida bo‘lgani kabi uzluksiz taraqqiyot yo‘li bilan rivojlangan. Bu qonuniyatga ko‘ra shaharsozlik madaniyatining

shakllanishi uzoq va bosqichma-bosqich davrlarni bosib o‘tgan. O‘zbekistonning turli hududlarida tadqiqotchilar qadimgi shahar xarobalarini topib tekshirdilar. Ko‘p sonli arxeologik topilmalarning dalolat berishicha bu ko‘hna shaharlar ba’zilarining yoshi 2 700-3000 yildan kam emas. Ularga Afrosiyob, Ko‘ktepa (Samarqand), Qiziltepa (Surxon vohasi), Uzunqir, Yerqo‘rg‘on (Qashqadaryo vohasi) va boshqalar kiradi. Bu ko‘hna shaharlar tarixi hozirgi Samarqand (Afrosiyob-Maraqanda), Kitob-Shahrisabz (Uzunqir) yoki Qarshi (Yerqo‘rg‘on) hududlarida davom etdi.

O‘lkamiz hududlarida qadimgi shaharsozlik madaniyatining asoslari quyidagilardan iborat:

- aholining o‘troq dehqonchilikka o‘tishi va keng vohalar bo‘ylab yoyilishi;
- hunardmanchilik ishlab chiqarishining rivojlanishi natijasida iqtisodiy hamda madaniy aloqalar va savdo-sotiqning taraqqiy etishi;
- tabiiy-geografik hamda harbiy-strategik shart-sharoitlar.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga qaraganda shahar madaniyati dastavval **Shimoliy Baqtriyaga** (Surxon vohasi) keyin esa **So‘g‘diyona** (Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro vohasi), **Xorazm** va **Farg‘ona** hududlariga tarqaladi. Qadimgi shaharlar -tarixiy rivojlanishdagi urbanistik jarayonda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy asosi hisoblanadi. Fikrimizcha, shaharlar tarixini o‘rganish jarayonida dastavval eng qadimgi shaharlar shakllanishi va rivojlanishi; aniq hududlar yoki viloyatlardagi tarixiy-madaniy shart-sharoitning ta’siri, ekologik, geografik, ijtimoiy, iqtisodiy va demografik muhitlarning darajasi va ta’sir doirasi, shaharlarning vazifasi, qadimgi shahar markazlarining tarixiy-madaniy jarayonlardagi o‘rni va ahamiyati masalalariga keng e’tibor qaratish lozim.

Ko‘pchilik tadqiqotlar natijalarini tahlil etar ekanmiz, shunday xulosaga kelish mumkinki, O‘rta Osiyo hududlarida dastlabki shaharsozlik madaniyati mil avv. II ming yillikdayoq, ya’ni, bronza davridayoq shakllana boshlaydi. Bu davrda ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘sishi natijasida mehnat unumdorligi ortib boradi. Natijada turli tarixiy viloyatlarda joylashgan yirik mustahkam manzilgohlar o‘rni va atroflarida (Sopolli, Jarqo‘ton, Namozgoh, Qiziltepa, Yerqo‘rg‘on, Bandixon, Uzunqir) dastlabki shahar markazlari shakllanib rivojlana boshlaydi.

Xullas, O‘rta Osiyodagi urbanizatsiya jarayonining xronologiyasi va shakllari nisbatan turlicha bo‘lib, bu jarayon faqat ichki tabiiy-geografik

va ijtimoiy-siyosiy sharoitlar hamda qo‘shni jamoalardagi madaniy ta’sir bilan bog‘liq bo‘lmasdan, dastavval, Yaqin va O‘rta Sharqdagi (Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Eron) jahon urbanistik markazlari bilan ham chambarchas bog‘liq edi.

O‘lkamiz hududlaridagi ilk shaharlar qishloqlardan iqtisodiy, siyosiy va madaniy mavqesi bilan ajralib turgan. Bu shaharlar asosan aholisi sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullangan vohalarda, qadimgi savdo yo‘llari bo‘ylarida, hukmdorlar qarorgohlari atroflarida paydo bo‘lgan. Bunday shaharlar o‘zlari joylashgan vohalarining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy va harbiy markazlari vazifasini bajargan bo‘lishi shubhasizdir.

Ilk davlatlar haqidagi yozma manbalar
Qadimgi aholi

Yangi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘rta Osiyo hududlaridan topilgan piktografik belgi-yozuvlar bronza davriga oid bo‘lsa-da, ular hozircha kam sonli bo‘lib, qadimgi jamiyat haqida to‘liq ma’lumotlar bera olmaydi. Milloddan avvalgi V-IV asrlarga oid ayrim kam sonli topilmalar ham (Xorazm, sak yozuvlari) to‘liq emas. O‘rta Osiyo hududlaridan milloddan avval III-II asrlarga oid ko‘plab tanga pullar topilganki, ular qadimgi tarixni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Undan tashqari to o‘rta asrlarga qadar yetib kelgan ko‘p sonli yozma manbalar ma’lumotlari ham muhimdir.

O‘rta Osiyo hududlaridagi dastlabki davlat uyushmalari haqidagi yozma manbalar - zardo‘shtiylarning muqaddas diniy kitobi “Avesto”, ahmoniylar davri mixxat yozuvlari, yunon-rim tarixchilarining asarlari hisoblanib, ularning barchasi yurtimizdan chetda bitilgan. Shuning uchun ham ularda ba’zi hollarda chalkashliklar va noaniqliklar, bir-birini inkor etish hollari uchrab turadiki, bu o‘rinda mavjud yozma manbalarni arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan solishtirish va tahlil etish nihoyatda muhimdir. Arxeologik ma’lumotlar yozma manbalar ma’lumotlarini kengaytiradi, ularga aniqlik kiritadi, tarixiy taraqqiyotning aniq yo‘nalishlarini ko‘rsatib, ma’lum davr haqidagi tasavvurlarimizni yanada boyitadi.

Vatanimiz tarixini o‘rganishidagi dastlabki yozma manba sifatida “Avesto” katta ahamiyat kasb etadi. “Avesto” qachon va qayerda paydo bo‘lganligi tadqiqotchilar orasida hamon bahslarga sabab bo‘lmoqda. “Avesto” kitobi va zardo‘shtiylik dinining asoschisi Zaratushtra

(Zardo‘sht, yunoncha Zoroastr) paydo bo‘lgan va faoliyat ko‘rsatgan hudud haqida “Avesto”da keltirilgan geografik hududlarni o‘rganib xulosa chiqargan ko‘pchilik hozirgi tadqiqotchilar O‘rta Osiyo yoki hech bo‘lmaganda bu hududga qo‘shni bo‘lgan shimoli-sharqiy Eron degan fikr bildiradilar. Umuman olganda, “Avesto”ning vatani Xorazm yoki Baqtriya deb hisoblovchi olimlar ko‘pchilikni tashkil etadi.

“Avesto”ni fransuz olimi Anketil dyu Perron birinchi bo‘lib tadqiq etgan. 1755-1761 yillarda dyu Perron Hindistonning Gujarat viloyatida eron zardo‘shtiylarining avlodlari-parslarning urf-odatlari va diniy marosimlari bilan tanishib chiqadi hamda 1771-yilda “Avesto”ni fransuz tiliga tarjima qiladi. Dastlabki “Avesto” 21ta kitobdan iborat bo‘lgan. Bizgacha “Avesto”ning Yasna - “qurbonlik keltirish”, Visprat - “Hamma hukmronlar”, Yasht - “qadrlash”, Videvdat - “devlarga qarshi qonun” qismlari saqlanib qolgan. Bu qismlar Sosoniylar davrida (III-VI asrlar) tahrir qilingan.

“Avesto”da ahmoniylargacha bo‘lgan geografik, hududiy nomlar, atamalar, ijtimoiy-iqtisodiy ma’lumotlar, siyosiy tarix, diniy falsafa va turli ma’lumotlar saqlangan. Unda jumladan shunday deyiladi: “O, Spitama Zaratushtra, yashaydigan joylarga, bu yerlarga baxtlik qancha kam bo‘lsada, tinchlik tortiq qildim. Birinchidan, odamlar yashashi uchun eng yaxshi mamlakatni, Vanxvi Datyo daryosidagi Aryonam Vayjoga (Eron tekisligi yoki ariylar o‘lkasi) asos soldim.

Ikkinchidan, men, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o‘lkalardan bo‘lgan Gava So‘g‘da (So‘g‘diyona) makoniga asos soldim.

Uchinchidan, men, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o‘lkalardan bo‘lgan qudratli Mouruga (Marg‘iyona) asos soldim.

To‘rtinchidan, men, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o‘lkalardan bo‘lgan, baland bayroqlari bo‘lgan go‘zal Bahdiga (Baqtriya) asos soldim”.[1]

“Avesto”da tilga olingan juda ko‘plab mamlakatlar - O‘rta Osiyo va O‘rta Sharq, Afg‘oniston, Eronning shimoli-sharqiy hududlari bilan bog‘liqdir. Yasht qismlari ariylarning yerlari haqida quyidagicha e’lon qiladi: “U mamlakatning jasur sardorlari ko‘pdan ko‘p harbiy yurishlar qiladi, uning keng yaylovlarga ega, suvga serob tog‘larida chorva tinch o‘tlov va yemish bilan ta’minlangan, bu yerdagi sersuv chuqur ko‘llar to‘lqinlanib turadi, kema qatnaydigan keng daryolarning oqimi

[1] Yozma manbalar haqidagi ma’lumotlar A.Sagdullayevning “Qadimgi O`zbekiston ilk yozma manbalarda” (T., 1996) kitobidan olinib qisman tahrir qilindi.

Pourutadagi Iskta, Xaravaydagi Mouru, So‘g‘ddagi Gava va Xvarizam tomoniga toshib intiladi”.

“Avesto” ma’lumotlariga ko‘ra, eroniy sulolalaridan bo‘lgan Kayoniylar sulolasining so‘nggi vakillaridan biri Kavi Vishtasp payg‘ambar Zaratushtraga homiylik qiladi. Zaratushtra yashab faoliyat ko‘rsatgan davr haqida aniq fikr yo‘q. Tadqiqotchilar bu davrni mil.avv. II ming yillik o‘rtalaridan milodiy I ming yillik o‘rtalarigacha belgilaydilar. Ko‘pchilik tadqiqotchilar fikrlaridan xulosa chiqaradigan bo‘lsak, Zaratushtra mil.avv. I ming yillikning birinchi choragida yashab faoliyat ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar Kavi Vishtaspni Baqtriyada hukmronlik qilganini e’tirof etadilar. Avesto ma’lumotlariga ko‘ra, Kavi Vishtasp davrida davlat uyushmasi mavjud bo‘lgan. Misol uchun, Gatalarda Zaratushtra kichik hukmdorlarni urushlarni to‘xtatishga, kuchli va odil podsho qo‘l ostida birlashishga da’vat etadi. Aftidan, o‘sha paytdayoq kichik mulklarning yagona podsho hukmronligi ostidagi nisbatan yirik siyosiy uyushmalarga birlashuvi boshlanadi. Payg‘ambar Zaratushtra va shoh Vishtasp fikrimizcha, bu birlashuvning tashabbuskorlari edilar.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, mil.avv. II ming yillikka kelib, O‘rta Osiyoning janubida Qadimgi Baqtriya va Marg‘iyona hamda unga qo‘shni bo‘lgan hududlarda Baqtriya - Marg‘iyona arxeologik majmuiga kiruvchi yuqori darajada rivojlangan madaniy yodgorliklar guruhi mavjud edi. To‘g‘aloq, Gonur, Dashli, Oltintepa, Sopolli, Jarqo‘ton, Tillatepa kabilar shular jumlasidandir. Ularning ko‘pchiligi dastlabki shahar markazlari bo‘lib, ularda arki a’lo, shahriston, diniy markazlar hamda shahar oldi hududlari mavjud edi. Ya’ni ular o‘sha davr nuqtai nazaridan yetarli darajada rivojlangan shaharlar edi. Ko‘pchilik tadqiqotlardan bizga ma’lumki, ilk shaharlar davlatchilik paydo bo‘lishining muhim va asosiy belgisi hisoblanadi. Ushbu ma’lumotlar mil.avv. II ming yillik oxiri I ming yillik boshlari qadimgi Baqtriya hududlarida davlatchilik ko‘rinishlari paydo bo‘la boshlaganidan dalolat beradi. Ktesiy bergan ma’lumotlarga ko‘ra, mil.avv. II ming yillikning dastlabki asrlarida Baqtriya kuchli podsholik bo‘lib, mintaqada hukmronlik mavqeini qo‘lga kiritish maqsadida Midiya va Ossuriya o‘rtasidagi urushlarda ishtirok etadi.

Davlatchilik paydo bo‘lishining muhim belgilaridan biri jamiyatning ijtimoiy tabaqalarga bo‘linishi hisoblanadi. Ko‘pchilik manbalardan bizga ma’lumki, Avesto jamiyati quyidagi to‘rtta tabaqaga bo‘linadi: 1) qohinlar (atravanlar); 2) harbiylar (ratayistralar); 3) dehqon-chorvadorlar (vastrya-

fshuyant); 4) hunarmandlar (xutlar). Jamiyatning bunday tabaqalashuvi qadimgi, ya’ni zardushtiylikkacha bo‘lgan a’analarni o‘zida aks ettiradi. Bu an’analar ayrim o‘zgarishlar bilan ko‘p asrlar, Avestodan keyingi davrlarda ham saqlanib qoladi.

Dastlabki ikkita tabaqa ancha imtiyozlarga ega bo‘lib, jamiyatni boshqargan. Ayniqsa, qohinlar juda yuqori mavqeda turganlar. Zaratushtra o‘z g‘oyalarini targ‘ib etish jarayonida podsho Vishtaspning eng yaqin odami va maslahtchisiga aylanadi. O‘sha davrdagi jamiyatning har bir bo‘lagi (yacheykasi) – uy, qishloq, voha va viloyat – o‘lka ma’lum unvoni bo‘lgan o‘z diniy yo‘lboshchisiga ega bo‘lgan. Manbalarga ko‘ra, davlatning bosh qohini «zaratushtrotem» unvoniga ega bo‘lgan. Undan tashqari «zautara» (diniy qo‘shiqlar ijrochisi), «aturpat» (olov bosh qohini), «xirpat» (ibodatxona va diniy tadbirlar boshlig‘i) kabi diniy uvonlar ham mavjud bo‘lgan.

Podsho va uning yaqinlari kelib chiqqan harbiylar tabaqasining ham mavqei baland bo‘lgan. Jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchilari va moddiy yaratuvchilari dehqonlar, chorvadorlar va hunarmandlar edilar. Avestoda qullar ham bir necha bor eslatib o‘tiladi. Ular tabaqalarga kirmagan va aftidan, jamiyat hayotida unchalik katta rol o‘ynamagan.

Jamiyatning boshqaruv tartibi haqida Avestoda ma’lumotlar saqlangan. Manbada keltirilishicha, oriylar o‘lkasi quyidagi to‘rtta ma’muriy hududiy birlikka bo‘linadi: 1-patriarxal oilaga tegishli bo‘lgan turar-joylar (nmana); 2-qishloqlar (vis); 3- tumanlar (zantu); 4-viloyat – o‘lka (daxyu). Ushbu birliklarning har biri o‘z yo‘lboshchisiga ega bo‘lgan: 1-nmanopati (uy boshlig‘i); 2-vispati (qishloq boshlig‘i); 3-zantupati (tuman oqsoqoli); 4-daxyupati (viloyat –o‘lka yo‘lboshchisi).

Eng yirik uyushma «daxyusasti» (viloyatlar ustidan hukmronlik yoki viloyatlar uyushmasi) edi. Bunday uyushmaning hukmdori «butun daxyular daxyupatisi» deb atalgan. Qiyosiy tahlillar asosida ahmoniylar davridagi «shohlar shohi» unvoni ushbu Avesto unvoniga borib taqalashini taxmin qilish mumkin. Avestoda shuningdek, «kavi», «sastar» va «xatra» kabi boshqaruv bilan bog‘liq bo‘lgan unvonlar ham uchraydi. «Kavi» (forschada «kay») unvoni Avestoda ko‘p uchraydi. Bu unvon nafaqat katta o‘lkalar podsholari, balki kichik mulklar hukmdorlariga ham berilgan. Qal’alar, tumanlar va viloyatlar hukmdorlari «Sastar» unvoni bilan atalgan. «Hokimiyat», «qudrat» ma’nolarini beruvchi «xshatra» unvoni tumandan tortib o‘lkalar hukmdorlarigacha berilgan. Misol uchun, Bexistun yozuvlarida podsho Doro I ushbu unvon bilan tilga olinadi.

Avestoda yig‘in yoki yig‘ilish ma’nosidagi «xanjmana» (yangi fors tilida «anjuman») so‘zi uchraydi. Aftidan, dastlabki paytlarda podsho hokimiyati saylab qo‘yilgan. Chunki, «Shohnoma» ma’lumotlariga ko‘ra kayoniylar (kavilar) sulolasining asoschisi Kayqubod kavilar umumiy anjumanida Eron podshosi qilib saylanadi. Avesto ma’lumotlariga ko‘ra, podsho (daxyupati) bir vaqtning o‘zida bosh harbiy va bosh qozi (sudya) hisoblanga. Podsho o‘zining harbiy drujinasiga ega bo‘lgan. Viloyat va harbiy holatlarda bu drujinalar shoh ixtiyorida bo‘lgan.

Mil avv. VI asrning o‘rtalariga kelib Erondagi Ahmoniylar sulolasi hukmdorlari Qadimgi Sharqdagi ko‘pgina mamlakatlar ustidan, jumladan, O‘rta Osiyodagi Parfiya, Marg‘iyona, Baqtriya, So‘g‘diyona, Xorazm, “Saklar o‘lkasi” ustidan o‘z hokimiyatini o‘rnatdilar. Ahmoniylar davrida bitilgan mixxat manbalarda O‘rta Osiyo xalqlari va viloyatlari haqida turli ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin.

Bu yozuvlar mil avv. VI -IV asrlarga oid bo‘lib, Eron hududlarida, xususan, Behistun va Naqshi Rustam qoyalarida, Suza, Persepol va Hamadon shaharlaridan topib o‘rganilgan. Bular orasida eng muhimi Behistun yozuvlari bo‘lib, u Doro I davrida yozilgan. Bu yozuvlarda Doro I bosib olgan o‘lkalar sanab o‘tiladi. Shuningdek, bosib olingan hududlarda forslarga qarshi qo‘zg‘olonlar haqida ma’lumotlar beriladi.

Suza shahridan topilgan yozuvlarda Doro I bunday e’lon qiladi: “Suzadagi saroyni men bino qilganimda uning bezaklari uzoq yurtlardan olib kelingan. Uaka yog‘ochi Gadxaradan, oltin - Sard va Baqtriyadan, yaltiroq toshlar va lojuvard So‘g‘diyonadan, feruza-Xorazmdan, kumush va bronza Araxoziyadan, tosh ustunlar - Elamdan yetkazib kelingan.”

Persepol shahridagi saroy devorlarida baqtriyaliklar, xorazmliklar, so‘g‘dlar va saklarning o‘yib ishlangan rasmlari topilgan. Bu rasmlarda So‘g‘diyona, Baqtriya, Xorazm va saklar o‘lkasidan bo‘lgan soliq to‘lovchilarning ahmoniylarga turli xil buyumlar (hunarmandchilik, tikuvchilik, zargarlik, harbiy qurollar) hamda qadimgi Sharqda mashhur bo‘lgan otlar va tuyalarni soliq sifatida olib kelayotgani tasvirlangan. Xullas, ahmoniylar davri yozuvlarida o‘lkamiz xalqlarining qadimgi tarixiga oid quyidagi ma’lumotlar saqlangan: viloyatlar va xalqlarning nomlari, ayrim siyosiy jarayonlar, saklar yurtiga qarshi yurishlar, iqtisodiy tuzum va moddiy madaniyat ma’lumotlari.

Yunon-rim tarixchilaridan birinchi bo‘lib “tarixning otasi” Gerodot (mil.avv. V asr) O‘rta Osiyo xalqlari haqida ma’lumotlar beradi. Gerodot o‘zining mashhur “Tarix” kitobini mil. avv. 455-445 yillarda yozgan. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, Gerodot O‘rta Osiyo viloyatlarining

birortasida ham bo‘lmagan. Shuning uchun ham O‘rta Osiyodagi xalqlar, viloyatlar joylashuvidagi nafaqat aniq, balki umumiy chegaralaridan ham bexabar bo‘lgan. O‘rta Osiyo viloyatlari haqida esa, o‘zi eshitgan hikoyalari, surishtirib bilganlari asosida yozgan.

Tadqiqotchilarning hisobiga qaraganda, Gerodot “Tarix” kitobida Baqtriya, Baqtra, baqtriyaliklarni 13 marta, so‘g‘dlarni 2 marta, xorazmliklarni 3 marta, saklarni 11 marta, massagetlarni 19 marta tilga olib ularning moddiy madaniyati, urf-odatlari, dini va tarixi haqida hikoya qilgan.

Gerodotning O‘rta Osiyo to‘g‘risidagi asosiy fikrlari forslarning sak-massagetlarga qarshi yurishlari, Kir II va To‘maris o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar, ahamoniylar harbiy qo‘shinlari safida yurtimiz xalqlari jangchilarining ishtiroki, ularning yarog‘-aslahalari, yo‘lboshchilari, fors-yunon urushlarida ularning jasorat ko‘rsatganligi, xalqlarning ahmoniylar davlatiga bo‘ysunishi va soliq tartibi, sak-massagetlarning turmush tarzi va diniy e’tiqodi va boshqa ayrim ma’lumotlardan iborat.

Misol uchun Gerodot massagetlar haqida shunday xabar qiladi: “Bug‘doyni massagetlar ekmaydilar, chorvachilik va baliqchilik bilan (Araks daryosida baliq serob) shug‘ullanadilar hamda sut ichadilar. Massagetlar ichida ulug‘langan yagona xudo - bu Quyoshdir, Quyoshga ular otlarni qurbon qiladilar, chunki xudoga dunyodagi eng chaqqon - tezchopar jonliqni qurbon qilish lozim deb o‘ylaydilar”.

Asli Kichik Osiyodagi Knid shahrilik bo‘lgan yunon tarixchisi Ktesiy ahmoniylar podshosi Artakserks (mil.avv. 404-359 yy.) saroyida tabiblik qilgan. Ktesiy qalamiga mansub “Persika” asarining katta bir qismi baqtriyaliklar tarixiga bag‘ishlangan.

Ktesiy Ossuriya podshosi Ninning Baqtriyaga qilgan yurishlari, Baqtriyaning poytaxti va ko‘p sonli mustahkam istehkom va shaharlar haqida ma’lumotlar berib jumladan shunday yozadi: “Baqtriyadagi ko‘pdan ko‘p shaharlar orasida Baqtra nomli mashhur bir shahar bo‘lgan. Bu shahar mamlakatning markazi bo‘lib, ko‘p shaharlar o‘rtasida, baland va mustahkam mudofaa devorlari bilan o‘ralgan, unda podsho qal’asi joylashgan”.

Yana bir yunon muallifi Ksenofont “Kiropediya” nomli asarida Ktesiy xabarlariga o‘xshash, Baqtra shaharlarining ossuriyaliklar tomonidan qamal qilinishi to‘g‘risida ma’lumot beradi. Shuningdek, Ksenofont Kir II va Baqtriya urushlari haqida ham yozadi.

Mil. avv. IV asrning ikkinchi yarmida makedoniyalik Iskandarning Sharqqa qilgan yurishlari natijasida O‘rta Osiyodagi qadimgi viloyatlar

haqida ko‘plab yangi tarixiy-geografik ma’lumotlar paydo bo‘ldi. Keyingi antik davr mualliflari (Arrian, Kursiy Ruf, Strabon va b.) asarlaridagi ma’lumotlar ilk antik davr mualliflarinikiga nisbatan kengroq berilgan. Makedoniyalik Iskadar yurishlari haqida yozgan tarixchilar asarlarida qadimgi O‘zbekiston viloyatlari, shaharlar, qal’alar, manzilgohlar, himoya devorlari, xo‘jalik va madaniy hayot haqida kengroq va batafsilroq ma’lumotlar olish mumkin.

Olib borilgan arxeologik va antropologik tadqiqotlar natijalari qiyosiy tahlil etilar ekan, qadimgi davrdagi O‘rta Osiyo hududida yashagan qadimgi aholi tarixini tadqiq etish bir necha sabablarga ko‘ra katta ahamiyat kasb etishi kuzatiladi. Ushbu ahamiyatli holatni quyidagicha izohlash mumkin: **birinchidan**, bu davrda aholining tabiiy hududlar bo‘yicha xo‘jalik jihatdan tabaqalanishi sodir bo‘ladiki, olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari O‘rta Osiyo va Qozog‘istonning asosan dehqonchilik bilan shug‘ullangan janubiy hamda asosan chorvachilik bilan shug‘ullangan shimoliy hududlarini ajratish va o‘zaro taqqoslash imkonini beradi. **Ikkinchidan**, dehqonchilikka va ishlab chiqaruvchi iqtisodga erta o‘tish dehqonchilik jamoalari sonining ortishini hamda ilk shaharlarning rivojlanishini belgilab berdi va demografik jihatdan ta’sir ko‘rsatib ortiqcha aholining turli arxeologik madaniyatlarga va xo‘jalik yuritish tartibiga mansub bo‘lgan tabaqalarning ko‘chib ketishiga turtki berdi. **Uchinchidan,** O‘rta Osiyo hududida murakkab etno-madaniy jarayonlarning sodir bo‘lishi, hozirgi zamon o‘lkamiz xalqlarining shakllanishida uzoq qadimga borib taqaluvchi mahalliy unsurlarning ustunligi qadimgi davrlar bilan bevosita bog‘liqdir. **To‘rtinchidan**, aynan mana shu aholi ilk shaharlar madaniyatini rivojlantirish jarayonida o‘lkamiz hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning boshqaruvchilari bo‘lib, ularning ilk dehqonchilik manzilgohlari va dastlabki shaharsozlik madaniyatining yaratuvchanligi xususiyatini ham alohida ta’kidlash maqsadga muvofiqdir.

Turli arxeologik madaniyatlar keng tarqalgan O‘rta Osiyo hududida so‘nggi bronza va ilk temir davrida kuzatiluvchi manzara muayyan tarixiy-madaniy jarayonlar o‘ta murakkab kechganligini ko‘rsatadi. Shimol chorvadorlari madaniyati - bu bronza davrining Andronov-madaniyati bo‘lib, Qozog‘iston hududlarini to‘la qamrab olib g‘arbda Volga orti cho‘llarigacha, sharqda Minusinsk havzasigacha cho‘ziladi. Chorvadorlar madaniyatining izlari o‘sha davrning ko‘pgina qo‘rg‘onlaridan aniqlangan bo‘lib, ulardan ko‘p sonli bronza va sopol

buyumlar, mehnat va jangovar qurollar hamda san’at asarlari topilgan. Ular qadimiyligi jihatdan Old Osiyodan keyinda turadi.

Qadimda O‘rta Osiyoning shimoliy va janubiy viloyatlari aholisi bilan markaziy hududlar aholisining murakkab etnomadaniy aloqalari qizg‘in rivojlanib bu aloqalar mahalliy aholi hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa o‘xshash madaniyatlar taraqqiyotiga ham ta’sir o‘tkazgan.

Ma’lumki, O‘zbekiston qadimgi tarixining juda katta davri yozma manbalarsiz, arxeologiya va antropologiyaga oid manbalarga tayangan holda o‘rganiladi. Qadimgi Sharq yozma manbalaridan (Hind, Ossuriya va Eron manbalari) ma’lumki, mil. avv. II ming yillikning o‘rtalari va oxirlari (bronza davri) - O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston va Eron tarixi - hind-eron qabilalari yoyilishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Hind-eron qabilalari dastlab juda keng hududlarda - Volga, Ural va Janubiy Sibir oralig‘idagi yerlarda yashaganlar.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, O‘rta Osiyoda aholi joylashuvi etnik hududlarining ajrala boshlashi mil. avv. IX-VIII asrlarga oid bo‘lishi mumkin. Mil. avv. VI asrda Erondagi ahmoniylar sulolasi podsholari yurtimizda yurish qilganda bu xalqlarning ajralib borish jarayoni butunlay tugagan va turli xalqlarning hududiy joylashuv chegaralari, viloyatlarning ma’muriy chegaralari ahmoniylardan ancha oldingi davrda paydo bo‘lgan.

Ming yillar davomida O‘zbekiston hududlarida yashab o‘tgan qabilalar va elatlarning tarixi hamda madaniyati izsiz yo‘qolib ketmagan. Ushbu elatlarning ayrimlari ajdodlarimizning yirik guruhlarini tashkil etib, eng qadimgi yozma manbalarda tilga olingan. Ushbu manbalarning guvohlik berishicha, mil. avv. VII-VI asrlarda O‘zbekistonning dehqonchilik vohalarida so‘g‘diylar, baqtriyaliklar va xorazmiylar yashaganlar. O‘rta Osiyo va Qozog‘istoning tog‘lari, dashtlari va cho‘llarida yashagan saklar va massagetlar chorvador qabilalardir.

Mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmida yurtimiz hududlarida joylashgan turli xalqlar qadimgi sharq-eroniy tillar shevalarida gaplashganlar. Ularning etnik qiyofasi va tillari bir-biriga yaqin bo‘lgan. Shuning uchun ham so‘g‘dlar, baqtriylar, xorazmiylar, sak-massagetlar qarindosh xalqlar bo‘lib, bir-birlarini tushunganlar. Ayniqsa, dehqonchilik bilan shug‘ullanib o‘troq xo‘jalik yuritgan aholining moddiy va ma’naviy madaniyat bir-biriga ancha o‘xshash bo‘lgan.

Dastlabki davlatlar

Boshqaruv – jamiyatning ichki jabhasiga xos xususiyat hisoblanadi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, insoniyat o‘z rivojlanish jarayoni davomida eng oddiy boshqaruv shakllarini barpo etib uni rivojlantirib va takomillashtirib borganligi kuzatiladi. Dunyo tarixidagi dastlabki davlatlar mil.avv. III ming yillikdayoq Misrda (nom davlatlarning birlashuvi), Mesopotamiyada (Akkadning kuchayuvi) paydo bo‘ladi va Sharqdagi boshqa hududlarga ham (Hindiston, Xett davlati, Elam va b.) o‘z ta’sirini o‘tkazib sifatiy yangi xususiyatlar kasb eta beradi.

Ta’kidlash joizki, boshqaruv tizimi, umuman, davlatchilik abadiy mavjudlik emas. Davlat boshqaruvi deganda biz bosh siyosiy hokimiyat va unga bo‘ysinuvchi boshqaruv tizimini tushunamiz. Boshqaruv tizimi jamiyatning barcha jabhalarini – siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Binobarin, boshqaruv tizimini har tomonlama va jiddiy o‘rganmasdan turib jahon xalqlari tarixiy madaniy rivojlanishi, ularning o‘zaro aloqalari va ta’siri, mahalliy va umumbashariy madaniyatlar integratsiyasining o‘ziga xos tomonlari va qonuniyatlariga aniqliklar kiritish mumkin emas. Davlat boshqaruvining paydo bo‘lishi insoniyat tarixida muhim muvaffaqiyat va sifatiy yangi bosqich bo‘ldi. Dunyo tarixidagi qadimgi davlatlarning paydo bo‘lishi va takomillashuvida O‘rta Osiyo va unga qo‘shni hududlarda yashagan xalqlarning ham hissasi katta bo‘ldi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, davlatning paydo bo‘lishi uzoq davom etgan jarayondir. Bu jarayon turli xalqlarda turli yo‘llar bilan bo‘lib o‘tgan.

Tadqiqotchilarning fikricha, **birinchidan**, davlatlar paydo bo‘lishining osiyocha ishlab chiqarish usuliga asoslangan «Sharq yo‘li» bo‘lib, unda iqtisodiyotning asosini irrigatsiya dehqonchiligi tashkil etgan; yer va irrigatsiya inshootlari davlatning mulki bo‘lgan; dehqonchilik jamoasi jamiyatning birlamchi yacheykasi edi; aholining katta qismini safarbar etish zaruriyati prinsipal boshqaruvchilar tabaqasini taqozo etgan.

Ishlab chiqarishning osiyocha usuli mil.avv. V ming yillikdan milodiy I asrgacha daryolar vodiylarida joylashgan Misr, Bobil, Xitoy, Hindiston, O‘rta Osiyo kabi hududlarda yoyilgan.

Davlat tuzilmasining **ikkinchi**, «Yevropacha yo‘li» Yevropa hududida mil.avv. V asrdan boshlab milodiy III asrgacha qadimgi yunon polislarida mavjud bo‘lgan. Ularda xususiy mulkchilik shakllanishi tufayli

kelib chiqqan jamiyatning ijtimoiy mulkiy tabaqalanishuvi jarayoni (tabaqalar shakllanish jarayoni) asosiy omil bo‘ldi.

Ma’lum bir qabila, elat va xalqqa xos hamda muayyan rivojlanish bosqichlari boshqa xalq va hududlardagi davlatchilik jarayonlariga aslo mos tushmaydi. Shunga qaramay, Qadimgi Sharqdagi ilk davlatlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi ko‘pgina umumiy jihatlarga ega ekanligini ta’kidlash joizdir. Aynan mana shuning uchun ham O‘rta Osiyoda ilk davlatlarning paydo bo‘lishi Qadimgi Sharq davlatchiligi tarixi bilan uzviy bog‘liqdir.

Qadimgi Sharqning turli hududlaridagi tabiiy sharoit o‘ziga xos bo‘lib, ko‘pgina davlatlarning paydo bo‘lishi ushbu holat bilan bevosita bog‘liq edi. Ayniqsa, yirik daryolar – Nil, Dajla, Frot, Hind, Ganga, Xuanxe, Amudaryo va Sirdaryo Qadimgi Sharq xalqlari tarixiy taqdirida juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Ijtimoiy va hududiy birlikning asosi hisoblangan jamoalar mavjudligi Qadimgi Sharq ijtimoiy tuzilmasining muhim o‘ziga xos tomoni edi. Barcha Qadimgi Sharq davlatlari (ayrim shahar-davlatlar bundan mustasno) juda ko‘plab qishloq jamoalaridan tashkil topgan bo‘lib, ularning har birida boshqaruv tartibi bilan bog‘liq ishlar amalga oshirilganda ko‘pgina jamoalar birlashuvi davlat hokimiyati rolining oshishini ta’minlar edi.

Ko‘p hollarda tadqiqotchilar jamoalarning birlashuvi natijasida paydo bo‘lgan davlatchilik tizimini murakkab sug‘orish tartibi tashkil etilishi, yerlarni sun’iy sug‘orilishi, daryo vohalari va tog‘ oldi hududlarining o‘zlashtirilishi hamda to‘g‘onlarning qurilishi bilan bog‘laydilar. Yuqoridagi omillarning mavjud bo‘lganligi aniq. Lekin, ularni tashkil etish nazorat va boshqaruvni, hisob-kitobni talab etar edi. Demak, buning uchun yozuvchi mirzalar, hisob-kitobchilar va hukmdorlar zarurati tug‘ilgan. Mehnat qurollari tayyorlash uchun hunarmandlar faoliyat ko‘rsatgan. Ushbu murakkab tizim xavfsizligini ta’minlash uchun qurolli guruhlar tuzish, hamda ma’lum hududlarni mudofaa inshootlari bilan o‘rab olish kerak bo‘lgan. Shu tariqa jamiyatda ikkita yangi tuzilma-shahar va davlat paydo bo‘la boshlaydi.

Davlat yoki shahar-davlat ma’lum hududlarni o‘z nazoratiga olishi va bu hududlarni kengaytirib borishi natijasida chegaralar paydo bo‘lgan. Hududlarning kengayishi va chegaralarning o‘zgarishi natijasida davlatlar o‘rtasida urushlar kelib chiqadi. Chegaralar masalasida ta’kidlash joizki, qadimgi davrlarda ular ko‘p hollarda tog‘lar va dasht hududlar orqali, ayrim hollarda esa daryolar orqali o‘tgan. Shuning uchun ham tarixiy

yondashuv shuni talab etadiki, tarixning turli davrlarida davlatlar chegaralari o‘zgarib turgan va hozirgi chegaralarga mutlaqo mos tushmaydi.

Turli xalqlar va ularning ajdodlari o‘z davlatchiligining shakllanish boqichini ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy-madaniy vaziyatlarga bog‘liq holda turli tarixiy davrlarda bosib o‘tdilar. Bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan dastlabki yozma manbalar - “Avesto”, ahmoniylar davri mixxat yozuvlari, qadimgi yunon-rim manbalari qadimgi Sharq va dunyo tarixida birinchi bo‘lib, O‘rta Osiyodagi eng qadimgi xalqlarning nomlarini, alohida joylar, tog‘lar, daryolar va ko‘llarning nomlarini, afsonaviy qahramonlar va podsholarning nomlarini, yurtimiz xalqlarining turmushi, dini, madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu yozma manbalar ma’lumotlarini arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan solishtirganimizda ilk davlatlarning paydo bo‘lishi masalalariga ko‘pgina aniqliklar kiritish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Bronza davriga kelib aholining ijtimoiy va iqtisodiy hayotida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Xususan, qadimgi aholi ishlab chiqarishning ma’lum bir sohalariga - dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikka ixtisoslashib bordi. Bu jarayon ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘sishi va ularning bir yerga to‘planishi uchun zamin yaratdi.

Qadimgi xo‘jaliklarning ixtisoslashuvi, sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishi, metallning hayotga jadallik bilan kirib kelishi va yoyilishi, hunarmandchilikda turli tarmoqlarning rivojlanishi, o‘zaro ayirboshlash va savdo-sotiqning taraqqiy etishi natijasida jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish kuzatiladiki, bu yuksalish ilk davlatchilikning asosiy poydevori hisoblanadi. Ahmoniylargacha bo‘lgan davrda ba’zi bir vohalar, asosiy o‘troq aholi joylashuvi o‘lkalari edi. Ularning hududlarida manzilgohlar, sug‘orish inshootlari, o‘zlashtirilgan yer maydonlari bor edi. Bir qancha shunga o‘xshash, daryolar vohalarida joylashgan va umumiy aholi joylashuv hududlari bilan bog‘liq bo‘lgan yerlar Baqtriya, So‘g‘diyona, Xorazm kabi tarixiy viloyatlarni tashkil etgan.

E.V. Rtveladzening so‘nggi yillardagi (2001) xulosalariga ko‘ra, O‘rta Osiyodagi ikki daryo oralig‘ida qadimgi davr davlatchilik evolyutsiyasining mil.avv. II ming yillik va milodiy IV asri oralig‘idagi vaqtni qamrab olgan bir necha davrlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bular quyidagi davrlardir:

Birinchi davr – mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi – O‘zbekiston janubida embrional shakldagi davlatga o‘xshash tuzilmaning

qaror topishi. Davlatning bunday namunasi Jarqo‘tonda o‘z aksini topgan deyish mumkin.

Ikkinchi davr – mil.avv. I ming yillikning boshi – mil.avv. 539 yil – Baqtriya, So‘g‘d, Xorazm kabi tarixiy-madaniy viloyatlarning shakllanishi. Ularda siyosiy hokimiyat to‘lishining shaxobchali tizimiga ega bo‘lgan davlatning ilk shakllarini ko‘rish mumkin. Avesto ma’lumotlari bunga misol bo‘la oladi.

Uchinchi davr – mil.avv. 539-yil – mil.avv. 330-yil – Ahmoniylar bosqini va O‘rta Osiyoning ahmoniylar davlati tarkibiga kirishi tufayli kelib chiqqan mahalliy davlatchilik rivojlanishidagi tanaffus.

To‘rtinchi davr – mil.avv. IV asr oxiri – mil.avv. II asr ikkinchi yarmining boshi – Aleksandr Makedonskiy bosib olishdan boshlab ellinlar siyosiy hukmronligi oxirigacha. Bu davrda mahalliy davlatchilikning tiklanish jarayoni yuz beradi. Mil.avv. IV asr so‘nggi choragida Xorazmda podsholik paydo bo‘lgan bo‘lsa, III asr oxiri – II asrda Buxoroda, Dovonda (Farg‘ona), So‘g‘dda alohida mulklar shakllanadi. Keyinchalik butun mulklarni birlashtirgan Qang‘ davlati shakllana boshlaydi.

Beshinchi davr – mil.avv. II asrning ikkinchi yarmi – yangi eraning I asri boshi – mahalliy davlatlar: Qang‘, Xorazm podsholigi, Buxoro, So‘g‘d, Dovonning mustahkamlanishi va yanada rivojlanishi, Yuyechji davlatining qaror topishi va uning hokimiyatining Gandxargacha yoyilishi. Ushbu mulklarda kumush va mis tangalar zarb qilinishi, mahalliy so‘g‘d, xorazm yozuvlarining paydo bo‘lishi rivojlangan davlatchilikning asosiy belgilari hisoblanar edi.

Oltinchi davr – yangi eraning I asri boshi – III asri birinchi yarmi – antik davrda mahalliy davlatchilikning ravnaq topishi. O‘zbekiston janubining konfederativ Yuyechji davlati asosida paydo bo‘lgan Kushon imperiyasi tarkibiga kirishi. Chochda yangi mulkchilikning paydo bo‘lishi. Xorazmda Afrig‘iylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi va bu yerda sulolaviy boshqaruvning an’anaviylashuvi.

O‘tgan asrning oxirlaridan boshlab hozirgi kunga qadar “Avesto” ma’lumotlari (viloyatlarning Aryoshayona bo‘yicha birlashishi), Gerodot va Gekatey asarlari (“Katta Xorazm”), shuningdek, Ktesiyning qadimgi Baqtriya podsholigi haqidagi ma’lumotlari va nihoyat, arxeologik tadqiqotlar natijalari O‘rta Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo‘lishi muammolarini o‘rganish uchun asos bo‘lgan bo‘lishiga qaramasdan, qadimgi davlatlar hududlari, shakllari, boshqaruv tizimi va

sanasi bilan bog‘liq bo‘lgan mavzularning ko‘pgina yo‘nalishlari hamon ilmiy bahslarga sabab bo‘lmoqda.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar O‘rta Osiyoda ilk davlatlarning shakllanish va rivojlanish jarayonini ahmoniylargacha bo‘lgan davrda deb hisoblaydilar va mil. avv. IX-VII asrlar bilan belgilaydilar (M.Dunker, V.Tomashek, F.Altxaym, S.P.Tolstov, M.M.Dyakonov, I.M.Dyakonov, V.M.Masson, M.Dandamayev, YA.G‘ulomov, B.A.Litvinskiy, E.V.Rtveladze, I.V.Pyankov, A.S.Sagdullayev va boshqalar). Ilmiy adabiyotlar O‘rta Osiyoda ahmoniylargacha bo‘lgan davrda mavjud bo‘lgan quyidagi davlat uyushmalari haqida so‘z yuritadi: 1.Aryoshayona - O‘rta Osiyodagi qadimgi viloyatlarning “dahiyosasti” uyushmasi; 2. Aryonam Vayjo - bu ham Aryoshayonadek yoki uning markazi Ariya va Marg‘iyonada bo‘lgan “Katta Xorazm”, yoki Amudaryoning quyi oqimidagi Xorazm davlati; 3. Qadimgi Baqtriya davlati. 4. Ko‘chmanchi qabilalar konfederatsiyasi.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar va masalaga yangicha yondoshuv asosida ushbu ro‘yxatga qadimgi So‘g‘diyonani ham kiritish imkoniyati paydo bo‘ldi. Tadqiqotlar natijalariga qaraganda, davlatchilikning asosiy omillari bo‘lgan jarayonlar so‘nggi bronza va ilk temir davriga kelib yanada jadallashadi. So‘g‘diyona hududlariga odamlar eng qadimgi davrlardayoq kirib kelib, tog‘, daryo vohalari, keyinchalik esa dasht hududlariga tarqaladilar. Bu hududlarda mavjud bo‘lgan qulay tabiiy-geografik sharoit, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, chetdan bo‘lgan tashqi ta’sirni (iqtisodiy, madaniy-siyosiy va harbiy) ham e’tirof etish lozim bo‘ladi. Mil. avv. IX-VII asrlarga oid tarixiy-madaniy yodgorliklar (ayniqsa qo‘hna shahar xarobalari) So‘g‘diyona hududlarida davlatchilik tarixi aynan mana shu davrdan boshlanganligidan dalolat beradi.

Ilk davlatchilik masalasida juda ko‘plab ilmiy bahslar bo‘lib o‘tgan bo‘lishiga qaramay, bu masala hanuz o‘z yechimini topgan deb hisoblanmaydi. Xususan, “Katta Xorazm” (Avesto tilida Xvarizam, qadimgi fors tilida Xvarazmish, qadimgi yunon tilida Xorasmiya) davlatining hududiy joylashuvi va paydo bo‘lgan davri masalalari ham ancha munozarali mavzu. Arxeologik tadqiqotlar ayrim hollarda yozma manbalar ma’lumotlarini tasdiqlamaydi. Mil. avv. IX-VIII asrlar Xorazm madaniyati Amirobod nomi bilan mashhurdir. Bu madaniyatning me’morchilik yodgorliklari, asosan, chayla va yarim yerto‘lalardan iborat bo‘lib mustahkam turar joylar uchramaydi. Xorazmdagi dehqonchilikning

rivojidan darak beruvchi yirik sug‘orish inshootlari, mustahkam mudofaaga ega bo‘lgan turar joylar (Ko‘zaliqir, Ding‘alja) mil. avv VI-V asrlarga oiddir.

Qadimgi Xorazmning joylashuv hududlari ham ancha munozarali mavzu hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar (Tarn, Altxaym) ahmoniylargacha xorazmiylar Parfiya chegaralaridan sharqiy yo‘nalishda Kopetdog‘ yonbag‘irlarida joylashgan desalar, ayrimlari (Xenning, Gershevich) bu davlatning markazi Marv va Hirot atrofida bo‘lib, Kir II bosib olganidan so‘ng Quyi Amudaryoga - hozirgi Xorazm hududlariga ko‘chib o‘tgan deydilar. Ayrim tadqiqotchilar fikricha (S.Tolstov, M.Vorobyeva) qadimgi Xorazmning chegaralari hozirgi Xorazm hududlaridan ancha keng bo‘lib, O‘rta Amudaryodagi Qo‘shqal’adan boshlab, Orol dengizigacha bo‘lgan hududlarni o‘z ichiga olgan.

Umuman, mil. avv. VII asrning oxiri - VI asrda Xorazm davlati mavjud bo‘lganligi aniq. Bu davr Xorazmda qurilish va hunarmandchilik ancha rivojlangan. Tadqiqotlar natijasida bu hududlardan bronza va temirdan yasalgan mehnat hamda harbiy qurollar, sopol urchuqlar, bronza igna, bigizlar, sopol idishlar topilgan. Bu topilmalar qo‘shni Marg‘iyona, Baqtriya va So‘g‘diyona topilmalariga o‘xshab ketadi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, O‘rta Osiyodagi ilk davlat uyushmalaridan biri Qadimgi Baqtriya davlatidir. Baqtriyaliklarning yurti Surxon vodiysi, Afg‘onistonning shimoli-sharqi, Tojikistonning janubiy hududlarida joylashib, turli yozma manbalarda Baxdi, Baqtrish, Baqtriyona, Baqtriya, Baxli, Baxlika deb tilga olingan.

Bronza davridagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish (Sopolli, Jarqo‘ton, Oltintepa va b.) keyingi davrlarda yanada jadallik bilan rivojlanadi. Natijada mil. avv. IX-VIII asrlarda Baqtriya hududida harbiy ahamiyatga ega bo‘lgan siyosiy birlashmalar tashkil topadi. Mil. avv. VIII-VII asrlarga kelib Qadimgi Baqtriya davlati Sharqdagi kuchli davlatlardan biriga aylanadi. Ushbu jarayonni arxeologik va yozma manbalar ma’lumotlari ham to‘la tasdiqlaydi. Ayrim tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, bu davr Baqtriya tarkibiga Marg‘iyona va So‘g‘diyona ham (tarixiy-madaniy birlik sifatida) kirgan bo‘lishi mumkin.

Ma’lumotlarga qaraganda, Baqtriyaning tabiiy boyliklari qadim davrlardayoq Sharq davlatlarida mashhur edi. Buyuk Ipak yo‘lidan ancha ilgariyoq qadimgi yo‘llarning Baqtriya orqali o‘tganligi bejiz emas.

So‘nggi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida qadimgi Baqtriya hududlaridagi manzilgohlar va ko‘hna shaharlar soni anchagina ko‘paydi. Davlatning poytaxti Baqtra va Qiziltepa, Bandixon

kabi ko‘plab yodgorliklardan topilgan ko‘p sonli turli-tuman topilmalar bu hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, shuningdek, o‘troq va ko‘chmanchi aholi o‘rtasida hamda Yaqin Sharq va Old Osiyo bilan o‘zaro iqtisodiy, madaniy aloqalar gurkirab rivojlanganligidan dalolat beradi.

Turli manbalardagi So‘g‘da, So‘g‘uda, So‘g‘diyona nomlari bilan mashhur bo‘lgan qadimgi tarixiy-madaniy o‘lka hozirgi Zarafshon va Qashqadaryo vohalarini o‘z ichiga olgan. Ilk temir davri So‘g‘diyona hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonlarini kuzatish mumkin. Bu rivojlanish jarayoni mil.avv. IX-V asrlarga oid ko‘p sonli manzilgohlar va ko‘hna shahar xarobalaridagi turli-tuman topilmalar va me’morchilik tuzilish bilan izohlanadi.

Ilk davlatchilikning eng asosiy belgilaridan bo‘lgan ko‘hna shahar xarobalari So‘g‘diyonadan to‘rtta (Yerqo‘rg‘on, Afrosiyob, Uzunqir, Ko‘ktepa) topib o‘rganilgan bo‘lib, ular hozircha O‘zbekistondagi eng qadimgi rivojlangan shahar madaniyatini o‘zida aks ettiradi.

So‘nggi 10-15 yil ichida Baqtriya, Xorazm, So‘g‘diyona va Marg‘iyona hududlaridan olingan yangi arxeologik ma’lumotlar ilk davlat uyushmalari paydo bo‘lishini yanada kengroq izohlash imkonini yaratadi. Bu ma’lumotlarga qaraganda ilk temir davri Baqtriya, Marg‘iyona, Xorazm va So‘g‘diyona umumiy jamoalaridagi asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlarni bir necha kichik oiladan iborat uy jamoalari tashkil etgan. Makonlar joylashuvining tashqi belgilari katta oilali uy jamoalari ancha yirik uyushmalarga kirganligidan dalolat beradi. Boshqaruv tartibida katta oilalar jamoasi boshliqlari yoki uy xo‘jayinlari, shuningdek, alohida qishloq qo‘rg‘onlarini boshqaruvchi eski jamoalar katta o‘rin tutgan. Har bir katta oila mumkin bo‘lgan qarindoshlik aloqalariga qaramasdan alohida uyga, ishlab chiqarish buyumlariga ega bo‘lishgan, o‘zining qishloq xo‘jalik mahsulotlari zahiralari va chorvalari bo‘lgan yoki o‘zini iqtisodiy jihatdan ta’minlay oladigan xo‘jalikni aks ettirgan.

Mil. avv. VII-VI asrlarda ancha yirik bo‘lgan Qadimgi Baqtriya, Xorazm va So‘g‘diyona davlatlarining aholisi qon-qarindosh bo‘lib, bir-biriga o‘xshash tilda gaplashganlar va juda yaqin madaniy an’analarga ega edilar. Bu davrda jamiyatning hududiy bo‘linishi ko‘zga tashlanib, o‘troqlashuv jarayoni kuchaydi. Muhim savdo yo‘llari bo‘yida tayanch istehkomlar qurildi. Turli qurilishlar bunyod etishda mudofaa inshootlarining ahamiyati birinchi o‘ringa chiqdi.

O‘rni kelganda shuni alohida ta’kidlash lozimki, o‘zbek xalqining ilk davlatchiligi tarixi geografik, hududiy ma’noda nafaqat

O‘zbekistonning hozirgi hududi bilan, balki butun O‘rta Osiyoda qadimda yuz bergan etnik, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq holda talqin etilmog‘i lozim. Tarixning qadimgi davrlarida ilk davlatlar orasida va ajdodlarimizning yashash joylari orasida aniq ma’muriy chegaralar yo‘q edi. Qadimgi Baqtriya, Xorazm, So‘g‘d chegaralari tabiiy bo‘lib, yaqin hududlardagi joylarning geografik bo‘luvchisi sifatida dashtlar, cho‘l va tog‘lardan foydalanilgan.

Hozirgi kunga qadar to‘plangan arxeologik ma’lumotlar asosida O‘zbekistonda ilk davlatlarning shakllanishi va rivojlanish jarayoni quyidagi davrlar bilan sanalanishi aniqlandi:

1. Bronza davri. Mil. avv. II ming yillikning o‘rtalari va ikkinchi yarmi. Unchalik katta bo‘lmagan dehqonchilik vohalari asosida (misol uchun Sherobod vohasi) ilk davlatchilik tizimiga o‘tish davri.
2. Bronza asridan temir asriga o‘tish davri. Mil. avv. IX-VIII asrlar. Mayda davlat tashkilotlarining rivojlanishi va harbiy siyosiy uyushmalarning vujudga kelishi.
3. Ilk temir davri. Mil. avv. VII-VI asrlar. Qadimgi Baqtriya, Xorazm va So‘g‘diyona misolidagi davlat uyushmalarining paydo bo‘lishi.

O‘zbek xalqi va uning ajdodlari ilk davlatchiligi taraqqiyoti o‘troq dehqonchilik xo‘jaligi va qadimgi shaharlar tarixi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Ilk davlatlar tashkil bo‘lishida, jamiyat rivojlanishining ichki qonuniyatlaridan tashqari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yuqori darajasi- hunarmandchilik, almashinuv va savdoning kuchayib borishi, siyosiy qarama-qarshiliklar va harbiy to‘qnashuvlar ham ta’sir qildi.

Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda O‘rta Osiyo

Mil. avv. 555-540-330-yillar O‘rta Osiyoning tarixiy-madaniy viloyatlari ulkan Ahmoniylar davlati tarkibiga kirar edi. O‘rta Osiyo viloyatlari va unga qo‘shni bo‘lgan hududlarning bosib olinishi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixi haqida ko‘pchilik olimlar turli yillarda tadqiqot ishlari olib bordilar. Bu tadqiqotlarning aksariyati ahmoniylar Eron hududlari tarixi bilan bog‘liqdir. Mavjud ilmiy tadqiqotlar ahmoniylar davri mixxat yozuvlari va ayrim yunon-rim tarixchilarining asarlari hamda arxeologik tadqiqotlar natijalariga asoslanadi.

Mil. avv. IX-VII asrlarda G‘arbiy Eronning ko‘pgina hududlari Ossuriya va Urartu davlatlari tarkibiga kirar edi. Mil. avv. VII asrning ikkinchi choragiga kelib Eron hududidagi eroniy tilli qabilalar asosida markazi Hamadonda bo‘lgan Midiya podsholigi tashkil topadi. Bu

davlatning Sharqdagi hududlari O‘rta Osiyo chegaralarigacha cho‘zilgan edi.

Mil. avv. VI asrning o‘rtalarida Midiya podsholigi o‘rnida Ahmoniylar davlati paydo bo‘ladi. Ko‘pchilik tarixiy adabiyotlarda Kir II ahmoniylar davlatining asoschisi sifatida e’tirof etiladi. Kir II, Kambiz, Doro I, Kserks kabi fors podsholari qadimgi Sharqdagi juda ko‘plab mamlakatlar ustidan o‘z hokimiyatini o‘rnatishni rejalashtirganlar va shunday siyosat olib borganlar.

Mil. avv. VI asrning o‘rtalarida Kir II o‘zining sodiq lashkarboshlaridan biri bo‘lgan Garpagga Kichik Osiyodagi shahar-davlatlarni bosib olishni buyuradi. O‘zi esa O‘rta Osiyo hududidagi viloyatlarni (Baqtriya, Xorazm, So‘g‘diyona, Marg‘iyona va boshq.) bosib olishiga tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi. Gerodot Kir II ning massagetlarga qarshi yurishi haqida so‘zlar ekan, bu yurishlarning ko‘pchiligi haqida to‘xtalmasdan, faqat forslarni tashvishga solgan yurishlar haqida eslatib o‘tadi. Tarixchining ma’lumot berishicha, Garpag Kichik Osiyo shaharlarini birin-ketin bosib olguncha Kir II butun Osiyo xalqlarini bo‘ysundiradi va shundan keyingina Bobilga yurish boshlaydi.

Qadimgi dunyo mualliflari Gerodot, Ksenofont, Ktesiy, Yustin kabilarning ma’lumotlaridan xulosa chiqaradigan bo‘lsak, Kir II mil. avv. 545-539 yillarda Sharqiy Eron va O‘rta Osiyo viloyatlarini bosib oladi. Doro I davrida (mil. avv. 522-486-yy.) Ahmoniylar sulolasi Hind vodiysidan O‘rta Yer dengiziga qadar bo‘lgan keng hududda o‘z hukmronligini o‘rnatgan. Juda ko‘p sonli davlatlar, viloyatlar, shaharlar va xalqlarni birlashtirgan ahmoniylar saltanati tarixda birinchi yirik dunyo davlati hisoblanadi.

Tarixiy manbalarning ma’lumot berishicha, O‘rta Osiyo xalqlari ahmoniylar bosqiniga qarshi qattiq kurash olib borganlar. Xususan, massaget qabilalari malika To‘maris (Tomiris) boshchiligida forslarning turli hiyla-nayranglar ishlatishiga qaramasdan ularning katta qo‘shinini tor-mor etadilar. Malika To‘maris va massagetlarning harbiy mahorati tufayli bu jangda ahmoniylar hukmdori Kir II ham halok bo‘ladi. Gerodot xabar berishicha, “Bu jang varvarlar (massagetlar) ishtirok etgan janglar orasida eng dahshatlisi edi... Kamon o‘qlari tugagach, qo‘l jangi boshlanib nayza va qilich bilan kurashdilar. Qo‘shinlar jangi uzoq vaqt davom etdi. Nihoyat massagetlar g‘alaba qozondilar.” Kir II qo‘shinlarining massagetlar tomonidan tor-mor etilishi mil. avv. 530 yilga to‘g‘ri keladi.

Tarixchi Poliyen forslarga qarshi kurashgan Shiroq qahramonligi haqidagi afsona to‘g‘risida xabar beradi. Uning xabariga ko‘ra, sak

qabilalarining vakili bo‘lgan Shiroq ismli cho‘pon hiyla yo‘li bilan forslarning katta qo‘shinlarini suvsiz sahro ichkarisiga adashtirib qo‘yadi. Shiroq ham, fors qo‘shinlari ham ochlik va tashnalikdan halok bo‘ladilar.

Mil. avv. 522-yilda ahmoniylar taxtiga Doro I o‘tiradi. U taxtga o‘tirishi bilanoq Parfiya, Marg‘iyona va “saklar o‘lkasi”da forslarga qarshi qo‘zg‘olonlar ko‘tariladi. Behistun yozuvlariga qaraganda, 522-yilning oxirida Marg‘iyonada ko‘tarilgan qo‘zg‘olonga Frada ismli kishi boshchilik qiladi. Doro I Baqtriya satrapi Dadarshish boshchiligidagi qo‘shinlarni qo‘zg‘olonchilarga qarshi jo‘natadi. Qo‘zg‘olon shavqatsizlarcha bostirilib 55 ming marg‘iyonalik halok bo‘ladi. Frada ham qo‘lga olinib qatl ettiriladi.

“Saklar o‘lkasi”dagi forslarga qarshi kurashga Skunha boshchilik qiladi. 519-518-yillarda bo‘lib o‘tgan bu kurashda saklar forslar tomonidan mag‘lubiyatga uchraydi. Saklarning ko‘pchiligi o‘ldirilib, ko‘pchiligi asir olinadi. Ularning yo‘lboshchisi Skunha asir olinib, o‘rniga boshqa yo‘lboshchi tayinlanadi. Xullas, forslar O‘rta Osiyodagi mahalliy aholining qahramonona qarshiligini qiyinchilik bilan sindirganidan keyingina bu hududlarni batamom o‘zlariga bo‘ysundirdilar.

Markaziy boshqaruv organlari. Ahmoniylar davrida davlat boshqaruvi shohlar shohiga (shahanshohga) tegishli edi. Shahanshohning cheklanmagan hokimiyati nafaqat fors zodagonlariga, balki, ma’lum darajada soliqlardan ozod qilingan va ahmoniylar davlatida ko‘pgina imtiyozlarga ega bo‘lgan ozod fors jamoalariga ham tayangan. Shuningdek, bosib olingan viloyatlarning mahalliy zodagonlari ham hokimiyatning tayanchi hisoblangan.

Hokimiyat iyerarxiyasida shahanshohdan keyin boy fors oilalarining boshliqlari turgan. Shahanshoh saroyida kengash mavjud bo‘lib uning tarkibiga boy oila boshliqlari, saroy ayonlari, yuqori lavozimdagi amaldorlar va noiblar kirgan. Davlat ahamiyatiga molik muhim masalalar ushbu kengashda ko‘rib chiqilsa-da, hal qiluvchi qarorni shahanshoh chiqargan.

Boshqaruvda shahanshohdan keyingi shaxs «xazarpat» - mingboshi deb atalgan. Xazarpat shahanshoh gvardiyasining boshlig‘i va davlat boshqaruvida shahanshohning bosh yordamchisi hisoblangan. Ahmoniylar saltanatining bosh ma’muriy markazi Suza shahri edi. Bu yerda shahanshoh devonxonasi joylashgan bo‘lib, barcha hujjatlar shu yerda saqlangan. Shahanshoh devonxonasi boshlig‘i «dapirpat» - mirzaboshi deb atalgan. Devonxonada bosh xazinachilar, hisobchilar, qozilar, mirzalar va boshqa amaldorlar ishlaganlar.

Hududiy bo‘linish. Qoyatosh bitiklar va Gerodot ma’lumotlariga ko‘ra, ahmoniylar davlati hududi 20 ta qaram-ma’muriy qismlarga – satraplarga bo‘lingan. Tadqiqotchilarning fikricha, forslar davlat boshqaruvining bu an’analarini midiyaliklardan o‘zlashtirganlar. Satraplar yirik hududlarga ega bo‘lib, ko‘pincha bir necha viloyat va o‘lkalarni o‘z tarkibiga birlashtirgan. Masalan, Parfiya, Girkaniya, Areya, Xorasmiya va So‘g‘diyona bitta satrap tarkibiga kirgan. Satraplarning chegaralari ayrim hollarda o‘zgarib turgan.

E’tibor berish lozimki, ahmoniylar davlatida satraplar etnik kelib chiqishiga qarab emas, balki iqtisodiy salohiyatiga qarab tashkil etilgan. Satraplar shahanshohning noibi sifatida asosan forslardan tayinlangan. Satrapning ma’muriyati va boshqaruvi shahanshoh ma’muriyati va markaziy boshqaruv apparatini qisqartirilgan holda takrorlagan. Ya’ni, satrapda ikkita yordamchi, devonxona va mirzalar bo‘lgan. Bir vaqtning o‘zida satrap o‘zi noiblik qilib turgan hududda bosh qozi vazifasini ham bajargan. Ayrim hollarni istisno qilganda satrap harbiy boshliqlik vazifasini bajarmagan. Misol uchun, Doro I barcha satraplarning harbiy vazifalarini bekor qilgan va ularga faqat o‘ziga bo‘ysinuvchi harbiy boshliqlarni jo‘natgan. Satraplarning faoliyati markazdan qattiq nazorat ostiga olingan. Hattoki shahanshoh huzuridagi amaldorlar tez-tez kelib satraplar faoliyatini tekshirib turganlar.

Qo‘shinlar. Ahmoniylar davlatida muntazam qo‘shin mavjud bo‘lib, uning asosini tarkibida o‘n ming jangchi bo‘lgan «abadiy o‘lmas» polk tashkil etgan. Qo‘shinlarning bosh qo‘mondoni shahanshoh edi. Harbiy tuzilmada keyingi o‘rinda «xazarpat»-mingboshi turgan. Ahmoniylar qo‘shinlari quyidagi qismlardan iborat bo‘lgan: 1. – «abadiy o‘lmas» polk; 2-piyoda qo‘shinlar; 3-otliq qo‘shinlar (suvoriylar); 4-satraplar qo‘shinlari; 5-yunon yollanmalari; 6-ko‘ngilli qo‘shin. Qo‘shinning qismlari 10,100,1000, 10000 kiishilik harbiylardan iborat bo‘lib, har bir qismning tayinlab qo‘yilgan boshlig‘i bo‘lgan.

Yilda bir marta shahanshohning shaxsan o‘zi qo‘shinlarni ko‘rikdan o‘tkazib, yaxshi xizmat qilganlarni taqdirlagan, harbiy qoidalarni buzganlarni jazolagan. Butun davlat hududi to‘rtta harbiy okrugga bo‘lingan. Har bir okrug harbiy boshlig‘i markazdan tayinlanib bevosita shahanshohga bo‘ysungan. Bosib olingan hududlar va chegara rayonlarda harbiy gornizonlar joylashtirilgan. Ahmoniylar qo‘shinlarining harbiy tartibi haqida Gerodot va Kursiy Ruf batafsil ma’lumotlar beradilar. Bu ma’lumotlarga ko‘ra, ularning asosiy harbiy qurollari qilich, gurzi, o‘q-yoy, qalqon, xanjar, harbiy bolta va nayzalardan iborat bo‘lgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Ahmoniylar bosib olgan barcha hududlar satrapiya hokimliklarga bo‘lingan bo‘lib ularni fors podsholari tomonidan tayinlab qo‘yilgan satrap-hokimlar boshqarganlar. Gerodot ma’lumotlariga ko‘ra, Baqtriya XII satrapiya bo‘lib 300 talant (talant-Bobil pul birligi bo‘lib, 1 talant 30 kg dan ziyodroq kumushga teng), saklar va kaspiylar XV satrapiya bo‘lib 200 talant Xorazm, So‘g‘d, Parfiya va Ariya XVI satrapiya bo‘lib 300 talant miqdorda yillik soliq to‘lar edilar. Shuningdek, O‘rta Osiyoliklar soliq sifatida qimmatbaho toshlar, chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarini ham fors podsholariga berib turganlar.

Mil. avv. VI-IV asrlar O‘rta Osiyo viloyatlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot ancha rivojlanadi. Bu davrda Baqtriya yirik davlat bo‘lib, fors podsholarining Sharqdagi yirik markazlaridan biri edi. So‘nggi yillarda O‘rta Osiyoning janubida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida Qadimgi Baqtriya hududidan o‘ttizdan ziyod ahmoniylar davriga oid manzilgohlar ochilgan. Ularning har birida o‘zlashtirilgan maydonlar va sug‘orish tartibidan tashqari turar joylar va xo‘jalik xonalari, mehnat va harbiy qurollar, kulolchilik buyumlarining qoldiqlari mavjuddir.

Bu davr Baqtriya aholisining asosiy mashg‘uloti dehqonchilik edi. Qalayimir, Kuchuktepa, Qizilcha, Bandixon kabi ko‘plab yodgorliklardan dehqonchilik bilan bog‘liq bo‘lgan mehnat qurollari-o‘roqlar, ketmonlar, yorg‘uchoq va dehqonchilik mahsulotlari qoldiqlarining topilishi dehqonchilikdan dalolat berib, dehqonchilik asosan sun’iy sug‘orishga asoslanganligini ko‘rsatadi.

Baqtriyaning poytaxti qadimgi Baqtra (Hozirgi Balx) shahrida qazish ishlari olib borilib, u yerdan topilgan kulolchilik buyumlari ko‘hna shaharning eng qadimgi qatlamlari mil. avv. I ming yillikning o‘rtalariga oid ekanligidan dalolat beradi.

Bu davrda Baqtriyada badiiy hunarmandchilik ham yuqori darajada bo‘lgan. 1877 yilda Kobadiyon bekligi (Tojikiston) dan oltin va kumushdan iborat katta xazina topilgan. “Amudaryo xazinasi” nomi bilan mashhur bo‘lgan bu xazinada oltin va kumushdan quyilgan jang aravalari, jangchilar qiyofasi, hayvonlar tasvirlarini uchratish mumkin. Bu xazina mahalliy ustalar ijodi bo‘lib, mil. avv. V-IV asrlarga oiddir.

Mil. avv. VI-IV asrlarda So‘g‘diyona hududlarida ko‘plab shahar va qishloqlar bo‘lib, ular fors podsholariga katta-katta soliqlar to‘lab turar edilar. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Zarafshon va Qashqadaryo vohalaridan bu davrga oid Uzunqir, Yerqo‘rg‘on, Daratepa, Sangirtepa,

Lolazor, Afrosiyob, Xo‘ja Bo‘ston kabi 50 dan ziyod ko‘hna shahar va manzilgohlar ochib o‘rganilgan.

So‘g‘diyonaning poytaxti bo‘lgan Afrosiyob (Samarqand)da shahar hayotining rivojlanishi So‘g‘diyona va butun O‘rta Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy hayotning yuksalishi hamda inqirozi bilan muvofiq tarzda kechgan. So‘g‘diyonaning “ikkinchi poytaxti” bo‘lgan Yerqo‘rg‘onni (Qashqadaryo) tadqiqotchilar yunon-rim tarixchilari tomonidan eslatilgan Ksenippa viloyatining markaziy shahri deb hisoblaydilar.

So‘g‘diyona hayotida dehqonchilik katta ahamiyatga ega edi. Shunisi muhimki, dehqonchilik sun’iy sug‘orishga asoslangan bo‘lib, bu haqda yozma manbalar ma’lumot beradi. Xususan, Straboning yozishicha, Politimet (Zarafshon) daryosi vohadagi eng katta suv manbayi bo‘lib, sug‘oriladigan yerlarga kanallar orqali suv chiqarilgan. Qo‘hna shaharlarda esa hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlanib borgan.

Mil. avv I ming yillikning o‘rtalarida Xorazm ham rivojlanish jarayonini boshdan kechiradi. Xorazm tadqiqotlari natijalariga qaraganda VI-IV asrlarda bu hududda yirik-yirik manzilgohlar mavjud edi. Bu davrda Xorazmda inshootlar qurilishida xom g‘isht, paxsa ishlatilgan. Manzilgohlar va turar joylardan topilgan topilmalarning boy va qashshoqligi bu yerda mavjud bo‘lgan ijtimoiy va mulkiy tengsizlikdan dalolat beradi. Shaharlar aholisining asosiy mashg‘uloti hunarmandchilik bo‘lgan. Ko‘plab topilgan sopol, bronza, temir buyumlar fikrimiz dalilidir. Xorazmda bu davrda mahalliy o‘troq aholidan tashqari ko‘chmanchi chorvadorlar ham yashagan bo‘lib, ular o‘rtasida doimiy harbiy to‘qnashuvlar, iqtisodiy va madaniy munosabatlar bo‘lib turgan.

O‘rta Osiyo xalqlari ahmoniylar madaniyat yodgorliklari bunyod etilishida katta hissa qo‘shdilar. Bu davrda O‘rta osiyo xalqlari ilk marta zarb qilingan tanga pullar bilan tanishdilar. O‘rta Osiyo hududidan ahmoniylar pul tartibiga oid oltin dariklar va boshqa tangalar topilgan. Ahmoniylar davrida ko‘pgina Sharq xalqlarining siyosiy birligi - butun jahon tarixida, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida muhim davr bo‘lib qoldi. Bu o‘rinda O‘rta Osiyo hududidagi xalqlar va qabilalarning ham hissasi nihoyatda katta bo‘ldi.

Ma’lumki, ahmoniylar davlati turli xalqlar va elatlarni bosib olib birlashtirish yo‘li bilan tashkil topgan edi. Bu davlat tarkibidagi xalqlar doimiy ravishda o‘z ozodligi va mustaqilligi uchun kurash olib bordilar. Undan tashqari ahmoniy hukmdorlarining taxt uchun kurashlari ham davlatni zaiflashtirib bordi. Mil. avv. IV asrning o‘rtalaridan boshlab esa, Bolqon yarim orolidagi shahar-davlatlar kuchaya boshlaydi. Bu davrda

Makedoniya podshosi Fillip II Bolqon yarim orolida o‘z mavqeini mustahkamlab oldi va ahmoniylarga qarshi kurashga tayyorgarlik ko‘ra boshladi.

Fillip II o‘z davriga mos harbiy islohotlar o‘tkazib tartibli va yaxshi qurollangan qo‘shin tuzishga muvaffaq bo‘ldi. Mil. avv. 336 yilda ahmoniylar davlatiga qarshi kurash boshlandi. Ammo, Fillip II ning o‘ldirilishi tufayli bu kurash to‘xtab qoldi. O‘sha yili taxtga Fillip II ning o‘g‘li 20 yoshli Iskandar (Aleksandr) o‘tirdi. Bu paytga kelib, yunon shahar-davlatlarida Iskandarga qarshi harakatlar boshlangan bo‘lib, yosh podsho bu harakatlarning barchasini shafqatsizlik bilan bostirdi. Iskandar ahmoniylarga qarshi urushga jiddiy kirishib Kichik Osiyodan Parmenion boshliq qo‘shinlarni chaqirtirdi. Harbiy kengash tuzib quruqlikda va suvda harakat qilayotgan qo‘shinlar oldiga aniq vazifalar qo‘ydi.

Mil. avv. 334-yilning bahorida makedon qo‘shinlari “urush olovini Osiyoga, Osiyo baxtini esa o‘zimizga qaratamiz” shiori ostida forslarga qarshi yurish boshladi. Mil. avv 334-yil may (Granik daryosi yonida), 333-yil noyabr (Issa shahri, Suriya chegarasida), 331-yil oktyabr (Gavgamela, Shimoli-sharqiy Mesopotamiyada) bo‘lgan hal qiluvchi janglarda fors qo‘shinlari to‘la mag‘lubiyatga uchradi. Arrianning ma’lumot berishicha ahmoniylarning so‘nggi hukmdori Doro III Baqtriyaga qochib ketadi va Baqtriya satrapi Bess tomonidan fitna uyushtirilib o‘ldiriladi.

Mil. avv. 330-329-yillar qishida Makedoniyalik Iskandar qo‘shinlari Hinduqush dovonidan o‘tib Shimoliy Baqtriya yerlariga chiqib keladilar. Bess o‘z qo‘shinlari bilan Iskandarga qarshi chiqdi. Ammo, tajribali yunon-makedon qo‘shinlaridan mag‘lubiyatga uchradi. Iskandar Baqtriyaning poytaxti Baqtra shahri, Aorn, Drapsak kabi mustahkam qal’alarni egalladi.

Mil. avv. 329-yilning bahorida Makedoniyalik Iskandar qo‘shinlari Oks (Amudaryo) bo‘ylariga yetib kelib katta qiyinchilik bilan daryoni kechib o‘tdilar. Daryodan o‘tgan qo‘shinlarning dastlab Ptolemey Lag boshchiligidagi ilg‘or qismi keyin esa asosiy qo‘shinlar Navtaka viloyatiga (Sharqiy Qashqadaryo) kirib boradilar. Bu yerdan esa Iskandar qo‘shinlari So‘g‘diyonaning poytaxti Marokandaga (Samarqand) yo‘l oldilar. Kursiy Ruf ma’lumotlariga qaraganda, yunon-makedon qo‘shinlari Maroqandani egallashda unchalik qarshilikka uchramadilar va “shaharda o‘z garnizonlarini qoldirib, yaqin atrofdagi qishloqlarni yondirib va vayron etib”, shimoli-sharqqa tomon harakatlana boshladilar.

Maroqandadan so‘ng yunon-makedon qo‘shinlarining yurishi nihoyatda og‘ir kechdi. Mahalliy so‘g‘diy aholi dushmanni o‘ta norozi kayfiyatda kutib oldi hamda bir tan- bir jon bo‘lib unga qarshi chiqdi. Ular o‘z yerlarining ozodligi va mustaqilligini mardonavor turib chet el bosqinchlaridan himoya qildilar. Iskandar Ustrushonaning (Samarqand va Jizzax oralig‘ida) tog‘li hudud aholisini qiyinchilik bilan yenggach dasht ko‘chmanchilari (saklar) va o‘troq aholi (so‘g‘diylar) o‘rtasida chegara hisoblangan Yaksart (Sirdaryo) tomonga harakat qila boshladi. Yunon-makedonlar daryo bo‘yida to‘xtab bu yerdagi shaharlarga o‘z harbiy qismlarini joylashtira boshladilar. Ko‘p o‘tmay bu shaharlar aholisi Iskandarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradilar. Daryoning o‘ng qirg‘og‘idagi saklar ham o‘z qo‘shinlarini bir yerga to‘play boshlaydilar. Xuddi shu paytda Baqtriya va So‘g‘diyona hududlarida ham Iskandarga qarshi qo‘zg‘olonlar boshlanib ketadi.

Iskandar dastalab Yaksart bo‘yida o‘z mavqeini mustahkamlashga qaror qilib, bu yerdagi qo‘zg‘olonlarni bostirdi. So‘g‘diyonada mil. avv. 329 yil kuzida Spitaman boshchiligidagi qo‘zg‘olonni (Maroqandada) bostirish uchun sarkarda Farnux boshchiligidagi qo‘shinlarni jo‘natdi. O‘zi asosiy kuchlar bilan saklar ustiga yurish qildi. Ammo bu yurish muvaffaqiyatsiz tugadi.

Farnux boshchiligida Maroqandaga jo‘natilgan qo‘shinlar Spitaman tomonidan mag‘lubiyatga uchradi. Iskandarning o‘zi asosiy kuchlar bilan So‘g‘diyonaga qaytishga majbur bo‘ldi. O‘rta Osiyo hududlarida ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlar yunon-makedon zulmidan ozod bo‘lishga qaratilgan bo‘lib, Iskandarning “varvar”larni osonlikcha bosib olmoqchi bo‘lgan rejalarini puchga chiqardi.

So‘g‘diyonaning tog‘li hududlaridagi bosqinchilar qadami yetmagan joylarda qo‘zg‘olonchilar yashirinib olgan edilar. So‘g‘diyonaning deyarli barcha aholisi Spitaman tomonida bo‘lib, uning g‘alabalariga katta umid bog‘lagan edilar. Iskandar esa, mil. avv. 329-28 yillar qishlovini Baqtriyada (ba’zi manbalarda Navtakada deyiladi) o‘tkazar ekan vaqtni behuda ketkazmadi. U bu yerda Xorazm hukmdori Farasman bilan muzokaralar olib bordi. Natijada Iskandarning Xorazmga yurish rejasi to‘xtatildi.

Mil avv. 328-yilning bahoridan yunon-makedonlarga qarshi kurash yana avj oldi. Mahalliy aholi yirik shaharlar, qal’alar, tog‘li hududlarda kurashni davom ettirdilar. Ahvol jiddiylashganidan xavotirga tushgan Iskandar 30 ming qo‘shinini 5 guruhga bo‘lib, bu guruhlarga ishonchli

sarkardalar-Gefestion, Ptolemey Lag, Perdikka, Ken va Artabozlarni boshliq etib tayinladi.

Yunon-makedonlarning shafqatsiz urushlari natijasida koʻpgina mahalliy aholi qirilib ketdi. Qolganlari ham togʻli hududlarda kurashni davom ettirdilar. Bu oʻrinda Spitamanning jasorati haqida toʻxtalish joizdir. U doimo raqiblarining zayif joylarini izlar va ularga aynan oʻsha joylardan zarbalar berar edi. Spitaman soʻgʻdiy va baqtriyalik zodagonlar, hamda saklar bilan ittifoqlikda dushmanga qarshi kurashishga harakat qildi. Manbalarning ma'lumot berishicha mil. avv. 328-yilning oxirida Spitaman oʻz vatandoshlari xiyonatining qurboni boʻladi. Spitaman tajribali davlat arbobi va sarkarda boʻlib, u bosqinchilarni Ona-yurtidan haydab chiqarishi uchun imkoniyati boʻlgan barcha tadbirni koʻrdi, choralardan unumli foydalanishga harakat qildi. U mohir sarkarda boʻlib dushmanning kichik xatosidan ham unumli foydalanar va uning zayif tomonlarini topishga harakat qilardi. Ammo, Iskandar harbiy kuch-qudrati jihatdan Spitamandan ustun edi.

Spitaman halok boʻlganidan soʻng asosan togʻ qal'alari qoʻzgʻolon oʻchoqlariga aylanadi. Yozma manbalarda eslatilgan "Soʻgʻd qoyasi" (yoki "Arimaz qoyasi"), "Xoriyen qoyasi" shular jumlasidandir.

Makedoniyalik Iskandar mahalliy aholini kuch bilan yengish nihoyatda ogʻir ekanligini anglab yetganidan soʻng turli yoʻllar bilan ularga yaqinlashishga qaror qildi. Mahalliy xalq vakillariga nisbatan siyosatini tubdan oʻzgartirdi. Xususan, zardoʻshtiy kohinlariga birmuncha erkinliklar berib oʻzi ham bu dinni qabul qildi. Qoʻzgʻolon boshliqlari Oksiart, Sisimitr, Xoriyen kabilarni avf etib, mol-mulklarini qaytarib berdi. Hatto, qoʻzgʻolonga qatnashganlarga mukofotlar tarqata boshladi. Mahalliy aholi bilan qarindoshlik munosabatlarini oʻrnatib Oksiartning qizi goʻzal Roksanaga (Rohshanak) uylandi. Natijada mahalliy zodagonlarninng deyarli barchasi Iskandar hokimiyatini tan olib uning xizmatiga oʻtib ketdilar. Mil. avv. 327-yilning oxirida Soʻgʻdiyonadagi qoʻzgʻolonning soʻnggi oʻchoqlari ham bostirildi.

Yunon-makedon bosqinchilariga qarshi uch yil davomida kurash olib borar ekan, Oʻrta Osiyo xalqlari mislsiz jasorat namunalarini koʻrsatdilar. Ular yunonlar oʻylaganidek, "varvarlar" va madaniyatdan orqada qolgan emas, balki oʻz davrining yuksak harbiy san'ati va madaniyatiga ega ekanliklarini namoyish etdilar. Iskandar qoʻshinlari butun Sharq davlatlarini oʻzlariga boʻysundirganlarida Soʻgʻdiyona va Baqtriyadagi kabi qattiq qarshilikka uchramagan edilar. Bu holni Iskandar tarixini yozgan koʻpgina qadimgi davr tarixchilari ham e'tirof etadilar.

O‘zbekiston hududlarida yashagan mahalliy aholi qadimgi davrlardan boshlab bosqinchilarga qarshi ayovsiz kurash olib borib o‘z ozodligi va mustaqilligi yo‘lida bir tan-bir jon bo‘lib harakat qilganlar. Ammo kuchlar nisbati va harbiy texnikaning teng emasligi ko‘p hollarda bosqinchilar ustunligini ta’minlagan.

“Avesto”. Madaniy hayot

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga qaraganda, ilk temir davri O‘rta Osiyoda yashagan xalqlar va qabilalar orasida keng tarqalgan va asosiy din zardo‘shtiylik edi. Bu diniy ta’limotning asoschisi Zaratushtra va bu dinning muqaddas kitobi “Avesto” haqidagi bahs va munozaralar tadqiqotchilar orasida hozirgacha davom etmoqda.

Zaratushtra (o‘rta fors tilida “oltin tuyali”, “oltin tuya yetaklagan odam”) tarixiy shaxs bo‘lib, Spitama avlodidan kelib chiqqan. Zaratushtraning otasi Pourushasp qohinlar avlodidan bo‘lgan. Zaratushtra tug‘ilgan joy haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Uning tug‘ilgan yilini tadqiqotchilar keng sanalar bilan (mil. avv. 1500-1000 yillardan boshlab, mil. avv. VII-VI asrlargacha) bog‘laydilar. Sosoniylar davri (III-VII asr) zardo‘shtiylar an’analariga e’tibor beradigan bo‘lsak, Zaratushtraning hayoti mil. avv. VII-VI asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar bu sanani to‘g‘ri deb hisoblaydilar.

Zaratushtra tug‘ilgan joy hamda “Avesto” paydo bo‘lgan hudud haqida ham olimlar orasida yagona fikr yo‘q. Bir guruh olimlar Zaratushtrani hozirgi Ozarbayjon, yana bir guruh qadimgi Baqtriyada, boshqa guruh olimlar Xorazmda va Eronda tug‘ilib faoliyat ko‘rsatgan va “Avesto” ham shu hududlarda paydo bo‘lgan deb hisoblaydilar.

Zaratushtraning yangi ta’limoti o‘z vatanida tarafdorlarini topmaganligi sababli u o‘z yurtidan ketishga majbur bo‘lgan. Zaratushtra diniy ta’limotini birinchi bo‘lib qabul qilgan tarafdorlar qadimgi Baqtriya podshosi Kavi Vishtasp, malika Xutaosa va ularning yaqin qarindoshlaridir. Zaratushtra o‘z g‘oyalarida qonli qurbonlik qilishni qat’iyan qoralaydi. U yana shuni ta’kidlaydiki, odamzod yashashga haqli bo‘lib, bu huquqdan uni mahrum qilishga hech kimning haqqi yo‘q.

Zaratushtra o‘z g‘oyalarini targ‘ib qila boshlagan davr O‘rta Osiyo va Eron xalqlari tarixida eng muhim davr edi. Ibtidoiy jamoa munosabatlari o‘zgarib, davlatchilik tizimi munosabatlari qaror topmoqda edi. Yangi din esa bu o‘zgarishlarni o‘zida aks ettirib, tug‘ilayotgan sinfiy jamiyatga xizmat qilar edi. U birlashishga va kuchli markazlashgan

hokimiyat tuzishga, o‘sha davrda o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi vodiy aholisi uchun “xudoning qamchisi (tig‘i)” hisoblangan ko‘chmanchi xalqlarga qarshi keskin kurashga chaqirdi.

Zardo‘shtiylarning diniy falsafasi qarama-qarshi kuchlarning kurashiga asoslangan. Bu kurash yorug‘lik, yaxshilik kuchlari xudosi Axuramazda, qora va zulmat kuchlari xudosi Axriman o‘rtasida boshlanib jamiyat va insonlar orasida davom etgan.

Zaratushtra ta’limotiga ko‘ra jamiyat yaxshilik va yomonlikdan iborat. Shuningdek, bu ta’limotga ko‘ra insonlar hayotining asosiy mazmuni doimo xayrli ishlar qilish, bir-biriga mehr-oqibatli, xushmuomala bo‘lish va olijanob fazilatlardan iborat. Zardo‘shtiylarda to‘rt unsur - olov, yer, suv va havo muqaddas hisoblangan va ular doimo ardoqlanib kelingan.

Zardo‘shtiylar o‘limni dunyoda, jamiyat taraqqiyotida eng yovuz narsa deb hisoblaganlar. Shuning uchun ham ular muqaddas yerga o‘likni ko‘mmaganlar hamda o‘ziga xos ko‘mish marosimlariga amal qilganlar. O‘likni (odam, hayvon) yerga ko‘mish qattiq jazolangan. Zardo‘shtiylar o‘likni maxsus joylarda saqlab, hayvonlar va qushlar ular suyaklarini tozalaganidan so‘ng tozalangan suyaklarni tosh, loy yoki ohakdan yasalgan maxsus “astadon” (“ossuariy”)larga dafn etganlar.

Zaratushtra dini vaqt o‘tishi bilan asta-sekin, eron tiliga mansub xalqlar o‘rtasida tarqalar ekan o‘z asosini saqlagan holda biroz o‘zgaradi. Axuramazda va Axrimandan tashqari “Avesto” bir qator boshqa xudolar - Mitra, Xouma, Anaxita, Ashi va Zurvon kabi ulug‘ xudolar faoliyati haqida ham hikoya qiladi.

Zardo‘shtiylik Sosoniylar davrida (mil. III-VII asrlar) uzil-kesil rasmiylashgan. Bu davrda zardo‘shtiylik adabiyoti ham keng tarqaldi. Dastlabki paytlarda zardo‘shtiylik dinining muqaddas matnlari avlodlarga og‘zaki yetkazilgan va Zaratushtra o‘limidan so‘ng bir necha asr o‘tgach ma’lumotlar to‘planib yagona matn yozilgan. “Avesto” shu tariqa yuzaga kelgan. Bir qator olimlar zardo‘shtiylik aqidalariga tayanib “Avesto”ni ilk sosoniylar (III-IV asrlar) davriga bog‘lasalarda, shunga qaramay uning birinchi tahriri mil. avv. I asrda bo‘lib o‘tgan deb hisoblanadi. “Avesto” (“Asos”, “Asosiy matn”) jumlasi ham o‘sha paytda paydo bo‘ladi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga qaraganda, ilk temir davri O‘rta Osiyo hududlarida madaniy hayot, milliy urf-odatlar, an’analarning rivojlanganligini kuzatishimiz mumkin. Shunday an’analardan biri Navro‘z bayramidir.

Navro‘z qadim avlodlarimizdan bizgacha yetib kelgan muqaddas urf-odatlardan bo‘lib, uni bayram qilish O‘rta Sharq va O‘rta Osiyoda qadimdayoq rasm bo‘lgan. Asrlar o‘tishi bilan Navro‘z bilan bog‘liq an’analar xalqlar va elatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishi zaminida keng yoyila borib, ko‘p o‘lkalarning an’anaviy milliy bayramiga aylandi.

Narshaxiyning ma’lumot berishicha, “Navro‘z - Yangi yil bayramini o‘tkazish” an’analari boshlanganiga uch ming yildan o‘tgan. Ingliz olimasi M.Boys fikricha, zardo‘shtiylarda “olov hamda ezgulik homiysi Asha Vahishta sharafiga bahoriy udum - Navro‘zni o‘tkazish an’anasi paydo bo‘lgan”. Beruniyning yozishicha, “Navro‘z yangi yilning birinchi kuni bo‘lib, uning forscha nomi ham shu ma’noni taqozo etadi. Yeronliklar o‘tmish zamonlarda yillarni qabisali oylarga bo‘lishgan. Bu vaqt quyoshninng Saraton burjiga kirish paytiga to‘g‘ri kelar edi. So‘ngra u orqaga surilgach, bahorda keladigan bo‘ldi. Endi u butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya’ni, bahor yomg‘irining birinchi tomchisi tushishidan gullar ochilguncha, daraxtlar gullashidan mevalari yetilguncha o‘simlik unib chiqa boshlashidan takomillashguncha davom etgan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro‘z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan.”

Demak, Navro‘z 3-3,5 ming yillar ilgari paydo bo‘lgan bo‘lib, asrlar davomida yangicha qarashlar va an’analar bilan boyib bordi. Shu bilan birga uning tarkibida ajdodlarimining qadimgi mifologik tasavvurlari va hayot tarzi bilan aloqador marosim va urf-odatlar ham saqlanib qoldi.

5-mavzu. Antik davr davlatlari. Buyuk ipak yo‘li, shakllanishi, rivojlanish bosqichlari

Salavkiylar, Parfiya va Yunon-Baqtriya davlatlari

Makedoniyalik Iskandarning mil.avv. 334-324 yillardagi harbiy yurishlari natijasida Bolqon yarim oroli, Egey dengizi orollari, Kichik Osiyo, Misr, Old va O‘rta Osiyo, Hind daryosining quyi oqimigacha bo‘lgan hududni qamrab oluvchi ulkan davlat tashkil topdi. Yunon-makedonlarning 330-327 yillardagi O‘rta Osiyoga bosqinchilik yurishlariga qaramasdan o‘sha davrda bu hududlarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida muhim o‘zgarishlar bo‘lib o‘tdi. O‘rta Osiyoga Ellin (Ellada) madaniyati kirib keldi. O‘rta Osiyoning janubiy viloyatlari yirik ellinistik davlatlar tarkibiga kirib, bu viloyatlarda yangi siyosiy-ma’muriy tartib joriy etildi. Bu tartib O‘rta Osiyoda madaniy, iqtisodiy, tovar-pul

munosabatlarining rivojiga turtki bo‘ldi. Xususan, bu davrda O‘rta Osiyoda dastlabki tanga pullar zarb etildi. Yunon yozuvi kirib keldi. Shaharsozlik, me’morchilik va amaliy san’atda birmuncha o‘zgarishlar bo‘lib o‘tdi.

Ammo Makedoniyalik Iskandar davlati ham turli xalqlar, elatlar va qabilalarning zo‘rlab birlashtirilgan yig‘indisidan iborat bo‘lib, faqat qo‘rqitish va qurol kuchi orqali idora qilinar edi. Mil.avv. 323 yilda makedoniyalik Iskandarning Bobilda to‘satdan vafot etishi siyosiy vaziyatning keskin o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Yunon diadoxlari (hukmdorlar, amaldorlar) o‘rtasida hokimiyat uchun shafqatsiz kurash boshlandi.

Bu paytda yunonlar va makedonlar O‘rta Osiyoda hokimiyatni boshqaruvchi qatlamini tashkil etar edilar. Makedoniyalik Iskandar vafotiga qadar Baqtriya va So‘g‘diyona satrapi asli makedonlardan bo‘lgan Filipp edi. Undan keyin esa bu hududlar asli Kipr orolidan bo‘lgan yunon Stasanor qo‘l ostiga o‘tdi. Bu paytda ikki diadox - Evmen va Antigon Iskandar davlatining asosiy yerlarini qo‘lga kiritish uchun o‘zaro kurashayotgan edilar. Filippning katta qo‘shinlari bilan yordam bergani tufayli Antigon Iskandar davlatining katta qismiga hukmronlik o‘rnatishga muvaffaq bo‘ldi. Ammo uning bu hukmronligi uzoqqa cho‘zilmadi.

Mil.avv. 312 yilda Iskandarning eng ishonchli sarkardalaridan biri **Salavka** diadoxlar bilan bo‘lgan kurashda ustun kelib Bobil, Suziana, Midiya va boshqa qo‘shni viloyatlarni bosib oldi va ko‘p o‘tmay Old Osiyo, Eron va O‘rta Osiyo hududlariga ham o‘z hukmronligini o‘rnatdi. Ammo Hindistondagi harbiy-siyosiy vaziyat tufayli bu hududlardagi muvaffaqiyat Salavkiylar foydasiga hal bo‘lmadi. Mil. avv. IV asrning oxirlarida bu yerda Chandragupta asos solgan kuchli Maurya davlati Salavkaga qattiq qarshilik ko‘rsatganligi sababli Salavka sulh tuzishga majbur bo‘ldi.

Uning Hindistondagi mag‘lubiyati salavkiylarning O‘rta Osiyodagi noiblari ahvoliga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu holat bu yerda salavkiylarga qarshi kurash kuchayishiga sabab bo‘ldi. Mahalliy o‘troq va ko‘chmanchi aholining ko‘p sonli qo‘zg‘olonlari bu kurashlardan dalolat beradi. Ular salavkiylarning tayanch nuqtalari bo‘lgan Marg‘iyonadagi Aleksandriya va aftidan, Aleksandriya Esxatani vayron etadilar. Tadqiqotchilarning fikricha, bu kurashlar natijasida yirik etnik ko‘chishlar bo‘lib o‘tgan bo‘lishi mumkin. Xullas, salavkiylar hokimiyatni egallagan paytdayoq ularning O‘rta Osiyodagi ahvoli

tahlikali edi. Aynan shu sababli O‘rta Osiyo viloyatlari yerlaridan mahrum bo‘lishdan qo‘rqib ketgan Salavka I o‘z vorisi Antiox I boshchiligidagi Sharqiy noiblik (straplik)larni ta’sis etdi.

Antiox I vayron etilgan qal’alarni tikladi, yirik va qalin devor bunyod etdi (Marg‘iyona devori), qo‘zg‘olonlari bostirdi. U salavkiylar qudratini namoyish etish maqsadida atrofidagi o‘troq va ko‘chmanchi aholi ustiga harbiy yurishlar uyushtirdi. Antiox I tomonidan o‘tkazilgan bir qancha harbiy-siyosiy va diplomatik tadbirlar tufayli O‘rta Osiyodagi salavkiylarga qarshi harakatlar bostirildi.

Yunon tarixchisi Pompey Trogning yozishicha, “Salavka ba’zi bir joylarni muzokaralar yo‘li bilan egalladi, ammo, Baqtriya, Parfiya, So‘g‘d yerlarida u qattiq qarshilikka uchradi va og‘ir janglar olib borishga to‘g‘ri keldi“. Bu ma’lumotni qadimgi tarixchi Arrian ham tasdiqlaydi: “Salavka I baqtriyaliklar, so‘g‘diylar, parfiyaliklar va girkaniyaliklar bilan ko‘p urushlar olib borgach, ular yerlariga hukmronlik qila boshladi”. Hozirgi tadqiqotchilarning fikricha, bu hududlarning bosib olinishi mil. avv. 306-301 yillariga to‘g‘ri keladi.

O‘rta Osiyodagi viloyatlar salavkiylar davlati siyosiy tarixida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Salavka Iskandar davrida Spitamanning qizi Apamaga uylandi. Qarindoshchilikni hisobga olibmi yoki boshqa maqsadni nazarda tutibmi, Salavka mil. avv. 293-yilda o‘g‘li Antiox I ni Sharqiy satraplarga, jumladan O‘rta Osiyo yerlariga hokim etib tayinlaydi.

O‘zining uzoq yillik hukmronligi davrida (mil. avv. 293-261-yy.) Antiox G‘arbga qilgan ko‘pgina yurishlari bilan shuhrat qozondi. U o‘z davlatining sharqiga, shumladan O‘rta Osiyo yerlariga kam e’tibor qaratdi. Bu paytda uning viloyatlarida iqtisodiy o‘zgarish yuz beradi. Ancha tinch hayot boshlanib qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik, savdo-sotiq anchagina rivojlanadi. Salavkiylar davlati markazidan chetda bo‘lishiga qaramasdan, O‘rta Osiyo ular davlatining eng muhim qismi edi. O‘rta Osiyo harbiy-strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, salavkiylar bu hudud bo‘ylab o‘tgan savdo yo‘llari bo‘yida shaharlar va qishloqlar qurdirib ularda hunarmandchilik, o‘zaro almashinuv va savdo-sotiqni rivojlantirganlari bejiz emas.

Salavka I Antigon bilan hokimiyat uchun talashib, Sharqiy hududlar va Kichik Osiyo uchun keyingi kurash jarayonidayoq yo‘l-yo‘lakay o‘z hokimiyatida boshqaruv tartibini joriy eta boshlagan edi. U Iskandar an’analariga sodiq qolganligini ko‘rsatish maqsadida satrapiyalarni yirik viloyat uyushmalari sifatida saqlab qoldi. Tangashunoslik manbalari

ma’lumotlariga qaraganda Salavka I davlati Ahmoniylar va Iskandar davlatlariga nisbatan ancha kichik bo‘lib, hokimiyat 27-28 satrapiyalarga bo‘lingan.

Har qaysi satrapiyani shoh tomonidan tayinlab qo‘yilgan satrap yoki strateg deb nomlanuvchi shaxs boshqargan. Fors satraplaridan farq qilgan holda ular ham ma’muriy, ham harbiy boshqaruvni qo‘lga olganlar. Satrap-strateg ma’muriy boshqaruvda eng yaqin odamlaridan o‘ziga yordamchi tanlagan. Bu yordamchi soliq yig‘uvchilar faoliyati, ichki va tashqi savdo, xo‘jalik hayotini nazorat qilib borgan.

Tarixiy manbalarda salavkiylar satrap-strateglari yunoncha nomda tilga olinadi. (Stratonik, Aleksandr, Giyeraks va b.). Demak, salavkiylar hukmdorlari asosan yunonlardan va ayrim hollarda ellinlashgan mahalliy aholidan tayinlangan. Tadqiqotchilarning fikricha, O‘rta Osiyoda yunon hokimlari va ular atrofida to‘plangan yunon-zodagonlar bilan birga mahalliy zodagonlar ham hokimlik qilar edilar. Salavkiylar hokimiyati, O‘rta Osiyodagi harbiy manzilgohlarda (katoykiyalarda) joylashgan harbiy kuchlarga tayangan edi. Aholiga jabr-zulm qilishda mahalliy hukmron guruh vakillari ham ishtirok etardilar.

O‘z davrida salavkiy hukmdorlari shaharsozlik bilan faol shug‘ullanganlar va keyinchalik «Salavkiya» deb atalgan shahar markazlariga asos solganlar. Markaz sulola vakillaridan birining nomi bilan atalgan hollarda unga polis huquqi (to‘liq mustaqil bo‘lmagan) berilgan. Bunday shaharlar ma’muriy nazorat ostiga olingan. Shuningdek, bu shaharlarda yunon aholisi jamlanishi lozim edi. Salavkiylarning shaharsozlik faoliyati haqida Pliniy, Strabon, Ammian Marsellin kabi antik davr mualliflari ma’lumotlar beradilar. Bu ma’lumotlarga ko‘ra, Marg‘iyona Antioxiyasi, Skifiyadagi Antioxiya, Tarmat Antioxiyasi (Termiz bo‘lishi mumkin), Oyxonim kabilar polis huquqiga ega bo‘lgan. Salavkiylar davlatida shaharlarga tobe qishloqlar o‘zining jamoa tuzilishini saqlab qolgan bo‘lib, ularning tobeligi jamoaviy xususiyatga ega bo‘lgan va ular polis hududiga kiritilmagan.

Salavkiylarning O‘rta Osiyodagi istilochilik siyosati haqida to‘liq ma’lumotlar saqlanmagan. Ammo qo‘shni viloyatlarga oid ko‘p sonli ma’lumotlardan xulosa chiqaradigan bo‘lsak, salavkiylarning istilochilik siyosati O‘rta Osiyoni ham chetlab o‘tmagan. Bu siyosatni amalga oshirish maqsadida ko‘p sonli yunonlar ko‘chirib keltirilgan. Ular yangi bunyod etilgan shaharlar hamda yunon harbiy manzilgohlari – katoykiyalarida istiqomat qilganlar. Ayrim hollarda mahalliy aholi vakillari ham hokimiyat boshqaruvida ishtirok etganlar.

Salavkiylar davri Baqtriya, Marg‘iyona, So‘g‘diyona va Parfiya hududlarida ko‘p aholili shaharlar ko‘p edi. Marakanda, Baqtra, Niso kabi ko‘plab qadimgi shahar xarobalarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan topilmalar bu hududlarda hunarmandchilik, savdo-sotiq va xo‘jalik ishlari rivojlanganligidan dalolat beradi.

O‘rta Osiyodagi yunonlar bilan aloqalar mahalliy xalqlar madaniyatining ba’zi tomonlarini g‘arbga tarqatuvchi muhim omillardan biriga aylandi. Ayrim tadqiqotchilar to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek, ellin madaniyatida sof yunon madaniy ijodi emas, balki yunon va sharq mamlakatlarining o‘ziga xos qo‘shilishi o‘z aksini topdi. Ellin madaniyatining rivojlanishida O‘rta Osiyo xalqlari ham muhim rol o‘ynadilar. O‘rta Osiyoning katta qismi salavkiylar davlatiga qo‘shib olinishi g‘arb va sharq o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishiga turtki berdi. Shu bilan birga mahalliy madaniyat, savdo-sotiq, shahar hayoti, hunarmandchilik va sug‘orish ishlari izchil rivojlanib bordi.

Shunday qilib, O‘rta Osiyoning salavkiylar davlati tarkibiga kirgan davri yunon-makedon istilosi tufayli vayron etilgan iqtisodiy hayotni tiklash, baqtriyaliklar, so‘g‘diylar, parvfiyaliklar va boshqa O‘rta Osiyo xalqlarining salavkiylarga qarshi kurashish uchun birlashuvi davri bo‘ldi.

Mil. avv. III asrning 60-50-yillariga kelib Kichik Osiyo va Bolqon yarim orolida salavkiy hukmdorlari o‘rtasida hokimiyat uchun kurashlar avj oldi. Natijada salavkiylar davlatining sharqiy satraplari siyosiy hayotida o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Mil. avv. 250 yilga kelib dastlab Parfiya, keyin esa Yunon-Baqtriya davlatlari salavkiylar davlatidan ajralib chiqib o‘zlarini mustaqil deb e’lon qildilar.

Parfiya haqidagi dastlabki ma’lumotlar mil. avv. VII asrga oid Ossuriya hujjatlarida uchraydi. Mil. avv. VI asrning boshlarida Parfiya kuchli Midiya hukmronligi ostiga tushib qoladi.

Parfiya qo‘shni Baqtriya, Marg‘iyona va So‘g‘diyona kabi serhosil yerlarga ega emas edi. Tadqiqotchilarning “Qoraqum-Parfiya davlatining beshigidir” degan fikrlari bejiz emas. Biroq mamlakat harbiy-strategik ahamiyatga ega bo‘lgan muhim hududda joylashgan edi. Midiyaliklarga u skiflar hujumidan saqlanishi uchun zarur bo‘lsa, Kir uchun boy Xorazm vohalariga chiqish yo‘lidagi darvoza vazifasini o‘tar edi. Makedoniyalik Iskandarning Parfiyani istilo qilishiga sabab shimoldagi ko‘chmanchi qabilalarni itoatda tutish bo‘lsa, salavkiylar uchun Parfiyani qo‘lda saqlash shimoliy chegaralarning xavfsizligini ta’minlash demak edi.

Mil. avv. 247-yilda Parfiyada Arshak boshchiligidagi parnlar qabilasi Niso shahriga hujum qilib uni egallaydi. Shu yili parnlar Arshakni o‘zlariga podsho qilib saylaydilar. Tarixiy manbalarning ma’lumot berishicha Arshak uzoq muddat podsholik qilgan va katta mavqega ega bo‘lgan. Sulola (Arshakiylar) asoschisi o‘zining tashkilotchiligi, jasurligi va mohir diplomatligi sababli qisqa muddat ichida mustaqil davlat tuzishga erishgan. Mil. avv. 235-yildan boshlab Parfiya podsholari o‘z davlatlari hududlarini kengaytirib bordilar.

Paydo bo‘lganligining dastlabki o‘n yilligida Parfiya podsholigi Parfiyona va Arshak I qo‘shib olgan Girkaniyadan iborat edi. Bu paytda Parfiya xalqaro siyosat maydonida unchalik katta ahamiyatga ega bo‘lmay, tashqi siyosatini asosan Salavkiylar va Yunon-Baqtriyadan mustaqil bo‘lishga qaratgan. Mil.avv. 230-228-yillar Salavka II ning Parfiyani qayta qo‘shib olish uchun qilgan harakati muvaffaqiyatli chiqmadi. O‘zini o‘nglab ola boshlagan Arshak I qo‘shin to‘plash, qal’alalarni mustahkamlash, yangi shaharlar barpo etishga kirishdi.

Parfiya davlatining ulkan imperiyaga aylanib xalqaro siyosat maydoniga chiqishi Mitridat I hukmronligi bilan bog‘liqdir. O‘ttiz besh yil (mil.avv. 171-137-yy.) hukmronlik qilgan bu podsho ko‘plab harbiy yurishlar qildi. Uning hukmronlik davrida g‘arbga qilingan ko‘p yillik urushlar, ichki nizolar va beqarorlik tufayli Salavkiylar davlati zayiflasha boshlagan edi. Bundan unumli foydalangan Mitridat I dastlab Ekbatanni, keyin esa Hindistonni bosib oldi. Mil.avv. 141-yilda Bobil bo‘ysundirildi. Shu tariqa Mitridat I Parfiyani qudratli davlatga aylantirib, Arshakiylarning ko‘pgina erkinliklarini qayta tikladi.

Mil. avv. II asrning o‘rtalarida yuyechjilar sak qabilalarini Parfiyaning sharqiy chegaralariga surib borgan. Saklar bilan bo‘lgan janglarda Fraat III va Artabon II lar halok bo‘ldilar. Mil. avv. 128 yilda Mitradat II taxtga o‘tirdi. Uning hukmronlik davridan boshlab Rim va Parfiya kuchli raqiblarga aylanadi. Ikki kuchli saltanatning o‘zaro munosabatlari Sharq va G‘arbdagi siyosiy jarayonlarni belgilab bera boshlaydi. Mil. avv. 88-yilda Mitridat II vafot etib Arshak IX nomi bilan Gotraz taxtga o‘tiradi. Uning hokimiyat tepasiga kelishi mamlakat ichidagi siyosiy inqirozlar davriga to‘g‘ri keladi. Ba’zi davlatlar Parfiyadan ajralib keta boshlaydilar. Umuman, milodning III asriga qadar Parfiya davlatiga Arshakiylar sulolasi hukmronlik qildi. Milodning 207-222-yillarida Vologez V hukmronligi davrida Parfiya davlati ikkiga bo‘linib ketdi (213-y.). Bular Vologez V hukmronligidagi Mesopotamiya va Artabon V hukmronligidagi Midiya edi. Aynan shu vaqtga kelib fors

yerlarida yangi kuchli davlat-sosoniylar davlati vujudga kelmoqda edi. O‘zini o‘nglab, oyoqqa turib olgan bu yosh davlat ko‘hna va ulkan Parfiya saltanatini ag‘darib tashladi.

Parfiyaning davlat boshqaruvi uchta - ahmoniylar, ellinistik va ko‘chmanchi parn qabilalari an’analariga asoslangan edi. Oliy hokimiyat podsho qo‘lida bo‘lib, podsholik qilish huquqi faqat Arshakiylar urug‘iga berilgan. Podsho huzurida ikkita qarindoshlar kengashi hamda zardo‘shtiy kohinlari va saroy zodagonlari kengashi faoliyat ko‘rsatgan. Birinchi kengash ko‘chmanchi parn qabilalari an’analarini aks ettirib, davlat boshqaruvida katta rol o‘ynagan. Muhim davlat masalalarini hal etishda Moguston (Avestoda zardo‘shtiy qohinlarining oliy kengashi ma’nosida eslatiladi) deb nomlangan qo‘shma kengash o‘tkazilgan. Manbalarda Arshakiylar saroyidagi «paxrakpat» - saroy qo‘riqchilari boshlig‘i, «arkpat» - qal’a boshlig‘i kabi unvonlar eslatiladi.

Pliniy va Isidor Xarakskiy ma’lumotlariga ko‘ra, Parfiya 18 ta satraplikka bo‘lingan. Ahmoniylar satrapiyalaridan farqli o‘laroq, Parfiya satrapiyalari ancha kichik bo‘lgan. Bu ma’muriy okruglarning boshqaruvchilari satrap atalib, podsho tomonidan tayinlangan. Satrap faqat podshoga bo‘ysunib, o‘zining boshqaruv apparatiga ega bo‘lgan.

Eski Nisodan topilgan parfiya hujjatlarida satrap Kofezat, otliq qo‘shinlar qo‘mondoni Tiridat va xazinabon eslatib o‘tiladi. Davlat boshqaruvida avtonom shaharlarning ahamiyati katta bo‘lgan. Bunday shaharlar davlatning g‘arbida, asosan, Mesopotamiyada joylashgan. Isidor Xarakskiy 20 ta shunday shahar haqida ma’lumot beradi. Ularning ko‘pchiligi salavkiylar, ayrimlari parfiyaliklar tomonidan boshqarilib, ko‘pgina avtonom huquqlarga ega bo‘lgan. Ularda yunonlar, semitlar, eroniylar, parfiyaliklar yashaganlar.

Niso (Turkmaniston) shahridan topilgan hujjatlar (xumlarga bitilgan) Parfiya davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida, arxeologik topilmalar esa Baqtriya, So‘g‘diyona, Xorazm va Marg‘iyona bilan o‘zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar haqida ma’lumotlar beradi. Parfiya qishloq xo‘jaligida qullar mehnatidan keng foydalanilgan. Pompey Trog ma’lumotlariga ko‘ra, “Parfiyada qullar ko‘p edi, qullarni ozod qilish davlat tomonidan man qilingan edi. Butun Parfiyada qullar mehnatidan sug‘orish inshootlarini qurish maqsadida keng foydalanilgan”. Mamlakatning iqtisodiy hayotida savdo-sotiq ishlari muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Parfiya davlati besh asr davomida Hindiston, O‘rta Osiyo va Xitoyning G‘arb mamlakatlari bilan qilgan savdo aloqalarida vositachilik qilgan.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda **Yunon-Baqtriya davlatining** salavkiylardan ajralib chiqishi yunon zodagonlarining qo‘zg‘oloni xususiyatiga ega bo‘lib, unga Baqtriya aholisi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan Diodot boshchilik qiladi. Tadqiqotchilar Yunon-Baqtriya davlati paydo bo‘lgan turli sanalarni belgilaydilar (mil. avv. 256, 250, 248 va 246-245-yy.). Bu davlatning asosi Baqtriya bo‘lib, ba’zi hokimlar davrida (Yevtidem, Demetriy, Yevkratid) Hindistonning shimoli-g‘arbiy qismi, Amudaryo va Sirdaryo o‘rtasidagi katta yerlar qo‘shib olinadi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikricha, Yunon-Baqtriya mulklarining chegaralari doimiy mustahkam bo‘lmasdan harbiy-siyosiy sharoitdan kelib chiqib o‘zgarib turgan. Mil. avv. III asrning oxirlari O‘rta Osiyoning janubidagi harbiy-siyosiy vaziyat haqida Polibiy ma’lumotlar beradi. Uning yozishicha, salavkiylar tomonidan Baqtrada qamal qilingan Yevtidem (Yunon-Baqtriya hukmdori) ularning hukmdori Antiox III ga “chegarada ko‘chmanchi qabilalar turganligi va ular chegaradan o‘tadigan bo‘lsa har ikkala tomonning ham ahvoli og‘ir bo‘lishi mumkinligini” bildiradi. Tadqiqotchilarning fikricha, Polibiy ma’lumot bergan ko‘chmanchilar mil. avv. III asrning oxirlarida Zarafshon daryosiga qadar deyarli butun So‘g‘dni egallagan bo‘lib, bu hududlar Yunon-Baqtriya mulklarining vaqtinchalik shimoliy chegarasi bo‘lib qoladi. Shuningdek, G‘arbiy Hisor tog‘ tizmalari ham shimoliy chegaralar bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Yunon-Baqtriya davlatining gullab-yashnagan davri mil. avv. III asrning ikkinchi yarmi va mil. avv. II asrning birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Janubiy hududlardan bu davrga oid Jondavlattepa, Dalvarzin (pastki qatlamlar), Oyxonim, Qorobog‘tepa, Kampirtepa kabi yodgorliklardan hokimlar saroylari, ibodatxonalar, turar-joylar, mehnat va jangovar qurollar, turli hunarmandchilik buyumlari hamda ko‘plab tanga pullarning topilishi bu hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi rivojlanish jarayonlaridan dalolat beradi.

Yunon-Baqriya davlati markazlashgan davlat bo‘lib, hokimiyatni podsho boshqarar edi. Davlat bir necha viloyatlarga bo‘lingan bo‘lib bu viloyat hokimlari podshoga bo‘ysunar edilar. Ba’zi tadqiqotchilar So‘g‘d va Farg‘ona ham Yunon-Baqtriya tarkibiga kirgan desalar, ayrimlari bu davlatning chegaralari Amudaryodan nariga o‘tmagan deydilar. So‘nggi yillarda olib borilgan qazishmalar natijasida topilgan juda ko‘plab arxeologik topilmalar Amudaryoning o‘ng va so‘l qirg‘og‘i aholisining

mil.avv. III-II asrlardagi o‘zaro aloqalardan darak beribgina qolmay, bu yerlarni Yunon-Baqtriya davlati tarkibiga kirganligidan dalolat beradi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda mil. avv. 250-140/130 yillar davomida Yunon-Baqtriya davlati mustaqil davlat sifatida mavjud bo‘lib, bu davrda Diodot, Yevtidem, Yevkratid, Geliokl kabi podsholar hokimiyatni boshqarganlar. Mil. avv. II asrning ikkinchi yarmiga kelib ko‘chmanchilar zarbalari ostida Yunon-Baqtriya davlati inqirozga uchradi.

Yaqin va O‘rta Sharqning turli davlatlari, jumladan O‘rta Osiyo hududlarida katta xronologik davr yunon-makedon sulolalari siyosiy hukmronligi davri sifatida izohlanib fanda bu davr-**ellinizm davri** deb ataladi. Ellinizm-(Bolqon yarim orolidagi Ellada shahri nomi bilan bog‘liq)bu aniq tarixiy mavjudlik bo‘lib, iqtisodiy hayotda, ijtimoiy va siyosiy tuzumda, mafkura va madaniyatda ellin (yunon) va Sharq unsurlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi ifodasidir.

Qadimgi (antik) davrda ellin dunyosi Yunonistondan Hind daryosi vodiysiga bo‘lgan ulkan hududni qamrab olgan edi. Tadqiqotchilar, ellinlashuv darajasiga qarab bu hududni uchta mintaqaga bo‘ladilar: 1. Ellada; 2 Kichik Osiyo, Suriya va Misr; 3.Yefrat daryosining sharqidagi viloyatlar. Bu hududlar tarixiy adabiyotlarda “Ellinlashgan Sharq“ tushunchasida aks etgan bo‘lib, uning tarkibiga Mesopotamiya, Eron, O‘rta Osiyoning janubiy viloyatlari, Afg‘oniston, Pokiston va Hindistonning Makedoniyalik Iskandar bosib olgan hududlari kirgan.

Makedoniyalik Iskandar yurishlari natijasida keng miqyosda boshlangan ellinizm madaniyatining kirib kelishi Baqtriya, Parfiya va So‘g‘diyona shaharlari, hunarmandchiligi va badiiy-amaliy san’atiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Yozma manbalar Iskandar nomi bilan bog‘liq uchta shahar: Aleksandiya Oksiana (Oks bo‘yidagi Iskandariya), Aleksandriya Marg‘iyona (Marg‘iyona Iskandariyasi), Aleksandriya Esxata (Chekkadagi Iskandariya) haqidagi ma’lumotlar beradi. Ulardan tashqari, katoykiyalar deb nomlangan yunon harbiylari manzilgohlari ham mavjud edi.

Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida O‘rta Osiyoning janubiy hududlaridan ellinizm madaniyati bilan bog‘liq bo‘lgan turar-joylar, moddiy-ma’naviy madaniyat buyumlari, tanga pullarning topilishi bu hududlardagi mahalliy madaniyatga ellin an’analari (shaharsozlik, haykaltoroshlik, badiiy-amaliy san’at, alifbo va boshqalar.) kuchli ta’sir etganidan dalolat beradi. Shu bilan birgalikda bu topilmalar mahalliy madaniyatdagi rivojlanish qadimgi davr (antik) Sharq va G‘arb

madaniyatining o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida o‘ziga xos madaniyat darajasiga ko‘tarilishining ham guvohidir.

Qang‘, Dovon va Kushon davlatlari

Tadqiqotchilarning fikriga qaraganda, Salavkiylar sulolasi bilan doimiy ravishda olib borilgan kurashlar natijasida mil.avv. III asrning boshlarida **Qang‘ davlati** paydo bo‘ldi. Keyinchalik Yunon-Baqtriya davlati hamda ko‘chmanchi qabilalar bilan kurashlar natijasida Qang‘ davlati yanada mustahkamlandi va ayrim manbalarda O‘rta Osiyodagi yirik davlatlardan biri sifatida eslatiladi. Bu davlatning asosiy negizini Sirdaryoning o‘rta oqimida yashovchi qang‘lar tashkil etganlar. Mil. avv. II asrning boshlariga kelib Qang‘ davlatining yerlari birmuncha kengayib sharqda Farg‘ona vodiysi (Dovon), shimoli-sharqda usun, yuyechji qabilalari bilan shimoli-g‘arbda Sarisu daryosi, g‘arbda, Sirdaryogacha borgan. Bu katta hudud Toshkent vohasini, Talas vodiysini va qisman Chu vodiysining quyi oqimidagi yerlarni o‘z ichiga olib Qang‘ davlatining asosiy yerlari hisoblangan, Mil.avv.II-I asrlarda qang‘liklar Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi yerlarni va Xorazmni o‘zlariga bo‘ysundiradilar.

Qadimgi manbalarda Qang‘ davlat hokimiyati qay tarzda idora qilinganligi haqida aniq ma’lumotlar berilmagan. Katta Xan sulolasi tarixida (mil.avv. 202-mil. 25 yy.) faqat bir marta Qang‘uy (Qang‘) podshosi o‘z oqsoqollari bilan maslahatlashib ish tutganligi eslatib o‘tiladi. Tadqiqotlar natijalaridan xulosa chiqaradigan bo‘lsak, Qang‘ davlati kengashida qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol ishtirok etganlar. Podsho saroyi qoshidagi kengashda davlatning ichki hamda tashqi siyosati va boshqa barcha muhim masalalar maslahat bilan hal qilingan.

Qang‘ davlatiga qarashli yerlar bir necha viloyatlarga bo‘linib ularning har birini alohida hokim boshqargan. Viloyat boshliqlari jobu yoki yobu (Xitoy manbalarida-chjavou) deb atalgan. Qang‘ hukmdorlari mamlakatni ana shu jobularga tayanib idora etgan. Bu viloyatlarning ko‘pchiligi Qang‘ davlatining kuchaygan davrlarida, ya’ni, mil.avv. II-I asrlarda tobe etilgan. Xitoy manbalarida qang‘arlarga qarashli beshta: Susye, Fumu, Yuni, Gu, Yuyechyan viloyatlari eslatib o‘tiladi. Tadqiqotchilar ularni qadimgi Toshkent, Sug‘diyona va Xorazm hududlarida joylashgan deb hisoblaydilar.

Manbalarda Qang‘ podsholarining ikkita: yozgi va qishgi qarorgohlari eslatiladi. Ular yozni O‘trorda (hozirgi Qozog‘istondagi Aris va Turkiston oralig‘ida) qishni esa Qanqa (Qanxa, hozirgi Toshkent viloyati Oqqo‘rg‘on tumanida) o‘tkazganlar. O‘troq aholidan tashqari Qang‘ davlatining chegaralarida bir qancha qabilalar mavjud bo‘lib, ular dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik bilan ham shug‘ullanib kelganlar. Ular bahor va yoz mavsumlarida o‘z chorvalari bilan ko‘chib, yozgi yaylovlarda yashaganlar. Qishda esa chorvalari bilan o‘z an’anaviy qishlov joylariga qaytib kelganlar. Qang‘lar podsholari va beklari yirik chorvadorlar bo‘lib, ular issiq kunlarni yaylov joylarida, yozgi qarorgohlarida o‘tkazganlar.

Sirdaryoning o‘rta oqimida yashovchi aholining ma’lum qismi mil.avv. III-milodiy V asrlarda o‘troq hayot kechirganlar. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga qaraganda, O‘tror, Oqtepa, Qorovultepa, Qovunchi, Choshtepa, Mingo‘rik xarobalari o‘rnida qang‘arlarning qo‘rg‘onlari va ko‘xna shaharlari bo‘lgan. Shahar va qishloqlarda yashovchi o‘troq xalqlar ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholiga nisbatan yuqori turganlar. Toshkent vohasida yashovchilar asosan dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanganlar. Ular arpa, bug‘doy, tariq, no‘xat, sholi va boshqa donli ekinlar yetishtirganlar. Mevali daraxtzor va uzumzorlari ko‘p bo‘lgan. Sirdaryoning o‘rta oqimida yashovchi qang‘arlar asosan, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanganlar.

Qoramozor, Qurama va Chotqol tog‘larida temirchilik, misgarlik hunarining rivojlanishi uchun kerakli ma’danlar bo‘lgan. Bu joylardan juda ko‘plab mis, temir, kumush va boshqa metallar olingan. Ustalar turli metallarni bir-biriga qo‘shib, mustahkam qurollar yasashni ham o‘zlashtirganlar. Shuningdek, kundalik ehtiyoj buyumlari ishlab chiqarilib ichki va tashqi savdo uchun turli mahsulotlar tayyorlangan.

Qang‘ shaharlari qalin va baland devorlar bilan o‘ralgan. Devorlarning tashqarisida qal’a atrofi gir aylantirilib chuqur va keng qilib handaq qazilgan. Shaharlar ichida mustahkam istehkom (ark) va shahristonlarning ham baland mudofaa devorlari, bir necha darvozalari bo‘lgan. Yirik shaharlardan tashqari, Toshkent vohasida yuzga yaqin aholi yashaydigan katta va kichik qo‘rg‘onlar ham mavjud bo‘lgan.

Qang‘arlarga xos madaniyat Toshkent vohasidagi Qovunchitepadan topib o‘rganilgan bo‘lib, fanda **Qovunchi madaniyati** nomi bilan mashhurdir. Arxeologik topilmalar ma’lumotlariga qaraganda bu madaniyat asosan Toshkent vohasi, Sirdaryo o‘rta oqimi, Yettisuv va

Shimoliy Farg‘onada keng tarqalgan. Sirdaryoning o‘rta oqimida yashovchi xalqlarning So‘g‘diyona, Farg‘ona va Tyanshan tog‘ining shimoli-sharqiy qismida yashovchi xalqlar bilan yaqin aloqada bo‘lganligi tufayli Qovunchi madaniyati ancha taraqqiy etgan.

Milodiy V asr o‘rtalariga kelib qang‘arlar yeridagi o‘troq va qisman o‘troq aholi O‘rta Osiyoda yangidan tashkil topgan Yeftalitlar davlatiga tobe bo‘ldilar.

Mil. avv. I ming yillikning so‘nggi choragida O‘rta Osiyoning shimoliy va shimoli-sharqiy hududlarida ham qadimgi (antik) davlatlar rivojlanadi. Xususan, mil. avv. II-I asrlarga oid Xitoy manbalari dehqonchilik va chorvachilik, ayniqsa yilqichilik keng rivojlangan **Dovon (Da-yun, Farg‘ona)** davlati haqida ma’lumotlar beradi. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, Dovon davlati ma’lum siyosiy uyushmani tashkil etgan bo‘lib, davlatni boshqaruvchi hukmdor manbalarda “van” (podsho) unvoni bilan ish yuritgani ta’kidlanadi. Davlat hukmdori mamlakatning siyosiy va diniy hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan oqsoqollar kengashiga tayanib ish ko‘rgan. Oqsoqollar urush va sulh tuzish masalalarini hal etishda ishtirok etganlar, ba’zan ular hukmdorning taqdirini hal etganlar.

Manbalar Dovon davlatining poytaxtlari - bosh shahar Ershi va ikkinchi shahar Yuchen (davlatning sharqida) haqida ma’lumotlar beradi. Tadqiqotchilar bosh shaharni Marhamat (Andijon vil.) va ikkinchi shaharni Shurabashot (O‘zgand vohasi Qirg‘.) o‘rnida bo‘lgan deb hisoblaydilar. Farg‘ona vohasi hududlarida ko‘chib yurgan chorvador va ko‘chmanchi qabilalar Dovon tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lganlar. Bu qabilalar uchun Farg‘ona madaniy va hunarmandchilik markazi hisoblangan.

Mil. avv. II asrdan boshlab Qashg‘ardan Dovonga shimoliy yo‘ldan karvon yo‘li harakati boshlanadi. Bu yo‘ldan ipak va boshqa mahsulotlarning xalqaro tranzit savdosi amalga osha boshlaydi. Bu paytga kelib Dovon aholisi ko‘paya boshlaydi va ko‘plab mustahkamlangan aholi manzilgohlari paydo bo‘ladi. Savdo yo‘lida Dovon muhim ahamiyatga ega bo‘la boradi. Tadqiqotchilar fikricha, Yassa va Qoradaryo vohalarida ko‘pgina qal’alar savdo yo‘lini qo‘riqlash maqsadida barpo etiladi.

Mil. avv. 125-yilda Dovonga kelgan mashhur Xitoy sayohatchisi Chjan Syan Dovonning qishloq xo‘jaligi haqida ma’lumot berib, shunday yozadi: “O‘troq aholi yer haydaydi, g‘alla va sholi ekadi, ularda musallas navli uzum, juda ko‘plab yaxshi otlar bor”. Bu ma’lumot qadimgi Farg‘onada dehqonchilik madaniyati yuqori darajada rivojlanganligini

isbotlaydi. Xitoyliklarni ayniqsa, o‘zlari uchun notanish bo‘lgan beda va uzum hayratga solgan. Manbada yana shunday ma’lumot bor:”Xitoy elchisi urug‘ keltirdi, shunda osmon farzandi (Xitoy imperatori) unumdor yerga beda va uzum ekdi”.

Xitoy manbalari, shuningdek, qadimgi Farg‘ona chorvachiligining o‘ziga xos tomoni bo‘lgan yilqichilikning yuqori darajada rivojlanganligi haqida ham ma’lumotlar beradi. Dovon o‘lkasi qadimgi (antik) davrda mashhur zotdor otlari bilan shuhrat qozongan edi. Manbalardan ma’lum bo‘lishicha, ularni yetishtirish bilan o‘troq aholi shug‘ullangan. “ Dovonda yaxshi otlar bo‘lib ular Ershi shaharidadir, otlarni yashiradilar va Xan elchisiga berishga rozi bo‘lmaydilar”. Dovonning mashhur “samoviy otlari” tasvirlari tushirilgan qoyatosh suratlari bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan.

Xususan, O‘shdan 8 km uzoqlikdagi Ayrimchatovdagi qoya adirlarda 30 ta chiroyli zotdor otlarning tasvirlari bor. Xuddi shunga o‘xshash tasvirlar Marhamat yaqinidagi Aravon qoyasidan, Navqat vohasi va Obishirsoydan ham topilgan. Bu tasvirlar Dovon o‘zining samoviy otlari bilan qadimdan mashhur bo‘lganligini tasdiqlabgina qolmay, farg‘onaliklarning yuksak tasviriy san’at sohiblari bo‘lganligidan ham dalolat beradi.

Manbalarning guvohlik berishicha, qo‘shni davlatlar, xususan Xitoy imperatorlari Dovon otlarini nihoyatda qadrlaganlar. Otlar va Dovonning serunum yerlari uchun mil. avv. II asrning oxirlarida Xitoy va Dovon o‘rtasida harbiy to‘qnashuvlar ham bo‘lib o‘tgan. Bu to‘qnashuvlarda dovonliklar o‘z mustaqilliklarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lganlar.

Milodning I-II asrlarga kelib qadimgi Farg‘ona aholisining o‘troq dexqonchilik madaniyati yuqori darajaga ko‘tariladi. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Farg‘ona vodiysida bu davrga oid ko‘p sonli aholi manzilgohlari, qal’alar, qo‘rg‘onlar, ko‘hna shaharlar xarobalari aniqlangan. Aholi manzilgohlarini vodiyning turli hududlarida keng yoyilishi sug‘orma dehqonchilik va irrigatsiya ishlarining yuqori darajada rivojlanishi natijasi edi. Davlatning siyosiy va madaniy rivojlanishida hunarmandchilik markazlari bo‘lgan qadimgi shaharlar ayniqsa katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bu davrga oid arxeologik topilmalar dehqonchilikdan ixtisoslashgan hunarmandchilikning ajralib chiqqanligidan dalolat beradi. Bu jarayon o‘z navbatida hunarmandchilik va tog‘-kon sanoatining (turli ma’danlar qazib olish) yanada rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Hunarmandchilikning rivojlanishi va qadimgi yo‘llarning mavjudligi tufayli Farg‘ona vodiysida Sharqiy Turkiston bilan olib borilgan tashqi savdo bilan bir qatorda, atrofdagi tog‘ vodiylarida yashovchi chorvadorlar bilan ham o‘zaro almashinuv rivojlanadi. Antik davr Farg‘ona yodgorliklarining ayrimlarida Xitoy tangalari (u-shi) uchrasa ham mahalliy tangalar uchramaydi. Bu hol natural xo‘jalik (mahsulot ayirboshlash) ustunligidan dalolat beradi.

Tarixiy manbalar Yunon-Baqtriya davlati ko‘chmanchi qabilalar tomonidan tor-mor etilganligi eslatiladi. Strabon ma’lumotlariga ko‘ra, Baqtriyani assiylar, passianlar, toxarlar, sakaravr qabilalari bosib oladilar. Pompey Trog xabar berishicha, “Baqtriya va So‘g‘diyonani skif qabilalari sarauklar va assianlar bosib oladilar”. Tadqiqotchilarning fikricha har ikkala tarixchi bitta qabila haqida ma’lumot bergan.

Qadimgi Xitoy manbalari Baqtriyani yuyechji qabilalari bosib olganligi haqida ma’lumot beradi. Mil. avv. II asrning ikkinchi choragida (tadqiqotchilar bu sanani mil. avv. 172-16-yillar oralig‘ida deb belgilaydilar) yuyechjilar xunnlardan mag‘lubiyatga uchraganidan so‘ng O‘rta Osiyoning shimoliy hududlarida ko‘chib yuradilar. Bu qabilalar Xitoy manbalarida **“Da-yuyechji” - ”Buyuk” yoki “Katta Yuyechji”** deb eslatiladi. Chjan Szyan ma’lumotlariga ko‘ra, yuyechjilar xunn qabilalaridan mag‘lubiyatga uchragach O‘rta Osiyoning janubiga tomon harakat qilib, Dahya (Baqtriya)ni bosib oladilar va Guyshuy (Amudaryo)ning shimoliy tomonida joylashadilar. To‘ng‘ich Xan uyi tarixida ham yuyechjilar Guyshuy daryosining shimoliy tomonida o‘z poytaxtlariga asos solganliklari ta’kidlanadi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, yuyechjilar mil. avv. 140-130 yillar oralig‘ida Baqtriyaga bostirib kirganlar. Oradan ko‘p o‘tmay Baqtriyada Katta yuyechji davlati tashkil topadi. Kichik Xan uyi tarixi ma’lumotlariga ko‘ra, Katta yuyechji hukmdorlari ko‘l ostida beshta hokimlik (Xi-xeu) bor bo‘lib, ular Xyumi, Shaunmi, Guyshuan, Xise va Dumilardan iborat edi. Xitoy manbalaridan xulosa chiqargan ko‘pchilik tadqiqotchilar Baqtriya tarixidagi butun yuyechji davrini uchta bosqichga bo‘ladilar.

1. Mil. avv. 139-125-yillar - Katta yuyechji Dahya viloyatini bosib oladi, ammo ularning asosiy mulklari Amudaryodan shimol tomonda edi.

2. Mil. avv. 25 yilga qadar - Katta yuyechji davlatining shakllanishi va keyingi rivojlanishi. Davlatning poytaxti Amudaryodan shimol tomonda bo‘lib, janubiy chegarasi Gibin atroflarida (Kashmir yoki Qandahor) edi. Yuyechjilar bo‘ysundirgan hududlar Xise, Shaunmi,

Guyshuan, Xyumi, Dumi mulklaridan iborat bo‘lib ular xi-xou (yabg‘u) tomonidan boshqarilgan.

3. Mil.avv. 125-yilgacha Katta yuyechji davlatining inqirozi va yuqorida eslatilgan mulklarning mustaqil bo‘lishi. Kushon (Guyshuan) yabg‘usi Kiotszyukyu (Kujula Kadfiz) qolgan to‘rtta mulkni birlashtirib **Kushon davlatiga** asos soldi.

Kushon davlatining paydo bo‘lishi haqida ko‘proq Xitoy manbalari va tangashunoslik ma’lumotlari xabar beradi. Umuman, Kushonlar saltanatining paydo bo‘lishi va rivojlanishi uzoq vaqt tadqiqotchilar orasida bahslarga sabab bo‘lgan bo‘lsa-da, so‘nggi 20-25 yil ichida bu masalaga juda ko‘plab aniqliklar kiritish imkonini bergan tadqiqotlar olib borildi. Ayniqsa, 1961-yil Londonda o‘tkazilgan xalqaro simpozium, 1968-yil Dushanbeda YUNESKOning konferensiyasi, 1970-yil Qobuldagi xalqaro anjuman Kushon davlati masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, undan keyin ham bu masala bo‘yicha ko‘plab xalqaro anjumanlar bo‘lib o‘tdi.

Mil. avv. I asrning oxiri-mil. I asrning boshlariga kelib guyshuan hokimi Kiotszyukyu barcha mulklarni birlashtirib, Qobuliston va Qandarhorni zabt etadi. Natijada bu davrga kelib Kushon davlati o‘z ahamiyatiga ko‘ra antik davr Xitoydagi Xan davlati, Parfiya podsholigi, Rim saltanati bilan raqobatlasha oladigan qadimgi dunyoning eng qudratli va zabardast davlatlaridan biri sifatida tashkil topdi. Xitoy manbalaridagi “Guyshuan hokimi Kiotszyukyu”, ilk kushon davriga oid topilma tangalarda aks ettirilgan “Kushon podshosi Kudzula Kadfiz”ga aynan mos tushadi.

Tangashunoslik ma’lumotlariga ko‘ra, Kadfiz I o‘z podsholik siyosatini davlat yerlarini kengaytirish bilan boshlaydi. Ba’zi bir guruh tangalar borki, ularning bir tomonida eng so‘nggi Yunon-Baqtriya podshosi Germey tasviri tushirilib, uning nomi yozilgan, ikkinchi tomonida esa, Gerakl siymosi va “o‘z ishonchiga qat’iy kushonlar yobg‘usi Kujula Kadfiz” degan so‘zlar bor. Bunday tangalar zarb etlishini olimlar turlicha talqin etadilar. Ba’zi tadqiqotchilarning fikricha, Kadfiz I dastlab Yunon-Baqtriya podshosi Germey hokimligini tan oladi va ular birgalikda tanga zarb etadilar. Boshqa guruh olimlar fikriga ko‘ra, Kadfiz I ning Germey tangalariga o‘z ismini qo‘yib zarb qilishga sabab, Germey tangalari Baqtriyada keng tarqalgan edi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, keyinroq Kadfiz I o‘z nomini “yobg‘u”dan “shohlar shohi” faxriy unvonigacha ko‘tarib tangalar zarb etadi. Yana bir guruh O‘rta Osiyodan (ko‘proq Tojikistondan) topilgan tangalarda “shohlar shohi, buyuk xaloskor” degan yozuv ko‘proq

uchraydi. Koʻpchilik olimlarning fikricha, bu tangalarni Kadfiz I zarb etgan.

Kudzula Kadfizdan soʻng taxtga uning oʻgʻli Vima Kadfiz (Kadfiz II) taxtga oʻtiradi. Kadfiz II davlatning iqtisodiy ahvolini mustahkamlash maqsadida pul islohoti oʻtkazib, oltin tangalar zarb etadi. Shuningdek, Kadfiz II Hindistonning bir qismini Kushon davlatiga qoʻshib oladi va Rim saltanati bilan aloqalar oʻrnatadi.

Kushon podsholari ichida eng mashhuri Kanishka hisoblanadi. Uning hokimlik davrida Kushonlar saltanati gullab-yashnashining yuqori choʻqqisiga koʻtariladi. Kanishka davrida Panjob, Kashmir viloyatlari mamlakatga qoʻshib olinadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, davlatning poytaxti Dalvarzindan (Surxondaryo), Peshovar (Afgʻoniston) atroflariga koʻchiriladi. Bu davrda (mil. II asr) mamlakatning hududi Shimoliy Hindiston, Afgʻoniston, Oʻrta Osiyoning janubi, Sharqiy Turkistondan iborat edi. Syuan Szyanning yozishicha, "Kanishka podsholik qilgan davrda uning shon-shuhrati qoʻshni mamlakatlarga yoyildi. Mamlakatning harbiy qudrati koʻpchilik tomonidan tan olindi. Xitoyning gʻarb tomonidagilar ham Kanishkaning hokimiyatini tan olib, unga oʻz garovga qoʻygan odamlarini yuborar edilar".

Arxeologik tadqiqotlarning guvohlik berishicha, Kushonlar davri (xususan, Kanishka hukmronligi davrida) ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar anchagina rivojlangan davr edi. Bu davrga kelib Oʻrta Osiyoning deyarli barcha hududlarida qishloq xoʻjaligi yaxshi oʻzlashtirib boʻlingan edi. Tekisliklarda sugʻorma dehqonchilik bilan birga chorvachilik ham keng rivojlanadi. Bu davrda shuningdek, Xorazmda, Zarafshonda koʻplab sugʻorish inshootlari quriladi. Dehqonchilik qurollarida ham oʻzgarishlar sodir boʻladi. Samarqand yaqinidagi Talibarzu yodgorligidan II-III asrlarga oid yer haydaydigan omochning temir uchi topilgan.

Kushon davriga oid koʻplab ochilgan koʻhna shaharlar bu paytda shaharsozlik madaniyati ayniqsa gullab-yashnaganligidan dalolat beradi. Bu davrga oid dastlabki ochilgan koʻhna shaharlardan biri **Ayritom koʻhna shahri** boʻlib, u Amudaryoning oʻng qirgʻogʻida Termizdan 20 km sharqda joylashgan. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda Ayritom koʻhna shahri mil.avv. II asrdan mil. III asrga qadar uch tarixiy bosqichda rivojlanadi. Bular: soʻnggi grek-baqtriya davri, yuyechji-kushon davri va kushonlar davrlaridir. Ayritomda olib borilgan uzoq yillik (1932 yilda boshlangan) tadqiqotlar natijasida Budda ibodatxonalari majmualari, qabriston, koʻplab haykallar va baqtriya yozuvi topilgan va oʻrganilgan. Ayritomdan himoya devorlar qoldiqlari aniqlanmagan.

Bu davrda **Afrosiyob ko‘hna shahri** tuzilishida ham o‘zgarishlar bo‘lib o‘tadi. Xususan, milodning dastlabki asrlarida bu ko‘hna shahar yangitdan devor bilan o‘rab olinadi. Afrosiyobdan topilgan juda ko‘plab topilmalar ham aynan mana shu davrga oiddir. Ammo ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘zgarishlar tufayli 4-5 asrlarida ko‘hna shahar inqirozga uchraydi.

Bu davrga oid yirik ko‘hna shaharlardan biri **Dalvarzintepadir.** Ko‘hna shahar Surxondaryo viloyatining Sho‘rchi tumani hududida joylashgan. Umumiy maydoni 36 gektardan ziyod bo‘lgan bu ko‘hna shahar uzunligi 2,5 km, qalinligi 10 metr bo‘lgan himoya devori va chuqur xandaq bilan o‘rab olingan. Devorlarda harbiy maqsadlarni ko‘zlab maxsus minoralar qurilgan. Shaharning markaziy qismida boy shaharliklarning mahallalari, janubiy qismida esa hunarmandlar yashaydigan kulolchilik mahallasi joylashgan. Bu yerdan topilgan ko‘p sonli topilmalar nafaqat mahalliy ustalar tomonidan tayyorlangan balki, Yaqin va O‘rta Sharqdagi turli viloyatlardan keltirilgan buyumlardir. Dalvarzintepaning shahar oldi qismida milodning I asrida bunyod etilgan Budda ibodatxonasi qoldiqlari ochilib undan diniy qarashlar bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘p sonli topilmalar topilgan. Ko‘hna shaharning markazidan milodiy II-III asrlarga oid yana bir yirik ibodatxona qoldiqlari ochilgan. Ushbu ibodatxonadan loy va gipsdan ishlangan Budda, Bodxisatvlarning yirik haykallari, hukmdor va unga yaqin kishilarning haykalchalari topilgan. Ko‘hna shahardan 11 ta xumdon ochilgan bo‘lib, ular bu hududda sopol hunarmandchiligining rivojlanganidan dalolat beradi. Uzoq yillik arxeologik tadqiqotlar Dalvarzintepa o‘rniga Kushon davlatining yirik qo‘hna shahri (dastlabki poytaxti) joylashganligidan dalolat beradi.

Termiz shahridan 26 km shimoli-g‘arbda **Zartepa ko‘hna** shahri joylashgan. Ko‘hna shahar to‘rtburchak shaklda (400x400) bo‘lib mustahkam himoya devorlari bilan o‘rab olingan. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, ko‘hna shahar mil. avv. II-I asrlardan milodiy III-V asrlarga qadar mavjud bo‘lgan. Bu yerdan topilgan turli topilmalar shahar hayotining gullab-yashnaganidan dalolat beradi.

Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘i Surxondaryo viloyatining Sho‘rob qishlog‘i yonida **Kampirtepa ko‘hna shahri** joylashgan va bu yodgorlik mil. avv. III-milodiy III asrlarga oiddir. Ko‘hna shaharning umumiy maydoni 4 gektar bo‘lib qal’a va turar-joy inshootlaridan iborat. Yodgorlik 5 metr qalinlikdagi mustahkam himoya devori va chuqur xandaq bilan o‘rab olingan. Ko‘hna shaharning shimoli-g‘arbiy qismida

0,5 gektar maydondan o‘nta ko‘mish marosimiga oid inshootlar (nauslar) aniqlanib ulardan turli-tuman topilmalar topilgan.

Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida Termiz shahridan 5 km shimoli-g‘arbda **Eski Termiz yodgorligi** joylashgan. Umumiy maydoni 500 gektardan iborat bu ko‘hna shahar mil. avv. IV-III asrlarda paydo bo‘ladi. Mil. avv. III-II asrlarda Yeski Termiz himoya devorlari bilan o‘ralib markazida yirik qal’a bunyod etiladi. Antik davr manbalarida “Tarmit”, “Tarmita” nomi bilan tilga olingan bu ko‘hna shahar Kushonlar davriga kelib Shimoliy Baqtriyaning ma’muriy va mafkuraviy markaziga aylanadi. Yeski Termiz hududlaridan shu davrga oid Fayoztepa, Qoratepa kabi yirik Budda ibodatxonalari ochib o‘rganilgan.

Kushon davri yirik ko‘hna shaharlaridan yana biri **mashhur yodgorlik Xolchayon** hisoblanadi. Ushbu ko‘hna shahar Surxondaryo viloyatining Denov shahri shimoli-sharqida joylashgan bo‘lib mil. avv. IV-III asrlardan - mil. VII asrga qadar mavjud bo‘lgan. Yodgorlikning gullab-yashnagan davri Kushon davriga to‘g‘ri keladi. Xolchayondan bu davrga oid yirik saroy inshootlari, turar-joylar ochilgan. Saroyning ayvoni va bosh zali devorlari suratlar bilan bezaklangan. Sathidan esa “podsho Geray” avlodlariga mansub turli kattalikdagi haykallar topilgan.

Kushon podsholigi ruhoniylar qo‘lidagi davlat bo‘lib, bu davlatda podsho hokimiyatni boshqarish bilan birga bosh kohin ham hisoblangan. Podsholik satrapiyalarga bo‘lingan bo‘lib, ularning boshliqlari ma’lum ma’noda o‘zlarini mustaqil deb hisoblaganlar. Kushon podsholigi quldorlik davlati hisoblansa-da, davlatda qishloq jamoalarining ahamiyati nihoyatda katta bo‘lgan. Tadqiqotlar natijasida kushonlar davrida hunarmandchilikning turli sohalari, ichki va xalqaro aloqalar, madaniy hayot gurkirab rivojlanganligi aniqlangan. Pul muomalasida asosan oltin va mis tangalardan foydalanilgan. Qishloq xo‘jaligida dehqonchilik sun’iy sug‘orishga asoslangan bo‘lib, qishloq xo‘jalik ekinlarining juda ko‘p turlari yetishtirilgan.

Milodiy III asrning birinchi yarmida, ya’ni, Vasudeva va Kanishka III hukmronligi davrlarida Kushon podsholigi hokimiyatida markazdan qochuvchi kuchlar mavqeyi ortib ular o‘zlarini tobora mustaqil hisoblay boshlaydilar. Ikkinchi tomondan esa, ular o‘rtasida o‘zaro kurashlar avj ola boshlaydi. Undan tashqari Kushon davlatining janubi-g‘arbiy hududlarida qudratli Sosoniylar davlati paydo bo‘ladi. III asrning ikkinchi yarmidan boshlab Kushon davlatining ko‘pgina yerlari Eron Sosoniylari qo‘liga o‘tadi.

Buyuk ipak yo‘li. Madaniy hayot

Ayrim tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, Yaqin va O‘rta Sharqdagi turli o‘lkalar va tarixiy-madaniy viloyatlarni bog‘lab turuvchi ma’lum ma’nodagi karvon yo‘llari tartibi hamda madaniy, siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy aloqalari ildizi neolit davri (mil. avv. VI-IV ming yilliklar) bilan bog‘lanadi. Chunki aynan mana shu davrda O‘rta Osiyoda ilk dehqonchilik madaniyati paydo bo‘lib yangi yerlar aholi tomonidan jadallik bilan o‘zlashtirib boriladi. Bu jarayon bronza davriga kelib yanada kuchayadi.

Bu davrga kelib O‘rta Osiyoda ko‘p sonli qabilalar va etnik guruhlar joylashgan bo‘lib, Qoraqum va Qizilqum cho‘llarining ichki hududlari hamda Pomir va Oloyning yuqori mintaqalaridan tashqari barcha hududlar o‘zlashtirib bo‘lingan edi. Bu hududlardagi moddiy madaniyat umumiy holatda ikki guruhga-chorvachilik xo‘jaligi sohiblari bo‘lgan Andronovo tarixiy-madaniy jamoalari (shimoliy mintaqa) va dehqonchilik xo‘jaligi yuritgan Namozgoh tarixiy madaniy jamoalariga (janubiy mintaqa) bo‘linadi. Ular va ularga qo‘shni bo‘lgan hududlar o‘rtasida turli aloqalar mavjud edi. Ushbu aloqalar chorvador va o‘troq dehqonchilik aholisi o‘rtasida almashinuv-savdo munosabatlarining jadallashuviga imkoniyat yaratdi. Ma’lum hududlarda tayyorlangan mahsulotlar yoki xom ashyoning boshqa bir hududlardan topilishi shu jarayondan dalolat beradi. Misol uchun, Andronovo madaniyatiga xos idishlar Marg‘iyona, Baqtriya, So‘g‘diyona hududlaridan topilgan bo‘lsa, Xorazmda tayyorlangan sopol va metall buyumlar shimoliy hududlarda ko‘plab uchraydi. Zamonbobo va Gujayli yodgorliklaridan Badaxshon lojuvardidan tayyorlangan mahsulotlar topilgan.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, qadimgi savdo-tranzit yo‘llari bronza davridayoq paydo bo‘ladi. Ko‘pchilik tadqiqotlar bu yo‘lni “Lojuvard yo‘li” deb ataydilar. Bronza davridagi O‘rta Osiyoning savdo yo‘llaridan biri Baqtriya va Marg‘iyonani qadimgi Xorazm, So‘g‘diyona, Markaziy Qozog‘iston va Ural bilan bog‘langan. Mil. avv. III ming yillikda Mesopotamiyada Badaxshon lojuvardi mashhur bo‘lgan. Tadqiqotchilarning fikricha, bronza davridagi yana bir yo‘l Badaxshondan janubi-sharqqa tomon Afg‘oniston orqali O‘rta Osiyoning qadimgi xalqlarini Mesopotamiyaning shaharlari-Ur, Uruk, Kish, Lagash va boshqalar bilan bog‘lagan. Bronza davrining uchinchi yo‘li O‘rta Osiyoning janubidagi Baqtriya va Marg‘iyonani Hindistondagi Xarappa va Erondagi Mohinjo Daro madaniyat markazlari bilan

bog‘langan. Mil. avv. II ming yillikka kelib Farg‘ona va Choch hududlari ham Qadimgi Sharq bilan aloqalar o‘rnatadi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra bu davrda Mesopotamiya shaharlaridan chiqqan savdo yo‘llari Eron va Janubiy Turkmaniston orqali Baqtriya va So‘g‘diyonadan o‘tib Farg‘onaga kelgan. Bu yo‘lning bir tarmog‘i Farg‘onadan g‘arbga Qozog‘iston cho‘llari orqali Ural va Volga bo‘yiga ketgan. Yana bir tarmog‘i esa Farg‘onadan sharqqa Dovon orqali Sinszyan, Shimoliy Xitoyga ketgan.

Bronza davri yo‘llarida qatnagan ot, eshak va tuya karvonlari orqali qimmatbaho toshlar, fil suyagi, metall va undan ishlangan buyumlar, taqinchoqlar, ba’zi hollarda mayda chorva va g‘alla tashilgan. Turli hududlardan topilgan arxeologik topilmalar shu jarayonlardan dalolat beradi.

Mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmiga kelib, Gretsiya va Misrdan O‘rta Osiyo va Hindistonga qadar ulkan hududlarda tashkil topgan Ahmoniylar davlati ko‘pgina davlatlar, xalqlar va elatlarning turli tomonlama munosabatlarida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu o‘rinda ayniqsa, bu davrda paydo bo‘lgan va tarixiy adabiyotlarda “Shoh yo‘li” deb ataluvchi yo‘lning ahamiyatini ham ta’kidlash joizdir. Bu yo‘lning bir tarmog‘i mil. avv. VI-IV asrlarda Kichik Osiyo shaharlarini hamda O‘rta Yer dengizi bo‘yidagi Efes, Sardi shaharlarini Eronning markazlaridan biri Suza bilan bog‘lagan bo‘lsa, yana bir tarmog‘i Erondan Baqtriya orqali So‘g‘diyona, Toshkent vohasi va Qozog‘iston hududlaridan o‘tib Oltoygacha borgan.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, mil. avv. III asrning oxiri-II asrlarda xalqaro ahamiyatga va aniq yo‘nalishga ega bo‘lgan savdo-tranzit yo‘li shakllana boshlaydi. Bu yo‘l XIX asrning ikkinchi yarmida (1877) nemis olimi Ferdinand Paul Vilgelm Rixtgofen tomonidan dastlabki marta “Ipak yo‘li“ degan nom oldi va keyinchalik butun dunyo tadqiqotchilari tomonidan “Buyuk ipak yo‘li” deb e’tirof etildi.

Buyuk ipak yo‘lining qisqacha tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Xan imperiyasining U-di hukmronligi davrida (mil. avv. 140-86 yy.) mamlakatning g‘arbiy hududlariga bo‘lgan qiziqish kuchayadi. Xitoyliklar bu hududlarda o‘sha davrda ancha xavfli bo‘lgan harbiy kuchlar-xunnlar bilan to‘qnashadilar. Xunnlarga qarshi kurashda ittifoqchilar topish va ular bilan harbiy ittifoq tuzish maqsadida imperator U-di mil. avv. 138 yilda diplomat, sayohatchi va savdogar Chjan Syanni O‘rta Osiyoga jo‘natadi. Chjan Syan bir necha yil xunnlar qo‘lida asirlikda bo‘ladi va mil. avv. 128-126 yillarda Farg‘ona (Dovon)ga keladi. Dovon

hukmdorlari bilan harbiy ittifoq tuzishda muvaffaqiyatsizlikka uchragan Chjan Syan ko‘p qiyinchiliklardan so‘ng yurtiga yetib keladi. Chjan Syan missiyasi Xitoy uchun G‘arbiy o‘lkalarga chiqishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Keyinchalik Xitoy imperatori bilan Dovon hukmdorlari o‘rtasida qonli urushlar bo‘lib o‘tdi. Bu urushlarga asosiy sabab xitoyliklarni hayratga solgan Dovon “samoviy otlari” edi.

Mil. avv. 111-105 yillarda imperator U-di Parfiya (Xitoy manbalarida Ansi deb eslatiladi) podsholariga, Qang‘ hukmdorlariga, keyinroq esa Baqtriya yerlariga (Kushonlar) o‘z elchilarini jo‘natib ular bilan diplomatik-savdo aloqalarini o‘rnatadi. Shu tariqa, mil. avv. II-I asrlarda Sharq bilan G‘arbni bog‘lovchi Buyuk ipak yo‘liga asos solinadi. O‘z davrida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘lgan bu yo‘lning dastlabki tarmog‘i Xitoydagi Sian shahridan boshlanib, Sharqiy Turkiston, O‘rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya orqali O‘rta Yer dengizigacha cho‘zilgan.

Xitoyning Anosi shahriga kelib, Ipak yo‘li bir necha tarmoqlarga bo‘linib ketgan. Xususan bir tarmoq Anosi-Xami-Qoshg‘ar orqali Qo‘qonga, undan esa Toshkentga o‘tgan. Bu yerdan Jizzax va Samarqand orqali Buxoroga kelgan yo‘l Urganch orqali Guryevga, u yerdan Oqsaroy orqali Qora dengiz bo‘ylariga chiqqan. Yana bir tarmoq esa Dunxuan orqali Xo‘tanga, undan Lohurga o‘tib ketgan.

Undan tashqari, Buxoroga kelgan tarmoq ikkiga bo‘lingan. Bu tarmoqning janubiy yo‘nalishi Buxoro-Qarshi-G‘uzor-Kesh-Termiz orqali Nishopurga o‘tgan va Hirot orqali Hindistonga o‘tib ketgan. Nishopurdagi tarmoqlardan biri Tehron-Qazvin-Hamadon-Bog‘dod-Palmira yo‘nalishi bo‘ylab O‘rta Yer dengizi bo‘yidagi Tir shahrigacha cho‘zilgan. Umuman olganda Ipak yo‘lining janubiy tarmog‘i O‘zgan orqali O‘shga o‘tib, Quva-Marg‘ilon-Qo‘qon orqali Xo‘jand, Samarqand, Buxoroga o‘tgan. Shimoliy yo‘nalishi esa Xazar xoqonligi va Bulg‘or davlati orqali Kiyev Rusi va Yevropa mamlakatlariga borib, bu tarmoq VI asrdan boshlab rivojlana boshlagan. Ipak yo‘lining asosiy karvon yo‘llaridan tashqari ichki savdo yo‘llari ham mavjud edi.

Mil. avv. I ming yillikning oxiri-milodiy I ming yillikning boshlariga kelib Tinch okeanidan Atlantika okeaniga qadar cho‘zilgan ulkan geografik hudud madaniyati yuksak rivojlangan sivilizatsiyalarning yagona tizimiga birlashadi. Bu hududda joylashgan davlatlar-Xitoydagi Xan saltanati, Kushon podsholigi, Qang‘ davlati, Parfiya davlati, Rim saltanatining chegaralari bir-biriga tutash edi. Ushbu zabardast saltanatlar va sivilizatsiyalar markazlari insoniyat tarixidan birinchi bo‘lib “Buyuk ipak yo‘li” deb nomlanuvchi bir yo‘l bilan bog‘landilar. Umumiy uzunligi

12 ming km bo‘lib, Xitoydan O‘rta Yer dengizining shimoliy qirg‘oqlariga qadar cho‘zilgan bu yo‘l orqali ko‘pgina xalqlar va elatlar turli tomonlama munosabatlar o‘rnatdilar. Podsholarning o‘zaro elchilar yuborishlari, bir-birlariga har xil sovg‘alar in’om etishlari an’anaga aylandi. Sharq bilan G‘arb madaniyatining bir-biriga ta’siri kuchaydi. O‘sha davrdagi ko‘plab madaniy o‘xshashliklar ham shu tufayli yuzaga keldi.

Agar geografik xaritaga e’tibor beradigan bo‘lsak O‘rta Osiyoni qadimgi sivilizatsiyalar o‘zaro aloqalar tizimining markazida joylashganligini kuzatishimiz mumkin. Aynan mana shu geografik joylashuv tufayli O‘rta Osiyoda muhim etnik jarayonlar (hind-evropa, hind-eroniy, turklarning ko‘chishi) bo‘lib o‘tishiga, madaniyatlarning o‘zaro ta’sir doirasi faollashuviga keng imkoniyatlar yaratildi. Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab keng miqyosdagi savdo-sotiq jarayonlari bo‘lib o‘tdi, diplomatik shartnomalar hamda harbiy ittifoqlar tuzildi. Osiyoning ichkarisiga va Uzoq Sharqqa harfiy yozuv va dunyo dinlarining (buddaviylik, xristianlik, zardo‘shtiylik, moniy, islom) yoyilishida O‘rta Osiyo xalqlari ulkan hissa qo‘shdilar. Buyuk Ipak yo‘li faqat karvon yo‘li bo‘libgina qolmasdan, Yevrosiyo xalqlari sivilizatsiyasi tarixida o‘chmas iz qoldirgan, uning har tomonlama taraqqiy etishida ulkan omil bo‘lib xizmat qilgan jarayondir. 1987-yilda YUNESKO BMTning butunjahon dekadasi doirasida madaniy rivojlanish bo‘yicha “Buyuk ipak yo‘li-muloqot yo‘li” dasturini qabul qildi. Ushbu dasturda O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi tarixini har tomonlama va chuqur o‘rganishga katta e’tibor qaratildi. Undan tashqari, bu dasturning asosiy maqsadi-Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy va iqtisodiy aloqalarni yanada chuqurlashtirib mustahkamlash, bu ulkan mintaqalarda yashayotgan ko‘p sonli xalqlarning o‘zaro munosabatlarini yanada yaxshilashdan iborat edi. 2000-yilga qadar mo‘ljallangan ushbu dastur asosida ko‘pgina ekspeditsiyalar (“Marko Polo izidan”, 1987, Istambul-Pekin; “Dengiz” ekspeditsiyasi, 23.X.90y.-23.II.91; Xivada yakunlangan “Markaziy Osiyo respublikalari bo‘ylab”, 1991; “Ko‘chmanchi madaniyatlar yo‘nalishi bo‘ylab ekspeditsiya”, iyun-avgust, 1992; “Yevropa ipak yo‘li”, 1995, Istambul-Leon) ko‘plab ilmiy-amaliy xalqaro anjumanlar (Samarqand, 1990; Turku, Finlandiya, 1993; Kipr, 1994; Buxoro,1996; Boku, 1998) o‘tkazildi.

Buyuk ipak yo‘lini o‘rganish va qayta tiklashda O‘zbekiston rahbariyati ham alohida e’tibor qaratmoqda. Chunonchi, respublikamiz hududlarida uyushtirilgan ekspeditsiyalar natijasida ko‘pgina tarixiy-

madaniy obidalar o‘rganildi. Qadimgi yo‘llar va yo‘nalishlar aniqlandi, milliy-ma’naviy boyligimiz hamda an’analarimiz o‘rganildi. Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari Xalqaro Instituti ochilgan bo‘lib, uning asosiy yo‘nalishlaridan biri Buyuk ipak yo‘li va uning bo‘ylarida joylashgan shaharlarni o‘rganishdir. 1997-yilning mayida O‘zbekiston ham o‘z hissasini qo‘shgan Mashhad-Saraxs, Saraxs-Mashhad temir yo‘li ochildi. Bu bilan O‘rta Osiyo mamlakatlari Fors qo‘ltig‘iga, Yevropa xalqlari esa O‘rta Osiyoga temir yo‘l orqali chiqish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. 1998 yil Boku shahridagi Buyuk ipak yo‘lini quruqlikda Yevropadan Yaponiyagacha qayta tiklash masalalariga bag‘ishlangan xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi. Yevropa-Kavkaz-Osiyoni bog‘laydigan ushbu transport yo‘li (TRASEKA) qurilishida O‘zbekiston ham ishtirok etmoqda va bu yo‘l butun dunyo iqtisodiyotini yuksaltirishiga xizmat qilishi shubhasizdir. Antik davr O‘rta Osiyo tarixida madaniy hayotning turli tomonlama taraqqiy etganligi bilan izohlanadi. Butun dunyo xalqlari tarixiy-madaniy rivojlanishida bo‘lgani kabi bu davr O‘rta Osiyo jamiyatining ijtimoiy va ma’naviy hayotida diniy mafkura katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu davrda O‘rta Osiyoning asosiy hududlarida zardushtiylik va buddaviylik dinlari ustunlik qilishiga qaramasdan ular bilan bir qator yunon dinlari, moniylik ham yoyilgan edi. Makedoniyalik Iskandar yurishlari davri va uning vorislari (Salavkiylar, Yunon-Baqtriya) davrida O‘rta Osiyo hududlariga Ellinizm madaniyati kirib keldi. Yunon dinlarining keng yoyilishi Yunon-Baqtriya davriga to‘g‘ri kelsa, Budda dinining keng yoyilib davlat dini darajasiga ko‘tarilishi Kushonlar davriga to‘g‘ri keladi. Kushon davri oxirlariga kelib esa Moniy dini yoyiladi. O‘rta Osiyoda mil. avv. II-I asrlarga kelib yunon-makedonlar hukmronligi tugagan bo‘lishiga qaramay ellinizm madaniyati moddiy va badiiy madaniyatda o‘z ahamiyatini saqlab qoldi. Yellin xudolari-Gerakl, Gefest, Dionis, Afina kabilarga sig‘inish kuchliligicha qolaveradi. Bu xudolar tasvirlari Kushon podsholari tangalari va haykallarda o‘z aksini topgan. Undan tashqari, yunon alifbosi asosida tashkil topgan baqtriya yozuvi ham saqlanib qoldi. Kushon davri ellinizm madaniyatiga oid topilmalar O‘rta Osiyoning ko‘pgina hududlaridan topib o‘rganilgan.

O‘rta Osiyo xalqlarining qadimgi va ilk o‘rta asrlar davri ma’naviy hayotida buddaviylik muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Dunyo xalqlari orasida keng yoyilgan bu din mil. avv. VI asrda Hindistonda paydo bo‘ladi. Mil. avv. III asrga kelib podsho Ashoki davrida buddaviylik keng hududlarni o‘z ichiga olgan hind podsholigi Mauryaning davlat diniga

aylanadi. Keyinroq esa Baqtriya, So‘g‘diyona hududlariga yoyiladi. Ayritom, Dalvarzintepa, Qoratepa, Fayoztepa kabi yodgorliklardan topilgan topilmalar buddaviylik dastlab Shimoliy Baqtriya hududlariga yoyilganidan dalolat bersa, Xitoy yozma manbalari O‘rta Osiyoning Parfiya, Baqtriya, So‘g‘d viloyatlarida ham buddaviylik yoyilganligini tasdiqlaydi. Antik davr oxirlarida keng tarqalgan dinlardan yana biri Moniylik dinidir. Ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikricha, bu dinning asoschisi va payg‘ambari bo‘lgan Moniy milodiy 216 yilda Janubiy Bobilda tug‘iladi. Moniy e’tiqod faoliyatini Ardasher hukmronligi (227-241 yy.) davrida boshlaydi. Keyinroq esa Shopur I davrida Sosoniylarning markaziy shaharlaridan biri Ktesifon shahrida o‘z ta’limotini targ‘ib qilish huquqini oladi. Moniylik dini aholining kambag‘al va o‘rta tabaqalarini keng jalb etgan “kim boy bo‘lsa, o‘sha qashshoq bo‘ladi, sadaqa so‘raydi va katta g‘am-alamni boshidan o‘tkazadi” degan ijtimoiy shiorni ilgari surdi.

Zo‘r berib tashviqot qilinishi natijasida Moniylik dini hali Moniy hayotlik vaqtidayoq nafaqat Eron, balki, Mesopotamiya, Kichik Osiyo, Rim, Sharqqa va O‘rta Osiyo hududlariga yoyildi. Moniyning o‘zi shunday ta’kidlar edi: “Mening dinim har bir davlatga va har qanday tilda tushunarli bo‘ladi va uzoq o‘lkalarga yoyiladi”.

Moniy ta’limoti Erondagi hukmron doiralar va zardo‘shtiylik kohinlar orasida qattiq noroziliklarga sabab bo‘lganligi tufayli podsho Varaxron I davrida (273-276 yy.) Moniy zindonband qilib qatl ettiriladi. Uning tarafdorlari quvg‘in ostiga olinganidan so‘ng, katta qismi O‘rta Osiyo hududlariga ko‘chib o‘tadi. Bu haqda arab tarixchisi An-Nadim ma’lumotlar beradi. Keyinroq Moniylik ta’limoti O‘rta Osiyoga ancha keng yoyiladi. Uning markazlari Marv, Samarqand va Chag‘aniyon edi.

Yuqorida eslatib o‘tganimizdek, antik davr o‘lkamiz hududlaridan ko‘plab ibodatxonalar ochib o‘rganilgan. Asosan kushon davriga oid bo‘lgan bu ibodatxonalar rejaviy tuzilishi jihatdan turlicha bo‘lib, ulardagi topilmalar orasida turli kattalikdagi haykallar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ushbu haykal va haykalchalar turli dinlarning turli-tuman xudolari, ma’budalari va sig‘inishlari bilan bog‘liqdir. Bu davr O‘rta Osiyo xalqlarining madaniy hayotdagi eng katta yutuqlaridan biri mil. avv. VI-II asrlarda Oromiy yozuvi asosida Xorazm, Parfiya, So‘g‘d keyinroq esa Kushon (Baqtriya) yozuvining ajralib chiqishidir.

II. O‘rta asrlar davri

6-mavzu. Eftalitlar, Turkiy hoqonlik va arablar istilosi davrida O‘rta Osiyo.

Milodiy IV-VI asrlar Turon zamin tarixi

Bu davr ko‘chmanchi qabilalarning kirib kelishi, qabilalar ittifoqi (konfederatsiya)ning yuzaga kelishi-yangi siyosiy kuchlarning paydo bo‘lishi bilan izohlanadi. Shunday kuchlardan biri - Kidoriylar xususidagi asosiy ma’lumotlar Xitoyning Beyshi solnomasida hamda g‘arb tarixchilaridan biri Prisk Paniyskiy ma’lumotlarida uchraydi. Bu ma’lumotlarga ko‘ra Kidoriylarning yuyechjilar hukmdori Sidolo yoki tadqiqotlar fikricha Kidor (ba’zan “Kidara”) IV-asrda hukmronlik qilgan.

Yaponiyalik tadqiqotchi K. Yenoki braxmiy yozuvidagi bir qator “Kidara Kushon sha” deb yozilgan tangalarni tadqiq qilgan. Bu taxminan 390-430 yillarga mansub bo‘lib, hind tadqiqotchisi A. Bivarning xulosasiga ko‘ra bunday tangalar 2 ta hokim tomonidan bir vaqtning o‘zida zarb etilgan. Yenokining fikricha Kidoriylar Tohariston va Gandxarni 412-437 yillar oralig‘ida o‘z qo‘llarida birlashtirganlar.

Kidariylar masalasi nisbatan ancha kam o‘rganilgan va tadqiqotlar davom ettirilishi kerak bo‘lgan masaladir. Chunki yuqoridagi ma’lumotlarni (jumladan Beyshi) keyinchalik boshqa manbalar tilga olmaydi. Hindistonga (456 y) ketib Gupta davlatini bosib olganlaridan keyingi kidoriylar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham deyarli yo‘q. Faqatgina ular Hindistonda 75 yil hukmronlik qilganlari, 477 yil Gandxardan Xitoyga elchilar yuborganliklari ma’lum xolos. Ba’zi tadqiqotchilar ularni Sharqiy Turkistondan kirib kelgan kushonlar qoldig‘i deb ham tushuntirish berishadi. Shuningdek, kidoriylarning O‘rta Osiyoning janubida xiyoniylar bilan birga ittifoqchiligi hamda ularning Eronga qarshi birgalikdagi harakatlari to‘g‘risida ham turli taxmin va fikrlar mavjud. IV-asr o‘rtalarida Turon o‘lkasiga shimoldan ko‘chmanchi xion qabilalarining hujumi boshlanadi. Tarixda ular xiyonit yoki xioniylar nomi bilan tanilganlar. Xioniylarning 353 yil So‘g‘d ustiga yurish qilganliklari ma’lum. Xioniylar hukmdori o‘rta yoshlardagi tadbirkor va aqlli davlat arbobi Grumbat ismli shaxs bo‘lgan. 359 yil xioniylar o‘z ittifoqchilik burchlariga ko‘ra Shopur II bilan Suriyaning Amida (Umda) shahri uchun bo‘lgan jangida qatnashishadi. Bu jangda Grumbatning o‘g‘li halok bo‘ladi.

IV-asrning 60-70 yillarda Eron bilan munosabatlar yana keskinlashib, Eron shohi Shopur II xioniylar bilan kurash olib boradi va

ikki marotaba yengiladi. Bu kurashda xioniylar kidoriylar bilan ittifoqchilikda bo‘lgan bo‘lishlari ham ehtimoldan xol emas. Bu davrda Sirdaryo bo‘yidan Amudaryogacha cho‘zilgan hudud xioniylar ta’siri ostida bo‘lgan.

Umuman olganda, xioniylar kidoriylar bilan ko‘pincha ittifoqda harakat qilgan bo‘lishlari kerak. Chunki tadqiqotlarda ularning nomi ko‘pincha birgalikda uchraydi. Ularni ba’zida eftalitlarning bir qismi deb ham hisoblashadi. Fikrimizcha, ulardagi o‘zaro farqlanish etnik emas, faqat sulolaviy bo‘lgan. Chunki ularning hammasi qon-qardosh turkiy xalqlardan bo‘lishgan.

Eftalitlar tarixi yuzasidan ma’lumotlar, rim, vizantiya, suriya va arman tarixchilari asarlarida hamda Xitoy solnomalarida, pahlaviy matnlarida, Firdavsiyning “Shohnoma” asarida ham uchraydi.

Ushbu manbalarning ma’lumot berishicha, o‘sha davrda eftalitlar bilan Eron sosoniylari o‘rtasida bir necha marta to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tadi. Ular o‘rtasidagi birinchi to‘qnashuvlar V-asrning 30-yillardiyoq sodir bo‘lgan edi. Arman tarixchisi Vardapetning ma’lumotiga ko‘ra V asrning 50-yillariga kelib Eftalitlar konfederatsiyasi nihoyatda kuchayib ketadi. 456 yildayoq eftalitlar o‘z elchilarini Xitoyga jo‘natadilar. Eftalitlar tobora janubga qarab siljiy boshlaydilar va o‘z navbatida ularning Eron bilan munosabatlari keskinlasha boradi. Sosoniylar bilan hal qiluvchi kurashlar davri shoh Peroz (Feruz) davriga (459-484 yy.) to‘g‘ri keladi. Taxminan 457 yili Vaxshunvor (Axshunvor) Eftalon boshchiligidagi eftalitlar Chag‘oniyon (Surxondaryo vil. Termiz shahridan shimoldagi yerlar), Tohariston, Badaxshonda o‘z hokimiyatlarini o‘rnatadilar. 459-yilda Eron taxtiga Peroz chiqadi. Manbalarda Perozning hokimiyatga kelishi eftalitlar bilan bog‘liq ravishda bayon qilinadi. Peroz Eftalitlarning kuchayib borishini vaqtinchalik deb bilib, ular kuchidan Eron taxtiga kelish uchun foydalangan bo‘lishi kerak. Ammo, eftalitlar qudrati oshib tez orada ular sosoniylarga ham qarshi turishlarini anglagan Peroz eftalitlarga qarshi jangga kiradi. Bu to‘g‘risidagi ma’lumotlar “Baxman-Yashta”da ham, arab tarixchisi at-Tabariyning asarlarida ham uchraydi. Peroz (459-484) 3 marotaba eftalitlarga qarshi yurish qiladi.

Birinchi kurashdayoq Peroz mag‘lubiyatga uchraydi va asirga tushadi. Vizantiya imperatori Zenon o‘rtaga tushib uni ozod qilib oladi. Peroz chegaradagi Talqon (Talikon) shahrini eftalitlarga topshirish va Varaxran V Bahromgo‘r belgilagan Toshminordagi chegaradan o‘tmaslik majburiyatini oladi. Bu mag‘lubiyatdan xulosa chiqarib olmay, u yana 2-

marotaba eftalitlar ustiga yurish boshlaydi. Bu kurashda ham mag‘lubiyatga uchragach Peroz asirga olinadi va 30 xachir kumush tanga to‘lash majburiyatini oladi. Biroq xazinadan 20 ta xachirga yetgulik mablag‘ topiladi xolos. Perozning yosh o‘g‘li Kubod eftalitlar qo‘lida garovga qoldiriladi, shundan keyingina Peroz tutqunlikdan xalos etiladi. U eftalitlarga 2 yil mobaynida soliq to‘lab turish majburiyatlarini ham oladi.

Prisk Paniyskiyning ma’lumoticha, 3-urushga bahona bo‘lib Perozning eftalitlarni aldashi xizmat qilgan. Peroz o‘lpon to‘lab bo‘lgach, eftalitlar bilan munosabatni yaxshilashga harakat qiladi. U eftalitlarga sulh tuzishni va o‘zining tinch maqsadlarini namoyon etish maqsadida “Xunnlar hukmdoriga” o‘z taklifini kafolati sifatida singlisini unga turmushga berishini taklif etadi. Singlisi o‘rniga esa o‘z kanizak ayollardan birini jo‘natib yuboradi. Izzat-nafsi toptalgan eftalitlar va sosoniylar o‘rtasida 484 yili oxirgi kurash boshlanib ketadi. Bu kurash Marv yaqinida sosoniylarning tugal mag‘lubiyati bilan yakunlanadi.

Sosoniylar qudratiga eftalitlar tomonidan shunday qilib chek qo‘yildi. Eronning o‘zida shu vaqtga kelib ichki siyosiy ahvol keskinlashib ketgan edi. Og‘ir iqtisodiy ahvol, qulchilikning yemirilishi, soliqlarning o‘sishi, quyi tabaqalarning qashshoqlanishi, urushdan keyingi xonavayronliklar natijasida bu hududlarda norozilik harakatlari boshlanib ketadi. Xalq g‘alayonlari diniy tus olib keng tarqaladi.

Mazdak Hamdadon (470-529) zardo‘shtiylikning asl g‘oyalarining hayotga tadbiq qilmoqchi bo‘lib, o‘z harakat mafkurasini yaratdi. Mazdak ta’limoticha, kishilar bu dunyoning ne’matlaridan barobar foydalanishlari lozim, Uning fikricha, ijtimoiy hayotga jamoa huquqlarini tiklash, yer-suv, mol-mulkka barobar egalik qilish hammaning o‘zaro tengligiga erishish lozim edi. Mazdak ta’limoti asosida uch “zlik-”zan”, “zar”, “zamin” tengligi g‘oyasi yotar edi. Mazdak tarafdorlarining soni Eronda juda ko‘payib ketdi.

Mazdakiylar harakati nihoyatda kuchayib ketgach Kubodshohning (488-531) o‘zi u bilan hisoblashishga majbur bo‘ldi. Kubod Mazdak tarafiga o‘tib uni Eronning bosh kohini etib tayinladi. Mazdak hokimiyatni o‘z qo‘liga kiritib olgach, uning tarafdorlari oxir-oqibatda Kubodni 496 yilda taxtdan ag‘darib tashlab zindonga tashlaydilar. Uning o‘rniga ukasi taxtga chiqadi. Kubod zindondan qochib, eftalitlar dargohidan panoh topadi. U yoshligidanoq eftalitlar huzurida o‘sgan va eftalitlar hukmdorining singlisiga uylangan edi. Kubod eftalitlardan yetarlicha harbiy yordam olib 499-yili Eronga yurish qiladi. Chegaraga yetgan paytdayoq ukasi buni eshitib taxtni tashlab qochadi. Kubod shoh I

yana taxtga o‘tirganidan so‘ng avval maxfiy, keyinchalik oshkora mazdakiylikka qarshi kurash olib boradi. 529-yilda Mazdak qatl ettirilib, uning tarafdorlariga qarshi ayovsiz kurash olib boriladi. Kubodning o‘g‘li Xusrav I Anushervon (531-579) davrida keng miqyosli islohotlar o‘tkazilishi bilan birga mazdakiylar harakatiga butkul chek qo‘yiladi.

Eftalitlar esa o‘z qo‘llari ostida Tohariston, Badahshon, So‘g‘d, Sharqiy Turkiston va O‘rta Osiyoning boshqa ba’zi yerlarini birlashtirdilar. Xitoy muallifi tili bilan aytganda “Kongyust (Xorazm, So‘g‘d, Shosh), Xo‘tan, Shale (Qashqar), Ansi (Parfiya) va o‘ttizga yaqin boshqa (katta)-kichik viloyatlar eftalitlar hukmdoriga qaram bo‘ldi”. V asrning 2-yarmida Gandhar, keyinchalik shimoliy Hindistonning ba’zi hududlarini, Qobul va Panjob vodiylarini ham Eftalitlar istilo qildilar. Shimoliy Hindistonda avval To‘ramon, so‘ngra uning o‘g‘li Mehirakula eftalitlar davlatini tashkil etdilar.

Kubodshoh eftalitlar bilan deyarli tinch-totuv yashadi. U 502-506 yillarda eftalitlar bilan ittifoqchilikda Vizantiyaga qarshi yurishlarida ishtirok etdi. Eftalitlar O‘rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Shimoliy Hindiston, Sharqiy Eronni birlashtirgan ulkan davlatga asos soladilar. Eftalitlar davlati davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yer egaligi munosabatlarning shakllanishi bilan izohlanib, bu davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayot ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Eftalitlar hukmronligi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot

Ilk o‘rta asrlardagi Xitoy manbalarida eftalitlarning ko‘chmanchi qabilalar ekanligi, ularning yurtida shaharlar yo‘qligi, o‘zlari o‘tloqlarda yashaganliklari ta’riflanadi. Keyingi davr tarixchilari xususan, g‘arb manbalarida esa boshqacha ma’lumotlar keltiriladi. Vizantiyalik muarrix Prokopiy Kesarskiy (VI asr) shunday ma’lumot beradi: “Eftalitlar (saltanati) bir hukmdor orqali idora etilib, o‘z qonuniy (adolatli) davlatchiliklariga egadirlar. O‘zaro va qo‘shnilar bilan (munosabatlarda) adolat me’yorini saqlashda vizantiyaliklar va forslardan hech bir qolishmaydilar”.

Demak, eftalitlar davrida ham kushonlar davridagi kabi saltanat yakka hukmdor tomonidan boshqarilgan. Xitoy manbalariga ko‘ra taxt otadan bolaga qolmay, shu suloladan kim loyiq deb topilsa o‘sha taxtga o‘tirgan. Demak, ana shu nomzodlik aniqlab taqdim etadigan qandaydir bir kengash ham mavjud bo‘lgan. Bu kengash sulolaning mo`tabar

namoyandalari hamda saltanat arkonlaridan iborat bo‘lgan bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas. Shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki, bunday ulkan saltanatni boshqarishda yuksak darajada faoliyat ko‘rsatuvchi markaziy hokimiyatga erishish qiyin edi. Shuning uchun Shimoliy Hindiston, Sharqiy Turkiston hududlarida va ehtimol boshqa ba’zi viloyatlarda ham boshqaruv eftalitlar nomidan mahalliy xonadon (sulola) tomonidan olib borilgan. Fikrimizcha, mintaqa davlatchilik tarixida istifoda etib kelingan satrapiyalik boshqaruvi, ya’ni markaziy hokimiyat noiblari orqali idora etish usuli ham bu vaqtda o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lishi kerak.

Hali kushonlar davridayoq aholi orasida yer va qo‘rg‘onlarga ega bo‘lgan aslzodalar ajralib chiqa boshlagan. Dehqonlar mahalliy zodagonlarga ko‘proq tobe bo‘la borgan. Eftalitlar ulkan hududda boshqaruvni qo‘lga kiritgach obod dehqonchilik vohalarga, rivojlangan shaharlarga, savdo yo‘llariga ega bo‘ladilar. Vaqt o‘tishi bilan ular mahalliy omilkor aholi bilan aralashib keta boshlaydilar.

Eftalitlarning bir qismi ko‘chmanchi chorvador bo‘lsa, ikkinchi-kattaroq qismi shahar va qishloqlarda yashaydigan o‘troq aholi bo‘lgan. Tohariston va So‘g‘dda dehqonchilik va bog‘dorchilik rivoj topgan. Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida g‘alladan tashqari sholi ham yetishtirilgan, Xitoy manbalarida qayd etilishicha V-VI asrlarda Sharqiy Turkiston va O‘rta Osiyo yerlarida ko‘plab g‘o‘za ekilar edi. O‘rta Osiyo paxta tolasi Xitoyda ham mashhur bo‘lgan. Tog‘ va tog‘ oldi yerlaridagi aholi yilqichilik bilan shug‘ullangan. Farg‘ona vodiysida zotdor armug‘onlar ko‘paytirilar edi. Yangi yer egaligi munosabatlarining tarkib topa boshlashi bilan sug‘oriladigan yer maydonlarining ma’lum bir qismi mulkdor zodagon tabaqa vakillari-**”dehqonlar”** qo‘lida to‘plana boshlangan edi. Buning natijasida qishloq jamoasining erkin qo‘shchilari ma’lum darajada zadagon dehqonlar asoratiga tushib, ularga qaram **kadivarlarga** aylanib boradi.

Obikor yerlarning bir qismi ibodatxonalar mulki hisoblangan. Bunday yerlar **“vag‘nze”** deb yuritilgan edi. Yaylovlarning asosiy qismi oqsoqol zodagonlar qo‘lida bo‘lgan. Eftalitlar orasida ijtimoiy tabaqalanish ham kuchli bo‘lgan. Ular orasida yer egaligi munosabatlari shakllanishi bilan bir qatorda ibtidoiy-jamoa tuzumi sarqitlari hali saqlanib qolgan edi. Xitoy solnomalarida qayd qilinishicha eftalitlarda poliandriya (ko‘p erlik) ham tarqalgan edi. Bir necha aka-ukada umumiy bitta xotin bo‘lib, ayolning boshidagi qalpog‘ining burchaklari soniga ko‘ra aka-ukalar nechtaligini bilish mumkin edi. Oliy tabaqa vakillari

ichida ko‘p xotinlilik odati ham keng tarqalgan. Eng boy zodagonlar doimiy hamroh sifatida 20 va undan ortiq do‘stlarga ega bo‘lishgan. Zodagon vafot etganda, qoida bo‘yicha uning do‘stlari ham tirikligicha qabrga qo‘yilgan.

Jinoyatchilik yuzasidan jazo nihoyatda qattiq bo‘lgan. O‘g‘rilik qilgan shaxs kim bo‘lishidan qat’iy nazar boshi kesilgan. O‘g‘irlangan mol-mulk miqdoridan qat’iy nazar o‘n barobar qilib undirib olgan. Eftalitlar kuchli qo‘shinga ega bo‘lishgan. Lashkarning asosiy qismini suvoriylar tashkil etgan. Suvoriylar asosan gurzi va qilich bilan qurollanganlar. Xitoyliklar ularni mohir kamonboz deb ham ta’riflashgan. Bu davrda otliq qo‘shin asosiy ahamiyat kasb etgan.

V-VI asrlarda dehqonchilik vohalarida eftalitlarning o‘troqlashuvi kuchayadi. Buning oqibatida esa obikor yerlarga bo‘lgan muhtojlik ortadi. Kichik-kichik sug‘orish kanallari qazib chiqarilib minglab gektar yangi yer maydonlari o‘zlashtiriladi. Sug‘orish texnikasi takomillashadi, shohariqlar chuqurlashib, yer-suv va sershoha sug‘orish tarmoqlariga aylanadi. Hozirgi vaqtda ham mavjud bo‘lgan Zahariq, Bo‘zsuv, Darg‘om kanallari V asrda barpo etilgan eng yirik sug‘orish tarmoqlaridan bo‘lgan.

Shuningdek tog‘ oldilariga suv chiqarish uchun suv chiqarish asboblaridan keng foydalanilgan. Yangi o‘zlashtirilgan yerlarda zodagon dehqonlarning qalin va katta-katta xom g‘ishtdan urib chiqilgan hamda mustahkam asos (fundament) ustiga qurilgan qo‘rg‘onlari, istehkomlari yuzaga kela boshlagan. Istehkomlarning to‘rt burchagi baland minoralar bilan mustahkamlanib, devoru yo‘llari bir necha qator kamondan o‘q uzgich nishon tuynuklari bilan ta’minlangan. Qalin mudofaali qo‘rg‘onlar ilk o‘rta asrning o‘ziga xos me’morchilik namunalaridan bo‘lib, Nahshab vohasidagi Zahoki-Moron qal’asi, Buxorodagi Shahri Vayron, Xorazmdagi Fir qal’asi shular qatoridandir. Vohalarni tashqi dushmandan himoya qilish maqsadida bir necha chaqirimlab uzunlikdagi qalin devorlar barpo etilgan. Samarqand vohasidagi 12 ta darvozaga ega bo‘lgan “Devori qiyomat”, Buxoro vohasidagi uzunligi 336 kilometrli “Kampirak”, Toshkent vohasidagi “Kampirdevor” istehkom devorlari shular jumlasidandir.

Bu davr me’morchiligida qasrlar qurilishi ayniqsa ahamiyatli bo‘lgan. Qasrlar odatda 2 qavatli, shipi tekis, gumbazsimon va ravoqsimon yopilgan bir necha xonadan iborat bo‘lgan. V asrdan saroy, qasrlar qurilishida paxsa va xom g‘isht bilan bir qatorda pishiq g‘ishtlar ham ishlatilina boshlangan. Saroy va ibodatxonalar devorlari odatda rangdor tasvirlar bilan bezatilgan. Bunday tasviriy san’at namunalaridan

biri Bolaliktepa (Surxondaryo) qasri devorlarida qayd etilgan. Bu nodir tasviriy san’at asarida bashang kiyingan ayol va erkaklarning ziyofat tasviri tushirilgan rasmlar katta did va mahorat bilan ishlangan. Shu davr moddiy madaniyat yodgorligi sifatida Xorazmdagi Tuproqqal’a xarobasini ham ko‘rsatish mumkin. Bu qal’a o‘zining istehkom devoriga ega bo‘lib, qal’a ichidagi to‘g‘ri yo‘naltirilgan ko‘chalar shaharni 10 ta mavzega bo‘lib turgan. Shaharning shimoliy-g‘arbiy qismida ko‘tarma supa ustiga xom g‘ishtdan saroy qurilgan. Uning yonida ark binosi bo‘lgan. Shuningdek 100 ga yaqin turar joy, xo‘jalik binolari, 8 ta saroy zali xarobalari, qadimgi xorazmiy yozuvidagi 80 tadan ortiq hujjatlar topilgan.

Eftalitlar me’morchiligining ajoyib namunalaridan biri Buxoro yaqinidagi Varaxsha saroyidir. Bu qo‘rg‘on ulkan kvadrat shakldagi tepa ustiga qurilgan. Devorlari ganch qilinib, devoriy suratlar bilan bezatilgan. Xonalar keng-keng bo‘lib qalin devorlar bilan bir-biridan ajralib turgan.

Tadqiqotchilarning fikricha, VI-VII asrlarda bu yerda buxorxudotlarning qarorgohi bo‘lgan. Shuningdek Toshkent vohasidagi Oqtepadan, Jo‘nariq yaqinidan, Poykentdan va boshqa bir qator joylardan eftalitlar davri yodgorliklari topib tadqiq qilingan.

Eftalitlar davrida hunarmandchilik ham rivoj topgan. Ayniqsa kulolchilik, shishasozlik, chilangarchilik, bo‘zchilik, zargarlik, qurolsozlik kasb-hunarlari ravnaq topgan. Chochda yasalgan o‘q va yoy “kamoni chochiy” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Katta-kichik shaharlar soni ko‘paygan. Birgina Zarafshon vohasida Rivdod, Kushoniya, Xariman, Arqud, Romiton, Varaxsha, Poykand kabi savdo hunarmandchilik shaharlari mavjud edi. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra Poykand shahri eftalitlarning poytaxti bo‘lgan (xitoyliklar uni Bi deb, arablar keyinchalik “Madinat-ut-tujjor” deb atashgan). Poykand shahri ayniqsa zirhli po‘lat qurollar ishlab chiqarish bilan ham mashhur bo‘lgan. Shuningdek shu davrda rangli oynalar ishlab chiqarish ham keng tarqalgan. Eftalitlar halqaro savdo sohasida Eron, Vizantiya, Hindiston, Xitoy bilan savdo-sotiq munosabatlarini olib borishgan.

Eftalitlar “Ipak yo‘l” savdo yo‘lini nazoratda tutishga harakat qilganlar. Ipak yo‘li savdosida va umuman savdogarlar ichida so‘g‘diylar yetakchi o‘rinni egallashgan edi. Bu paytda O‘rta Osiyodan oltin, kumush, Badaxshon la’lisi, rangli shisha va shisha buyumlar, turli xil mevalar, ip-gazlama, qorako‘l, zotdor tulporlar olib chiqilib savdo qilinardi.

Avval boshda eftalitlar sosoniylardan bo‘lgan Varaxran V va Perozning kumush tangalaridan o‘zaro savdo-sotiqda foydalanar edilar.

Keyinchalik eftalitlar Eron shohi Varaxran V Bahromgo‘r tangalariga taqlid qilgan holda kumush tangalar zarb qildilar. Bundan tashqari Buxoro, Poykand, Samarqand, Xorazmdagi mahalliy hokimlar tomonidan chiqarilgan chaqa tangalar ichki savdoda keng muomalada bo‘lgan.

V-VI asrlarda diniy e’tiqod va tasavvur bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tasviriy san’at-koroplastika-ma’budalarning sopol haykalchalarini yasash va ularga topinish keng yoyiladi. Sopol haykalchalar hududlarga ko‘ra turlicha bo‘lib, kiyim-kechaklari, yuz siymolari, taqinchoqlari jihatidan ham bir-biridan farqlangan.

Ulkan hududdagi eftalitlar davlati juda ko‘p xalqlarni o‘zida birlashtirganligi sababli undagi diniy e’tiqodlar ham turlicha bo‘lgan. So‘g‘dda zardo‘shtiylik keng tarqalgan bo‘lsa, Tohariston va Sharqiy Turkistonda buddizmga e’tiqod qiluvchilar ko‘pchilikni tashkil etgan. Shaharlarda xristian va yahudiy jamoalari ham mavjud edi. Moniylik va Mazdak ta’limoti tarafdorlari ham paydo bo‘layotgan edi. Zardo‘shtlar Nohid, Mitra, Siyovush kabi mahalliy ma’budalarga ham sig‘inganlar. Navro‘z kuni Buxoro otashparstlarlari Siyovush qabri ustida xo‘roz so‘yib, qurbonlik qilar edilar. Janubda buddizmning ta’siri ko‘proq bo‘lgan edi.

Chorvador aholi turkiycha so‘zlashar, turkiy til tobora ko‘proq yoyila boshlagan edi. O‘troq aholining katta qismi so‘g‘diy tilida so‘zlashar edilar. So‘g‘diy tili va yozuvi Yettisuv, Farg‘onadan o‘tib Sharqiy Turkistonga qadar yetib boradi. Uning xususiy so‘g‘d-“samarqand usuli” keng yoyilgan edi. Bundan tashqari xorazm, kxaroshtiy, buxoro yozuvlari ham mavjud bo‘lgan. Eftalitlar yozuvi baqtriya yozuvi asosida paydo bo‘lgan. Syuan Szanning yozishicha u 25 ta harfdan iborat bo‘lib, xat chapdan o‘ngga qarab ko‘ndalangiga yozilgan. Bunday yozuv namunalari Zangtepa, Qoratepa, Afrosiyob xarobalaridan, Kofirqal’adan topilgan.

Turkiy hoqonlik hukmronligi davrida O‘rta Osiyo

Turon davlatchiligi tarixida Turkiy hoqonlik davlati davri katta va muhim o‘rinni egallaydi. Turkiy hoqonlik xususidagi ma’lumotlar yetarli bo‘lsa-da, lekin ularning ko‘pchiligi bir-biriga qarama-qarshi va aniq ma’lumotlar bermaydi. Birinchi navbatda VII-VIII asrlarda to‘plangan manbalar ancha qimmatlidir. Bular epigrafik yodgorliklar-O‘rxun-Yenisey runiy yozuvlari, Xitoyning “Tan xonadoni tarixi” (VII-IX asrlar)

tarixiy manbasi, VI-asr oxirlarida yashagan vizantiyalik tarixchilar Menandr Protektor, Feofan Vizantiyskiy, suriyalik tarixchi Ionna Yefesskiylarning tarixiy asarlaridir. Shuningdek, bu to‘g‘risidagi ma’lumotlar arab tarixchilari at-Tabariy, Denovariy (IX-X asr) o‘lkamiz fuzalolaridan Abu Rayhon Beruniy, Narshaxiy (X asr) va boshqalar asarlarida ham uchraydi.

“Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Manas”, “Dada Qo‘rqut” kabi umumturkiy xalq dostonlari, o‘rta asrlardagi Mahmud Qoshg‘ariy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib va boshqalar asarlarida turkiy madaniyat, adabiyot, tarix to‘g‘risida turli qimmatli ma’lumotlar keltiriladi. 1999-yili Alpomishning 1000 yilligi Respublikamizda keng nishonlanib, Termizda qahramon Alpomishga mahobatli haykal ham o‘rnatildi.

Xitoy manbalari, turkiylar “Xun” nomi ostida eramizning 92-yilida Oltoy etaklariga kelib o‘rnashganligi va bu yerdagi jujanlardan ruxsat olib ular uchun temir qazib chiqarishni boshlaganliklari haqida ma’lumot beradi. Bu urug‘ Ashina urug‘i nomi bilan avval boshda atalib kelingan. Xitoylar Ashin qabilasini “Tu-kyu” deb xitoycha “Ashina” deb ham yuritganlar. P. Pelyo bu so‘zni “Turkyut” (ya’ni turkiylar) deb izohlagan. “Turk” atamasi kuchli, baquvvat degan ma’noni anglatgan. Ashina xitoycha “bo‘ri” degan ma’noni anglatib, bo‘ri xitoyliklarda “shono”, “gino” deb ham yuritilgan. “A” qo‘shimchasi esa Xitoyda hurmat belgisi hisoblangan. Boshqa bir fikrga ko‘ra, turk so‘zi Oltoy tog‘lariga nisbat qilib olinib “dubulg‘a” degan ma’noni bergan deb ham aytiladi. Avval bir urug‘ga berilgan “turk” atamasi keyinchalik ularga yaqin turgan barcha qabila-urug‘larga ham umumiy nom sifatida ishlatilib ketilgan.

Ashina urug‘idan bo‘lgan Asan (Asyan), Shad, Tuu (460-545) lar turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar. Tuuning o‘g‘li Bumin (bu turkcha nomi, xitoycha Tumin) o‘ziga tele qabilasini bo‘ysundiradi. Endilikda ancha mustahkamlangan bu qabilalar ittifoqi o‘zlari qaram bo‘lib turgan jujanlardan xalos bo‘lish yo‘lini qidirishadi. 545-yil G‘arbiy Vey imperatori Van-di Ashin urug‘i boshlig‘i Buminga do‘stona munosabat o‘rnatish uchun elchi yuboradi. G‘arbiy Vey davlatining asoschilari asli turkiy qabilalardan bo‘lib (386-558) Xitoyning shimolida o‘z davlatlarini barpo qilib, butunlay xitoylashib ketgan edilar. Turkiylar ularni To‘ba yoki Tabg‘ach davlati deb yuritganlar. Manbalarda berilishicha, Bumin Vey davlati bilan ittifoqdosh bo‘lib, ulardan jujanlarga qarshi kurashda yordam olishi mumkinligiga umid qiladi. Bumin jujan xoni Aynag‘ayga uning qiziga uylanmoqligi to‘g‘risida sovchi yuboradi. Bu taklif Bumin tomonidan ataylab nizo chiqishi uchun

qilingan bo‘lib, Aynag‘ay Buminga: “Ha, temir erituvchim, menga bunday taklifni kiritishga qanday jur’at etding?” deb javob beradi. Bu holat ikki o‘rtada jang boshlanishiga bir bahona bo‘ldi. Bumin shu javobdan so‘ng kurashni boshlab yuboradi va 551-yili Markaziy Osiyodagi eng kuchli bo‘lgan jujanlar xonini mag‘lub etadi. O‘sha yili Bumin yangi davlat-Turkiy hoqonlikka (551-744) asos soladi.

Bumin Ili daryosi bo‘yida hukmdor deb e’lon qilinib, “ilixon” degan unvonni oladi. Turkiylar hukmdori o‘zini hoqon (turkcha-qag‘an) deb yurita boshlaydi. Oltoydagi O‘tukan shahri turkiy hoqonlikning poytaxti qilib belgilanadi. Bumin o‘z ukasi Istemiga (Istemi-turkcha, Sedimi-xitoycha, Sinjibu-arabcha, Stembi-xagan yunoncha) birinchi sarkarda, davlatning birinchi amaldori unvoniga to‘g‘ri keluvchi “Yabg‘u” (bahodir) unvonini berib, u bilan birgalikda o‘z davlatini kengaytirish payiga tushdi. Istemi ko‘proq g‘arbiy yo‘nalishga boshchilik qilib tez orada Sharqiy Turkistondagi nushibi, turkash, duli qabilalarini o‘ziga bo‘ysundiradi. 552 yilning oxirida Bumin hoqon vafot etdi. Shundan so‘ng taxtga Dyangu Qora Issiq xon o‘tiradi. U jujanlarni qayta bosh ko‘targanligiga qarshi kurashib, natijada ularning rahbari Din o‘z qo‘shini bilan tor-mor keltiriladi. Tez orada Qora Issiq xon ham vafot etadi. Shundan so‘ng uning ukasi Muqan xon “Kushu” unvoni bilan (554-572) taxtga o‘tiradi. Muqan xon hukmronligi davri Turkiy hoqonlikni eng qudratli pallaga olib kirdi. 554-yil Muqan Sharqqa yurish qilib Uzoq Sharq o‘lkalarni o‘ziga bo‘ysundirdi va Tinch okean qirg‘oqlariga chiqadi. Shundan so‘ng u O‘rxun, To‘g‘la, Selenga daryolari bo‘ylaridagi qabilalarni, Yenisey daryosi bo‘ylaridagi qirg‘izlarni, Baykal atroflaridagi uyg‘urlarni o‘ziga bo‘ysundiradi.

Muqan hoqon Eftalitlar davlatini tugatish uchun 554 yil Eron shohi Xusrav I Anushervonga elchi jo‘natadi. Firdavsiyning yozishicha, Eftalitlar hukmdori Gatifar turkiylar va Eron o‘rtasidagi ittifoqchilik yuzaga kelmasligi uchun elchilarni yo‘lda o‘ldiradi. Faqatgina bir kishi hoqon huzuriga yetib boradi xolos. Eron ittifoqqa rozi bo‘ladi. Muqan hoqon ittifoqchilik iplarini mustahkamlash maqsadida Istemi yabg‘uning qizi Asna bekani Xusrav I Anushervonga turmushga beradi. 555-yildayoq Istemi Orol dengizigacha bo‘lgan yerlarni egallagan edi. Shuni ta’kidlash kerakki, bu oddiy istilo bo‘lmay balki, yangi turkiy qabilalarning Sharqiy Turkiston shimoli va O‘rta Osiyoning sharqidagi ulkan yerlarga kelib o‘rnashishi edi. Kultegin bitigida qayd etilishicha “ular (ya’ni, Istemi va Muqanxon) o‘z xalqlarini Temir Qopqagacha joylashtirdilar” (So‘g‘d va

Baqtriya o‘rtasidagi chegarada joylashgan Temir darvoza, hozirgi Boysun tumani hududida).

558-yili turkiylar Ural va Volga bo‘ylarini zabt etib Shimoliy Kavkazdagi ko‘chmanchi ovarlar bilan to‘qnashadi. Turkiylar eftalitlar va ovarlarga qarshi kurashishda Vizantiya va Eron bilan do‘stona aloqani mustahkamlashga harakat qila boshlaydi. Vaziyatdan foydalangan Eron eftalitlardan Tohariston, Chag‘oniyon, Kobul atrofidagi yerlarni tortib oldi. Ovarlarga qarshi harakatda turkiylar, ularga yordam berib turgan Vizantiyani bu yo‘ldan qaytarmoqlikka harakat qilishadi. Shu maqsadda Turkiy hoqonlik 563-yil Vizantiyaga nushibi qabilasi rahbari Esxilni elchi qilib jo‘natadi.

563-yildan eftalitlarga qarshi ikki tomonlama, shimoldan turkiylar, janubdan sosoniylar hujumi boshlanadi. Turkiylar Choch vodiysiga bostirib kiradilar va tez orada ular tomonidan Samarqand, Kesh, Naxshab egallanadi. Eftalitlar Xuttalon, Termiz, Balx, Amul, Zamm shaharlaridan yordam olib, Buxoro yaqinida katta jangga tayyorgarlik ko‘radilar. Sakkiz kunlik shiddatli jangda eftalitlar turkiylardan yengiladilar. Tabariyning yozishicha, Vars deb yuritilgan eftalitlar shohini Istemi o‘ldiradi va butun boyliklarini o‘z qo‘liga oladi. Eftalitlar bilan kurash taxminan 563-567 yillar oralig‘ida kechadi.

Ittifoqchilarning har biri tezlik bilan harakat qilib, iloji boricha eftalitlarning yerlarini ko‘proq o‘z qo‘llariga olishga harakat qiladilar. Amudaryoning janubiy sohiligacha bo‘lgan yerlar Eron, uning shimoliy sohillaridan Kaspiygacha bo‘lgan yerlar turkiylar qo‘liga o‘tadi. Birmuncha vaqt eftalitlarning qolgan qutgani Zarafshon vohasida yashab turkiylarga soliq to‘lab turadi. Eron turkiylar qo‘liga ko‘pgina muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hududlar o‘tib qolganligidan o‘z noroziligini bildiradi.

Istemi yabg‘u Eron bilan munosabatlar keskinlashib ketsa, uning oldini olish maqsadida Vizantiya bilan yaqinlashish siyosatini qo‘llamoqchi bo‘ladi. 568-yil Maniax boshchiligidagi elchilar guruhi Vizantiyaga jo‘nab ketdi. Ular Kavkaz orqali Konstantinopolga yetib keldilar. Maniax katta tantana bilan qabul qilinib, imperator Yustin II ga sovg‘a salomlar va hoqonning nomasini topshirdi. (Vizantiyaliklar bu nomani skiflar yorlig‘i deb atashgan). Imperator turkiylar bilan harbiy-siyosiy, savdo shartnomasiga kelishib oldi. Yustin II javob tarzida Zemarx boshchiligidagi elchilarini ularga qo‘shib jo‘natdi. Zemarx Oltintog‘ etagidagi hoqon o‘rdasida qabul qilinadi. O‘zaro suhbatdan so‘ng Vizantiya bilan ipak savdosi, Eronga qarshi kurashish xususida kelishib

olindi. Keyinchalik boshqa bir qator elchilar guruhi ham almashindi. Garchi ovarlar tufayli Vizantiya bilan munosabatlar bir oz yomonlashsada, lekin Vizantiya va hazarlar turkiylarga Eronga qarshi harakatlarda ko‘mak berib turadilar. Eronga o‘zaro munosabatlarni keskinlashtirmaslik borasida yuborilgan ikki marotaba elchilar tashrifi o‘z natijasini bermadi.

Tinch okeani sohilidan to Qora dengiz sohiligacha cho‘zilgan bu ulkan davlat Eronga qarshi harbiy harakatlarni boshlab yuboradi. Istemi Xisrav I Ashushervon qo‘shinlarini tor-mor qilib Eronning shimoliga bostirib kiradi. Turkiylar eftaliylar yerlarining Eronga o‘tib qolgan yerlarini yana o‘z qo‘liga qaytarib oladilar. Eron tinchlik sulhiga kelishib har yili 40.000 Vizantiya tillasi to‘lash majburiyatini oladi. Undan so‘ng Eron bilan Vizantiya o‘rtasida ham urush boshlanib ketib, sosoniylar davlati juda nochor ahvolga tushib qoladi.

576-yili Muqan hoqon va Istemi yabg‘ularni vafotidan so‘ng Turkiy hoqonlikning ta’siri ancha zayiflasha boshlaydi. Eron sarkardasi Bahrom Chubin turkiylarning Chur Bag‘a hoqon qo‘mondonligidagi 300.000 kishilik qo‘shinini tor-mor keltiradi. Chur Bag‘a jangda halok bo‘ldi. Bahrom Chubin Buxoro yaqinidagi Poykend shahriga bostirib kirib, hoqonning o‘g‘li Barmuda Teginni asirga oladi va hoqon xazinasini Eron shohiga yuboradi.

Muqan hoqon vafotidan (576 y.) so‘ng taxtga uning ukasi Arslon To‘ba o‘tirdi. Arslon To‘ba qo‘lida 8 ta viloyat jam etilgan bo‘lib, o‘z vaqtida ular o‘zaro bir-birlari bilan chiqisha olmas edilar. VI asrning ikkinchi yarmiga kelib turkiy hoqonlari va shahzodalari o‘rtasida toj-taxt uchun goh oshkora goh zimdan kurash ketayotgan, iqtisodiy tanazzul boshlanayotgan bir paytda turkiy shahzoda Abruy boshchiligidagi xalq harakati bo‘lib o‘tdi. Abro‘y harakati to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar saqlanib qolmagan. Xususan, Abdurahmon Muhammad Nishopuriyning (XI asr) “Xazinat-al-ulum” asaridagi bu masalaga bag‘ishlangan parcha Narshaxiyning “Tarixi Buxoro” asariga kiritilgan. Uning ma’lumotiga ko‘ra Abro‘yning qarorgohi Poykentda bo‘lib, u boy zodagonlar va savdogarlar ustidan qattiq nazorat o‘rnatgan. Bunga chiday olmagan zodagonlar Turkiston tomonga yo‘l olishgan. Abro‘y atrofida esa qashshoq dehqonlar guruhlari yig‘ilisha borgan.

Zodagonlar Turkiston tomonda o‘z rahbarlari Hamuk nomiga bag‘ishlab Hamukat shahrini quradilar va turkiy hoqon Qora Churindan yordam so‘raydilar. Hoqon o‘z o‘g‘li Shiri-Kishvarni isyonchilar ustiga yuborib, bu harakatni shavqatsiz bostiradi. Shiri-Kishvar Abro‘yni tutib

uni qizil asalari to‘la qopga tiqib o‘ldirishni buyuradi va o‘zi Buxoro vohasining noibi bo‘lib, qochib ketgan zodagonlarni orqaga qaytarish choralarini ko‘rgan.

O‘zaro muttasil urushlar, taxt talashishlar mamlakatni parchalanib ketish, ma’naviy-iqtisodiy inqiroz holatiga olib keldi. Qora Churin qarib qolgan vaqtida taxminan 600-yillarga kelib o‘zini “hoqon” deb e’lon qiladi. Qora Churin Bugu hoqon (Qahramon hoqon) degan nomni olgan edi. Hoqonlikdagi og‘ir vaziyatdan foydalangan Xitoy imperatori ichki nizolar keltirib chiqarishga harakat qildi. Turkiy sarkardalaridan biri Jangar xitoyliklarga sotilib, o‘z kishilari bilan hoqonga suiqasd uyushtirdi. Lekin maqsadini amalga oshirolmay 5 ta kishisi bilan zo‘rg‘a Xitoy imperatori huzuriga qochib o‘tdi. Imperator Yan Szyan uni yaxshi kutib olib, hoqonlikka da’vogar shaxs deb e’lon qildi.

Hoqonlik ichidagi nizo-fitnalar Jangar kishilari tomonidan avj oldirilib vaziyat oxir oqibatda hoqonga qarshi aholi isyonigacha yetib keldi. Qora Churin 603 yilda Tibetga chekingan vaqtida Jangar kishilari tomonidan o‘ldirildi. Jangar hoqonlikning Sharqiy qismini o‘z qo‘liga olib, butunlay Xitoyning ta’sir doirasidagi kishiga aylandi. Hoqonlikning sharqiy qismi o‘z mustaqilligini shu tariqa yo‘qotdi. 582-603 yillardagi o‘zaro urushlardan so‘ng 603-yil hoqonlik to‘la mustaqil 2 qismga: Sharqiy va G‘arbiy qismlarga ajraldi. Yettisuv, Chu vodiysi, Volga, Kubanning quyi qismi, Irtish, Ishim daryolari bo‘yidagi yerlar, O‘rta Osiyoning kichik yarim mustaqil davlatlari G‘arbiy hoqonlik tarkibiga kirar edi.

G‘arbiy hoqonlikdagi yozgi qarorgoh Isfijob yaqinidagi Mingbuloqda, qishkisi Suyob shahrida edi. Suyobning sharqiy tomonida dulu qabilasining besh o‘q bo‘dul ittifoqi, g‘arbida esa nushibi qabilasining besh o‘q el ittifoqining yerlari joylashgan edi. G‘arbiy hoqonlik ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jihatdan Sharqiy hoqonlikdan mutlaqo ajralib turar edi. Sharqiy hoqonlikdagi aholi asosan ko‘chmanchi chorvadorlardan iborat bo‘lsa, g‘arbiy hoqonlik aholisining katta qismi esa o‘troq dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashg‘ul edi. Yer egaligi munosabatlari rivojlanayotgan G‘arbiy hoqonlikning ijtimoiy tarkibi ham, siyosiy boshqaruvi ham ancha-muncha murakkab edi. Yarim asrlik hukmronlik jarayonida turkiy aholining bir qismi o‘troqlashadi, qolganlari yerli chorvadorlar bilan qorishib ketishadi. O‘troq hayotning an’anaviy ma’muriy udumlari ta’sirida boshqaruv tartiblari asta-sekin o‘zgarib, turkiylarning ijtimoiy va siyosiy mavqei mustahkamlanib boradi. Turkiy aholi siyosiy hayotda faol qatnashib,

O‘rta Osiyo o‘sha davr siyosatining hamma jabhalarida teng qatnasha boshlaydilar.

Hoqon Sheguy vafotidan keyin (618 y.) hokimiyatga kelgan Hoqon To‘n yabg‘u (To‘n shoh) davrida G‘arbiy hoqonlik yana kuchayadi. Uning chegaralari Oltoydan to Hind daryosi bo‘yigacha cho‘zilib ketdi. Uning qo‘lidagi ulkan hokimiyatni boshqaruv tartiblari isloh etildi. Mahalliy sulolalar hokimlari bilan bevosita bog‘lanish, ularning ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida mahalliy hukmdorlarga “yabg‘u” unvonlari beriladi. Ular o‘z vaqtida hoqonning noiblariga aylanadilar. Turkiylar “Tudunlar” deb yuritilgan o‘z vakillarini yarim mustaqil hokimliklarga yuborib, siyosiy nazorat va boj solig‘ini izga tushirish ishlarini amalga oshirdilar. Shu bilan birga hoqon diplomatik tarzda ham ish tutar edi. Masalan u Samarqand hokimi va Qashg‘ar hokimlari bilan quda-andachilik ipini bog‘lab, ular bilan munosabatni yaxshiladi.

To‘n yabg‘u hoqon davrida O‘rta Osiyoning ba’zi bo‘ysunmas hisoblangan o‘lkalari (xususan, Tohariston) ham egallanib, Sosoniylar O‘rta Osiyoning janubi va hozirgi Afg‘oniston yerlaridan siqib chiqarildi. Xitoy va boshqa davlatlar bilan aloqalar tiklandi. To‘n yabg‘u hoqon vafotidan (630-y.) so‘ng dulu va nushibi (dulu qabilasi ittifoqi Yettisuvda, nushibi qabilasi ittifoqi g‘arbiy Jung‘oriyada edi.) qabilalari o‘rtasida hokimiyat uchun kurash boshlanib, ketdi. Hoqonlik zayiflashib, bir necha qismlarga bo‘linib ketdi. Vaziyatdan foydalangan Xitoyning Tan imperiyasi qo‘shinlari 657-659 yillarda Yettisuvga bostirib kirdilar.

Xitoy bosqinchilariga qarshi ozodlik kurashlari boshlanib ketdi. Faqatgina VII asrning oxirlariga borib hoqonlik o‘z mustaqilligini tiklab, Xitoy gumashtasi bo‘lgan Xusrav Bo‘rishodni mamlakatdan quvib chiqaradi va Toshkent vohasidan Turfongacha dulu qabila ittifoqidagi turkashlar hukmronligi o‘rnatiladi.

Butun saltanat ustidan oliy hukmronlikni hoqon olib borgan. Bu lavozim merosiy bo‘lgan. Xitoy manbalariga ko‘ra ota doimo o‘z o‘g‘liga taxtni qoldiravermay, balki undan kattaroq turgan qarindoshlarini qoldirishi lozim bo‘lgan. Bundan tashqari, shunday hollar ham bo‘lganki, taxt sohibini “urug‘ oqsoqollari” tayinlagan. Xitoy manbalariga ko‘ra, turkiylar xonni taxtga o‘tqazishda maxsus marosim o‘tkazganlar, ya’ni, amaldorlar bo‘lajak xonni kigizga o‘tkazib, quyosh yurishi bo‘ylab 9 marotaba aylantirganlar, ishtirokchilar ularni qutlab turgan. Keyin xonni otga o‘tkazib, bo‘yniga ipak mato bog‘laganlar. Keyin undan so‘raganlar: “Siz necha yil xon bo‘lmoqchisiz?. U necha yil xon bo‘lishini aytgan, shu muddat tugagandan keyin taxtdan ketgan. Hoqondan keyingi shaxs

Yabg‘u (bahodir) davlatdagi birinchi amaldor (vazir) vazifasida bo‘lgan. (Masalan Istemi yabg‘u). Ammo yabg‘u taxtga merosxo‘rlik qila olmas edi. Taxt merosxo‘ri **tegin** (shahzoda) deb yuritilgan. Tegin taxtga da’vogar shaxs bo‘lgan. **Shod** unvoni tuman va viloyat hokimligidagi shahzodalarga berilgan. Shahzodalar bilan qondosh bo‘lmasa, unday odamga shod unvoni berilmagan. Xitoy manbalarining birida shunday deyiladi: “Oliy martabalar orasida eng ulug‘i Shexu (Jabg‘u, Yabg‘u), keyin Dele (Tegin), uchinchisi esa Silifa, to‘rtinchisi Tumaofa, (qolgan) kichiqroq darajasidagi mansablarda 20 kishi band; ularning hammalari mansablari merosiydir... qo‘riqchilarni esa Fuli (ya’ni bo‘ri) deb ataydilar”.

Tudun unvoni hukmdorning joylaridagi noibi (nazoratchisi)ga berilgan. Ular mahalliy hokimlar siyosatini, boj-soliq ishlarini nazorat qilganlar. **Shod** unvonidagi kishi hukmdorning o‘ng tomonidan joy olgan.

Chorvador turkiy aholida urug‘-jamoachilik an’analari nihoyatda kuchli bo‘lib, qabila va urug‘ jamoalarining negizi katta oilalardan iborat edi. Bunday oilalarda uy qullari ham mavjud bo‘lar edi. Qullarning ko‘payishi bilan tabaqalanish munosabatlari tarkib topa boshlagan. Lekin qulchilik ijtimoiy hayotga keng kirib kelmadi. Ko‘pincha janglarda ayollar qul qilib olib ketilar edi. Lekin qul ayollardan og‘ir ishlarda foydalanilmay, balki uy-ro‘zg‘or ishlarida ishlatilinar edi. Qul erkakmi, ayolmi bari bir, imkon topishi bilan qochib ketavergan. Qochgan qul ta’qib qilinmagan. Ular uchun hech kim tovon to‘lamagan.

Turkiy ko‘chmanchilarning asosiy qismi kambag‘al chorvador va ovchilardan iborat edi. Bunday xalq ommasini **bo‘dun** yoki **qora bo‘dun** deb atashgan. Mamlakat bo‘dunlar yashaydigan **ellarga** bo‘lingan. Hoqonlikning markaziy boshqaruv tizimi asosan yirik siyosiy-davlat tadbirlari (saltanat osoyishtaligini saqlash, davlat hududini kengaytirish, soliq tizimi, ichki va tashqi savdo, diplomatik munosabatlar va hakozo) bilan mashg‘ul bo‘lib joylardagi mahalliy ishlarga ma’lum darajada erkinlikka yo‘lga qo‘yilgan. Shuning uchun ham Farg‘ona, So‘g‘d, Shosh, Tohariston, Xorazm va boshqa joylarda boshqaruv ishi asosan mahalliy sulolalar qo‘lida bo‘lgan. Xitoy manbalariga ko‘ra So‘g‘dda kelib chiqishi asli yuyechjilardan bo‘lmish Kan sulolasining mavqei kuchli bo‘lib, So‘g‘d hukmdori **ixshid** unvoniga, tobe hokimliklar ham o‘z unvonlariga ega bo‘lganlar. (Masalan, Kesh hukmdori **ixrid** unvoniga ega bo‘lgan)

Qonunchilik, ijtimoiy hayotda u yoki bu masalalarni hal etish uchun “turkiy tuzuklari” yoki “Turolari” bo‘lgan. Xitoy tarixchisi shunday tuzuklardan biri So‘g‘ddagi ibodatxonalardan birida saqlanishini yozadi.

Qonunlarga koʻra, eng ogʻir gunoh qilgan odam urugʻ-aymogʻi bilan yoʻq qilib yuborilgan. Qolgan jazolar oʻlim va turli miqdordagi tovon toʻlash usullari boʻlgan. (Masalan birovni oʻldirsa, buzuqchilik qilsa, ot oʻgʻirlasa, oʻlim jazosi, birovning mol-mulkini oʻgʻirlasa yoki kishiga lat yetkazsa tovon toʻlagan va hakozo).

Dehqonlar mavjud suv resurslari hamda lalmikor yerlar imkoniyatlaridan foydalanib asosan don ekinlari hamda, qovun, tarvuz, beda, uzumchilik, paxtachilik sohalaridan yuqori hosil yetishtirganlar. Mevali daraxtlardan bogʻ-rogʻlar yetishtirishga alohida ahamiyat berilgan, manba tili bilan aytganda “mevali daraxtlar savlat toʻkib turgan”. Chunonchi, ajnabiylarni Samarqandning “tilla shaftolisi” lol qoldirgani ma’lum.

Shahar aholisi asosan hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashgʻul edi. Dehqonchilik va konchilikdagi taraqqiyot koʻlami va sifati oʻzidan keyingi uch tarmoq-hunarmanchilik, qurilish, savdo-sotiq ravnaqi uchun katta turtki boʻladi. Shuning uchun bu vaqtda metallsozlik, zargarlik, kulolchilik, duradgorlik, qurolsozlik, toʻqimachilik, shishasozlik, konchilik keng rivoj topgan. Hunarmandchilik rivojiga turkiy aholi katta ta’sir koʻrsatdilar. Chunki ularda qadimdan koʻpchilik kasb-hunarlar juda rivojlangan edi. Turkiylar sarrojlik, metall qazib olish va undan qurol-yarogʻ yasashda ayniqsa mohir edilar. Turkiylar yasagan qurol-yarogʻ, zebu-ziynat buyumlari xilma-xilligi va pishiqligi bilan ajralib turgan. Konchilik faoliyati ham shu paytda ancha rivojlangan. Oltin, temir, kumush, qoʻrgʻoshin, mis, margimush, tuzning bir necha xili, qimmatbaho toshlar, turli ma’danlar Soʻgʻd, Shosh, Fargʻona, Qashgʻar, Tohariston kabi viloyatlarda qazib olishganligi manbalarda aniq koʻrsatilgan.

Turkiy hoqonlik ulkan hudud ichida zarur tinchlikni ta’minlaganligi natijasida “Buyuk ipak yoʻli” samarali ishlashda davom etdi. Oʻlkaning asosiy savdo hamkorlari Eron, Xitoy, Hindiston va Vizantiya edi. Bu mamlakatlarga toʻqimachilik, ipakchilik mahsulotlari, qimmatbaho toshlar va ulardan ishlangan buyumlar, taqinchoqlar, dorivorlar, nasldor argʻumoqlar, bir necha xil tuz, sharob, bogʻdorchilik mahsulotlari, qazilma boylik va hakazolar olib borilgan. Soʻgʻd savdogarlarining ayniqsa mavqeyi kuchli boʻlgan. Shu ma’noda Xitoylik muallifning quyidagi guvohligi e’tiborga sazovordir: “(soʻgʻdiyonalik) erkaklar yigirma yoshga toʻlishlari bilan qoʻshni mamlakatga oshiqadilar va (savdo-sotiqda)qayerda (qulaylik) va manfaat boʻlsa (albatta) u yerga qadam ranjida etadilar”. Oʻrta Osiyoning shu davrdagi Marv, Poykant,

Buxoro, Samarqand, Choch, Isfijob, Suyob kabi shaharlari savdo-sotiqning markazlari edi.

Xitoy bilan savdo munosabatlari ayniqsa rivojlanib, 627-647 yillar mobaynida Xitoyga 9 marotaba savdo elchilari yuborildi. O‘rta Osiyoda shu paytda 15 taga yaqin mayda davlatlar bo‘lib, Buxoroda buxorxudotlar, Xorazmda xorazmshohlar, Choch va Iloqda bo‘dun va dehqonlar, Farg‘onada ixshidlar hukmronlik qilishgan. Ularning hammasi Turkiy hoqonlikka qaram bo‘lsa-da, amalda yarim mustaqil edilar.

Turkiylarning dini haqida “Vey-shu” va “Suy-shu” Xitoy yilnomalarida qayd etilgan. Unda turkiylar dini, odatlari haqida shunday ma’lumotlar bor: 1) hoqon qarorgohiga Sharq tomonidan kiritilgan, bu bilan kun chiqish tarafga hurmat ma’nosi ifodalangan, ayni paytda quyoshga sig‘inishni ham bildirgan. 2) har yili hoqon o‘z amaldorlari bilan maxsus g‘orga borib, ota-bobolari ruhiga qurbonlik keltirgan. 3) har 5-marotaba oy chiqishida va o‘sha oyning o‘rtasida hoqon yaqinlarini yig‘ib, daryo bo‘yiga borgan, osmon ruhi (tangri)ga qurbonlik keltirganlar. Qabilalar o‘rtasida ham turli xudolarga e’tiqod qilish bo‘lgan. Tangri (osmon ruhi) barcha qabilalar uchun yagona asosiy xudo bo‘lgan. Unga doimiy qurbonliklar keltirganlar. Ular ruh abadiyligi, narigi dunyo borligiga ishonganlar. Biror kishi qazo qilsa uning yoniga boshqa kishilar, buyumlarni ham qo‘shib ko‘mganlar. Masalan, 576-yil Istemi-yabg‘u vafot etganida u bilan birga 4 ta harbiy asir o‘ldirilib ko‘milgan. Muqanxon vafot etganida unga oxiratda xizmat qilish uchun 20.000 kishi o‘ldirilib, birga ko‘milgan. Qiyomat kunini turkiylar “Qoldirilgan kun” deb ataganlar. Turkiylar qabr toshlari, ya’ni bitiktoshlar yoniga odamlarning tosh haykalchalarini qo‘yishgan. Ular “balballar” deyilgan. Bu balballar o‘lgan odamning ruhiga bag‘ishlangan yodgorlikdir. Shamanizm o‘sha davrda turkiylarning asosiy dini bo‘lib, keyinchalik ular ichida buddizm, xristianlik va boshqa dinlar ham tarqalgan. Tosh bitiklarda o‘lgan odamga madhiyadan tashqari, ko‘plab tarixiy hodisa va voqealar ham bitilgan. Bunday bitiklar ichida eng ma’lumlari Kul tigin bitigtoshi, Bilga hoqon bitigtoshi, To‘nyuquq bitiktoshi va boshqalar mashhurdir. Bular birgalikda O‘rxun-Enisey yozuvlari deb ataladi. Shuningdek qog‘ozga yozilib, Xitoydan topilgan 104 satrlik “Ta’birnoma” asarida ham turkiylar hayotining sahifalari yoritilgan.

Islom dini. O‘rta Osiyoga arab bosqinining dastlabki davri. Qutayba yurishlari

Jahon tarixida ulkan iz qoldirgan davlatlardan biri-bu Arab xalifaligidir. Arab xalifaligi davri O‘rta Osiyo, Eron, Afg‘oniston, Yaqin va O‘rta Sharq, shimoliy Hindiston, Pireneya yarim oroli va shimoliy Afrika xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotida o‘ziga xos yuksalish davrini belgilab berdi. Arab istilochilari xususida shubhasiz eng asosiy ma’lumotlarni arab, musulmon mualliflari berib o‘tganlar. Shu xususda, jumladan, al-Balazuriyning “Futuh al buldon” (Mamlakatlarning fath etilishi), at-Tabariyning “Tarixi rasuli va muluk” (Payg‘ambarlar va podsholar tarixi) asarlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Islom dinining vatani Arabiston yarim orolidir. Arablar semit qabilalari guruhiga mansub bo‘lib, asosan ko‘chmanchi, chorvachilik bilan hayot kechirgan. Ko‘chmanchilar **badaviylar** deb yuritilgan. Vohalardagi aholi dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Dengiz bo‘ylari, vohalarda, shaharlar qad rostlagan bo‘lib, ularda asosan savdo-sotiq va hunarmandchilik bilan kun ko‘radigan aholi yashar edi.

VI asrning ikkinchi yarmi, VII asrning birinchi yarmidagi arab ijtimoiy hayoti juda murakkab va rang-barang edi. Unda urug‘-aymoqchilik munosabatlari endigina kurtak ochib kelayotgan feodal munosabatlar bilan chatishib ketgan edi. Asosiy savdo yo‘llarining bu hududdan o‘tishidan arab zodagon-savdo ahli juda manfaatdor edi. Lekin mamlakatda bu paytda siyosiy parokandalik hukm surar edi. O‘zaro qabilaviy urushlar natijasida dehqonchilik va savdo-sotiq ishlariga katta zarar yetkazilar, xonavayronlik avj olgan edi. Bu holat arab aslzoda guruhlari, zodagonlari manfaatiga zid bo‘lib, mamlakat iqtisodiy yo‘nalishida yuqoridagi salbiy holatlar katta zarar yetkazar edi. Yuqoridagi vaziyat ham turli tabaqa, toifa kishilarining o‘zaro hamjihatlikka yagona, kuchli davlat atrofiga birlashishga chaqirar edi. Aholi ichida ko‘p xudolik-butparastlik urf edi (xususan Ka’bada 360 ta but bo‘lib, ularning eng yiriklari Hubal va Lut bo‘lgan).

Shunday vaziyatda Islom to‘g‘ri va haq yo‘lni ko‘rsatuvchi din sifatida yuzaga keldi. Islom-bu Alloh yagona deb e’tirof etib, unga bo‘ysunmoqlik va butun qalbi bilan unga ixlos qilmoqlik va Alloh buyurgan diniy e’tiqodga iymon keltirmoqlik demakdir. Islom “itoat”, “bo‘ysunish” ma’nolarini bildiradi. Bu dinning asoschisi Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) (570-632) makkalik Abdullohning o‘g‘li bo‘lgan. Uning bobosi Abumutallib quraysh qabilasining boshlig‘i bo‘lgan.

Muhammad payg‘ambarning ta’limotiga ergashganlarni “muslim”, ya’ni “itoatkorlar” deb yuritganlar. O‘z payg‘ambarlik faoliyatini Muhammad Makkada boshlagan. Makka Arabiston yarim orolining g‘arbiy qismidagi Hijoz viloyatida joylashgan shahar bo‘lib, bu yerda Ka’ba joylashgan edi. Diniy ta’limotga ko‘ra Ka’bani Odam Ato barpo qilgan bo‘lib, uni Ibrohim payg‘ambar o‘z o‘g‘li Ismoil bilan birga qayta qurgan va birinchi Haj safarini uyushtirgan. Ka’baning ichida muqaddas tosh “Hajar-ul-asvod” o‘rnatilgan. Har yili bu muqaddas joyga millionlab musulmonlar ziyoratga keladilar.

Muhammad payg‘ambar muslim (musulmon)larning yagona Alloh oldida teng ekanliklarini, Yaratganning o‘zi rizq-ro‘z ulashishini, jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi jazo muqarrar va har bir kishi bu dunyodagi ishlariga ko‘ra taqdirlanishi, inson Yaratgan, yolg‘iz Allohgagina e’tiqod qilishini targ‘ib qiladi. Bu ta’limot aholining barcha qatlamlari manfaatlariga mos bo‘lib, tez orada birinchi navbatda shahar ahli ichida tarqala boshlaydi. Lekin yangi din tarafdorlarining ahvoli ularning e’tiqodlariga ko‘ra og‘irlashib borgandan so‘ng bir qism musulmon aholi Habashistonga, ba’zilari shimolga qarab ketishga majbur bo‘ldilar. Muhammad ham o‘ziga qarshi turgan quraysh qabilasi a’zolarining ta’qibi kuchayib ketgan 622 yil 16 iyulda (ba’zi adabiyotlarda 15 iyul deyiladi) o‘zining eng yaqin do‘sti va safdoshi Abu Bakr bilan Makkadan Madinaga ko‘chishga majbur bo‘ladi. Bu arab tilida “hijrat” deb atalib, shu kundan boshlab musulmon olamida qabul qilingan hijriy yil boshlanadi. (Hijriy yil hisobi 2 xil bo‘ladi: hijriy-qamariy, ya’ni oy hisobi bo‘yicha va hijriy-shamsiy, quyosh hisobi bo‘yicha).

Madinada Muhammad o‘z ta’limotini davom ettiradi. Madinada shuhrat qozongan makkaliklar butparastlik g‘oyalariga qarshi ham harbiy, ham siyosiy zarba bera boshlaydilar. Muhammad (s.a.v.) payg‘ambar vafot etgach (632 y), ketma-ket “Xulofoiy rashoddin” (haq yo‘ldan borgan sahih xalifalar) nomlarini olgan Abu Bakr, Umar, Usmon va Alilar (661 yilgacha) payg‘ambar siyosatini davom ettirib, Arabiston yarim orolida markazlashgan-Arab xalifaligi davlatiga asos soladilar. O‘zaro qabilalar birlashuvi, dini islomning yoyilishida ilohiy muqaddas kitob Qur’onning o‘rni nihoyatda katta bo‘ldi.

VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Xalifalik kengaya borib o‘z chegaralarini g‘arb va sharq tomon kengaytirishga harakat qildi. Yaqin va O‘rta Sharqning boy viloyatlari qo‘lga olinib, nihoyatda uyushgan va jangovar arab qo‘shini shiddat bilan harakatlarini boshlab yuborgan edi. Bir vaqtning o‘zida arablar o‘z yurishlarini Vizantiya va Eronga qarshi

olib bordilar. Sosoniylarning so‘nggi vakili Eron shohi Yozdigard III (632-651) arablarga qarshi turishga harakat qildi. Lekin Kadisiya (636 y.) va Nahavand (642 y.)dagi janglarda arablar qo‘shini forslarga qaqshatqich zarba berib Sosoniylar sulolasiga barham berdilar. Vizantiyaga qarshi qilingan harbiy harakatlar natijasida Falastin, Misr, Suriya, Iroq egallandi. Xalifa Umar ibn al-Xattob (634-644) davrida ilk bora arab istilochilari Xuroson chegaralarida paydo bo‘lgan edi. 643-644 yillarda arab sarkardasi Abdulloh ibn Varqa Kirmonni egallab Xurosonning janubdagi darvozalari hisoblangan Tabas va Qureynga yurish qiladi. Bu yerning aholisi o‘z zimmasiga yiliga 60000 dirham soliq to‘lash majburiyatini oladilar.

Arablarning keyingi harbiy harakatlari 650-651 yillarga to‘g‘ri keladi. Shu yillarda Basra noibi ibn Kurayza Xuroson bilan chegaradosh yerlarga yurish qiladi. 651 yilda Marv shahri egallandi. Marv marzaboni (hokimi) Abraz (Baraz) sarkarda ibn Amirga 2 mln. 200 ming kumush dirham evaziga tinchlik bilan shaharni topshiradi

Arablar Amudaryodan (Jayxun) shimolda joylashgan yerlarga “Movarounnahr”, ya’ni, “daryoning narigi tomonidagi yerlar” deb nom berishadi. Hozirgi Afg‘onistonning shimoli, Eronning shimoli-sharqiy qismi hamda Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo‘lgan hududlar esa Xuroson deb yuritilgan. Avval boshda Xurosonning markaziy shahri Marv, keyinchalik Hirot shahri bo‘lgan.

Arablarning Movarounnahrga qarshi harbiy yurishlari o‘z maqsad va rejalari bilan 2 davrga bo‘linadi. Birinchi davrda xalifalik istilo etishni emas, balki harbiy jihatdan tayyorgarlik ko‘rish, mahalliy hukmdorlar kuch-qudratini sinab ko‘rish, mavjud geografik, harbiy, iqtisodiy, siyosiy joylashuvini o‘rganish, kichik yurishlar orqali katta o‘ljalar orttirish rejasini amalga oshiradi.

651-yili noib Abdulloh ibn Amir hukmronligi davrida arablar Xurosondagi Nishopur, Obinahr, Tus, Jom, Obivard va boshqa katta-kichik qo‘rg‘on shaharlarni egalladilar. Faqatgina 651-yilning o‘zida Xuroson noibi ibn Amir yangi egallangan yerlardan xalifa xazinasiga 6 mln. 200 ming dirham to‘plagan soliqlarni yuboradi. Balx yaqinidagi hal qiluvchi jangda (652-y.) arablar Balx shahrini egallashadi. O‘sha yili Amudaryodan o‘tib Movarounnahrga hujum qilish rejasi arablar uchun muvaffaqiyatsiz tugaydi. Lekin shu bilan birga, har holda Xuroson noibi Abdulloh ibn Amir 652-yil boshida Chag‘oniyonni egallashga muvaffaq bo‘ladi. Bu esa ilk bor Movarounnahr yerlarini egallash edi. 654-yili Sug‘ddagi Maymurg‘ qal’asiga arablarning birinchi hujumi bo‘ladi.

657-yili Chag‘oniyonga arablar qayta yurish qilib eftalitlarga qarshi qat’iy zarba berdilar. Arablar keng miqyosdagi hujumlarga tayyorgarlik ko‘ra boshlagan edilar. Xalifalik ichidagi o‘zaro hokimiyat uchun ichki nizolarning kuchayishi natijasida arablarning Movarounnahr yerlariga hujumlari bir oz to‘xtab qoladi. Hatto 658-659 yillarda noib Xulayd Nishopur va Marv aholisidan arzimas soliqlar olish xususida shartnoma imzolab, bosib olingan Xuroson yerlaridagi nazoratni ancha susaytiradi. 661 yili hokimiyat boshiga yangi Ummaviylar (661-750) sulolasining kelishi harbiy harakatlarning faollashuviga sabab bo‘ladi. 665-yili xalifa Muoviya (661-680) Ziyod ibn Abu Sufyonni Basra, Seyiston va Xuroson noibi etib tayinlaydi. Xalifa unga jadal harbiy harakatlar qilish topshirig‘ini bergan edi.

Narshaxiyning yozishicha, 673-yilning kuzida xalifa Muoviyaning farmoni bilan Xuroson noibi Ubaydulloh ibn Ziyod Amudaryodan kechib o‘tib Buxoro viloyatiga bosib kiradi, Poykand va Romitonni egallab, Buxoro shahrini qamal qiladi. Yordamga kelgan turkiylar buxoroliklar bilan bir qator turib arablarga qarshi jangda qatnashadilar. Bu jangda arablar g‘olib keladilar. O‘sha yili arablarning ar-Rabiy boshchiligidagi harbiy otryadi Amul, Zemm va Xo‘jand atroflarigacha bo‘lgan yerlarga hujum qilib, katta o‘lja bilan orqaga qaytishgan edi. 676-yili Xurosonning yangi noibi Sayid ibn Usmonning Buxoro va Samarqandga yurishida Muhammad payg‘ambarning jiyani Qusam ibn Abbos ibn Abdul-Mutallib ishtirok etadi. Samarqand yonidagi janglardan birida halok bo‘lib, so‘ng keyinchalik Shohi Zinda (tirik shoh) nomini olgan qabristonga dafn etiladi.

Sayid ibn Usmonga qarshi Buxoro malikasi Xo‘takxotun So‘g‘d, Kesh, Nasafdan yordamga kelgan 120000 kishilik harbiy qo‘shin bilan peshvoz chiqadi. Lekin so‘g‘dliklar jang maydonini tashlab chiqib ketganlaridan so‘ng malika kattagina boj (300000 dirham) to‘laydi.

Sayid ibn Usmon Buxorodan Samarqandga yo‘l oladi. Samarqand 1 oy davomida qamal qilinadi. So‘g‘dliklar jasorat bilan qarshilik ko‘rsatadilar. Sayid ibn Usmon so‘g‘dliklar bilan sulh tuzishga majbur bo‘ladi. U Samarqanddan 30000 kishini asirga olib, orqaga qaytadi va yo‘l-yo‘lakay Termiz shahrini ham istilo etadi.

Xalifa Yazidning vafotidan (683 y.) so‘ng toju-taxt uchun kurash boshlanib ketadi. Bunday vaziyatda arablar yana Movarounnahrga hujum qilishdan deyarli to‘xtab, o‘z ichki nizolari bilan band bo‘lib qoladilar.

Xalifa Abdulmalik ibn Marvon (685-705) davrida ichki nizolarga chek qo‘yilgandan so‘nggina arab siyosiy arboblari va zodagonlari

Movarounnahrga haqiqiy yurish qilish vaqti keldi deb topdilar. Yangi tayin etilgan Xuroson noibi Qutayba ibn Muslimga Iroq noibi al-Hajjoj Movarounnahrni butkul egallashni va qat'iyat bilan harakat qilishni topshiradi. Arab bosqinchiligining ikkinchi davri, ya'ni, Movarounnahr yerlarini xalifalikka butunlay qo‘shib olish boshlanadi.

O‘rta Osiyodagi siyosiy parokandalik va kichik davlatlarning bir-birlari bilan tez-tez nizolarga borib turishi Qutaybaga qo‘l keldi. O‘z harbiy yurishlarini Qutayba 705 yil Balx viloyatini bosib olish bilan boshladi. Balxdan tashqari Qutaybaga Chag‘oniyon, Shuman va O‘rta Osiyoning janubidagi kichik viloyatlar bo‘ysunadi. Chag‘oniyon hokimi Tish arablar tomoniga o‘tib ketadi.

706-yil Qutayba katta qo‘shin bilan Movarounnahrga kirib keldi. Tabariyning ma'lumotlariga ko‘ra, Qutayba eng obod va boy shaharlardan biri Poykand tomon harakat qildi. Uning qo‘shini tarkibida arablar xizmatiga o‘tgan Balx va Chag‘oniyon hokimlarining ham qo‘shinlari bor edi. Poykandning ko‘pchilik aholisi savdogarlar edi. Shaharda qoldirilgan harbiy qo‘shinga turk sarkardasi bosh edi. So‘g‘d va boshqa viloyatlardan kelgan kuchlar bilan poykandliklar arablarga qattiq turib qarshilik ko‘rsatdilar. Arablar sug‘dlar tomonidan o‘rab olinib Qutaybaning barcha yo‘llari kesib qo‘yildi.

Lekin ichki ittifoqning yo‘qligi, o‘zaro nizolar natijasida Poykand himoyachilarining kuchi zaiflasha bordi. Qutayba qal'aga birinchi safda borgan va shahid bo‘lgan kishilarning oilalariga katta mukofot va'da qildi. Ketma-ket 15 kun davom etgan janglardan so‘ng arablar qal'a devorini teshishga muvaffaq bo‘ldilar. Shahardagi og‘ir janglardan so‘ng Poykand arablar qo‘liga o‘tdi.

Poykand fojeasidan so‘ng Qutayba boshliq kuchli raqibga zarba berib uni mag‘lub etish maqsadida Sug‘d podshosi Tarxun, Buxoro hukmdori Xunukxudod, Shopurkom hokimi Vardanxudod boshliq katta qo‘shin yig‘ildi. Ularga turklar yordamga kelib, jami qo‘shinning miqdori 40000 kishi atrofida edi.

Ittifoqchilar qo‘shini Buxoro yaqinida Torob, Xunbun, Romiton oralig‘ida to‘plandi. Qutayba qurshovda qoldi. Arablarning ahvoli nihoyatda og‘irlasha bordi. Shunda bu ahvoldan qutulish uchun Qutayba makkorlik yo‘lini tutib, nayrang ishlatadi. Narshaxiyning yozishiga ko‘ra, Qutayba Xayon-an-Nabatiy ismli o‘z kishisini ittifoqchilar ichida qudratli bo‘lgan So‘g‘d podshosi Tarxunga maxfiy suratda vakil qilib yuboradi. Nabatiy Tarxunga arablar havo sovushi bilan shundoq ham Marvga qaytib ketajaklarini, holbuki turkiylar So‘g‘dni arablar ketganidan so‘ng butkul

egallab olajaklari xususida soxta xabar yetkazadi. Bu xabar ittifoqchilar ichida bo‘linishga sabab bo‘ladi. Tunda sarosimaga tushgan Tarxun Qutayba lageriga sovg‘a-salomlar bilan 2 mln. dirham yuborib, evaziga sulh shartnomasi matnini oladi.

Arablar ittifoqchilarni zaiflashtirib, ketma-ket ular yerlarini egallay boshlaydilar. 708-709 yillar mobaynida Qutayba Buxoro va uning atrofiga bir necha bor hujum qilib, Buxorxudod Tug‘shod qo‘shinlarini tor-mor etadi va unga amir etib o‘z yaqinlaridan birini tayinlaydi. Amir Buxorxudod ustidan nazorat qilib turish, Buxoroda qoldirilgan harbiy qismga askarboshilik qilish, aholidan soliq undirishi va uni o‘z vaqtida xalifalikka yetkazib berish vazifasini ado etar edi.

Xorazmda boshlangan ichki ziddiyatlar Qutayba fikrini o‘zgartirdi. Xorazmda xalq g‘alayoni boshlangan bo‘lib, unga Xorazmshoh Chag‘onning ukasi Xurzod boshchilik qilar edi. Qutayba Xurzod boshchiligidagi qo‘zg‘olonchilarni tor-mor keltiradi. 710-712 yillarda Xorazmshoh Qutayba bilan tinchlik sulhini tuzib, unga 10000 qoramol miqdorida boj to‘laydi. Xorazm shu bilan o‘z mustaqilligini yo‘qotib arablar hokimiyatini tan oladi. Qutayba esa o‘z qo‘shini hamda Xorazmshoh va Buxorxudod qo‘shinlari bilan birgalikda Samarqandga yo‘l oladi.

Shu paytda norozilik va qo‘zg‘olon natijasida shahar podshosi Tarxun taxtdan ag‘darilgan edi. Sug‘d podshosi va Samarqand afshini sifatida Tarxunning ukasi G‘urak (710-737) taxtga o‘tiradi. Tarxun esa hibsda o‘zini-o‘zi halok etadi.

G‘urak Qutaybaga qarshi chiqadi. Kattaqo‘rg‘on yaqinidagi Arbinjon mavzesida shiddatli jang bo‘lib o‘tadi. Ammo G‘urakning kuchlari ozlik qilib Samarqandga chekinishga majbur bo‘ladi. Arablar tomonidan Xorazm va Buxoro hokimlari qo‘shinining qatnashuvi, sug‘diylarning yakkalanib qolishlari va atrofdan yordam ololmasliklariga sabab bo‘ladi. Undan tashqari Samarqand zodagonlari ichida birlik ham yo‘qoladi. Tarxunning o‘limidan so‘ng uning tarafdorlari ko‘proq arablarga yon bosa boshlashadi. Panjikent hokimi Devashtich shu guruhga rahbarlik qila boshlaydi. Qutayba esa “Tarxun o‘limi uchun qasd olaman” deb e’lon qiladi.

Qamalda qolgan G‘urak Shosh podshosi, Turkiy hoqon va Farg‘ona ixshidiga murojaat qilib ulardan yordam so‘raydi. Turkiylar qo‘shini bu paytda Sug‘d chegarasi yaqinida bo‘lib Farg‘ona va Shosh qo‘shinlari bilan birgalikda ittifoqchilar lashkarini vujudga keltiradi. Ittifoqchilar qo‘shinining tepasiga lashkarboshi etib Turkiy hoqonning kichik o‘g‘li

Inal hoqon tayinlanadi. Qutayba darhol o‘z ukasi boshchiligida saralangan qo‘shin tuzib, ittifoqchilar yo‘liga tuzoq qo‘yadi. Arablar ittifoqchilarni tor-mor etib, ularning mol-mulklarini talaydilar.

Qutayba shundan so‘ng Samarqandga hujumni kuchaytiradi. Shahar ra’danroz (tosh otg‘ich)lardan o‘qqa tutiladi. Bu janglarda ayniqsa buxoroliklar, xorazmliklar katta jonbozlik ko‘rsata boshlaydilar. Bir oy davomida shahar mudofaachilari Samarqandni qahramonona mudofaa qildilar. Arablar oxir oqibatda shahar devorlarini buzib shahristonga bostirib kirdilar. Samarqand arablarga taslim bo‘ldi. G‘urak va Qutayba o‘rtasida sulh tuzildi.

Qutayba jo‘nab ketishi oldidan shaharda o‘z ukasi Abdurahmon ibn Muslim boshliq yaxshi saralangan qo‘shinni qoldirib ketadi. Lekin matonatli Sug‘d aholisining qarshiligi bu bilan tugamaydi. Al-Yaqubiyning yozishicha, 712-yil kuzida Samarqandda arab noibiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tariladi. Ularga turklar yordam beradi. Faqatgina 713 yil bahorida Qutaybaning yetib kelishi bilan shahardagi qo‘zg‘olon bostiriladi.

Mug‘ tog‘idan topilgan hujjatga ko‘ra Qutayba o‘zining keyingi yurishlarida Shosh, Farg‘ona va Turkiy hoqonlik qo‘shinlaridan iborat yana bir harbiy ittifoqning qarshiligiga duch keladi. Sug‘d, Choch, Farg‘ona ittifoqiga Panjikent hokimi Devashtich ham qo‘shiladi. U Choch va boshqa yerlarga o‘z elchisi Fatufarnni yuboradi. Fatufarn nomani Choch hukmdori Moxedu tudun (Bahodir tudun)ga topshiradi. Qolgan ikki maktubni Farg‘ona elchisi orqali turkiylar hokimi va Farg‘ona ixshidiga berib yuborgan.

Qutayba bu o‘lkalarni tezda o‘ziga bo‘ysundirish harakatiga tushadi. Tabariyning ma’lumotlariga ko‘ra, Qutayba 713-yil Buxoro, Kesh, Nasaf va Xorazm aholisidan 20000 askar to‘plab berishni talab qildi. O‘z qo‘shini bilan uni qo‘shib, qo‘shinni 2 ga bo‘lib ajratadi. Kesh, Nasaf, Xorazmdan kelgan qo‘shin Choch viloyatiga, o‘zi esa asosiy kuch bilan Ustrishona orqali Farg‘ona vodiysiga yo‘l oladi. Birinchi qo‘shin Choch qo‘shinini tor-mor etib, Choch viloyatini egallaydi. Qutayba esa Ustrishonda hal qiluvchi jang olib borib Xo‘jand va Kosonni zabt etadi.

714-yil Qutayba Turkiy hoqonlikdan harbiy yordam kelish yo‘lini to‘sish maqsadida Choch vohasiga qayta bostirib kiradi. O‘sha yili asosiy yo‘ldagi Isfijob (Sayram)ni ishg‘ol etadi. 715-yil boshida esa Farg‘ona podshosi qochib ketishga majbur bo‘ladi. Qutayba o‘sha yili Qashqargacha bo‘lgan yerlarni istilo etadi. Hamma viloyatlarga arablardan bo‘lgan amirlarni noib etib tayinlaydi. O‘sha yili arab xalifasi

Volid vafot etadi. Xalifalik taxtiga Sulaymon ibn Abdulmalik o‘tiradi. Qutayba Sulaymonga nisbatan g‘animlik munosabatida bo‘lib, uni qo‘llamas edi. Qutayba uni taxtga chiqishidan norozi bo‘lib isyon ko‘taradi. Natijada bu isyon muvaffaqiyatsiz tugab Qutaybaning o‘zi Farg‘onada o‘ldiriladi (715-y).

Shunday qilib, 10-yil davomida olib borilgan doimiy kurashlar natijasida Movarounnahr xalifalik ixtiyoriga kirsa-da, ammo uning mag‘rur aholisi o‘zini butkul tobe etilgan deb hisoblamaydi. Shuning uchun ham Qutayba har yili qishlash uchun Marvga jo‘nab ketar, bahorda esa yangi kuchlar bilan Movarounnahrga hujum qilar edi. Shuning uchun ham arablar Movarounnahrni egallashda muvaffaqiyat qozondilar. Buning asosiy sabablari quyidagicha edi. Avvalo mamlakatda hukm surayotgan siyosiy tarqoqlik va kichik hukmdorlarning o‘zaro kurashlari arablarga juda qo‘l kelgan edi.

Bu vaziyatdan ular ustalik bilan foydalanishar edi. Ular kichik davlatlarning o‘zaro birlashuviga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qildilar va buning uddasidan chiqdilar. Arablar o‘zaro kurashayotgan hokimlarning biriga ikkinchisini yengishi uchun yordam ko‘rsatib, keyin ularning har ikkisini ham birin-ketin bo‘ysundirdilar. So‘g‘dni zabt etishda Qutayba arab qo‘shini bilan bir qatorda Xorazm, Buxoro va Nasafning kuchlaridan foydalangan edi.

Ayniqsa arablar ko‘chmanchi jangovar turkiylar bilan o‘troq dehqonchilik viloyatlari aholisi o‘rtasida ba’zan yuzaga kelgan kelishmovchiliklardan foydalanib, ularni birini ikkinchisiga qarshi qo‘ydilar va ittifoqchilarni ajratib yuborishga muvaffaq bo‘ldilar. Shu bilan birga, xalifalik Movarounnahrdan harbiy qurol-aslahalar jihatidan unchalik ustun bo‘lmasa ham, biroq qo‘shin saflarini to‘ldirib turish imkoniga ega edilar.

Arablar qo‘shiniga muntazam ravishda yangi harbiy kuchlar ichki viloyatlardan safarbar qilib turilar edi. Undan tashqari keskin qarshilik kurashini olib borgan xalq, mahalliy hukmdorlarning xoinona harakatlari, arablar bilan maxfiy til biriktirishlari tufayli muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Arablar bosib olgandan keyin Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-siyosiy ahvol. Xalq harakatlari

Arablar O‘rta Osiyoni bosib olgach bu hududdagi hamma shaharlar va aholi joylarida o‘z qo‘shinlarini joylashtirdilar. Bu harbiy kuchlar o‘z

vaqtida mahalliy aholi ustidan nazorat qilib turardi. Arab xalifaligining hukmronligi aholi uchun og‘ir yuk bo‘lib qoldi.

Istilochilar avval boshda Movarounnahrning hunarmandchilik va savdo shaharlari, obod viloyatlariga bostirib kirib, ularni taladilar va katta o‘ljalarga ega bo‘ldilar. O‘lkalarni bosib olish chog‘ida dehqonchilik vohalari oyoq osti qilinib, shahar va qishloqlar vayron etildi. Suv inshootlari buzib tashlandi. Ko‘pgina joylarda qurg‘oqchilik yuz bera boshladi. Shaharlardan katta miqdorda qimmatbaho o‘ljalar, Buxoro, Poykand va So‘g‘d hukmdorlaridan esa katta miqdorda tovon olindi.

Arab qo‘shini tarkibiga mahalliy aholi ichidan ko‘plab erkaklar majburan safarbar qilindi. Harbiy harakatlar natijasida aholining bir qismi halok bo‘ldi, bir qismi asirga olindi. Barcha shahar va qishloqlarda o‘z harbiy garnizonlarini joylashtirishgan arablar, shu harbiy kuchga tayanib aholidan turli soliqlar undirishar, ularni turli jamoat ishlariga safarbar qilishar edi. Marv, Poykand, Buxoro, Samarqandda uylarning qoq yarmi arablar ixtiyoriga topshirildi. Ba’zi istilochi zodagonlar dehqonchilik vohalaridagi eng unumdor yer maydonlar va suv inshootlarini egallab ola boshladilar. Arab oilalari qishloq va shaharlarga kelib o‘rnasha boshladilar. Ariq qazish, ko‘prik qurish, binolarni ta’mirlash va boshqa jamoa ishlarida aholidan bepul foydalanar edilar. Shu bilan birga mahalliy aholi arab zodagonlari va qo‘shinini ot-ulov, kiyim-kechak, oziq-ovqat, qullar va boshqa narsalar bilan ta’minlab turishi kerak edi.

Iqtisodiy hayotni o‘z qo‘llaridan chiqarmaslik maqsadida arablar bu yerda sosoniylar tartibidagi soliq tizimini joriy qildilar. Bu tizimga yer solig‘i-**hiroj** (hosilning o‘ndan bir yoki o‘ndan ikki qismi miqdorida) chorva, hunarmandchilik, savdo-sotiqdan **zakot** (qirqdan bir miqdorda) hamda islomni qabul qilmagan shaxslardan olinadigan **juzya** solig‘i ham qo‘shildi.

Arablar o‘z hukmronligi siyosiy negizini mustahkamlash va uning barqarorligini ta’minlashda islom dinini keng yoyishga va targ‘ib qilishga katta e’tibor berdilar. O‘rta Osiyo aholisi ichida e’tiqod qilayotgan zardushtiylik, moniylik, buddizm, nasroniy va boshqa dinlar soxta deb e’lon qilindi. Ayniqsa zardushtiylikka qarshi keskin kurash olib borildi. Bosib olingan yerlarda bu dinning barcha ibodatxonalari yo‘q qilindi. Uning o‘rniga masjidlar barpo qilina boshlandi. Zardushtiy adabiyotlar, xususan diniy kitoblar, so‘g‘d tilidagi nomalar, xalq adabiyoti yo‘q qilinib yuborildi.

“Qutayba ibn Muslim Xorazm xattotlarini qatl ettirdi va din peshvolarini qirib tashlab, ularning kitob va qo‘lyozmalarini yoqib

yuborgandan keyin,-deb yozgan edi Beruniy,-xorazmliklar savodsiz bo‘lib qoldilar, ularning faqat yodda saqlab qolgan xotiralarigina qoldi, ammo vaqt o‘tishi bilan bu unutilib, faqat o‘zlari uchun mos bo‘lgan xotiralargina saqlanib qoldi”.

So‘g‘d tilidagi dunyoviy adabiyotlar yo‘q qilib tashlandi. Islom dinini qabul qilgan, musulmon bo‘lgan mahalliy aholi vakillari dastlabki yillarda xiroj va juzya soliqlaridan ozod etilib, ularga anchagina imtiyozlar berildi. Namoz o‘qish uchun masjidlarga borgan shaxslarga 2 dirhamdan pul ham berilar edi. Juzya solig‘ini o‘z vaqtida to‘lamagan kishilar tutib olinib bo‘yinlariga “qarzdor” deb taxtachalar osib qo‘yilgan.

Qutaybaning o‘limidan so‘ng arab hokimiyatining Movarounnahrdagi mavqeyi biroz zaiflasha bordi. Xurosonning yangi noibi Al-Jarroh (717-719) yangi musulmon aholisiga islomga zid ravishda shafqatsiz munosabatda bo‘la boshlaydi. Sulaymon vafotidan so‘ng taxtga o‘tirgan yangi xalifa Umar ibn Abdulaziz (717-719)-Umar II xorijiylar ta’limoti tarafdori edi. Xorijiylar shialardan ajralib chiqqan guruh bo‘lib ilk islom ta’limoti tartiblarini va umumiy tenglik g‘oyalarini ilgari surar edilar. Umar II Movarounnahrdagi murakkab vaziyatni hisobga olib, bo‘ysundirilgan xalqlar bilan murosachilik siyosatini yurgiza boshladi. U Movarounnahr aholisini islomni qabul qilishga chaqirib, katta ahamiyatli farmon qabul qildi. Unga ko‘ra arablarga yangi yerlarni zabt etish man qilindi va moliyaviy islohotlar o‘tkazish ko‘zda tutildi. Arablar bilan bir qatorda yangi musulmonlardan ham juzya va xiroj solig‘i olish bekor qilindi. Umar II soliq yig‘uvchilardan va xalifalik amaldorlaridan Qur’on va Hadislarga qat’iy amal qilishni buyurdi.

Arab feodal-zodagonlari turli yo‘llar bilan xiroj solig‘i yig‘a boshladilar. Xalifa xazinasiga keladigan soliqlar esa kamayib keta boshladi. Xiroj yerlarini davlat solig‘i sifatida saqlab qolish maqsadida Umar II arablarga o‘z yerlarini kengaytirishni man etdi va hijriyning 100 yilidan (719 yil) keyin sotib olingan barcha xiroj yerlarini qaytib berishni buyurdi. Shu paytgacha olingan yerlardan esa xiroj emas, ushr (o‘ndan bir qismi) soliq olish ko‘zda tutildi.

Umar II islohotlaridan ruhlangan Samarqand ahli zodagonlari unga elchilar yuborib Samarqand shahristonini qaytarib berishni so‘radilar. Umar II Samarqand hokimi Sulaymon ibn-Abus-Sariyaga maktub yozib, qozi bu ishni hal qilib berishini so‘raydi. Samarqandliklar shikoyati ko‘rib chiqilib, bu ish samarqandliklar foydasiga hal bo‘ldi. Qozi Samarqanddan arab garnizoni olib chiqib ketilishi kerak deb hukm chiqardi. Bu esa urushni bildirar edi. Arablar kuch-qudratini bilgan samarqandliklar o‘z

da’volaridan yana voz kechdilar. Mahalliy zodagonlar o‘zlarini musulmon hisoblab, g‘aznaga soliq to‘lamay qo‘ydilar. Shundan so‘ng xalifalik barchadan soliqlarni olishni belgiladi. Natijada Movarounnahrda norozilik kuchayib keta boshladi. Mahalliy zodagonlar bilan arab ma’muriyati orasida ziddiyat keskinlasha bordi.

Arab bosqiniga qarshi xalq ozodlik harakatlari

Movarounnahrda hijriyning 100 yilida (719 yil) arab hokimiyati tugaydi degan gap-so‘zlar tarqala boshlaydi. Arablar olib borayotgan bosqinchilik siyosatiga qarshi birinchi bo‘lib, 720-yilda So‘g‘d aholisi bosh ko‘taradi. Qo‘zg‘olonga Samarqand ixshidi G‘urak va Panjikent hokimi Devashtichlar boshchilik qiladilar.

So‘g‘dlarga yordam berish uchun Turkiy hoqon shahzoda Ko‘rsul boshchiligidagi turkiy lashkarini Samarqandga yuboradi. So‘g‘ddagi qo‘zg‘olon umumxalq qo‘zg‘oloniga aylanib ketdi. Qo‘zg‘olonchilar arablarga zarba bera boshladilar. Faqat ayrim shahar va qal’alar ichida qurshovda qolgan arab harbiy qismlarigina katta boj va e’tiborli vakillarni qo‘zg‘olonchilar ixtiyoriga garovga berish bilan jon saqladilar. Xuroson noibi Sayid ibn Abdulaziz bu qo‘zg‘olonni bostirishga muvaffaq bo‘lolmadi.

721-yil Xalifa Yazid ibn Abdumalikning tavsiyasi bilan Xuroson noibi etib Sayid ibn Amir al-Xaroshiy tayinlanadi. U Iroqdagi xalq qo‘zg‘olonini bostirishda o‘z shafqatsizligi bilan nom chiqargan edi. Sayid al-Xaroshiy qo‘zg‘olonchilar bilan olib borgan muzokaralar natijasida G‘urak boshliq zodagonlarning bir qismi arablar tomoniga o‘tib ketadi. Qo‘zg‘olonchilardan bir qismi esa kurashni davom ettirishni lozim ko‘radilar. Arablar 400 ta boy savdogarlardan boshqa hamma Sug‘d qo‘zg‘olonchilarini qirib tashladilar. Qo‘zg‘olonchilarga yordam bergan Xo‘jand ahli ham jazolandi.

Movarounnahr aholisini tinchlantirish va arab hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Xuroson noibi Ashras ibn Abdulloh (727-730 y.) islom dinini qabul qilganlardan xiroj va jizya solig‘i olishni bekor qiladi. U islom dinini keng targ‘ib qila boshlaydi. Chegaradagi yerlarda yangi istehkom qurilib, chegaralar mustahkamlana bordi. Lekin g‘aznaga kam daromad tushayotganligi, zodagonlarning shikoyati tufayli xirojni qayta tiklaydi. O‘z siyosatini targ‘ib qilish maqsadida ikkita taniqli arab ruhoniysi As-Sayid Soliq va Robiya ibn Umranni Samarqand va

Buxoroga jo‘natadi. Xiroj solig‘i zodagonlardan ham, kambag‘allardan ham zo‘rlab undirila boshlanadi.

Samarqandda Abu Sayid boshchiligidagi 700 ta so‘g‘dliklar xiroj to‘lashdan bosh tortadilar. Ular shahardan 7 farsax nariga o‘tib, qarshilik harakatiga tayyorgarlik ko‘ra boshladilar. Abu Sayidni hiyla ishlatib muzokara uchun Samarqandga chaqirtirishadi va o‘sha yerning o‘zida uni va safdoshlarini zindonband etadilar.

O‘zaro kurashlar, 733-734 yillardagi Zarafshon vohasidagi qurg‘oqchilik, mustamlaka zulmining kuchayishi-bularning hammasi Movarounnahrdagi norozilikning yanada avj olishiga olib keldi. Norozilik arab harbiylari va qisman zodagonlar ichida ham kuchaya bordi. Shu paytga kelib xorijiylar harakati va mafkurasi yanada keng tarqala boshlandi. Xorijiylar yuqorida qayd qilinganidek, shialar guruhidan VII asr oxirida ajralib chiqqan bo‘lib, bu so‘zning lug‘aviy ma’nosi qo‘zg‘olonchilar degani edi. Avval boshda bu harakat oddiy arab va boshqa musulmon xalqlarning manfaatlarini himoya qilar edi. Keyinchalik bu guruhdan ibodiylar, azrakiylar va boshqa jamoalar ajralib chiqqan. Xorijiylar ta’limotiga ko‘ra musulmonlar-zimmiylar (boshqa dindagilar) ustidan hukmron bo‘lishlari kerak edi.

Movarounnahrda Xorijiylar harakatiga shu paytda Xoris ibn Surayj boshchilik qiladi. Xoris Movarounnahrda tezda shuhrat qozondi. U Samarqand va Dabusiyadagi Abu Sayid tarafdorlarini o‘z qo‘li ostida to‘pladi. Abu Fotima uni yordamchisi va harbiy maslahatchisi etib tayinlandi.

Xoris Ummaviy xalifalarni islomga rioya etmaslikka ayblab, butun Xuroson va Marv aholisini xiroj va juzyadan ozod qilishni talab etadi. Kesh xalq ommasiga tayanib, u Xurosonning shimoliga yurish qiladi. Uning qo‘shini tarkibida Xuttalon shahzodasi Sabil, qarluq yabg‘usi va Abu Fotima guruhi ham bor edi. Xalq harakatlaridan norozi bo‘lgan xalifa Xurosonga yangi noib Osim ibn Abdullohni tayinlaydi. Xoris qo‘shinlari Xurosonning katta qismini egallashib, Osimni chekinishga majbur etishadi. 735 yilga kelibgina xalifa yangi noib Asad ibn Abdullohni Xuroson valiysi etib tayinlab, katta kuch bilan Xorisga qarshi kurash boshlaydi. 736-737 yillarda Asadning qo‘shini Xurosondan Xorisni siqib chiqarishga muvaffaq bo‘ladi. Qo‘zg‘olonchilarning ijtimoiy tarkibi ham, talablari ham turlicha edi. Qo‘zg‘olonda aholining deyarli hamma tabaqalari qatnashadi.

Albatta, hukmdorlar o‘rtasida o‘zaro nizolar, xiyonatkorona harakatlar, qurol-yarog‘ning yetishmasligi, yaxshi uyushmaganlik va

boshqalar o‘zining ta’sirini ko‘rsatdi. Shunday bo‘lsa ham qo‘zg‘olonchilar izsiz qolmay xalifalik siyosiy harakatida o‘zining aksini topdi.

Ulkan xalifalikni 661 yildan boshlab Ummaviylar sulolasi boshqarib kelar edi. Bu sulola davrida juda ko‘p siyosiy o‘zgarishlar, diniy mazhablar, guruhlarning kuchayishi, boshqarishdagi nomutanosiblik, mustamlakachilik siyosati, zo‘ravonlik, adolatsizlikning avj olishi ro‘y berdiki, bu narsa sulolaning keyingi davrida uning faoliyatini qiyin ahvolga solib qo‘ydi. O‘rta Osiyoda va boshqa xalifalik yerlarida xalifalikka qarshi norozilik kayfiyatlari kuchli edi. Ularning soliq siyosatidan, zo‘ravonligidan quyi tabaqalar, o‘z huquqlarining kamsitilganidan esa yuqori tabaqalar norozi edi. Ummaviylarning hokimiyatini arab aholisi ham qo‘llamas edi. Ularning hokimiyatga kelishini turli guruhlar, muxolifat kuchlari noqonuniy deb bilishar edi. Avvalo xorijiylar ularga qarshi bo‘lib, xalifalik taxtining merosiy bo‘lishini noto‘g‘ri deb baholar edilar.

718 yildan boshlab maxfiy tarzda Muhammad Payg‘ambarning amakilari Abbosning tarafdorlari o‘z g‘oyalarini targ‘ib qila boshladilar. Ular hoshimiylar urug‘i (Payg‘ambar shu urug‘dan) vakillari hokimiyatga da’vogardirlar deb hisoblashar edilar. Keyinchalik ular o‘z kurashlarida shialar bilan birga harakat qila boshlaydilar.

Yerga egalik munosabatlarning rivojlanishi, ijtimoiy-siyosiy vaziyatning o‘zgarishi ummaviylarning siyosiy sahnadan ketishlarini, ularning avvalgi mavqei tugaganligini ko‘rsatib turar edi. Ummaviylar siyosatidan ommaviy norozilik ayniqsa Marvon II (744-750 y.) hukmronlik davrida kuchayib ketdi. Marvon II ning xiroj solig‘i miqdorini ko‘paytirish va mahalliy xalqlar vakillarini og‘ir qurilish ishlariga keng jalb qilishi norozilikning alangalanishiga olib keldi. Movarounnahr va Xurosonda Abbosiylar vakillari katta yer egalarini o‘zlari tomonga jalb qilishga harakat qiladilar. Abbosiylar vakillari xalifa Xishom (724-743 y.) davridayoq O‘rta Osiyoda harakat qila boshlagan edilar. Ularning targ‘ibotchilari ta’qib ostiga olinar, ular qo‘lga tushgudek bo‘lsa, qo‘l-oyoqlari kesilar edi. Ayniqsa Nasr ibn Sayyor abbosiylar va shialarning katta dushmani bo‘lib ularni doimo ta’qib etib kelar edi. Abbosiylarning hokimiyat tepasiga kelishida Abu Muslim va uning harakati muhim ahamiyat kasb etdi. 746 yil Abu Muslim abbosiylar targ‘ibotiga boshchilik qilish uchun Xurosonga yuboriladi. Abu Muslimga “Payg‘ambar xonadonining ishonchli vakili” degan unvon beriladi.

O‘z tashviqotini Abu Muslim Xuroson zodagonlariga murojaat etish bilan boshlaydi. U Marv shahridan uch farsah g‘arbda Xarkon arig‘i sohilidagi Safizanj qishlog‘ini o‘ziga qarorgoh qilib oladi. Abbosiylarning ramziy rangi va bayrog‘i qora rangda edi. Shu sababli Abu Muslim va uning tarafdorlari qora kiyim kiyib yurishadi. Xuroson aholisiga murojaatida u Qur’on va hadislarga amal qilishga, payg‘ambar avlodlariga bo‘ysunishga chaqiradi. Keyinchalik mahalliy zodagonlar ham uni qo‘llab-quvvatlay boshlaydilar. Abu Muslim tashviqoti Movarounnahr va Xuroson yerlarida tezlik bilan tarqala borib, uning tarafdorlari soni orta boshlaydi. To‘planayotgan otliq va piyodalarga bosh bo‘lib, Abu Muslim Moxuvon qal’asiga ko‘chib o‘tadi. Xuroson noibi Nasr ibn Sayyor Abu Muslimga qarshi arab zodagonlari vakillarini birlashtirishga harakat qiladi. Lekin uning barcha harakatlari zoye ketdi. U Abu Muslimga yurak yutib kurash boshlashga qurbi yetmay, 748-yilda Xuroson poytaxti Marvni tashlab chiqib Nishopurga yo‘l oldi. Nishopurda unga Abu Muslimning sarkardalaridan biri qaqshatqich zarba berib uni mag‘lubiyatga uchratdi.

749-yili Abu Muslim qo‘shini xalifalikning markaziy viloyatlariga yurish qiladi. Iroq va Jazoirda ummaviylarga hal qiluvchi zarba beriladi. Qo‘zg‘olonchilar poytaxt-Damashqni ham qo‘lga kiritadilar. Xalifa Marvon II taxtdan ag‘dariladi. Abbosiylardan bo‘lgan Abulabbos Saffoh (749-754-y.) xalifalik taxtiga o‘tiradi. Joylarda Ummaviylarning barcha vakillari qirib tashlanadi. Shunday qilib arab xalifaligi hokimiyati Abbosiylar qo‘liga o‘tadi.

751-yil Buxoro shahrida Shorik ibn Shayhulmahriy boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tariladi. Qo‘zg‘olonchilar shialik talablarini ilgari surib, Ali avlodidan xalifa tayinlash shiorini ko‘tarib chiqishadi. Abu Muslim qo‘zg‘olonni bostirishda Ziyod ibn Solih boshchiligidagi 10.000 kishilik qo‘shin yuboradi. Bu qo‘zg‘olon faqatgina Buxorxudod Qutayba ibn Tug‘shodning yordami bilangina bostiriladi.

Abu Muslim O‘rta Osiyoning shimoliga kirib kelgan Xitoy imperatorining qo‘shiniga ham hal qiluvchi zarba beradi. 751 yil Talas vodiysidagi xitoyliklar bilan jangda, Xitoy qo‘shini haydab chiqariladi. Shu bilan xalifalikning shimoliy chegarasi ham mustahkamlanib, qat’iy chegara o‘rnatiladi. Xalifalik ta’siri butun O‘rta Osiyo hududida asosiy va qonuniy bo‘lib qoladi. Garchi Abu Muslim sadoqat ila xizmat qilsa-da, arab hokimiyati unga ishonmas edi. Xalifa unga jangga yuborish haqida noma yo‘llab uni markazga kelishga majbur qiladi. 755-yil Haj safaridan qaytayotgan Abu Muslim Xalifa tomonidan xiyonatkorona Bag‘dodda

o‘ldiriladi. Uning o‘limi xalq ommasining umumiy noroziligiga sabab bo‘ldi. Uning murdasi Samarqandga olib kelinib Xo‘ja Temim Ansoriy maqbarasi yoniga katta hurmat bilan ko‘miladi.

Abbosiy xalifalar davrida xalq ommasining ahvoli yanada og‘irlashdi. Sug‘orilmaydigan yerlardan hosilning yarmi, sug‘oriladigan yerlardan 1/3 qismi soliq olinadigan bo‘ldi. Ko‘p holda soliqlar bir marotaba o‘rniga ikki marotaba ham olinadigan bo‘ldi. Ozod jamoalarning huquqlari cheklab qo‘yildi. Yerlar zodagonlar tomonidan ijarador dehqon - kadivarlarga bo‘lib berila boshlandi. Hamma hashar qurilish ishlarida aholi tekin ishlab berishi lozim edi. Shahar hunarmandlarining ahvoli ham og‘ir bo‘lib, ular o‘z mahsulotlaridan katta soliq to‘lashar edi. Shuningdek, og‘ir soliqlar ko‘chmanchi chorvadorlar bo‘yniga ham qo‘yilar edi.

Shunday bir ahvolda xalq harakatlari kuchayib ketadi. Abu Muslimning o‘chini olish shiori ostida uning safdoshi Sumbod boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tariladi. 755 yilda ko‘tarilgan bu qo‘zg‘olon tez orada Xuroson va Tabaristonga ham yoyiladi. 70 kun davom etgan bu qo‘zg‘olon qattiqqo‘llik bilan bostirilib, Sumbod Rayda qatl etiladi. Garchi u qatl etilsa-da, Abu Muslim tarafdorlari yashirin “muslimiya” guruhiga asos soladilar.

VIII asrning 70-80-yillarida Movarounnahrda juda ulkan xalq qo‘zg‘oloni ko‘tariladi. Qo‘zg‘olonchilar oq rangdagi kiyim kiyganligi uchun tarixda u “oq kiyimlilar” qo‘zg‘oloni deb ham shuhrat qozonadi. Bu qo‘zg‘olonning rahbari Muqanna (boshi va yuziga yoping‘ich tashlab yurgani uchun unga shunday laqab berilgan) edi.

“Muqanna Marv atrofi aholisidan,-deyiladi “Buxoro tarixi” nomli Narshahiy asarida, Koza deb atalgan qishloqdan bo‘lib, asl nomi Hoshim ibn Hakim edi. U ilgari kudungar (kigiz bosuvchi) lik qilar edi, keyin ilm o‘rganishga mashhur bo‘ladi va har xil ilmlarni: ko‘zbo‘yamachilik, sehr va tilsim ilmlarini o‘rganadi. Ko‘zbo‘yamachilikni yaxshi bilib olib payg‘ambarlik da’vosini ham qiladi. Muqanna ko‘zbo‘yamachilikni o‘rgangan va g‘oyatda ziyrak bo‘lib, qadimgi olimlar ilmlariga oid ko‘p kitoblarni o‘qigan va jodugarlikdan ustoz bo‘lgan edi. Uning otasini nomi Hakim, u Abu Ja’far davridagi Xuroson amiri lashkarboshilaridan bo‘lib, asli Balxdan edi”.

Qo‘zg‘olon 776-yili boshlanadi. Muqanna o‘zining 36 ta muridi bilan Amudaryodan o‘tib, Kesh viloyatiga yo‘l oladi. Buxorxudod Tug‘shod uni qo‘llab-quvvatlay boshlaydi. Muqanna Kesh yaqinidagi Som (Sanam) qal’asini o‘ziga qarorgoh qilib oladi. Butun Qashqadaryo vohasi

qo‘zg‘olonchilar qo‘liga o‘tadi. Muqanna ta’limoti umumiy mulkiy tenglik va arablarni O‘rta Osiyodan haydab chiqarish g‘oyalarini targ‘ib etar edi.

Muqanna ta’limoti So‘g‘d, Iloq (Oxangaron), Shoshda ham yoyila boshladi. Qo‘zg‘olonda turli ijtimoiy guruhlar vakillari qatnashib, ularni bir fikr- istilochilarini mamlakatdan haydab chiqarish, mustaqil davlat barpo qilish g‘oyasi birlashtirib turar edi.

Qo‘zg‘olonga zarba berish uchun xalifa Abu Ja’far 776-yilda Jabroil ibn Yahyo boshliq katta harbiy kuchni Movarounnahrga yuboradi. Biroq Jabroil qo‘zg‘olonchilardga yengiladi. U katta talofatlar berib bazo‘r Samarqandga yetib keladi. 10.000 askar bilan Jabroilga yordamga yuborilgan Uqba ibn Salim Kesh va Samarqand oralig‘ida, G‘ariga boshliq 14.000 kishilik qo‘shin Termiz yaqinida qo‘zg‘olonchilar tomonidan tor-mor keltiriladi. Natijada Chag‘oniyon qo‘zg‘olonchilar qo‘liga o‘tadi.

Qo‘zg‘olon markazi Narshaxda, Buxoro atrofida joylashadi. Shu yili Narshax yaqinida Buxoro hokimi Xusayn ibn Muvoz va Samarqand noibi Jabroilning birlashgan qo‘shini o‘rtasida to‘rt oy jang bo‘ladi. “Oq kiyimlilar” bu jangda qo‘llari avval ustun keladi, keyinchalik son jihatdan ko‘p bo‘lgan arablar Narshax qal’asi devor ostidan uzunligi 50 gazli chuqur qazib, uni qulatib qal’aga kiradilar. Narshax qal’asi arablar tomonidan egallanadi. Kesh va Samarqand endilikda qo‘zg‘olonning asosiy markazlariga aylanib qoladi.

Kurashning oxirgi bosqichi Kesh vohasi (Qashqadaryo)da juda avj oladi. Muqanna qarorgohi bo‘lgan Som (Sanam) qal’asini qamal qilish Xaroshiyga topshiriladi. Uzoq vaqt qamaldan so‘ng muqannachilar taslim bo‘ladilar (VIII asr 80-yillari boshlarida).

O‘z davrining eng qudratli davlati bo‘lgan xalifalikni larzaga solgan Muqanna boshchiligidagi qo‘zg‘olon shu tariqa tugaydi. Bu qo‘zg‘olonning yengilishiga bir necha sabablar bor edi. Avvalo, qo‘zg‘olonchilar uyushqoqlik bilan harakat qila olmadilar. Mahalliy zodagonlar alohida guruhni tashkil etib, keyinchalik umumiy xiyonat yo‘liga kirib arablar tomoniga o‘tib ketdilar. Muqannaning o‘zi Som (Sanam) qal’asida bo‘lib, bevosita qo‘zg‘olonga rahbarlik qila olmadi. Uning o‘zi umumiy tenglik g‘oyasini ko‘tarib chiqib, o‘zi kichik davlat boshlig‘iga aylana bordi.

O‘zaro urushlar natijasida aholi juda charchadi, ekinzorlar payhon qilindi, iqtisodiy tanazzul boshlana bordi. Muqannadan so‘ng uning safdoshlari harakati ham bo‘lib o‘tdi. Bu qo‘zg‘olon xalifalik kuchini

zayiflashtiradi va boshqa o‘lkalarda ham ozodlik harakatlarini chiqishiga turtki bo‘ladi.

Masalaning yana bir jihati shundaki, islom dinininng ko‘p jihatdan afzalligi, ahloq va intizom nuqtai nazaridan ommaviyligi xususiyati arablar bosib olgan mamlakatlar aholisi tomonidan uni tez orada qabul etilishiga sabab bo‘ladi. Qutayba singari uni pul va qilich bilan joriy etish mumkin emas edi. Qachonki islom mohiyatiga yetilgachgina unga rag‘bat va e’tiqod kuchayib ketadi. Oliq-soliq, maishiy hayot bobida, zakot masalasida Qur’on va Shariat ahkomlarining qoidalari mehnatkash aholi tomonidan tezda qabul qilindi. Alloh oldidagi tenglik esa dinning ahamiyatini kuchaytirar edi. Islomning xalqparvarlik ruhi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Zero, islom dini ma’naviy bo‘shliqni tugatdi. Diyorimizda ota-bobolarimiz dini-islom faqatgina mustaqillik sharofati bilan qayta tiklandi. Prezidentimiz tashabbusi bilan buyuk diniy arboblar-Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom al- Moturudiy, Burxoniddin al-Marg‘inoniy, Abdulxomid G‘ijduvoniy, Bahovuddin Naqshband va boshqalarning tavallud yoshlarining keng miqyosda nishonlanishi, ularning oxirgi manzilgohlarini obod qilib, ziyoratgohlarga aylantirilishi, diniy bayramlarimiz, an’analarimiz, qadriyatlarimizning tiklanishi, dindorlarga o‘z e’tiqod huquqlarining qaytarib berilishi, qator masjid-madrasalarninng, xalqaro islom tadqiqot markazi, Islom universitetining ochilishlari va boshqa xayrli, savobli tadbirlar musulmon olamining bir qismi bo‘lgan O‘zbekistonda haqiqatda muqaddas Islom diniga qanchalik ehtirom bilan qaralayotganligining yorqin isboti deb hisoblaymiz. Zero, Prezidentimiz I.Karimovning “Olloh qalbimizda, yuragimizda” nomli risolasida, bizning madaniyatimiz, ma’naviyatimiz, o‘tmishimiz, islom tarixi, uning qonun-qoida va an’analari bilan chambarchas bog‘lanib ketganligi alohida ta’kidlab o‘tiladi.

7-mavzu. IX-XII asrlarda o‘zbek davlatchiligi. Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot

Tohiriylar va Somoniylar davrida Movaraunnahr

IX asrga kelib O‘rta Osiyo, xususan Movaraunnahrda arab xalifaligiga qarshi olib borilgan kurashlar natijasida mahalliy sulola vakillarining mustaqillikka bo‘lgan intilishlari kuchayib ketdi. Chunonchi, xalifalikning ichki hududlarida ham ziddiyatlar keskinlashib borayotgan edi. Xalifa Xorun ar-Rashid vafotidan keyin uning o‘g‘illari Ma’mun va

Amin o‘rtasida o‘zaro kurash boshlanib ketdi. Mahalliy sulola vakillari bu kurashlarga aralasha boshladilar.

Hirot viloyatining Bushang shahridan bo‘lgan Tohir ibn Husayn o‘z nomidagi sulolaga asos soldi. Bu davrda Xorun ar-Rashidning kichik o‘g‘li Ma’mun (asli ismi Abdulla bo‘lgan) Xurosonning noibi edi. Amin va Ma’mun o‘rtasida hokimiyat uchun bo‘lgan kurashda Tohir ibn Husayn Ma’mun tomonidan turib Aminga qarshi kurashdi. Ayrim manbalarning guvohlik berishicha, 813-yilda Ma’mun xalifalik markazi Bog‘dodni egallaydi hamda bir necha yil mobaynida Tohir ibn Husayn xalifa saroyida yuqori lavozimlarda xizmat qiladi. 821-yilda esa Tohir ibn-Husayn Xurosonga noib etib tayinlanadi (o‘sha davrda Movaraunnahr ham Xuroson tarkibiga kirar edi). Tohir ibn-Husayn Nishopur shahrini o‘zining qarorgohi etib tanladi. U o‘zi noiblik qilayotgan viloyatlarni xalifalikdan mustaqil boshqarishni orzu qilar edi. Natijada Tohir xalifalikdan mustaqil siyosat yurgizishga harakat qildi. Noiblikka o‘tirgandan so‘ng oradan ko‘p o‘tmay Tohir xutba nomozidan xalifaning nomini chiqarib tashlaydi. Bu esa uning xalifa Ma’munga qarshi ochiqdan ochiq isyoni belgisi edi.

Ba’zi manbalarda qayd etilishicha, 822-yilda Tohir ibn Husayn Ma’mun odamlari tomonidan o‘ldirildi. Uning o‘rniga Talxa ibn Tohir (822-830-y.) noib etib tayinlandi. Buning sababi shunda ediki, xalifalik aynan mahalliy hukmdorlarning kuchidan arablarga qarshi qo‘zg‘olonlarni bostirishda foydalanar edi. Xuroson noibining muhim vazifalaridan biri esa o‘ziga qarashli hududlarda viloyat hokimlarini saylash bo‘lgan. Xususan, Tohir dastlabki somoniylar vakillarini Samarqand, Ustrishona, Farg‘ona va Shoshga hokim qilib tayinlagan.

Talxadan keyin taxtga o‘tirgan Abdulloh ibn Tohir o‘zigacha bo‘lgan noiblar siyosatini davom ettirdi. Bu davrda Xuroson noibligiga Movarounnahr, Xorazm, Seyiston, Ko‘histon, Tabariston va Jurjon hududlari kirgan. Har bir viloyat bir necha ma’muriy birliklarga bo‘lingan. Bu birliklar katta va kichik tumanlardan iborat bo‘lgan. Abdulloh o‘z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida ayrim harbiy islohotlar o‘tkazgan edi. Bundan tashqari Tohiriylar yuritgan siyosatning xususiyatlaridan yana biri, ularning islomlashtirish siyosati edi. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, Tohiriylar davrida O‘rta Osiyoning barcha hududlarida islom dini tarqaladi.

Tohiriylar davlat boshqaruvida turli toifa va qatlamlar mavjud edi. Shunga alohida e’tibor berish kerakki, Tohiriylar qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida yer-suv masalalariga alohida e’tibor qaratdilar.

Shu soha bilan shug‘ullanuvchi qonunshunoslar “Kitob alkuniy” nomli qonunlar to‘plamini tuzdilar. Bu to‘plam yerdan unumli foydalanish va sug‘orish tizimi masalalariga qaratilgan edi.

IX asrning 60-70-yillaridan e’tiboran tohiriy hukmdorlarga qarshi xalq harakatlari kuchaydi. Bu harakatga G‘oziylar boshchilik qildilar. (“G‘oziylar” asosan ko‘chmanchi qabilalar hujumini bartaraf qilish maqsadida kambag‘al hunarmandlar va yersiz ziroatchilardan tashkil topgan qurolli qo‘shin). G‘oziylar harakatini aka-uka Yoqub va Amir binni Lays boshqardilar. Ular dastlab Seyistonda hokimiyatni qo‘lga olgach, 873 yilda tohiriylarning qo‘shinlariga katta zarba berib, Xuroson poytaxti Nishopurni egalladilar. Shu davrdan e’tiboran tohiriylar sulolasi barham topdi va Xurosonda hokimiyat Safforiylar (misgarlar, Yoqub va Amir asli hunarmand-misgar-”saffor” edilar.) qo‘liga o‘tib ketdi. Rasmiy jihatdan Xuroson va Movaraunnahr ustidan hukmronlik qilib turgan tohiriylar sulolasining inqirozga uchraganligi Movaraunnahrdagi mahalliy hokimlarning o‘lkani to‘la mustaqilligini ta’minlash sari harakatlari uchun qulay imkoniyatlar yaratib berdi. Endi bu davrda somoniylar siyosiy maydondagi kurashda erkin harakat qila boshladilar va ular Movaraunnahrda markazlashgan bir butun davlat barpo qilishga kirishdilar. Birlashtirish g‘oyasini shaharliklar ham, dehqonlar ham qo‘llab quvvatladilar. Chunki birlashgan va markazlashgan yagona va qudratli davlatgina ko‘chmanchi qabilalarning hujumini daf qila olishi mumkinligini ular yaxshi bilar edilar. Markazlashgan yagona hamda qudratli davlat kuchli harbiy kuch yaratish imkoniyatini berardi.

Somoniylar davlatiga Somon qishlog‘i (Balx yaqinida, ba’zi manbalarda esa, - Termiz yaqinida) oqsoqoli Somonxudotning avlodlari asos solgan. Xalifa Ma’munga bo‘lgan sadoqatlari evaziga 819-820-yillarda Somonxudotning nabiralari Nuh Samarqandga, Ahmad Farg‘onaga, Yahyo Choch va Ustrushonaga, Ilyos Hirotga hokim etib tayinlandilar.

839-840-yillarda Nuh ibn Asad Isfijob viloyatini bosib oldi va uni mustahkamladi. U So‘g‘dning bir qismi va Farg‘onaga hokim bo‘lib oldi. Lekin somoniylar davlatini bunyod etishda Ahmadning hissasi ko‘proq bo‘ldi. Uning Nasr, Ya’qub, Yahyo, Asad, Ismoil, Is’hoq va Homid ismli o‘g‘illari bor edi. Nuh ibn Asad 842 yili vafot etgach, Samarqandni ukalari Ahmad va Yahyo boshqardi; keyin hokimlik Nasr (865-892) qo‘liga o‘tdi. 859-yilda Yahyo ibn Asad vafot etgach, Choch va Ustrushona Ahmadning ikkinchi o‘g‘li Ya’qubga nasib etdi. Keyin tashabbus Ismoil ibn Ahmad qo‘liga o‘tdi. Buxoroda tohiriylar mavqei

sust edi. 874 yilda Husayn ibn Tohir Xorazm shaharlarini talayotgan bir paytda Buxoro zodagonlari iltimosi bilan Nasr Buxoroga Ismoil ibn Ahmad (849-892)ni hokim qilib jo‘natadi.

Nasr Movaraunnahrda markazlashgan davlat tuzishga kirishdi. Xalq bu ishda unga xayrxoh edi. 875-yilda u Shovga (Turkiston yaqinida)ni qo‘lga kiritdi. Xalifa Mu’tamiddan Movaraunnahrni boshqarish uchun yorliq olishga muvaffaq bo‘ldi. Bu paytda Buxoroda kuchayib ketgan Ismoil akasiga tobe’ bo‘lishni istamadi. 888-yili ikki o‘rtadagi jangda Nasr yengildi. 892-yilda Nasr vafot etgach, Ismoil Movaraunnahrning yagona hukmdori bo‘lib qoldi (892-907). 893 yilda u Tarozni, so‘ng Ustrushonani qo‘lga kiritdi.

Mustahkamlanib borayotgan Somoniylar davlatini zaiflashtirish maqsadida Arab xalifasi 898 yilda Movarounnahr hokimligidan Ismoilni tushirib uning o‘rniga safforiylar sulolasidan Amr ibn Laysni hokim etib tayinlash haqida yorliq jo‘natadi. Ismoil 899 va 900 yillardagi harbiy to‘qnashuvlarda Amr ibn Lays boshliq safforiylar qo‘shinlarini tor-mor keltirdi. Xalifa Ismoil ibn Ahmadni hokim sifatida tan olishga majbur bo‘ldi.

Shunday qilib, Xorazm, Isfijob, Chag‘oniyon va Xuttalondan tashqari (ularning hokimlari somoniylarga tobe’ edilar), ulkan hudud (Movarounnahr va Xuroson) somoniylar tomonidan bo‘ysundirilgan edi. Ular bu yerda 100 yilcha hukmronlik qildilar. 992-yili Qoraxoniylar xoni Bug‘roxon Buxoroni egalladi. Xurosonda Abu Ali Simjuriy va Balxda Foyiq amirga qarshi isyon ko‘tardi. Nuh II yordam so‘rab G‘azna hokimi Sabuktegina murojaat etadi. Sabuktegin 20.000 nafarli qo‘shin bilan kelib, Simjo‘riy va Foyiq kuchlarini tor-mor keltiradi. Sabuktegin bu xizmati uchun xalifadan “Nasir-ud-din va ad-davla” (dinu davlat homiysi), uning o‘g‘li Mansur esa “Sayf- ud-davla (davlat shamshiri)” laqabini oladi.

997 yili Nuh II ham, Sabuktegin ham vafot etadi. Nuh II ning o‘g‘li Mansur ibn Nuh (997-999)ga qarshi Nishopur hokimlari Bektuzin va Foyiq isyon ko‘tardilar. Amirning Mansurga e’tiqodi zo‘rligini nazarda tutib, isyonchilar amirning ko‘ziga mil tortadilar. Mansur ibn Nuh vafotidan so‘ng uning ukasi Abdulmalik II ibn Nuh Buxoro taxtiga o‘ltirdi. Mahmud intiqom bahonasida Bektuzin va Foyiqqa qarshi qo‘shin tortib butun Xurosonni bosib oldi. Abdulmalik ibn Nuh qo‘lida faqat Movaraunnahr qoldi.

Ko‘p o‘tmay qoraxoniylar xoni Nasr Iloqxon Buxoroni zabt etdi. Amir xonadoni asirga olindi. Somoniylar davlati tugatildi.

Somoniylar Movaraunnahr va Xurosonda mustaqil davlat tuzish uchun avvalambor, kuchli markazlashgan hokimiyat tuzish kerakligini yaxshi tushunishgan. Bu ayniqsa Ismoil Somoniy hukmronligi davrida kunning dolzarb masalasiga aylandi. Chunki Ismoil Somoniy Movaraunnahr va Xurosonni birlashtirishga va yagona markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo‘ldi. Endi bu davlatni idora qilish lozim edi. Shuning uchun Ismoil bir qancha islohotlar o‘tkazdi. Mana shunday islohotlardan biri **davlatni boshqarish ma’muriyatini** joriy qilish bo‘ldi. Bu islohotga binoan davlatni idora qilish **saroyi** (dargoh) va 10 ta **devon** (harbiy -fuqaro mahkamalari) tashkil etildi. Ismoil Somoniy davlatning majmuini tashkil etishda Sosoniylar Eron va Arab xalifaligida qabul qilingan tajribalardan foydalandi va uni zamon talabiga qarab mukammallashtirdi.

Hokimiyatning eng yuqori pog‘onasida somoniylar turib, ular amir unvoni bilan davlatni idora qilganlar. Davlat majmuini mustahkamlashda, Nasr II Somoniyning ma’rifatli vazirlari Abuabdullo Muhammad Jayhoniy va Abufazl Muhammad Balamiylarning xizmatlar katta bo‘lgan. Umuman, Somoniylar hukmdorligi davrida vazirlik mansabiga asosan shu ikki sulola vakillari tayinlangan. Davlat majmuini **dargoh** va **devonlarga** bo‘linishi ma’lum darajada rasmiy bo‘lgan. Chunki saroyning nufuzli kishilari ko‘p xollarda devonlarning ishlariga aralashib turganlar. Saroyda siyosiy hokimiyat **“Sohibi xoras”** qo‘li ostida bo‘lgan. Sohibi Xoras Amirning farmonlari bajarilishini nazorat qilgan. Saroyda Sharbatdorlar, Dasturxonchilar, Tashtadorlar, Otboqarlar, xo‘jalik beklari kabi turli xizmatchilar bo‘lgan. Saroydagi hamma xo‘jalik ishlarini **“vakil”** boshqargan. Vakil saroydagi e’tiborli kishilardan biri hisoblangan. Narshaxiyning yozishicha, Nasr II Somoniy hukmronligi davrida o‘n devonga Buxoro registonida o‘nta maxsus bino qurilgan.

Devonlar orasida vazir yoki **“xo‘ja buzurg”** devoni alohida o‘rin tutgan. Bu devonga boshqa hamma devonlar bo‘ysungan. U hamma ma’muriy, siyosiy va xo‘jalik mahkamalarini nazorat qilgan.

Davlatni idora etishda **“mustaufiy devon”** ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu devon davlatning butun moliya ishlarini boshqargan va nazorat qilgan. Devon xazinador tomonidan boshqarilgan.

“Devon Amir-al-mulk” yoki **“al-rasayi”** davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan rasmiy hujjatlarni tuzish bilan shug‘ullangan. Bundan tashqari bu devon chet davlatlar bilan bo‘ladigan munosabatlarni ham boshqargan.

“Sohib ash-shurat” devoni davlatning butun harbiy ishlarini, shu jumladan amirning shaxsiy qo‘shinini boshqargan. “Sohib ash-shurat”ning

maxsus yordamchisi-Aris bo‘lgan. U mahkama va uning boshlig‘i amir qo‘shini xazinasi bilan shug‘ullangan. Qo‘shimcha bir yilda to‘rt marta maosh to‘lagan. Davlatni idora etishda **“sohib al-borid”** devonining ahamiyati ham juda katta bo‘lgan. Bu devon davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan hujjatlarni va xabarlarni yetkazish bilan shug‘ullangan. Devonning hamma shahar va viloyatlarda mahalliy mahkamalari bo‘lgan.

“Muxtasiba” devoni bozorlarni, sotuvchilarni, qadoqboshlarning og‘irligi, bozordagi mollarning narxini, sifatini nazorat qilgan.

Davlat xazinasining daromadlarini va xarajatlarini **“mushrif”** devoni nazorat qilgan. Bundan tashqari **“qozi az-ziya”** va **“vaqf“** devonlari bo‘lgan. “Qozi az ziya” devoni davlat yerlarini, “vaqf” devoni hadya etilgan yerlarni va musulmon ruhoniylarining boshqa mol-mulklarini nazorat qilishgan.

Devonlarning aytarli hammasini viloyatlarda boshqarmalari bo‘lgan. Devonlarning viloyatlardagi boshqarmalari bir tomondan o‘z devonlariga, ikkinchi tomondan viloyat hokimiga bo‘ysunishgan. Bundan faqat “Sohib al-borid” devonining amaldorlari mustasno bo‘lgan.

Viloyat va tumanlar amir tomonidan tayinlangan hokimlar tomonidan idora qilingan. Odatda bunday lavozimga mahalliy boy zodagonlar tavsiya etilgan. Somoniylar davlatida musulmon ruhoniylarning ta’siri nihoyatda kuchli bo‘lgan. Ular markaziy hokimiyat ishlarida ham faol ishtirok etganlar. Somoniylar davlatining diniy hayotida hanifiylar mazhabligiga mansub ruhoniylar hamma diniy lavozimlarni o‘z qo‘llariga olishgan. Ruhoniylarning boshlig‘i **“ustod”**, keyinchalik **“Shayx ul-islom”** deb atalgan. “Ustod” dan so‘ng o‘z lavozimi bo‘yicha ruhoniylar orasida **“xatib”** turgan. U jome’ masjidlarida juma namozida xutba o‘qish huquqiga ega bo‘lgan. Bu davrda Buxoro Sharqdagi islom olamining eng nufuzli markazlaridan biriga aylanadi. Movarounnahrdagi dastlabki madrasalarning bu yerda barpo etilishi ham bejiz emas.

Yer egaligining quyidagi shakllari mavjud bo‘lgan:

Mulki sultoniy - shaxsan amirga tegishli yer-suv, tegirmon, do‘konlar. Bu mulkni qishloq chorikorlari ijaraga olganlar. Yana yer egaligining toma (umrbod berilgan yer), iqto (merosiy) turlari bo‘lgan.

Xususiy shaxslarga tegishli mulk: hukmdor tabaqa xonadoni, dehqon-zodagonlarga, sayyidlar, sipohsolor, badavlat savdogarlarga tegishli mulklar hisoblangan. Shartli yer egaligi ham bo‘lgan.

Vaqf mulklari: diniy muassasalar va madrasalarga tegishli mulk. Bu mulkni muassasa mutavallisi boshqargan.

Jamoa mulki: yaylov, tog‘ yonbag‘irlaridagi lalmi yerlar.

Xiroj hajmi shariat va davlat qonunlari asosida belgilangan. Somoniylarning birgina Buxoro va Karmana viloyatlari xirojidan tushgan daromadi 116866 dirxamni tashkil qilgan.

Somoniylar davrida yerlar qaytadan taqsim qilindi. Yer egalarining yangi guruhi tashkil topdi. Ularning ko‘pi sipohiylardan chiqqan edi. Masalan, Alpteginning Xurosonda va Movarounnahrda 500 qishlog‘i bo‘lib, biror shahar yo‘q ediki, unda uning qasri yo bog‘i, yoxud karvonsaroyi bo‘lmasa. Uning tasaruffida minglab otlar va chorva mollari bo‘lgan.

Somoniylar davrida qudratli markazlashgan davlatning vujudga kelishi natijasida Movaraunnahr va Xurosonda ma’lum barqarorlik qaror topdi. Bu holat mamlakat iqtisodiy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo tez sur’atlar bilan rivojlana boshladi. Movaraunnahr va Xuroson bu vaqtda Sharqning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan o‘lkalaridan hisoblangan. Tarixchilar va geograflar bu borada juda yaxshi ta’riflar yozib qoldirganlar. Ular, bu yerlar juda serhosil, tabiiy boyliklarga boy, unda ko‘plab qishloq va shaharlar borligini, aholi uchun kerakli hamma narsalar mavjudligini zo‘r ehtiros bilan bitganlar.

Xuroson va ayniqsa, Movaraunnahr dehqonchilik o‘lkalari qatoriga kirgan. Bu yerlarda dehqonchilik asosan sun’iy sug‘orishga asoslangan. Ko‘plab soy va daryolardan chiqarilgan katta-kichik kanallar mavjud bo‘lgan. Buxoro vohasida Shopurkon, Shohrud, Karmana, Poykand, Samarqand vohasida Barj (Darg‘om), Barmsish, Buzmadisoy, Ishtixon kabi kanallar shahar va qishloqlarni suv bilan ta’minlagan. Bundan tashqari bunday kanallar Xorazm, Qashqadaryo, Farg‘ona va Shoshda ham bo‘lgan. Manbalarga qaraganda Shosh aholisi xalifa Mutasimga (833-842) murojaat qilib vohada suv yetishmasligi tufayli kanal qurilishiga yordam so‘ragan. Sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilikdan tashqari lalmikor dehqonchilik ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

Dalalarda bug‘doyning turli navlari, arpa, sholi va boshqa boshoqli ekinlar ekilgan. Qishloq xo‘jaligida paxta yetishtirishga alohida ahamiyat berilgan. Paxta, ayniqsa, Zarafshon, Qashqadaryo va Marv vohasida ko‘p ekilgan. Bog‘dorchilik ham yaxshi rivojlangan. Bog‘larda olma, shaftoli, nok, behi, anor, anjir, yong‘oq kabi turli mevalar yetishtirilgan. Uzum yetishtirish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Ayniqsa, Samarqand, Marv, Hirotda yetishtirilgan uzumlar juda qadrlangan. Umuman Xuroson va

Movaraunnahrning mevalari o‘zining turli navlari va yuqori sifatliligi bilan butun Sharqda dong taratgan. Juda ko‘p quruq mevalar Yevropaning turli shaharlariga jo‘natilgan.

Umuman, Somoniylar davrida Xuroson va Movaraunnahr qishloq xo‘jaligining turli tarmoqlari xususan, dehqonchilik yaxshi rivojlangan. Somoniylar davrida dehqonchilik bilan bir qatorda hunarmandchilik ham keng sur’atlar bilan tarqalgan. Shahar aholisining ko‘p qismi hunarmandchilikning turli sohalari bilan mashhur bo‘lishgan. Manbalarda qayd qilinishicha, Movaraunnahrda, ayniqsa to‘qimachilik yaxshi taraqqiy qilgan. Bu yerlarda ipak va jundan tayyorlangan turli-tuman gazlamalar o‘zining yuqori sifatliligi, bejirim va nafis naqshlari bilan ajralib turgan. Buxoroning Zandana, Samarqanddagi Vedar va Surxondaryodagi Darzangi to‘qimachilarining mahsulotlari faqatgina Movaraunnahr va Xurosondagina emas, balki Iroq, Eron va Hindistonda ham ma’lum bo‘lgan. Xususan, Narshahiyning yozishicha, Zandanada tayyorlangan gazlamalarga Sharq bozorida ehtiyoj juda katta bo‘lgan. Ibn Xavqal va Muqaddasiyning qayd etishicha, Vedarda tayyorlangan yuqori sifatli gazlamalar aholining yuqori tabaqalari orasida juda qadrlangan. Bu gazlamalardan asosan amirlar, vazirlar, turli amaldorlar, qozilar o‘zlariga liboslar tiktirganlar. Vedar gazlamasi hatto Xuroson parchasi ham deb atalgan. Gazlamalarning turli navlari bundan tashqari Keshda, Nasafda, Dabusiyada va ko‘pgina boshqa shaharlarda ham tayyorlangan.

Kulolchilik ham Somoniylar davrida o‘z taraqqiyotining eng yuqori bosqichlariga ko‘tarilgan. Kulolchilik charxini yanada mukammallanishi natijasida idishlarni bezashda sirlardan foydalanishni kashf etilishi bu borada katta yutuq bo‘ldi. Natijada idishlarni turlari ham, shakllari ham ko‘paydi. Ularning sifati keskin darajada oshdi. Idishlar turli rangdagi sirlar bilan bezatila boshlandi. Manbalarda qayd qilinishicha, ayniqsa, Samarqand, Binket va Marv kulollari tayyorlagan idishlar o‘zining bejirim shakli, yuqori sifati, ajoyib va nafis naqshlari bilan ajralib turgan. Epigrafik naqsh bilan bezatilgan turli-tuman idishlar ayniqsa, diqqatga molikdir. Shu davrga oid shaharlarda olib borilgan arxeologik izlanishlarga qaraganda, kulollar shaharlarda mahalla-mahalla bo‘lib yashaganlar. Mana shunday mahallalar Samarqandda, Marvda, Axsikatda, Termizda ochib o‘rganilgan.

Bu davrda shishasozlik ham keng rivojlangan. O‘rta Osiyo shishasozlari turli shakldagi katta-kichik shisha idishlarni tayyorlaganlar. Idishlar asosan ko‘kimtir va shaffof rangdagi shishalardan tayyorlangan. Ularning ma’lum qismi naqshlar bilan bezatilgan. Shishasozlarning

ustaxonalari Niso, Marv, Termiz, Poykant kabi shaharlarda ochib o‘rganilagan. O‘rta Osiyo shishasozlarining mahsulotiga boshqa o‘lkalardan ehtiyoj katta bo‘lgan.

Somoniylar davrida metallurgiya sohasida ham katta yutuqlar qo‘lga kiritilgan. Yozma manbalar va olib borilgan arxeologik qazish ishlarga qaraganda bu davrda kon sanoati taraqqiyotida katta o‘zgarishlar ro‘y bergan. Bu davrda Badaxshonda kumush, oltin, billur, lojuvard kabi qimmatbaho metall va toshlar qazib olish davom etgan. Ustrushonaning Mink tumanida katta miqdorda temir rudasi, Buttamda oltin, kumush, mis va boshqa metallar, Tuzkon ko‘lida tuz, Farg‘onadagi Nokad degan joydan oltin, kumush, Isfara yaqinida toshko‘mir qazib olingan. Farg‘onada neft ham borligi yozma manbalarda qayd qilingan.

O‘rta Osiyoda somoniylar davrida qog‘oz ishlab chiqarish ham yaxshi rivojlangan. Qog‘oz ishlab chiqarish bo‘yicha eng yirik markaz Samarqand bo‘lib, undagi qog‘ozlarning mahsuloti faqat O‘rta Osiyo yoki Sharqda emas, balki Yevropada ham mashhur bo‘lgan. Samarqand qog‘ozining olti navi manbalarda qayd qilingan.

Yuqorida qayd qilingan hunarmandchilik turlaridan tashqari somoniylar davrida O‘rta Osiyoda toshtaroshlik, zargarlik, duradgorlik kabi sohalar ancha rivoj topgan. Somoniylar davrida kuchli va mustaqil davlatnig paydo bo‘lishi dehqonchilik, hunarmandchilikning rivojlanishi, shaharlarning taraqqiyoti o‘z navbatida ichki va tashqi savdoni yanada uzviylashuviga va taraqqiyotiga olib keldi. Avvalo, shahar va qishloqlar o‘rtasidagi savdo kengaydi. Ikkinchi tomondan shahar va qishloqlarni qo‘shni ko‘chmanchi xalqlar va boshqa davlatlar bilan aloqasi rivojlandi.

Yozma manbalarda qayd qilinishicha, bozorlar katta-kichik shaharlarda va hatto qishloqlarda bo‘lgan. Ayniqsa, karvon yo‘llari bo‘ylab joylashgan, shaharlarda bir nechtadan bozorlar bo‘lgan. Buxoro, Xo‘jand, Nasaf, Kesh, Termiz, Hirot, Marv, Nishopur shaharlaridagi bozorlar katta va juda gavjum bo‘lgan. Istahriyning yozishicha, Samarqandda Movarounnahrning bosh bozorlari joylashgan. Bu yerga hamma yerdan savdogarlar kelgan. Movarounnahrda tayyorlangan mahsulotlarning katta qismi Samarqandga keltirilgan va undan keyin boshqa o‘lkalarga tarqalgan. Ichki va tashqi savdoda ayrim kichik shaharlarning ham o‘rni katta bo‘lgan. Bu borada Poykand shahri muhim ahamiyat kasb etadi. Manbalarda yozishlishicha bu shaharda somoniylardan oldin ham savdogarlar Xorazm, Kaspiy bo‘yidagi o‘lkalar va Xitoy bilan oldi-sotti ishlari olib borishgan. Shahar hokimlari savdogarlar uchun hamma shart-sharoitlarni tug‘dirib berishga harakat

qilganlar. Shaharda o‘nlab karvon saroylar mavjud bo‘lgan, ular bozorga yaqin joylarda joylashgan. Savdo rastalari karvonsaroyning o‘zida ham bo‘lgan. Karvon saroylar yo‘llarda ham qurilgan.

Bozorlarda sotiladigan mollar avvalo mahalliy aholining ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Hunarmandlar o‘z mollarini sotib oziq-ovqat mollarini xarid qilishgan, o‘z navbatida dehqonlar hunarmandchilik mollarini xarid qilishgan.IX-X asrlarda O‘rta Osiyoning iqtisodiy hayotida savdo-sotiq katta ahamiyatga ega edi. Bu borada ko‘chmanchilar bilan chegaradosh bo‘lgan shaharlarning ahamiyati katta bo‘lgan. Ko‘chmanchilar shaharlarga kelib, dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlarini xarid qilganlar, teri va boshqa chorvachilik mahsulotlarini sotganlar.

O‘rta Osiyolik savdogarlar o‘z mollarini arab xalifaligi tarkibiga kirgan davlatlarga, Kavkazga, Xazar va Bulg‘oriyaga, Xitoy va Hindistonga olib borib sotganlar. O‘rta Osiyodan Xitoy bilan O‘rta Yer dengizini birlashtiruvchi va Janubi-Sharqiy Yevropaga olib boruvchi karvon yo‘llari o‘tgan. Ayniqsa, O‘rta Yer dengizi bilan bog‘lovchi karvon yo‘li ancha gavjum bo‘lgan. Bu yo‘l Bag‘dod, Hamadon, Nishopur, Marv, Amul, Buxoro, Nasaf, Kesh, Samarqand, Ustrushona, Choch, Bolasog‘un orqali Xitoyga olib borgan. Xitoyga O‘rta Osiyodan otlar va shisha buyumlar olib borilgan. Xitoydan esa turli-tuman ipak gazlamalar keltirilgan. Xazar, Bulg‘or va Rus yerlariga O‘rta Osiyodan quruq mevalar, turli-tuman gazlamalar, guruch va kumush chiqarilgan. O‘z navbatida janubi-sharqiy Yevropadan O‘rta Osiyoga mo‘yna, mis, teri, qoramol, qullar keltirilgan. Janubi-sharqiy Yevropa bilan bo‘lgan savdo aloqalarida xorazmlik savdogarlarning o‘rni katta bo‘lgan.

Somoniylar va Qoraxoniylar o‘rtasidagi kurash

Qoraxoniylar davlati Yettisuv hududidagi Qarluq (756-940) davlati o‘rnida tashkil topdi. Uning asoschisi Sotuq Bug‘roxon (915-955) hisoblanadi. U 942 yili Bolasog‘un hokimini mag‘lub etib, o‘rniga o‘zini hoqon deb atadi. Qoraxoniylar davlatiga ikki qabila-yag‘mo va jikil qabilalari birlashdilar. Sotuq zamonida Qoraxoniylar davlati ikkiga bo‘linib ketadi. Birining poytaxti Bolasog‘un bo‘lib, oliy hokimiyat yoshi katta bo‘lgan hoqon tomonidan boshqarilgan; ikkinchi davlatning poytaxti Taroz, keyinchalik Qoshg‘ar bo‘lib, kichik hoqon tomonidan boshqarilgan. Qoraxoniylar Somoniylar davlatidagi milliy nizolardan ustalik bilan foydalandilar. Hasan Bug‘roxonning 992-yili Somoniylarga

qarshi yurishi oldidan somoniylar lashkarboshchisi Xuroson hokimi Abu ali Simjuriy u bilan muzokara olib borgan. Somoniylarning boshqa lashkarboshchisi, Balx hokimi Foyiq Raboti Malik yaqinidagi Bug‘roxonga qarshi jangda, har tomonlama ustunlikka ega bo‘lishiga qaramay taslim bo‘ladi. Iloq hokimi Mansur ibn Ahmad esa, hoqonga tobelik bildirib, uning nomiga pul zarb etadi. Buxorodan Qoshg‘arga ketayotganda Bug‘roxon kasallanib vafot etadi. Bundan foydalangan Nuh ibn Mansur taxtni qayta egallaydi.

996-yili Qoraxoniylar xoni Nasr Buxoroni yana bosib oladi. Somoniylar lashkarboshisi Abul Ibrohim Ismoilning (Muntasir) Buxoroni ozod etish yo‘lidagi urinishlari 1005-yilda muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Somoniylarning G‘aznadagi noibi Sabuqtegin 997-yilda vafot etdi. O‘rniga uning o‘g‘li Mahmud G‘azna hokimi bo‘ldi. Somoniylar amiri Mansur ibn Nuh (997-999) uning ta’sirida edi.

1001-yilda, Sulton Mahmud Qoraxoniylar xoni Nasr bilan shartnoma tuzib, Amudaryoni ikki o‘rtadagi chegara qilib belgiladi. Somoniylar davlati o‘rnida ikki ulkan davlat tashkil topdi:

Birinchisi-Qoshg‘ardan Amudaryogacha cho‘zilgan Sharqiy Turkistonning bir qismida, Yettisuv, Shosh, Farg‘onaning qadimgi hududlarini o‘z ichiga olgan Qoraxoniylar davlati.

Ikkinchisi-Shimoliy Hindiston sarhadlaridan Kaspiy dengizining janubiy qirg‘oqlarigacha cho‘zilgan hamda hozirgi Afg‘oniston va shimoliy- sharqiy Eronni o‘z ichiga olgan G‘aznaviylar davlati edi.

Iloq hokimlari nomigagina qoraxoniylarga qaram bo‘lib, o‘z yurtlarini mustaqil ravishda boshqarganlar. Iloqdagi dehqonlar sulolasining asoschisi Mansur ibn Ahmadning o‘g‘li Muhammad ibn Mansur (1004-1008) bo‘lgan. Uning o‘g‘li Abushujo Solor ibn Muhammad (1008-1009) qoraxoniylar xoni Ahmad ibn Aliga qaram bo‘ldi. Iloqda Nasr ibn Alining uchinchi ukasi Muhammad ibn Ali (1010-1015) Inoltegin laqabi bilan pul zarb qilgan. Unga Iloq, Xo‘jand, Taroz mulklari tobe bo‘lgan. Chug‘rotegin Husayn ibn Mansur (1016-1030), Muhammad Yusuf Bug‘roxon (1032-1057)ning poytaxti Shosh edi. To‘g‘rultegin Qoraxon Yusuf (1068-1075) zamonida Iloq Sharqiy Qoraxoniylar davlatiga qaram bo‘lgan.

XI asr o‘rtalarida tamg‘ochxon unvonini olgan qoraxoniy Ibrohim ibn Nasr g‘arbiy Qoraxoniylar davlatining poytaxtini O‘zgandan Samarqandga ko‘chirdi.

1068-yilda, Movarounnahrda qoraxoniy Ibrohim ibn Nasr o‘g‘illari o‘rtasida taxt uchun kurash boshlandi. Kurashda Shamsulmulk g‘alaba

qozondi. Shamsulmulk Abulhasan Nasr ibn Ibrohim (1068-1080) davrida Buxoroda katta qurilish ishlar olib borilgan.

1080-yilda Shamsulmulk vafotidan keyin Movaraunnahrda hokimiyat uchun kurash avj oladi. Bundan foydalangan saljuqiy sulton Malikshoh 1089-yili Movaraunnarga bostirib kirdi. Buxoro va Samarqandni zabt etib, xon Ahmadni asir oldi. Ammo Ahmad bilan sulh tuzib uni o‘z taxtida qoldiradi. Qoraxoniy Ahmadning saljuqlarga itoatkorligi amirlar va ruhoniylar noroziligiga sabab bo‘ldi. Natijada u 1095 yilda o‘ldirildi.

Ahmaddan so‘ng taxtga o‘tirgan Arslonxon (1102-1130) zamonida qoraxoniylar garchi yarim mustaqillik sharoitida siyosat yurgizgan bo‘lsalar ham, Samarqand shahrining obodonligi bo‘yicha katta ishlar qildilar. Harbiy qo‘mondonlar va ruhoniylar Arslonxon hokimiyatidan norozi edilar. Arslonxon betobligi tufayli hokimiyatni o‘g‘li Nasrga topshiradi. Lekin fitnachilar Nasrni o‘ldiradilar. Arslonxon Marvdan Sulton Sanjarni yordamga chaqiradi. Bundan foydalanib, Sanjar 1130 yili Samarqandni egallaydi.

XII asr boshlarida qoraxitoylar Bolasog‘unni egallaydilar. 1138 yilda qoraxitoylar go‘rxoni Sulton Sanjarning qarindoshi, Samarqand hukmdori Mahmudni Xo‘jand yaqinida mag‘lub etadi. Shahar talanib katta tovon undirilgan bo‘lsa-da, bosib olinmadi.

1141 yilda qoraxitoylar yana Movarounnahrga bostirib kirdilar. Bu gal jang Samarqand yaqinidagi Qatvon cho‘lida bo‘ldi. Jangda sulton Sanjar bilan Mahmudning birlashgan kuchlari tor-mor keltirildi. Har ikki tomondan 30 mingga yaqin kishi o‘dirildi. Sulton Sanjar va Mahmud Termiz tomon chekindilar. Sulton Sanjar xazinasi, uning xotini Turkonxotun go‘rxon qo‘liga o‘lja tushdi. Qoraxoniylar Samarqand va Buxoroni egalladilar.

Samarqandning qoraxoniylar sulolasiga mansub bo‘lgan keyingi xonlari, ya’ni iloqxonlar quyidagilardir:

Muhammad ibn Husayn (1170-1176), Muhammad Oqtosh Tamg‘achxon (1176-1179), Ibrohim ibn Husayn (1178-1202), Usmon ibn Ibrohim (1102-1212).

O‘zganda Qodirxon ibn Ibrohim ibn Husayn (1183-1210), Iloq (Shosh)da (poytaxti Binkat) Shoh Qilichxon (1177-1183), Tamg‘ach Hoqon (1195-1197), Oqtosh Chag‘rixon (1197-1206) hokim edi.

So‘nggi qoraxoniylar qoraxitoylarga tobelikdan qutulgan edilar. Biroq 1212 yilida Alovuddin Muhammad Xorazmshoh g‘arbiy

qoraxoniylar davlatining hoqoni Usmonni o‘ldirib, Samarqandni o‘z mulklariga qo‘shib oldi.

Qoraxoniylarda Qoshg‘ar va Bolasog‘un poytaxt sanalib, ulug‘ xon shu shaharlardan birida qarorgohda o‘tirgan. Ulug‘ hoqon yoki ulug‘ xon **ul-hoqon** degan nomda yuritilgan. Arab manbalarida mazkur unvon **sulton ul-salotin**, fors tarix asarlarida **shahanshohga** muvofiq keladi. Aynan yuqoridagi oliy unvon qoraxoniylar davri kitoblarida **tamg‘ochxon** deb ham yutirilgan.

Qoraxoniylarga qarashli yerlar tamg‘ochxon tomonidan uning o‘g‘illari, qarindoshlari o‘rtasida taqsimlangan edi. Shu bois yer-mulk masalasida ota-o‘g‘il, amaki, jiyanlar hamda aka-uka-yu amakivachchalar o‘rtasida doimiy nizolar yuz berib, u siyosiy ahvolga salbiy ta’sir ko‘rsatib turgan.

Yettisuvdan turib Movaraunnahrni boshqarish qiyin bo‘lgan. Qoraxoniylar davrida Samarqand iloqxoni ancha kuchayib ketgan edi. Saroyda somoniylar davlatida bo‘lganidek vazir, sohibbarid, mustavfiy, hojib, rais-muhtasib kabi amaldorlar bo‘lgan. Qoraxoniylar davlatida imom, sayyid, shayx, sadrlar mavqeyi kuchli edi.

Qoraxoniylar davlati boshlig‘i lavozimi, hoqonning taxti merosiy sanalgan. Ma’muriy idoralar ikkiga bo‘lingan: dargoh va devonga. Xoqonning **ulug‘ hojibi** xoqon bilan fuqaro o‘rtasida vositachilik qilgan. Hoqon saroyida quyidagi amaldorlar bo‘lgan: **og‘ichi**-shoyi kiyimlar xazinachisi; **biruk**-mehmonlarni qabul qilish bo‘yicha mutasaddi; **oshchi**-hoqon oshxonasi boshlig‘i (bog‘archi); **bitikchi**-munshiy; **kotib**-mirza; **qushchi**-hoqon ovining tashkilotchisi.

Hoqon harbiy qo‘shinlari **cherik** deyilgan, unga **suboshi**, yoki **sipohsolor** qo‘mondonlik qilgan. Kichik zobit **chovush**, sipohiylar to‘dasi qo‘mondoni **xaylboshi** deyilgan. Qo‘shin o‘nlik, yuzlik, mingliklarga bo‘lingan. Qoraxoniylar hoqoni qo‘shi (harbiy lager) **xonto‘y** deyilgan. Hoqon qo‘shida doim 9 ta sariq bayroq hilpirab turgan. Hoqonlikda elchini **yalavoch** yoki **yalafar** deb atalgan.

Hoqonlik hududlari el, viloyatlarga bo‘lingan. Ijtimoiy tuzumda mavqei ancha baland hisoblangan yirik zamindorlar-dehqonlar qatlami qoraxoniylar davrida o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. O‘rta Osiyo ko‘hna zodagon toifasining bunday ahvolga tushishiga asosiy sabab siyosat maydonida yuz bergan sulolalar o‘rtasidagi taxt almashuvi, eng ta’sirli jihati esa ko‘chmanchilik sharoitiga moslashgan el-uluslarining o‘troq aholi hududlarining ishg‘ol etishidir.

Somoniylar zamonida mazkur sulola uchun xos markazlashgan davlat tuzumidan qoniqmagan aslzoda dehqonlar qoraxoniylarni qo‘llab-quvvatlagan edilar. Yirik xonadon sohiblari-qoraxoniylar hokimiyatda uzoq davr tura olmadilar va vaqti kelib biz hududimizning asosiy hukmdorlari bo‘lib qolamiz deb o‘ylashgan edi. Ularning bunday rejalarini tushungan yag‘mo va jikillarning boshliqlari zodagonlarni quvg‘in qila boshladilar. Buning oqibatida keksa boy qatlam vakillari o‘z ekinzorlari, uy-joylari, mulklari va boyliklaridan mahrum bo‘ldilar. Dehqon degan nom endilikda faqat oddiy jamoatchiga nisbatan aytiladigan bo‘lib qoldi. Aslzodalar o‘zlarining daromad manbayi-yer-mulkdan mahrum bo‘la boshlagan sari oddiy jamoatchi ziroatkorlar ijarachilarga aylana bordilar. Bu paytda yerlar egasiz va qadrsiz bo‘lib qoldi. Unumdor joylar yaylovlarga aylandi. Biroq keyingi voqealar jarayonida Movaraunnahr ijtimoiy hayotida jonlanish yuz berganligi haqida ma’lumotlar bor.

Qoraxoniylarda oddiy xalq **budun** deyilgan. Soliq to‘lovchi fuqaro **rayiyat** deb atalgan. Qabila boshliqlari **bek** deyilgan, savdogarlar **sart** deb atalgan. Qoraxoniylar davlatida hunarmandchilik (kulolchilik, to‘quvchilik, shishasozlik, temirchilik, zargarlik), shuningdek ziroat va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlovchi sohalar taraqqiy etgan. Shuningdek, qimmatbaho toshlar, oltin, mis, temir qazib olingan. Shaharsozlik inshootlari pishiq g‘ishtdan bunyod etilgan. Xonlikda yer egaligining **iqto** shakli keng tarqalgan. Manbada shunday deyiladi: “Iqtoga sohib bo‘lganlar (muqtalar) shuni bilishlari lozimki, ular faqatgina rayiyyatdan haq molini yaxshilik bilan olishga haqlidirlar va odamlar o‘z tanuv mollari, bola-chaqalari, asbob-uskunalari bilan xavfsiz bo‘lishlari shart. Agar odamlar saroyga kelib, o‘z hollarini ma’lum qilmoqchi bo‘lsalar, ular qarshilik qilmasinlar va qaysi bir muqta shunday qilsa qo‘lini qisqartirib, iqtosini tortib olish, o‘ziga jazo berib, boshqalarga ibrat etib ko‘rsatish kerak. Ularga shuni bildirib qo‘yish lozimki, mulk ham, rayiyat ham xonnikidir. Muqtalar va valiylar ularni boshlarida shahnadek turib, podshoni rayiyat bilan birga xavfsizlikdan saqlaydilar (“Siyosatnoma”). Hoqon, vaqf, jamoa mulklari qoraxoniylar tasarrufidagi asosiy yer-mulklar hisoblanadi.

Qoraxoniylar davlatida saljuqiylarda bo‘lgan kabi iqto egasi o‘z mulkida ishlayotgan ziroatkorlardan belgilangan miqdorda qonun bilan qayd etilgan soliqdan boshqa ortiqcha mahsulot yoki haq olishga huquqi bo‘lmagan. Majburiy ravishda biror-bir mahsulot tortib olinsa, bunday

vaziyatda iqtoning ma’lum miqdori qirqib olingan yoki umuman tortib olingan.

G‘aznaviylar va Saljuqiylar

G‘azna shahrini Xurosonning siyosiy markaziga aylanishi X asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. G‘aznaviylar davlatining asoschisi Sobuqtegin bo‘lib, bu davlat uning o‘g‘li Mahmud G‘aznaviy davrida musulmon olamining eng kuchli davlatiga aylandi. Bu davlatning hududi Mahmud G‘aznaviyning istilochilik yurishlari tufayli shimoliy va shimoliy-g‘arbiy Hindistondan Chag‘aniyon va Xorazmgacha cho‘zilgan bo‘lib, unga Eronning katta qismi ham kirgan edi. Mahmud G‘aznaviy Movaraunnahrdagi qoraxoniylar siyosatiga va ayniqsa Xorazmga katta ta’sir ko‘rsatar edi. O‘z davrining iqtidorli sarkardasi va qattiqqo‘l hukmdori bo‘lgan Mahmud G‘aznaviy 1030-yilda vafot etadi. Shundan so‘ng taxtni uning o‘g‘li Ma’sud (1030-1041) egallaydi. Lekin Ma’sud otasi tuzgan davlatni butunligicha saqlab qololmadi.

Mahmud G‘aznaviyga rasman tobe bo‘lgan, lekin amalda mustaqil boshqariladigan Xorazm shohi Xorun ibn Oltintosh 1034-yilda Xorazmni butunlay mustaqil deb e’lon qildi va katta qo‘shin bilan Xurosonga yurish qildi. Lekin Sulton Ma’sud tomonidan sotib olingan kishilar Xorazm shohi Xorunni o‘ldiradilar. Uni qo‘llab-quvvatlagan qoraxoniylar qo‘shini yana Samarqandga qaytib ketadi. Shundan so‘ng Sulton Ma’sud qoraxoniylar bilan muzokaralar olib boradi va shu yo‘l bilan g‘aznaviylar hokimiyatiga bo‘lgan xavfni bir oz kamaytiradi.

G‘aznaviylar sultoni Ma’sud Xurosonga yurish qilgan turkiy-saljuqiylar bilan ko‘p bor jang olib borishga majbur bo‘ldi. Mahmud G‘aznaviyning ruxsati bilan shimoliy Xurosonga joylashib olgan saljuqiylar bu davrga kelib, g‘aznaviylar uchun katta xavf tug‘dira boshladi. 1035-yilda saljuqiylarning Xurosonga yangi hujumi boshlanadi. Nishopurdan Niso shahriga yetib kelgan g‘aznaviylar qo‘shini saljuqiylarga zarba bergan bo‘lsa-da, Saljuqiyning nevarasi Tog‘rul va Changri boshchiligidagi turkmanlar kechasi G‘aznaviylar qarorgohiga hujum qiladi va g‘alaba qozonadi. 1037 yil aprel oyida turkmanlar Mari viloyatini uzil-kesil egallashga erishdilar va Bag‘dodda xalifaga hokimiyat uchun yorliq berishni so‘rab elchi jo‘natadilar. Shu tariqa Xurosondagi yangi davlatga-Saljuqiylar davlatiga asos solindi.

Keyingi yillar turkmanlar Tog‘rul boshchiligida bir qancha zarbalar berib, Xurosonning katta qismini bosib oldilar. Shundan so‘ng Ma’sud

katta qo‘shin bilan saljuqiylar ustiga yurish qildi. 1040-yilda Mari yaqinidagi Dandanakon degan joyda hal qiluvchi jang bo‘lib, bunda Ma’sud armiyasi qattiq mag‘lubiyatga uchradi. Jangdan zo‘rg‘a qochib qutulgan Ma’sud tez orada (1040-y.) vafot etdi. Uning vorislari g‘aznaviylar davlatining avvalgi qudratini tiklashga muvaffaq bo‘la olmadilar.

G‘aznaviylarga tegishli Xuroson asta-sekin saljuqiylar qo‘liga o‘tdi. Saljuqiylar davlatining bosh sultoni bo‘lib, Tog‘rulbek (1038-1063-y.) saylandi. U katta istilochilik yurishlari olib borib, Balxni, Iroqning shimoli, Ozarbayjonni, Kurdistonni va Qo‘histonni ham bosib olishga erishdi. 1055-yilda u katta qo‘shin bilan Bag‘dodga kirib keldi va xalifadan o‘z nomiga xutba o‘qitishni talab etdi. Shundan so‘ng xalifa diniy hokimiyatni o‘z qo‘lida saqlab qolib dunyoviy hokimiyatni sulton unvoni bilan Tog‘rulbekka topshirdi. Saljuqiylar davlatining poytaxti qilib Tog‘rulbek Ray shahrini tanladi. Uning hukmronligi davrida saljuqiylar Kavkazda Vizantiya qo‘shinlariga ham katta zarba berdilar. U Movaraunnahrda hukmronlik qilayotgan qoraxoniylar bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatdi. Lekin uning vorisi Alp Arslon (1063-1072) Amudaryoning o‘ng sohilidagi yerlarga bir necha bor harbiy yurishlar uyushtirdi. Vizantiya imperatori Roman IV Diogen qo‘shinlarini mag‘lub etdi. Undan keyin taxtga o‘tirgan Malikshoh (1072-1092) 1089-yilda qoraxoniylar o‘rtasidagi ichki nizolardan foydalanib Buxoro va Samarqandni egalladi va katta o‘lja bilan orqaga qaytdi. Lekin Qoraxoniylar Saljuqiylarning yarim vassaliga aylandilar. Malikshohning o‘limidan keyin Saljuqiylar davlatida taxt uchun o‘zaro kurashlar qizib ketadi va 1118 yilda hokimiyat buyuk saljuqiylar sulolasining so‘nggi yirik vakili Sulton Sanjar (1118-1147) qo‘liga o‘tadi. Uning davrida Saljuqiylar davlatining poytaxti Marv shahriga ko‘chirildi. U Movarounnahrdagi qoraxoniylarning ichki ishlariga, siyosatiga katta ta’sir o‘tkaza olishga erishgan saljuqiylardan edi. 1141-yilda qoraxitoylar bilan Sulton Sanjar va uning vassali, ittifoqdosh qoraxoniy Mahmudxonning birlashgan qo‘shinlari o‘rtasida, Samarqand yaqinidagi Qatvon cho‘lida bo‘lib o‘tgan jangda qoraxitoylarning g‘alaba qilishi Saljuqiylar davlatini ancha zayiflashtirdi. Saljuqiylarning mag‘lubiyatidan Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad Otsiz ustalik bilan foydalanib, 1141-yilning qishida saljuqiylarning poytaxti Marvni bosib oldi, 1142-yilda esa Nishopurga yurish qildi. Lekin Sulton Sanjar Xorazm qo‘shinlarini Xurosondan quvib chiqardi va Xorazmshoh Otsizni yana o‘ziga bo‘ysundirishga erishdi. Sulton Sanjarning harakatlariga qaramasdan

Saljo‘qiylar davlati o‘zining avvalgi qudratini yo‘qota bordi. Saljo‘qiylarga hal qiluvchi zarbani Balx va Xuttalon viloyatlarida yashovchi ko‘chmanchi Guz qabilalar berdilar. Ular Sulton Sanjar qo‘shinlarini tor-mor etib, uni asir oldilar. Guzlar himoyasiz qolgan Marv, Nishopur shaharlarini talab, o‘t qo‘ydilar. Sulton Sanjar 1156-yilda asirlikdan qochishga muvaffaq bo‘lsa ham saljuqiylar davlatini tiklay olmadi va bir yildan keyin vafot etdi.

Xorazmshohlar davrida o‘zbek davlatchiligi

Xorazm somoniylar davrida ularga tobe edi. X asr oxiri va XI asrning boshlariga kelib Xorazm hokimi Ma’mun I va uning o‘g‘li Ali ibn Ma’mun Somoniylar davlati tugaganidan so‘ng mustaqil davlat tuzishga harakat qilib ko‘rdilar. Lekin Movaraunnahrdagi Qoraxoniylar va Xurosondagi G‘aznaviylar davlati oldida Xorazm davlati juda kuchsiz bo‘lib, ko‘p hollarda Mahmud G‘aznaviy va uning o‘g‘li Ma’sudga qaram edi. G‘aznaviylar davlatining inqirozi va Xurosonda Saljuqiylar hukmronligi o‘rnatilgandan keyin Xorazm dastlabki yillarda mustaqil siyosat olib borishga harakat qilgan bo‘lsa-da, tez orada Saljuqiylarga qaram davlatga aylandi.

Xorazmning mustaqil davlat sifatida shakllanishida ko‘p xizmat qilgan hukmdor Qutbiddin Muhammad Otsiz (1127-1156) bo‘ldi. Saljuqiy Sulton Malikshoh davrida Xorazmni hukmdori bo‘lgan Anushteginning nevarasi Otsiz o‘zi tobe bo‘lgan Saljuqiy sultonlarining har bir xatosidan ustalik bilan foydalandi. Ayyor, diplomat va mohir sarkarda bo‘lgan Otsiz mustaqil tashqi siyosat olib bordi. U Xorazm yerlarini ancha kengaytirib, Sirdaryoning quyi oqimi yerlarini, Mang‘ishloqni bosib oladi. Shundan so‘ng u bir necha bor (1138, 1141, 1142, 1147-1148-yy.) Sulton Sanjarga qarshi isyon qildi va mag‘lubiyatga uchrab Saljuqiylarga butunlay tobe bo‘lib qoldi. Lekin shunga qaramasdan u Xorazmni mustaqilligi uchun mustahkam asos yarata oldi. Sulton Sanjarning o‘limidan so‘ng (1157 y.) Saljuqiylar davlati deyarli yo‘q bo‘ldi va Xorazmni mustaqil davlat sifatida siyosat olib borish uchun keng yo‘l ochildi. Muhammad Otsizning o‘limidan so‘ng o‘g‘li Elarslon taxtga o‘tirdi. U otasiga qaraganda ancha qulay vaziyatda davlatni boshqardi. Xurosondagi voqealardan foydalanib u Kaspiy bo‘yidagi Dehiston hududlari bosib olishga erishdi. Elarslon otasi davrida Xorazmning bo‘ysundirilgan ko‘chmanchi turkman va qipchoq qabilalari yordamida Movaraunnahrning ichki ishlariga ham tez-tez aralasha boshladi. 1158 yilda u katta qo‘shin bilan Movaraunnahrga

bostirib kirdi. Bu vaqtda qoraxitoylarga vassal bo‘lgan qoraxoniylar ko‘chmanchi qarluq qabilalari bilan jang olib borishayotgan edi. Elarslon qarluqlarga Buxoro va Samarqand uchun olib borgan janglarda yordam berdi. Lekin qoraxitoylar qo‘shinlari yordamga yetib kelishi bilan Elarslon Xorazmga qaytishga majbur bo‘ldi. U bir necha marta Xurosonga yurish qilgan bo‘lsa-da, muvaffaqiyatga erisha olmadi. 1171-1172 yillarda qoraxitoylarning katta qo‘shini Xorazmshohning o‘lponini o‘z vaqtida to‘lamayotganligini bahona qilib Xorazm ustiga yurish qildi. Elarslonning buyrug‘i bilan Sirdaryodagi katta to‘g‘on buzib tashlandi va katta maydon suvga bostiriladi. Bu qoraxoniylar qo‘shini yurishini qiyinlashtirdi va Xorazmning poytaxti Gurganch (Urganch) ni talon-taroj qilishdan saqlab qoldi.

Lekin qoraxoniylarning bu bosqini davrida Elarslon vafot etdi. Undan keyin Xorazm taxtini uning kichik o‘g‘li Sultonshoh egallaydi. Arslonning katta o‘g‘li Alouddin Takash qoraxitoylar yordami bilan ukasi Sultonshohdan taxtni tortib olishga erishdi. Sultonshoh Xurosonga qochishga majbur bo‘ldi. Shundan so‘ng Alouddin Takash (1172-1201) Xorazmda mahkam o‘rnashib, qoraxitoylarga va’da bergan o‘lponni to‘lashdan bosh tortadi. Unga javoban qoraxitoylar Xorazmga yana yurish qiladilar, lekin muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Sultonshoh ixtiyoriga bir kichik qo‘shin qoldirib o‘zlari orqaga qaytadilar. Sultonshoh esa qo‘shin bilan Marv shahrini, Seraxs va Tusni egalladi.

Qoraxitoylarning muvaffaqiyatsiz yurishlaridan keyin, Takash o‘z davlatini yanada mustahkamladi. Movarounnahrga, Xurosonga bir necha bor harbiy yurishlar uyushtirdi. U Movarounnahrni egallay olmagan bo‘lsa-da, lekin Xurosonni bir necha tumanlarini bosib oldi. Lekin Xorazshoh Takashning Xurosonda kuchli va xavfli raqibi bor edi. Bu tobora kuchayib borayotgan G‘uriylar davlati edi. G‘ur viloyati hozirgi Afg‘onistondagi Gerirud daryosi bo‘yida, Hirotdan Balxgacha, Qobuldan G‘aznagacha cho‘zilgan viloyat bo‘lib, bu yerda asosan forsiy qabilalar yashagan. So‘nggi Saljuqiylar davrida G‘ur viloyati o‘z mustaqilligini ancha mustahkamladi.

1150-1151 yillarda g‘uriylar hokimi Alouddin G‘aznaviy sulosasi sultoni Bahromshoh ustidan g‘alaba qozonib, G‘azna shahrini vayron qilgan edi. G‘aznaviylarga so‘nggi zarbani 1186-1187 yillarda G‘uriylar hokimi G‘iyosiddin Muhammad berdi. Shundan so‘ng G‘uriylar hozirgi Afg‘onistonni hamda Tojikiston va O‘zbekistonning janubiy hududlarini ham ma’lum vaqt egallab turdilar. Xurosonda Saljuqiylarning kuchsizlanganidan foydalanib, G‘uriylar sultoni G‘iyosiddin Muhammad

1175 yilda Hirotni egalladi va Xurosonning markaziy hududlariga hujumlar uyushtirib turdi. Qoraxitoylarning vassali hisoblangan Xorazmshoh Takash esa Xorazmni qoraxitoylar qo‘lidan qutqarish uchun katta kuch sarflashga majbur bo‘ldi. Faqat XII asrning 80-yillarida u Xurosonni ba’zi bir hududlarini qo‘lga kiritdi. 1187 yilda u Nishopurni, 1192 yilda Ray shahrini, 1193 yilda Marv shahrini egalladi. Bag‘dod xalifasi Nasr (1180-1225) va G‘arbiy Saljuqiylar sultoni Tug‘rul II o‘rtasidagi nizodan foydalanib, Takash qo‘shinlari 1194-yilning mart oyida Tug‘rul II ga qarshi urush ochdi va uni yengib Hamadon shahrini egalladi. Tug‘rul II esa jangda o‘ldirildi.

Xorazmshohning tobora kuchayib borayotganidan xavfsiragan Xalifa Nasr qo‘shinlari Takashga qarshi chiqdilar. 1196 yilning iyul oyida xorazmliklar xalifa qo‘shinlarini yengdilar. Shu tariqa Eronning katta qismi Xorazmshohlar qo‘liga o‘tdi va davlati, hududi birdaniga ikki baravar kengaydi. Xorazm davlati endi Bag‘dod xalifasiga tegishli joylar va G‘uriylar bilan chegaradosh bo‘lib qoldi. 1200 yilda Takash vafot etdi va shundan keyin Iroqda xalq qo‘zg‘oloni ko‘tarildi. Bu yerdagi Xorazm qo‘shinlarining katta qismi qirib tashlandi, qolganlari Xurosongacha kelishga majbur bo‘ldi. Xorazmshohlar ichida Takash -eng talantli lashkarboshi va hukmdor edi. U juda og‘ir vaziyatda Old Osiyo va O‘rta Osiyoning katta qismini birlashtirib qudratli davlat tuzishga muvaffaq bo‘ldi.

Lekin Takashning katta xatosi shunda ediki, u o‘zining xotini Turkonxotun mansub bo‘lgan qipchoqlar qabilasiga katta erkinliklar berdi. Ularni doimo qo‘llab-quvvatladi. Turkonxotunning davlat ishlariga aralashuvi Xorazmdagi ichki nizolarini kuchayishiga olib keldi. Takashning o‘limidan keyin Xorazm taxtiga uning o‘g‘li Alouddin Muhammad o‘tirdi (1200-1220). 1203-yilda Muhammad qoraxitoylarning yordami bilan Xurosonni butunlay bosib oldi. Hirotni va yaqin atroflarini egalladi, 1207-yilda u o‘z poytaxtiga qaytib, Movaraunnahrni bosib olish uchun tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Shu yilning o‘zidayoq Muhammad Movaraunnahrga katta kuch bilan harbiy yurish boshladi. Buning sababi Buxoroda ko‘tarilgan xalq qo‘zg‘oloni edi. Bu qo‘zg‘olon 1206-yilda Buxoro sadri (hokimi) Muhammad ibn Abdulazizga qarshi qaratilgan edi. Buxoro sadrlariga xos barcha yomon xislatlar bu odamda mujassam edi. U xalqdan katta soliqlar olib ularni shafqatsizlarcha ezar edi. U diniy rahbar bo‘lishiga qaramasdan ayt-ishratga, ovga mukkasidan ketgan edi.

Buxoroda uning zulmiga qarshi xalq harakatining asosiy kuchlari shahar hunarmandlari edi, qishloq aholisi-dehqonlar bu harakatni qo‘llab-

quvvatladi. Bu qo‘zg‘olonning boshlig‘i qalqon yasovchi ustaning o‘g‘li Malik Sanjar ismli shaxs edi. Qo‘zg‘olonchilar sadr Muhammadni quvib chiqardilar. U qoraxitoylardan yordam so‘radi. Lekin Xorazmshoh Muhammad qoraxitoylardan oldinroq harakat qilib, Buxoroni bosib oldi va shu tariqa Movarounnahrni Xorazm tarkibiga qo‘shib olish boshlandi.

Qo‘zg‘olonchilarning boshlig‘i Malik Sanjar Urganchga olib ketildi.

Movarounnahr xalqi Xorazmshohni qoraxitoylar zulmidan qutqaruvchi kuch sifatida qarshi oldi. Muhammad Xorazmshoh Qoraxitoylarning vassali bo‘lgan Samarqand hokimi (qoraxoniylar sulolasidan) Usmon bilan do‘stona munosabat o‘rnatdi. Bu esa qoraxitoylarning Samarqandga yurish qilishiga olib keldi va ular shaharni bosib oldilar. Bu vaqtda mo‘g‘ul qabilalaridan biri bo‘lgan naymanlar qoraxitoylarning Yettisuvdagi yerlariga bostirib kirdilar. Shuning uchun qoraxitoylar shoshilinch ravishda orqaga qaytishga majbur bo‘ldilar. Qoraxitoylarning qiyin ahvolga tushib qolganidan foydalangan Xorazmshoh Samarqandni egallab (Usmon uning vassaliga aylandi) qoraxitoylar ustiga yurish qildi va Talas vodiysida 1210-yilda qoraxitoylar qo‘shini ustidan g‘alaba qozondi. Bu g‘alaba tufayli Muhammad Xorazmshohning ahvoli ancha mustahkamlandi. Samarqand hokimi Usmon Xorazmshohning to‘liq vassaliga aylandi va uning kuyovi bo‘ldi.

Soliqlarning haddan tashqari oshib ketganligidan norozi bo‘lgan Samarqand xalqi 1212-yilda qo‘zg‘olon ko‘tardi. Katta qo‘shin bilan Xorazmshohning o‘zi Samarqandga kirib borib qo‘zg‘olonchilardan shafqatsizlarcha o‘ch oldi va kuyovi Usmonni ham o‘ldirdi. Shundan so‘ng u Movaraunnahrdagi vaziyatni o‘z foydasiga hal etish uchun Farg‘onani Usmonning ukasi Qodirdan tortib oldi. O‘zgan shahrini ham egalladi va shu tariqa qoraxoniylar sulolasi butunlay tugatildi. Qoraxitoylar sulolasini esa ko‘chmanchi naymanlar Quchluq rahbarligida tugatdilar. Xorazmshoh O‘rta Osiyoni butunlay egallagandan so‘ng G‘arbga yurish qildi va tez orada Eron va Afg‘onistonni bosib oldi. Hattoki Bag‘dod xalifasini ag‘darishga urinib ko‘rdi.

8-mavzu. O‘rta Osiyo xalqlari hayotida IX-XII asrlarda yuz bergan uyg‘onish davri. Fan va madaniyat ravnaqi IX-XII asrlar madaniy yuksalishining shart-sharoitlari. Ilm-fan

Fanda “Uyg‘onish davri” deb ataladigan davr G‘arbiy va Markaziy Yevropa mamlakatlarda XIV-XVI asrlardagi

rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalash uchun ishlatilgan. Birinchi marotaba “uyg‘onish” atamasini XVI asr italyan rassomi va tarixchisi J.Vazari o‘z asarlarida ishlatadi. “Uyg‘onish”, “uyg‘onish davri” atamalari XIV-XVI asr ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mohiyatini ochib bermasdan, ko‘proq antik davr merosini, ya’ni antik madaniyatga o‘xshash madaniyatni qaytadan “tirilishi”, “uyg‘onishi” ma’nosida ishlatila boshlandi. Keyinchalik fanda bu atama keng qo‘llanila boshlandi. Shu ma’noda ko‘pchilik tadqiqotchilar IX-XII asrlar O‘rta Osiyo xalqlari tarixida madaniyatning rivojlanishini o‘ziga xos xususiyatlarni ham “uyg‘onish” davri deb atalishi yuqorida qayd qilinganidek, shartlidir deb hisoblaydilar.

IX-XII asrlar O‘rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma’naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksalish davri bo‘ldi. VIII asrda Arab xalifaligi hozirda O‘rta Osiyo deb atalmish hududni fath etib bo‘lgan, bosib olingan yerlarda islom dini keng yoyilib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy hayot Arab xalifaligi tartib-qoidalariga butunlay bo‘ysundirilgan edi. Xalifalik tarkibiga kiritilgan o‘lkalarda faqat islom dinigina emas, balki arab tili va uning imlosi ham joriy etildi. Chunki arab tili xalifalikning davlat tili bo‘lsa, islom dini uning mafkurasi edi. Shu sababli bu mamlakatlarda arab tilini o‘zlashtirishga intilish kuchli bo‘lgan. Islomni qabul qilgan aholining arab tili bilan muloqoti, ibodat vaqtlarida qur’on suralarini tilovat qilishdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, mahalliy zodagonlar arab tilini xalifalik ma’murlari bilan yaqinlashish va mamlakatda o‘z siyosiy mavqelarini tiklab uni mustahkamlashning garovi deb hisoblaydilar. Arab tiliga bo‘lgan bunday ehtiyoj va intilish tufayli ko‘p vaqt o‘tmay Movaraunnahrda xatto o‘z ona tilidan ko‘ra arab tili va yozuvi o‘zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo‘ldi. Chegaralari borgan sari kengayib, ulkanlashib borayotgan xalifalik uchun ilm ahli suv va havodek zarur bo‘lib qoldi. Davlatni boshqarishda xalifalik ma’muriyati bilimdon siymolarga muhtoj edi. Chunki arablar orasida bu paytda davlat ishiga yaroqli bo‘lgan bilimdonlar ham oz bo‘lib, borlari ham zaif edi.

Bu hol o‘z navbatida arab tili va yozuvini Movarounnahrda keng yoyilishiga imkoniyat yaratib berdi. Ammo VIII asr oxiri IX asr boshlarida bo‘ysundirilgan

xalqlarni mutloq itoatda saqlab turish nafaqat xalifalik markazi ma’murlariga, balki o‘lkalarga tayinlangan noib uchun ham tobora qiyinlasha boshladi.

821 yilda Xuroson va Movaraunnahrning noibi etib tayinlangan Tohir ibn Husayn xalifalik o‘ylaganidek siyosat yurgizmadi. U xalifa nomini xutba nomozidan chiqarib tashlashga ko‘rsatma berdi. Tohiriylar shunday qilib so‘zda o‘zlarini xalifalikning noibidek ko‘rsatsalar-da, amalda mustaqil ish yuritish harakatini boshlab yubordilar. Bu borada diqqatga sazovor tomoni shundaki, tohiriylar nafaqat siyosiy mustaqillikka intildilar, balki xo‘jalikning ko‘pgina tarmoqlarini o‘zlari xohlaganday tartibga solishga harakatlar qildilar. Ular qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida suv ta’minotini yaxshilashga katta e’tibor qarata boshladilar. Katta-katta ariqlar, kanallar qazdirdilar. Suv ta’minoti haqida fiqhshunos olimlar risolalar yozib, bu ishni aniq tartib-qoidaga binoan olib borish lozimligini isbotlab berdilar. Shunday qilib, mustaqil davlatlarning paydo bo‘lish uchun zamin paydo bo‘ldi.

873-yilda Tohiriylar hukmronligi o‘rniga Safforiylar hukmronligi o‘rnatildi. Bu o‘z navbatida Movarounnahrni Xurosondan ajralib, o‘z mustaqilligini tiklab olishi uchun asos bo‘ldi. IX asrning oxirgi choragida Movarounnahr Somoniylar qo‘l ostiga o‘tib, mustaqillikni yanada mustahkamlab oladi. Somoniylar sulolasining eng yirik vakillaridan biri bo‘lmish Ismoil Somoniy kuchli davlat tuzishga harakat qiladi va bu ishni muvaffaqiyatli ravishda uddasidan chiqadi.

Somoniylar o‘z davlatlarini o‘zlarigacha bo‘lgan sharq davlatlarining boshqaruv an’analarini chuqur o‘rgangan holda, ularga suyanib, zamon talablarini hisobga olgan holda o‘zgartirishlar kiritib boshqarishga harakat qildilar.

Movaraunnahr deb ataladigan bu hududda mustaqil davlatlarning tashkil topishi ularda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va madaniy hayotning ravnaqiga katta ta’sir ko‘rsata boshladi. Buxoro, Samarqand, Urganch va Marv kabi shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida shakllanib, rivojlana boshladi.

O‘rta Osiyoda IX-XIII asr boshlarida Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar va Xorazmshohlar davlatlari hukm surdilar. Bu davlatlar xalqaro maydonda o‘z mavqei va tutgan

o‘rni jihatidan katta e’tibor va nufuzga ega bo‘ldilar. Ahmad Nasr, Ismoil Somoniy, Alptakin, Mahmud G‘aznaviy, To‘g‘rulbek, Sulton Sanjar, Otsiz, Takash singari tadbirkor va uzoqni ko‘ra oladigan davlat arboblari davrida O‘rta Osiyoda hayotning barcha jabhalarida yuksalishlarga erishildi, davlat hokimiyati mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik vujudga keldi.

Tarixchi Abu Mansur as-Saolobiyning Somoniylar Buxorosiga bergan ta’rifi butun O‘rta Osiyo davlatlarining IX-XIII asrlardagi ahvoliga tegishlidir: “...shon-shuhrat makoni, saltanat ka’basi va zamonasining ilg‘or kishilari jamlangan, yer yuzi adiblarining yulduzlari porlagan hamda o‘z davrining fozillari yig‘ilgan (joy) edi”. O‘rta Osiyo hukmdorlari ilm ahli bilan yaqinlashdilar. Mamlakatni boshqarishda ularning bilimi va maslahatlaridan foydalandilar. Hukmdorlarning aksariyati bu davrda o‘z saroylarida olim, shoir va usta san’atkorlar, turli sohalar bo‘yicha qimmatbaho kitoblarni to‘plashga odatlandilar. Saroyga jalb etilgan olim va shoirlar, kutubxonalardagi nodir qo‘lyozma asarlar bilan mag‘rurlanardilar.

Damashq, Qohira, Bag‘dod, Kufa, Basra va boshqa katta shaharlarda O‘rta Osiyodan borib fan, madaniyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shgan avlod-ajdodlarimiz bu davrga kelib ko‘paya bordi. Bag‘dod shahri Sharqning ilm-fan markazi sifatida olamga tanildi, chunki IX asrda bu yerda “Bayt ul-hikma”-(“Donishmandlar uyi”) Sharqning fanlar akademiyasi tashkil etildi. Bunga monand holda X asr oxirlarida Xorazmda ham xalifa Ma’mun davrida (995-997-y.) “Donishmandlar uyi”-“Bayt ul-Hikma”-“Ma’mun akademiyasi” (Xorazm akademiyasi) tashkil topdi. Bu ikki ilm o‘chog‘larida Sharqning mashhur va ma’lum olimu-allomalari tahsil ko‘rganlar. Ular orasida Ahmad Farg‘oniy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa buyuk allomalarning nomlari bor.

Muhammad ibn Muso **al-Xorazmiy** (783-850) qadimgi Xorazm diyorida tug‘ilib, voyaga yetadi. G‘oyatda o‘tkir zehn egasi va noyob qobiliyat sohibi bo‘lgan al-Xorazmiy yoshlik chog‘idan boshlab aniq va tabiiy fanlarni o‘rganishga qiziqdi, arab, fors, hind va yunon tillarini egalladi, bu tillarda yozilgan kitoblarni qunt bilan o‘qib, mutolaa qildi. U dastlabki ta’limni

xususiy muallimlardan oldi va so‘ngra o‘sha davrning yirik ma’rifat markazlaridan biri bo‘lgan Marv madrasasida o‘qidi. Xalifa Xorun ar-Rashidning o‘g‘li Ma’mun xalifalik taxtiga o‘tirgach (813 y.) Muhammad Muso al-Xorazmiyni o‘zi bilan birga Bag‘dodga olib ketadi va u yerda tashkil etilgan “Bayt ul-Hikma”ga boshliq etib tayinladi. Bag‘dodda u Suriya, Iroq, Eron, Xuroson va Movaraunnahr olimlari bilan ijod qiladi.

Xorazmiy matematika, geometriya, astronomiya, geografiya, tarix ilmi va boshqa fanlar sohasida barkamol ijod qildi. Uning “Al Jabr al muqobala” (“Tenglamalar va qarshilantirish”), “Hisob al-Hind” (“Hind hisobi”), “Kitab surat al-Arz” (“Yer surati haqida kitob”), “Kitab at-Tarix” (“Tarix kitobi”), “Kitab al-Amal Bil Usturlabat” (“Usturlob bilan ishlash haqida kitob”) kabi asarlari olimga jahonshumul shuhrat keltirdi. Xorazmiy yaratgan 20 tadan ortiq asardan bizning davrimizgacha faqat 10 tasigina yetib kelgan.

Xorazmiy ijodi merosida “Aljabr va al-muqobala” kitobining ilmiy ahamiyati nihoyatda buyukdir. Bu kitobi bilan u matematika tarixida birinchi bo‘lib algebra faniga asos soldi. “Al-gebra” atamasi ushbu kitobning “al-jabr” deb yuritilgan qisqacha nomining aynan ifodasidir. Xorazmiy nomi esa matematikada “algoritm” atamasi shaklida o‘z ifodasini topdi. Uning “Al-jabr” asari asrlar davomida avlodlar qo‘lida yer o‘lchash, ariq chiqarish, bino qurish, merosni taqsimlash va boshqa turli hisob va o‘lchov ishlarida dasturilamal bo‘lib xizmat qildi. Xorazmiyning bu risolasi XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilinadi va qayta ishlanadi. Keyinchalik asrlar davomida Yevropa olimlari Xorazmiy asarlarini qayta-qayta ishlab, u asosda asarlar yozadilar. Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o‘nlik pozitsion hisoblash sistemasi Yevropada, qolaversa, butun dunyo taraqqiyotida buyuk ahamiyat kasb etdi, algebrani mustaqil fan darajasiga ko‘tardi.

Olimning “Kitob at-Tarix” (“Tarix kitobi”)da Xuroson , Kichik Osiyo va Movarounnahrning VIII-IX asrlar tarixiga oid qisqa va aniq ma’lumotlar o‘z ifodasini topgan. Xorazmiyning “Zij” (“Astronomik jadval”), “Quyosh soati haqida risola” asarlari falakiyotshunoslik fanining rivojlanish taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi.

Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Nosir **al-Farg‘oniy** 797-865 yillarida yashab ijod qilgan vatandoshimizdir. Ahmad Farg‘oniy o‘z asarlari bilan fan tarixida katta iz qoldirdi. U matematika, geografiya, astronomiya, tarix sohalarida ijod qildi. Ahmad Farg‘oniyning ijodiy faoliyati Bag‘dodda ulug‘ mutaffakir olim Al-Xorazmiy rahbarligidagi “Baytul-Hikma” bilan bog‘liqdir. U arab atamashunosligini paydo bo‘lishi va ilmiy taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib, Bag‘dod va Damashqda rasadxonalar qurilishida shaxsan qatnashdi. Ahmad Farg‘oniyning kitoblari dunyoga ma’lum va mashhurdir. “Kitob fi Usul ilm an-Nujum” (“Falakiyot ilmining usullari haqida kitob”), “Falakiyot risolasi”, “Falak asarlari sababiyati”, “Al-Majistiy”, “Ilm-xayya”, “Al Farg‘oniy jadvallari”, “Usturlob bilan amal qilish haqida”, “Oy yerning ustida va ostida bo‘lganida vaqtni aniqlash risolasi”, “Yetti iqlim hisobi”, “Usturlob yasash haqida kitob” asarlarining qo‘lyozmalari Angliya, Fransiya, Germaniya, Misr, Hindiston, AQSh va Rossiyada saqlanmoqda.

Ahmad Farg‘oniyning bu asarlaridagi ilmiy kashfiyotlari butun jahon fani va madaniyatiga ulkan va munosib hissa qo‘shdi. U 812 yilda quyosh tutilishini oldindan bashorat qilib berdi, yerning dumaloq ekanligini ilmiy dalillar bilan isbotlab, bir xil fazo yoritgichlarni har xil vaqtda ko‘rilishini, tutilishini hamma joyda har xil kuzatish mumkinligini izohlab berdi.

Ahmad Farg‘oniy yaratgan ilmiy kashfiyotlar natijalari qaysi fan sohasida bo‘lishidan qat’iy nazar g‘oyatda pishiq, puxta va nihoyatda mukammal bo‘lgan. XII asrdayoq olimning asarlari lotin tiliga tarjima qilinganligi va Yevropaga tarqalganligi bu fikrning isbotidir. Yevropaliklar Ahmad Farg‘oniyni “Al Fraganus” deb ataganlar. Uning asarlarini lotin, nemis, ingliz, fransuz, rus va boshqa tillarga tarjima qilganlar.

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad **Forobiy** 873-yilda Forob (O‘tror) yaqinidagi Vasij shaharchasida tavallud ko‘rgan va 951-yilda Damashqda vafot etgan.

O‘rta Osiyoning yirik qomusiy olimlaridan biri, Sharq uyg‘onish davrining eng ko‘zga ko‘ringan arbobi, Sharq falsafasining otasi Forobiy avval Forob, Buxoro va Samarqandda bilim oldi va turli tillarni o‘rgandi. Bag‘dodga

kelgach fanning turli sohalari bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtirishda davom etdi. U ilmiy darajasini oshirgach, fanning deyarli barcha sohalarini egallab, 160 dan ortiq asar yozdi. Forobiyning riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, falsafa, tilshunoslik va adabiyotga oid asarlari butun olamga mashhur bo‘ldi. U yozgan “Aristotelning “Metafizika” asari maqsadlari haqida”, “Tirik mavjudot a’zolari haqida”, “Musiqa kitobi”, “Baxt-saodatga erishuv haqida”, “Siyosat al Madaniya” (“Shaharlar ustida siyosat yurgizish”), “Fozil odamlar shahri”, “Masalalar mohiyati”, “Qonunlar haqida kitob”, “Tafakkur yurgizish mazmuni haqida”, “Mantiqqa kirish haqida kitob”, “Falsafaning mohiyati haqida kitob” va boshqa asarlar buyuk olimning ilm va dunyoqarash doirasining beqiyos darajada kengligi va chuqurligidan dalolat beradi.

Forobiy fanning nazariy va falsafiy tomonlarini yoritishga harakat qilgan. U Platon, Aristotelning barcha falsafiy, tabiiy, ilmiy asarlariga, Ptolemeyning osmon jismlari harakati, Aleksandr Afrodiyning ruh haqidagi psixologiyasiga oid, Galenning tibbiyot bo‘yicha asarlari, Epikur, Zenon, Yevklid risolalariga taqriz va sharhlar yozdi. Agar ilm-fan rivojidagi o‘zining qo‘shgan buyuk xizmatlari uchun Aristotel “Birinchi muallim” unvoniga sazovor bo‘lsa, Forobiy donishmandligi, Aristotelni yaxshi bilganligi, qomusiy aqli va ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan katta hissasi uchun “Al-muallim as-Soniy - “Ikkinchi muallim”, “Sharq Aristoteli” degan mu’tabar unvon oldi.

Forobiyning “Inson tanasining a’zolari haqida”gi risolasi tibbiyot ilmining maqsad va vazifalarini aniqlashga bag‘ishlangan. “Astrologiyaning to‘g‘ri va noto‘g‘ri qoidalari haqida”gi risolasida astrologlarning ruhiy va ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni osmoniy jismlar haqidagi ilmiy taxminlariga asoslangan faoliyatini, yolg‘on tasavvurlar va uydirmalardan farqlash zarurligini ta’kidlaydi.

Olimning ko‘p jildli “Musiqa haqida katta kitob” asari musiqa ilmining katta bilimdoni, sozanda va ajoyib bastakor ham bo‘lganligini tasdiqlaydi. U yangi musiqa asbobining ixtirochisi ham bo‘lgan.

O‘rta asr fanining rivoji va taraqqiyotida Forobiyning ilm tasnifi bo‘yicha olib borgan ilmiy ijodiy ishlari g‘oyatda

qimmatlidir. U “ilmlarni kelib chiqishi haqida”, “Ismlarning tasnifi haqida” va boshqa risolalarida o‘sha davrda ma’lum bo‘lgan 30 ga yaqin ilm sohasining tartibi, tasnifi va tafsilotini beradi.

Forobiyning ilmiy - falsafiy merosi xalqimizning buyuk ma’naviy boyligi sifatida asrlar osha avlodlar uchun muhim ijod manbai bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far **Narshaxiy** (899-959) Buxoro yaqinidagi Narshax (hozirgi Vobkent tumanida) qishlog‘ida 899-yilda tavallud topgan. Narshaxiyning ilmiy asarlari to‘g‘risida ma’lumotlar juda kam. Uning faqat “Tarixi Buxoro” (“Buxoro tarixi”) asari bizgacha yetib kelgan. Asar qo‘lyozma nusxalarda va hozirgi zamon ilmiy tarixiy adabiyotlarda “Tarixi Narshaxiy”, “Taxqiq ul-Viloyat” (“Viloyat haqiqatini aniqlash”), “Axbori Buxoro” (“Buxoro haqida xabarlar”)kabi nomlar bilan atalib kelingan. Asarning turli nomlar bilan atalishiga ham sabablar bor. Bu asarning Narshaxiy tomonidan yozilgan dastlabki asl nusxasi saqlanib qolmagan. Uning bizgacha yetib kelgan qismi 1128 yilda Quva shahridan bo‘lgan Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Quboviy arab tilidan fors tiliga qisqartirib tarjima qilgan nusxasidir. Undan keyingi yillarda ham Narshaxiyning asari bir necha tahrirlarga uchragan, ba’zi matnlari qisqartirilgan va so‘nggi voqealar asosida to‘ldirilgan. Abu Nasr Ahmad Qubaviy asar matnini qisqartirish bilan chegaralanmay, balki Tabariy, Abu Hasan Nishopuriyning “Hazoiq ul- ulum”, Ibrohimning “Axbar-i Muqanna” kabi asarlaridan foydalanib, uni to‘ldiradi. Ana shu tariqa, Buxoro tarixiga Narshaxiy yashab o‘tgan davrdan keyingi, 1178-1179-yillardan 1220-yillarga qadar bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealar kirib qolgan.

“Buxoro tarixi” asari o‘zining ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan va hozirgi kunda Somoniylar davri tarixi bo‘yicha eng noyob, qimmatli asar hisoblanadi. Asarda Somoniylar davlatining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy hayotiga oid ma’lumotlar keltirilgan. Movaraunnahr va Xuroson aholisining arab bosqinchilariga qarshi Muqanna boshchiligidagi qo‘zg‘oloni bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlar ham bu asarda ma’lum darajada o‘z ifodasini topgan. Narshaxiy saroy

tarixchisi bo‘lganligi sababli hukmron tabaqa siyosatini yoqlab, xalqning hokimiyatga chiqishini qoralagan.

Biz o‘rganayotgan davr IX-XII asr fan va madaniyatining ravnaqini **Abu Rayhon Beruniysiz** (973-1048-y.) tasavvur qilish mumkin emas. U o‘z zamonasining barcha fanlari - fizika, matematika, astronomiya, geodeziya, tarix, geografiya va bir necha boshqa fanlarni puxta egallagan olim bo‘lgan. U 362 hijriy yili (973-y.) Xorazmning qadimgi Kat shahrida tug‘ildi. O‘sha davrda Kat shahri Xorazmshohlar - Afrig‘iylar sulolasining poytaxti bo‘lib, O‘rta Osiyoning Xitoy, Hindiston, Yaqin Sharq davlatlari, Kavkaz va Sharqiy Yevropa davlatlari bilan bog‘lab turuvchi savdo va madaniy markazlaridan biri edi. Afsuski, Beruniyning zamondoshi Ibn Sinonikiga o‘xshagan tarjimayi holi bizgacha yetib kelmagan. Shuning uchun u boshlang‘ich ta’limini kimdan, qachon olganligi haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Ammo, bir narsa aniqki, u yoshligidanoq ilm-fanga juda ham qiziqqan, qobiliyatli, mehnatkash bo‘lgan.

U o‘z ona tili xorazm tilidan tashqari yana bir qancha tillarni-so‘g‘diy, fors, hind, yunon va qadimgi yaxudiy tillarni ham o‘rgangan. U Hindistonda bo‘lar ekan, tez orada nafaqat Hindiston tarixi, madaniyati, hatto sanskrit tilini ham o‘rganadi. Xorazmdagi Ma’mun akademiyasining eng ko‘zga ko‘ringan faol ishtirokchilaridan biriga aylanadi. Shu bilan birga u shoh Ma’mun II ning eng yaqin maslahatchisi sifatida mamlakat siyosiy ishlarida ham faol qatnashadi.

Beruniy Urganchda yashagan davrda Ibn Sino bilan yozishma olib borgan. Bizgacha ularning savol-javoblaridan 18 tasi yetib kelgan. Bu yozishmalar Beruniyning tabiat falsafasi va fizika masalalari bilan qanchalik qiziqqanligidan guvohlik beradi. Savol-javoblarning mazmunida Aristotelning aql bilan his etish orqali chiqargan xulosalariga Beruniy o‘zining tuzatish va tajriba orqali aniqlagan xulosalarini qarshi qo‘ygan. Ibn Sino esa Aristotelni himoya qilgani ma’lum bo‘ladi.

Beruniy Xorazmda yashagan vaqtda hali juda yosh bo‘lishiga qaramay, Kat shahrida muhim astronomik kuzatishlar o‘tkazgan. Bu kuzatishlar uchun o‘zi asboblar ixtiro qilgan. Beruniy 22 yoshida o‘zi tug‘ilib o‘sgan vatanni tashlab ketishga majbur bo‘ladi va avval Rayga, keyin Jurjonga keladi.

Bu yerda mashhur tabib, astronom, faylasuf Abu Saxl Iso al-Masixiy bilan tanishadi va undan ta’lim oladi. Beruniy o‘zining mashhur asarlaridan biri bo‘lmish “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarini Jurjonda yoza boshlagan.

Tarixdan ma’lumki, 1017-yilda Mahmud G‘aznaviy Xorazmni bosib oladi va Beruniyni ham Xorazmshoh saroyidagi bir qancha olimlar qatori G‘azna shahriga olib ketadi. Beruniy G‘azna shahrida 1017 yildan to 1048 yilgacha hayot kechirgani ma’lum. Bu yillar Beruniy hayotida o‘ziga xos davr bo‘ladi. Bir tomondan g‘urbatda yashagan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ilmiy faoliyatda juda ham mahsuldor davri bo‘ladi. Beruniy faoliyatini o‘rganuvchi olimlarning fikricha, bunday hol, ya’ni davlat ishlariga aralashmagan, siyosiy faoliyatdan chetlashgan olim o‘zining butun bo‘sh vaqtini ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflaydi.

Beruniy tabiat fanlarining rivojiga bebaho hissa qo‘shgan olimdir. U o‘zining ilmiy asarlarida dunyoning tuzilishi haqida fikr yuritganda Ptolemey fikriga suyansa ham, amalda yerning harakati haqida Ptolemey tartibiga zid keluvchi fikrlarni bayon qiladi. U “Geodeziya” asarida geotsentrizm bilan bog‘liq bo‘lgan ba’zi nazariyalarning to‘g‘riligiga shubha bilan qaraganligini ochiqdan-ochiq bayon etadi. Bu bilan u dunyoning geliotsentristik tuzilishi haqidagi nazariyani ishlashiga hissa qo‘shganlardan biri hisoblanadi.

Beruniy o‘z davrining katta matematigi ham bo‘lgan. U matematika masalalariga bag‘ishlangan asarlarida geometriya, arifmetika, algebra, sonlar nazariyasi, trigonometriya tushunchalarini ma’lum tartib bilan ta’riflaydi. Hozirgi zamon tadqiqotchilarining ko‘pchiligi Beruniyni trigonometriya fanining rivojiga qo‘shgan hissasini juda ham yuksak baholashadi. Ular Beruniyning trigonometriyaning matematikada mustaqil fan sifatida qaragan olim sifatida ko‘rsatmoqdalar.

Beruniy 1030-yilda “Hindiston” nomi bilan mashhur bo‘lgan eng yirik asarini yozadi. Bu asar juda katta ahamiyatiga ega bo‘lgan asar bo‘lib, bu haqda juda ko‘p g‘arb va sharq olimlari o‘zlarining fikr-mulohazalarini bildirganlar. Beruniyning bu asari ustida 20 yil ish olib borgan E.Zaxau uning arabcha tanqidiy teksti bilan ingilizcha tarjimasini 1888-

yilda Londonda nashr ettiradi. Ana shu olim “hindshunoslikda Beruniyga teng keladigan biror olim na undan oldin va na undan keyin bo‘lganligini bilmaymiz”-degan edi. Yirik arabshunos olim R.Rozen “Hindiston” asari qadimgi va o‘rta asr g‘arb va sharq adabiyotida “misli ko‘rilmagan”-deb baholaydi. Hind olimlaridan Hamid Rizo esa “O‘rta asr va yangi zamon mualliflaridan hech biri Hind madaniyatining chigal masalalarini ilmiy ruhda tushunish bo‘yicha Abu Rayxon Beruniy erishgan yutuqlariga erisha olmadi. Beruniyning “Hindiston” asari klassik namuna bo‘lib qolishi bilan birga o‘z muallifining qadimgi hind madaniyati va faniga tortig‘idir”-degan edi.

Abu Ali **ibn Sino** (980-1037) Buxoro yaqinida joylashgan Afshona qishlog‘ida tavallud topgan. Otasi ziyoli, o‘qigan, bilimdon kishi bo‘lib asli Balxdan bo‘lgan. Ibn Sino o‘sha davr ziyolilar oilasida hukm surgan turmush tarzi tizimi bo‘yicha “Qur’oni Karim”ni yoshlik chog‘idan yod ola boshlaydi. Bu bilan kifoyalanib qolmasdan otasi unga falsafa, hind hisobi kabi sohalarni ham o‘qita boshlaydi. Hatto Abu Abdulloh an-Nashali degan kishini o‘g‘liga murabbiy qilib oladi. U o‘spirinlik yillarida, 16 yoshida shunchalik chuqur shug‘ullanganki, hatto biron-bir kecha ham to‘yib uxlamagan ekan. Fan asoslari bilan bunday shug‘ullanish, ko‘p vaqtlar davomida amalga oshirgan mashaqqatli mehnat tez orada o‘z samarasini beradi, u 17 yoshidayoq olim sifatida shakllanib, tabib degan nom chiqara boshlaydi. Mukofot sifatida saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga sazovor bo‘ladi.

Biz ko‘rib chiqayotgan davr siyosiy tarixi o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi. Bu vaqtda ikki sulola (Qoraxoniylar va Somoniylar) tarix sahnasida hukmronlik uchun kurash olib bormoqda edi. Mamlakatdagi bunday beqarorlik fan arboblarining faoliyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmas edi. Ibn Sino ham o‘sha davrda Xorazmda fan va madaniyat xomiysi sifatida nom chiqargan Ma’mun (999-1016) saroyiga boradi. U yerda o‘sha davr mashhur olim, faylasuflari Abusaxl Masixiy, tabib Abul Xayir Xommar, qomusiy olim sifatida butun dunyoda tan olingan Abu Rayhon Beruniy va boshqa mashhur olimlar bor edilar. Ammo olimning tinch ijodi bu yerda ham ko‘pga cho‘zilmaydi. Xorazmni Mahmud G‘aznaviy egallagach

u Hamadonga jo‘naydi. O‘sha davrda Hamadon hukmdori Shams ad-Davla degan kishi bo‘lib, u kasal bo‘lib qoladi. Ibn Sino Buxoro amirini davolaganidek uni ham tuzatib yuboradi va evaziga vazir etib tayyorlanadi. O‘sha davrda ham saroy fisqu-fasod, isyonlar uyasi edi. Ana shunday fisqu-fasodlar tufayli u zindonga tashlanadi. Isfaxon hukmdori Alouddavla Hamadonni bosib olgach, u zindondan ozod qilinadi.

Ibn Sinoning zamondoshi, uning shogirdi Jurjoniyning yozishicha u jismoniy jihatdan juda baquvvat bo‘lgan. Biroq shaharma-shahar darbadarlikda yurish, yuqorida qayd qilganimizdek, kechalari uxlamasdan uzluksiz ishlash va ta’qib ostiga olishlar olimning salomatligiga ta’sir ko‘rsatadi va u 428 xijriy yilning ramazon oyida, 1037 yilning iyun oyida 57 yoshida vafot etadi.

Ibn Sino haqiqiy ensiklopedik olim bo‘lib, o‘z davrining deyarli barcha fanlari bilan muvaffaqiyatli ravishda shug‘ullangan va ularga oid ilmiy asarlar yaratgan. Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asarlari qayd qilingan bo‘lsa ham, zamonlar o‘tishi bilan ularning ko‘pi yo‘qolib ketgan va bizgacha faqat 242 tasi yetib kelgan.

Ibn Sinoning tog‘larni paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi juda ajoyib fikrlari, minerologiya va geologiya fanlariga qo‘shgan hissasi juda salmoqlidir. Jumladan, u minerollarni to‘rt guruhga bo‘lib, ularning original klassifikatsiyasini taklif etadi. Bu klassifikatsiya to XIX asrgacha deyarli o‘zgarishsiz saqlanib keldi. Olimning minereologiya sohasidagi ishlarining muhimligi ta’kidlanib, 1956-yilda O‘zbekistonda topilgan mineral Avitsenit deb atalgan.

Ibn Sino botanika masalalari bilan ham ko‘p shug‘ullangan. Chunki tabobatda ishlatiladigan dorivor moddalarning aksariyati o‘simliklardan olinadi. Mashhur shved botanigi Karl Linney (1707-1778) Ibn Sinoning botanika sohasidagi xizmatlarini ta’kidlab, tropik mamlakatlarda dengiz suvida ham o‘suvchi va doimo yashil holda qoladigan bir daraxtni Avitsenna deb atadi. Ham G‘arbda, ham Sharqda “Avitsenna” va “Shayxur-Rayis” nomi bilan shuhrat qozongan bobokalonimiz haqiqatan ham mustaqil O‘zbekiston yoshlari qalbida o‘z tarixi va bobokalonlari bilan faxrlanish his-tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Abu Abdulloh Ja’far **Rudakiy** (960-1041-y.) taxminan 960-yilda Samarqand yaqinida joylashgan Panjrudak qishlog‘ida tug‘ilgan. Shuning uchun ham shoirning taxallusi shu tug‘ilgan qishlog‘ining nomidan kelib chiqib Rudakiy bo‘lib hisoblanadi. Yana boshqa manbalarda aytilishicha, o‘sha davrda xalq cholg‘u asboblari orasida “rud” nomli musiqa asbobi bo‘lib, shoir uni chalishni juda yaxshi o‘rgangan, shuning uchun ham shoir taxallusini shu asbobdan olgan deb ham hisoblaydilar.

Rudakiyning tarjimai holiga bag‘ishlangan barcha manbalarda uni kambag‘al oiladan ekanligi, yoshligidayoq musiqa asboblarini yaxshi chalishni va ashula aytishni sevganligi qayd etiladi. Yosh shoirning o‘zi she’rlar yozishi va musiqaga bo‘lgan bunday muhabbati tez orada uni mashhur qilib yuboradi. Bu davrda she’riyat, ayniqsa, saroy she’riyati, qasidanavislik, ya’ni shaxsga madhiya o‘qib, ko‘klarga ko‘tarib maqtash keng avj olgan edi. Qasidanavislikdan asosiy maqsad, uning mohiyati maqtov kimning shaxsiga qaratilgan bo‘lsa, o‘sha kishini shaxsni ulug‘lashtirish bo‘lgan. Rudakiy esa ma’lumotlarga qaraganda, qasida to‘qishga usta bo‘lgan. Shuning uchun ham bo‘lsa kerak, uning Somoniylar saroyiga taklif qiladilar. U davrda hokimiyat tepasida Nasr ibn Ahmad turardi.Shu davrdan boshlab, uning hayotida saroy davri boshlanadi. Saroy hayoti o‘zining o‘ta murakkabligi bilan ajralib turgan, fisqu-fasodlarga to‘la bo‘lgan. Rudakiy qarigan vaqtida saroydan quviladi va qolgan umrini o‘zining ona qishlog‘ida faqirlikda o‘tkazadi. Saroydan quvilayotgan paytda uning ko‘ziga mil tortib, ko‘r qilinadi.

Rudakiy fors-tojik she’riyatining asoschilaridan biri hisoblanadi. XI asr shoiri Rashidiyning aytishicha, Rudakiyning bir million uch yuz ming bayt she’ri borligi hisoblab chiqilgan. Ammo bizgacha ming bayt, ikki qismda ellik ruboiy, she’rlar, doston va boshqalar yetib kelgan, xolos. Bu asarlarda shoir do‘stlik, muhabbat, yaxshilik qilish, birovning dilini og‘ritmaslik kabi ulug‘ insoniy fazilatlarni ulug‘laydi. Doimo ezgulik qilishga chorlaydi.

Rudakiyning she’riyati hayot lazzati, hayotning o‘zi ustod ekanligi, undan ko‘p narsalarni bilib, o‘rganib olish mumkinligini ta’kidlaydi va shunday qilish lozim ekanligini

uqtirishga harakat qiladi. Hayot ta’limi butunlay boshqacha ta’lim ekanligini, uni ba’zida shirin, ba’zida achchiq ekanligini ko‘rsatadi. Bunday ta’limni hech bir o‘qituvchi bera olmasligini uqtiradi.

Har bir kishi olmasa hayotdan ta’lim,
Unga o‘rgata olmas hech bir muallim.

Bizgacha Rudakiy qalamiga mansub “Kalila va Dimna”, “Davroni oftob”, “Sindnoma” kabi poemalardan parchalar yetib kelgan. Rudakiyning asarlari haqida gap yuritar ekanmiz, uning tili sodda, keng xalq ommasiga juda ham tushunarli bo‘lganligini ko‘ramiz. Shuning uchun ham u keng xalq ommasi orqali shuhrat topgan. Uning asarlari hozirgi o‘zbek tiliga ham tarjima qilingan.

Mahmud Qoshg‘ariy faoliyati bilan bevosita shug‘ullanuvchi olimlarning fikricha bu zot 1029-1038 yillar orasida Qashg‘arda tug‘ilgan. U o‘ziga to‘q, ziyoli oiladan bo‘lib, Qashg‘arda yaxshi bilim oladi. Hatto u Buxoro va Nishopur shaharlarida o‘z bilimlarini kengaytirib katta-katta olimlar bilan suhbatda bo‘ladi. Mahmud Qoshg‘ariy yashab ijod etgan yillar Qoraxoniylar davlatining gullab-yashnagan davriga to‘g‘ri keladi. Mahmud Qoshg‘ariy juda ko‘p safarlarda bo‘ladi va o‘zining asarlari uchun boy ma’lumotlar to‘playdi. Ko‘p yillik izlanishlar natijasida “Devoni lug‘ati- turk” va “Javohiri-nahv” “Turk tili sintaksisi asoslari” asarlarini yozadi. Ming afsuslar bo‘lsinki, oxirgi asar hanuzgacha topilmagan. Mahmud Qoshg‘ariyni butun ilm olamiga tanitgan asari uning “Devoni lug‘ati- turk” asaridir. Bu kitob arab tilida yozilgan. Unda olim ko‘p yillar davomida turkiy qabilalar orasida olib borilgan kuzatishlar asosida turkiy tillarni qiyosiy va tarixiy usullar bilan tahlil qilgan va bu tillarning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga harakat qilgan. Olimlarning fikricha, muallif ushbu tadqiqotida juda ko‘p so‘zlarning etimologiyasini ham juda aniq va to‘g‘ri izohlab bergan.

Asar ikki qism (muqaddima va lug‘at)dan iborat. Olim asarga o‘zi tuzgan dunyo xaritasini ham ilova qiladi. Bu hol asarning qimmatini yanada oshiradi. Xarita doira shaklida chizilgan bo‘lib, unda mamlakat, shahar, qishloq, tog‘, cho‘l, dovon, dengiz, ko‘l, daryo va hokazolar nomlari yozilgan. Xaritada yozilmay qolgan nomlar esa asar matnida berilgan.

Xarita asosan hozirgi Sharqiy yarim sharga to‘g‘ri keladi. Mahmud Qoshg‘ariyning o‘zi bu haqda shunday yozgan: ”Rumdan Mochingacha bo‘lgan... shaharlar o‘rnini aniqlash maqsadida ularning hammasini yer shaklidagi doirada ko‘rsatdim”.

Asarda turli urug‘-qabilalardan qipchoq, o‘g‘iz, tatar, yamak, basmil, yabonu, qay, boshqirt, qirg‘iz, uyg‘ur, jamil, taru, ichroq, tuxsi, yag‘mo, chigil, tangut, tabg‘och, shuningdek, fors, arab, xitoy, rus xalqlari haqida ham ma’lumotlar keltiriladi. Asarda bulardan tashqari bir necha turkiy tildagi hikmatli so‘zlar berilgan.

Mahmud Qoshg‘ariyning bu asarida O‘rta Osiyo hududidagi bir qancha shaharlar nomlarining kelib chiqishi masalalari ham alohida ko‘rsatilgan. Kitobda turkiy yozuv to‘g‘risida aniq ma’lumotlar berilib, 18 harfdan iborat turk (uyg‘ur) alifbosi ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Mahmud Qoshg‘ariyning bu kitobi dunyo xalqlarining juda ham ko‘p tillariga tarjima qilingan. Asarning bunchalik katta ahamiyatga ega bo‘lishi muallifning hayotni yaxshi bilganligi, turli bilimlarni puxta o‘zlashtirganligi va asarni hayot tajribasiga asoslanib yozganligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham asar o‘z ilmiy qimmatini bugungi kunda ham yo‘qotgani yo‘q.

Qoraxoniylar davrida yashagan yana bir o‘z davrining atoqli shoiri, donishmand va davlat arbobi **Yusuf Xos Hojibdir** (XI asr). Uning tarjimai holi, tug‘ilgan yili va hayoti to‘g‘risida yozilgan biron-bir asar saqlanib qolmagan. U Qoraxoniylar sulolasining poytaxti Bolasog‘unda tug‘ilgan va shu yerda ijod etgan. Hozirgi kunda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik”(”Baxt-saodatga boshlovchi bilim”)deb nomlangan didaktik, badiiy-falsafiy asari bizgacha yetib kelgan bo‘lib, boshqa asarlari ma’lum emas. Shoirning o‘zi bu ishga roppa-rosa 18 oy sarflagan va unga juda ham puxta tayyorgarlik ko‘rgan.

Asar nasriy muqaddimadan so‘ng 77 baytdan iborat bo‘lgan she’riy muqaddima bilan boshlanib, 73 bobning mundarijasi beriladi. Boshlang‘ich boblar o‘sha davr an’analariga binoan boshlanib, Olloh va Payg‘ambar, islom

dinining foydasi va dunyoviy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ilmiy masalalar bilan tugallanadi.

Asar shunchalik ko‘p qamrovli-ki, unda ko‘tarilgan masalalarni oddiy sanab o‘tishning o‘zi ham bir necha sahifalarni tashkil etadi:

Masalan: Yetti sayyora va o‘n ikki burj.

Inson farzandlarining qadri bilim va tafakkurda.

Tilning fazilat va manfaatlari.

Kitob egasining uzri.

Bilim va aql-idrokning farqi to‘g‘risida.

Bahad madhi.

Oy to‘ldining baxt haqidagi hikoyasi.

Ana shu sanab o‘tilganlardan ham ko‘rinib turibdiki, asarda shoir inson masalasini ajratib oladi. Insonning ijtimoiy mohiyati, uning hayotdagi o‘rni, vazifasi har tomonlama tahlil qilinadi.

“Qutadg‘u bilig” asarida bilim haqidagi alohida bob bo‘lib, unda bilimdan hech bir ziyon bo‘lmasligi, u kishilarga faqat foyda keltirishi mumkinligi, kishilarga bilim qadr-qimmat, hurmat va ehtirom keltirishi mumkinligi aytib o‘tiladi. Shuningdek, asarda markazlashgan davlatni mustahkamlashga qaratilgan nizolarga chek qo‘yish kabi o‘sha davr uchun juda katta ahamiyatga molik bo‘lgan masalalarga ham alohida e’tibor beriladi. Shu bilan birga, davlatni idora etish yo‘llari, buning uchun beklar bu yo‘lda o‘z atrofiga bilimdon, aqlli odamlarni to‘plashi lozim ekanligini alohida ta’kidlaydi. El-yurtni boshqarish asosida ikki narsa yotadi deb ko‘rsatgan shoir. Biri adolat ko‘rsatish bo‘lsa, ikkinchisi, ulardan marhamatni ayamaslikdir. Yuqorida qayd qilinganidek, shoirning bu asari dunyo jamoatchiligi tomonidan yaxshi qabul qilingan eng yaxshi asarlar qatoridan o‘rin olgan.

IX-XII asrlarda islom dini va so‘fiylik

IX-XII asrlarda islom dini O‘rta Osiyo xalqlari davlatchiligi tarixida katta rol o‘ynay boshladi. Movarounnahrda bu davr arab xalifaligidan mustaqil bo‘lgan davlatlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi davri bo‘lgan bo‘lsa, islom bu vaqtda Sharqda keng tarqalib jahon dini

darajasiga ko‘tariladi, musulmon dunyosining mafkurasiga aylanadi. Arab tili davlat tili darajasiga ko‘tariladi. Azaldan savodli bo‘lgan, madaniyat darajasi yuqori darajaga ko‘tarilgan xalq tez orada nafaqat arab tilini, balki islomni ham chuqur o‘rganib, arab tili va shariat masalalarida kitoblar yozadigan olimlarni yetishtirib chiqara boshladi.

Xalifalikdan ajralib chiqqan mustaqil davlatlar somoniylar, qoraxoniylar, saljuqiylar va g‘aznaviylar, Xorazmshohlar davrida bu mustaqil markazlashgan davlatlarni yanada mustahkamlash uchun islom diniga, uning ta’limotiga, tarixiy ahkomlariga e’tibor bir necha bor kuchaya boshlaydi. Shaharlarda masjidlaru-madrasalar qurilishiga e’tibor berila boshladi. Masalan, manbalarning darak berishicha, Buxoroda dastlabki madrasa Kovushdo‘zlar timi yaqinida barpo qilinadi. Hatto qonunshunoslar uchun ham maxsus “Faqihlar madrasasi” degan ixtisoslashtirilgan madrasa qurdirilgan. Bunday bilim maskanlarida Qur’oni karim, Hadis ilmi va shariat asoslari har tomonlama mukammal o‘rganilgan.

O‘sha davr shaharlari orasida islom dini ta’limotini chuqur targ‘ib qilishda Buxoro shahri alohida o‘rinni egallaydi. Yuqorida qayd qilinganidek, madrasayu, maktablarning borligi bu yerda yetuk ilohiyot fani namoyondalarini yetishib chiqishiga xizmat qiladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Buxoro shu davrdan boshlab “Qubbat-ul-islom”(”Islom dinining gumbazi”) nomi bilan shuhrat topa boshlaydi.

Sekin-asta markazlashgan davlatning asosiy mafkurasiga aylangan islom dini boshqa diniy qarashlarni siqib chiqara boshlaydi va xalq ommasini itoatda ushlab turish uchun qurol vositasi rolini ham bajara boshlaydi.

Bu davrda islom ta’limotiga bebaho hissa qo‘shgan Imom al-Buxoriy va Iso at-Termiziy kabi ko‘plab ulamolar yetishib chiqdilar. Ular shu kunga qadar Hadis ilmining eng ko‘zga ko‘ringan, butun musulmon dunyosi tomonidan tan olingan allomalari darajasiga ko‘tarilgan zotlardir.

Imom Buxoriy (809-870-yy.) Buxoroda tug‘ilib, shu yerda birinchi bilimlarni oladi. So‘ngra bilimini yanada chuqurlashtirish maqsadida Makka, Madina, Bag‘dod, Damashq, Kufa, Nishopur kabi shaharlarga boradi. Manbalardan bizga ma’lumki, Imom Buxoriy islom dini

masalalariga bag‘ishlangan 20 ga yaqin asar yozgan. Shu kitoblar orasida Buxoriyning butun dunyoga mashhur qilgan asari “Al-Jome’ as-Sahih” (“Ishonchli to‘plam”)dir. Bu asar 160 qismdan iborat bo‘lib, 3450 bobni o‘z ichiga oladi. Buxoriy hadislarini to‘plash va bayon etishda uni haqiqiyligiga asosiy e’tibor bergan, uni haqiqatga yaqinligini isbotlovchi dalillarni keltirgan va shu asosda hadislarni tasnif qilgan olimdir. Uning diqqat markazida fanning inson uchun tarbiyaviy ahamiyati, uning ma’naviy yuksalishi, fozilligi, donoligi, yaxshi va yomonni ajrata olishi turadi. Umrining oxirida u o‘z Vataniga qaytib keladi va Samarqand yaqinida vafot etadi. Mustaqillik yillarida bu ulug‘ bobakalonimiz ruhini shod etib, O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan uning vafot etgan joyida ulkan majmua-bino barpo qilindi. Hozirda bu joy nafaqat mamlakatimiz fuqarolarini, balki butun musulmon dunyosi ahlini ziyoratgoh joyiga aylangan.

Imom at-Termiziy (824-892-yy.) Termizdan uncha uzoq bo‘lmagan Bug‘ qishlog‘ida tug‘ilgan. U ham Buxoriy singari Sharqning juda ko‘p shaharlarida bo‘lib, o‘z bilimini oshirishga harakat qiladi. At-Termiziy hadislardan tashqari filologiya, tarixga oid asarlar ham yozdi. Uning 10 dan ortiq yozgan asarlari orasida nomini butun musulmon olamiga mashhur qilgan asari “Jome at-Termiziy” yoki “Sunan at-Termiziy”dir. Bu asar islomda ulamolar tomonidan haqiqat deb tan olingan mashhur hadislar to‘plamidan biridir.

Islom dinining mamlakatda asosiy din sifatida tan olinishi, boshqa dinlarning oyoq-osti qilinishi, bu davrda mehnatkash omma turmush tarzining og‘irlashuvi ular orasida ularni yupatishga, ularning ruhini yengil qilishga yordam beruvchi g‘oyani qidirishga majbur qila boshladi. Bu g‘oya tasavvuf g‘oyasi bo‘ldi.

Tasavvuf, ya’ni so‘fiylik islom dini asosida shakllangan diniy-falsafiy oqim bo‘lib, poklangan, zohid, taqvodorlik ma’nosini anglatadi. Uning asosida bu dunyo lazzatlarida voz kechish orqali Ollohga yetish, uni bilish, u bilan birlashish yo‘lini qidirish yotadi. Sufiylik, Qur’on va shariat talablarini albatta so‘zsiz bajarish, o‘zini Xudoning quli deb bilish kabilar, o‘z xohishi bilan poklanib, Ollohga, ruhiy ma’naviylikka

singish orqali erishishga asoslanadi. Tasavvuf ta’limoti asosida inson faoliyati va uning kamoloti yotadi.

Tasavvufda ruhni kamolotga, uning so‘nggi maqsadi Ollohga erishuv yo‘llari to‘rt bosqichdan iborat: birinchi bosqich-SHARIAT deb ataladi, unda avvalambor, shariatning barcha talablarini bajarish va unga bo‘ysunish talab etiladi. Ikkinchi bosqich-TARIQAT deb ataladi. Unda murid o‘z shaxsi istaklaridan voz kechib, o‘zini pir ixtiyoriga topshirishi kerak. Uchinchi bosqich-MA’RIFAT bo‘lib, unda so‘fiylar koinotning birligi Xudoda mujassam bo‘lishini, yaxshilik va yomonlikning nisbatini aql bilan emas, qalb orqali anglab olishlari kerak bo‘ladi. To‘rtinchi bosqich HAQIQATdir. Bunda so‘fiy shaxs sifatida tugab, Xudoga-mo‘ljallangan haqiqatga yetishishi, Ollohga singib ketishi va natijada abadiylikka erishuvi zarur. Bu jarayon ma’lum davomli vaqtni talab etgan. Maxsus ruhiy jismoniy harakat, faoliyat, sig‘inish, ibodatlar, ohanglar yordamida amalga oshirilgan.

Tasavvufning ijtimoiy asosini shaharlardagi hunarmandlar, mayda savdogarlar tashkil qilgan. IX-X asrlardayoq Iroq va Eronda uning yirik vakillari vujudga keladi. Movaraunnahrda esa tasavvuf ta’limoti X asrdan boshlab yoyila boshladi. Hozirgi O‘zbekiston hududida tasavvufning rivojlanishida **Yusuf Hamadoniy ta’limoti** muhim rol o‘ynaydi. Manbalarda qayd qilinishicha, Yusuf Hamadoniy 1043-1049-yilda Eronning Hamadon shahrida tug‘iladi. Dastlabki bilimlarini Hamadon va Bag‘dodda oladi. Imom G‘azzoliy kabi buyuk allomalarni tarbiyalab voyaga yetkazgan shayx Abu Ali Farsadiyga shogirdlikka tushadi. Yusuf Hamadoniy umrining katta qismini O‘rta Osiyoda o‘tkazgan. U hunarmandchilik-kosibchilik bilan shug‘ullangan. Shuning uchun ham bo‘lsa kerak, uning ta’limoti asosan hunarmandlar orasida keng tarqalgan va ularning manfaatlarini ifodalagan. Yusuf Hamadoniy sufiylik ilmi bo‘yicha ko‘plab shogirdlar tayyorladi. U Buxoroda maxsus xonaqo qurdirib, o‘sha yerda shogirdlarga dars bergan. Hamadoniy ta’limotida vatanparvarlik g‘oyalari o‘z ifodasini topgan. Uni pir deb bilgan shogirdlaridan 213 tasi mashhur shayxlar bo‘lib yetishgan ekanlar. Hamadoniy ta’limotidan O‘rta Osiyoda ikki tasavvuf maktabi-yassaviylik va naqshbandiylik kelib chiqadi.

O‘rta Osiyo hududida birinchi vujudga kelgan so‘fiylik oqimi **Yassaviylikdir.** Bu oqimga 1105 yilda Yassa (Turkiston) shahrida tug‘ilgan **Ahmad Yassaviy** asos solgan. Ahmad Yassaviy Buxoroda Yusuf Hamadoniydan ta’lim olgach, yana ona shahri Turkistonga qaytib keladi va shogirdlar tarbiyasi masalasi bilan shug‘ullanadi. Madrasa va xonaqolar qurdiradi. Yassaviy ta’limotining asoslari turkiy tilda yozilgan “Devoni Hikmat” asarida bayon etilgan. U o‘troq va ko‘chmanchi turkiy xalqlar orasida o‘ufiylik ta’limotini targ‘ib qilishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Yassaviy tariqatining boshqa tariqatlarda bo‘lganidek, o‘ziga xos qoidalari bor. Ular: 1.Murid hech kimsani o‘z shayxidan afzal ko‘rmasligi, unga mutlaqo taslimiyat izhor etmog‘i lozim. 2.Murid shunchalik zukko va idrokli bo‘lishi kerakki, to o‘z shayxining barcha ramz va ishoralarini mukammal anglay olsin. 3.Shayxining barcha ahvoli (so‘zlari) va a’folari (ishlari) ga murid sodiq bo‘lib, unga mutlaqo mute va mo‘taqid bo‘lmog‘i lozim. 4. Murid o‘z murshidi (piri) ning barcha topshiriqlarini chaqqonlik bilan sidqidildan bajarib, uni hamisha rozi qilib yurmog‘i lozim. 5. Murid o‘z so‘ziga sodiq, va’dasiga rosih bo‘lib, o‘z murshidi ko‘nglida hech qanday shak-shubha tug‘dirmasligi zarur. 6. Murid o‘z va’dasiga vafodor va so‘zida ustuvor bo‘lishi kerak. 7. Murid o‘z ixtiyoridagi barcha mol-mulkni, butun bor-u yo‘g‘ini o‘z shayxiga nisor (baxshida) etmoq uchun doimo tayyor bo‘lmog‘i kerak. 8.Murid o‘z shayxining barcha sir-asroridan ogoh bo‘lib, uning ifshosini (oshkor etishni) hech vaqt xayoliga keltirmasligi kerak. 9.Murid o‘z shayxining barcha takliflarini nazarda tutmog‘i, uning mushkulotini oson qilmog‘i, pandu nasihatlarini bajo keltirmog‘i shart. 10. Murid Olloh visoli uchun o‘z shayxi yo‘lida butun moli va jonini nisor etmoqqa tayyor turishi, uning do‘stiga do‘st, dushmaniga dushman bo‘lib yashamog‘i shart.

Ahmad Yassaviyning fikricha **shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma’rifat, ma’rifatsiz haqiqat** bo‘la olmaydi. Ular doimo bir-birini to‘ldiradi. Bu yo‘l kamolot yo‘li bo‘lib, inson hayotining asl mohiyatini tashkil etadi.

Yusuf Hamadoniyning yana bir shogirdi **Abduxoliq G‘ijduvoniy** bo‘lgan. Yassaviy bilan G‘ijduvoniy shu darajada

iqtidorli shogirdlardan bo‘lishganki, keyinchalik ulardan bir “Yassaviya”, ikkinchisi “Naqshbandiya” tariqatining asoschilari bo‘lib yetishadilar. Xoja Abduxoliqning tarjimai holi, tug‘ilgan va vafot etgan sanalari aniq. U 1103 yilda G‘ijduvondda tug‘ilib, 1179 yilda o‘z vatanida vafot etadi. Xoja Abduxoliqqa dastlabki savodni o‘z tug‘ilgan yurtida Imom Sadriddin beradi. Keyinchalik o‘qishni Buxoroda davom ettirib, yuqorida qayd qilinganidek, Yusuf Hamadoniyga shogird tushadi. Tarixiy manbalarning xabar berishicha, ustoz va shogirdning bir-birlariga hurmati, mehr-oqibati shu darajada bo‘lgan ediki, ular birgalikda Sharqning fan va madaniyat o‘choqlaridan bo‘lmish Samarqand, Buxoro, Marv, Isfaxon, Balx singari shaharlarga borgan ekanlar va u yerlarda tasavvuf sohasidagi o‘z bilimlarini yanada chuqurlashtirgan ekanlar.

Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy Sharq falsafa tarixida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Uning falsafiy dunyoqarashi tasavvufdagi Xojagon (Xojalar) xalqasida shakllandi. Agar bizgacha Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”i meros bo‘lib qolgan bo‘lsa, Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniydan “Risolayi Sohibiya” “Risolayi Shayxshuyuk Xazrati Abu Yusuf Hamadoni” kabi asarlar meros bo‘lib qolgan. Ammo bu asarlar hali yaxshi o‘rganilmagan va keng xalq ommasi orasida targ‘ib qilinmagan. Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy ustozidan ko‘p narsalarni o‘rganar ekan, o‘zi ham ko‘p hollarda mustaqil fikr yuritib, ba’zi masalalarda o‘z yo‘lini shakllantirishga harakat qilgan. U zikr aytish usuli bo‘yicha “Zikri Xufiya”, “Zikri dil” amalini targ‘ib qila boshlagan. Xoja Abduxoliqning ustozi Yusuf Hamadoniy o‘sha vaqtda o‘z sahobalari bilan “Aloniya” zikr tushish amalini bajargan. Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy yuqorida qayd qilinganidek, “Xojagon” (Naqshbandiya) tariqatining asosiy qonun-qoidalarini ishlab chiqqan buyuk allomadir. Uning asarlari, hayoti, qilgan ishlari butun turk olamida alohida o‘rin egallab, ma’naviy hayotda o‘chmas iz qoldirgan.

Najmiddin Kubro (1145-1221-yy.) - tasavvuf ta’limotining O‘rta Osiyodagi yirik vakillaridan biri. So‘fiylikdagi Kubraviya oqimining asoschisidir. Xivada tug‘ilib, Misr, Tabriz va Hamadonda ilm olgan. Ko‘hna Urganchga qaytib, o‘z ta’limotini rivojlantirib, shu yerda yangi sufiylik oqimiga asos soladi. U “Favoix al-Jamol va fovotix al-

Jalol” (“Jamolining muattarligi va kamolotning egalari”), “As-usul al-ashara” (“O‘nta qonun va qoidalar”) nomli qator risola va asarlar yozib, o‘z ta’limotini takomillashtirishga erishdi. Kubroviya tariqatining asosini 10 tadan iborat qonun-qoidalar tashkil etadi. Ularga asosan **“tavba”, “zuxd”** (“mol-dunyodan voz kechish”), **“tavakkal”** (“Olloh yo‘lida”), **“qanoat”, “uzlat”, “doimiy zikr”, “tavajjuz”, “sabr”, “muroqaba”** (“kamolot topish”) va **“rizo”** (xalqqa yetishish) kabi qoidalar kiradi. Kubroviya tariqati Yassaviya tariqatidan farq qilib, tarki dunyochilik rad etiladi. Unda kamolot yo‘lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne’matlaridan bahramand bo‘lish kerakligi ilgari suriladi. Bu ta’limotda vatanga, xalqqa bo‘lgan muhabbat g‘oyasi nihoyatda kuchli bo‘lib, har qanday og‘ir sharoitda ham xalq bilan birga bo‘lish, vatan himoyasi uchun kurashish, uning mustaqilligini saqlash zarurligini da’vat qilinadi. O‘z g‘oyasiga sodiq Najmiddin Kubro vatan himoyasi yo‘lida shahid bo‘ldi va jasorat namunasini o‘z muridlariga ko‘rsata oldi.

Shunday qilib, tasavvuf Movarounnahr aholisining ma’naviy hayoti bilan chambarchas bog‘langan ta’limot bo‘lib, o‘rta asrning xalqparvar adib va mashoixlari uni chuqur bilishga va u orqali ommaga ziyo va ma’rifat tarqatishga intilganlar.

Me’morchilik va san’at

IX-XII asrlarda o‘lkada markazlashgan yirik davlatlarning shakllanishi va ularning rivoji, davlatchilikning mustahkamlanishi, ma’naviy hayot, ilm-fanning rivojlanishigagina emas, balki moddiy madaniyatning ham rivojlanishiga asos bo‘ldi. Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, Uzgan va Marv kabi shaharlarda saroylar, masjid, madrasalar, minoralar, maqbaralar, tim va karvonsaroylar ko‘plab qurila boshladi.

Bu davr O‘rta Osiyo me’morchiligida ijtimoiy sharoitdan kelib chiqib, qurilish materiali sifatida paxsa, xom g‘isht va pishiq g‘isht hamda bog‘lovchi element sifatida ganchdan foydalanish keng yo‘lga qo‘yilgan edi. Bu vaqtda sinch qadab quriladigan uy-joylar va umum ahamiyatga ega bo‘lgan binolar,

saroylar, masjidlar, madrasalar qurilishida yog‘och ham muhim o‘rin egallar edi.

X asrlarga kelib binokorlikda qurilish tartibi ham o‘zgara boshladi. Mahobatli qurilishda tomi gumbaz bilan yopilgan kub shaklidagi binolar muhim ahamiyatga ega bo‘la boshladi. Buxoroda qurilgan Ismoil Somoniy qabri ustiga pishiq g‘isht bilan qurilgan go‘zal maqbara fikrimizga misol bo‘la oladi. Bu bino to‘rtburchak shaklida bo‘lib, tomi gumbaz qilib yopilgan. To‘rtburchakdan nayzali ravotlar yordami bilan sakkiz qirrali shaklga o‘tilgan. Shu bilan birga bu bino to‘rt fasadlidir. Uning to‘rttala tomoni ham bir xil, old tomonidek bezatilgan. Oddiy qilib aytganda, binoning oldi, yoni va orqa tomoni yo‘q. Hamma tomoni bir xilda bezatilgan. Ismoil Somoniy maqbarasini qurishda va bezatishda arablardagi o‘sha davr uchun xos bo‘lgan me’moriy xususiyatlardan ham ko‘p foydalanilgan. Masalan, binoning tashqi burchaklariga ustunlar o‘rnatish. Bino ichidagi bunday shakldagi, shuningdek, dumaloq manzarali maydonlar ham islomgacha bo‘lgan yodgorliklarda uchraydi.

IX-X asr me’morchiligi uslublarini saqlanib qolganligini ko‘plab masjidlar misolida ham kuzatish mumkin. Yozma manbalarda qayd qilinishicha, somoniylar davridagi ko‘pgina masjidlar o‘z vaqtida arablargacha bo‘lgan ibodatxonalarning masjidga moslashtirish asosida qurilgan. Ular bir xonali bo‘lib, masjidning tomlari ustunga tayanib turgan. Masjidlarning tomi odatda gumbaz shaklida bo‘lgan. Masjidlarda, ayniqsa, mehroblari shaklli, yozuvli qilib qirqilgan g‘ishtlar, o‘yma ganchlar va hatto tilla suvlar bilan bezatilgan. Bu davrga oid masjidlar to‘g‘risida so‘z yuritilganda, Buxorodagi Mag‘oki Attoron, Poykand masjidi, Termizdagi Chorustun, Shahristondagi Childuxtaron masjidlarini qayd qilish mumkin. Bu yodgorliklar O‘rta Osiyoda diniy me’morchilikning rivojlanish yo‘llarini kuzatish imkoniyatini berdi.

Narshaxiyning yozishicha, amir Nasr ibn Ahmad Buxoro Registonida o‘zi uchun katta saroy qurdirgan va uning qurilishiga katta mablag‘ sarflagan. Bu saroy g‘oyat go‘zal bo‘lgan. Saroyning oldida esa devonlar uchun binolar qurilgan. Amir va hokimlar saroyi Nishopur, Marvda, Samarqand va boshqa shaharlarda ham bo‘lgan. Bu saroylar o‘zlarining

kattaligi va go‘zalligi bilan ajralib turgan. Ko‘p hollarda bunday saroylar xushmanzara joylarda, bog‘lar ichida bunyod etilgan.

Saroylarning go‘zalligini Termiz shahridagi saroy misolida ko‘rish mumkin. Bu saroy to‘liq ochib o‘rganilgan. Saroy shahar mudofaa devorlaridan tashqarida, bog‘lar orasida joylashgan va 10 gektarga yaqin maydonni ishg‘ol etgan. Saroy mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. Saroy o‘zining mahobatliligi, serhashamligi va bag‘oyat go‘zal, nafis bezaklari bilan odamni o‘ziga jalb qiladi.

Somoniylar davriga oid shahar va qishloq aholisining uylari to‘g‘risida hozir arxeologiya ancha ma’lumotlarga ega. Bu borada qadimiy Samarqand-Afrosiyob, Xorashkent-Kanka, Binkent, Termiz, Marv, Dehiston kabi o‘nlab yodgorliklarda olib borilgan izlanishlarning natijasi diqqatga molikdir. Afrosiyobda bu davrga oid katta bir mahalla ochib o‘rganilgan.

Somoniylar davrida me’morchilik o‘z taraqqiyotida katta yutuqlarni qo‘lga kiritgan. O‘rta Osiyo me’morlari bu davrda shunday noyob binolar, san’at durdonalarini bunyod etganlarki, ular asrlar osha odamlarni hayratga solib kelmoqda.

Qoraxoniylar O‘rta Osiyoni bosib olgandan so‘ng bu yerdagi madaniy hayotda ham katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Shaharlar taraqqiy etdi, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlandi. Shaharlar rivojlanishi bilan shahar aholisi soni ham ko‘payib bordi. Somoniylar davridayoq yirik shaharlar bo‘lgan Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv, Qoraxoniylar davrida yanada kengaydi. Bu shaharlar endi uch qismli-ark, shahriston, rabotdan iborat edi. Ularda yangidan yangi hashamatli imoratlar paydo bo‘lib, bu imoratlar o‘z tuzilishi va naqshlari bilan ajralib turardi.

Qoraxoniy hukmdori Shams-ul-Mulk Buxoro yaqinida saroy barpo etdi va bundan tashqari Hazara qishlog‘i yaqinida Dingaron masjidini va uning yonida Barot-i-Malik nomi bilan mashhur bo‘lgan karvonsaroy qurdiradi. Buxoro shahrida 1127-yilda Qoraxoniy Arslonxon tomonidan mashhur imorat-Minorayi Kalon barpo etildi. Vobkentda XII asrning oxirida Buxoro sadri Abdulaziz II tomonidan qurilgan minorani, Jarqo‘rg‘onda (Surxondaryo viloyati) Qoraxoniylar tomonidan 1108-1109-yillarda barpo etgan minorani, shuningdek,

Buxorodagi Nomozgohni va Attoriy masjidini alohida ta’kidlab o‘tish mumkin.

Qoraxoniylar davrida Samarqand shahrida ham ko‘plab binolar barpo etildi. Afrosiyobdagi arxeologik qazilmalar shundan dalolat berib turibdi. Lekin mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng bu binolar vayronaga aylandi.

Termiz shahri XI-XII asrlarda ancha rivojlandi, yangi mustahkam mudofaa devori qurildi, bu yerda barpo etilgan Termiz hukmdorlari saroyi ayniqsa mashhurdir. Bu saroyni qazib ochgan arxeologlar turli idishlar bilan birga afsonaviy hayvonlar tasvirini ham topishdi. XI-XII asr boshlarida Xorazmda ham ko‘pgina binolar qad ko‘tardi, jumladan, Urganchdagi Faxriddin Roziy va Shayx Sharif maqbarasini, ko‘plab karvon saroylarni, Buronqal’a, Naifqal’a va boshqalarni aytib o‘tish mumkin.

Biz o‘rganayotgan davrda me’morchilikdan tashqari bir necha suv inshootlarini qurish va unda yo‘nilgan tosh, pishiq g‘isht, suvga chidamli qurilish qorishmalaridan-bandlar, novlar, ko‘priklar, sardobalar va korizlar qurilgan. Bu inshootlar mamlakatda fan va ishlab chiqarishni g‘oyatda rivojlanganligidan dalolat beradi. 1,5 mln. m.kub suvni to‘plash imkoniyatiga ega bo‘lgan Xonbandi nomli suv omborining qurilishi fikrimizning dalili bo‘lib xizmat qiladi. Manbalardan ma’lum bo‘lishicha, bunday suv inshootlarini qurish uchun suvning vertikal va gorizontal bosim kuchlarini hisoblab chiqish va tog‘da qurilganligi uchun tez-tez yerning qimirlab turish kuchlarini ham matematik yo‘llar bilan hisoblab chiqish lozim bo‘lgan va bu ish muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

Bu davr me’morchiligi bilan bir qatorda unga bog‘liq bo‘lgan naqqoshlik va tasviriy san’at ham jadal sur’atlar bilan rivojlandi. Imoratlarni o‘ymakor ustunlar va to‘sinlar, devorlarni esa bo‘yoqli, ganchkor naqshlar bilan bezash keng rasm bo‘la boshladi. Sekin-asta naqqoshlik san’atida ham ilgarigidek, odamlar va hayvonlarni tasvirlangandan ko‘ra murakkab geometrik va gulli naqshlarga o‘tila boshlandi.

Naqqoshlik san’ati qadimgi Termizda juda rivojlangan edi. Bu borada Hakim Termiziy maqbarasi davridan saqlanib qolgan o‘yma naqsh parcha ayniqsa qimmatlidir. Unda Samarqand usulini eslatuvchi sebarcha shaklidagi o‘ziga xos uslublar

mavjuddir. Bu davrda hattotlik san’ati kitoblarni ko‘chirishdagina emas, balki binolarni bezashda ham keng qo‘llanila boshlandi.

IX-XII asrlarda madaniy hayotning yana bir tarkibiy qismini tashkil etuvchi musiqa san’ati ham rivojlandi. Albatta, markazlashgan yirik davlatlarda iqtisod, xalqlarning turmush-tarzi yaxshilana borgani sari ilm-fan, me’morchilik, tasviriy san’at bilan birga musiqa ham rivojlana boshlaydi. Albatta, har yerdagidek bu yerda ham bayramlar, to‘ylar, xalq sayillari musiqa va qo‘shiqlarsiz o‘tmagan. Bu haqda Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘ati turk” asarida keltirilgan ma’lumotlar diqqatga sazovordir. Bu davrda quyidagi musiqa asboblari bo‘lgan: ud, tanbur, qubuz, rubob, nay, surnay, karnay, qushnay kabi g‘oyat xilma-xil torli, zaburli va puflab chalinadigan cholg‘u asboblaridan keng foydalanilgan. Bu davrda hatto yangi sozlar ixtiro etilgan. Masalan, Rudakiyning zamondoshi Abu Xifz Sug‘diy nayga monand shohrud nomli torli asbob yaratgan edi. Manbalarda Abu Bakr Rubobiy, Bunasr, Buamir, changchi Lo‘kariy kabi sozanda hamda hofizlarning nomlari saqlanib qolgan. Rudakiy rud va tanbur kabi sozlarni yaxshigina chaladigan sozanda va xushovoz hofiz bo‘lgan. Uning mashhur «Buyi jo‘yi Mo‘liyon» she’ri ushshoq kuyida aytilib, nihoyatda shuhrat qozongan. Ana shu davr kuylari, qo‘shiqlari xalqimizning klassik kuyi “Shoshmaqom” va boshqalar uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Bu davrda she’riyatni g‘oyatda taraqqiy etganligini qayd qilgan edik. She’riyat doimo musiqa bilan, o‘z navbatida musiqa musiqashunoslik fani bilan uzviy ravishda bog‘liq holda rivojlanadi. O‘sha davrning buyuk allomalaridan Al-Forobiy, Abu Ali ibn Sinolar musiqa va musiqashunoslikka katta e’tibor berdilar va o‘zlarining nodir asarlarini yaratdilar.

Biz ajdodlarimiz qoldirgan buyuk merosni IX-XII asrlarda mamlakatimiz hududida yuz bergan chuqur ijobiy o‘zgarishlar, ilm-fan, madaniyatni rivojlanishini o‘rganar ekanmiz, ularning yaratilishida o‘zlarining buyuk hissalarini qo‘shgan buyuk allomalar, olimu-fuzalolarining jahon sivilizatsiyasi rivojlanishiga qo‘shgan ulushlarini alohida ta’kidlaymiz. Jahon madaniyati rivojiga ularning o‘rinlarini aniqlab olishimiz va ko‘rsatishimiz vaqti keldi. Ularning hammasi mustaqil

O‘zbekistonda yosh avlodni milliy g‘oya, milliy mafkura, Vatanga muhabbat, sadoqat, g‘urur ruhida tarbiyalashda katta rol o‘ynaydi.

9-mavzu. Mo‘g‘ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash Jaloliddin Manguberdi

Mo‘g‘ul davlatining tashkil topishi. Chingizxon va Xorazmshoh munosabatlari

Mo‘g‘ullar haqida juda ko‘plab ma’lumotlar mavjud bo‘lib, ular menu (menva) nomi ostida Xitoyning Tan sulolasi (618-908) solnomasida ilk bora tilga olinadi. Mo‘g‘ul atamasi haligacha o‘zining ilmiy isbotiga ega emas. Ular Oltoy va Janubiy Sibirdagi turkiy qabilalarga yaqin va qondosh bo‘lganliklari ehtimoldan xoli emas. Bu xususda olimlar turli fikrlarni bildiradilar. Mo‘g‘ul etnogenezi ham murakkab masala bo‘lib, har holda elat sifatida ular XIII asrda yuzaga kelgan bo‘lishlari kerak. X-XI asrlarda esa asli Amur daryosi bo‘ylarida yashagan 16 ta urug‘-aymoqlarga bo‘lingan tatan (tatar)larning tarkibiy qismi sifatida ularning bir urug‘idan alohida, moxe (mo‘g‘ul) qabilasi vujudga kelgan deyiladi. Bu qabila tezda kuchayib, 1135-39 yillari Xitoyga qator yurishlarni amalga oshirishadi. Hatto Xitoy imperatorlari 1147 yili mo‘g‘ullar bilan ittifoq tuzishga ham majbur bo‘lishadi.

XII asr o‘rtalariga kelib Baykal ko‘li atrofi, hozirgi Mo‘g‘uliston hududlarida yashovchi turkiy va tungus-manjur qabilalarining ko‘pchiligi mo‘g‘ullar rahnomasi Yesugay bahodir ta’siriga o‘ta boshlaydilar. Lekin unga qarshi turgan tatar, markit qabilalarni bo‘ysundirish osonlik bilan kechmaydi. Yesugayni tatarlar ziyofat paytida xiyonatkorona o‘ldirishgandan so‘ng, uning o‘g‘li bo‘lmish Temuchinning ta’siri mo‘g‘ullar ichida ko‘tarila boshlaydi. Temuchin (1155-1227) (mo‘g‘ulcha, temir ustasi)-kuchli va tadbirkor, ayyor sarkarda bo‘lib, parokanda qabilalarni turli yo‘llar bilan o‘z qo‘li ostida mustahkam birlashtirgan shaxs edi. 1186 yilda u boshqa bir mo‘g‘ul sarkardasi Jamuxa yordamida o‘zining eski raqibi markitlarni bo‘ysundiradi. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra bu g‘alabadan so‘ng mo‘g‘ul no‘yon (harbiy boshliqlar)lari va navkarlari uni olqishlab, mo‘g‘ul hukmdori-xon deb e’lon qilishgan. XIII asr boshida esa yana bir boshqa kuchli qabila tatarlar ustidan ham g‘alaba qozoniladi. Temuchin 1203 yili kerayitlarning xoni O‘ngxonni mag‘lub etib, qo‘ng‘irot va naymanlar ustidan o‘z hukmronligini o‘rnatdi.

Mo‘g‘ullarni birlashtirish chog‘ida Temuchin kuchli harbiy tuzilmani tashkil etdi. Unga ko‘ra mo‘g‘ul qabilalari mingliklarga bo‘lingan bo‘lib, u butun bir boshli harbiy okrug vazifasiga to‘g‘ri kelar edi. Okruglar tepasiga sadoqatli kishilar qo‘yilar edi. Temuchin juda intizomli, sadoqatli va o‘ta jangovar harbiy tuzilmalarni yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Ularni boshqarishni esa avvalo, o‘z o‘g‘illari-Jo‘chi, Chig‘atoy, O‘gedey, Tuli, xotini Burte-fujen, safdoshlari Subutoy, Jebelarga topshirdi. O‘z hokimiyatini to‘liq mustahkamlab olgach Temuchin 1206 yili mo‘g‘ullarning umum qurultoyi (qurultoy halq xohishi degan ma’noni anglatgan)ni chaqiradi. Qurultoyda u oliy mo‘g‘ul hukmdori-xon deb tantanali e’lon qilinib, unga bosh shaman Teb-Tangriy “Chingizxon” degan faxriy nom beradi. Chingiz so‘zi tarixchi Rashididdinning yozishicha, kuchli, buyuk degan ma’noni anglatadi.

Qurultoyda odat bo‘yicha Chingizxon o‘z tug‘i-bayrog‘ini ko‘tardi, 10 ta lavozim joriy etib uni o‘z yaqinlariga taqdim etadi. Sahrodagi Qoraqurum shahrini markaziy poytaxt deb belgiladi. O‘z qo‘li ostidagi mansablarni esa 3 toifaga bo‘lib, ularga aniq vazifalarni bo‘lib berdi. Ularga Boorgu, Muxali, Nayaa ma’sul bo‘ldilar. U o‘z qo‘shinlarini ham isloh etdi. Butun Mo‘g‘uliston 95 ta harbiy-ma’muriy birlikka bo‘lindi. Yangi mo‘g‘ul davlati - Eke Mo‘ng‘ul ulus (buyuk mo‘g‘ul davlati) deb atala boshlandi. Qurultoydan avvalroq 1203-yildayoq hali bir tizimga ega bo‘lmagan qonunlar to‘plami vujudga kelib, u o‘z ichiga yorliqlar (buyruqlar), yasoq (qonunlar), bilik (nasihat)larni olgan edi. “Yasoq“ bizgacha to‘liq yetib kelmagan bo‘lib, u turli ko‘rinishlarda, manbalarda qayd etiladi. “Yasoq” o‘z ichiga quyidagilarni kiritgan: xalqaro, shaxsiy, savdo va sud huquqlari. Chingizxon tayin etgan davlat bosh hakami Shiki-Xutuxuga “Yasoq”qa qarab ish tutishni qat’iy belgilab bergan edi. “Yasoq” qonunlari mo‘g‘ullarning qadimiy urf-odatlari, an’analari, mavjud siyosiy tuzum mohiyatidan kelib chiqqan holda keskin va juda qattiq ohangda, patriarxal harbiy tuzumni o‘zida aks ettirgan ravishda tuzilgan edi. “Yasoq” qonunlarining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan bo‘lgan:

1. Hukmdor (xon) “Yasoq”qa qat’iy rioya etishi xususida qasamyod qilishi va unga amal qilish, amal qilmagudek bo‘lsa, xonni umrbod qamash mumkin bo‘ladi;
2. Chingizxon mo‘g‘ullar orasida diniy adovat kelib chiqmasligi uchun barchaga to‘la diniy erkinlik beradi. Ruhoniylar soliqdan ozod etiladi;
3. Ayollar naslni davom ettiruvchi bo‘lganliklari uchun ham, urush vaqtida ularning gunohlari kechirilishi lozim;

4. Jazolash darajasi sifatida o‘lim jazosini eng ko‘p miqdorda qo‘llash;
5. Bosib olinayotgan mamlakatlar xalqlariga butkul rahm-shafqat qilmaslik.

Chingizxon shaxsiy gvardiyasi sonini (keshiktan) 9000 kishigacha yetkazdi. Ular har 3 kunda navbatchilik qilar, ularning ishini shaxsan xon nazorat qilar edi. 1204-yili uyg‘ur alifbosi mo‘g‘ul yozuvi uchun qabul qilindi. Shuningdek, mustaqil davlat belgisi bo‘lgan muhr (tamg‘a) hamda taqvim qabul qilindi. Chingizxon 1209 yilda tang‘utlarni, 1211-yilda uyg‘urlarni, 1215-yilda esa shimoliy Xitoyni poytaxt Chjundu (Pekin) bilan birgalikda o‘ziga tobe qilib oldi. Xitoydagi Sin sulolasi tugatilib, juda katta o‘lja olindi. Xitoy yurishi vaqtida yuksak harbiy mahorat va urushning yangi usullari qo‘llanildi. Madaniy jihatdan ancha qoloq mo‘g‘ullar ko‘p jihatdan uyg‘ur va musulmon ahli tajribasidan keng foydalanishdi. Sharqiy uyg‘urlarning boshlig‘i Ediqut (Saodatbek) Chingizxonning do‘sti va maslahatchisi, sobiq naymanlar xoni Tayanxonning muhrdori uyg‘ur Tatatunga esa mo‘g‘ullarni savodga o‘rgatar edi. Musulmon savdogarlarini zehni, tadbirkorligiga Chingizxon doimo yuqori baho bergan edi. Shu bilan birga ulardan ko‘pincha ayg‘oqchilar sifatida ham foydalanar edi.

Xitoyni zabt etgan Chingizxon shu bilan kifoya etib qolmasligi aniq edi. Badavlat Movarounnahr savdo ahli, o‘lkamiz behisob boyliklari, yuqori madaniyatli ajdodlarimiz yaratgan ajoyib me’moriy binolar, qolaversa qadimiy yurtimizning fayz-u tarovati mo‘g‘ullarni anchadan beri o‘ziga jalb qilayotganligi ma’lum edi. Musulmon mamlakatlarining behisob boyliklari to‘g‘risidagi afsona-rivoyatlarni eshitib, tekin o‘lja va boyish istagida bo‘lgan mo‘g‘ul harbiy zodagonlari Chingizxon boshchiligida zimdan harbiy yurish qilish istagida turar edilar. Chingizxon davlati g‘arbda Qipchoq cho‘llari, qoraxitoylarning ko‘chmanchi G‘arbiy Lyao (Si Lyao) va xorazmshoh-anushteginiylar davlati bilan chegaradosh edi. Shubhasiz uning g‘arbdagi eng yirik va kuchli qo‘shnisi hamda raqibi buyuk Xorazmshoh-anushteginiylar davlati (1097-1231) edi.

Sulton Qutbiddin Muhammad Oloviddin Xorazmshoh (Muhammad Xorazmshoh) (1200-1220) davriga kelib mamlakatning hududlari behad kengaya boshladi. Sulton o‘z onasi bo‘lmish «Xudovandayi-jahon, dunyo va din saxovatpeshvosi Ulug‘ Turkon- - ikki dunyo ayollari malikasi (Ismat ad-dunyo va ad-din Ulug‘ Turkon)» unvonini unga pesh qilib olgan qipchoq xoni Jonkishining qizi Turkonxotun harbiy ko‘magi hamda qo‘llab-quvvatlashi natijasida o‘z hokimiyatini mustahkamlab olishga, zafarli yurishlar qilishga muvaffaq bo‘ldi. U 1203-yili G‘ur davlatini,

1204-yili Hirotni, 1207-yili Buxoroni qo‘lga kiritadi. Sulton Otsiz (1127-1156) davridan boshlab xorazmshohlar qoraxitoylarga o‘lpon to‘lab turar, aks holda ko‘chmanchilar mamlakatga bostirib kirib, uni xonavayron qilishlari turgan gap edi. Muhammad Xorazmshohning qoraxitoylar bilan birinchi janggi 1207 yili muvaffaqiyatsiz yakun topgan edi. Sulton 1209 yili navbatdagi o‘lpon yig‘ish uchun kelgan qoraxitoylar elchisi Tushi olib kelgan yorliqni namoyishkorona yirtib tashlab, uni o‘limga mahkum etadi. 1210 yili sentabr oyida Sirdaryo bo‘yidagi Ilamish dashtida qoraxitoylar bilan bo‘lgan hal qiluvchi jangda esa qoraxitoylar to‘liq mag‘lubiyatga uchrab, ularning lashkarboshchisi Tayangu o‘ldiriladi. Movaraunnahr butkul Xorazmshoh qo‘liga o‘tib, hamma joylarda sadoqatli kishilar hokim etib tayinlandilar. Qoraxoniylar xoni Usmonxon xorazmshohlar vassaliga aylanib, Sultonning qizi Xon-Sultonga uylanadi. Xorazmshoh – Anushteginiylar davlati Sharqning eng buyuk davlatiga aylanib, o‘z ichiga Movarounnahr, Xuroson, Mozandaron, Kirmon, Iroqi Ajam, Ozarbayjon, Seiston, G‘azna, Balx, Qandahor o‘lkalarini olgan edi.

Qoraxitoylar ustidan qozonilgan g‘alaba musulmonlarning «g‘ayridinlar» ustidan «buyuk g‘alabasi» deb ta’riflanib, sulton farmoniga ko‘ra musulmon olamining hamma o‘lkalariga bu xususda maxsus xitobnomalar tarqatildi. Mazkur g‘alabadan o‘ta ruhlangan Sulton Muhammad Xorazmshoh o‘ziga «Iskandari Soniy (ikkinchi Iskandar)» va saljuqiylarning buyuk sultoniga taqlid qilib «Sulton Sanjar» unvonlarini oladi. Davlat muhriga esa «zil Allohi fil ard» (Ollohning yerdagi soyasi) deb «kamtarona» yozdirishni buyuradi.

1212 yili xorazmlik noib Do‘stobaning zo‘ravonligiga qarshi Samarqandda qoraxoniylar xoni Usmonxon boshchiligida isyon ko‘tardilar. Isyonni qattiqqo‘llik bilan bostirgan xorazmshoh Muhammad Usmonxon va 10000 dan ziyod kishini qatl ettirib, O‘zgangacha bo‘lgan hududda yashayotgan barcha qoraxoniylarni qirg‘in-barot qildiradi.

1215 yili Dashti qipchoq yurishida Xorazmshoh mo‘g‘ullarning Jo‘chi boshchiligidagi harbiy qo‘shiniga duch keladi. Mo‘g‘ullar bu yerlarda Chingizxonning buyrug‘iga ko‘ra markit qabilalariga zarba berish uchun yurish qilgan edilar. O‘zaro to‘qnashuvdan so‘ng mo‘g‘ullar Chingizxondan Xorazmshohlar davlatiga nisbatan yurish qilish xususida hech qanday ko‘rsatma olmaganliklari uchun orqaga chekindilar. Jurjoniyning yozishicha, sultonni har vaqt undan Sharqda joylashgan davlatlar qiziqtirar va uning Xitoy tomoniga harbiy yurish qilish niyati ham bo‘lganligi aniq edi. Lekin Xitoy Chingizxon tomonidan o‘sha yili olinganligini eshitgan sulton bu holni tasdiqlatish va qolaversa

Chingizxon davlati xususida aniq ma’lumot olib kelish maqsadida sayidlar avlodidan bo‘lmish taniqli zot Bahovuddin Roziyni o‘z elchisi sifatida xon huzuriga jo‘natadi.

Bahovuddin Roziy boshchiligidagi elchilik guruhini Chingizxon Pekinda qabul qilib, ularga ijobiy munosabatda bo‘ladi. Xorazm davlati elchilariga Chingizxon o‘zaro ikki davlat o‘rtasida tinchlik va do‘stlik hukmdorlik qilishi lozimligini uqtirib, o‘zini “Sharq hukmdori”, Xorazmshoh Muhammadni “G‘arb yerlarning egasi” deb ta’kidlaydi. Xitoy yerlariga endilikda yurish qilish nojoiz ekanligini anglagan Xorazmshoh o‘z diqqat-e’tiborini yana janub hamda g‘arb yerlariga qaratadi.

1217-yili Bag‘dod xalifasi an-Nosir (1180-1225) sultonning Bag‘dodni unga topshirishi va uning nomini xutbaga qo‘shib o‘qishini qat’iy rad etgach, Muhammad Xorazmshoh 100 000 kishilik qo‘shin bilan abbosiylar xalifaligiga yurishni boshlab yuboradi. Xorazmshohlar tangalari va xutbalardan xalifa nomi chiqarib tashlanadi. Sulton farmoniga ko‘ra, termizlik shayx Olamulk at-Termiziy xalifa etib tayinlanadi. Sultonning yuqoridagi hatti-harakatlari ko‘pchilik ulamolar, din peshvolari tomonidan ma’qullanmaydi. Ular sultonga barcha musulmonlar diniy rahnamo xalifa ustiga yurish qilish, islom dunyosida xorazmshohga nisbatan salbiy munosabat keltirib chiqarishini tushuntirmoqchi bo‘ladilar. Ulamolar noroziligini hisobga olmagan Sulton ularning ko‘pchiligini jazoga tortadi, hatto taniqli shayx Majididdin Bag‘dodiyni qatl ettiradi. Bu hol diniy ulamolar, ruhoniylar, darveshlik guruhlari oldida sulton obro‘ e’tiborining pasayishiga va unga qarshi muxolif kuchlar safining kengayishiga olib keladi. Bag‘dod yurishi tabiiy ofatlar tufayli muvaffaqiyatsiz yakun topadi.

Abbosiylar xalifaligiga muvaffaqiyatsiz yurishdan so‘ng, 1218 yili Muhammad Xorazmshoh o‘zining yangi poytaxti deb e’lon qilgan Samarqand shahriga kirib keldi va xutba, tangalardan esa xalifa nomini chiqarib tashlash xususida farmon berdi. O‘sha yili Muhammad Xorazmshoh Chingizxon huzuriga yana o‘z elchilarini yuboradi. Bunga javoban Chingizxon kechiktirmasdan qimmatbaho sovg‘alar va mollar ortilgan katta karvon bilan o‘z elchilarini xorazmshohlar sultoni huzuriga yuboradi. Sultonga mo‘ljallangan qimmatbaho sovg‘alar ichida Chingizxon o‘lja olgan tuya o‘rkachidek keluvchi oltin bo‘lagi ham bor edi. Elchilarga xorazmlik taniqli savdogar Mahmud Yalavoch (Mahmud al-Aromiy) rahbar etib tayinlanib, yana 2 ta odam, buxorolik savdogar Alixo‘ja va o‘trorlik Yusuf qanqalar elchilik rutbasiga ega edilar.

Sulton Muhammad bu elchilarni 1218-yil bahorida Buxoro shahrida qabul qiladi. Elchilar Chingizxon sultonning zafarli yurishlaridan xabardor ekanliklari, uni qudratli podshoh sifatida tan olib "o‘zining eng ardoqli o‘g‘illari qatorida" ko‘rishini bayon etishadi. Chingizxon o‘z nomasida kuch-qudrati zafarini ko‘rsatish ma’nosida Xitoy va qo‘shni mamlakatlarni qanday kuch bilan egallaganligini ham aytib o‘tadi. Elchilar nomasi shubhasiz sultonga ma’qul bo‘lmaydi. Ayniqsa, mo‘g‘ul davlatining xonini, uni o‘zining "o‘g‘li" qatorida ko‘rish, bu sharq ustamonligida qaram qilish yoki o‘z homiyligini olish degan ma’noni anglatishni sulton yaxshi tushunadi. Elchilarga sulton javobi ma’lum emas, lekin o‘sha tunda u o‘z yoniga Mahmud Yalavochni chorlab bor haqiqatni bayon etishni, uning xizmatiga o‘tib, maxfiy josus bo‘lib xizmat qilishni buyuradi. O‘z hayotidan xavfsiragan Mahmud Yalavoch, muarrix an-Nasaviyning yozishicha, "sulton eshitishni xohlagan" ma’lumotni aytib, sulton taklifiga ko‘nadi. Xorazmshoh unga qimmatbaho javohir sovg‘a qilib, Chingizxon bilan shartnoma tuzishga rozi ekanligini bildiradi.

Chingizxon Mahmud Yalavoch guruhi xizmatidan, to‘plangan ma’lumotlardan mamnun bo‘ladi. Zero Yalavoch soxta "josus" rolini o‘ynab, bor haqiqatni Chingizxonga yetkazgan edi. O‘sha yiliyoq, ya’ni 1218-yili, Chingizxon sulton Muhammadga o‘z minnatdorchiligini izhor etish va o‘zaro shartnoma tuzish maqsadida katta savdo va elchilar karvonini jo‘natadi. Ulkan savdo karvoni 450 ta musulmon savdogari va 500 ta tuyaga ortilgan qimmatbaho mollardan iborat edi. O‘z davlati qudratini namoyon etish niyatida Chingizxon Tang‘ut va boshqa davlatlardan o‘lja olingan, janubiy Sibir va Xitoydan talab keltirilgan ajoyib, sara mollar bilan xurjunlarni to‘ldirgan edi. Karvon bilan, shuningdek, Chingizxon elchisi, mo‘g‘ullardan bo‘lgan Uxuna ham bo‘lib, u Xorazmshohga Chingizxon nomasini olib kelayotgan edi. Noma jahon fotihligiga da’vo qilayotgan Chingizxon nomidan buyruqnamo ohangda yozilgan edi. Unda jumladan, "... biz bundan buyon davlatlar o‘rtasida tinchlik o‘rnatilishini buyuramiz..." deyilgan edi. Noma Chingizxon ochiq-oydin jahon egasi bo‘lishga ishtiyoqi baland ekanligidan dalolat berar edi.

Ushbu karvonda asli movarounnahrlik bo‘lmish Umarxo‘ja O‘troriy, hammol Merokiy, Fahruddin Dizaqiy Buxoriy, Aminuddin Haraviy singari savdogarlar karvon sarbonlari hamda o‘rda elchilari edilar. Karvon Urganch tomon yo‘l olgan edi. Lekin xorazmshohlarning chegara viloyati O‘tror yerlariga kirib kelishi bilanoq bu karvon ushlab qolindi. O‘tror

hokimi Inalxon (Inolchiq, uning forsiy taxallusi G‘oyirxon edi) Turkon xotunning yaqin qarindoshi, Xorazmshohga yaqin shaxs bo‘lgan. Inalxon, arab tarixchisi ibn al-Asir, an-Nasaviylarning yozishicha, Xorazmshoh ijozati bilan bu karvonlarni talashga buyruq berib, karvon a’zolarini josuslikda ayblaydi va ularni qirib tashlaydi. Talab olingan mollar Samarqand va Buxoro savdogarlari o‘rtasida taqsimlanib, Xorazmshoh ushbu savdo mollari pulini o‘ziga oladi. Ba’zi tarixiy manbalarda esa, Inalxon garchi karvonni to‘xtatish buyrug‘ini olgan bo‘lsa ham, o‘z holicha uni qirib tashlagan deb ham aytiladi. Nima bo‘lganda ham, Xorazmshohlar qo‘pol siyosiy xatoga yo‘l qo‘yib, elchilarni qirg‘in-barot qildiradilar. O‘tror fojeasidan so‘ng Chingizxon Ibn Kafrojiy Bug‘roni ikki mulozim bilan Xorazmshoh huzuriga elchi etib jo‘natdi. As-Subqiyning yozishicha, Chingizxon O‘tror fojeasining aybdori Inalxonni tutib mo‘g‘ullar qo‘liga topshirishini, elchilar o‘limining sabablarini keskin tarzda so‘raydi. Mo‘g‘ullar bilan munosabatlarni keskinlashtirmaslik uchun O‘tror hokimini Chingizxon qo‘liga topshirish kerak degan taklifni ko‘targan Jaloliddinning fikrini sulton rad etadi. Sulton buyrug‘i bilan elchi bo‘lmish Ibn Kafroj Bug‘ro o‘ldirilib, ikki mulozimning soqol-mo‘ylovlari sharmandali tarzda qirib tashlanadi. Xorazmshoh mo‘g‘ullar bilan ertami-kechmi, urush bo‘lishini yaxshi anglagan edi. Qolaversa, mamlakatda mo‘g‘ullar bostirib kirishi xususida turli mish-mishlar ham avj olgan edi. Nima bo‘lganda sulton ham Chingizxonga shu yo‘sinda dag‘dag‘ali javob berishga qaror qildi. Tarixchi Rashiddin o‘zining «Jome at-Tavorix» asarida yozishicha Xorazmshohning ushbu dag‘dag‘asi va qilmishi «Chingizxonning yuragiga shunday ta’sir qildi-ki, unda ortiq chidam va toqat qolmadi. Nafrat o‘ti bilan yonib u bir o‘zi tepalikka ko‘tarildi, bo‘yniga belbog‘ini tashlab, bosh yalang yerga yotib ibodat qildi. Uch kungacha yig‘lab xudoga nola qilib yordam so‘radi…»

Chingizxon islom olamining dushmani bo‘lib qolmaslik uchun shunday yo‘l tutdi-ki, urush boshlanishiga rasman Xorazmshoh sababchi bo‘lib qoldi. O‘zini esa “Olijanob xaloskor” deb hisobladi. Aslida esa urush bo‘lishini u har jihatdan xohlar edi. Albatta Xorazmshoh ham katta xatoga yo‘l qo‘ygan edi, lekin urushning sababchisi va boshlovchisi u emas edi.

Mo‘g‘ullar Xorazmshoh ustiga harbiy yurish qilishdan avval, xonning buyrug‘iga ko‘ra harbiy sarkarda Jebe Yettisuv va Qashg‘ar ustiga 1218 yil harbiy yurishlar qilib, Kuchluk davlatini tor-mor keltirdi. Musulmonlarni doimo ta’qib etib kelgan Kuchlukka qarshi bosh ko‘targan

Sharqiy Turkiston islom ahli Jebeni naymanlar zulmidan ozod etuvchi «xaloskor» deb qabul qildi. Zero, Jebe musulmonlar uchun din erkinligi kafolatlanishini e'lon qilib, mo'g'ullar hukmronligini mustahkamlagan edi. Shunday qilib mo'g'ullar O'rta Osiyoga harbiy yurish qilishdan avval zahira kuchlarini mustahkamlab Talas vodiysigacha bo'lgan yerlarni o'z imperiyalari tarkibiga qo'shib oldilar. Shunday qilib ular bevosita Xorazmshohlar bilan chegaradosh bo'lib qoldilar.

XIII asr boshlaridan Xorazmshoh Anushteginiylar davlati yuqorida ta'kidlanganidek, o'z hududining kengligi, saltanat egasining nufuzi, xalqning salohiyatligi, madaniyatliligi, xo'jalik hayotining yuqori saviyaligi bilan musulmon olamida buyuk davlat sanalar edi. O'zining ko'proq qang'li-qipchoq hamda turkmanlardan iborat muntazam qo'shiniga ega edi. (Ma'lumotlarga ko'ra umumiy qo'shinning soni 400.000 ga qadar yetib, bu mo'g'ullar qo'shiniga nisbatan 2 barobar ortiq edi.) Davlat musulmon olamida qabul qilingan qonun chiqaruvchi-dargoh hamda ijroiya-devonlar tizimida boshqarilar, davlat boshlig'i sulton hokimiyatining huquqlari hech bir qonun-qoida bilan chegaralanmagan edi. Saltanatni hokimlar, noiblar, vazirlar, lashkar boshliqlaridan iborat kuchli harbiy aslzoda guruhlar, mustavfiy (daftardor hisobchilar), qozilar, sadrlar va boshqa ko'plab saroy mansablaridan iborat ulkan arkoni davlat doirasi qurshab turar edi.

Hokimlar ko'p holda o'z bilganicha ish tutishar, soliqlar to'plashning ham aniq tizimi yo'q edi. Hashar yo'li bilan biron-bir yo'l, ko'prik, qal'a va boshqa inshootlarni qurish (suhra giriftan) keng tarqalgan edi. Davlat ahvoli tang bo'lganda ko'p holda iqtodorlarga ishonch qolmas edi. Ayrim viloyat hokimlari shaxsan Turkon xotunga bo'ysunib, o'z bilganlaricha ish tutar edilar. Sulton Muhammadning volidasi Turkon xotunning qo'shin oliy sarkardalari bo'lmish qipchoq sarkardalari bilan aloqasi mustahkam, o'zi shu qabilaga mansub bo'lganligi uchun ularni hamisha qo'llab-quvvatlab turar edi. Sarkardalar, qo'shin boshliqlari, vazirlar, hokimlar ko'p holda uning ijozati va ko'rsatmasi ila tayin etilar, ular ham o'z navbatida, Turkon xotunga avvalo bo'ysunar edilar. Turkon xotun boshqa turkiy qabiladan bo'lmish kelini Oychechak va uning o'g'li, nabirasi Jaloliddinni yoqtirmas, bu ikki ayol o'rtasida davlatda ichki siyosiy ixtilof kuchli edi. Xorazmshoh "farzandlik mehri va hokimiyatga olib kelgan shaxs" sifatida onasini so'zini ikki qilmas, hamisha uning fikrlariga xohlasa-xohlamasa qo'shilar edi. Xorazmshohning onasi Turkon xotun aslida davlatdagi birinchi darajali shaxs hisoblanar, uning shiori «e'tasamtu Billohi Vahda» (ya'ni, yolg'iz Ollohdan panoh so'rayman)

muhriga yozilgan bo‘lib, hukmdor farmoniga shu muhri bilan u birinchi imzo qo‘ysa, uning farmoni vojib hisoblanar edi. Turkon xotun amri bilan taxt vorisi etib o‘z qavmidan bo‘lgan nevarasi O‘zloqshoh tayin etilgan edi.

Muhammad Xorazmshoh o‘zining yon-atrofdagi (G‘ur, Xuroson, Movarounnahr, Mozandaron, Ozarbayjon va boshqalar) uncha kuchli bo‘lmagan yerlarni tezlik bilan o‘z qo‘l ostida birlashtirib, o‘z g‘alabalariga juda berilib ketgan edi. Qoraxitoylar ustidan qozonilgan g‘alabadan (1210) so‘ng esa u o‘zini mutloq yengilmas (“Iskandari Soniy”, “Sulton Sanjar”, “Ollohning yerdagi soyasi” va boshqa unvonlarga ega) deb hisoblab, islom olamiga egaligini ham da’vo qila boshladi. Uning armiyasi soni garchi son jihatdan ko‘pchilikni tashkil etsada, bu qo‘shin harbiy intizomi uncha mustahkam bo‘lmagan, salohiyati ancha past, ko‘proq janubliklardan olingan yollanma qo‘shin edi. O‘z navbatida bu qo‘shin vatan mudofaasi uchun emas, balki ko‘proq istilo, talon-taroj, o‘lja olish uchun mo‘ljallangan qo‘shin edi. Haqiqatda Xorazmshoh kuchli, o‘ziga munosib keluvchi raqib bilan kurash olib borgani yo‘q hisobi, bu esa yuqorida qayd etilganidek, o‘z harbiy mahoratiga ulkan ahamiyat berishiga olib kelgan edi.

Joylarda noib va hokimlik lavozimidagi Xorazmdan bo‘lmish amaldorlar oddiy xalqqa nisbatan ko‘pincha zo‘ravonlik, tayziq ila munosabatda bo‘lar, bu esa Xorazmshohlar davlatiga nisbatan aholining noroziligiga sabab bo‘lar edi. Soliqlar miqdori bir me’yorda turmas, mehnatkash ommaning ahvoli ancha og‘ir edi. Masalan, 1219-yili Xorazmshoh xiroj solig‘ini bir yo‘la uch marotabagacha undirib olishga buyruq bergan edi. 1206, 1212-yillarda Buxoro va Samarqanddagi xalq g‘alayonlar zo‘ravonlik va soliqlar oshib ketishiga qarshi qaratilgan edi. Soliqlar va zo‘ravonlikdan ezilgan xalqning Sulton Muhammadga e’tiqodi va ishonchi mo‘g‘ullar bosqini arafasida susayib ketdi. Shuningdek, sultonning Bag‘dod xalifaligiga yurishi va o‘z holicha termizlik sayidlardan bo‘lmish Shayx Olamulk Termiziyning xalifa deb e’lon qilinishi Movarounnahr ulamolari ichida haqli norozilikka sabab bo‘ldi. Taniqli movarounnahrlik din arbobi Shayx Majididdin Bag‘dodiyning ta’qib etilishi esa sulton bilan ruhoniylar orasida munosabatlarni mutloq keskinlashtirib yubordi.

Chingizxon o‘zining yaxshi tizimga asoslangan ayg‘oqchilar tarmog‘i orqali Xorazmshohlar davlatidagi ushbu ahvoldan boxabar edi. Shuningdek, u ushbu qadimiy madaniyat va yuqori salohiyatga ega Movarounnahr ahlini osonlikcha bo‘ysundirib bo‘lmasligini ham yaxshi

bilib, bo‘lajak mahorabaga jiddiy tayyorgarlik ko‘rdi. O‘tror voqeasidan avvalroq Chingizxon qo‘shinlarining Yettisuvga qilgan harbiy yurishlari sulton Muhammadni tashvishga solib qo‘ygan edi. Garchi Xorazmshoh katta qo‘shinga ega bo‘lsa-da, o‘zaro ixtiloflar, sarkardalarga ishonchsizlik, o‘z hokimiyatidan xavfsirash Xorazmshoh qo‘shinining zayiflashuvi, intizomning pasayishiga olib kelgan edi. Muhammad Xorazmshoh mo‘g‘ullarga zarba berish xususida Urganchda harbiy kengash chaqiradi. Unda ko‘zga ko‘ringan davlat arboblari, aslzodalar, harbiy sarkardalar ishtirok etadilar.

Asli xivalik mashhur fikhshunos hamda davlat arbobi Shahobiddin al-Xivaqiy bor qo‘shinni Sirdaryo bo‘yiga to‘plab, uzoq yo‘l bosib kelayotgan mo‘g‘ul qo‘shiniga chegara bo‘yidayoq hal qiluvchi zarba berish to‘g‘risida yagona va harbiy jihatdan haq fikrni bildirdi. Shahzoda Jaloliddin ham aslida shu fikrga qo‘shilgan edi. Lekin Xorazmshoh o‘z sarkardalariga, ayniqsa qipchoq harbiylariga ishonchsizlik bilan qarar, katta qo‘shinni bir joyga to‘plashdan, qo‘shin yig‘ilganda esa o‘zini taxtdan ag‘darib tashlashlari mumkin ekanligidan cho‘chir edi. Shuning uchun sulton va uning onasi tazyiqi bilan Kengash mudofaa usuliga o‘tishni ma’qul deb topdi. Jami 450 taga yaqin shahar (qal’a) va viloyatlardan iborat bo‘lmish davlatda qo‘shin katta jangga kirib vatan sharafini himoya qilish o‘rniga shahar va qal’alarga bo‘lib tashlandi. Ba’zi markaziy shaharlar, jumladan Buxoro va Samarqand mudofaasini mustahkamlash zarur degan fikrga kelindi, xolos. Ammo bu mudofaa ham yaxshi tashkil etilmadi.

Chingizxon 1219-yili o‘z o‘g‘illari boshliq 200 mingga yaqin asosiy harbiy kuchlari bilan anchadan beri puxta tayyorlangan Xorazmshoh-Anushteginiylar davlati ustiga harbiy yurishni boshladi. Bu kuchlar yozni Irtish daryosi bo‘yida o‘tkazib, sentabr oyida chegaradan o‘tadi. Chingizxonga uyg‘ur ediquti (xoni) Baurchak, qarluqlar xoni Arslonxon va Olmaliq hukmdori Sig‘noqteginlar ham o‘z qo‘shini bilan kelib qo‘shildilar. Chegaradan o‘tgan Chingizxon o‘z qo‘shini bilan janubiy qozoq cho‘llarining Sirdaryoga tutashgan joyidagi O‘tror shahri yaqinida to‘plab uni 4 qismga bo‘ladi.

Chig‘atoy va O‘qtoy qo‘shinning bir qismi bilan O‘trorni qamal etib, egallash uchun qoldirildi. Ikkinchi qism esa Jo‘chi boshchiligida Sirdaryoning yuqori oqimidagi Jand, Yangikent, Borchig‘lig‘kent, Sig‘noq shaharlarni bosib olish uchun yuborildi. Uchinchi qismidagi besh ming chog‘li qo‘shinga Uloq no‘yon va Suketu Cherbi bosh bo‘lib O‘trordan janubga, Xo‘jand va Banokatni egallash vazifasi topshirildi.

Chingizxon o‘zi bosh bo‘lgan to‘rtinchi, asosiy qism (uning tarkibida taniqli sarkardalar Jebe va Subutoy ham bor edi) Zarafshon vohasi tomon-Buxoro hamda Samarqandni istilo etish uchun yo‘l oldi.

Chegaradagi O‘tror mustahkam shahar qal’a bo‘lib, mo‘g‘ullarga olti oy davomida mardonavor qarshilik ko‘rsatgan edi. O‘tror hokimi Inalxon (G‘oyirxon) qo‘lida 20.000 chog‘li suvoriy bo‘lib, Xorazmshoh unga yordam tariqasida 50.000 kishilik “lashkari birun”ni ham yuborgan edi.

Qamal davomida qo‘shimcha tarzda yana Qoracha Hojib boshchiligidagi 10.000 kishilik qo‘shin ham yuborilgan edi. O‘tror hokimi jasur va mard sarkarda Inalxon unga mahorat bilan boshchilik qilar edi. Ammo ayrim zotlarning xiyonatkorligi tufayli besh oylik qamaldan so‘ng Inalxon deyarli bir oy davomida o‘z qo‘shini bilan shahar qal’asida qarshilikni davom ettiradi. Oxir-oqibatda Inalxon deyarli bir o‘zi qolib, qal’a tomiga chiqib, qo‘liga tushgan narsasi bilan mo‘g‘ullarga hujum qilgan. Mard sarkardani mo‘g‘ullar tiriklayin qo‘lga tushirib, Samarqandga Chingizxon huzuriga yuborganlar. Chingizxon esa manbalarning yozishiga ko‘ra, “kumushni eritib o‘z huzurida sarkardaning quloq va ko‘ziga quyishni buyurgan”. Inalxon shu tariqa vahshiyona ravishda o‘ldirilgan. O‘tror shahri o‘z jasorati evaziga mo‘g‘ullar tomonidan butkul buzib tashlandi. Buxoro yo‘nalishida ketayotgan Chingizxonga esa Zarnuq (Zerinuh) va Nur qal’alari jangsiz taslim bo‘ladilar.

Chingizxon 1220-yilning fevral oyi boshlarida (ba’zi adabiyotlarda 7 fevralda deyiladi) Sharqning qadimiy go‘zal shahri, Sharqdagi islom dini gumbazi, “butun musulmon shaharlari onasi” nomini olgan “Islomiy ilmlar markazi” Buxoro yaqinida paydo bo‘ldi. Uch kunlik shahar qamali boshlandi. Buxoroda bu paytda 12.000 lik shahar garnizoni va 20.000 kishilik “lashkari birun” mavjud edi. Lashkarlarga nufuzli sarkardalar Ixtiyoriddin Qo‘shlu, Inanchxon Og‘ulhojib, Hamid Pura Qoraxitoy, Suyunchxon, mo‘g‘ullardan qochib o‘tgan uyg‘ur sarkardasi Ko‘kxon (Go‘rxon) bosh edilar.

Sarkardalardan Inanchxon bazo‘r Amudaryodan o‘tib qutulishga muvaffaq bo‘ladi, Hamid Pura Qoraxitoy mardonavor jangda halok bo‘ladi, qolgan-qutgan harbiylar Buxoroga qaytib chekinishga majbur bo‘ladilar. Ahli Buxoro o‘z himoyachilaridan ayrilgandan so‘ng, shahar ahli jonini salomat saqlab qolish niyatida shaharliklar maslahatlashib, Buxoro qozisi Badriddin qozi boshchiligidagi bir guruh oqsoqollarni Chingizxon huzuriga yuboradilar. 10 fevral kuni Buxoroga mo‘g‘ullar kirib keladilar. Buxoroga kirib kelgan Chingizxonning hatti-harakatlari

xususida Rashididdin shunday deb yozgan edi: «Chingizxon otda masjidi jome oldiga kelib to‘xtadi va shaharning kazo-kazolarini o‘z huzuriga chaqirtirdi. Mo‘g‘ullar shahar omborxonalarini ochib, g‘allalarni tashib oldilar. Qur’on nusxalari saqlanadigan sandiqlarni otlarga oxur qildilar, masjidlarga meshlarda sharob keltirib joylab qo‘ydilar, shahar hofizlari va o‘yinchilarini chorlab, raqsga tushirdilar. Mo‘g‘ullar dol-guliga keltirib o‘z ashulalarini aytar edilar. Oqsuyaklar, ulamolar va shayxlar otboqarlar o‘rnida otlarni qo‘riqlash uchun otxonalarda turar va o‘sha qabila kelishlarini, amr-farmonlarini bajo keltirish balan mashg‘ul edilar.» Buxoro talon-taroj xususida muarrix ibn Attor shunday yozgan edi: «Ul kun haqiqatda dahshatli kun bo‘ldi. Bori manguga ketgan erlarining, xotinlarning, bolalarning tovushlarigina eshitilib turdi. Vahshiylar xotinlarni. qizlarni ham o‘zlarining birodarlari ko‘z oldida tahqirladilar. Bu taxqirlarga ularda ko‘z yoshlaridan o‘zga qurol topilmadi. Ko‘plar dahshatli manzaralardan ko‘ra o‘limni ortiq ko‘rdilar. Qozi Badriddin, Imom Rukniddin va uning o‘g‘li bu nomussizlik manzaralariga chiday olmay, g‘azablanib, o‘zlari teng bo‘lmagan dushmanga hujum qilib, halokat topdilar.»

Aksariyat shaharliklar o‘z qarshiliklarini davom ettirdilar, tunda esa yashirincha askarlarga yordam berib, mo‘g‘ul askarlariga qarshi hujumlar uyushtirdilar. Chingizxon bunga javoban shaharni yoqib yuborishga buyruq berdi. Ko‘kxon boshchiligidagi 400 ta mudofaachilar Buxoro arkida yana 12 kun qattiq qarshilik ko‘rsatdilar. Arkni egallash uchun qilingan mo‘g‘ullar hatti-harakatlari zoe ketdi. Qal’adagi chuqurliklar odam va hayvon o‘liklari bilan to‘lib ketdi. Ko‘kxon va u boshchiligidagi mudofaachilar qahramonona halok bo‘lganlaridan so‘nggina ark egallandi. Buxoroliklar qarshiligi mo‘g‘ullarni qattiq g‘azablantirdi. Bu jasorat evaziga mo‘g‘ullar shahar ahlidan 30000 chog‘li kishini qirib tashladilar. Kelib chiqishidan qat’iy nazar qolgan aholi qullikka mahkum etildi. Ma’rifatli, nozik ta’b, madaniyatli va ilmli Buxoro ahli sahroilar tomonidan zulm va tahqirlanish girdobiga tortildi.

Buxorodan so‘ng Chingizxon Samarqand tomon yo‘l oldi. 1220 yil mart oyi boshida u Samarqandga yetib kelib, yon-atrofdagi qishloqlarni yer bilan yakson qildi. Chingizxon Samarqandni egallashga alohida ahamiyat berdi. Samarqandning Movarounnahr uchun, Xorazmshohlar uchun ahamiyati beqiyos ekanligini Chingizxon yaxshi bilar edi. Shuning uchun uni egallashga katta e’tibor bilan qaradi. Shaharda 110.000 kishilik harbiy garnizon (undan 60.000 tasi turkiy, 50.000 tojiklar edi.), 20 ta harb ilmiga o‘rgatilgan fil ham mavjud edi. Sulton Muhammadning tog‘asi

To‘g‘ayxon shahar noibi bo‘lib, shahar mudofaaga birmuncha tayyor ham edi.

Shahar oziq-ovqat zahirasi, mudofaa istehkomlarining puxtaligi jihatidan bir necha yillik qamalga ham chidash mumkin edi. O‘z qarorgohini mo‘g‘ullar bosqini boshlanishi bilanoq sarosimada Balxga ko‘chirgan Sulton Muhammad ham Samarqand mudofaasiga umid ko‘zi bilan boqar edi.

Chingizxonning o‘zi shahar tashqarisidagi Ko‘ksaroy qo‘rg‘onidan turib shahar qamaliga boshchilik qildi. 1220-yilning mart oyining boshlarida shahar qattiq qamal qilinib, to‘xtovsiz hujum boshlandi. Qamalning 3-kunidan boshlab shahar qamaliga Chingizxonning shaxsan o‘zi boshchilik qila boshlaydi. Qamalning beshinchi kuni ulamo, zodagon, shahar harbiy boshliqlari keyingi qarshilik maqsadga muvofiq emas va ommaviy qirg‘in bo‘lishini oldini olish kerak, degan maqsadda mo‘g‘ullarga taslim bo‘lishga qaror qiladilar. Shahar qozisi va shayxulislom boshchiligida Chingizxon huzuriga Samarqand ahli nomidan elchilar tashrif buyuradilar. Mo‘g‘ullar Samarqand bosh suv inshooti – «Jo‘yi arziz – «Qo‘rg‘oshli novasi» ni buzib tashlab, shaharni tashnalik girdobiga giriftor qildilar. Shahar istehkomi buzib tashlandi. 20 000 chog‘li shahar mudofaachilari suv toshqini bois taslim bo‘lishga majbur bo‘ldilar. Taxminan 1000 nafarli mudofaachilar esa, sulton tomonidan 1211-1214 yillarda qurilgan Jome – masjidiga kirib, dushmanga zarba bera boshladilar. Mo‘g‘ullar masjidiga o‘t qo‘yib, mudofaachilarni tirik o‘limga mahkum etdilar. Shahar qozisi va shayxulislom vakolati bilan tashqariga olib chiqib ketilgan 50000 nafar kishidan boshqa barcha aholi qatlamlari behad talon-taroj qilindi. 30000 nafar hunarmand ahli Chingizxon qarindosh-urug‘lariga taqsim qilib berildi. Tirik qolgan shahar ahliga 200000 dinor o‘lpon majburiyati yuklatildi. Samarqandda jami aholining faqat j qismigina tirik qoldi. Mo‘g‘ullar tomoniga xiyonatkorona o‘tib ketgan sobiq shahar noibi To‘g‘ayxon tez orada o‘zining 30000 kishisi bilan Chingizxon buyrug‘iga ko‘ra qirib tashlandi.

Taslim bo‘lgan shaharda mo‘g‘ullar qilgan talon-tarojliklar tufayli “sayqali ro‘yi zamin ast” deb ulug‘langan, sharqning buyuk shaharlaridan biri hisoblangan, bir paytlar gullab-yashnab turgan Movarounnahr poytaxti huvillab qoladi va yer bilan yakson qilinadi.

Hukmdorning subutsiz va ma’suliyatsizligi, harbiy boshliqlarning o‘zaro ittifoq bo‘lmaganligi xalq, mamlakat taqdirini o‘z holiga tashlab qo‘yishi oqibatida bu dahshatli voqea sodir bo‘lgan edi. Bu vaqtda Sulton

Muhammad Xorazmshoh janubda, Balxdagi o‘z qarorgohida turib, voqelikni befarq kuzatuvchi sifatida harakatsiz turar edi. Mo‘g‘ullar kirib kelayotgan vaqtdayoq unga Iroqqa qarab chekinishni ba’zi amaldorlar maslahat berishgan edi. Ko‘pgina sargardonliklardan so‘ng sulton Kaspiy dengizining janubidagi Ashuradi oroliga borib o‘rnashadi. Ham jismoniy, ham ruhiy, ma’naviy ezilgan sobiq hukmdor bu yerda plevrit (o‘pka qobig‘iga suv yig‘ilishi) kasaliga chalinib, o‘z o‘g‘illarini yoniga chorlaydi. O‘z gunohlariga iqror bo‘lgan holda ushbu orolda xorlik va azob-uqubat bilan 1220-yilning dekabr oyida vafot etadi. Oradan birmuncha vaqt o‘tgandan so‘ng Jaloliddin otasining murdasini tog‘liq Ardahi qal’asiga olib borib dafn etadi. Ardahi mo‘g‘ullar tomonidan zabt etilgandan so‘ng, o‘z vaqtida sultonni tiriklayin qo‘lga tushira olmagan alamzada mo‘g‘ullar uning murdasini kavlab olib, O‘gedeyga (O‘ktoy) yuborishgan. O‘gedey esa uning murdasini yoqib yuborishni hamda kulini ko‘kka sovurishni buyurgan. Shuningdek, xorazmshohlarning o‘z vaqtida sulton tomonidan Ardahiga yashirilgan eng qimmatbaho 10 ta sandiqqa joylangan javohirlari ham mo‘g‘ullar qo‘liga o‘lja bo‘lib tushgan edi.

Chingizxonning katta o‘g‘li Jo‘chi boshchiligidagi mo‘g‘ul bosqinchilari reja bo‘yicha Sirdaryoning yuqori qismidagi yerlarni egallashi lozim edi. Bosqinchilar ma’lum muddatdagi qamaldan so‘ng Sig‘noq va Borchilig‘kent shaharlarini egallaganidan so‘ng mustahkam qal’a hisoblangan Xo‘jandga hujum boshlaydilar. Mo‘g‘ullar 20.000 nafar qo‘shin va 50.000 ming chog‘li asirga tushgan hasharchilarni Xo‘jand atrofiga yig‘adilar. Xo‘jand hokimi Temur Malik asli turkiy sarkardalardan bo‘lib, Xorazmshohlar davlatida nom chiqargan, sulton va uning oilasiga tanish bo‘lgan shaxs edi. Mo‘g‘ullarga qarshi tura olish mumkin emasligini sezgan Temur Malik (malik-hokim ma’nosida) taxminan 1000 nafar askari bilan Xo‘janddan bir kilometr naridagi Sirdaryoning mo`jazgina orolida joylashib oladi. Qulay strategik ahamiyatga ega bo‘lgan orolga mo‘g‘ullar o‘qlari, palaxmon toshlari yetib bormas edi. Temur Malik buyrug‘iga ko‘ra 12 ta qayiq yasatilib, o‘q o‘tmasligi, yonib ketmasligi maqsadida bu qayiqlarning usti namat bilan qoplanib, sirka bilan shimdirilgan loy bilan suvab chiqiladi. Temur Malik uzoq vaqt mudofaa uchun endilikda orolchada turish maqsadga muvofiq emasligini tushunib, bor oziq-ovqat zahirasi va askarlarini 70 ta kemaga joylab, tunda daryoning quyi oqimi bo‘ylab suzib ketadi. Mo‘g‘ullar ikki sohil bo‘ylab Temur Malik kemalariga to‘xtovsiz hujumni uyushtirar edilar. Hatto Banokat bo‘yida daryoning u sohilidan bu sohiliga zanjir ham tortib qo‘yadilar. Uzoq, uzluksiz jang bilan ular Jandga qadar yetib

keladilar. Mo‘g‘ul sarkardasi Ulus Idi Borchilig‘kent va Jand yaqinida manjaniqlar (tosh otar zambaraklar) o‘rnatib, qayiqlarni bir-biriga tutashtirib, jasur sarkarda yo‘lini to‘sadi. Uzoq janglardan so‘ng Temur Malik Urganchga yetib keladi va Urganch himoyasida qatnashib, Jaloliddinning ozodlik kurashida faol ishtirok etadi. Keyinroq, uzoq sargardonliklardan so‘ng sarkarda Temur Malik o‘z yurtiga darvesh sifatida kelib, qahramonona ravishda mo‘g‘ul harbiylari qo‘lida halok bo‘ladi. Chingizxon 1220 yilning yozini Movarounnahr janubida o‘tkazmoqchi bo‘ldi. Chunki u janub shaharlarini egallashga shaxsan bosh qo‘shgan edi. Zero, janubda hali bosqinchilar qadami yetmagan bir qator boy viloyat va shaharlar mavjud edi. Avval u Nahshabga bostirib bordi. Shaharliklar mo‘g‘ullarning mislsiz zo‘ravonlik va bosqinidan yaxshi xabardor edilar. Nahshab ahli dahshatga tushib, shaharni mo‘g‘ullarga ixtiyoriy topshiradilar.

Chingizxon yozni Nahshabda o‘tkazib, 1220 yilning kuzida Termizga yurishni boshlaydi. Termiz Hindiston va O‘rta Osiyo savdo yo‘llari tutashgan bir qulay yerda joylashgan bo‘lib, uning Amudaryo sohiliga tutashgan qal’asi o‘z vaqtida mustahkam ravishda barpo etilgan edi. Termiz hokimi Faxriddin habash mo‘g‘ullar bosqiniga mardonavor turib javob berishga qaror qildi. Mudofaaning o‘n birinchi kuni shahar egallandi. Shahar butkul talon-taroj qilinib, xonavayron etildi. Shahar ahli esa dashtga haydab chiqilib qirib tashlandi. Movaraunnahrning asosiy qismlari-Sirdaryo havzasi, Zarafshon, Qashqadaryo vodiylari, Buxoro vohasi, Shosh va Farg‘ona vodiysi egallangach, Chingizxon endilikda o‘zining asosiy e’tiborini Xorazmshohlar davlatining markazi Xorazm o‘lkasiga qaratdi. Bu yurishga o‘g‘illari Jo‘chi, Chig‘atoy, O‘ktoy (Ugedey)larni mas’ul qildi. Ayniqsa, xon musulmon Sharqining eng katta shahri bo‘lmish, madaniyat, savdo gullab yashnagan boy-badavlat qadimgi Urganch (Gurganj) istilosiga katta ahamiyat bilan qaradi. Ushbu yurish 1221 yilning boshida boshlandi.

1221 yilning boshida sulton deb e’lon qilingan Jaloliddin va shahzodalar Oqshoh, O‘zloqshohlar bilan Urganchga keladi. Lekin Urganchdagi siyosiy vaziyat, sobiq Jand noibi Qutlug‘xonning unga qarshi suiqasdi, qipchoq sarkardalarining xoinona o‘zlarining tutishlari, Jaloliddinni shahar mudofaasiga bosh bo‘lish fikridan qaytaradi. Qipchoqlar uni hokimiyat tepasiga kelishini xohlamas edilar. Bunday vaziyatda mudofaani tashkil etib bo‘lmasligi aniq bo‘lib qolgan edi. Ushbu voqealardan so‘ng Jaloliddin Temur Malik bilan birgalikda 300 ta kishi bilan shaharni tark etib Xurosonga yo‘l oladi. Uning ortidan esa, tez

orada Oqshoh va O‘zloqshohlar ham yo‘l olishadi. Jaloliddinning faoliyatini alohida qayd etib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘lgani uchun keyinroq bu buyuk shaxs faoliyati to‘g‘risida batafsil to‘xtalinadi.

Urganchda esa shahardagi qipchoq sarkardalari-O‘g‘ul Hojib, Erbuqa pahlavon, Ali Darug‘iyniy va boshqalar Turkon xotunning jiyani yosh Xumorteginni sulton deb e’lon qiladilar. Turkon xotunning o‘zi Mozandarondagi Ilol qal’asiga kelib o‘rnashib, o‘z hayoti va boyliklarini saqlash taraddudiga tushadi. Qal’ada suvsizlikdan sillasi qurilgan sobiq malika mo‘g‘ullarga asirga tushib, xorazmshohlar xazinasini ular qo‘liga topshirdi. Qoraqurumda cho‘ri bo‘lgan Turkon xotun 1233 yili xor-u-zorlikda vafot etadi. Xumortegin layoqatsiz, o‘z fikriga ega bo‘lmagan, qo‘rqoq shaxs edi. Urganchga Chingizxonning o‘g‘illari Jo‘chi, Chig‘atoy, O‘gedey, taniqli mo‘g‘ul sarkardalari Tulun cherbi, Ustun no‘yon, Qozon no‘yon boshqalar o‘z harbiy kuchlari bilan yetib keladilar. Xorazm Jo‘chi boshqaruvi ilkiga tushganligi uchun ham, Jo‘chi shaharni tinchlik bilan mo‘g‘ullarga topshirishni talab etadi. Lekin nima bo‘lganda ham jasur shahar himoyachilari mudofaaga qat’iy tayyorgarlik ko‘rib jonajon shaharlarini mo‘g‘ullarga berishdan qat’iy bosh tortdilar. Poytaxt atrofini 100.000 dan ziyod mo‘g‘ullar qo‘shini bilan o‘rab olish boshlandi. Shahar devorlarini buzish uchun manjaniqlar o‘rnatiladi. Mo‘g‘ullar shaharni katta kuch bilan zabt etishga kirishdilar. Yangi “sulton” shahar mudofaasiga bosh bo‘la olmaydi. 1221 yili boshidan boshlangan Urganch qamali deyarli 7 oy davom etadi. Shahar ahli mo‘g‘ullar qurol-yarog‘i, palahmon toshlarni otuvchi manjaniqlar zambaraklardan cho‘chimay mardonavor kurashga kiradilar. Nayza o‘qlaridan qo‘rqmay shahar devorlarining buzilgan yerlarini qayta tiklay boshlaydilar. Bir guruh urganchlik harbiy navkarlar shahardan deyarli 1 farsah uzoqlikdagi Bog‘i-Xurram degan joyda mo‘g‘ullarga zarba berishga harakat qilib, qahramonona jang qildilar. Lekin Juvayniyning yozishiga ko‘ra, jangda qo‘shin va qurol jihatidan ustun mo‘g‘ullar shu yerlik tinch aholi jangchilar bilan birgalikda 100.000 dan ziyod aholini qirib tashlaydilar. Sulton zobitlarining boshlig‘i Faridun G‘uriy o‘zining 500 kishilik harbiy otryadi bilan mardonavor shahar devorlari va darvozalari himoyasiga bosh bo‘ladi. Lekin qo‘rqoq “sulton” Xumortegin shahar darvozasini ochib berib, o‘z hayotini saqlab qolish maqsadida xiyonatkorona ravishda mo‘g‘ullarga taslim bo‘ladi. Istilochilar shaharga bostirib kira boshlaydilar. Urganchda tarixchilardan an-Nasaviy, Juvayniylarning yozishlariga ko‘ra, har bir ko‘cha, mavzeni jon-jahdlari bilan himoya

qilganlar. Koʻprik ustidagi jangda shaharliklar 3000 nafardan ziyod moʻgʻul askarlarini qirib tashlashga ham muvaffaq boʻladilar.

Shahardagi janglarda Xorazmlik mashhur alloma, faylasuf va olim, “Kubroviya” tariqatining asoschisi Ahmad ibn Umar Abul Janob Najmiddin al-Kubro al-Xevaqiy (1145-1221 yy.) ham faol qatnashdi. Oʻziga “Yo Vatan, yo sharofatli oʻlim” degan gʻoyani shior qilib olgan bu 76 yoshdagi buyuk shayx moʻgʻullarning taslim boʻlish haqidagi takliflarini rad etib, oʻzining behisob shogird, doʻst-yoron, muxlis-safdoshlar bilan shahar ichki mudofaasida ishtirok etadi. Uning jangovar chaqirigʻiga muvofiq har bir qarich yerni shaharliklar qahramonona tarzda, bir tomchi qonlari qolguncha himoya qiladilar. Najmiddin Kubro qahramonona tarzda jang qilib, oʻlim oldidan moʻgʻul navkariga tashlanib uni avval halok qilib, shahid boʻladi. Shahar mudofaasi choʻzilib, hatto Chingiz oʻgʻillari Joʻchi va Chigʻatoy oʻrtasida ham ixtilof chiqib, shaharni egallash boshqa bir oʻgʻil - Ugedeyga topshirildi. Behisob qon daryo boʻlib oqib, bundan soʻnggi himoya befoydaligini sezgan shaharliklar qolganlarni jonini saqlab qolish maqsadida taslim boʻlishdan oʻzga choralari qolmaydi. 100000 dan koʻproq hunarmandlar ajratib olinib, Moʻgʻulistonga joʻnatiladi. Shahar ahli dashtga haydab chiqarilib, bolalar va ayollar boʻlib olinadi. «Ortiqcha» asirlar haqoratli oʻlimga mubtalo etiladi. Juvayniyning yozishicha, har bir moʻgʻul askarga shaharliklardan 24 ta oʻldirilgan askar toʻgʻri kelgan ekan. Qolgan barcha narsalar beayov talon-taroj qilindi. Shahar qoʻlga olingandan uning asosiy qismi buzilgan, xonavayron boʻlgan edi. Shundan keyin ham moʻgʻullar Amudaryo toʻgʻonini buzib, shaharni suvga bostiradilar.

Urganch qamali bilan bir vaqtda Chingizxon 1221 yilning bahorida oʻzining e’tiborini Amudaryodan janubdagi yirik savdo yoʻllari ustida joylashgan boy madaniyat markazlari boʻlmish Balx, Hirot, Gʻazna, Qandahor, Nishopur va boshqalarga qaratdi. Chingizxon shaxsan Balx yurishiga boshchilik qilib, shaharni zabt etdi. Balx aholisini esa qirib tashladi. Ba’zi bir janublik Xorazmshoh noiblari, jumladan Amin-al mulk ham moʻgʻullar tomoniga xiyonatkorona oʻtib ketdilar.

Jaloliddinga qarshi kurash vaqtida qator qal’a, shaharlar qattiq janglar ila ishgʻol qilindi (Bamiyon, Gʻazna, Qandahor, Gardiz, Valiyon va boshqalar.) Ularning janubdagi oxirgi egallagan shahri Hindistonning shimoliy gʻarbidagi Moʻlton boʻlib qoldi.

Manbalarda “Jahon sultonlari poytaxti” va ”Insoniyat buyuk farzandlari beshigi” nomini olgan Urganch, Sharqdagi “islom tayanchi” Buxoro, qadimiy Afrosiyob vatani Samarqand, masjidlarning soni (1200

taga yetgan) bilan mashhur “qubbat-ul islom” Balx, o‘z madrasalari bilan dong‘i ketgan Marv, o‘zining nozikta’b ilmli kishilari bilan ma’lum Nishopur va ko‘plab ma’lum va mashhur shaharlar talon-taroj etilib vayron qilindi. Mo‘g‘ullarning kuchli zarbasiga uchragan ba’zi shaharlar, masalan, O‘tror, Sig‘noq, Borchilig‘kent va boshqalar umuman uzoq vaqtgacha dasht-biyobonlarga aylanib qoldi. Shu davrda yashagan arab tarixchisi Ibn al-Asir (1160-1244) mo‘g‘ul bosqini xususida shunday deb yozgan edi: “Ular (ya’ni mo‘g‘ullar) hech kimga shavqat qilmadilar, aksincha xotinlar, bolalar, erkaklarni o‘ldirdilar, homilador ayollarning qorinlarini yorib, tug‘ilmagan go‘daklarni nobud qildilar... Bu musibat to‘lqinlari turli tomonlarga tarqaldi va uning fojeasi umumiy bo‘lib qoldi hamda u shamol bulutlarni turli tomonga haydagani kabi butun viloyatlarga yoyildi. Xitoy chegaralaridan bir xalq chiqib Turkistondagi Qashg‘ar va Bolasog‘un kabi viloyatlarni, Movaraunnahrdagi Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarini vayron etib, qirg‘in qilib, talon-taroj qilib egalladi. Tatarlar hech qaysi shaharlarni omon qoldirmadilar ketayotib hamma yerni vayron etdilar. Ular nimaniki yonidan o‘tgan bo‘lsalar o‘zlariga yoqmagan barcha narsalarga o‘t qo‘ydilar”.

Jaloliddin Manguberdi-yurt himoyachisi

Jaloliddin Manguberdi-ona yurt
himoyachisi, jasur sarkarda va davlat
arbobi, xalqimizning Spitamen,
Muqanna, Najmiddin Kubro, Amir
Temur singari tarixda o‘chmas iz
qoldirgan milliy qahramonidir. **Islom Karimov**

Tariximizdagi ulug‘ zotlardan biri mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashgan, Vatan ozodligi yo‘lida jon fido qilgan Jaloliddin Manguberdidir. O‘rta asr musulmon mualliflari, jumladan uning vaziri va mirzasi ham bo‘lgan an-Nasaviy uni Mankburni, (ya’ni mank belgi, xol degan ma’noda, xoldor burunli degan ma’noni anglatgan) nomi bilan atashgan.

Jaloliddin Manguberdi (Mankburni) xotirasini abadiylashtirish va tarixiy adolatni qaror toptirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi 1998 yil 24-sentabrda 408-sonli maxsus qaror qabul qildi. Ushbu qarorga muvofiq buyuk sarkardaning tavallud to‘yi keng miqyosda nishonlanishi qayd qilib o‘tildi. Yubiley munosabati bilan

Urganchda sarkardaga ulkan memorial yodgorlik o‘rnatildi, O‘zbekiston Respublikasi FA Tarix va Sharqshunoslik institutlari, Xorazm Ma’mun akademiyasi, bir qator Oliy o‘quv yurtlari, turli jamg‘armalar mutaxassislari tomonidan ko‘plab risolalar chop etildi, mohir rassom T. Quryozov tomonidan sarkardaning portreti yaratildi, “Jaloliddin Manguberdi-Vatan, yurt himoyachisi” mavzuida xalqaro ilmiy anjuman o‘tkazildi va eng muhimi Prezident I. Karimov boshchiligidagi hukumat va parlament a’zolari, chet ellik mehmonlar, yurtimiz mehmonlari ishtirokida ulkan teatrlashtirilgan tamoshalar bo‘lib o‘tdi.

Jaloliddin og‘ir bir paytda Movaraunnahr urush domiga tortilgan, mamlakatning katta qismi mo‘g‘ullar tomonidan istilo etilgan, imperiya qo‘shini yakson qilingan, amirlarning bir qismi xoinlik yo‘liga, qolgani o‘z joni-mulkini asrash yo‘liga tushgan, sulton mamlakatni o‘z holiga tashlab qo‘ygan, o‘zaro sarosima va tahlika hukm surgan bir vaqtda tarix sahnasida paydo bo‘ldi. Jaloliddin shunday bir og‘ir vaziyatda, Vatan va xalq erki uchun kurashib, mo‘g‘ullarga qarshi 11 yil kurash olib bordi. 14 marotaba mo‘g‘ullarga qarshi ot surib, uning 13 tasida g‘oliblikni qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ldi. Mo‘g‘ullar bosqini arafasida Jaloliddin garchi katta o‘g‘il bo‘lsa-da, buvisi Turkon-xotun tomonidan hokimiyatdan chetlatilgan bo‘lib, taxt vorisi etib Turkon-xotun urug‘idan bo‘lmish boshqa bir shahzoda Qutbiddin O‘zloqshoh valiahd deb e’lon qilingan edi.

G‘azna, Bamiyon, al-G‘ur, Bo‘st, Takinobod, Zamin-Davora va Hindiston bilan chegaradosh yerlar esa Jaloliddinga mulk etib berilgan edi. Garchi Jaloliddin buvisining izmi bilan markazdan chetlatilgan bo‘lsa-da, lekin sulton unga alohida muhabbat bilan qarar, uning jasurligini qadrlar va uni o‘zidan uzoqlashib ketmasligini xohlar edi. Shuning uchun ham unga vazir etib taniqli davlat amaldori Shams-al Mulk Shahobiddin Alp al-Xaraviyni, noib (o‘rinbosar) etib esa sarkarda Kuzbar Malikni tayinlaydi. Muhammad Xorazmshoh plevrit (o‘pkaga suv yig‘ilish) kasali bilan og‘rib taxminan 1220-yilning oxirlarida (hijriy 617-y.) quvg‘inlikda Kaspiy dengizidagi Ashuradi orolida vafot etadi. O‘limi oldidan sulton Jaloliddinni taxt vorisi deb e’lon qilib, sultonlik ba’zi rutbalarini unga topshiradi. Jaloliddin o‘z inilari O‘zloqshoh va Oqshohlar bilan otasini dafn etgach, 70 ta kishisi bilan to‘g‘ri Urganchga keladi. Tez orada unga Xo‘jand hokimi Temur Malik va boshqa erksevar kishilar kelib qo‘shiladilar. Xalq Jaloliddin Manguberdini shod-u-xurramlik va katta umid bilan kutib oladi.

Lekin inisi O‘zloqshoh va uning tarafdorlari unga qarshi fitna tayyorlayotganidan xabar topgach, bu alfozda mo‘g‘ullarga qarshi

kurashib bo‘lmasligini tushungan Jaloliddin 300 ta kishisi bilan yashirincha Xorazmni tark etadi. Hozirgi davrdagi yangi tadqiqotlar shuni ko‘rsatayaptiki, Jaloliddinning mo‘g‘ullar bilan ilk to‘qnashuvi avval boshida Jand viloyatidagi Irg‘iz dashtida bo‘lgan ekan. Jaloliddin 16 kun ichida Xorazmdan Xuroson yerlaridagi Niso qo‘rg‘oni atrofiga yetib keladi. Chingizxon sulton o‘g‘illarining Xorazmga qaytganliklaridan xabar topgach agarda ular Xurosonga chekinmoqchi bo‘lsalar, ularga qarshi chiqadi degan maqsadda o‘z qo‘shinidan Xurosonning har yeriga pistirmalar qo‘yadi. Jaloliddin Niso yaqinida o‘zining 300 ta askarlari bilan mo‘g‘ullarning 700 kishilik qo‘shinini zarbaga uchratadi. Mo‘g‘ullar batamom mag‘lub etiladi.

Bu vaqtda Jaloliddinning ukalari O‘zloqshoh va Oqshohlar sarosimaga tushib, nima qilishlarini bilmay, Jaloliddin ketidan ular ham Xurosonga ketishadi. Mo‘g‘ullarning kichik otryadi ustidan g‘alaba qozonib, bu g‘alabaga juda katta e’tibor berib yuborishadi. Shundan so‘ng aysh-u-ishratga berilib, Xurosonning Xabushan shahri yaqinida mo‘g‘ullarga qarshi navbatdagi kurashda qo‘lga tushib, qatl etiladilar. Mo‘g‘ullar qatl etilgan shahzodalarning kallalarini namoyishkorona tarzda birmuncha vaqt Xurosonda olib yurishadi. Jaloliddinning yana bir inisi Rukniddin G‘ursanjiy (manbalar unga «aql-zakovat va ko‘rkamlikda tengi yo‘q» deb ta’rif berishgan) Eronning Ustunavand qal’asida 6 oy mo‘g‘ullarga qarshi kurash olib borib, mardonavor tarzda halok bo‘ladi. Jaloliddin esa bu vaqtda Nishopurga yetib keladi. Bir oy davomida mo‘g‘ullarga qarshi kurashish maqsadida barcha amir, sarkardalarga qo‘shin yig‘ish xususida murojaat qiladi. Mo‘g‘ullar uning ushbu faoliyatidan xabardor bo‘lganliklarini bilgach, Zavzon (Nishopur va Hirot oralig‘ida) tumanidagi al-Qohira qal’asiga kelib o‘rnashadi. Afsuski, bu vaqtda mahalliy noib hokimlar uning atrofida jipslasha ololmaydilar. Hali yetarli kuchga ega bo‘lmagan Jaloliddin qal’ada uzoq turish xavfli ekanligini tushunib, G‘azna tomon yo‘l oladi.

Chingizxon esa bu vaqtda ulkan qo‘shin bilan Xurosonga izma-iz kelayotgan edi. Jaloliddin G‘aznaga yetmasdan yaqin orada Hirot hokimi hamda qayinotasi bo‘lmish Amin Malik bilan uchrashadi va ular birgalikda Qandahor qal’asini qamal qilayotgan mo‘g‘ullar ustiga yurish qiladilar. Jaloliddin bu kurashda harbiy ilm tarixida ilk bora “piyoda yoyandozlar”ni mo‘g‘ullarning otliq askarlariga qarshi qo‘yadi. Inglizlar keyinchalik bu harbiy usulga yuqori baho berib, o‘zlarining Kress yonidagi mashhur janglarda undan foydalanishadi. Uch kunlik jangdan

so‘ng mo‘g‘ullar mag‘lub etilib Jaloliddin g‘olib bo‘ladi va u G‘azna tomon yo‘l oladi.

U 1221-yilning fevralida G‘aznaga kirib keladi. Manbalarning qayd etilishicha, xalq Jaloliddinni juda katta tantana bilan kutib oladi. Shahar xuddi xayit bayramidek shod-xurramlikka to‘ladi. G‘aznada Jaloliddin xizmatiga Sayfiddin O‘g‘roq al-Xalajiy, Balx hokimi A’zam Malik, afg‘on qabilalari sardori Muzaffar Malik va qarluqlar rahbari al-Hasan qarluq o‘z qo‘shinlari bilan qo‘shiladilar. Jami qo‘shinning soni tarixchilarning xabariga ko‘ra 90-130 ming kishi atrofida bo‘lgan. Chingizxon Jaloliddinning kuch-qudratini oshib borayotgani va mo‘g‘ullar undan Qandahorda zarbaga uchraganligidan g‘azablanib, no‘yon Shiki Xutuxu boshchiligidagi qo‘shinni uning ustiga yuboradi. U 1221-yilning kuzida Jaloliddin yerlariga yaqinlashib keladi. Bu vaqtda mo‘g‘ullarning Tekechuk va Molgor boshchiligidagi ilg‘or guruhi Chorikordan shimolroqdagi Valiyon qo‘rg‘onini qamal qilishni boshlagan edi.

Jaloliddin bir hamladayoq mo‘g‘ullarni zarbaga uchratishga muvaffaq bo‘ladi. Bu jangda mo‘g‘ullarning 1000 dan oshiq kishisi halok bo‘ladi. Ko‘plab tarixchilar jumladan, ibn al-Asir, Juvayniy, Rashididdin bu jangga yuqori baho bergan edilar. Jaloliddinning mo‘g‘ullarga qarshi muhim janglaridan biri 1221 yilning kuzida shimoliy Afg‘onistonning Lagar daryosi bo‘yidagi Parvona dashti yaqinida bo‘lib o‘tadi. Birlashgan qo‘shinga shaxsan Jaloliddinning o‘zi lashkarboshilik qilib, o‘ng qanotga Amin Malik, chap qanotga Sayfiddin O‘g‘roq boshchilik qilishadi. Mo‘g‘ullar jon-jahdlari bilan kurashga kiradilar. Hatto Shiki Xutuxuning buyrug‘i bilan Jaloliddin qo‘shiniga xavf tug‘dirish maqsadida har bir mo‘g‘ul askari orqasiga tulup o‘tkazib ham qo‘yishadi. Parvona jangi mo‘g‘ullarning mutlaq mag‘lubiyati bilan tugab, Shiki Xutuxu qolgan qutgan qo‘shini bilan Chingizxon huzuriga bazo‘r qochishga ulguradi.

Parvona yaqinidagi jang Movarounnahr va Xuroson ahli uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Shu paytgacha mo‘g‘ullarning ilohiy, yengilmas kuch-qudratga egaliklari xususidagi gap so‘zlarga, afsonalarga chek qo‘yildi. Jaloliddinning g‘alabasidan Movaraunnahr va Xuroson xalqlarining ruhi ko‘tarildi, g‘alaba ta’sirida Saraxs, Marv, Hirot va boshqa Xuroson shaharlarida mo‘g‘ullarga qarshi xalq isyonlari boshlanib ketdi. Buxoroda bosh ko‘targan aholi esa mo‘g‘ullarni shahardan siqib chiqarishga muvaffaq bo‘ldi. Chingizxon Jaloliddinning kuchayib borishi, uning xalq ommasi tomonidan qo‘llab-quvvatlanilishi mo‘g‘ullar bosib olgan yerlar uchun qanchalik xavf tug‘dirishini yaxshi

anglab yetgan edi. Shu sababdan ham shaxsan o‘zi Jaloliddinni qanday qilib bo‘lmasin mag‘lub etish maqsadida shitob bilan katta qo‘shinga bosh bo‘lib, janub tomon yo‘l oldi.

Jaloliddin qo‘shini Parvona jangidan so‘ng katta o‘ljani kiritgan edi. Ushbu o‘ljaning taqsimlanishi vaqtida Jaloliddinning ikki sarkardasi Amin Malik va Sayfiddin O‘g‘roq o‘rtasida ixtilof chiqadi. Ixtilof natijasida Sayfiddin O‘g‘roq va undan keyin boshqalar ham qo‘shindan ajrab chiqib ketadilar. Jaloliddinning qo‘shini kamayib, u nihoyatda og‘ir bir ahvolda qoladi. Jaloliddinning uni tark etgan sarkardalarga qayta ittifoq tuzish, dushmanga qarshi birgalikda kurash olib borish to‘g‘risidagi murojaati zoye ketdi. Jaloliddin ichak og‘rig‘i kasaliga duchor bo‘lib turgan paytida mo‘g‘ullarning ilg‘or guruhi Gardezga (G‘aznadan 50 km. sharqda joylashgan shahar) o‘rnashganligidan xabardor bo‘ladi. Jaloliddin xastaligiga qaramasdan Gardezdagi mo‘g‘ul askarlariga to‘satdan zarba berib, ularni mag‘lubiyatga uchratadi. U Chingizxonga qarshi ozchilik qo‘shin bilan kurasha olmasligini anglab, Sind (Hind) daryosi bo‘yiga chekinishga qaror qiladi.

Jaloliddinni qanday qilib bo‘lmasin mag‘lub etish va uni qo‘lga tushirish ilinjida bo‘lgan Chingizxon uni izma-iz ta’qib etib keladi. Jaloliddinni ta’qib etib kelayotgan mo‘g‘ullarga ayniqsa Bamiyon qal’asi qattiq qarshilik ko‘rsatdi. Bamiyon qamali vaqtida Chig‘atoyning o‘g‘li, Chingizxonning suyukli nabirasi Mutulk halok bo‘ladi. Bundan darg‘azab bo‘lgan Chingizxon qal’adan bironta o‘lja, bironta odamni asirlikka olmay barcha qal’a ahlini qirib tashlashni buyuradi. Yer bilan yakson qilingan sobiq Bamiyon qal’asi keyinchalik mo‘g‘ullar tomonidan Mo‘baliq (ya’ni ahmoqona shahar) nomini oladi.

Nihoyat 1221-yilning 25-noyabri, payshanba kuni (hijriy 618-yil shavval oyining sakkizinchi kuni) Sind daryosi bo‘yida uch kun davom etgan hal qiluvchi jang boshlandi. Bir qator o‘rta asr musulmon tarixchilarining ta’kidlashlaricha, bunday qonli, keskin va dahshatli jang tarixda ro‘y bermagan ekan. Jaloliddin va uning qo‘shini misli ko‘rilmagan darajada jasorat va bahodirlik namunalarini ko‘rsatdilar. Faqat uchinchi kunga kelib, Chingizxon qo‘shini ustunlikka erisha boshladi. Jaloliddinning taxminan 7-8 yoshli o‘g‘li Chingizxon qo‘shini qo‘liga tushib qolib o‘ldiriladi. Jangda mardonavor kurashgan Amin Malik va boshqa ko‘plab sarkarda, navkarlar halok bo‘ldilar. Chingizxon qanday qilib bo‘lmasin Jaloliddinni tiriklayin qo‘lga olishga buyruq beradi. Jaloliddin esa uni qo‘lga olishga intilayotgan mo‘g‘ul qo‘shini qo‘rshovini shaxsiy bahodirligi bilan yorib chiqib, Sind daryosi bo‘yiga

yetib kelishga muvaffaq bo‘ladi. Daryo bo‘yida onasi Oychechak va haramdagi boshqa ayollar uni kutib turishar edi. Shundoq ham bu jangdan ruhiy va jismonan ezilgan Jaloliddinga ular “... bizni o‘ldiring va mash’um asirlikdan qutqaring” deya murojaat qilishadi. Jaloliddin barcha haram ayollarini suvga cho‘ktirishga ko‘rsatma berishdan boshqa iloji qolmaydi. O‘zi esa oti bilan suvga sakrab, daryoning narigi beti-Hindiston tomonga suzib o‘tadi.

Jaloliddinning har qanday vaziyatda ham o‘zini yo‘qotmasligi, uning jasorati va mardligiga Chingizxon ham tan beradi. Tarixchilardan Juvayniy, Rashididdin va boshqalarning yozishlariga qaraganda Jaloliddinning jasoratiga qoyil qolib Chingizxon o‘z o‘g‘illariga qarata “Otaning faqat shunday o‘g‘li bo‘lishi lozim. U olovli jang maydonidan o‘zini qutqarib, halokatli girdobdan najot qirg‘og‘iga chiqdimi, undan hali ulug‘ ishlar va qiyomatli isyonlar keladi!”,-dedi va uning orqasida ta’qib etishni ta’qiqladi. Sind daryosi bo‘yidagi jangdan so‘ng Chingizxon uch oy davomida Jaloliddin qo‘shinidan o‘z vaqtida ajrab ketgan sarkardalar qal’alarini qo‘lga olib, ularni yo‘q qilish bilan band bo‘lgan.

Rashididdinning yozishiga ko‘ra, Jaloliddin daryodan taxminan 120 ta tirik qolgan kishilari bilan Hindiston qirg‘og‘ida uchrashadi. Jaloliddin ham tirik qolganlar ham ma’naviy-ruhiy ham og‘ir janglardan jismoniy ezilgan holda murakkab bir ahvolda qolishgan edi. Bu vaqtda Shatradagi mahalliy hind rojalaridan biri 40.000 chog‘li qo‘shini bilan daryoning bu betiga suzib o‘tgan xorazmliklarni qirib tashlash uchun yetib keladi. Faqatgina Jaloliddinning tengsiz bahodirligi va qahramonona hatti-harakati tufayli Roja o‘ldirilib, qo‘shin orqaga chekinadi. Bu jangdan xorazmshoh askarlarining ruhi ham ko‘tarilib, tez orada Jaloliddin o‘z atrofiga 3 ming kishilik askarni yig‘ishga muvaffaq bo‘ladi. Og‘ir vaziyatlarda ham o‘zini yo‘qotmasdan, qaddi bukilmagan sarkarda Hindistonga o‘tgach, Sind daryosi bo‘yidagi yerlarni ishg‘ol qila boshlaydi. Tez orada Jaloliddinning hokimiyatini Dehli sultoni Shamsiddin Eltutmish (1211-1236) va Sind, Uchcha, Mo‘lton, Lohur va Peshovar hokimi bo‘lmish Nosiriddin Qubacha (1205-1227) ham tan oladilar.

Hindistonda Jaloliddin 1223-yilning oxirlarigacha bo‘lib, xorazmshohlarning azaliy mulki bo‘lgan Iroq va Eronni o‘z izmiga kiritish maqsadida yo‘lga otlanadi. O‘z o‘rniga noib etib, taniqli sarkarda Jahon polvon O‘zbekni qoldirib ketadi. Jahon polvon to 1229 yilgacha Hindiston mulklarini boshqarib, so‘ngra Jaloliddin huzuriga Iroqqa qarab ketadi va uning harbiy yurishlarida yelkadosh bo‘lib xizmat qiladi. 1224

yilning boshida Jaloliddin Kirmonga kelib, Kirmon sultoni bo‘lmish ukasi G‘iyosiddindan yordam uchun 4000 kishilik qo‘shin oladi. U o‘zining asosiy maqsadi mo‘g‘ul istilochilariga qarshi kurashib, mustaqil davlat yalovini tiklash ekanligini bildiradi. Uning Sheroz va Isfahonga tashrifini xalq katta tantana bilan kutib oladi.

Jaloliddin mo‘g‘ullarga qarshi birgalikda kurash olib borish maqsadida ukasi G‘iyosiddin Pirshoh, Bag‘dod xalifalari az-Zohir (1225-1226), so‘ngra al-Muntansir (1226-1242), Gurjiston malikasi Rusudana va boshqalarga murojaat qiladi. Lekin mo‘g‘ullar qasosi, qolaversa Jaloliddinning hokimiyati kuchayib ketishidan cho‘chigan ko‘pchilik musulmon hokim, hukmdorlari u bilan ittifoq tuzishni xohlamaydilar. Bag‘dod xalifaligi, ismoiliylar hokimi Muhammad III (1221-1255)lar esa mo‘g‘ullar bilan yaqinlashishga, Jaloliddinga qarshi ochiqdan ochiq kurashishga bel bog‘laydilar. Malika Rusudanani va uning vaziri Avak bilan o‘zaro ittifoq xususidagi takliflari zoe ketgandan so‘ng 1226 yil fevralida sarkarda Gurjistonga yurish qiladi. Gurjiston qattiq jang ila egallanib, bu yerda ko‘plab qonli, mash’um voqealar bo‘lib o‘tadi. Bosh ko‘targan Gurjiston ikkinchi marotaba 1228 yil egallangach, bu yerlar qattiq talon-taroj qilinadi.

Bir vaqtning o‘zida Jaloliddin Manguberdi Kirmonda unga qarshi bosh ko‘targan xiyonatkor Barak Hojibga, ismoiliylarga ham qarshi kurash olib borishga ham to‘g‘ri keladi. Shuningdek, ahamiyatli hisoblangan Ararat tog‘liklari etaklarida joylashgan Xilat qal’asi ham Jaloliddinga uzoq vaqt mobaynida qarshilik ko‘rsatadi. 1227 yili oxirlarida mo‘g‘ullarning Eronga kirib kelishi niyatlari borligini bilgan Jaloliddin ularga qarshi qat’iy jangga kirishga tayyorgarlik ko‘radi. Mo‘g‘ullarning o‘sha yili yuborilgan 2000 kishilik avangardi tor-mor etilib, ulardan 400 tasi Isfahonda namoyishkorona tarzda qatl etiladi. 1228-yil 25-avgustida Eronni zabt etish uchun kelgan Taynal no‘yon boshchiligidagi mo‘g‘ul istilochilari bilan Isfahon yaqinida hal qiluvchi jang bo‘lib o‘tdi. Garchi jang vaqtida ukasi G‘iyosiddin xoinlik qilib, o‘z qo‘shini bilan Luristonga chekingan bo‘lsa-da, Jaloliddin qat’iy ravishda bu holatga e’tibor qilmay kurash olib boradi. Manbalarning so‘zlashicha, hatto mo‘g‘ul no‘yonining o‘zi “Sen haqiqatdan ham o‘z davrining erkak o‘g‘loni ekansan”,- deb uning jasoratiga tan bergan ekan. Jaloliddin bu jangda butkul g‘oliblikni qo‘lga kiritadi. U sakkiz kun mobaynida Erondagi mo‘g‘ullarni izma-iz ta’qib etib ularni mamlakatdan haydab chiqaradi.

Juma kuni erta tongda muzaffar sarkarda sifatida Isfahonga kirib kelgach, xalq uni g‘olib sulton sifatida shod-u-hurramlik bilan kutib oladi. Jaloliddinning zafarli g‘alabasi ovozasi butun islom olamiga keng tarqaladi. O‘sha yili hatto mo‘g‘ullarning buyuk xoni bo‘lmish O‘gedey Jaloliddinning mo‘g‘ullar ilkiga tushib qolgan egachisi Xonsulton orqali maktub yuborib, u bilan sulh tuzish niyati borligini ham bayon qiladi. Jaloliddin bu diplomatik kelishuvdan voz kechib, xatni javobsiz qoldiradi.

Jaloliddin murakkab va ziddiyatli davrda yashadi. Shubhasiz u o‘z davrining farzandi edi. U qo‘shinlarining ko‘plab harbiy yurishlar vaqtida talonchilik, zo‘ravonlik qilishlariga gohida ko‘z yumdi, xonavayronchilik keltiruvchi ishlarga bosh qo‘shdi. Bu esa Eron, Ozarbayjon, Iroq, Gurjiston ahlida salbiy fikrlarning ko‘payishiga, noroziliklarning kuchayishiga ham olib kelgan. Lekin nima bo‘lganda ham Jaloliddin Manguberdi o‘zining asosiy maqsadi mo‘g‘ul istilochilariga qarshi kurashish ekanligini yodida saqladi. Bu kurashda u yon-atrofdagi musulmon hukmdorlarining qo‘llab quvvatlashlariga umid bog‘lagan edi. Lekin ko‘p holda ular bilan umumiy til topa olmasligi, uning tashqi siyosat borasidagi zayif tomonidan dalolat berar edi. O‘z vaqtida turk, arab, musulmon hokimlari uning xokimiyati Yaqin Sharqda kuchayib ketishidan xavfsirashar, u bilan ittifoq tuzishni xohlashmas edi. Ularning ba’zilari hatto mo‘g‘ullar bilan ochiqdan ochiq yaqinlashish tarafdori edilar. Ayniqsa, Xilat qal’asining Jaloliddin tomonidan egallanishi unga da’vogar hokimlarning izzat-nafsini toptagan edi. Jaloliddin unga qarshi ittifoq vujudga kelganidan xabardor bo‘lsa-da, har holda, hech bo‘lmaganda uni turkiy hukmdorlar qo‘llaydi deb yanglishgan edi.

1230-yil 10-avgustida Koniya sultoni, Xims hokimi, Halab hokimi, Mayafiriqin hokimi va Baynas hokimlarining birlashgan ittifoqi Jaloliddinni mag‘lub etadi. Ismoiliylar esa butkul xoinlik yo‘lini tutib Jaloliddinning mag‘lubiyati to‘g‘risida mo‘g‘ullarga yashirin noma ham yuboradilar. Jaloliddin mag‘lubiyatidan foydalangan mo‘g‘ullar uning Ozarbayjonning Mug‘on, Shirkabutdagi qo‘shin yig‘ishi mumkin bo‘lgan joylariga qo‘qqisdan zarba berishadi. 1231-yil bahorida u Ganjaga kelib, barcha gina-kudratlarini unutib, yana mo‘g‘ullarga qarshi ittifoq tuzish uchun musulmon hukmdorlariga murojaat etdi. Lekin uning taklifi javobsiz qolib ketdi. Shunda Suriyadagi Amida qal’asi hokimi uni o‘z oldiga chorlaydi. U Iroqqa borib yana qo‘shin to‘plamoqchi bo‘ladi.

Amida yo‘li yaqinida unga to‘satdan mo‘g‘ullar hujum qilib qolishadi (1231 yil avgust boshi). Uni 15 chog‘li mo‘g‘ul navkarlari ta’qib etishadi. Jaloliddin o‘z sheriklaridan ajrab, Mayafariqin (Hozirgi

Turkiyaning Silvan viloyati) yaqinida Ayn-ad-dar qishlog‘iga keladi. Ushbu tog‘lik qishloqda u kurdlar qo‘liga tushadi. O‘zini sulton deb tanishtirgandan so‘ng uni kurdlar o‘ldirishga jazm etmaydilar. Uni tegishli joyga yetkazib qo‘yish evaziga mukofot va’da qiladi. Lekin kurdlar rahbari xonadonidan joy olgan horib-tolgan Jaloliddinni, boshqa bir kurd kishisi o‘lgan inisi xuni evaziga o‘ldiradi. Bu voqea taxminan 1231 yilning avgust oyi 17-20 sanalari oralig‘ida ro‘y beradi. Ertasi kuni sulton buyumlarni sotib yurgan kurd xususida Mayafariqin hukmdori al-Malik al-Muzaffarga xabar berishganda u qishloqqa o‘z sarkardasi Shahobiddin G‘oziyni yuboradi. Shahobiddin G‘oziy sulton jasadini olib, qishloq erkaklarining barini o‘ldiradi va qishloqqa o‘t qo‘yib yuboradi. Muarrix an-Nasaviy buni eshitib, shaxsan Mayafariqinga keladi. Jaloliddinning tog‘asi, vazir O‘turxon uning jasadini tanib, qattiq iztirobga tushdi. Jaloliddin Manguberdining murdasi Mayafariqinga dafn etilib, mo‘g‘ullar kirib kelgudek bo‘lsa, haqoratlanmasin degan maqsadda go‘ri yer bilan tekislab yuboriladi.

Uning ashaddiy dushmani Damashq hokimi al-Malik al-Ashrafga sulton halokati xususida xabar yetkazib suyunchi so‘raganlarida, u qayg‘uga botib: ”Sizlar uning o‘limi bilan meni qutlamoqchimisizlar? Ammo siz voqeaning achchig‘ini tatib ko‘rasizlar. Olloh nomi bilan qasam ichamanki, uning halokati islom olamiga mo‘g‘ullarning bostirib kirishini anglatadi. Endilikda biz bilan Ya’juj va Ma’jujlar o‘rtasida devor bo‘lib turgan Xorazmshohdek odam yo‘qdir”, -deb javob bergan edi. Ibn Vosil esa uni “mo‘g‘ullar va musulmonlar orasidagi istehkom bo‘lgan” deb ta’riflagan edi. Jaloliddinning o‘limidan so‘ng uning shonli nomi tez orada xalqlar tilida doston bo‘lib ketdi. “Jaloliddin tirik”, “Jaloliddin qaytib kelayapti” degan ovozalar uzoq vaqtgacha mo‘g‘ullarni tahlikaga solib kelgan. O‘zini “men Jaloliddinman” deb nomlagan turli shaxslar mo‘g‘ullarga qarshi ko‘p holatda isyon va qo‘zg‘olonlarga boshchilik qilganlar (masalan, 1236-yili Eronning Ustundorida ko‘tarilgan qo‘zg‘olon, 1255-yili Amudaryo bo‘yidagi voqealar va h.k).

Musulmon tarixchilari o‘z asarlarida hamisha uni mard va jasur sarkarda sifatida ta’riflashgan edi. Jaloliddin Manguberdini shaxsan bilgan an-Nasaviy u to‘g‘risida shunday ta’rif bergan edi.

“U turkiy bo‘lib, qora mag‘iz yuzli, burni oldida qora xoli bor o‘rta bo‘yli yigit edi. Fors tilida ham bemalol so‘zlasha olar edi. U dovyuraklikda tengi yo‘q, sherlar ichida arslon, otliqlar ichida eng jasuri edi... Qisqa so‘zli, hech qachon so‘kinmagan, yomon so‘zlarni o‘ziga ep ko‘rmagan, juda jiddiy, atrofdagilar oldida o‘zini sipo tutar, hech qachon

kulmas, faqatgina tabassum qilib qo‘yar edi xolos. U adolatni sevgan, lekin zamon zayli uni o‘zgartirishga majbur qilgan. U o‘z fuqarolarini dardini yengillashtirishga harakat qilgan, shuni hohlagan, lekin tanazzul davri bo‘lganligi bois ham zo‘ravonlikka yo‘l bergan. O‘zini ulug‘lashlarini istamagan. Bachkana ta’riflarni yoqtirmagan, faqat sulton deya murojaat qilishlarini so‘ragan. Uning farmonlarida yolg‘iz so‘z: ”Yordam yolg‘iz Ollohdandir!” degan shior bo‘lgan.»

Xorazmshohlar avlodidan bo‘lgan Misr hokimi al-Muzaffar Sayfiddin Kutuz ajdodlarning shonli kurash yo‘lini davom ettirib, 1260-yili Yaqin Sharqdagi Ayn Jalut yonida mo‘g‘ullarga qaqshatqich zarba berib, ularning Suriya va Misrga kirib kelishlariga chek qo‘yadi.

1999-yil noyabrda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligining keng nishonlanishi, uning vatani Xorazmda unga mahobatli haykal o‘rnatilinishi, yurtboshimiz ta’kidlaganidek “G‘anim oldida bosh egmagan, tiz cho‘kmagan. Vatan deya halok bo‘lgan” milliy qahramonimizga xalqimizning ehtiromi, muhabbati, ajdodlar xotirasini muqaddas saqlashi ramzi bo‘lib qoldi.

Mo‘g‘ullar istilosidan keyingi siyosiy vaziyat. Chig‘atoy ulusi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xo‘jalik ahvoli

Mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng Movaraunnahr, Xorazm, Xurosonning gullab-yashnagan dehqonchilik vohalari tamomila halokatga uchradi. Sharqda dong‘i ketgan qadimiy va obod shaharlar, jumladan Samarqand, Buxoro, Urganch, Xo‘jand, Marv, Termiz, Balx, Nishopur va boshqa shaharlar xarobazorga aylantirildi. Marvdagi mashhur suv bilan shaharni ta’minlovchi-Sultonband, Balxob daryosidagi Bandi amir, Samarqand shahrini suv bilan ta’minlaydigan yagona to‘g‘onlarning hammasi Chingizxon buyrug‘iga ko‘ra buzib tashlandi. Jumladan Balx va uning atroflari 6 oy mobaynida suv ofatini boshdan kechiradi. Samarqandning asosiy aholisi, buxoroliklarning ko‘pchiligi, Urganch va Marv kabi ulkan shaharlar ahlining barchasi ona shaharlarini yo tark etdilar yoki qirib tashlandilar. Istilochilar ilk bora yuqori madaniyatli aholining ilm-fan, me’morchilik sohalaridagi yutuqlarini, yuksak darajadagi hunarmandchilik, tijorat, sug‘orma dehqonchilikni shu o‘lkaga kelib ko‘rdilar.

Bosqindan so‘ng sharqqa dong‘i ketgan zargarlik, qurol-aslaha yasash, nafis matolar to‘qish, naqshinkor nimchalar ishlab chiqarish barham topdi. Vohalarda suvsizlikdan yerlar qaqrab dehqonchilikka qiron

keldi. Bir necha asrlik tarixga ega bo‘lgan mashhur ipak savdo yo‘llari izdan chiqdi. Ilm-fan, madaniyat namoyondalari xor-zor etildi. Tirik qolgan aholi vayronalarga, zulm va zo‘ravonlikka, ochlik va qashshoqlikka mahkum etildi. Chingizxon tiriklik vaqtidayoq o‘z o‘g‘illariga mulklarini ulus qilib bo‘lib berishni boshlagan edi. 1207-yildayoq katta o‘g‘il ilkiga Selenga daryosidan Irtishgacha bo‘lgan yerlar mulk etib berilgan edi. Chingizxon o‘limi arafasida (1227-yil avgust) esa boshqa o‘g‘illariga ham turli zabt etilgan yerlarni ulus etib bo‘lib berdi. Janubiy Sibirdan Xorazm va Darbandgacha bo‘lgan yerlar Jo‘chiga, Oltoy tog‘larining janubiy sarhadlaridan to Amudaryo va Sindgacha bo‘lgan yerlar ikkinchi o‘g‘il Chig‘atoyga, Xitoy va Mo‘g‘uliston voris bo‘lmish uchinchi o‘g‘il O‘gedeyga, Eron va Xuroson Tuliga ulus tarzida bo‘lib berildi.

Rashididdinning ma’lumotiga ko‘ra, Chingizxon vafotidan so‘ng Chig‘atoyga 4000 ta askar tekkan ekan. Ularning boshliqlari o‘z navbatida barlos, jaloyir, qovchin va orlot qabilalaridan bo‘lgan. Ibn Arabshohning yozishicha qovchinlar Amudaryo shimoli Buxoroning sharqiy tomonlarida, barloslar Qashqadaryo vohasida, orlotlar Afg‘oniston shimolida joylashgan ekanlar. Keyinchalik Mahmud Yalavoch ham o‘z siyosati borasida shu qabilalarga suyanib ish ko‘rar edi. Mo‘g‘ullar ko‘chmanchi xalq bo‘lgani uchun boshqaruv tizimini tushunmas edilar. Chingizxon tiriklik vaqtidayoq xorazmlik taniqli savdogar, mo‘g‘ullar xizmatida anchadan beri faoliyat ko‘rsatayotgan Mahmud Yalavochni Movarounnahr noibi etib tayinlashini bildirgan edi va u tez orada Movarounnahr noibi etib tayinlanadi. Uning qarorgohi esa Xo‘jand shahrida joylashadi. Shubhasiz, Mahmud Yalavoch yirik va boy savdogar bo‘lib, manbalarning xabariga ko‘ra uning boyligi shunchalik ko‘p bo‘lganki, hatto u butun Movarounnahrdan olinadigan soliqni oldindan to‘lashi ham mumkin edi. Uning ixtiyorida mo‘g‘ullarning tayanchi bo‘lgan soliq yig‘uvchi mo‘g‘ul bosqoqlari, mahalliy hokimlar, dorug‘alar-harbiy ma’murlar hamda bir muncha mo‘g‘ul harbiy otryadlari bor edi.

Mahmud Yalavochga soliqlar tushumini muntazam nazorat etish o‘lkada mo‘g‘ullarga qarshi g‘alayon bo‘lishini oldini olish ma’suliyati yuklatilgan edi. Ko‘pchilik aslzoda zodagonlar, savdogarlar, qisman ulamolar ham o‘z jonlari va qolgan mol-mulklarini saqlab qolish borasida xiyonatkorona tarzda bosqinchilar xizmatiga o‘ta boshladilar.

O‘z navbatida o‘lkada o‘zlarining tayanch vositasi bo‘lishlariga harakat qilgan mo‘g‘ullar ham bu toifadagi kishilarni qo‘llab-quvvatlay

boshladilar. Mo‘g‘ul xonlari (viloyat hokimlari xon, oliy hukmdor esa qoon yoki xoqon deb yuritilingan) va mahalliy zodagon, yer egalarining zulmi natijasida mehnatkash xalq endilikda ikki tomonlama ezila boshlandi. O‘lponu soliqlarning miqdori tobora oshib bordi, undan tashqari esa aholidan yig‘ib olinadigan turli to‘lovu yig‘imlar, jarimalarning soni haddan tashqari oshib keta boshladi. Yangi yer solig‘ining nomi-**”kalon”** deyilib, u hosilning o‘ndan bir miqdorida olingan. 1235-yilgi qurultoydan so‘ng esa chorva mol boshidan olinadigan yalpi soliq-**”qopchur”** ta’sis etilgan. Unga ko‘ra 100 tadan bir miqdorda chorva soliqqa to‘lanar edi. (Bu soliq asosan mo‘g‘ullar turmush tarzi xususiyatini hisobga olgan holda joriy etilgan edi). **“Yasoq“**qa ko‘ra, davlat xazinasi uchun **“shulen”** deb nom olgan oziq-ovqat solig‘i joriy qilingan.

Bu soliqqa ko‘ra har bir podadan ikki yashar qo‘y, qimiz uchun har mingta otdan bir biya hisobidan olingan. Soliqlar asosan xonlar tomonidan barot (ijara) tarzida oldindan xazina uchun undirilib, so‘ngra aholidan zo‘ravonlik bilan oshirilgan miqdorda undirilar edi. Ayniqsa, hunarmandlarning ahvoli og‘ir bo‘lgan ularning o‘z yurtlarida tirik qolganlari mahalliy xonlarning mulki sifatida ishlatilinar edi. Masalan, 1262-yil Buxoroda bo‘lgan Xubilay qoonning vakili bu yerda 5000 ta hunarmand Botuxonga, 3000 tasi malika Siyurko‘kteniga (Xubilay va Munqalarning onasi) tegishli bo‘lganligini qayd etadi. 1246-yil Mo‘g‘ulistonda bo‘lgan sayyoh Plano Karpini eng yaxshi hunarmandlar xoqon xizmatida ekanligini va ularga qullarcha munosabatda bo‘lishlarini qayd etib o‘tadi. Bu guruh shaharlik hunarmandlarga esa kundalik ovqat berilib, ularga darhaqiqat qullarcha munosabatda bo‘lingan bo‘lsa, ikkinchi guruh shaharlik hunarmandlarga esa katta soliqlar solingan.

Mo‘g‘ullarga qarashli bo‘lgan harbiy qurol-aslaha va anjomlar ishlab chiqaradigan ustaxonalar-**”korxona”** nomini olgan bo‘lib, u yerdagi hunarmandlar esa qul darajasidagi kishilar hisoblanar edi. Hunarmandlar to‘laydigan maxsus soliqning nomi **“tamg‘a”** deb atalgan. Mo‘g‘ullar, shuningdek, batamom huquqsiz qullar mehnatidan ham foydalanishar edi. Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida yer egaligi holati ham o‘zgarib, yangi in’om etilgan yerlar mo‘g‘ulcha **suyurg‘ol** nomini olgan. Suyurg‘ol hajmi jihatidan (unig tarkibiga juda katta yer maydonlari, suv havzalari, dasht-yaylovlar ham kirib ketar edi) iqtadan farq qilar edi. Bu davrda davlat, mulk (xususiy yerlar), vaqf (diniy idoralar ixtiyoridagi yerlar) yerlarda ko‘p holda ijaraga chorakor dehqonlar mehnat qilishgan. Bir qism ijarador-o‘rtahol dehqonlar esa **muzoriylar** deb yuritilgan.

Buyuk hoqon hisoblangan O‘gedey (1229-1241 yy.) davridayoq mo‘g‘ullar o‘zlariga xizmat ko‘rsatayotgan ayrim kishilar, katta yer egalari, savdogarlarga turli yorliq va payzalar bera boshladilar. Payza qimmatbaho metall (oltin, kumush) yoki jez, yog‘och taxtalardan ishlangan bo‘lib, unga no‘yonning muhri qo‘yilar edi. Bunday payzaga ega bo‘lgan kishilar, shu jumladan, elchilar, soliq yig‘uvchilar va boshqa shaxslar aholidan turli yig‘im, to‘lovlarni talab qilib olish huquqiga ega edilar. Ko‘plab beriladigan payza egalari aholidan tekinga ot-ulov, yem-xashak, yotar-joy, oziq-ovqat talab qilishga haqli ham edi. Savdo yo‘llarida joylashgan bekatlar **“yom” (jom)** deyilib, ularning xizmati va harajati mahalliy aholi bo‘ynida edi. Bu bekatlar bo‘ylab davlat ishlari bo‘yicha ko‘plab elchi, chopar, vakil va boshqalar o‘tib, ularga xalq tekinga xizmat qilib, ularni ta’minlab turishi ham lozim edi. 1235-yildan boshlab hoqon farmoniga ko‘ra, har bir yomning aloqa xizmati va harakati 2 ta tuman aholisiga yuklatildi. “Yomlar bo‘yidagi aholida toqat va majol ham qolmagan edi”,-deb yozgan edi Rashididdin.

Mahalliy aholi-hunarmand, dehqon, chorvador, kim bo‘lishidan qat’iy nazar umum hashar ishlarida qatnashishi va tekinga ishlab berishi shart edi. Mo‘g‘ullarning ichki xo‘jalik hayotni savdo-sotiq sohasini bir oz jonlantirish borasidagi chiqargan past qiymatli tangalari aholi ichida o‘z o‘rnini topmadi. Aksincha, zo‘rlik po‘pisaga qaramay, 1232-yildan boshlab Samarqandda pul muomalasi tugatildi, savdo-sotiq ayriboshlov darajasiga tushib qoldi. Farg‘ona, Shosh, Termiz va boshqa viloyatlarda mo‘g‘ul istilosidan so‘ng pul zarb etish o‘z-o‘zidan tugagan edi. Natijada tez orada Movaraunnahrda pul muomalasi butkul izdan chiqdi.

Mislsiz jabr-zulm, aholining xo‘rlik va qashshoqlik domiga tashlanishi, soliqlarning haddan ziyod o‘sishi, mehnatkash aholining tinka madorini quritib yubordi. Aholi ichida mo‘g‘ullarning zo‘ravonligi va istibdodiga qarshi norozilik harakati tobora kuchayib, bu norozilik ayniqsa, 1238-yilgi Mahmud Tarobiy qo‘zg‘olonida o‘z aksini namoyon qildi. Bu ozodlik qo‘zg‘oloni 1238-yil Buxorodan uch farsah (taxminan 18-21 km) uzoqlikdagi Tarob qishlog‘ida boshlandi. Bu qo‘zg‘olonda mo‘g‘ullar va mahalliy zodagonlar zulmidan ahvoli og‘irlashgan hunarmand, dehqon va kambag‘al aholi, ayniqsa, faol qatnashadi. Qo‘zg‘olonga esa asli Tarob qishlog‘idan bo‘lgan g‘alvir yasovchi hunarmand usta Mahmud Tarobiy boshchilik qiladi.

Mahmud Tarobiy avval o‘z qishlog‘ida istilochilar zulmi, bedodligiga qarshi otashin chaqiriqlar bilan chiqadi. O‘z atrofiga yig‘ilgan qo‘zg‘olonchilarga murojaat etib: “Yey haq toliblari, qachongacha

kutamiz va intizorlik tortamiz. Ro‘yi zaminni tangridan qo‘rqmaydiganlardan pok qilmoq lozim. Kimning qanday qurolga qurbi yetsa, qilichmi, o‘q-yoymi, kaltakmi, qo‘lga olsin. Qo‘ldan kelgancha tangridan qo‘rqmaydiganlardan birontasini ham tirik qo‘ymaslik lozim”,- degan so‘zlar ozodlik kurashiga xalqni da’vat etadi. Shu paytda Sherozdan kelgan harbiy anjomlar ortilgan karvon qo‘zg‘olonchilarning qurollanishiga yordam beradi. Qo‘zg‘olon kuch-qudrati oshib borayotganligini, xalq qo‘zg‘olonchilar tarafiga o‘tib borayotganligini ko‘rgan mo‘g‘ul no‘yonlari Movarounnahr hokimi Mahmud Yalavochdan yordam so‘rashga majbur bo‘ladilar. Mahmud Tarobiy o‘zining ko‘plab tarafdorlari bilan Buxoro tomon yo‘l oladi. Buxorolik aqoid (diniy ilm) olimi, mashhur shayx Shamsiddin Mahbubiy ham qo‘liga qurol olib, o‘z safdoshlari bilan qo‘zg‘olonchilar safiga qo‘shiladi. Tarixchi Juvayniy Mahmud Tarobiy haqida shunday deb yozgan edi: “U akobir, boy-badavlat kishilarni haqorat qildi, sharmandasini chiqardi, o‘ldirtirdi, ularning bir qismi esa undan qochib qutildi. U oddiy xalqqa va darbadarlarga, aksincha, iltifot va marhamat ko‘rsatdi”. Darhaqiqat Mahmud Tarobiy Buxoro ahliga muruvvat namunalarini ko‘rsatdi. Buxorodan qochgan mo‘g‘ul harbiylari va buxorolik zodagonlar Karmanaga kelib panoh topgan edilar. Bu yerda ular ma’lum kuch to‘plab, Mahmud Tarobiy ustiga harbiy yurishni boshlaydilar. Bundan xabardor bo‘lgan Mahmud Tarobiy dushmanga qarshi kurashish maqsadida shahar chetidan Karmana yo‘liga katta harbiy kuch bilan chiqadi. Ikki o‘rtadagi qattiq jangdan so‘ng istilochilar yengilib orqaga chekindilar. Qo‘zg‘olonchilar mo‘g‘ullarni to Karmanagacha quvib bordilar. Ushbu jangda mo‘g‘ullardan 10000 kishi qirib tashlandi. Lekin bu zafarli jangda qo‘zg‘olonchilar rahbarlari Mahmud Tarobiy va Shamsiddin Mahbubiylar halok bo‘ldilar. Qo‘zg‘olonchilar endilikda shahid ketgan Mahmud Tarobiyning o‘rniga uning ukalari Muhammad va Alini rahbar etib saylaydilar. Lekin bu yangi rahbarlarning harbiy tajribalari yo‘q, xalq ularni yaxshi tanimas, omma ichida ular nufuzga ega emas edilar. Bu esa qo‘zg‘olonning borishiga salbiy ta’sir o‘tkazdi. Oradan bir hafta o‘tmay mo‘g‘ullarning Yelduz no‘yon va Chag‘an qo‘rchi boshchiligidagi yangi qo‘shini qo‘zg‘olonni bostirib uchun yetib keldi. Ikki tomonlama jangda Mahmud Tarobiy tarafdorlari butkul tor-mor qilinib, ikkala tomondan 21 mingdan oshiq jangchi halok bo‘ldi.

Mahmud Tarobiy boshchiligidagi ushbu xalq ozodlik qo‘zg‘oloni xalqimiz ozodlik kurashlari tarixida o‘ziga xos iz qoldirdi. U, avvalo, istilochilar va ular tomoniga o‘tib ketgan mahalliy zodagonlarning

umumiy zulmiga qarshi ko‘tarilgan kurash edi. Bu ozodlik qo‘zg‘oloni mo‘g‘ul istilochilariga ular qanchalik shavqatsiz tuzum o‘rnatmasinlar, xalq hamisha o‘z ona vatani ozodligi yo‘lida kurashdan cho‘chimasligini namoyon qildi. Mo‘g‘ullar bu qo‘zg‘olondan so‘ng bosqoqlar tomonidan yig‘iladigan soliq va o‘lponlarni tartibga keltirishga harakat qildilar. Mahmud Torobiy qo‘zg‘olonidan keyin Chig‘atoy qo‘zg‘olonni bostirishda sustkashlik qilgan, degan maqsadda, Mahmud Yalavochni o‘z amalidan chetlashtirib, uni Movaraunnahrdan chiqartirib yubordi. Tez orada xoqon uni Dasin (Pekin)ga shahar noibi etib jo‘natadi. Shundan so‘ng Movaraunnahr noibi hamda ijaradori sifatida Mahmud Yalavochning o‘g‘li Ma’sudbek tayin etiladi. U o‘limiga qadar (1289 y.) shu lavozimni egallab turadi.

XIII asrning ikkinchi choraklaridan boshlab, mo‘g‘ullarning ichida ham endilikda ma’lum siyosiy nizolar, parokandaliklar kelib chiqa boshlaydi. 1241-yilga kelib bosib olingan Rusiya, Volga bo‘yi, Ural va boshqa yerlardan Oltin O‘rda davlati tashkil topadi. Mo‘g‘ullar 1256-yili Xulagu boshchiligida Eron, Kurdiston, Iroq va Yaqin Sharqning boshqa yerlariga hujum qiladilar. Mo‘g‘ul xonlari o‘rtasida oliy hukmdorlik uchun kurash avj oladi. Ayniqsa, buyuk hoqon Guyukxonning (1246-1249) o‘limidan so‘ng bu kurash keskin kuchayadi. 1251-yili hokimiyat tepasiga Botuxon va Berkaxonlarning qo‘llab-quvvatlashlari bilan Tulining to‘ng‘ich o‘g‘li Munqa (1251-1259) ulug‘ xon sifatida saylanadi. U dastlab Chig‘atoy ulusini mulk sifatida tugatadi va uni Botuxon bilan bo‘lib oladi. Keyinchalik Munqaning o‘limidan so‘ng Chig‘atoyning nevarasi Olg‘uxon (1261-1266) Oltin O‘rdaga qarshi kurashib, Chig‘atoy ulusini qayta tiklashga muvaffaq bo‘ladi.

XIII asrning 60-70-yillariga kelib, rasman yagona hisoblangan mo‘g‘ul imperiyasi aslida Erondagi Xulagiylar, Movaraunnahrdagi Chig‘atoylar, Oltin O‘rda deyarli mustaqil qismlariga bo‘linib ketgan edi. Har bir ulus xoni o‘zini tamomila mustaqil sanab, payt kelganda qo‘shni uluslarga o‘lja uchun hujum ham qilib turar edilar. Masalan 1272-yili Xulagiylarning Oqbek boshchiligidagi askarlari Kesh va Nahshab shaharlarini, 1273-yil yanvarida Buxoroni talon-taroj etadilar. Buxoro dahshatli qirg‘in-barotni boshdan kechirib, yetti yilgacha vayrona tarzda yotadi. Mo‘g‘ullar to‘g‘risida so‘z ketganda yana bir muhim xususiyatni e’tiborga olmoq kerak bo‘ladi. Bosib olingan yerlarda mo‘g‘ul harbiy sarkardalari, no‘yonlari, zodagonlari orasida siyosiy dunyoqarash o‘zgara boshlaydi.

Ba’zi no‘yon, xonlar, harbiy ma’murlarning kichik qismi, ularga ergashgan mahalliy zodagonlar, savdogarlar, diniy ulamolar va boshqalar o‘troq hayotga o‘tish, markaziy hokimiyatni kuchaytirib, savdo-sotiqni rivojlantirish tarafdorlari edi. Dehqonchilik va savdo-sotiq xazinaning asosiy manbayi bo‘lishi mumkin edi. Buning uchun esa shahar va qishloqlarni tiklash, ekinzorlarni o‘zaro payhon etishga chek qo‘yish, soliqlarni tartibga tushirish, shaharlar rivoji, savdo, hunarmandchilikka homiylik qilish darkor edi. Yuqorida ta’kidlangan madaniylashish tarafdorlari safiga Munqaxon (1251-1259) va Chig‘atoy noibi, hoqonning yaqin maslahatchisi Ma’sudbek (1238-1289) ham kirar edilar. Munqaxon shubhasiz tadbirli va zehnli Movaraunnahr noibi Ma’sudbekning ta’siri ostida ba’zi bir ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirdi.

Butun mo‘g‘ullar imperiyasida soliqlar bir xil tarzda undirilmas edi. Masalan, Xitoyning shimoli, Movarounnahrda badavlat kishi 10 dinor, kambag‘al 1 dinor to‘lasa, Xurosonda badavlat kishi 7 dinor, kambag‘al esa 1 dinor to‘lar edi va xakozo. Munqaxon soliq va xashar ishlarini tartibga solish borasida maxsus farmon-yorliq chiqardi. Unga ko‘ra Chingizxon o‘limidan so‘ng berilgan payza va yorliqlar bekor etildi, yomlar bo‘ylab aloqa vositasi uchun ajratiladigan otlar soni belgilanib, aholidan ortiqcha ot-ulov talab etish, yomlar uchun belgilangan otlarda shaxsiy maqsadda foydalanish ta’qiqlab qo‘yildi. Munqaxoning qonunlashtirib qo‘ygan chora-tadbirlari aholini behisob soliq va yig‘inlardan ozod etib, ularning tinchlik-osoyishtaligini bir muncha ta’minladi, shahar hayotining, ichki va tashqi savdoning rivojlanishiga qisman imkon yaratib berdi. Bu islohotlar natijasida mamlakatning ayniqsa shimoliy-sharqiy rayonlari, jumladan Farg‘ona vodiysida xo‘jalik, iqtisodiy hayotda jonlanish sodir bo‘la boshlaydi.

Ayniqsa, xo‘jalik-iqtisodiy hayotni bir me’yorga tushirish, savdo va pul muomalasini izga solishda Chig‘atoy ulusi noibi Ma’sudbekning xizmati va islohotlari katta o‘rin tutgan. Ma’sudbek mo‘g‘ul qoonlariga shaxsan yaqinligi ham uning islohotlar o‘tkazilishga imkon ham bergan edi. 1271-yili mo‘g‘ullarning madaniy, o‘troq hayot tarafdorlari madadi, Talas qurultoyi (1269-y.) qarorlariga tayanib, Ma’sudbek yangi pul (moliyaviy) islohot o‘tkazishga kirishdi. Unga ko‘ra, har qanday shaxs o‘ziga kerakli tangalarni zarbxonalarga olib borib, uni xohlagan tarzda, lekin bir xil hajm, qiymat, vaznda zarb etish mumkin edi. Avval boshida qiyinchilik bilan kechgan bu jarayon XIII asrning 80-yillariga kelgandagina faollasha bordi. Tez orada 16 ta yirik shahar va viloyatlarida bir xil vazn va yuqori qiymatga ega sof kumush tangalar zarb etilib,

muomalaga kiritildi. Garchi atrofdagi islohotlarga qarshi mo‘g‘ul harbiylari Erondan, Yettisuvdan Movaraunnahrga vayronagarchilik keltirib chiqaruvchi kurashlarni amalga oshirib tursalarda, lekin islohotlar borishiga to‘sqinlik qila olmadilar. Ma’sudbek 1273-1276-yillari qayta talangan Buxoroning tiklanishiga o‘zi bosh qosh bo‘ldi. 1282-83-yillarda Buxorodagi zarbxonalar to‘laqonli ishlashga kirishdi. Savdo-iqtisodiy munosabatlar rivojlanib borayotgan Farg‘ona vodiysida esa Chig‘atoy xoni Duvaxon (1291-1306) davrida Andijon shahriga ham asos solindi.

XIV asrning 1-yarmiga kelib, Chig‘atoy ulusida mo‘g‘ullarning o‘troqlashuv jarayoni kuchayib, mo‘g‘ul zodagonlarining katta qismi savdo doiralari bilan yaqinlashib, islom madaniyati ta’siriga berilishi kuchayib bordi. Movarounnahr madaniy o‘lkasi bilan yaqin aloqa o‘rnatib, o‘troq hayot kechirishga intilgan Chig‘atoy xonlaridan biri Kebekxon (1309, 1318-1326) bo‘ldi. U butunlay Movarounnahrga ko‘chib kelib, o‘z qarorgohini Nasaf shahri yonida barpo etdi. Keyinchalik bu saroy o‘rnida yangi Qarshi shahri yuzaga keldi. Kebekxon davlatni idora etish, uning ma’muriy tuzilishini qayta tashkil etish, iqtisodiy hayotni tartibga solish maqsadida 2 xil ma’muriy va moliyaviy islohot o‘tkazdi. Ma’muriy islohotga ko‘ra mahalliy tuzilmalar tumanlarga, viloyatlarga aylantirildi. Mahalliy hokimlar-maliklar, sadrlarning o‘rinlari turkiy-mo‘g‘ul urug‘ boshliqlari qo‘liga o‘tdi. Noiblik esa merosiy bo‘lib qoldi. Bu islohot davlatni birmuncha mustahkamlashda o‘zining ijobiy samarasini berdi.

Ma’sudbek davrida pul islohoti amalga oshirilgan bo‘lsa-da, Kebekxon uni takomillashtirmoqchi bo‘ldi. Jumladan, u Xulagiylar va Oltin O‘rda tangalari namunasida 2 xil pul: yirik kumush tanga-“dinor” va mayda kumush tanga “dirham” lar zarb ettiradi.

Dinor (2 misqol, 8 gr. atroflarida) 6 ta dirhamdan iborat bo‘lib qoldi. Kebek nomidan tangalar asosan Buxoro va Samarqandda zarb etilar edi. Shuningdek, O‘tror zarbxonasi ham faol ishlay boshladi.

Kebekxonning islohotlari anchadan beri o‘troq hayot, mahalliy aholi madaniyati bilan yaqinlashuviga qarshi bo‘lgan guruhlarning ham faoliyatini kuchaytirib yuboradi. Kebekxoning ukasi Oloviddin Tarmashirin (1326-1334) akasining siyosatini davom ettirib, o‘troq hayot an’analarini qattiq turib himoya qiladi. U islom dinini qabul qilib, islom dinini Chig‘atoy ulusining rasmiy diniga aylantiradi. Tarmashirin siyosatidan norozi ko‘chmanchi mo‘g‘ul zodogonlari isyon ko‘tarib 1334-yilda uni o‘ldirishadi. Tarmashirindan so‘ng hokimiyat tepasida bo‘lgan Changshi (1334), Bo‘zan (1334-1338), Eson-Temur (1338-1342),

Muhammad (1342-1343)lar davrida Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotida sezilarli o‘zgarishlar bo‘lganligi yo‘q. Aksincha, mahalliy qabilalar hokimiyati, urug‘ boshliqlarining ta’siri bu paytga kelib yanada kuchayib, Chig‘atoy hokimiyatining qudrati pasaya boshlaydi.

XIV asrning 40-yillariga kelib, Yettisuvda Dug‘lot amirligining yuzaga kelishi, amalda Chig‘atoy ulusining tarqab ketishidan, o‘rniga Movarounnahr amirligi yuzaga kelganligidan dalolat berar edi. Chig‘atoy xonlarining so‘nggi vakilaridan biri Qozonxon (1343-1346) markaziy xon hokimiyati kuch-qudrati ta’sirini ko‘tarib, ichki siyosatda Kebekxon-Tarmashirin yo‘lini tutishga harakat qildi. U ko‘chmanchi harbiylarga qarshi kurash olib borib Qashqadaryo vohasida hatto ularga qarshi tayanch markazi etib-Zanjirsaroy qal’sini ham barpo etgan edi. Qozag‘on boshchiligidagi bir guruh ko‘chmanchi, talonchilik siyosati tarafdorlari 1346-yili fitna natijasida Qozonxonni o‘ldirishga muvaffaq bo‘lishadi.

Qozag‘an o‘ziga amir unvonini olib, davlat boshqaruvini o‘z qo‘liga oldi. Movarounnahr Qozag‘on davridayoq bir necha yarim mustaqil qismlarga bo‘lib ketgan edi. Mamlakatda siyosiy tarqoqlik avj olib, o‘zaro nizolar yanada kuchaygan edi. Kesh (Shahrisabz) atrofidagi yerlar Hoji Barlos boshchiligidagi barlos urug‘iga, Xo‘jand Boyazid Jaloyiriyga qaram bo‘lib qoldi, Balx va uning atrofidagi yerlar Qozog‘onning nevarasi amir Husaynga tobe bo‘ldi, Shiburg‘on esa Muhammadxo‘ja Apverdi qo‘liga o‘tib ketdi. Bundan tashqari Buxoroda diniy ulamolardan iborat sadrlar, Xuttalonda mahalliy hokimlardan bo‘lishi Kayxusrav, Termizda-sayidlar, Badaxshonda o‘zboshimcha mahalliy shohlar hokimiyatni qo‘lga olishdi.

XIII asr 2-yarmi va XIV asr 1-yarmidagi madaniy hayot

XIII asr II-yarmida XIV asr I-yarmida xo‘jalik, iqtisodiy hayotdagi siljishlar, savdo-sotiqning rivojlanishi, qolaversa, Chig‘atoy mo‘g‘ullarining tobora o‘troq hayotga moslasha borishi, bosqinchilik vaqtida tanazzulga yuz tutgan madaniy hayotning nisbatan jonlanishiga olib keldi. Avvalo shaharsozlik bilan bog‘liq binokorlik va me’morchilik yo‘lga qo‘yila boshlandi. Mahalliy diniy ulamolar va dunyoviy zodagonlar, gohida mo‘g‘ul zodagonlarining ba’zilari qurilish ishlariga homiylik qila boshlashdi. Me’morchilikda alohida o‘rin tutgan ganchkorlik, g‘isht o‘ymakorligi, koshinpazlik, me’moriy xattotlik qayta tiklandi. Movaraunnahr, Xorazmda mahalliy binokorlar ishtirokida xonaqo, maqbara, masjid, madrasa, saroy, minoralar qad ko‘tara boshladi.

Shu davrlarda barpo etilgan ko‘pgina me’moriy obidalar u yoki bu ko‘rinishda hozirgi kunlargacha yetib kelgan.

Jumladan, Buxorodagi Sayfiddin Boharziy maqbarasini birinchilardan barpo etilgan me’moriy bino sifatida ko‘rish mumkin. Taniqli buxorolik shayx Sayfiddin Boharziy nufuzli diniy ulamolardan biri bo‘lib, u 1258-yili olamdan o‘tgan edi. Uning qabri ustida tez orada katta maqbara va honaqo barpo etildi. 1333-yili Buxoroda bo‘lgan arab sayyohi ibn Battuta ushbu maqbaraga yuqori baho bergan edi. Shuningdek, mana shu davrlarda barpo etilgan Buxorodagi Qusam ibn Abbos maqbarasi ziyoratxonasi, Xo‘ja Ahmad maqbarasi, Qo‘hna Urganchdagi Najmiddin Kubro va To‘rabekxonim maqbarasi, masjid va 2 ta baland minoralar (minoraning hozirgacha saqlangan qismi 62 metrni tashkil etadi, minoralarning bittasi XX asr boshlarida qulab tushgan), Xo‘janddagi Duvaxon maqbarasi (keyinchalik vayron bo‘lgan) va boshqalarni tilga olib o‘tish mumkin. Qarshidagi buzilib ketgan saroy, Ma’sudbek hukmronligi davrida (1238-1289) Buxoroda barpo etilib, 1000 tacha talabaga mo‘ljallangan “Ma’sudiya”, “Xoniya” madrasalari va boshqalar to‘g‘risida manbalarda ma’lumot berib o‘tiladi.

Ko‘rilayotgan davr binokorligi va me’morchiligida pishiq g‘isht, koshin, parchin, me’moriy o‘ymakor g‘ishtlar hamda ganch va ohak, pista ko‘mir, qumlardan tayyorlangan maxsus qorishmalar kabi qurilish mahsulotlaridan ham binolarni qurishda hamda ularni me’moriy jihatdan bezashda keng foydalaniladi. Monumental binolarning aksariyati esa bir yoki ikki gumbazli, toqu ravoqli va peshtoqli bo‘lgan. Naqshinkor g‘isht, koshinlar, kitoba (lavha) bilan naqsh berish an’analari davom ettirilgan. Shuningdek naqshlarning turli tuman, guldor bo‘lishi, o‘ymakor amaliy san’at qayta tiklanganligidan ham darak berar edi. Kulolchilik, misgarlik, zargarlikda ham naqsh bilan ishlov berish holati avj oladi.

Shubhasiz, Chingiz O‘rdalarining bosqini Movarounnahr va Xuroson ilm fan, adabiyot o‘choqlariga katta zarba bo‘lib tushadi. XIII asr-XIV asr oxirlariga qadar mo‘g‘ullar qadami yetmagan yoxud ularning ta’siri kam bo‘lgan Dehli sultonligi, janubiy Yeron, Kichik Osiyo, qisman Suriya va Misrda ilm-fan, ma’rifat, adabiyot taraqqiy eta boshlagan edi. Faqatgina XIV asr oxiri- XV asr boshlariga kelibgina ma’rifat, madaniyat o`choqlari yana Movarounnahr va Xurosonga ko`chadi.

XIII asr-XIV asrning 2-yarmida fors-tojik adabiyotida ayniqsa Jaloliddin Rumiy (1207-1272), Muslihiddin Sa’diy Sheroziy (1219-1293), Amir Xusrav Dehlaviylarning (1253-1325) o`rni va mavqei ko`tarilib, ular jahon adabiyoti olamiga taniladilar. Asli Balx shahridan bo`lgan Rumiy

14 yoshligida o`z oilasi bilan mo`g‘ul bosqinidan qochib Kichik Osiyoning Ko`niya sultonligiga borib qoladi. Ko`niya, Halab, Damashqda tahsil olib, buyuk tasavvuf ilmi shoiri va faylasufi bo`lib taniladi. U she’riyatda so`fiy-falsafiy janrni rivojlantirib, o`zining 36 ming baytdan iborat “Masnaviyi-ma’naviy” degan dostonini yaratadi. Sa’diy esa islom olamida o`zining “Guliston” va “Bo`ston” asarlari, g‘azallari, ahloqiy fikrlari bilan keng shuhrat qozonadi. Uning asarlarida Ona-Vatanga muhabbat, insonparvarlik, mehr-muhabbat g‘oyalari hamisha barq urib turadi. U o`z asarlarida kishilarni o`zaro hamjihatlik va totuvlikka, hukmdorlarni adolat va insofga chaqirib, salbiy xususiyatlarni qoralab chiqadi. Sa’diy o`z umrini ona shahri Sherozda tugatgan.

Xusrav Dehlaviy Hindiston shimoliga mo`g‘ul bosqinidan qochib borgan asli Kesh (Shahrisabz) lik kishilar xonadonida dunyoga keladi. U Dehlida sulton saroyida yashab, o`zining ajoyib “Xamsa” dostonini, Hindistonda hozirgacha mashhur “Xizrxon va Duvalra”ni, “Miftah al-futuh” (G‘oliblik kaliti) “Nuh sipehr” (Falakning to`qqiz gumbazi) kabi asarlarni yozadi. XIII asrning 2-yarmidan boshlab tarixnavislik ham rivoj topa boshlaydi. Bu davrda asli G‘ur viloyatidan bo`lgan Abu Umar Minhojiddin Juzjoniyning 1260-yil yozilgan “Tabaqoti Nosiriy” (Nosirga atalgan tabaqalar), Oloviddin Ota Malik Juvayniyning “Tarixi jahongo`shaiy” (Jahon fotihi tarixi), Fayzulloh Rashididdin Hamadoniyning “Jomə at-tavorix” (Tarixlarning jamlanishi) Shahobiddin an-Nasaviyning “Siyrat as-sulton Jaloliddin Mankburni” (sulton Jaloliddin Mankburning hayot faoliyati) kabi nodir tarixiy asarlari ham jahon yuzini ko`rdi.

Bu asarlar o`z vaqtida mo`g‘ullar istilosi va undan keyingi davrni o`rganish bobida birinchi darajali manbalar hisoblanadi. Bu paytda shuningdek, islom ahloq-odob va taqvodorligi asosida turkiy tildagi adabiyot ham rivoj topa boshladi. Xorazmdagi bu adabiyotning bir vakili mashhur faylasuf shoir va mutafakkir Pahlavon Mahmud (1247-1326) hisoblanadi. U nafaqat shoir, mutafakkir bo‘libgina qolmay, Hindiston, Sheroz, Rumda ham beli yerga tegmagan kurashchi polvon ham edi. Xuddi shu ma’noda “Pahlavon” taxallusi unga haqli ravishda berilgan. Xalq ichida esa uni yana behad saxovatli, bag‘rikeng, adolatli inson sifatida hurmati katta edi. U g‘oliblikdan tushgan mukofotlarni yetim-yesir, nogironlarga hadya etar, po‘stindo‘zlik hunaridan kelgan daromadini atrofidagi kambag‘allar bilan baham ko‘rar edi. O‘z yonidan hatto Xiva yaqinida maqbara ham barpo etadi. Uning mardligi, tantiligi, haqparvarligi to‘g‘risida bizning kunlarimizga qadar turli hikoyat,

rivoyatlar ham yetib kelgandir. Uning insonga xos bo‘lgan ajoyib fazilatlarni ulug‘lovchi ruboiylari xalq orasida keng tarqalgan bo‘lgan. U inson aql-zakovati, ahloqiy kamolati va ahloqiy pokligini qadrlaydi.

Turkiy tilda ijod qilgan yana bir shaxs, bu nomi bizga hali yaxshi tanish bo‘lmagan Nosiriddin Burhonuddin Rabg‘uziydir. U XIII asr oxiri-XIV asr boshlarida yashab, ijod qilgan. Bizgacha uning birgina “Qissayi Rabg‘uziy” (Qissasul anbiyo) asari yetib kelgan. Bu asarda muallif o‘zini “Rabot o‘g‘uzining qozisi Burhon o‘g‘li Nosiriddin” deb tanishtiradi. Ushbu asar islom dinini qabul qilgan mo‘g‘ul beklaridan biri bo‘lmish Nosiriddin To‘qbug‘aning iltimosiga ko‘ra hijriy 709 (milodiy 1309-1310) yilda yozilgan. Ushbu asar 72 qismdan iborat bo‘lib, payg‘ambarlar (Dovud, Sulaymon, Muhammad) haqidagi qissalar, diniy rivoyat va hikoyatlar, xalq og‘zaki ijodi, tarixiy asarlar, diniy kitoblar asosida bayon etilgan diniy-falsafiy, tarixiy, ahloqiy asardir. Ushbu asar xalq orasida, baxshi va oqinlar orasida hamisha mashhur bo‘lib kelgan. Asarda bayon etilgan ahloqiy fazilatlar, ta’lim-tarbiya, ma’rifat xususida fikrlar hozirgi kunga qadar o‘zining dolzarb ahamiyatini yo‘qotmagan.

Bu paytga kelib turkiy adabiyot rivoji bilan bir qatorda, tasavvuf, din ilmlarining ham rivojlanishi ko‘zga tashlanadi. Tasavvuf ilmining mashhur namoyondasi, naqshbandiylik tariqatining asoschisi Bahovuddin Naqshband (Sayid Muhammad ibn Jaloliddin) (1318-1389)-avvalo o‘z mehnati bilan halol kun ko‘rish g‘oyasini yoqlaydi. Uning “dil ba yoru, dast ba kor” (ya’ni diling xudoda bo‘lsinu, qo‘ling mehnatda bo‘lsin) degan shiori keyinchalik juda mashhur bo‘lib ketdi. Uning nomi xalq orasida ma’lum va mashhur bo‘lib ketib, Buxoro yaqinidagi qabri musulmonlar ziyoratgohlaridan biriga aylanib qolgan edi. Mustaqillik inoyati bilan bu ajdodimizning nomlari qayta tiklanib, uning qabri joylashgan yer obod va ko‘rkam ziyoratgoh tusini oldi.

10-mavzu. Amir Temur va Temuriylar davrida o`zbek davlatchiligi. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot. Amir Temurning markazlashgan davlat tuzish uchun kurashi va harbiy yurishlari

Buyuk davlat arbobi va mahoratli sarkarda Amir Temur 1336-yil 8-aprelda (hijriy 736, sha’bon oyining 25 kunida) Keshga qarashli Xo`ja Ilg‘or (hozirgi Yakkabog‘ rayoni) qishlog‘ida barlos beklaridan biri Amir Tarag‘ay ibn Barqal oilasida dunyoga keldi. Onasi Takinaxotun Keshning obro‘li bekalaridan biri bo‘lgan.

Temurning bolaligi va o`spirinlik yillari Keshda o`tdi. Ibn Arabshoh, Rui Gonzales de Klavixo va boshqa tarixshunoslar 1360 yilga qadar uning hayotini ayrim ma'lumotlar bilan izohlashadi.

1360-1361 yillarda Mo`g'uliston hukmdori hoqon Tug'luq Temur Movarounnahrning ichki hayotiga rahna sola boshlaydi. Uning bosqinchilik tadbirlari O`rta Osiyolik mustaqil hukmdorlarga ma'lum bo`lganidan keyin ular sarosimaga tushib qolganlar. Shular qatoriga Kesh amiri Hoji Barlosni ham kiritish mumkin. Tug'luq Temur Xo`jandni ishg'ol etish niyatida Sirdaryodan o`tganidan so`ng Movaraunnahr amirlari va Hoji Barlos qo`rquvdan o`z jonlarini xalos etish uchun Amudaryodan o`tib Xurosonga ketib qoldilar.

1360-1370-yillarda Movaraunnahr siyosiy hayotida Amir Temur bilan bir qatorda ta'sir o`tkazgan shaxslardan yana biri Amir Qozog'onning nabirasi amir Husayn edi. Balx va uning atrofidagi yer-mulklar uning tasarrufida edi. 1361-yilda Amir Temur amir Husaynga yaqinlashgan edi. Endi ikkala hukmdor birlashib, mo`g'ul xonlariga qarshilik ko`rsatish imkoniga ega bo`ldilar. Ma'lumki, Amir Temur mo`g'ul hokimiga qaram edi. Vaqti kelib, Movaraunnahrni boshqarishni Tug'luq Temur o`z o`g'li Ilyosxo`jaga topshirdi. Mustaqil bo`lishga harakat qilib yurgan Amir Temur yangi hukmdorga itoat etmadi. Buning oqibatida yangi ziddiyat yuzaga chiqdi. Amir Xusayn bilan Sohibqiron Temurning bir-birlari bilan juda yaqinlashgan va yaxshi munosabatda bo`lgan davrlar 1361-1365-yillarni o`z ichiga oladi.

Amir Temurning hayotida ro`y bergan va bir umrga unga tan jarohatini muhrlagan voqea 1362 yilda Seyistonda bo`lib o`tgan. Amir Temur jang vaqtida o`ng qo`lini tirsagidan va o`ng oyog'idan kamon o`qi tegishidan qattiq jarohatlanadi. Buning oqibatida u bir umr oqsoqlanib yuradi. Shu bois undan dahshatga tushgan dushmanlari Amir Temurni hasad bilan "Temurlang" deb atashgan.

Tug'luq Temur o`limidan so`ng 1363-yilda Movaraunnahr tuprog'idan haydalgan Mo`g'ul xoni Ilyosxo`ja yangidan juda katta lashkar bilan avvalgi mulklarini egallab olish maqsadida Movaraunnahr tomon harakat qila boshlaydi. Mo`g'ul xoni ayniqsa o`zining raqiblariga nisbatan qahrli kayfiyatda ekanligi ham ma'lum edi. Temur va Amir Husayn bo`lg'usi qaqshatqich to`qnashuvga imkon boricha harbiy kuchlarni yig'dilar. Tarixda "Loy jangi" nomi bilan kirgan mazkur jang. Chinoz bilan Toshkent o`rtasida 1365-yilning bahorida ro`y bergan. Amir Temur va Amir Husayn Chirchiq daryosi bo`yidagi bu jangda mag'lubiyatga uchraganlar. Mazkur mag'lubiyat sabablarini, har xil bayon

etishadi. Ayrim solnomachilar mo`g‘ul xonining g‘olib chiqishida Amir Husaynning sust va layoqatsizlik bilan harakat qilishi deb izohlaydi. Ehtimol shundandir, yoki mo`g‘ul xoni qo`shinining soni ko`pligi hamda yaxshiroq tayyorlanganligi bu yutuqning asosiy omili bo`lsa kerak.

Qayta urinish behuda ekanligini anglab yetgan Amir Temur jang maydonini tark etib, qolgan-qutgan askarlari bilan Samarqand tomon qaytib ketgan. Samarqand shahriga kelgandan so`ng bu yerda ham uzoq turmasdan avvaliga Keshga so`ngra Amudaryo orqali Balxga o`tib ketadi. Yuqorida ta’kidlab o`tganimizdek, bu paytda Movarounnahrning bosh amiri Husayn edi. Biror qarorga kelish esa uning irodasiga bog‘liq bo`lgan. Shu sababli Amir Temur ham uning ko`rsatmasi bilan, ko`p hollarda Husaynning roziligi bilan ish tutishga majbur edi. Samarqand shahri, qolaversa, butun Movaraunnahr o`z holiga tashlab qo`yildi. Mo`g‘ul xoni changalidan qutilish samarqandliklarning o`ziga bog‘liq edi. Bu sharoitda Samarqand mudofaasini sarbadorlar o`z qo`llariga oldilar.

Sarbadorlar mo`g‘ullar zulmidan ozod bo`lish yo`lida o`zlarini qurbon qilishga tayyor edilar. Sarbadorlar harakati XIV asrning 30-yillarida Eronda ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida paydo bo`lib, 50-60-yillarda Movarounnahrga ham yoyildi. Harakat qatnashchilarining asosiy maqsadi mo`g‘ul istilochilari va zulm o`tkazuvchi mahalliy qatlamlarga qarshi kurash edi.

Xurosondagi singari Samarqandda ham bu harakat qatnashchilarning ijtimoiy tarkibi aynan bir xil bo`lgan. Hunarmandlar, do`kondorlar ayrim madrasa mudarislari va talabalar mazkur harakatga faol qo`shildi. Ilyosxo`ja to`g‘ridan-to`g‘ri Samarqandga tomon yo`l oldi. Shahar jome’ machitiga yig‘ilgan aholi oldida sarbadorlarning bo`lajak rahbaridan biri bo`lgan, madrasa mudarrisi Mavlonozoda chiqib, shaharning har bir a’zosidan katta miqdorda soliq va to`lov yig‘ib, uni o`z bilganicha sarf etib yurgan hukmdorning shaharni o`z holiga tashlab qo`yganligini uqtirib o`tadi.

Mudofaa rahbarligiga Mavlonozoda qatoriga Mavlono Xo`rdak Buxoriy va Abu Bakr Kalaviy ham qo`shildilar. Mudofaa tashkil etilganligidan xabarsiz mo`g‘ullar hukmdorsiz shaharni himoyasiz deb o`ylashardi. Ularning asosiy qo`shinlari shaharga kiraverishdagi bosh ko`chadan hujum qiladilar. Xavf-xatardan shubhasi bo`lmagan bosqinchilar Mavlonozoda kamonchilari bilan pistirmada turgan joyga yaqinlashganlarida to`satdan kamon o`qlariga duch keladilar. Shahar mudofaachilari mo`g‘ullarga uch tarafdan hujum qildilar. Birinchi

hamladayoq shaharni egallaymiz deb o`ylab bostirib kirgan mo`g‘ullar katta talofat ko`rib, orqaga chekinishga majbur bo`ldilar.

Samarqandliklarning ishlab chiqqan harbiy rejasi puxta chiqdi va o`z samarasini berdi. Bir necha hujum samarasiz tugagach, mo`g‘ullar shahar atrofini qurshab olib uzoq vaqt qamal qilish rejasini o`ylab chiqdilar. Lekin lashkar safida yuqumli kasallik tarqaldi. Buni ot vabosi (o`lati) deb atashadi. O`lat oqibatida Ilyosxo`ja qo`shinlariga mansub otlarning katta qismi qirilib ketdi. Ilyosxo`ja katta yo`qotishlar bilan dastlab Samarqandni keyin esa Movaraunnahrni tashlab ketishga majbur bo`ldi.

Bu paytda Keshda bo`lgan Amir Temur bu xabarni Amudaryo bo`ylarida bo`lgan Amir Husaynga etkazdi. 1366-yilning bahorida ular Samarqandga etib keladilar va sarbadorlar rahbarlarini o`z huzurlariga chorladilar. Uchrashuv Samarqanddagi Konigil degan joyda bo`ldi. Bu erda sarbadorlarning rahbarlari bilan kelishmovchilik yuz beradi va ular qatl etiladi. Amir Temurning iltimosi bilan faqat Mavlonozoda omon qoldirilib, Xurosonga jo`natiladi. Sarbadorlar harakati bostirilgandan so`ng Amir Husayn va Amir Temur o`rtasidagi munosabatlar keskinlashadi. Bunga Amir Husaynning sarbadorlarga nisbatan adolatsizligi ham bir qadar sabab bo`lgan edi.

1366-1370-yillar oralig‘ida Amir Temur o`z e’tiborini ichki ishlarga qaratdi. Amir Husayn va Amir Temur o`rtasidagi ziddiyatlar 1370-yilda Husaynning o`ldirilishi va Amir Temurning taxtga o`tirishi bilan yakunlandi. Movaraunnahrning amaldagi xoni Chingizxon avlodiga mansub bo`lgan Suyurg‘otmish qo`liga o`tdi. Davlat boshqaruv tizimi esa Movaraunnahr amiri nomini olgan Amir Temir qo`lida qoldi, hamda Kesh shahridan Samarqandga ko`chib, uni o`z davlatining poytaxtiga aylantirdi.

Amir Temurning Movarounnahrdagi birlashtirish siyosati boshlangan edi. U Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida turgan yerlarni o`ziga bo`ysundirib, o`ziga itoat ettirdi. Farg‘ona, Shosh viloyatlarini o`z tasarrufiga kiritish unga qiyin bo`lmadi. Sirdaryoning quyi oqimidagi Oltin O`rdaga qarashli erlarni egallashda u bu erlardagi ichki sulolaviy urushlardan foydalandi.

Amir Temur Xorazmni ham qaytadan Movaraunnahrga kiritishga intildi. 1372-yilda Husayn Sufi Amir Temurga boj to`lamasdan, buning ustiga Sohibqiron tomonidan yuborilgan elchiga shunday javob berdi: “Men mamlakatni qilich bilan fath etganman, shuning uchun ham uni faqat qilich bilan olish mumkin”.

O`sha yili Amir Temur Xorazmga qo`shin tortib keladi. Urganchga borish uchun Qiyot shahri orqali o`tish kerak edi, bu shahar bir oz qarshilik ko`rsatgandan keyin Temur qo`shini tomonidan ishg‘ol qilinadi. Qiyotning qo`ldan ketishi Xusayn Sufiga kuchli ta’sir ko`rsatadi. U Amir Temur bilan yarashishga, uni talablarini bajarishga rozi bo`ladi. Lekin ayrim hokimlar Amir Temurning tez baland martabaga erishishini ko`rolmay Husaynni unga qarshi gij-gijlay boshladilar. Husayn ularning yordamiga ishonib Amir Temurga qarshi chiqadi, ammo uning tomonidan tor-mor etiladi. Shundan so`ng Husayn Urganch qal’asiga berkinadi va tezda vafot etadi. Uning o`rniga akasi Yusuf So`fi (1372) hokimiyatga keladi va Amir Temur bilan yarash shartnomasi tuzadi. Lekin u yarash shartlarini xiyonatkorona buzib, Amir Temur qaytib ketgandan keyin Qiyot shahrini bosib oladi va unga qarshi ochiqdan-ochiq dushmanlik harakatlariga o`tadi. Shundan so`ng Amir Temur Xorazmga ikkinchi marotaba yurish qilishga majbur bo`ladi. (1373-1374-y.). Ammo bu harbiy to`qnashuvgacha bormaydi, chunki Yusuf Amir Temurga tavba qilib yarash shartlarini so`zsiz bajarishga va’da beradi. Bu ikkinchi yurish natijasidan Janubiy Xorazm Amir Temur davlati tarkibiga kiradi.

1374-yildan keyin Amir Temur Xorazmga uch marotaba yurish qildi. Buning sababi Oltin O`rda xoni To`xtamishning Xorazmga da’vosi tufayli edi.

1387-1388-yillarda To`xtamish, Amir Temurning Movaraunnahrda yo`qligidan foydalanib, Xorazmga hujum qildi. Xorazm hokimi bo`lgan Sulaymon So`fini Amir Temurga qarshi qo`zg‘olon ko`tarishga undadi. Sulaymon So`fi bunga rozi bo`ldi. Bu voqealar Amir Temurni 1388-yili Xorazmga yana yurishga majbur etdi. Temur Urganchni ishg‘ol qildi va sufiylar sulolasini tugatdi.

Shu vaqtdan buyon Xorazm Amir Temur davlati tarkibiga, keyin esa Temuriylar davlati tarkibiga kirgan. Shunday qilib, Yettisuvdagi va Sirdaryo etaklaridagi yerlardan tashqari, Turkiston yerlarining hammasi Amir Temur qo`liga o`tdi.

Amir Temurning harbiy yurishlari tarixda “uch yillik” (1386-1388) “besh yillik” (1392-1396) “yetti yillik” (1399-1405) urushlar deb nom olgan. Temur 1381 yilda Hirotga yurish qiladi. Bu davrda Hirotni kurdlar sulolasi boshqarar edi. Ularning hukmdori G‘iyosiddin Pir Ali Temurga qattiq qarshilik ko`rsatmadi. Lekin 1383 yilda Hirotda qo`zg‘olon ko`tarildi. Qo`zg‘olon bostirildi va kurdlar sulolasi qulashi bilan sarbadorlarning so`nggi hokimi bo`lgan Ali Muayyod ixtiyoriy suratda o`z yerlari va hokimiyatini Temurga topshirdi. XIV asrning 80-yillari

o`rtasiga kelib butun Xuroson Amir Temur ixtiyoriga o`tdi. “Uch yillik” urush davrida Amir Teur Ozarbayjon, Tabriz, Mozandaron, G‘ilonni bo`ysundiradi. Shundan keyin u Kavkazga yurish boshlab, Tiflis, Arzirum va Van qal’asini egalladi.

Shunday qulay payt kelganidan, ya’ni Amir Temurning Erondaligidan foydalangan To`xtamish Movaraunnahrga Qamariddin etakchiligida qo`shin yubordi.

1388-yil yanvarida Amir Temurning qaytishini kutgan dushman orqaga qayta boshladi. Amir Temur amirlari Husayn, Shayx Ali Bahodir va boshqalarga dushmanni daf qilishni topshirdi. Ular Sirdaryo bo`yidagi Sarisuv degan joyda dushmanni quvib yetib unga katta talofat yetkazdilar. To`xtamish 1388-yil oxirida Amir Temurga qarshi qayta hujum boshladi. Amir Temur esa urushga tayyorlanish uchun Sagoron (Kattaqo`rg‘on)da qarorgohini tikib, qo`shinlarini jangovar holatga keltirdi. Amir Temur dushmanning orqa tarafidan hujum qilish uchun Qo`ng‘i o`g‘lon, Temur Qutlug‘ o`g‘lon, Shayx Ali Bahodir qo`mondonligidagi qo`shinlarni yuboradi. Hujum muvaffaqiyatli bo`ldi. Dushman tor-mor etilib, To`xtamish zo`rg‘a qochib qutuldi.

1393-1394-yili Amir Temur Sheki (Ozarbayjonning shimoliy qismi)da turgan paytda To`xtamish Kavkazorti viloyatlariga hujum qildi. Amir Temur Shekidan chiqib Qura daryosi bo`ylab yurdi. Oltin O‘rdaliklar Amir Temur qo`shinlari kelayotganini eshitib chekinishga majbur bo`ldilar. 1395-yil aprelida Amir Temur va To`xtamish o`rtasida urush harakatlari yana boshlanib ketdi. Jangning asosiy qismi o`ng qanotda bo`ldi. Ushbu qanotda mushkul vaziyat paydo bo`lgan. Amir Temur zahira qo`shin bilan jangga kirdi va dushmanni chekinishga majbur qildi. To`xtamish uchinchi jangdan keyin hokimiyatdan ajraldi.

To`xtamish qo`shinining Terek daryosi bo`yida tor-mor etilishi va 1395 yilda Saroy Berkaning xaroba qilinishi Oltin O`rdaga juda kuchli zarba bo`ldi. Shundan keyin u o`zini o`nglay olmadi.

Amir Temurning bir mamlakatga qilgan yurishlari uning boshqa mamlakatlarga qilgan yurishlari bilan ketma-ket borganligini urush voqealari ko`rsatib turadi. Amir Temur Ozarbayjonga bir necha marotaba hujum qilib bordi va 1387-yilda uni bo`ysundirishga muyassar bo`ldi. Armaniston va Gruziyani Amir Temur 1392 yilda bo`ysundiradi. Temurning uzoq Hindistonga yurishi 1398-yilda tamomlandi.

Sohibqiron Amir Temurning harbiy mahorati shunda ediki, u o`z dushmanlarini erkin nafas olishga qo`ymagan. 1400-yilda Amir Temur qo`shinlari turk sultoni Boyazid I va Misr sultoni Faraj bilan kurash olib

bordilar. 1402-yilda Amir Temur Anqara yonida Boyazid bilan ikkinchi marta to`qnashdi va uni tor-mor etdi.

Amir Temur o`z qo`shinlari bilan 1404-yilning oxirida Xitoyga qarab yo`lga chiqqandi. O`sha yili qish O`rta Osiyo tarixida eng qahraton qish bo`lgan. Sirdaryoning suvi 1 metga muzlagan, askarlardan ko`pini quloq-burunlarini, qo`l-oyoqlarini sovuq olgan edi. Amir Temurning o`zi ham ko`p o`tmay shamollab qoladi. 1405-yil yanvar oyining o`rtalarida O`trorda to`xtashga qaror qilishadi va bu erda 18-fevral kuni buyuk jahongir Sohibqiron Amir Temur vafot etdi.

Amir Temur 35 yil davomida harbiy yurishlar qiladi. Bu yurishlar natijasida u buyuk davlat tashkil qilishga erishdi. Uning tarkibiga Movarounnahr, Xorazm, Kaspiy atrofidagi viloyatlar, hozirgi Afg‘oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, Iroq, Janubiy Rossiya, Kavkaz va G‘arbiy Osiyoning bir qator mamlakatlari kiradi. Amir Temurning muvaffaqiyatiga avvalo uning nodir harbiy iste’dodi sabab bo`ldi. Amir Temur qo`shinida qat’iy tartib va intizom o`rnatilgan edi. Har bir jang rejasini va barcha qismlar uchun yo`l-yo`riqlarni o`zi ishlab chiqardi. Uning harbiy iste’dodi Anqara yaqinida Sulton Boyazidga qarshi jangda ayniqsa yorqin namoyon bo`ldi. Armiyaning yuragini va qo`mondonlik o`zagini barlos urug‘i vakillari tashkil etardi. Shu davr voqealarining shohidi bo`lganlarning guvohlik berishicha barloslar harbiy qo`nimsizlikka nihoyatda chidamli, yoydan o`q uzishga juda usta, o`z hukmdorlariga sodiq va sabr-toqatli bo`lganlar.

Mustaqillik sharofati hamda Respublikamiz Prezidenti I.Karimov tashabbusi bilan sovetlar davrida unut bo‘lgan buyuk Sohibqironning pok nomi qayta tiklandi. Tarixiy adolat qaror topib, 1996 yili Sohibqironning 660 yillik tavallud yoshi butun jahonda keng miqyosda nishonlandi.

Amir Temur vafotidan so`ng Temuriylar davlatidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat

Sohibqiron Amir Temur Xitoyga qilinayotgan harbiy yurish vaqtida qattiq og‘rib, 1405-yil 18-fevral kechasi O`tror hokimi Berdibekning saroyida vafot etadi. O`z davrining mohir tabiblari va ularning sardori bo`lmish taniqli tabib Fayzulloh Tabriziyning davo-korlari buyuk hukmdor tanasidagi og‘irlikka davo bo`la olmadi. Qazosiga qadar ixtiyori o`zida bo`lgan Sohibqiron Amir Temur o`ziga voris va taxt valiahdi etib nevarasi Pirmuhammad Jahongirni vasiyat qilib qoldiradi. Amir Temur barpo etgan buyuk saltanat (jami o`z ichiga 27 ta o`lka va viloyatlarni jam

etgan) garchi Temurning mahorati va kuch-qudrati ila mustahkam turgan bo`lsa-da, lekin u ichki jihatdan siyosiy ancha zaif, umumiqtisodiy asosga ega bo`lmagan edi. O`g‘illar, nabiralarga mamlakatni qism-qismlarga bo`lib berilganligi va suyurg‘ol tartibi ham Temur davlati parokandaligini kuchaytirar edi. Temur jasadi Samarqandda dafn etilishi va motam marosimlari tugamasdanoq, toju-taxt uchun shahzodalar o`rtasida o`zaro kurash kuchayib ketdi.

Kobul va shimoliy Hind mulklarning hokimi bo`lmish, Pirmuhammadni ko`pchilik taxt egasi sifatida ko`rishni xohlamas ham edi. Buning ustiga u ancha uzoqda bo`lib, Samarqandga tezlik bilan etib kelish uchun imkoni ham yo`q edi. Temur vafotidan so`ng Movarounnahr, Xuroson, Eron, Ozarbayjon, Iroq va boshqa yerlarda notinchlik boshlanib, g‘alayonli vaziyatlar yuzaga kela boshladi. Sekin asta Temur kuch-qudrati bilan barpo etilgan buyuk saltanatga putur yeta boshladi. Fosih Havofiy Temurdan so`ng tirik qolgan uning o`g‘il va nabiralarini sanab, jami ularning soni 36 taga etishini ta’kidlagan edi. Ayniqsa ular orasida Shohruh (1377-1447)ni va uning o`g‘li Ulug‘bek (1394-1449) alohida hurmat bilan tilga olib o`tilgan. Shu davr muarrixlari taxt egaligiga ko`proq Shohruhni ma’qul ko`rib, uning insoniy sifatlariga yuqori baho berar edilar. Shohruh taxt egasi bo`lishidan avvalroq ham o`zining oqil va ilmli, zukko va taqvodorlik sifatlari bilan hurmat qozongan edi. Shuningdek, bu vaqtda Temurning boshqa bir o`g‘li Mironshoh (1366-1408) ham hayot bo`lib, u ham asosiy taxt da’vogarlaridan biri hisoblanar edi.

Temurning sadoqatli amirlaridan ko`pchiligi, jumladan Shohmalik va Shayx Nuriddinlar ham toju taxt Shohruh Mirzoga tegishi tarafdori edilar. Shunday bir vaqtda Mironshoh Mirzoning o`g‘li, shimoliy yerlar (Toshkent, Sayram, Turkiston) hokimi Xalil Sulton (1384-1409) shoshilinch ravishda, o`zining ming chog‘li askari bilan 1405 yilning 18 mart kuni Samarqandni egallaydi va o`zini Movarounnahr hukmdori deb e’lon qiladi. Hatto u Pirmuhammadga tegishli Amudaryoning o`ng betidagi yerlarni ham o`z tasarrufida deb e’lon qiladi. Avval boshda uni qo`llagan Movarounnahr amirlari, harbiy sarkardalar ko`p o`tmay undan ixloslari qayta boshlaydi. Xalil Sulton va ayniqsa uning xotini Shodimulk poytaxtda ko`plab nojoiz ishlarga izn berishadi, Temur davridayoq nufuzli bo`lgan ba’zi amaldor, zodagonlar mulklarini tortib ola boshlashadi.

Davlat xazinasi o`z holicha sovurila boshlanib, hokimiyatga ko`plab nomaqbul kishilar kela boshlaydi. Shohruh bilan birinchi o`zaro nizodan so`ng Xalil Sulton garchi uning oliy hukmdorlik huquqini tan olsa-da,

Movarounnahr uning ixtiyorida qolajagini ma’lum qiladi. Xalil Sultonni Iroq tomonidan boshqa bir kuch otasi Mironshoh Mirzo ham qo`llab-quvvatlay boshlaydi. Siyosiy kaltabinlik yo`lini tutgan Xalil Sultondan norozilik tobora kuchaya boshlaydi. Farg‘ona hokimi Amir Xudoydod Xalil Sultonga qarshi bosh ko`taradi. Shohruhning sadoqatli kishisi bo`lmish Shayx Nuriddin O`tror hokimi, o`z ukasi bo`lmish Berdibek bilan birga boshqa bir isyon ko`tarilishiga sababchi bo`ladi. Xalil Sultonning ukasi Mirzo Sulton Husayn Amudaryo bo`ylarida o`z akasiga qarshi bosh ko`taradi. Xorazm esa Oltin O`rdalik taniqli sarkarda Amir Idiku o`zbek tomonidan ishg‘ol etiladi.

1405-1406-yillarda Xalil Sultonning Shohruh, Pirmuhammad qo`shinlari bilan Movarounnahr taxti uchun bir necha bor harbiy to`qnashuvi sodir bo`ladi. Butun Temur saltanati o`zaro toju taxt kurashlari domiga tortiladi. Yagona hisoblangan saltanat Shohruh boshqarayotgan Xuroson, Balxdan to Hind yerlarigacha bo`lgan yerlarga hokim Pirmuhammad, G‘arbiy eron, Ozarbayjon, Iroq tasarrufida bo`lgan Mironshoh va uning avlodlari (Umar Mirzo, Abu Bakr) yerlariga bo`linib ketdi. Movaraunnahr Xalil Sultonga rasman qarashli deb hisoblansa-da, Turkiston, O`tror, Sayramda Amir Berdibek, Farg‘onada esa Amir Xudoydod hukmronlik qilishar edi. Barcha Temuriylarni saltanatning yuragi bo`lmish, Movaraunnahrni egallash istagi tark etmas edi.

Movaraunnahr hokimi Xalil Sultonning o`z holicha ish tutishi, temuriy zodagon, amirlarning kamsitilishi, musulmon ulamolari, jumladan naqshbandiya tariqatining taniqli shayxi Muhammad Porsoning tahqirlanishi muxolif kuchlarning dushmanligini kuchaytirib yubordi. Shu vaqtning o`zida o`zaro fitna g‘alayonlarning navbatdagi qurbonlari ham paydo bo`ladi. 1407 yil 22 fevralda taxt valiahdi hisoblangan Pirmuhammad o`zining vaziri Pirali Toz tomonidan suiqasd natijasida o`ldiriladi. (Keyinchalik o`zini Pirmuhammadning “qasoskori” deb e’lon qilgan Shohruh Pirali Tozni Hirotda qatl etadi). 1408-yil 22-aprelda esa qoraqo`yunli turkmanlar bilan jangda hokimiyat uchun boshqa bir da’vogar Mironshoh Qora Yusuf tomonidan Ozarbayjon va Iroq uchun bo`lgan jangda o`ldiriladi. Natijada Ozarbayjon va Iroq temuriylar tasarrufidan chiqadi.

1409-yil boshida esa siyosiy vaziyat yanada keskinlashadi. Amir Xudoydod shu vaqtda Xalil Sultonni Samarqand yonidagi Sheroz qishlog‘ida mag‘lubiyatga uchratib, uning o`zini asirlikka oladi. Xuroson hokimi Shohruh esa o`ziga qarashli bo`lgan Mozandaron va Mashhadda, so`ngra uning ilkiga o`tgan Seyiston va Kirmonda o`z hokimiyatini

mustahkamlaydi. So`ngra butun e'tiborini Movaraunnahrga qaratadi. Sheroz jangidan bir oz avval Shohruh Xalil Sultonga Movaraunnahr taxti uchun jang qilish xususida yorliq ham yuborgan edi. Shohruh saltanat markazidagi bedodliklarga bundan buyon befarq bo`la olmasligini e'lon qildi. 1409-yil 25-aprelida u Amudaryodan o`tib Samarqand tomon jadal yo`l oladi. Xalil Sultonni qo`lga olgan Amir Xudoydod qo`shinlarini Shohruh yuborgan harbiy qism tor-mor etib, Xalil Sultonni asirlikdan ozod qilishadi. Oliyjanob insoniylik sifatlariga ega bo`lgan temuriy Shohruh Mirzo o`zaro gina-kudratlarni unutib, uni yaxshi kutib oladi. Amir Xudoydod esa mamlakatdan qochib ketadi. 1409-yilning dekabriga qadar Shohruh Mirzo Movaraunnahrda tinchlik osoyishtalik o`rnatib, Xalil Sulton va boshqa temuriy shahzodalar tarafdorlariga qarshi keskin choralar ko`radi, izdan chiqqan xo`jalik hayotni, savdo-sotiqni tiklaydi.

Temuriylar saltanatining taqdiri oydinlashib, Xuroson hokimi bo`lmish Shohruh Mirzo (1405-1409) temuriylar davlatining oliy hukmdori (1409-1447) sifatida e'tirof etildi. Tarixda esa Shohruhning deyarli 40 yillik barqaror hukmronlik davri boshlanadi. O`zaro nizo va fitnalardan, iqtisodiy, savdo munosabatlarini chippakka chiqargan vayronagarchilik urushlardan charchagan xalq, markazlashgan kuchli davlat sari intilayotgan Shohruh Mirzoning hatti-harakatlarini qo`llab-quvvatlar edi. Chunki faqatgina kuchli, markazlashgan davlatgina o`zaro osoyishtalik, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashi mumkin edi. Shohruh Temur davlati o`zagini saqlab qolishga muvaffaq bo`ldi. Shu bilan birga u deyarli barcha o`lka, viloyat noiblarini o`z lavozimlaridan chetlashtirib, o`ziga ishonchli hisoblagan qarindosh-urug'larini bu lavozimlarga qo`ya boshlaydi. Jumladan, Balx va Badaxshon-Ibrohim Sultonga, Sheroz-Suyurg'atmishga, Qobul va Qandahor-Qaydu Mirzoga, Xurosonning bir qismi - Boysunqur Mirzoga, G'arbiy Eron hamda Iroqi Ajamning bir qismi - Sulton Muhammadga, Fors viloyati-Abdullo Mirzolarga suyurg'ol tarzida bo`lib beriladi.

Shu yo`l bilan Shohruh boshqaruv tizimi qulay va ixcham bo`ladi deb o`ylagan edi. Lekin keyinchalik ishonchli qondoshlar ichidan ham isyonkor noiblar chiqa boshlaydi. Xususan, Shohruhning nevarasi Sulton Muhammad Eron noibi etib tayinlangach, markazga bo`ysunishdan bo`yin tovlay boshlaydi. So`nggi marotaba Shohruh isyonkor nevarasini o`limidan sal avval (1446-y.) Eronga yurish qilib, uning jazosini berib qo`yishga majbur bo`lgan edi. Yagona Shohruh davlatida Movaraunnahr qismining alohida o`rni bor edi. Davlatning markaziy poytaxti Hirot shahri hisoblansa, Movaraunnahrning markazi Temur poytaxti bo`lmish

qadimiy Samarqand shahri hisoblanar edi. Movarounnahr yerlarining boshqaruvi esa Ulug‘bek qo`liga topshirilgan bo`lib, u umrining oxiriga qadar (1449-y.), 40 yil mobaynida bu yerlarni boshqarib keldi. 1409-yili Movaraunnahr qo`lga olingandan so`ng Shohruh Ulug‘bekni shu o`lkaning noibi etib tayinlaydi. 15 yoshli o`smir davlat boshqaruvi ishlari uchun yosh ekanligi hisobga olinib, taniqli amir Muboriziddin Shohmalikni unga otaliq etib tayinlab, boshqaruv ishlari amalda otaliqning qo`lida mujassamlashadi.

Movaraunnahrlik amirlarning ba’zilari Ulug‘bek va Shohmalik hokimiyatlarini tan olishni istashmaydi. Jumladan, 1410-yilda qayta bosh ko`targan Shayx Nuriddin g‘alayoni faqatgina Shohruh Mirzoning aralashuvi tufayli bostirilib, noiblik o`rni Ulug‘bekning o`ziga qoldiriladi. 1411-yili Movaraunnahrda ancha muxolif kuchlariga ega bo`lgan va Ulug‘bekning mustaqil xatti-xarakatlariga to`sqinlik qilayotgan Muboriziddin Shohmalik Shohruh bilan birga Hirotga qaytib ketadi. Ulug‘bek Mirzo esa shu yildan boshlab Movaraunnahrning “Yagona va qonuniy sultoni” sifatida hokimiyatni boshqaradi.

Shohruh va uning o`g‘li Ulug‘bek o`z siyosatlarining ustuvor yo`nalishlari etib avvalo mamlakat hududlarini kengaytirish hamda markaziy hokimiyatni mustahkamlash deb bildilar. Shohruh 1413 yili Eronni o`z qo`li ostiga oladi. O`sha yili Shohruh qo`shini yordamida Ulug‘bek Oltin O`rda xonlari ixtiyoridagi Xorazmni tortib oladi. Bu kurashda faol ishtirok etgan Shohmalik Xorazm noibi etib tayinlanadi. Ulug‘bek 1414-1415-yillarda o`z amakivachchasi amirzoda Ahmad hukmron bo`lib turgan Farg‘onani uning qo`lidan tortib oladi. Shuningdek, uning Qoshg‘arga nisbatan siyosati ham muvaffaqiyatli tarzda hal bo`ladi. Avval boshda sobiq Farg‘ona hokimi Ahmad Qoshg‘ardan panoh topgan edi. Lekin temuriylar bilan munosabatlarni keskinlashtirmaslikni lozim deb hisoblagan Qoshg‘ar hokimi Shayx Ali To`g‘ay Ulug‘bek bilan o`zaro muzokaralar olib boradi. Natijada, 1416-yili u “Buyuk amirning ruhi, himoyasiga” o`tish istagini bildirib, Qoshg‘arni Ulug‘bek yuborgan vakillar Siddiq va Alilar qo`liga topshiradi.

Ulug‘bek shimoldagi qo`shnilari bo`lmish Dashti Qipchoq va Mo`g‘ulistondagi ichki siyosiy ahvol barqarorligi va u yerlarda o`ziga ittifoqchi bo`lgan kishilarni hokimiyat tepasida bo`lishini istar edi. Shu sababdan ham uning aralashuvi hamda harbiy ko`magi bilan Dashti Qipchoqda O‘rusxonning nabirasi Shahzoda Baroqxon hokimiyat tepasiga keladi. Mo`g‘ulistonda esa Ulug‘bekning yordami bilan Shermuhamadxon

raqibi Vaisxonni engib Mo`g‘uliston taxtini egallaydi. Ulug‘bek bu xonlar orqali shimolda va sharqda o`z ta’sirini o`tkazishga va o`ziga ishonchli ittifoqchilarga ega bo`lishini ko`zlagan edi. Avval Shermuhammadxon Movaraunnahr ichki ishlariga aralashishga harakat qilib, o`z valine’matiga nisbatan nohaq munosabatda bo`la boshlaydi. 1424-yili noyabr oyida Shohruhning rizoligi bilan Ulug‘bek Mo`g‘uliston ustiga yurish boshlaydi. Uning asosiy kuchlari 1425-yil erta bahorida Chu daryosidan o`tib, Issiqko`l yaqinida mo`g‘ullarni tor-mor keltiradi.

Bu jang Ulug‘bek olib borgan jiddiy urushlarning birinchisi va so`nggisi edi. Tez orada shimoldan yana boshqa bir xavf paydo bo`ladi. Ulug‘bek yordami bilan avval Dashti Qipchoq, so`ngra Oltin O`rda hokimiyatini qo`lga olgan Baroqxon Movaraunnahr sultoni muruvvatini yoddan chiqardi. U Sirdaryo bo`yidagi yerlar va shaharlarni (O`tror, Sabron, Sig‘noq) talab, u yerlarga o`z da’vosi bilan chiqadi. 1427-yilning boshida Ulug‘bek Dashti Qipchoqqa harbiy yurishga otlanadi. Bu yurishda Ulug‘bek qo`shini mag‘lubiyatga uchrab o`zi Toshkentga chekinadi. Dashti qipchoqliklar bilan bo`lgan jang mag‘lubiyati Ulug‘bekka shunchalik katta ta’sir ko`rsatadiki, u otasining o`limigacha shaxsan o`zi harbiy qo`shinga bosh bo`lib, yurishlarni boshqa amalga oshirmaydi. 1428-yili Mirzo Ulug‘bek tomonidan amalga oshirilgan pul islohoti Movaraunnahr ichki iqtisodiy hayotida muhim rol o`ynadi. Shuningdek, zamondosh tarixchilarning ma’lumotlariga ko`ra, jumladan Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida soliqlar miqdori ham bir muncha pasaytirilgan ekan. Mirzo Ulug‘bek, shunday qilib, otasi tiriklik vaqtida garchi tashqi siyosat borasida birmuncha mustaqil harakat qilgan bo`lsa-da, lekin u haqiqatda otasi Shohruh Mirzoning Movaraunnahrdagi ishonchli va itoatkor hokimi bo`lib qoladi. Ulug‘bek ichki va tashqi siyosat borasida otasi bilan bamaslahat ish tutar, soliqlarning bir qismini muntazam Hirotga jo`natar, xutba va tangalarda otasining nomi zikr etilardi. Shuningdek, u vaqti-vaqti bilan otasiga hisob berib turar, harbiy yurishlari vaqtida unga moddiy va harbiy ko`mak yetkazib berishga majbur edi.

Shohruhning keksayishi bilan toju taxt uchun zimdan paydo bo`lgan nizolar ham faollasha boradi. Ulug‘bekning onasi Gavharshodbegim (1457-y. vafot etgan) siyosiy ishlarga faol aralasha borib, nevarasi Alouddavlani taxt vorisi sifatida ko`rishni istar edi. Shohruhning yana bir hayot bo`lgan o`g‘li Muhammad Jo`ki (1402-1444) ham o`zini taxt egasi sifatida ko`rishga haqli deb hisoblar edi. Toju-taxt uchun zimdan boshlangan kurash 1444-yili Shohruh og‘ir xasta bo`lib qolganda ayniqsa

yaqqol namoyon bo`lgan edi. Shohruh xastalikdan tuzalib, 1446-yilning so`ngida o`zining oxirgi harbiy yurishini amalga oshiradi. Fors va Iroq Ajamda uning nevarasi Sulton Muhammad bobosiga qarshi qo`zg‘olon ko`tarib, Hamadon va Isfahonni bosib oladi. Garchi Shohruh isyonni bostirib, qo`zg‘olonchilarni jazolasa-da, lekin yana xastalanib 1447-yil 12-martda Ray viloyatida olamdan o`tadi. Shohruhning o`limi Xuroson va Movaraunnahrda o`zaro temuriy shahzodalar o`rtasida toju-taxt uchun kurashni boshlab yuboradi. Mamlakat yana sarosima, tahlika, beqarorlik domiga tortiladi. Shariat va urf-odatga ko`ra o`z-o`zidan oliy hukmdorlik yagona voris Mirzo Ulug‘bek qo`liga o`tishi kerak edi. Lekin Boysunqur Mirzoning o`g‘illari Alouddavla va Abulqosim Bobur Ulug‘bekka qarshi harbiy harakatni boshlab yuboradi. Xuroson-Alouddavla qo`liga, Mozandaron va Jurjon Abulqosim Bobur ixtiyoriga o`tadi. Sulton Muhammad esa G‘arbiy Eron va Forsda o`zini mustaqil hukmdor deb e’lon qiladi. Muhammad Jo`kining o`g‘li Abu Bakr esa Balx, Shibirg‘on, Qunduz, Bag‘lonni bosib oladi. Mamlakatning talon-taroj, parokanda bo`lishini oldini olish maqsadida Ulug‘bek muammolarni tinch-muzokara yo`li bilan yechmoqchi bo`ladi. Jumladan u Alouddavla bilan o‘zaro muzokaralarni boshlaydi. Alouddavla Ulug‘bekning o`g‘li Abdullatifni asir olib, uni Hirotdagi Ixtiyoriddin qal’asiga qamab qo`ygan edi. Ulug‘bek yuborgan vakil sadr Nizomiddin Mirak Mahmud, Movarounnahr sultonining Hirotga yurish niyati yo`q ekanligi va bu da’vodan u voz kechishini bildiradi. Ikki o`rtadagi chegara Murg‘ob vohasi deb belgilanib, Abdullatifga Balx hokimligi lavozimi beriladi.

Lekin hech qancha o`tmasdan Abdullatif va Alouddavla o`rtasidagi munosabatlar yana keskinlashadi. Abdullatifning o`z holicha Hirotga qarshi yurishi muvaffaqiyatsiz tugaydi. U otasi Ulug‘bekka yordam so`rab murojaat qiladi. 1448-yil bahorida Ulug‘bek va Abdullatifning 90.000 kishilik birlashgan qo`shini Hirotdan 14 farsah uzoqlikdagi Tarnob degan joyda Alouddavla qo`shinini tor-mor keltiradi. Alouddavla jang maydonidan qochadi. Hirot deyarli jangsiz egallanadi. Mashhadgacha bo`lgan yerlarni Ulug‘bek, Astrobodgacha bo`lgan yerlarni Abdullatif o`z ixtiyorlariga olishadi. Ulug‘bek bu harbiy yurishni uzoq davom ettira olmas edi. Chunki, Dashti Qipchoqdagi ko`chmanchilarning talonchilik yurishlari bu paytga kelib, tez-tez amalga oshib turar, mamlakatga sharqdan mo`g‘ullar xavf solib turar edilar. Qolaversa hukmdor poytaxtni uzoq vaqt egasiz qoldirishi mumkin emas edi.

Tarnob jangi muvaffaqiyatli yakunlangan bo`lsa-da, lekin Ulug‘bek va shahzoda Abdullatiflar o`rtasida munosabatlarning sovuqlashuviga

ham olib keladi. Ulug‘bek bu g‘alabani ko`proq boshqa bir o`g‘li Abdulaziz nomi bilan bog‘lar, g‘alaba yorliqlarida Abdullatif nomi Abdulazizdan so`ng tilga olinar edi. Abdullatif garchi Hirot taxtiga o`tirsa-da, lekin Shohruh xazinasi undan olib qo`yiladi. Garchi bu Ulug‘bek tomonidan ma’lum bir nohaqlik deb hisoblansa-da, lekin bu bilan Ulug‘bek bundan buyon asosiy poytaxt Samarqand, Xuroson davlatning bir bo`lagi degan g‘oyani shu xatti-harakati bilan anglatmoqchi bo`ladi. O`ta hokimiyatparast va shuhratparast, mol-dunyoga o`ch Abdullatif uchun shuning o`zi otasiga qarshi bosh ko`tarish uchun katta bahona edi. Abdullatif Hirotda 15 kuncha hukmronlik qilib, so`ng Amudaryodan o`tib, Movaraunnahrga keladi. Bu paytda Abulqosim Bobur qo`shini esa Hirotga yaqinlashib kelayotgan edi. Ulug‘bek farmoni bilan Abdullatif yana Balxga noib etib tayinlanadi. Balxda Abdullatifning otasiga qarshi hatti-harakatlari kuchayib, o`z xolicha u xorijiy savdogarlardan olinadigan “tamg‘a” solig‘ini bekor qiladi. Bu soliq esa o`z navbatida davlat daromadining asosiy manbalaridan biri edi. Otasiga qarshi kayfiyatdagi kishilarni o`z atrofiga yig‘ib, hatto Abulqosim Bobur bilan ham Ulug‘bekka qarshi yashirin til biriktiradi. Bu paytda Ulug‘bek davlatining siyosiy ahvoli ham ancha murakkab tarzda turar edi. Ulug‘bek Abulxayrxon boshchiligidagi dasht qo`shinlariga qarshi kurashishga to`g‘ri keladi. Samarqand noibi etib qoldirilgan o`g‘li Abdulaziz esa “amirlar xonadoniga tazyiq o`tkazyapti” deb ovoza tarqalib, bundan amirlarning noroziligi juda kuchayib ketadi. Shuningdek Ulug‘bek turkmanlarning Ërali boshchiligidagi isyonini, temuriy shahzodalardan Abusaidning Samarqand atrofidagi hatti-harakatlarini ham bostirishga to`g‘ri keladi. Davlat yaxlitligi, temuriylar birligini saqlash maqsadida Ulug‘bek Abdulazizni o`zi bilan birga olib, makkor o`g‘li Abdullatifga qarshi kurashga otlanadi. Abdullatif esa otasining og‘ir ahvolidan foydalanib, tezda ochiq isyon yo`liga o`tadi. U Amudaryodan kechib o`tib, Termiz, Kesh, Hisorni qiyinchiliksiz egallaydi.

1449-yilning oktabr oyi boshida Samarqand yaqinidagi Damashq qishlog‘ida Mirzo Ulug‘bek va shahzoda Abdullatif o`rtalaridagi jang, Ulug‘bek mag‘lubiyati bilan tugaydi. Mag‘lub bo`lgan Mirzo Ulug‘bek poytaxt Samarqand tomon yo`l oladi. Lekin xiyonat yo`liga o`tgan, Samarqandda hokim etib qoldirilgan, Mironshoh qavchin uni shaharga kiritmay, darvozalarni berkitib qo`yishga buyruq beradi. Shuningdek Shohruhiya qal’asi qutvoli Ibrohim mamluk ham uni qal’aga qo`ymaydi. Shundan so`ng Ulug‘bek keyingi hatti-harakatlari foydasiz ekanligini anglab, Abdullatifga taslim bo`lishga majbur bo`ladi. Mirzo Ulug‘bek toju

taxtdan voz kechib, Makkaga haj safariga ketishga izn so‘raydi. Abdullatif hajga ruxsat berib, Amir Muhammad Xusravni unga hamroh qilib jo‘natadi. Lekin, oradan hech qancha o‘tmasdan, shahar qozisi Shamsiddin Muhammad Miskinning qarshiligiga qaramay, ulamolarning yashirin fatvosi bilan otasining o‘limini uyushtiradi. O‘z davrining mashhur hukmdori va zabardast olimi Mirzo Ulug‘bek 1449-yilning 27-oktabrida Samarqand yaqinida fojiali tarzda o‘ldiriladi. Oradan 2-3 kun o‘tmasdan inisi Abdulaziz va Ulug‘bekning sadoqatli to‘rt nafar amiri qatl etiladi.

Roppa-rosa qirq yil (1409-1449) davom etgan, manbalar tili bilan aytganda “temuriylar saltanatining yorqin gavhari” Mirzo Ulug‘bek hukmronligi shu tariqa o‘z poyoniga yetadi. Bu davr keskin, murakkab kurashlar sahnasida o‘tsa-da, biroq Mirzo Ulug‘bek o‘z davlatini mustahkamlash, birlikni saqlash, iqtisodiy barqarorlikni yuzaga keltirish, madaniy hayotni yuksaltirish borasidagi xizmatlari temuriylar tarixida alohida ahamiyatga ega bo‘ldi.

XV asrning 2-yarmida Movaraunnahr va Xuroson. Temuriylar saltanatining inqirozga yuz tutishi

O`zaro toju-taxt uchun kurash Abdullatifni razillik botqog‘iga botirib uni o`z otasining qotiliga aylantirdi. Garchi u taxt egasi bo`lsa-da, xalq uni “padarkush” (otasining qotili) sifatida la’natlar, Ulug‘bek tarafdorlari unga dushmanlik ko`zi bilan qarar edi. Bunday bir paytda Abdullatif xurofotchi din ahllari, darveshlar guruhi bilan ham yaqinlashishga harakat qildi. Biroq qotil padarkush taxtda uzoq o`tira olgani yo`q. 1450-yilning 8-mayida, shahar handag‘i yonida, Bog‘inavdan nariroqda unga qarshi suiqasd qilinib o`ldiriladi. Bu xususda so`z yuritgan tarixchi Mirxond fitnachilar tap tortmasdan harakat qilib, uning kesilgan boshini Registondagi Ulug‘bek o`zi qurdirgan madrasa peshtog‘iga namoyishkorona tarzda ilib qo`yadilar, deb ta’riflagan edi. Bu qotillikdan so`ng, tezda Samarqand taxtiga temuriylardan biri Mirzo Ulug‘bekning jiyani hamda kuyovi Mirzo Abdullo o`tiradi. Buxoroda esa hokimiyat Mironshohning nevarasi Sulton Abu Said qo`liga o`tadi. Mirzo Abdullo o`zining bir yillik hukmronlik davrida mamlakatda barqarorlikni tiklashga, Mirzo Ulug‘bekning madaniy sohadagi ishlarini davom ettirishga, markaziy hokimiyatni kuchaytirishga harakat qiladi. U taxt uchun da’vogarlar Alouddavla va Abu Saidlar bilan kurash olib borib, Samarqandga qarshi yurish qilgan Abu Said qo`shinini tor-mor keltiradi.

Abu Said Sirdaryo ortiga qochib, Dashti Qipchoq o`zbeklari xoni Abulxayrxondan (1428-1468) taxtni egallash uchun yordam so`rab murojaat qiladi. 1451-yili yozida Samarqand yaqinidagi Sheroz qishlog‘idagi qattiq jangda Mirzo Abdullo o`ldirilib, taxt Sulton Abu Said Mirzo (1451-1469) qo`liga o`tadi. Temuriylar davlatining Xuroson yerlari Shohruhning boshqa bir nevarasi, Boysunqurning o`g‘li Abulqosim Bobur qo`lida saqlanib qolib, u to vafoti (1457) ga qadar Hirot taxtini boshqarib turadi. Bu vaqtga kelib o`zaro siyosiy tarqoqlik yanada avj oladi. Birgina Xurosonning o`zi o`ndan ortiq qismga bo`linib ketadi. O`zaro taxt uchun muttasil kurashlar mamlakat iqtisodiy va madaniy hayotiga katta zarar yetkazib, inqiroziy holatlarga sabab bo`la boshladi. Abulqosim Bobur Xurosonni o`z qo`li ostida birlashtirishga, Shohruh davlatidagi madaniy hayotni tiklashga harakat qildi. Lekin 1454 yili uning Samarqandga yurishi muvaffaqiyatsiz tugab, 40 kunlik shahar qamalidan keyin u yana orqaga qaytishga majbur bo`lgan edi.

1457-yili Abulqosim Bobur Mashhadda vafot etgandan so`ng Hirot taxti, Xuroson yerlari uchun kurash yana avj oldi. Bunday vaziyatdan ustalik bilan foydalangan Movarounnahr hukmdori Sulton Abu Said Mirzo 1457 yili Xurosonga yurish qilib Hirotni egallaydi. Shu tariqa Abu Said temuriylar davlatining ikkala qismini birlashtirishga muvaffaq bo`ladi. Sulton Abu Said Mirzoning (1451-1469) hukmronlik davrida davlat hududlari kengayib, uning chegaralari Sharqiy Turkistondan to Iroqqacha, Sirdaryodan to Hindiston chegaralarigacha bo`lgan yerlarni o`z ichiga oldi. O`z hukmronligi davrida Abu Said doimiy ravishda hokimiyatini mustahkamlashga, isyonkor amaldor-noiblarni jazolashga asosiy e’tiborini qaratdi. Shuningdek, u birmuncha iqtisodiy va madaniy tadbirlar o`tkazishga ham urindi. Lekin, uning bu sohadagi ishlari o`zining yaxshi natijasini bera olmadi. Ma’rifat va madaniyat Ulug‘bek davridek gullab yashnamadi. Shuningdek, Abu Said Xuroson, Eron, Xorazmdagi siyosiy tarqoqlikni ham butkul tugata olmadi. Hirot taxtiga da’vogarlardan biri Umarshayxning evarasi, yosh temuriy shahzoda Sulton Husayn (1438-1506) Abul Qosim Bobur vafotidan (1457 y.) keyin Xuroson mulki uchun o`z harakatlarini boshlab yuborgan edi. U XV asr 60-yillaridan katta harbiy otryadga bosh bo`lib, 1461-1464-yillarda Hirot, Obivard, Niso, Mashhad va Xorazmda hokimiyat uchun goh muvaffaqiyatli goho muvaffaqiyatsiz kurashlarni olib bordi.

1469-yili erta bahorda temuriylarga avvaldan tegishli bo`lgan G‘arbiy eron yerlarini qaytarib olish maqsadida Sulton Abu Said Oqqo`yunlo` turkmanlariga qarshi yurishni boshlaydi. Biroq,

oqqo`yunlo`lar hokimi Uzun Hasan (1453-1478) tomonidan Ozarbayjonning Mug‘on dashtida jang vaqtida o`ldiriladi. Abu Saidning o`g‘illari Sulton Husayn bilan toju-taxt uchun kurashishga botina olmay, Movaraunnahrga qaytib ketadilar. Sulton Husayn esa 1469-yil 24-martda tantanali sur’atda Hirotga kirib keladi. Natijada temuriylar saltanati yana ikki qism: Xuroson va Movaraunnahrga bo`linib ketadi. Movaraunnahr esa ketma-ket sulton Abu Saidning o`g‘illari Sulton Ahmad (1469-1494), Sulton Mahmud (1494-1496) hamda Mahmudning o`g‘li Sulton Ali Mirzo (1496-1501)lar tomonidan mustaqil ravishda boshqarildi. Lekin ko`p holda ayniqsa Sulton Ahmadning davlat boshqaruvidagi kaltabin, uquvsiz va sustkashligi, Sulton Mahmud va Sulton Ali Mirzolarning davlat ishlarining o`z holiga tashlab, aysh-ishratga mukkalaridan ketganligi bois ushbu hukmdorlar davrida o`zaro tarqoqlik yanada kuchayadi. Ayrim viloyat noiblari, amirlarning ta’siri o`sib, ko`pincha ular mustaqil faoliyat yo`liga o`tib ola boshlaydilar. Siyosiy hayot, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda ruhoniylarning, ayniqsa so‘fiylarning ta’siri yanada kuchayadi. Xususan, shu davrning ko`zga ko`ringan diniy arbobi Xoja Ubaydulloh Ahror (1404-1490), mamlakatda ta’sirli shaxsga aylanib, o`zaro kurash nizolar vaqtida mamlakat tinchligini saqlash yo`lida bir necha marotaba bu kurashlarni to`xtatib qolishga muvaffaq bo`ldi. El-yurt tinchligi, osoyishtaligi yo`lidagi uning faoliyati, vatanparvarligi, albatta, e’tiborga sazovordir.

Temuriylar davlatining janubida ahvol o`zgacha edi. Sulton Husayn (Boyqaro) (1469-1506) davlati o`z tarkibiga Xorazm, Xuroson, Eronning bir qismini olgan bo`lib, u temuriylar tarixida oxirgi yirik davlat arbobi bo`lib qoldi. Uning deyarli 40 yillik hukmronlik davri ham o`zaro kurashlardan xoli bo`lmasa-da, lekin mamlakatda iqtisodiy va madaniy hayot yuksak darajada saqlanib qoldi. Mamalakat obodligi, farovonligi, iqtisodiy hayotning bir me’yorda kechishi, fan-madaniyatning yuksalishida o`z davrining tadbirli va oqil hukmdori Sulton Husaynning roli nihoyatda katta bo`ldi.

Temuriylar hukmronligi (1405-1506-yy.) davrida ilm-fan va madaniy hayot

Garchi XV asr boshidan ichki nizolar, o`zaro kurashlar mamlakat ichki hayotiga salbiy ta’sir o`tkazgan bo`lsa-da, lekin temuriy hukmdorlardan Shohruh (1405-1447), Mirzo Ulug‘bek (1409-1449), Sulton Husayn (Boyqaro) (1469-1506), qisman Sulton Abu Said (1451-

1469) davrlarida ichki osoyishtalik, ma’rifat va madaniyatga e’tibor tufayli ilmu-fan va madaniyat yuksalib, Movarounnahr va Xuroson yana Sharqning ma’rifat va madaniyat markazi nomini qaytarib oladi.

Bu vaqtda nafaqat poytaxt Hirot va Samarqand, balki Movarounnahr va Xurosondagi boshqa shaharlarda ham olimu-fuzalo, shoiru-me’morlar, bastakoru-naqqoshlar guruhlari to`plana boshlaydi. Buxoro, Xorazm, Balx, Mashhad, Sheroz ham o`ziga xos madaniy markazlar rolini o`ynay boshlaydi. Tarixda ma’rifatparvar va oqilligi bilan nom chiqargan Shohruh (1405-1447) davrida asriy ilm-fan, madaniyat, an’analari qayta jonlana boshlagan edi. Shahar qayta qurila boshlandi. Hirotdagi eng gavjum joylardan biri Shohruhning o`g‘li Boysunqur tashkil etgan kitobxona nomini olgan joy bo`lib qoldi. Bu yerda o`z davrining eng sara kitoblari qayta ko`chirilar, sotib olinar va sotilar edi. Bu paytda hukmdor va amaldorlarning homiyligi natijasida tasviriy san’at, amaliy san’at, hattotlik san’ati, ayniqsa, o`z rivojini maromiga yetkazdi. Mirak naqqosh boshchiligidagi sharq miniatyura san’ati ham o`z faoliyatini shu yerdan boshlagan edi.

Hirotlik va xurosonlik ko`plab badavlat zodagonlar, savdogarlar ham ilm-fan, madaniyatga homiylik qila boshlaydilar. Masalan, Shohruh davrida yashagan taniqli zodagon Hoji Arslon tarxon o`zining ma’rifatparvarligi bilan nom chiqargan edi. Lekin, har holda hukmdorlar ichida ilm-fan, ma’rifat va madaniyatga yetarli homiylik qilgan shaxs - bu o`zi ham buyuk olim bo`lgan Mirzo Ulug‘bek hisoblanadi.

Mirzo Ulug‘bek uning zamondoshlari, muarrixlarning xabar berishlaricha sharq mutafakkirlari, ular orqali yunon mumtoz ilmiy asarlaridan xabardor bo`lgan. Ulug‘bek zamondoshi G‘iyosiddin Koshiyning yozishiga ko`ra, Mirzo Ulug‘bek o`ta zukko va juda ilmli shaxs bo`lib, Qur’oni karimni yod bilgan, arab va fors tillarini yaxshi bilib, tafsir va hadis ilmi bobida bilimdon inson bo`lgan. Ulug‘bek islom olamida ilk bora hukmdorlik va olimlikni birgalikda olib bordi. U Movaraunnahrni musulmon olamining ilmiy markaziga aylantirishga harakat qildi. Xususan Samarqand, Buxoro, Kesh (Shahrisabz) ilm-fan markazlariga aylandi. U 1417-yil Buxoro, 1420-yili Samarqandda, 1433-yillarda G‘ijduvonda madrasalar barpo etdi. Samarqandning obodonchilik ishlariga bosh-qosh bo`lib, Go`ri Amir, Shohizinda me’moriy majmualarini oxiriga yetkazadi. Marvda ham bir qator diniy muassasalar qurdiradi. Hadisi sharifdagi ”Ilm olmakka intilmoq har bir muslim va muslima uchun ham farz, ham qarz” degan iborasi Buxoro madrasasi peshtoqiga shior sifatida o`yib yozdirib qo`yiladi. Xususan, u

Samarqandga o`z zamonasining yirik, taniqli olimlarini chorlashga harakat qilgan.

Uning sa'yi-harakatlari tufayli zamonasining 100 dan oshiq olimlari Samarqandga yig'ildilar. Ular orasida Taftazoniy, Mavlono Ahmad, o`z zamonasining "Aflotuni" deb nom olgan Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Koshiy, Muhammad Hafoviylar va boshqa taniqli zotlar ham bor edi. 1420-yil Samarqand madrasasi ochilganda, unda 100 dan ziyod talaba o`qigan, madrasada 50 tadan ko`proq talabalar uchun maxsus hujralar mavjud bo`lgan. Zayniddin Vosifiyning yozishicha, 1420-yil Samarqand madrasasi ochilganida unda 90 tadan oshiq olim qatnashgan. Ilk ma'ruzani Mavlono Hafoviy o`qigan vaqtida, uni faqat ikki kishi -Mirzo Ulug'bek va Qozizoda Rumiy tushungan xolos. Keyinchalik o`z zamonining taniqli kishilari Abdurahmon Jomiy, Xo`ja Axror va boshqalar ham Samarqand madrasalarida tahsil olganlar.

Shuningdek, Samarqandda bu davrda bir necha boshqa madrasalar ham bo`lib (Xonim, Feruzshoh, Shohmalik, Qutbiddin va boshqalar) u yerlarda ham salohiyatli olimlar dars berishar edi. 1424-1429 yillarda Samarqand yaqinidagi Obirahmat anhori bo`yida Mirzo Ulug'bek rasadxona qurdiradi. Rasadxona o`sha davrning noyob inshootlaridan bo`lib, u doira shaklida barpo etilgan, imoratning aylanasi 47 m, balandligi 31 m.dan iborat 3 qavatli bino bo`lgan. Binoning ichi bir necha xona, aylana zal, maxsus tekshirish xonalaridan iborat bo`lib, u yerlarda maxsus asbob-uskunalar joylashtirilgan.

Rasadxona ichi koinot, yer kurrasi tasvirlari bilan bezalgan bo`lib, xalq ichida shuning uchun "Naqshi jahon" degan nom bilan shuhrat topgan edi. Samoni kuzatish va o`rganish borasida G'iyosiddin Jamshid yordamida astronomik o`lchov asbobi-ulkan sekstant o`rnatildi. Bu sekstant, o`z navbatida, Sharqdagi eng katta astronomik asbob o`lchovi hisoblangan. Shuningdek, mahalliy ustalar (Iso Usturlobiy, Abu Mahmud Xo`jandiy, usta Ibrohim) qo`li bilan ko`plab zaruriy astronomik o`lchov asboblari ham yasaldi va o`rnatildi. Rasadxona qoshida, shuningdek, 15.000 jilddan iborat boy kutubxona ham bo`lgan. Uning atrofida olimlar yashaydigan yer-chorbog'lar Bog'imaydon va Chinnixona nomi bilan shuhrat topdi. Ulug'bek Samarqandda o`ziga xos astronomiya maktabini yaratdi. Rasadxonada Ulug'bek bilan bir qatorda o`z zamonasining mashhur matematigi va astronomlari Qozizoda Rumiy (Salohiddin Muso ibn Muhammad), G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Ulug'bekning shogirdi o`z davrining "Ptolemey"i nomi bilan shuhrat qozongan Ali Qushchi

(Alouddin ibn Muhammad) va boshqalar yelkama-yelka turib ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar.

Rasadxonadagi tadqiqotlar natijasida 1018 ta yulduzning o`rni va holati (koordinatlari) aniqlanib, astronomik jadvali tuzildi. O`rta Osiyo, Yaqin va O`rta Sharq o`lkalari bo`ylab joylashgan 683 geografik punktlarning Samarqand kenglik koordinatlari bilan belgilab chiqildi. Matematika fani sohasida Ulug‘bek maktabi yaratgan-uning darajali algebrali tenglama yechilib, bir darajali yoyning sinusi aniqlangan.

Shu jihatdan buyuk olimning “Ziji jadidi Ko`ragoniy” (Ko`ragoniyning yangi astronomik jadvali) nomli asari diqqatga sazovordir. Bu asar 1437-yil yozib tugatilgan bo`lsa-da, olim umrining oxiriga qadar unga yangi natijalarni kiritib borgan. Bu asar ikki qismdan iborat bo`lib, unda keng muqaddima va 1018 ta yulduzlarning o`rni berilgan. Undan tashqari Ulug‘bekning “Tarixi arba’ ulus” (To`rt ulus tarixi) nomli tarixiy asari va musiqaga bag‘ishlangan beshta risolasi ham mavjuddir. Ulug‘bekning o`ta salohiyatli olim bo`lganligini uning zamondoshlari G‘iyosiddin Jamshid, Abdurazzoq Samarqandiy, Davlatshoh Samarqandiy va boshqalar ham e’tirof etganlar. Jumladan, o`zbek adabiyotining asoschisi buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) bu xususda:

Temurxon naslidin Sulton Ulug‘bek
Ki olam ko`rmadi sulton aningdek,

deb unga o`z ta’rifini bergan edi.

Ulug‘bek davrida, shuningdek, Samarqand Sharqning madaniy markaziga aylanganligi uchun mashhur faylasuf Ali ibn Muhammad Jurjoniy, taniqli tabib Mavlono Nafis, shoir Xayoliy Buxoriy, “Yusuf va Zulayho” dostonining muallifi Durbek, qasida janrining taniqli namoyondasi o`zbek shoiri Sakkokiy, mashhur xattot Abdurahim Xorazmiy va boshqalar Ulug‘bek homiyligi ostida Samarqandda yashab ijod qildilar. Shuningdek, Sharqning ko`plab taniqli olim va shoirlari, fuzaloi-ulamolari Samarqandga tez-tez kelib turdilar. Ulug‘bek davrida o`ziga xos tarixnavislik maktabi ham paydo bo`ldi. XV asrdagi taniqli tarixchilar, “Zubdat at tavorix” (Tarixlarning yuqori qismi) asarining muallifi Hofizi Abro`, “Matla as-sadayin va majmuai al-bahrayn” (Ikki dengizning qo`shilishi va ikki saodatli yulduzning balqishi) asarining muallifi Abdurazzoq Samarqandiy, “Ravzat as safo” (Jannat bog‘lari) asarining muallifi Mirxond, “Habib us siyar” (Do`stga maktub) va boshqa qator asarlarning muallifi Xondamir Ulug‘bek yaratgan madaniy sharoitda o`sib ulg‘aydilar. Ulug‘bek davridagi madaniy markaz, keyinchalik

”Ulug‘bek akademiyasi” nomini olib, dastavval mashhur fransuz yozuvchisi va olimi Volter (1694-1778) tomonidan e’tirof etilgan edi. Ajdodlarimiz tarixida 1010-yilda tuzilgan Ma’mun akademiyasidan so`ng, Ulug‘bek akademiyasi O`rta Osiyo tarixida ikkinchi akademiya sifatida yuzaga keldi.

Mustaqillik tufayli buyuk ajdodimiz Mirzo Ulug‘bekning bizga qoldirib ketgan merosi haqiqiy jihatdan o`rganila boshlandi. 1994 yili Prezidentimiz tashabbusi bilan Mirzo Ulug‘bekning 600 yillik tavallud to`yi respublikamizda va jahonda keng nishonlandi. Qator ko`cha, tuman, shahar va inshootlarga Ulug‘bekning faxriy nomi berildi. Jumladan, Prezidentimiz farmoni bilan 1995 yili sobiq ToshDU, hozirgi O`zbekiston Milliy Universitetiga Mirzo Ulug‘bek nomi berildi.

Ulug‘bekning vafotidan so`ng madaniy markaz Xurosonga, jumladan, uning poytaxti Hirotga ko`chdi. Hirot madaniy va ilmiy markazining shakllanishida Xuroson hukmdori Sulton Husayn (Boyqaro) (1469-1506) va ayniqsa, buyuk shoir va mutafakkir, g‘azal mulkining sultoni Mir Alisher Navoiyning (1441-1501) roli nihoyatda beqiyos bo`ldi. Ma’rifatli hukmdor bo`lmish Sulton Husayn (Boyqaro) butun Xurosonda ilm-fan, adabiyot, madaniyat homiysiga aylanadi. Uning o`zi “Husayniy” taxallusi ostida g‘azallar yozgan. Bizning kunlargacha uning she’riy “Devon”i va nasriy “Risola” asarlari yetib kelgan.

Alisher Navoiy 1441 yili Hirotda taniqli barlos bahodiri xonadonida dunyoga kelgan. U yoshligidanoq nihoyatda zakovatli va zehnli bola bo`lgan. Uning besh yoshida yozgan g‘azaliga taniqli o`zbek shoiri Lutfiy o`z vaqtida katta baho bergan edi. Yoshligidanoq u temuriy shahzoda Sulton Husayn bilan do`st bo`lib, keyinchalik ular Xuroson hokimi Abulqosim Bobur (1451-1457) xizmatida birga bo`lganlar. Husaynning xizmat davrida Alisher Navoiy Mashhad va Hirot madrasalarida tahsil ko`radi. Keyinchalik Movarounnahr hokimi Sulton Abu Said tazyiqi bilan Samarqandga ketishga majbur bo`ladi va u yerda ikki yilcha turib, o`z bilimini yanada takomillashtiradi. 1469-yili Xuroson taxti Sulton Husaynga tekkandan so`ng, uning taklifi bilan Alisher Navoiy Hirotga kelib, avval muhrdorlik, so`ngra vazirlik lavozimida faoliyat ko`rsatadi. Jumladan, Alisher Navoiy o`zining vazirlik lavozimini egallagan vaqtida (1472-1476) mamlakatda iloji boricha osoyishtalik va adolat o`rnatishga harakat qiladi. Uning hatti-harakatlari natijasida shaharlar yuksaldi. Suv chiqarilib, ko`pgina yerlar obod qilindi, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari yanada rivojlandi. Navoiy ilm-fan, ma’rifat va madaniyat ahliga shaxsan o`zi homiylik ko`rsatdi. Garchi toju-taxt uchun kurashlarda va

fitna-nizolar natijasida Navoiyning Sulton Husayn bilan oralari bir oz sovugan bo`lsa-da, lekin Navoiy umrining oxiriga qadar davlatning tayanch shaxslaridan biri bo`lib qoladi. Jumladan, u vazirlik lavozimidan ketar ekan, sulton Navoiyga shohona to`n kiygizib, uning hech bir iltimosi hech qachon yerda qolmasligini aytadi. Alisher Navoiyning birgina o`zi 300 tadan ziyod turli qurilish, obodonchilik ishlariga bosh-qosh bo`ladi. Hirotdagi Injil daryosi bo`yida uning qurilish ishlari uchun maxsus er ham ajratib beriladi. U barpo etgan Hirotdagi "Ixlosiya", "Shifoiya" majmualari, Tus viloyatidagi Turuqband suv ombori va kanali, Hirot va Mashhaddagi sug'orish inshootlari, Astroboddagi saroy va masjid, Marvdagi madrasa shular jumlasidandir. El-yurt farovonligini o`ylagan Navoiy o`z daromadlarining aksariyat qismini hayriya ishlariga sarflaydi.

Odamiy dersang demagil odamiy,
Onikim yo`q xalq g'amidin g'ami,

deb, o`z ta'rifini bergan edi shoir. Shaxsan uning mablag'lari hisobidan 52 ta rabot, 19 ta hovuz, 16 ta ko`prik, 9 ta hammom va boshqalar qurildi. Shuningdek, Navoiy butun Xurosonda 12 tadan oshiq ahamiyatli bo`lgan va ta'mirlanishga muhtoj masjid, minora, rabot va boshqalarni ta'mir etib o`z holiga qaytaradi. Jumladan, Navoiy ta'mir etgan Hirotdagi Jome' masjidi hozirgi kunga qadar Hirot shahrining go`zal inshootlaridan biri hisoblanadi. Alisher Navoiy homiyligi ostida Sharq miniatyurasi maktabining yetuk namoyondasi "Sharq Rafaəli" nomini olgan Kamoliddin Behzod, taniqli tabiblar Abdulhay Muniy, Darvish Ali, hattotlardan - Sulton Ali Mashhadiy, musiqachilardan-Husayn Uddiy, shoir va tarixchilardan-Sohib Doro, Muhammad Nizomiy, Kamoliddin Binoiy, Davlatshoh Samarqandiy, Husayn Voiz Koshifiy, Mirxond,, Zayniddin Vosifiy, Muiniddin Muhammad Isfizoriy va boshqalar yetishib chiqdilar. Alisher Navoiy ilk bora o`zga shoirlardan farqli ravishda turkiy tilda 1483-1485-yillarda beshta dostondan iborat "Xamsa" asarini yozdi. Navoiy o`z ona tili ko`rkamligi va jozibadorligini asarlarida namoyon etdi:

Tortib turk nazmida alam,
Ayladim ul mamlakatni yak qalam,

degan edi shoirning o`zi. Buyuk shoirning 20 tadan ziyod yirik asarlar mavjuddir. Ular "Xazoyinul maoniy", "Lison ut tayr", "Mahbub ul qulub", "Majolisun nafois", "Munshaot", "Muhokamatul lug'atayn", "Mezonul avzon" va boshqalardir. Bular o`z ichiga tarixiy, falsafiy, ahloqiy mezonlarni olib, ularda insoniyatga xos bo`lgan barcha ijobiy

hislatlar ulug‘lanadi. Navoiy o`z asarlarida Vatanga, tug‘ilib o`sgan yeriga nisbatan buyuk muhabbatni kuylaydi.

Navoiyning o`zi esa barkamol, komil inson qiyofasi uchun buyuk ramzdir. Ulug‘ shoirning o`lmas merosini o`rganish mustaqillik yillarida o`zining haqiqiy darajasiga chiqdi. Adibning barcha asarlari qayta chop etildi. Hukumatimiz qaroriga binoan, xalqimizning buyuk mukofoti ramzida Navoiy nomidagi davlat mukofoti ta’sis etildi. O`lkamizda Navoiyning ulug‘ nomini bilmagan zot yo`qdir. Prezidentimiz tashabbusiga ko`ra, 1991 yili Alisher Navoiyning 560 yilligi juda katta tantanalar bilan nishonlanib, shoirning mahobatli haykali xalqimizning muqaddas ramzi sifatida poytaxtimizning markazida qad ko`tardi.

XV asrning zabardast o`zbek shoirlari ichida, shuningdek Lutfiy, Durbek, Sakkokiy, Gadoiy, Atoiy va boshqalarning ham nomlari ma’lum va mashhur bo`lgan. Jumladan, Navoiydan avval eng mashhur turkigo`y shoir Lutfiy (1366-1465) bo`lgan. Uning o`z vaqtida 20 dan ziyod ajoyib asarlari mavjud bo`lib, bizgacha faqat mashhur “Gul va Navro`z” va g‘azallar devoni yetib kelgan xolos.

Bu davrlarda shuningdek, Sharafiddin Ali Yazdiyning (1454 yili vafot etgan) Temur tarixiga bag‘ishlangan, Nizomiddin Shomiydan so`ng yozilgan bir xil nomdagi “Zafarnoma” asari yaratildi. Fors-tojik adabiyotida, ayniqsa, mashhur shoir va olim, Navoiyning zamondoshi hamda do`sti Nuriddin Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) roli buyuk bo`ldi. Jomiy va Navoiyning do`stligi esa, tarixda xalqlarimiz ittifoqligining buyuk ramzi bo`lib qoldi.

1499-yildan boshlab O`rta Osiyoga o`z yurishlarini boshlagan Muhammad Shayboniyxon (1451-1510) temuriylar ichidagi ichki nizo va noittifoqlikdan foydalanib, Movaraunnahrga nisbatan istilochilik harakatlarini boshladi. Temuriy shahzodalardan, shu vaqtdagi yagona movarounnahrlik iqtidorli va harbiy sarkardalik mahoratiga ega bo`lgan, keyinchalik buyuk shoir va davlat arbobi darajasiga chiqqan Zahiriddin Muhammad Boburning (1483-1530) sa’yi-harakatlari ham o`zining tegishli natijasini bermadi. 1505-1506 yillarga kelib Shayboniyxon Xorazm va Movaraunnahrni to`liq egallaydi. Shayboniyxonga qarshi kurashish uchun yo`lga chiqqan Xuroson hukmdori Sulton Husayn (1469-1506) 1506-yilning bahorida vafot etadi. Sulton Husaynning vorislari o`rtasida toju-taxt uchun kurash avj olib, natijada hokimiyat ikkita shahzodaga-Badiuzzamon Mirzo bilan Muzaffar Mirzolarga o`tadi. Qulay vaziyatdan foydalangan Shayboniyxon 1507-yili shahzodalarni tor-mor

etib, qattiq janglardan so`ng poytaxt Hirot va butun Xurosonni o`z qo`li ostiga oladi.

Shunday qilib, deyarli bir yarim asr davom etgan shon-shavkatli Temuriylar saltanati o`z nihoyasiga yetadi. Temuriylarning oxirgi zabardast vakili Zahiriddin Muhammad Bobur 1525-yilgi Panipat jangidan so`ng shimoliy Hindistonni egallashga muvaffaq bo`ladi. Boburiylar sulolasi Hindistonda deyarli uch asr mobaynida hukmronlik qilib, ko`p holda temuriylarning shon-shuhratini bu yerda tiklashga muvaffaq bo`ladilar.

11-mavzu. Turkistonning xonliklarga bo‘linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari.

XV asr oxiri - XVI asr boshlarida Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot. Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolasi

XV asrning 90-yillarida Movaraunnahrdagi temuriylar saltanati amalda mustaqil boshqariladigan viloyatlarga aylanib qolgan edi. Kichik bir viloyatda hokimlik qilayotgan temuriy shahzodalarning har biri poytaxt Samarqandni egallash, bobokalonlari o‘tirgan taxtga chiqib, butun mamlakatga yagona hukmdor bo‘lish orzusida edilar. Bu niyatga yetish uchun ular o‘rtasida o‘zaro ichki nizo avj olib ketgan bo‘lib, mamlakat aholisining ham temuriylardan noroziligi kuchayib borayotgan bir davr edi.

Samarqand hukmdori Sulton Ahmad Mirzoning 1494-yilda vafot etishi, bu holatni yanada keskinlashtirdi, mamlakatda boshboshdoqlik, ko‘p hokimiyatchilik vujudga keldi. Bu vaziyatdan temuriylarning shimoldagi qo‘shnisi, Dashti Qipchoqda o‘z hokimiyatini mustahkamlab olgan Muhammad Shayboniyxon (1451-1510) foydalanib qolish uchun 1497-yilda Movaraunnahrni egallash uchun birinchi marta qurol bilan bostirib kirdi. Bunga 1496-yilda Samarqand taxtiga o‘tqazilgan Boysunqur mirzo ibn Sulton Mahmud (1479-1499)ning boshqa temuriy shahzodalardan Samarqandni mudofaa qilishda ittifoqchilikka chaqirib qilgan taklifi ham sabab bo‘lgan edi.

XI asrdan boshlab Balxash ko‘li va Sirdaryoning quyi oqimlaridan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo‘lgan hududlarda qipchoq va boshqa turkiy qabilalarning hukmronlik qilganliklari sababli bu hudud Dashti Qipchoq deb atalgan. Dashti Qipchoq chegaralari ba’zan Kavkaz tog‘lari, Qora va Kaspiy dengizlarigacha yetib borgan. Bu yerda Botuxon 1236-yilda asos solgan Oltin O‘rda davlati XIV asr boshlarida ikki qismga

ajralib ketgan bo‘lib, uning sharqiy qismida ayrim tarixiy manbalarda “O‘zbeklar mamlakati” deb yuritilgan Oq O‘rda davlati tashkil topdi. Bu hududda Jo‘jixonning beshinchi o‘g‘li Shaybon urug‘idan bo‘lgan Abulxayrxon (1412-1468) 1428-yilda mustaqil davlatga asos soldi.

Oltin O‘rda, Mo‘g‘uliston va temuriylar davlatlaridagi o‘zaro urush va parokandalikdan ustalik bilan foydalangan Abulxayrxon o‘z davlati hududlarini ancha kengaytirib oldi. Lekin urug‘ boshliqlarining mustaqil hukmronlikka intilishlari va 1468-yilda Abulxayrxon vafoti bu davlatning inqirozga uchrashiga sabab bo‘ldi. XV asrning 80-yillariga kelib, Abulxayrxonning nabirasi, Budoq Sultonning o‘g‘li Muhammad Shohbaxt Shayboniyxon (1451-1510) bobosining davlatini qayta tiklab, shayboniylar sulolasiga asos soldi. Yoshligida yetim qolgan Muhammad ukasi Mahmud bilan Muhammad Mazid tarxon, Sultonali mirzo homiyligida Turkiston, Samarqand, Buxoro shaharlarida ilohiyat olimlari Muhammad Xitoiy, Hofiz Husayn Busuriy kabi ulamolardan saboq olib, o‘z davrining bilimdon, o‘qimishli kishisi, iste’dodli shoiri bo‘lib yetishdi. Muhammad Shayboniyxon buyuk davlat tuzish faoliyatini dastlab lashkar to‘plash va yollanma qo‘shin lashkarboshisi sifatida temuriylarga xizmat qilishdan boshladi. Shayboniyxon yollanma qo‘shin boshlig‘idan xon darajasiga ko‘tarildi.

XV asr 90-yillarining o‘rtalaridan Movaraunnahrning siyosiy hayotida Amir Temurning evarasi Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) ham sezilarli rol o‘ynay boshladi. 1494-yil 10 iyun kuni 12 yoshida Farg‘ona taxtiga o‘tirgan yosh Bobur amakisi Sulton Ahmad (1469-1494 yy. Samarqand hokimi), Toshkent hokimi, tog‘asi Sulton Mahmudlar hujumlarini qaytarib, 1496 yilda Samarqand shahrini qamal qiladi, lekin qish yaqinlashib qolgani uchun qamalni to‘xtatadi. 1497-yil mayida Bobur Samarqandni ikkinchi bor qamal qilganida Shayboniyxon bilan birinchi marta yuzma-yuz bo‘ldi. Boysunqur mirzoning Shayboniyxonga Samarqand darvozasini ochmagani sababli, u Bobur bilan jang qilmasdan maydonni tashlab ketdi. 7 oylik qamaldan keyin Samarqandni egallagan Bobur poytaxtda 100 kun hukmronlik qildi. Farg‘onada ukalari sabab kelib chiqqan nizoni bartaraf etish uchun Bobur Samarqandni tashlab chiqdi va 1500 yilgacha u yerda tinchlik o‘rnatish bilan ovora bo‘ldi. Butun Movaraunnahr yerlarini birlashtirish maqsadi bilan yonayotgan Bobur hatto tinchlik uchun Farg‘onani ham ikki qismga bo‘lib, ukasi Jahongirga Sirdaryoning shimoliy qismini berishga majbur bo‘ldi.

Bu paytda asosiy maqsadi Temuriylar saltanatiga butunlay barham berish bo‘lgan Shayboniyxon Buxoro, Samarqand, Qarshi, G‘uzor,

Shohruxiya shaharlarini egalladi. Bu shaharlardagi dasht o‘zbeklarining qirg‘in va talonchiliklari mahalliy xalq ichida Shayboniyxonga qarshi harakatlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Bundan foydalangan Bobur 1501 yilda Samarqandni ikkinchi marta egalladi.

Movarounnahrda o‘zining asosiy raqibi Bobur ekanligini sezgan Shayboniyxon asosiy kuchlarini Samarqand yaqiniga to‘plab hal qiluvchi jangga kirdi. Ochiq jangda yengilgan Bobur shaharga kirib, mudofaaga kirishdi, lekin boshqa temuriylardan yordam bo‘lmagach, Shaybonixon bilan sulh tuzib, Samarqandni tashlab chiqishga majbur bo‘ldi. Shundan keyin Bobur 250 kishisi bilan Afg‘onistonga keldi va Qobul podsholigiga asos soldi. 1510-yilda Marv yaqinida Shayboniyxon qo‘shini ustidan g‘alaba qozongan Eron shohi Ismoil Saffaviy Bobur Mirzoga birgalikda Samarqandga qo‘shin tortishni taklif etdi. Bu taklifni qabul qilgan Bobur Muhammad Shayboniyxon vafoti (1510) bilan o‘zaro kelishmovchilik sababli ancha zaiflashib qolgan shayboniylar hukmronligi ostidagi Hisor, Ko‘lob, Qunduz, Badaxshon, Qarshi, yerlarini egallab, Samarqand shahrini 1511-yilda uchinchi marta bosib oldi.

Boburning ittifoqchilari, shia mazhabidagi Eroniy qizilboshlilarning talon-tarojlari sababli mahalliy aholi Boburni qo‘llab-quvvatlamadi. 1512-yil oxirlarida Ubaydulla sulton qo‘shinlaridan Buxoro yaqinida mag‘lubiyatga uchragan Bobur Movaraunnahrdan, butunlay umidini uzib ketdi. Qobul atrofida o‘z hukmronligini to‘la mustahkamlab, 1526-yil boshida Hindistonga yurish boshladi va u yerdagi Ibrohim Lo‘diyning qo‘shinlarini to‘la tor-mor keltirib, yangi saltanat-Boburiylar saltanatiga asos soldi. Bu saltanat Hindistonda 332 yil (1526-1858-yillar) hukmronlik qildi.

1487-1488-yillarda O‘tror, Sayram, Yassa (Turkiston), Sig‘noq shaharlarini bosib olib, o‘z hukmronligini Dashti Qipchoqda mustahkamlagan Muhammad Shayboniyxon 1499-yildan Movaraunnahrni egallashga jiddiy kirishdi. U yerdagi asosiy dushmani Boburdan 1501 yilda Samarqandni tortib olgan Shayboniyxon 1503 yilda Toshkentni, 1504-yilda Xisorni, 1505-yilda 10 oylik qamaldan keyin Urganchni, 1507-yilda Hirotni, 1509-yilda Marvni o‘ziga bo‘ysindiradi. Natijada Dashti Qipchoq, Xorazm, Movaraunnahr, Xurosonni birlashtirgan Shayboniyxon Mashhad va Tus shaharlarini egallab Eronda Shoh Ismoil asos solgan Saffaviylar davlatiga xavf soladi. 1510 yilda Marv yaqinidagi jangda Shoh Ismoil qo‘shinlaridan mag‘lubiyatga uchragan Muhammad Shayboniyxon og‘ir yarador bo‘lib, vafot etadi.

Muhammad Shayboniyxon vafotidan keyin Ko‘chkunchixon (1512-1529) va Abu Sa’id (1523-1533) davrida Movarounnahr va Xurosonda markaziy hokimiyat zaiflashib, amirlar va sultonlar o‘rtasida nizo kuchaydi. Bu paytda Xorazm mustaqil davlat bo‘lib ajralib chiqdi va Turkiston yerlari parchalandi. O‘zaro urushlarga birmuncha barham bergan, Shayboniyxonning ukasi Mahmud Sultonning o‘g‘li Ubaydulla Sulton 1512 yilda Buxoro hukmdori bo‘lgan bo‘lsa, 1533-yildan butun markazlashgan o‘zbek davlatining Oliy Hukmdori etib saylandi. Ubaydullaxon poytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko‘chirdi.

XVI asrning 40-yillariga kelib feodallar va mahalliy sulolalar o‘rtasida shaharlar va hududlar uchun kurash avj olib ketdi. Samarqand hukmdori Abdulatifxon (1541-1552-yy.) bilan Buxoro xoni Abdulazizxon (1540-1550 yy.) o‘rtasidagi kurashni Toshkent va Sirdaryo bo‘yidagi shaharlarning hukmdori Baroqxon (Navro‘z Ahmadxon, 1540-1556) yanada kuchaytirdi. U hatto 1551-yilda Samarqandni bosib oldi. Karmana va Miyonqol hukmdori Abdulla Sulton Baroqxonga qarshi kurash olib bordi. Bu kurashlarda Iskandar Sultonning o‘g‘li Abdullaxon (1534-1598) o‘zining qat’iyatliligi, yaxshi siyosatchi va sarkardalik qobiliyati bilan ajralib turdi. U 1561-yilda otasi Iskandarxonni oliy hukmdor deb e’lon qildi.

Abdullaxon II markazlashgan Shayboniylar davlatini tiklash maqsadida amirlar va sultonlar bilan ayovsiz kurash olib bordi. Tinimsiz urushlar natijasida Farg‘ona (1573), Shahrisabz, Qarshi, Hisor viloyatlari (1574), Samarqand (1578), Toshkent, Shohruhiya, Sayram, Ohangaron (1582), Balx (1583), Badaxshon (1584), Hirot (1588), Xorazm (1595), Abdullaxon qo‘l ostiga birlashtirildi. U 1561-1583-yillarda otasi nomidan, 1583-1598-yillarda rasmiy xon sifatida davlatni boshqardi. Ammo 1598-yilda Abdullaxon II vafotidan so‘ng uning o‘g‘li Abdulmo‘min uzoq muddat taxtni boshqara olmadi. So‘nggi Shayboniy hukmdori Pirmuhammad II (1599-1601) ham bebosh amirlarni tiyib qo‘ya olmadi.

XV asrning oxiri XVI asr Dashti Qipchoq, Movaraunnahr va Xurosonda bo‘lib o‘tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar, iqtisodiy madaniy ahvoli to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar beruvchi asarlar juda ko‘p. Bular ichida Zahriddin Muhammad Boburning (1453-1530) “Boburnoma”, shoir va tarixchi olimlardan Kamoliddin Binoiy (1453-1512) va Muhammad Solih (1453-1535)larning forsiy va o‘zbek tilda bitilgan “Shayboniynoma” asarlari, Xondamirning “Habib us-siyar”, Fazlulloh ibn Ruzbehon (1457-1530) ning “Mehmonnomayi Buxoro”, noma’lum muallifning “Tavorixi guzida”, “Nusratnoma”, Mirzo Muhammad Haydar

(1500-1556)ning “Tarixi Rashidiy”, Abdulloh Nasrullohiyning “Zubdaj ul-Osor”, Xo‘ja Qulibek Balxiyning “Tarixi Qipchoqxoniy” va Hofiz Tanish Buxoriy (1547-1604) ning “Sharofnomayi shohiy“ (“Abdullanoma” nomi bilan mashhur) asarlari alohida ahamiyatga ega.

Muhammad Shayboniyxonning markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun amalga oshirgan ba’zi chora tadbirlari, beklarning kuchayishi va o‘zaro kurashlariga ham sabab bo‘ldi. Masalan, davlat boshqaruvi sohasida suyurg‘ol tizimining joriy etilib, bosib olgan hududlarda boshqaruv ishining farzandlari, qarindosh-urug‘lari, qabila boshliqlariga topshirilishi uning vafotidan keyin markaziy hokimiyatdan mustaqil bo‘lishga intilishlarni kuchaytirdi.

Mamlakat xo‘jaligini tiklash uchun bo‘sh yotgan yerlar, vafot etgan yoki soliqlar og‘irligidan ko‘chib ketgan mahalliy mulkdorlar yerlari qayta taqsimlandi. Bu esa ijtimoiy hayotni tartibga solishga yordam berdi.

Iqtisodiyotni tartibga solish, savdo sotiqni jonlantirish maqsadida 1507 yilda pul islohoti o‘tkazilib, markaziy shaharlarda vazni bir hil bo‘lgan (5,2 gramm) kumush va mis chaqa pullar zarb qilindi. Asosan markaziy hokimiyatning siyosiy, iqtisodiy mavqeyini kuchaytirish, shayboniy xonlari va beklari hukmronligini mustahkamlashga qaratilgan bu islohot Shayboniyxon vafotidan keyin kuchayib ketgan o‘zaro urushlar natijasida yaxshi natija bermadi va pul qadrsizlandi. 1515-yilda oliy hukmdor Ko‘chkunchixon pul islohoti o‘tkazishga majbur bo‘ldi. Ayniqsa, Abdullaxon II davrida o‘tkazilgan pul islohotlari xonlik iqtisodiy hayotida katta ahamiyat kasb etgan bo‘lib, markaziy hokimiyat kuchayishi, xazinaga foyda tushishi va savdo-sotiqning jonlanishiga yordam berdi.

Pul islohotini bosqichma-bosqich o‘tkazgan Abdullaxon II oltin, kumush, mis pullarni otasi nomidan (1560-1583) chiqarganda mamlakatdagi bir qancha shaharlarda pul zarb qilingan bo‘lsa, mustaqil hokimiyatni boshqargan yillarida (1583-1598), asosan, Buxoroda markazlashgan pul zarb qilishni yo‘lga qo‘ydi. Manbalarga qaraganda, Abdullaxon II ba’zan Balx, Samarqand hamda Toshkentda kam miqdorda pul chiqarishga ruxsat bergan.

Muhammad Shayboniyxon davrida ta’lim sohasida ham islohot o‘tkazilib, unga ko‘ra bola 6 yoshdan maktabga berilgan va ikki yil o‘tgach madrasaga o‘tkazilgan. Madrasa uch bosqichdan iborat bo‘lib, har bosqichda 8 yildan o‘qitilgan. Bu davrda ilohiyot, hisob-kitob, matematika, she’r san’ati kabi fanlar o‘qitilgan.

Iqtisodiy hayotda su’niy sug‘orish asosiy rol o‘ynaganligi sababli shayboniylar davrida suv inshootlari qurilishiga ancha e’tibor berildi. 1502-yilda Zarafshon daryosida qurilgan suv ayirg‘ich, 1556-1585-yillarda Qashqadaryo, Zarafshon, Amudaryo, Murg‘ob va Vaxsh daryolaridan chiqarilgan kanallar, suv ayirg‘ich va suv omborlari buning yaqqol misoli bo‘la oladi.

Xonlik iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari qishloq xo‘jaligi, savdo-sotiq va hunarmandchilik bo‘lib, yer asosiy boylik hisoblangan. Shayboniylar davrida mulkiy munosabatlarda aytarlik o‘zgarishlar yuz bermadi. Dashti qipchoqdan kelgan o‘zbeklar yer egaligi munosabatlarini boshidan kechirayotgan bo‘lib, ular Movaraunnahrga yangi ishlab chiqarish munosabatlarini olib kelganlari yo‘q, balki temuriylar davrida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy tizimni qabul qildilar, hamda unga moslashdilar.

Yer egaligining mulki sultoniy (davlat yerlari), mulki xolis (xususiy yerlar), vaqf (diniy mahkamalarga qarashli yerlar) va qishloq jamoalari egalik qiladigan yerlar kabi asosiy turlari bo‘lib, ular iqto`, suyurg‘ol, tanho va jog‘ir ko‘rinishida bo‘lgan. Davlat oldidagi xizmatlari uchun harbiy-ma’muriy amaldorlarga va yirik din arboblariga beriladigan bunday yerlarda yersiz dehqonlar ishlaganlar. Ular ham davlatga, ham amaldorga soliq to‘laganlar. Shayboniylar davrida chorvachilik va hunarmandchilik ancha rivojlangan bo‘lib, ular yetishtirgan mahsulot ichki va tashqi bozorlarda sotilgan. Hindiston, Eron, Rossiya kabi mamlakatlar bilan savdo-sotiq qilingan.

Shayboniylar davrida 40 dan ortiq soliq va jarimalar bo‘lib, xiroj va zakotdan tashqari, tagjoy jizya, ixrojat, tog‘ar, ulufa, qo‘nalg‘a, begar, madadi lashkar, boj, tuhfa kabi nomlar bilan atalgan soliq turlari va yasoq deb ataluvchi majburiyatlar bo‘lgan. Soliq to‘lovchi aholi fuqaro (rayiyat) deb atalgan. Juybor shayxlari kabi yirik ulamolar-din peshvolari barcha soliqlardan ozod qilingan. Oliy tabaqaga xon va uning yaqinlari kirgan. Harbiy-ma’muriy boshqaruv tizimidagi amaldorlar umaro, olim va shoirlar fuzalo deb atalganlar, bundan tashqari yana shayboniylar davrida qullar ham bo‘lgan.

Shayboniylar davlati ma’muriy jihatdan viloyatlarga bo‘lingan bo‘lib, boshqaruv tizimi markaziy va mahalliy amaldorlar qo‘lida bo‘lgan. Markaziy boshqaruvda xondan keyin ko‘kaldosh, otaliq, naqib, parvonachi, vaziri a’zam kabi mansabdorlar dunyoviy ishlarni boshqargan bo‘lsalar, shayx ul-islom, qozi kalon, a’lam, imom, sadr, muftiy, rayis (muhtasib)lar diniy ishlarni nazorat qilganlar hamda no‘yon, tug‘begi,

tovochi, jevachi, qutvol, dorug‘a, to‘pchiboshi kabi harbiy unvonlar bo‘lgan. Mahalliy boshqaruv hokim va beklar qo‘lida bo‘lib, bu jarayonda qozi, muftiy, rayislar muhim rol o‘ynaganlar.

Muhammad Shayboniyxon, Ko‘chkinchixon va Ubaydullaxonlar o‘z davrining o‘qimishli kishilari bo‘lib, turkiy va forsiy tillarda ijod qilganlar. Abdulazizxon va Abdullaxon II larda katta kutubxona mavjud bo‘lgan. Bu davrda matematika, astronomiya, tibbiyot, tarix, adabiyot sohalarida ko‘zga ko‘rinarli ajoyib asarlar yaratilgan. Shayboniylar davrida qurilgan Mir Arab madrasasi (1535-1536), Masjidi Kalon (1540-1541), Toqi Zargaron (1559), Toqi Sarrofon (1559), kabi inshootlar va Modarixon madrasalari hozirga qadar me’morchiligimizning ajoyib namunalari sifatida saqlanib turibdi. Shayboniylardan Abdullaxon II davrida markaziy hokimiyatni mustahkamlash yo‘lida olib borilgan urushlar natijasida temuriylar davridagi ko‘pgina inshootlar vayron qilingan bo‘lsa, ikkinchi tomondan u ko‘plab rabot, sardoba, madrasa, masjid, ko‘prik, suv omborlarini qurdirib, mamlakat obodonchiligiga katta hissa qo‘shgan.

Shayboniylar davlatidagi quyi tabaqa-mehnatkashlar bilan zodagonlar, mahalliy hokimiyat bilan markaziy hokimiyat o‘rtasidagi asosiy ziddiyatlar bu sulola hukmronligining inqirozga yuz tutishiga sabab bo‘ldi. Mamlakatni birlashtirish, markazlashgan hokimiyat qurish uchun kurashlarda Abdullaxon II shayboniyzodalarning ko‘pchiligini qatl qilgan bo‘lsa, uning o‘g‘li Abdulmo‘min o‘z mavqeini saqlab qolish uchun eng yaqin qarindoshlarini ham o‘ldirtirdi. Natijada 6 oy ham hokimiyatga ega bo‘la olmagan Abdulmo‘min vafotidan keyin mamlakatni idora qilishga layoqatli shayboniylardan biror kishi qolmadi. Ularning oxirgi hukmdori Pirmuhammad o‘z hukmronligini shayboniylar davlatining kichik bir bo‘lagida o‘rnatib, o‘zaro janglarda halok bo‘ldi. Bu vaziyatdan foydalangan Xorazm o‘z mustaqilligini tiklab oldi.

Eron shohi Abbos I Hirotni, Sabzavor va Mashhadni egalladi, qozoq sultonlari Toshkent va Samarqandni bosib olib, Buxoroni qamal qildilar. Ana shunday og‘ir sharoitda Buxoro zodagonlari Joni Muhammad Sulton (Jonibek)ni taxtga taklif qilib, 1601-yilda uning nomiga xutba o‘qitdilar va Jonimuhammadxon Buxoro xoni deb e’lon qilindi. Shu yildan boshlab Buxoro xonligida ashtarxoniylar nomini olgan sulola hukmronligi boshlanib, u 1753-yilgacha hokimiyatga mang‘itlar sulolasi chiqqunga qadar davom etdi.

Ashtarxoniylar XIV asrning 80-yillaridan boshlab Astraxan (Hoji Tarxon, Ashtarxon) atroflarida hukmronlik qilganlar. 1556-yilda rus

knyazlari Astraxanni bosib olgach, ashtarxoniylardan Yormuhammad Buxoroga kelib, Iskandar sultondan panoh topdi. Iskandar sulton qizi Zuhraxonimni Yormuhammadning o‘g‘li Jonibekka bergan. Jonibek sultonning Zuhraxonimdan uchta o‘g‘li (Dinmuhammad, Boqimuhammad, Valimuhammad) bo‘lgan.

Jonibek sulton Buxoro xoni deb e’lon qilingach, o‘g‘li Dinmuhammad foydasiga taxtdan voz kechadi. Seyiston hukmdori bo‘lgan Dinmuhammad Hirot yaqinida safaviylar bilan bo‘lgan jangda halok bo‘ladi va taxtga Boqimuhammad (1601-1605) o‘tqazilib, ukasi Valimuhammad (1605-1611) voris deb e’lon qilinadi.

Boqimuhammad 1602-yilda Balxni egalladi, 1603-yilda eroniylarning Balxga hujumini qaytardi. 1604-yilda qozoq xoni Kelimuhammad qo‘shinlariga zarba berib, davlat hokimiyatini mustahkamlashga harakat qildi. Undan keyin taxtga ko‘tarilgan Valimuhammad o‘zi mustaqil harakat qilolmas, davlat ahamiyatiga molik masalalarni beklarning roziligi bilangina hal etar edi. Mustaqil boshqaruvga intilgan beklar xonga bo‘ysunmay qo‘yishgan. O‘zaro ichki kurash, tarafkashlik Valimuhammadga qarshi fitna uyushtirishga olib kelgan va buning natijasida Imomqulixon (1611-1642) taxtni egallagan edi.

Imomqulixon mahalliy beklarni bo‘ysundirish, Eron qo‘shinlariga zarba berishda qozoq sultonlari kuchlaridan foydalandi. Mamlakat hududlarini kengaytirgan Imomqulixon Toshkentga o‘g‘li Iskandar sultonni hokim qilib qo‘ydi, lekin 1613 yilda Iskandar zulmidan bezor bo‘lgan toshkentliklar isyon ko‘tardi, Iskandar o‘ldirildi. Imomqulixon bu xabarni eshitib, Toshkentga katta qo‘shin bilan kelib, isyonchilarni bostirdi va aholini qirg‘in qildi. U qozoqlar, qalmoq (jung‘or)lar, mo‘g‘ullar va qoraqalpoqlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bordi. Bu Imomqulixonning mavqeyini mustahkamladi, xon hokimiyati kuchaydi. Uzoq vaqt hukmronlik qilgan Imomqulixon zodagonlarning qarshi chiqishlari va o‘zaro kurashlarini birmuncha vaqt to‘xtatishga muvaffaq bo‘ldi. Lekin urug‘ amirlarining ko‘pchiligi xon hokimiyatini tan olmas edilar. Ular ichki, hatto tashqi masalalarda ham to‘la mustaqil faoliyat olib borganlar. Bir necha yil Samarqandni boshqargan yirik yer egasi Yalangto‘shbiy shunday amirlardan biri edi.

1642-1645-yillarda hukmronlik qilgan Nodirmuhammad mamlakat hududlarini 12 ta o‘g‘li va ikkita jiyaniga bo‘lib berib, ijtimoiy-siyosiy tarqoqlikni kuchaytirdi. Uning zodagonlar bilan kelisha olmasligi davlat asoslarining zaiflashuviga olib keldi. Natijada uning poytaxtda

yo‘qligidan foydalanib amirlar Abdulazizxon (1645-1680)ni xon deb e’lon qildilar. Nodirmuhammad Balx shahriga qochdi va Hindiston hukmdori Shohjahon (1628-1658)dan yordam so‘radi. Ammo, uning yordami muvaffaqiyatli bo‘lmadi.

Abdulazizxon hukmronligi yillarida Xiva xonlari Abulg‘ozixon (1643-1663) va uning o‘g‘li Anushaxon (1663-1687) Buxoro hududlariga bir necha marta talonchilik yurishlarini amalga oshirdilar. Xorazmliklar 1655-yilda Qorako‘l, Buxoro atroflarini, 1662-1663 yillarda Buxoro va Buxoro atroflariga hujum qilib, u yerlarni talon-taroj qildilar. Dushman qo‘shinlariga zarba berish, o‘zaro feodal urushlarni to‘xtatish imkonini topa olmagan Abdulazizxon taxtdan voz kechdi. Uning o‘rniga taxtga o‘tirgan ukasi Subhonqulixon (1680-1702) davrida ham Buxoro-Xiva munosabatlari murakkabligicha davom etdi. Ayniqsa, Samarqand amirlarining Xiva xoni Anushaxon hukmronligini tan olib, uning nomiga xutba o‘qitishlari ba’zi amirlarning noroziligiga sabab bo‘ldi. Shunday vaziyatda Subhonqulixonni Mahmudbiy qatag‘on qo‘llab quvvatladi, samarqandliklar jazolandi. Shunga qaramay Buxoro va Xiva munosabatlari keskin bo‘lib qolaverdi. XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida tinimsiz bo‘lib turgan o‘zaro kurashlar, siyosiy tartibsizliklar xalq ommasining ahvolini og‘irlashtirdi, soliqlar ko‘payib, poraxo‘rlikning avj olishi, boshboshdoqlik mamlakat xo‘jaligining vayrona holga kelib, izdan chiqishiga olib keldi. Shunday og‘ir vaziyatda vafot etgan Subhonqulixon o‘rniga Ubaydullaxon (1702-1711) taxtga o‘tirdi. U markaziy hokimiyatni mustahkamlash, mustaqillikka intilgan bebosh amirlarni bo‘ysundirish, ko‘tarilgan qo‘zg‘olonni bostirish uchun tinimsiz urushlar olib bordi. Ubaydullaxon yirik zodagonlar, qabila boshliqlarining mavqeyini pasaytirish, siyosiy tarqoqlikni bartaraf etish maqsadida ularni markaziy hokimiyatdan chetlashtirdi, hatto diniy-siyosiy hokimiyatga katta ta’siri bo‘lgan Jo‘ybor shayxlarini soliq to‘lamaslik imtiyozidan mahrum etdi. Yana davlatni boshqarishga hunarmandlar va savdogarlarning bolalarini jalb qilib, o‘ziga ishonchli yangi amaldorlarni shakllantirishga harakat qilgan Ubaydullaxon faoliyati yuqori tabaqa vakillarining noroziligiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, 1708-yilda markaziy hokimiyatni kuchaytirish uchun o‘tkazgan pul islohoti aholining o‘rta tabaqasi orasida ham xonning ta’sirini ancha pasaytirdi.

Ashtarxoniylar orasida nisbatan qat’iyatli, markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun bir necha tadbirlarni amalga oshirgan Ubaydullaxon davrida ijtimoiy-siyosiy parokandalik kuchaydi va uning o‘zi fitna qurboni bo‘ldi. Fitna ishtirokchisi bo‘lgan ukasi Abulfayzxon

(1711-1747) taxtga chiqarildi. Irodasi kuchsiz Abulfayzxon kuchli amirlar ta’siridagi qo‘g‘irchoq xon sifatida tarixda qoldi. U nomigagina xon bo‘lib, haqiqiy hokimiyat kuchli amirlar qo‘lida bo‘lgan. Ayniqsa, Abdullabiy, Ibrohimbiy, Muhammad Hakimbiylar davlat boshqaruvida katta ta’sirga ega bo‘lganlar. Abulfayzxon davrida siyosiy tarqoqlik g‘oyatda kuchayib, har bir viloyat amalda mustaqil boshqaruvga ega bo‘lgan hokimiyatga aylanib qolgan edi. Toshkent, Xo‘jand, Balx, Badaxshon, Shahrisabz, Hisor va uning atrofidagi yerlar Buxoroga bo‘ysunmagandi. Bu porakandalik markaziy hokimiyatda yuqori mavqega ega bo‘lishga intilgan biylar o‘rtasidagi kurash sababli ro‘y bergan edi. Bu kurashda Shahrisabz hokimi kenagas Ibrohimbiy bilan barcha shahzodalar otaliqlarining boshlig‘i bo‘lgan mang‘it urug‘idan chiqqan Muhammad Hakimbiylar katta rol o‘ynadilar.

Ibrohimbiy Samarqand poytaxti bo‘lgan mustaqil davlat tuzish maqsadida qarindoshi Rajab Sultonni Samarqand hokimi deb e’lon qildi va Buxoroga qarshi yurish qildi. Biylarning o‘zboshimchaligiga qarshi qat’iyat bilan kurashayotgan Muhammad Hakimbiy to‘qnashuvda mag‘lubiyatga uchragan bo‘lsa ham, Buxoro ahlining qattiq qarshiligi sababli Rajab Sulton shaharni egallab ololmadi.

Buxoro xonligidagi porakandalik, o‘zaro urushlar 1736-yilda Eronda hokimiyatni egallab, mustahkamlanib olgan Nodirshoh Afshar (1736-1747) e’tiboridan chetda qolmadi va u Buxoro va Xiva xonlarini o‘ziga bo‘ysundirish harakatini boshladi. 1740 yilda Eron hukmdori Buxoroga qo‘shin tortganda Abulfayzxon og‘ir shartlarga ko‘nib, sulh tuzishga majbur bo‘ldi va Nodirshoh hokimiyatini tan oldi. Abulfayzxonning Eronga qaramligini tan olish bilan Ashtarxoniylarning mustaqil hukmronligi tugadi. Mamlakat boshqaruvi 1743-yilgacha Muhammad Hakimbiy, uning vafotidan keyin Muhammad Rahimbiy qo‘lida bo‘ldi. 1747-yilda Nodirshoh vafoti bilan Abulfayzxon o‘ldirildi, uning vorislari Abdulmo‘min (1747-1748), Ubaydulla III (1748-1756) nomigagina xon deb e’lon qilinib, davlat hokimiyati amalda Muhammad Rahimbiy asos solgan mang‘itlar sulolasi qo‘liga o‘tdi. Chingizxon avlodiga mansub bo‘lmagan Muhammad Rahim 1753-yilda o‘z nomiga xutba o‘qittirib, o‘zini amir deb atadi. Mang‘itlar sulolasining 1920-yilgacha hukmronlik qilgan davri tarixda shuning uchun ham Buxoro amirligi deb ataldi.

Ashtarxoniylar davrida Movaraunnahr siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda inqirozga yuz tutib, uchta mustaqil davlatning shakllanishi bilan izohlanadi. O‘zaro urushlar va chet el bosqinchilarining hujumi mamlakat

iqtisodiy hayotini to‘la izdan chiqardi. Suv inshootlari qarovsiz qolib, ko‘pgina ekin ekiladigan yerlar izdan chiqdi. Bu mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy hayotida og‘ir holatni keltirib chiqardi.

Siyosiy hayotda shayboniylar davridagi davlat tuzumi asosan o‘zgarmagan bo‘lsa ham, boshqaruvda otaliqlar va dindorlarning mavqei oshib, mamlakat siyosiy hayotini hal qilish ularning qo‘liga o‘tgan edi. Bu ijtimoiy tuzumga ta’sir qilib, xon va uning amaldorlari harbiy-ma’muriy amaldorlar, urug‘ boshliqlari, yirik ulamolar fikri bilan hisoblashishga majbur bo‘lardilar.

Harbiy sohada islohotlarning amalga oshirilmaganligi zamonaviy harbiy texnikaga e’tibor berilmaganligi qo‘shinning salohiyatini pasaytirib, shayboniylar davrida Buxoroga qaram yerlarning qo‘ldan chiqib ketishiga va hatto ashtarxoniylarning butunlay o‘z mustaqilliklarini yo‘qotishlariga sabab bo‘ldi.

Tinimsiz olib borilgan urushlar qishloq xo‘jaligi kabi shahar hayotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Sayido Nasafiy Buxoroda 200 xildan ortiq hunarmandchilik sohalari mavjud edi deb ma’lumot bersa-da, ular juda tor doirada bo‘lib mamlakat iqtisodiy ahvolini yaxshilashga sezilarli ta’sir ko‘rsata olmadi. Ubaydullaxon davrida o‘tkazilgan pul islohoti savdogarlar va hunarmandlarning noroziligiga sabab bo‘ldi. Hunarmandchilik sohasidagi yetakchi tarmoqlar to‘qimachilik va kulolchilik edi. Mamlakat iqtisodida dehqonchilik va chorvachilik yetakchi soha sifatida bu davrda ham o‘z mavqeini saqlab qoldi. Xalq xo‘jaligining bu sohalaridagi mahsulotlarning turli-tumanliligi ichki savdoga yo‘l ochib bergan bo‘lsa, tashqi savdodan keladigan katta foyda chet mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqani rivojlantirib xon va uning amaldorlarini rag‘batlantirar edi. XVI-XVII asrlardan boshlab Buxoro xonligida Rossiya va uning turli shaharlari bilan savdo aloqalari kuchayib bordi. Shu bilan birga qo‘shni mamlakatlar Hindiston, Eron, Qashqar hamda uzoq Turkiya mamlakatlari bilan ham savdo aloqalari olib borildi.

Ashtarxoniylar davridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotdagi tanazzul madaniy hayotga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Dindorlar mavqeining kuchayishi aniq fanlarga nisbatan e’tiborni pasaytirdi. XVII asrda Buxoro xonligida 150 dan ortiq madrasa faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ularda zamon taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatish darajasidagi allomalar yetishib chiqqani yo‘q. Bu dunyoviy ilmlar sohasida umuman ish qilinmadi degani emas. Matematika, astronomiya, ayniqsa tibbiyot, tarixnavislik va adabiyot sohasida bir qancha yangi asarlar yaratildiki, bular XVII asr va XVIII asr birinchi yarmidagi o‘zbek halqi ma’naviy

merosining buyuk namunalari sifatida qayd etiladi. Boboxo‘ja ibn Xoja Orif Samarqandiy, Mullo Tursun Faroyiziy Samarqandiylar falakiyot sohasida, Subhonqulixonning “Lubb ul-lavoyih ul-qamar fil-ixtiyorot”, “Ihyo at-tabibi Subhoniy”, Sa’id Muhammad Tohir ibn Abulqosimning “Ajoyib ul-tabqot” asarlari shu davrdagi ko‘zga ko‘ringan asarlar sirasiga kiradi.

Ashtarxoniylar davri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti haqida ma’lumot beruvchi Mirzo Sodiq Munshiyning “Dahmay shohon” majmuasi, Muhammad Balhiyning “Subhonqulinoma” masnaviysi, Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma”, Muhammad ibn Muhammad Zamon Buxoriyning “Muhit ut-tavorix”, Abdurahmon Tole’ning “Abulfayzxon tarixi”, Muhammad Yusuf munshiyning “Muqimxon tarixi” va boshqa asarlar shu davr madaniy hayotining ajoyib namunalaridir.

Bu davrda Turdi Farog‘iy (XVII asr), Boborahim Mashrab (1640-1711), So‘fi Olloyor (1644-1723), Mirzo Abdulqodir Bedil kabi ijodkorlarimiz o‘z asarlari bilan o‘zbek adabiyoti ravnaqiga salmoqli hissa qo‘shdilar. Xoja Samandar Termiziyning “Dastur ul-muluk” asari Subhonqulixon davri davlatchiligi tarixi va tuzumi haqida ma’lumot bersa, Mutribiyning “ Tazkirat ush-shuaro”, Maleho Samarqandiyning “Muzakkir ul-as’hob”, mulla Sodiq Samarqandiyning “Riyoz ush-shuaro” kabi tazkiralari davr ilmiy muhiti va ijodkorlari haqidagi asarlardir. Ularda 200 ga yaqin ijodkorlar hayoti va ijodi haqida fikr yuritiladi.

Buxorodagi Abdulazizxon madrasasi va Nodir devonbegi tomonidan qurilgan Labi Hovuz me’moriy majmuasi, Samarqand registoniga Yalangto‘shbiy qurdirgan Sherdor va Tillakori madrasalari, Qarshidagi Yormuhammadbiy va Ho‘ja Qurbonbiy madrasalari, Shahrisabz vohasidagi Xo‘ja Ilimkon me’moriy majmualari ashtarxoniylar davri me’morchiligining yuksak namunalaridir. Markaziy hokimiyatning zaiflashuvi, o‘zaro urushlar, siyosiy porakandalik bilan izohlanuvchi ashtarxoniylar davrida tarixnavislik, adabiyot, me’morchilik sohasida qo‘lga kiritilgan bu yutuqlar, ijobiy siljishlar, mehnatkash xalqimizning bunyodkorlik, yaratuvchanlik xislatlarining buyuk ko‘rinishidir.

Buxoro amirligi

Mang‘itlar sulolasining asoschisi Muhammad Rahimbiy 1747-yilda eroniy qizil boshlarni tor-mor keltirib, Buxoroda hokimiyatni to‘la o‘z

qo‘liga olgan edi. U barcha viloyat, shahar va qabilalar boshliqlarini Buxoroga taklif qilib, markaziy hokimiyatni kuchaytirishga qaratilgan dasturini e’lon qilib, bo‘ysunmaganlarni qatl qilaman deb ogohlantirdi.

Muhammad Rahimbiy Abdulmo‘min (1747-1748), Ubaydulla Sulton (1748-1756) nomlaridan davlatni boshqargan davrida Miyonqal’a, Nurota, Hisor, Qobodiyon, Boysun, Shahrisabz, Urgut viloyatlariga bir necha bor yurish qilib, ularni o‘ziga bo‘ysundirdi. Bu muvaffaqiyatlar uning rasmiy hokimiyatni ham qo‘lga olishiga yo‘l ochib berdi. Abulfayzxonning qiziga uylanib, xonlar avlodi bilan qarindosh bo‘lgan Muhammad Rahimbiyga amir unvoni berildi va oq kigizda ko‘tarilib oliy hukmdor deb tan olindi. Uning 1757-1758-yillarda markaziy hokimiyatni kuchaytirish uchun olib borgan urushlari bir qancha vayronagarchiliklarga sabab bo‘ldi. Xiva xonligiga o‘z ta’sirini o‘tkazishga muvaffaq bo‘lgan Muhammad Rahimbiyni Qo‘qon, Balx, Toshkent, Marv va Qunduz kabi mustaqil mulklar hukmdorlari Buxoroning qonuniy hukmdori deb o‘z elchilarini jo‘natganlar.

1758-yil 24-martda vafot etgan Muhammad Rahimbiy o‘rniga mang‘it urug‘idan bo‘lgan Miyonqal’a hokimi Doniyolbiy (1758-1785) taxtga ko‘tarildi. Doniyolbiy Muhammad Rahimbiyning nabirasi Fozilto‘rani xon taxtiga o‘tkazib, hokimiyatni o‘z qo‘lida saqlab qoldi. Markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun yangi soliqlar tizimini joriy qilib, bir qancha ma’muriy chora tadbirlarni amalga oshirgan Doniyolbiy ko‘p vaqtini bebosh amirlarni bo‘ysundirish, isyonlarni bostirishga sarf qildi. U 1784 yilda Buxoroda ko‘tarilgan qo‘zg‘olon sababli hokimiyatni shahar aholisi orasida obro‘liroq bo‘lgan o‘g‘li Shohmurodga topshirdi.

Amiri Ma’sum (“Begunoh amir”) nomini olgan amir Shohmurod (1785-1800) o‘z hukmronligi yillarida saroyda kamtarona yashab, bir qancha soliqlarni kamaytirdi, Buxoro ahliga tarxon yorlig‘ini berib, ba’zi to‘lovlardan ozod qildi, xalq orasida zolimligi bilan tanilgan amaldorlarni jazoladi. Madrasa ta’limini olgan Shohmurod fiqh ilmi haqida “Ayn ul-hikmat” nomli risola yozib, unda ilgari surilgan qoidalarni barcha viloyatlarga joriy etdi. U pul islohoti o‘tkazib tijorat ishlarini tartibga soldi, suv inshootlarini yaxshilash bilan ishlab chiqarishning rivojlanishiga zamin yaratdi. Bularning hammasi markaziy hokimiyatning nisbatan kuchayishiga va Shohmurodning umrini oxirigacha davlatni boshqarishiga imkon berdi.

1800-1826-yillarda Buxoro taxtini boshqargan amir Haydar davrida har 3-6 oyda uzluksiz ichki urushlar va qo‘zg‘olonlar bo‘lib turdi. 1800-yilda Qarshi va Kattaqo‘rg‘ondagi, 1804-yilda Marvdagi, 1821-1825-

yillarda Miyonqal'a qo‘zg‘alonlari amirlik siyosiy hayotidagi muhim voqealar bo‘ldi. Ayniqsa, xalq Xiva qo‘shinlarining talonchilik yurishlaridan ko‘p zarar ko‘rar edi. 1806-yilda Eltuzarxon boshliq xivaliklarning hujumini qaytarish uchun butun Buxoro ahli safarbar qilindi va Amudaryo bo‘yigacha taqib qilingan xivaliklar daryodan kechib o‘tishda ko‘p kishilaridan va Eltuzarxondan ajralishdi. Bundan keyin ham Xiva xonligi qo‘shinlari amirlik hududiga bir necha bor bostirib kirishgan.

Amir Xaydar hukmronligi davridagi katta qo‘zg‘olonlardan biri bu Miyonqal'a qo‘zg‘oloni edi. 1821 yilda amir amaldorlarining Miyonqal'a ahlidan xiroj yig‘ishdagi talon-tarojga qo‘l urganligi sababli qo‘zg‘olon boshlangan. Qo‘zg‘olonchilar Kattaqo‘rg‘on, Chelak, Yangiqo‘rg‘on hududlarini qo‘lga olib amir odamlarini haydab yuborishgan. 1822-yilda Qo‘qon va Xiva xonlari hujumini qaytarish bilan mashg‘ul bo‘lgan amir Haydar qo‘zg‘olonchilarni bostira olmaydi. Xitoy-qipchoqlar boshchilik qilayotgan qo‘zg‘olonchilar amirning inisi Is'hoqbekni o‘zlariga amir qilib Samarqand va Karmanaga yurish qiladilar. 1825 yil bahorigacha qo‘zg‘olonchilar bilan amir o‘rtasidagi kurashlar natijasida qo‘zg‘olonchilarni tamomila yenga olmagan amir yon bosishga, ularning mulki daxlsizligi to‘g‘risida yorliq berishga va bir qancha amaldorlarni jazolashga majbur bo‘lgan.

1826 yilda amir Haydarning uchinchi o‘g‘li Nasrullo (1826-1860) taxtga o‘tirdi. U o‘z yo‘liga to‘siq bo‘lishi mumkin bo‘lgan akalarini shavqatsizlik bilan qatl ettirdi va bir oy mobaynida kuniga 50-100 kishini qatl qilish bilan "Qassob amir" degan nomni oldi. Ayniqsa urushlar paytida bo‘ysunmagan shahar va qishloqlar aholisini qattiq qirg‘in qildi.

Amir Nasrullo hokimiyatni qo‘lga olgandan keyin Shahrisabz, Kitob hokimliklari o‘zlarini mustaqil deb e'lon qilgan edilar. Boshqa bir qancha bekliklar ham amirga rasmangina bo‘ysunishgan. Amir Nasrullo ularni yagona davlatga birlashtirish, markaziy hokimiyatni kuchaytirish yo‘lida qat'iyat bilan kurash olib bordi. Bunda u o‘zining amaldor xizmatkorlar tabaqasiga va harbiy qo‘shiniga tayanib ish ko‘rdi. 1840 yilda Amir Nasrullo Xo‘jand va O‘ratepani Qo‘qon xonidan tortib olib Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘ bekliklarini ham o‘ziga bo‘ysundirdi va 1842 yilda Qo‘qon xonligini egallashga muvaffaq bo‘ldi. U yerda Qo‘qon xoni Muhammad Alixonni oila a'zolari bilan va shoira Nodirabegimni ham vahshiylarcha qatl ettirdi.

Bu paytda Xiva xoni Olloqulixonning Buxoro hududlariga bostirib kirganligining xabarini eshitgan Amir Nasrullo o‘z qo‘shinlarini Xiva xonligi yerlariga olib kelib, Xazoraspni qamal qildi, ammo mag‘lubiyatga

uchradi. Shunday og‘ir sharoitda ham Amir Nasrullo Buxoro amirligi viloyatlarini birlashtirish uchun kurashni davom ettirdi. Bu kurash 30 yil davom etdi. Shahrisabz bekligini bo‘ysundirish uchun Amir Nasrullo 32 marta yurish qilib 1856 yildagina o‘z maqsadiga erishdi. Shunday qilib Buxoro hududlarini to‘la bo‘ysundirgan Amir Nasrullo Buxoroning so‘nggi mustaqil hukmdori bo‘lib qoldi. Undan keyin hukmdorlik qilgan Sayid Muzaffarxon (1860-1885) davrida Shahrisabz, Kitob beklari yana Buxoroga bo‘ysunishdan bosh tortdilar. Buxoro Rossiya vassaliga aylangandan keyin (1868) bu shaharlar ham ruslarga bo‘ysundirildi.

Mang‘itlar sulolasi hukmronligi davrida davlat tizimida anchagina o‘zgarishlar amalga oshirildi. Amir oliy hukmdor bo‘lib, davlat hayotiga tegishli siyosiy, iqtisodiy, diniy va boshqa barcha masalalar uning qo‘lida edi. Markaziy ijroiy hokimiyat saroy ayonlaridan tashkil topgan bo‘lib, Arkda joylashgan. Davlat boshqaruvida bosh vazir-qushbegi, devonbegi, parvonachi, otaliq, dodhox, xudaychi, mirzaboshi kabi saroy ayonlari va shayxulislom, qozikalon kabi diniy rahbarlarning mavqei katta bo‘lgan. Mahalliy boshqaruv amir tomonidan tayinlangan viloyat beklari va uning qo‘l ostidagi mirshabboshi, soliq yig‘uvchi amaldorlar, qozi, rais, qishloq oqsoqollari qo‘lida bo‘lgan.

Mang‘itlar sulolasi davrida amirlik 30 ta beklik va tumanlardan iborat ma’muriy birliklardan tashkil topgan. Har bir beklik hokimi xirojning bir qismini amirga yuborib turgan.

Buxoro amirligida yerga egalik munosabatlari iqtisodiy hayotda katta ahamiyatga ega bo‘lib, yer egaligining davlat, xususiy, vaqf kabi turlari bo‘lgan. Qishloq aholisining katta qismi yersiz dehqonlar bo‘lib, ular ijaraga yer olib ishlaganlar. Shahar aholisining asosini tashkil qilgan hunarmandlar hayoti ham og‘ir soliqlar sababli juda qiyin kechgan.

XVIII asr oxiri XIX asr birinchi yarmida Buxoro aholisining umumiy soni haqida aniq ma’lumotlar yo‘q bo‘lib, taxminan 2 mln. atroflarida bo‘lgan. Ularning ko‘pchiligini o‘zbeklar, shahar va ba’zi qishloqlarda tojiklar, janubiy-g‘arbiy tumanlarda ko‘chmanchi turkmanlar, kam sonli arab va yahudiylar tashkil etgan.

Buxoro amirligining xalq xo‘jaligida dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq sohalari katta ahamiyat kasb etgan. Aholidan xiroj, zakot, boj, to‘la, yaksara, nimsara kabi soliqlar undirib olingan.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Rossiya-Buxoro savdo va diplomatik aloqalari ancha rivojlandi. Bunda 1774-1776, 1779-80 yillarda Ernazar Maqsudov boshchiligida va 1797-yildagi Polvonquli qo‘rchi

elchiliklari katta ahamiyat kasb etdi. XIX asr boshlarida Rossiya-Buxoro aloqalari ancha faollashdi. Bu XIX asrning 20-yillarida O‘rta Osiyoga siqilib kirishga harakat qilayotgan inglizlar bilan ruslar o‘rtasidagi raqobatning keskinlashuviga olib keldi. Amirlik qo‘shni xonliklar Afg‘oniston, Hindiston, Eron davlatlari bilan ham savdo aloqalari olib bordi. Yirik savdo-sotiq markazi bo‘lgan Buxoroda 1848 yilda 38 ta karvonsaroy, 9 ta tim va ko‘plab bozorlar mavjud bo‘lgan.

Buxoro shahri amirlik davrida ham islom dinining markazi hisoblangan. Bu davrda boshlang‘ich ta’lim maktabi va oliy ta’lim beruvchi madrasalar faoliyati ham ancha yuksaldi. Bu yerda faqat O‘rta Osiyodangina emas, balki Volga bo‘ylari, Shimoliy-G‘arbiy Hindiston, Afg‘oniston va boshqa mamlakatlardan ham bilim olish uchun talabalar kelishar edi. Bu paytda Buxoro amirligining har bitta shaharida madrasalar bo‘lib, Buxoro shahrining o‘zidagi 103 ta madrasadan 60 tasi asosiy ta’lim maskani sifatida mashhur bo‘lgan. Madrasada o‘qitish 3 bosqichda amalga oshirilgan bo‘lib, uning barcha xarajatlari, mudarrislar va boshqa xizmatchilarning maoshi, talabalar nafaqasi, kutubxona xarajatlari va boshqalar madrasaga biriktirilgan vaqf yerlaridan keladigan daromad hisobiga qoplangan. Madrasada fiqh, shariat asoslari, adabiyot, til, tarix, falakiyot, mantiq, falsafa, matematika fanlari o‘qitilgan bo‘lsa ham dunyoviy ta’limga nisbatan diniy ahloqiy ta’lim berishga asosiy e’tibor qaratilgan. Bu davr madaniy hayoti haqida adabiyot, tarix, hattotlik, musiqa san’ati yodgorliklari, me’morchilik obidalari muhim ma’lumotlar beradi.

XIX asr adabiy hayotining ko‘zga ko‘ringan namoyondalari Mirzo Sodiq Munshiy, shoir Hoziq, shoir Mujrim, Muhammad Sharif Shavqiy, Mulla Qurbon Xiromiy, Ahmad Donish (1827-1897), Ochildi Murod, Meri Kattaqo‘rg‘oniy (1830-1899) va boshqalar o‘z asarlari bilan adabiyot rivojiga katta hissa qo‘shganlar. “Mang‘it hukmdorlari tarixi” she’riy usulda bitilgan asarlar, “Chor darvesh”, “To‘tinoma”, Poraxo‘r qozilar”, “Murid ovlovchi” kabi asarlar bu davr adabiyotining ajoyib namunalaridir.

Mang‘itlar hukmronligi davrida ham o‘rta asr tarixnavisligining yetakchi an’analari saqlanib qolganligini quyidagi asarlarda ko‘ramiz: Mullo Ibodullo va Muhammad Shariflarning “Tarixi amir Haydar” va “Dastoni amironi mang‘it”, Mirolim Buxoriyning “Fathnomayi-sultoniy”, Mirzo Abdulazim Somiyning “Tarixi salotini mang‘itiya”, “Dahmayi shohon” kabi asarlari, Muhammad Sharif ibn Muhammad Naqining “Toju tavorix” asarini, Ahmad Donishning “Mang‘itlar xonadoni hukmdorlari

tarixidan qisqacha risola” asarini va Mirzo Sodiq Munshiyning “Tarixi silsiloti mang‘itiya” (“Mang‘it hukmdorlari tarixi”) asarlari mang‘it amirlari tarixi haqidagi birlamchi manbalardir.

XVIII asr ikkinchi yarmi-XIX asr birinchi yarmi Buxoro amirligi me’morchiligi o‘ziga xos uslubda rivojlandi. Bu davrda amirlikning bir qancha shaharlarida masjid va madrasalar bunyod etildi. Buxoro shahrida qurilgan Domullo Tursunjon (1796-1797) madrasasi, Xudoydod me’moriy majmuasi (1777-1855), Ernazar elchi madrasasi (1795), 1807 yilda qurilgan Chorminor majmuasi, Qarshida qurilgan Mir Muhammad madrasasi kabi me’moriy yodgorliklar o‘zbek xalqining noyob madaniy merosidir.

Xiva xonligi

Amudaryoning quyi oqimida joylashgan, qadimiy dehqonchilik markazlaridan hisoblanmish Xorazm XIV asr oxirlaridan XVI asr boshlariga qadar temuriylar davlati tarkibida bo‘lgan. 1505 yilda Shayboniyxon Xorazmga yurish qilgan paytda u yerda hukmronlik qilayotgan Chin So‘fi rasman Husayn Boyqaroga qaram edi. Shuning uchun ham xorazmliklar temuriylardan yordam umid qilib 10 oy shaharni mudofaa qildilar. Xorazmda Shayboniyxon hukmronligi uzoq cho‘zilmadi. U 1510 yilda Shoh Ismoil tomonidan o‘ldirilgach, Xorazm eroniy safaviylar qo‘l ostiga o‘tdi. Shoh Ismoil Xorazm shaharlarini boshqarish uchun yuborgan dorug‘alarining iqtisodiy, diniy va milliy zulmiga qarshi aholi keng qatlamlarining chiqishlari boshlandi.

Abulg‘ozixonning “Shajarayi turk” asarida yozilishicha, Vazir shahrida yashovchi Umar degan keksa olim eroniy qizil boshlilarga qarshi kurashni tashkil qilib, unga o‘zi boshchilik qilgan. Xorazmliklar ikki yil deganda eroniylarni o‘z yurtlaridan haydab chiqardilar. Mashhur Sayidota avlodlaridan bo‘lgan Sayid Xisomiddin tashabbusi bilan Shaybon urug‘idan bo‘lgan Berka sultonning o‘g‘li Elbarsxon Vazir shahriga taklif qilindi. Elbarsxon taklifni qabul qilib, Vazirga kelayotganini eshitgan xalq shahardagi eroniylarni qirib tashlashdi. Elbarsning Vazir shahriga kirib kelishi bilan Xorazmda 1512 yilda o‘zbek sultonlari hokimiyati o‘rnatildi.

Elbarsxon (1512-1525) Urganch va Xiva shaharlaridan eroniylarni haydab chiqarib mustaqil xonlikka asos soladi. U bilan birga Dashti Qipchoqdan Xorazmga kelgan xalqlar o‘troqlashdilar. 1524-yilda shoh Ismoil vafotidan keyin xorazmliklar Turkmanistonning janubiy qismini, Eron shimolidagi Saraxs hududlarini, Orol va Mang‘ishloqni egallashdi.

Yangi yerlarni Elbarsxon o‘z o‘g‘illari va ukasi farzandlariga bo‘lib bergan ediki, bu mustaqillikka intilgan mayda hokimliklarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Natijada qo‘shnisi yeriga ko‘z olaytirgan hokimlar o‘rtasidagi, uzluksiz o‘zaro nizolar kelib chiqdi va Elbarsxon vafotidan keyin xonlarning tez-tez almashib turishiga olib keldi. XVI asrda Xorazmni Elbarsxon avlodlaridan So‘fiyonxon, Avaneshxon, Aqatoyxon, Do‘stxon, Hojimxon kabi xonlar boshqarganlar.

Bitta xonadon vakillari bo‘lgan Berka sulton va Shayboniyxon avlodlari o‘rtasidagi o‘zaro nizo endilikda Buxoro va Xorazm hukmdorlari o‘rtasidagi janjallarga sabab bo‘ldi. Elbarsxonning beshinchi vorisi Avaneshxon (1526-1538) davrida Shayboniy Ubaydulla sulton (1533-1539) Xorazmni bosib olib, 1537-yilda o‘g‘li Abdulazizni u yerga noib qilib qoldirdi. 1538 yilda Xorazm sultonlari yana hokimiyatni qaytarib oldilar. Xorazm yerlari uchun Hojimxon (1558-1602) davrida Abdullaxon II (1557-1598) bir necha marta yurish qildi. 1575-yilda boshlangan o‘zaro urushlar natijasida Abdullaxon II 1593-yildagina Xorazmni o‘ziga bo‘ysundirdi. 1598-yilda Abdullaxon vafoti bilan shayboniylar davlatida avj olgan o‘zaro nizo va tartibsizlikdan foydalanib Xorazm o‘z mustaqilligini uzil-kesil tiklab oldi.

XVI asrning 70-yillarida Xorazm poytaxti Urganchdan Xiva shahriga ko‘chirildi. Unga Amudaryo o‘zanining o‘zgarib, Kaspiy dengiziga oqmay qo‘yganligi sabab bo‘ldi. Bu holat Xorazm iqtisodiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Shu davrdan boshlab Xorazm davlati Xiva xonligi deb atala boshlagan.

XVII asr boshlariga kelib, Xorazm taxti uchun bo‘lgan sulolaviy kurashlardan so‘ng taxtga o‘tirgan Arab Muhammadxon (1602-1621) davrida Xiva xonligida davlat porakandaligi yuqori cho‘qqiga yetdi. Rus kazaklari, qozoqlar va qalmiqlar talonchilik yurishlari qilib mamlakat aholisining tinchini buzishga sabab bo‘lgan bo‘lsa, mamlakat ichida mavqei kuchaygan darvesh shayxlari ta’siridagi Arab Muhammadning o‘g‘illari Habash va Elbarslarning otasiga qarshi chiqishi parokandalikni avj oldirdi. Ular otasiga qarshi kurashda muvaffaqqiyat qozonib, uning ko‘ziga mil tortdilar, so‘ngra Xivada qatl ettirdilar. Shunday qilib taxtga o‘tirgan Elbars va Habash sultonlar (1621-1623) ukalari Isfandiyor (1623-1643) tomonidan taxtdan tushirildilar.

Turkmanlar yordami bilan taxtga chiqqan Isfandiyor davrida mamlakat siyosiy hayotidagi keskinlik saqlanib qoldi. Orol bo‘yidagi o‘zbek qo‘ng‘irotlari Isfandiyorga bo‘ysunmay qo‘yishdi. Turkmanlar xonlik siyosiy hayotiga ko‘proq ta’sir eta boshladilar.

Xorazm tarixida yirik davlat arbobi va tarixnavis ijodkor sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan Abulg‘ozixon (1643-1663) akasi Isfandiyor vafotidan keyin taxtni egalladi. U og‘ir hayot yo‘lini bosib o‘tdi. Akalari Elbars va Habashxonlar isyoni davrida Buxoro xoni Imomqulixon saroyida yashadi. Isfandiyor taxtni egallagach, 1623 yilda Urganch hokimi bo‘ldi. Akasi bilan kelisha olmay Turkiston hokimi Eshimxon huzuriga bordi va uning vafotidan keyin 2 yil Toshkentda yashadi. Buxoro xonligi orqali yana Xorazmga kelgach, akasi Isfandiyor uni Eron shohi huzuriga garov tariqasida jo‘natdi. 10 yil tutqinlikda bo‘lgan Abulg‘ozi 1639 yilda Erondan yashirincha chiqib, Orol o‘zbeklari oldiga keldi va onasi vafotidan keyin qo‘ng‘irot o‘zbeklarining yordami bilan hokimiyatni qo‘lga kiritdi. Uning hukmronligi davrida markaziy hokimiyat nisbatan kuchaydi. Turkman, qalmiqlarga qarshi muvaffaqqiyatli urush olib borgan Abulg‘ozixon Buxoro xonligi hududlariga ham talonchilik yurishlari qildi. Xiva askarlari Chorjo‘y, Vardanza, Qorako‘l, Karmanagacha bo‘lgan yerlarni bir necha bor talashdi. 1662 yilda Abdulg‘ozi Buxoro xoni bilan sulh tuzdi.

Lekin uning o‘g‘li Anushaxon (1663-1687) davrida ham Buxoro va Xiva o‘rtasidagi urushlar davom etdi. Bu davrda Xiva qo‘shinlari Buxoro, Samarqand, Qarshiga hujum qilib turdilar. 1685-yilda G‘ijduvon yaqinidagi mag‘lubiyatdan keyin Buxoroning Xivadagi ta’siri kuchaydi. Subhonqulihon Anushaga qarshi fitna uyushtirib, uning o‘g‘li Ernakka taxtni egallashga yordam beradi. Otasini ko‘r qilib, taxtni egallagan Ernak (1687), hokimiyatni uzoq vaqt saqlab qola olmadi. Subhonqulixon Xivadagi tarafdorlari yordamida taxtga Shohniyozni (1688-1702) o‘tqazib, amalda Xivani vassal davlatga aylantirdi.

Shohniyoz xonlik maqomiga ega bo‘lgach, o‘z homiysidan yuz o‘girib, mustahkam tayanch qidirib, Rossiya hukmdori Petr I ga xat yo‘llab, Xivani Rossiya tarkibiga qo‘shib olishni so‘raydi. Sharqda ta’sirni maqsad qilib qo‘ygan rus podshosi 1703-yilda Xivaning Rossiya hududiga qo‘shib olingani xaqida yorliq jo‘natadi. Lekin 1702-1715 yillarda xonlik qilgan Arab Muhammad bunga ahamiyat bermadi. Bu rus podshosining O‘rta Osiyoga e’tiborini qaratdi, xolos. U Xiva xonligini rasman tobe qilish maqsadida Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy rahbarligida Xivaga harbiy ekspeditsiya tayyorladi.

Arab Muhammad va uning vorisi Sherg‘ozixon (1715-1728) davrida xonlikdagi siyosiy nizolar mamlakatning iqtisodini ham izdan chiqardi. Sherg‘ozixon olti ming rus askari bilan 1717-yilda xonlik hududiga kirib qolgan rus harbiy ekspeditsiyasini yaxshi kutib oldi. Uning maslahati

bilan Bekovich-Cherkasskiy qo‘shinlarini 3 ga bo‘lib joylashtirdi. Qulay vaziyatdan foydalangan xivaliklar rus qo‘shinlarini butunlay qirib tashlashdi. Natijada rus harbiy ekspeditsiyasi samarasiz yakunlandi.

Tashqi xavf bartaraf etilgach xivaliklarning o‘zaro nizolari davom etdi. 1728-yilda hokimiyatni qo‘lga olgan Elbarsxon (1728-1740) ichki nizolarni bostirib, qo‘shni hududlarga bosqinchilik yurishlarini uyushtira boshladi. Xiva qo‘shinlarining bosqinchilik yurishlari va ularning Buxoro xonlariga bergan yordamlari tufayli 1740-yilda Eron shohi Nodirshoh Xorazmni butunlay o‘ziga bo‘ysundirdi. 1741-yilda ko‘tarilgan qo‘zg‘olon sababli Xiva eroniylar zulmidan ozod bo‘ldi. Lekin Nodirshohning o‘g‘li Nasrullo katta qo‘shin bilan Xorazmga kelgach, Nuralixon (1741) taxtni tashlab qochdi va eroniylar 1747 yilga qadar Xiva xonligida hukmronlik qildilar.

1747-yilda qozoq sultoni Gayibxon taxtga o‘tqazildi (1747-1757). Uning davrida qozoq sultonlarining mavqeyi oshishi Xivada qo‘zg‘olon ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. 1757-1758 yillarda Xiva taxtini uning ukasi Abdullaxon boshqargan. Xiva xonligidagi siyosiy parokandalikdan foydalangan Buxoro hukmdori Muhammad Rahimbiy o‘z odami Temur G‘ozixonni (1758-1763) Xiva taxtiga o‘tqazadi. Shu davrdan boshlab Xiva xonligida qo‘ng‘irotlar urug‘ining mavqei mustahkamlanib borgan.

Xorazm tarixchilari Abulg‘oziy, Munis, Ogahiy, Bayoniy asarlarida yozilishicha, Abulg‘oziy akalaridan qochib ketayotganda otidan ayrildi. Shunda qo‘ng‘irot urug‘idan bo‘lgan O‘nboy degan yigit unga o‘z otini berib, qutilib ketishga yordam bergan. Abulg‘oziy keyinchalik Erondan qochib kelgach, ularning urug‘ boshliqlariga inoq unvonini beradi. Shu davrdan boshlab Xiva xonligida qo‘ng‘irot urug‘larining mavqei ortib borgan. XVIII asrning 60-yillaridan badavlat shaharliklar va ruhoniylarning qo‘llab-quvatlashishiga erishgan qo‘ng‘irot urug‘lari Xiva xonligida hokimiyatni qo‘lga ola boshlaydilar.

Inoq Muhammad Amin (1763-1790) 1770-yilda turkmanlarning, 1782-yilda buxoroliklarning hujumini qaytarib, Xiva xonligida qo‘ng‘irotlarning amaldagi hokimiyatini mustahkamlaydi. Avaz Inoq (1790-1804) davrida Xiva xonligida markaziy hokimiyat mustahkamlanib, xonlikdagi iqtisodiy ahvol yaxshilandi. Bu XIX asr boshlarida qo‘ng‘irotlar sulolasining hokimiyatni rasman egallashlariga zamin bo‘ldi.

1804-1806 yillarda hukmronlik qilgan Eltuzarxon Inoq Xiva taxtiga o‘tirgan qo‘ng‘irotlar sulolasining birinchi xoni hisoblanadi. Uning vorisi Muhammad Rahimxon I (1806-1825) Xiva xonligini birlashtirishni nihoyasiga yetkazdi. 1811-yilda bo‘ysunmas orolliklar-qoraqalpoqlarni

ham Xiva tarkibiga qo‘shib oldi. U o‘tkazgan siyosiy, iqtisodiy, ma’muriy islohotlar natijasida boshqaruv tizim takomillashib, soliqlar tartibga tushdi. Xazina daromadlari ko‘paydi.

Olloqulixon (1825-1842), Rahimqulixon (1842-1845) va Muhammad Aminxon (1845-1855) davrlarida Xiva qo‘shinlarining Xurosonga yurishlari kuchaydi, Marv shahri uchun Buxoro amirligi bilan tez-tez urushlar bo‘lib turdi. Xiva xonlari bu davrda Sirdaryoning Orol dengiziga quyiladigan joyidan Turkmaniston hududidagi Kushkagacha bo‘lgan yerlarni boshqarganlar. 1855-yilda Seraxsni qamal qilish paytida Muhammad Aminxonning halok bo‘lishi mamlakatda parokandalikka sabab bo‘ldi. Abdullaxon (1855-1856), Qutlug‘murodxonlar (1856) 6 oydan ko‘p hukmronlik qilmaslaridan o‘ldirildilar. 1856-yilda taxtni Sayid Muhammadxon (1856-1864) egalladi. U bo‘ysunmas turkmanlar va qoraqalpoqlarga qarshi urush uyushtirganligi natijasida bu xalqlarning ko‘pchiligi ko‘chib ketdilar. 1859-yilda Muhammad Panoh Orenburgdan yordam olib, Orol bo‘yida mustaqil davlat tuzish uchun qilgan harakati bostirildi. Xivaliklar tomonidan daryoga to‘siq qo‘yilishi natijasida Butakov flotiliyasi qoraqalpoqlarga yordam bera olmadi.

Xiva xonligidagi so‘nggi mustaqil hukmdor Feruz taxallusi bilan ijod qilgan Muhammad Rahimxon II (1864-1910) bo‘ldi. Uning davrida xonlikning siyosiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan yuksalishi ko‘zga tashlanadi. Lekin 1873-yilda Rossiya Xiva xonligini bosib oldi va Muhammad Rahimxon II va Kaufman imzolagan Gandimiyon shartnomasiga ko‘ra, Xiva xonligi Rossiyaga qaram davlatga aylanib qoldi.

Xiva xonligi boshqaruv tizimi, asosan, Buxoro va Qo‘qon davlatlaridagidek bo‘lib, farqi XIX asr boshlaridan xon huzurida Kengash (Devon) bo‘lgan. Eng yuqori amaldorlar a’zo bo‘lgan kengash vakolati cheklangan bo‘lib, asosiy qarorlar xon tomonidan qabul qilingan bo‘lsa-da, amaldorlarning xonlik boshqaruvida mavqei baland bo‘lgan. Mansab va unvonlar xonliklarda harbiy-ma’muriy, harbiy va diniy toifalarga bo‘lingan. Inoq, otaliq, biy, amir ul-umaro, mehtar, qushbegi, beklar begi, devonbegi va boshqa unvon va mansablar xonlik iqtisodiy, siyosiy, moliyaviy, harbiy hayotida muhim o‘rin tutgan. Xonlikda sud ishlari asosan diniy ulamolar qo‘lida bo‘lib, ularning mamlakat hayotida ta’siri kuchli bo‘lgan.

Xonlikda davlat tili o‘zbek tili bo‘lib, Buxoro va Qo‘qondan farqli o‘laroq barcha farmonlar, davlat hujjatlari faqat o‘zbek tilida yozilgan.

XVI-XVIII asrlarda Xiva xonligining ma’muriy jihatdan bo‘linishi viloyat deb atalgan bo‘lsa, XVIII asrdan bekliklar deb atala boshlangan. Eng kichik ma’muriy bo‘linish machitqo‘m deb yuritilgan. Dastlab xonlikda 16 ta viloyat 2 ta noiblik bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik viloyatlar soni 22 taga yetgan. Ularni xon tomonidan tayinlangan hokim va noiblar boshqargan. Xiva shahri esa xon va bosh vazir tomonidan boshqarilgan.

Xonlikda, asosan, o‘zbeklar dehqonchilik tumanlarida yashab ko‘pchilikni tashkil qilganlar. Shuningdek, turkmanlar, qoraqalpoqlar, kam miqdorda tojiklar, eronliklar, yahudiylar, arablar ham istiqomat qilishgan.

Ijtimoiy hayotda xon va uning amaldorlari va diniy ulamolarning mavqei yuqori bo‘lib, iqtisodiy hayotning asosini tashkil qiluvchi yer ham asosan ular qo‘lida bo‘lgan. Kam yerli va yersiz dehqonlar ulardan ijaraga yer olib ishlaganlar va ahvoli juda og‘ir bo‘lgan. Sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik mamlakat iqtisodida muhim o‘rin tutgani uchun Amudaryodan chiqarilgan kanallarni qazish davlat ahamiyatiga molik ish hisoblangan. Shuningdek, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq ham iqtisodiy hayotda muhim o‘rin tutgan.

Xonlik harbiy qo‘shini va qurol aslahasini yaxshilash juda past darajada bo‘lgan. Qo‘shinni ko‘proq yarim ko‘chmanchi turkmanlar tashkil etgan. Oldingi davrlardagi harbiy sohadagi ijobiy tajribalar rivojlantirilmay tashlab qo‘yilgan.

Xiva xonligi Buxoro, Qo‘qon, Eron va Rossiya kabi qo‘shni davlatlar bilan savdo-sotiq ishlarini olib borgan. Soliqlar barcha musulmon davlatlaridagidek xiroj, zakot, boj va jizyadan iborat bo‘lgan. Shu bilan majburiy mehnatning ba’zi turlari amalga oshirilgan.

Xiva xonligida ham adabiyot, tarixnavislik, me’morchilik bir muncha rivojlangan bo‘lsa ham tabiiy va texnika fanlariga, dunyoviy ilmlarga e’tibor qaratilmagan.

Boshlang‘ich maktabda o‘qish-yozishni o‘rgangan bolalar madrasalarda o‘qitilgan. XIX asrda Xiva xonligida 1500 ga yaqin boshlang‘ich maktab va 130 ta madrasa mavjud bo‘lgan. Xiva shahrining o‘zida 22 ta madrasa bo‘lgan. XIX asrda Xiva xonligida adabiyot, tarixnavislik, hattotlik, musiqa san’ati, me’morchilik va madaniyatning boshqa sohalarida katta yutuqlar qo‘lga kiritilgan.

Shermuhammad Munis Xorazmiy, Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy, Feruz, Komil Xorazmiy, Kamron, Bayoniy, Xusraviy, Murodiy, Rojiy, Mutrib, Laffasiylar asarlari o‘zbek adabiyoti rivojida o‘ziga xos o‘ringa ega.

Tanbur chiziqi notasini yaratgan Komil Xorazmiy “Maqomi Feruzshohiy” asari va “Panjgoh” maqomi bilan o‘zbek musiqa san’ati rivojiga katta hissa qo‘shdi.

Abulg‘oziyxon “Shajarayi Turk”, “Shajarayi tarokima” asarlari bilan Xorazm tarixnavislik maktabini boshlab bergan bo‘lsa, Munis va Ogahiylar tarixnavislik va tarjimonlik maktabini yaratib, “Firdavs ul-iqbol”, “Zubdat ut-tavorix”, “Riyoz ud-davla”, “Gulshan ul-davlat”, “Jomiy’ ul-voqeoti sultoniy”, “Shohid ul-iqbol” asarlari bilan tarix sohasini rivojlantirdilar. Bayoniyning “Shajarayi xorazmshohiy”, “Xorazm tarixi” asarlari yuqoridagi asarlar kabi Xiva xonligi tarixini o‘rganishda asosiy manbalar hisoblanadi.

Hozirgi Xiva shahrida saqlanib qolgan qadimiy me’morchilik inshootlari asosan xonliklar davrida qurilgan bo‘lib, eng qadimiysi XVI asrda qurilgan Sayid Ota maqbarasi bo‘lsa, eng keyingi XX asr boshlarida qurilgan Nurillaboy saroyidir. Ichan qal’adagi o‘nlab imoratlarning ko‘pchiligi XIX asrda qurilgan bo‘lib, ular xalqimiz buyuk zakovatining bir qismi sifatida qad ko‘tarib turibdi.

Qo‘qon xonligi

XVIII asr boshlarida Buxoro xonligida siyosiy parokandalik unga rasman qaram bo‘lgan Farg‘ona vodiysiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. 1709-yilda Chodak xo‘jalari isyon ko‘tarib, Farg‘onaning bir qismini egallab olib, mustaqil davlat tuzilganligini e’lon qildilar. 1710-yilda vodiyda ancha kuchli ta’sirga ega bo‘lgan, o‘zbeklarning ming urug‘i boshlig‘i Shohruhbiy (1710-1721) hokimiyatni qo‘lga oldi. Shohruhbiy o‘z hukmronligi davrida Qo‘qon, Namangan, Marg‘ilon, Konibodom, Isfara atroflarini bo‘ysundirib, o‘z hokimiyatini mustahkamladi. Uning vorisi Muhammad Abdurahimbiy (1721-1733) Xo‘jand, O‘ratepa, Samarqand, Jizzax, hatto Shahrisabzni o‘ziga bo‘ysundirib, mamlakat hududlarini ancha kengaytirdi. Shuning bilan birga u qurdira boshlagan shahar dastlab “Qal’ayi Rahimbiy” deb ataldi. Abdurahimbiyning bevaqt vafoti sababli ukasi Abdulkarimbiy (1733-1750) shahar qurilishini yakunlab, Tepaqo‘rg‘ondan poytaxtni yangi shaharga ko‘chirdi va Eski o‘rda degan joyida o‘rda-qal’a qurdiradi.

O‘sh, Andijon, Marg‘ilonni egallagan qalmoqlar 1745 yilda Qo‘qonni qamal qilganda Abdukarimbiy O‘ratepa hokimi Fozilbek yordami bilan qalmoqlarni mamlakat hududidan haydab chiqarib, davlat mustaqilligini saqlab qoldi. Qalmoqlar garov tariqasida Muhammad

Abdurahimbiyning o‘g‘li Bobobekni olib ketishadi. Abdukarimbiy vafotidan keyin xonlar tez-tez almashtiriladi. 1750-1754 yillarda Abdurahmonbiy (1750-1751), Erdonabiy (1751-1753), Bobobek (1753-1754) xonlik qilganlar. Nihoyat, 1755 yilda Erdonabiy 2-marta hokimiyatga kelgach, xonlik ancha mustahkamlandi. U O‘sh va O‘zganni bo‘ysundirib, 1758-1759 yillarda Sharqiy Turkistonga ham yurish qilgan. Bu davrda Qo‘qon xonligi Buxoro va Xitoy bilan tengma-teng kurashadigan davlatga aylandi. Lekin Erdonabiy davrida olib borilgan urushlar mehnatkash xalqning aholini ancha og‘irlashtirdi. Yerdonabiy 1769 yilga qadar taxtni boshqargan. Undan keyin taxtga o‘tirgan Sulaymonbek bor-yo‘g‘i 6 oy xonlik qildi.

Qo‘qon xonligini 1770-1800-yillarda boshqargan Norbo‘tabek markaziy hokimiyatni mustahkamlash va bo‘ysunmas hokimlar qarshiligini bostirishda bir muncha muvaffaqiyat qozondi. U Chust va Namangan hokimlarining o‘zboshimchaliklarini tugatib, qo‘zg‘olon ko‘targan Xo‘jand shahrini bo‘ysundirdi va uni xonlikka butunlay qo‘shib oldi. Lekin 1799-yilda uning Toshkentni egallash uchun yuborgan qo‘shini mag‘lubiyatga uchradi. Uning hukmronligi davrida olingan mo‘l hosil natijasida xalq faravonligi bir muncha yaxshilandi, Xitoy hukmdorlari Norbo‘tabek mustaqil xon ekanligini tan olgan. Uning vorisi Olimxon (1800-1810) davrida Qo‘qon xonligining siyosiy qudrati mustahkamlandi. Harbiy islohot o‘tkazib, qo‘shinni ancha mustahkamlagan Olimxon Angren vohasini, Toshkent, Chimkent va Turkistonni o‘ziga bo‘ysundirdi. Natijada Qo‘qon savdogarlari Rossiya bilan bevosita savdo qila boshladilar. 1805 yildan Qo‘qon xonligidagi hukmdorlar rasman xon deb yuritila boshladilar. Bungacha ular “biy” va “bek” deb atalardilar.

Olimxon isyon ko‘targan Toshkentni bo‘ysundirish, O‘ratepani egallash va bosib olingan hududlarda o‘z mavqeyini mustahkamlash uchun tinimsiz urushlar olib bordi. U O‘ratepani bo‘ysundirish uchun 10 dan ortiq yurish qilgan. Olimxon olib borgan siyosat butun xalqning Olimxondan noroziligiga olib keldi va bu fitnaga sabab bo‘ldi. Olimxon 1810-yilda ukasi Umarxonning taxtga chiqarilganini eshitib, Qo‘qonga ketayotganda Oltiqush degan joyda fitnachilar tomonidan o‘g‘li Shohruxxon bilan birga otib o‘ldiriladi.

O‘zini amir deb atagan Umarxon (1810-1822) davrida siyosiy jarayon murakkablashib, Chimkent, Turkiston va boshqa shaharlarda g‘alayonlar ko‘tarildi. Davlatni boshqarishda yirik yer egalari, dindorlar, harbiy sarkardalar manfaatini himoya qilib, ular bilan ittifoqda bo‘lgan

Umarxon bu g‘alayonlarni bostirib, xonlik hududini parchalanishdan saqlab qoldi. Uzoq urinishlar natijasida 1817-yilda O‘ratepani bosib oldi. Rossiya bilan aloqalarni mustahkamladi. 1818 yilda Umarxon “Amir ul-muslimin” unvonini olib xonlikdagi diniy hokimiyatni ham egalladi. Amiriy taxallusi bilan she’rlar yozgan Umarxon davrida Qo‘qonda adabiyot, she’riyat ancha yuksaldi. 1822-yilda Umarxon kasallanib vafot etdi.

Umarxonning o‘g‘li Muhammad Alixon (1822-1842) hukmronligining dastabki yillarida Qo‘qon xonligining yerlari ancha kengaydi. U 1826-1831 yillarda Qashg‘arga bir necha marta yurish qilib, u yerdagi Xitoy hukumati bilan o‘zi uchun foydali shartnoma imzolagan bo‘lsa, 1834-yilgacha Qo‘qon qo‘shinlari Qorategin, Kulob, Darvoz viloyatlarini bosib olgan. Ichki siyosatda Madalixon xonlik hayotida katta ta’sirga ega bo‘lgan, otasi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan yirik amaldorlarni surgun qildi, ko‘pchilikni qatl qildirdi. Bu holat xonlikda undan norozi bo‘lgan kuchlarning, birlashishuviga, dushmanlarining ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Muhammad Alixonning Sharqiy Turkiston va Oltoy tog‘lari ortida qo‘lga kiritgan, g‘alabasi sababli xushomadgo‘ylari uni “g‘oziy” deb ulug‘lashgani bilan mamlakatda undan norozilar ko‘pchilikni tashkil qilar edi. Muhammad Alixonning shariatga zid axloqiy buzuqliklari ham unga qarshi aybnoma bo‘ldi. Natijada xonga qarshi fitna tayyorlana boshlandi. Lekin fitnachilar o‘z kuchlariga ishonmay 1839-yilda Buxoro amiri Nasrullodan yordam so‘rab, xoning ustidan shikoyat qilishdi. Amir Nasrulloning Madalixonni “kofir” deb fatvo jo‘natishi 1840-yilda Qo‘qon va Buxoro o‘rtasidagi urushga bahona bo‘ldi. Aslida Buxoro va Qo‘qon chegara shaharlar uchun tinimsiz urushlar olib borishgan. Bu urushda Madalixon qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchrab, uning o‘zi Buxoro hukumronligini tan olishga va Xo‘jandni topshirishga majbur bo‘ldi. 1842 yilda Qo‘qon xonligida ko‘tarilgan qo‘zg‘olondan foydalanib, amir qo‘shinlari Qo‘qonni egallashdi va Nasrullo Madalixonni oila a’zolari bilan tutib keltirib, uning o‘zini, onasi-shoira Nodirabegimni, katta o‘g‘li Muhammad Aminni, ukasi Sulton Mahmudni va boshqalarni qatl ettirdi. “Qassob amir” Qo‘qon xonligining Buxoro amirligiga qo‘shib olinganini e’lon qilib, Ibrohim dodxohni Qo‘qonga noyib etib tayinladi. Ko‘p o‘tmay Toshkent ham Buxoroga bo‘ysundirildi.

Lekin buxoroliklarning talonchilik siyosati xalqning noroziligiga sabab bo‘ldi va oradan uch oy o‘tgach, qipchoqlar madadiga tayangan qo‘qonliklar Buxoro amaldorlarini haydab, Norbo‘tabiyning ukasi

Sheralixon (1842-1845)ni taxtga o‘tqazdilar. U shaharni mustahkamladi. Natijada Buxoro qo‘shinlari Qo‘qonni 40 kun qamal qilib, qo‘lga ololmagach, qaytib ketishga majbur bo‘ldilar. Ko‘p o‘tmay Xo‘jand o‘z ixtiyori bilan Qo‘qon xonligiga qo‘shildi va Toshkent ham qayta egallandi. Hamda xonlik hududlari qayta tiklandi. Bu jarayonda alohida xizmat ko‘rsatgan qipchoqlar xonlikda yuqori mavqega ega bo‘la boshlaydilar. 1845-yilda Qo‘qon taxti davogarlaridan biri Murodxon amir yordami bilan taxtni egallab, bor yo‘g‘i 8 kun hukmronlik qildi. Bu siyosiy o‘yinni kuzatib turgan amiri lashkar Musulmonqul o‘z qizini uning o‘g‘li 13 yoshli Xudoyorxonga nikohlab berdi va Murodxonni fitnachi sifatida qatl qildirib, kuyovini Qo‘qon xoni deb e’lon qildi.

Xudoyorxon (1845-1858; 1863 (4 oy), (1865-1875-yy.) yosh bo‘lganligi sababli xonlikdagi boshqaruv Musulmonqul boshliq qipchoqlar qo‘liga o‘tdi. Saroyda cheksiz hokimiyatga ega bo‘lgan, bosh vazir, birinchi amaldor Musulmonqulning o‘z mavqeyidan shaxsiy manfaatlari yo‘lida foydalanishi 1853-yil oxirlarigacha davom etib, bu holat xonlikda ko‘pchilikning noroziligiga sabab bo‘ldi. O‘ratepa, Xo‘jand, Marg‘ilon hokimlari Toshkent hokimi Nurmuhammad boshchiligida Musulmonqulga qarshi guruh tashkil etishdi. 1852-yil fevral va iyun oylarida Musulmonqul Toshkentga katta qo‘shin bilan yurish qildi. Lekin iyun oyidagi jangda qayin otasi vasiyligidan norozi bo‘lgan Xudoyorxon qo‘zg‘olonchilar tomonga o‘tdi. 1853-yil kuziga kelib Musulmonqul ham qo‘lga olinib qatl etildi. Bu paytda rus qo‘shinlari xonlik sarhadlariga bostirib kirib, Oqmachit, Jo‘lak, Kumushqo‘rg‘onni bosib olayotgan edi. Rossiya bilan Qo‘qon urush holatiga o‘tdi. Rossiyadek tashqi dushman xonlik sarhadlariga xavf solib turgan bir paytda xon amaldorlari, xonlar birlashish o‘rniga ular orasidagi o‘zaro kurash, fitna avj oldi. Natijada Qo‘qon xonligi hududlari chet el bosqinchilarining zulmi ostiga tushib qoldi. 1876-yilda Qo‘qon xonligi tugatildi.

Miraziz bin Muhammad Rizo Marg‘iloniyning “Tarixi Aziziy”, Otabek Fozil o‘g‘lining “Mufassal Tarixi Farg‘ona”, Shavqiyning “Tarixi Turkiston”, Junaydullaxoja o‘g‘li Ibratning “Tarixi Farg‘ona”, Muhammad Solih Toshkandiyning “Tarixi jadidi Toshkand” kabi asarlari Qo‘qon xonligi tarixi haqidagi muhim manbalar hisoblanadi. Shuningdek, rus elchilari, sayyohlari, harbiylari tomonidan yozilgan hisobotlar va arxiv hujjatlari ham ma’lum qimmatga ega manbalardir.

Xonlikdagi davlat boshqaruv tizimi, iqtisodiyoti va ijtimoiy tuzimidagi ba’zi bir o‘ziga xoslikni hisobga olmaganda Buxorodagidan

aytarli farq qilmagan. Madaniy hayoti, ta’lim tizimi ham aynan Buxorodagi kabi bo‘lib, tabiiy, dunyoviy fanlarga unchalik e’tibor berilmagan. XIX asrda xonlikning markaziy shaharlarida madrasalar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, Qo‘qonning o‘zida 15 ta madrasa bo‘lsa ham, Buxoroda ta’lim olgan kishilarning mavqeyi ancha baland bo‘lgan.

Umarxon davrida shakllangan va rivojlangan Qo‘qon adabiy muhiti ta’sirida yaratilgan adabiyot va she’riyat namunalari madaniyat rivojining ko‘rinishi bo‘ldi. Umarxon buyrug‘i bilan Fazliy va Mushriflar tomonidan tuzilgan “Majmuat ush-shuaro” nomli tazkira XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Qo‘qonda yashab ijod qilgan ijodkorlar haqida muhim ma’lumotlar beruvchi qimmatli asardir. “Devoni Huvaydo”, “Rohati dil” asarlarining muallifi Xo‘janazar Huvaydo, “Hapalak”, “Ta’rifi viloyati Qurama” kabi she’rlar ijodkori Maxmur, hajvchi shoir Gulxaniy (u “Zarbulmasal” asari bilan mashhur”), Fazliy, Mushrif, G‘oziy, Sodiq, Xotif, Amiriy va boshqalar bu davrning ko‘zga ko‘ringan ijodkorlaridir. Ular qatorida Uvaysiy, Nodirabegim, Dilshodi Barno, Mahzuna kabi ijodkor ayollarning ham sezilarli o‘rni bor. XVIII-XIX asrda Qo‘qon, Toshket, Namangan va Andijon kabi shaharlarda, masjid, madrasa, me’moriy majmualar bu davr madaniyatining bir ko‘rinishi sifatida qad ko‘targan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, XVI-XIX asrdagi o‘lkamizdagi ijtimoiy, madaniy hayot ko‘rib o‘tganimizdek o‘ziga xosliklardan iborat. Bir tomondan adabiyot, tarix, me’morchilik, san’ati sohalarida katta yuksalishlarni, betakror yutuqlarni qo‘lga kiritgan bo‘lsak, ikkinchi tomondan birlikning yo‘qotilishi, o‘zaro nizolarning avj olishi, tabiiy va texnika fanlariga e’tiborning yo‘qotilishi O‘rta Osiyo xalqlarini nafaqat jahon taraqqiyotidan orqada qolishiga, balki xalqimizning chet el bosqinchilari zulmi ostiga tushib qolishiga sabab bo‘ldiki, bu yurtimizning 130 yildan ortiq qaramlikda qolib ketishiga olib keldi.

III. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri

12- mavzu. Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi

Rossiya imperiyasi istibdodiga qarshi Turkiston xalqlarining milliy-ozodlik kurashi. Jadidchilik va milliy uyg‘onish.

XIX asrning birinchi yarmiga kelib, O‘rta Osiyoda uch xonlik o‘rtasidagi to‘xtovsiz urushlar, kelishmovchiliklar xonliklardagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tang ahvolga olib keldi, bu hududlardagi

madaniy hayotni izdan chiqardi. O‘lkadagi bunday vaziyat Rossiyadek bosqinchi davlat uchun o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishga qulay sharoit yaratdi.

XIX asr o‘rtalarida jahonning yirik davlatlari o‘rtasida yangi mustamlakalar uchun kurash qizib ketgan davrda Rossiya imperiyasi ham bu kurashdan chetda qolmadi. Shu jihatdan XIX asr o‘rtalarida Angliya va Rossiyaning manfaatlari Turkistonda to‘qnashdi. Rossiya imperiyasi siyosatchilari Buyuk Britaniyaning Turkiston va Kaspiy dengizining sharqiy tomonlarini egallab olishidan g‘oyat xavfsirayotgan edilar. Bunga asos ham yetarli edi. Chunki Angliya o‘z tasarrufidagi Hindiston va Afg‘oniston orqali o‘zbek xonliklari bilan savdo-sotiq va diplomatik aloqalar olib borar edi. Angliyaning asosiy maqsadi xonliklarni bosib olishga chog‘lanayotgan Rossiyaning rejalarini barbod qilish, uchala xonlikni unga qarshi bir kuch qilib birlashtirish va O‘rta Osiyo bozorlarini egallash edi. Shu o‘rinda, Rossiyaning O‘rta Osiyoni bosib olishini tezlashtirgan quyidagi omillarni ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiqdir:

1. Rossiya yengil sanoatini ta’minlab beruvchi arzon xom ashyo bazasini O‘rta Osiyoda mavjudligi.
2. Qrim urushi (1853-1856) tufayli Qora dengiz bandargohlarining qo‘ldan ketishi va uning o‘rnini O‘rta Osiyoni egallash orqali to‘ldirish. Shu orqali janubdagi muzlamaydigan dengizlarga chiqish, O‘rta Osiyo orqali Eron, Afg‘oniston Xitoy, Hindiston kabi davlatlarda Anjiyanning ta’sirini yo‘qotib, bu davlatlar bilan savdo va diplomatik aloqalar o‘rnatish. Turkiston bu agressiyalarda platsdarm vazifasini o‘tashi.
3. Rossiyaning Yevropa bozorlari bilan raqobat qila olmasligi sababli ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish uchun O‘rta Osiyo bozorlarini egallash.
4. Rossiyada o‘tkazilgan yer islohotlari tufayli qashshoqlashib qolgan aholini ko‘chirib keltirish va ularni yer bilan ta’minlash.

Yuqoridagi iqtisodiy va siyosiy sabablarning kun tartibida turishi natijasida Rossiya imperiyasi dastlabki harbiy harakatlarni boshlab yubordi. Urush harakatlari Qo‘qon xonligiga qaratilgan edi. Bosqinchilar zamonaviy qurol-aslahaga ega bo‘lib, ularga Yevropa urushlarida tajriba orttirgan generallar rahbarlik qildilar. Qo‘qon xonligi esa ichki nizo, hokimiyat uchun urushlar avj olishiga qaramasdan, xonlik aholisi dahshatli yov bilan o‘z ona yurti, dini, g‘ururi uchun kurashga otlandilar. Dastlab general Perovskiyning qo‘shini 1853-yili shiddat bilan Qo‘qon xonligining strategik qal’asi bo‘lgan Oqmachitni egallash uchun yurish

boshladi. Salkam bir oy davom etgan qamal natijasida 28 iyul kuni hal qiluvchi jangda qal’a himoyachilari taslim bo‘ldilar. Rus hukumati Oqmachitni qo‘lga kiritilishining katta ahamiyatini anglab, urush qatnashchilarining unvonlarini oshirib, orden-medallar va pul mukofotlari bilan taqdirladi. Oqmachit o‘rniga qurilgan rus qal’asiga general Perovskiy nomi berilib, “Perovskiy porti” deb ataladigan bo‘ldi.

Qrim urushi tufayli to‘xtab qolgan harbiy harakatlar 1860-yil yozida yana jonlandi. Polkovnik Simmerman boshchiligidagi rus qo‘shinlari To‘qmoq, so‘ngra Pishpak qal’asini egalladi. 1864-yil 1-may kuni Verniy istehkomidan yo‘lga chiqqan polkovnik Chernyayevning otryadi qattiq jangdan keyin Avliyo ota qal’asini ham bosib oldi. Chernyayev Avliyo otani olganligi uchun general unvoni va orden bilan taqdirlandi. Xullas, 1847-1864 yillarda rus davlati Qo‘qon xonligining hozirgi Qozog‘iston va Qirg‘iziston yerlaridagi mavqeyiga qattiq zarba berib, ko‘p joylarni qo‘lga kiritdi. Turkiston va Chimkent shaharlari Qo‘qon xonligining muhim va tayanch shaharlaridan edi. Shu bois dushman ushbu ikki muhim shaharga shiddat bilan zarba berishga kirishdi. Turkiston va Chimkentni himoya qilish uchun sarkarda Alimqul (Aliquli) yetib keldi va shahar mudofaasini tashkil qilishga kirishdi. 1864-yil 12-iyulda Turkiston bosib olindi. Veryovkin Xo‘ja Ahmad Yassaviy maqbarasidagi noyob tarixiy asori-atiqalarni talon-taroj qilib, Rossiyaga jo‘natib yubordi. General Chernyayev boshchiligidagi qo‘shinlar Chimkentni qamal qilar ekan, bu yerda sarkarda Alimqul zarbasiga uchradi. Nihoyat 1864-yil sentabr oyining boshlarida shiddatli janglar Chimkent ostonasida boshlanib ketdi. Harbiy-texnik ustunlikka ega bo‘lgan dushman 22-sentabrda Chimkentni egallashga muvaffaq bo‘ldi.

Turkiston va Chimkentning bosib olinishi natijasida rus harbiy qo‘shin bosqinchilik harakatlari yanada kengayib, endilikda mintaqaning eng katta va boy shaharlaridan bo‘lmish Toshkentni bosib olishga keng yo‘l ochildi. 1864 yilning 1 oktyabrida general Chernyayev katta harbiy qo‘shinlari bilan birga Toshkentning sharqidagi Darvishak Qopqa degan joyga yetib keladi. 2 oktabrda dastlabki hujum boshlandi. Ammo toshkentliklar shu darajada qarshilik ko‘rsatdilarki, general Chernyayev mag‘lubiyatga uchrab Chimkentga qaytib ketishga majbur bo‘ldi. Mag‘lubiyat o‘chini olish hissida general Chernyayev 1865-yil 28-aprelda Niyozbek qal’asini olishga buyruq berdi. Shuni ta’kidlash kerakki, Toshkent mudofaasini tayyorlashda Alimqul sarkardaning xizmatlari katta bo‘ldi. U 8-may kuni o‘zining katta qo‘shini bilan Qo‘qondan Toshkentga yetib keldi, 1865-yil 9-may kuni har ikki tomon kuchlari to‘qnashdi.

Alimqulning jangda halok bo‘lishi bilan toshkentliklar orasida sarosima boshlandi. 1865-yil 17-iyunda esa ko‘plab qon to‘kilishini oldini olish maqsadida muzokaralar boshlandi. Chernyayev shaharning Hakimxo‘ja qozikalon, Abdurahmon eshon, domla Solihbek Oxun singari nufuzli kishilari bilan muzokara o‘tkazib, “Toshkent shahar aholisi o‘z ixtiyori bilan Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shildi”, degan soxta ahdnomani to‘ldirishga majbur qildi. Ular bunga ko‘nmagach, jazolanib, soxta ahdnomani to‘ldirishni Abdusattor Qoraboshi o‘g‘liga topshiradi. So‘ngra shahar ”katta”larining barchasiga majburiy ravishda qo‘l qo‘ydirib muhr bostiriladi. Bu ahdnoma tufayli bosqinchilik siyosati oqibatida Angliyadek kuchli davlat bilan urushga majbur bo‘lib qolishdan cho‘chigan Rossiya imperiyasi hukumati xalqaro jamoatchilik ko‘z o‘ngida o‘z hatti-harakatlarini oqlashga urindi. Ahdnomadan nusxalar ko‘chirilib, 1865-yilda Rossiyaning Turkistondagi elchisi qilib tayinlangan N.Ignatev orqali Istambulga jo‘natilib, shahar ko‘chalariga yopishtirib chiqildi. Xulosa qilib aytganda, Toshkent bosib olingach, bu shahar Rossiya imperiyasining Turkiston masalasiga daxldor barcha siyosiy masalalarni hal qiladigan, rus qarorgohi xizmatini bajaruvchi makonga aylanib bordi.

Toshkent uchun bo‘lgan janglardan so‘ng 1865 yili bosib olingan hududlarda Turkiston viloyati tashkil qilindi. Istilochilar Buxoro xonligiga qarshi urush harakatlarini ikki harbiy mavsumda-1866 va 1868 yillarda o‘tkazdilar.

1866-yilda olib borilgan istilochilik bosqinlari oqibatida xonlikning O‘ratepa, Jizzax, Yangiqo‘rg‘on singari hududlari Rossiya tarkibiga kiritildi.

1866-yili Aleksandr II ning Toshkentning Rossiya tasarrufiga olinganligi e’lon qilindi. Rossiya imperiyasiga bundan tashqari o‘z manfaatlarini amalga oshirish uchun mustahkam ma’muriy tuzum zarur edi. Bu masalani hal etish uchun harbiy vazir Milyutin boshchiligida komissiya tashkil etiladi. Mazkur komissiyaga Orenburg general-gubernatori Krijanovskiyning Toshkentni Orenburgga bo‘ysundirish haqidagi taklifi kiritilgan edi. Lekin, bu mustamlaka manfaatlari bilan to‘g‘ri kelmas, Toshkentni markaz sifatida qoldirish va u orqali xonliklarni doimiy nazorat ostida olib turishlarini edi. Shu sababli Krijanovskiy taklifi rad etilib, 1867-yil iyul oyida Turkiston general gubernatorligi tashkil etildi. Markazi Toshkent bo‘lgan Sirdaryo viloyati, markazi Verniy bo‘lgan Yettisuv viloyatlari general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi.

1868-yilda bo‘lib o‘tgan bu harakatlar Abdulmalik (Katta to‘ra) nomi bilan bog‘liq bo‘lib, Buxoro amiri Said Muzaffarxonning to‘ng‘ich o‘g‘li edi. Abdulmalik to‘ra boshchiligidagi xalq-ozodlik harakatining boshlanish nuqtasi G‘uzor bekligi bo‘lib, bu yerda yurt mustaqilligi kayfiyatidagi vatanparvar kuchlar, imperiya kuchlarining tobora davlat ichiga kirib borayotganligidan tashvishlanib Katta To‘ra atrofida birlashgan edilar. 1868-yil 2-8 iyun kunlari rus garnizoniga qarshi kurash uyushtirilib, rus harbiylari bilan birinchi harbiy to‘qnashuv bo‘lib o‘tdi. General-ad’yutant K.P.fon Kaufman o‘ziga berilgan vakolatlardan foydalangan holda, Buxoro amirligini taqdirini hal qilishga kirishdi. 1868-yil 1-may kuni Buxoro amiri qo‘shinlari bilan chorizm qo‘shinlari o‘rtasida Cho‘ponota tepaligida jang bo‘ldi. Bu hujumga Turkiston general-gubernatori fon Kaufmanning shaxsan o‘zi boshchilik qildi. 2-may kuni Samarqand egallandi.

Fon Kaufman amir bilan Zirabuloqda urushayotgan bir paytda Qarshi, Shahrisabz va Kitob bekliklaridan kuchlar kelib, Samarqandda qo‘zg‘olon boshlandi. Kaufman zudlik bilan Samarqandga qaytib, qo‘zg‘olonni bostirish bahonasida minglab mahalliy aholini qirishga buyruq berdi, hamda qimmatbaho boyliklar talandi.

1868 yil 23 iyunga kelib, chorasiz qolgan amir Muzaffar Turkiston general-gubernatori fon Kaufman bilan sulh tuzishga majbur bo‘ldi va Rossiya imperatorining vassaliga aylandi. Bu sulhga ko‘ra, Buxoro amirligi o‘z mustaqilligini yo‘qotibgina qolmay, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on va Zarafshon daryosining yuqori qismidan ham ajraldi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Samarqandni amirlikda qoldirish yuzasidan munozaralar bo‘lib o‘tgan. Lekin Kaufmanning harakatlari bilan Samarqand Rossiya imperiyasi tarkibida qoldiriladi. 1868-yil iyunda Samarqand va Kattaqo‘rg‘onni o‘z ichiga olgan Zarafshon okrugi tashkil etilib, unga general-mayor A.K. Abramov boshliq etib tayinlanadi.

Amir tovon sifatida 500 ming oltin to‘lashga, xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil ravishda aloqa o‘rnatmaslik majburiyatini olishga va rus savdogarlarining amirlik hududida erkin savdo qilishlariga, karvonsaroylar hamda do‘konlar ochishlariga rozi bo‘ldi. Amirlikdan tortib olingan hududlarda 1868-yil Zarafshon okrugi tuzilib, unga general-mayor Abramov boshliq etib tayinlandi. Amir Muzaffar tomonidan amirlik mustaqilligini amalda yo‘qotuvchi va katta iqtisodiy talofatlarga sabab bo‘luvchi sulhga qo‘l qo‘yilishi xalq yuqori tabaqa vakillarining noroziligi va nafratini yanada kuchaytirdi. Shu vajdan ham unga qarshi harakatlar ayniqsa Shahrisabz va Qarshida avj oldi.

Amirdan norozi kuchlar uni hokimiyatni boshqara olmaganlikda va amirlikning ancha qismini qo‘ldan boy berganlikda ayblab, chor hukumatiga qarshi urushni davom ettirishni asosiy maqsad qilib qo‘ygan edilar. Muzaffarning to‘ng‘ich o‘g‘li amirzoda Abdulmalik To‘ra (Katta To‘ra) va erksevar beklar Jo‘rabek, Bobobek hamda Sulton Sodiq birgalikda ozodlik kurashini davom ettirdilar. Vatanparvar kuchlar amir Muzaffarga qarshi urushib, davlatning uch qismini, jumladan, Qarshini egallaydilar. Karmana, Chiroqchi ham tez orada ularning qo‘liga o‘tdi. 1868-yilning kuzida amir Muzaffar fon Kaufmandan yordam so‘radi. Bunga javoban Kaufman general Abramov boshchiligidagi harbiy qo‘shinlarni qo‘zg‘olonni bostirish uchun yubordi. 1868-yil 21-oktabrdagi jangda Abdulmalik to‘ra boshchiligidagi vatanparvar kuchlar mag‘lub bo‘ldi. Shundan so‘ng, Abdulmalik bilan Sulton Sodiq Xiva xoni huzuriga boradi. Abdumalik Xivada ko‘p turmay Afg‘oniston tomon yo‘l oldi. U yerdan ham yordam ololmagach Xudoyorxon huzuriga keldi. Bu yerdan Qashqarga, Yoqubbek huzuriga boradi va shu yerda panoh topib, 1909 yili Peshovarda vafot etadi.

Rossiya imperiyasining hukmron doiralari Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi yerlaridan tashkil topgan Turkiston general-gubernatorligini O‘rta Osiyodagi harbiy operatsiyalar uchun tayanch markaziga aylantirib istilo tig‘ini Xiva xonligiga qaratishdi. Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining halokati va 1839-yilda Perovskiy yurishining barbodi hali rus generallari yodidan chiqmagan edi. O‘zbek xonliklarining uchinchisi-Xiva o‘z mustaqilligi bilan mustamlakachilar uchun jiddiy xavf solib turar edi. 1872-yil oxirlarida harbiy vazir boshchiligida Peterburgda Turkiston, Orenburg general-gubernatorlari va Kavkazdagi podsho noibi ishtirokidagi mahfiy kengashda Xiva xonligini bosib olishga uzil-kesil qaror qilindi. Generallar rejasiga ko‘ra Turkiston general-gubernatorligiga oid kuchlar sharqdan, Orenburg gubernatori va Kavkaz noibligiga oid harbiy kuchlar g‘arbdan va shimoliy-g‘arb tomondan yurishi kerak edi. Rossiyaning tajovuzkor niyati Xiva xoni va uning amaldorlariga sir bo‘lmagan. Said Muhammad Rahimxon II ruslar tahdidiga qarshi Angliyadan madad so‘ragandi. Angliyaning hukmron doiralari Xiva mustaqilligini saqlab qolishdan manfaatdor bo‘lsalar ham, Rossiya bilan ochiq to‘qnashuvdan xavfsirar edilar. Xiva endi o‘z kuchiga ishonib, ish ko‘rishi lozim edi. Xonlik qo‘shinida 27 eski zambarak, 2 ming otliq, 4 ming navkardan iborat harbiy kuch bo‘lib, ular ham, asosan, poytaxtda jamlangan edi. Xiva istilosiga otlangan Rossiya mustamlakachi qo‘shin ham son, ham sifat jihatidan va harbiy qurol-yarog‘lar texnikasi

bilan ham Xiva xonligi qo‘shinidan ustun edi. Turkiston otryadiga general Kaufman (22 rota, 1800 kazak va 18 to‘p), Orenburg otryadiga polkovnik Veryovkin (15 rota, 600 kazak, 8 to‘p) qo‘mondon bo‘lib, Orol flotiliyasi ham ular ixtiyorida edi. Turkiston general-gubernatori fon Kaufman yurish oldidan Xivani siyosiy tarafdan ham yakkalab qo‘yish uchun Buxoro amiri va Qo‘qon xoniga tahdidli maktublar yo‘llab, ularni Xivaga yordam bermaslikka chaqiradi.

Xiva xoni masalani tinch yo‘l bilan hal qilishga urinishlari behuda ketgach, harbiy kengash chaqirib, mudofaa rejalarini tuzadi va dushman istilochilariga qarshi o‘zining lashkarboshilarini safarbar qiladi. Matmurod devonbegi, Mahmud yasovulboshi, Yoqubbek qalmoq, Eltuzar inoq va Bobo Mehtar rahbarligidagi o‘zbek va turkman yigitlari rus qo‘shinlari hujumini qaytarish uchun ikki guruhga bo‘linib yo‘lga tushadilar. General Veryovkin Qo‘ng‘irotga yurish qilib, talofatlar berib bo‘lsa-da Xo‘jayli va Mang‘it qal’alarini ishg‘ol qildi. Keyinchalik Xorazmning ko‘hna qal’asi Xazorasp egallandi. Bu qal’ani bosh qo‘mondon fon Kaufman o‘ziga qarorgoh qilib, ichkari siljish uchun tayanch punktga aylantirdi. 1873-yil 29-may kuni ruslarning asosiy kuchlari Xiva ostonalarida paydo bo‘ldilar. Muhammad Rahimxon II Xivani o‘z ixtiyoridagi kuchlar bilan mudofaa qilib bo‘lmasligiga ko‘zi yetib, Izmiqsho‘r tarafidagi turkman ovuliga ketishga majbur bo‘ldi. Bundan foydalangan Amir To‘ra va Otaxon to‘ra xon nomidan fon Kaufman Xiva shahrini vayron etmaslikni so‘radi. Ammo Kaufman ulardan xonni topishni talab qildi va muzokaralarni faqat u bilan olib borish mumkinligini bildirdi.

Muhammad Rahimhon Xivaga qaytib kelguncha bosqinchilar saroyni talab, barcha qimmatbaho buyumlarni, 300 ta qo‘lyozma asarni Peterburgga jo‘natdilar.

1873-yil 12-avgustda Gandimiyon qishlog‘ida fon Kaufman sulh shartnomalarini Muhammad Rahimhon diqqatiga havola qildi. Bunga ko‘ra, Amudaryoning o‘ng qirg‘oqlari Rossiya ixtiyoriga o‘tdi, rus kemalarini Amudaryo bo‘ylab suzishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratildi. Rus savdogarlari xonlik hududida erkin savdo qilish, Amudaryoning chap qirg‘og‘idagi savdo omborlari qurish huquqini oldilar. Xiva xonligi Rossiya vassaliga aylanib, xonlik zimmasiga 2.000.000 so‘mlik tovon to‘lash majburiyati yuklandi. Rossiya fuqarolariga xonlikda ko‘chmas mulk sotib olishga ruxsat berildi.

Rossiya imperiyasi Buxoro va Xiva xonliklariga qarshi urush olib borayotgan yillari Qo‘qon xonligida chuqur siyosiy va iqtisodiy inqiroz

hukm surmoqda edi. Bu vaqtda xonlik yerlarining yarmi rus davlati tomonidan bosib olingan edi. Uning hududi asosan Farg‘ona vodiysidan iborat bo‘lib, Xudoyorxonning so‘nggi hukmronlik yillari (1865-1875) edi. “U,-deb yozgan edi, Ibrat o‘zining ”Farg‘ona tarixi” asarida,- Rusiyadan xotirjam bo‘lib; vaqtini o‘yin-kulgi bilan o‘tkazib, ulamo va fuzalo nasihatlariga amal qilmay, jabru-zulm tarafiga o‘tib turganida rayiyatu xalq undan yuz o‘gurdi... “ Xudoyorxonning qattiq zulmi, og‘ir iqtisodiy hayot hamda uni Rossiyaning itoatli xizmatkoriga aylanishi xalq g‘azabini qo‘zg‘atdi. Xonga qarshi xalq bilan birgalikda saroy harbiylari va amaldorlari, ruhoniy va savdo vakillari ham bosh ko‘tardi. Bunda o‘zbeklar, qirg‘izlar va tojiklar faol qatnashib Xudoyorxonga va rus davlatining tajovuziga qarshi kurashdilar.

Bu harakatning yuzaga kelishida qirg‘iz Mullo Is’hoq Hasan o‘g‘lining o‘rni katta bo‘lib, u Po‘latxon nomi bilan shuhrat qozongan edi. 1872 yili Sherdodhoh boshchiligidagi bir necha qirg‘izlar Samarqandga borib, Po‘latxonni taxtga o‘tkazish haqidagi maqsadlarini bayon etadilar. Ammo, Po‘latxon taklifni rad etgach, Mullo Is’hoq uning nomi bilan taxt uchun kurashishni zimmasiga olgan. Shu ravishda Mullo Is’hoq Po‘latxon, ya’ni sobiq hukmdor Olimxonning nevarasi sifatida siyosiy kurashga kirishadi. U xalqning Xudoyorxon zulmi va rus davlatiga qarshiligini yaxshi anglagan holda harakat qilib, Namangan uyezdining shimoliy qismidagi, Koson va Nanay oralig‘ida istiqomat qilgan Qutluq Sayid qabilasining yordami bilan atrofiga 500 kishini to‘playdi. Shu ravishda Po‘latxon boshchiligidagi qo‘zg‘olon boshlandi.

1875 yilda atrofiga 200 dan ziyod kishini to‘plagan Po‘latxon O‘zganga kelib, xonga qarshi katta xavf tug‘dirdi. Ularga qarshi Xon Iso Avliyo, Abdurahmon Oftobachi va Sarimsoq Eshikog‘asi boshchiligida 4000 kishilik askar yubordi. Biroq 1875 yil 28 iyulda yirik amaldorlar o‘z qo‘shini bilan, Xudoyorxonning o‘g‘li Andijon hokimi Nasriddinbek 5000 kishilik qo‘shini bilan qo‘zg‘olonchilar tomonga o‘tib, birlashdi. Xonlikning asosiy harbiy qismlari va lashkarboshilarining qo‘zg‘olonchilar tomoniga o‘tib ketishi Xudoyorxon taqdirini hal etgan omil bo‘ldi. Shundan so‘ng Xudoyorxon Kaufman huzuriga oila a’zolari bilan qochishga majbur bo‘ldi. Qo‘qonda esa Abdurahmon Oftobachi boshchiligidagi guruhlar Nasriddinni taxtga o‘tkazishga muvaffaq bo‘ldilar. Nasriddinxon Turkiston general-gubernatorligi bilan go‘yo yaxshi aloqalarni o‘rnatish maqsadida Kaufmanga xat yuboradi. Bunda u o‘zining taxtga o‘tirganligini ma’lum qilish bilan birga, do‘stona aloqada bo‘lish xaqida so‘z yuritadi.

Aslida esa u imperiyaning tajovuziga qarshi kuchlarni to‘plashga urindi va shu o‘rinda o‘z harakatini so‘rab, Buxoro amiri va Toshkentning eng nufuzli kishilaridan biri bo‘lgan Sayidazimboylarga xat jo‘natdi. Qo‘qon xonligidagi xalq harakatlari va Xudoyorxonning qochishi orqasida yuzaga kelgan og‘ir vaziyat rus hukumatiga qo‘l keldi. 1875-yil 20-avgustda Kaufman boshchiligidagi qo‘shinlar tomonidan Mahram qa’lasining egallanishi xonlik taqdirini uzil-kesil hal qildi. Nasriddinxonning Kaufman bilan kelishuvi xalqning qahr-g‘azabini uyg‘otdi. Po‘latxon atrofida to‘plangan xonning atoqli amaldorlari Andijonning Bo‘taqora qishlog‘ida uni xon deb e’lon qildilar. Kaufman Andijonga Trotskiy va Skobelev boshchiligida katta qurolli kuchlarni yubordi. Oktyabr oyi boshlarida Andijon ruslar tomonidan oyoq-osti qilindi. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, Andijonda shaxsan Skobelev boshchiligida 20 ming kishi o‘ldirilgan.

Po‘latxon Namanganda mag‘lubiyatga uchragach Asakada o‘rnashib, kurashni davom ettiradi va O‘sh, Andijon va Marg‘ilonni egallaydi. O‘ziga yoqmagan odamlarni o‘ldirib yuborishi Po‘latxon obro‘sini ancha tushirib yubordi. Shuningdek, Abdurahmon Oftobachi ham dushmanga taslim bo‘ldi. 1876-yil 28-yanvarida Uchqo‘rg‘onda mag‘lubiyatga uchragan Po‘latxon Oloy vodiysida so‘nggi kuchlari bilan tor-mor etildi. 1876-yil fevral oyida Qo‘qon qamal qilingach Nasriddinxon taslim bo‘ldi va Abdurahmon Oftobachi bilan Toshkentga jo‘natildi. Qo‘qon xonligi tugatilib, o‘rniga Farg‘ona viloyati tashkil etilib, unga general Skobelev harbiy gubernator etib tayinlandi.

Rossiya imperiyasi O`rta Osiyoni bosib olgach, mustamlakachi ma’murlari tomonidan boshlangan dastlabki ish o`lkada ma’muriy-boshqaruv tizimini mustahkamlash bo`ldi. Mustamlaka siyosati ma’muriy boshqaruv tizimini yaratishda “boshqa davlatlar o`rnatgan ma’muriy boshqaruv tizimi Turkistonning jahon sivilizasiyatsiyadan chetda qolib ketgan “yarim yovvoyi xalqlari” uchun maqbul bo`lmaydi”, degan fikrga to`liq amal qilib keldi va tipik ruscha boshqaruv tizimini yaratdi. Shu maqsadda 1867-yil imperiyaning boshqa mintaqalaridan farq qiluvchi, o`ta harbiylashtirilgan Turkiston general gubernatorligi ta’sis etildi. “Turkiston general gubernatorligi viloyatlarini boshqarish haqidagi vaqtli nizom” loyihasida ham shu holat o`z aksini topdi. “Harbiy xalq boshqaruviga asoslangan” general gubernatorlik o`z qo`lida harbiy va fuqoro hokimiyatini birlashtirdi. Turkistonda imperiya barpo etgan bu mustamlakachilik apparatining birinchi navbatdagi vazifalari Rossiya manfaatlarini har tomonlama himoya qilish, o`lkaning tabiiy boyliklarini

talash bilan bog‘lanib ketdi. O`z navbatida ma’muriy-boshqaruv apparati xodimlarining asosan ruslardan tashkil topganligi ham imperiya olib borgan siyosatning mohiyatini ochiq oydin ko`rsatib berdi.

Turkiston general gubernatorligi Rossiya imperiyasi xududidagi birorta ham gubernalar ega bo`lmagan huquqlarga, katta imtiyozlarga ega bo`ldi. Jumladan, u xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar olib borishi, soliq siyosatini belgilashi, rus fuqoroligi huquqlarini berishi, mahalliy aholi ustidan chiqarilgan hukmlarni belgilashi mumkin edi. Markaziy boshqaruvda general gubernatorlikning ahamiyati katta bo`lganligi sababli general gubernatorlik dastlabki vaqtdanoq to`rt bo`limdan iborat bo`ldi. Bu bo`limlar ma’muriy nazorat ishlari, moliyaviy xo`jalik ishlari, soliqlar nazorati, sud va huquq ishlari bilan shug‘ullandi. Ma’muriy boshqaruv zo`ravonlikka asoslangan doimiy usul sifatida saqlanib qoldi.

Bu holat 1886-yil “Turkiston o`lkasini boshqarish to`g‘risidagi nizom loyihasi” qabul qilingandan so`ng o`ta darajada og‘irlashdi. Chunonchi, bu nizom orqali Turkiston general-gubernatorligining huquqlari yanada kengaytirilib, o`lka beshta viloyatga bo`lindi. Viloyatlardagi boshqarmalar guberniya boshqarmasi huquqiga ega bo`lishdi. Ushbu viloyatlar esa uezd va volostlarga bo`lib boshqarildi. Uezdlar Turkiston general-gubernatorligi ma’muriy tuzilmasining o`zagini tashkil etdi. O`lkaning bunday boshqarilishi Turkiston general-gubernatori S.M. Duxovskiyning fikricha,“mahalliy aholining ustidan bo`lgan nazoratni tinimsiz ta’minlab turish” bo`lgan edi. Uning fikricha, “insoniylik va insonparvarlik g‘oyalarini o`z hokimlarining beboshligiga o`rganib qolgan mahalliy aholiga nisbatan qo`llab bo`lmaydi.”

Umuman, o`lkani rus burjuaziyasi, dvoryan-pomeshchiklari mulkiga aylantirishda tayanch nuqta vazifasini o`tashi uchun Toshkent shahri general-gubernatorlik markazi etib tayinlandi. Chunki Toshkent o`lkani nazorat qilishda siyosiy jihatdan katta ahamiyatga ega edi. Shu sababli darhol istilochilar tomonidan “rus Toshkent”ini barpo etish uchun maxsus komissiya tashkil etildi. Ushbu komissiya tomonidan mahalliy aholi uylaridan haydalib, zo`rlik bilan ko`chirilib, ularning uy-joylari o`rnida rus askar va ofiserlari, ma’muriy xodimlar uchun yangi turar joylar, bog‘lar barpo etildi. Toshkent shahri ikki qismga bo`linib, “yangi shahar” va ”eski shahar” nomini oldi. “Eski shahar” aholisi shaharning ruslar yashaydigan qismga o`tishi qat’iy ta’qiqlandi.

Mustamlaka ma’muriyati Toshkent shahri boshqaruvini kuchaytirish uchun ham “Shahar nizomi”ni tayyorlab, saylovchilar tartibini belgiladi.

Unga ko`ra saylovchilar uch toifaga ajratilib, ushbu guruhga ko`p mulkka ega bo`lgan shaxslar kiritildi. Ishchilar, hunarmandlar, ziyolilar buncha ko`p mablag‘ga ega bo`lmaganligi sababli ular saylovdan mahrum etildi. Har bir toifa boshlig‘i-hokim to`ra ishtirokida shahar dumasi va boshqarmasi saylandi. Toshkent dumasi faoliyati ustidan bo`lgan qat’iy nazorat general gubernator tomonidan olib borildi.

Turkiston istilo qilingan dastlabki vaqtdan boshlab Rossiya imperiyasi o`lkani boylik orttirish manbai deb bildi. Metropoliyaning iqtisodiy siyosati Rossiya sanoatini muntazam xom-ashyo bilan ta’minlab turish maqsadida paxtachilik, qishloq xo`jaligining sanoatbop mahsulot beradigan sohalarini rivojlantirish, yer islohoti o`tkazish yo`li bilan natural xo`jalik rivojlanish imkoniyatlarini cheklash, sanoat mahsulotlari sotish uchun keng bozorlar yaratish, mahalliy hunarmandchilikning to`qimachilik sanoat mahsulotlari bilan raqobat qiladigan sohalarini tugatish maqsadlarini ko`zladi. Bu siyosatdan Rossiya to`qimachilik sanoatining korchalonlari, dvoryan-pomeshiklari, rus burjuaziyasi manfaatdor edi. Shuning uchun mustamlaka ma’muriyati o`lkada paxtachilik sanoatini rivojlantirish uchun mablag‘larni ayamadi.

Paxtaga bo`lgan ehtiyoj kuchayishi shu darajaga olib keldiki, paxtachilik butun aholining kuchi va e’tiborini o`z girdobiga olgan sohaga aylanib ketdi. Paxtachilik rivojlanishi bilan xom ashyo yetishtirish yo`liga o`tib olgan dehqonlar ahvoli tobora og‘irlashib bordi. Chunonchi, ijtimoiy tabaqalanish kuchayib borayotganini ko`rsatuvchi bu jarayon ishlab chiqarish kuchlari keng rivojlanmagan mustamlaka o`lkada bo`layotganligi sababli yana ko`proq og‘ir oqibatlarga olib kelib, ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari masalasida ham qiyinchiliklar keltirib chiqardi. Mustamlakachi ma’murlar bu vaziyatdan foydalanib, chetdan keltirilayotgan mahsulotlarga ham narxlarni o`zlari belgilay boshladilar.

O`lka boyliklarini talash, imperiya bosqinchilarining mustamlakachilik manfaatlariga xizmat qiladigan temir yo`llar qurishni taqozo etar edi. Shu sababli uzoqqa mo`ljallangan harbiy va iqtisodiy rejalarni hisobga olib janubiy chegaralarni mustahkamlashga xizmat qiladigan temir yo`llarni qurishga kirishildi. 1881-1886-yil Mixaylovskiy ko`rfazidan Chorjo`ygacha Kaspiy orti temir yo`li qurildi. 1906-yili Toshkent Orenburg temir yo`li qurib ishga tushirildi. 1912-yilga kelib Farg‘ona vodiysi Rossiya bilan temir yo`l orqali bog‘landi. Bularning barchasi o`lkani xom ashyo hamda savdo bozori sifatidagi mavqeyini yanada mustahkamladi va Turkistondan mahsulot olib kelish va olib ketish bo`yicha o`lkani Rossiyaga butunlay qaram qilib qo`ydi.

Xalq uchun katta ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik ofatlar keltirgan, Rossiya imperiyasi manfaatlari uchun nihoyatda qulay bo`lgan paxta yakka xokimligi kuchayishi, metropoliyada kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi mustamlaka o`lkani ham o`z domiga tortib borishi bu yerlarda xom-ashyoga dastlabki qayta ishlov beruvchi sohalarni tashkil etishni ham taqazo etdi. Xom ashyoni qayta ishlash bilan bog‘liq bo`lgan korxonalar yangidan barpo etilayotgan sanoatning asosiy sohasi edi. Ana shunday korxonalar soni 1900-yilga kelib, 170 dan ortib ketdi. Bu korxonalarning asosan 80 foizini paxtaga qayta ishlov beruvchi korxonalar tashkil etdi.

Mahalliy aholining mehnatidan foydalanish mumkin bo`lgan bu korxonalarda ham asosan mahalliy aholi eng past ishlarga qabul qilindi. Zavod va fabrikalardagi malakali ishlarga asosan rus millatiga mansub bo`lgan kishilar qabul qilinganligi sababli mahalliy aholi bu ishlarga qabul qilinmagan. Natijada mustamlaka o`lkada mahalliy ishchilar soni nihoyatda oz sonni tashkil etib, ular kuchli ijtimoiy qatlamni tashkil etmadi. Dehqonlar ommasining qashshoqlanishi, ular o`rtasida ommaviy noroziliklar kuchayishi o`lkada siyosiy vaziyat keskinlashishining asosiy zamini bo`ldi.

Mustamlaka o`lkadagi ijtimoiy, siyosiy vaziyat keskinlashib, mahalliy aholi turmush tarzi yomonlashuviga olib kelgan omillardan biri, ko`p sonli rus aholisining ko`chirib keltirilishi bo`ldi. Ular o`lkani boylik orttirish manbalaridan biri deb bilganliklari uchun Markaziy Rossiyadan o`lkaga doimiy yashash uchun kelayotganlar soni ko`paydi. Turkistonda rus shaharlari va qishloqlari qad ko`tardi. Jumladan, 1875-yildan to 1890-yilgacha Turkistonga 1300 oila ko`chib kelib, 19 ta rus qishlog‘i vujudga keldi. 1891-92-yillarda Rossiyada ocharchilik kuchaygan vaqtda bu qishloqlar soni 25 taga yetdi.

1888 yil 15 martda chiqqan “Turkestanskiye vedomosti” gazetasida bu harakatlar “Rossiyadan ko`chib kelayotganlar bo`sh yerlarni o`zlashtirishga, bog‘-rog‘lar yaratishga yordam beradi” deb ko`rsatilgan edi. Aslida qashshoqlashib ketgan rus aholisini Turkistonga ko`chirib keltirilishi Rossiyada tobora chuqurlashib borayotgan ichki ziddiyatlarni hal etishning bir yo`li edi. Ikkinchi tomondan esa, mustamlaka o`lkada ko`p sonli rus aholisining bo`lishi Rossiya davlati uchun harbiy va siyosiy tayanch ham edi. Rus millatini o`lkaga ko`chirib kelish, ularni mahalliy aholi bilan assimilyasiya qilib yuborish, Turkistonda doimiy yashaydigan rus aholisini tarkib toptirish mustamlaka siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bo`lganligi sababli chor Rossiyasi ko`chirish siyosatini

amalga oshirish uchun 1896-1906-yillarda 3 mln oltin so`m miqdorida harajat qildi. 1907-yilga kelib bu harajat 13 mln oltin so`mga etdi.

Ko`chirib keltirilgan rus dehqonlari katta imtiyozlarga ega bo`ldilar, ulardan ma'lum muddatgacha soliq olinmadi. Podsho hukumati bu harakatlarni "mahalliy aholining manfaatiga aslo zid kelmaydi, chunki ko`chib kelganlar yangi o`zlashtirilayotgan va bo`sh turgan yerlarga joylashadilar, mahalliy aholi esa o`z ehtiyojini to`la qondirib kelayotgan yerlarning to`liq egasi bo`lib qolaveradi" deb asosladi. Biroq bu amalda bajarilmadi. Chorizm har qanday yo`l bilan bo`lsa ham unumdor yerlarni rus dehqonlariga ajratib berishga harakat qildi va yer soliqlarini oshirib, mahalliy aholini o`z yerlarini sotishga majbur etdi. Bunday "bo`sh turgan yerlar" birinchi navbatda harbiy xizmatdan bo`shagan askarlarga, Rossiyadan ko`chib kelayotgan dehqonlarga berildi. Ana shunday o`troq rayonlarlan tortib olingan yerlar Sirdaryo viloyatida 47.600 tanob, Farg'ona viloyatida 75.000 tanob, Samarqand viloyatida 3000 tanob, Kaspiy orti viloyatida 7000 tanobni tashkil etdi.

Rossiya imperiyasi o`lkada rus nufuzini ko`tarish maqsadida madaniy qoloqlikni chuqurlashtirish, mahalliy aholini o`z tarixi, ma'naviyati, qadriyatlari va milliy urf-odatlaridan bebahra qilishga qaratilgan e'tibori ham asosan ko`chirib keltirilayotgan rusiy zabon aholi sonining ortib borishi bilan uzviy ravishda bog'liq edi. Bu siyosatning asosiy maqsadi mahalliy davlatchilik an'analarini tag-tomiri bilan qo`porib tashlash, milliy madaniyatni kamsitish, milliy tillarni siqish va xalq ommasini ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy qoloqlikka mahkum etib, oqibatda ruslashtirishdan iborat edi. Bu boradagi siyosat mahalliy aholining ma'naviy hayotiga aralashmaslik yo`li deb ko`rsatilgan bo`lsa-da, aslida bu ruslashtirish, ma'naviy-ruhiy tazyiq o`tkazish orqali milliy madaniyat rivojlanishini bo`g'ish bilan bog'lanib ketdi. Mustamlakachi ma'murlarning o`zlarining fikrlariga ko`ra go`yoki ular o`lkaga istilochilar sifatida emas, balki "mahalliy aholi o`rtasida ilg'or madaniyatni, yangi tartib va odatlarni o`rnatish uchun kelganlar. Mahalliy aholi esa Rossiyaning bu siyosatini mohiyatini tushunishga va baholashga qodir emas" emish.

Mustamlaka ma'muriyati bu boradagi birinchi vazifani mahalliy aholi bolalarini rus tuzem maktablariga berishga ko`proq jalb etish qilib belgiladi. Chunki mustamlaka ma'murlari o`lkadagi maktablar va madrasalar faoliyatini mustamlaka siyosati yuritishda nihoyatda xavfli deb hisobladilar. Ular mahalliy adabiyot rivojlanishi va mahaliy maktablar soni ortib borishini aholini ruslashtirish yo`lidagi jiddiy bir to`siq deb

bildilar. Shuning uchun ham mahalliy aholining ma’naviy-ruhiy holatiga ta’sir etish uchun doimiy tarzda musulmon muassasalari faoliyatiga aralashish, erli maktablarni ma’muriyat ixtiyoriga o`tkazish, musulmon diniy idorasi boshqaruviga yo`l qo`ymaslik kabi masalalarga e’tibor qaratildi. Bu o`rinda shuni aytish lozimki, imperiya hukumati ma’muriyati maktab va madrasalarga nisbatan turli xil kurash usullarini qo`lladi. Biroq ming yillar davomida O`rta Osiyolik olimlarning faoliyatlari naqadar ulug‘ bo`lganligi va o`sha yillarda ham ularning mo``tabar shariat majmualaridan butun dunyo musulmonlarining foydalanib kelayotganligini o`zi mustamlakachi ma’murlarini tashvishga solmasdan iloji yo`q edi. Shuning uchun ular ko`plab mahalliy yoshlarga bilim berib kelayotgan musulmon maktablarini rus-tuzem maktablari bilan almashtirishga, shu yo`llar bilan o`lka xalqlarini mustamlaka siyosati asorati ostida saqlash, keyinroq borib ularni ruslar bilan qo`shib yuborishga zo`r berib, ustakorlik bilan harakat qildi.

Yuqorida keltirilgan tadbirlar, imperiyaning amalga oshirgan mustamlaka siyosati mahalliy mehnatkash aholining manfaatlariga butunlay zid kelishi, ular o`rtasida norozilik kayfiyatlarini tug‘ilishida katta zamin bo`lib xizmat qildi. Imperiya ma’murlarining mustamlaka siyosatiga qarshi qaratilgan harakatlari Rossiya imperiyasi O`rta Osiyoni bosib olayotgan davrlardan boshlangan bo`lsa-da, bu harakatlar rus qo`shinlari tomonidan shafqatsiz ravishda bostirib kelindi. 70-yillardagi Po`latxon qo`zg‘olonidan so`ng Turkistonning bir qancha shaharlarida ham xalq ommasining ommaviy norozilik harakatlari keng miqyosda bo`lib o`tdi. Rossiya imperiyasi bosqiniga qarshi ko`tarilib turgan ozodlik harakatlari ichida “Oloy malikasi” nomi bilan mashhur bo`lgan Qurbonjon dodxoh Oloy o`lkasida tinchlik o`rnatish uchun 1876 yilning oxiriga qadar mustamlakachilarga qarshi kurashib keldi. Uning qo`shinlariga qarshi yuborilgan general Skobelev boshliq rus qo`shinlari qo`zg‘olonchilarga qarshi harakatlarda yengildi va mustamlakachi ma’murlar Qurbonjon dodxoh bilan sulh tuzishga majbur bo`ldi. O`z umrini xalqining tinch-totuv yashashiga bag‘ishlagan Qurbonjon dodxoh 1907-yil 97-yoshida vafot etadi.

Farg‘ona viloyati Turkistonning asosiy paxtachilikka ixtisoslashgan viloyatlardan bo`lganligi tufayli, bu yerda vaziyatning barqaror bo`lishi chorizm uchun katta ahamiyatga ega edi. Ayniqsa, mahalliy aholining zich joylashganligi, dehqonlar ommasining paxtachilik jafolaridan kelib chiqayotgan qiyinchiliklardan qiynalayotganligi, mahalliy va mustamlakachi ma’murlarining bu yerlardagi beboshliklari oldini olish

qiyin bo`lgan ommaviy xalq harakatlarini keltirib chiqarishi mumkin edi. Mana shunday g‘alayonlardan biri 1878-yilda Mingtepada bo`lib o`tgan Yetimxon boshchiligidagi isyondir. Bu isyondan so`ng Farg‘ona viloyati general gubernatori viloyatdagi mahalliy aholidan g‘ayriqonuniy soliq undiruvchilarni ishdan olib tashlashga majbur bo`ldi.

1885-90-yillarda Andijonnning Qo`rg‘ontepa uezdidagi Darveshxon to`ra boshliq xalq harakati qurolli qo`zg‘olonga aylandi. Ammo, xalq ommasining norozilik harakatlarini qurolli kuch bilan bostirishga o`rganib qolgan chor ma’murlari bu harakatlarni ham shafqatsizlarcha bostirdilar.

1892-yil “vabo isyoni” nomini olgan Toshkent qo`zg‘oloni X1X asr oxiridagi muhim voqealardan biri bo`ldi. 1892-yilgi qo`zg‘olon ko`plab tarixiy adabiyotlarda imperiya ma’murlarining o`lkada vabo kasali tarqalishining oldini olish uchun bo`lgan harakat deb ta’riflangan bo`lsa-da, aslida bu qo`zg‘olon Rossiya imperiyasining o`lkadagi yillar davomida olib borgan mustamlaka siyosatiga qarshi qaratilgan harakatlardan biri edi. 1892-yilgi vabo kasali tarqalish miqyosi jihatidan 1872-yildagiga nisbatan kuchli bo`lmasa-da, mustamlaka Turkistonda iqtisodiy- ijtimoiy vaziyat ancha keskinlashgan davrda yuz berdi. 1892-yilda Afg‘onistonda tarqagan vabo kasali o`sha yili O`rta Osiyoga ham tarqaldi. 1 iyunga kelib, Jizzaxda ham Rossiyadan ko`chib kelganlardan bir nechtasi vabo bilan kasallanganligi haqidagi xabar, 7-iyunga kelib esa, Toshkentning eski shahar qismida vabo bilan kasallangan kishilar ham ma’lum bo`ldi. Imperiya ma’murlari vabo kasali tarqab ketmasligi uchun chora-tadbirlar ko`rdilar. Biroq belgilangan chora-tadbirlarda mahalliy aholining diniy va milliy an’analari mutlaqo e’tiborga olinmadi.

Kasallik tarqalishi munosabi bilan shaharga kirish va shahardan chiqish ta’qiqlandi. Shahardagi 12 ta eski qabriston yopilib, va’da qilingan 4 ta qabriston o`rniga faqat bittasi ochib berildi.

Vafot etganlar dafn etilishi bilan bog‘liq bo`lgan tadbirlar haqida oqsoqollar, mullalar, mirshablar, cherkov xizmatchilarini ogohlantirib qo`yish lozimligi, ayniqsa, har bir vafot etgan kishi vrach ruxsatidan keyingina dafn etilishi mumkinligi haqidagi buyruqlarda mahalliy aholining diniy e’tiqodlari mutlaqo hisobga olinmadi. Noiloj qolgan aholi vafot etganlarni shahar ichidagi berkitilgan qabristonlarga yashirincha olib borib ko`ma boshladilar. Bularning barchasi mustamlakachi ma’murlarning zo`ravonlikka asoslangan siyosatining ko`rinishi edi.

Mustamlakachi ma’murlarining bu tadbirlaridan norozi bo`lgan shahar aholisi 20-iyun kuni shaharning Xonaqo masjidi yonida to`plandi.

Shikoyat xati yozib, uni shahar hokimiyatiga yetkazish uchun uch kishidan iborat vakil saylandi.

Biroq 23-iyun kuni shaharda tarqalgan turli mish-mishlar shahardagi vaziyatni og‘irlashtirib, ommaviy g‘alayonlar boshlanishi ayon bo`lib qoldi. 500 kishilik olomon 2 ko`cha bo`ylab shahar boshlig‘ining uyi tomon yura boshladi. Buni eshitgan Putinsev olomon bilan uchrashish uchun eski shahar tomon yo`l oldi va Voronsov xiyobonida qo`zg‘olonchilar bilan uchrashdi. Olomondagilar shahar oqsoqoli Muhammad Ёqub ustidan shikoyat qilishga kelayotganliklarini aytdilar. Putinsev bilan kelgan eski shahar oqsoqoli olomonga qarab do`q urib, qamchi bilan qo`rqitib orqaga qaytarmoqchi bo`ldi. Kishilar uni toshbo`ron qila boshladilar. Shu vaqt boshqarma oldiga soqchilar bilan harbiy gubernator, keyin qurolli soldatlar keldi. Buni ko`rib, sarosimaga tushib qolgan aholi o`zini himoya qilishga intilmasdan asta tarqala boshladi. Ular hatto yerda yotgan yog‘ochni olib, o`zlarini himoya qilishga ham intilmadilar. Shundan so`ng qo`zg‘olonchilardan qattiq o`ch olish boshlanib ketdi.

Qo`zg‘olon mustamlaka hukumati qo`shinlari tomonidan shafqatsizlarcha bostirilib, 8 kishi dorga osib o`ldirilishiga, 15 kishini 2 yil muddat bilan mahbuslar rotasiga yuborishga, 2 kishini olti oyga qamoq jazosi bilan jazolashga hukm qilindi. Lekin, mustamlakachi ma’murlari dunyo jamoatchiligi oldida bu jazolarning shov-shuvga sabab bo`lishidan cho`chib, o`lim jazosini umrbod surgun bilan almashtirdilar. Garchi, qo`zg‘olon Toshkent shahrining o`zida yuz bergan bo`lsa-da, uning ta’siri butun Turkiston o`lkasi bo`ylab yoyildi. Chunki bu ozodlik harakati mustamlakachilik zulmi ostida yotgan xalqlar tuyg‘usini ifoda etar edi.

Rossiya imperiyasining Turkistondagi amaldorlari vaziyat keskinlashayotganligidan xavfsirab, podsho hukumatidan joylarda xavfsizlikni saqlashning kuchaytirilgan holatini joriy etishni taklif etdilar. Bu orqali mustamlakachi ma’murlari o`z oldiga katta siyosiy maqsadlarni qo`yib, aholini qo`rqitish, imperiya hukmronligiga qarshi kurashga chiqishga botina olmaslik kayfiyatlarini kuchaytirishga harakat qildi. Shunday bo`lsa-da, 1898-yil Andijonda mutamlakachi ma’murlariga qarshi, uning mustamlaka siyosatiga qarshi yana bir ozodlik harakati bo`lib o`tdi. Tarixda bu “Andijon qo`zg‘oloni” nomini oldi. Bu qo`g‘olon 1898-yil Andijon shahrining Mingtepa qishlog‘ida boshlandi. Dastlab qo`zg‘olonchilar soni 500 kishidan ortmagan bo`lsa-da, biroq atrofdagi qishloqlardan kelib qo`shilayotgan aholi hisobiga qo`zg‘olonchilar soni

ortib bordi. Qo`zg‘olonchilarga Muhammadali eshon - Dukchi eshon boshchilik qildi.

Dukchi eshon o`lkadagi mustamlaka siyosatiga qarshi Farg‘ona viloyatidagi aholini birlashtirishga, ularni imperiyaning mustamlaka siyosatiga qarshi chiqib, bu zulmni ag‘darib tashlashga harakat qildi. Qo`zg‘olon stixiyali tarzda boshlandi. 17-may kuni Tojik qishlog‘ida to`plangan xalq ommasi Andijon shahriga qarab yo`l oldilar. Qo`zg‘olonchilar safi yo`lda ko`payib boraverdi. Natijada shaharga etib kelganda ularning safi kengayib, 2000 kishiga etdi. Olomon Andijondagi rus garnizoniga to`satdan hujum qildi. 23 soldat o`ldirilib, 24 soldat yaralandi. Soldatlar darhol qurollanib, qo`zg‘olonchilardan 12 kishini o`ldiradilar, qolganlar qochib ketadi. Tezda Farg‘ona general-gubernatorligiga berilgan xabardan so`ng bu yerga qo`shimcha harbiy kuch keltirildi va mahalliy aholidan o`ch olish boshlanib ketdi. Tezlikda mustamlakachilarga qarshi qaratilgan harakatlarda ishtirok etganlar, gumon qilinganlar qamoqqa olindi. Ular bu bilangina cheklanmasdan harbiy kuchlardan foydalanib, mahalliy aholini qo`rqitish siyosatini kuchaytirdi.

Mustamlakachilar qo`zg‘olonni vahshiylik bilan bostirishlariga qaramay buning aks sadosi butun Farg‘ona vodiysiga taraldi. Asaka, Quva, Shaxrixon, O`sh, Marg‘ilon kabi shaharlar va qishloqlarda harakatlar keng yoyildi. Lekin rus qo`shinlari hamma yerda ham qo`zg‘olonni shafqatsizlik bilan bostirdi. Dukchi eshon Arslonbob qishlog‘ida qo`lga olindi va butun xalq oldida mustamlakachi ma’murlari tomonidan 1898-yil 12-iyunda osib o`ldirildi.

Qo`zg‘olonda ishtirok etgan 477 kishi ustidan boshlangan sud jarayoni uch oy davom etdi. Harbiy sud 362 kishini osib o`ldirishga hukm qildi. Qo`zg‘olonchilardan 351 kishi turli muddat bilan qamalib, 15 kishi oilasi bilan Sibirga surgun qilindi. Biroq, mustamlakachi ma’murlari yana jahon ommasi oldida sharmanda bo`lishdan cho`chib, o`lim jazosini surgun bilan almashtirdi.

Qo`zg‘olon markazi deb topilgan Mingtepa, Tojik va Qashqar qishloqlari imperator Nikolay II ko`rsatmasiga ko`ra, Dukchi eshon yurgan yo`li degan bahona bilan uch kun to`pdan o`qqa tutilib, yer bilan barobar tekislandi. Mingtepa qishlog‘i o`rnida 450 xonadonga mo`ljallangan yevropacha yangi uylar qurildi. eshon yashagan xonadon o`rnida rus cherkovi qurish rejalashtirildi. Xo`jand qishlog‘iga Duxovskiy nomi berildi.

Xullas, mustamlakachi ma’murlari bu qo`zg‘olonni ham qonga botirdilar, uning ishtirokchilaridan ayovsiz o`ch oldilar. Garchi, mustamlakasi ma’murlari mahalliy aholining milliy ozodlik harakatlarini naqadar shafqatsizlik bilan bostirsa-da, o`lkadagi g‘alayonlar va qo`zg‘olonlar bir daqiqa ham to`xtamadi.

XX asr boshlariga kelib, o`lkadagi bunday harakatlar yangi bosqichga ko`tarildi. Shu bilan birgalikda o`lkada demokratik inqilobiy harakatlar ham keng avj ola boshladi. Mustamlaka sharoitda ishchilarning shakllanishi o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lgan, xususan, xonavayron bo`lgan dehqonlar va hunarmandlar hisobiga kengayib borayotgan ishchilar sinfi imperiyaning markaziy rayonlarida kuchayib borayotgan demokratik kuchlar ta’sirida bu harakatlarda asta-sekin ishtirok eta boshladilar. O`lkadagi bir qancha shaharlarda siyosiy talablarni o`zida aks etgan namoyishlar bo`ldi.

Ayniqsa, 1900-1903-yildagi iqtisodiy inqirozlar, 1904-1905-yildagi rus-yapon urushida Rossiya ko`rgan zararlari o`lkadagi ham mahalliy aholining ahvoliga salbiy ta’sir etishi dehqonlar ommasini ham yana norozilik harakatlari bilan chiqishiga turtki berdi. Oqibatda o`lka viloyatlarida vaziyat yanada keskinlashb ketdi. Samarqand viloyatida dehqonlarinng g‘alayonlari natijasida yuzaga kelgan Nomoz Pirimqulov boshchiligidagi harakatlar Turkistonda dehqonlar harakatining asosiy hal qiluvchi kuchiga aylandi. Rossiya imperiyasining mustamlaka siyosati o`lkadagi bunday harakatlarni doimo zudlik bilan bostirib turdi. Shu bilan birgalikda milliy mustaqillikka intilayotgan, mahalliy ziyolilarga ham doimo ta’qib o`tkazib keldi.

O`lka mehnatkashlarining ahvoli 1914-yil Rossiyaning birinchi jahon urushiga kirishi bilan yanada og‘irlashib ketdi. Urush yillari mehnatkashlarni ezish tobora ortib bordi. O`lkada g‘alla yetishtirish kamayib, urush tufayli o`z vaqtida yetkazib kelinmagan g‘alla tanqisligi natijasida mahalliy aholi orasida ocharchilik boshlandi. Buning ustiga Turkistonda rasmiy soliqlardan tashqari urush ehtiyoji uchun deb aholidan har yili turli yig‘im va soliqlar to`plandi.

1916-yil birinchi jahon urushining iqtisodiy asoratlari mehnatkash aholi bo`ynida og‘ir yuk bo`lib turgan vaqtda Nikolay 11 ning “Imperiyadagi begona xalqlar erkak aholisini harakatdagi armiya rayonlarida harbiy inshootlar va shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo`lgan boshqa har qanday og‘ir ishlarga jalb qilish” haqidagi farmoni chiqdi. Ushbu farmonga ko`ra Sibir, O`rta Osiyo, Qozog‘iston, Kavkaz ortidan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo`lgan 400 ming kishini

mardikorlikka olish boshlanib ketdi. Bu farmonga ko`ra, o`lkadagi har besh xonadondan mardikor olinadigan bo`ldi.

Qishloq xo`jaligida yig‘im terim ishlari boshlanib, ro`zg‘or yurituvchi, oila boquvchi erkaklarning noma’lum muddatga uzoq o`lkalarga mardikorlikka safarbar etilishi chorizmning mustamlaka siyosatidan, mahalliy boylarning siquvidan ezilib ketgan xalqning sabr kosasini to`ldirib yubordi.

4-iyulda savdo va hunarmandchilik markazi bo`lgan Xo`jand shahrida, undan keyin Samarqand, Jizzax, Kattaqo`rg‘on kabi shaharlarda ham xalqning norozilik harakatlari bo`lib o`tdi. Bu yerlarda tezda yetib kelgan rus askarlari qo`zg‘olonchilar harakatini shafqatsiz ravishda o`qqa tutdilar.

Mustamlaka ma’muriyati zulmiga qarshi qo`zg‘olonlarning eng kattasi Jizzax shahrida bo`lib o`tdi. Nazirxo`ja eshon boshchilik qilgan bu qo`zg‘olon shu qadar katta bo`ldiki, bu tarixda “Jizzax qo`zg‘oloni” nomini oldi. 1916-yil 12-13 iyul kunlari boshlangan g‘alayonlar natijasida qo`zg‘olonchilar qo`llariga nima tushsa qurollanib, eski shahardan yangi shahar tomon yo`l oldilar, uezd ma’muriyatini yakson qildilar. Jizzaxning yangi shahar bilan eski shahar o`rtasida yordamga kelgan jazo otryadi qo‘zg‘olonchilarni o`qqa tutdi. To`qnashuvlarda 11 kishi halok bo`ldi. Olomon orqaga qaytishga majbur bo`ldi.

Bunday voqealardan so`ng qo`zg‘olonchilar yana eski shahar aholisini oyoqqa turg‘izib, temir yo`l tomon borib, temir yo`l izlarini, ko`priklarni buzib, telefon simlarini uzib tashlaydilar. Hamma yerlarda mustamlakachilarga qarshi harakatlar boshlandi. Turkiston general-gubernatori tomonidan polkovnik Ivanov qo`mondonligi ostida yuborilgan jazo otryadi eski Jizzaxni ayovsiz o`qqa tutdi. Zomin va Forish qishloq aholisidan qaqshatqich ravishda o`ch olinib, duch kelgan kishilar otib tashlandi.

17-iyulga kelib butun Turkiston o`lkasida harbiy holat e’lon qilindi. Jazo otryadlari va mustamlakachi ma’murlarga juda katta huquqlar berildi. Shu munosabat bilan aholining ko`cha va maydonlarda to`planishi taqiqlandi. Imperiya ma’murlari harbiy kuch ishlatib, bu yerdagi qo`zg‘olonni bostirishga mavaffaq bo`ldilar. Jizzax qo`zg‘oloni bo`yicha mingga yaqin kishi qamoqqa olindi. 151 kishining ishi sudga berildi. Shulardan 84 kishi osib o`ldirishga hukm qilindi, biroq bu jazo ham keyinroq “yumshatilib” boshqa jazolar berildi. 1916-yil qo`zg‘oloni o`lkada mahalliy aholining mustamlaka siyostiga qarshi qaratilgan eng

katta milliy ozodlik va ommaviy xalq harakati edi. Bu qo`zg‘olon jamiyatning barcha tabaqalarini harakatga keltirdi va o`z domiga tortdi.

Rossiyaning turli mintaqalariga mardikorlikka jo`natilgan mahalliy aholi vakillari faqat Rossiya imperatori taxtdan ag‘darilgandan so`ng qaytib keldilar va o`lkada yana milliy istiqlol uchun kurash harakatlari keng miqyosda boshlandi. O`lka ziyolilari endi o`z maqsadlarini to`liq amalga oshirish uchun yana tarix maydoniga chiqdilar. Lekin “ulug‘ davlatchi” mustamlakachilar Turkistonni qo`ldan boy berishni istamadilar. Turkistonda fevral inqilobining dastlabki kunlaridan boshlab ishchi deputatlari sovetlari bilan birga soldat deputatlari sovetlari tuzila boshladi. Bu sovetlarning deputatlari asosan yevropa millatiga mansub aholidan tashkil topdi. Jamoat tashkilotlari faoliyatni boshlash va unga mahalliy aholini ham jalb etish, ularning birlashtirish yo`lidagi harakatlar keng ko`lamda kuchayib bordi.

Jadidchilik harakati va milliy uyg‘onish

“Jadid” arabcha so‘z bo‘lib, “yangi” degan ma’noni anglatadi. Shuning uchun ham yangilik va islohotchilikka intiluvchi, yangilik yaratuvchi faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lgan taraqqiyparvar, ilg‘or ruhdagi milliy ziyolilar tarixda “jadid” degan nomga musharraf bo‘ldilar. Ularning harakati esa jadidchilik deb nomlandi. Bu harakatning paydo bo‘lishi bevosita o‘sha davrdagi ichki muhit hamda tashqi xalqaro maydondagi ijtimoiy-siyosiy va demokratik yangilanishlar bilan bog‘liq bo‘ldi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlariga kelib, Turkistonda millat taqdiriga tahdid soluvchi o‘ta qaltis va og‘ir ichki tarixiy muhit paydo bo‘ldi. Bir tomondan, Rossiya imperiyasi musatamlakachiligi siyosiy jihatdan mustahkamlandi. Mustamalka va zo‘ravonlikka mukkasidan ketgan rus bosqinchilari esa, endi o‘z mafkurasini singdirish orqali ma’naviy ustunlikka ham ega bo‘lishi uchun mahalliy xalqni ruslashtirish, uning g‘ururini sindirish, o‘zligini yo‘qotishdek, o‘ta razil shovinistik siyosatni kuchaytirdilar. Ikkinchi tomondan esa, millat va xalqimiz o‘z siyosiy, ma’naviy huquqlari, erki va hohish-irodasini yo‘qotdi. Uchinchidan, umuman musulmon mutaassibligi (konservatizm va bid’at) kuchaydi. Millatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli hamda ma’naviyati tubanlashdi. Buning ustiga ustak, din peshvolari orasidagi mutaassiblarda yangilikka, dunyoviy ma’rifat va taraqqiyotga qarshilik ham avj oldi. Bu esa, Islom dini hamda shariatiga mutlaqo zid ravishda avj oldi.

Mutaassiblar bid’at botqog‘iga botgan holatda, ijtimoiy majhul (noaniq)likdagi g‘aflat uyqusiga mast bo‘lib, aql va fahm-farosatlari ojizligi evaziga, o‘zlari sezmagan holda mustamlakachilar manfaati (mafkurasi)ga xizmat qila boshlaydilar.

Millat va xalqimiz mana shunday ikki tomonlama o‘ta ayanchli va havfli ijtimoiy-siyosiy muhit hamda vaziyatga duch kelgan bir paytda musulmon ziyolilar din homiylari orasidan yangi bir taraqqiyparvar guruhning harakati paydo bo‘ldi. Ular «jadid» (yangi) degan ulug‘ nomga muyassar bo‘lgan holda, Millat va Vatan, musulmon xalqlari uchun ma’naviy qalqon bo‘lib, kurash maydoniga otildilar. Jadidlar millatni bo‘yin egishi va tanama-taqdir qilish havfidan qutqarishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘li avval tarbiya va ma’rifat, so‘ng islohot ekanligini juda to‘g‘ri anglab yetdilar.

Shuning uchun ham jadidlar millat va xalqni g‘alayon va qo‘zg‘olonga, inqilobiy buzg‘unchilik kabi yovvoyilikka da’vat etmadi. Aksincha, ularni diniy-dunyoviy ma’rifat, ilm-fan, madaniyat va yangiliklar bilan qurollantirib tarbiyalash, o‘zligini anglatish, ijtimoiy-ma’anviy g‘aflat uyqusidan uyg‘otib, turmush tarzi, tafakkuri, ma’naviyati, madaniyati, adabiyoti va maorifini o‘zgartirishga bel bog‘ladilar.

Abdulla Avloniyning ushbu hikmati jadidlar uchun asosiy e’tiqod va amaliy faoliyat dasturi bo‘lib qoldi: «Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo najot, yo halokat – yo saodat, yo falokat masalasidir». Darhaqiqat, bu paytda millatni halokat va falokatdan asrab, saodatga olib chiquvchi jadidlar tarbiyasi bilan millatni ma’nan tobe qilib, halokat va falokatga duchor etuvchi mustamlakachilar «tarbiya»si qarama-qarshiligi paydo bo‘lgan edi.

Jadidchilik harakati ba’zi-bir tarixga oid adabiyotlarda aytilganidek, “oldin madaniy-ma’rifiy harakat bo‘lib, keyin ijtimoiy-siyosiy harakatga o‘sib o‘tgani” yo‘q. U o‘z tabiati maqsad va mohiyatiga ko‘ra, dastlabki kundanoq, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy va islohotchilik harakat bo‘lgan. Ammo Vatanni ozod va obod qilish, millat va xalqni hurriyatga olib chiqish, to‘q va farovon, madaniyatli qilish uchun jadidlar asosiy e’tiborni dastlab madaniy-ma’rifiy ishlarga qaratdilar.

Mustamlakachilarining asosiy maqsadi, xalqni mutlaq tobe va qaram qilish, Turkistonda siyosiy erksizlikni qaror toptirib, milliy o‘limni amalga oshirish bo‘lganligiga sharqshunos olim N. N. Veselovskiy (1848-1918) quyidagicha guvohlik beradi: «Biz Turkistonga madaniyat olib keldik deb o‘ylaymiz. Bo‘ysundirilgan osiyoliklarga tinchlik va

osoyishtalik berdik deb o‘zimizni ovutamiz. Ammo bularda bir oliy tuyg‘u borki, bu millat va uning milliy iftixoridir...

Musulmonlar ahvolini tushunishimiz kerak. Siyosiy o‘lim (milliy davlatni yo‘qotib, siyosiy xalq-huquqdan ayrilish-muxarrir) og‘ir, milliy o‘lim esa undan ham og‘irroqdir. Bizning hukmronligimizda ular (turkistonliklar) xuddi shunday ahvolga tushdilar. Shunday milliy manfaatlar borki, ular xalq och yoki to‘qligidan qat’i nazar, bir kunmas bir kun o‘zini namoyon etajak”.

Turkistonda ruslashtirish siyosatini amalga oshirish bilan ma’lum missionerlar guruhi muntazam ravishda ish olib boradi. N.Ostroumov, M.Miropiev, V.P.Nalivkin va boshqa ashaddiy shovinistlar mana shu guruhning eng ko‘zga ko‘ringanlari edilar. N.Ostroumov o‘z missionerlik vazifasiga ko‘ra, Turkistonda general-gubernatordan ham yuqori mavqega ega bo‘lgan. V.P.Nalivkin esa “Yarim yovvoyi osiyoliklarni hamisha qo‘rquv va vahima ichida qaltirab turishga majburlash kerak” degan “dasturilamal” ishlab chiqib, uni mustamlakachi ma’muriyatga ijro uchun taqdim etadi.

XX asr boshiga kelib millatni milliy o‘limdan saqlab qolish va istiqlolga olib chiqish uchun ma’rifat, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy tarbiya asosiy omil, eng muhim ma’naviy qurol darajasiga ko‘tarildi. Buni esa jadidlar Vatan ozodligi yo‘lidagi kurash harakatining asosi deb bildilar. Ular musulmon mutaassibligiga qarama - qarshi ravishda diniy va dunyoviy ma’rifatparvarlik g‘oyalarini olg‘a surdilar. Shariat qoidalari, ”Qur’oni karim”ni yaxshi bilganlari uchun ham din peshvolari orasidagi qoloqlikka, ”Taraqqiyot islomga zid” degan aqida va tushunchalarga qarshi kurashdilar. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, jadidchilikning paydo bo‘lishiga avvalo islomdagi diniy-dunyoviylikning, taraqqiyotparvarlik va ilm-fan, shariat amallarining o‘rni katta bo‘ldi.

Jadidlarning dadil yangilik yaratishi, dunyoviylikni targ‘ib etishi uchun Payg‘ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vasallamning mana bu ikki hadisi - shariflari ma’naviy asos va kuch-quvvat bo‘ldi: ”Oxiratini deb dunyosini tark qilgan ham, dunyosini deb oxiratini tark qilgan ham sizlarning yaxshingiz emas...”, “Dinda o‘rtacha yo‘l tutinglar, o‘rtacha yo‘l tutinglar, o‘rtacha yo‘l tutinglar, chunki ushbu din amallarida kim og‘irlashtirib yuborsa uni amal yengib qo‘yadi”.

Xulosa shuki, birinchidan, jadidchilik islomdagi taraqqiyotparvarlik, ilm-fanga rag‘bat va dunyoviylikning yangi davrdagi ko‘rinishi sifatida paydo bo‘ldi. Jadidlar islomni har xil mutassiblik bidatlardan asrab rivojlantirdi. Ikkinchidan, jadidchilikni paydo bo‘lishi va rivojlanishiga

Sharq va G‘arb mamlakatlarida rivojlangan quyidagi demokratik, milliy-ozodlik, islohotchilik harakatlarining ta’siri ham kuchli bo‘ldi:

1. Jamoliddin Afg‘oniy (1839-1897) va Muhammad Abdolar (1848-1903) asos solgan musulmon dunyosidagi islohotchilik va “nahda” (uyg‘onish) harakatlari.

2. XIX asrning 90-yillaridan boshlanib, 1905-1907 va 1917 yillarda katta g‘alabalarga erishgan rus sotsial demokratik va inqilobiy harakatlari.

3. Turkiyadagi aksilmonarxistik, konstitutsion demokratik, ijtimoiy-milliy uyg‘onish harakatlari: Tanzimot (1840-1860), Yosh usmonlilar (1865-yildan 80-yillargacha), Yosh Turklar (1889-1918) va 1908-1909 yillardagi demokratik-inqilobiy harakatlar.

4. Jadidchilik harakatining paydo bo‘lib, rivojlanishida qrimlik Ismoilbek Gaspiralining (1851-1914) hissasi behad katta bo‘ldi. U Qrimda XIX asrning 80-yillardayoq, Rossiya bosib olgan musulmon xalqlari orasida birinchi bo‘lib jadidchilikka asos soldi. Uning rus va turkiy tillarda chop etilgan “Tarjimon” (1883-1914) gazetasi, “Rossiya musulmonligi” (1881), “Ovrupa madaniyatiga bir nazar muvozini» “ (1885) va boshqa asarlari hamda jadid maktabi uchun yozgan darslik va qo‘llanmalari Turkistonga tez kirib keldi.

Ismoilbek Gaspirali 1884-yilda “Tarjimon” gazetasi orqali musulmonlarga qarata shunday murojaat qiladi: “ Suyukli do‘stlarim, bizning uchun eng go‘zal ish ilm va maorif ishidir. Eng muqaddas intilish ilmga, maorifga intilishdir. Chunki insonni inson etgan mehnat va bilimdir. Bilim madaniy turmush (sivilizatsiya) ga yetishish vositasidir.”

I.Gaspirali 1884-yilda o‘n ikkita bolani yangicha usul-”usuli jadid”-savtiya (tovush) usuli bilan o‘qitib, qirq kunda savodini chiqaradi. Ular o‘qish va yozishni mukammal o‘zlashtira boshladilar. U 1892-yilda Turkiston general-gubernatori A.B. Vryovskiy[1]ga maxsus maktub yo‘llab, unda maktablarni isloh qilish, jadid maktablarini tashkil etish madrasalardan birini zamonaviy – dunyoviy oliy o‘quv yurtga moslab isloh qilishni taklif etadi. Ammo bu takliflar amalga oshmaydi. Shundan so‘ng Ismoilbek Gaspirali 1893-yilda Toshkentga keladi va ziyoli ulamolar bilan uchrashadi. Samarqandda bo‘ladi. U yerdan Buxoroga borib, amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko‘ndiradi va bu maktabga “Muzaffariya” degan nomni beradi. Jadidchilik g‘oyasi Turkistonda XIX asr 80-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab tarqalib, shu asrning 90- XX asrning 5-yili oralig‘ida muntazam ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy harakat sifatida shakllandi.

[1] Oldingi ko`pgina maqola va kitoblarda buning o`rnida Rozenbax ko`rsatilib, xatoga yo`l qo`yilgan muxarrir.

Jadidchilik harakati asosan ikki davrga bo‘linadi: 1) XIX asrning 90-yillaridan-1917 yil fevralgacha; 2) 1917 yil fevraldan-1929 yilgacha. Birinchi davrning o‘zi uch bosqichga bo‘linadi: 1) Jadidchilik g‘oyasining paydo bo‘lishi va muntazam uyushgan harakat shakliga ega bo‘lishi (XIX asrning 90-yillari-1905-yil); 2) Jadidchilik harakatining nisbatan tez va qarshiliksiz rivojlanishi (1905-1909-yillar); 3) Jadidchilikning chorizm tomonidan ozodlik, demokratik va inqilobiy harakatlarga qarshi kurashni kuchaytirgan davrdagi rivojlanishi (1909-1916-yillar). Ikkinchi davr ham voqealar rivojlanishiga qarab uch bosqichga bo‘linadi: 1) 1917-yil fevral-oktabr; 2) 1917 yil noyabr – 1924-yil; 3) 1925-1929-yillar.

Jadidlar maorifi. Jadidchilik harakati, shu vaqtgacha islom dunyosida sira ham ko‘rinmagan ilg‘or va tezkor o‘qitish “Savtiya” (tovush) usuliga asoslangan jadid maktablari tashkil topishidan boshlandi. Bu maktablarda bolalar bir yilda savod chiqarib, mukammal o‘qish va yozishni o‘zlashtiradi. Buning uchun esa qadim an’anaviy musulmon maktablarida 5-6 yil o‘qish kerak bo‘lar edi. Aytish mumkinki, “Savtiya” usulidagi jadid maktabi Vatanimiz tarixidagi buyuk kashfiyotlar silsilasini boyitdi.

Jadid maktabida diniy va dunyoviy ta’lim-tarbiya hamda ilm o‘zaro uyg‘unlashtirildi. Bolalar qulay partalarda o‘tirib, xarita va rasmlar yordamida tez savod chiqardi va diniy – dunyoviy ilmilarni o‘rgandi. Jadid maktablarida Qur’oni-karim, matematika, geografiya, ona tili, rus, arab tillari, ashula va hatto jismoniy tarbiya o‘qitila boshlandi.

Jadid maktablari to‘rt (boshlang‘ich) va yetti yillik edi. Masalan, Munavvarqori Abdurashidxonovning yetti yillik maktabini bitirgan yoshlar dunyoviy ilmlarni, rus tilini yaxshi o‘zlashtirgan holda jadid maktabida o‘qituvchi, maschitlarda imom bo‘lish, madrasa va hatto, xorijdagi dunyoviy oliy o‘quv yurtlarida o‘qish, savdo va boshqa korxonalarda kotib bo‘lib ishlash malakasiga ega bo‘lganlar. Bunday yetti yillik maktablar Toshkentdan tashqari, Qo‘qon, Samarqand kabi yirik shaharlarda ham ochiladi.

Jadid maktablari pullik edi. Har oyiga ota-onalar baholi qudrat, ellik tiyindan bir yarim so‘mgacha pul to‘ladi. Bu o‘rinda har ota-ona o‘zlarining boylik va kambag‘allik darajalarini shariat asosida belgilab pul beradilar. 35 foizgacha kambag‘al va nochorlarning bolalari tekin o‘qitildi. O‘ziga to‘q oilalar esa o‘z xohishi bilan uch so‘mdan va undan ham ko‘p pul bergan. Bulardan tashqari jadidlarning o‘zlari tashkil etgan xayriya jamiyatlari ham jadid maktablarini mablag‘ bilan ta’minlab turgan.

Jadid maktablarining ochilishiga rus amaldorlari, musulmon mutaassiblari qarshilik qiladilar. Jadidlar katta matonat va fidoyilik bilan eski maktablarga tegmay namuna sifatida jadid maktablarini tashkil etib, omma orasida katta obro‘ qozondilar. Jadid maktablari qat’iy nizom va dastur va darsliklarga asoslandi. Tarixda birinchi bo‘lib, jadidlar o‘quvchilarga kundalik, chorak va yillik baholar qo‘yishni joriy etdilar. O‘quvchilar sinfdan-sinfga o‘tish va bitirish uchun jamoatchilik oldida ochiq chorak, yillik va bitiruv imtihonlarini topshirganlar.

Maktab ochgan jadidlar dastur, qo‘llanma va darsliklarni ham o‘zlari yaratdilar. Sayidrasul Sayidazizovning “Ustodi avval”, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Tajvid” (Qur’onni qiroat bilan o‘qish usuliga oid qo‘llanma), “ Havoyiji diniya” (Shariat qonunlari to‘plami), “Yor yuzi”, “ Usuli hisob”, “Tarixi anbiyo”, “Tarixi islom”, Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” va “Ikkinchi muallim”, “Turkiy guliston yohud ahloq“, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Qisqacha umumiy geografiya”, “Bolalar maktubi”, “Islomning qisqacha tarixi”, “Amaliyoti islom”, “Aholi geografiyasiga kirish”, “Rossiyaning qisqacha geografiyasi” va boshqalar shular jumlasidandir.

Jadid maktablari ochilishi bilan ba’zi joylarda qadim maktablari bo‘shab qoldilar. Natijada eski va jadid maktabdorlari o‘rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar paydo bo‘ldi. Bunga mutaassib qozi, mulla va ulamolar ham qo‘shildilar.

Jadid maktablarining jami soni va ular qayerlarda ochilib faoliyat yuritganligi haqida hozircha to‘la ma’lumot yo‘q. Lekin 1903 yilda birgina Toshkentda 20 ta (shundan 2 tasi o‘rta), jadid maktablari bo‘lgan. Ma’lumki, 1909 yildan keyin jadid maktablari qattiq nazorat ostiga olinadi, arzimas bahonalar bilan yopiladi. Ularda o‘qitiladigan adabiyot va darsliklar “oxranka”ning diqqat markazida bo‘ladi. Jadid maktablari Buxoro, Samarqand, Toshkent, Andijon, Xiva, To‘qmoq, Yangi Marg‘ilon, Yeski Marg‘ilon, Kattaqo‘rg‘on, Qizil O‘rda, Turkiston, Chust, Chorjo‘y, Termiz, Marv shaharlarida ochiladi. Shuningdek, Juma (Samarqand viloyati), Qovunchi (Toshkent viloyati), To‘raqo‘rg‘on (Namangan viloyati), Po‘stindo‘z (Buxoro viloyati) kabi katta qishloqlarda ham jadid maktablari ochilgan. Jadid maktablari M.Behbudiyning yozishicha, 15-20 yil ichida jami Kavkaz mamlakatlari, Eron, Hind, Misr, Hijoz va boshqa joylarida ham joriy bo‘ldilar.

Jadidchilikning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda zamonaviy (yevropacha) oliy ta’limni yo‘lga qo‘yish bo‘ldi. Universitet tashkil etish

g‘oyasi Turkistonda ilk bor 1892 yilda Ismoilbek Gaspirali tomonidan olg‘a surildi. I. Gaspirali 1906-yilda, yana “Tarjimon” gazetasida to‘g‘ridan to‘g‘ri Buxoro amiri va Xiva xoniga murojaat qilib shunday deydi:

“Fuqoroyi islom sizlardan mol istamas, osh istamas. Din-”Qur’on”dan, jon-Xudodan. Siz davlatlik xonlardan aholiga ehson etiladigan narsa-nashri maorifga, taraqqiyot va kamolatga omil bo‘luvchi oliy darajalik maorif maktablaridir. Ko‘hna madrasalari ko‘p Buxoroi sharifda va Xivada endi biror dorilfununi islomiya ta’sis etmoq lozim. Bu dorilfununlarga bir daraja ilm olgan talaba qabul qilinib, tarix, jo‘g‘rofiya, kimyo, handasa, ilmi huquq, usuli idorayi davlat, ilmi iqtisod va boshqa lozim fanlar, turkiy, forsiy, rusiy va fransaviy tillar o‘rgatilsa... Ushbu dorilfununlarda muallim va mudarrislik qila oladigan ahli kamol bor”

Jadidlar oliy ta’limning asosi-universitet tashkil etish uchun Toshkent shahar Dumasidan ham foydalandilar. Munavvarqori, Fitrat, M. Behbudiy, U. Asadullaxo‘jayev va boshqa jadidlar milliy dunyoviy oliy ta’lim g‘oyasini o‘z asar va maqolalarida keng targ‘ibot-tashviqot qiladilar. Oliy ta’limga zamin yaratish uchun, jadid maktablarida dunyoviy ilmlar o‘qitildi, xorijga yoshlar o‘qishga yuborildi.

Dunyoviy hozirgi zamon oliy o‘quv yurti – universitetga asos solishga jadidlar faqat 1918-yilda Musulmon xalq dorulfununini tashkil etish bilan muvaffaq bo‘ldilar.

Umuman, jadidlar juda qisqa vaqt ichida butunlay yangi ya’ni jadid xalq maorifi tizimi ya’ni, hozirgi zamon xalq maorifi tizimiga asos soldilar.

Jadid matbuoti va jurnalistikasi. Jadidchilik harakatining ikkinchi bir muhim faoliyati milliy matbuot va jurnalistikasiga asos solish bo‘ldi. Turkiston jadidlari rus demokratik va inqilobiy harakatining yutuqlaridan ham samarali foydalandilar.

Zolim “oq poshsho” Nikolay II inqilobiy-demokratik harakat bosimi ostida 1905-yil 17-oktyabrda maxsus manifestga imzo chekib, demokratiya, matbuot va so‘z, har xil yig‘inlar o‘tkazish erkinligini joriy qilishga majbur bo‘ldi. Buni jadidlar katta quvonch bilan kutib oldilar.

Mana shundan so‘ng jadidlar millat himoyasi uchun jangovar qalqon va muazzam minbar bo‘lgan gazeta va jurnallarni tashkil etish uchun juda shaxdam kurashadilar.

Toshkentda Ismoil Obidiy “Taraqqiy” (1906), Munavvarqori Abdurashidxonov “Xurshid” (1906), Abdulla Avloniy “Shuhrat” (1907), Sayidkarim Sayidazimboyev “Tujjor” (1907), Ahmadjon Bektemirov

“Osiyo” (1908), Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev “Sadoi Turkiston” (1914-1915) gazetalari, shuningdek, Abdurahmon Sodiq o‘g‘li (Sayyox) “Al-Isloh” (1915) jurnalini nashr etishga muvaffaq bo‘ldilar. Samarqandda esa Muhmudxo‘ja Behbudiy “Samarqand” ruscha (1913) gazetasi va “Oyna” (1913-1915) jurnalini, Qo‘qonda Obidjon Mahmudov “Sadoi Farg‘ona” (1914) gazetalarini chiqardi. Bu gazeta va jurnallar doimo mahfiy politsiya “oxranka”ning ayg‘oqchilari kuzatuvi, ta’qibi ostida bo‘ldilar.

Jadid matbuoti 1917-yil fevralda rus podshosi taxtdan ag‘darilgach, yanada rivojlandi. Juda qisqa vaqt oralig‘ida fevraldan oktyabrgacha Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov “Najot” (1917 y. mart), A. Battol “Sho‘roi islom” (1917 y. may), Abdulla Avloniy “Turon” (1917 y.), Ahmad Zaki Validiy va Munavvarqori Abdurashidxonov “Kengash” (1917 yil iyun), “Ulug‘ Turkiston” (1917 y.), Qo‘qonda Bo‘lat Soliyev “Yel bayrog‘i” (1917 y. sentyabr) gazetalarini, H.H. Niyoziy “Kengash”, Ashurali Zohiriy “Yurt” (1917 yil iyun) jurnallarini, Samarqandda esa Shohmuhammadzoda “Hurriyat” (1917 yil aprel) gazetalarini chop etdilar.

Buyuk millatparvar jadidlar, jadid matbuoti orqali millatni o‘z madaniy-iqtisodiy ahvoli, siyosiy qaram va huquqsizligini anglatishga, unda bosqinchilarga qarshi nafrat, milliy istiqlolga ishonch ruhini tarbiyalashga muvaffaq bo‘ldilar. Shuning bilan birga ular milliy muxtoriyat va jumhuriyat g‘oyasini, millatlararo tenglik va qon-qarindoshlikni targ‘ibot qilishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yadilar.

Jadid adabiyoti va san’ati. Akademik A. N. Samoylovich jadid adabiyotini o‘rganib, 1916-yilda “Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi” deb yozgan edi. Darhaqiqat, olim uchun kutilgan “Yangi adabiyot”-jadid adabiyoti bo‘ldi. Bu adabiyot o‘z mazmun va mohiyati hamda janrlariga ko‘ra, ming yillar davomida shakllanib rivojlangan mumtoz adabiyotimizdan tubdan farqlanuvchi yangi adabiyot bo‘ldi.

1. Agar mumtoz adabiyotda dunyoviylikka nisbatan diniy jihat ustunroq bo‘lgan bo‘lsa, jadid adabiyotida bularning o‘rtasida o‘zaro tenglik ya’ni diniy-dunyoviylik qaror topdi.
2. Jadid adabiyoti mumtoz adabiyotdan farqli ravishda g‘arb adabiyotidagi roman, drama, esse, hikoya va barmoq vazniga asoslangan she’riyat (poetika) kabi badiiy janrlar ko‘rinishiga ega bo‘ldi. Proza va publitsistika paydo bo‘ldi.
3. Jadid adabiyoti bevosita ijtimoiy-siyosiy va ma’rifatchilik mafkurasi, milliy-ozodlik xususiyatiga ega bo‘ldi. Unda mazlum xalq hayoti bevosita

o‘z ifodasini topdi. Badiiy asarlar jonli xalq tilida yozildi. Ijtimoiy faollik va milliy ruh bu yangi adabiyotning eng muhim xususiyatiga aylandi.

4. Jadid adabiyotidagi badiiy-lirik qahramon qiyofasi mumtoz adabiyotdagi qahramon qiyofasidan tubdan o‘zgardi. U endi an’anaviy oshiq yohud ma’rifatparvargina emas, balki mavjud mustamlaka jamiyati tartib-qoidalari hamda milliy tengsizlik bilan kelisha olmaydigan, shu bilan birga yangicha o‘z ijtimoiy-siyosiy va ahloqiy qarashiga ega bo‘lgan shaxsdir.

Jadidchilik harakati jadid adabiyotining asoschilari bo‘lgan yirik iste’dod egalari-jadid adibi, shoiri, dramaturgi va san’ati arboblarini ham tarbiyaladi. Jadidshunos, taniqli olim, professor Begali Qosimovning ta’kidlashicha, ularning 1905-1917-yillarda adabiy-madaniy harakatchilikda qizg‘in faoliyat ko‘rsatganlari saksondan ortiq bo‘lgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919), Sayidahmad Siddiqiy Ajziy (1864-1927), Vasliy Samarqandiy (1869-1925), Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931), Abdulla Avloniy (1878-1934), To‘lagan Xo‘jamyorov-Tavallo (1882-1939), Sidqiy Xondayliqiy (1884-1934), Avaz O‘tar o‘g‘li (1884-1919), Muhammadsharif So‘fizoda (1869-1937), Abdurauf Fitrat (1886-1938), Sadriddin Ayniy (1878-1954), Abdulvohid Burxonov (1875-1934), Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929), Abdulla Qodiriy (1894-1938), Abdulhamid Cho‘lpon (1897-1938) va boshqalar shular jumlasidandir.

Jadid adabiyotida dramaturgiya ya’ni jadid dramasi eng sermahsul va ommabop janr sifatida alohida ko‘zga tashlanadi. Jadid g‘oyalarining xalqqa yoyilishi, singishi va amaliy natijalar berishida dramaturgiya va teatr san’atining ta’sir ko‘rsatishi kuchli bo‘ldi. Shuning uchun ham jadid adiblarining aksariyat yirik nomayondalari o‘z ijodiy-amaliy faoliyatini drama yozish va teatr bilan bog‘liq holda olib bordilar.

Mutaxassislarning aniqlashicha, 1917-yil oktabr to‘ntarilishigacha dramaturgiya sohasida o‘ttizdan ortiq drama, tragediya, komediya asarlari yozilgan va ularning ko‘pchiligi teatrlarda sahnalashtirilgan. O‘zbek jadid dramaturgiyasi va teatriga ilk bor asos solgan Mahmudxo‘ja Behbudiy bo‘ldi. Uning “Padarkush” dramasi birinchi bor 1914-yil 27-fevralda Toshkentdagi “Kolizey” teatrida qo‘yilishi juda katta madaniy-ma’rifiy voqea bo‘ldi. Bu kun o‘zbek teatriga asos solingan sana sifatida tarixga kirdi. Shunday qilib, milliy jadid adabiyoti dramaturgiyasi va teatri paydo bo‘ldi. Adabiy tanqidchilik va badiiy tarjimonchilik ham shakllandi.

Jadid xayriya va boshqa madaniy-ma’rifiy jamiyatlari. Har qanday harakatda bo‘lgani kabi bu harakat ham o‘z iqtisodiy asosiga ega.

Aks holda u, bu darajada rivojlanmagan bo‘lur edi. Uning iqtisodiy ta’minot manbaini madaniy-ma’rifiy xayriya jamiyatlari, boy-badavlat kishilar tomonidan savob olish va millat nufuzini ko‘tarish uchun berilgan beminnat ehsonlar tashkil etdi. Jadidchilik va jadidlar asosan o‘rta hol musulmon ziyolilari hamda dunyo ko‘rgan ilg‘or ruhdagi savdogarlardan iborat bo‘ldi. Toshkentlik Sayidkarim Sayidazimboy o‘g‘li, turkistonlik Sayidnosir Mirjalilov (taniqli yozuvchi Oybekning qaynotasi), andijonlik Mirkomil Mirmo‘minboyev va boshqa boylar jadidchilik harakati rivojlanishiga katta iqtisodiy hissa qo‘shdilar.

Jadidlar har xil xayriya jamg‘armalarini tashkil etish, boy va badavlat kishilarning ortiqcha mablag‘larini millat va Vatan manfaati yo‘lida sarflashga ham katta e’tibor berdilar.

Toshkentda 1909-yilda “Ko‘mak”, 1913-yilda «Dorilu ojizin», Buxoroda 1910-yilda “Tarbiyai atfol” xayriya jamiyatlari tashkil etiladi. Ularning oldiga qo‘yilgan asosiy maqsad sarmoya topib, jadid maktablariga yordam berish va iqtidorli yoshlarni Turkiya va boshqa xorijiy mamlakatlarga o‘qishga yuborishdan iborat bo‘ldi.

“Ko‘mak”ning ta’sischilari Munavvarqori Abdurashidxonov, Nizomqori Hasanov, Abdulla Avloniy, Basharulla Asadullaxo‘jayev va Toshxo‘ja Tuyoqboyevlar bo‘ldi. Bu va “Tarbiyai atfol”ning yordamida 1911-yilda 15 ta, 1912-yilda 30 ta turkistonlik iqtidorlik yoshlar Istanbulda o‘qiganligi haqida ma’lumot bor.

Jamiyat o‘z a’zolaridan tushadigan puldan tashqari har xil ishbilarmonlik yo‘llari bilan ham pul topadi. Masalan, gramofon jamiyati bilan kelishib, bir necha xalq hofizlari va o‘z tarbiyasidagi maktab bolalarining ashulalarini gramplastinkalarga yozdirib, sotish bilan, ularning har biridan o‘n tiyindan foyda oladi. 1913-yilda qo‘yilgan birgina spektakldan 600 so‘mga yaqin, Ramazon bayrami kuni “Tomosha kechasi” tashkil qilib esa, 1087 so‘m 17 tiyin foyda olinadi.

Musulmon jamiyati “Ko‘mak” ustavida kambag‘al o‘quvchi va yetim bolalar, qari va nogiron musulmonlarga ma’naviy hamda moddiy yordam berish, ularga boshpana, oshxona, kasalxona va ambulatoriya ochish, shuningdek, maktab o‘quvchilari va oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun nafaqa (stipendiya)lar ta’sis etish ko‘rsatilgan edi.

Toshkentda Munavvarqori, Abdulla Avloniy va boshqalar 1911-yilda tashkil etgan ko‘p tarmoqli “Turon” nomli jamiyat sovet hokimiyatining dastlabki yillarigacha samarali faoliyat yuritadi. Uning qoshida teatr truppasi (1913 y.), “Turon” nomli kutubxona va nashriyot (1913 y.) ham tashkil etiladi. Bular butun Turkiston bo‘ylab ma’rifat va

ziyo, ilm-fan tarqalishi, kitob chop etish va bosmaxona ishlari rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar.

Qo‘qonda “G‘ayrat” (1913 y.), Samarqandda “Zarafshon”, To‘raqo‘rg‘onda (Namangan viloyati) “Kutubxonayi Is’hoqiya” (1908 y.) nomli kutubxonalar tashkil topadi. Shuningdek, jadid bosmaxonasi va kitob do‘konlari ancha keng tarmoq otdi. **Jadidlarning 1916-yildagi xalq qo‘zg‘oloniga munosabati.** Jadidchilik aslida Vatan ozodligi va millat ravnaqi uchun kurashning tinch demokratik va madaniy-ma’rifiy, islohotchilik yo‘lini tanlaydi. Xalqni behuda qo‘zg‘olon ko‘tarib qon to‘kishdan saqlab, siyosiy tashkiliy uyushishga, aql-farosat bilan ish olib borishga chorlaydi. Shuning uchun ham ular 1916-yildagi umumxalq qo‘zg‘oloniga befarq bo‘lmadilar, xalq bilan birga bo‘lib, uni ko‘p qon to‘kishdan saqladilar. Sovet tarix fani jadidlarni qo‘zg‘olonda xalq tomonida emas, balki mustamlaka hukumati tomonida bo‘lgan deb noto‘g‘ri ko‘rsatib keldi.

Jadidlar qo‘zg‘olon ko‘tarib, o‘limga ham tayyor turgan xalqni tinchlantirib, yigitlarni tashkiliy uyushgan holda mardikorlikka yuborishga rahbarlik qiladilar. 15-avgustda Toshkent shahrida Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev raisligida maxsus qo‘mita tuzildi. Bu tashabbus boshqa joylarda ham amalga oshadi. Ular harbiy ma’muriyat bilan kelishgan holda ish olib boradilar. Samarqand viloyati harbiy gubernatori, general-mayor Likoshinning 759-raqamli ma’lumotiga ko‘ra, Jizzaxda 44 ta qishloqqa o‘t qo‘yilgan. Ularning ko‘pi butunlay, yonib-kul bo‘lgan.

Jizzax qo‘zg‘oloni haqida ma’lumot to‘plab, kitob yozmoqchi bo‘lgan va 1938-yilda “Milliy ittihod”ning a’zosi sifatida qamalib, qamoqxonada urib o‘ldirilgan Mamadiyor Allayorovning yozishicha, rus askarlari 40 kishini uyiga qamab, o‘t qo‘yib yuborgan.

Mardikorlikka yubormaslikning iloji yo‘qligini yaxshi bilgan jadidlar yigitlarni ijtimoiy biqiqlik va mutaassiblik muhitdan chiqib, o‘zga yurtlarda “ko‘zi ochilishi”ni ham nazarda tutdilar. Haqiqatan ham 1917-yildan keyin mardikorlikdan qaytgan yigitlarning ko‘pchiligi milliy-ozodlik kurashida va jadidchilik harakatida faollik ko‘rsatdilar. Jadidlar joylardagi noroziliklar evaziga chorizm amaldorlarini biroz yonberishga majbur etishga ham muvaffaq bo‘ldilar.

Andijon jamoatchiligi nomidan 1916-yil iyulda U.Asadullaxo‘jayev bilan Vadim Chaykin Sankt-Peterburgga borib, IV Davlat Dumasiga Turkistondagi xunrezlik va o‘zboshimchaliklardan shikoyat qiladi. Shundan so‘ng deputatlar Turkistondagi rus aholisi harbiy majburiyatdan

ozod qilingan bir paytda, mahalliy aholidan mardikorlikka olish siyosiy va iqtisodiy jihatdan xavfli ekanligi haqida harbiy vazir nomiga telegramma yuboradi. Podsho Nokolay II ham buni e'tiborga olgan holda mardikorlikka olish mudatini 15-sentyabrgacha kechiktirishga majbur bo‘ladi. A.N. Kuropatkinni esa Turkiston general-gubernatori qilib Toshkentga yuboradi. Uning bilan birga duma a'zolari Kerenskiy, Tavakkalov hamda M.Cho‘qayev, Sh.Z.Muhammadiyorov ham vaziyatni o‘rganish uchun o‘lkaga keladi.

Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev bergan ma'lumotlar asosida Kuropatkin o‘zini xalqchil qilib ko‘rsatish maqsadida ba'zi amaldorlarni ishdan oladi.

Shunday qilib, jadidlar xalq milliy-ozodlik harakatiga g‘oyaviy-mafkuraviy va tashkiliy rahbarlik qilishga muvaffaq bo‘ladi. Bu esa jadidchilik, bu davrga kelib Turkistonda katta ta'sirchan ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanganligidan dalolat beradi.

Jadidchilik harakati va rus ijtimoiy demokratik inqilobi. 1917-yil 27-fevralda Rossiya imperatori Nikolay II rus demokratik inqilobi tazyiqi ostida o‘z taxtidan voz kechdi. Bu bilan Rossiyadagi Romanovlar sulolasining uch yuz yillik monarxistik hokimiyati barham topadi. Davlat dumasi Muvaqqat hukumat tuzib, unga mamlakatni boshqarish va Ta'sis majlisini chaqirib hokimiyat masalasini uzil -kesil hal qilish vazifasini topshiradi.

Ikkinchi tomondan esa, bu sovet tarixida "burjua hukumati" deb nomlangan hukumatga qarama-qarshi ravishda inqilobiy harakatga rahbarlik qilayotgan sotsial-demokratik partiyalar joylarda ishchi, askar va dehqonlar deputatlari sovet (sho‘ro)larini tuzib, yangi hokimiyatning mahalliy joylardagi organlarini tashkil etdilar. Bu holat Rossiya bosib olgan barcha mamlakatlar qatori Turkistonda ham istiqlol uchun kurash avj olishiga sabab bo‘ldi. Jadidchilik harakatining hissasi milliy ozodlik uchun kurashda behad katta bo‘ldi.

Mahalliy xalq va jadidlar rus inqilobini faqat milliy istiqlolga erishish nuqtai nazaridangina qo‘llab-quvvatladilar. Turkistondagi inqilobiy harakatga asosan rus sotsial-demokratik partiyalari rahbarlik qildi. Inqilobning bosh shiori esa "Ozodlik, Tenglik va Birodarlik" edi. Jadidlar esa "Ozodlik, Tenglik va Adolat" degan shiorga amal qilar edi. Ular mana shu shior ostida milliy hokimiyat, milliy davlatchilikni tiklash uchun musulmon xalq ommasiga rahbarlik qildilar. Buning natijasi o‘laroq, Turkistonda Rossiyadagi kabi ikki hokimiyatchilik emas, balki quyidagi uch hokimiyatchilik paydo bo‘ldi:

1. Jadidlar tashkil etgan “Sho‘roi islomiya” va uning joylardagi sho`balari, Toshkentdagi Turkiston o‘lka musulmonlari markazi yoki ba’zi adabiyotlarda “Milliy markaz” deb nomlangan markaz;

2. Turkistondagi rus va askar (keyinroq dehqon) deputatlarining mahalliy va markaziy sovetlari;

3. Rossiya Muvaqqat hukumatining Turkiston Muvaqqat qo‘mitasi va uning viloyatlardagi bo‘limlari.

Rus imperatori o‘z taxtidan voz kechganligi haqidagi xabar yetib kelishi bilanoq, jadidlarning Toshkentdagi madaniy-ma’rifiy jamiyat “Turon” tezda siyosiy faollashdi. Uning tashabbusi bilan 1917-yil 6, 9 va 13 mart kunlari bo‘lib o‘tgan xalq yig‘inlarida mahalliy hokimiyat boshqaruvi masalasi muhokama qilinib, demokratik ruhdagi qarorlar qabul qilindi. 9 mart kuni Toshkentning Chorsudagi Jome masjidida 20 ming kishilik yig‘in bo‘lib, u Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev (rais), Munavvarqori (rais muovini), Islombek Xudoyorxonov (kotib)lar rahbarligida o‘tadi. Avvalo hurriyat qurbonlari ruhiga tilovat o‘qib, fotiha tortildi. Shundan so‘ng Eski shahar politsmeystri Kolesnikov bo‘shatilib, uning o‘rniga hokimiyat boshlig‘i etib, sobiq Qo‘qon xoni Xudoyorxon o‘g‘li Islombek Xudoyorxonov saylanadi.

6-martdagi yig‘ilishda jadidlar tomonidan shahar ijroiya qo‘mitasiga saylangan Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov va boshqalar qayta saylanadilar. Bu xalq qurultoyi maqomidagi yig‘inda rus ishchisi va askarlari sovetlariga o‘xshash mahalliy xalq boshqaruviga vakillar ham saylanadi. Keyinchalik bu vakillar yig‘ini Munavvarqori taklifi bilan Qur’oni Karimdagi «Sho‘ro» surasiga nisbatan “Sho‘roi islomiya” deb nomlanadi. Bu yig‘inda saylanganlarga yana qadimchilar norozi bo‘lganlari sababli 13-martda yana o‘sha Jome masjitida katta xalq yig‘ini o‘tkaziladi. Unga Munavvarqori, Abdulvohidqori, Saidrasul Mahmud Saidazizlardan iborat rayosat (prezidium) rahbarlik qiladi. Toshkent shahar Ijroiya qo‘mitasiga Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev Shayxontohur, Toshpo‘latbek Norbutabekov Ko‘kcha, Zayniddinxo‘ja Sarimsoqxo‘jayev Sebzor, Abdusafiyxon G‘anixon o‘g‘li Beshyog‘och dahalaridan vakil qilib saylanadi.

15-mart kuni “Sho‘roi islomiya” ning birinchi tashkiliy majlisi bo‘lib, unga Abdulvohid qori Abduraufqori o‘g‘li rayis, Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li esa muovin etib saylanadi. Keyinroq esa Abdulvohid qori Shayxontohur dahasiga qozi bo‘lib saylangach, 6-aprelda uning o‘rniga Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev saylanadi.

Aprelning boshlaridan boshlab “Sho‘roi islomiya”ning O‘sh, Andijon, Farg‘ona (Skobelev) Turkiston, Mari, Samarqand, Qo‘qon, Namangan va boshqa shaharlarda ham mahalliy sho`balari paydo bo‘ladi.

Bu siyosiy hokimiyat tashkilotlarining “Najot” (1917-yil mart), “Kengash” (1917-yil iyun), “Sho‘roi islom” (1917-yil 16-may Toshkent) “El bayrog‘i” (1917-yil sentyabr Qo‘qon), “Hurriyat” (1917-yil aprel Samarqand) kabi gazeta va jurnallari chop etilib, ular muxtoriyat, tenglik, erk va mustaqillik g‘oyalarini keng yoyadilar.

“Sho‘roi islomiya” mahalliy boshqaruv organi va milliy hukumat kurtagi sifatida o‘z faoliyatini asosan quyidagilarga qaratdi:

– Turkiston musulmonlari orasida siyosiy, ilmiy va ijtimoiy, iqtisodiy islohotlar o‘tkazish g‘oyalarini keng yoyish;
– Turkiston musulmonlarini yagona g‘oya, maslak va fikr asosida birlashtirish chora, tadbirlarini ko‘rmoq;
– Boshqa mamlakatning mustaqillik va demokratiyaga asoslangan boshqaruv idora usuli va shakllarini o‘rganish, ta’sis majlisini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish;
– Turkistonning hamma shahar, qishloq va ovullarida mitinglar o‘tkazilib, siyosiy, ijtimoiy xutba (ma’ruza)lar o‘qitish;
– Eski ma’muriy rahbarlarni yangilari bilan almashtirish yo‘llarini xalqqa tushuntirish;
– Turkistondagi barcha millat vakillari orasidagi eski ixtiloflarni bartaraf etish va bo‘lajak ixtiloflarning oldini olish;
– Turli millat va firqalar bilan a’loqada bo‘lib, musulmon xalqining talabini va o‘z vakillari orqali ma’lum qilmoq, zarur bo‘lganda esa ulardan yordam olmoq.

“Sho‘roi islomiya” tomonidan Toshkentda 16-23 aprelda Umum Turkiston musulmonlarining birinchi qurultoyi chaqiriladi. Unda quyidagi masalalar muhokama qilinadi: Muvaqqat hukumatga munosabat; Rossiyadagi boshqaruvning shakli haqida; Ta’sis majlisiga tayyorgarlik; Turkistonda mahalliy fuqarolarni boshqaruv idorasi; O‘lkadagi diniy-shariat muassasalarni yangilash; diniy mahkama boshqarmasini tashkil etish; Oziq-ovqat, urushga munosabat; Urush ortida ishlayotgan mardikorlar; “Sho‘roi islomiya”ning o‘lka markaziy tashkilotini tashkil etish; “Sho‘roi islomiya”ning ijroiya qo‘mitalariga munosabat; Umumrossiya musulmonlari syezdiga delegatlar saylash; yer-suv masalasi.

Qurultoy Rossiya konstitutsiyasini qayta ishlash, Rossiya Federativ Demokratik Respublikasi tarkibida milliy-hududiy-federativ demokratik

respublika tashkil etish haqida qarorlar qabul qiladi. Shuningdek, qurultoy Turkiston o‘lka musulmonlarining Markaziy sho‘rosini ta’sis etadi. Unga Mustafo Cho‘qayev rais, Zaki Validiy To‘g‘on kotib etib, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Islom Shohiahmedov va boshqalar rayosat a’zosi bo‘lib saylanadilar. Qurultoyda qatnashgan rus firqalari vakillari ham muxtoriyat masalasini qo‘llab-quvatlaydilar. 12-iyunda Turkiston musulmonlarining o‘lka Markaziy sho‘rosi (Milliy markazi) majlisi bo‘lib, unda uning Nizomi qabul qilinadi.

Milliy hokimiyat uchun kurash avj olgan bir paytda jadidlar bilan eski ulamolar o‘rtasida kelishmovchilik juda keskin tus oladi. Ulamolar 1917-yil iyunda “Sho‘roi islomiya” dan ajralib chiqib, “Sho‘roi ulamo” ni tashkil etadilar. Bu bilan ular milliy manfaat va demokratik harakatga xiyonat qiladilar.

“Sho‘roi ulamo” tashkiloti o‘zining “Al-Izoh” jurnalini ham tashkil etadi. Bu jurnalda mutaassiblik bilan taraqqiyotparvarlikka oid maqolalar ham bosilib turadi. Ulamochilar ham milliy istiqlol tarafdori edi. Lekin ular jadidlardagi dunyoviylik bilan kelisha olmay, jadidlarni shariatga xiyonat qilishda nohaq aybladilar.

Jadidlar bilan ulamolar o‘rtasida kelishmovchilik Toshkent shahar Dumasidagi deputatlar orasida ham kuchli bo‘ldi.

Sentabr oyining boshlariga kelib, bolsheviklar ta’sirida rus va ishchi askar sovetlari Toshkentda hokimiyatni o‘z qo‘liga kiritish yo‘lida mahalliy xalq manfaatini xaspo‘shlashi hokimiyat uchun kurash masalasini juda murakkablashtirib yubordi. Shuning uchun ham jadidlar tashabbusi 1917-yil 7-11 sentabrida bo‘lib o‘tgan Turkiston musulmonlarining ikkinchi o‘lka quriltoyida ko‘rilgan asosiy masala mahalliy hokimiyatni tashkil etish masalasi bo‘ldi.

Qabul qilingan qarorda, umumxalq manfaatini to‘la ifoda etuvchi koalitsion hukumat tuzish g‘oyasi olg‘a suriladi. Bu to‘g‘rida “Turkestanskiye vedomosti” gazetasi shunday deb yozadi: “Turkiston musulmonlarining ikkinchi o‘lka qurultoyi hokimiyat ishchi va dehqon deputatlari sovetlariga berilishiga qarshilik bildiradi. Hokimiyat koalitsion ya’ni umumxalq hokimiyati bo‘lmog‘i va mamlakatdagi barcha kuchlarga suyanmog‘i lozim” (1917-yili 13-sentabr).

Qurultoy bolsheviklarning “Butun hokimiyat sovetlarga!” degan shioriga nisbatan jiddiy norozilik bildiradi. Koalitsion hukumat masalasini Turkistondagi ko‘pchilik rusiyzabon aholi va sotsial-demokratik partiyalar ham qo‘llab-quvvatlaydilar.

Jadidchilik harakatining so‘l qanotiga aylangan “Sho‘roi ulamo” namoyondalari ham bolsheviklarning hokimiyat masalasidagi bir tomonlama sinfiy qarashlariga Toshkentda (17-20-sentabrda) Turkiston va Qozog‘iston musulmonlarining qurultoyini chaqirib qattiq zarba beradi. Ushbu qurultoy quyidagi qarorlarni qabul qiladi:

1. “Sho‘roi Islomiya”, “Sho‘roi Ulomo”, “Turon”,va boshqa Turkiston va Qozog‘istondagi hamma musulmon tashkilotlarini birlashtiruvchi “Ittifoqi-ul-musulimin” partiyasini tashkil etish.

2. Rossiya demokratik respublikasi tarkibiga kiruvchi Turkiston Federativ Respublikasini tashkil etish.

Turkiston Federativ respublikasining tarkibi 12 kishilik Turkiston o‘lka qo‘mitasi, 5 yillik muddatga saylanuvchi “Mahkami sha’riya” (Parlament) hamda “Shayxul islom” (Bosh prokuror) dan iborat bo‘lishi belgilanadi.

Qurultoy hokimiyat to‘g‘risida quyidagicha qaror qabul qildi: “Turkiston o‘lkasining 98 foiz nufuzini tashkil etuvchi 10 million musulmon rus inqilobi e’lon qilgan Hurriyat, Tenglik, Birodarlik asoslarida milliy-madaniy muxtoriyat huquqiga mutloq ravishda ega, mahalliy hokimiyat birinchi navbatda musulmon vakillaridan, ham ma’lum miqdorda boshqa siyosiy tashkilotlar vakillaridan tashkil topib, ta’sis etiluvi lozim. Hokimiyatning tasodifiy yerli aholi manfaatiga yot bo‘lgan kichik guruhlardan tuzilgan ishchi, askar va dehqon tashkilotlarining qo‘lida jamlanuvi xalqchillik asoslariga ziddir va mahalliy musulmon xalqiga odil hayot tuzumini ta’minlab beruvi amri maholdir.”

Qurultoyda ocharchilik xavfining oldini olish uchun 1917 yilda 50 foizga qisqartirilgan paxta maydoni butunlay tugatilib, hamma yerga faqat bug‘doy va boshqa don ekilishi alohida ko‘rsatildi.

O‘lka musulmonlari markaziy sho‘rosi-”Sho‘roi islomiya” (Milliy markaz) Toshkentda hokimiyatni bolsheviklar bosib olishga tayyorgarlik ko‘rayotganligidan tashvishlanib, hokimiyatni qanday yo‘l bilan bo‘lsa-da, qo‘lga kiritish uchun bor imkoniyatlardan foydalanishga harakat qiladi.

Jadidchilik harakati juda qisqa muddatda, ayniqsa, rus fevral inqilobi g‘alabasidan so‘ng, eng ta’sirchan ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma’rifiy kuchga aylandi. U millatda ijtimoiy-siyosiy ongni uyg‘otishga, istiqlolga ishonch ruhini tarbiyalashga muvaffaq bo‘ldi.

Bu darvga kelib jadidlar nafaqat musulmon balki, rusizabon xalq orasida ham rahbar kuch sifatida katta nufuz va obro‘-e’tiborga ega bo‘ldi.

Ular milliy demokratik va ozodlik harakatlariga rahbarlik qildilar. Demokratik inqilob g‘alabasidan so‘ng to‘la demokratlashgan Rossiya tarkibida demokratik Milliy Muxtoriyat hukumatni tashkil etib, milliy davlatchilikni tiklash uchun jadidlar omma orasida tashkiliy-targ‘ibot ishlarini jonlantirdi. Buni rusiyzabon xalqlar va ko‘pchilik rus sotsial-demokratik partiya va tashkilotlar ham qo‘llab-quvvatladilar.

Xulosa shuki, jadidlarning jasoratli va zahmatli, bunyodkorlik va islohotchilik buyuk ijodiy –ma’rifiy mehnatlari samarasi o‘laroq, XX asr boshlariga kelib, Turkistonda tarixan haqiqiy Milliy Uyg‘onish (Renessans) hodisasi (davri) paydo bo‘ldi. Bu davrni ikkinchi bir ma’noda jadidlar Renessansi (uyg‘onishi) deb aytish ham haqiqatga to‘g‘ri keladi.

Milliy Uyg‘onish yoki jadidlar Renessansi hodisasi tarixiy taraqqiyotning so‘nggi bosqichidagi uchinchi uyg‘onishi bo‘ldi. U oldingi IX-XII va XIV-XV asrlardagi ikki buyuk Uyg‘onishlarning tarixan qonuniy davomi sifatida yuz berdi. Lekin ulardan farqli ravishda aniq milliylik xususiyati va diniy-dunyoviylik mazmun hamda mohiyatga ega bo‘ldi.

Shuningdek, yuqoridagi mana shu o‘zlariga xos va moslik bilan birga, bu uch Uyg‘onishda o‘zaro umumiylik ya’ni tarixiy bag‘rikenglik ham mavjuddir. Avvalo, Milliy Uyg‘onish bilan oldingilarning orasida birinchisidan 12-9, ikkinchisidan 7-6 asrlar farq bo‘lsa-da, ulardagi umumiylik din bilan dunyoviylik o‘rtasida o‘zaro mo`tadil uyg‘unlik munosabati hukmron bo‘ldi. Ikkinchidan, birinchi Uyg‘onish qadim antik dunyo madaniyatini «uyg‘otib, tiriltirilgan» bo‘lsa, ikkinchi Uyg‘onish shu birinchi uyg‘onishni qayta uyg‘otdi. Jadidlar esa bu tarixiy an’anani davom ettirdi. Oldingi ikki Islomiy uyg‘onishlarni «tiriltirib», «qayta uyg‘otib», ularni XX asr dunyo tamadduni (tsivivlizatsiyasi)ga moslab yanada takomil toptirdi.

Muborak istiqlol yillarida tarix fani va ayniqsa, jadidshunos adabiyotchi katta olim Begali Qosimov yaratgan jadidshunoslik ilmiy maktabining so‘nggi xulosasi, qo‘lga kiritgan yutuqlari mana shu yuqoridagilardan iborat bo‘ldi. Shuni ham aytish joizki, jadidchilik harakati davrida o‘z mazmun va mohiyati hamda ko‘rinishiga ko‘ra Milliy Uyg‘onish davri bo‘lganligini o‘z vaqtida jadidlarning o‘zlari ham qayd etgan edi. Masalan, Mirmuxsin Shermuhammedovning «Turkiston boboyi» (1916 y.) maqolasi, Laziz Aslzodaning «Turkistonning milliy uyg‘onishi tarixi» asari va Vodud Mahmud ham o‘z maqolalarida «uyg‘onish» so‘zlarini ishlatgani bunga misoldir.

Turkistondagi Milliy Uyg‘onish – jadidlar Renessansini xorijdagi olimlar ham tan olib, o‘z asarlarida bunga amal qilmoqdalar. Shu o‘rinda yapon olimi Xisa Komatsu o‘zining «Chig‘atoy gurungi»da «Turk dunyosini uyg‘otish yo‘lida jon tikkan adiblar» iborasini ishlatilishi va nemis olimasi Ingobarg ham Turkiston uyg‘onishi haqidagi yozganini eslash kifoyadir. Shuningdek, O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov jadidlar Uyg‘onish davriga asos solganligini e’tirof etgan holda shunday deydi: «XX asr boshida, mustamlakachilik zulmiga qaramay, xalqimiz yangi ufqlarga – milliy va erkinlik sari intilib yashashgan bir davrda buyuk ajdodlarimiz – jadidlar tomonidan amalga oshirilgan bu ulkan ish, bu harakatni o‘ziga xos ma’naviy jasorat namunasi, deb atash mumkin».

Haqiqatan ham jadidlar yuqorida ko‘rsatib o‘tilganligi va musulmon mutaassibligi kuchli bo‘lishiga qaramay jamiyatda tub madaniy – taraqqiy burilishi yasashga muvaffaq bo‘ldilar. Turkistonda milliy tafakkur o‘zgardi, millat ijtimoiy g‘aflat uyqusidan uyg‘onib siyosiy va ma’rifiylashdi. Millat adabiyoti yangilandi, milliy teatr maorif va maktab, matbuot, madaniy-ma’rifiy uyushma (jamiyat) va siyosiy partiyalar paydo bo‘ldi.

Bularning samarasi ila butunlay yangi, ya’ni jadid madaniyati rivoj topdi. Bu madaniyat hozirgi zamonaviy madaniyatimizning poydevor toshi bo‘ldi.

IV. O‘zbekiston sovetlar hukmronligi davrida

13-mavzu. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o‘rnatilishi va unga qarshi qurolli harakat

1917-yil fevral inqilobining Turkistonga ta’siri. Muxtoriyatchilik harakati

1917-yil 27-fevralda Petrogradda bo‘lgan demokratik inqilob Turkiston o‘lkasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Turkistonda yangi jamiyat kurtaklarini shakllantirish uchun harakat boshlanib ketdi. Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida o‘lka muxtoriyati masalasi asosiy masala bo‘lib qoldi. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish g‘oyasi nafaqat demokratik ziyolilar orasida, hatto oddiy xalq o‘rtasida ham ancha ommalashgan edi.

1917-yilning mart-aprel oylari o‘lkaning siyosiy uyg‘onishida burilish davri bo‘ldi. Turkiston jadidlari, milliy ziyolilari va islom ulamolarining yetakchilari bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919),

Munavvar Qori (1878-1931), Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev (Ubaydulla Xo‘jayev; 1882-1938), Fitrat (1886-1938), Fayzulla Xo‘jayev (1896-1938), Sadriddin Ayniy (1878-1954), Abdulvohid Burhonov (1875-1934), Mustafo Cho‘qay (1886-1941), Muhammadjon Tinishboyev (1879-1939), Sherali Lapin (1868-1919), Ahmad Zakiy Validiy (1890-1970), Obidjon Mahmudov (1858-1936) o‘lkada yangi tashkil qilingan “Sho‘roi Islomiya” (1917 yil mart), “Sho‘roi Ulamo” (1917 yil iyun), “Turon” jamiyatlari va “Turk adami Markaziyat (federalistlar) firqasi” (1917 yil iyul), “Ittifoqi muslimin” (1917 yil sentyabr) siyosiy partiyalarining tuzilishida muhim rol o‘ynadilar.

1917-yil 7-aprelda Petrograddagi Muvaqqat hukumat qarori bilan kadet N.N.Shchepkin rayisligida Muvaqqat hukumatning Turkiston Komiteti tashkil qilindi. Komitet tarkibiga 9 kishi kirgan bo‘lib, ularning to‘rttasi: Alixon Bukeyxonov, M.Tinishboyev, Sadri Maqsudov, A. Davletshinlar turkiy xalqlar vakillari edi. Keyinchalik Turkiston Komitetining tarkibi o‘zgartirildi.

Jadidchilik 1917-yilda ma’rifatchilik harakatidan siyosiy harakat darajasiga allaqachon ko‘tarilgan edi. O‘sha 1917-yilning o‘zida to‘rt marta Butunturkiston musulmonlari qurultoyi o‘tkazildi. 1917-yil 16-23 aprelda Toshkentda bo‘lgan I-qurultoyda demokratik Rossiya tarkibida Turkiston Muxtoriyatini tashkil etish g‘oyasi olg‘a surildi. Bu g‘oya Turkiston xalqlarining o‘z milliy davlatchiligini tiklash yo‘lidagi dastlabki qadami edi.

Butunturkiston musulmonlari I qurultoyining so‘nggi majlisida Markaziy rahbar organ-Turkiston o‘lka musulmonlari Kengashi (Kraymussovet) tashkil etilishi haqida qaror qabul qilindi. Uni tuzishdan asosiy maqsad milliy ozodlik harakatiga tashkiliy va markazlashtirilgan xususiyat kasb etish uchun bir-biri bilan tarqoq aloqada bo‘lgan jamiyat, qo‘mita va ittifoqlarni birlashtirish edi. Turkiston musulmonlari Markazi Kengashiga Mustafo Cho‘qay rayis, Validiy bosh kotib, Munavvar Qori, Behbudiy, U.Xo‘jayev, O.Mahmudov, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Islom Shoahmedov va boshqalar a’zo qilib saylandi. Munavvar Qori va Sadriddinxon Sharifxo‘ja Qozi o‘g‘li boshchiligida Toshkent qo‘mitasi tuzildi. Shuningdek, Behbudiy rahbarligida Samarqand va Nosirxon to‘ra yetakchiligida Farg‘ona bo‘limi ham tashkil topdi. Markaziy sho‘roning organi sifatida “Najot” (muharriri-Munavvar Qori), keyinchalik “Kengash” (muharriri-Validiy) gazetalari chiqa boshladi. Shuningdek, 1917 yilda nashr qilingan “Ulug‘ Turkiston”, “Turon” gazetalarida muxtoriyatchilik g‘oyasi bilan sug‘orilgan maqolalar chop qilindi.

Shunday qilib, 1917-yil bahorida Turkistonning birligi va yaxlitligi tomon muhim qadam tashlandi. Tarixda ilk marta Butunturkiston miqyosida musulmonlar qurultoyi chaqirilib, unda tub xalqlarning muxtoriyat tomon qat'iy intilishi, o'z an'analari, urf-odatlari va turmush tarzini izchil turib himoya qilishi aytildi. Bu manfaatlarning ifodachisi bo'lgan Milliy Markaz - Turkiston musulmonlari Markaziy Kengashi tashkil etildi.

Afsuski, birlashish jarayonlari har doim ham bir tekis rivojlanmadi. Asr boshidan buyon davom etayotgan "jadid-qadim" nizolari demokratik harakat saflarida parchalanish yuz berishiga olib keldi. Ma'lumki, 1917-yil 14-martda Toshkentda "Sho'roi Islomiya" tashkil topgan edi. Aksariyati jadidlardan iborat bu tashkilot a'zolari Turkiston mustaqilligi uchun kurash olib bordilar. 1917-yil iyun oyida Munavvar Qori boshchiligidagi "Sho'roi Islomiya" tashkilotidan "Sho'roi Ulamo" ajralib chiqdi. Sherali Lapin uning Toshkent shu'basiga asos soldi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, Qo'qon shahrida ham "Sho'roi Ulamo" jamiyati tuzildi. Lekin ikki jamiyat o'rtasida g'oyaviy kelishmovchiliklar mavjud bo'lib, ular bir-biri bilan kelisha olmasdilar. Chunki "Sho'roi Ulamo" jamiyati o'z dasturida islom dinining an'anaviy asoslari bo'yicha ish ko'rishini ma'lum qilsa-da, aslida Lapin boshchiligidagi Toshkent ulamochilari avval rus monarxiyasi, so'ngra bolshevizm g'oyalari bilan o'z xarakatlarini muvofiqlashtirishga behuda urindilar. "Sho'roi Ulamo" jamiyati o'z maqsadlari targ'iboti uchun "Al - Izoh" jurnalini chiqara boshladi (muharriri-Abdumalik hoji Nabiyev). Har ikki jamiyat o'rtasida g'oyaviy kurash, xususan, matbuot sahifalarida avj olib ketdi.

1917-yil 10-sentabrda Toshkentda Butunturkiston musulmonlarining II qurultoyi ochildi. "Sho'roi Islomiya" tashabbusi bilan chaqirilgan ushbu qurultoy hokimiyatni ishchi, soldat va dexqon deputatlari Sovetlariga berishga qarshi chiqdi. Ushbu qurultoyda qabul qilingan rezolyutsiyalarda milliy demokratiya o'zi tutadigan yo'lning muhim asoslarini birinchi marta qat'iy qilib aytdi: hukumat demokratik siyosat yurgizadigan bo'lsa, ana shundagina musulmonlar bu hukumatda ishtirok etadilar. Ikkinchi qurultoyda faqat Milliy Markaz-Turkiston musulmonlari Markaziy Kengashi mintaqadagi tub yerli aholi manfaatlarini himoya qilishi mumkin degan fikr qat'iy qilib qo'yildi.

1917-yil 20-sentabrda Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston va Qozog'iston musulmonlarining qurultoyi "ulamochilar" bilan "sho'roi islomchilar" o'rtasidagi uzoq va qizg'in baxslarga qaramay, nihoyat, kelishish va murosa yo'lini topdi. Qurultoyda "Sho'roi Islomiya",

“Sho‘roi Ulamo”, “Turon” va boshqa siyosiy tashkilotlarni birlashtirish yo‘li bilan butun Turkiston mintaqasi uchun umumiy bo‘lgan “Ittifoqi muslimin” degan siyosiy partiya tuzishga qaror qilindi.

Qurultoy ishidagi asosiy masala Turkiston o‘lkasining bo‘lajak siyosiy tuzumini belgilash edi. O‘sha paytda Toshkentda nashr qilingan “Ulug‘ Turkiston” gazetasida yozilishicha, “Qurultoy Mulla Muhammadxo‘ja eshon va Mulla Siddiqxo‘ja eshonlarning boshqaruv shakli haqida”gi nutqlarini tinglab, duoyu ijobat ila Turkiston Muxtoriyatini tayin etishga jazm qildi. Qurultoy muxtoriyatga “Turkiston Federativ Respublikasi” degan nomni qo‘yib, parlament respublikasi asosida tuzilajak bo‘lg‘usi davlat tuzumining bosh tamoyil va me’yorlarini belgilab berdi.

Shu tarzda Turkistonda muxtoriyat hukumati yuzaga kelmasdan ancha oldin jamiyatning keng qatlamlari vakillari, ilg‘or ziyolilar bu harakatda faol qatnashib, uning poydevorini yaratishga zamin hozirladilar.

Oktabr to‘ntarishi. Turkistonda sovet tuzumining o‘rnatilishi, bolsheviklarning mustamlaka va shovinistik siyosati

1917-yil 25-oktabrda (yangi sana bilan 7 noyabrda) qurol kuchiga tayangan V.I.Lenin boshchiligidagi bolsheviklar (kommunistlar) Petrogradda Muvaqqat hukumatni ag‘darib tashlab, hokimiyatni zo‘ravonlik yo‘li bilan egallashdilar. Rossiyaning markazida yuz bergan voqealarning aks-sadosi oradan ko‘p o‘tmay Turkistonga ham yetib keldi.

28-oktabrda Toshkentning yangi shaharida rus ishchilari va soldatlari bolsheviklarning qutqusi bilan qurolli to‘qnashuvlarni boshlab yuborishdi. Ular general Korovichenko qismlaridan ustun keldilar. 1 noyabrda Korovichenko va Muvaqqat hukumatning Turkiston Ko‘mitasi qamoqqa olindi. Toshkentda zo‘ravonlik yo‘li bilan sovet hokimiyati o‘rnatildi.

Hujjatlarning guvohlik berishicha, 1917-yilning kuziga kelib, o‘lka shaharlari, viloyatlari va uyezdlarida aholining hokimiyatni sovetlarga o‘tishini talab qiluvchi faol chiqishlari kuzatilmagan. Aksincha, joylardan kelib turgan xabarlar va telegrammalarda Muvaqqat hukumatni qo‘llab-quvvatlash haqida gapirilar ekan, bolsheviklar va boshqa bosqinchilarning hokimiyatni sovetlarga berish haqidagi talablari fosh etilar, mamlakat taqdirini hal qiladigan Ta’sis Majlisini chaqirish g‘oyasi qo‘llab-quvvatlanardi.

Demak, 1917-yil noyabr oyining boshida bolsheviklar faqatgina qurol kuchiga tayangan holda Toshkent shahrida hokimiyatni qo‘lga kiritishdi. Bu holni arxivlarda saqlanib qolgan o‘sha davrga oid ko‘plab rasmiy hujjatlar ham isbotlaydi. Turkiston respublikasi rahbarlarida biri keyinchalik quyidagi fikrni e’tirof etishga majbur bo‘lgan edi: ”Turkiston bir necha o‘n yillar mobaynida chorizm mustamlakasi bo‘lib keldi va bu hol barcha ijtimoiy kayfiyat va munosabatlarda o‘zining o‘chmas muhrini qoldirdi. Samoderjaviye tomonidan olib borilgan mustamlakachilik kayfiyati va siyosati amaldorlar va xizmatchi unsurlardan tashqari hatto, rus temir yo‘lchilariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan edi. Shundan ma’lumki to‘ntarish ham, sovet hokimiyatini ham bu yerda faqat rus kishilari amalga oshirdi. Tub aholidan esa, mustamlakachi hokimiyatga aloqador kishilargina, unda qatnashishi mumkin bo‘lib, tub aholining qolgan qismi uchun bu g‘oyalar begona va tushunarsiz edi”.

1917-yil 15-22 noyabrda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan O‘lka rus ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarining III syezdida 15 kishidan iborat hukumat-Turkiston o‘lkasi Xalq Komissarlari Soveti tuzildi. Unda 8 o‘rin so‘l eserlarga, 7 o‘rin bolsheviklar bilan maksimalistlarga berildi. Biroq hukumat faqat rusiyzabon yevropaliklardan iborat bo‘ldi. Turkiston Xalq Komissarlari soveti (XKS) raisi lavozimini kasbi chizmachi bo‘lgan bolshevik F. Kolesov egalladi. Harbiy komissar qilib, izvoshchi Perfilyev, boshqa komissarlik lavozimlariga ham shunga o‘xshash kelgindilar tayinlandilar. Hukumat tarkibiga tub aholi vakillaridan bitta ham vakil kiritilmadi. Bu tasodifiy hol emas edi, albatta.

Turkistonda so‘l inqilobiy siyosiy guruhlar, ularning namoyandalaridan tuzilgan hukumat, birinchi galda bolsheviklar mohiyatan chorizm mustamlakachilik siyosatiga amal qildilar. Shu bilan birga Oktabr to‘ntarishidan keyin Rossiyada bo‘lgani singari, Turkistonda ham inqilobiy aqidalarga, eng avvalo sinfiylik tamoyillariga amal qilindi. Mulkdorlar ekspluatator va ezuvchilar; Milliy ziyolilar, o‘qimishli, obro‘-e’tiborli xalq vakillari-milliy burjuaziya korchalonlari va malaylari; Islom dini rahnamolari-reaksion oqim deb, ularga qarshi ayovsiz kurash boshlab yuborildi.

Turkiston o‘lkasidagi dastlabki sovet hukumatining ziddiyatli tarkibi mintaqada yevropalik aholi hukmronligini mustahkamlashga qaratilgan edi. Yo‘qotilishi intizorlik bilan kutilgan mustamlakachilik, yangicha asosda boshlanib ketdi. “Turkistondagi mustamlakachilik hatto, sovet hokimiyati taraqqiyotining butun bir yo‘nalishini belgilab berdi”,-deb keyinchalik tan olgan edi G. Safarov.

Mahalliy millatlarni siyosiy jarayonga aralashtirilmaganligi o‘lka xalqlarining sovet hokimiyatiga bo‘lgan ishonchsizligini yanada kuchaytirdi. Hatto, Turkistondagi rus aholisining demokratik qatlamlari ham bolsheviklar va so‘l eserlarning bunday makkorona siyosatiga qarshi chiqdilar. Hukumat tuzishda ulug‘ davlatchilik shovinizmi aqidalariga amal qilinganligi yangi hokimiyatning siyosiy faoliyatini oldindan belgilab berdi.

Hokimiyat bolsheviklar qo‘liga o‘tishi bilan o‘lkada Muvaqqat hukumatning barcha bo‘g‘inlari tugatilib, o‘rniga avvalo jazo organlari va sovet boshqaruv tizimi o‘rnatildi. Bu tasodifiy hol bo‘lmagan. Bolsheviklar hukmronligi zo‘ravonlik o‘rnatilgandagina saqlanib qolishi mumkin edi. Shuning uchun ham, Turkiston XKS 1917-yil 28 noyabrda o‘lkada qizil gvardiya bo‘linmalarini tuzish haqida qaror qabul qiladi. Bu bo‘linmalar sovet tuzumi va bolsheviklarga qarshi ko‘tarilgan dastlabki ongli chiqishlarni bostirishda faol ishtirok qildilar. Shu vaqtning o‘zida Butunrossiya Favqulodda komissiyasi (cheka) organlari va Inqilobiy tribunallar tashkil etildi. Proletariat diktaturasining bu jazo organlari ozodlik va demokratiyani bo‘g‘ishda, to‘g‘ri fikrlaydigan kishilarni qatag‘on qilishda muhim qurol bo‘ldi va Vatanimizning tarixida o‘zining mash’um asoratlarini qoldirdi.

Turkiston XKS 1917-yil oxirlarida o‘z qarori bilan “Sho‘roi Islomiya” va boshqa mahalliy demokratik tashkilotlarni tarqatib yubordi. Bu tashkilotlarning rahbarlari keyinchalik Turkiston Muxtoriyati hukumatiga qo‘shildilar, ayrimlari sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatiga g‘oyaviy rahnamolik qildilar. Shunisi xarakterliki, “Sho‘roi Ulamo” tashkilotining Toshkent sho`basi faqat 1918 yil 13 mayda yopildi.

Shunday qilib, dastavval Rossiya markazida qaror topgan sovet tuzumi Turkistonda ham o‘rnatildi. Zo‘ravonlik va xalqlarni ezishga qaratilgan sovet siyosati o‘zining ilk kunlaridan boshlab, Turkistondagi tub xalqlarga nisbatan mustamlakachilik zulmini yuritdi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik tizimi sovet Rossiyasi davrida yanada takomillashtirildi.

Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning faoliyati

Siyosiy partiyalar tuzilishi, ular tomonidan dasturiy xujjatlar qabul qilinishi Turkistonda milliy harakatning keng quloch yoyganidan dalolat berardi. Biroq, yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek Sank-Peterburgdagi oktyabr to‘ntarishi oqibatida 1917 yil oktyabr-noyabr oylarida Turkiston

o‘lkasida, xususan, Toshkent va Qo‘qonda yuz bergan voqealar milliy ozodlik harakatini kuchayib ketishga majbur qildi.

1917 yil 26-28 noyabrda (yangi hisob bilan 9-11 dekabrda) Qo‘qon shahrida Turkiston o‘lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Qurultoy ishining butun tafsilotlarini (jadidlar) o‘sha davr gazetalarida tarix uchun muhrlab qo‘ydilar.

Mustafo Cho‘qay qurultoyni ochar ekan, Rossiya va Turkistonning siyosiy va iqtisodiy ahvoli xususida qisqacha ma’lumot beradi. Uning aytishicha, «Markazda yuz berayotgan voqealar, chekka o‘lkalarda hokimiyat masalasini mustaqil muhokama etuvini taqozo qilur. Oktyabr xunrezligini boshdan kechirgan Rossiya va Turkiston o‘z taqdirlari haqida o‘zlari mulohaza yuritmoqlari lozim».

Ma’lumki, musulmonlarning ushbu nufuzli qurultoyi va unda qabul qilingan qarorlar o‘n yillar davomida millatchilar guruhining yig‘inidan e’lon qilingan burjua muxtoriyati deb noto‘g‘ri talqin qilib kelindi. Hujjatlar esa ushbu holning butunlay aksi bo‘lganligini isbotlaydi. Masalan, Turkiston jadidlarining otasi sanalgan Behbudiy o‘z ma’ruzasida qurultoyning Turkiston xalqlari tarixida ulkan ijobiy, tarixiy hodisa va burilish davri ekanligini ta’kidlab, “Qurultoyimiz qabul qilayotgan qarorlar shuning uchun ham ahamiyatliki, unda Turkiston aholisining yevropalik vakillari ham ishtirok etmoqdalar”, deydi. Behbudiy va Obidjon Mahmudov qurultoy hay’atida musulmonlar bilan bir qatorda boshqa milliy guruhlarning ham vakillari bo‘lishini yoqlab chiqdilar.

Turkistonni boshqarish shakli uch kun davom etgan qurultoyning diqqat markazida turdi. Bu masala muhokamasida so‘zga chiqqanlarning ko‘pchiligi Turkistonning muxtor respublika deb e’lon qilinishi o‘lka aholisining ijtimoiy maqsadlaridan kelib chiqqan va unga mos tushishini uqtirdi. Muxtoriyat va mustaqillik e’lon qilish fikrini hamma qo‘llab-quvvatladilar.

Qurultoyda 1917 yil 27 noyabr (yangi hisob bilan 10 dekabr) kuni kechqurun qabul qilingan qarorda shunday deyiladi: “Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da’vat etgan xalqlarning o‘z huquqlarini o‘zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Federativ Rossiya Respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e’lon qiladi. Shu bilan birga muxtoriyatning qaror topish shakllarini Ta’sis Majlisiga havola etadi”. Qurultoy Turkistonda yashab turgan milliy ozchilik huquqlarining muttasil himoya qilinishini tantanali ravishda e’lon qildi.

28 noyabr (yangi hisob bilan 11 dekabr)da tarkib topayotgan mazkur davlatning nomi aniqlanib, TURKISTON MUXTORIYATI deb ataladigan bo‘ldi. Qurultoy o‘sha kuni yig‘ilishda Butunrossiya Ta’sis Majlisi chaqirilgunga qadar hokimiyat Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq (Millat) Majlisi qo‘lida bo‘lishi kerak, deb qaror qabul qiladi.

Qurultoyda Turkiston Muvaqqat Kengashi a’zolaridan 8 kishidan iborat tarkibda Turkiston Muxtoriyati hukumati tuzildi. Hukumatning Bosh vaziri hamda ichki ishlar vaziri etib Muhammadjon Tinishboyev saylandi. Islom Sulton o‘g‘li Shoahmedov-Bosh vazir o‘rinbosari, Mustafo Cho‘qay-tashqi ishlar vaziri, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev (Ubaydulla Xo‘jayev) - harbiy vazir, Hidoyatbek Yurg‘uli Agayev-er va suv boyliklari vaziri, Obidjon Mahmudov-oziq-ovqat vaziri, Abdurahmon O‘rozayev-ichki ishlar vazirining o‘rinbosari, Solomon Abramovich Gersfeld-moliya vaziri lavozimlarini egallashdi. Hukumat tarkibida keyinchalik ayrim o‘zgarishlar yuz berdi. Muhammadjon Tinishboyev iste’foga chiqqach, Mustafo Cho‘qay Bosh vazir lavozimini bajarishga kirishadi. Vazirlardan uch kishi oliy ma’lumotli huquqshunos, ikki kishi o‘rtacha malakali huquqshunos ekanligi muxtoriyat hukumati a’zolari bilim darajasining naqadar yuqori ekanidan dalolat beradi.

Qurultoyda 28 noyabr kuni Turkiston Millat Majlisi ochilishi to‘g‘risidagi qaror ham tasdiqlandi. Millat Majlisi 54 nafar a’zodan iborat bo‘lib qurultoy qaroriga binoan “36 nafar musulmonlar va 18 nafar g‘ayri musulmonlardan saylanadur. 36 musulmon vakillari Turkistonning 5 viloyatidan bo‘lib: Farg‘ona-10 nafar, Samarqand-5 nafar, Sirdaryo-9 nafar, Yettisuv-6 nafar, Zakaspiy-2 nafar; 4 nafar esa butun Turkiston shahar dumalari tarafidan tayin bo‘lurlar”. 18 nafar o‘rin esa o‘lkaning yevropalik tashkilot va fuqarolariga, jumladan, temir yo‘lchilar ittifoqi, ishchi va sodat deputatlari soveti, sotsial demokratlar, dashnoqtsutyun, yerlik juhudlar, yahudiylar, eserlar, ukrayinlar, polyaklarning vakillari va boshqalarga berilishi ko‘zda tutilgan edi. Demak, tashkil etilayotgan hukumat tarkibiga turli siyosiy va milliy guruhlar vakillarining qatnashuvi ko‘zda tutildi. Demokratik ruhdagi milliy ziyolilar qurultoyda qabul qilingan dasturiy hujjatlarga o‘ziga xosligi bilan ajralib turadigan xalqchil va demokratik g‘oyalarni kiritishdi.

Qurultoy jarayonida Turkiston Millat Majlisi 32 kishidan iborat qilib saylandi. “Sho‘roi Ulamo”ning rahbari Sherali Lapin Millat Majlisi tarkibiga, uning rayisi sifatida kiritilgan bo‘lsa ham, ammo uning o‘zi bu taklifni rad etdi.

Qurultoy tugagach, 1 dekabrda Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumati a’zolari (barcha 8 kishi) imzolagan maxsus Murojaatnoma e’lon qilindi. Ushbu Murojaatnomada Turkistondagi barcha aholi: irqi, millati, dini, jinsi, yoshi va siyosiy e’tiqodlaridan qat’iy nazar, ular yakdillik va hamjihatlikka da’vat etilgan edi.

Oradan ko‘p o‘tmay Millat Majlisi tomonidan tasdiqlangan qonunlar e’lon qilindi, shuningdek, yangi hukumat mamlakat Konstitutsiyasini tayyorlash uchun taniqli huquqshunoslarni jalb qildi. “El bayrog‘i”, “Birlik tug‘i”, “Svobodno‘y Turkestan”, “Izvestiya Vremennogo Pravitelstva Avtonomnogo Turkestana” kabi hukumat gazetalari o‘zbek, qozoq va rus tillarida nashr qilina boshlandi. Avval chiqayotgan “Ulug‘ Turkiston” gazetasi ham o‘z sahifalarida muxtoriyat hukumati faoliyatiga alohida o‘rin berdi. Nashr ishlarini yaxshilash uchun O.Mahmudovning bosmaxonasi hukumat ixtiyoriga o‘tdi. Muxtoriyat hukumati milliy qo‘shinni tashkil qilishga kirishdi. 1918-yil boshida bu qo‘shin saflarida bir mingdan ortiq askar bo‘lgan. Harbiy vazir Ubaydulla Xo‘jayev ishtirokida o‘tkazilgan ko‘rik-parad vaqtida askarlar soni 2000 kishiga yetgan. Bundan tashqari Qo‘qonda taxminan shuncha mirshablar ham bor edi. Hukumat iqtisodiy sohada 30 million so‘m miqdorida ichki zayom chiqarishni yo‘lga qo‘ydi. Chunki gazetalarni nashr qilish, muxtoriyat qo‘shinlarining ta’minoti va hukumatning ichki xarajatlari uchun mablag‘ zarur edi. Shuningdek, hukumat a’zolari ochlik changalida qolgan Turkiston aholisiga Orenburg orqali g‘alla keltirish muammosini hal qilish uchun ham amaliy qadamlar tashladi. Turkiston Muxtoriyati hukumati qisqa muddat ichida xalq o‘rtasida katta e’tibor qozondi. Uning faoliyati faqat Qo‘qonda yohud Farg‘ona vodiysida emas, balki butun Turkiston mintaqasida yashayotgan tub yerli xalqlar tomonidan qizg‘in qo‘llab-quvvatlandi. Fitrat, Cho‘lpon, Hamza muxtoriyat hukumatini alqab, o‘tli she’rlar bitishdi. Fitrat muxtoriyat e’lon qilingan 27 noyabr (10dekabr) tunini “Milliy Laylatulqadrimiz” deb atadi.

Turkiston xalqining muxtoriyat uchun olib borgan kurashida 1917 yil 13 dekabrda bo‘lib o‘tgan fojeali voqealar muhim o‘rin tutadi. O‘sha kuni Toshkentda eski shahar aholisi “Muxtor Turkiston uchun!” shiori ostida tinch bayram namoyishini o‘tkazdilar. Ammo, Toshkent sovetidagi bolsheviklar shaharda qurolli kuch bilan «tartib» o‘rnatishga buyruq beradilar. Oqibatda tinch namoyish qatnashchilari pulemyotdan o‘qqa tutildi, eski shaharlik 16 kishi ana shu to‘qnashuv qurboni bo‘ldi.

Muxtor hukumatning xalq o‘rtasidagi obro‘-e’tibori va nufuzi bolsheviklarni tashvishga solib qo‘ydi. 1918-yil 19-26 yanvar (yangi

hisob bilan 1-8 fevral)da Toshkentda bo‘lgan Turkiston o‘lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarining favqulodda IV-syezdida muxtoriyat masalasi asosiy o‘rinda turdi. Syezd Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning a’zolarini qonundan tashqari holatda deb, hukumat a’zolarini qamoqqa olish to‘g‘risida qaror chiqardi. Bolsheviklar o‘zlarining bu qabih va mudhish “hukmi”ni amalga oshirishga zudlik bilan kirishdilar.

30 yanvar (yangi hisob bilan 12 fevral)da Turkiston XKS muxtoriyat hukumatini tugatish uchun harbiy harakatlarni boshladi.Turkiston bolsheviklari buning uchun qizil askarlardan tashqari armanlarning “Dashnoqtsutyun” partiyasi a’zolaridan tuzilgan qonxo‘r qurolli to‘dalardan ham foydalandi. Ularga qarshi dastlabki jangda muxtoriyatning milliy qo‘shinidan tashqari qo‘qonlik tinch aholi vakillari ham qatnashdi. Asosan bolta, cho‘kich, tayoq ko‘targan xaloyiqning soni 10000 kishiga yetdi. Shunga qaramay, qurolsiz bu kishilar qizil askarlarning Qo‘qon shahriga hujumini uch kun davomida mardonavor qaytardilar. Shahar ustiga uch kun davomida to‘plardan yondiruvchi snaryadlar otildi. Muxtoriyat qo‘shinining tirik qolgan qismi qo‘rboshi Kichik Ergash qo‘rboshi boshchiligida shahardan chiqib ketdi.

Turkiston Muxtoriyati hukumati qizil askarlar va dashnoqlarning qonli hujumlari oqibatida ag‘darib tashlandi. Ammo Qo‘qon va uning atrofidagi tinch aholini talash, o‘ldirish avjiga chiqdi. Faqat Qo‘qonning o‘zida uch kun davomida 10000 kishi o‘ldirildi. Shahar butkul vayronaga aylantirildi.

Hukumat boshlig‘i Mustafo Cho‘qay shaharni tark etib, yashirinishga majbur bo‘ldi. Vazirlarning ayrimlari halok bo‘ldi. Ba’zilarini bolsheviklar qo‘lga olishdi.

“Ulug‘ Turkiston” gazetasi chuqur qayg‘u bilan xabar berganidek, “20 (eski hisob bilan 7) fevral Ho‘qand (Qo‘qon) tarixining eng dahshatli kuni edi. Armanilar ayricha faoliyat ko‘rsatganlar ...” Gazetadagi ushbu maqola “Ho‘qand hozir o‘liklar shahri” degan dahshatli ibora bilan tugaydi.

Nihoyat, 1918-yil 22 (eski hisob bilan 9) fevralda Qo‘qon shahridagi Rus-Osiyo banki binosida bolsheviklar tomonidan tayyorlangan “tinchlik sharnoma”si Qo‘qon ahli vakillari bilan imzolandi.

Turkiston Muxtoriyati hukumati atigi 72 kun umr ko‘rgan bo‘lsa ham, u erksevar xalqimizni milliy mustaqillik va istiqlol uchun kurashga da’vat etdi. 1918-yilning erta bahorida avval Farg‘ona vodiysida, so‘ngra butun Turkistonda qurolli qarshilik harakati boshlandi. Ammo, bu davrga

kelib Turkiston Muxtoriyatini tor-mor etib, o‘lkada yakka hukmron bo‘lgan, qurol va zo‘ravonlikka tayangan bolsheviklar Toshkentda sovetcha andozadagi avtonomiya (muxtoriyat)ni tashkil etishga kirishgan edilar.

1918-yil yanvar oyidayoq bolsheviklar Turkiston Muxtoriyatiga qarshi Turkiston avtonomiyasini tuzish masalasini ko‘tarishgan edi. Bu muammo faqat Turkiston sovetlarining V-syezdida (1918 yil 20 aprel-1 may) hal qilindi. Syezd Rossiya Sovet Sotsialistik Federatsiyasi tarkibida Turkiston respublikasi (tarixiy adabiyotlarda Turkiston avtonom respublikasi)ni tuzish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Turkiston respublikasining Markaziy Ijroiya Komiteti (MIK) va XKS saylandi. Ular tarkibiga ilk marta tub millatlarning vakillari kiritildi. Shuningdek, syezdda sanoat korxonalarini musodara (natsionalizatsiya) qilish va boshqa ayrim masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilindi. Shunday qilib, sovet Rossiyasi tarkibida qo‘g‘irchoq markazga tobe Turkiston avtonom respublikasi tashkil qilindi.

Turkiston respublikasi XKS va MIK ichida hokimiyat uchun o‘zaro kurashlar, mojarolar va janjallar avjiga chiqdi. Oktyabr oyida Turkiston XKS raisi F.Kolesov va boshqa ayrim amaldorlar egallagan lavozimidan bo‘shatildi.

1919-yil 19 yanvarda harbiy komissar K.Osipov boshchiligida Toshkentda isyon ko‘tarildi. K.Osipovning buyrug‘i bilan 14 komissar otib tashlandi. Isyonchilar tomonidan sovet hokimiyati ag‘darildi, hokimiyat masalasi Ta’sis Majlisida hal qilinadi, deb e’lon qilindi. Biroq isyon Toshkent temir yo‘l ustaxonalari ishchilari va boshqa harbiy qismlar tomonidan tezda bostirildi. K. Osipov avval Farg‘ona vodiysiga, so‘ngra Buxoro amirligiga qochib ketdi. Bu isyon bahonasida bolsheviklar 1919 yil mart oyi boshida so‘l eserlarni hukumatdan siqib chiqarib, yakka o‘zlari hukmron bo‘lib oldilar.

1919-yil 8-oktabrda Moskvada Turkkomissiya (Rossiyaning Turkiston ishlari bo‘yicha komissiyasi) tashkil qilinib, u Toshkentga jo‘natildi. Turkkomissiya, keyinchalik Turkbyuro va O‘rta Osiyo byurosi kabi turli xil komissiya va byurolar muntazam ravishda Rossiya markazidan Turkistonga jo‘natib turildi. Markaz o‘zining bu favqulodda organlari orqali Turkiston mintaqasini boshqarishga, mahalliy xalqlarni mustamlakachilik asoratida ushlab turishga intildi.

Bu paytda butun Rossiyada bo‘lgani singari Turkiston respublikasida ham “harbiy kommunizm” siyosati joriy qilindi. Bu siyosat o‘z mohiyatiga ko‘ra xalqqa qarshi qaratilgan edi. U xususan boyliklarni

harbiy yo‘l bilan dehqonlarga katta zarba berdi Turkistonda ham sovet tuzumi bir qator dekretlar chiqarib, oziq-ovqat razvyorstkasi (taqsimoti)ni joriy qildi. Aslini olganda, dehqondan u yetishtirgan mahsulotning deyarli hammasi tortib olindi. Bozorlar yopildi, savdo-sotiq ta’qiqlandi. 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan barcha erkak va ayollar uchun majburiy mehnat majburiyati joriy qilindi. Sovet tuzumining bunday mustamlakachilik siyosati oqibatida milliy-ozodlik harakati mintaqada kuchayib, avj olib ketdi.

Turkiston mintaqasida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat va uning tarixiy ahamiyati

Turkistonda oktyabr to‘ntarishidan keyin sodir bo‘lgan voqealar jarayoni shuni ko‘rsatadiki, bolsheviklar o‘rnatgan sovet tuzumi o‘lka xalqlariga nafaqat mustaqillik, hatto milliy muxtoriyatni ham ravo ko‘rmadi. Mustaqillik osonlikcha qo‘lga kiritilmasligini tushunib yetgan milliy vatanparvarlar qo‘lga qurol olib, bolsheviklar va bosqinchi qizil armiyaga qarshi qurolli harakat boshlab yubordilar. Biroq sovet tuzumi va kommunistik mafkura hukmronligi yillarida, ularga “bosmachi” deb nohaq tamg‘a bosildi.

Bu harakat haqida so‘z yuritilgan 1918-1919 yillarning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrga tegishli arxiv hujjatlarida ham “bosmachi” so‘zi uchramaydi. Bu hujjatlarda “qaroqchi” (razboynik), “shayka”, juda bo‘lmasa “bosqinchi” (bandit) iboralari qo‘llanilgan. 1919 yilning o‘rtalaridan boshlab avval ayrim rasmiy hujjatlarda, keyinchalik esa sovet vaqtli matbuotida “bosmachi” iborasini qo‘llash boshlangan. “Bosmachi” va “bosmachilik” iboralari milliy ozodlik harakatining mohiyatini pasaytirish, ajdodlarimizning Rossiya imperiyasi zulmi va bolsheviklar hukmronligiga qarshi olib borgan qonli kurashlarini xaspo‘shlash uchun buyuk davlatchi shovinistlar tomonidan o‘ylab topildi va “banditlik”, “qaroqchilik” so‘zlari bilan asossiz ravishda bir qatorga qo‘yildi. Kommunizm mafkurachilari va ularning maddohlari hatto 1917 yilgacha bo‘lgan milliy ozodlik harakatlarini ham ko‘p hollarda shu atama bilan nomladilar.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, “bosmachi” yorlig‘i yopishtirilgan ota-bobolarimizning muborak nomlari qayta tiklandi va ularning haqiqiy qiyofalari istiqlolchilar sifatida namoyon bo‘ldi.

Sovetlarga qarshi harakat “Turkiston Muxtoriyati hukumatining tormor qilinishi bilan boshlanganligi” deyarli barcha tarixchilarning asarlarida e’tirof qilinadi. Aslini olganda, muxtoriyat hukumati ag‘darib tashlanmaganida ham yoki bu hukumat hatto mutlaqo bo‘lmaganida ham bu harakatining vujudga kelishi tabiiy bir hol edi. Zotan, bu davrda Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat sovet hokimiyatiga qarshi istiqlol kurashining boshlanishini muqarrar qilib qo‘ygan edi.

Birinchidan, 1917 yilda sodir bo‘lgan oktyabr to‘ntarishi va buning natijasida hokimiyatni qo‘lga kiritgan bolsheviklar tomonidan ilgari surilgan kommunistik mafkura Turkiston xalqlari uchun mutlaqo yot tushuncha edi. Mahalliy aholi bu g‘oyani avval boshdanoq o‘ziga singdira olmadi va unga qarshi turdi.

Ikkinchidan, sovet hukumati o‘rnatilgan dastlabki davrda hokimiyatni boshqarishga mahalliy xalq vakillari jalb qilinmadi, ularning milliy g‘ururi, haq-huquqi inkor qilindi. Turkistonda bolsheviklar tomonidan o‘rnatilgan sovet tuzumi Rossiya imperiyasi mustamlakachiligining yangi shakli ekanligi o‘sha dastlabki kunlardanoq oshkor bo‘lgan edi.

Uchinchidan, yangi tuzum o‘rnatilgan ilk kunlardanoq mahalliy xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odatlari, milliy qadriyatlari toptaldi. Shariat asoslari va qozixonalar bekor qilindi, vaqf yerlari tortib olindi, mulkchilikning barcha shakliga chek qo‘yildi.

Turkiston Muxtoriyati hukumatining tugatilishi bu harakatning butun Farg‘ona vodiysida ommaviy ravishda boshlanishiga bir turtki vazifasini o‘tadi, xolos. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmi ostida ezilib kelgan farg‘onaliklar Turkistonda birinchi bo‘lib bolsheviklar rejimiga qarshi qurolli kurashga otlandilar. Shu tariqa, Turkistonda sovet hokimiyati va bolshevikcha tuzumga qarshi istiqlolchilik harakati 1918 yil fevral oyining oxirlarida boshlangan edi.

Bu harakatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi dehqonlar, chorikorlar, mardikorlar, hunarmandlar va kosiblar bo‘lgan. Turkiston respublikasi rahbarlaridan birining e’tirof etishicha, unga asosan dehqonlar va hunarmandlar qatnashdi. Ularga shahar aholisining aksariyat qismi: o‘ziga to‘q badavlat oilalarning vakillari, savdogarlar, islom dini arboblari hamda ba’zi boylar qo‘shildi. Harakat qatnashchilari safida oq-qorani tushungan savodxon kishilar-ziyolilar ham ko‘pchilikni tashkil qilar edi va ular jadidlar orasidan ajralib chiqqan Turkiston munavvarlari va muborizlari edi. Bir so‘z bilan aytganda, ular safida xalqning barcha tabaqasiga mansub kishilar bor edi.

Dastlabki milliy harbiy harakatning tashkil topishi Kichik Ergash (taxminan 1885-1918) va Katta Ergash (taxminan 1880-1921)ning nomlari bilan bog‘liqdir.

1918 yil 27 fevralda Qo‘qon atrofidagi Bachqirda bo‘lgan janglarning birida Kichik Ergash shahid bo‘lgach, uning o‘rniga Katta Ergash (uni Mulla Ergash ham deyishgan) Farg‘ona vodiysida bolsheviklarning mustamlakachilik tartibiga qarshi ozodlik bayrog‘ini ko‘tardi. Qo‘qon uyezdidagi harakatning dastlabki tayanch nuqtasi Bachqir edi. 1918-yil mart oyining oxiriga kelib Katta Ergashning nomi Farg‘ona vodiysi aholisi o‘rtasida juda mashhur bo‘lib ketdi.

Marg‘ilonda esa militsiyaning sobiq boshlig‘i Muhammad Aminbek Ahmadbek o‘g‘li-Madaminbek (1892-1920) kurash boshladi. “O‘z oldiga sovet hokimiyatini ag‘darish va Farg‘ona muxtoriyatini tiklash vazifasini qo‘ygan Madaminbek ustomon siyosatchi va uddaburon tashkilotchi fazilatlariga ega edi”,-deb tan olinadi 1918-yilga oid arxiv hujjatlarining birida.

Farg‘ona vodiysida 1918-yilning o‘rtalariga kelib, taxminan yuzga yaqin qo‘rboshilar o‘z dastalari bilan qizil armiya qismlariga qarshi kurash olib bordilar. Bu guruhlarda 15000 yigit bor edi.

Turkistondagi bu harakatning o‘ziga xos milliy ko‘rinishi va xususiyatlari mavjud bo‘lgan. Bu xususiyatlar harakatdagi qo‘rboshilar dastalari va guruhlari faoliyatida, ularning maqsad va istaklarida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, unda islom shariati qonun-qoidalari asosidagi milliy davlat barpo qilishdan tortib, to milliy demokratik tartibdagi mustaqil davlat tuzishgacha kabi g‘oyalar mujassamlashgan edi.

Turkiston mintaqasidagi mazkur harakatning muhim xususiyati shundaki, bu harakatda maqsadlar va vazifalar qanday bo‘lishidan qat’i nazar boshdan oxirigacha bir ustuvor g‘oya-Turkistonning milliy mustaqilligi yotadi. Bu harakat goh kuchayib, goh pasayib turishiga qaramay, unda ishtirok etuvchilarning tarkibi o‘zgarib turishi va ikkilamchi manfaatlar o‘rtada turganligi hamda obyektiv va subyektiv omillar kuchlar muvozanatiga salbiy ta’sir qilishiga qaramay, harakatning asosiy maqsadi Turkiston mustaqilligi bo‘lib qolaverdi.

Turkistondagi bu harakatning uyushgan bir shaklda namoyon bo‘lishida qo‘rboshilar ko‘rsatgan g‘ayrat-shijoatni alohida ta’kidlab o‘tish kerak. Qo‘rboshilar harakatning harbiy rahbarlari bo‘lib, ular o‘z jangovarliklari bilan mashhur edilar. O‘z vaqtida Farg‘ona vodiysida Kichik Ergash, Katta Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek, Muhiddinbek, Islom Polvon, Yormat Maxsum, Samarqand viloyatida

Ochilbek, Bahrombek, Buxoro respublikasida Ibrohimbek, Mulla Abdulqahhor, Anvar Posho, Salim Posho, Davlatmandbek, Fuzayl Maxdum, Xorazm respublikasida Junayidxon kabi qo‘rboshilar bu harakatni yagona kuchga birlashtirish uchun rahbarlikni birin-ketin o‘z qo‘llariga olsalar-da, lekin Turkiston mintaqasidagi istiqlolchilik urush harakati boshdan oxirigacha yagona markazga to‘liq uyusha olmadi. Turkiston fidoyilarining ozodlik harakatini yagona markazga birlashtirish uchun izchil kurashayotgan Madaminbek bilan Anvar Poshoning taqdirlari esa fojiali tugadi.

Farg‘ona vodiysidagi bu harakat 1919 yil yozining oxiri va kuzida o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Madaminbek boshchiligidagi istiqlolchilar safiga Jalolobodda turgan rus krestyanlari armiyasining qo‘shilishi vodiyda sovet hokimiyatini ag‘darish uchun real kuch edi. Sentyabr oyining dastlabki kunlarida Madaminbek lashkarlari Jalolobod va O‘sh shaharlarini egallashdi. Ular 13-sentabr Eski Marg‘ilon shahrini qizil bosqinchilardan ozod qildilar. Shu bilan birga vodiydagi eng yirik strategik shahar-Andijonni qamal qilishga kirishdilar. Madaminbek boshchiligidagi qo‘shinning hujumi Farg‘ona vodiysini larzaga keltirdi. 1919-yil 22-oktabrda Pomirning Ergashtom (Irkeshtam) ovulida bo‘lgan anjumanda Madaminbek boshchiligida Farg‘ona muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzildi. Hukumat tarkibiga 16 tub aholi va 8 yevropalik kiritildi. Madaminbek hukumat boshlig‘i bo‘lish bilan bir qatorda Farg‘ona vodiysidagi bu harakatning Oliy bosh qo‘mondoni ham etib saylandi.

1919-yilning kech kuziga kelib Madaminbek qo‘l ostida 30000ga yaqin yigit qizil armiyaga qarshi janglarni olib bordilar. Bu paytda Shermuhammadbek qo‘l ostida 20000, Katta Ergash qo‘rboshida 8000 askar bo‘lgan. Ana shu uchta lashkarboshi vodiydagi jangovar harakatlarni yo‘naltirib turdilar.

Madaminbek siymosida sarkardalik, davlat va siyosat arbobiga xos sifatlar uyg‘unlashgan edi. U vodiydagi sovet hokimiyati organlariga muqobil ravishda o‘z siyosiy boshqaruv usulini joriy qildi. “U bizning rahbarlik faoliyatimizda yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklarimizdan ustalik bilan foydalanardi. Uning boshqaruv apparati, o‘zining tribunali va genshtabi bo‘lgan; u qonunlar chiqargan”,-deb e’tirof etadi Madaminbekka qarshi kurashgan dushmanlaridan biri qizil komissar Gramatovich.

Turkistondagi bu harakat 1920-yilning yozi va kuzida o‘zining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Kurash yana ham shafqatsiz va murosasiz tus oldi. Farg‘ona vodiysi va Samarqand viloyatidagi vatanparvarlar bilan

bir qatorda endilikda Xorazm va Buxoro respublikalaridagi istiqlolchilar ham bosqinchi qizil armiya jangchilariga qarshi muqaddas kurashga otlandilar. Kurash bayrog‘ini vodiyda Madaminbek o‘rniga endi Shermuhammadbek ko‘tardi. Farg‘ona vodiysidagi butun qo‘rboshilar va tinch aholi vakillari Oltiariq tumanidagi G‘oyibota qishlog‘ida o‘zlarining navbatdagi qurultoylariga to‘plandilar. Qurutoy 1920 yil 3 mayda Shermuhammadbek boshchiligida Turkiston-turk mustaqil islom jumhuriyati yoki qisqacha qilib aytganda Turkiston muvaqqat hukumatini tuzdi.

Shermuhammadbek Farg‘ona vodiysidagi kurashchilarning Oliy bosh qo‘mondoni ham qilib saylandi. Bolshevik maddohlardan birining e’tiroficha, “Madaminbek qo‘rboshilar o‘rtasida eng kuchlisi bo‘lgan bo‘lsa, Shermuhammadbek shubhasiz eng xavflisi edi”.

Turkiston MIK raisi Inomjon Xidiraliyevning keyinchalik yozishicha, “1920 yil sentyabrda bosmachilarning soni 70000 kishiga yetdi va kuchli vahima uyg‘otdi”.

Qurolli harakatni tashkiliy jihatdan uyushtirishda Farg‘ona vodiysi, Buxoro va Xorazmdagi qo‘rboshilarning mazkur davrda bo‘lib o‘tgan o‘ttizdan ortiq qurultoylarining ahamiyati katta bo‘lgan. Bu qurultoylarda harakat rahbarlari saylangan, qo‘rboshilar yagona qo‘mondonlik ostiga birlashtirilgan. Ammo bunga doim ham amal qilinmas edi. Shuningdek, qurultoylarda qo‘rboshilar guruhlari harakat qiladigan joylar va ularning ta’sir doirasi belgilab olingan. Ba’zi qo‘rboshilar Oliy bosh qo‘mondonga bo‘ysunmay, o‘zlaricha mustaqil harakat qilgan. Xolxo‘ja Eshon kabi mayishatparast kimsalar ham bo‘lganligi to‘g‘ri.

Turkistonda o‘sha paytdagi beqaror vaziyatdan foydalangan ba’zi kishilar talonchilik guruhlari tuzib, xalqni talaganlar. Ularni Turkiston mustaqilligi uchun qizil armiyaga qarshi hayot-mamot janglari olib borgan vatanparvarlar bilan chalkashtirmaslik lozim. Biroq kommunistik mafkura har ikki toifaga bir xil “bosmachilar” tamg‘asini yopishtirgan.

Turkistondagi bu qurolli harakatning g‘oyaviy rahnamolari yetarli darajada mavjud bo‘lib, ular asosan jadid munavvarlari va islom ulamolari edi. Harakatga g‘oyaviy rahbarlik qilish uchun jadidlar bilan ulamolar o‘rtasida o‘zaro raqobat mavjud bo‘lgan.

Namanganlik Nosirxon to‘ra Sayid Kamolxon to‘ra o‘g‘li, toshkentlik muftiy Sadriddinxon Maxsum Sharifxo‘ja qozi o‘g‘li, Turkiston MIK rayisining sobiq o‘rinbosari To‘raqul Jonuzoqov, asli boshqirdistonlik Ahmad Zakiy Validiy va boshqalar bu harakatning g‘oyaviy mafkurachilari edilar. Harakatga rahbarlik qilgan islom

ulamolari orasida yassaviylik va naqshbandiylik tariqatining pirlari ko‘p bo‘lgan.

Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalaridagi jadidlarning bir qismi bu paytda sovet tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatishsa-da, milliy mustaqillik to‘g‘risidagi o‘z g‘oyalaridan voz kechishmagan edi. 1921 yil avgustda Buxoro shahrida Validiy boshchiligida tuzilgan Turkiston Milliy Birligi tashkiloti butun Turkiston mintaqasidagi bu guruhlariga siyosiy jihatdan rahbarlik qiluvchi markaz vazifasini bajardi. Bu davrda Munavvarqori Abdurashidxonov rahbarligida Toshkentda “Milliy Ittihod” va “Milliy Istiqlol” tashkilotlari mahfiy tashkil etilgan bo‘lib, ular harakatning keyingi rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Ma’lumki, Turkiston ayollari uchun Vatan ozodligi va uning tinchligi muqaddas hisoblangan. Olis va yaqin tarixda bosqinchilarga qarshi turkiy ayollarimiz ham necha bor jang maydonlarida ot surgan, vatanparvar kuchlarga boshchilik qilgan. Hatto ayollardan maxsus bo‘linmalar tuzilgan. Istiqlolchilar safida ayollar nafaqat oddiy jangchi, balki ayrim hollarda qo‘rboshi sifatida jang qilishgan. Farg‘ona vodiysida Shakarxon va Muhiddinbekning onasi singari o‘zbek va qirg‘iz ayollaridan yetishib chiqqan qo‘rboshilar milliy istiqlol kurashi tarixiga shonli sahifalar qo‘shdilar. Karmanalik Nodira qiz esa Ibrohimbek qo‘shinida maxsus ayollar guruhiga boshchilik qilib, Sharqiy Buxoroda qizil askarlarga qarshi mardonavor kurashgan.

Farg‘ona vodiysidagi vatanparvarlar qo‘shiniga 1923-1924 yillarda oldin Islom Polvon (taxminan 1882-1923), so‘ng Yormat Maxsum (1929 yil halok bo‘lgan) kabi qo‘rboshilar rahbarlik qildilar. Bu paytda qo‘rboshilarning kichik-kichik guruhlari jang harakatlarini olib bordilar. Farg‘onada ularning soni 1923 yilda 350-400 atrofida edi. Lekin qo‘rboshilar kurashning mazkur bosqichida turli sabab va mahalliy shart-sharoitlar natijasida doim ham bir-birlari bilan kelishib ish ko‘rmadilar.

1920-1924 yillarda bu harakat Buxoro va Xorazm respublikalarida ham avj oldi. Buxoro va Xorazmdagi milliy muxolifatning ozodlik kurashlari alohida o‘ziga xos yo‘nalish va xususiyatga ega bo‘lib, o‘ta murakkabligi va ziddiyatliligi bilan Turkiston respublikasidagi qurolli harakatdan ajralib turadi. Bolsheviklar qizil armiya yordamida Buxoro amirligi va Xiva xonligini kuch bilan ag‘darib, hokimiyatni Buxoroda asosan Yosh buxoroliklardan, Xorazmda esa Yosh xivaliklardan iborat demokratik kuchlar qo‘liga berdi.

Buxoro va Xorazm Xalq Sovet Respublikalarida yuzaga kelgan qurolli muxolifat shu boisdan ham bir yo‘la ikki kuchga qarshi:

birinchidan, bu davlatlar hududida joylashib olgan qizil armiya qismlariga qarshi, ikkinchidan esa bolsheviklar yordamida hokimiyatni egallab olgan jadidlarga qarshi muxoliflik urushini olib bordilar. Bu urushning Turkistondagi, xususan, Farg‘ona vodiysidagi harakatdan farqi ham ana shunda.

Biroq, Buxoro va Xorazm respublikalaridagi bu kurashga uning mohiyati va yo‘nalishi nuqtayi nazaridan yondashadigan bo‘lsak, u ham umumiy sovetlarga qarshi harakatning o‘ziga xos ko‘rinishi edi. Buxorodagi qarshi qurolli harakatning o‘ziga xos xususiyati bir guruh qo‘rboshilarning Buxoro respublikasi hukumati rahbarlariga yo‘llagan maktubida aniq ifodasini topgan edi. Maktubda vatanparvarlar Buxoroning mustaqilligi, erkin va hur Vatan qurish uchun kurashayotganliklari, bunday Vatanda kommunistlar bo‘lmasligi lozimligi, “Favqulodda komissiya orqali kambag‘al aholining mol-mulki tortib olinganligi, “bolsheviklar jabr va zulmni avj oldirib yuborgan”liklari va “Buxoroning mustaqilligi quruq so‘z bo‘lib qolgan”ligi, “haqiqatda undan darak yo‘q”ligi ta’kidlanadi.

Shuning uchun ham Buxorodagi bu harakat qisqa muddat ichida ommaviy tus olib hatto, Farg‘ona vodiysidagi harakatga nisbatan ham kuchayib bordi. Fayzulla Xo‘jayevning ta’kidlashicha, “Sharqiy Buxorodagi bosmachilik o‘zining strategik mavqei jihatidan qaraganda Farg‘ona bosmachilariga nisbatan kuchliroq edi”.

Buxorodagi qo‘rboshilar o‘rtasida Ibrohimbek (1889-1932) alohida salmoqqa ega. U amirlik tuzumi ag‘darib tashlangach, Sharqiy Buxorodagi qo‘rboshilar guruhlariga umumiy rahbarlik qilib, bolsheviklar va bosqinchi qizil armiyaga qarshi mustaqillik kurashini boshladi. U o‘z oldiga Buxoro tuprog‘ini qizil askarlardan tozalab, ag‘darib tashlangan amirlik tuzumini qayta tiklash va saltanatni sobiq amir Said Olimxon (1881-1944) qo‘liga olib berishni asosiy maqsad qilib qo‘ydi. Shuning uchun ham u kurashga kirgan dastlabki kunlardanoq sobiq Buxoro amiri tomonidan moddiy va ma’naviy jihatdan har tomonlama qo‘llab-quvvatlandi va rag‘batlantirildi.

Ibrohimbek 1921 yil sentabrda bo‘lgan Buxoro qo‘rboshilarining qurultoyida “Islom lashkarboshisi” unvoniga sazovor bo‘ldi va Buxorodagi barcha istiqlolchilarning Oliy bosh qo‘mondoni qilib saylandi. U qisqa muddat ichida o‘n ming nafardan ortiq askar to‘plab, Qorategin va Darvoz viloyatlarini qizil askarlar qo‘lidan ozod qilishga muvaffaq bo‘ldi.

Ibrohimbek qo‘l ostidagi Sharqiy Buxoro hududida o‘zining boshqaruv usulini amalga oshirdi. Joylardagi yangi tuzum tugatilib, uning o‘rniga amirlik davridagi boshqaruv usuli joriy qilindi. Ibrohimbekni bu yerdagi mahalliy aholi, xususan, laqaylar qo‘llab-quvvatlashardi. Bundan Turkistonda ish olib borayotgan markaziy hukumat vakillari qattiq tashvishga tushdilar. “Ibrohimbek-butun Sharqiy Buxorodagi markaziy siymo”, deb tan olinadi ular tayyorlagan hujjatlarning birida.

1921-yil oktabrda Turkiyaning sobiq harbiy vaziri Anvar Poshsho (1881-1922) Buxoro shahriga kelib, biroz muddatdan so‘ng mamlakatning sharqiy qismiga jo‘naydi va sovetlarga qarshi kuchlarga qo‘shiladi. U tez orada Buxoro respublikasidagi istiqlolchilik harakatining tan olingan yo‘lboshchisiga aylandi. Anvar Poshshoning sa’yi-harakatlari bilan Sharqiy Buxoroda birlashgan lashkar bunyod etildi va u turk zobitlari bilan mustahkamlandi, g‘arbcha qo‘mondonlik uslubi joriy qilindi. 1922 yil mart oyida Farg‘ona va Samarqand viloyatlaridan tortib to Xorazm va Sharqiy Buxorogacha bo‘lgan ulkan hududda Anvar Poshsho boshchiligida istiqlolchi kuchlarning umumiy fronti tuzildi. Butun Turkiston hududida bolsheviklarga qarshi kurashayotgan kuchlarning harakatlari yagona markazga muvofiqlashtirildi. Boymirza Hayitning ta’kidlashicha, Anvar Poshsho ko‘rsatmasi bilan Buxoro, Farg‘ona, Xorazm qo‘rboshilarining uchrashuvlari muntazam o‘tkazib turildi va ularga kerakli yo‘l-yo‘riqlar berildi. Anvar Poshsho bilan Shermuhammadbek va Junayidxon o‘rtasida doimiy ravishda o‘zaro aloqalar bo‘lib turgan. 1922 yil 15 aprelda Boysun atrofidagi Kofirun qishlog‘ida bo‘lgan Turkiston qo‘rboshilarining qurultoyida Anvar Poshsho istiqlolchilarning Oliy bosh qo‘mondoni va siyosiy rahbari qilib saylandi. “Ular o‘sha paytda millatparvarlik harakatining eng qudratli, ehtimol eng ommaviy qismini tashkil qila oldilar”,-deb yozgan edi xorijlik tadqiqotchi Glenda Frezer.

1922-yil 4 avgustda Anvar Poshsho Baljuvon yaqinida bo‘lgan janglarning birida qahramonlarcha halok bo‘ldi. Anvar Poshshoning o‘limi haqidagi xabar butun Turkistonga yashin tezligida tarqaldi. Unga atab motam marsiyalari to‘qildi. Ana shunday motam marsiyalaridan eng mashhuri Turkistonning buyuk milliy istiqlol shoiri Cho‘lpon qalamiga mansub “Baljuvon” marsiyasidir. Bu marsiya 1922 yil avgust oyida bitilgan. O‘zbek she’riyati tarixida mazmun mohiyati, maslak murosasizligi jihatidan “Baljuvon”ga o‘xshash yoki yaqin keladigan ikkinchi bir she’r yozilmagandir. Bu she’r “Anvar Poshshoning jasur

siymosini gavdalantiruvchi so‘zdan yaralgan she’riy bir haykal” (Ibrohim Haqqul) desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Buxoroning markaziy va g‘arbiy viloyatlarida ham kurash shiddatli tus oldi. Qisqa muddat davomida Mulla Abdulqahhor (1884-1924) boshchiligida poytaxt Buxoro tumanlarida lashkar to‘plandi va jangovar harakatlar olib borildi. Shuningdek, Mulla Abdulqahhor rahbarligida Buxoro, Karmana va Nurotada o‘nlab qo‘rboshi guruhlari faoliyat ko‘rsatdi. Bir hujjatda yozilishicha, G‘arbiy Buxoroda uning qo‘l ostida 20 ta qo‘rboshi birlashgan. O‘rmon Polvon, Hayit Amin, Oston Qorovulbegi, Hamro Polvon, Azimxo‘ja, Metan Polvon uning eng nufuzli qo‘rboshilari sanalgan. Ular asosan G‘ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Romiton tumanlari va Nurotada o‘z faoliyatlarini kuchaytirdilar.

Ularning katta armiyasi 1922 yil mart oyining boshida poytaxt Buxoro shahriga yurish qildi. Ular qizil askarlar bilan shahar atrofida bo‘lgan ikki kunlik shiddatli janglardan so‘ng Buxoro shahrining katta bir qismini egalladilar va bir necha soat mobaynida o‘z qo‘llarida tutib turdilar. So‘ngra shahar atrofidagi Bahouddin Naqshband ziyoratgohini bosqinchilardan tozaladilar.

Buxorodagi vatanparvarlarga qarshi kurash qizil armiya va uning qo‘mondonligidan katta kuch-g‘ayrat talab qildi. Moskva, Toshkent, Buxoroda 1923 yil may-iyun oylarida o‘tkazilgan oliy darajadagi bir qator rasmiy anjumanlarda bu masala eng dolzarb muammo sifatida kun tartibida turdi.

Mulla Abdulqahhor yigitlari bilan qizil askarlar o‘rtasida 1924 yil yozi va kuzida G‘ijduvon tumanining G‘ishti va Katta G‘amxo‘r qishloqlarida, Nurota tog‘larida, Shofirkon tumaniga tutash Qizilqumning Jilvon qumliklarida, Bog‘iafzal va Vardonze qishloqlarida qattiq to‘qnashuvlar bo‘ldi. Kuchlar teng bo‘lmagan ushbu janglarda G‘arbiy Buxoro vatanparvarlarining yetakchisi mag‘lubiyatga uchradi. G‘arbiy Buxorodagi qo‘rboshilar guruhlariga sezilarli zarba berildi Mulla Abdulqahhor qo‘rboshi Qizilqum cho‘llarida qizil askarlar bilan bo‘lgan to‘qnashuvlarning birida 1924 yilning oxirida halok bo‘ldi.

Buxoro mamlakatidagi bu harakat qizil armiya va bolsheviklarning tajovuzkorligi, zo‘ravonligi va talonchilikka qarshi qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Mujohidlarning asosiy maqsadi qizil qo‘shinni haydab yuborish, milliy qadriyatlar, asriy e’tiqod va urf-odatlarning poymol qilinishi, xo‘rlanishiga barham berish edi. Yuqorida ham aytib o‘tilganidek, vatanparvarlar Buxoroda ikki jabhada turib kurash olib borishlariga to‘g‘ri keldi. Bir tomondan, amirlik tuzumi tarafdorlari

bo‘lgan istiqlolchilar (ular o‘zlarini mujohidlar deb atashgan) jadidlardan iborat yosh Buxoro hukumatiga va shuningdek, qizil armiya qo‘shinlariga qarshi kurash olib bordilar (Ibrohmbek, Mulla Abdulqahhor va b.). Ikkinchi tomondan, milliy istiqlol g‘oyalariga sodiq bo‘lgan istiqlolchilar Fayzulla Xo‘jayev boshliq Buxoro Xalq Respublikasi hukumati bilan yashirin aloqalar o‘rnatib, Buxoroning muqaddas tuprog‘idan bosqinchi qizil askarlarning olib ketilishi, Buxoro respublikasining mustaqilligi amalda qaror topishi uchun kurashdilar (Anvar Poshsho, Davlatmandbek, Jabborbek va b.). Aynan ular safiga keyinchalik Buxoro respublikasining juda ko‘pchilik rahbarlari (Buxoro MIKning birinchi raisi Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, harbiy ishlar noziri Abdulhamid Oripov, respublika militsiyasi va Cheka boshlig‘i Ali Rizo Afandi va b.) qo‘shildilarki, bu arboblarning aksariyati kechagi jadidlar va Yosh buxoroliklar edi. Afsuski, Buxoro hukumati tarkibidagi milliy vatanparvar kuchlar bilan muxolifatdagi qurolli istiqlol guruhlarining yo‘lboshchilari o‘rtasidagi ochiq bitishuv amalga oshmadi.

Xorazm respublikasida ham 1920-yil bahoridan boshlab qizil askarlarning misli ko‘rilmagan talonchilik va zo‘ravonliklariga qarshi harakat boshlandi. Qurolli kurashni turkmanlarning yovmut urug‘i boshlig‘i Qurbon, Mamed, Sardor-Junayidxon (1857-1938) boshchiligidagi guruhlar ko‘p yillar davomida olib bordi. Uning qo‘shini saflarida o‘zbek, qoraqalpoq va qozoqlar ham ko‘pchilik edi. Qisqa muddatda Junayidxon o‘z qo‘shinini 20000 kishiga yetkazdi.

O‘zbek dehqonlari va hunarmandlaridan iborat guruhlarga Madraimboy, Sa’dulla bola, Shokir bola, Mavlonbek va boshqalar rahbarlik qildilar. Xususan Ko‘hna Urganch, Ilyali, Toshhovuz, Mang‘it, Qo‘shko‘pir, Chimboy, Qo‘ng‘irot va To‘rtko‘lda harakat qilgan o‘nlab sardorlarning guruhlari qizil askarlarga jiddiy zarbalar berdi. Junayidxon boshchiligidagi armiya hujumga o‘tib, 1920 yil yozida Ko‘hna Urganch, Xo‘jayli, Ilyali va Taxtani qayta egalladi, ko‘plab qizil askarlarni asir oldi. Junayidxon sovet qo‘mondonligiga maxsus maktub yuborib, agar qizil armiya Xorazmdan chiqib ketmasa, asirlarni otib tashlashini bildirdi. Biroq sovet qo‘mondonligi Junayidxonning haqli talablarini rad qilgach, u bosqinchilarni otib tashlashga buyurdi.

1921 yil yozida Qo‘ng‘irotda qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Bunday ommaviy ko‘tarilishlar tez-tez takrorlanib turdi. Qishloq va shaharlarning aholisi istiqlolchilarga xayrixohlik bildirgan. 1922-1923 yillarda Xorazmda olib borilgan jangovar harakatlar qizil armiya qo‘mondonligini

tang ahvolga solibgina qolmay, balki respublikadagi siyosiy muhitga ham jiddiy ta’sir qildi.

Sovet tuzumi 1923 yil oxirida Junayidxon bilan sulh muzokaralarini boshlashga urinib ko‘rdi. Biroq Junayidxon o‘zining oldingi talabini, ya’ni: 1) Rossiya qo‘shinlarini Xorazmdan darhol olib chiqib ketish; 2) shariatga to‘la erkinlik berish; 3) barcha sobiq hokimlar va oqsoqollarni yana o‘z lavozimlariga tiklash; 4) soliqlar va patentlarni bekor qilishni qat’iy talib qildi. Biroq bu talablarni sovet hukumati rad qilgach, muzokaralar o‘z-o‘zidan to‘xtab qoldi.

Junayidxon qo‘lida bo‘ paytda katta miqdorda harbiy kuch to‘plangan edi. Shu bilan birga 1923 yilning dekabrida Pitnak, Hazorasp, Bog‘ot, Xonqa tumanlarida yangi sovet hukumatiga qarshi dehqonlarning ommaviy qo‘zg‘olonlari boshlanib ketdi. Qo‘zg‘olonchilar joylardagi sovet tashkilotlarini tugatib, mamlakat poytaxti Xiva shahri ustiga yurish qildilar. Qoraqumda turgan Junayidxon qo‘shini ham g‘arb tomondan, bir vaqtning o‘zida, shaharga qarab harakat boshladi.

1924 yil 10 yanvardan boshlab Junayidxonning 15000 kishilik piyoda va otliqlardan iborat qo‘shini Xiva shahrini qamal qilishga kirishdi. 16 yanvarda Xorazm respublikasida harbiy holat joriy qilindi.

Xorazm respublikasida sodir bo‘layotgan voqealarning bunday jiddiy tus olishidan tashvishga tushgan RKP (b) MK O‘rta Osiyo byurosi 1924 yil 6 yanvarda bu masalani maxsus muhokama qildi. Junayidxon boshchiligidagi istiqlolchilarga qarshi kurashish uchun E.Berzin (rais), Gorodetskiy, Adinayev va Xidiraliyevdan iborat favqulodda komissiya tashkil qilindi va u Xorazm respublikasiga jo‘natildi. Xorazmga zudlik bilan Rossiyadan qo‘shimcha harbiy qismlar keltirildi. Natijada Junayidxon qo‘shini qariyb bir oy davom etgan qamalni to‘xtatib, orqaga chekinishga majbur bo‘ldi. Katta harbiy kuchni to‘plagan qizil armiya qismlari Junayidxon va boshqa vatanparvar kuchlarga qarshi hujumga o‘tdi. Mart-aprel oylarida bo‘lgan janglarda Junayidxonning piri bo‘lgan Og‘ajon Eshon va boshqa qator sardorlar asir olindi.

Xorazm vohasida istiqlolchilik harakati ayrim guruhlar tomonidan 1935-yilgacha davom etdi. Harakat Sharqiy Buxoro va Farg‘ona vodiysida ham ba’zi uzilishlar bilan yuqoridagi davrgacha mavjud bo‘ldi. Turkiston mintaqasidagi qurolli harakat tarixiga yakun yasab, bu harakatni keng xalq ommasi, birinchi navbatda dehqonlar va hunarmandlar qahr-g‘azabi hamda noroziligining yuksak darajaga ko‘tarilganligi ifodasi deb e’tirof etishiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston XKS rayisi Fayzulla Xo‘jayev 1927-yilda “Katta sovet ensiklopediyasi”da unga baho berib, quyidagilarni yozgan edi: “Bosmachilik harakati shiddatli siyosiy, aksilsovet xususiyat kasb etdi va butun O‘rta Osiyoning mavjud uch respublikasi-Buxoro, Turkiston va Xorazmdagi dehqonlar aholisining qariyb ommaviy harakatiga aylandi. Harakatning dohiylari faqatgina... Ko‘rshermat (Shermuhammadbek), Ibrohimbek kabilar... bo‘lib qolmasdan, balki unga mahalliy milliy ziyolilar, mulla va boylar ham rahbarlik qila boshladilar...”

Bu harakatga aloqador bo‘lgan umumiy xususiyat bosqinchi qizil armiyani, bolsheviklarni Vatanimiz hududidan olib chiqib ketish talabi edi. Bu talab butun harakat davomida ilgari surildi.

Shunday qilib, qizil armiyaning bosqini va mustabid sovet rejimiga qarshi ko‘tarilgan qurolli harakat 1935-yilga kelib butun Turkiston mintaqasida tamomila mag‘lubiyatga uchradi.

Biroq vatanparvar bobolarimiz to‘kkan qutlug‘ qon behuda ketmadi. Turkiston mintaqasidagi bu harakat O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligiga erishishi uchun bo‘lgan kurashlari bosqichida muhim rol o‘ynab, XX asrdagi Vatanimiz tarixining eng shonli sahifalarini tashkil qiladi. Zero, ona-Vatan mustaqilligi uchun bo‘lgan janglarda shahid ketgan ota-bobolarimizning xotirasi hech qachon unutilmaydi.

Xiva xonligining tugatilishi. Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tuzilishi va undagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar

XX asr boshlarida ham Rossiya imperiyasining yarim mustamlakasi hisoblangan Xiva xonligidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, boshqaruv tizimi ruslar bosqiniga qadar shakllangan holatda qolgan edi. Mamlakatda xon boshliq feodal amaldorlar, dindor ruhoniylar mamlakat boshqaruvida cheklanmagan huquqqa ega bo‘lib, iqtisodiy hayotda esa yerga egalik munosabatlari ham avvalgi holatdagidek saqlanib qolgan edi. Imperiya hukmronligi ta’sirida ko‘pgina yuqori mansablar (inoq, otaliq, biy) oldingidek iqtisodiy asosini yo‘qotgan bo‘lsa ham, lekin yuqori unvon sifatida mamlakat siyosiy hayotida katta ta’sirga ega edi.

Xiva xonligidagi asosiy shaharlarga Xiva, Urganch, Toshhovuz, Hazorasp, Pitnak va boshqalar kirgan. Xonlik hududi Rossiya bosqinidan keyin 62.236 kv.km bo‘lib, u 20 ta beklik va 2 ta noiblikdan iborat edi. Aholi aniq ro‘yxatga olinmagan bo‘lib, bu davrga oid manbalarda, u 600 mingdan 900 mingga qadar ko‘rsatiladi. Ularning 60 foizdan ko‘prog‘ini

oʻzbeklar, 28 foizini turkmanlar, qolganlarini qozoq, qoraqalpoq, fors (eroniy),arab, rus va boshqa millat vakillari tashkil etgan.

Ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotda ancha orqada qolgan Xiva xonligida sanoat ishlab chiqarishi yoʻq darajada boʻlib, bu yerda oʻndan ortiq paxta, yogʻ zavodlarigina bor edi. Aholining asosiy qismi dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, kosibchilik va boshqalar bilan shugʻullangan. Xalq ommasining turmush sharoiti ancha ogʻir boʻlib, ular hosildor yerlar, sugʻorish manbalarini oʻz qoʻlida toʻplab olgan amaldorlar va ruhoniylarga koʻplab soliqlar toʻlab turganlar. Oʻsha davr manbalarida qayd qilinishicha, Xiva xonligida 20 dan ortiq soliq toʻlovlari va majburiyatlar boʻlgan. Ayniqsa, Birinchi jahon urushi yillarida soliq va toʻlovlarning miqdori hamda turi yanada oshgan.

XX asr birinchi choragida butun Turkiston oʻlkasi, Buxoro amirligi kabi Xiva xonligida ham xalq harakatining mafkuraviy asosini jadidchilik harakati, jadidchilik gʻoyalari tashkil etdi. Turkiston va Buxorodan farqli oʻlaroq, Xiva xonligidagi jadidchilik harakatining shakllanishida, harakatning asosiy yoʻnalishi hisoblangan maktab, maorif ishining taraqqiyotida Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (Feruz), qozikalon Salimoxun va uning oʻgʻli Bobooxun, vazir Islomxoʻja, mirzaboshi va devonbegi lavozimida ishlagan Pahlavonniyoz Komil Xorazmiy, Xonqa xokimi Muhammad va boshqalar katta rol oʻynadilar. Ular oʻz hisoblaridan bir qancha maktablar ochishdi. Bobo Oxun Salimov doʻsti Bekjon Rahmonov bilan bu maktablar uchun darslik kitoblarini ham yozishgan. Xonlikda jadidchilik harakatining shakllanishida Munis, Ogahiylar asos solgan va keyinchalik Bayoniy boshchiligida davom ettirilgan tarixchilik va tarjimonlik maktabining mavjudligi, tarix va oʻtmishga e'tiborning kuchliligi ham katta rol oʻynagan. Shuningdek, Turkiston va Buxorodagi kabi Xiva xonligida jadidchilik harakatining shakllanishida tashqi omil, ya'ni Rossiyadan kelgan ilgʻor fikrli ziyolilar, inqilobiy ruhdagi surgun qilingan yoshlar va Rossiyadagi oʻzgarishlar ham oʻz ta'sirini koʻrsatgan. Jadidchilikning asosiy yoʻnalishlaridan biri boʻlgan matbuot Xiva xonligi hududida mavjud boʻlmasa ham xonlikdagi ilgʻor ziyolilar Turkiya, Eron, Rossiya, shuningdek, Toshkent Samarqand va Buxoroda chiqadigan jadid gazetalari va jurnallari bilan tanishib borganlar.

Xorazmdagi jadidchilik harakatidan 1914 yil avgust oyida Yosh xivaliklar tashkiloti tuzildi, unga rais qilib Polvonniyoz Hoji Yusupov (1861-1936) saylangan. Yosh xivaliklar harakatida bu davrda qozikalon Bobo Oxun Salimov (1874-1929)ning ham oʻrni boʻlakcha edi. Yosh

xivaliklar dasturining asosini mavjud tuzum doirasida islohotlar o‘tkazish, maktab-maorif ishini yaxshilash, xon hokimiyatini cheklash kabi masalalar tashkil qilar edi.

Iqtisodiy qiyin sharoitda yashayotgan xonlik aholisining ahvoli boshlanib ketgan birinchi jahon urushi bois yanada og‘irlashdi. Xonlik istibdodiga qarshi 1915-1916 yillarda turkmanlar Junayidxon boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tardilar. Turkman, o‘zbek, qozoq aholisining mavjud tuzumga qarshi kurashini Yosh xivaliklar partiyasi rahbarlari faol qo‘llab-quvvatlashdi.

1917-yil fevral inqilobi paytida Xiva xoni Asfandiyorxon Yaltada dam olayotgan edi. Shuning uchun ham u Rossiya imperatorining taxtdan voz kechganini eshitgan zahoti xonlikka shoshildi. Asfandiyorxonni kutib olishga chiqqan davlat arboblari orasida Husaynbek Matmurodov, Polvonniyoz Hoji Yusupovlar ham bor edilar. Xiva garnizonidagi soldatlar ham xuddi Rossiyadagi kabi o‘z sovetlarini tashkil qilishgan edilar. Ana shu sovetlarning faollaridan Latipov, Tinishev va boshqalarning tashviqotlari bilan Polvonniyoz Hoji Yusupov boshliq Yosh xivaliklar 4 aprelda soldatlarning Muvaqqat hukumatga qasamyod qilishi uchun to‘plangan tantanaga kishilarni yig‘ib borib, soldatlardan Xiva xonini ag‘darib tashlashni so‘rashdi. Garnizon boshlig‘i xonni taxtdan olib tashlamaslik talabi bilan Yosh xivaliklarga yordam berishga ruxsat berdi. 5 aprel kuni Asfandiyorxon rus soldatlari himoyasida saroyga kelib, xalq nomidan qo‘yiladigan talab (manifest)ni imzolashga majbur bo‘ldi. Manifestga asosan xon hokimiyati qoshida qonun chiqaruvchi organ - Majlis va Nozirlar kengashi tashkil etildi. Majlisning birinchi yig‘ini 1917-yil 26 aprelda bo‘lib o‘tdi. Unda Majlis raisi etib, Bobo Oxun Salimov, nozirlar kengashining raisi etib, Husaynbek Matmurodov saylandilar. Bu tashkil qilingan davlat organlari tarkibida Yosh xivaliklarning a’zolari ko‘pchilikni tashkil qilar edi. Lekin keyinchalik Asfandiyorxon Xiva garnizoni boshlig‘i general Mirbadalov va Zaytsevlarning yordami bilan Majlisdan Yosh xivaliklarning a’zolarini siqib chiqarishga muvaffaq bo‘ldi. Turli bahonalar bilan Husaynbek Matmurodov va bir qancha Yosh xivaliklarni zindonga tashladi. Polvonniyoz Hoji Yusupov, Nazir Sholikorov, Bobo Oxun Salimov, Jumaniyoz Sultonmurodov, Bobojon Yaqubov va boshqalar xonning ta’qibidan qutulish uchun To‘rtko‘l, Chorjo‘y, Toshkent kabi shaharlarga qochib ketishdi. Bu paytda To‘rtko‘l va Toshkentda sovet hokimiyati o‘rnatilgan edi. Sovet hukumati orqali Yosh xivaliklarning Asfandiyorxon, Zaytsev, Junayidxonlarga o‘z hamfikrlarini zindondan

ozod qilishni talab qilib, yuborgan bir qancha telegrammalari hech qanday natija bergani yo‘q. Aksincha, oktyabr to‘ntarishidan keyin Xiva shahridan rus askarlari olib chiqib ketildi va Asfandiyorxon o‘zining harbiy tayanchidan mahrum bo‘ldi. Bu 1916 yil qo‘zg‘olonidan keyin Eronga qochib ketgan Junayidxonning Xiva xonligiga qaytib kelishi va bu yerda katta mavqega ega bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Chunki mingdan ortiq qurollangan sarbozlarga ega bo‘lgan Junayidxon bilan murosa qilmasdan Asfandiyorxon va uning atrofidagi a’yonlar bundan keyin hokimiyatni saqlab qolishga tayanchlari yo‘q edi. Shuning uchun ham Asfandiyorxon Junayidxonni “sardori karim”, ya’ni xonning lashkarboshisi qilib tayinladi. Shu bilan o‘zi Junayidxon qo‘lidagi qo‘g‘irchoq xonga aylanib qoldi. Xonlikdagi hokimiyat esa to‘la ravishda Junayidxon qo‘liga o‘tdi. Toshkentga yetib kelgan Polvonniyoz Hoji Yusupov boshliq Yosh xivaliklar 1918 yil bahorida sovet hokimiyatining faollaridan biri bo‘lgan Yusuf Ibragimovning maslahati bilan o‘zlari to‘rt kishi bo‘lishiga qaramasdan Yosh xivaliklar partiyasining Markaziy Qo‘mitasini tashkil qildilar.

1918-yil oktabr oylariga kelganda, Yosh xivaliklar ta’siri bilan Junayidxon va Asfandiyorxon o‘rtasiga nizo solindi va buning natijasi o‘laroq Junayidxonning o‘g‘li Eshshi tomonidan Asfandiyorxon qatl qilindi. Uning o‘rniga akasi Sayid Abdulloxon xon deb e’lon qilindi. Junayidxon Xiva xonligi hududida bolsheviklardan mustaqil bo‘lgan davlatni saqlab qolishga harakat qildi. 1918 yil noyabr oyida Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi yerlarda tashkil qilingan sovet hukumatiga qarshi Junayidxon bir necha marotaba muvaffaqiyatsiz urush olib bordi. 1919 yil aprel oyida sovet hukumati bilan Junayidxon o‘rtasida Taxta shartnomasi tuzildi. Unga sovet hukumati tomonidan Xristoforov, Xiva xonligi tomonidan Junayidxon imzo chekdilar. Bu vaqtinchalik kelishuv bo‘lib, unga ikkala tomon ham amal qilmadi. Bu paytda To‘rtko‘lda mulla Jumaniyoz Sultonmurodov boshliq Yosh xivaliklar partiyasining qo‘mitasi tuzilgan bo‘lib, ularning soni Xiva xonligi hududidan qochib o‘tganlar hisobiga kundan-kunga ko‘payayotgan edi. Ularni sovet hukumati xivalik inqilobchilar deb, bolsheviklar partiyasi safiga qayd qilishgan. Mana shu Yosh xivaliklarning talablari va turkman urug‘lari orasida Qo‘shmamedxon, G‘ulomalixon kabi urug‘ sardorlarining Junayidxon bilan kelishmay qolganligi haqidagi xabarni hisobga olgan bolsheviklar Skalov rahbarligida 1919 yil 22 dekabrda mustaqil davlat-Xiva xonligi hududiga bostirib kirdilar. 1920 yil 1 fevralda Junayidxon qo‘shinlarini tor-mor qilgan qizil armiya Xiva

shahriga kirib bordi. 2 fevral kuni so‘nggi Xiva xoni Sayid Abdulloxon taxtdan voz kechdi.

Xivada Jumaniyoz Sultonmurodov rayisligida Muvaqqat inqilobiy qo‘mita tashkil etildi. 1920-yil 26-30 aprel kunlari Xorazm mehnatkashlarining birinchi qurultoyi bo‘lib o‘tib, unda Xiva xonligi hududida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tashkil etilganligi e’lon qilindi va Polvonniyoz Hoji Yusupov rayisligida Xalq Nozirlar Sho‘roi tuzildi. Bu hukumat tarkibiga asosan Yosh xivaliklar partiyasining a’zolari kirgan bo‘lib, ular mamlakatda demokratik tuzumni o‘rnatish, mustaqil davlatni barqarorlashtirish borasida katta ishlarni amalga oshirdilar. Ana shunday ishlarning bittasi sifatida Bobo Oxun Salimov raisligidagi delegatsiyaning uch oy davomida Moskva va Petrograd shaharlarida bo‘lib, 1920-yil 13-sentabrda RSFSR bilan XXSR o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy shartnomaning imzolanishi bo‘ldi. Bu hujjatga asosan XXSR mustaqil davlat hisoblanib, sovet Rossiyasi bilan o‘zaro teng va bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslikka kelishib olindi. Lekin XXSR hukumati rahbarlari olib borgan mustaqil siyosat sovet tuzumi va uning respublika hududidagi vakillariga yoqmadi. Chunki Polvonniyoz Hoji Yusupov boshliq hukumat xususiy mulk, vaqf yerlarini, diniy muassasalarni tarqatib yuborish o‘rniga ularni saqlab qolish va mustahkamlashga harakat qilayotgan edi. XXSRning Konstitutsiyasida ham xususiy mulk e’tirof etilgan edi. Bu narsa o‘sha paytdagi sovet hukumatining Xorazmdagi vakillari Skalov, Ioffe, Dubyanskiy, Shokirov va boshqalarga yoqmadi. Dubyanskiy va Shokirovlar 1920 yil avgust oyida Qo‘shmamedxon va G‘ulomalixonlarni Xivaga chaqirib, ularni yigitlari bilan qatl qilishga va bu bilan mahalliy o‘troq aholi va turkman chorvadorlari o‘rtasida nizo tug‘dirishga harakat qilishdi. G‘ulomalixon qochib qutilgan bo‘lsa ham, Qo‘shmamedxon va uning yigitlari qatl etildi. Biroq bu holatlarning hammasi Yosh xivaliklar hukumati zimmasiga yuklatildi. Natijada, 1921 yil 6 martda Xiva shahrida qizil askarlar tomonidan namoyish uyushtirilib, inqilobiy qo‘mita tuzildi va Polvonniyoz Hoji Yusupov boshliq hukumat a’zolari qamoqqa olindi. Polvonniyoz Hoji Yusupov va Nazir Sholikorovlar qochib yashirinishga ulgurishdi.

XXSRda kommunistlar olib borgan siyosat mahalliy kadrlarni, ziyolilarni, mustaqil fikrga ega bo‘lgan insonlarni yo‘qotishga qaratilgan edi. Xorazm respublikasi mavjud bo‘lgan atigi 5 yilga yaqin muddat ichida respublika hukumati-Xalq Nozirlar Sho‘rosi va Xorazm MIK raislari o‘n martadan o‘zgartirilganligi fikrimizning yaqqol isbotidir.

1920-1921-yillarda agrar sohada dastlabki o‘zgarishlar amalga oshirilib, 10000 desyatina yer dehqonlarga bo‘lib berildi. Bundan tashqari, ularga urug‘, dehqonchilik asboblari hamda ssuda (qarz) ajratildi. Dehqonlarga kredit hisobidan 5000 chorva mol sotildi. Eski sug‘orish inshootlarini qayta tiklash bilan birga yangilari ham qurildi. Masalan, 1922 yil oxirigacha Xorazm dehqonlari Hazoraspdan Xo‘jayligacha bo‘lgan hududda 12 ta damba qurdilar. 1922 yilda chorakor va kambag‘allarga yer bo‘lib berish uchun davlat yer fondi tuzishga hamda dehqonlarga uzoq muddatli va qaytarib olinmaydigan ssudalar berish uchun davlat dehqonlar bankini ta’sis etishga qaror qilindi. Bankka 3 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilgan. Xullas, 1921-1922 yillarda 400000 tanobdan ortiqroq yer kambag‘al dehqonlarga berildi.

XX asrda iqtisodiy siyosat va xo‘jalik sohasidagi islohotlar ziddiyatli tarzda kechdi. Xorazm Respublikasidagi soliq siyosatida sovet Rossiyasining ta’siri kuchliroq bo‘lganligi uchun sinfiy yondoshuv yaqqol nomoyon bo‘ldi. Soliqning og‘ir yuki savdogarlar, sudxo‘rlar va yirik yer egalari zimmasiga to‘g‘ri keldi. Qishloq xo‘jaligida yagona soliq tizimi (1922 y. dekabr) joriy qilindi. Soliq to‘lashni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish maqsadida davlat banki va soliq palatasi tashkil qilindi. Yangi iqtisodiy siyosat (NEP)ning e’lon qilinishi bilan karvonsaroylar, korxonalar, kullar va to‘qaylar ijaraga berila boshlandi. Simlari tortilib, daryo kemachiligini tiklashga kirishildi. Bir qancha yirik ko‘priklar qurildi. Paxta maydonlarining hududi 1921-yildagi 10000 tanobdan 1924-yilda 85000 tanobga, hosildorlik 100000 puddan 800000 pudga ko‘tarildi. Umumiy ekin maydonlari 1913-yildagi darajaning 62 %ni, hosildorlik 70-75 %ni tashkil qildi. 1924-yilga kelib, 6 ta paxta tozalash zavodi, 10 ta g‘isht zavodi, yog‘ zavodi, bosmaxona, elektrostansiya tiklandi. Qog‘oz va shisha zavodlari qurildi. Sanoatda davlat sektori ustivor mavqeni egalladi.

Hukumat madaniy-ma’rifiy va sog‘liqni saqlash ishlariga ham katta e’tibor qaratdi. 1920-yil bahorida Respublikada yangi tipdagi maktablar tashkil qilina boshlandi. 1921-yil sentabrida Xivada ochilgan xalq dorulfununi respublika madaniy hayotida katta voqea bo‘ldi.

Xorazm respublikasi tuzilgan davtlabki oylardan boshlab g‘oyaviy-siyosiy vaziyat keskinlashib bordi. Yosh xivaliklar hukumati, demokratik kuchlar mahalliy sharoitni tushungan holda aholining urf-odatlari va qadriyatlarini e’zozlab ish olib bordilar. Ammo Xivani bosib olish jarayonida kirib kelgan qizil armiya, uning qo‘mondonlari, yevropalik bolsheviklar respublikadagi ijtimoiy-siyosiy hayotga salbiy ta’sir ko‘rsatdilar. Ular mahalliy sharoitni, xalq ommasi kayfiyati va

qarashlarini nazar-pisand qilmay tezkorlik bilan inqilobiy chora-tadbirlarni amalga oshirishga kirishdilar. Bu ishlarni amalga oshirishda Xorazm Kompartiyasi (1921-yil dekabrda tuzilgan) ularning eng yaqin yordamchisiga aylandi.

Xorazm respublikasida keyingi yillarda ham g‘oyaviy-siyosiy kurash davom etdi. Respublikaning ko‘plab rahbarlari mustaqillik uchun, adolatsizlikka qarshi kurashni to‘xtatmadilar. 1923-yil bahorida savdo-sanoat noziri Nurullayev Moskvada RSFSR bilan bo‘layotgan muzokaralarda qat’iylik ko‘rsatgani uchun Xorazmga chaqirilib, qamoqqa olindi. Sovet Rossiyasining ko‘rsatmalari asosida 1923-yil yoz-kuzida Xorazm respublikasida tub siyosiy to‘ntarish amalga oshirildi. 1923-yil oktyabrda XXSR Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi (XSSR)ga aylantirildi. XSSRning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Afsuski, bu Konstitutsiya mamlakatni sotsialistik qurilish yo‘liga o‘tishini qonun yo‘li bilan mustahkamladi.

Xulosa qilib aytganda, 1923-yil kuzidan boshlab Xorazm respublikasidagi demokratik o‘zgarishlarga butunlay chek qo‘yildi. Xorazmni sovetlashtirish jarayoni o‘zining yuqori bosqichiga ko‘tarildi. Bu holat 1924 yilning oxirigacha davom etdi.

Buxoro amirligining ag‘darilishi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi va undagi siyosiy o‘zgarishlar

1917-yil Buxoro amirligi ham xuddi Xiva xonligi singari muhim o‘zgarishlar arafasida turardi. Bu davrda Buxoroda jadidchilik harakati va undan o‘sib chiqqan Yosh buxoroliklar partiyasining faoliyati kuchaydi. Yosh buxoroliklar 1910 yildayoq o‘zlarni alohida tashkilot sifatida e’lon qilgan edilar. Ular dastavval mavjud monarxiya tuzumi doirasida demokratik islohotlar o‘tkazish, konstitutsion monarxiyani o‘rnatish orqali amirning mutloq hokimligini cheklab qo‘yish tarafdori bo‘lishgan.

1917-yil 7 aprelda Buxoro amiri Said Olimxon mamlakatda islohotlar o‘tkazish to‘g‘risida farmon chiqarsa ham, amalda uni joriy qilmadi. Jadidlar Buxoro shahrida namoyish uyushtirganlaridan so‘ng mamlakatda ularni yoppasiga ta’qib etish boshlandi.

Buxorodagi aprel voqealarining yakuni shu bo‘ldiki, hukumatda konservativ kuchlar yana ustunlikka erishdilar. Said Olimxon qozikalon Sharifjon Maxdumni lavozimidan bo‘shatdi, g‘azablangan mutaassiblar rais Abdusamadxo‘jani olomon qilib o‘ldirdilar. Nasrullobek

qo‘shbegining buyrug‘i bilan Yosh buxorolik jadidlarning mashhur namoyandasi Sadriddin Ayniy va boshqalar 75 tayoq urib jazolandilar. Islohotchilik harakatining bu bosqichi mana shunday noxushlik bilan yakunlandi.

Oktabr to‘ntarishidan keyin sovet Rossiyasi bilan Buxoro amirligi o‘rtasidagi munosabatlar keskinlashdi. Turkiston respublikasining bolsheviklardan iborat rahbariyati Buxoro amirligining davlat mustaqilligini rasmiy ravishda tan olishiga qaramay, amalda uning ichki ishlariga doimiy ravishda aralashib turdi.

Yosh buxoroliklar amirlik istibdodiga qarshi kurashni davom ettirdi. Partiya ichida turli guruhlarning borligi, qarashlarning xilma-xilligi tufayli yagona dastur tuzishga ehtiyoj tug‘ildi. Markaziy qo‘mita bu vazifani 1917 yil noyabrda Fitratga topshirdi. Fitrat tomonidan 1918 yil yanvarda yozilgan Yosh buxoroliklar partiyasining dasturi (programmasi) Markaziy qo‘mita tomonidan tasdiqlandi va islohot loyihasi sifatida e’lon qilindi. Unda Buxoro mamlakatida konstitutsiyaviy monarxiya o‘rnatish, Buxoroning iqtisodiy, siyosiy va harbiy mustaqilligini ta’minlash, madaniy taraqqiyotga erishish lozimligi, dehqonchilik va soliq tizimiga alohida e’tibor berildi. Buxoroda zamonaviy armiyani tashkil etish, 2 yillik majburiy harbiy xizmatni joriy qilish, davlat hisobidan maktablar va oliy o‘quv yurtlari ochish zarurligi aytildi. Loyihada Buxoroda 10 ta nozirlikdan iborat Nozirlar Sho‘rosi tuzish taklif etildi. Keyinchalik Fayzulla Xo‘jayev Fitrat loyihasining ancha cheklanganligini tanqid qilib, unda boshqaruvning respublika usulini joriy etish talab qilinmaganligini ko‘rsatgan edi.

Turkiston XKS Buxoro davlatiga g‘animlik qilib, amir hukumatini kuch bilan ag‘darishga urindi. Bolsheviklar shu maqsadda Yosh buxorolik jadidlarni qo‘llab-quvvatlashdi. 1918-yil mart oyida Turkiston o‘lkasi XKS raisi F. Kolesov qo‘mondonligidagi qizil askarlar mamlakat poytaxti Buxoro shahriga hujum uyushtirdilar. Ularning hujumi muvaffaqiyatsiz tugagan bo‘lsa ham, Buxorodagi siyosiy tuzumni o‘zgartirish uchun urinish to‘xtamadi. Afsuski, Amir Olimxon mamlakat taqdiri hal qilinayotgan ushbu fursatda muxolifatdagi Yosh buxoroliklar partiyasi arboblari bilan til topisha olmadi. U mamlakatla konstitutsion monarxiya va demokratik tartibotlarni o‘rnatmoqchi bo‘lgan jadidlar-Yosh buxoroliklarni yo‘qotish yo‘lini tutdi. Fayzulla Xo‘jayevning ta’kidlashicha, Kolesov voqeasidan keyin amir mamlakatda 3000 kishini qatl qilgan. Sadriddin Ayniyning yozishicha, faqat poytaxt - Eski Buxoro emas, balki G‘ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Qorako‘l, Chorjo‘y, Xatirchi,

Karmana, Qarshi, Shahrisabz bekliklarida ham minglab kishilar jadidlikda ayiblanib, nohaq o‘ldirildi. Buxorolik jadidlarning tirik qolgan vakillari Samarqand, Toshkent va Moskvaga jo‘nab ketishga majbur bo‘lishdi. Yosh buxoroliklarning bir qismi 1918- yilning yozida Toshkentda Buxoro Kompartiyasini tuzishdi. Fayzulla Xo‘jayev Moskvadagi muhojirlik davrida - 1918 yil oktabrda Turkiston respublikasining RSFSR hukumati huzuridagi muxtor vakolatxonasi qoshida Yosh buxoroliklar partiyasining bo‘limini tashkil qildi. 1920-yil yanvarda Toshkentda Fayzulla Xo‘jayev boshchiligidagi inqilobchi Yosh buxoroliklar partiyasining Turkiston Markaziy byurosi tuzildi. Bolsheviklar Yosh buxoroliklardan amirlik hokimiyatini ag‘darishda foydalandilar. Ular ham taktik maqsadlarni ko‘zlagan holda bolsheviklarga yaqinlashishdi.

Yosh buxoroliklar partiyasining Turkiston Markaziy byurosi 1920 yil 13-14 iyunda bo‘lgan birlashgan konferensiyasida Fayzulla Xo‘jayev tuzgan dastur (programma)ni qabul qildi. Dastur “Zulmga qarshi birlashingiz!” degan shior va kirish qismi bilan boshlanadi. Bu qismda Buxoroning umumiy ahvoli va Yosh buxoroliklarning asosiy maqsadlari, ikkinchi qismida esa Yosh buxoroliklarning amaliy takliflari, islohot va mamlakatning idora qilishni tashkil qilish rejasi bayon etildi. Shariat-adliya ishlarini olib borishning negizi, deb quyidagicha e’tirof qilindi: ”Shariat-adolatni talqin qiluvchi va kambag‘allarni himoya etuvchidir”. Dasturda amirlikni qurol kuchi bilan ag‘darib tashlash va Buxoroni demokratik xalq respublikasi deb e’lon qilish talabi qo‘yildi. Yosh buxoroliklar katta boylar qo‘lidagi yerlarni musodara qilish, bepul boshlang‘ich ta’lim joriy etish, shuningdek, qishloq xo‘jaligi, hunarmandlar sanoati, ichki va tashqi savdoning ahvolini yaxshilash yo‘lida amaliy chora-tadbirlar ko‘rish zarurligini ta’kidlashdi.

1920-yil 25 avgustda Turkiston fronti qo‘mondoni M.V.Frunze qizil askarlarga Buxoroni bosib olish uchun buyruq berdi. Keskin janglardan so‘ng-2 sentyabrda Buxoro shahri bosib olinib Sayid Olimxon hokimiyatdan ag‘darib tashlandi. Qizil askarlar Sharqning eng qadimgi shaharlaridan biri, “Islom dinining gumbazi” va “sharif shahar” hisoblangan muqaddas Buxoroni vayron qildilar. Qadimiy Buxoro o‘t va xarobalar ichida qoldi.

Shafqatsiz o‘q yomg‘iri va bombardimon natijasida shahar obidalarining beshdan bir qismi vayron etilib, minglab begunoh odamlar nobud bo‘lgan. O‘sha davr voqealarining bevosita shohidi bo‘lgan mahalliy tarixchi Muhammad Ali Baljuvoniy o‘zining “Tarixi Nofeiy” (“Foydali tarix”) asarida qizil askarlar tomonidan qilingan Buxoro bosqini

oqibatlarini quyidagicha tasvirlaydi: “Buxoroni bosib olish natijasida 34 guzar, 3000 dan ortiq do‘kon, 20 ta saroy, 29 ta masjid yonib xarob bo‘ldi. Minorayi Kalonga ham zarar yetib, Olimxon va Mir Arab madrasalari yonib ketdi... Hazrati Imom darvozasidan Guzari Nazargacha, Kofirobod, O‘g‘lon darvozasi, Masjidi Kalon, Zindondan To‘qimdo‘ziy hammomigacha, minora ostidan to So‘zangaron dahasi, Gul bozor, Lattafurushlar rastasi, Registondan to Puli oshiqonning boshigacha batamom yonib ketdi. Qarshi darvozasi ham yonib ketdi... Shaharda 3000ga yaqin hovli yonib kul bo‘ldi. Buxoro shahri qariyb 20 kun yongandi. Buxoroning shu darajada xarob bo‘lganini hech bir tarix ko‘rmagan edi”. Buxoroliklar bu kunlarni “kichik qiyomat” deb atashgan.

Shaharga kirgan qizil askarlar Arkdagi amir xazinasini, Buxoro qozikaloni, qo‘shbegi va boshqa amaldorlarning boyligini musodara qilganlar. askarlar va qo‘shin rahbarlari katta boylik orttirganlar. Hatto Frunze xazinadagi qimmatbaho boyliklarning bir qismini o‘zi uchun saqlab qo‘ygan. Turkiston harbiy-inqilobiy byuro “uchligi”ning a’zosi A.Mashitskiyning 1920 yil sentyabrda V.I.Leninga yozgan ma’lumotnomasida shahar markazi yakson qilinganligi, Registon va Ark yondirilgani, Ark yerto‘lalari va omborxonalaridagi boyliklar-oltin, kumush, brilliantlar talangani, bunda qizil armiya bevosita qatnashgani haqida xabar bergan.

Sentabr oyining boshida amirlik xazinasi va boshqa boyliklar ortilgan 2 eshelon yuk Samarqand va Toshkent orqali Moskvaga yo‘l oldi. Qariyb 15 sentabrgacha davom etgan Buxoro talovining guvohi bo‘lgan Turkbyuro raisi o‘rinbosari G.Safarov quyidagicha yozgan edi: “Buxoroga kelgan qizil qo‘shinlar eng avvalo talonchilik bilan shug‘ullandilar. Ular hammani va hamma narsani taladilar. Umuman qizillar Buxoroni talash uchun kelgan edilar”.

Buxoro shahridan so‘ng qizil armiya 27 beklik (ba’zi manbalarda 32 beklik)ni ham birin-ketin egallab, Buxoro amirligiga barham berishdi.

1920-yil 14-sentabrda bo‘lgan Xalq Nozirlar Sho‘rosi, Revkom va Buxoro Kompartiyasi MKning umumiy yig‘ilishida 9 kishidan iborat Butun Buxoro inqilobiy qo‘mitasi (raisi-Abdulqodir Muhitdinov) va respublika hukumati - 11 kishidan iborat Xalq Nozirlar Sho‘rosi (raisi-Fayzulla Xo‘jayev) tuzildi. Mamlakatni boshqarish maqsadida tuzilgan Buxoro Xalq Nozirlar Sho‘rosi tarkibi quyidagicha edi: rais va xorijiy-tashqi ishlar (nozir-Fayzulla Xo‘jayev), maorif (Qori Yo‘ldosh Po‘latov), doxiliya-ichki ishlar (Muxtor Saidjonov), moliya (Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev), davlat nazorati (Najib Husayinov), favqulodda komissiya

(Cheka raisi-Yusuf Ibrohimov), adliya (Mukammil Burhonov), harbiy ishlar (Bahovuddin Shihobuddinov), yer-suv ishlari-dehqonchilik (Abdulqodir Muhitdinov), savdo va sanoat (Mirzo Muhitdin Mansurov) nozirliklari. Bu paytga kelib inqilobchilik ta'sirida bo'lgan Yosh buxoroliklar partiyasi a'zolari Buxoro Kompartiyasi safiga kirishga majbur bo'lgan edilar. Ushbu o'rinda ta'kidlash joizki, asosan jadidlardan tashkil topgan Buxoro hukumati o'sha paytda ma'lumotli kishilar yig'ilgan hukumatlardan biri hisoblangan. Buxoro jadidlari o'zlarining islohotchilik g'oyalarini yangi hukumatdagi faoliyatlari davomida amalga oshirishga harakat qildilar.

1920-yil 6-8 oktabrda amirning yozgi saroyi-Sitorayi Mohi Xosada chaqirilgan Butun Buxoro xalq vakillarining I qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tuzilganligi tantanali ravishda e'lon qilindi. Bu davlat tuzumi jihatidan xalq demokratik hokimiyati edi. Uning zimmasiga qisqa muddat ichida o'rta asrchilik an'analari meros qolgan amirlik Buxorosini demokratik davlatga aylantirishdek tarixiy vazifani bajarish tushdi. Qurultoy davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi oliy organi bo'lgan Buxoro inqilobiy qo'mitasi (Markaziy Revkom), Buxoro Xalq Nozirlar Sho'rosi-dastlabki hukumat tarkibini uzil-kesil tasdiqladi. Ularning vakolat muddati II qurultoygacha uzaytirildi. 1920-yil oktabr-noyabr oylarida BXSR bilan RSFSR o'rtasida muvaqqat harbiy-siyosiy ahdlashuv va shartnoma tuzildi. 1921-yil 4-martda har ikki davlat o'rtasida Ittifoq shartnomasi imzolandi. Ushbu shartnomalar mustaqil siyosat yuritishga harakat qilayotgan yosh Buxoro davlati arboblari faoliyatini muayyan darajada cheklashga olib keldi. Ittifoq shartnomasi mustaqil Buxoro davlati hududida sovet qo'shinlari turishini "qonuniy" asoslab berdiki, mazkur hol BXSR ichki ishlariga Rossiyaning to'g'ridan-to'g'ri harbiy jihatdan qurolli aralashuvidan boshqa narsa emas edi.

Buxoro hukumati oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri yer-suv masalasini hal qilish edi. 1920-yil 30-sentabrda Buxoro Markaziy Revkomi «Yer to'g'risida»gi dekretni qabul qildi. Dekretga muvofiq, sobiq amir unig qarindoshlari va amaldorlari qo'lidagi butun yer-mulk kambag'al va yersiz dehqonlarga berilishi kerak edi. Shuningdek, dekretga ko'ra, «xiroj», «amlok» va boshqa soliqlar bekor qilindi. Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, faqat Eski Buxoro tumanlari va Chorjo'y bekligida sobiq amir va beklarga qarashli 10000 tanob yer musodara qilinib, kambag'al dehqonlarga taqsimlab berildi.

Buxorodagi yangi tuzum va uning ijobiy chora-tadbirlarini aholi ma'qullab kutib oldi. Biroq yangi hokimiyat tomonidan mulkdorlar

tabaqasiga nisbatan ko‘rilgan qattiq choralar, ularga tegishli butun mol-mulkning musodara qilinishi, saroy a’yonlari va amir amaldorlarining yoppasiga hibsga olinishi va otib tashlanishi amir xazinasining Moskvaga olib ketilishi, majburiy oziq-ovqat razvyorstkasi va uning qattiqqo‘llik bilan amalga oshirilishi, islom dini va ulamolariga nisbatan dushmanlik siyosati, respublika hududida turgan qizil armiya ta’minotining aholi zimmasiga yuklatilishi, buning ustiga, qizil askarlarning bosqinchilik va talonchilik faoliyati haqqoniy ravishda xalqning kuchli noroziligiga sabab bo‘ldi. Respublikadagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar ham keskinlashdi. Buxoroda amir hokimiyati ag‘darib tashlangan dastlabki xaftalardayoq mamlakatning g‘arbiy, markaziy va sharqiy qismlarida qizil armiyaning bosqinchilik siyosati va bolsheviklar zulmiga qarshi boshlangan qurolchilik harakati avj olib ketdi.

Yosh davlat yetakchisi Fayzulla Xo‘jayev murakkab va og‘ir sharoitda ishlashga majbur bo‘ldi. Buxoro hukumati ichida siyosiy bo‘linish kuchaydi. Bir tarafdan, Buxoro Kompartiyasi ichidagi so‘l va o‘ng kommunistlarga qarshi g‘oyaviy jihatdan kurash olib borishga to‘g‘ri kelsa, ikkinchi tarafdan, RSFSR va uning favqulodda organlari bo‘lgan Turkkomissiya, Turkbyuro, O‘rta Osiyo byurosi yosh mustaqil davlatning bosgan har bir qadamini sergaklik bilan nazorat qilib turar edi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan F.Xo‘jayev, U. Po‘latxo‘jayev, Otaulla Xo‘jayev, Fitrat, Muinjon Aminov, Muxtor Sayidjonov, Sattor Xo‘jayev, M.Mansurov, A. Muhitdinov va boshqalar hukumatda demokratik yo‘l tutib, mo`tadil mavqeda turdilar. Ular BXSRning amalda mustaqil bo‘lishi, islohotlar o‘tkazish zarurligini yoqlab chiqdilar.

1921-yil 18-23 sentabrda bo‘lgan Butun Buxoro xalq vakillarining II qurultoyida demokratik ruhdagi BXSR Konstitutsiyasi qabul qilindi. Buxoro tarixidagi dastlabki Konstitutsiya fuqarolarning demokratik huquq va erkinliklarini qonun bilan mustahkamladi. Konstitutsiyada davlatni idora etish uchun xalqning barcha tabaqa vakillarining ishtiroki ta’minlandi. Xususiy mulk va savdo-sotiq erkinliklari unda o‘z ifodasini topdi. BXSR Konstitutsiyasi barcha fuqarolarga teng siyosiy huquq berdi, milliy tengsizlikni yo‘qotdi.

II qurultoyda Butun Buxoro MIK tashkil qilinib, uning raisi qilib Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev (1887-1968) saylandi. 1922 yil avgustda bo‘lgan III qurultoyda bu lavozimni Porso Xo‘jayev egalladi.

Buxoro Respubliksidagi iqtisodiy siyosat va xo‘jalik sohasidagi islohotlar ziddiyatli tarzda kechdi. Buxoro inqilobiy qo‘mitasining 1921 yil 2 fevraldagi dekreti hamma yerlarni umumxalq mulki deb e’lon qildi.

Vaqf yerlari tugatildi, ayrim toifadagi xo‘jaliklarning chorva mollari va mulklari musodara qilindi. Sug‘orish tizimi izdan chiqdi. Ekin maydonlari qisqarib chorva mollarining soni kamayib ketdi. Shu bilan bir vaqtda ko‘plab ijobiy ishlar ham amalga oshirildi. 1921 yil kuzida yerni tortib olish bekor qilindi. BXSR MIKning umumiy avf to‘g‘risidagi 1922 yil 25 may dekreti vaqflarni tugatishni to‘xtatish, qozixonalar ishini shariat ko‘rsatmalarini tiklash va boshqalarini e’lon qildi. O‘sha yilning noyabr oyida yangi iqtisodiy siyosat (NEP)ga o‘tish e’lon qilindi. Buxoro davlat banki tuzilib, «pul islohoti» amalga oshirildi. Dehqonlarni moddiy rag‘batlantirish choralari ko‘rildi. Bu qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlanishiga olib keldi. 1923 yili sug‘oriladigan yerlar maydoni 1913 yildagi darajaga yaqinlashib qoldi. Temir yo‘l tiklanib, zavod va fabrikalar qaytadan ishga tushdi. Bu paytga kelib, Buxoro Respublikasida 19 ta korxona, 500 dan ortiq bozor ishlab turdi. Xususiy sarmoya 12000 savdogarlar mablag‘idan iborat bo‘ldi.

1923-yil mart oyida Turkiston, Buxoro va Xorazm iqtisodiy jihatdan birlashtirildi va uni boshqarish uchun O‘rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi (SredAz EKOSO) tuzildi. BXSR hukumati raisi Fayzulla Xo‘jayev O‘rta Osiyoning iqtisodiy jihatdan birlashuvi to‘g‘risidagi fikrni boshida qo‘llab-quvvatlamadi. Chunki u iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish, hatto mintaqa xalq xo‘jaligi istiqbollari to‘g‘risida qaror qabul qilishgacha bo‘lgan barcha ishlar markaz qo‘liga o‘tayotganligini eng avvalo sezgan va bu siyosatning mash’um oqibatlarini chuqur tushungan arbob edi. O‘zi kuchli iqtisodchi bo‘lgan Fayzulla Xo‘jayev Buxoro tomonidan Rossiya va Turkistonga yetkazib beriladigan mollarga aniq tovar ekvivalentini belgilash zarurligi to‘g‘risida ayniqsa, tashvishlanib gapirar edi. Buxoro hududida joylashgan sovet Rossiyasi qo‘shinlari Buxoro davlatining oziq-ovqati va yem-hashagi bilan ta’minlanar edi. Hukumat boshlig‘i F.Xo‘jayev Rossiya qo‘shinlari sonini 15000 kishigacha qisqartirish to‘g‘risidagi masalani Moskva oldiga bir necha marta qo‘ydi.

Biroq Buxoro respublikasidagi demokratik jarayonlarga mamlakat tashqarisidan tazyiq tobora kuchayib bordi. 1923 yil 3 iyunda Buxoroga SSSR Qurolli kuchlarining Bosh qo‘mondoni S.S.Kamenev, Turkfront Inqilobiy harbiy kengashi raisi A.I.Kork, RKP (b) MK O‘rta Osiyo byurosi a’zosi Mixaylov va boshqalar kelishdi. Ular Buxoro hukumati faoliyatidan qoniqmayotganliklarini ochiq aytib, sotsialistik o‘zgarishlarni jadallashtirish kerakligini ta’kidlashdi. Oradan ko‘p o‘tmay-12 iyunda RKP (b) MK Siyosiy byurosi maxsus qaror qabul qilib, Buxoro hukumatini sovetlashtirish chora-tadbirlarini belgilab berdi. Sovet

hukumati o‘z buyruqlarini tez va qarshiliksiz amalga oshirish uchun RKP (B) MK kotibi YA.E.Rudzutakni Buxoroga jo‘natdi. 23 iyunda BKP MK yopiq plenumida Rudzutak ishtirok qilib, Buxoro hukumati rahbarlari va mahalliy kommunistlar oldiga qat’iy talablarni qo‘ydi. Fayzulla Xo‘jayevning eng yaqin safdoshlari bo‘lgan sobiq Yosh buxorolik jadidlar Otaulla Xo‘jayev (tashqi ishlar noziri), Fitrat (maorif noziri), Sattor Xo‘jayev (moliya noziri), Muinjon Aminov (Buxoro EKOSO rayisi) lavozimlaridan chetlashtirilib, Buxoro davlati hududidan chiqarib yuborildi. Qori Yo‘ldosh Po‘latov, Abduraxim Yusufzoda, Muzaxar Maxsum Burhonov, Hoji Hamro Yo‘ldoshev ham ma’sul lavozimlardan olib tashlandi. Buxoro hukumati Moskva va Toshkentning “kommunistcha sabog‘i”ni olgan “tajribali sovet xodimlari” bilan to‘ldirildi.

Buxoro hukumatida Turkistondan yuborilgan emissarlarning ta’siri tobora kuchayib bordi. Kommunistik unsurlar bu bilan cheklanib qolmasdan 14 avgustda bo‘lgan Buxoro MIK favqulodda sessiyasida Konstitutsiya matniga o‘zgartirish kiritishga ham muvaffaq bo‘ldilar. 1923-yil 11-17 oktabrda bo‘lgan Butun Buxoro xalq vakillarining IV qurultoyi Konstitutsiyani o‘zgartirish to‘g‘risidagi qarorni tasdiqladi. Unga binoan barcha savdogar, mulkdor va sobiq amaldorlar saylov huquqidan mahrum qilindi. Ammo ishchi va kosiblarning saylov huquqi kengaytirildi. Shuningdek, qurultoy jamiyatda ijtimoiy beqarorlikni kuchaytiradigan “Sovet qurilishi to‘g‘risida” nomli maxsus qaror qabul qildi. Jamiyat tobora siyosiylashib bordi. Buxoroda o‘tkazilayotgan demokratik islohotlarning taqdiri xavf ostida qoldi. Markazning talabi bilan mamlakatda sun’iy ravishda sotsialistik qayta qurishlarni amalga oshirishga kirishildi. Respublikadagi bu keskin vaziyat qurolli muxolifat harakatining kuchayishida ham o‘z ifodasini topdi.

Shunday qilib, 1923 yil yozida mustabid sovet tuzumi Buxoroda o‘ziga xos davlat to‘ntarishini amalga oshirdi. Milliy qo‘shin va milliy valyuta bolsheviklar tomonidan tugatildi. Bu holat Buxoro mustaqilligiga katta xavf tug‘dirdi. Biroq Xorazm respublikasidan farqli ravishda, faqat 1924-yil kuzidan boshlab Buxoroda sotsialistik taraqqiyot tomon yo‘nalish boshlandi.

1924-yil 18-20 sentabrda bo‘lib o‘tgan Butun Buxoro xalq vakillarining V qurultoyida BXSR Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi (BSSR)ga aylantirildi. BSSRning tuzilishi yuqoridan turib sun’iy tarzda amalga oshirilgan xodisa edi. Natijada taraqqiyotning demokratik yo‘li inkor qilinib, sotsialistik yo‘nalishi tanlandi. Markazdagi bolshevik

rahbarlarining Buxoro va Xorazm respublikalarini sotsialistik respublikalarga aylantirishdan ko‘zda tutgan asosiy maqsadi - mahalliy xalqlarni tezroq sovetlashtirish va ruslashtirish, xalqimiz ongiga kommunizm mafkurasini majburan singdirish edi. 1924-yil noyabr oyi oxirida xuddi Xorazm respublikasi singari Buxoro SSR ham tugatilib, uning hududi 1925-yilda tashkil etilgan O‘zbekiston SSR (1929 yilgacha tarkibida Tojikiston ASSR ham bo‘lgan) va Turkmaniston SSRga kiritildi.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro va Xorazm Xalq respublikalarining demokratik islohotlar tomon bosib o‘tgan yo‘li o‘sha davr uchun ham, bugungi kun nuqtai nazaridan olib qaralganda ham, mashaqqatli va ulug‘ yo‘l bo‘ldi. Buxoro va Xorazm respublikalari atigi 4-5 yil ichida dunyoviy islohotlar joriy qilinayotgan demokratik davlatga aylana boshladi. Afsuski, bu jarayonlar mustabid sovet tuzumi tomonidan sun’iy ravishda to‘xtatib qo‘yildi va nisbatan mustaqil bo‘lgan bu davlatlarning mavjudligiga ham barham berildi.

Buxoro va Xorazm respublikalarining tugatilishi bilan kamida uch ming yillik tarixga ega bo‘lgan o‘zbek xalqining milliy davlatchilik xalqasi deyarli uzib tashlandi. O‘zbekiston SSR tuzilsa ham (1925 yil fevral) oradan ko‘p o‘tmay u SSSR tarkibiga kiritildi. O‘zSSR amalda hech qanday mustaqil siyosiy huquqlarga ega bo‘lmay, balki yangi shakldagi mustabid sovet rejimining bir qismi bo‘lganligi uchun ham mustaqil davlat vazifasini o‘tay olmadi.

14-Mavzu. 20-30 yillarda sovet hokimiyatining O‘zbekistonda yuritgan iqtisodiy va madaniy siyosati, uning mustamlakachilik mohiyati. Siyosiy qatag‘onlik.

O`zbekistonda sovet hokimiyatining iqtisodiy va ijtimoiy siyosati mohiyati

20-yillar tariximizga o`ta murakkab va ziddiyatli, turli ijtimoiy guruh va kuchlar siyosiy qarama-qarshiligi avj olgan, Turkistonda Markazning imperiyacha munosabatlar mustahkamlanayotgan, o`lkadagi ochlik, iqtisodiy tanglik, vayronaga aylangan sanoat, transport, qishloq xo`jaligini tiklash, ya’ni sho`rolarning “tinch sotsialistik qurilish” yo`liga o`tish davri bo`lib kiradi. Ushbu davrdagi eng dolzarb masalalardan biri bu- hokimiyat masalasi edi. Milliy muxolif kuchlar esa hokimiyat masalasini birinchi navbatda xalqning o`z taqdirini o`zi belgilashda ko`rishar edi. Sanoat va qishloq xo`jaligining inqirozi, ochlik, inqilobcha zo`ravonlikning kuchayishi mahalliy xalq milliy manfaatlarining

ochiqdan-ochiq inkor etilishi Turkistondagi turli ijtimoiy qatlamlar orasida sovet hokimiyatiga nisbatan ishonchsizlik va norozilikni keltirib chiqarmoqda edi. Aholining aksariyati sovet hokimiyatini qizil armiyachilarning quroli yordamida zo`rlik bilan olib kirilgan hokimiyat sifatida tan olmas, ular tashkil etayotgan sovetlar va ularning ijroiya qo`mitalari tub aholi orasida obro`ga ega emasligi sovet tuzilmalariga qarshi chiqishlarni keltirib chiqarmoqda edi.

Kommunistik partiya o`zining siyosiy pozisiyalari hamda sovet davlat tuzumini mustahkamlash bilan birga sovetlarning ijroiya qo‘mitalarini qaytadan tiklash ishlarini olib bordi. Ushbu tartib joylarda o`lkaning ijtimoiy-siyosiy hayotida demokratik jarayonlarni kengaytirish, xalq hokimiyatini tiklash shiorlari ostida o‘tdi. Ammo, tarix ko`rsatib turganidek, aslida bu jarayon tashviqot-mafkuraviy xarakterda bo`lib, jamiyat va davlat boshqaruvida keng xalq ommasining ishtirokini ko`rsatishdek tuyulardi. Lekin haqiqatda bunday emas edi. Ko`p joylarda mahalliy aholi saylash huquqidan mahrum edi. Masalan, “BXSRda sud qurilishi haqida nizom”ning xalq maslahatchilarini saylash tartibi haqidagi 3-bob 20-moddasida ko`rsatilishicha, taqsimot taxminan maslahatchilarning 25% ishchilardan, 50% qishloqlar va kentlardan, ya’ni dehqonlar va 25% harbiy qismlardan bo`lishi hisobida edi. Bolsheviklar keng huquqlar va imtiyozlar bergan ishchi va soldatlarning mutlaqo ko`pchilik qismi ruslar bo`lib, oqibatda, rahbar lavozimlarning aksariyati ulardan tashkil topgan, milliy ziyolilarning asosiy qismi esa saylov huquqidan umuman mahrum qilingan, bu erda ziyoli tabaqa umuman odil sudlovga yaqinlashtirilmagan. 1923 yilda Sirdaryo, Samarqand, Farg‘ona viloyatlarida saylovga xalq sud’yasi va 46624 ta xalq maslahatchilarining tarkibi 73,5% ishchi, 19% dehqon va 7,5% qizil askarlardan iborat. Bundan ko`rinib turibdiki, xalqni himoya qilishi kerak bo`lgan sudga birorta mutaxassis yaqinlashtirilmay, faqat bolsheviklarning siyosatini to`g‘ri, degan kishilar kirgizilgan. TASSRda esa 1920 yilda aholining 93-97 %ni musulmon aholisi, 3-7 %ni ruslar tashkil qilgani holda, xalq sud’yalarining 48%ni ruslar, 52%ni musulmonlar, sud hay’ati a’zolarining 75%ni ruslar, 25%ni musulmonlar tashkil etgan.

Sovet hukumati mahalliy aholiga nisbatan bepisand bo‘lib, aksariyat tarzda ham unga ishonmas edi. Shuning uchun ham u o`z siyosiy tuzilmalariga milliy xodimlarni nihoyatda kam jalb qilgan edi.

Partiyaning ushbu mustabidlik yo`nalishi Turkiston xalqi hayotiga salbiy ta’sir qildi, mahalliy aholi mustaqil huquqlarga ega emas, o`z manfaatlarini himoya qilishga bo`lgan urinishlar esa “millatchilik” deb

baholanib, qatag‘ongacha olib kelingan. XX asrning 20-yillaridagi Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy ahvol mana shunday edi.

1921 yilning bahoriga kelib sovet hokimiyati oldida vayron bo`lgan qishloq xo`jaligini tiklash vazifasi ko`ndalang bo`lib turdi. Buning asosiy sababi esa dehqonlarning ko`plab ko`tarilishlari bo`ldi. Bu esa siyosatni qaytadan ko‘rib chiqish, sanoat bilan qishloq xo`jaligi o`rtasida ta’sirchan iqtisodiy aloqalarni yo`lga qo`yish zaruratini keltirib chiqardi.

O`zbekistonda qishloq xo‘jaligi respublika milliy daromadining asosiy qismini berganligi, dehqonlar esa aholining 80 foizini tashkil etganligi tufayli sovet hokimiyatining dastlabki yillarida agrar masala markaziy o‘rinni egallardi.

Markazdan farqli o`laroq, O`rta Osiyo respublikalarining 20-yillardagi agrar siyosatida nisbatan keskin choralar ko`rilgan. 1920-1921 yillardagi yer-suv islohotining amalga oshirilishi Yangi Iqtisodiy Siyosat (NEP) bilan birga olib borildi. Yangi iqtisodiy siyosatdan ko‘zlangan maqsad - mahsulot ishlab chiqaruvchi yakka dehqonlarning manfaatini oshirish, uning yerga egalik qilishini ta’minlash, imtiyozli soliq olish va bozor iqtisodiyoti, tovar-pul munosabatlariga o`tish edi. Uning asosiy bo‘g‘inlarini oziq-ovqat razvyortkasining oziq-ovqat solig‘i bilan almashtirilishi, erkin savdo, sanoatda xususiy tashabbuskorlik va tadbirkorlikning joriy qilinishi tashkil etdi.

Oziq-ovqat razvyortkasining soliq bilan almashtirilishi qishloq xo`jalik ishlab chiqarishni ko`paytirishning iqtisodiy rag‘batlarini vujudga keltirdi hamda dehqon hosilning qat’iy belgilangan qismini topshirgach, unga o`z mehnati mahsulini o`zi istaganicha tasarruf etish huquqi berildi. Yangi iqtisodiy siyosat yo`lining o`ziga xos xususiyati - tovar-pul munosabatlarining jonlanishi, savdo va ayirboshlashda cheklashlardan ozod bo`lish edi. Erkin savdoning sog‘lomlashuviga 1922-1924 yillarda o`tkazilgan pul islohoti ma’lum darajada yordam berdi. Muomalaga kursi oltinga tenglashtirilgan valyuta-chervonestning chiqarilishi bozor rolining tiklanishida muhim ahamiyatga ega bo`ldi.

Yer-suv islohotini amalga oshirishdan ko`zlangan asosiy maqsad-mahalliy hamda Turkistondagi boy rus dehqonlarining er va suvga bo`lgan huquqlarini tenglashtirish edi. Chunki o‘z vaqtida mustamlakachi ma’murlari tomonidan rus dehqonlariga eng yaxshi va hosildor yerlar ajratilgan edi.

Yer-suv islohotining xarakteri 1920 yil sentabrda bo`lib o`tgan Turkiston Sovetlari IX - qurultoyining qarorlarida aks etdi. Ushbu dasturning asosida mehnat bilan shug‘ullanmaydigan boy-quloq

xo‘jaliklarini tugatish va ko‘chmanchilarni o‘troq hayotga o‘tkazish, yersiz va kam yerli dehqonlarni yer bilan ta’minlash va eng asosiysi rus kelgindilarining ortiqcha yerlarini musodara qilish orqali Rossiya imperiyasi mustamlakachilik sarqitlarini yengish yotar edi. Lekin vaqt o`tishi bilan ko`chirib keltirilgan ruslardan yerlarni musodara qilish bilan bir qatorda vaqf yerlari tortib olindi, boylar, mannoplar, savdogarlar, diniy xizmatchilar va qishloq hamda ovullarning “mehnat bilan shug‘ullanmaydigan yuqori tabaqalari” degan boshqa vakillarining yerlari kamaytirildi.

Yer va suvni taqsimlash jarayoni bir tomondan yersiz va kam yerli dehqonlarni yer bilan ta’minlagan bo‘lsa, ikkinchi tomondan qishloqdagi siyosiy vaziyatni o‘ta keskinlashtirib, sinfiy ziddiyatlarni kuchaytirdi. Shuningdek, islohot davomida Yettisuv va Jalolobod tumanlarining ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholisini o‘troq hayotga o‘tkazish siyosati salbiy oqibatlarga olib keldi. Zero, ko‘chmanchilikdan o‘troqchilikka o‘tish, nafaqat xo‘jalik faoliyat shakllarini o‘zgartiribgina qolmay, balki asrlar davomida shakllanib kelgan ushbu ijtimoiy guruhning turmush tarzi hamda kasb-hunarining tamomila o‘zgartirib yuborishi muqarrar edi. Islohotni o‘tkazishning inqilobiy-zo‘ravonlik usullari Turkiston qishloqlarida ijtimoiy va millatlararo tanglikni vujudga keltirdi.

Yer-suv islohoti 1922 yil kuzida o‘z poyoniga yetdi. Uni amalga oshirish davomida hamma joylarda, qishloq va ovullarning yersiz va kam yerli mahalliy dehqonlarini birlashtirgan “Qo‘shchi” uyushmalari tashkil etila boshladi. Lekin shuni ta’kidlash joizki, “Qo‘shchi” Turkiston dehqonlari uyushgan birinchi tashkilot emas edi. 1918 yildayoq Toshkent ”Dehqon” ittifoqi vujudga kelgan edi. O‘shanda Toshkent va shahar atrofidagi tumanlar dehqonlari hamda savdo doiralarining turli qatlamlari yangi hokimiyatning muayyan keskin choralariga qarshilik ko‘rsatishiga hamda o‘z mulklarini saqlab qolishga harakat qilgan edi. Tashkilot dehqonlar ommasining ozchilik qismini qamrab olgan bo‘lib, mahalliy xarakterga ega edi. 1919 yili Turkiston respublika va Yer ishlari Xalq Komissarligining ko‘magi bilan kambag‘allar qo‘mitalari tuzildi. “Qo‘shchi” uyushmasi kambag‘allarning qo‘mitalari va ittifoqlari o‘rnida vujudga kelgan edi. Ushbu uyushma qishloq va ovullarda sovet hokimiyatining tayanchi, “mehnatkash dehqonlarni” sinfiy tarbiyalashning o‘ziga xos maktabi sifatida yer-suv islohoti davomida “mehnat bilan shug‘ullanmaydigan xo‘jaliklar” va ularning mol-mulkini aniqlashda, sovetlar siyosatidan norozi bo‘lgan dehqonlar chiqishini bostirishda va ularning oldini olishda ham qatnashdi. Uyushma

kooperatsiya ishiga o‘z hissasini qo‘shgan bo‘lsa ham, uning faoliyatidagi asosiy e’tibor qishloqning boy qatlamlari bilan kurash olib borish va qishloqni “sotsialistik asosdan qayta qurish”ga qaratilgan edi.

Markaz Turkiston o‘lkasiga asosiy xom-ashyo bazasi sifatida qarab kelganligi bois, o‘lka qishloq xo‘jaligining bosh sohasi hisoblangan paxtachilikni rivojlantirishga alohida e’tiborini qaratgan. Xususan, RKP (b) MKning 1922 yil 11 yanvaridagi “Turkiston Kompartiyasiga” deb nomlangan xatida, Turkiston Kompartiyasining qishloq xo‘jaligi sohasidagi faoliyatida birinchi o‘ringa sug‘oriladigan yerlarda ekin maydonlarini tiklash, paxtachilikni rivojlantirish hamda mavjud sug‘orish tizimini tuzatish masalalari hal etilishi lozimligi ta’kidlangan edi. Paxtachilikni tiklash va rivojlantirish ishlariga rahbarlik qilish uchun 1920 yilda Bosh Paxtachilik Qo‘mitasi va paxta yetishtiruvchi respublikalarda unga bo‘ysunuvchi paxtachilik qo‘mitalari tuzildi. Turkiston respublikasidagi barcha haydaladigan maydonlar, seleksiya stansiyalari, irrigatsiya inshootlari, Paxtachilik qo‘mitasi ixtiyoriga o‘tkazildi. Bosh Paxtachilik qo‘mitasi katta vakolatlarga, ya’ni boshqa qishloq xo‘jalik ekinlari hisobiga chigit ekiladigan maydonlarni kengaytirish, paxta xarid narxlarini belgilash, markaziy davlat organlarining ruxsatisiz maxsus qabul qilish huquqlariga ega edi. Paxtaning narxi xukumat tomonidan belgilanishi uning bu masalada yakka hokimligidan dalolat berar edi. Turkistonlik ko‘pgina arboblar paxtachilikda davlat monopoliyasini tugatish zarurligini bir necha marotaba ko‘tarib chiqqan edilar. Xususan, Yer ishlari Xalq komissari S.Asfandiyorov va hukumatning boshqa a’zolari davlatning paxtaga bo‘lgan yakkaxokimligiga qarshi chiqib, Bosh Paxtachilik qo‘mitasini tugatish masalasini o‘rtaga tashlagan edi. Biroq, Turkiston respublikasi va RSFSR partiya-davlat apparatining aksariyat xodimlari paxta monopoliyasi tarafdori edilar. 1922 yilning 1 yanvarida RSFSR Oliy Xalq Xo‘jaligi Kengashi (OXXK) tomonidan qabul qilingan qarorda esa, “paxtaga davlat monopoliyasini saqlash” masalasi qat’iyan ko‘tarilgan edi.

Paxtachilikni tiklash ishlari hamda respublikaga don olib keltirishni jadallashtirish maqsadida, OXXK Yettisuv temir yo‘lini tezroq tugatishga qaror qildi.

1923 yilning yanvarida SSSR Mehnat va Mudofaa Kengashi qabul qilgan qarorda “Respublika ichida paxtani xarid qilish davlat monopoliyasi bekor qilinsin” deyilgan edi. Shu bilan bir vaqtda paxtaning qat’iy narxi bekor qilindi.

Turkiston respublikasida paxtachilikni rivojlantirish ishlarini, sug‘orish inshootlarini tiklamasdan amalga oshirib bo‘lmasdi. Sug‘orish ishlarini tiklashni tezroq amalga oshirish, dehqonchilik uchun yaroqli yerlarni suv bilan ta’minlash va qishloq xo‘jaligini, birinchi navbatda esa paxtachilikni rivojlantirish uchun suvdan to‘g‘ri foydalanishni yo‘lga qo‘yish maqsadida, 1921 yilning fevralida TASSRdagi barcha suvlarni respublika mulki deb e’lon qilgan suv to‘g‘risida qonun qabul qilindi. Qonunda, suvni taqsimlash odat (boy va ruhoniylarga beriladigan imtiyozlar) bo‘yicha emas, balki, birinchi navbatda dehqonlar manfaatini ko‘zlagan holda berilishi kerak deb aytilgan edi. 1921 yilning noyabrida, aholining daromadlarini sug‘orish ishlarini tiklashga safarbar qilish maqsadida suv solig‘i joriy qilindi.

Shu yilda TASSRning sug‘orma yer maydoni 1920 yildagi ko‘rsatkichga qaraganda 300 ming desyatinaga ko‘paygan edi. Paxta ekin maydonlari esa deyarli 100 ming desyatinaga ortdi.

Ittifoq hukumati avval boshdanoq yosh O‘zbekiston respublikasi rahbariyati oldiga “Sovet O‘zbekiston”ini SSSRning asosiy paxta bazasiga aylantirish strategik vazifasini qo‘ydi. “Oq oltin”ning aksariyat qismi, ya’ni 90%dan ko‘prog‘i “Sovetlar mamlakati”ning to‘qimachilik markazlariga yuborildi. Masalan, 1922 yilning boshlarida Turkistondan markazga Krasnovodsk yo‘nalishi bo‘yicha 1150 vagon (63470 ta toy paxta), Orenburg yo‘nalishi bo‘yicha 1547 vagon (85030 ta toy paxta), hammasi bo‘lib, 2724 vagon (14850 ta toy paxta) paxta tolasi jo‘natilgan edi. Sovet hukumatining paxta mustaqilligiga erishishga qaratilgan chora-tadbirlari zoye ketmadi. O‘zbekistonda paxta yetishtirishni ko‘paytirish sovet hukumatiga har yili chetdan paxta sotib olinishga sarflanadigan 100 mln rubl oltinni tejash imkonini bergan edi. 1928 yilda esa, O‘zbekiston paxtakorlarining davlatga topshirgan 543,7 ming tonna “oq oltin”i evaziga SSSR paxta yetishtirish bo‘yicha 4-chi o‘ringa chiqdi va bu bilan paxta mustaqilligiga erishish yo‘lida qo‘yilgan dastlabki qadamlardan biri bo‘ldi. “Sovetlar mamlakati”ga paxta yetkazib berishda respublikaning salmog‘i 1940 yilda 63%ga yetdi. Bularning hammasi, o‘sha yillardagi hukumat hujjatlarida rasman e’tirof qilinishicha, “...Sovet Ittifoqining chetdan paxta keltirishdan ozod bo‘lishida va SSSR to‘qimachilik sanoatining paxta xom ashyosi bilan to‘la-to‘kis ta’minlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi” haqiqatan ham, agar 1925 yilda SSSRga chetdan 103,1 ming tonna, 1930 yilda-57,9 ming tonna paxta keltirilgan bo‘lsa, 1933 yilda bor yo‘g‘i 24,3 ming tonna paxta keltirildi. O‘zbek paxtakorlarining mashaqqatli mehnati evaziga esa sovet davlati paxtani

chetdan sotib olmay, paxta yetishtirish bo‘yicha jahonda ikkinchi o‘ringa chiqdi. Mana shu tariqa sobiq SSSR paxta mustaqilligiga erishdi.

Paxta yakkahokimligini ta’minlash maqsadini amalga oshirish oqibatida qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari, xususan, chorvachilik inqirozga uchradi, g‘alla tayyorlash keskin kamayib ketdi. Hosildor yerlar miqdori kamaydi. Don, poliz ekinlarining hosildorligi qisqardi.

Yangi iqtisodiy siyosat tufayli qishloq xo‘jaligida kooperativ va shirkatchilik harakati avj oldi. 1923 yilda Turkiston respublikasida qishloq xo‘jaligi va kredit kooperatsiyalar tizimi tashkiliy jihatdan tugal ravishda shakllandi deyish mumkin. Davlatning kooperativ qurilish siyosati ikki yo‘nalishda olib borildi. Bir tomondan, kooperatsiya mayda tovar xo‘jaligini sotsializmga jalb qilish vositasi, shaxsiy va jamoa manfaatlarining kelishuv shakli sifatida baholansa, ikkinchi tomondan kooperatsiyaga xususiy sektorni siqib chiqaruvchi ijtimoiy qurol deb qaraldi.

Markaz qishloq xo‘jalik krediti- qishloq xo‘jaligining asosiy sarmoyasini (mol-mulki, urug‘ fondi, qurilishlarni) tiklash uchun foylanish, bu resurslarni chorvachilikni, paxtachilikni, irrigatsiyani, bog‘dorchilikni va uzumchilikni rivojlantirishga yordam ko‘rsatishga yo‘naltirdi. 1923 yilda Turkistonda 1169 ta kredit-kooperativ shirkati bo‘lib, kreditdan foydalanadigan xo‘jaliklar soni 28 mingta edi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sanoatga kontraktatsiya (shartnoma) asosida yetkazib berishda qishloq xo‘jalik kooperativlari vositachilik qildi. Mayda tovar dehqon xo‘jaligi rivojlana boshladi.

Biroq, har kimni ham kooperativga qabul qilishavermasdi. Sinfiy tanlov mavjud edi. Kambag‘allarga ustivorlik berilardi. Aholining o‘ziga to‘q qatlamlariga nisbatan qat’iy talablar belgilangan edi. Masalan, “boy”, “quloq”lar toifasidagi shaxslar birinchi to‘lov sifatida o‘rta hollar to‘laydigan to‘lov miqdoridan ikki barobar, kambag‘allarnikidan esa o‘n ikki barobar ko‘p haq to‘lashlari kerak bo‘lgan kooperativlarga qabul qilishdagi bunday sinfiy yondashuv o‘z navbatida, aksariyat qishloq ahli fuqarolik huqularining poymol etilishiga, ishbilarmon dehqonlarning iqtisodiy rivojlangan jamiyat qurish ishidan sun’iy begonalashtirilishiga olib keldi.

1927 yildan kooperativ uyushmalarini “davlatlashtirish” siyosati boshlanib, uning xo‘jalik hisobi asosidagi negizlari tobora ko‘proq qo‘porildi. Dehqon xo‘jaligini yuksaltirishga doir masalalarning hammasi davlatga kelib taqaladigan bo‘lib qoldi (soliq siyosati, kredit, narxlar va boshqalar).

20-yillar boshlaridagi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotining alohida xususiyati-bu o‘lka mahalliy aholisining milliy o‘z-o‘zini anglashining o‘sganligi deyish mumkin. Mahalliy aholining keskin noroziligiga birinchi navbatda Markazning uning milliy manfaatlarini hisobga olmaslik siyosati sabab bo‘ldi. Turkiston tub aholisining kuchayib borayotgan noroziligi turli shakllarda namoyon bo‘ldi. Shunday norozilik shakllaridan yana biri hokimiyat pog‘onalaridagi milliy rahbar kadrlardan iborat milliy muxolifat bo‘ldi. Ular mustabid tuzumga, uning siyosatiga ochiqdan-ochiq qarshi fikr bildirib, mahalliy aholining manfaatlarini himoya qildilar, markazning shovinistik va imperiyacha siyosatiga qarshi faol kurash olib bordilar. Mana shunday milliy rahbarlardan davlat va siyosat arbobi, olim va diplomat Nazir To‘raqulov (1892-1939) bo‘lgan. Nazir To‘raqulov sovet hokimiyatining turli lavozimlarida ishlab keldi.

Markazning siyosiy rahbariyati o‘zining siyosiy mavqeini saqlab qolish maqsadida o‘lkadagi vakillariga Turkiston Kompartiyasining VI (1921 yil 11-20 avgust) qurultoyida milliy muammolarga e’tiborni kuchaytirishni, Turkiston partiya-davlat organlari tarkibida milliy kadrlarni ko‘paytirishni tavsiya etgan edi. Ushbu ko‘rsatmalar asosida qurultoyda Turkiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining a’zolari etib bir qancha mahalliy rahbarlar bilan bir qatorda Nazir To‘raqulov ham saylangan edi. Shu bilan birga Nazir To‘raqulov va Abdulla Rahimboyevlar RKP(b) MKning Turkiston byurosi tarkibiga kiritildilar. Milliy rahbarlar Markazning buyuk davlatchilik shovinizmiga qarshi chiqib, Turkkomissiyani yo‘q qilish talabini bir necha marotaba o‘rtaga tashlagan edilar. Bu davrda TKPga boshchilik qilib turgan Nazir To‘raqulov ham Turkkomissiya va Turkbyuroning xatti-harakatlariga norozilik belgisi sifatida ular safidan chiqish to‘g‘risida ariza beradi.

Lekin milliy rahbarlarning vatanparvarlik chiqishlari Markazning keskin noroziligiga sabab bo‘ldi. Markaz ularga qarshi siyosiy quvg‘inni avj oldiradi. Q.Otaboyev va A.Rahimboyevlar “qo‘pol xatolari” uchun o‘z lavozimlaridan bo‘shatildi. Lekin sovet hukumati bir oz vaqt o‘tgandan so‘ng, ularga “o‘z xatolarini tuzatish” imkoniyatini berib, rahbarlik lavozimlarida ishlashga ruxsat bergan edi. Biroq, milliy rahbarlar o‘lkaning taraqqiyotini uning mustaqilligida ko‘rdilar va o‘z qarashlarida mustahkam turishda davom etdilar.

Nazir To‘raqulov nafaqat siyosiy arbob, balki tilshunos olim sifatida ham taniqlidir. U turk, fors, arab, rus, nemis va fransuz tillarini yaxshi bilgan. Respublika va viloyat gazetalarida maqolalari bilan qatnashib

turgan. Uning noshirlik va elchilik faoliyati hayotining keyingi davriga to`g‘ri kelgan.

Ko‘pgina milliy rahbarlar qatori Nazir To‘raqulov ham qatag‘onlik to‘lqinidan qutulib qolmadi va 1939 yilda otib tashlandi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, 20-yillarning boshlarida o‘lka partiya-davlat organlarining rahbarlik lavozimlariga milliy kadrlar jalb qilingan edi. Ular orasida taniqli davlat va jamoat arbobi Qayg‘usiz Otaboyev (1887-1937) ham bor edi. O‘z siyosiy faoliyati davomida Q.Otaboyev Markazning ayirmachilik, shovinistik siyosatiga qarshi bir necha bor o‘zining dadil fikrlari bilan chiqdi. U Markaz tomonidan yuborilgan emissarlarning mahalliy xalqlarga nisbatan qo‘llayotgan usullarini tanqid qilib, Rossiyadan kelgan xodimlar tub aholining o‘lkani mustaqil boshqara olish qobiliyatiga ishonmayotganliklari, o‘zlari esa Turkistonning turmush-sharoitlarini yaxshi bilmasdan turib, hokimiyatning ma’sul lavozimlariga da’vogarlik qilishlari haqida TKP Sovetlarining X qurultoyi minbaridan turib gapirgan edi.

Q.Otaboyev milliy rahbarlardan birinchilar qatorida qarshilikchilik harakatiga to‘g‘ri baho bergan. Uning 1922 yil 18 iyulda Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining VI plenumida qilgan ma’ruzasi keskin tanqidiy va ochiqdan-ochiq qarshilik ruhida edi. Otaboyev qarshilik harakatiga ”harbiy yo‘l bilan yo‘q qilib bo‘lmaydigan xalq qo‘zg‘oloni” deb baho beradi va ushbu harakat ishtirokchilari bilan siyosiy va iqtisodiy usullarni qo‘llab, tinch muzokaralar olib borish taklifini kiritadi. Shundan so‘ng, 1922 yilning sentabrida Samarqand viloyatida bolsheviklar tuzumiga qarshi kurashayotgan Bahrombek qo‘rboshi bilan teng asoslarda tinchlik shartnomasini imzolagani uchun Q. Otaboyev, A. Rahimboyev, A. Serg‘oziyevlar lavozimlaridan bo‘shatildi.

Qayg‘usiz Otaboyevning qismati ham o‘sha yillardagi millatparvarlar singari ayanchli tugadi, u 1937 yilda mustabid tuzum tomonidan nohaq qatag‘onga uchrab, otib tashlanadi.

Yana bir millatparvar rahbarlardan biri, yetuk davlat arbobi Inomjon Xidiraliyevdir (1891-1928). Inomjon Xidiraliyev ham mahalliy aholining manfaatlarini himoya qilgan milliy rahbarlardandir. U 1922 yilning oxirida Butunrossiya MIQga maxsus xat bilan murojaat qilib, “Mahalliy aholining barcha qatlamlarini sovet ishlariga jalb qilishga, bu ishlarni aholining milliy turmush tarziga moslashtirgan holda amalga oshirishga, Turkistonda ish yuritishni mahalliy aholi tiliga o‘tkazishga” e’tiborini qaratgan edi. I.Xidiraliyev fikricha, oktabr to‘ntarishidan so‘ng deyarli 5 yil o‘tgan bo‘lsa ham, quyidan yuqorigacha boshqaruv apparatlarida

asosan yevropalik kishilar o‘tirganligi mahalliy aholida chorizm mustamlakachilik siyosati sovetlar davrida ham davom etmoqda degan xulosani keltirib chiqarmoqda. Boshqaruv idoralarida o‘tirgan yevropaliklar asosan Rossiya sharoitidan kelib chiqqan kishilar bo‘lib, mahalliy aholi tili, urf-odatini bilmaydigan, dehqonchilik va chorvachilikda mashg‘ul bo‘lgan ko‘plab aholi xususiyatiga mos mafkuraviy qarashlarni tushunmaydigan shaxslardir. Bu esa o‘z navbatida chorizm davridagi byurokratik davlat apparatiga o‘xshab qolgan boshqaruv apparatini tez orada mahalliy xalqlar ruhiyati va turmushiga moslashtirishni taqozo qiladi. Xidiraliyevning ushbu takliflari bilan Markaz qisman bo‘lsa ham hisoblashishga majbur bo‘ldi. 1923 yildan boshlab ish yuritish tub millatlar tillarida olib boriladigan bo‘ldi.

Sovet tuzumi davridagi milliy rahbarlar ustida so‘z borar ekan, davlat va siyosat arbobi Akmal Ikromov(1898-1938) faoliyati haqida to‘xtalib o‘tish muhimdir. A.Ikromov sovet hokimiyatiga sodiqlik bilan xizmat qildi. Uning yer-suv islohoti va jamoalashtirish xususida bildirgan fikrlari buning yorqin dalilidir. Yer-suv islohotini o`tkazishdan maqsad nima degan savolga Akmal Ikromov: “yer bir guruh boylar to`dasi qo`lida to`planib qoldi,...boy xo`jaliklarni tugatmasdan turib, paxtachilikni rivojlantirib bo`lmaydi” degan edi. Shuningdek, u “18lar guruhi”, “inog‘omovchilik”ka qarshi chiqishlar qilib, ularni millatchilikda ayblaydi va ularga qarshi kurash olib borishga chaqiradi. Afsuski, 20-yillarning oxiri-30 yillarning o`rtalaridagi bir qator qatag‘onlar uchun Akmal Ikromov ham javobgardir. Lekin mustabid tuzumning sodiq xizmatchisi bo`lgan Akmal Ikromov ham, 1938 yilda “xalq dushmani” sifatida otib tashlanadi.

Tadqiq qilinayotgan davrdagi davlat arboblaridan yana biri Yo‘ldosh Oxunboboyevdir (1885-1943). U 1926-27 yillarda O‘zbekistonda yer-suv islohotini o‘tkazish markaziy komissiyasi raisi sifatida ish olib borgan, Farg‘ona viloyati hamda respublika qishloq xo‘jaligini tiklashda ishtirok etgan. Yo‘ldosh Oxunboboyev 1943 yilda Toshkentda vafot etgan.

Tariximizda o‘zining o‘chmas izini qoldirgan buyuk siymo bu-Fayzulla Xo‘jayevdir (1896-1938). 1920 yili inqilobchi Yosh buxoroliklar Turkiston markaziy byurosi rayisi, 1920-24 yillarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Nozirlar Kengashining rayisi (shuningdek, Tashqi ishlar, Harbiy ishlar noziri) bo‘lib ishlagan.

Fayzulla Xo‘jayevning faoliyati nihoyatda murakkab siyosiy vaziyatda o‘tgan. O‘zbekistonda yuz berayotgan o‘zgarishlardan

qoniqmaganligini u o‘zining bir qancha tanqidiy chiqishlarida bildiradi. Masalan, 1924 yildagi bolsheviklarning milliy-hududiy chegaralanishiga qarshi o‘z fikrlarini ilgari surgan, “Buxoro inqilobi tarixiga doir” asarida Fayzulla Xo‘jayev jadidchilikka xolis baho berishga harakat qilgan. Ushbu asardagi jadidchilikning ijtimoiy mohiyatiga ijobiy munosabati va jadidchilikni ijtimoiy-inqilobiy harakat sifatidagi qarashlari xato deb baholandi.

Fayzulla Xo‘jayev ham mustabid tuzumning qatag‘on qurbonlaridandir. U 1937 yil Moskvada “xalq dushmani” sifatida qamoqqa olinib, 1938 yilda otib tashlangan.

20-30 yillarda ko‘zga ko‘ringan milliy yetakchi - Abdulla Rahimboyevdir (1896-1938). Abdulla Rahimboyevning siyosiy faoliyati nihoyatda serqirra bo‘lib, mustabid tuzum siyosatiga qarshi dadil chiqishlari buning yorqin ifodasidir. Masalan, u 1921 yilning dekabrida bo‘lib o‘tgan RSFSR Sovetlarining IX qurultoyi minbaridan turib, Rossiya hukumatiga ochiqdan-ochiq ”Turkistondagi sovetlarning jazolash siyosati har qanday chegaralardan o‘tib tushdi. Farg‘ona viloyatidagi jazo otryadlari esa mutlaqo muxtor holatda, hech kim bilan, partiya organlari bilan ham, sovet organlari bilan ham hisoblashmasdan, turli shubhali shaxslarni xizmatga olib harakat qilmoqdalar” degan bayonot bilan chiqdi. Lekin bunday tarzda sovetlar siyosatini tanqid qilish kechirilmas edi va 1922 yilda ishda yo‘l qo‘yilgan “qo‘pol xatolari” uchun TASSR MIQ raisi A.Rahimboyev lavozimidan chetlashtirildi. Biroq vaqt o‘tishi bilan Markaz unga “o‘z xatolarini tuzatish” imkonini beradi va yana rahbarlik ishiga jalb qiladi.

A.Rahimboyev RKP(b) MQ O‘rta Osiyo byurosining a’zosi hamda TKP MQning ma’sul kotibi sifatida milliy-hududiy chegaralanishni o‘tkazishning tepasida turdi. 1924 yilning fevralida u Buxoroga yuboriladi va bu yerdagi BXSR rahbar xodimlarining kengashida milliy–hududiy chegaralanishi to‘g‘risida ma’ruza qildi. 1924 yilning 10 martida Turkiston Kompartiyasi MQsi va Turkiston MIQ rahbar xodimlarining kengashida ham ma’ruza qilib, Rahimboyev milliy-hududiy chegaralanishni “...nisbatan ma’qul tarzda, og‘riqsiz usullar” bilan o‘tkazish kerakligini uqtirdi.

Abdulla Rahimboyevning qismati ham milliy yetakchilarniki kabi qatag‘on to‘lqinlari avj olgan paytda hal qilindi. U 1938 yilda qurbon bo‘ldi.

I.Xidiraliyevning hayoti 1928 yilda fojeali tugaydi.

“Turkiston xalqlarining ildizi bir”,- degan g‘oya avloddan-avlodga o‘tib, milliy yetakchilar, jamoat arboblari va milliy ziyolilar qarashlari hamda faoliyatlarida o‘z aksini topib kelgan. Tarixan tarkib topgan uchta davlatni tugatib, o‘rniga yangi tuzilmalarni vujudga keltirish markaz va o‘lkadagi bolshevistik rahbarlar tashabbusi bo‘ldi. 1920 yil boshidayoq, Turkkomissiya Turkiston ASSRni bo‘lib tashlab, milliy til belgisiga qarab muxtor respublikalar tashkil qilish masalasini qo‘ygan edi. Bu o‘sha yili iyun oyida RKP (b) ning Turkistonga oid qabul qilgan hujjatlarida o‘z aksini topdi. Lenin Turkistonning “O‘zbekiya, Qirg‘iziya, Turkmaniya” ga bo‘lingan xaritasini tuzish kerakligini uqtirdi. Bu rejaning amalga oshishi qarshilik harakati tufayli bir oz kechikdi. Turkistonni milliy jihatdan qayta chegaralash markaz va RKP(b) O‘rta Osiyo byurosi tomonidan ishlab chiqildi va 1924 yilda qat’iylik bilan amalga oshirildi.

1924-yilning 31 yanvarida RKP(b) MKning Tashkiliy byurosi Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalarining milliy-hududiy chegaralanishi masalasini ko‘rib chiqdi va YA.E. Rudzutakka mazkur respublikalarning ma’sul xodimlari bilan birgalikda bu g‘oyani amalda qanday ro‘yobga chiqarish mumkinligini oldindan muhokama qilishni topshirdi. 1924 yilning fevralida esa Fayzulla Xo‘jayevning milliy chegaralanish masalasi bo‘yicha tezislarida markazning turkiy xalqlarning ildizi birligini hisobga olmayotganligi, chegaralash g‘oyalari o‘tmish istilochilari siyosatidan farq qilmayotganligi aytilgan edi. Turkiston, Buxoro,Xorazm respublikalarida tashkiliy va tashviqot ishlari olib borilgandan so‘ng, 1924 yilning 11 oktyabrida RKP(b) Siyosiy byurosi O‘rta Osiyoni qaytadan bo‘lib chegaralash haqida o‘zining so‘nggi qarorini qabul qiladi va 1924 yil 14 oktyabrda RSFSR BMIQ II sessiyasi milliy chegaralanish haqidagi Turk MIQ qarorini tasdiqladi. Milliy chegaralanish natijalariga ko‘ra, O‘rta Osiyoda O‘zbekiston va Turkmaniston Sovet Sotsialistik Respublikalari, O‘zSSR tarkibida bo‘lgan Tojikiston Avtonom respublikasi, RSFSR tarkibida Qoraqirg‘iz (Qirg‘iziston) va Qoraqalpog‘iston Avtonom viloyatlari tashkil topdi. Sobiq Turkiston ASSRning qozoq viloyatlari esa, Qirg‘iziston (Qozog‘iston) ASSR tarkibiga kiritildi.

Shu tariqa, 1924 yilning kuzida milliy-hududiy chegaralanish hukumat qarorlari bilan qonuniy tarzda rasmiylashtirildi.

1925 yilning 13 fevralida O‘zSSR Sovetlarining Buxoroda ochilgan I-Umumo‘zbek qurultoyida “O‘zbekiston SSR tuzilgani to‘g‘risida deklaratsiya” qabul qilindi. O‘zbekiston SSR sovetlari MIQning raisi etib - Yo‘ldosh Oxunboboyev saylandi. O‘zbekiston XKS raisi etib - Fayzulla

Xo‘jayevni tasdiqladi. Tuzilgan O‘zbekiston SSRga tugatilgan Turkiston ASSRdan Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarining katta qismi, Buxoro respublikasidan uning markaziy va g‘arbiy qismi (Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari), shuningdek Xorazm SSRdan Xorazm vohasi kirdi.

Milliy-chegaralanishdan so‘ng, O‘zbekiston sovetlarining I-qurultoyi (1925 yil 13-17 fevral) “O‘zbekiston SSRning tashkil topishi haqidagi Deklaratsiya”ni tasdiqlagach, Ittifoq sovetlarining 3-qurultoyida (1925 yil,13 may) esa, O‘zbekiston Respublikasi SSSR tarkibiga kiritildi. Shu tariqa, O‘zbekiston SSRning qonunan rasmiylashtirish jarayoni tugallandi.

O‘zbekiston SSR aholisining soni respublika tashkil etilishining dastlabki yillarida 3.963.285 kishini, ya’ni, O‘rta Osiyo aholisining deyarli yarmini-48,7 foizini tashkil etar edi. 1926 yilda o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olish bo‘yicha respublikada istiqomat qiluvchi aholining tarkibi quyidagicha edi: o‘zbeklar -74,2%, tojiklar -7,8%, ruslar-5,6%, qozoqlar-2,4%, qirg‘izlar-2,04%.

Turkiston o‘lkasini bo‘lib tashlash bilan sho‘rolar milliy davlatchiligimizning ming yillik rivojlanish tarixiga putur yetkazdilar. Millatning bir qismi o‘z ota-bobolari yerida yashab, mehnat qilsa-da, rasmiy ta’rifga ko‘ra, “oz sonli millat”ga aylanib qolgan edi. Bolsheviklar andozasidagi milliy-hududiy chegaralanish O‘rta Osiyo xalqlari o‘rtasidagi bo‘lajak millatlaro munosabatlarni keskinlashtirib turishi, favqulodda vaziyatlarda portlab, turli nizolarga sabab bo‘lishi muqarrar edi. Yangi sovet respublikalarini “milliy davlatchilikning tashkil etilganligi”, deb baholash xato bo‘lsa kerak. Zero, SSSR tarkibidagi ushbu tuzilmalar Markaz ixtiyorida bo‘lib, ilgarigidek unga arzon xom ashyo yetkazib berishga ixtisoslashtirilgan mustamlakalar bo‘lib qolaverdi.

1924-yilda milliy-hududiy chegaralanishi natijasida O‘rta Osiyo xaritasida ittifoqchi respublikalar bilan birga muxtor tuzilmalar ham paydo bo‘ldi. Shular orasida Qoraqalpog‘iston muxtor viloyati ham bor edi. Ushbu viloyat Qirg‘iziston (Qozog‘iston) ASSR tarkibida bo‘lib, unga volostlardan iborat To‘rtko‘l, Chimboy, Xo‘jayli va Qo‘ng‘irot okruglari kirdi. 1925 yil 12-19 fevralda viloyat markazi To‘rtko‘l shahrida bo‘lib o‘tgan Qoraqalpog‘iston avtonom viloyati Sovetlarining birinchi qurultoyi “Qoraqalpog‘iston avtonom viloyati tashkil topganligi to‘g‘risida Deklaratsiya” qabul qildi va “qoraqalpoq milliy davlatchiligi” tashkil etilganligini qonuniy rasmiylashtirdi. Qoraqalpog‘iston avtonom viloyati Ijroiya Qo‘mitasining raisi etib A. Qudaboyev saylandi.

Qoraqalpog‘istonda yashaydigan asosiy elatlar qoraqalpoqlar-38,5%, o‘zbeklar-28,7%, qozoqlar-28,6%dan iborat edi.

Qoraqalpog‘iston Muxtor viloyati tashkil etilgandan so‘ng, sovetlar bu yerda ham sotsialistik qurilishni avj oldirib yubordilar. Jumladan ovul va qishloqlarni sovetlashtirish keng miqyosda olib borildi. Sovetlarga batrak va kambag‘allar saylanib, ularning asosiylarini kommunist va komsomollar tashkil qildi. Mamlakatda vayron bo‘lgan sanoatning turli sohalari, qishloq xo‘jaligi va sug‘orish ishlarini tiklash amalga oshirildi. Qoraqalpog‘iston iqtisodiyotining taraqqiyoti bir tomonlama xususiyatga ega bo‘lib, SSSRning markaziy mintaqalari sanoatini rivojlantirish ehtiyojlarini ta’minlashga qaratilgan edi. Masalan, 1933 yilning 3 oktyabrida SSSR Yer ishlari Xalq Komissarligi Qoraqalpog‘istonni mamlakatni beda urug‘i yetkazib beruvchi asosiy baza deb tan olgan edi. Buning asosiy sababi mamlakat xalq xo‘jaligida ittifoqdosh respublikalar o‘rtasidagi mehnat taqsimotida Qoraqalpog‘istonga oliy sifatli paxta, beda hamda baliq bilan ta’minlab turish yuklatilganligida edi.

Muxtor viloyat sanoatining yetakchi tarmoqlarini paxta tozalash va baliq-konserva zavodlari tashkil etar edi. Sanoatni yuksaltirish bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligining barcha sohalarini rivojlantirishga ham katta e’tibor qaratildi va bu yerga ko‘p miqdorda qishloq xo‘jalik anjomlari keltirila boshlanib, boy va ruhoniylardan tortib olingan yerlar hisobiga yersiz va kam yerli dehqonlar yer bilan ta’minlandi.

1930-yilda Qoraqalpoq muxtor viloyati RSFSR tarkibiga kiritildi.1932 yilning 20-martida esa, SSSR MIQ Rayosati “Qoraqalpog‘iston avtonom viloyatini Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasiga aylantirish va uni RSFSRga kirishi to‘g‘risida” qaror qabul qildi. O‘sha yilning may oyida avtonom respublika Sovetlarining I Ta’sis qurultoyi xukumatni tuzdi. Unda QQASSR MIQ raisi etib, Koptleu Nurmuhamedov, Xalq Komissarlari Kengashi raisi etib esa Qosim Avezovlar saylandilar.1936 yilda SSSRning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi va unga ko‘ra QQASSRning O‘zbekiston SSR tarkibiga kirishi ko‘zda tutilgan edi. Buning asosiy sababi, hududiy yaqinlik, yagona tarixga ega bo‘lganligi deb e’tirof etildi. 1937 yil 12 fevralda O‘zSSRning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. O‘sha yilning 6 martida esa, QQASSRning yangi Konstitutsiyasi e’lon qilinadi. Qoraqalpog‘iston O‘zbekiston tarkibida bo‘lganida, o‘zbek va qoraqalpoq xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik yanada mustahkamlandi.

O`zbekistonda mustamlakachilikka asoslangan iqtisodiy siyosatning oqibatlari

Respublika iqtisodiyoti tabiatan agrar tusga ega, sanoati asosan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalaridan iborat bo‘lib, uning uchdan ikki qismini paxtachilik sanoati tashkil qilar edi. O‘lkaning ishlab chiqarish hayotida kustar-hunarmandchilik ishlab chiqarishi hamon oldingi o‘rinni egallab, aholining poyafzal, kiyim-kechak va uy-ro‘zg‘or buyumlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirar edi. Hunarmandlar bozorga chiqarilgan poyafzalning 86%ni, oshlangan terining 76%ni, kiyim-kechak va bosh kiyimlarining 85%ni, idish-tovoqlarning 60%ni ishlab chiqarar edilar. 1925 yilning oxiriga kelib sobiq SSSRda xalq xo‘jaligini tiklash ishlari asosan o‘z nihoyasiga yetkazildi. 1925 yilning dekabrida bo‘lib o‘tgan VKP(b) XIV qurultoyi sotsializm g‘alabasining asosiy sharti sifatida sho‘rolar mamlakatida “sotsialistik industrlashtirish”ni avj oldirishga e’tiborini qaratdi. Sanoatlashtirish O‘zbekistonda dastlab sekinlik bilan amalga oshirildi. Chunki kosibu-hunarmandchilik ustivor soha edi. Mamlakatni jadal industrlash uchun mablag‘ masalasi keskin munozaralarga sabab bo‘ldi. Industrlashtirishni jadallashtirish tarafdorlari mablag‘ni qishloq xo‘jaligi hisobidan olish rejasini ilgari surdilar, muxolif taraf esa,sanoatlashtirish siyosatini yoqlagani holda uni aholining moddiy ahvolini, turmush sharoitini yaxshilash va qishloq xo‘jaligida kooperatsiyani asta-sekin ixtiyoriy ravishda amalga oshirish bilan birgalikda olib borishni taklif qildi. Keskin siyosiy bahs munozaralardan keyin mablag‘ni agrar sektordan olishga qaror qilindi. O‘zbekiston iqtisodiyoti agrar xarakterda edi, zero 1927-28 yillarda iqtisodiyotda qishloq xo‘jiligining hissasi 61,6%ni, sanoatniki esa 38,4 %ni tashkil qilardi edi. Respublikadagi mavjud sanoatning 90%i qishloq xo‘jalik xom-ashyosini ishlashga ixtisoslashgan edi, mahsulotlarni qayta ishlash korxonalaridan iborat bo‘lib, uning 2 dan 3 qismini paxtachilik sanoati tashkil qilardi.

Birinchi besh yillik (1928-1932)da 289 ta yangi sanoat korxonasi, jumladan, Toshkent qishloq xo‘jalik mashinasozlik zavodi, Quvasoy sement va ohak zavodlari ishga tushirildi, Chirchiqqurilish, Olmaliqqurilish, Toshkent to‘qimachilik kombinati qurilishi davom etdi. Farg‘onada to‘qimachilik fabrikasi va yog‘ zavodi, Toshkent, Buxoro, Marg‘ilon va boshqa shaharlarda tikuvchilik fabrikalari ishga tushirildi. Sanoatlashtirish yillari respublika paxta tozalash zavodlarining texnik imkoniyatlari oshib, 1927-28 yillarda 3363 tonna paxta tolasi yetishtirdi

va paxta tozalash sanoatining yalpi mahsuloti esa 165,7 mln. rublni tashkil etgan edi.

Respublikani sanoatlashtirishda elektrlashtirish ham muhim o‘rinlardan birini egallaganligi tufayli, elektrstansiyalar qurilishi avj oldirildi. Masalan, Toshkent yaqinida quvvati 4 ming kilovatni tashkil etgan Bo‘zsuv GESi barpo etildi. 1932 yilga kelib esa, elektr stansiyalarining soni 49 taga yetdi. Shuningdek, respublikada neft sanoati ham jadal sur’atlar bilan o‘sdi, 1925-26 yillarda neft ishlab chiqarish 5,6 tonna bo‘lgan bo‘lsa, 1927-28 yillarda bu ko‘rsatkich 47,7 tonnani tashkil etdi.

Ayrim sanoat mahsulotlari bo‘yicha O‘zbekiston sobiq Ittifoqda yetakchi o‘ringa chiqdi. 1932 yilda paxta tolasining 89,7 %, sementning 54,2%, o‘simlik moyining 56,4%, xom ipakning 42% ishlab chiqarildi.

Faqatgina birinchi besh yillikning o‘zida yirik sanoatdagi ishchilar soni deyarli 3,5 baravar ko‘paydi. Lekin ular orasida mahalliy millat vakillari ozchilikni tashkil qilganligi bois, ularni tayyorlashga yordam tariqasida ittifoqdosh respublikalar, asosan Rossiyadan ko‘plab sanoat mutaxassislari kela boshladi. 1926 yildan 1940 yilgacha O‘zbekiston aholisi yangi kelganlar hisobiga 750 ming kishiga yoki 10%dan ortiqroq ko‘paydi. Markazning rusiyzabon aholining ko‘chirib keltirishda milliy o‘lkalarda o‘zining tayanch ijtimoiy qatlamini vujudga keltirish hamda ruslashtirish siyosatini amalga oshirish manfaati yotar edi.

Sanoatni jadal rivojlantirish natijasida O‘zbekiston Markazga rangli va nodir metallar, oltingugurt, ozokerit, volfram, molibden, paxta tolasi, xom ipak bilan ta’minlaydigan va sho‘rolar mamlakatini xom ashyo qaramligidan xolos etishga yordam beradigan yirik xom ashyo mintaqasiga aylandi. O‘zbekistonning oltin sanoati butun mamlakatning to‘lov balansini mustahkamlash uchun katta mablag‘lar berib turdi. Biroq, aholining ijtimoiy ehtiyojlari nazar-pisand qilinmadi, uning moddiy farovonligiga e’tibor berilmadi, bu esa turmush darajasining pasayib ketishiga olib keldi.

Sho‘rolar davrida shahar va portlarni birlashtiruvchi yangi temir yo‘l liniyalari qurilishiga ham e’tibor berildi. Farg‘ona (Iskobil)-Quvasoy (1922), Qarshi-Kitob(1924), Amudaryo (Samsonovo)- Termiz (1925). 1928-29 yillarda paxtachilikni rivojlantirish maqsadida Asaka – Shahrixon, Sirdaryo-Paxtaorol temir yo‘llari qurildi, shuningdek, Qorasuv-Osh (1935) va boshqa temir yo‘l liniyalari qurilib foydalanishga topishirildi. 1929-1931 yillarda uzunligi 1452 km bo‘lgan Turkiston-Sibir (Turksib) temir yo‘li qurildi.

20-yillardan O‘zbekistonda avtomobil trasporti vujudga keltirildi. 1921 yilda respublika avtomobil transporti ixtiyorida 40 yengil va 15 yuk avtomobili hamda Toshkent avtomobil ta’mirlash ustaxonasi bor edi. 1940 yilgacha Lenin nomidagi katta avtomobil yo‘li (710 km), Farg‘ona avtomobil yo‘li (343 km) qayta ta’mirlandi va bir qancha yangi yo‘llar qurib bitkazildi.

Respublika hukumati 1940 yilda uzunligi 708 km bo‘lgan Katta O‘zbek traktini (Toshkent-Termiz avtomobil yo‘li) qurish haqida maxsus qaror qabul qildi. Bu yo‘lning 376 km Toshkent, 222 km Samarqand, 162 km Buxoro viloyatlari mehnatkashlari tomonidan 1941 yilning4 oyida qurib tugallandi.

1924-yilga kelib, respublikadagi avtomobil korxonalarida 223 avtomobil bo‘lib, 145 ming tonna yuk tashildi. 30-yillarda avtomobil transportining rivojlanishi bilan qattiq qoplamali yo‘llar qurilishi boshlandi, ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish korxonalari, kadrlar tayyorlaydigan o‘quv yurtlari ochildi.

Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) tufayli O‘zbekiston qishloqlaridagi ahvol ancha yaxshilandi, dehqonlar o‘z mahsulotini sotish, g‘o‘za va boshqa ekin maydonlarini kengaytirish orqali turmush darajasini yaxshilash imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Biroq, 20-yillarning ikkinchi yarmidan YAIS (NEP) o‘z mohiyatini yo‘qotib, erkin savdo va xususiy tadbirkorlikka chek qo‘yila boshladi. Sho‘rolar boylarning yerlarini musodara qilish hisobiga kambag‘al dehqonlarni yer bilan ta’minlash orqali qishloqda “sotsialistik ijtimoiy tuzum” ning asosi bo‘lgan jamoa bo‘lib xo‘jalik yuritishni rivojlantirishni ko‘zlab, keng miqyosli agrar islohoti avj oldirdilar. 1925 yil 2-dekabrdagi O‘zSSR MIQning Favqulodda Sessiyasida qabul qilingan “Yer va suvni natsionalizatsiya qilish” to‘g‘risidagi dekreti qabul qilindi.

Yirik yer egalaridan tortib olingan yerlarda 60603 dehqon xo‘jaligi tashkil etiladi. Bulardan tashqari, yangi va tiklangan sug‘orma yerlarida yana 14751 batrak va yersiz dehqonlar xo‘jaliklari tuzildi.

Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlaridagi yer-suv islohoti davomida sug‘oriladigan 20 ga va 45 ga ortiq lalmi yerlar, sobiq amir va xon xizmatchilari, ruhoniy hamda savdogar, sudxo‘rlarning xo‘jaliklari musodara qilindi. Umuman, 1925-29 yillardagi yer-suv islohotini o‘tkazish natijasida O‘zbekistonda pomeshchik turidagi 4801 xo‘jaliklar tugatildi, 23036 xo‘jaliklarning ortiqcha yerlari musodara qilindi, yer jamg‘armasi 474893 desyatina yerga ega bo‘ldi, 89729

xo‘jaliklar yer bilan ta’minlandi. Yer bilan birga ko‘pgina xo‘jaliklar mol-mulk, urug‘, asbob-uskunalarga ham ega bo‘ldilar.

Biroq islohot o‘tkazishning repressiv-majburiy usullari, boy dehqonlarning davlat tomonidan terror qilinishi o‘z navbatida ularning keskin norozilik chiqishlariga sabab bo‘ldi. Shu tariqa, yer-suv islohoti qishloqda sinfiy kurashning keskinlashuviga olib kelgan edi. Davlat o‘z navbatida “boy-quloq unsurlari”ning qarshiliklarini bartaraf etish uchun o‘zining bor kuchini ishga soldi. Tortib olingan yerlarning asosiy qismi kolxozlar va sovxozlar ixtiyoriga topshirilgan edi.

Islohotning jiddiy salbiy oqibatlaridan qishloq iqtisodiy hayotining qashshoqlashishi, fermerlik kurtaklarining bo‘g‘ib qo‘yilishi va bozor-savdo munosabatlarining rivojlanishining to‘sib qo‘yilishi hamda ijara imkoniyatlarining cheklanishi bo‘ldi.

Shunday qilib, 1925-29 yillardagi yer-suv islohoti sho‘ro hukumatining mulkdor sinflarni tugatish, sinfsiz jamiyat qurish uchun qilgan chora-tadbirlaridan biri bo‘ldi. Ushbu jarayon keyingi yillarda qishloq xo‘jaligini majburiy jamoalashtirishga zamin yaratgan edi.

1929 yil tarixga qora belgi ostidagi “buyuk burilish yili” deb nom olgan yil bo‘lib kirib keldi. Bu dehqonlar sinfini ijtimoiy qatlam va mehnatkash omma sifatida maqsadli yo‘q qilishning boshlanish davri edi. Bunda “quloqlar” va “boylar” toifasiga asosan yangi iqtisodiy siyosat sharoitida o‘z xo‘jaliklarini oyoqqa turg‘azib olgan o‘rta hol dehqonlar kiritildi. Chunki birmuncha badavlatroq qatlamlar oldingi yillarda tugatilgan edi. 1929 yilning yozida “quloqlar”ni jamoa xo‘jaliklariga (kolxoz) kiritishini ta’qiqlovchi qaror qabul qilinadi. O‘sha yilning 7 noyabrida “xalqlar otasi” - Stalinning matbuotda bosilib chiqqan “Buyuk burilish yili” nomli maqolasi hamda 27 dekabrda qishloq xo‘jalik xodimlarining ilmiy konferensiyasida so‘zlagan nutqi “quloqlar” ni sinf sifatida tugatish va jadal jamoalashtirish siyosatini boshlab berdi. Yoppasiga jamoalashtirish bu-boy va o‘rta hol dehqonlarga tegishli ishlab chiqarish vositalari, mollar, uy-joy, qishloq xo‘jalik mahsulotlari va urug‘ zahiralarini tortib olinishi hisobiga kolxozlar tuzish degani edi.

O‘zbekistonda jamoalashtirish O‘zKP MQning 1930 yil fevralda qabul qilgan “Kollektivlashtirish va quloq xo‘jaliklarini tugatish” to‘g‘risidagi qarori e’lon qilingandan so‘ng boshlab yuborildi.

O‘zbekistonda yoppasiga jamolashtirishni tezlashtirish hamda “quloqlar” bilan kurash olib borishni kuchaytirishga yordam tariqasida Markaz 25 ming tashkiliy–siyosiy tajribaga ega bo‘lgan rus ishchilarni yuboradi. Bu yerga “25 mingchilar” asosan Moskva, Leningrad, Ivanovo-

Voznesenk va SSSRning boshqa sanoat markazlaridan O‘zbekistonga 433 ishchi yuborildi. Ulardan tuzilgan brigadalar o‘zbek qishloqlarida kolxozlar tuzish hamda “quloq qilish” kompaniyasida “faol” ishtirok etdilar.

1930-yilning o‘zidayoq respublikada 2648 ta boy va “quloq” xo‘jaliklari tugatilib, qishloq ahlining tadbirkor qismi oyog‘iga bolta urildi. ”Quloq qilish” siyosati dehqonlarda ishonchsizlik va xavotirni kuchaytirdi. Ko‘plab dehqonlar o‘z xo‘jaliklarini tashlab qochdilar. Chorva soni keskin kamayib ketdi. Respublikadagi siyosiy vaziyat keskinlashib bordi. Dehqonlarning noroziligi 1930 yil 25 fevralda Farg‘ona okrugida g‘alayonga aylandi. Norozilik chiqishlari Andijon, Toshkent, Xorazm, Samarqand okruglariga ham yoyildi. Masalan, Chust va Olmosda boy dehqonlar chorva mollarini yoppasiga sotishni avj oldirdilar. Jamoalashtirishga qarshi bu harakat ba’zi joylarda sovet hokimiyatiga qarshi chiqishlarga aylandi. Mana shunday norozilik chiqishlarining oldini olish uchun 1930 yilda O‘z MQ KP(b) qoshida “quloq” va boylarni yo‘q qilish bo‘yicha maxsus respublika komissiyasi tuziladi va “quloq qilish” siyosati yanada shiddatliroq tus oladi.

O‘zbekistonda jamoalashtirish asosan 1932 yilning oxiri 1933 yilning boshlarida tugallandi. Bu davrga kelib respublikaning 79 dan 61 tumanida barcha dehqon xo‘jaliklarini kolxozlarga birlashtirish nihoyasiga yetkazilgan edi. Jami O‘zbekistonda jamolashtirilgan xo‘jaliklar 74,9%ni tashkil etdi. Birinchi besh yillik(1928-1932) oxirlarida respublikada 9734 kolxoz va 94 ta sovxoz tashkil etilgan edi.

1930-33 yillarda O‘zbekistonda 5550 dehqon xo‘jaligi hibsga olinib, quloq qilinadi va Ukraina, Sibir, Qozog‘iston va boshqa joylarga zo‘rlik bilan ko‘chirildi. Lekin shuni ham aytish joizki, bunda nafaqat o‘ziga to‘q, mol-mulkka ega dehqonlar, balki o‘rta hol, ayrim hollarda esa batrak xo‘jaliklarga mansub kishilar ham “quloq” sifatida surgun qilindi.

Sovet davlatining bunday g‘ayriinsoniy siyosatini amalga oshirishdan maqsadi, birinchidan, qishloqdagi o‘ziga to‘q kishilarning yer-suvi, mol-mulkini tortib olish, ikkinchidan, tortib olingan boylik va ishlab chiqarish vositalari hisobiga jamoa va davlat xo‘jaliklarining dastlabki moddiy bazasini yaratish, uchinchidan, kambag‘al dehqonlarning bu xo‘jaliklarga “o‘z xohishlari” bilan kirishlariga erishish va ularning arzon mehnatidan foydalanish, to‘rtinchidan, “quloq” bo‘lib surgun qilingan kishilar yordamida masalan, Ukrainaning iqlimi O‘zbekistonga yaqin zonasida paxtachilik sovxozlarini tashkil etish va pirovardida paxta yordamida SSSRning moddiy imkoniyatlarini

yaxshilash edi. Sho‘rolar bu maqsadlarga asosan erishdi. Quloqlar hisobiga qaddini tikladi, sotsialistik qurilishning moddiy bazasini yaratdi. Paxta mustaqilligiga erishdi. Barcha xatti-harakatlarga qaramay, Ukrainada paxtachilik xo‘jaligi qaror topmadi.

Majburiy jamoalashtirish siyosati qishloqning mustaqil rivojlanishini barbod qildi, qishloq ahli ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi, dehqonlarning yerga egalik tuyg‘usini yo‘q qildi.

O‘zbekiston uchun suv inshootlari qurish muhim edi va shuning uchun 1939 yildan bunday qurilishlar umumxalq hashar yo‘li bilan amalga oshirila boshladi. 1939 yil 1 avgustda boshlangan 270 km uzunlikdagi Katta Farg‘ona kanali xalqning mashaqqatli mehnati evaziga 45 kunda barpo etildi. Kanal qurilishida 160 ming kishi ishtirok etdi va asosan qo‘l mehnati bilan qurildi.

Chorvachilik O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining muhim sohalari qatorida sho‘rolar davrida ham muhim o‘rin egalalab keldi. Xususan, 1932 yildan 1937 yilgacha yirik qoramollar soni 150 mingga, qo‘ylar 230 mingga ko‘paydi. Lekin shunga qaramasdan chorvachilik qishloq xo‘jaligining boshqa sohalariga qaraganda orqada edi. Buning asosiy sababi paxtachilikka e’tiborning kuchaytirilganligi va chorvadorlarning moddiy rag‘batlantirilmaganligi bo‘ldi.

O‘zbekiston KPning 1934 yilda bo‘lib o‘tgan VI qurultoyidan so‘ng, respublikaga ko‘p miqdorda qoramol keltirila boshladi.

Pillachilik respublika qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlaridan bir edi. 1922 yilda Toshkentda “Turkipak” aksionerlik jamiyatining tashkil etilishi pillachilikni rivojlantirishda muhim bosqich bo‘ldi. 1927 yilda Toshkent ipakchilik stansiyasi negizida O‘rta Osiyo ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. 1930 yillarda tut ko‘chati yetishtirishga alohida e’tibor qaratildi. Birinchi va ikkinchi besh yilliklarda O‘zbekiston ipak ishlab chiqarish bo‘yicha birinchi o‘rinda edi. 1932 yilda 5674 tonna pilla yetishtirilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 1937 yilda 11 422 tonnaga ko‘paydi.

Respublika qishloq xo‘jaligida mevalar va uzum yetishtirish qadimgi va oziq-ovqat hamda sanoat xom ashyosi beradigan asosiy tarmoqlar qatoriga kiradi. 20-yillarning 2-yarmidan ixtisoslashtirilgan bog‘dorchilik va tokchilik davlat xo‘jaliklari barpo etila boshladi, tog‘ va tog‘ etaklari zonalarida joylashgan jamoa xo‘jaliklarida ham bu tarmoqqa katta e’tibor berildi. Mevalarning nav tarkibini yaxshilash maqsadida olma, nok, uzum va boshqalarning Yevropa mamlakatlarida yetishtiriladigan navlari keltirilib ekildi. O‘zbekistonning 1937 yilda

yetishtirgan meva hosili 800 ming sentnerni tashkil etdi. Shundan uchdan bir qismi sobiq ittifoqning turli viloyatlariga yuborilar edi.

O‘zbekistonda “madaniy inqilob” va uning oqibatlari

XX asr 20-30 yillardagi murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat respublika ma’naviy-madaniy hayotida ham o‘z aksini topdi. Sho‘rolarning “madaniy inqilob” tadbiri jamiyatning barcha jabhalari qatorida ilm-fan, madaniyat, san’at, maorif, oliy ta’lim sohalarini ham o‘z izmiga solgan edi. Ta’lim-tarbiyaning o‘choqlari bo‘lgan milliy maktablarga ham bu siyosat o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridanoq an’anaviy ta’lim tizimini yo‘q qilish avj oldirildi.

Davlatning “proletariat diktaturasi”ning mavjud barcha kuchlaridan foydalanib, sovet siyosiy rahbariyati qisqa muddat ichida Turkistonda Rossiya imperiyasi o‘rnatgan ta’lim tizimini tag-tomiri bilan yo‘q qilishga erishdi. Bir vaqtning o‘zida an’anaviy maktablarga nisbatan ham ma’muriy-repressiv hamda iqtisodiy choralar ko‘rildi. Biroq, keng xalq ommasi an’anaviy maktab tarafdori bo‘lib qolaverdi. Turkiston musulmonlariga o‘zining mafkuraviy ta’sirini kengaytirish maqsadida, sovet “milliy” maktablari tarmog‘ini tashkil etishga alohida e’tibor qaratildi. Mustabid davlat muqobil o‘quv maskanlari faoliyatining barcha imkoniyatlarini cheklab qo‘ydi. 1927 yil iyundagi O‘z KR MQ VI plenumi qarorlari boshlab bergan, din asoslarini yemirish bo‘yicha yangidan avj olgan harakat eski maktabga yetkazilgan asosiy zarba bo‘ldi. Plenumning “Musulmon ruhoniylari va maktab to‘g‘risida”gi rezolyutsiyasida: “isloh qilingan maktablar zararli ekanligini hisobga olib, bundan buyon vaqf maktablarini isloh qilishga aslo yo‘l qo‘yilmasin, shu vaqtgacha isloh qilingan maktablarga kelganda esa shu rayonda yangi sovet maktablarini olish, shuningdek isloh qilingan maktablarda diniy fanlarni o‘qitishni hamda umuman ruhoniy shaxslar o‘qitishini ta’qiqlash yo‘li bilan ham ularni yopish uchun butun choralar ko‘rilsin”, - deb ta’kidlangan edi.

Ayniqsa, 1927 yilning dekabrida VKP (b)ning XV syezdida qabul qilingan qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish to‘g‘risidagi qarordan keyin bu maxsus ma’rifiy hayriya mulklari bo‘lmish vaqf mulklari tugatilib, buning oqibatida an’anaviy maktablar ham iqtisodiy asosdan mahrum bo‘ldilar. Ushbu choralar kamdek, ularga din-xurofot o‘choqlari tamg‘asi yopishtirilib, 10 asrdan ortiq to‘plangan an’anaviy qadriyatlar keraksiz,

zararli, yangi tuzumning taraqqiy etishiga to‘siq bo‘luvchi ijtimoiy institutlar sifatida izsiz tugatib yuborildi. Oxir oqibatda 1920 yilga kelib, TASSRda “sotsialistik” turdagi 2080 maktab faoliyat ko‘rsatib, ulardagi o‘quvchilar soni esa, 174820 ni tashkil qilar edi.

An’anaviy maktab va madrasa hamda jadid maktablarini yo‘q qilish bilan birga sovet organlari mahalliy aholi farzandlari maktablariga ham jiddiy e’tibor berishmagan bo‘lsa-da, sovet o‘quv maskanlarini o‘qituvchi kadrlar hamda kerakli mablag‘ bilan ta’minlay olish imkoniyatlarini topa olishgan. Chunonchi, sho‘ro ta’lim tizimiga mos o‘qituvchi kadrlarning miqdoriy o‘sishini ta’minlash keng yo‘lga qo‘yilib, 1917 yilning o‘zidayoq, Toshkent, Andijon, Samarqand, Qo‘qonda dastlabki o‘qituvchilar tayyorlaydigan qisqa muddatli kurslar tashkil etilgan edi. 1920-yillarning boshlariga kelib, mana shunday kurslar orqali 3 ming mahalliy millat va 802 ta yevropalik o‘qituvchi tayyorlandi.

Mana shunday sharoitda mahalliy ziyolilarimiz zamonaviy milliy oliy ta’lim tizimini yaratish, dunyoviy bilimlardan dars bera oladigan o‘qituvchilar tayyorlash davr talabi ekanligini teran his etib, zamonaviy milliy universitet yaratish ishiga bel bog‘ladilar. Milliy universitet haqida gap borar ekan, shuni ta’kidlash lozimki, O‘rta Osiyoning birinchi universiteti hisoblanmish hozirgi O‘zbekiston Milliy Universiteti ikki asosga ega bo‘lgan. Biri 1918 yil 12 mayda jadid ziyolilari tomonidan tashkil etilgan Musulmon Xalq Dorilfununi bo‘lib, ikkinchisi 1918 yil 21 aprelda rus ziyolilari ochgan Turkiston Xalq Universitetidir.

Munavvar Qori Abdurashidxonov tashabbusi bilan Musulmon Xalq Universiteti (dorilfununi)ni tashkil etish guruhi saylanadi va 1918 yilning 9 aprelida uning hovlisida shu dorilfununning 9 kishidan iborat tashkiliy hay’ati ta’sis etiladi. Musulmon Xalq Dorilfununi 1918 yilning 12 mayida Toshkent shahrining eski shaharida tantanali ravishda ochildi. Uning 13 ta maktabi 14 maydan ochila boshladi, eng oxirgisi esa 17 iyunda tarkib topdi. Ulardan 4 tasi ayollar maktabi edi.

1918 yilning 31-mayida esa, Musulmon Xalq Dorilfununining oliy ta’lim bosqichi- Musulmon Dorilmuallimini tashkil etiladi. Lekin sho‘rolar siyosiy va ijtimoiy muhitning murakkabligi va Rossiyadagi siyosiy voqealarni ro‘kach qilib, 5 yilllik o‘qishga mo‘ljallangan dorilmuallimini faqat 4 oylik o‘qituvchilar kurslari bilan chegaralab qo‘ydilar. Dorilfununning ”Xalq dorilfununi” nomli gazetasi birinchi sonining chiqishi ham ayni shu kunga to‘g‘ri kelgan edi.

Mazkur o‘quv dargohida mashg‘ulotlar 1918 yilning 1 iyunida quyidagi o‘qituvchilar tarkibi bilan boshlandi: Abdurauf Fitrat, Ibrohim

Ismoil, Burxon Habib, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Rahimboyev, Abdurahmon Ismoilzoda, Haydar Shavqiy, Anna Poroykova, Vladimir Sergeyev. Institut mudiri qilib, Ibrohim Ismoilov va kotib Abdulla Rahimboyev tayinlandi.

Musulmon dorilmuallimini Turkiston Xalq Universiteti mablag‘ bilan ta’minlaganligi sababli, moddiy tomondan tamoman unga bo‘ysungan edi. Olingan mablag‘ ko‘p hollarda nochor ahvolda yashagan o‘qituvchilarning hayotini birmuncha bo‘lsa ham yengillashtirishga sarflanar edi. Mana shu muammolarning barchasi ko‘rsatib turganidek, musulmon o‘qituvchilari tayyorlaydigan kurslar emas, oliy ta’lim maskani-institut nihoyatda zarurligini tushunib yetgan musulmon ziyolilari qanchalik harakat qilishmasin ularning talablari turli bahonalar bilan e’tibordan chetda qolaverdi. Tez orada Turkiston Xalq Universiteti boshqarmasi dorilmualliminda 1918 yil 15 avgustdan 1 sentyabrgacha o‘qish to‘xtatilishi haqida qaror qabul qiladi va shu yilning kuzida dorilmuallimin ikkinchi darajali tashkilot qatorida yopib qo‘yiladi.

Musulmon Xalq Dorilfununi 1918-yilning kuzigacha, bor yo‘g‘i 100 kun faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa ham, Turkiston musulmonlarining savodini chiqarish, ilm-ma’rifatli qilish, oliy malakali milliy ziyolilar yetishtirish kabi ijobiy va himmatli, o‘sha davr uchun nihoyatda muhim ishlarni amalga oshirishga, yurtimizda maorif sohasini rivojlantirishga erishdi. O‘lkada milliy ziyolilarni yetishtirishda muhim ahamiyat kasb etgan Musulmon Xalq Dorilfununi faoliyati sho‘rolar davri adabiyotida mutlaqo yoritilmagan, u yerda dars bergan 300 ga yaqin o‘qituvchilarning nomlari hozirgi kunga kelib aniqlandi.

Kommunistik mustamlaka hukumati mahalliy xalqni ruslashtirish maqsadida ruscha Turkiston Universitetini rivojlantirdi. Uning birinchi rektori - V.Popov edi. Musulmon Xalq Dorilfununi faoliyati sovet hukumati tomonidan to‘xtalib qo‘yilgandan so‘ng, faqat rus tilini bilgan mahalliy millat vakillari mana shu dargohda oliy tahsilga ega bo‘lishlari mumkin edi.

Oktabr to`ntarishidan so`ng sho`rolar sharq ayollarini “ozodlik” ka chiqarish uchun kurash, ularning siyosiy faolligini oshirish hamda yangi hayot qurilishiga jalb qilish kampaniyasini avj oldirib yubordilar. Ushbu jarayonning eng cho`qqisi 1927-yil bo`lib, u tarixga “Hujum” harakati nomi bilan kirdi. Ya’ni sho`rolar talqinida bu eski turmush tarziga hujum qilish ma’nosini anglatar edi. Hujumning oldiga qo`yilgan birinchi navbatdagi vazifalaridan biri bu- ko`p xotinlik, balog‘atga yetmagan qizlarni turmushga berish va qalin pulini yo`q qilish edi.

Biroq, sovetlar shiddatli tus bergan ushbu harakat asriy an’analarni hisobga olmagan qarorlar, ko`rsatmalar asosida olib borildi, ko`p hollarda zo`rlik ishlatildi. Qaysi viloyat, qaysi tumanda, shahar va qishloqlarda qancha xotin-qizlar paranjisini tashlaganligi haqidagi ma’lumotlar muntazam talab qilina bordi.

Ishda beboshlik tus olgandi: ko`chalarda ayollarning paranjisini tortib olishar, bir joyga yig‘ib yoqib yuborishardi. Ayollar ish bilan ta’minlandilar. Ular asosan to`qimachilik sanoatida mehnat qilishdi. Shu bilan birga xotin-qizlar ijtimoiy hamda ijodiy ishlarga jalb qilindilar.

Sharq ayollarining asrlar davomida muayyan urf-odatlar va shariat mezonlari bilan shakllangan ijtimoiy mavqeini ularni ozodlikka chiqarish va erkaklar bilan teng huquqli qilish shiori ostida favqulodda va shiddat bilan o`zgartirilishi ko`p to`qnashuvlar va qurbonlar bo`lishiga sabab bo`ldi. Masalan, 1928-yil 8-martda O`zbek davlat konsert-etnografiya guruhi ishtirokchisi - To`paxon sahnaning o`zida o`ldiriladi, bir yildan so`ng esa Nurxon ismli aktrisa halok bo`ladi.

Shubhasiz, “Hujum” sharq ayollariga birmuncha erkinliklar, huquqlar berdi. Lekin, ushbu harakat bosqichma-bosqich, zo`ravonlik usullarini ishlatmasdan, o`ta noziklik bilan keng xalq omma ongini ushbu jarayonga tayyorlab amalga oshirilganda norasmiy nikohlar, ajralishlar, yolg‘iz onalar, demografik jihatdan ayollarning erkaklarga nisbatan ko`pligi sababli jamiyatda oila qurish huquqidan mahrum bo`lgan “ortiqcha” ayollar ko`payib ketmas, erkaklar bilan ayollar o`rtasida “tenglik” o`rnatilishi oqibatida ayollar o`zining sharqona noziklik latofatini yo`qotib qo`ymagan bo`lar edi.

Kompartiyaning madaniy merosni inkor etish siyosati arab yozuvini lotin grafikasiga almashtirish haqidagi qarorida ham o`z aksini topdi. Buning sababini sho`rolar “madaniy o`sishda texnik xususiyatga ega to`siqlardan biri bu qoloq transkripsiyadir” hamda “an’anaviy arabcha yozuv faqatgina diniy musulmon an’analari nuqtai nazaridangina qimmatlidir” deb uqtirib, arab yozuvining mavqeini pasaytirishga harakat qiladilar. Shu munosabat bilan O`zbekiston kommunistlarining III-qurultoyi: (1927-yil noyabr) “Yangi lotin alifbosiga yanada shiddatliroq yo`l bilan o`tish kerak” deb ta’kidladi va 1929-yilda o`zbek yozuvi lotin grafikasiga o`zgartirildi. Chunki, O`rta Osiyoni arablar istilo qilgan VIII asrdan boshlab nafaqat diniy kitoblar, balki fanning barcha sohalarida o`n uch asr mobaynida yaratilgan yozma madaniyat yodgorliklari, o`lka aholisi amal qilib kelgan huquq manbalari ana shu yozuvda yaratilgan edi.

Shu sababdan bu mahalliy xalqni nafaqat dinidan balki madaniyatidan, o`ziga xos huquqidan ajratib, sovet qolipiga majburan solish edi.

1940-yilda esa lotin grafikasining kirillcha bilan shoshilinch almashtirilishi, O`zbekiston aholisining bilim darajasining o`sishiga, o`zbek tilining rivojiga salbiy ta'sir ko`rsatdi. Ushbu holat savodsizlar sonining sun'iy o`sishini keltirib chiqardi. Lekin eng achinarlisi, ma'naviy hayot to`la ruslashtirilib, hamma joylarda o`zbek tili imkoniyatlarining cheklanishiga olib keldi.

Mustabid tuzum sovetlarcha savodli shaxslarni shakllantirish, "savodsizlik"ni tugatish borasida shiddatli kurashni avj oldirib yubordi va 1920 yilning 17 sentabrida TASSR Maorif xalq komissarligi tomonidan aholi orasida savodsizlikni tugatish to`g'risida dekret qabul qilinadi. Unga muvofiq, 8 yoshdan 40 yoshgacha bo`lgan barcha fuqarolar o`qish va yozishni o`rganishlari shart bo`lgan. TASSR Maorif xalq komissarligi huzurida esa savodsizlikni tugatish bilan shug'ullanuvchi favqulodda komissiya ta'sis etiladi. "Savodsizlikni tugatish" (likbez) maktab va kurslari tarmog'ini yaratish borasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, 1920-yilning oxiriga kelib, "likbez"larning soni bir mingdan oshib ketadi. Ularni bitirganlar esa 70 mingta edi. Ushbu maktablar uchun o`qituvchilar tayyorlashga ham katta e'tibor qaratilib, qisqa muddatda mahalliy millatga mansub 2000 ta o`qituvchi tayyorlandi.

1924-yilning boshida esa "Bitsin savodsizlik!" jamiyati vujudga keladi. Uning o`zagini o`qituvchilar, talabalar tashkil qilgan. Savodsizlikni tugatish bo`yicha ushbu jamiyat tomonidan dastlabki paytda 35 maktab ochilib, 10200 kishi o`z savodini chiqardi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko`ra, 1937-yilga kelib, respublikamizda savodsizlik tugatilib, kamsavodli kishilar soni 2 mlndan ziyod bo`lgan. Aholining sovetlar idrokidagi umumiy savodxonligi 67,8% ga yetgan edi.

Shu o`rinda aytish muhimki, sovet sotsialistik davlatchiligi o`zbek xalqining tub ma'naviy, axloqiy qadriyatlariga mos kelmas edi. Tarbiyaviy ishlar ham milliy manfaatlarni aks ettirmas edi.

Sho`ro hokimiyati yillarida, ayniqsa, 20-yillarda adabiy-madaniy hayot qizg'in tus oldi.

Jadid adabiyoti asr boshidan 20 yillik rivojlanish tajribasiga tayangan holda taraqqiyotning yangi bosqichiga ko`tarilgan, ham shaklan, ham mazmunan barkamollik kasb etgan hamda mazmun mohiyatiga ko`ra 20-yillarda yangi bir bosqichga ko`tarilib, umumturkiy badiiy tafakkurning zabardast siymolari sifatida etirof etilgan Fitrat, Qodiriy, Cho`lponni ma'naviyat maydoniga chiqardi.

Abdurauf Fitrat (1886-1938) buyuk san’atkor, adib bo`lishi barobarida ijtimoiy-siyosiy faoliyat bilan ham chuqur shug‘ullangan ulkan davlat arbobidir. Masalan, birgina “Buxoro xalq sho`rolar jo`mhuriyatining Konstitutsiyasi” Fitrat tahriridan keyingina qurultoyda qabul qilinishi uning siyosiy-ijtimoiy sohada nechog‘li katta hurmatga ega bo`lganini ko`rsatadi. U Buxoro xalq jumhuriyatida ma’sul vazifalarni ado etdi. Fitrat sovet hukumati belgilagan yo`ldan emas, o`z yo`lidan borishga harakat qildi. Bu esa, Moskvaga ma’qul kelmadi. Uni tuhmatlar bilan Buxoro jumhuriyatidagi barcha lavozimlardan ozod etadilar.

Fitrat Buxorodagi jadidchilik harakatida faol ishtirok etibgina qolmay, bu harakatga rahbarlik ham qildi. Bu boradagi o`z qarashlarini “Munozara”, “Hind sayyohi qissasi” singari asarlariga singdirdi. Fitrat “Sayha”, “Hind sayyohi”, “Begijon”, “Oila” singari asarlarida “mavjud tuzumni qattiq tanqid qildi, uning barcha kamchiliklarini ayovsiz fosh etib tashladi”, - degan edi bu haqda Fayzulla Xo`jaev.

Jurnalistik va muharrirlik Fitrat faoliyatida muhim o`rin tutadi. U o`zi muharrirlik qilgan “Hurriyat” gazetasida “Yurt qayg‘usi” umumiy sarlavhasi ostida uchta sochma she’r e’lon qildi. “Turkning nomusi, e’tibori, iymoni, vijdoni zolimlarning oyoqlari ostida qoldi. Turkning yurti ulog‘i, o`chog‘i, Turoni yot qo`llarga tushdi”,- deb yozgan edi shoir.

Fitrat matbuot bilan birga, butun umr maorif sohasida ham jonbozlik ko`rsatdi. Hatto Turkiyada o`qib yurgan kezlari u yurtdoshlarining o`qishiga ko`mak berish maqsadida “Buxoro ta’limi maorif jamiyati”ni tashkil etishda tashabbus ko`rsatdi.

Fitrat 1921-yilning bahoridan Buxoroda maorif ishlarini tashkil etish hay’atiga rahbarlik qildi. Shu vaqtda Buxoro jumhuriyatida turkiy til davlat tili deb e’lon etilishi bevosita Fitratning jonbozligi natijasidir. U isloh qilingan lotin alifbosiga o`tish ishlarining tashkilotchilaridan biridir.

Biroq sovet siyosati va kommunistik mafkura buyuk millatparvar adib dunyoqarashi va asarlarini baholashga asta-sekin o`zining omonsiz tazyiqini o`tkaza boshladi. Abdurauf Fitrat barcha asarlari va butkul faoliyati bilan istiqlol uchun kurashdi.

Abdulla Qodiriy (1894-1938) o`zining noyob iste’dodi, jasorati bilan xalqimiz madaniyati, adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirdi, ko`p asrlik milliy adabiyotimiz rivojida tub burilish yasagan, yangi bosqichni boshlab bergan romanlar yaratdi. Adib “O`tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon” asarlari bilan o`zbek romanchiligiga asos soldi.

“O`tgan kunlar” romani bilan o`zbek adabiyotida yangi davr boshlandi. Roman qahramonlari qismati ifodasi orqali adib jamiyat hayoti,

axloqini, rus bosqini arafasidagi xalqning ahvoli, kayfiyatini teran tadqiq qiladi. Buyuk tarixga, qudratli davlatchilik, madaniy, ma'naviy an'analarga ega Turkiston o`lkasining tanazulliga yuz tutish, rus imperiyasining mustamlakasiga aylanish sabablarini ochib beradi.

Qodiriyning asarlari XX asrning ko`plab balo-ofatlariga, qora bulutli kunlariga duch keldi va ulardan eson-omon chiqdi. Bu o`lmas asarlar o`zbek adabiyoti osmonida quyoshdek porlab, odamlar vujudini, qalblarini charog'on etmoqda.

**Cho`lpon** (1897-1938)-ko`p qirrali iste'dod sohibi edi. Cho`lpon ehtirosli va yoniq asarlari bilan o`zbek xalqining milliy ongini uyg'otishda, uning yangicha ma'naviyatini shakllantirishda katta xizmat qildi.

20-yillarda Cho`lpon bolsheviklar olib borgan siyosatga nisbatan muxolifatga o`tgani va bu qarashlarini yashirmay, she'rlarida oshkora kuylagani tufayli, uni millatchiga chiqarib qo`ydilar. Qo`yilgan aybnomalarini isbotlash uchun asosiy dalil sifatida "Buzilgan o`lkaga" she'rini keltirdilar. Chindan ham bu she'rda sovet voqeligini madh etish yo`q. Bu tom ma'noda vatanparvarlik tuyg'usi bilan sug'orilgan she'r. She'rda ulug' o`lka boshiga tushgan fojealar, haqsizliklarga, adolatsizlikka qarshi, ona yurtning erki va ozodligi uchun kurashga undovchi misralar bor.

Adibning "Kecha va kunduz" romanida Turkistonning zulmga, jaholatga, adolatsizlik va haqsizlikka to`la hayotini ochib bergan.

Turkistonning tuganmas dardlarini, jarohatlarini anglash va anglatish, uni birlikka, erkka, mustaqillikka chorlash va bu yo`ldagi fidoyilik har uch adib ijodining mushtarak jihatini tashkil qiladi.

Hamza o`z she'rlarida faqat ma'rifatga chaqirish bilan cheklanmaydi, u qadimiy Turkistonning siyosiy-ijtimoiy ahvolini o`ylaydi, muxtoriyat g'oyalarini ulug'laydi. Masalan, uning "Turkiston muxtoriyatiga" degan she'rida "islom davlati"ni bir sanjoq ostida birlashishga chaqiradi, "arab, turk, qobil, hindiston" kabi xalqlardan tashkil topgan "islom millatini ahillikka, ittifoq bo`lib ish yuritishga" undaydi.

Mustabid tuzum yillari respublikamizda adabiyot bilan bir qatorda, milliy san'at ham rivojlandi. 1918 yilda Hamza Farg'onada "O`lka Sayyor" siyosiy truppasini tashkil etdi. M.Qori - Yoqubov, Y.Egamberdiyev, H.Islomov, M.Kuznetsovalar shu teatr qaldirg'ochlari bo`ldilar. O`sha yili Mannon Uyg'ur Toshkentda "Turon" jamiyati qoshida teatr tuzdi. Bu guruh keyinchalik O`lka Davlat namuna teatriga aylandi. Teatrning birinchi aktyorlari-Abror Hidoyatov, Muzaffar

Muhamedov, Obid Jalilov, Fatxulla Umarov, Sayfi Olimov, Ma’suma Qorieva, Bosit Qoriev, Ziyo Saidlardir. Mannon Uyg‘ur vatanparvarlik va ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan Fitrat, G‘ulom Zafariy, Cho`lpon, Qodiriy, ozarbayjon dramaturgi Husayn Jovid asarlarini sahnalashtirdi.

Shu yillarda Qori Ëqubov tomonidan birinchi bo`lib o`zbek xalq musiqa ansambli tashkil etildi. 1926-yilda esa yuzaga kelgan birinchi o`zbek davlat konsert etnografik ansambliga atoqli o`zbek xonanda, aktyor, sozandalari jalb etilib, 1929-yilda uning zaminida Samarqandda O`zbek davlat musiqali teatri tashkil topdi. Aynan o`sha davrlarda atoqli o`zbek ijrochilari chet el gastrollarida bo`lishgan: Tamaraxonim va Qori Ëqubovlar Parij va Berlin(1925)da katta muvaffaqiyat qozonishgan. 1936 yilda O`zbek davlat filarmoniyasining tashkil etilishi ijrochilik san’atini ma’lum darajada tizimlanishiga asos bo`ldi. O`zbek xalq cholg‘u asboblari orkestri, ashula va raqs ansambllari, xor kapellasi, simfonik orkestr uning tarkibida ish boshladi.

Oktabr to`ntarishidan so`ng, respublikamizda bir qancha ilmiy va o`quv muassalari tashkil etildi. Xususan, 1918 yilda tashkil etilgan Turkiston Xalq Universiteti qoshida bir qancha ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyat ko`rsata boshladilar. Tuproqshunoslik va geobotanika, biologiya, zoologiya, pedagogika va psixologiya, fizika-matematika, ekologiya ilmiy-tadqiqot institutlari shular jumlasidandir.

Shuningdek, respublikada 20-yillar oxiri-30 yillar boshida Tropik tibbiyot instituti, Tibbiy parazitologiya va gelmintologiya ilmiy-tadqiqot instituti, Suv xo`jaligi tajriba-tadqiqot instituti va boshqa ilmiy muassasalar tashkil qilindi.

30-yillarda respublikamiz hamda mintaqada ilm-fan ravnaqiga munosib hissa qo`shgan mahallliy millatga mansub olimlar yetishib chiqdilar. Ular: T.Qori-Niyoziy, T.Sarimsoqov, S.Sirojiddinov, O.Sodiqov, N.Dolimov, T.Zohidov, U.Oripov, S.Umarov va boshqalardir.

Ilmiy-tadqiqot muassasalari tarmog‘i va ilmiy kadrlar sonining jadal o`sishi, olimlar oldiga yangi vazifalarning qo`yilishi, ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish va ularni muvofiqlashtirib turish ishlarini takomillashtirishni taqozo qildi. 1932 yilda Fan qo`mitasi ta’sis etilib, 1940 yilda uning negizida Ittifoq FA O`zbekiston filiali (O`zFAN) tuzildi. Shu davrdan O`zFAN O`zbekistonning ilmiy-tadqiqot markaziga aylandi. Uning tarkibiga geologiya, botanika, kimyo, suv xo`jaligi muammolari, tarix, til va adabiyot institutlari; tuproqshunoslik, zoologiya, fizika va

matematika sektorlari; Toshkent astronomiya observatoriyasi; iqtisodiy tadqiqotlar va kartografiya byurosi kiritildi.

1943-yilda O`zFAN asosida O`zbekiston Fanlar Akademiyasi (O`zFA) tashkil etildi, uning birinchi prezidenti etib akademik Toshmuhammad Niyozovich Qori-Niyoziy saylandi.

O`zbek matematika atamashunosligi asoschisi, taniqli matematik Toshmuhammad Qori Niyoziy zamonaviy o`zbek matematik tafakkurining shakllanishi va rivojiga bebaho hissa qo`shgan olimdir. Uning Beruniy mukofotiga sazovor bo`lgan uch jildlik "Asosiy matematik analiz kursi" nomli asarining ilmiy qimmati oliy matematikadan birinchi o`zbek tilidagi original qo`llanma ekanligidadir. O`zbekiston xalqlarining madaniy hayoti tarixiga oid ilmiy ishlar, o`zbek matematika va astronomiya ilmlari tarixi, xususan, Ulug'bekning astronomiya maktabiga oid asarlai ham Qori Niyoziy qalamiga mansubdir.

Siyosiy qatag'onlik

1922-yil 30-dekabrda tashkil topgan SSSR, qudratli unitar (qo'shma) davlat bo'lib, unda rasmiy federatsiya subyektlari suveren huquqlar va real mustaqillikdan mahrum edilar, imperiya tarkibidan chiqib keta olmasdilar. O'zbekiston ham faqat nomigagina SSSR tarkibidagi suveren respublika hisoblangan, aslida esa ittifoqqa har tomonlama qaram edi. SSSRda qaror topgan boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi jamiyatning barcha sohalarini o'z maqsad va vazifalariga bo'ysundirgan, ijtimoiy-siyosiy hayot o'ta siyosiylashtirilib, o'zgacha fikrlashlarga qarshi shafqatsiz kurash olib borilar edi.

20-30 yillarda mustabid tuzumga qarshi fikr bildirganlarni ta'qib ostiga olish avj oldi. Ayni shu paytda "18 lar guruhi", "inog'omovchilik", "qosimovchilik" kabi siyosiy ishlar to'qib chiqarilgan edi.

"18 lar guruhi" 1925-yil 19-noyabrda Samarqandda chaqirilgan O`zbekiston KP(b) MQning plenumi yig'ilishi bir kun emas, to`rt kun davom etadi. Buning asosiy sabab, respublikadagi yuqori ma'suliyatli vazifalarni egallab turgan 18 shaxsning o`z lavozimlaridan ketishi haqidagi arizasi bo`ldi. Ular o`z iste'folari sababini xususiy mulkni yo`qotish hisobiga o`tkazilgan yer-suv islohoti usullariga norozilik sifatida izohlashadi. Shuningdek, "18 lar guruhi" ni eski xodimlarga noto`g'ri munosabatda bo`linayotgani, rahbarlarni tanlash faqat sinfiy nuqtai nazardan amalga oshirilayotgani qoniqtirmaydi. Bayonotga imzo

chekkanlar orasida I.Xidiraliyev, M.Saidjonov, R.Rafiqov kabi milliy rahbarlar ham bor edi.

“18lar” bilan RKP(b) MQ O`rta Osiyo byurosi raisi I.Zelenskiy yig‘ilish o`tkazgandan so`ng, guruhning 8 a’zosi o`z “xato”larini tan olib, imzolaridan voz kechadilar. Boshqa 10 ta shaxs O`rta Osiyo byurosida bayonotlarini ko`rib chiqishlarini talab qiladilar.

“18 lar bayonoti” O`z KP(b) MQ II-qurultoyida muhokama etilib, ushbu masala bo`yicha qaror qabul qilinadi va unda: “18 lar bayonoti” O`z KP(b) MQ ga qarshi yo`naltirilgan fraksiya va guruhbozlik xarakterida bo`lib, partiya saflari birdamligini buzishga, partiya qurultoyiga to`sqinlik qilishga qaratilgan hamda shaxsiy norozilik, mayda burjua kayfiyatini aks ettiruvchi ariza deb ta’kidlanadi.

Shundan so`ng, “18 lar bayonoti” tashabbuskorlari va tashkilotchilarini aniqlash, ularni qat’iy partiya javobgarligiga tortish vazifalari qo`yiladi. Hamma joylarda “18 lar bayonoti” ning keng muhokamasi avj oldiriladi va uni yer-suv islohotini barbod qilish xavfi bor va yangi hayotga qarshi bo`lgan mayda burjuaziya va ruhoniylarga yon beruvchi bayonot deb soxtalashtiriladi.

Partiyaning II-qurultoyidan keyin bo`lib o`tgan plenumda partiya oldida o`z “aybi” ga iqror bo`lmaganlarni egallab turgan lavozimlaridan chetlashtirishga qaror qildi. Xususan, R.Rafiqov-ichki ishlar xalq komissarligidan, M.Saidjonov-Zarafshon viloyat ijroiya qo`mitasi kotibligidan, I.Xidiraliyev-O`zbekiston yer ishlari xalq komissari vazifasidan ozod etiladilar.

Yer-suv islohotini o`tkazish davrida “18 lar guruhi” ushbu jarayon va MQ ga qarshi faoliyat yuritishda ayblanishgan bo`lsa, oradan ikki yil o`tgach esa, O`rta Osiyo byurosining plenumida (1927 yil oktyabr) ularga boy-quloqlarning manfaatini himoya qilgan, yer-suv islohoti hamda ayollarning ozodlikka chiqishiga qarshi bo`lgan, savdogar va hunarmandlardan olinadigan soliqlarni kamaytirish va davlat apparatini milliylashtirish tarafdori bo`lgan degan, soxta aybnomalar qo`yiladi.

Ko`rinib turganidek, mustabid tuzumga, mutlaq xukmron - kommunistik partiyaning siyosati va g‘oyalariga qarshi bo`lgan har qanday chiqishlarga darhol chek qo`yilgan.

“Inog‘omovchilik” 1926-1931 yillarda mustabid tuzum tomonidan milliy rahbar va ziyolilarning qatag‘on qilinishiga sabab bo`lgan uydirma. “Inog‘omovchilik”- o`sha yillarda O`zSSR Maorif Xalq Komissari vazifasini bajarib kelgan Rahim Inog‘omov (1902-1938) nomi bilan bog‘liq.

R.Inog‘omov va uning tarafdorlari xalq ta’limi va madaniyatini proletarlashtirishga qarshi chiqib, VKP (b) MQ O`rta Osiyo byurosi faoliyatini tugatish talabini ko`tarib chiqadilar. Shuningdek, R.Inog‘omov o`zbek mehnatkashlarining oktabr to`ntarishiga tayyor bo`lmaganliklari va uning yevropalik proletar kuchlar tomonidan amalga oshirilganligi hamda rus istibdodiga qarshi mustaqillik harakatida tarixiy rolni faqat ziyolilar o`ynagan, bizda esa hali proletariat yo`q degan dadil fikrlarni bildiradi.

Maxsus uyushtirilgan viloyat plenumlarida “inog‘omovchilik” qoralanib, u bilan ayovsiz kurash olib borishga da’vat etiladi. Hatto “inog‘omovchilik” ni partiya saflaridagi “burjuaziya agenturasi” deb baholashadi.

“Inog‘omovchilik” ka qarshi kurash matbuotda ham davom etadi. O`rta Osiyo byurosining “Za partiyu” degan jurnalida I.Zelenskiy “inog‘omovchilik” ni qattiq tanqid qilib, uning kommunistlar tomonidan qo`llab-quvvatlanmaganligi, unga qat’iy zarba berilganligini alohida ta’kidlaydi.

Rahim Inog‘omovga shu kabi asossiz “aybnomalar” qo`yilgandan so`ng, uni Qashqadaryo viloyatining eng chekka qishloqlarining biriga ishga yuborishadi. Quvg‘in va ta’qiblar ta’sirida R.Inog‘omov matbuot orqali tavba-tazarru mazmunidagi “ochiq xat”i bilan chiqadi.

Inog‘omovning qarashlari xususida Mustafo Cho`qaev quyidagi fikrlarni bildirgan: “...Biz ruslarga iqtisodiy jihatdan qaram bo`lishni istamaymiz.. Mana shu haqiqatni kommunist bo`lishga shoshilgan turkistonlik yoshlar anglay boshladi.. R.Inog‘omov boshliq guruh o`zbeklarga o`z-o`zini boshqarish huquqini berish, Turkiston ustidan O`rta Osiyo byurosi nazoratini bekor qilinishini talab qilgan.”

“Qosimovchilik” -1929-1930-yillarda milliy an’anaviy sud va huquq sohasidagi qadriyatlarni saqlab qolish tarafdorlari bo`lgan vatanparvar ruhdagi huquqshunos mutaxassislarni mustabid sovet tuzumiga majburan bo`ysundirish yo`lidagi (repressiya) qatag‘onga qarshi harakat bo‘ldi.

1929-yilda O`zSSR Oliy sudining raisi Sa’dulla Qosimovning “qosimovchilik” deb nomlangan ishini ko`rib chiqish boshlanadi.

S.Qosimov, B.Sharipov, sudyalar M.Mirzokirov, I.Xo`jayev, sud idorasi xodimi Spiridonov ustidan 1930-yilning martida boshlangan sud jarayoni natijalari oldindan tayyorlangan yolg‘onga aylantirilgan edi. Davlat va jamoat ayblovchilari S.Qosimov va maslakdoshlarining haqiqiy jinoiy ishlarini isbot qila olmadilar. Biroq, ularning Munavvar Qori Abdurashidxonov tomonidan tashkil etilgan “Turk odami markaziyati”

partiyasi bilan aloqalari, S.Qosimovning Sulton Segizboev va advokat Ubaydulla Xo`jayev (Asadullaxo`jayev), Yaponiyadagi Turkiston milliy qo`mitasining muxtor vakili (aslida bunday qo`mita bo`lmagan) Hasanxon Qori Karimov bilan do`stona munosabatda bo`lganligi va b. bir necha marotaba esga olindi. S.Qosimov va uning tarafdorlari "bosmachilar"ni qo`llab-quvvatlashda, "aksilinqilobchi millatchi tashkilotlar" a'zolari bilan aloqa bog'laganlikda, islom dinini himoya qilishda ayblandilar. Holbuki, S.Qosimov va B.Sharipov o`z xizmat vazifalarini bajarish vaqtida tub millat manfaatlarini imkoniyat doirasida himoya qilishgan edi. S.Qosimov tergov va sud jarayonida SSSR Oliy sudi tomonidan O`zbekistonning suverenlik huquqi va milliy manfaatlari poymol qilinayotganligini ochib tashlashdan cho`chimadi.

Davlat ayblovchisi Katanyan o`zining nutqida shunday deydi: "Spiridonov rus chorizmi tarafdori bo`lsa, Qosimov-turk chorizmi uchun kurashgan, Alimov-bosmachilarning do`sti, xususiy mulkchilik himoyachisidir. Shuning uchun ular eng oliy jazo-otuvga loyiqdirlar."

1930-yilning 22-iyunida hukm e'lon qilinadi. Ularning hammasi yot sinf manfaatlarini himoya qilganliklarida, Sharipov esa bosmachilarga faol yordam berganlikda ayblanadilar. Katanyan so`nggi sud jarayonida: "...adolatli qonun g'alaba qilsin va qon to`kilsin!" deb xitob qiladi. Qosimov va uning 3 tarafdori otib tashlanadilar.

Bu jarayonning asl mohiyati ko`zga ko`ringan mahalliy arboblarni tugatishga qaratilgan edi.

Minglab ziyolilar yo`q qilinishining cho`qqisi 1937-39-yillarga to`g'ri keldi.1937-yil dekabr - 1938 yil yanvarida XKS va O`Z KP (b) MQning "O`zSSR Xalq Maorif Komissarligi tizimida ziyonchilik oqibatlarini bartaraf etish bo`yicha chora-tadbirlar to`g'risida"gi qarori e'lon qilingandan so`ng, xalq ta'limining barcha sohalarida, ayniqsa mahalliy tilda dars beriladigan maktablar, pedagogik bilim yurtlari va institutlarida o`qituvchi kadrlar va talabalarni "tozalash" ishlari avj oldirib yuborildi.

Xalq ta'limi tizimidagi maorifparvar ziyolilarga qarshi olib borilgan quvg'in va qatag'onlarga "xalq dushmanlari, chet el josuslari"- A.Ikromov, F.Xo`jayev, I.Karimov va boshqalar o`zlarining Maorif komissarligidagi "odamlari"- Usmonov, Ro`ziyev, Sorokin, Kojuxovlar orqali xalq maorifiga katta ziyon yetkazishgan, degan bo`htonlar "asos" qilib olindi: "Ular turli choralar bilan o`zbek xalqini sotsialistik madaniyatning ilg'or vakili-buyuk rus xalqidan ajratmoqchi bo`ldilar, yoshlarni millatchilik bilan zaharlashga harakat qildilar... Ular bir tomondan, o`zbek maktablarida Lenin va Stalin asarlarini o`rganishga

imkon beruvchi rus tili o`qitilishiga qarshilik ko`rsatib, ikkinchi tomondan, marksizm-leninizm klassiklarining asarlarini o`zbek tiliga tarjima qilinishiga to`sqinlik qildilar.”

Ayni paytda istiqlol va erk kuychilari, o`zbek xalqining mashhur yozuvchilaridan Fitrat, Cho`lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir Stalin istibdodining begunoh qurboni bo`ldilar. 30-yillarda o`zbek adabiyotining Fitrat va Cho`lpon kabi “keksa” avlodi vakillarining erkin ijod etishiga yo`l qo`yilmadi. Fitrat 1938-yil 4-oktabrda “...sovet hokimiyatiga qarshi aksilinqilobiy, panturkistik ishlar olib borganlikda” ayblanib, otib tashlanadi.

Cho`lpon 1932-yili F.Xo`jayevning maslahati bilan Moskvaga borib, SSSR XKS va SSSR xalqlari markaziy nashriyotida tarjimon bo`lib xizmat qilayotganida, Toshkentda **badriddinovchilar** ustidan sud boshlanadi. “Badriddinovchilik”-O`zbekiston SSR Oliy sudining prokurori Shamsutdin Badriddinov nomi bilan bog‘liq ish. Sh.Badriddinovga “Milliy ittihod” tashkiloti a’zolari va bosmachilar bilan aloqa bog‘lagan, Munavvar Qori va S.Qosimovning yaqin do`sti va ham fikri bo`lgan degan ayblar qo`yilgan Sh.Badriddinov va uning 5 tarafdori ustidan sud jarayoni 1932-yil 5-may-15 iyunda Toshkentda bo`lib o`tadi. Ana shu sudda fosh etuvchi nutq bilan so`zga chiqqan Olimov ismli guvoh Cho`lponning ham nomini g‘ayrli niyatda tilga oladi. Bu uning 1937-yilda qamoqqa olinishiga sabab bo`ladi. “Cho`lpon o`z oldiga sovet hokimiyatini qurol bilan ag‘darib tashlash va O`zbekiston muzofotida burjua davlatini barpo etish maqsadini qo`ygan, aksilinqilobiy millatchilik tashkilot a’zosi bo`lgan..., sovet hokimiyatiga qarshi kurash uchun milliy kadrlar tayyorlagan..., tashkilotning topshirig‘iga muvofiq aksilsho`roviy-millatchilik ruhidagi she’rlarni yozgan. Xorijiy razvedka organlarining ayg‘oqchilari Shohid eson Musayev, Fitrat va G‘ozi Olim Yunusov bilan doimiy aloqada bo`lgan...” degan soxta aybnomalar asosida sovetlarning jazo organlari tomonidan 1938 yil 4 oktabrda qatl etiladi.

O`zbek romanchiligining asoschisi - Abdulla Qodiriy 20-yillarda “O`tkan kunlar” dan keyin, “Mehrobdan chayon” asarlarini yaratib, o`zbek romanchiligini jahon madaniyati darajasiga olib chiqdi. Biroq, sovet rejimi uning “O`tkan kunlar” asari kitobxonlarni sovet voqeligidan uzoqlashtiradi va unda millatchilik qarashlari ochiq aks etgan deb tanqid ostiga olishadi va bu uning 1937-yilda qamoqqa olinishi uchun asos bo`lib xizmat qiladi. Adabiyotimizning eng sara arboblari qatorida A.Qodiriy ham 1938-yil 4-oktabrda otiladi.

Taniqli o`zbek shoiri, dramaturg va tarjimon Usmon Nosir o`zining “Yurak”, “Mehrim, “Norbo`ta, “Naxshon” va boshqa she’riy dostonlari bilan shuhrat qozongan. Shuningdek, u Dobrolubov, Lermontov asarlarini o`zbek

tiliga tarjima qilgan. Usmon Nosir ham 1944-yilda sovet rejimining begunoh qurboni bo`lgan.

O`zbekiston Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, respublika NKVDsi "uchlik" lari tomonidan 1937-39-yillarda 41 mingdan ziyod kishi qamoqqa olinib, ulardan 6 ming 920 tasi otib tashlangan edi.

Millatning ilg‘or taraqqiyparvar ziyolilari qatag‘on qilinishi oqibatida xalqimiz ularning noyob asarlarini o`qishdan uzoq vaqt mahrum bo`ldi.

Ma'lumki, sovet hukmronligi davrida din davlatdan ajratilgan, deb e'tirof etilgan, nomigagina vijdon erkinligi e'lon qilingan bo`lsa-da, aslida diniy e'tiqod goh oshkora, goh pinhona tarzda ta'qibu tazyiqqa olinar edi. Holbuki jamiyatsiz din, dinsiz jamiyat bo`lishi mumkin emas. Sovet tuzumida bunga mutlaqo e'tibor berilmas edi. Balki, iloji boricha, dinga, diniy tarbiyaga to`sqinlik ko`p bo`lib, jamiyatdan ularni siqib chiqarishga harakat qilingan. Sovetlarning e'tiqodi dahriylik edi.

30-yillar boshi dindor va e'tiqodli kishilarga zo`ravonlik va siyosiy qatag‘onlikning cho`qqisi bo`ldi.

Hatto Alloh taoloning uyi hisoblanmish masjidlar xudosizlar uyiga, ateizm muzeyiga aylantirilgan. Ushbu siyosat oqibatida ko`plab qo`hna masjidlar uzoq vaqtgacha qarovsiz qolib ketdi, yangi masjidlar qurish to`g‘risida esa hatto so`z bo`lishi mumkin emas edi. Bu davrda O`zbekistondagi diniy ulamolarning asosiy qismi qamoq lagerlariga jo`natildi.

Inson huquqlari amalda poymol etildi. Qamoqxonalarda mahbuslar shafqatsiz jismoniy jazolarga mahkum etildilar.

20-30 yillardagi mustabid tuzumning qatag‘onlik siyosati jiddiy va fojeali oqibatlarga olib keldi. Milliy ziyolilarning jismonan yo`q qilinishi oqibatida milliy madaniyat to`la-to`kis rivojlana olmadi. Millatning aql-idrokli kishilari mahv etilgach, hamma "yo`lboshchi"ning itoatkor quliga aylantirildi. Shunday qilib, har qanday o`zgacha fikrni kuch bilan bo`g‘adigan, ommaviy o`zboshimchalik va zo`rlik bilan Vatanga sodiq necha o`n minglab kishilarni qirib tashlagan mustabid tartibot qaror topdi va kuchaya bordi.

15-mavzu. Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek xalqining fashizm ustidan qozongan g‘alabaga qo‘shgan hissasi. Urushning boshlanishi. Umumiy harbiy safarbarlik

Insoniyat juda ko‘plab urushlarni boshidan kechirgan bo‘lib, bular ichida eng dahshatlisi, 50 mlndan ortiq kishining yostig‘ini quritgan, XX

asr fojeasi boʻlmish ikkinchi jahon urushidir. Olti yil (1939 yil sentabr-1945 yil sentabr) davom etgan bu urush yer sharining 80% aholisi joylashgan hududni oʻz ichiga olgan 61 ta mamlakatni qamrab oldi.

Ikkinchi jahon urushini Angliya, Fransiya va SSSR kabi yirik davlatlar oʻrtasidagi ixtiloflar, xususan, paydo boʻlgan dastlabki damlaridanoq tashqi siyosat strategiyasi "jahon proletar inqilobi" mafkurasiga tayanib, butunjahon kommunistik imperiyasini tuzishga qaratilgan sovet davlati hamda Germaniya va Yaponiya kabi agressiv kuchlarning dunyoga hukmron boʻlish uchun intilishlari keltirib chiqardi. Urushning asosiy aybdorlari jahonga hukmronlik qilish daʼvosi bilan maydonga chiqqan Adolf Gitler va Iosif Stalin yurgizgan agressiv siyosat boʻldi. Fransiya va Angliya siyosiy yetakchilarining javobgarligi shundan iborat boʻldiki, ular bolshevizm xavfiga qarshi turuvchi kuchni tashkil qilish gʻoyasi bilan Germaniyada gitlerchilar partiyasining mustahkamlashuviga yordam beribgina qolmasdan, Avstriyaning Germaniya tarkibiga qoʻshib olinishiga (1938y mart) va Myunxen bitishuviga (1938 y sentyabr) yoʻl ochib berdilar. Bu esa, Ikkinchi jahon urushining boshlanishi uchun asos boʻlib xizmat qildi.

30-yillar oxirlarida xalqaro keskinlikning va ikkinchi jahon urushining boshlanishida Stalin boshliq sovet rahbarlari kapitalistlarni oʻzaro urushtirib, ularning kuchi kamayishi bilan qizil armiya kuchlarining qaqshatqich zarbasini berishga intilishlari va aynan shu maqsadda 1939-yil 23-avgustda Germaniya bilan 10 yil muddatga oʻzaro hujum qilmaslik toʻgʻrisidagi shartnomasi ularning javobgarliklarini tashkil qiladi. Sovet-german bitimining maxfiy qoʻshimcha bayonnomasiga koʻra, Germaniya bilan SSSR taʼsir doiralarini boʻlib olishgan edi. Ularning manfaatdor hududlari chegarasi Polshadan oʻtgan boʻlib, Gʻarbiy Ukraina va Gʻarbiy Belorusiya hududlari hamda Boltiqboʻyi mamlakatlari SSSR taʼsir doirasidagi hudud ekanligi Germaniya tomonidan tan olingan edi. Eng soʻnggi tarixiy tadqiqotlar "avgust bitimi" mamlakat xavfsizligini mustahkamlab, sovet-german urushining boshlanishini orqaga surgan emas, balki, ikkinchi jahon urushini va unga SSSR ning tortilishini tezlashtirgan hujjat boʻlganligini koʻrsatadi. Chunki Germaniya davlatining ham, Sovet davlatining ham strategik maqsadlarini aks ettirgan bu shartnomaga muvofiq Germaniya bilan SSSR Polshaga bir vaqtda qoʻshin kiritishlari lozim boʻlgan. Shunga koʻra 1939-yil 1-sentabrda fashistlar Germaniyasi Polshaga bostirib kirdi. 3-sentabrda esa Angliya va Fransiya Germaniyaga urush eʼlon qildilar hamda ikkinchi jahon urushi boshlandi. Natijada Germaniya ikki frontda

urush holatida bo‘lib qoldi. Gitler jahon jamoatchiligi ko‘z o‘ngida halokatli urush yong‘inining asosiy aybdori bo‘lib namoyon bo‘ldi. Stalin esa aynan shuni kutgan edi. U sovet qo‘shinlarini 17 sentabrdagina Polsha hududlariga kirita boshladi va Sharqiy Yevropaning «haloskori» sifatida G‘arbiy Belorussiya yerlarini bosib olib, keyinroq rasmiy ravishda SSSR ga qo‘shib oldi.

1939-yil oxiri – 1940-yil boshlarida bo‘lgan sovet-fin urushi natijasida Finlandiya Leningrad va Murmansk oralig‘idagi o‘z yerlarini SSSRga berishga majbur bo‘ldi. 1940 yil iyunda Estoniya, Latviya va Litva davlatlarini bosib olib, avgust oyida o‘z tarkibiga kiritdi. O‘z hududlarini bunday kengaytirish siyosati Germaniya va SSSRni 1939-1940 yillarda yanada yaqinlashtirdi. G‘arbiy Yevropada fashistlar Germaniyasi Polsha, Norvegiya, Fransiya, Belgiya, Gollandiya, Daniya, Lyuksemburg kabi davlatlar poytaxtlarini bosib olganda, sovetlar hukumati nemis qo‘mondonligini tabriklab borgan.

Kapitalistlar o‘zaro urush natijasida zaiflashishini kutayotgan Stalin boshliq sovetlar hukumati bir zarba bilan Yevropani sovetlashtirishga tayyorlanar, buni zimdan his qilgan Gitler hukumati Stalindan xavfsirar, ularning har biri “hujum qilmaslik haqidagi bitim”ini o‘zi uchun qulay bo‘lgan paytda bekor qilishni oqilona ish deb o‘ylardilar. Aynan shu narsa ikkita “do‘st” davlat o‘rtasidagi muqarrar urushni tezlashtirdi.

1941-yil 22-iyul yakshanba kuni tongotarida avgust shartnomasini buzib, fashistlar Germaniyasi SSSR ga hujum boshladi. Germaniya bilan uning ittifoqchilari-Italiya, Fillandiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya ham Sovet Ittifoqiga qarshi urushga kirdilar. Bu urushga majburan tortilgan Sovet Ittifoqi xalqlari mustamlaka asoratida bo‘lgan barcha respublikalar shu jumladan, O‘zbekiston xalqlari uchun og‘ir sinovlar vaqti va ularning nemis fashist bosqinchilariga qarshi fidokorona kurashi boshlandi.

Urushning dastlabki kunlaridanoq, butun mamlakatda bo‘lganidek, O‘zbekistonda ham partiya tashkilotlari tomonidan mitinglar va yig‘ilishlar tashkil qilindi. 1941-yil 22-iyundayoq Toshkent to‘qimachilik kombinatining ishchilari ana shu daqiqadan boshlab o‘zlarini Vatan himoyasiga safarbar qilingan deb hisoblashlarini bildirdilar. 23-24 iyunda Samarqand, Buxoro, Andijon, Namangan, Farg‘ona, Nukus va boshqa shaharlardagi yig‘ilishlarda Vatan himoyasi uchun har qanday vazifani bajarishga shay ekanliklarini bildirgan o‘zbekistonliklar harbiy komissarliklarga frontga ko‘ngilli sifatida jo‘natishlarini so‘rab arizalar bera boshladilar.

Arxiv hujjatlarining dalolat berishicha, urushning dastlabki kunlarida respublikaning shahar va tuman harbiy komissarliklariga 14 mingdan ortiq ariza tushgan. Bu o‘zbekistonliklarning o‘z vatanparvarlik burchlarini, har bir urush insoniyat boshiga kelgan ofat ekanligini yuksak darajada anglab, urush olovini yoquvchilarga qattiq nafrat bilan qarashliklarini ko‘rsatadi. Chunki boshlangan urush yuqori hokimiyat rahbarlari orasida sarosimalikni keltirib chiqargan bo‘lib, faqat 29 iyundagina Xalq Komissarlari Kengashi nomidan joylarga ko‘rsatmalar jo‘natib, unda urush ahvolni keskin o‘zgartirib yuborganligi, Vatan jiddiy xavf ostida qolganligi, barcha ishlarni harbiy izga solish uchun tez va qat’iy ravishda qayta qurishni amalga oshirish zarurligi ko‘rsatilib, “hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun!” chaqirig‘i talab darajasiga ko‘tarilgan edi. 1941-yil 30-iyunda I.V.Stalin boshchiligida Davlat Mudofaa Qo‘mitasi tashkil etilib, davlat, harbiy va partiyaviy hokimiyat uning qo‘liga o‘tdi. Stalin hukumat nomidan 3 iyulda radio orqali xalqqa murojaat qilib, haqiqiy ahvolni bayon qildi. Qurolli kuchlarga strategik rahbarlikni amalga oshirish uchun Oliy Bosh Qo‘mondon Qarorgohi tashkil etilib, 8 avgustda Stalin Oliy Bosh Qo‘mondon lavozimini qabul qildi. Barcha muhim harbiy-siyosiy qarorlarni qabul qilish haqiqatdan uning qo‘lida to‘plangan bo‘lib, bu qarorlar DMQ yoki VKP (b) MQ Siyosiy byurosining qarorlari sifatida rasmiylashtirilgan.

Urushning dastlabki kunlaridanoq sovet xalqi-o‘zbekistonliklar ham bosqinchilar ustidan g‘alabaga erishishga butun kuchlarini baxshida etdilar. Mustabid tuzum zulmi ostida ezilayotgan xalqlar qandaydir g‘oyalarni emas, balki ona-yurt-Vatanlarini himoya qildilar. O‘zining vatanparvarlik burchini yuksak darajada his qilgan o‘zbek xalqi fashizmdan faqat SSSRni emas, eng avvalo O‘zbekistonni himoya qilishni, uni yana bir bosqinchidan saqlab qolishni maqsad qilib qo‘ygan edi. Chunki xalqimiz sotsializm niqobi ostida qilingan bosqinchilik siyosiy qatog‘onlar zahmini hali unutmagan bir davrda gitlerchi bosqinchilarning bosib olingan hududlarda qilgan ashaddiy jinoyatlari, ular o‘rnatayotgan tartib to‘g‘risidagi xabarlarni eshitib fashizmning mustabid tuzumdan ham dahshatliroq, insoniyat boshiga kelgan ofat ekanligini anglab yetgan edi, ya’ni xalq o‘zini dushmanni to‘xtashishga va uloqtirib tashlashga qodir bo‘lgan birdan bir kuch deb his qildi. U kommunistik tizim foydasini emas, balki fashizmga qarshi kurashning adolatli ekanligi g‘oyasini tanladi. Shu jihatdan ham I.A.Karimovning “urush davri voqealarini, jangchilarimizning jasoratlarini tahlil etishda va

ta’riflashda ham mafkurabozlikni... kamroq aytish” ga doir chaqirig‘i nihoyatda dolzarb bo‘lib jaranglaydi. Prezident haqli ravishda bunday deb ta’kidlagan edi: “Ikkinchi jahon urushiga qanday qaralmasin, bu urush qaysi g‘oya ostida va kimning izmi bilan olib borilgan bo‘lmasin, o‘z Vatani, el-yurtining yorug‘ kelajagi, beg‘ubor osmoni uchun jang maydonlarida halok bo‘lganlarni, o‘z umrlarini bevaqt xazon qilgan insonlarni doimo yodda saqlaymiz. Bu achchiq, lekin oliy haqiqatni unutishga hech kimning haqqi yo‘q va bunga yo‘l ham bermaymiz!” Chunki o‘zbekistonliklarning jang maydonlaridagi jasorati, front orqasidagi fidokorona mehnati mustabid davlat mashinasining tazyiqi, erksiz harakat tarzida emas, balki ongli, asl vatanparvarlikning manbai bo‘lgan Vatanga muhabbat tuyg‘usining yuksak darajadagi ko‘rinishi bo‘ldi.

Urushning dastlabki kunlaridayoq O‘zbekistonning barcha moddiy va ma’naviy kuchlari, resurslari front uchun safarbar qilina boshlandi. Umumiy harbiy safarbarlik e’lon qilindi.

O‘rta Osiyo harbiy okrugi front uchun 1941-yil iyundan 1942-yil oxirigacha harbiy safarbarlik asosida 109 ta harbiy qo‘shilma tuzdi, harakatdagi armiyaga va Oliy Bosh qo‘mondonlik qarorgohi rezerviga 86 diviziya va brigada jo‘natdi.

O‘zbekiston hukumati milliy harbiy qo‘shilmalar tuzish tashabbusi bilan chiqdi. 1941-yil 13-noyabrdan 1942-yil martigacha 14 ta milliy harbiy qo‘shilma, jumladan, 9 ta o‘qchi brigada, 5 ta otliq askarlar diviziyasi tuzilib frontga jo‘natildi. Umuman, urush boshlarida 6,5 million kishidan iborat bo‘lgan O‘zbekiston aholisining 1.433.230 tasi urushga safarbar etilgan. Ularning ko‘pchiligi mardlik namunalarini ko‘rsatib, jangovar orden va medallar bilan taqdirlandi. Chunki ota va onalar, O‘zbekiston xalqi o‘z o‘g‘lonlarini frontga jo‘natar ekanlar, ularga bosqinchilarga qarshi sharaf bilan kurashish, o‘tmishda bosqinchilarga qarshi kurashlarda g‘olib chiqqan qahramonlarning jangovar jasoratlaridan namuna olishni, mard, botir askar bo‘lib, dushmanlar ustidan g‘alaba qozonishlarini tilab qolgandilar.

Harbiy vaziyat front orqasini mustahkamlash yuzasidan shoshilinch chora-tadbirlar ko‘rishni talab qildi. Xalq xo‘jaligini qayta qurib, harbiy izga tushirish umumiy dasturning tarkibiy qismi bo‘ldi. O‘zbekiston iqtisodiyoti ham harbiy vaziyatdan kelib chiqib zudlik bilan front manfaatlariga bo‘ysundirildi. Respublika sanoat korxonalari urush boshlanishi bilanoq qayta qurilib, mudofaaga zarur mahsulotlar ishlab chiqarishga o‘tkazildi. Qayta qurish grajdanlar urushi yillarida sinovdan

o‘tgan harbiy-kommunistik usullar bilan amalga oshirildi. 26 iyundan boshlaboq mamlakatda ishchilar va xizmatchilar uchun ishdan tashqari vaqtda majburiy ishlab berish joriy etildi. Katta yoshdagilar uchun ish kuni olti kunlik ish haftasida 11 soatgacha uzaytirildi. Aslida ish kuni 12-14 soatga cho‘zilardi. Ta’tilga chiqish bekor qilindi. Bu hol ishchi xizmatchilar sonini ko‘paytirmasdan turib ishlab chiqarish quvvatlari hajmini taxminan 1G‘3 ga oshirish imkonini berdi.

Ishchi kuchining yetishmasligi natijasida idora xizmatchilari, uy bekalari, o‘quvchilar ishlab chiqarishga jalb etildi.1941 yil dekabrda harbiy korxonalarning barcha xodimlari safarbar deb e’lon qilindi va mazkur korxonalarga biriktirib qo‘yildi. Korxonalardan o‘zboshimchalik bilan ketib qolganlar 5 yildan 8 yilgacha muddat bilan qamoqqa hukm qilinardi. Biroq odamlar mamlakat ichkarisida-O‘zbekistonda ham “yuqoridan” ortiqcha qistovsiz ozodlik va mustaqillik yo‘lida fidokorona mehnat qildilar.

Respublika hukumati 1941-yil sentyabr-dekabrda O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarishni harbiy izga moslab qayta qurishning umumiy rejalarini belgilab berdi. Qabul qilingan qarorlarda xalq xo‘jaligini qayta qurishga doir aniq vazifalar belgilangan bo‘lib, sanoat korxonalarining mudofaa mahsulotlarini ishlab chiqarishga o‘tish muddatlari belgilanib, ichki imkoniyatlardan foydalanish tavsiya etilgan.

Kadrlar, xom-ashyo, ishlab chiqarish vositalari tanqisligiga qaramasdan 1941-yil dekabrdayoq respublikadagi 30 ga yaqin korxona mudofaa uchun mahsulot bera boshladi. Korxonalarda front brigadalari nomini olgan brigadalar tuzila boshladi, dastlab oktyabrda “Tashselmash” zavodida tashkil etilgan bo‘lsa, 1942-yil boshlarida ularning soni 1,5 mingga yetgan. 1942-yil o‘rtalariga kelib xalq xo‘jaligini qayta qurib, harbiy izga o‘tkazish O‘zbekistonda asosan oxiriga yetkazildi.

O‘lka aholisi an’anaviy vatanparvarligining ajoyib namunalaridan biri frontga umumxalq yordami ko‘rsatish edi. O‘zbekistonliklar urushning dastlabki kunlaridanoq mudofaa jamg‘armasini tashkil etish harakatida faol ishtirok etdi. Mudofaa jamg‘armasiga ishchilar, ziyolilar bir kunlik ish haqlari, “kommunistik shanbalik”larda ishlab topilgan pullar, fuqarolarning shaxsiy jamg‘armalari, qimmatbaho boyliklari, davlat zayomlari, buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari topshirilardi. Urushning dastlabki kunlarida respublika aholisidan 30 million so‘mlik miqdorda pul, obligatsiya va qimmatbaho buyumlar to‘plandi. O‘zbekiston aholisi urush yillarida mudofaa jamg‘armasiga jami 649, 9 mln. sum pul va 55 kg.ga yaqin oltin, kumush va boshqa qimmatbaho

metallar topshirdi. Bu jamg‘arma hisobiga tank kolonnalari, aviatsiya eskadrilyalari, bronepoyezdlar qurilib frontga jo‘natildi.

Aholi tomonidan issiq kiyimlar to‘plash va tayyorlash keng avj oldi. Respublika aholisi urushning dastlabki olti oyi mobaynida 421,5 mingta turli issiq kiyimlar frontga yubordi. Jangchilar uchun to‘plangan buyumlar, oziq-ovqatlarni O‘zSSR Oliy Soveti Prezidiumining rayisi Y. Oxunboboyev (1885-1943) rahbarligidagi delegatsiya frontning oldingi marralariga yetkazib berdi.

Mustabid tuzum tazyiqi, qatag‘onlarga qaramasdan o‘zbekistonliklarning ikkinchi jahon urushi yillarida ko‘rsatgan yuksak vatanparvarlik namunalari bu xalqning ko‘p ming yillik tarixga, boy ma’naviy merosga ega ekanligi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni bir xilda his qilishini ko‘rsatadi.

Urushning og‘ir yillarida o‘zbek xalqining asosiy ma’naviy-ahloqiy xususiyatlari, uning insonparvarligi yorqin namoyon bo‘ldi, ya’ni yurtboshimiz aytganlaridek: “tarixning o‘yini ham, omonsiz jangu jadallar ham, tabiiy ofatlar va ochlik ham xalqimizning insoniylik tabiatiga dog‘ tushira olmadi”.

Urushning dastlabki kunlaridan boshlab butun mamlakatda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham oziq-ovqat va sanoat mollari kamayib ketdi. Aholining ahvoli keskin yomonlashdi. Shahar aholisini oziq-ovqat bilan ta’minlash “chiptalar” bo‘yicha amalga oshirila boshlandi. Ishchilar va xizmatchilar kuniga faqat 400-500 gr. past navli non olardi, qaramog‘dagilar esa, yuqoridagi miqdordan 1,5 barobar kamroq olishardi. Aholiga go‘sht, baliq, yog‘, yorma, makaron sotishda ham me’yorlangan taqsimot joriy qilindi. Me’yorlangan taqsimot qishloq aholisiga umuman tadbiq etilmagan. Qishloq mehnatkashlari mehnat kunlariga oladigan natura (mahsulot bilan) to‘lovi va shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari hisobiga oziq-ovqat bilan ta’minlanishlari lozim edi. Lekin bu mahsulotlar juda cheklangan miqdorda edi. 4 yil urush mobaynida kolxozlar dehqonlarga amalda pul to‘lamaganlar va mehnat kunlariga nihoyatda kam miqdorda mahsulot berganlar. Urush tufayli qiyin va og‘ir sharoitda qolganiga qaramasdan ko‘chirib keltirilganlarga, yarador va nogironlarga, frontga ketganlarning xotinlari va bolalariga ko‘rsatgan g‘amxo‘rligi o‘zbek xalqining birlik va qardoshlarcha do‘stlikka insonparvarlik bilan intilishining yorqin timsoli, ulkan ahloqiy kuch-qudrati va haqiqiy samimiy olijanobligining chin ma’nodagi isboti bo‘ldi.

O‘zbekiston urush yillarida Rossiyaning bosib olingan rayonlardan-Ukrainadan, Belorussiyadan hammasi bo‘lib bir milliondan ortiq kishini qabul qildi. Ulardan 200 ming nafari bolalar edi. Aholi ularga turar-joy berib, o‘zi siqilib yashadi, ko‘chib kelganlarni to‘ydirish uchun oxirgi bo‘lak nonini ham bo‘lib berdi, ular poyabzal, kiyim bosh to‘pladi. Ularga 135 ming kv.m turar-joy maydoni ajratib berildi. Ko‘chirib keltirilganlarni ishga joylashtirish yuzasidan katta ishlar amalga oshirildi. Faqat Toshkent shahrining o‘zida 1941-1942 yillarda qariyib 240 ming kishi joylashtirildi va ish bilan ta’minlandi.

Ko‘chirib keltirilgan bolalarni qabul qilishni tartibli yo‘sinda tashkil etish maqsadida respublika hukumatining qarori bilan 1941 yil oktyabrda evakuatsiya qilingan bolalarni qabul qilish uchun markaziy punkt, tashkil etilib, joylashtirish bo‘yicha respublika, viloyat, shahar va tuman komissiyalari tuzildi. Faqat 1941 yil 25 noyabrda 1942 yil oktyabrga qadar respublikaning evakuatsiya punktlari orqali 15649 nafar bola o‘tdi. Ko‘pgina oilalar ikki va undan ortiq yetim bolalarni o‘z tarbiyalariga oldilar. Toshkentlik Shomahmudovlar turli millat farzandlaridan 14 bolani o‘z oilalariga tarbiyaga oldilar. Kattaqo‘rg‘onlik Hamid Samadov oilasi 12 bolani asrab oldi. F. Qosimova 10, M. Jo‘rayeva va Ashurxo‘jayevalar 8 bolani o‘z oilalariga oldilar. 1943 yilning oxiriga kelib shaharlarda 4672 bola, qishloqlarda esa, 870 bola o‘zbek oilalari tomonidan tarbiyaga olingan edi. Urush arafasida respublikada 106 ta bolalar uyida 12 ming bola tarbiyalanayotgan bo‘lsa, 1945 yilga kelib, ularning soni O‘zbekiston viloyatlarida va Qoraqalpog‘istonda 263 ta bolalar uyida 31300 bolaga yetdi. 1943 yilda bolalar bog‘chalarida tarbiyalanayotgan 53072 boladan 15108 nafari evakuatsiya qilingan bolalar edi. Yuqoridagi aniq dalillar xalqimizning boshqa millatlarga bo‘lgan mehr-muhabbatining, bag‘rikenglik fazilatlarini aks ettiradi.

Urush yillarida O‘zbekistonga frontda yarador bo‘lgan jangchilar ko‘plab keltirildi. Urush boshlangandayoq respublika hukumati gospital bazasini tashkil qilishga kirishgan edi. 1941 yil 1 oktyabrgacha O‘zbekiston sog‘liqni saqlash xalq komissarligi tizimida 14950 o‘ringa ega bo‘lgan 47 gospital barpo etildi va zarur uskunalar bilan jihozlandi. Faqat Moskva, Kalinin, Rostov va boshqa viloyatlardan 15900 o‘rin-karovatga ega bo‘lgan 48 gospital respublikamizga ko‘chirib keltirildi va ishga tushirildi. Evakuatsiya qilingan gospitallarga Toshkentdagi va O‘zbekistonning boshqa yirik shaharlardagi eng yaxshi binolar ajratib berildi. 1942 yilning oxirida O‘zbekiston hududida 39140 o‘ringa ega bo‘lgan 113 ta evakuatsiya gospitallari joylashtirildi. Urush yillarida bu

gospitallarga 164382 yarador keltirilgan bo‘lib, ulardan 87 foizi davolanib chiqdi. Davolanayotgan jangchilar uchun to‘laqonli ovqatlanishni tashkil qilish uchun 750 dan ortiq korxona, tashkilot, kolxoz va savxozlar gospitallarni otaliqqa oldi va butun o‘zbek xalqi yaradorlarga g‘amxo‘rlik qildi.

Urush yillarida O‘zbekiston sanoati va qishloq xo‘jaligi

Yashin tezligida urush olib borish rejasiga ega bo‘lgan nemis-fashist qo‘shinlari shiddat bilan Sharqqa qarab harakat qilar edi. Front yaqinidagi shahar va qishloqlardan yuz minglab aholi, sanoat korxonalari, o‘quv yurtlari, ilmiy tashkilotlar va boshqa moddiy boyliklarni mamlakat ichkarisiga-Sharqqa ko‘chirish boshlandi. O‘rta Osiyo respublikalariga evakuatsiya qilingan 308 korxonaning 104 tasi (Leningrad to‘qimachilik mashinalari zavodi, “Qizil-Oqsoy”, “Rosselmash”, Sumsk kompressor va Dnepropetrovsk karborund zavodlari, Moskvadagi “Elektrokabel” va “Pod’yomnik” zavodlari, Temir yo‘llar xalq komissarligining mashinasozlik zavodi, Chkalov nomidagi aviatsiya zavodi, “Krasno‘y put” zavodi, Kiyevdagi “Transsignal” zavodi, Stalingrad kimyo kombinati va boshqalar) O‘zbekistonga; ulardan 55 ta korxona Toshkent va Toshkent viloyatiga, 14 ta zavod va fabrika Samarqandga, 22 tasi Farg‘ona vodiysiga, ikkitasi Buxoro viloyatiga joylashtirildi. Bu korxonalarni joylashtirish, montaj qilish va g‘oyat qisqa muddatlarda ishga tushirish vazifasini tashkiliy jihatdan ta’minlash ishi bilan maxsus komissiya shug‘ullandi.

Evakuatsiya qilingan zavod va fabrikalarni tiklashda talabalar, o‘quvchi, uy bekalari, fan va madaniyat xodimlari, xizmatchilar va kolxozchilar katta kuch g‘ayrat bilan tinim bilmay mehnat qildilar va qisqa kunlarda, ya’ni “Rosselmash” 25 kunda, “Qizil Oqsoy” zavodi bu yerga yetib kelganidan keyin oradan 29 kun o‘tganda ishga tushirilib, mahsulot bera boshladi. 1941 yil dekabrga kelib evakuatsiya qilingan korxonalarning qariyb 50 tasi ishga tushirildi. 1942 yil birinchi yarmida esa barcha keltirilgan sanoat korxonalari mahsulot chiqara boshladi.

Elektr energiyasi va yoqilg‘i ishlab chiqarish, ko‘mir, qora va rangli metall bazalarini tashkil etish,kimyo sanoatini rivojlantirish, qurilish materiallarini ishlab chiqarishni ko‘paytirish urush yillaridagi O‘zbekiston sanoatining asosiy yo‘nalishlari edi. Harbiy ishlab chiqarish quvvatlarini oshirib borish zarurati sanoat qurilishini ko‘paytirishni talab qilar edi. Asosiy qurilish ishlari hashar usuli bilan olib borildi. Elektr energiyasi

ishlab chiqarishni ko‘paytirish maqsadida 7 ta yirik va 30 ga yaqin kichik GESlar qurildi. Ayniqsa, O‘zbekistonning eng yirik gidroelektrostansiyasi bo‘lib qolgan Farhod GESi qurilishi umumxalq qurilishga aylantirib, 10 oy ichida Sirdaryo to‘silib, GES ishga tushirildi. Salar, Quyi Bo‘zsuv, Tovoqsoy, Oqqovoq, Oqtepa, Qibray GESlari ham muddatidan oldin qurilib ishga tushirildi. Bu respublikada elektr energiyasi ishlab chiqarishni ko‘paytirdi. Elektr energiyasi 1940 yilga qaraganda 1943 yilda 3,5 barovarga oshdi, 1945 yilda esa 1187 million kilovatt soatga ko‘paydi.

Respublikada ko‘mir, neft konlaridagi ish suratlarini ko‘paytirish, yangi konlarni ochish borasida ham samarali ishlar olib borildi. Natijada 1945 yilga kelganda 1940 yildagiga nisbatan 30 marta ko‘proq, ya’ni 103 million tonna ko‘mir qazib olindi. Urush yillarida respublikada “Chuqurlangar”, “Tolmozor”, “Naymon”, “Shahrixon-Xo‘jaobod”,” Janubiy Olamushuk” va boshqa yangi neft konlari ishga tushirilishi bilan birga Farg‘ona vodiysida ishlab turgan “Andijon”, “Polvontosh”, “Changartosh”, “ Chimyon”, neft konlarida mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish tadbirlari natijasida respublikada neft ishlab chiqarish 4 marta ko‘paydi.

Volfram, molibden, mis va oltin zahiralarining topilishi natijasida O‘zbekiston rangli metallar sanoati yaratildi. Olmaliqda mis koni, Langarda molibden fabrikasi ishga tushirildi. Chirchiq elektr kimyo kombinatining ikkinchi navbati, Qo‘qon tukqorish (aralash meneral o‘g‘itlar) zavodining superfosfat zavodiga aylantirib ishga tushirilishi bilan respublika kimyo sanoatida ham sezilarli rivojlanish ko‘zga tashlandi.

O‘zSSSR XKS ning 1942-yil 17-iyunda Bekobodda metallurgiya zavodini qurish to‘g‘risidagi qarorini bajarishga 30 mingdan ko‘proq kishi jalb etilib, 1944-yil 5-martda O‘zbekistonning birinchi metalurgiya zavodi ishga tushirildi. 1945-yil fevralda Bekobod metalurgiya zavodining ikkinchi navbati ham mahsulot bera boshladi.

Urush yillarida qurilish materiallari, to‘qimachilik va poyafzal, oziq-ovqat va mahalliy sanoat tarmoqlari ham rivojlandi.

Sanoatning yangi yo‘nalishlarining paydo bo‘lishi, zavod va fabrika tarmoqlarining kengayishi kadrlarga bo‘lgan talabni ham oshirdi. Shuningdek, ko‘p minglab tajribali ishchilarning frontga ketishi ham zavod va fabrikalarda ishchilar sonining qisqarishiga olib keldi. Natijada kasbga ega bo‘lmagan kishilarni ham ishga jalb qilib, ishlab chiqarish jarayonida kasb o‘rgatila boshlandi. Ayniqsa 1942 yil 13 fevraldagi O‘zSSR Oliy Soveti Prezidumining farmoni bilan ishlamayotgan

mehnatga layoqatli ayollar, o‘smir yoshlar, nafaqaxo‘rlar hisobiga ishchilar safi to‘ldirildi. 1942 yilga kelib respublika sanoat korxonalarida ishlayotgan xotin-qizlar 63,5 % ni tashkil qilgan. Respublika ishchilar sinfining o‘sishida salmoqli o‘rin tutgan yoshlarni kasbga o‘rgatish uchun 1942-yil oxirida 31 ta FZO (fabrika-zavod ta’limi) maktabi ochildi. Umuman 15 ta hunar maktabi va 45 ta FZO maktablari yoshlarga kasb mahoratlarini o‘rgatdi. Ayniqsa qisqa kurslarda ishchilarni ommaviy tayyorlash, yakka tartibda va brigada usullarida shogirdlarni tayyorlash bu davrda keng yoyildi. Natijada urushning ikki yili davomida O‘zbekistonda 105673 nafar ommaviy kasbdagi sanoat ishchilari tayyorlangan bo‘lib, shundan 73 ming nafari bevosita ishlab chiqarish jarayonida hunar egalladi. Ishchilar sinfining umumiy soni urush oxirlariga kelib 196,2 ming kishiga yetdi-ki, bu urush boshlangandagi sonidan 54,6 mingga ko‘pdir. Ochlik, charchoq, toliqish, qiyin sharoitlarga qaramasdan ilg‘or ishchilar kunlik normalarini 300-400, hatta 500 foizga qadar bajargan vaqtlari ham bo‘lardi. Bularga: Qirg‘izboyev, Hamroyev, Yusupov, Nishonov kabi “Yangi turmush” artelining ishchilarini sanab o‘tish mumkin.

Respublika ishchilari front orqasidagi og‘ir mehnatda haqiqiy jasorat namunalarini ko‘rsatdilar. Sharoit og‘ir, oziq-ovqat yetishmas, siyosiy vaziyat og‘ir, berilgan rejani qattiq talab qilish ko‘pchilikni toliqtirar, ba’zilar bardosh berolmasdan halok bo‘lardilar. Shunga qaramasdan 1943-yilga kelganda SSSR harbiy ishlab chiqarishda Germaniyaga yetib, hatto o‘tib ketishida mamlakat ichkarisidagi ishchilarning xizmati juda katta bo‘ldi. Urush yillarida O‘zbekistonda vujudga kelgan harbiy sanoat kopleksi tomonidan front uchun 2100 ta samolyot, 17342 ta aviamotlar, 2318 ming dona aviabomba, 17100 ta minomyot, 4500 birlikdan iborat minalarni yo‘q qiluvchi qurol, 60 mingga yaqin harbiy-kimyoviy apparatura, 22 mln. dona mina va 560 ming dona snaryad, 1 mln dona granata, dala radiostansiyalari uchun 3 mln. radio lampa, qariyib 300 mingta parashyut, 5 ta bronepoyezd, 18 ta harbiy sanitariya va hammom kir yuvish poyezdi, 2200 dona ko‘chma oshxona va 7518,8 mingta gimnastyorka, 2636,7 mingta paxtali nimcha, 2861,5 mingta armiya etigi tayyorlab berdilar. Bu O‘zbekistonliklarning fashist-bosqinchilarini tor-mor etishga, g‘alabaga qo‘shgan katta hissasi bo‘ldi.

Urush yillarida respublikamizda 280 ta yangi korxonaning qurilib ishga tushurilishi natijasida 1945-yilga kelib, sanoat ishlab chiqarishi urush arafasidagiga nisbatan deyarli ikki barabar ortdi, neft qazib olish 4,

metall ishlab chiqarish 4,8, mashinasozlik mahsulotlari 13,4 baravar, ko‘mir qazib chiqarish 30, energiya ishlab chiqarish 2,42 ko‘paygan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida respublikada transport va aloqa vositalarining uzluksiz va unumli ishlashini tashkil qilishga alohida e’tibor berildi. Muhim va asosiy transport vositasi hisoblangan temir yo‘l ham harbiy holatga o‘tkazildi. Joriy qilingan poyezdlar harakatining yangi grafigiga asosan harbiy yuklarni birinchi navbatda to‘xtovsiz o‘tkazib yuborish ko‘zda tutildi.

Mamlakat sharqi va O‘rta Osiyo respublikalarini Markaz bilan bog‘lab turishda Toshkent temir yo‘li katta ahamiyat kasb etdi. Ko‘chirib keltirilayotgan sanoat korxonalarning asbob uskunalarini G‘arbdan Sharqqa, Sharqdan G‘arbga esa qurol-aslaha, o‘q-dorilar, oziq-ovqat, qo‘shinlarni yetkazib berishda u katta rol o‘ynadi.

O‘zbekiston temir yo‘llarining fidokorona mehnati natijasida 1941-1942 yillar davomida ko‘chirilgan sanoat korxonalarining asbob-uskunalari ortilgan 17,5 ming vagon tashib berildi. Front orqasi bilan front o‘rtasidagi asosiy a’loqa vositasi bo‘lib xizmat qilgan temir yo‘l tarmoqlari 1941-1945-yillarda 2 baravar uzaydi. Avtotransport vositasi ham urush yillarida yuk tashish va aloqa vositasi sifatida muhim o‘rin tutdi. 1945-yilda respublika avtotransportida tashilgan yukning hajmi 1940-yildagiga nisbatan 2 baravar o‘sdi.

Urush yillarida front orqasida og‘ir, qiyin sharoitda mehnat qilishlariga, ishchi kuchining yetishmasligiga qaramasdan Ittifoqning mudofaa qurilishlari va sanoat korxonalariga 155 mingdan ortiq o‘zbekistonlik jalb qilingan. Ular RSFSR ning Urol, Sibirdagi zavodlari, qurilishda, asosan toshko‘mir, qora va rangli metallurgiya korxonalarida mehnat qilishgan. Bu yordam xalqlarning hamkorligini o‘zaro yanada mustahkamladi.

Nemis-fashistlarni tor-mor keltirish uchun olib borilgan umumxalq kurashiga o‘zbek dehqonlari ham munosib hissa qo‘shdilar. Ular oldiga front va mamlakat ichkarisidagi aholini qishloq xo‘jalik mahsuloti bilan, sanoatni xom- ashyo bilan taminlash vazifasi qo‘yildi. Buning uchun qishloq xo‘jaligini ham harbiy izga o‘tkazish, don, kartoshka, sabzavotlar va texnika ekinlarini ko‘paytirish lozim edi. Chorvadorlar ham armiya va aholini go‘sht-sut mahsulotlari bilan ta’minlashlari zarur edi.

Markaz ko‘rsatmalari bilan asosan paxta ekishga moslashtirilgan, qishloq xo‘jaligidagi yaxshi texnika vositalari, otlar front uchun olib ketilgan, tajribali dehqonlarning ko‘pchiligi front va front orqasidagi ishlarga jalb qilingan bir paytda yuqoridagi vazifani bajarish yanada

mushkullashar edi. Stalincha ma’muriyat O‘zbekistonga oziq-ovqat bilan “o‘z-o‘zini ta’minlash” vazifasini qo‘yar ekan, mudofaa sanoati uchun g‘oyat muhim bo‘lgan xom ashyo-paxta yetishtirishni kamaytirmaslikni talab qildi. Buning ustiga dehqonlarni qishloq xo‘jalik mashinalari bilan ta’minlash to‘xtalishi bilan bir paytda mexanizatorlarning soni ham qisqardi, ya’ni urush arafasida O‘zbekistonda 27 888 mexanizator bo‘lgan bo‘lsa, 1942 yilda ularning soni 2775 kishiga tushib qoldi, keyinchalik yanada kamaydi. Ular o‘rnida ayollar, bolalar, keksalar mehnat qila boshladilar. Ketmon va omochlar asosiy ish quroliga aylanib qoldi. “Mehnat intizomini mustahkamlash” sohasida haddan oshishlar avj oldi. 12 yoshdan boshlab mehnat kuni belgilanib, uni bajarmaganlarning oilasi sudga berilgan. Lekin qattiq qiyinchiliklarga qaramay o‘zbek dehqonlari o‘z oldilariga qo‘yilgan vazifani sharaf bilan bajardilar.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni ko‘paytirish, suvdan foydalanishni yaxshilash va yangi yerlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liqdir. Urush yillarida hashar yo‘li bilan O‘zbekistonda shimoliy Toshkent, yuqori Chirchiq, shimoliy Farg‘ona, So‘g‘x-Shohimardon, Uchqo‘rg‘on kanallari, Rudasoy, Kattaqo‘rg‘on suv omborlari qurilib ishga tushirilishi yangi yerlarni o‘zlashtirishga imkon berdi. 1942-1943 yillarda O‘zbekistonda sug‘orilib ekin ekiladigan yerlar maydoni 546 ming gektarga ko‘paydi.

Urush yillarida O‘zbekiston dehqonlari qand lavlagi, kungaboqar kabi oziq-ovqat ekinlari, zig‘ir va kanop kabi texnika ekinlarini yetishtirishni o‘zlashtirdilar, makkajo‘xori, kunjut ekishni ko‘paytirdilar. Samarqand, Farg‘ona, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlaridagi hosildor va suv bilan yaxshi ta’minlangan yangi yerlar ham qand lavlagi yetishtirishga ajratildi. Qishloq mehnatkashlari 1565 ming sentner qand lavlagi yetishtirgan 1945 yilda respublikadagi Zirabuloq, Krasnogvardeysk, Qo‘qon, Yangiyo‘l qand zavodlarinigina emas, balki boshqa respublikalarni ham qand lavlagi bilan ta’minlash imkoniga ega bo‘ldi. Bu bilan O‘zbekiston mamlakatda yetishtiriladigan qandning to‘rtdan birini ishlab chiqarishga erishgan bo‘lsa, 1942-yilda SSSR dagi kunjut ekiladigan maydonning 50 foizi O‘zbekistonga to‘g‘ri kelgan edi.

Urush yillarida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida ipakchilik, qorako‘lchilik alohida ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, meva, uzum, sabzavot va poliz mahsulotlarini yetishtirish ham salmoqli o‘ringa ega edi. 1942-1943-yillarga kelganda sabzavot maydonlari urush arafasiga qaraganda 12,5 ming, uzumzorlar maydoni 5,1 ming gektarga ko‘paydi.

Paxta yetishtirishni ko‘paytirish urush yillaridagi O‘zbekiston dehqonlarining oldidagi eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qolaverdi. Obyektiv sabablarga ko‘ra 1942-1943 yillardagi paxta topshirish rejalari bajarilmay qoldi. Lekin urush davri sharoitidagi texnika vositalari, ishchi kuchining yetishmovchiligi, mineral o‘g‘itlarning kamligi sababli ro‘y bergan bu holatni Markaz tan olishni istamadi va o‘sha paytdagi O‘zbekiston rahbari Usmon Yusupov qattiq ogohlantirish oldi 1944 yil yanvarida o‘tkazilgan respublika paxtakorlarining birinchi quriltoyida paxtachilikni yuksaltirish vazifalari to‘g‘risidagi fikr almashuv va ko‘rilgan chora tadbirlar natijasida O‘zbekiston yillik paxta tayyorlash rejasini 101,4 foizga bajardi.

Urush yillarida O‘zbekiston qishloq mehnatkashlari 4 mln. 148 ming t. paxta, 82 mln pud g‘alla, 54067 t. pilla, 195 ming t. sholi, 57 ming 444 t meva, 36 ming t. quruq meva, 159 ming 300 t. go‘sht, 22 ming 300 t. jun va boshqa mahsulotlar yetkazib berish bilan dushman ustidan qilingan g‘alabaga munosib hissa qo‘shgan bo‘lsa, nemis-fashist okkupantlaridan ozod qilingan hududlarda qishloq xo‘jaligini tiklash ishlari uchun texnika va ishchi kuchlari bilan yordam berib, o‘zbek xalqi o‘zining insonparvarlik, do‘stlik, birodarlik tuyg‘ularini namoyon etdi.1943 yilda O‘zbekistondan ozod qilingan tumanlarga 1152 ta traktor, 25 ta kombayn, 1138 ta plug, 379 ta seyelka, kabi texnikalar, Ukraina va Stavropol o‘lkasiga 1596 nafar kombayinchi, 41 nafar mexanik, 30 nafar agronom, 11 nafar buxgalter yuborildi. RSFSR, Ukraina, Belorussiya, Boltiq bo‘yi respublikalarining xalq ho‘jaligini tiklashda minglab o‘zbekistonliklar faol ishtirok etdilar.

Urush yillarida fan va madaniyat

O‘zbekiston ishchi va mehnatkashlari bilan bir qatorda fan, maorif va madaniyat xodimlari ham nemis-fashist bosqinchilari ustidan qozonilgan g‘alabaga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar. “Hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun!” shioriga “labbay!” deb javob bergan ko‘pgina olimlar urushning birinchi kunlaridayoq frontga ketdilar. Ular orasida O‘zbekistonning mashhur olimlaridan-U.A. Orifov, YA.X. To‘raqulov, I. Ismoilov, X. Usmanov va boshqalar bor edi. T.N. Qori-Niyozov, V.I. Ramonovskiy, T.Z. Zohidov, I.A. Raykova, O.S. Sodiqov kabi olimlar natijasi xalq xo‘jaligi va front zaruriyati uchun xizmat qilgan muammolarni hal qilishda katta kuch bilan mehnat qildilar.

O‘zbek matematik, mexanik va astronomlari aviatsiya, o‘q-dori, harbiy texnika sifatini oshirishga aloqador bo‘lgan bir qancha muhim ilmiy muammolarni hal qildilar. Bunda T.A. Sarimsoqov, V.I. Ramonovskiy, M. Kamolov, N.N. Nazarov va boshqa olimlar hissasi katta bo‘ldi. Ularning ehtimollik nazariyasi va matematika statistikasi sohasidagi ijodiy izlanishlari artilleriya otishmalari va bomba tashlash aniqligini, jangovar samolyotlarning yuk ko‘tarish imkoniyatini oshirishga, respublikada ishlab chiqarilayotgan harbiy texnikaning sifat ko‘rsatkichlarini takomillashtirishga imkon berdi.

Geolog olimlar foydali qazilma boyliklarni qidirib topish, sanoatni zarur xom-ashyo bilan ta’minlash vazifalarini bajarishga katta e’tibor berdilar. O‘zbekiston tog‘lari va cho‘llarida 1943 yilning o‘zidagina 35 ta geologiya ekspeditsiyalari ish olib bordi. O‘zbekistonlik kimyogarlar paxta chiqindisidan xalq xo‘jaligida foydalanish taklifini, etil spirtini, sirka kislotasini, qamishni quruq qayta ishlash natijasida ko‘mir briketini olishning yangi usullarini ishlab chiqdilar. Bunda akademik O.S. Sodiqov boshliq guruh ishlari alohida ahamiyat kasb etdi. O‘zbekiston o‘simliklarining alkoloidlik xususiyatini o‘rganish yuzasidan akademik S.YU. Yunusov rahbarligida katta ishlar olib borildi. O‘rta Osiyo davlat universiteti (O‘zMU)ning kimyo fakultetida urush davrida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan narkoz efiri, xlorli kaltsiy, kofein, streptotsid, sulfidin, nikotin kislotasi ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Fakultet bazasida Toshkent farmatsevtika zavodi tashkil etildi. O‘zbekistonlik farmatsevtlar mahalliy xom-ashyodan 15 ta yangi dori preparatlarini ishlab chiqarish usullarini kashf etdilar.

O‘zbekistonning ijtimoiy-gumanitar fanlari olimlari-tarixchilar, sharqshunoslar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar, iqtisodchilar va faylasuflar o‘zlarining ijodiy mehnatlari bilan mamlakat ilmiy salohiyatini rivojlantirishga, ommaga insonparvarlik, vatanparvarlik, erksevarlik g‘oyalarini singdirishga qimmatli hissa qo‘shdilar.

Ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish, ularni muvofiqlashtirishni dastlab 1940 yilda tashkil etilgan SSSR FAning O‘zbekiston filiali (O‘zFAN), keyin 1943 yil noyabrda ochilgan O‘zFA amalga oshirdi. O‘zFA ning birinchi prezidenti qilib T.N. Qori Niyozov saylandi. Bu o‘zbek xalqi hayotida muhim voqea bo‘ldi. 1943-1945 yillarda qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlar bilan O‘zFA Ittifoqda tanilgan ilmiy markazga aylandi. Bu paytda akademiya tarkibidagi 22 ta ilmiy muassasada 818 ilmiy xodim fan olamining turli jabhalarida tadqiqot ishlarini olib

bordilar. O‘zFAning faoliyatida ko‘chirib keltirilgan ilmiy xodimlarning ham o‘ziga xos hissasi bo‘ldi.

Urush yillarining qiyinchiliklariga qaramasdan O‘zbekistonda Oliy va o‘rta maxsus yurtlari va maorif muassasalarining faoliyati ham to‘xtab qolmadi. O‘zbekistonda 29 ta oliy va 52 ta o‘rta maxsus o‘quv yurti ishlab turdi, ularning soni markazdan ko‘chirib keltirilgan 31 ta oliy o‘quv yurti va 7 ta harbiy akademiya hisobiga yana ortib bordi. Bu o‘quv yurtlarida urush yillari mobaynida 11.750 nafar yuqori malakali mutaxassis va 6.673 nafar kadrlar tayyorlandi.

Xalq ta’limi sohasida ham o‘qituvchilarning frontga ketishi, ko‘pgina binolarning gospitallarga, bolalar uyi va harbiy-o‘quv punktlariga berilishi, darslik va o‘quv qo‘llanmalarining, mutaxassis kadrlarning yetishmovchiligi anchagina qiyinchiliklarni keltirib chiqargan edi. Shunday bo‘lsa ham urush yillarida o‘qitish ishlari muntazam olib borildi. O‘quvchilar maktabda o‘qish bilan birga yaradorlarga, frontga ketganlarning oila a’zolariga, urush nogironlari oilalariga yordam berdilar.

O‘zbek adabiyoti ham xalqimizning yovuz dushmanga qarshi kurash yillarida o‘zining munosib hissasini qo‘shdi. Oybek, Hamid Olimjon, Shayxzoda, G‘ofur G‘ulom, Uyg‘un, Sobir Abdulla, Zulfiya, Temur Fattoh kabi shoir va yozuvchilar urush maydonlariga safarbar etuvchi she’rlari va maqolalari bilan xalqni g‘alabaga ruhlantirdilar. Oybekning “Yovga o‘lim!” she’ri, “Navoiy” romani, “Men yahudiy”, Hamid Olimjonning “Yigitlarni frontga jo‘natish”, “Jangchi Tursun”, “Roksananing ko‘z yoshlari” va boshqa asarlar urush yillaridagi o‘zbek adabiyotining yorqin namunalaridir. M. Ismoiliy, Ilyos Muslim, Nazarmat, Adham Rahmat, N. Safarov, Ibrohim Rahim, Z. Fatxullin, Adham Hamdam kabi yozuvchi va jurnalistlar frontda ishtirok etib, “Qizil armiya”, “Front haqiqati”, “Qizil askar haqiqati”, “Suvorovchi”, “Vatan sharafi uchun” kabi front gazetalarida xizmat qilish jarayonida, Hamid Olimjon, Oybek, A.Umariy, G‘afur G‘ulom, Ra’no Uzoqova va boshqa shoir, ham yozuvchilar hukumat delegatsiyalari tarkibida frontning oldingi marralariga borib, o‘z qahramonlari bilan tanishdilar, yurtdoshlarining jasoratlarini tarannum etdilar.

A.Axmatova, I. Virta, S. Gorodetskiy, A. Deych, K. Zelinskiy, YA. Kolas, N. Pogodin, A. Tolstoy, V. Yan kabi yozuvchi-shoirlar ham O‘zbekistonda yashab, o‘zbek adabiyotchilari bilan hamkorlikda ajoyib asarlar yaratdilar. Bunda respublika Yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik qilgan H. Olimjonning xizmati katta bo‘ldi. Dramaturgiya sohasida N. Pogodin, Hamid Olimjon, Uyg‘un va Sobir Abdullalar yozgan

“O‘zbekiston qilichi” va A. Umariyning “Qasos”, Yashin va Sobir Abdullaning “Davron ota” kabi asarlari bilan birga Uyg‘un va Izzat Sulton “Alisher Navoiy”, Hamid Olimjon “Muqanna”, Maqsud Shayxzoda “Jaloliddin Manguberdi”, Oybek “Mahmud Tarobiy” kabi dramatik asarlarini yaratdilar-ki, ularda o‘zbek xalqining bosqinchilarga qarshi kurash sahifalari aks ettirildi.

1941-1945 yillardagi urush davrida O‘zbekistonda ta’sirchan vosita hisoblangan teatr va san’at ancha rivojlandi. Teatr va san’at arboblari frontning oldingi marralarida bo‘ldilar. Bu davrda O‘zbekistonda 35 ta mahalliy va 16 ta ko‘chirib keltirilgan teatr jamoasi faoliyat ko‘rsatib, butun urush davomida 203 ta yangi postanovka tayyorladilar va 6 667 303 tomoshabinga 13.568 ta spektakl va konsertlar ko‘rsatdilar.

Ikkinchi jahon urushi yillarida respublikamizda 30 dan ortiq konsert brigadalari tashkil etilib, ular harakatdagi armiya qismlarida 35 mingdan ortiq, Turkiston harbiy okrugi qismlari va gospitaldagi nogironlarga 26 mingta konsert qo‘yib berib, jangchilarni ruhlantirdilar, ularni fashizm ustidan g‘alabaga undadilar. Ayniqsa, Tamaraxonim, Halima Nosirova, Mukarrama Turg‘unboyeva, Sora Eshonto‘rayeva, Abror Hidoyatov, Shukur Burhonov kabi san’atkorlar ishtirokidagi konsert va tomoshalar jangchilar, tomoshabinlar qalbiga zo‘r ko‘tarinkilik baxshida etgan. A. Abdullayev, CH. Ahmarov, O‘. Tansiqboyev kabi rassomlar urush lavhalari, badiiy yilnomalarni yaratib, xalqimizning front va front orqasidagi fidokorona mehnatini mahorat bilan tasvirladilar.

Qisqa metrajli filmlar va 10 ta ovozli badiiy filmlarini yaratish bilan I. A’zamov, K. Yormatov, N. G‘aniyev, S. Muhamedov kabi o‘zbek rejissyorlari urush yillarida kinomotografiyani rivojlantirdilar. Bu davrda ishlangan “Nasriddin Buxoroda”, “Tohir va Zuhra” kabi filmlar “O‘zbekfilm”ning oltin fondiga aylandi.

Umuman olganda urushda qo‘lga kiritilgan g‘alabaga o‘zbekistonliklar o‘zlarining fidokorona mehnatlari bilan katta hissa qo‘shdilar.

O‘zbekistonliklarning urush jangohlarida ko‘rsatgan jasoratlari

Ikkinchi jahon urushi frontlarida o‘zbekistonlik jangchilar o‘zlarining botir, mard, qo‘rqmaslik hislatlarini namoyon qilib qahramonlik namunalarini ko‘rsatdilar.

Sovet siyosiy rahbarlarining razvedka ma’lumotlari yetarli bo‘lishiga qaramasdan 1941-yilda Germaniya SSSRga hujum qilmasligiga

ishonchi, g‘arbiy frontda charchab qolgan kapitalistlar ustiga hujum qilish maqsadida chegarada qo‘shin va qurollarni to‘plash bilan mudofaa inshootlarini barpo etmaganligi, 1937-yilda armiyadagi ommaviy qatag‘onlar natijasida sovet qurolli kuchlarining jangovar qobiliyatiga berilgan zarbaning o‘rni to‘ldirilmaganligi, qo‘mondonlar kasbiy tayyorgarligining past darajadaligi sababli urushning dastlabki kunlarida shiddat bilan bostirib kirgan dushman qo‘shinlari to‘xtatib qolinmadi va ko‘plab kishilarning qurbon bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Buning uchun Stalin boshliq sovet hukumati rahbarlari javobgardirlar.

Chegara qo‘shinlarida xizmat qilayotgan sovet jangchilari orasida o‘zbekistonliklar ham ko‘pchilikni tashkil qilar edi. Ular o‘z zastavalarini himoya qilishda qahramonlik namunasini ko‘rsatib, oxirgi o‘qlari qolguncha dushmanga qarshi jang qildilar. Ular halok bo‘lganlaridan keyingina dushman zastavalariga kirish imkoniga ega bo‘ldi. Grodno yaqinida leytenant Usov, siyosiy rahbar Sharipov, Brest qal’asi mudofaasida Ahmad Aliyev, Doniyor Abdullayev, Bobokomil Kashanov, Uzoq O‘tayev, Nurum Siddiqov, Madamin Hojiyev, YE.YA.Liss, Rahimboy Arslonboyev, Sayidahmad Boytemirov, F.I.Layenkov kabi o‘zbekistonlarning ko‘rsatgan jasoratlari Vatan himoyachilarining qahramonona jasoratining ramzi bo‘lib qoldi.

Dushmanning shiddatli hujumi, yagona frontni tashkil qilish, umumiy a’loqaning yo‘qligi, tartibsizliklar, mudofaa janglaridagi qahramonliklarni qo‘llash imkonini bermadi. Nemis-fashistlar sutkasiga 30 km sur’at bilan hujum qilib, qisqa vaqt ichida mamlakatning markaziy rayonlariga yetib keldi. SSSR qurolli kuchlardagi 2 mln. dan ortiq odami, 43,3 mingta to‘pi, 8,3 mingta tanki, 8,2 mingta samolyotidan mahrum bo‘ldi. Bu juda katta yo‘qotish edi. Stalin ma’muriy-qatag‘on vositalari bilan armiya tarkibini qo‘rqitish choralarini amalga oshirdi. 1941 yil 16 avgust qarorida asirga tushganlarni harbiy xizmatni tashlab ketgan, ularning oilasini “Vatanni sotganlarning oilasi sifatida qamash” kabi ko‘rsatmalar berildi. To‘siqchi otryadlar va jarima batalyonlari tashkil etilib, ular safida 1,5 mln.dan ortiq jangchi bo‘ldi. Lekin bu usullar o‘zini uncha oqlamadi.

Ikkinchi jahon urushida Smolensk, Odessa, Leningrad, Moskva mudofaalari sovet jangchilarining haqiqiy qahramonlik mo‘jizalari bo‘ldi desak xato qilmaymiz. Bu janglar dushmanni to‘xtatib qolish imkonini berdi. Gitlerning yashin tezligida urush olib borish rejasi barbod bo‘ldi.

Moskva mudofaasiga yetib kelgan, Turkiston harbiy okrugida tuzilgan, general-mayor I.V. Panfilov qo‘mondonlik qilgan, tarkibida 180

dan ortiq harbiy va harbiy siyosiy bilim yurtlarini tamomlagan komandirlari bo‘lgan 316-o‘qchi dviziya Volokolamsk, Dubosekovo, Novo-Petrovsk yonidagi janglarda qahramona kurashdi. O‘zbekistonlik Abdulla Tog‘ayev, Mamadali Madaminov, Leytenant Pilyugin boshliq to‘qqizta jangchi jasoratlarini alohida qayd qilish mumkin. Moskva uchun olib borilgan janglarda o‘zbek xalqining qahramon qizlarining jasorati namunasini ko‘rsatgan Zebo G‘aniyeva Qizil Bayroq ordeni bilan taqdirlandi. Moskva ostonasida fashist qo‘shinlarini tor-mor qilishda ko‘rsatgan jasoratlari uchun 1753 o‘zbekistonlik jangchi “Moskva mudofaasi uchun” medali bilan taqdirlandi. S. Qosimxo‘jayev Qahramon unvoniga sazovor bo‘ldi.

Moskva yonidagi g‘alaba sovet rahbarlarida 1942 yildayoq urushni yakunlash, mamlakatni ozod qilish fikrini vujudga keltirdi va butun front bo‘ylab hujum qilish haqida buyruq berildi. 1942 yildagi qishki hujumlarda mardlik va jasorat namunasini ko‘rsatib, mahorat bilan jang qilgan Qo‘chqor Turdiyevga 1942 yil may oyida «Sovet Ittifoqi Qahramoni» unvoni berildi. Jangchilarimizning jasorati hali o‘z harbiy kuchining asosiy qismini saqlab dushman qo‘shinlarini tamomila yo‘q qilishga, sovet rahbarlarining xatolari o‘rnini qoplashga kamlik qilar edi. Buning uchun dushmannikidan kuchli harbiy-texnika yarog‘ va taktika kerak edi.

1942 yil may-iyun oylaridagi sovet qo‘shinlarining hujumkor operatsiyalarini to‘xtatgan dushman 25 iyunda Volga va Shimoliy Kavkaz yo‘nalishida hujumga o‘tdi. Mamlakatda yana qaltis vaziyat vujudga keldi. Ana shunday bir paytda o‘zbek xalqi o‘zbek jangchilariga ochiq maktub bilan murojaat qilib, o‘z farzandlarini vatanga sodiqlik va jangda qo‘rqish nimaligini bilmaslikka chaqirdi. Bu chaqiriqqa o‘z qahramonliklari bilan javob bergan jangchilarimizdan 1974 nafari “Kavkaz mudofaasi uchun” medali bilan mukofotlandi.

Volga bo‘yidagi Stalingrad mudofaasini yorib, dushman ustidan katta g‘alabani qo‘lga kiritilishi urushning borishida tub burilishga asos bo‘ldi. Bu janglarda ko‘rsatgan jasoratlari uchun 2733 ta o‘zbekistonlik jangchilar “Stalingrad mudofaasi uchun” medaliga sazovar bo‘ldi. Kavkaz uchun olib borilgan janglarda Toshkentda tuzilgan Sobir Rahimov qo‘mondonligidagi diviziya jiddiy muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritib, 8 mingdan ortiq dushman jangchilarini qirib tashladilar. Bu diviziya yurtdoshimiz qo‘mondonligida Sharqiy Prussiyagacha jangovar yo‘lni bosib o‘tdi. Keyinchalik Polsha yerlarini ozod qilishda Sobir Umarovich Rahimov rahbarligidagi 37 gvardiyachi Rechitsk o‘qchi dviziyasi alohida

ajralib turdi. Dansig shahriga birinchilardan bo‘lib kirishdi. Og‘ir yarador bo‘lgan S.U. Rahimov 1945 yil 25 martda halok bo‘ldi. 1965 yil 6 maydagina tarixiy haqiqat tiklanib, o‘zbek xalqining mard o‘g‘li S.U. Rahimovga o‘limidan so‘ng Sovet Ittifoqi Qahramoni unvonini berildi.

1943-yilda Oryol-Kursk yo‘nalishi bo‘yicha olib borilgan shiddatli janglarda ko‘rsatgan jasoratlari uchun Ahmadjon Shukurov, V. Shalandin, M. Abdullin, A. Solihovlar Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovar bo‘ldilar. Dneprni kechib o‘tishdagi qahramonliklari uchun 100ga yaqin o‘zbekistonliklar Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni bilan taqdirlandilar. Ulardan J. Usmonov, V. Nabiyev, X. Aminov jasoratlarini alohida qayd etish mumkin.

1944-1945 yillarda Belorussiya, Ukraina, Moldaviya, Boltiq bo‘yi respublikalari va Rossiya Federatsiyasining g‘arbiy viloyatlarida faoliyat ko‘rsatgan o‘zbekistonliklar jangchilar faoliyati ikkinchi jahon urushi tarixi sahifalariga bitilgan bo‘lib, ularning nomlariyoq dushman ko‘ngliga qo‘rquv solgan edi. Bular orasida Mamadali Topiboldiyev, J. Otaboyev, I. Musayev, A. Hakimov, I. Qosimov va boshqalarning mardlik namunalarini ta’kidlash mumkin.

1944-yil kuziga borib SSSR chegaralari butunlay tiklandi, sovet qo‘shinlari Yevropa mamlakatlariga ozod qiluvchi sifatida kirib bordi. Polsha, Ruminiya, Bolgariya, Yugoslaviya, Vengriya, Chexoslovakiya, Avstriyani ozod qilib, Berlinni egallashda sovet qo‘shinlari tarkibida o‘zbekistonlik jangchilar ham o‘zlarining baynalminallik tuyg‘ularini namoyon qilib, Yevropa xalqlarining fashistlar asoratidan ozod bo‘lishlariga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Bu mamlakatlarni ozod qilishdagi jasoratlari uchun B. Boboyev, P. Nurpeksov, T. Nazarov, A. Rahimov, M. Fayozov va boshqalar Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni, 2430 nafar hamyurtimiz “Budapeshtni ozod qilish uchun” medali, 1706 kishi “Berlin olingani uchun”, 109208 kishi “Germaniya ustidan g‘alabi qozonganligi uchun” medali bilan taqdirlanganlar.

O‘zbekistonlik jangchilar Yevropadagi qarshilik ko‘rsatish harakatlarida faol ishtirok etib, nemis-fashistlari ustidan qozonilajak g‘alabaga va Yevropa xalqlarining ozod bo‘lishlariga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar.

Polsha, Yugoslaviya, Italiya, Fransiya, Norvegiya, Avstriya, Germaniya davlatlarida tashkil topgan ozodlik armiyalari safida, partizanlar tuzilmalarida ishtirok etgan, 40 mingdan ortiq sovet fuqarolarining orasida o‘zbekistonliklar ham ko‘pchilikni tashkil qilar edi. Masalan, Yugoslaviya xalq ozodlik armiyasida 260 dan ko‘proq

o‘zbekistonlik bo‘lgan. L. Kolantarov, U. Xolmaboyev, A. Mamajonov, O. Berbiyev, R. Rahimov, H. Jabborov, H. Ismoilovlar qarshilik ko‘rsatish harakatida faol ishtirok etgan hamyurtlarimizdir.

Hozirgi kunda “Turkiston legioni” to‘g‘risida turli fikrlar mavjud bo‘lib, bu masala mufassal bir tadqiqotni talab qiladi. Ma’lumki, Stalin boshliq sovet hukumati Kommunistik Internatsional a’zolari, umuman chet el kommunistlaridan Yevropadagi mavjud siyosiy hukumatga muxolif kuch sifatida foydalangan. Gitler ham “oq“ muhojirlardan sovetlarga qarshi kuch sifatida foydalanishga harakat qilib, 1941 yil dekabrda asir olingan sovet generali Lukinga harbiy asirlardan stalinizmga qarshi kurash olib borishni tashkil etuvchi ruslarning muxolif hukumatini tuzishni taklif etadi. Bunday taklif 1941-1942 yillar bo‘sag‘asida milliy vakolatxona tuzish uchun intilayotgan quvg‘indagi Turkiston milliy ziyolilariga ham qilindi. Natijada 1942-yil noyabrda Vali Qayumxon rahbarligidagi “Turkiston milliy qo‘mitasi” tashkil topdi. Bu qo‘mita 1941-yil kuzida tashkil topgan Turkiston batalyoni bazasida harbiy asirlardan “Turkiston legioni”ni tashkil qilish to‘g‘risida 1942-yil dekabrda Vermaxtning Oliy qo‘mondonligi rasman farmoyish e’lon qildi. Shuningdek, bu davrda “Arman”, “Gruzin” legionerlari ham tuzilib, A.A. Vlasov rahbarligidagi rus ozodlik armiyasi tarkibiga kiritildi. Lekin bu, milliy ”tuzilmalarga urushning oxiriga kelib 1 mln. ga yaqin kishi yozilgan bo‘lsa ham, ular gitlerchilar kutgandan zarbdor kuchga” aylanmadilar. Chunki bu tuzilmalarga ko‘pincha majburan yozib qo‘yilgan harbiy asirlar frontga yuborishsa, o‘zimiznikilar tomonga o‘tib olamiz degan umid bilan qarar, buni sezgan nemislar har bir rotaga asosan nemis zobitlarini qo‘ygan edilar.

Haqiqatdan ham “Turkiston legioni”da tashkil topgan yashirin guruhlar qarshilik harakati jangchilari va partizanlar bilan aloqa bog‘lab, nemis-fashistlarning bir qancha rejalarini barbod qilganlar. 1943 yilda Desna daryosi yonidagi Kupchixa qishlog‘i hududida jang qilayotgan 74-dviziya tomoniga Abdulla Otaxonov boshchiligida to‘la qurollangan, 370 kishidan iborat Turkiston batalyoni o‘tgan. Keyinchalik sovet qo‘mondonligining ishonchsizligi bilan ular frontdan chetlatiladi. 1944 yilda Chernogoriyaga yuborilgan “Turkiston legioni” birlashmalari fashist komandirlarini o‘ldirib, tog‘dagi partizanlar oldiga chiqib ketishgan. O‘zbekistonliklar partizan otryadlari va qarshilik ko‘rsatish harakatlarida faol qatnashib, dushmanni tor-mor qilishga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar.

Urushnng dastlabki kunlaridayoq sovetlar davlatida avj olib ketishiga umid bog‘lagan gitlerchilar turli xil milliy tuzilmalar tuzish, sovet xalqlari orasida soxta tashviqotlar olib borib bunga asos hozirlashga intilgan bo‘lsa, Stalin boshliq sovet siyosiy rahbarlari ham milliy kelishmovchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo‘larlik xalqlarni majburan ko‘chirish, butun-butun xalqlarga “sotqin” tamg‘asini bosishdek choralarni amalga oshirganlar. Shunday tamg‘a bilan 1944 yil mamlakat bo‘ylab 2.230.500 kishi majburan ko‘chirilgan. Shulardan O‘zbekiston hududiga Qrimdan-151604 qrim tatarlari, Gruziyadan-110 mingga yaqin mesxeti turklari, Shimoliy Kavkazdan 20 mingdan ortiq ingush, 4,5 ming arman va greklar ko‘chirib keltirilgan.

Ular NKVD nazoratida, repressiv rejimga qat’iy rioya qilgan holda yashashga mahkum etilib, milliy davlat tuzilmalari va konstitutsion huquqlaridan mahrum etilgan edi. Ko‘chirib keltirilgan joylardagi mahalliy aholi bilan bog‘lanish kabi huquqlardan ham mahrum qilingan edilar. Lekin o‘zbekistonliklar ko‘chirib keltirilganlarni o‘z uylariga qabul qilib, oxirgi burda nonlarini bo‘lishib yeb, o‘zlarining yuksak ma’naviyati buyuk insonparvarligini namoyon qildi.

Sobiq ittifoq xalqlarining fidokorona mehnatlari, jangchilarning qahramona jasoratlari sabab, nemis-fashist bosqinchilariga qarshi olib borilgan, 43 kuni kam 4 yil (1941 yil 22 iyun-1945 yil 9 may) davom etgan urush g‘alaba bilan yakunlandi. Lekin ikkinchi jahon urushi davom etardi. Ittifoqchi davlatlar bilan bo‘lgan kelishuv va Sharqda xavf bo‘lib turganligi sababli 1945-yil 9-avgustga o‘tar kechasi sovet hukumati Yaponiyaga qarshi urush boshladi. 2 sentyabrgacha davom etgan bu jangda 6770 nafar o‘zbekistonlik jangchilar ishtirok etib, Kvantun armiyasini mag‘lubiyatga uchratishda, Yaponiyaning taslim bo‘lishida o‘z hissalarini qo‘shdilar. N. Latipov, A. Karimov, U. Doniyorov kabi ko‘plab hamyurtlarimiz yuksak harbiy mahorat va jangovar faolliklarini namoyish etdilar.

Ikkinchi jahon urushining g‘olibona yakunlanishida o‘zbekistonliklarning front va front orqasidagi jasoratlari katta hissa bo‘lib xizmat qildi. 120 mingdan ortiq o‘zbekistonliklar SSSRning orden va medallariga sazovor bo‘ldi. «Sovet Ittifoqi Qahramoni» unvoniga ega bo‘lgan 300 dan ortiq jangchidan 75 tasi o‘zbek o‘g‘lonlari edi. O‘zbekistonlik 82 ta jangchi “Shuhrat” ordenining uchala darajasi bilan taqdirlandi. Italiya, Angliya, Fransiya, Yugoslaviya, Polsha, Chexoslavakiya, Vengriya kabi mamlakatlarining ordenlari bilan taqdirlangan hamyurtlarimiz bir necha ming kishini tashkil etadi.

O‘zbekiston urushdan katta yo‘qotish bilan chiqdi. 1939-1945 yillarda bo‘lib o‘tgan Ikkinchi jahon urushi frontlariga safarbar qilingan 1433230 kishidan 263005 kishi halok bo‘ldi, 132.670 kishi nogiron bo‘lib qaytdi.

Urush yillarida asirga tushgan 6,2 mln. kishidan 4 mln. kishi halok bo‘lgan, 1 mln. kishi “Vlasovchilar”ga qo‘shilgan, tirik qolgan 1 mln. kishi esa nemis lagerlarini sovet lagerlari bilan almashtirishga majbur bo‘ldilar. Ular orasida nohaq jazolanganlardan yurtdoshlarimiz ham bor bo‘lib, S. Abdullayev, L. Popov, K. Abramovich, P. Rustamov va boshqalar shular jumlasidandir.

1945-yilga kelib mamlakatda yaxshilik sari qat’iy o‘zgarishlarni kutayotgan xalq yana mustabid tuzum asoratida qoldi. Ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlar yashirinib barqarorlik vujudga keltirdiki, ular bu tuzumning muqarrar qulashini ko‘rsatardi.

Katta qurbonlar evaziga bo‘lsa ham o‘zbekistonliklar insoniyatni fashizm balosidan qutqarishga munosib hissa qo‘shdilar. Urushda halok bo‘lganlar xotirasini tiklash va qadrlash maqsadida “Xotira” kitoblari tuzildi, poytaxtimiz markazida Xotira maydoni va motamsaro ayol yodgorlik majmuasi tiklandi. Bu ishlarga boshchilik qilgan yurtboshimiz farmoni bilan 9 may “Xotira va Qadrlash kuni» deb e’lon qilindi. Hozirgi kunda hayot bo‘lgan mehnat va urush faxriylardan yosh avlod hamisha minnatdordirlar.

16 mavzu. Urushdan keyingi yillarda O‘zbekistonning iqtisodiy va madaniy hayoti. Iqtisodiy va ma’naviy qaramlikning oqibatlari

Urushdan keyingi yillarda O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayoti

Urushdan keyingi yillarda O‘zbekiston xalq xo‘jaligining tinch qurilishga o‘tishi murakkab xalqaro vaziyatda kechdi. Urush davrida umumiy dushman fashizmga qarshi kurash antifashist davlatlar va xalqlarni birlashtirgan bo‘lsa, urush tugagandan keyin bu ittifoqdagi davlatlar orasida ajralish yuz berdi va ikki o‘rtada sovuq urushlar munosabati boshlanib ketdi.

Urushdan so‘ng fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga katta hissa qo‘shgan O‘zbekiston xalqlari oldida harbiylashgan xalq xo‘jaligini tinch qurilish yo‘liga solish, uni urushdan oldingi darajaga yetkazish va rivojlantirish kabi murakkab vazifalar turardi.

Urush davridagi harbiy-iqtisodiy hamkorlik tajribasi urushdan keyingi vayron bo‘lgan iqtisodiyotni tiklash va rivojlantirishda ham g‘arb davlatlari bilan hamkorlik qilish zarurligini ko‘rsatdi. Lekin haddan tashqari mafkuralashgan sovet tizimi Respublikalarni xorijiy mamlakatlardan “temir qo‘rg‘on” bilan ajratib, mamlakatni ortiqcha qiyinchiliklar va qurbonga mahkum etdi. Sobiq Ittifoq boshqa mamlakatlardagi tiklanishning ilg‘or tajribalaridan, chet el sarmoyalaridan foydalanishni istamadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov II jahon urushida vayron bo‘lgan Yevropa, Yaponiya, Janubiy Koreya mamlakatlari birinchi navbatda, albatta, “o‘z kuchiga tayanib, o‘z imkoniyatlariga suyanib yuksak taraqqiyot darajasiga ko‘tarildi”,-deydi. Lekin, ularning bu yutuqlarida chetdan kelgan sarmoyalar ham katta o‘rin egallagan. Amerika Qo‘shma Shtatlarida qabul qilingan “Marshall plani” asosida ajratilgan taxminan 50 mlrd. dollar Yevropa mamlakatlarining iqtisodini o‘nglab, hayot darajasini ko‘tarishga, ilg‘or texnologiyalarni joriy etishda hal qiluvchi kuch bo‘ldi. Sovet davlatining g‘oyat mafkuralashgan iqtisodiy siyosati esa yakkalanib qoldi va bu xalqimizning boshiga ortiqcha kulfat olib keldi.

O‘zbekiston urushdan keyingi yillarda o‘z xalqining arzon kuchidan, boy xom-ashyo manbalaridan cheksiz ravishda foydalanishiga asoslangan, kompartiya chizib bergan besh yillik rejalarni bajarishga kirishdi. Bir tomonlama, Markaz manfaatiga bo‘ysundirilgan Respublika iqtisodiyotini urushdan oldingi darajaga yetkazish va yanada rivojlantirishga qaratilgan vazifani bajarishda o‘zbek xalqining mehnatsevarligi, sabr-toqatli va tinchliksevarligi kabi fazilatlardan foydalanildi.

Iqtisodiyot oldiga qo‘yilgan eng muhim vazifalar O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining 1946 yil avgustida chaqirilgan 8-sessiyasida qabul qilingan 1946-1950 yillarga mo‘ljallangan rejada belgilandi. Bunga ko‘ra, xalq xo‘jaligining barcha sohalariga 3 mlrd. 900 mln. so‘m kapital mablag‘ ajratildi. Sanoatni rivojlantirish ishlari jumhuriyat iqtisodiyotining yetakchi sohasi paxtachilikni rivojlantirishga qaratildi. Elektr quvvati ishlab chiqarishga alohida e’tibor berildi. 5 yilda 8 ta yirik va o‘rta hajmdagi elektrostansiyalar, shu jumladan 300 000 kv. soat kuchga ega bo‘lgan Farhod suv elektr stansiyasi ishga tushirildi. Bu stansiya sobiq ittifoqda uchinchi o‘rinda bo‘lib, urushgacha O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan elektr quvvatiga teng quvvat beradigan bo‘ldi.

Qisqa davr oralig‘ida, 20-30 yillardagi “sotsializm qurish” azoblari, ayniqsa ikkinchi jahon urush davri qiyinchiliklarini, mashaqqatlarini boshdan kechirgan O‘zbekiston xalqi iqtisodni tiklash va rivojlantirish yo‘lida ham hormay-tolmay mehnat qildi. Besh yilda sanoat mahsulotining yalpi hajmi 71 foizga ko‘paydi, bu urushdan oldingi darajadan 1,9 barobar ko‘p edi. Sanoatning xalq xo‘jaligidagi salmog‘i 47,7 foizni tashkil qilgan edi. Shu yillarda Farhod, Oqqovoq-2, Bo‘zsuv-2 elektrostansiyalari, jami 150 ta yangi sanoat korxonalari ishga tushirildi.

O‘zbekistonning kelajakdagi taraqqiyoti rejalari Ittifoq markazida ishlab chiqarilib, aksariyat hollarda mahalliy sharoit, ijtimoiy ahvol hisobga olinmasdan iqtisodni bir tomonlama, ya’ni o‘lkani xom-ashyo bazasi sifatida saqlab qolishga qaratildi. Sanoat, xalq xo‘jaligining deyarli barcha tarmoqlari paxtachilikni rivojlantirishga bo‘ysundirildi. Sovet hukumatining 1946 yil 2 fevraldagi O‘zbekistonda paxtachilikni tiklash va yanada rivojlantirish choralari to‘g‘risidagi qarori O‘zbekistonda paxta yakkahokimligini kuchaytirish uchun asos bo‘ldi.

Iqtisodiyotni tiklash ishlari qishloq xo‘jaligida ayniqsa paxtachilikda qiyinchilik bilan o‘tdi. O‘zbekistonda paxtachilikni rivojlantirish to‘g‘risida sovet hukumatining urushdan keyin qabul qilgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan asoslanmagan o‘nlab qarorlari izchillik bilan amalga oshirilmadi, shuning uchun ham kutilgan natijalarni bermadi. 1947-1948 yillarda paxta tayyorlashning davlat rejasi bajarilmadi. 1949 yildan boshlab ahvol birmuncha o‘zgardi. 1950 yili 2 mln. 222 ming tonna paxta yetkazib berildi, hosildorlik gektaridan 20,7 sentnerga yetdi. 1950 yildan paxtaning xarid narxi oshirilib, 1 tonnasiga 2200 so‘m ya’ni avvalgidan ikki baravar ko‘p haq to‘landi. Lekin dehqonchilikning boshqa sohalarida ekin maydonining qisqartirilganligi oqibatida g‘alla va sabzavot tayyorlashda urushdan oldingi darajaga yetmadi.

Iqtisodni rejali ravishda rivojlantirish bilan bir qatorda ba’zi ijtimoiy masalalarga ham e’tibor qilindi. Jumladan, ish haqi oshirildi, harbiy soliq, kartochka tizimi bekor qilindi. Pul islohoti o‘tkazildi, qisqartirilgan ish soati joriy etildi, kundalik iste’mol mahsulotlarining narxi arzonlashtirildi. Bu tadbirlar pulning xarid quvvatini oshirish imkonini tug‘dirdi. Lekin shunga qaramasdan narx navo hali ancha yuqori edi. 1950 yili O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari 1940 yilga nisbatan deyarlik ikki barobar qimmat edi.

Keng iste’mol mollarini ishlab chiqarish tobora kamaydi. Ular asosan chetdan keltiriladigan bo‘ldi natijada Respublika aholisining yengil sanoat, oziq-ovqat mollariga ehtiyoji kuchaydi.

Jumhuriyat aholisining uchdan ikki qismini tashkil qilgan qishloq aholisining moddiy ahvoli achinarli edi. Ularning oylik daromadi o‘rtacha 20 so‘mni tashkil qilgan holda, bu ko‘rsatkich ishchilarda 64 so‘m edi. Vaholanki, urushdan keyingi xo‘jalikni tiklash va rivojlantirishning asosiy og‘irligi qishloq mehnatkashlari zimmasiga tushdi. O‘zining bog‘ va mevalari bilan mashhur bo‘lgan O‘zbekiston aholisi haddan tashqari ko‘p olinadigan soliq tufayli bog‘laridan voz kechdi. Chorvadorlar shu sababga ko‘ra mol boqib foyda ko‘rmadi. Ahvol shu darajaga yetdiki, aholining shaxsiy mollari soliq hisobiga davlat va jamoa xo‘jaliklari foydasiga olindi. Sotishdan bosh tortganlar jinoiy javobgarlikka tortildi. Oqibatda shaxsiy xo‘jaliklarda chorva mollarining soni keskin kamaydi. Bunday zo‘ravonliklar urush oqibatlari, vaqtinchalik, o‘tkinchi holat deb tushuntirildi.

50-60 yillarda qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirishga va shu asosda paxta va g‘alla yetishtirishni ko‘paytirish choralari ko‘rildi. O‘zbekistonda uch yil ichida (1953-1955 yy.) 130 ming gektar yangi yerlar ochildi. 1956 yili Mirzacho‘lning o‘zida sug‘oriladigan maydon 205.000 gektarga yetdi.

Shu yillarda Markaziy Farg‘onani o‘zlashtirish munosabati bilan Katta Farg‘ona kanali qayta ta’mirlandi. Toshkent viloyatida Ohangaron suv omborining 2-navbati, Yuqori Chirchiq suv tarmog‘i, Buxoro viloyatida Quyimozor suv ombori, Sirdaryo viloyatidagi Janubiy Mirzacho‘l magistral kanali qurilib foydalanishga topshirildi. 1960 yili respublikada sug‘oriladigan yer maydoni 2.571 ming gektarga yetdi.

Paxtachilikni rivojlantirish uchun mineral o‘g‘itlardan foydalanishga katta e’tibor qaratildi. Respublikada 1951 yilda 0,9 mln t. mineral o‘g‘it ishlatilgan bo‘lsa, 1980 yilda uning miqdori 5 mln. tonnadan oshib ketdi. G‘o‘za barglarini to‘kish va zararkunandalarga qarshi kurashda ishlatilgan o‘ta zaharli ximikatlar (butifos, merkaptafos va b.)dan haddan tashqari keng miqyosda foydalanish, aholi sog‘ligiga keskin yomon ta’sir qildi.

Dunyo bo‘yicha pestitsidlar har bir kishiga 300 gr.dan, AQSh da 800 gr.dan to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, respublikaning paxta ekiladigan hududlarida har bir kishiga 1989 yil 25-45 kg.dan to‘g‘ri keladi. Respublika bo‘yicha bo‘lsa, bu har bir kishiga 7-8 kg.ni tashkil etdi.

Paxta xom-ashyosi yetishtirish 1946-1985 yillarda 5,5 barovar ko‘paydi, paxta ekiladigan maydonlar 1 mln. ga. dan ortdi. 1966-1986 yillar maboynida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligiga 45 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilgan bo‘lib, shundan 17,1 mlrd. so‘mi sug‘orish tarmoqlariga sarflandi. Shu davrda 1,5 mln. ga. yer o‘zlashtirildi. O‘zlashtirilgan

yerlarda yangi 160 ta sovxozlar tashkil etilgan bo‘lib, 20 yil davomida bu yerlarda 10,4 mln tonna paxta xom ashyosi yetishtirildi.

Qishloq xo‘jaligining ekstensiv yo‘ldan rivojlantirilishi, totalitar rejimning sug‘orish texnologiyasiga qo‘pol aralashuvi og‘ir ekologik va boshqa turli noxush ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqardi.

1985 yilga keliboq respublikada 900 ta sug‘orish tarmog‘i 92 ming gidrotexnik qurilmalar, 10 mlrd m^3 hajmda suv to‘playdigan 23 ta suv omborlari mavjud edi. 70-80 yillarda suvning tabiiy muvozanatini buzilishi yer, suv, hattoki havoning zaharlanishiga olib keldi.

Mavjud suv zahirasi imkoniyatlaridan ortiq yerlarning o‘zlashtirilishi, tog‘ yon bag‘irlariga ekin ekilishi, o‘rmonlarni shafqatsizlik bilan kesilishi, daryo va ko‘l suvlarining ifloslanishi hayvonot olamida halokatli o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Orol dengizi yaqin o‘tmishda dunyodagi eng katta ko‘llardan hisoblanib, baliqchilik, ovchilik, transport sohasi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan edi. Biroq bir avlod umri davomida bir dengiz quridi. Bir mustabid tuzum rahbariyatining respublikadagi paxta yakka hokimligi siyosati, ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyot, Orol atrofida favqulodda halokatli ekologik xatarni keltirib chiqardi.

Orol dengizining qurishi 1960-70 yillarda yiliga-18 sm, 1971-1980 yillarda-53 sm, 1981-1985 yillarda-78 sm, 1985 yilga kelib esa-87 sm.ga yetdi. 1961 yildan 1991 yilgacha dengiz haji 3 baravar qisqardi, dengiz o‘z qirg‘og‘ida 75-80, ba’zi joylarda 100 km.ga chekindi. 1980 yillarning boshida Orol dengiziga suv kelishi deyarli butunlay to‘xtab, nodir suv makoni quriy boshladi. Bu yerlarda 2 mln. ga tuz va qumdan iborat maydon ochilib qoldi.

Sanoat va qishloq xo‘jaligida yuzaki islohotlar xalqning turmush ahvolida deyarli o‘zgarish yasamadi. Ayniqsa, sobiq ittifoqdagina emas, balki mehnat sharoiti eng og‘ir bo‘lgan o‘zbek paxtakorlarining turmush darajasi ayniqsa achinarli ahvolda bo‘ldi.

O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari “sotsializm uzil-kesil g‘alaba qilgan” davrda aholining jon boshiga hisoblaganda quyidagicha edi: go‘sht 29 kg, sut 150 litr, tuxum 78 dona, qand-shakar 21,2 kg, kartoshka 28, sabzavot va poliz mahsulotlari 66 kilogramdan to‘g‘ri keldi. Bu miqdor umumittifoq darajasidan ancha past edi. Qishloq aholisining iste’mol darajasi bu o‘rta hisobdan ko‘ra yana ham achinarli edi.

Paxta yakkahokimligining kuchayishi qishloq xo‘jaligini boshqa sohalarini qoloqlikka olib keldi, g‘alla, chorvachilik mahsulotlari, sabzavot-mevaga aholining talabi qondirilmadi. Buning ustiga tomorqaga

nisbatan noto‘g‘ri siyosat olib borildi. 50-yillarning boshlarida respublika rahbarlarining tashabbusi bilan sug‘oriladigan yerlarda tomorqa hajmi 25 sotihdan 13 sotihga tushirildi. Bu ko‘rsatkich joylardagi rahbarlarning o‘zboshimchaligi bilan 10 sotihgacha, Farg‘ona, Toshkent viloyatlarida esa, hatto 6-8 sotihgacha kamayib ketdi. Bu holat respublika qishloq aholisining turmush darajasini g‘oyat og‘ir qilib qo‘ydi.

1990 yil boshiga kelib respublikada 9 mln. yoki respublika aholisining 45 foizi jon boshiga hisoblaganda oyiga 75 so‘mdan kamroq daromadga ega edi. Bu esa kun kechirish uchun zarur bo‘lgan eng past darajadagidan ham kamdir. 80-yillarda kundalik hayotda hammaga kerak bo‘lgan mebel garnituri, xolodilnik, sifatli chang yutkich va boshqalarni topish muammoga aylanib qoldi.

50-yillarda sanoat va qurilish, ijtimoiy ishlab chiqarishdagi tarqoqlikning respublika iqtisodini kompleks rivojlanishiga to‘sqinligi yanada kuchaydi. Respublikaning sanoat va qurilish ishlari uchun huquqi va ma’suliyati cheklanganligi sababli, 1953 yili respublika ixtiyoridagi korxonalar jami sanoat mahsulotlarining 31 foizni ishlab chiqargan bo‘lsa, ittifoqqa bo‘ysungan korxonalarga 69 foiz to‘g‘ri keldi. 1956 yilida esa sanoat mahsulotlarining salmog‘i 55% foizga ko‘tarildi.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda xatolarga ham yo‘l qo‘yildi. Xususan Toshkent va Toshkent viloyatida yirik sanoat korxonalari qurilib, sanoat ishlab chiqarish joylashtirishda nomutanosiblikni keltirib chiqardi. 1955 yil dekabrda O‘zbekiston Kompartiyasining birinchi kotibi lavozimiga avval Vazirlar Kengashining rayisi vazifasida ishlagan Nuriddin Muhiddinov saylandi.Shu davrdagi ko‘plab ijobiy o‘zgarishlarda N.Muhiddinovning shaxsan hissasi katta bo‘ldi. Uning tashabbusi bilan Markaz qaramog‘idagi yuzlab sanoat korxonalari respublika ixtiyoriga o‘tkazildi. 1960 yillarda O‘zbekiston sanoatida bir qancha o‘zgarishlar yuz berdi. 1959-65 yillar 450 dan ziyod sanoat korxonalari (shundan 150 yirik) va sexlar ishga tushirildi. Toshkent (birinchi navbati) Navoiy, Taxiatosh issiqlik elektrostansiyalari, gazli gaz koni shular jumlasidandir.

1953 yili Setalontepa, 1955 yilda Jarqoq, 1956 yilda Gazli neft konlarining ochilishi natijasida gaz sanoatining moddiy bazasi yaratildi. 1958-1960 yillarda Jarqoq-Buxoro-Samarqand-Toshkent magistral gaz quvuri qurilishi bilan respublika sanoat korxonalari, shahar va ayrim qishloqlarni gazlashtirish boshlandi.

Respublika aholisining aksariyat ko‘pchiligi tabiiy gazga muhtojligini qondirish va butun iqtisodiy ishlab chiqarishini gazlashtirish

asosida qayta qurish mumkin bo‘lgan sharoitda chetga tabiiy gazni olib ketish avj oldi. O‘zbekiston tabiiy gazi sobiq ittifoqning Yevropa qismi, Ural, Qozog‘iston, Tojikiston, Boltiq bo‘yi mamlakatlari va boshqa mintaqalarga uzluksiz jo‘natib turildi. Vaholanki, tabiiy gaz yetishtirish Respublikada yildan-yilga ortib bordi. Masalan, 1960 yilda 447 mln m^3 hajmda tabiiy gaz olingan bo‘lsa, 1970 yilga kelib bu miqdor 32 mlrd. m^3 ni tashkil qildi.

Rangli metallurgiya sanoati sohasida Ohangaron, Olmaliq havzasi va Zarafshon tizma tog‘lar konlari o‘zlashtirildi.

Mashinasozlikning qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan sohasi 1959-1965 yillarda 1952-58 yillarga nisbatan keskin oshib ketdi.

Sobiq SSSRning 50-60 yillarda fan-texnika sohasidagi erishgan yutuqlarida O‘zbekistonning qo‘shgan hissasi katta bo‘ldi. Mahalliy aholining mashaqqatli mehnati hisobiga yetishtirilgan qimmatbaho mahsulotlari sovet mamlakatining iqtisodiy va harbiy kuch qudratini oshirishga bo‘ysundirildi. Urushdan avvalgi yillarda ham, Farg‘ona vodiysida uranning bir necha manbalari ochilgan bo‘lib, urushdan keyin barcha uran konlari ittifoq ixtiyoriga o‘tkazilgan edi. 1948 yil yanvaridan O‘rta Osiyodagi uran qidirish tashkilotlari yagona-Krasnogorskiy ekspeditsiyasiga birlashdi. 1951 yil ana shu “10-korxona” deb nom olgan tashkilot bazasida Krasnoxolm ekspeditsiyasi tuzilib, ittifoq geologiya vazirligiga bo‘ysundirildi. Qizilqumda 50-60 yillarda jami 27 kompleks uran konlari ochildi. Navoiy, Uchquduq, Zarafshon, Zafarobod, Nurobod shaharlarida bir necha yuz kilometrni tashkil etgan temir yo‘l, avtomobil yo‘llari qurildi.

Urushdan keyingi qiyin sharoitda transport qurilishiga alohida e’tibor berildi. Amudaryoning chap qirg‘oqlari bo‘ylab 400 km masofaga Chorjo‘y-Urganch temir yo‘li qurildi. Bu bilan Ashxobad, Samarqand, Dushanbe, Toshkent va boshqa shaharlardan tovar, yo‘lovchi poyezdlari Rossiya orqali Yevropa mamlakatlariga yo‘l oldi.

1966-1970 yillarda sanoatda zo‘raki jadallashtirish natijasida yangi (oltin, uran, neft ishlab chiqaruvchi) sohalar rivojlandi. Respublikada kimyo tolasi, organik sintez mahsulotlari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, boshqarishning butkul markazlashtirilishi ko‘p o‘tmay samara bermay qo‘ydi. 70-yillardan boshlab yildan-yilga sanoat va qishloq xo‘jalik rejalari bajarilmay qoldi.

70-80 yillarning birinchi yarmida xalq xo‘jaligini ishchi kadrlarga bo‘lgan talabi ilmiy asoslangan tarzda o‘rganilmadi. Natijada kadrlar tayyorlashni rejalashtirishda jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yildi, ba’zi

sohalarda keragidan ortiq ishchi kadrlar tayyorlandi, boshqa sohalarda, ayniqsa texnika taraqqiyotini belgilaydigan tarmoqlarda mahalliy millat vakillaridan ishchi kadrlar tanqisligi sezilib qoldi.

Ikkinchi jahon urushi O‘zbekiston aholisining soni va tarkibiga, respublika iqtisodiy taraqqiyotiga nihoyatda salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Lekin, 1971 yildan - 1985 yillarga qadar O‘zbekiston xalq xo‘jaligida ishchi va xizmatchilar soni 2641,5 mingdan 4833,5 ming nafarga ko‘paydi. Biroq, bu o‘sish sun’iy ravishda, ya’ni respublikamizga tashqaridan ko‘plab kishilarni ko‘chirib keltirish hisobiga ro‘y berdi.

Aholi tarkibida ishchilar soni anchagina o‘sganiga qaramay, respublikamiz bu ko‘rsatkich bo‘yicha sobiq Ittifoq respublikalari ichida 1979 yilgi ma’lumotga ko‘ra, 13 o‘rinda turar edi. O‘zbekiston ishchilar sinfining milliy salmog‘i jihatidan orqada qolmoqda edi. Masalan, o‘zbeklar 1973-1983 yillarda sanoatda 51,1 foizni, qurilishda 46,5 transportda 38,6 aloqada-40,6 kimyo va neft kimyosida 24,9 foizni tashkil qilar edi.

Toshkent shahrida 1985-1986 yillarda mehnat resurslari ortiqchaligi 200 ming kishi bo‘lishiga qaramay, respublikaga tashqaridan 125 mingga yaqin ishchi va mutaxassislar jalb qilindi.

Shu bilan birgalikda ishlab chiqarishda band bo‘lmagan aholi soni ortib bordi. Ularning soni 1983 yilda 836 ming nafarni tashkil qildi.

Sanoatning zamonaviy tarmoqlarida “o‘zbek xalqi go‘yo ishlashga qodir emasligi” va shu munosabat bilan ko‘p yoshlar ishsiz yurganligi haqida asossiz turli mulohazalar keng tarqaldi. Darhaqiqat respublikamizda 80-yillar oxirida bir mln.ga yaqin ishsizlar bor edi. Biroq, buning boisi ularning ishlash ishtiyoqi yo‘qligidan emas, balki yuqorida ta’kidlanganidek, asosan markazning maxsus yo‘naltirilgan siyosati tufayli va qolaversa ba’zi mahalliy mutasaddi rahbarlar tomonidan ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning zamonaviy usullari yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, ularning ish joylari, turar joy, bolalar bog‘chalari, hunar-texnika bilim yurtlari bilan ta’minlash imkonini yetarlicha yarata olmaganidandir. O‘n yillar davomida mahalliy yoshlar orasidan ishchi kadrlar tayyorlash bilan astoydil shug‘ullanish o‘rniga milliy g‘ururi toptalgan holda Rossiya va Ukrainadan tayyor kadrlar keltirish siyosatini ma’qul ko‘rdilar.

Respublika iqtisodiyotini ahvoli, jamiyatni boshqarish usullarini qayta ko‘rib chiqishni, ularni yangi sharoitga moslashtirishni talab qilsa ham O‘zkompartiya, uning qo‘mitalari, urush davrining ish tajribasini

davom ettirib, markazda va joylarda hokimiyatni o‘z qo‘lida mahkam ushlab, ma’muriy buyruqbozlik tizimini yana ham kuchaytirdi.

Urushdan keyingi yillari partiya va hukumat rahbarligiga nazariy jihatdan kam tayyorlangan, ish tajribasi yetarli bo‘lmagan xodimlar keldi. Davlatni boshqaruv tizimida mahalliy xalq vakillari faqat 47 foizni tashkil qildi. Partiyaga qabul qilishga yuzaki, to‘ralarcha yondashuv natijasida qabul qilinganlarning ko‘pchiligini ishchi va dehqonlar tashkil qilib, ilg‘or ziyolilar, malakali mutaxassislar rahbarlik ishlaridan chetlashtirildi. O‘zbekiston SSR Oliy va mahalliy kengashlariga saylovlar yuzakilashib, oldindan tuzilgan ro‘yxat va reja asosida deputatlikka nomzodlar ko‘rsatildi. Saylovchilarning 99,9 foizi ovoz berishda qatnashib, “yakdillik” bilan kommunistlarning vakillariga ovoz berdi. Bu qanchalik haqiqatga to‘g‘ri keladi, tushunish qiyin emas. Sovetlar faoliyatida yuzakichilik, qog‘ozbozlik kuchaydi. Oliy Savetning, ayniqsa mahalliy sovetlarning sessiyalari vaqtida chaqirilmasdan undagi masalalar ko‘pincha muhokama qilinmay yoki hurfikrliliksiz qabul qilinardi. Saylangan sovetlar vazifasini uning ijroiya qo‘mitalari bajaradigan bo‘ldi. Sovetlarga deputat bo‘lib saylanganlarning aksariyat qismi jamiyat taraqqiyotining qonunlaridan xabarsiz, umuman hokimiyatni boshqarish masalalari bilan qiziqmaydigan shaxslar edi. Ayniqsa oliy sovetlarga saylangan deputatlar rus tilida olib borilgan sessiya majlislarida respublika manfaatlarini himoya qiladigan darajada faoliyat ko‘rsata olmasdi. Partiya va jamoat tashkilotlarining oliy organlariga a’zo bo‘lib saylanganlar, bu tashkilotlarning anjumanlariga delegat bo‘lib borganlar orasida ham o‘z vazifalarini tushunmaydigan, tushunsa ham uni ro‘yobga chiqarishni bilmaydiganlar, loqaydlar ko‘pchilikni tashkil qilar edi. Bunday deputatlar va delegatlar ichida Respublikamiz nomiga dog‘ tushirganlar ham oz bo‘lmadi.

Respublika Oliy Kengashining I chaqiriq deputatlaridan 158 deputat, II chaqiriq deputatlaridan esa 167 nafari qayta saylangan. Bular partiya, ma’muriy xo‘jalik xodimlari, jamoa xo‘jaligi rayislari bo‘lgan. Bundan ko‘rinadiki, ma’muriy buyruqbozlik tizimi davrida deputatlik nomenklatura xodimlariga imtiyoz bo‘lib xizmat qilgan. Yillar o‘tishi bilan bunday deputatlar ishga to‘g‘anoq bo‘la boshladilar.

Partiya, sovet xodimlarining savodxonlik darajasini ko‘tarishga qanchalik urinishmasin deputatlar orasida o‘rta va to‘liqsiz o‘rta ma’lumotlilar soni salmoqli ediki, bu respublika Oliy Kengashi faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ba’zi deputatlar o‘rta ma’lumot bilan Oliy Kengashning doimiy qo‘mitalari a’zosi ham bo‘ldi.

30-yillarning ikkinchi yarmidan 1959 yilgacha Sovetlarga Markazdan kelgan rahbar partiya va sovet xodimlarini saylash yo‘lga qo‘yildi. IV chaqiriq Oliy Kengashning 294 deputatidan 16 tasi markaz vakillari edi. Bunday ish yuritish 70 yillardan qaytadan yo‘lga qo‘yildi.

Urushdan keyingi yillarda dunyo xalqlari o‘rtasida tinchlik va hamkorlikni mustahkamlashga O‘zbekiston o‘z hissasini qo‘shdi, uning xorijiy mamlakatlar bilan savdo va madaniy aloqalari kengaydi. 1958 yili O‘zbekiston dunyoning 32 mamlakatiga sanoat va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini chiqargan bo‘lsa, 1970 yil 76 mamlakat bilan savdo aloqalarini o‘rnatdi. Chet davlatlarga mahsulot chiqarishda O‘zbekiston sobiq Ittifoqda RSFSR va Ukrainadan keyingi uchinchi o‘rinda turdi. Qorako‘l teri va paxta tolasidan boshlab, mashinasozlik mahsulotlarining 250 turi to‘rt qit’aning deyarli hamma mamlakatlariga chiqarildi. Ming afsuski, bu mahsulotlar O‘zbekiston nomidan emas “SSSRda ishlangan” degan tamg‘a bilan dunyoga tanildi.

Andijon mashinasozlik zavodining mahsulotlari 44 mamlakatga, Toshkent kabel zavodining mahsuloti 27, Chirchiq elektroximkombinati 20, Samarqanddagi “Kinap” zavodi 30 mamlakatga o‘z mahsulotini chiqardi. Ko‘p yillar davomida paxta tashqi bozorga chiqarilgan asosiy mahsulot bo‘lib, 1953 yildan boshlab O‘zbekiston paxtasi Amerika Qo‘shma Shtatlari, Meksika, Suriya kabi paxta yetishtiruvchi mamlakatlarning raqobatini yengib yirik kapitalistik davlatlar bozoriga chiqdi va jami 35 davlatning bozorini egalladi.

1960-70 yillari O‘zbekiston Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun minglab Oliy va o‘rta ma’lumotli mutaxassislar va malakali ishchi kadrlar tayyorlab berdi. 1961 yili Toshkent Davlat Universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy Universiteti) qoshida chet elliklar uchun tayyorlov bo‘limi ochildi. O‘zbekistonning minglab mutaxassislari ko‘pgina mustaqillikka erishgan mamlakatlarning iqtisodiyotini rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shdi. O‘zbekistonlik mashinasozlar, paxtakorlar, suv xo‘jaligi inshootlari va ipakchilik mutaxassislari ko‘p mamlakatlarda o‘zlarining boy tajribalarini tashviqot qildilar. Misrdagi Asvon va Xelvonn suv inshootlari, Afg‘onistondagi Jalolobod kanali va Kubadagi sanoat qurilmalarida O‘zbekiston mutaxassislari ham ishtirok qildilar.

“Feodalizmdan sotsializmga sakrab o‘tish mumkinligi to‘g‘risidagi marksistik ta’limotni” O‘zbekiston misolida isbotlash maqsadida, Osiyo va Afrika davlatlari uchun sotsializmning tajriba maktabi sifatida uning

xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalari kengaytirildi, delagatsiyalar almashish borasida ishlar jonlantirildi.

1947-1955 yillari dunyoning 46 mamlakatlaridan, shu jumladan ilg‘or taraqqiy etgan davlatlardan 180 delegatsiya O‘zbekistonga tashrif buyurdi. Ana shu davrda sobiq ittifoqning delegatsiyalari tarkibida 200 dan ortiq O‘zbekiston fuqarolari xorijiy mamlakatlarda bo‘lib qaytdi. Bundan tashqari sa’nat va adabiyot xodimlari o‘rtasida delegatsiyalar almashildi. Bu tadbirlar natijasida bizning o‘lkada “kazarma sotsializmi” o‘rnatilgani ham oshkora bo‘ldi.

Amerika Qo‘shma Shtatlari Oliy sudining a’zosi Uilam Duglas O‘zbekistonda bo‘lib qaytgandan keyin “Luk “ jurnalida O‘rta Osiyo respublikalaridagi hayotda Fransiyaning mustamlakachilik tamg‘asi ko‘rinayapdi deb yozadi. Mahalliy matbuotda bunga tuxmat deb qaraydi.

O‘zbekiston xalqaro birodorlashgan shaharlar uyushmasiga a’zo bo‘ldi. Toshkent, Pokistonning Karachi, Liviyaning Tripoli, Hindistonning Patiala, AQShning Sietl, Marokashning Marokash, Yugoslaviyaning Skople shaharlari bilan birodarlashdi. O‘sha davrning muhim muammolari bo‘yicha Toshkentda xalqaro yig‘inlar, uchrashuvlar va ilmiy kengashlar chaqirildi. Jumladan, 1959-72 yillarda o‘ttizdan ortiq ilmiy sessiya va kengashlar bo‘lib o‘tdi. 1958 yilni kuzida Toshkentda 37ta Osiyo va Afrika mamlakatlari yozuvchilarining anjumani o‘tdi va bu yerda “Toshkent ruhi” yuzaga kelib, xalqaro miqyosda O‘zbekistonning mavqeini oshirdi.

O‘zbekiston chet davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarini kengaytirish, uni samarali olib borish uchun barcha imkoniyatlarga ega bo‘lsa ham bu imkoniyatdan to‘la foydalana olmasdi.

Vaholanki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76, 77,112, 122 moddalariga ko‘ra O‘zbekiston chet davlatlar bilan alohalar o‘rnatish, diplomatlar va elchilar tayinlash va chaqirib olish huquqlariga ega va xalqaro tashkilotlar bilan mustaqil aloqalari o‘rnatish mumkin. Lekin, amalda respublikaning xalqaro munosabatlari markazda rejalashtirilib, chizib berilgan doirada olib borildi. Chet davlatlardan birorta delegatsiyaning qabul qilinishi, jumhuriyatda o‘tadigan uchrashuvlar, kengashlar, anjumanlar uchun “markazdan” ruxsat shart edi. Ittifoqchi respublikalarning, jumladan, O‘zbekistonning teng huquqligi va mustaqilligi to‘g‘risidagi qonunlar aslida qog‘ozda qoldi.

Respublikada 1946-90 yillardagi ma’naviy-madaniy qaramlik va uning oqibatlari. Qatag‘onlikning yangi to‘lqini

Totalitar tizim sharoitida madaniy-ma’rifiy muassasalardan ommaga g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish maqsadida keng foydalanildi. 1960 yillar respublikada 2.977 klub bo‘lsa, 1970 yilda ularning soni 3.441 taga yetdi. Shu yillari kutubxonalar soni tegishli ravishda 3.418 tadan 5.822 taga; muzeylar soni 14 tadan 26 taga; kinoqurilmalar soni 2.178 tadan 3.988 taga oshdi. Lekin, bularning ko‘pchiligi statistik hisobotlarda oshirib ko‘rsatilgan bo‘lib, aslida o‘zlarining bevosita funksiyalarini samarali bajarish uchun hayotiy imkoniyatga ega bo‘lmadi. Ularning moddiy texnika bazasi past darajada bo‘lib, moliya bilan yetarli ta’minlanmadi. Bu jihatdan O‘zbekiston sobiq sovet respublikalari o‘rtasida eng quyi pog‘onada turdi.

1969 yilda Rossiyada aholining 10 ming nafariga 14 klub muassasasi to‘g‘ri kelsa, Belorussiyada 11 ta, O‘zbekistonda esa atigi 4 ta edi. Madaniy-ma’rifiy muassasalarga davlat tomonidan ajratilgan mablag‘ aholini jon boshiga Estoniyada 21,3 so‘mni, Armanistonda-17,9 RSFSRda-9,7 so‘mni tashkil qilsa, O‘zbekistonda 4,5 so‘mni tashkil qilardi. Respublika kutubxonalarining kitob fondi 1950-1970 yillarda o‘n barobarga ko‘paygan bo‘lsa, lekin ularning ko‘pchiligini mafkuraviy targ‘ibot uchun zarur bo‘lgan marksizm-leninizmga oid asarlar tashkil qilar edi. Olingan kitoblarning 8-10 foizgina respublikada nashr etilgan bo‘lib, qolganlari chetdan keltirilib, ularning aksariyati rus tilida edi. Madaniy-ma’rifiy muassasalar moliyaviy jihatdan davlat nazorati chetda qolganligi uchun bunday muassasalar ko‘pincha jamoatchilik asosida qurildi. Masalan: 1961 yili O‘zbekiston kasaba uyushmalari tashkilotlari tomonidan jamoatchilik asosida 45ta madaniyat va texnika universitetlari, 5 ta xalq teatrlari, 1.258 jismoniy tarbiya jamoalari ish olib bordi.

O‘zbekistonda ta’lim tizimini yaxshilash uchun o‘nlab qarorlar qabul qilinardi. Biroq, bu qarorlar milliy maktablarda to‘liq bajarilmasdi. Maktablar urushdan keyin ham darsliklar bilan to‘liq ta’minlamadi. Moddiy o‘quv bazasi rusiyzabon maktablarnikidan ancha past edi.

O‘rta maktabni bitiruvchilari orasida erta turmushga berilishi tufayli qizlar kamchilikni tashkil qilar edi. Maorifni rivojlantirishda mahalliy millatlarga past nazar bilan qarash sovet tuzumi siyosatining pinhona faoliyatiga yashiringan edi. Keyingi yillarda ochilgan arxiv ma’lumotlarida sobiq ittifoqdagi respublikalarda ongli, madaniyatli,

hurfikrli kishilarni bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik haqidagi mahfiy ko‘rsatmalar bejiz emas edi. 1985 yilda oliy o‘quv yurtlari soni 42 taga yetdi.

1946-47 o‘quv yilida respublikada 4483 maktab bo‘lib, 212.000 o‘quvchi o‘qigan bo‘lsa, 1965-66 o‘quv yilida 9716 ga undagi o‘quvchilar soni 2.476.000 kishiga yetdi. Oliy o‘quv yurtlarida talabalar soni 21.190 dan 168.800 taga yetdi. Bu miqdor “mahalliy millat yigit qizlari bilim uchun emas, diplom uchun qiziqsin” degan aqidaga asoslanganligini ko‘rsatadi. Shunday bo‘lishiga qaramay O‘zbekistonliklarni, xususan o‘zbeklarni ilmga chanqoqligi har qanday sun’iy to‘siqlarni yenga boshladi.

O‘zbekistonda fan va texnikaning hamma sohalarida yirik olimlar yetishtirilib, fan nomzodlarini va doktorlarini tayyorlash bo‘yicha sobiq SSSRda oldingi qatorlarga chiqdi.

1950 yil O‘zbekistonda 1760 fan nomzodi 180 fan doktorlari ilmiy ish olib bordi. 1965 yilda esa, fan nomzodlarining soni 4000 va fan doktori 324 ga yetdi. 50-60 yillari Respublika Fanlar Akademiyasining olimlari ayniqsa matematika-mexnanika, tibbiyot, energetika, qishloq xo‘jaligi sohalarida ishlar olib bordi. Bir qancha ilmiy-tekshirish institutlari travmatologiya va ortepediya, energetika, matematika, onkologiya va radiologiya, O‘rta Osiyo qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish, kibernetika va boshqa bir qancha institutlar shu yillarda ishga tushirildi. Fanlar Akademiyasi qoshida Falsafa va Huquq instituti tashkil etilib, Sharqshunoslik instituti faoliyati kengaytirildi.

50-yillardan boshlab respublikada ilmiy-tadqiqot ishlarida atom quvvatidan foydalana boshladi. Dastlabki paytda atom quvvati Toshkent va Samarqand Davlat Universitetlari laboratoryalaridan Fanlar akademiyasining fizika-texnika institutida, Politexnika va meditsina institutlarida ishlatildi. Lekin texnika bazasi yetarli bo‘lmaganlikdan atom quvvatidan foydalanish doirasi tor bo‘ldi. 1956-yil boshlarida Toshkentdan 30 km yiroqda, 750 shtat birligida mo‘ljallangan ilmiy-tadqiqot yadro insituti va barcha qulayliklarga ega bo‘lgan shaharcha qurilib, 1958-yili ishga tushirildi. Uning birinchi direktori etib yirik fizik olim, akademik Ubay Orifov tayinlandi.

1951-1954 yillari respublikada yana bir yirik ilmiy markaz bunyod etildi. 80 gektar maydonda, ittifoqda yagona tibbiy sharoitda o‘sadigan, Toshkent botanika bog‘i yaratildi. 1956-yili 5-noyabrda O‘rta Osiyoda

birinchi Toshkent telemarkazi ishga tushirildi. Keyinchalik 1962 yil Urganchda, 1964-yil Nukusda ham televizon markazlar ish boshladi.

O‘zbekistonlik olimlarning bir qanchasi, ayniqsa tabiiy fanlar sohasida, o‘zlarining ilmiy yutuqlari bilan nafaqat sobiq Ittifoq doirasida, balki jahon miqyosida tan olindi va yuqori darajadagi davlat mukofotlariga sazovor bo‘ldilar. O‘zbek olimlaridan matematiklar-T.N.Qori-Niyoziy, T.A.Sarimsoqov, S.X.Sirojiddinov, fiziklar-U.O.Orifov,S.A.Azimov, ximiklar-O.S.Sodiqov, S.YU. Yunusov, M.I.Nabiyev, geologlar-X.M.Abdullayev, I.X.Xamraboyev, G.A.Mavlonov, biologlar- A.M.Muzaffarov, K.Z. Zokirov, T.Z.Zohidov, texnika sohasida M.T.O‘razboyev, X.A.Rahmatullin, X.Fayziyev, jamiyatshunoslik fani sohasida I.M.Mo‘minov, H.Sulaymonova, YA.G‘.G‘ulomovlar shular jumlasidandir.

Respublika ziyolilari qatorida 125 mingdan ortiq oliy va o‘rta maxsus ma’lumotga ega mutaxassislar bo‘lib, shulardan 25 mingdan ko‘prog‘i muhandis va texniklar, 10 ming qishloq xo‘jalik mutaxassislari, 24 ming vrachlar va 60 mingdan ortiq o‘qituvchilar, yuzdan ortiq yozuvchi, shoir, dramaturglar, rassomlar uyushmasida 105 kishi, kompozitorlar uyushmasida 26 nafar a’zolari bor edi. 1956 yilning oxirlarida respublika ziyolilarini birinchi qurultoyi bo‘lib o‘tdi.

Partiyaviy g‘oyaviy tizginga qaramasdan adabiyot va san’at sohasida ko‘zga ko‘rinarli asarlar yaratildi. G‘afur G‘ulom, Uyg‘un, Zulfiya, Mirtemir, Turob To‘la, M. Boboyev, Mirmuxsin va boshqalarning tinchlik mavzusiga bag‘ishlangan she’rlari yuzaga keldi. Oybekning “Oltin vodiydan shabadalar”, Parda Tursunning “O‘qituvchi”, Asqad Muxtorning “Opa-singillar” romanlari, Abdulla Qahhorning “Shohi so‘zana”, “Og‘riq tishlar”, B.Rahmonovning “Yurak sirlari” dramalari katta shuhrat qozondi. 50-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab siyosiy qatag‘onlikdan ozod bo‘lgan ijodkorlarning asarlari yuzaga chiqa boshladi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani, Mirtemirning “Surat” dostoni, Shayxzodaning “Toshkentnoma”si nashrdan chiqdi.

60-yillardan adabiyotda yangi avlod paydo bo‘ldi. Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, O‘lmas Umarbekov, Husniddin Sharipov, Ozod Sharafutdinovlar bilan izma-iz yangi ijodiy tafakkurga ega bo‘lgan iste’dodli Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Shukur Xolmirzayev, O‘tkir Hoshimov, Muhammad Ali, Jamol Kamol, Omon Matjon, Rauf Parfi kabi yosh adabiyotchilar maydonga chiqdi. O‘zbek adabiyotining rivojlanishida adabiyotga mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning quroli sifatida qarab, ijod erkinligi bo‘g‘ildi va partiyaviy sinfiy aqidalar tiqishtirildi. 50-

80 yillarda ahyon-ahyonda bo‘lsa ham ozodlikka intiluvchi fikrlar ko‘zga chalinardi. Biroq bunga darhol tanqidlar, ma’muriy jazolar to‘sig‘i qo‘yilardi.

80-yillarning o‘rtalaridan adabiyot xalq hayotini haqqoniy aks ettirish yo‘lida yangicha qadamlar qo‘ya boshladi. Badiiy asarlarning mavzui doirasiga Orol fojeasi, o‘zbek dehqonining mashaqqatli taqdiri, tabiat, til, madaniyat va tariximizga oid muammolar shiddatliroq kirib keldi. Yangi mazmun ijodda yangicha zamonaviy shakl, xalqona ohanglarda keng yo‘l ocha boshladi.

50-60 yillarda Respublika san’atida, xususan teatr va raqs san’atida ilgari siljishlar yuz berdi: 1947 yili Toshkentda xoreografiya bilim yurti ochildi. 1957 yili mashhur raqqosa M.Turg‘unboyeva tomonidan “Bahor” o‘zbek xalq raqs ansambli, 1958 yili G.Rahimova rahbarligida-Xorazm ashula va raqs ansambllari tuzildi. Bu jamoalar o‘zbek sahna raqslarini boyitdi. Respublikada teatr sa’natining rivojlanishida Samarqand Davlat ashula va balet teatrining (1964 yil) Toshkentda “Yosh gvardiya” (1990 yildan Abror Hidoyatov nomidagi) o‘zbek drama teatrining ochilishi katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Musiqa va teatr sohasidagi bu o‘zgarishlar bir tomonlama bo‘lib jahon san’ati darajasiga tezroq yetib olish uchun o‘zbek milliy madaniyatidan uzoq bo‘lgan opera, balet, simfonik musiqaga asosiy e’tibor berilib, milliy drama teatrlarimiz e’tibordan chetda qoldi. “Shaklan milliy mazmunan sotsialistik” shiori ostida rivojlangan sovet adabiyoti va sa’natining asl maqsadi “baynalmilallashtirish” bo‘lib badiiy asarlarda milliylik yo‘qola bordi.

Urushdan keyingi chorak asr mobaynida O‘zbekiston sanoati va qishloq xo‘jaligi, madaniyati va fani rivojlanishida ma’lum natijalarga erishdi. Lekin bu rivojlanish ziddiyatlar bilan to‘la bo‘ldi, demokratiyalashtirish yo‘lida olib borilgan tadbirlar yetarli natijalarni bermadi.

Ma’muriy buyruqbozlik tizimi kuchayib borayotgan O‘zbekistonda xalqning turmushi, aholiga ko‘rsatiladigan mayishiy xizmat jihatidan Respublika sobiq Ittifoqda oxirgi o‘rinlarda edi. Ta’lim tarbiya va sog‘liqni saqlash sohasidagi balanparvoz ko‘rsatkichlar sotsialistik tizimning tashviqot-targ‘iboti uchun foydalanildi. Umuman olganda, jamiyatning inqiroz tomon yo‘l tutishi kuchaya bordi.

Urushdan keyingi yillarda mamlakatning ijtimoiy-siyosiy tizimida partiyaning yakka hukumronligi kuchayib bordi. Siyosiy qatag‘onlikning yangi bosqichi boshlandi. Agar 30-yillarda qatag‘onlikni ichki ishlar xalq

komissarlari (NKVD) olib borgan bo‘lsa, endilikda bu mudhish ishlarni kommunistik partiyaning markaziy komiteti va uning quyi tashkilotlari bajardi. 1949 yilning martida chaqirilgan O‘zbekiston kommunistlarining X syezdi respublika mehnatkashlarini kommunistik ruhda zaharlash, milliy qadriyatlarga, “diniy xurofot”ga qarshi kurashni kuchaytirish vazifalarini qo‘ydi. Bu bilan jamiyatda sotsialistik mafkurani vayronkorlik roli yana ham kuchaytirildi.

1949-1952 yillarda ko‘pgina mashhur o‘zbek ijodiy ziyolilari asossiz ravishda ayblanib, qatag‘on qilindi. O‘zkompartiyaning 1949 yil 25 iyundagi byuro majlisida bir guruh yozuvchilar millatchilikda, eski feodal madaniyati oldida bosh egish, o‘tmishni ideallashtirishda ayblandi. Oybek, Abdulla Qahhor, Mamarasul Boboyev, Mirtemir, Shayxzoda kabi o‘zbek yozuvchilari badnom qilindi. 1951 yili avgustda bir guruh atoqli ijodkor ziyolilar “millatchilar” deb matbuotda nohaq tanqid qilindi, “buzg‘unchilikda” ayblandi. Keyinchalik yozuvchilardan Shayxzoda, Shukrullo, Shuhrat, Said Ahmad va boshqalar uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etildi.

Xurshid, Chustiy, G‘ayratiy va boshqalar yozuvchilar uyushmasidan haydaldi. Buni eshitgan G‘.G‘ulom kuyinib “Tokaygacha o‘zbekning aqli kirganda boshini chopib tashlaydilar” degan edi.

1951 yil aprelida O‘zkompartiya byuro majlisi “Musiqa san’atining ahvoli va uni yanada yaxshilashning choralari to‘g‘risidagi” masalani muhokama qildi.

Majlisda san’at ishlari bo‘yicha boshqarma ko‘p yillar davomida “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Tohir va Zuhra” kabi afsonaviy mazmunda opera, balet va musiqali dramatik spektakllarni yaratib, zararli ishlarni amalga oshiryapti deb qayd etildi. Majlis qarorida janr repertuarlari va radio eshittirish programmalarini qayta ko‘rib chiqish tavsiya etildi. Mazkur spektakllar sahnadan olib tashlandi. Qatag‘onliklar to‘lqini bu bilan to‘xtab qolmadi. 1983-yildan boshlab sobiq KPSS Markaziy qo‘mitasi rahbarligida O‘zbekistonda navbatdagi oshkora qatag‘onga yo‘l ochildi. “Paxta ishi”, “O‘zbeklar ishi”, “Sharqiy front” deb atalgan mash’um siyosat niqobi ostida minglab begunoh kishilar jinoiy javobgarlikka tortildi. Moskva yuborgan generallar, prokurorlar, tergovchilar istagan odamlarni hibsga olishardi.

Ma’shum nomlar bilan atalgan kompaniyavozlik davrida yo‘l qo‘yilgan xatolar, poraxo‘rlik qo‘shib yozish, mansabni suiste’mol qilish kabi illatlar ochib tashlandi. Biroq bu nuqsonlar sobiq Ittifoqqa, mavjud chirigan tuzumga qolaversa Markazga ham tegishli edi.

Markaziy matbuotning ba’zi bir mualliflari Kavkaz, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlarining yuziga qora chaplashga harakat qila boshladilar. Bu hududlarda yashagan millatlar o‘z vaqtida mavjud jinoiy guruhlar faoliyatiga qarshi kurashganlar. Ular sotsialistik qonunchilikni buzilayotgani haqida Moskvaga arz qilishgan, biroq ularning o‘zlari, ya’ni “suvni loyqalatuvchilar” quvg‘inga uchraganlar!

1983-yilning oxirida respublikada juda og‘ir vaziyat vujudga kelgan edi. Birinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashish niqobi ostida sobiq markazdan ketma-ket turli tergov guruhlari tashlandi. Respublikamizdagi rahbarlik lavozimlariga sobiq Ittifoqning har xil joylaridan kadrlar kela boshladi. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining ikkinchi kotibligiga Anishchev, Ministrlar Soveti Raisining birinchi o‘rinbosari Ogarok, Oliy Kengash Prezidiumi rayisining o‘rinbosari etib Romanovskiylar tayinlandi, Toshkent shahrining taqdiri Satinga topshirildi.

Respublika prokurori etib Buturlin, uning o‘rinbosarligiga Gaydanov, tergov boshliqligiga Laptev, Ichki ishlar vazirligiga Didorenko tayinlandi. Barcha viloyatlarda ham ahvol shunday bo‘lib, ular respublikadagi hukmronlikni to‘la qo‘lga olgan edilar.

“Paxta ishi” va “o‘zbeklar ishi” deb yuzsizlarcha nomlangan tergovlar boshlanib ketdi. Gdlyan guruhi o‘zbekistonliklarga nisbatan qonunsiz, beshafqat ishlarni boshlab yubordi. Ularning zo‘ravonligi oqibatida sudlar adolatsiz hukmlar chiqara boshladi.

1989 yilgacha bu ishlar bo‘yicha 4,5 mingdan ko‘proq kishi sudlandi. O‘sha paytda respublikadagi qamoqxonalarda joy qolmagani uchun sudlanganlarning mingdan ortig‘i jazoni o‘tash uchun Sibir qamoqxonalariga jo‘natildi.

Gdlyan guruhi O‘zbekiston hududida cheklanmagan vakolatlarga ega bo‘ldi. Aybsiz odamlarni, ularning oila a’zolarini qamoqqa olish, jismoniy va ruhiy qiynoqqa solish avj oldi. Hibsga olinganlar tergov usullariga dosh berolmay o‘z jonlariga qasd qilishgacha borib yetdilar.

O‘zbekistonda inson huquqlari behad toptalayotganligi haqida Moskvaga minglab xatlar jo‘natildi. Afsuski, bu xatlar tekshirilmasdan, hatto javob yozishga ep ko‘rilmadi. Aksincha Gdlyan va uning gumashtalariga ketma-ket unvonlar berildi.

1989-yil 23-iyun kuni respublika rahbarligiga Islom Karimov saylandi. Yangi rahbarning faoliyati O‘zbekiston fuqarolarining huquqlarini himoya qilish, toptalgan huquqlarini tiklash kabi oliyjanob va xayrli ishdan boshlandi.

“Paxta ishlari”ni ko‘rib chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi. Komissiya ish faoliyatiga 40 ming tomdan iborat ishni ko‘rib chiqish topshirildi. 1990-yilning iyun oyiga kelib, komissiya eng muhim bir xulosaga keldi. 1990-yil 13-iyun kuni Moskva shahriga SSSR Bosh prokurori, SSSR Oliy sudining rayisi va SSSR Adliya vaziri nomiga yozilgan xatda komissiya xulosalari batafsil ko‘rsatildi. Bu xatda “Paxta ishlari” chuqur tahlil qilinib, sudlanganlarni oqlash masalasi qo‘yilgan edi. Biroq yuqoridagi tashkilotlar ko‘mak o‘rniga tayziqni kuchaytirdilar.

Respublika rahbarining qat’iyatli harakati bilan nohaqlik barham topdi. Komissiya ikki yildan ko‘proq vaqt orasida 40 ming tomlik ishni ko‘rib chiqdi. 3,5 mingdan ko‘proq kishi oqlandi. Qolganlarning jazo muddatlari kamaytirilib, bir qismi Prezidentimiz tomonidan avf etildi.

Paxta komissiyasi faoliyatining eng muhim tomonlaridan biri shundan iboratki, paxta ishlari bo‘yicha sudlanganlarning ko‘pchiligi hayotligida oqlandi, yuzlari yorug‘ bo‘ldi, toptalgan huquqlari tiklandi, o‘z ish joylariga qaytishdi, musodara qilingan mulki qaytarilib, boshqa yetkazilgan moddiy zararlar qoplandi.

O‘zbekisiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, xususan, respublika rahbariyatining qat’iyatli harakati bilan nohaqlik barham topdi. Minglab begunoh fuqorolarning nomlari oqlandi.

KPSS MK Aprel (1985 y) plenumi sovet jamiyatini “qayta qurish”, bu jamiyat hayotining barcha sohalarini “chuqur isloh qilish” yo‘lini e’lon qildi. Bunda avvalo ijtimoiy hayotni demokratlashtirish, oshkoralik, iqtisodiy o‘sishni fan texnika yutuqlariga tayanib jadalllashtirishga qaror qilindi.

Biroq uzoq yillar totalitar rejimga moslashgan davlat monopoliyasi, idoralari byurokratik apparat ko‘zda tutilgan rejalarni amalga oshirishga yo‘l qo‘ymadi.

80-yillarning o‘rtalariga kelib mamlakatdagi iqtisodiy taraqqiyotni chuqur tahlil qilmasdan 90-yillarning oxiriga borib, sobiq SSSR da milliy daromadni 2-2.5 barobar o‘stirish, aniqrog‘i avvalo 70 yil ichida amalga oshirilgan ishlarni keyingi 15 yil ichida bajarish vazifalari qo‘yildiki, bular mutlaqo haqiqatdan uzoq edi. Bu hol tabiiy ravishda 70-80 yillar boshlarida jamiyat oldidagi muhim xalq xo‘jaligi vazifalarini ishlab chiqarishni jadallashtirish bilan emas, balki qo‘shib yozish, pora berish, oshna-og‘aynigarchilik bilan osongina hal qilishga olib keldi.

Davlat rejalashtirish tizimi murakkab ijtimoiy va xo‘jalik vazifalarini ma’muriy-buyruqbozlik yo‘li bilan hal qilishga qodir bo‘lmay qoldi. Natijada iqtisodiy o‘sish har yiliga kamayib bordi. Respublika xalq

xo‘jaligida umumiy ijtimoiy mehnat unumdorligini pasayishi hisobga mo‘ljaldagidan 4,3 foiz yoki 850,4 million so‘mga kam milliy daromad olindi.1989 yilda O‘zbekistondagi har bir kishiga sobiq ittifoqdagi o‘rtacha darajadan bir yarim baravardan kam kapital mablag‘ to‘g‘ri keldi.

Shu davrga kelib respublika qishloq xo‘jaligida ko‘plab muammolar to‘planib qoldi. Sovet tuzumining navbatdagi islohoti ham yo‘l qo‘yilgan xatolar tufayli barbod bo‘ldi.

Ushbu muammolardan xalq e’tiborini chalg‘itish uchun ko‘p yillar davomida yig‘ilib qolgan milliy noroziliklardan foydalanildi. Kommunistik mafkura o‘z hukmronligini saqlab qolish uchun hatto ayrim respublikalarda millatlararo nizolarni uyushtira boshladi. 1989 yilda Toshkent, Farg‘ona, Andijonda ro‘y bergan millatlararo mojarolar, Kavkazdagi qurolli to‘qnashuvlar, quvg‘in qilingan xalqlarni noroziliklaridan razilona manfaat yo‘lida, respublikalarda, shu jumladan O‘zbekistonda paydo bo‘layotgan hurlik ovozini bo‘g‘ish uchun foydalandilar.

Ikkinchi jahon urushi yillarida mustabid tuzum tomonidan deportatsiya qilingan bir qator xalqlar qatorida mesxeti turklari ham bo‘lib, ular asosan aholi zich yashaydigan Farg‘ona viloyatiga, bir qismi Andijon, Namangan va Toshkent viloyatlariga joylashtirilgan bo‘lib, buning oqibatida ijtimoiy-iqtisodiy va millatlararo munosabatlarda qo‘shimcha muammolarni yuzaga keltirgan edi. Bu muammoga sovet davlati o‘z vaqtida e’tibor bermadi. 1989 yil 24 mayda Quvasoy shahrida yoshlar o‘rtasida (R. Nishonov ta’rificha, “bir banka qulpunoy uchun”) bo‘lgan bezorilik millatlararo (mahalliy yoshlar bilan mesxeti turklar o‘rtasida) to‘qnashuvni keltirib chiqardi va bu mojaro Farg‘ona vodiysida ommaviy tus oldi. Respublikaning siyosiy rahbariyati yuzaga kelgan bu murakkab vaziyatni to‘g‘ri baholay olmagani uchun, yoshlarning ommaviy chiqishlari, millatlararo to‘qnashuvlar sodir bo‘ldi.

Bunday ommaviy chiqishlarga, kommunistik mafkura tartibiga qarshi borishlariga “ko‘nikmagan” mustabid tuzum siyosiy rahbariyati namoyishchilarga qarshi harbiy qism tashladi. 1989 yil 8 iyunda Qo‘qonda tinch namoyishchilar ana shu harbiy qism askarlari tomonidan o‘qqa tutildi. Natijada, 50 dan ziyod namoyishda qatnashgan aholi halok bo‘ldi (ularning ko‘pchiligi yoshlar edi), 200 dan ortig‘i esa yarador qilindi. Umuman 3-12 iyun kunlari Farg‘ona viloyatida bo‘lgan millatlararo to‘qnashuvlar va ularni harbiylar tomonidan o‘qqa tutilishi oqibatida 103 kishi halok bo‘lgan. 1009 kishi yarador bo‘lgan va 650 xonadonga o‘t qo‘yilib, vayron qilingan.

Farg‘ona fojealariga taalluqli ma’lumotlarning (lekin ma’lumotlar yo‘q darajada) tahlili shuni ko‘rsatadiki, mesxeti turklari uchun bu mojaro mustabid tuzum aybi bilan urush davrida majburan tashlab chiqilgan ona vatanlariga qaytib borishlari uchun bahona sifatida kerak bo‘lgan. Mahalliy aholi esa bu mojaroga tabiiy ravishda qo‘shilib ketgan. Chunki joylarda aholining ijtimoiy-iqtisodiy muammolariga e’tibor berilmagan, mahalliy yoshlar o‘rtasida ishsizlik ko‘payib, aholining turmush darajasi pasayib borgan, aholi uy-joylar bilan ta’minlanmagan, uy qurish uchun uchastkalar ajratilmagan, paxta yakkahokimligi, ekologiya, muammolari hal qilinmagan, poraxo‘rlik, ko‘zbo‘yamachilik, qonunbuzarlik avj olgan.

Mudhish voqealardan keyin berilgan rasmiy bayonotlarga ko‘ra, respublikada vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy keskinlikdan ommaviy tartibsizliklarni, millatlar o‘rtasida nifoq va to‘qnashuvlarni keltirib chiqarishga uringan ekstremistik kuchlar turgan. Bu ataylab uyushtirilgan siyosiy ig‘vogarlik edi. Farg‘onadagi mudhish voqea Sumgayit, Boku, Tog‘li Qorabog‘, O‘sh-O‘zgan va boshqa mintaqalarda xuddi shunday tarzda uyushtirilgan ig‘vogarlik bilan bir qatorda turar edi. Farg‘ona voqealaridan keyin O‘zbekistonning I.Karimov boshliq siyosiy rahbariyati bu masalada prinsipial mavqeini egalladi. Respublika ziyolilari va siyosiy kuchlari ana shu tahlikali kunlarda siyosiy va ma’naviy jihatdan yuksak mavqeda turdi. Fojeaning asl sabablarini ochib tashlash, o‘z xalqining shon-shuhrati va qadr-qimmatini himoya qilish yo‘lidagi o‘zlarining mashaqqatli urinishlarida ular respublikaning eng keskin muammolarini birinchi bor oshkora ravishda muhokamaga qo‘ya boshladilar.

Respublikada keng munozaraga sabab bo‘lgan muammolardan biri o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi bo‘ldi. Ma’lumki, shaxsga sig‘inish, turg‘unlik yillarida o‘zbek tilining mavqei qo‘llanish doirasi juda ham torayib ketdi. O‘zbek tili davlat idoralarida ham, majlislar, yig‘ilishlarda ham deyarli ishlatilmay qo‘yildi.

80-yillarning o‘rtalariga kelib SSSRning parchalanishi real obyektiv haqiqatga aylanib qoldi. Milliy ongni o‘sishi, o‘zbek tili masalasini kun tartibiga qo‘yildi. R. Nishonov boshchiligidagi respublika rahbariyati bu harakat o‘rtaga tashlagan muammoni hal qilishga emas, aksincha bu harakatni “jamiyatga qarshi” deb, uni barham toptirishga, qonunchilik, oshkoralik va ommaviy talablarga rioya qilish oqimiga burib yuborishga urindi.

Demokratik taraqqiyparvar kuchlar qo‘ygan masalani I.Karimov boshchiligidagi yangi rahbariyat o‘z vaqtida anglab yetdi va uni hal etishga kirishdi.

17-mavzu. O‘zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi va uning tarixiy ahamiyati.
Mustaqillikka erishuv yo‘lida

O‘zbekistonning mustaqillikka erishuvi uzoq davom etgan tarixiy jarayonning natijasi bo‘ldi. O‘zbek xalqi qariyib 3000 yillik tariximizda qisqa vaqtgina mustaqil yashagan xolos. Ayniqsa, keyingi oq va qizil saltanatning 130 yil davom etgan hukmronligi o‘z tarixiy davlatchiligiga ega bo‘lgan Turkistonni mustamlaka va qaramga aylantirgandi. Bu zulmatga qarshi kurash goh pinhona, goh oshkora bo‘lsin xalqimiz azal-azaldan o‘z fikri-zikri bilan mustaqil, ozod, erkin yashash uchun tinimsiz intildi.

XX asr 90-yillariga kelib jahon va sobiq Ittifoqdagi o‘zgarishlar, hamda yuzaga kelgan vaziyat o‘zbek xalqining mustaqillik uchun bo‘lgan kurashini tezlashtirib yubordi. Mana shunday jarayonda o‘zbek xalqiga munosib yo‘lboshchi zarur edi. Tarix taqozosi bilan elim deb yashovchi Islom Karimovdek jasoratli inson 198-yil 23-iyunda O‘zbekistonga rahbarlikka keldi. O‘zbekistonning yangi hukumati Markaz bilan bo‘ladigan munosabatlarni o‘zgartirmay turib, ijobiy siljishlarga erishib bo‘lmasligini va buning uchun respublikaning to‘liq mustaqilligini ta’minlash zarurligini tushunib yetdi. Uning tashabbusi bilan O‘zbekiston hukumati tomonidan 1989-yil 15-avgustda “kolxozchilar, sovxoz ishchilari, fuqarolar, shaxsiy tomorqa xo‘jaliklari va individual uy-joy qurilishini yanada rivojlantirish to‘g‘risida” maxsus qaror qabul qilindi. Garchi, bu g‘oya Ittifoq rahbarlariga yoqmagan bo‘lsa ham, I.A.Karimov o‘z fikridan qaytmay, uni jasorat bilan amalga oshira bordi. Natijada o‘sha yilning 4 oyida aholi qo‘shimcha 90,7 ming gektar yer olishdi.

O‘ta qisqa fursat ichida 1,5 milliondan ko‘proq oilaning tomorqa uchastkalari kengaytirildi, tomorqaga yetolmay yurgan 580 ming oila unga ega bo‘ldi. Tomorqa xo‘jaligi maydonining o‘sishi, unga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi, agrar siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanishi qishloq xo‘jaligining keskin o‘sishiga olib keldi. 1989-2000 yillar mobaynida don yetishtirish 2,5 baravar o‘sib, don bo‘yicha chetga qaramlikdan qutulgan ekanmiz, bu muvaffaqiyatga erishishimizda tomorqachilarning ham munosib hissasi bor. Yana qator mahsulotlar ishlab chiqarishda ham tomorqachilarning ulushi katta. Masalan, shu davrda kartoshka ishlab chiqarish, meva, sut mahsulotlari yetishtirishda ham ijobiy o‘sishlarga erishildi. Mazkur mahsulotlarning asosiy qismi tomorqadan olinishi hech kim uchun sir emas.

Shuningdek, o‘sha vaqtda hali ham “Paxta ishi”, “O‘zbeklar ishi” kabi uydirmalar bilan o‘zbek xalqi nafsoniyatiga tegishi davom etardi. O‘zbekistonning amalda mustaqillik sari tashlangan eng muhim qadamlardan biri O‘zKP Markaziy Komitetining 1989-yil 25-noyabrdagi XVIII plenumida O‘zbekiston hukumati avvalo respublika va o‘zbeklar boshiga yog‘ilayotgan malomat toshlariga chek qo‘yish, “Paxta ishi”, “O‘zbeklar ishi” degan uydirmalarni bas qilish, Moskva matbuotida o‘zbeklarning milliy nafsoniyatiga tegadigan chiqishlarni to‘xtatish zarurligi uqtirildi. 1989-yil 21 oktabrda O‘zbekiston Oliy Kengashning XI sessiyasi O‘zbekistonning davlat tili haqidagi Qonunni qabul qildi. Ushbu qonunnng qabul qilinishi o‘zbek xalqining, respublikamizda yashovchi boshqa xalqlarning madaniy-ma’naviy va siyosiy hayotida ro‘y bergan g‘oyat muhim voqea bo‘ldi.

Voqealar jarayoni shu darajada tezlashdiki, I.A. Karimovning siyosati bevosita o‘zbek xalqi xohish-irodasi, sa’y-harakati bilan qo‘shilib ketib, ittifoq rahbariyatini xiyla talvasaga solib qo‘ydi. O‘zbekiston SSR Oliy Kengashning 1990-yil 24-martida bo‘lib o‘tgan sessiyasida boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish, prezidentlik lavozimini joriy etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi va O‘zbekistonda ittifoqdosh respublikalar orasida birinchi bo‘lib prezidentlik lavozimi joriy etildi. Demokratik jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, siyosiy o‘zgarishlarni takomillashtirish va konstitutsion tizimni mustahkamlash mantiqan tom ma’nodagi mustaqillikni talab etadi va uning zamirida markazga bo‘ysunmaslik, o‘z taqdirini o‘zi belgilash tamoyili yotadi. Shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy organlarining o‘zaro aloqasini takomillashtirish-bu bevosita partiya yakkahokimligini bartaraf etish, fuqaro va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yaqinlashtirish demakdir. Bu esa oxir-oqibatda respublikaning o‘z taraqqiyot yo‘lini ishlab chiqadigan va uni amalga oshiradigan Prezident lavozimini joriy qilishni taqozo etdi. Bu tabiiyki, Gorbachev boshliq ittifoq rahbariyatini qattiq tashvishga sola boshlagan edi. Aslini olganda, O‘zbekiston boshqa ittifoqchi respublikalarda kundan kunga tazyiq va zo‘ravonlik oshirayotgan, kam sonli xalqlarga zug‘um o‘tkazilayotgan bir paytda ana shunday dadil siyosat yurita boshlagan edi.

O‘zbekistonning mustaqilligi yo‘lidagi yana bir muhim qadam O‘zbekiston SSR Oliy Kengashning XII chaqiriq ikkinchi sessiyasida (1990 y. 20 iyun) qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Mustaqillik Deklaratsiyasi”dir. Ushbu Deklaratsiyani qabul qilishda respublika Oliy Soveti deputatlari jonbozlik ko‘rsatdilar. “Mustaqillik Deklaratsiyasi”da

har bir millat o‘z taqdirini o‘zi belgilashi, Deklaratsiya qoidasi bilan kafolotlanishi ta’kidlandi. Unda o‘zbek xalqining asrlar davomida qo‘lga kiritgan davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an’analari hisobga olindi. Deklaratsiya 12 moddadan iborat bo‘lib, uning 1-moddasida “O‘zbekiston SSR ning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o‘z hududida barcha tarkibiy qismlarini belgilashda tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir”,-deb, yozib qo‘yilgan. Sessiya qabul qilgan bu “Mustaqillik Deklaratsiyasi” xalqimiz tomonidan katta mamnuniyat bilan kutib olindi. Shu kundan boshlab respublikada O‘zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina bordi. Bunga misol tariqasida 1991-yil 22-iyulida O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumi qarorida Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga Ittifoqqa bo‘ysunuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning O‘zbekiston SSR huquqiy tobeligiga o‘tishi tartibini belgilash vazifasi topshirildi. O‘sha vaqtda Markaz rahbarlari Respublikalar Ittifoqini qanchalik saqlab qolishga urinmasinlar, buning iloji yo‘q edi. Chunki endi eskicha tartib bilan mamlakatni idora etib bo‘lmas, o‘z navbatida ittifoqdosh respublikalarning mustaqillikka bo‘lgan intilishi tobora kuchayib borardi. Biroq Markazni kuchaytirish tarafdorlari boshqa usullardan: namoyishlar o‘tkazish, mitinglar tashkil qilish, hatto g‘ayri konstitutsion yo‘llar bilan davlat to‘ntarishi o‘tkazish bilan bo‘lsa-da, oldingi buyruqbozlik tizimini mustahkamlashga harakat qildilar. Buning aksi sifatida O‘zbekiston hukumati o‘zbek xalqi manfaatlarini hisobga olgan holda o‘zining faol siyosatini davom ettirardi. 1991-yil 11-yanvarida mamlakat Prezidenti qishloq aholisiga bevosita amaliy yordam berish uchun navbatdagi Farmonga imzo chekdi. Mazkur Farmon 1989-yilda boshlangan haqiqiy yangilanishlarning mantiqiy davomi edi. Prezident imzolagan hujjatda 1991-yilda paxta ekin maydoni qisqartirilishini nazarda tutib, tomorqa maydonlariga 108,5 ming gektar yer ajratish ko‘rsatilgan. 1991-yil 14-fevralda O‘zbekiston Oliy Kengashining navbatdan tashqari to‘rtinchi sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Sessiyada mamlakat Prezidenti I.Karimov nutq so‘zladi. Mazkur nutq matbuotda “Murakkab vaziyatda oqilona siyosat yuritaylik” degan sarlavhada chop etildi. Ushbu nutqida O‘zbekiston rahbari Ittifoq shartnomasiga o‘z munosabatini bildirib, O‘zbekistonning bu shartnomaga kirmasligini qayd etib o‘tdi. 1991 yil Navro‘z bayrami arafasida Prezident avf etish to‘g‘risidagi Farmonga imzo chekdi. Ushbu Farmon ham xalq tomonidan zo‘r quvonch bilan kutib olindi. Qolaversa, amnistiyaning o‘sha davrda faqat Ittifoq Prezidenti e’lon qilar edi. 1991-

yil 19-avgustga kelib, butun jahonni hayajonga solgan Moskvada davlat to‘ntarilishiga urinish bo‘ldi.

To‘ntarish tarafdorlarining asl maqsadlari Ittifoqda yashovchi barcha xalqlarning mustaqillikka erishuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda mamlakatdagi parokandalikdan foydalanib qolish edi. Lekin O‘zbekiston rahbariyati mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatni saqlash, respublika hududida favqulodda holat joriy etilishiga, Konstitutsiyaga qarshi davlat to‘ntarilishini qo‘llab-quvvatlash yo‘lidagi ig‘vogarona harakatlarga uchmaslik uchun o‘zlarining butun imkoniyatlaridan foydalandilar. O‘sha vaqtda O‘zbekiston Prezidenti Hindiston safarida edi. Safardan qaytib 19 avgust kuni kechqurun Toshkent shahri faollari bilan uchrashib, qat’iy tarzda O‘zbekiston nuqtayi-nazarini ma’lum qildi. Respublika rahbariyati: “Markazdan, kim bo‘lishidan qat’iy nazar, Qonunga xilof ko‘rsatmalarni bajarish mumkin emas”,-deb hisobladi. 20 avgustda O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari ishtirokida qo‘shma majlisi bo‘ldi. Unda O‘zbekistonning mustaqillikka erishish yo‘li o‘zgarmasligi haqida Bayonot qabul qilindi. Prezident I.A.Karimov respublika aholisiga murojaat bilan chiqdi va O‘zbekistonning o‘z mustaqilligiga erishish yo‘li qat’iy ekanligini ta’kidladi. O‘zbekiston Prezidentining Farmoni bilan Favqulodda holat davlat komitetining g‘ayri konstitutsiyaviy, huquqqa qarshi qarorlari va boshqa ko‘rsatmalari noqonuniy deb e’lon qilindi. Shunday murakkab sharoitda, ya’ni markaz va respublikalar o‘rtasidagi munosabatlar tobora taranglashib, markaz boshqaruv qobiliyatini yo‘qotgan har bir jumhuriyat o‘z holiga tashlab qo‘yilgan bir sharoitda tarixiy vaziyatni to‘g‘ri baholagan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Oliy Kengash sessiyasini chaqirish va unda O‘zbekiston Mustaqilligi haqida Qonun qabul qilishni talab qildi. Chunki har bir milliy jumhuriyatning chinakam teng huquqligi va mustaqilligi ta’minlangandagina tanazzuldan chiqish mumkin edi. Ayni shu maqsadlarni ko‘zlab, jumhuriyat Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari sessiyasi 1991-yil 31-avgustda o‘z ishini boshladi. O‘zbekistonning mustaqil davlat deb e’lon qilinishida mazkur sessiya katta tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Unda “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida” hamda “O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi masalalar kun tartibiga qo‘yilib, qizg‘in muhokama qilindi. Sessiyada O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida Prezident I.A. Karimov ma’ruza qildi. U o‘z nutqida 1991-yil o‘rtalarida Markaziy Hukumat olib borayotgan ichki

siyosatni tahlil qildi. 19-21 avgust kunlari Moskva Favqulodda holat davlat komiteti a’zolarining xalqlar ozodligi, jumhuriyatlar mustaqilligiga qarshi qaratilganligi xalqqa ro‘y-rost bildirildi. Oliy Kengash deputatlari moddama-modda muhokamadan so‘ng O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi qonunni qabul qildilar. So‘ngra Respublika Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Bayonot qabul qilindi. O‘zbekiston SSR ning nomi O‘zbekiston Respublikasi deb o‘zgartirildi. Mustaqillik belgilangan kun 1-sentabr 1991-yildan boshlab milliy bayram va dam olish kuni deb e’lon qilindi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi haqidagi bu hujjatlar o‘zbek xalqining asriy orzusi ro‘yobga chiqqanligining huquqiy ifodasi bo‘ldi.

“O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida”gi qonun 17 moddadan iborat bo‘lib, mustaqil respublika uchun vaqtincha konstitutsiya rolini o‘ynaydigan bo‘ldi.

Ushbu qonunda O‘zbekiston mustaqil demokratik davlat deb e’lon qilindi, ma’muriy-hududiy tuzilishi, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilash qonunlashtirildi. Respublikaning davlat bo‘linishi hamda iqtisodiy asoslari ham qonunda o‘z aksini topdi. Shuningdek, ushbu hujjatda O‘zbekistonning Qoraqolpog‘iston bilan munosabatlari xususida so‘z borib, O‘zbekiston Qoraqolpog‘istonning hududiy yaxlitligini tan olishi haqida fikr yuritiladi, u O‘zbekiston tarkibida ekanligi e’tirof etiladi. Bunday qonunning qabul qilinishi o‘sha davrda erishilgan yutuqlarning yuqori cho‘qqisi bo‘ldi. Shunday qilib, o‘zbek xalqi asrlar davomida orzu qilgan mustaqillikka tinch yo‘l bilan, yurtboshimiz I.A. Karimov boshchiligida respublika rahbariyatining oqilona yo‘l tutishi orqali erishildi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e’lon qilinishi bilan birga Davlat mustaqilligi bilan bog‘liq qonunlar tizimini yaratish zarur edi. O‘zbekiston erishgan istiqlolni mustahkamlash uchun mamlakatda referendum o‘tkazishga qaror qilindi. 1991-yili 18-noyabrda Oliy Kengash VIII sessiyasi O‘zbekiston Respulikasi referendumini o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Shunga muvofiq 29-dekabrda; “Siz Oliy Kengash tomonidan O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e’lon qilinishini ma’qullaysizmi?” mavzuida referendium o‘tkazishga katta tayyorgarlik ko‘rildi. Referendum yakuniga ko‘ra unda qatnashgan aholining 98,2 foizi O‘zbekiston mustaqilligini yoqlab ovoz berdi. O‘zbekiston mustaqil respublika deb e’lon qilinishi jahon jamoatchiligi tomonidan ham zo‘r qoniqish bilan kutib olindi. Fikrimiz isboti sifatida Amerika Qo‘shma Shtatlarining o‘sha paytdagi Prezidenti Jorj Bushning

I. Karimov nomiga yuborgan telegrammasi hamda Shvetsiya bosh vaziri K. Bilodtning telegrammalarida ko‘rish mumkin. 24-sentabrda Toshkentda xalqaro anjuman o‘tkazildi. O‘zbeklar (Turkistonliklar) ning birinchi xalqaro uchrashuvida O‘zbekiston Prezidenti nutq so‘zladi. 1991 yil 14 sentyabrida O‘zbekiston Kompartiyasining Favqulodda XXIII syezdida I.A.Karimov taklifi bilan O‘zbekiston Kompartiyasi KPSS tarkibidan chiqqanligi e’lon qilindi. Partiyaning bunday buyon faoliyat ko‘rsatmasligi e’tiborga olinib, ushbu partiya o‘rnida Xalq-Demokratik partiyasi tuzilgani e’lon qilindi. O‘zbekiston mustaqil davlat deb e’lon qilingan kunning o‘zidayoq mustaqil davlat ramzlarini joriy qilish yuzasidan amaliy choralar ko‘rildi. O‘zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog‘i to‘g‘risida, respublika gerbining nusxasi va Davlat madhiyasining musiqiy bayoni haqida maxsus qaror qabul qilindi. Unda Konstitutsiya komissiyasining ekspert guruhiga Davlat bayrog‘ining variantlari ustida ishlashni davom ettirish, Oliy Kengashning tegishli qo‘mitalariga Konstitutsiya komissiyasi ijodiy guruhi bilan hamkorlikda Davlat bayrog‘i, madhiyasi haqida qonun loyihalarini ishlab chiqib, navbatdagi sessiyaga taqdim etish topshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrida bo‘lib o‘tgan VIII sessiyasi “O‘zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog‘i to‘g‘risida” qonun qabul qildi. O‘zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog‘i ulug‘ ajdodlarimizning aqida va maslaklariga mos keluvchi, millat tabiati va xalqimiz ruhiyatidan kelib chiqib, uning milliy va ma’naviy jihatlarini ham o‘zida aks ettirmog‘i kerak edi. Mamlakatimiz davlat bayrog‘i yurtimizning o‘tmishi, bugungi kuni va kelajagi yorqin ramzi bo‘lib qoldi.

1992-yil 2-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat gerbi” to‘g‘risida qonun qabul qilindi. Davlat gerbidagi har bir belgi chuqur ma’noga ega. Gerb rangli tasvirda bo‘lib, xumo qushi kumush rangda, quyosh, boshoqlar, paxta chanog‘i va “O‘zbekiston” degan yozuvlar tilla rangda, g‘o‘za shoxlari, barglari va vodiylar yashil rangda, tog‘lar havo rangida, chanoqdagi paxta, daryolar, yarim oy va yulduz oq rangda. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i tasvirlangan lenta to‘rt xil rangda berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 10-dekabrida bo‘lib o‘tgan XI sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Sessiyada shoir Abdulla Oripov va bastakor Mutal Burxonov tomonidan tayyorlangan madhiya nusxasi tasdiqlandi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin davlat boshqaruvining Prezidentlik shakli rivojlandi. 1991-yil 29-dekabrda o‘zbek xalqi xohish-irodasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini sayladi. Saylovga jiddiy tayyorgarlik ko‘rilib, O‘zbekiston Respublikasi saylovlari muqobillik asosida o‘tdi. Oliy lavozimga ikki nomzod-O‘zbekiston XDP va O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi nomzodi I.A. Karimov va “Erk” Demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov (Muhammad Solih) nomzodi qo‘yildi.

Saylovlar yakuniga ko‘ra 8 million 514 ming 136 ovoz yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi Islom Karimov nomzodini, 1 million 220 ming 474 saylovchi (12,3 %) Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi. Markaziy saylov komissiyasi okrug komissiyalari majlis bayonlarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risidagi qonunning 35-moddasiga asosan Islom Abdug‘aniyevich Karimovni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblashga qaror qildi.

I.A.Karimov-O‘zbekiston mustaqilligining asoschisi va yetakchisi

Jahon sivilizatsiyasida alohida o‘rin tutadigan, ko‘p asrlik boy tarixga ega O‘zbekiston diyorida butun dunyoga mashhur olimlar, davlat arboblari yetishib chiqqan. Buyuk xalq, buyuk el buyuk zotlarni yaratadi.

Xalqimizning ko‘p yillar davomida olib borgan matonatli kurashi natijasida qaror topgan mustaqil O‘zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan odil, haqqoniy demokratik jamiyat qurish stixiyali (ko‘r-ko‘rona) ravishda emas, balki jahon taraqqiyotining, chunonchi, buyuk zaminimizda yaratilgan tarixiy tajribalarga, g‘oyalarga, ma’rifiy-ilmiy taraqqiyotga amal qilgan holda ro‘yobga chiqdi.

O‘zbekiston mustaqillik tomon yo‘l tutar ekan 1989-yilning yoz oylari va 1990-yilning bahorida O‘zbekiston hayotida uning rahbarligida burilish davri bo‘ldi. Xuddi shu paytlarda o‘zbek halqining taqdirini hal qiladigan taraqqiyot yo‘llari ishlab chiqildi. Xususan, teng huquqli Mustaqil O‘zbekistonning inson manfaatini himoya qilish ustivor vazifa deb maqsad qo‘ygan demokratik yo‘lda rivojlanishi bosh strategik yo‘nalish deb belgilandi. Ana shu yo‘lning boshida, 1989-yilning iyunidan O‘zbekistonning rahbari, 1990-yilni martidan O‘zbekiston Respubikasining Prezidenti sifatida Islom Abdug‘aniyevich Karimov turdi.

Sovetlarning kuchi tugayotgan va alamini kimdan olishini bilmay turgan bir paytda kommunistik mafkura va amaliyotning hayotga zid tomonlarini ikir-chikirigacha tushunib yetgan va dadil oshkora qila biladigan jasoratli, dovyurak I. Karimov o‘sha chirib borayotgan tizim uchun “ittifoqchi respublikalarda eng xavfli” shaxsga aylandi.

Asrlarga teng qisqa vaqtda O‘zbekistonda erishilgan yutuqlar, xususan, mamlakatda o‘rnatilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorlik, tarixiy, diniy, milliy qadriyatlarmizning tiklanishi, jamiyatda o‘rnatilgan osoyishtalikni, mustaqil O‘zbekiston respublikasining xalqaro hamjamiyatda tutgan o‘rnining ortib borishini butun halqimiz, jahon jamoatchiligi Islom Karimov nomi bilan bog‘laydi.

Dunyo mamlakatlarida yangi jamiyat qurishning “O‘zbek modeliga” uning asoschisi va yetakchisi Islom Abdug‘aniyevich Karimovning siyosiy chizmasiga qiziqish ortib bormoqda. Amerika Qo‘shma Shtatlarida chiqadigan nufuzli “Novoye russkoye slovo” haftanomasi (Qarang: “Moskovskiye novosti”. 4-son, 1993-yil 10-oktabr). O‘zbekiston Prezidenti I. Karimovni Mustaqil davlatlar hamdo‘stligining ko‘p rahbarlariga namuna qilib ko‘rsatadi va BMT Xavfsizlik Kengashiga murojaat qilib, O‘zbekiston Prezidentining ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga e’tibor berishga va uning tajribasi bilan notinch mamlakatlarning davlat rahbarlarini tanishtirishga chaqiradi. 1996 yili Venada (Avstriya) “XX asr xalqlari dohiylari” nomida chop etilgan kitoblarning bir jildi O‘zbekiston Prezidentiga bag‘ishlangan. Kitob mualliflari “... Islom Karimov kommunizmdan keyingi O‘rta Osiyo mintaqasidagi eng buyuk davlat arbobidir” deb tan beradi.

Islom Karimovning har bir asari, ma’ruza va maqolalari bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning g‘oyaviy-nazariy asoslarini, amaliy ishlarining kundalik dasturini tashkil qiladi.

G‘arb va sharqning rivojlangan mamlakatlari asrlar davomidagi taraqqiyot yo‘llarini, o‘zbek davlatchiligining ming yillar davomidagi tarixiy tajribasini o‘rgangan holda yaratilgan I.A. Karimov asarlarida Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy-madaniy taraqqiyotining muhim yo‘nalishlari, yangi jamiyat qurishning butun dunyoda tan olingan asosiy tamoyillari to‘g‘risida ta’limot yaratildi.

Istiqlolning dastlabki bosqichida nashr yuzini ko‘rgan “O‘zbekistonning o‘z mustaqil va taraqqiyot yo‘li”, “O‘zbekiston-bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li” va boshqa bir qancha asarlari va nutqlarida bayon etilgan O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining

birinchi navbatdagi vazifalari keyinchalik g‘oyat muhim ahamiyat kasb etgan “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida”, “Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish vazifalari” va boshqa asarlarida o‘z rivojini topdi.

O‘zbekistonning yaqin o‘tmishida va XX asrning so‘nggi o‘n yilida bosib o‘tgan yo‘llari, ularning saboqlari, XXI asrda Respublika istiqlolini mustahkamlashning strategik vazifalarining asosiy yo‘nalishlari I.A.Karimovning bir qancha xorijiy mamlakatlarda bosilib chiqqan “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.”, “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda.” asarlari va Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning birinchi sessiyasidagi (22-yanvar 2000-yil) nutqida bayon etib berildi.

Islom Karimov donoligining yana bir ko‘rinishi bozor munosabatlariga o‘tish va demokratik jamiyat qurish jarayonida ma’naviy-ma’rifiy, g‘oyaviy va mafkuraviy ishlarning yuksak ahamiyatini ta’kidlab ko‘rsatganligidadir.

G‘arbning taraqqiy etgan demokratik mamlakatlarida, Sovet imperiyasi parchalangandan keyin vujudga kelgan hamdo‘stlik mamlakatlarining hech birida yuksak ma’naviyatli insonni tarbiyalash ishlariga muhim vazifalardan deb qaralmagan. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab I.A.Karimovning har bir ma’ruza va nutqlari va asarlarida bozor munosabatlariga o‘tish davrida insonning boyish uchun bo‘lgan tabiiy harakatlari uning moddiy va ma’naviy qashshoqlanishiga olib kelmasligini, yuksak ma’naviyatli, e’tiqodi kuchlik shaxsni shakllantirish yangi jamiyat qurishning zaruriy sharti ekanligini ko‘p marotaba taqqoslab ko‘rsatadi.

Istiqlol sharoitida odil demokratik jamiyat qurish vazifalarining ortib borishi, xalqaro ekstremistik, diniy aqidaparastlik harakatlarning mustaqilligimizga tahdidini hisobga olib, Islom Karimov jamiyatshunos olimlar bilan uchrashuvida (aprel, 2000y), gazeta va jurnallar muxbirlarining savollariga javoblarida (fevral 1998-yil, avgust 1998-yil, iyun 2000-yil) milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasini ishlab chiqish va ularni aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish, ayniqsa yoshlarimiz ongiga singdirish zarurati bu murakkab lekin muhim ishlarning yo‘llari va usullariga e’tiborini kuchaytirdi.

I.A.Karimov istiqlolning birinchi kunlaridan boshlab ta’lim-tarbiya sohasida tub o‘zgarishlar yaratishga, yangi jamiyat qurish talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash masalasiga katta ahamiyat berdi. Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun

va Kadrlar tayyorlashning milliy dasturiga ilg‘or taraqqiy etgan mamlakatlarni jamoatchiligi tomonidan yuksak baho berilmoqda. M. Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universitetining rektori akademik V.Sadovnichiy O‘zbekistonda yangi avlod tarbiyasi, ta’lim tizimini tubdan isloh etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar rossiyalik olimlar, ta’lim sohasi mutaxassislari tomonidan yuksak baholanayotganini ta’kidlaydi. “Biz sizni kelajak avlod uchun katta g‘amxo‘rliklar qilayotgan davlat rahbari sifatida alohida hurmat qilamiz”-deydi u O‘zbekiston Prezidentiga murojaat qilib. I.A.Karimovga dunyoning eng ilg‘or ilm-fan, madaniyat va siyosat arboblari qatorida jahonning eng yirik o‘quv yurtlaridan bo‘lgan Moskva Davlat universitetining faxriy professori unvoni berildi.

O‘zbekiston respublikasining qisqa vaqt ichida ta’lim-tarbiya, madaniyat va sport sohasida erishgan katta yutuqlarini hisobga olib I.A.Karimovga YUNESKO “Oltin medali”, xalqaro Olimpiya komiteti tomonidan “Oltin medal” topshirilishi, Rossiya federatsiyasi Oliy pedagogika akademiyasiga faxriy a’zo etib saylanishi bejiz bo‘lmasdan yurtboshimiz tomonidan ishlab chiqilgan va muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining dunyo miqyosida tan olinganligining belgisidir.

I.A. Karimov yangi jamiyat qurishda milliy, diniy qadriyatlarimizni tiklash ishlariga, shu maqsadda Vatanimiz tarixini xolisona, haqqoniy yaratishga jamiyatshunos olimlarning e’tiborini jalb qildi. Prezidentimiz istiqlolning dastlabki kunlarida (1992 yil yanvar): “Tarixga, merosimizga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgartirilishi lozim, yangi darsliklardan tortib oddiy kitoblargacha-hammasiga haqiqat yozilishi shart” deb aniq vazifa qo‘ydi.

Vatanimiz tarixini o‘rganish uning yangi, kelajak avlodni tarbiyalashdagi tutgan o‘rni, ahamiyati masalalari I.A.Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q“ (1998-yil, avgust) nomli asarida keng bayon etib berildi. Yurtboshimiz haqqoniy tarix millatning o‘zligini anglashning poydevori, ma’naviy-mafkuraviy, g‘oyaviy-siyosiy ishlarimizning haqiqiy manbayi ekanligini qayta-qayta taqqoslab ko‘rsatadi. Prezidentimiz har bir “siyosatchiman, arbobman degan odam, agar vijdoni bo‘lsa, o‘z xalqining tarixiy o‘tmishini bilishi shart” deb vazifani keskin qo‘ydi.

O‘tish davrining murakkab vazifalari, qarama-qarshiliklari davlat rahbaridan boshqaruvning har xil usullarini kerak bo‘lsa qattiqo‘llikni talab qiladi. Prezident Islom Karimov shunday vaziyatda xalqimiz

manfaatlariga mos keladigan demokratik usullardan foydalanib mamlakatni boshqarmoqda.

1992-yil Rossiyaning “Komsomolskaya pravda” gazetasi muxbiri: “Muxoliflaringiz sizni totalitarizmda ayblab tanqid qilmoqda” desa, unga javoban I.A.Karimov: “Ha, men buni yaxshi bilaman. Muxoliflarim meni diktator qilib ko‘rsatishni juda xohlaydilar. Tan olaman, ehtimol mening harakatimda avtoritarizm nishonalari bordir. Ammo men buni faqat bir narsa bilan izohlayman: tarixning muayyan davrlarida, haqiqiy davlatchilik qaror topayotgan paytda ayniqsa bir tizimdan ikkinchisiga o‘tish davrida har holda kuchli hokimiyat zarur. Qon to‘kilishiga va qarama-qarshilikka yo‘l qo‘ymaslik, mintaqada millatlararo va fuqarolarning totuvligi, tinchligi va barqarorligini saqlash uchun shunday bo‘lishi zarur. Bu yo‘lda men jonimni fido qilishga tayyorman” deb javob bergan edi.

O‘zbekiston xalqining istiqlol yillarida erishgan eng katta yutug‘i-mamlakatda o‘rnatilgan tinchlik, barqarorlik, tartib intizomdir. Respublika aholisining mutlaq ko‘pchiligi (97,5 foizi) bunday sharoitga bevosita I.A.Karimovning yetakchiligida erishildi deb hisoblaydi.

O‘zbek xalqi 2000-yil 9-yanvarda bo‘lib o‘tgan Prezident saylovida o‘zining Islom Karimovga nisbatan chuqur hurmati va ehtiromini izhor qildi. Saylovchilarning 91,9 foizi Islom Karimovga ovoz berib yana bir karra davlat rahbari etib sayladi.

I.A.Karimov yangi davrning jahon miqyosidagi davlat arbobi, O‘zbekiston xalqining buyuk yo‘lboshchisi sifatida mamlakatninggina emas, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning qator nishonlari va faxriy unvonlari bilan taqdirlandi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurilishining Konstitutsiyaviy va huquqiy asoslarini yaratish va yuksak taraqqiyotimizning kafolati rolini muvaffaqiyatli bajarmoqda.

Mustaqillik tomon qo‘yilgan dastlabki qadamlardan biri-bo‘lajak suveren Respublikaning Konstitutsiyasini tayyorlash g‘oyasi I.A.Karimov tomonidan 1990-yilni mart oyida ilgari surildi. Ko‘p o‘tmay shu yilning iyun oyida Oliy Kengashning ikkinchi sessiyasida Respublika Prezidenti rahbarligida 64 kishidan iborat Konstitutsiyaviy Komissiya tuzildi.

Komissiya Konstitutsiya loyihasini tayyorlash jarayonida xalqaro huquq qoidalariga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining hujjatlariga, Butunjahon inson huquqlari Deklaratsiyasiga amal qildi. Dunyoning koʻpgina taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlarining konstitutsiyaviy hujjatlari oʻrganib chiqildi. Shu bilan birga boy tariximizdagi davlat boshqaruv tizimi va adolatli qonunshunoslik anʼanalari ham chuqur oʻrganildi.

Mustaqil Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oʻz mohiyati va ahamiyati jihatidan Sovet davridagi Konstitutsiyalardan, xususan, 1978-yilgi Oʻzbekiston SSR Konstitutsiyasidan tubdan farq qilishi kerak edi. Sotsialistik Oʻzbekiston Konstitutsiyasi oʻzining mazmuni, ruhi bilan sobiq Ittifoq Konstitutsiyasidan kelib chiqib, Oʻzbekistonni bu Ittifoqqa qoʻl-oyogʻi bilan zanjirband etdi. Sinfiylik, partiyaviylik gʻoyalari bilan sugʻorilgan Konstitutsiya gʻoyat darajada mafkuralashtirildi va siyosiylashtirildi. Inson manfaatlariga nisbatan davlat manfaatlari ustun qoʻyildi.

Mustaqillik Konstitutsiyasi loyihasida Oʻzbekistonda yuz bergan tarixiy oʻzgarishlar hisobga olindi. Xususan, Oʻzbekiston mustaqilligini qonunlashtirish, iqtisodiyotda bozor munosabatlariga oʻtishning shartlari, davlat va jamiyat qurilishida demokratik tizimning tamoyillari, inson huquqining ustuvorligi ifodasini topdi. Konstitutsiyada bayon etiladigan masalalarni birma-bir oʻrganib chiqish uchun 35 kishidan iborat ishchi guruh va har bir boʻlimini alohida tayyorlaydigan kichik guruhlardan iborat komissiyalar tashkil etildi.

Ishchi guruh va komissiyalar 1991-yilni oktyabrida Konstitutsiyaning birinchi, 1992-yilni bahorida ikkinchi nusxasini tayyorladi va shu nusxasi 1992-yilni 26-sentabrida umumxalq muhokamasi uchun matbuotda eʼlon qilindi. Joylardan tushgan minglab takliflar oʻrganib chiqilib, noyabr oyida ikkinchi marta matbuotda bosib chiqildi.

Tuzatishlar va aniqlashlardan keyin mustaqil Oʻzbekiston Respublikasining Asosiy Qonuni 1992-yili 8-dekabrda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq XI sessiyasida qabul qilindi.

Mustaqillik Konstitutsiyasi muqaddima, olti boʻlim, 26 bob, 128 moddadan iborat boʻldi. Birinchi boʻlimda Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari bayon etilib, unda Davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligi, tashqi siyosatning bosh yoʻnalishlari oʻz ifodasini topdi. Asosiy Qonunning Ikkinchi boʻlimi 35 moddadan iborat boʻlib, Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari,

erkinliklari va burchlariga bag‘ishlangan. Bunda, O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklariga ega ekanligi, O‘zbekistonning butun hududida yagona fuqarolik o‘rnatilganligi, fuqarolarning shaxsiy huquqlari va erkinliklari, vijdon erkinligi va uning kafolatlanishi yoritilgan. Insonning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga bevosita hamda o‘z vakillari orqali qatnashishlari, siyosiy partiyalar va harakatlarga qo‘shilish huquqlari ta’kidlab ko‘rsatilgan.

Asosiy Qonunda fuqarolarning mulkdor bo‘lishi, mehnat qilish, nafaqa olish, o‘z vaqtida dam olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish huquqlariga ega ekanligi aniq qilib bayon etilgan va bu huquqlari va erkinliklari davlat tomonidan ta’minlanadi deb taqqoslab qo‘yilgan. Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan burchlarni, chunonchi, qonunlarga rioya qilish, xalqimizning tarixiy, ma’naviy meroslarini avaylab saqlash, atrof tabiiy muhitni asrash, soliqlar va mahalliy yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘lash, Vatanni himoya qilish kabi burchlari majburiy ekanligi ta’kidlangan.

Konstitutsiyaning “Jamiyat va shaxs” bo‘limida O‘zbekiston iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslanishi, uning negizini xilma-xil mulk shakllarining teng huquqga ega ekanligiga kafolat berildi. Ishbilarmonlik, tadbirkorlik va tashabbuskorlik harakatiga keng yo‘l ochib berildi va mulkdorlar tabaqasini vujudga keltirish tamoyillari ishlab chiqildi. Jamiyat ijtimoiy birlashmalari, oila va ommaviy axborot vositalarining o‘rni aniq bayon etib berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi, O‘zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘zaro munosabatlariga maxsus to‘rtinchi bo‘lim ajratilgan.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining tashkil etilishi beshinchi bo‘limda (50 modda) o‘z ifodasini topgan. Davlat va hokimiyat organlari, Prezident, Vazirlar mahkamasining vakolatlari, ularni shakllantirish yo‘llari aniq va ravshan bayon etilgan. Shu bilan birga bu bo‘limda mahalliy hokimiyat organlari, sud va Prokuratura, Davlat Mudofaasi masalalari o‘z ifodasini topgan.

Mustaqillik Konstitutsiyasining qabul qilinishi g‘oyat katta siyosiy, huquqiy va xalqaro ahamiyatga ega bo‘ldi. Asosiy Qonunimiz mamlakatda demokratik tamoyillarni amalga oshirish, xalqimizni huquqiy ma’naviy va mafkuraviy tarbiyalashda katta o‘rin tutmoqda.

Prezident I.Karimovning “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoyishiga

asosan Konstitutsiyaning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganish, yosh avlodning huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatini yuksaltirish, uning mazmun-mohiyatini targ‘ib qilish uchun 20 kishidan iborat maxsus komissiya tuzildi. Prezidentimizning Asosiy Qonunni ”...bolalar bog‘chasidan boshlab o‘rganishni, maktablarda darslik tariqasida o‘qitishni, oliy o‘quv yurtlarida maxsus bir dars sifatida o‘rganishni barcha mutasaddi rahbar va tashkilotlarga topshiriq tariqasidagi...” ko‘rsatmasi butun Respublikada Mustaqillik Konstitutsiyasini tashviqot va targ‘ibot qilishning dasturi bo‘ldi.

18-mavzu. O‘zbekistonda huquqiy - demokratik davlat va fuqarolik jamiyat asoslarining barpo etilishi O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li. Siyosiy islohotlar

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik orzu-umidlari ifodasi bo‘lgan mustaqillikning asosiy xususiyati milliy, umuminsoniy qadriyatlarni ta’minlaydigan huquqiy-demokratik davlat qurish edi.

Mustaqillik yillari milliy davlatchilik asoslarini qurish yillari bo‘ldi. O‘tgan yillar ko‘hna tariximizni teran his qilish, hozirgi jahon jarayonida o‘z o‘rnimizni egallash davri bo‘ldi. Bu davrda biz o‘zligimizni anglab, tarixiy yo‘limizni uzil-kesil tanlab oldik.

Mustaqil O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov tarixiy an’analarga, dunyo tajribalariga, o‘lkaning o‘ziga xos tomonlariga tayangan holda jamiyatni siyosiy jihatdan tubdan isloh qilish yo‘llarini ishlab chiqdi. Bu jarayonda ikkita bosh vazifa:

1.Eski ma’muriy tizimni tugatish va hokimiyat boshqaruv organlarini qayta qurish;

2.Yangi davlatchilikning huquqiy va siyosiy asoslarini yaratish, davlatchilikda yangi markaziy va mahalliy boshqaruv tizimini shakllantirish masalalarini hal qilishdan iboratdir.

Jamiyatda qonuniylikning g‘alaba qilishi, fuqarolarni ijtimoiy-siyosiy va boshqa huquqlarini himoyasi uchun hokimiyatlarning bo‘linish prinsipi haqli ravishda amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida hokimiyatning bo‘linishi tamoyili konstitutsiya darajasida mustahkamlandi.

Davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirishning yo‘llarini ko‘rsatib berar ekan, Prezident I.A.Karimov eng avvalo bu vazifa hokimiyat barcha

tarmoqlarning bir-biridan mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlashga bog‘liqligini uqtiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining huquqiy holati Konstitutsiyaning V-bo‘lim XVIII bobida va 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan. Bu qonunlarga ko‘ra, Oliy Majlis Oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Sobiq Ittifoqdan qolgan qonunlarni o‘zgartirish, mamlakat hayoti uchun zarur o‘zgartirishlarni amalga oshirish, demokratik tamoyillar asosida Oliy Majlisni shakllantirish uchun 1994-yil 25-dekabrga saylovlar belgilandi.

1993-yilni 28-dekabrida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra respublika parlamentiga saylovlar umumiy, teng, to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasi I-chaqiriq Oliy Majlisiga saylov respublikamiz siyosiy hayotida ulkan yutuq bo‘lib, bunda 250 deputatdan iborat Oliy Majlis - Yangi Parlament demokratik va ko‘ppartiyaviylik asosida tuzildi.

Oliy Majlis faoliyatini erkinlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi II-chaqiriq Oliy Majlisining VII-sessiyasida ikki palatali parlament tuzish to‘g‘risida umumxalq referendumi o‘tkazishga qaror qilindi. Shu asosda 2002-yil 27-yanvarda o‘tgan umumxalq referendumida qatnashgan fuqarolarning 93,65 foizi parlamentni ikki palatadan tuzilishini qo‘llab-quvvatladi.

1995-yil 23-24-fevralda chaqirilgan birinchi sessiyada O‘zbekiston parlamenti hokimiyat vakillik organlaridan saylangan 120 kishidan iborat deputatlar blokini, 69 deputatdan tarkib topgan Xalq Demokratik partiyasi fraksiyasini, 47 deputatni uyushtirgan “Adolat” sotsial-demokratik fraksiyasini, 14 deputat ishtirokida “Vatan taraqqiyoti” partiyasi fraksiyasini ro‘yxatga oldi. Oliy Majlis sessiyalarida va uning qo‘mitalarida olib borilayotgan ishlar asosan mamlakatimizni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotini yuqori bosqichga ko‘tarish, qonunchilikni sifat darajasini yuksaltirishga qaratilgan. Qonunlar qabul qilinmasdan oldin umumxalq muhokamasiga taqdim qilinishi islohotlarni amalga oshirishga ijobiy ta’sir qildi.

1997-aprelda Oliy Majlis tarkibida Inson huquqlari bo‘yicha vakil (ombudsman) tashkil qilinganligi haqida qaror qabul qilindi.

Ombudsman jahondagi 85 dan ortiq mamlakatda bo‘lib, uning huquqiy holatini aniq ravshan belgilab beruvchi konstitutsiyaviy qonun Markaziy Osiyo davlatlarida birinchi huquqiy hujjatdir.

Ushbu qonunda:

“Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) mansabdor shaxslar, tashkilotlar va davlat organlarining inson huquqi, erki va qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilinishini ta’minlashga ko‘maklashish maqsadida faoliyat ko‘rsatadi”,-deb ta’kidlangan.

Vakil Oliy Majlisning yordamchi instituti bo‘lib, u ijtimoiy manfaatlarning muvozanatiga, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha eng maqbul davlat tizimi yaratilishiga ko‘maklashadi. Qonun ombudsman institutining umumiy konsepsiyasi va jahon amaliyotining uyg‘unlashgan shakli sifatida inson huquqlari vakili faoliyatining asosiy qoida-qonuniylik, oshkoralik, adolatparvarlik, insonparvarlik har bir kishi uchun ochiq ekanligini tasdiqlaydi.

Ombudsman fuqarolarning ariza va murojaatlarini ko‘rib chiqishda, zarur axborotni talab qilib olishda mansabdor shaxslar va davlat organlari bilan hamkorlik qilmoqda

Qonun qabul qilingunga qadar ham Inson huquqlari bo‘yicha vakil mamlakat Konstitutsiyasi doirasida faoliyat ko‘rsatib keldi. Jumladan, birgina 1996-yilda Inson huquqlari bo‘yicha vakil hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi bo‘yicha komissiya a’zolari 700 dan ortiq murojaatni ko‘rib chiqdi. Ana shunday arizalarning tegishli qismidagi dalillar o‘z tasdig‘ini topgan va zarur choralar ko‘rilgan.

Inson huquqlari bo‘yicha vakil BMTning Inson huquqlari bo‘yicha komissiyasining Jenevada bo‘lib o‘tgan 52-sessiyasining majlisida qatnashdi va so‘zga chiqdi. Chet ellarga xizmat safari davomida Inson huquqlari bo‘yicha vakil BMT seminarida, BMTning Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlaridagi vakillarining mintaqaviy uchrashuvida so‘zga chiqdi. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning bir qator kengashlari hamda seminarlari ishida qatnashdi.

Inson huquqlari bo‘yicha vakil faoliyatini tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda huquqiy, insonparvarlik, demokratik va fuqarolik jamiyat qurilishi uchun mustahkam poydevor qo‘yildi

Oliy Majlis “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi to‘g‘risida”, “O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari

to‘g‘risida”, “Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”, “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida” qonunlarni, Mehnat kodeksi (1995), “Fuqarolik Kodeksi”ning (1996) (birinchi va ikkinchi qismlari) kabi ko‘plab qonunlar va qarorlar qabul qildi.

1999-yil 5 va 19-dekabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisiga saylovlar bo‘lib, saylangan deputatlardan O‘zbekiston Parlamentining yangi tarkibi shakllandi.

Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikkinchi sessiyasi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis birinchi sessiyasidagi ma’ruzasidan kelib chiqadigan “2000-2002-yillarga mo‘ljallangan qonunchilik va nazorat faoliyatining ustivorlik jihatlari to‘g‘risida”gi hujjatni tasdiqladi.

Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IV-sessiyasida (2000-yil 14-dekabr) Oliy Majlisning O‘zbekiston xalqiga Murojaaatida: “Yangi asr mamlakat uchun yangilanish va taraqqiyot davriga aylanishiga ishonamiz. Shu boisdan ham mustaqil yurtimizning yorug‘ istiqboli uchun barchamiz hamjihat bo‘lib kurashaylik. Maqsadimiz -Vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi, xalq farovonligi va kelajak avlodning baxt-saodatidir”-deyilgan.

Mustaqillikning tayanch nuqtalaridan biri prezidentlik boshqaruvining joriy qilinishi bo‘ldi. Bu bilan davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimi shakllana boshladiki, Prezidentlik boshqaruvi shu tizimning o‘zagidir.

1991-yil 29-dekabrda O‘zbekistonda prezidentlik lavozimiga umumxalq saylovi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston mustaqillik tomon yo‘l tutar ekan, birinchi kunlaridan boshlab, uning boshida Islom Abdug‘aniyevich Karimov turdi. Asrlarga teng shu qisqa vaqtda erishilgan yutuqlar: mamlakatda o‘rnatilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorlik, tarixiy, milliy va diniy qadriyatlarimizning tiklanishi jamiyatda o‘rnatilgan osoyishtalikni, mustaqil O‘zbekiston Respublikasining xalqaro hamjamiyatda tutgan o‘rnining ortib borishini butun xalqimiz, jahonning yirik davlat arboblari Islom Karimov nomi bilan bog‘laydilar.

Mamlakatimizda barcha sohani qamrab olgan keng miqyosli islohotlarni uzluksiz davom ettirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 26-martda Prezident I. Karimovning vakolatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirish yuzasidan umumxalq referendumini o‘tkazishga qaror qildi. 2000 yil 11-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi

Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisi -2000 yil 9 yanvar kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi natijalari tasdiqlandi. Shu kuni Fidokorlar milliy demokratik partiyasidan nomzodi ko‘rsatilgan Islom Karimov uchun 11 million 147 ming 621 saylovchi yoki saylovchilarning 91,90 foizi ovoz berdi. O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzodi ko‘rsatilgan Abdulhafiz Jalolov uchun 505 ming 161 saylovchi 4,17 foiz saylovchi ovoz berdi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi Qonunning 35-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Islom Abdug‘aniyevich Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanganligi to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Amaldagi Konstitutsiyada Prezident davlat va ijro etuvchi hokimiyatning boshlig‘i qilib belgilanishi ijro etuvchi hokimiyatni kuchaytirishga qaratilgan tadbir deb aytish mumkin. Mamlakatimizning ijro etuvchi hokimiyatining tarkibi Prezident tomonidan tayinlanib, Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekistonda prezidentlik instituti o‘rnatilgan dastlabki davrda Vazirlar kengashi hukumat sifatidagi huquqiy maqomini va vakolatlarini saqlab qolgan edi. Uning 1990-yil 30-martida Oliy Kengash tasdiqlagan yangi tarkibi 41 kishi, ya’ni Rayis, Bosh Vazir, uning ikki birinchi o‘rinbosari, to‘rt o‘rinbosar, 19 vazir, 14 davlat qo‘mitasi rayisidan iborat edi. Respublikada demokratik jamiyat qurish borasida boshqaruv idoralari faoliyati takomillashtirilib borildi. 1995 yil 5 mayda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning II sessiyasi bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibi to‘g‘risidagi Prezidentning Farmonini tasdiqlash masalasi ko‘rildi va sessiyada Vazirlar Mahkamasining 35 kishidan iborat yangi tarkibi tasdiqlandi.

Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi sessiyasi ikkinchi yig‘ilishida (2000 y. 11 fevral) mamlakatimiz Prezidenti tomonidan Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov yangi hukumatning mas’uliyatli faoliyatini quyidagicha bayon qildi:

“Vatanimiz o‘z taraqqiyoti yo‘lida yangi ufqlar va yangi maqsadlarga intilayotgan bir paytda, jamiyatimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarini yangi bosqichga ko‘tarish, ya’ni, hayotimizni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish davrida bu javobgarlik nihoyatda ortadi.

Bu lavozimlarga tavsiya etilayotgan nomzodlar bir haqiqatni chuqur anglab, o‘z ongidan, yuragidan o‘tkazishlari kerakki,-deydi I.A.Karimov,-odamlarimizning ertangi hayotdan kutayotgan orzu-umidlarining ro‘yobga chiqishi, Vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi, xalq farovonligi bu rahbarlarning o‘z vazifasini halol va malakali bajarishga, qolaversa, fidoyiligiga ko‘p jihatdan bog‘liq”.

Boshqaruv tizimining boshqa bo‘g‘inlari ham bozor iqtisodining O‘zbekistonga xos yo‘liga moslashtirildi.

1991-yil 6-sentabrida Respublika mustaqilligi hamda hududiy yaxlitligini himoya qilish maqsadida Mudofaa ishlari vazirligi tuzildi. Shu maqsadlarni ko‘zlab uning tarkibida 1992 yil yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasi milliy gvardiya brigadasi barpo etish lozim deb topildi. 1992-yil iyulida u Mudofaa Vazirligiga bo‘ysundirildi.

Mustaqil O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan shug‘ullanuvchi davlat idoralari tizimida tubdan o‘zgarishlar amalga oshirildi. Mamlakatda 1990-yil dekabrida Davlat reja qo‘mitasi Iqtisod komissiyasiga aylantirildi. 1992-yil 5-avgustida esa ushbu qo‘mita va statistika davlat qo‘mitasi negizida Vazirlar Mahkamasining Istiqbolni belgilash va statistika davlat qo‘mitasi hamda joylarda uning tegishli idoralari barpo etildi. 1997-yildan ushbu Qo‘mita Makroiqtisodiyot Vazirligiga aylantirildi.

Xalq xo‘jaligini boshqarishning yangi usuli sifatida konsernlar vujudga keltirildi. Bu avvalo iqtisodiy mustaqillik va bozor iqtisodiga o‘tish zaruriyati bilan bog‘liq bo‘ldi. “O‘zdonmahsulot”, “O‘zbekneftgaz” va boshqa ko‘plab konsernlar shular jumlasidandir. 1991-yil 7-sentabrida O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil qilindi.

Yuqoridagi keltirilgan ma’lumotlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, Sobiq Ittifoq manfaatlarini birinchi galda qondiruvchi idoralar tugatilib, yangi shakldagi qo‘mitalar, konsernlar va vazirliklar tashkil etildi. Bu bilan yangicha iqtisodiy munosabatlar sharoitida o‘z milliy taraqqiyotiga mos, vatan mustaqilligini mustahkamlovchi boshqaruv tizimi vujudga keltirildi.

O‘zbekistonda davlatning boshqaruvni to‘liq monopoliya qilishdan cheklanish va fuqarolik jamiyatini vujudga keltirish, aholi turli tabaqalarining hokimiyat tizimida ishtirok etishini ta’minlashning yana bir yo‘li mahalliy davlat hokimiyatlarini shakllantirish ekanligi e’tirof etildi.

1990-1992-yillari O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi qabul qilingunicha bo‘lgan davrda mahalliy hokimiyat

organlari tizimini shakllantirish va ish faoliyatini takomillashtirish maqsadida bir necha huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Bular orasida 1992-yil 4-yanvarda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat organlarini qayta tuzish to‘g‘risidagi” qonun alohida ahamiyat kasb etdi. Bu qonun asosida mahalliy hokimiyat organlari tizimida butunlay yangi organ-hokimlik va hokim lavozimi ta’sis etildi va uning vakillik organlariga boshchilik qilishi tamoyillari belgilab qo‘yildi.

Ijro etuvchi hokimiyat organlarida bog‘liqlikni kuchaytirish maqsadida, viloyatlar hokimlari O‘zbekiston Prezidenti tomonidan, tuman va shahar hokimlari viloyat hokimi tomonidan lavozimiga tayinlanishi va lavozimidan ozod qilinishi hamda bu masalalar tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanishi tartiblari belgilandi. Partiya organlarining qaramligiga tushib qolgan ijro organlari-ijroiya komitetlari tugatildi

Hokimlarning huquqiy vakolatining asosi, avvalo, Konstitutsiyaning 99 va 102 moddalari va yuqorida tilga olingan qonunning 1- moddasida belgilangan.

Konstitutsiya va qonun normalarini umumlashtirsak, hokim tegishli hududda vakillik hokimiyatiga ham, ijro hokimiyatiga ham boshchilik qiladi va ayni paytda shu yerdagi mansabdor shaxs hisoblanadi.

Hokimlar mahalliy hokimiyatni boshqarar ekanlar, ular O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti boshqaradigan yaxlit ijro hokimiyat organlari tizimi tarkibiga kiradi.

Shuningdek “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonun (1993-yil, sentyabr), “Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylovlar to‘g‘risida”gi Qonun (1994-yil, may) kabi hujjatlar muhim o‘rin egallaydiki, ular kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Oliy Majlis palatalarining (2005-yil 28-yanvar) majlisida demokratik o‘zgarishlar mahalliy axborot vositalarining mustaqilligi va erkinligini ta’minlamasdan turib mumkin emas deb qayd etdi.

2004-yilning 1-yanvar oyiga ko‘ra mamlakatimizda 571 gazeta, 140 jurnal, 4 axborot agentligi, 85 teleradio va kabel studiyasi, 298 elektron axborot vositalari ishlamoqda.

So‘nggi yillarda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish borasida muhim tadbirlar amalga oshirildi.

2002-yilning 27-yanvarida umumxalq referendumi o‘tkazilib bunda O‘zbekistonda ikki palatali parlamentga o‘tish, Prezident vakolatini besh

yildan yetti yilga uzaytirish masalalari hal qilindi. II-chaqiriq Oliy Majlisning X-sessiyasi (2002-yil dekabr) «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senat to‘g‘risida», «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida» qonunlar qabul qildi.

2003-yilning 24-25-aprel II-chaqiriq Oliy Majlisning XI-sessiyasi O‘zbekiston respublikasi Konstitutsiyasiga tegishli o‘zragishlar kiritadi. Xususan, Prezident vakolatining bir qismi yuqori palata deb nomlanuvchi Senatga o‘tadi.

Prezident Vazirlar Mahkamasi rayisi lavozimidan voz kechadi; Quyi palata deb nomlanuvchi Qonunchilik palatasida deputatlar doimiy ravishda ish olib boradi.

2004-yilning 26-dekabri va 2005 yilning 9-yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikki palatasi saylovlar bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston fuqarolarining faol ishtiroki va mahalliy hamda xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlar vakillarining nazoratidan o‘tgan saylov natijasida qonunchilik palatasiga 120 deputatlar saylandi. Bular Xalq demokratik partiyasidan 28 nafar, Liberal-demokratik partiyasidan 41,Fidokorlar milliy demokratik partiyasidan 18, Milliy tikllanish demokratik partiyasidan 11, Adolat sotsial demokratik partiyasidan 10 nafar deputatlar saylandi. 12 deputat tashabbuskor guruhlardandir. Mahalliy hokimiyat organlaridan yuqori palata Senatga har viloyatdan 6 nafardan jami 84 senator saylandi, yana 16 senator Prezident tomonidan ko‘rsatilgan.

O‘zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyat asoslarini yaratilishi

Mamlakatimiz yangi asrga kirar ekan, jamiyatda siyosiy, demokratik islohotlarni chuqurlashtirishda yangi, yuqori bosqichga ko‘tarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o‘n to‘rtinchi sessiyasidagi ma’ruzasida (1999 yil, 14 aprel) O‘zbekistonning XXI asrdagi taraqqiyot strategiyasining asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsatib berdi. Shulardan **birinchi ustivor yo‘nalish-mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish.**

Siyosiy sohani erkinlashtirish borasida:

-avvalambor, aholining siyosiy faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish zarur.

Demokratiyaning eng muhim tamoyili-odamlarning saylov huquqini, o‘z xohish-irodasini erkin ifodalash, o‘z manfaatlarini ro‘yobga chiqarish va himoya qilish uchun haqiqiy shart-sharoit, qonuniy-huquqiy zamin yaratib berish lozim.

Davlat qurilish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini erkinlashtirish masalasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi vazifalar hokimiyat barcha tarmoqlarini bir-biridan mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlash, hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolarni o‘z-o‘zini boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tkaza borish, ularning haq-huquqlari va erkinliklarini muhofaza etishni kuchaytirishdan iborat.

Fuqarolik jamiyati qurishda fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlariga katta umid bog‘lanadi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov: “Biz fuqarolik jamiyati qurishga intilmoqdamiz. Buning ma’nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya’ni o‘z-o‘zini boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir”-deydi.

O‘z-o‘zini boshqarish organlarini tashkil qilishda, shakllantirishda O‘zbekistonning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ushbu masalani hal qilishga milliy an’analarni, tarixiy qadriyatlarni tiklash, aholining tub manfaatlariga mos keluvchi yo‘lni tanlash nuqtai nazaridan yondashish bo‘ldi. Xususan, o‘z-o‘zini boshqarishda asosiy tayanch qilib mahallalar belgilandi. Ular inson qalbida Vatan tuyg‘usining shakllanishiga, milliy g‘ururning vujudga kelishida, millatchilik illatlaridan xoli bo‘lishda katta ta’sir ko‘rsatib kelgan.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati demokratik jarayonlarni rivojlantirish imkoniyatini kuchaytirmoqda, bu esa o‘z navbatida asosiy maqsad - fuqarolik jamiyatini qurishga ko‘maklashmoqda.

O‘z-o‘zini boshqarish muassasalari faoliyatining kengayishi bevosita mahallalarning mavqeyini kuchaytirish bilan bog‘liq. O‘z-o‘zini boshqarish organlari yoki mahallalarning vazifasi, aholini davlat va jamiyat ishlarida ishtirokini ta’minlash kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishda ishtirok etish bilan cheklanib qolmaydi. Ularning muhim vazifasi har bir shaxsning ongini, ma’naviy kamolatini oshirish uchun, millatchilik, mahalliychilik kabi salbiy jihatlarni yo‘qotish uchun ish olib borish va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analarga, Vatanga, davlatga va boshqa fuqarolarning manfaatiga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalashdir.

Shuningdek, mahallalarda “Mahalla” xayriya jamg‘armasi yordamga muhtoj oilalarga yordam ko‘rsatmoqda. Bu jamg‘arma 1994-yilda 200 ga yaqin shaxs va oilaga 41 ming 189 so‘mlik yordam ko‘rsatgan.

Faqat O‘zbekistonga xos bo‘lgan va aynan mahalla bilan bog‘liq bo‘lgan “Korxona-mahalla” iqtisodiy hududni tashkil qilish masalasi katta umid uyg‘otmoqda. 1995-yili davomida respublika bo‘yicha shu turdagi 204 ta kichik va xususiy korxona tashkil qilinib, ularning faoliyati orqali 3300 kishi ish bilan ta’minlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 13-yanvarda “Aholini aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta’minlashda fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari rolini oshirish to‘g‘risida”gi Farmoni ijtimoiy himoya sohasida o‘z-o‘zini boshqarish organlariga yangi vakolatlar berishni ko‘zda tutadi: 1) fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari ijtimoiy ro‘lini oshirish; 2) hududlarni ijtimoiy rivojlantirish; 3)muhtoj oilalarga aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy madad ko‘rsatishni takomillashtirish.

Davlat tomonidan bajariladigan vazifalarni fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlariga o‘tkazilishi, nodavlat tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, undagi jamoa ruhi va tabiatini mustahkamlashni, samaradorligini oshirishni talab qiladi. 1999-yil aprel oyida Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan “Fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri aynan shu maqsadga qaratilgan.

O‘zbekistonda mahalla timsolida o‘z-o‘zini boshqaruvchi ijtimoiy tashkilotlarning noyob shakli azaldan mavjud bo‘lib kelgan. Mahallalarda obodonchilikka, xalqning ma’murligiga, el-yurt farovonligiga xizmat qiladigan ishlar soni ko‘paydi. Mahalla davr o‘zgarishlariga, talablariga moslasha boshladi. Qadimiy va navqiron mahalla jonlanib, unga fayz kirdi.

O‘z-o‘zini boshqaruvning moliyaviy faoliyatini mustahkamlovchi choralardan yana biri-aholiga kompleks tarzdagi savdo, mayishiy va madaniy xizmatlar ko‘rsatadigan guzarlar faoliyatidir.

Bunday iqtisodiy erkinliklar fuqarolarda mustaqil O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va siyosiy islohotlarga ishonchini mustahkamlaydi. Shuningdek, har bir shaxsning fikri, ovozi e’tiborga olinishi, ularni fuqarolik jamiyatining a’zosi ekanligini his qilishlari uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Oliy Majlis II chaqiriq 1-majlisida (2000-yil 22.01) Prezident I.A.Karimov o‘zining “Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-

pirovard maqsadimiz” nomli ma’ruzasida ushbu masalaning dolzarbligini shunday uqtiradi:

Odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati, siyosiy faolligi yaksalib borgani sari, davlat vazifalarini nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tkazib borish zarur.

Bu borada o‘zini-o‘zi boshqaradigan idoralarning, mahallalarning nufuzini va mavqeyini oshirish, ularga ko‘proq huquqlar berish katta ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik jamiyatining mustahkam asoslarini barpo etish yo‘lidagi ishlarimizning mazmun-mohiyatini ham aynan mana shu masala tashkil etadi.

2003-yilning noyabr-dekabr oylarida fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga (mahallalarga) navbatdagi saylovlar bo‘lib o‘tdi. Ro‘yxatga olingan saylovchilardan 12.mln.dan ortiq kishi, ya’ni 97% ovoz berishda qatnashdi. (2001 yilgi saylovlardan 85% qatnashgan edi.). Jami 8.360 nafar oqsoqollar va 80 mingdan ko‘proq maslahatchilar saylandi.

Davlat hokimiyati tizimiga kiruvchi hokimiyatlardan biri sud hokimiyatidir. Sud hokimiyati boshqa hokimiyatlar kabi xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda qabul qilingan qonunlar asosida o‘z vakolatlarini amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasida sud tizimi quyidagicha: besh yil muddatga saylanadigan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Oliy sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xo‘jalik sudi, shu muddatga tayinlanadigan viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar sudlari, viloyat xo‘jalik sudlari, harbiy sudlar.

Mazkur sudlarning huquqiy holati O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunida bayon etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi-fuqarolik, jinoiy va ma’muriy sudlov sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. Shu bilan birga og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etgan bir guruh shaxslarga; oldin sudlanmaganlarga, biron bir joyda ishlamasdan, mo‘may pul topish yo‘liga o‘tib ketganlarga nisbatan belgilangan jazolarni qonun kuchidan to‘la foydalanilmagan ishlarning jazo qismini yengil deb bekor qilib, og‘irroq jazolashga o‘z ko‘rsatmasini beradi.

Respublika Oliy sudi 1994-yilda 149 kishiga nisbatan quyi sudlar tomonidan tayinlangan jazolar og‘ir deb topilganligi sababli hukmlar o‘zgartirilib, jazolar qisqartirilgan bo‘lsa, 1995-yilda 247 kishiga nisbatan jazolar og‘ir deb topilib, hukmlar o‘zgartirildi, 25 shaxsga nisbatan jinoiy ishlar sudlanganlarning harakatida jinoyat tarkibi yo‘qligi sababli harakatdan to‘xtatildi.

Og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etganligi uchun 1994-yilda quyi sudlar tomonidan 89 kishiga nisbatan belgilangan jazolar yengil deb topilib, hukmlar bekor qilingan bo‘lsa, 1995-yilda 70 kishiga nisbatan quyi sudlar belgilangan jazolar yengil deb, hukmlar bekor qilindi va yangidan sud majlisida ko‘rish uchun yuborildi.

O‘zbekistonda sud tizimini isloh qilish, sud hokimiyatini shakllantirishda ham bir muncha ishlar qilindi. Sud tuzilishi va sudlov ishlarini yurgizishga oid barcha demokratik konstitutsiyaviy tamoyillar yanada rivojlantirildi. 1995-yil 30-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti - harakatlar va qarorlar ustida sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”gi qonun fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini sud orqali himoya qilishning huquqiy asoslarini yaratdi.

Respublika xo‘jalik sudlari istiqlolning so‘nggi yillarida o‘zlarining faoliyatini aniq iqtisodiy vazifalar bilan bog‘lab olib bormoqda. Xususan xo‘jalik sudlari 1995-2000 yillarda jami 128.000 nizolarni ko‘rib chiqqan va 271,4 mlrd. so‘m mablag‘ni da’vogarlarga undirib bergan. Keyingi 6 yil mobaynida xo‘jalik sudlarining qarorlari asosida davlat boji va jarimalar hisobidan respublika byudjetiga 4,3 mlrd. so‘m mablag‘ undirilgan.

2000-yilning 1-yarmida mazkur tizimda 17.000 dan ziyod ish ko‘rib chiqildi. Natijada, 53,4 mlrd. so‘mlik hajmdagi zarar da’vogarlar foydasiga undirib berildi. Mamlakat budjetiga 550 mln. so‘m tushum tushirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq VI sessiyasida (2001-yil 29-avgust) “Adolat qonun ustivorligida” nomli ma’ruzasida sog‘lom jamiyat uchun jinoyatchini jazolashdan ko‘ra, jinoyatning oldini olish muhim ekanligini uqtirib o‘tdi. Ma’ruzada O‘zbekistonning demokratiya va taraqqiyot yo‘lidan mustaqil rivojlantirishning o‘tgan o‘n yil ichida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida sodir etilgan tub o‘zgartirishlarning muhimligi ta’kidlanib, sud-huquq tizimini takomillashtirish, jinoyat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini insonparvarlik, adolat, huquqiy fuqarolik jamiyati prinsiplariga muvofiq

ravishda erkinlashtirish masalasiga alohida e’tibor berildi. Davlatimiz rahbari sudlar faoliyatiga baho berib “Sud bugungi kunda avvalgidek hukmron kommunistik tizimning qatag‘on va jazolash apparati emas, balki u har bir inson va fuqaroning huquq hamda erkinliklarni ishonchli tarzda qo‘riqlash va himoya qilishga qaratilgan chinakam mustaqil davlat institutiga aylanmoqda. Fuqarolarning sudga ishonchi mustahkamlanib bormoqda”,-dedi. Shuningdek, ma’ruzada sud hokimiyati tizimidagi kamchiliklarga ham to‘xtalib o‘tildi. Bu borada Prezident: “...afsuski, sudyalar, prokuratura va tergov organlari xodimlari, bir so‘z bilan aytganda, qabul qilingan yangi qonunlarni hayotga tatbiq etishi lozim bo‘lgan kishilarning dunyoqarashi va tafakkuri ancha qiyinchilik bilan o‘zgarayapti. Eng avvalo jazolashning repressiv, ozodlikdan mahrum qilish hollarini qisqartirish hisobiga qonunchilikning adolat va insoniylik kabi tamoyillarining kuchayishini va amalda qo‘llanishini ta’minlashimiz zarur”-deydi. Ma’ruzada Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga kiritilayotgan o‘zgarishlar, masalan, 110 turdagi uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarning ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar toifasiga o‘tkazish, 12 turdagi jinoyatni og‘ir toifadan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar toifasiga, 7 turini esa o‘ta og‘ir jinoyatlar toifasidan og‘ir jinoyatlar toifasiga o‘tkazish haqidagi takliflar bayon qilindi. Shuningdek, iqtisodiy sohada jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan iqtisodiy ta’sir choralarini qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish zarurligi, butun jahonda muhokama etilayotgan muhim masalalardan biri-o‘lim jazosini jinoiy jazo chorasi sifatida qolayotganligi bilan bog‘liq muammolar, qonunchiligimizda jinoiy jazo turi sifatida mol-mulkni musodara qilish jazosini qo‘llash tartibini qayta ko‘rib chiqish, voyaga yetmaganlar, ayollar va keksalarga nisbatan qo‘llaniladigan jazo tizimini qayta ko‘rib chiqish, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini erkinlashtirish va demokratlashtirishda ishlarni ko‘rib chiqish tartibini soddalashtirish, jinoiy ishlarni tergov qilish va sudda ko‘rish muddatlarini qisqartirish kabi dolzarb vazifalar va takliflar mohiyati chuqur bayon qilib berildi. Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga kiritilayotgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar jinoiy ishlarga taalluqli qonunlarni erkinlashtirish va demokratlashtirish sari tashlangan muhim hamda ma’suliyatli qadam ekanligi ta’kidlab o‘tildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning VI sessiyasidagi ma’ruzasi yuzasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qabul qilgan qarorining 2 bandida shunday deyiladi:

“Ma’ruzaning jinoiy jazolarni liberallashtirish, qonun ustivorligini ta’minlash, fuqarolar huquq va erkinliklarini, jamiyat hamda davlat manfaatlarini himoya qilish sari qaratilgan yo‘lni hayotga tatbiq etishga doir dasturiy xulosalari prokuratura, boshqa huquqni muhofaza qilish organlari, sudlar faoliyati uchun asos qilib olinsin.”

Insoniyat tarixida yangi davr-Inson huquqlari davri boshlandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1995-2005 yillarni kurramizda “Inson huquqlari o‘n yilligi” deb e’lon qildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ma’ruzalarida inson huquqlari sohasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan quyidagi besh strategik yo‘nalish belgilab berilgan:

1. inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini ta’minlash;
2. inson huquqlari bo‘yicha Xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillari va normalari asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish;
3. qabul qilingan qonunlarga og‘ishmay amal qilish mexanizmini ishlab chiqish va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qonun ustuvorligini ta’minlash;
4. sudlov islohotini amalga oshirish yo‘li bilan sud tizimini demokratlashtirish;
5. aholi ayniqsa yoshlar va mansabdor shaxslar, huquq-tartibot idoralari xodimlari, o‘rtasida huquqiy tarbiya ishlarini tubdan yaxshilash, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish.

Demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishning birdan bir zaruriy sharti sud-huquq organlarining ishlarini isloh qilish va erkinlashtirishni jadallashtirishdan iborat. Sudlar faoliyatiga prokuraturaning aralashmasligi, prokuror va advokatlarni huquqlarini tenglashtirish, sudlarning tarbiyaviy rolini oshirish lozimligini taqqoslab ko‘rsatadi. I.Karimov Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisida (2005y. 28 yanvar).

Xavfsiz jinoyatlarni ma’muriy choralar bilan almashtirish natijasida so‘nggi 2,5 yil davomida 11 milrd. so‘m undirildi. Har yuz ming kishiga hisoblaganda O‘zbekistonda 158 kishi qamoqda muddatini o‘tamoqda. Bu ko‘rsatkich AQShda 715, Rossiyada 584, Ukrainada 416, Qozog‘istonda 386 kishidan iborat.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘tgan qisqa davr ichida insonning huquq va erkinliklari to‘g‘risida milliy qonunchilik tizimini tashkil etuvchi yuzdan ortiq qonunlar qabul qilindi. O‘zbekiston

inson huquqlari bo‘yicha 40 ga yaqin xalqaro shartnomaga qo‘shildi va ularga bizning mamlakatimizda ham amal qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta’sirli vositasini barpo etish, xalqaro va huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va barcha respublika aholisining inson huquqlari bo‘yicha madaniyatini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy Markazini tuzish to‘g‘risida” 1996-yil 31-oktabr Farmoni e’lon qilindi.

O‘zbekiston Respublika Oliy Majlisi 1997-yil 29-avgustda “Jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirish Milliy dasturi”ni tasdiqladi. Dasturda: “Jamiyat va davlat taraqqiyotini hozirgi holati huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarini huquqiy madaniyatini, huquqiy savodxonligini har tomonlama oshirishni talab qilmoqda. Huquqiy madaniyat huquqiy bilim, huquqiy e’tiqod va izchil amaliy faoliyat majmui sifatida jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etilishini ta’minlaydi

Milliy dasturning maqsad ahamiyati aholining barcha qatlamlarini huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo‘lishlari hamda huquqiy bilimlarni kundalik hayotda qo‘llay olishlari uchun huquqiy madaniyatni shakllantirishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratishdir”-deb ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o‘rganish ishini yaxshilash haqida” (1997-yil, 25-iyun) Farmoni e’lon qilindi. Ushbu farmonning 1-bandida shunday deyiladi:

“Aholining huquqiy madaniyatini oshirish va huquqiy tarbiyasini yaxshilash yuzasidan olib borilayotgan ishlar davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri etib belgilansin”.

Respublikamizda istiqlol yillari milliy davlatchilikni barpo etish borasida sobiq ma’muriy-buyruqbozlik tizimiga, uning hokimiyat va boshqaruv organlariga barham berish bilan bir vaqtda davlat va jamiyat hayotining yangi demokratik huquqiy asoslari yaratildi.

Demokratiyaning eng muhim tamoyili odamlarning saylov huquqlarini amalga oshirish, o‘z xohish-irodasini erkin ifodalash uchun zarur huquqiy shart-sharoit, qonuniy asos yaratishdir. Shu bois mamlakatimizda mustaqillik yillarida xalqimizning o‘z hohish-irodasini

erkin ifoda etishni ta’minlovchi saylov tizimini shakllantirish va uni qonun bilan mustahkamlash borasida talay ishlar qilindi.

1991-yil noyabrida Parlament “O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qildi. Ushbu qonun bilan birga Oliy Kengash 1991-yilda “O‘zbekiston Respublikasi referendumi to‘g‘risida”gi Qonunni ham qabul qildi. 1991-yil 29-dekabrida muqobillik asosida O‘zbekiston tarixida birinchi marta respublika prezidentligiga saylovlar o‘tkazildi.

Konstitutsiyamiz asosida 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi, 1994-yil 5-mayda qabul qilingan “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi, “Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun va nihoyat “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risida”gi qonunlari o‘zbek saylov qonunchiligi tizimini huquqiy asoslarini tashkil qiladi.

Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risidagi alohida qonun qabul qilinganligi saylovlarni to‘g‘ri tashkil qilish, saylov qonunlarini to‘la ishlashiga imkoniyat yaratadi va qonunlarni nazorat qilishni kuchaytirishda hamda saylovlarni tashkil etish va uni o‘tkazishda davlat hokimiyati organlarining ortiqcha aralashuvini cheklaydi.

Saylov to‘g‘risidagi qonunlarni tahlil qilsak, unda jahon saylov tajribasida erishilgan eng demokratik tartiblarning huquqiy jihatdan mustahkamlanish bilan birga, O‘zbekiston saylov tizimiga xos bo‘lgan xususiyatlarning ham belgilanganligini ko‘ramiz. Bu O‘zbekiston saylov tizimigagina xos xususiyatdir.

Saylov tizimini isloh qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “O‘zbekiston-kelajagi buyuk davlat” degan siyosiy dasturida asoslanib berilgan maqsad tomon harakatning yana bir muhim bosqichi, deb tushunmoq kerak.

Bizning saylov qonunchiligimiz ko‘pgina xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlar tomonidan o‘rganilmoqda.

Xususan, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining tegishli ekspertlari ham O‘zbekiston saylov qonunchiligi mohiyati demokratik ekanligini, uning saylovlarni tashkil etish sohasidagi xalqaro huquqni tan olingan tamoyillariga mos kelishini ta’kidlaydilar.

Rossiya Federatsiyasi Markaziy saylov komissiyasi qoshidagi ilmiy-metodik kengash a’zolaridan biri:

“Men keyingi yillar davomida O‘zbekistonda qabul qilingan saylov to‘g‘risidagi qonunlarni o‘rganib chiqdim. Shuni alohida ta’kidlashim

lozimki, amaldagi saylov to‘g‘risidagi qonunlaringiz jahon andozalari darajasida ishlab chiqilgan bo‘lib, bu qonunlar amaliyoti o‘z oldiga huquqiy davlat barpo etishdek ulkan vazifa qo‘ygan davlat uchun tayanch bo‘la oladi”,-deydi.

O‘zbekistonda barpo etilayotgan demokratik, insonparvar fuqarolik jamiyatida fuqarolar o‘zlarining siyosiy huquqlari va erkinliklarini davlat va jamiyat ishlarini bajarish ularni idora etishda faol qatnashish orqali amalga oshirilmoqda.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ko‘ppartiyaviylik tizimining vujudga kelishi davlat hokimiyati oliy va mahalliy organlarining takomillashishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Istiqlol yillari vujudga kelgan siyosiy partiyalar o‘z faoliyatida o‘zbek xalqining eng yaxshi demokratik an’analariga, adolat, ezgulik, tenglik va inson erkinligi kabi umuminsoniy qadriyatlar hamda g‘oyalarga, axloqiy va odamiylik qoidalariga suyanadi. Ular o‘z faoliyatlarini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi 1996-yil 26-dekabr qonuniga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq, shuningdek o‘z dasturlariga asosan amalga oshiradilar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasida siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi aniq va ravshan belgilab berilgan.

Ko‘ppartiyaviylik demokratik taraqqiyot yo‘lida erishgan muhim yutuqlardan biridir.

Birinchidan, demokratik fuqarolik jamiyati qurilishida siyosiy partiyaning o‘rni va roli muntazam ravishda yoritib boradi; ikkinchidan, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayonida O‘zbekiston aholisi turli qatlamlarining manfaatlarini ifoda etishda ko‘ppartiyaviylik tizimi muhim demokratik institut hisoblanadi; uchinchidan, davlat bosh islohotchi sifatida siyosiy partiyalarining faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega; to‘rtinchidan, siyosiy partiyalarsiz vakillik demokratiyasini tasavvur etib bo‘lmaydi; beshinchidan, siyosiy partiyalarning o‘rni va mavqei ularning soni yoki vaqt bilan belgilanmaydi; oltinchidan, mamlakatda amalda ko‘ppartiyaviylik muhiti qaror topishi yangi g‘oyalar, muqobil takliflar bilan demokratik jamiyat qurilishiga xizmat qilishi lozim.

Ko‘ppartiyaviylik asosida saylovlar o‘tkazish quyidagilarni bildiradi: huquqiy jihatdan ro‘yxatga olingan barcha siyosiy partiyalarning saylov kampaniyasida ishtirok etish; Konstitutsiya va qonun talablari doirasida o‘z nomzodlarini Oliy Majlis deputatligiga ko‘rsatish huquqi va kafolatli shart-sharoitini yaratish; siyosiy partiyalarning barcha

darajalardagi saylov komissiyalarining ishida qatnashish huquqi va kafolatli shart-sharoit yaratish; Oliy sudga zarur hollarda esa Konstitutsiyaviy sudga Oliy Majlisga saylovlar haqidagi Qonunning buzilishi faktlari ustidan shikoyat qilish huquqidir.

Xalq demokratik partiyasi siyosiy partiya sifatida mamlakatda birinchilardan bo‘lib 1991-yil 1-noyabrda tashkil topdi. 440 ming a’zoga ega bo‘lgan bu partiya I-chaqiriq Oliy Kengashga 69 deputat sayladi. II chaqiriq Oliy Majlisga 48 deputat sayladi. A’zolarining soni 2001-yilning 1 mayiga kelib, 557 ming 168 ta bo‘ldi.

Maqsadi-O‘zbekistondagi har bir fuqaroning millati, dini, e’tiqodi, ijtimoiy ahvoli va kelib chiqishidan qat’i nazar moddiy va ma’naviy barkamol hayot kechirish uchun keng imkoniyat yaratish, kishilarning konstitutsion huquqlari va erkinliklarini kafolatlash, ularning sha’ni va qadr-qimmati, tinch hayot kechirishini himoya qilish.

“Vatan taraqqiyoti” partiyasi 1992-yili 24-mayida tashkil topgan bo‘lib, 35 ming a’zosi bor edi. I chaqiriq Oliy Kengashga 14 deputat saylandi. II-chaqiriq Oliy Majlisga 20 deputat saylandi.

Maqsadi-O‘zbekiston mustaqilligining iqtisodiy- ma’naviy asoslarini barpo etish, yurtimizni jahonning rivojlangan mamlakatlaridan biriga aylantirish.

O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi (SDP) 1995-yili 18-fevralda tashkil topdi va 30 ming a’zoga ega bo‘ldi. Oliy Kengashdagi fraksiyasiga 47 deputat birlashdi. “Adolat” SDP sining hozirda 33 ming a’zosi bo‘lib, ulardan II chaqiriq Oliy Majlisga 11 deputat saylandi.

Maqsadi - Mustaqil O‘zbekiston hududida yashayotgan barcha millat va elatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan huquqiy demokratik davlat barpo etish, jamiyatda ijtimoiy adolatni yanada mustahkamlash, inson huquqlari, erkinliklari va burchlarini, yuksak ma’naviyat va ma’rifatni qaror toptirishga ko‘maklashish.

O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi 1995 yil 3 iyunda tashkil topdi. MTDP a’zolarining soni dastlab 6 mingta bo‘lib, hozirda 11 mingdan oshdi. II chaqiriq Oliy Majlisga bu partiyadan 10 kishi deputatlikka saylandi.

Maqsadi-Milliy manfaatlar zaminidagi yangi o‘zbek davlatining asoslarini yaratish, huquqiy davlat va fuqarolar jamiyatini barpo etish, O‘zbekistonni jahonning yetakchi davlatlari safiga olib kirish uchun xalqni safarbar qilish.

Fidokorlar milliy demokratik partiyasi 1998 yil 28 dekabrda tashkil topdi. Uning 20 ming 500 a’zosi bo‘lib, II chaqiriq Oliy Majlis

deputatlarining 34 nafari Fidokorlar milliy demokratik partiyasiga mansub a’zolardir. FMDP bilan “Vatan taraqqiyoti” partiyasi 2000 yilning 14 aprelida birlashdi va 54 deputat Oliy Majlisda Fidokorlar Milliy Demokratik partiyasi fraksiyasini tuzdi.

Maqsadi - Erkin bozor iqtisodiga suyangan ochiq, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish, el-yurt hayot darajasini taraqqiy topgan davlatlar va xalqlar darajasiga ko‘tarish, jahon hamjamiyatida davlatimiz va jamiyatimizning o‘ziga munosib o‘rin egallashiga amaliy hissa qo‘shish.

O‘zbekistonda “Xalq birligi” harakati ham 1995 yil iyundan faoliyat ko‘rsatmoqda.

Harakatning asosiy maqsadi - Ko‘p millatlik mamlakatda xalqlar birligini yanada mustahkalash, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan barcha fuqarolarning huquq va kafolatlarini to‘la-to‘kis amalga oshirish va fuqarolik, vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishdan iborat.

Mustaqillik yillarida shakllangan ushbu partiyalarning dasturlarida sog‘lom muxolifatchilik ko‘rinmaydi. Faqatgina O‘zbekiston Fidokorlar milliy demokratik partiyasi dasturida jamiyatda uchrab turgan ayrim qonunsizliklar, suiste’molchilik, oshna-og‘aynigarchilik, tanish-bilishchilik, qarindosh-urug‘chilik, aqidaparastlik illatlariga nisbatan muholifatda bo‘lishi ta’kidlangan, xolos.

Siyosiy hayotni erkinlashtirish, siyosiy partiyalar faoliyatini kuchaytirish vazifalari ko‘ndalang bo‘lib turgan bugungi kunda partiyalar o‘z o‘rinlarini aniq topishmoqdalar.

Shu nuqtayi nazardan yondoshganda harakat dasturlarida o‘zaro yaqinlik bo‘lganligi sababli hamda demokratik jarayonlarining talablarini hisobga olgan holda “Vatan taraqqiyoti” partiyasi bilan FMDPning o‘zaro birlashishi ham shu ruhni o‘zida aks ettiradi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda jamoat tashkilotlarining saflari oshib, imkoniyatlari kengaydi.

Mustaqillikning dastlabki besh yilida jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlar soni 1500 taga ko‘payib, ularning soni 2300 taga yetdi: ular faqat aholi fikrlarining turli ko‘rinishlarini ifoda etib qolmasdan, odamlarning ijtimoiy fikrini shakllantirishga ham faol ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xususan, O‘zbekiston kasaba uyushmalari 7,5 mln. a’zoni birlashtirib, jamiyatda tub islohotlarni amalga oshirishda faol qatnashmoqda.

O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi 1991-yil 1-martda tashkil topdi. Mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik jarayonlarda ayollarni faol ishtirok etishi, xotin-qizlarni ma’naviy-ma’rifiy tarbiyalashda muhim rol o‘ynamoqda.

Shuningdek “Nuroniy”, “Ustoz”, “Ulug‘bek”, “Umid”, “Xotira” va shu kabi ko‘plab jamg‘armalar nodavlat tashkilotlar sifatida respublikamizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda katta hissalarini qo‘shmoqda.

2001-yilning 24-yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov “Kamolot” jamg‘armasi faollarini qabul qildi va yoshlarning bu tashkilotini mustaqillik davridagi rolini oshirish vazifasini qo‘ydi va “Kamolot” jamg‘armasi yoshlarning haqiqiy yetakchisi, uyushtiruvchisi va boshqaruvchi ommaviy tashkilotga aylanishini zarur deb topdi.

2001-yilning 25-aprelida O‘zbekiston Milliy universitetining Madaniyat saroyida Respublika yoshlari vakillarining birinchi qurultoyida “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tuzildi. Qurultoyda ijtimoiy harakatning nizomi va dasturi qabul qilindi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan kundan buyon Respublika Prezidenti va hukumati tomonidan chuqur o‘ylangan milliy siyosat amalga oshirilmoqda.

Davlat umummilliy siyosatiga milliy siyosatdan tashqari iqtisodiy va sotsial, ilmiy-texnika, ta’lim va sog‘liqni saqlash, xalqaro munosabatlar (tashqi siyosat) milliy xavfsizlik va boshqa siyosatlar kiradi.

O‘zbekiston umummilliy siyosatining katta tizimida milliy aholi siyosati alohida o‘rin egallaydi. Bu siyosat diqqat markazida millatidan qat’i nazar inson turadi. Bunda milliy aholi siyosati respublika aholisiga xos sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashni ko‘zda tutadi.

O‘zbekiston polietnik, ya’ni ko‘p elatli davlat turiga mansub bo‘lib, davlatga o‘z nomini bergan millat - o‘zbeklar (1996-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra - 76,4%) - aholi soni bo‘yicha ko‘pchilikni tashkil qiladi.

1999-yilga kelib bu muvozanatda qisman o‘zgarish bo‘ldi. Mamlakatimizda o‘zbeklar aholining deyarli 80 foizini tashkil etsa, qolganlar esa kam sonli millatlar vakillaridir.

“Ijtimoiy fikr” markazi tomonidan respublika Baynalmilal madaniy markaz hamda milliy madaniy markazlar vakillari ishtirokida “Mustaqil O‘zbekistonda fuqarolarning elatlararo va konfessiyalararo munosabatlari” yuzasidan 1999 yil 14-18 noyabrda sotsiologik so‘rov o‘tkazildi. Unda o‘z faoliyati bilan 150 mingdan ortiq kishini va yirik

milliy guruhlarni qamrab olgan 24 ta Milliy madaniy markaz ishtirok etdi. Unga koʻra quyidagicha asosiy xulosalar chiqarilgan:

- Oʻzbekistondagi barcha etnik guruhlar uchun eng asosiysi- Oʻzbekistonni oʻz vatani deb his etishdir;
- turli elatlar va konfessiyalar vakillari oʻzaro hurmat, tushunish va toʻla kelishuvchanlik muhitida faoliyat koʻrsatmoqdalar;
- Oʻzbekiston fuqarolari, ularning millatidan qat'iy nazar, mustaqil Oʻzbekistondagi elatlararo kelishuv va moslashuvchanlik fenomeni-davlatimizdagi barqarorlik va fuqarolar tinchligining eng muhim faktorlaridan biridir, degan yagona fikrdalar;
- fuqarolarning millatlaridan qat'i nazar ularning huquqiy tengligi, iqtisodiy va ijtimoiy erkinligi uchun davlat tomonidan barcha sharoitlar yaratilgan;
- tub millat boshqa etnik guruhlar bilan birgalikda umumijtimoiy tafakkurni shakllantirish jarayonlarini tezlashtirish va ragʻbatlantirishning ulkan salohiyatini tashkil etadi, yuzaga kelgan millatlararo munosabatlar esa tinchlik va barqarorlikni, har bir oilaga munosib hayotni ta'minlash kafolati boʻlib xizmat qiladi;
- kelajakda bashorat etish mumkinki, Oʻzbekistondagi elatlararo va konfessiyalararo mutanosiblik oʻzbek xalqining ma'naviy yangilanishi va milliy tafakkurning oʻsishi bilan chambarchas bogʻliq holda jamiyatning yangilanish va uning demokratiyalashuvida kuchli turtki boʻlib xizmat qiladi, "respublikaning jahon hamjamoatchiligi bilan integratsiyasi uchun qulay sharoitlar yaratadi"

Ma'lumki, dunyodagi barcha mamlakatlarda ommaviy axborot vositalari yetakchi oʻrin tutadi. Gazeta va jurnallar, radio va televideniye vositalari har bir davlatda omma bilan hokimiyat oʻrtasida oʻziga xos aloqa vositasi, oshkoralik koʻzgusi, haqiqat jarchisi boʻlib xizmat qiladi. Mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida yetakchi rol oʻynaganligi uchun ham ularga toʻrtinchi hokimiyat tusini berish ommalashgan. Davlat boshqaruv organlari demokratiyaning muhim tayanchi boʻlganligi uchun ham ommaviy axborot vositalari bilan maslahatlashishga, takliflarini e'tiborga olishga majburdir. Shuning uchun ham Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida: "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning toʻgʻriligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yoʻl qoʻyilmaydi",- deyilgan. Koʻrinib turibdiki, ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish, erkinligini koʻrsatish, ularning xalqqa sadoqat bilan xizmat qilishi alohida ta'kidlanadi.

Sovet tuzumi barcha totalitar va avtoritar tuzumlar kabi ommaviy axborot vositalarini muhim tashviqot va targ‘ibot vositalari hisoblar edi hamda matbuotdan, radio va televideniyedan aynan shu maqsadda-xalqni kommunistik mafkurani kerakli yo‘nalishda targ‘ib va tashviq qilishda foydalandi.

Ommaviy axborot vositalari mustabid tuzimga bo‘ysungan bo‘lib, bir xil fikr, bir xil qarash barcha gazeta va jurnallarga xos edi. Bu kishilarimizni fikriy qoloq qilib qo‘ydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuni mamlakatimizdagi barcha gazeta va jurnallar, radio va televideniye vositalarini dunyo miqyosiga olib chiqish uchun xizmat qiluvchi asosiy dasturga bo‘ldi.

O‘zbekistonda 2001-yil 1-yanvargacha-390 ta gazeta; 110 ta jurnal; 2 ta axborot agentligi; 52 ta telestudiya; 5 ta radiostudiya; 3 ta teleradiostansiyalar kabi ommaviy axborot vositalari mavjud bo‘lib, ular erkin faoliyat ko‘rsatmoqda.

Oliy majlisning palatalarining (2005-yil 28-yanvar) majlisida demokratik o‘zgarishlar mahalliy axborot vositalarining mustaqilligi va erkinligini ta’minlamasdan mumkin emas deb qayd etdi.

2004-yilning 1-yanvar oyiga ko‘ra mamlakatimizda 571 gazeta, 140 jurnal, 4 axborot agentligi, 85 teleradio va kabel studiyasi, 298 elektron axborot vositalari ishlamoqda.

Prezidentimiz Islom Karimovning shaxsan tashabbusi va sa’y-harakatlari bilan yana ikki Qonun: O‘zbekiston Respublikasining “Jurnalistlik kasbini himoya qilish to‘g‘risida” hamda “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida” Qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar tom ma’noda ko‘plab taraqqiy etgan mamlakatlarda ham mavjud bo‘lmagan qonunlardir. Ushbu qonunlar fuqarolarning axborot qidirib topish, olish, uzatish va tarqatish huquqini to‘la miqyosda ta’minlaydigan huquqiy qurol bo‘lib, aholi uchun axborot olish va yetkazishning bosh vositachisi deb qaraluvchi jurnalistning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun huquqiy asosni vujudga keltirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ommaviy axborot vositasi to‘g‘risida I chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining (1996-yil, avgust) 6-sessiyasida shunday degan edi:

“Matbuot, axborot vositalari demokratik rivojlanishi uchun ulkan ahamiyatga ega. Biroq shuni ham e’tirof etish kerakki, demokratlashtirish jarayonida hozircha ommaviy axborot vositasining faol roli sezilmayapti.

Ular shu paytgacha o‘zlarini “to‘rtinchi hokimiyat” sifatida namoyon qilganlari yo‘q.”

Istiqlol yillarida ommaviy axborot vositalari mansabdorlarning to‘rachiligi, korrupsiya, mustabidlik va boqimandalik psixologiyasi yo‘lida mustahkam g‘ov bo‘lib, qonunchilikni ro‘yobga chiqarish islohotlarning borishi va inson huquqlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilishning ta’sirchan vositasi bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston mustaqilikka erishgandan so‘ng xorijiy ommaviy axborot vositalari bilan aloqa o‘rnatish masalasi tashqi siyosiy faoliyatimizning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Chunki O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qanchalik tez kirib borishi ana shu axborot vositalari tarqatadigan xabarlarining to‘g‘riligiga bog‘liq.

Ayni paytda shu ommaviy axborot vositalari har bir kishi o‘z fikrini ifoda eta olishiga imkon beradigan erkin minbar bo‘lishi kerak. Ayni vaqtda ular jamiyatimizning demokratik qadriyatlarini va tushunchalarini himoya qilishi, odamlarning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy ongini shakllantirish bo‘yicha faol ish olib borishi lozim.

1997-yil 27-may kuni Milliy matbuot markazida “Jurnalistlarning huquqiy madaniyati va huquqiy bilimlarini oshirish - davr talabi” mavzuida anjuman bo‘ldi.

Matbuot, radio va televideniye siyosatga ta’sir ko‘rsatish, siyosiy jarayonlarning tarkibiy qismiga hamda milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasini keng xalq ommasiga yetkazishning, jamiyatni demokratiyalashtirishning o‘tkir quroliga aylantirishi lozim. Shundagina to‘la ma’nodagi to‘rtinchi hokimiyat-ommaviy axborot vositalari tizimi vujudga keladi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston ijtimoiy hayotida televideniye va radio rolini ko‘tarish to‘g‘risida”gi 1997-yil 7-maydagi Farmoni yuqorida ko‘rsatilgan masalalarni me’yoriy tartibga solishda ko‘riladigan chora-tadbirlarning ommaviy ifodasi bo‘ldi.

Ta’kidlash joizki, mustaqillik yillarida yaratilgan boshqaruv tizimi va uning qonunchilik asoslari, fuqarolik jamiyati mamlakatda inson huquqlarini himoya qilishga va huquqiy demokratik davlat barpo etilganligini kafolatlaydi. Zero, Prezident I.Karimovning Oliy Majlis II chaqiriq IX sessiyasida so‘zlagan nutqi (2002-yil, 29- avgust), Qonunchilik palatasi va Senat qo‘shma yig‘ilishidagi ma’ruzasida (2005-yil, 28-yanvar) ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi o‘rni va rolini oshirish to‘g‘risida amaliy takliflarni ilgari surdi.

19-mavzu. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning iqtisodiy, ma’naviy va madaniy taraqqiyoti

O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo‘nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari

Davlat mustaqilligini qo‘lga kiritilishi O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tish uchun qulay sharoit va keng imkoniyatlar yaratdi. Bizning diyorimizda bozor munosabatlari yangilik emas. Ming yillar davomida ajdodlarimiz hunarmandlar ishlab chiqargan ajoyib mahsulotlarini, tabiiy boyliklarini dunyoning to‘rt tomonga chiqarib savdogarlik qilgan, mol almashgan.

O‘zbekistonning boy imkoniyatlari, geopolitik sharoitidan foydalanib o‘zimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘limizni belgilash dastlabki kunlarning eng muhim vazifasi bo‘lib qoldi. O‘zbekiston tanlagan islohot yo‘li ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodini shakllantirishga qaratildi.

Bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning asosiy tamoyillari Prezident I.Karimov tomonidan ishlab chiqilib dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning yirik mutaxassislari, davlat arboblari tomonidan tan olindi va o‘zining hayotiyligini namoyish etmoqda. Bu tamoyillarning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

- iqtisod siyosatdan ustun turib, mafkuraviy tazyiqlarsiz, o‘ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanmog‘i kerak;
- davlat bosh islohotchi o‘rnida bo‘lib, u islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berishi va ularni izchillik bilan amalga oshirishi lozim;
- bozor munosabatlariga o‘tish qonun ustuvorligini talab qiladi. Butun xalq tomonidan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarga amal qilinishi shart;
- bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini himoya qilishning kuchli ijtimoiy siyosatini o‘tkazish;
- ijtimoiy islohotlarning rivojlanib borishi va yo‘nalishini belgilab beruvchi tamoyillardan biri bozor iqtisodiyotiga o‘tish evolutsion yo‘l bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarur.

Yangi iqtisodiy munosabatlarga o‘tish tamoyillari asosida g‘oyat ma’suliyatli va murakkab vazifa-iqtisodiy islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Iqtisodiy strategiyaning boshlang‘ich nuqtasi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning pirovard maqsadini belgilab olishdan iboratdir. Bu vazifa markazlashtirilgan, ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan

bozor munosabatlariga, bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o‘tishdan iboratdir.

Bozor islohotlarini amalga oshirish dasturiga ko‘ra ustuvor vazifalar bosqichma-bosqich hal qilinadi.

Birinchi bosqichda totalitar tizimdan hozirgi zamon bozor munosabatlariga o‘tish davridagi bir-biriga bog‘liq, ikki vazifani bir vaqtda hal qilishga to‘g‘ri keldi: ma’muriy buyruqbozlik tizimining og‘ir oqibatlarini tugatib, iqtisodni barqarorlashtirish va bozor munosabatlarining negizini shakllantirish. Bu bosqich jarayonida iqtisodiy islohotning g‘oyat muhim yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab berildi:

– o‘tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish;
– qishloq xo‘jaligida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;
– ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish.

Iqtisodiy islohotlarni huquqiy asoslovchi qonun-qoidalar yuridik tashkilotlar va yetuk olimlar tomonidan tayyorlandi va jahonning yirik mutaxassislari tomonidan quvvatlanib tan olindi.

Dastlabki vaqtning o‘zida iqtisodiy munosabatlarning huquqiy negizini barpo etadigan 100 ga yaqin asosiy qonun hujjatlari qabul qilingan. Iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo‘yicha Prezident huzurida maxsus Idoralararo kengash tuzildi.

Bozor munosabatlariga o‘tishning asosiy shartlaridan biri mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish amalga oshirildi. Bu bilan davlat monopoliyasi tugatilib, ma’muriy buyruqbozlik tizimi buzildi va bozor iqtisodiyotiga asos solindi, xususiy mulkdorlarning keng qatlami shakllantirildi va xorijiy sarmoyadan foydalanib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali aholining turmush darajasi yaxshilana boshladi.

Mulkni xususiylashtirish va ko‘p ukladli iqtisodni shakllantirish O‘zbekistonda o‘ziga xos yo‘l bilan amalga oshirildi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdagi maqsad: 1. Davlat monopoliyasini tugatib ma’muriy buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotiga asos solish; 2. Xususiy mulkdorlarning keng qatlamini shakllantirish; 3. Xorijiy sarmoyadorlarga keng yo‘l ochish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va aholining turmush tarzini yuksaltirishdan iborat.

1992-1993-yillar xususiylashtirishning birinchi bosqichida “Kichik xususiylashtirish” amalga oshirildi. Buning oqibatida asosan mayishiy

xizmat va savdo korxonalari, transport va qurilishning kichik korxonalari, davlat sanoat va mahsulot qayta ishlash korxonalari mulk shaklini o‘zgartirdi. Bular mulkning ijara, jamoa va aksiyadorlik shakliga aylantirildi. Uy-joylar keng miqyosda xususiylashtirilib, aholining ayrim qismiga tekin, boshqa qismiga esa arzon narxda xususiy mulk etib berildi.

Dastlabki davrda agrar sohada ham islohotlar amalga oshirildi. Natijada qishloq xo‘jaligida 770 kolxoz va davlat xo‘jaliklari xususiylashtirildi, jamoa va ijara xo‘jaliklariga aylantirildi. Lekin qishloqda bu jarayon sekin va qiyinchliklarni bartaraf etishga to‘g‘ri keldi. I.A.Karimov ta’kidlaganidek, agrar sohadagi byurokratik boshqaruv tizimining har xil to‘siqlari qishloqda islohotning borishiga xalaqit berardi. Mulkning davlat tasarrufidan chiqarish jarayonining birinchi bosqichidagi eng muhim xulosa mulkdorlar sinfining shakllana boshlagani, xususiylashtirish mexanizmining ishlab chiqilishi, iqtisodiy islohotlarga nisbatan kishilar psixologiyasi va munosabatining o‘zgarishi bo‘ldi. Mustaqillik yillari yuz bergan tub o‘zgarishlardan biri mamlakatda ikki yo‘l bilan mulkdorlar sinfi shakllana boshladi. Birinchidan, kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish, ikkinchidan, pul mablag‘larini omonat kassalari yoki banklariga qo‘yish, qimmatbaho qog‘ozlarga aylantirish yo‘li bilan. Iqtisodiy jihatdan erkin bo‘lgan mulkdor “o‘z boyligini ko‘paytirishdan manfaatdor bo‘libgina qolmay, balki butun mamlakatni boyitishga ham qodir bo‘ladi”-deydi Prezident Islom Karimov.

Davlat mulkini xususiylashtirishning ikkinchi bosqichi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1994 yil 21 yanvardagi “Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishning chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida olib borildi. Bu davrda ochiq shakldagi aksiyadorlik jamiyat qurish, korxonalar aksiyasining chiqarish, auksion (kim oshdi) savdosi orqali davlat mulkini shaxslarga sotish, qimmatbaho qog‘ozlarni chiqarish va xususiylashtirishni yoppasiga olib borish uchun sharoit yaratish ishlari amalga oshirildi.

Aloqa, transport, geologiya qidiruv yoqilg‘i-energetika komplekslari xususiylashtirilmadi. Ayrim sohalarda-kimyo, oltin qazish, paxta tozalash, tog‘-kon sanoatida 51% aksiya davlat ixtiyorida qoladigan bo‘ldi.

1994-yil oxirigacha 54.000 korxona mulk shaklini o‘zgartirdi. Xususan, 34%-xususiy, 48% aksiyadorlik, 16%-jamoa, 1% ijara xo‘jaligiga aylandi. Iqtisodiy islohotlarning borishi, uning to‘rt yil davomidagi muvaffaqiyatlari va muammolariga respublika Oliy

majlisining IV sessiyasi (1995-yil dekabrda) va Vazirlar mahkamasining majlisida (1996-yil fevral), Prezident I.A. Karimovning nutqlarida keng yoritildi.

1995-yil mamlakatning barcha sohalarini isloh qilishda tub burilish yili bo‘ldi. Eng muhimi islohiy jarayonlarga kishilarimizning ishonchi ortdi. Ishlab chiqarishning pasayishi keskin to‘xtadi, jamiyatimizda iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy barqarorlik yuz berdi. Moliyaviy vaziyat o‘nglanib, inflyatsiyani 1994-yilga nisbatan uch barobar kamaytirishga erishildi. Narxning o‘sishi yil boshida 16,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, yil oxirida 2,2 foizni tashkil qildi. Valyuta bozorida joriy yilda o‘tgan yilga nisbatan 11 marta ko‘p, ya’ni 1,3 mlrd dollar sotildi.

Ichki yalpi mahsulot 1995-yilda 1994-yilning darajasiga nisbatan 96 foiz o‘rniga 98,8 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan milliy daromad 98,5 foizga yetdi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi shu yili o‘tgan yilga nisbatan 100,2 foizga teng bo‘ldi.

Respublikada kichik va xususiy tadbirkorlikni shakllantirish va rivojlantirishni ta’minlovchi zaruriy huquqiy asos yaratilgan. Amaldagi qonunchilik hujjatlarida, Respublika Prezidentining farmonlarida, xususiy tadbirkorlikdan soliq olish, unga moliyaviy yordam ko‘rsatish borasida imtiyozlar berish, imtiyozli kreditlar ajratish, moddiy-texnika va xom ashyo resurslari bilan ta’minlash borasida ko‘maklashish nazarda tutilgan.

Ana shu sa’yi harakatlar natijasida 1995-yil o‘rtasida Respublika xalq xo‘jaligida 30770 kichik korxona va kooperativ, 20115 xususiy korxona ishlab turdi. 15600 fermer xo‘jaligi tashkil etildi, ularga 200 ming gektarga yaqin yer biriktirib berilgan bo‘lib, 67,5 ming kishi mehnat qilmoqda edi. Fermer xo‘jaliklarining tasarrufida 190 mingga yaqin qoramol va boshqa hayvonlar mavjud. 1995-yilning faqat birinchi choragidagina fermer xo‘jaliklari tomonidan o‘tgan yilning tegishli davridagiga nisbatan ikki barobar ko‘p go‘sht va sut mahsulotlari tayyorlandi.

Kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi jamg‘arma tomonidan respublikaning 187 tuman va shaharida bank bo‘limlari ochildi. 1994 yili va 1995-yilni olti oyida kichik va ijara korxonalariga, shuningdek shirkatlarga va tadbirkorlarga jami 1.222.3 million so‘m miqdorda kredit berildi.

Ikkinchi bosqichda I.A. Karimovning “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida” (1995-yil) asarida qo‘yilgan choralarni, xususan, xususiylashtirish va raqobatchilik muhitini shakllantirish jarayonlarini chuqurlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikka

erishish, milliy valyutani mustahkamlash, iqtisodiy tarkibiy-strukturasini tubdan o‘zgartirish chora-tadbirlari amalga oshirildi. 2000 yilda xususiylashtirish davlat dasturi bo‘yicha ko‘zda tutilgan 167 obyekt o‘rniga 374 obyekt xususiylashtirildi. Ularning negizida 152 ta xissadorlik jamiyati, 103 xususiy korxona tashkil etildi. Shu yili davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdan 14,3 milliard so‘m mablag‘ tushdi. Bu 1999-yilgi ko‘rsatishdan 1,6 barobar ko‘pdir.

Umuman olganda o‘tgan o‘n yil davomida bozor munosabatlarini shakllantirishda tub o‘zgarishlar yuz berdi. Hozirgi paytda 87,4 foiz mulk nodavlat, 12,6 foizi davlat mulki ko‘rinishida ish yuritmoqda. Respublikada jami 60 mingga yaqin korxonadan 50,5 mingga yaqini xususiylashtirilgan korxonalardir. Mulkning tarkibi jihatdan 19,5 mingga yaqini davlat, 105 mingta xususiy, 3,4 mingdan ortiq chet el investorlari ishtirokida, shundan 442 qo‘shma korxona, 3,5 mingga yaqin aksionerlik jamiyati, 1,2 mingga yaqin jamoa va 34 mingdan ortiq boshqa korxonalardir.

Iqtisodiy islohotlarning borishida o‘rta va kichik biznesni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda 180 mingdan ortiq kichik va o‘rta biznes subyektlari va 200 mingga yaqin yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Yangi parlamentning ko‘shma Majlisida (2005-yil 28.01.) I.Karimov 2005-yilning iqtisodiy islohotlarning eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri kichik biznes va fermerlikni rivojlantirishni chuqurlashtirish va kengaytirishdan iborat. 2007-yil yarmida kichik biznesni 45%ga yetkazish, hozir 36%ni tashkil qiladi, bu ko‘rsatkich ilg‘or mamlakatlarda 60-65% ni tashkil etadi. Fermer xo‘jalikni rivojlantirish uchun shirkat xo‘jalikning 2005-2007 yillarda 1100 tasini, 2005-yilda esa 406 tasini qayta tashkil etish kerak. Fermerlarga yer ajratishda mahalliychilik, urug‘-aymoqchilikka, poraxo‘rlikka yo‘l qo‘ymaslik vazifasini qo‘ydi.

2004-yilda qishloq xo‘jaligida yalpi o‘sish 10%ni tashkil qildi. Shu jumladan boshoqli don ekinlari besh million tonnaga yaqin, paxta 3,5 mln tonani tashkil qildi.

Kichik va o‘rta biznes iste’mol mollar manbayi daromad va foyda manbayi bo‘lib, yangi ish o‘rnini yaratadi. Kichik va o‘rta biznes Yaponiyada 80%, Yevropa Ittifoqida 67%, Germaniyada 65%, AQShda 52% ni tashkil qiladi.

1995-yil 5-yanvarda Xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko‘rsatish va uni rag‘batlantirish to‘g‘risida Prezident farmoni, 1995 21fevralda

«Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to‘g‘risida» qonunlar qabul qilindi.

1995-yil Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tuzilib, bu tadbirkorlarga 10 mlrd.so‘m. yordam ko‘rsatdi.

Kichik va o‘rta biznesga chet ellik investitsiyalar jalb etildi. 2003-yili 450 mln. dollar xorijiy investitsiya sarf qilindi. 1992-1996 85 mln dollarga yaqin 2001-yil boshlarida 190 mln. dollardan oshdi. 2003-yil 1-iyulga kichik va o‘rta biznes korxonalari 200 mingdan oshdi.

Iqtisodiyotda yuz bergan tarkibiy o‘zgarishlar, bozor infratuzilmasining shakllanishi

Sobiq SSSRning tarqatib yuborilishi bilan respublikalar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar uzildi, oqibatda O‘zbekistoning bir qancha sanoat korxonalari to‘xtab qoldi va mahsulot ishlab chiqarish kamaydi. Endilikda iqtisodning tarkibiy tuzilishini yangidan qurish kerak edi. Jahon bozorida raqobatga bardosh bera oladigan va aholining iste’mol talablarini qondiradigan mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilish zarur bo‘ldi.

Prezident Islom Karimov iqtisodiyotdagi tarkibiy tuzilishni tubdan o‘zgartirish to‘g‘risida: “Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida iqtisodiyotimizning tarkibiy tuzilishida tub o‘zgarishlarga asos solishdan iborat g‘oyat muhim vazifani hal etish kerak bo‘ladi. Bu respublika uchun strategik ahamiyatga egadir. Tarkibiy tuzilishda chuqur o‘zgarishlarni amalga oshirish makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning, istiqbolda O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy o‘sishini va aholi farovonligini ta’minlashning, jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilishning eng asosiy shartlaridan biridir”-deb yozadi. Prezidentning ko‘rsatmalaridan kelib chiqib, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarning oldiga qo‘yilgan aniq vazifalar quyidagilardan iborat bo‘ldi: iqtisodiyotning bir tomonlama rivojlanishiga chek qo‘yish; importga qaramlikni tugatish; mamlakatning eksport salohiyatini oshirish; xalq iste’moli mollariga aholining talabini qondirish va boshqalar.

Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish yo‘lida respublikada g‘oyat yirik qurilishlar amalga oshirildi. Mamlakatimizning yoqilg‘i mustaqilligiga erishish siyosati izchillik bilan amalga oshirildi. Istiqlolga erishgan O‘zbekiston tarixda ilk bor 1995-yilda neft mustaqilligiga erishdi. Mamlakat endilikda neft mahsulotlariga bo‘lgan o‘z ichki ehtiyojlarini to‘la qondiribgina qolmay, katta salohiyatga ega bo‘lgan istiqbolli va ishonchli eksportyor sifatida jahon bozoriga yo‘l oldi.

O‘zbekistonda neft va gaz kondensatini ishlab chiqarish 1990 yili 2,8 mln. tonnani tashkil qilgan bo‘lsa, 1997-yili bu ko‘rsatkich 7,9 mln. tonnaga yetdi va chetga neft mahsulotlarini sotish qobiliyatiga ega bo‘ldi. Jumladan, 1997-yili 250 ming tonna benzin, 600 ming tonna dizel yoqilg‘isi, 450 ming tonna mazut, 100 ming tonna aviatsiya kerosini eksport qilindi. Tabiiy gaz ishlab chiqarish 1990-yilgi 40,8 mlrd. kubometrdan 1998-yil salkam 54 mlrd. kubometrga ko‘paydi. Aholini tabiiy gaz bilan ta’minlash yuzasidan katta yutuqlarga erishildi. Xususan, mustaqillik arafasida shahar aholisining 43 foizi, qishloqlarda esa 17 foiz aholi tabiiy gaz bilan ta’minlangan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 1997-yili 64 va 48 foizni tashkil qildi. Neft-gaz sanoatini rivojlantirishda chet ellar sarmoyasidan keng foydalanilmoqda. 1995-2000 yillarda 1.5mlrd. dollar xorijiy investitsiya ajratildi. Shu hisobdan Buxoro - Qorako‘l neftni qayta ishlash zavodi qurilishiga 262 mln. dollar sarf qilinib 1997-yili 22 avgustda ishga tushirildi. Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodiga 178 mln. dollar sarf qilinib qayta qurildi.

Tabiiy gazning Buxorodagi Gazli korxonasi qayta ta’mirlandi. 1997-yili Ko‘kdumolaq gaz kopressor stansiyasi ishga tushirildi. Natijada O‘zbekiston aholisining 75% 2003-yilda tabiiy gazdan foydalaniladigan bo‘ldi. Bu ko‘rsatkich ayrim viloyatlarda ayniqsa ko‘zga ko‘rinarli bo‘ldi. Masalan: 1990-2003-yillari tabiiy gazdan foydalanish Surxondaryo viloyatida 3,2%dan, 59%ga, Qashqadaryoda 5,7%dan 66%gacha, Namanganda 10,5%dan 70,5%ga, Andijonda 11%dan 68,5 gacha oshdi.

So‘nggi yillarda neft-gaz sanoatini rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. 2004-yilda I.Karimovning Rossiya Prezidenti Vladimir Putin bilan uchrashuvlari natijasida O‘zbekistonda bu tarmoqlarning rivojlanishiga 2,2 mlrd.dollar ajratildi. 2005-yil may oyida Prezident I.Karimov XXRda olib borgan muzokaralari natijasida O‘zbekistonda neft-gaz rivojlanishiga 600 mln.dollar sarmoya ajratildi. Mamlakatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun ishonchli energetik bazasi yaratilgan.

Hozirgi kunda respublika energetika tizimi 37 issiqlik va gidro-elektrostansiyalardan iborat bo‘lib, ularning umumiy quvvati 11 million kilovattni tashkil etadi. U yiliga 55 milliard kilovatt soatgacha energiya ishlab chiqarish imkoniyatiga ega.

Yirik issiqlik elektrostansiyalar, jumladan, quvvati 3 million kilovattsoat Sirdaryo GRESi, quvvati 2,1 million kilovatt Yangi Angren, quvvati 1,86 million kilovatt Toshkent, quvvati 1,25 million kilovatt

Navoiy GRESlari respublikamizning asosiy elektroenergetika manbayi hisoblanadi.

Issiqlik elektrostansiyalaridan tashqari, nisbatan arzon va ekologik toza elektr energiyasini yetkazib beruvchi gidroelektrostansiyalar, jumladan, Chorvoq, Xo‘jakent, Farg‘ona, G‘azalkent va boshqa bir qancha elektrostansiyalar ishlab turibdi.

O‘zbekiston energotizimining Markaziy Osiyo Birlashgan energotizimidagi ulushi 40 foizni tashkil etadi. Respublikamiz elektr tarmoqlari orqali elektr energiyasi Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmanistonga uzatilmoqda.

O‘zbekistonning jahondagi ko‘plab mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalari kengayib mustahkamlanib bormoqda. Endilikda jahonning 35 mamlakati bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risida bitim tuzilganligi va bir qancha jahon banklari bilan shartnomaning imzolanishi O‘zbekistonning xalqaro savdo va xorijiy investitsiyalardan unumli foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaxshiladi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi tarix shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda rivojlangan davlatlarning hech qaysisi xorij mamlakatlarining sarmoyasisiz, investitsiyasisiz taraqqiy etmagan. O‘zbekiston ham o‘zining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorligi bilan chet davlatlarning investitsiyasini o‘ziga tortmoqda. 1999 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra O‘zbekistonda 3.592 Korxona xorijiy investitsiyalardan foydalanmoqda. Shundan 1917tasi qo‘shma korxonalardir. Ishlab turgan qo‘shma korxonalarning asosiy qismi: 1400 tasi Toshkent shahrida, 107 tasi Toshkent, 85 tasi Samarqand, 51 tasi Andijon, 49 tasi Farg‘ona va Namangan viloyatlarida joylashgan. Chet el sarmoyalari, ayniqsa neft va tabiiy gaz tarmoqlarida katta o‘rin tutadi. Bu sohalarga 1994 yil atigi 10 mln. dollar xorijiy sarmoya jalb qilingan bo‘lsa, bu ko‘rsatgich 1995-yil - 395, 1996-yil-546, 1997-yil-845, 1998-yili deyarli, 1.145 mln. dollardan oshdi.

1998-yil ayrim rivojlangan mamlakatlardagi moliyaviy krizis, jahon bozorida O‘zbekistonning muhim eksport mahsulotlari-paxta tolasi, rangli metallarning narxini tushib ketishi mamlakatimizning iqtisodiy va moliyaviy ahvoliga ta’sir qilmay qolmadi. Jahon iqtisodiy krizisi sharoitida Respublika rahbari qayd etganidek, muhim strategik vazifani hal qilishga muvaffaq bo‘lindi. Jahon bozorida oltin, paxta, mis narhiniing tushib ketishiga qaramasdan mamlakatimizning oltin valyutasi zahirasi o‘tgan yilgi darajasida saqlanib qoldi. Bu borada Navoiy, Olmaliq tog‘-

metallurgiya kombinatlari, “Zarafshon-Nyumont” qo‘shma korxonasining hal qiluvchi rolini ko‘rsatish o‘rinlidir.

Endilikda jahondagi eng yirik konlardan hisoblangan Qizilqumning oltin va uran boyliklari malakatimiz taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Sobiq SSSRning parchalanib ketishi oqibatida Rossiya korxonalari hamda O‘zbekiston uran va oltin qazib olish sanoati o‘rtasidagi kooperativ aloqalarning uzilishi natijasida harbiy sanoat kompleksining Navoiy viloyatidagi 50 ming nafar injener va malakali ishchilari qiyin ahvolda qoldilar. O‘zbekiston Prezidenti yirik, iqtisodchi mutaxassis I.A.Karimov vaziyatni har tomonlama o‘ylagan holda Navoiy tog‘-kon metallurgiya kombinatini tiklash va rivojlantirish ishlarini davlat zimmasiga o‘tkazdi. Kombinatni qayta qurish maqsadida xorijdan olingan qarzdan tushgan foydalarni besh yil davomida korxona ixtiyorida qoldirildi. Xorijiy davlatlar korxonalari bilan bitim tuzish, qarz olish, investitsiyalardan foydalanishda kombinatga to‘la mustaqillik berildi. Hisob-kitoblar, katta jamoaning mehnati o‘z natijalarini berdi. Besh yildan keyin Muruntovdan tonnalab olingan oltinlar davlatni valyuta zahirasini to‘ldirdi. Arzon va sifatli uran olish ham yo‘lga qo‘yildi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy siyosat amalga oshirilmoqda. 1994-yili eng kam maosh 150 so‘m bo‘lsa, 2004-yili bu ko‘rsatkich 6400 so‘mni tashkil qildi. Ayni bir vaqtda narx-navoning oshib ketmasligi choralari ko‘rilmoqda. 1995-yili kam ta’minlangan oilalarga 6 mlrd. so‘m nafaqa to‘langan edi, 2000-yili bunday oilalarga 54.3 mlrd. so‘m nafaqa to‘landi.

1998 yili 10 noyabrda sog‘liqni saqlash tizimini islohot qilish to‘g‘risida Prezident farmoni chiqdi. Davlat sog‘liqni saqlash muassasalari bilan bir qatorda nodavlat, shaxsiy tibbiy muassasalarni rivojlanmoqda. 1991-2001 yillarda 19,5 ming o‘rinli shifoxonalar ishga tushirilib, 2001-yili ularning soni 1500 ga yetdi. Bundan tashqari jami 5700 nodavlat shaxsiy tibbiy muassasalari ishlamoqda. 2001-yil mart oyidan 1-Respublika klinik shifoxonasi Respublika tez tibbiy yordam ilmiy markaziga aylantirildi. Kardiologiya, xirurgiya, oftalmologiya, onkologiya respublika markazlari tashkil etildi.

Amerikaning Kolorado shtatidagi “Nyumont” firmasi bilan Muruntovda qo‘shma korxona qurilishi bilan ishlar yana qizib ketdi. “Zarafshon-Nyumont” qo‘shma korxonasiga firma tomonidan ajratilgan 200 mln. dollar investitsiya yordamida oddiy sharoitdagi yarim asrlik ishlar ikki yilda o‘z natijalarini berdi. Navoiy tog‘-kon metallurgiya kombinati oltin rudasini qazib olishdan to zargarlik bezaklarini tayyorlaydigan jahonda siklda ishlaydigan yagona korxonaga aylandi.

O‘zbekiston istiqloli mashinasozlik sanoatini, ayniqsa, uning muhim tarmog‘i-avtomobilsozlikning rivojlanishiga bog‘liq. 1992-yilning avgust oyida Janubiy Koreya Respublikasi bilan O‘zbekiston o‘rtasida tuzilgan bitim asosida “UzDEU avto” qo‘shma korxonasi tashkil etildi va Asaka shahrida yengil avtomashinalar ishlab chiqarishga kirishildi. 1996 yilning mart-iyul oylarida “UzDEU” avtokorxonasi “NEKSIYA”, “TIKO”, “DAMAS” yengil avtomashinalarini chiqara boshladi. 1999 yilni 1 iyuniga qadar, uch yil davomida 87 mingdan ko‘proq “NEKSIYA”, 51 mingdan ko‘proq “TIKO”, 40 mingdan ortiq “DAMAS” avtomashinalari ishlab chiqarildi. Endilikda yengil avtomashinalari jahon bozoriga chiqa boshladi. Faqat Rossiyaning o‘zida 18 mingdan ortiq mashinalar sotildi. Moskva, Sankt-Petrburg, Novosibirsk, Saratov, Tyumen va boshqa shaharlarda “O‘zbekiston avtomashinalar”ga servis xizmatini ko‘rsatuvchi tarmoqlar qurilmoqda. So‘nggi yillarda Rossiyada xorijiy avtomashinalari o‘rtasida “NEKSIYA” mashinamiz yetakchi o‘rinni egallab turibdi. Endilikda “DEU” korxonasi bilan shartnomaga ko‘ra bu mashinalarning yangi modellarini ishlab chiqarila boshladi. 2004-yilning o‘zida «UzDEUavto» korxonasi jami 70.070 avtomashina ishlab chiqardi. 35659 donasi xorijiy davlatlarga sotildi. Jami 39.079 «Neksiya», 9495 «Damas», 19856 «Matiz», 1139 «Tiko» va 507 «Lasetti» tashqi bozorga chiqarildi.

1993-yilda GFRdagi “Mersedes Bens AG” korporatsiyasi bilan Xorazmda yuk avtomashinasini chiqarish uchun shartnoma tuzildi. 1994-yili “Do‘stlik” avtomobil zavodida dastlabki 350 “Mersedes Bens” yuk avtomobili ishlab chiqildi. 1995-yili “O‘zavtosanoat” uyushmasi bilan Turkiyaning mashhur “Kochxolding” kompaniyasi o‘rtasida tuzilgan shartnoma asosida Samarqandning So‘g‘diyona mavzesida qad ko‘targan avtobus zavodi 1999-yil mart oyida o‘zining mahsulotini bera boshladi.

Prezidentning 1992-yil 28-yanvardagi farmoniga muvoffiq “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi tashkil etildi. 1993-yildan boshlab, aviakompaniya zamonaviy A-310, BOING-767, BOING-757, RL-85 samolyotlariga ega bo‘ldi. 1991-yili Xalqaro avia yo‘li Dehli va Karachigacha uchgan bo‘lsa, endilikda MDH va AQSh marshrutlari yo‘nalishida O‘zbekiston samolyotlari uchmoqda.

O‘zbekiston “Milliy havo yo‘llari” kompaniyasi jamoasining mustaqillik yillarida olib borgan samarali faoliyati natijasida bu sohada o‘tkazilgan islohotlar ko‘zga ko‘rinarli natijalarga olib keldi. Fuqarolar aviakompaniyasidagi ko‘p yillik qoloqlikka barham berildi va jahon bozorida o‘z o‘rnini egalladi. Havo yo‘llarida g‘arbda ishlab chiqarilgan samolyotlar foydalana boshlandi, mamlakatda turistik markazlar,

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva aeroportlari qayta qurildi. Yoqilg‘i tanqisligiga bog‘liq ayrim reyslarning qisqartirilganiga qaramasdan 2000 yili 1 mln. 800 ming yo‘lovchilar tashildi, o‘tgan yilga nisbatan bu ko‘rsatkich besh foizga ko‘p bo‘ldi. Shu vaqt davomida Ukrayina Havo Kompaniyasi 500 ming, Qozog‘iston 230 ming yo‘lovchilar tashigan xolos. Eng muhimi yo‘lovchilar xavfsizligi ta’minlandi. “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasining Xalqaro aviatsiya xavfsizligi jamg‘armasi tomonidan faxriy diplom bilan mukofotlanganligi buning guvohidir.

Istiqlol yillarida iqtisodiyotda amalga oshirilgan tarkibiy o‘zgarishlar quyidagi jahonshumul ahamiyatga ega bo‘lgan natijalarga olib keldi:

- Yonilg‘i-energetika resurslariga bo‘lgan ehtiyojini O‘zbekiston o‘zini-o‘zi ta’minlaydigan bo‘ldi;
- G‘alla mustaqilligiga erishildi;
- Ishlab chiqarishda sanoat mahsulotlari hissasi oshdi;
- Sanoatda yuksak texnologiyaga asoslangan istiqbolli tarmoqlarning hissasi oshdi;

O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik davom etmoqda. Hatto, 1998-yili ichki yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi 4,4 foiz, shu jumladan, sanoat ishlab chiqarishi 5,8 foizga ortdi. Iste’mol mollarini ishlab chiqarish 7,2 foiz ko‘paydi. Avvalgi yillardagi kabi qat’iy moliya-kredit siyosati amalga oshirildi. Natijada inflyatsiya darajasini pasayishiga olib keldi.O‘zbekiston iqtisodiyotidagi islohotlar tobora chuqurlashib bormoqda. Ichki va tashqi sarmoyalarning muntazam ravishda o‘sib borishi natijasida 2004-yil yalpi ichki mahsulot 7.7 foizga, sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 9.4 iste’mol mollarini ishlab chiqarish 13.4 foizga oshdi. Inflyatsiya 3.7 foizni tashkil qildi. Bu ko‘rsatkichlarni 2003-yil bilan taqqoslansa, iqtisodiyotdagi o‘sish yana ham ko‘zga tashlanadi. Yalpi ichki mahsulot 4%ga, sanoatni ishlab chiqirish 6.2%ga, ijtimoiy maxsulot8.4 %ga o‘sgan edi. MDHning boshqa davlatlarida 2004-yili inflyatsiya darajasi quyidagicha bo‘ldi:
Qozog‘iston 6.7%, Rossiya 8.5%, Ukrayinada 9.7%, Belorussiyada 14.1%ni tashkil qilgan.

Iqtisodiyotdagi barqarorlik O‘zbekistonning tashqi savdo aloqalarida, eksport va import tuzilmasida katta sifat o‘zgarishiga olib keldi: agar 1991-yilda eksport tarkibida paxta tolasining ulushi 77,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 1998-yilda uning ulushi 38,6 foizga tushdi.

Eksportda yoqilg‘i va sanoat mahsulotlarining ulushi ortib bormoqda. 1991-yilda xorijga sotilgan tovarlarda mashina va jihozlarning

ulushi 1 foizga ham yetmagan bo‘lsa, 2000-yili bunday mahsulotlar deyarli 23 foizni tashkil qildi.

Mustaqillik davridagi O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sishi Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari iqtisodiy ahvoli bilan taqqoslansa, faqat O‘zbekistondagina 90-yillar boshidagi darajadan oshib bir tekis rivojlanmoqda. Bu holatni jahonning ko‘plab yirik rivojlangan mamlakatlarning davlat rahbarlari, taniqli mutaxassislar tan olmoqda.

Qishloq xo‘jaligida islohotlar, uning vazifalari va yo‘nalishlari. Moliya-bank tizimi

Iqtisodiy islohotlarning hal qiluvchi bo‘g‘ini sifatida qishloq xo‘jaligida islohat o‘tkazish, uni jadal rivojlantirishga alohida e’tibor berildi. Bunga sabab O‘zbekiston aholisining 64 foizdan ko‘prog‘i qishloqda yashashi, ya’ni ichki mahsulotning 24 foizdan ko‘prog‘i agrar sektorga to‘g‘ri kelishi va qishloqda istiqomat qilganlarning 37 foizga yaqini qishloq xo‘jaligi bilan bandligida edi.

Qishloq xo‘jaligida islohatlarni amalga oshirishda eng ustuvor masala sifatida yerga mulkchilik masalasi hal qilindi. O‘zbekiston Respublikasida sug‘oriladigan yerlarning kamligini hisobga olib, yer xususiy mulk qilib sotilishi mumkin emasligi, balki uni uzoq muddatli ijara shartlari bilan topshirish mumkinligini huquqiy hujjatlarda qayd etildi.

Mustaqillikning dastlabki qadamlaridan boshlab qabul qilingan meyoriy hujjatlarda, xususan, “Yer to‘g‘risida”gi (20 iyun 1990 yil) va boshqa qonunlarda va Prezident farmonlarida qishloq xo‘jaligidagi tub islohatlarni huquqiy va nazariy asoslari yaratildi.

Qishloqda bozor munosabatlarini rivojlantirish, dehqonning yerga egalik hissini qayta tiklash, yerni sotish-olishga yo‘l qo‘ymasdan, balki uni uzoq muddatlarga (50 yilgacha) meros qilish huquqi bilan vaqtincha yoki umrbod foydalanishga berish masalalari hal qilindi. 1992-yildan boshlab atigi uch yil ichida mavjud 1137 davlat xo‘jalligidan 1066 mulkchilikning aksiyadorlik, jamoa yoki ijaradagi xo‘jalikka aylantirildi 1516 qoramolchilik fermasi mehnat jamoalarining mulki qilib berildi. Qishloq xo‘jaligida ko‘p ukladli iqtisod vujudga keldi. 1997-yili shaxsiy tomorqa xo‘jaligi-3 mln. gektarni tashkil qildi. Tomorqa xo‘jaligining ekin maydoni 1989 yili 257 ming gektar bo‘lsa, 1997-yil-599,7 ming gektarga ko‘paydi. 1996-yili shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarda 640 ming t go‘sht, 2,968 ming t sut, 1,711 ming t sabzavot, 321 ming t meva, 307,8

ming t poliz, 338,1 ming t kartoshka, 729 mln. dona tuxum yetishtirildi. G‘allakorlar O‘zbekistonning g‘alla mustaqilligiga katta hissa qo‘shmoqda. Ular 1996-yili davlatga 2 mln. 100 ming tonna g‘alla topshirgan bo‘lsalar, 1998-yili 4,6 mln. tonna g‘alla hosili yetishtirdilar. Bundan 3,5 mln. tonnasi bug‘doy edi. G‘allakorlarning yutuqlari o‘z-o‘zidan bo‘lgani yo‘q. Paxta maydonlarini qisqartirish evaziga don ekinlarining maydoni kengaytirilib 2,5 mln. gektarga yetkazilib paxta maydonlari bilan tenglashtirildi. G‘allachilikning texnika bazasi mustahkamlandi. 8159 ta “Niva”, “Don”, “Sibiryak” kombaynlari bilan bir qatorda Amerikaning “Keys” firmasidan keltirilgan 637 kombayn g‘alla o‘rim-yig‘imida qatnashdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining I-chaqiriq X sessiyasi (dekabr, 1997 yil) agrar va iqtisodiy munosabatlarni tubdan o‘zgartirish yuzasidan qator qonunlar qabul qildi. “Yer kodeksi”, “Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida”, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”, “Yer kadastri to‘g‘risida”gi qonunlar qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning huquqiy asoslarini mustahkamladi. 2000-yilga kelib respublikada davlatga qarashli bo‘lmagan sektor mustahkamlandi va yetakchi o‘rinni egallab, 1991-yilgi 63 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 1999 yil sentyabriga kelib qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish hajmining 98,4 foizini egalladi.

Barcha islohotlarning tub maqsadi insonning ijtimoiy turmushini yaxshilashga qaratilgandir. O‘zbekiston taraqqiyotidagi o‘ziga xos yo‘lning asosiy tamoyillaridan biri kafolatlangan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdan iboratdir. Uning mohiyati jamiyatda kam ta’minlangan, boquvchisi yo‘q, ko‘p bolali oilalarni, nogiron va qariyalarni ijtimoiy himoya qilish, jamiyat a’zolarining o‘ta boylar va kambag‘allarga tabaqalanib ketishining oldini olishga qaratilgan. 1994 yilni oktyabridan boshlab davlat tomonidan bola boquvchi onalarga, 16 yoshgacha bolalari bor, kam ta’minlangan oilalarga nafaqa joriy etildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida aholi turmush darajasini barqarorlashtirishga qaratilgan zaruriy chora-tadbirlarning dasturi ishlab chiqildi va hayotga tadbiq etilmoqda. Bu tadbirlarni amalga oshirish uchun davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘lar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan 1999 yil davlat byudjetini shakllantirishda obyektiv sabablarga ko‘ra yuz bergan ayrim qiyinchiliklarga qaramasdan, ma’muriy va boshqaruv organlari tizimida o‘tkazilgan qisqartirishlar hisobiga ijtimoiy sohalarga ajratiladigan mablag‘larning kamayishiga yo‘l qo‘yilmadi.

1998-yil oxiridagi hisobga koʻra mamlakatda 3 mln. 252 mingdan ortiq kishi pensiya va nafaqalar oldi va bu maqsad uchun 75 mlrd. 541 mln. soʻm miqdorida mablagʻ ajratildi. Shundan faqat ikki yoshgacha bolasi bor onalarga 10 mlrd. 448 mln. soʻm nafaqa berildi.

Kam ta'minlangan aholi qatlamlari nafaqa va moddiy yordamdan tashqari turli hil imtiyozlardan keng foydalanadi. Jumladan, jamoat transportida tekin, arzon haq toʻlab yurish, turar joy va kommunal xizmatlari uchun haq toʻlashda, dori-darmonlarni bepul yoki arzon narxda olish va boshqa bir qancha yengilliklar berilgan. Bulardan tashqari mustaqillik yillarida xalq ta'limi, oʻrta maxsus va oliy oʻquv yurtlarining professor-oʻqituvchilariga, tibbiy xodimlarga elektr energiya, gaz va kommunal xizmatlaridan foydalanishda qator imtiyozlar berildi.

Bozor munosabatiga oʻtish jarayonida aholi daromadining mohiyati yangilanmoqda. Ularning manbalari oʻzgarmoqda. Maosh bilan oʻlchangan ish haqidan tashqari tadbirkorlik daromadi, aksiyadorlik dividendi, mulkdan kelgan daromad, tomorqa mahsulotlarini sotishdan olinadigan tushum shakllarida bozor daromadlari paydo boʻldi.

Aholi daromadlarini bozorga bogʻliq manbalarining yildan-yilga oʻsib borishi munosabati bilan ish haqining salmogʻi pasayib bormoqda. Masalan, 1992-yili ish haqi aholi daromadining 57% ni tashkil qilsa, 1995-yilda esa-44,2% ni tashkil qildi. 1997-yili aholi barcha daromadlarining qariyib chorak qismi tadbirkorlik faoliyatidan tushdi.

Bozor iqtisodi sharoitida aniq yoʻnaltirilgan ijtimoiy siyosat amalga oshirilmoqda. 1994-yili eng kam maosh 150 soʻm boʻlsa, 2004-yili bu koʻrsatkich 6400 soʻmni tashkil qildi. Ayni bir vaqtda narx-navoning oshib ketmasligi choralari koʻrilmoqda. 1995-yili kam ta'minlangan oilalarga 6 mlrd. soʻm toʻlandi.

1998-yili 10-noyabrda sogʻliqni saqlashni isloh qilish toʻgʻrisida Prezident farmoni chiqdi. Davlat sogʻliqni saqlash muassasalari bilan bir qatorda nodavlat, shaxsiy tibbiyot muassasalari rivojlanmoqda.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab bozor munosabatlariga mos pul-kredit tizimi shakllantirildi. Oʻtish davrida bank tizimining egallaydigan muhim oʻrnini Prezident I.A.Karimov har tomonlama asoslab berdi: Bank tizimi, - deydi Prezident, iqtisodiy qayta qurish jarayonida lokomativ rolini bajarishi kerak. Bu tizimning faoliyati iqtisodni barqarorlashtirishga qaratilgan boʻlib, islohatlarni chuqurlashtirish uchun qulay makroiqtisodiy sharoitlar yaratish zarur. Bank tizimini isloh qilishning birinchi bosqichi 1991 yili qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida"gi Qonundan boshlandi. Sobiq

SSSR davlat bankini o‘lkadagi bo‘limi Markaziy Bankga aylantirildi, uning tashkiliy tizimi qayta ko‘rilib, ish uslubi qayta tubdan o‘zgartirildi. Harakatdagi savdo (kommersiya) banklari aksiyalashgan banklarga aylantirildi, ularning soni ko‘paydi. 1999-yilni oxirida respublikada 36 savdo (kommersiya) banklari, ulardan ikkitasi davlat, 18 aksiyadorlik, 10 xususiy va 13 yirik xorijiy banklarning vakolatxonalaridir. Milliy valyuta joriy etilishi bilan (1994-yil, iyul) pul tizimini mustahkamlashda ikkinchi bosqich bo‘ldi. Bu davrda birinchi navbatda bank qonunchiligi takomillashdi.

1996-yildan boshlab iqtisodiy o‘sish yuz berdi. Aholi daromadining yillik o‘sishi 14 foizni tashkil qildi. 1997-yili yalpi mahsulotning o‘sishi O‘zbekistonda 4,5 foizdan kam bo‘lmadi. 1991-1996 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi hukumati Milliy bank va Moliya tizimi yuzasidan bir qancha qarorlar qabul qildi. 1995-yil dekabrda Oliy Majlisning navbatdagi sessiyasining Markaziy bank va banklar to‘g‘risida qonunlari katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Markaziy bankdan tashqari Toshkent shahri va viloyatlarda 30 ta aksiyador-tijorat, shirkat va xususiy banklar faoliyat ko‘rsatmoqda (1995).

Mustaqil O‘zbekiston xazinasini to‘ldiruvchi, iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli o‘tkazishning asosiy manbayi soliqdir. Shuning uchun soliq tizimini takomillashtirishga dastlabki kunlardan boshlab katta e’tibor berildi.

Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 12-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida Davlat Soliq organlari haqida”gi qarori asosida davlat soliq tizimi shakllana boshladi. Soliq to‘lovchilar soni yildan-yilga ko‘payib bormoqda. Agar 1994-yilda 91 mingdan ortiq soliq to‘lovchi yuridik shaxs ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, 1997 yili ularning soni 148 mingtaga yetdi.

E’tirof etish joizki, iqtisodiy islohatlarning yutuqlari mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlamoqda.

Mustaqillik yillarida ma’naviy va ma’rifiy hayot. Milliy istiqlol g‘oyasi va mafkuraviy masalalar

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan bir vaqtda ma’naviy merosimizni, madaniy qadriyatlarimizni tiklash va ularni xalqimizga yetkazish borasida keng ko‘lamda faoliyat olib borilmoqda.

Respublika Prezidenti I.A. Karimov ta’kidlab o‘tganidek, ma’naviyatning mohiyati shunchalik kengki, uni o‘lchab ham, poyoniga yetkazib ham bo‘lmaydi. U inson uchun butun bir olamdir.

Bozor munosabatlari sharoitida ma’naviyat va ma’rifat ishlariga g‘oyat katta e’tibor berilishi mustaqil O‘zbekistonda yangi jamiyat qurishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Shu borada “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazini tashkil qilish va ularning ish samaradorligini oshirishga qaratilgan 1994-yil 23-apreldagi va keyingi Prezident farmonlari Respublikada ma’naviy va mafkuraviy ishlarni yuksaltirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yilning 2-iyunidagi Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi yangi farmoni mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni izchil amalga oshirish, milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini xalqimiz ongi va qalbiga singdirish borasida ulkan ishlarni amalga oshirishga qaratilgan muhim dastur bo‘ldi. Yurtboshimizning ma’naviyatga bosh homiy bo‘layotgani, viloyat hokimlarining ma’naviy va ma’rifiy Kengashlariga shaxsan o‘zlari raislik qilayotganlari mamlakatimizda ma’naviy qadriyatlarni tiklash, har tomonlama kamol topgan insonni tarbiyalashga qanchalik katta e’tibor berilganlikni ko‘rsatadi.

Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashi Prezident farmonining ijrosini ta’minlash maqsadida “Jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirish”, “Aholini siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish” yuzasidan hujjatlar qabul qilib, 39 ta kichik ishchi guruhlarni tuzdi. Qabul qilingan dasturlarni amalga oshirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini kuchaytirish yuzasidan kengashning joylardagi bo‘limlari muayyan ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda-ajdodlarimizning bizgacha yetib kelgan boy madaniy meroslarini o‘rganish ham katta o‘rin egallaydi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qadriyatlar, urf-odatlar, buyuk ota-bobolarimizning bizga qoldirgan meroslarini o‘rganish va targ‘ib etish uchun keng yo‘llar ochildi. Bu boradagi tadbirlar mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq amalga oshirila boshlandi. Xususan, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning rivojlanishi uchun davlat tomonidan katta mablag‘lar ajratildi. O‘zbekistondagi barcha davlat teatrlari, madaniyat uylari, san’at oliy o‘quv yurtlari, folklor-etnografik guruhlar madaniyat o‘choqlariga aylanib qoldi. Teatr sahnalarida yangi zamonaviy spektakllar qo‘yila boshladi.

Badiiy adabiyotda partiyaviylik, sinfiylik nuqtayi nazaridan yondoshishga chek qo‘yildi. Bahovuddin Naqshband, Feruz, Xo‘ja Axror, Cho‘lpon, Fitrat kabi allomalarning nomlari tiklanib asarlari chop etildi.Barkamol avlodni tarbiyalashdagi katta hizmatlarni hisobga olib adabiyotning ilg‘or namoyandalari Abdulla Oripov,Sayid Ahmad, Erkin Vohidov, Qayibergen To‘lepbergenov, Ibroxim Yusupovlar O‘zbekiston Qaxramoni unvoniga sazovor bo‘ldilar.

1991-yili buyuk alloma, g‘azal mulkning sultoni Alisher Navoiy yubileyini o‘tkazish katta ahamiyatga molik voqea bo‘ldi. Bu tantanaga bag‘ishlanib Respublikamizda shoirning asarlari nashrdan chiqarildi. 1994-yil Mirzo Ulubek tavallud topgan kunining 600 yilligi keng ko‘lamda, jahon miqyosida nishonlandi. YUNESKO ning Parijdagi qarorgohida yubileyga bag‘ishlangan haftalik o‘tdi.

Mustaqillik yillarida buyuk sohibqiron Amir Temurning 660 yilligi bo‘lib o‘tdi. YUNESKO tomonidan 1996-yil “Amir Temur yili” deb e’lon qilindi. Shu yili YUNESKO ning Parijdagi qarorgohida “Temuriylar davri, fan, madaniyat va maorifning gullab yashnashi” mavzuida anjuman va unga bag‘ishlangan ko‘rgazma ochildi. Mamlakatimizda “Temur va temuriylar” muzeyi, Amir Temur nomi berilgan bog‘lar, ko‘chalar barpo etildi.

Islom olamining allomasi Iso at-Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud az Zamahshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Bohovuddin Naqshbandiyning 675 yilligi keng ko‘lamda nishonlandi. Ularning boy asarlari nashrdan chiqarildi.

Barcha viloyatlar va shaharlarda har yili Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiylarga bag‘ishlanib kechalar o‘tkazildi, Jaloliddin Manguberdining 800 yillik tavalludi, “Alpomish” dostoni yaratilishining 1000 yilligi keng miqyosda nishonlandi.

Ma’naviy hayotni takomillashtirish maqsadida Imom al Buxoriyning yubileyiga bag‘ishlab, Qur’oni Karimdan keyin ikkinchi o‘rinda turadigan “Al-Jome’ as-Sahiyh” (Ishonarli to‘plam), “Al-adab, al-mufrad” (Adab durdonalari) o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashrdan chiqarildi.

1998-yili Imom al Buxoriy tavalludining 1225 yilligi, Ahmad al Farg‘oniy tavalludning 1200 yilligi jahon miqyosida keng nishonlandi. Respublikada yubileylar munosabati bilan allomalar hayotiga bag‘ishlangan ilmiy anjumanlar va badiiy ko‘rgazmalar ochildi.

Yurtboshimiz Islom Karimov tashabbusi va bevosita ishtiroki bilan buyuk vatandoshlarimiz fiqh ilmining bilimdoni, nomi sharq va g‘arbda mashhur bo‘lgan Abul Hasan ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al Farg‘oniy al-

Marg‘inoniy tavalludining 910 yilligi, kalom ilmining asoschisi Imom Abu Mansur al Motrudiy tavalludining 1130 yilligi butun mamlakatimizda keng nishonlab o‘tildi. Yurtimiz hali ittifoq tarkibida bo‘lgan, Kremlning hukmronligi hali kuchini yo‘qotmagan bir paytda – 1990-yil iyun oyida Respublika Prezidenti Islom Karimov “Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga Haj qilishi to‘g‘risida”gi farmonga imzo chekdi. O‘zbekiston hukumatining har tomonlama qo‘llab-quvvatlashi bilan 1991 -ilda Haj qilish baxtiga 350 kishi sazovar bo‘lgan bo‘lsa, 2001-yili hojilarning soni 3801 kishiga yetdi. Jami mustaqillik yillari Haj ibodatini ado etishga muvoffaq bo‘lganlarning soni 31.057 kishini tashkil qildi.

So‘nggi yillarda Haj safariga boruvchilar 4 ming nafar kishini tashkil etmoqda. Davlat ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlamoqda.

1992-yil Prezident farmoni bilan Ramazon va Qurbon hayit kunlari umumxalq bayrami deb e’lon qilindi. Xalqimiz asrlar davomida nishonlab kelgan bayramlaridan biri “Navro‘z” umumxalq bayrami sifatida qayta tiklandi.

“Movarounnahr” diniy boshqarmasi faoliyati Respublikamiz hayotida o‘z o‘rnini egalladi. Diniy boshqarma qoshida Islom Universiteti va viloyatlarda madrasalar tashkil etildi. «Islom nuri» gazetasi chop etilmoqda. Mustaqillik arafasida O‘zbekiston bo‘yicha 87 masjid bo‘lsa, 1998-yilda ularning soni 3000ga hozir esa 5000ga yetdi. Din inson ruhini poklashi, odamlar o‘rtasida mehr-oqibat tuyg‘ularini mustahkamlashi, milliy qadriyat va an’analarni asrashga xizmat qilishi bilan jamiyat hayotida muhim o‘rin tutib kelgan. O‘zbek yurti azaldan qadimiy dinlar rivoj topgan makondir. Hozirgi kunda ko‘p millatli O‘zbekiston Respublikasida islom dini bilan bir qatorda o‘n to‘rtta diniy konfessiyalar yonma-yon yashab kelmoqda.

1995-yili rus pravoslav cherkovi Toshkent va O‘rta Osiyo eparxiyasi tashkil etilganligining 125 yilligi yubileyi, O‘zbekiston yevangel-lyutteran jamoasi tashkil etilganining 100 yilligiga bag‘ishlangan “Bir osmon ostida” shiori bilan musulmon va xristian dinlari vakillari o‘rtasida o‘tkazilgan muloqat katta ahamiyat kasb etdi. Toshkentda 2000 yilning sentyabrida YUNESKO rahnamoligida “Jahon dinlari tinchlik madaniyati yo‘lida” mavzuida dinlararo muloqot xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi. Unda AQSh, Fransiya, Rossiya, Eron, Isroil, Hindiston, Xitoy, Vatikan kabi o‘ttizga yaqin mamlakat, shuningdek, xalqaro diniy muassasalar vakillari qatnashdilar. Anjumanni o‘tkazish uchun aynan O‘zbekiston tanlangani bejiz emas. Zero, bu o‘lkadan dunyoga dong‘i ketgan buyuk allomalar,

islom olamida katta hurmatga ega bo‘lgan buyuk zotlar yetishib chiqqan. Hozirgi kunda mustaqil O‘zbekistonda din va vijdon erkinligi mustahkam qaror topgan va barcha diniy konfessiyalar birgalikda mustahkam tinchlikni saqlash, diniy ekstremizm va xalqaro terrorchilikka qarshi dadil kurash olib bormoqda. AQSh sobiq davlat sekretari Madlen Olbrayt 2000 yil aprelida Toshkent Sinagogida ibodat qilgandan keyin: «O‘zbekistonda yana takror aytaman, O‘zbekistonda barcha dinlarga bir xil e’tibor berayotgani vijdon erkinligi to‘la ta’minlanganligi meni juda quvontirdi. Bu jihatdan O‘zbekistonni butun dunyoga ibrat qilib ko‘rsatsa arziydi», degan edi.

Istiqlol yo‘lida qadam tashlab borayotgan Vatanimizdagi mavjud ma’naviy, madaniy omillariga e’tibor berish bilan birga maorif, ta’lim-tarbiya ishlariga e’tibor kuchaytirilmoqda.

“Ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirmasdan turib, ongni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ongni, tafakkurni o‘zgartirmasdan turib esa, biz ko‘zlagan oliy maqsad-ozod va obod jamiyatni barpo etib bo‘lmaydi”,-deydi I.A.Karimov.

Respublikamizda ta’limning yangi tizimini amalga oshirishda, O‘zbekiston hukumati tariximizdagi ta’lim jarayonlarini o‘rganib chiqib, ilg‘or taraqqiy etgan mamlakatlarning ta’lim tashabbusini inobatga olib ta’limni isloh qilish dasturini tayyorladi. Barcha e’tibor ta’lim tizimlarini demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirib, uning moddiy-texnika bazasini, zamon va davr talablari darajasiga ko‘tarish va O‘zbekistonning ma’rifiy salohiyatini kuchaytirishga qaratildi. Shu maqsadda 1992-yil 2-iyul Respublikamizda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.

Ta’limni isloh qilish quyidagi tamoyillar asosida olib boriladi:

- ta’lim tarbiyaning insonparvarligi va demokratiyaviyligi;
- ta’lim tizimining uzluksizligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi;
- ta’limda umuminsoniy va milliy-madaniy, ma’naviy qadriyatlarning ustuvorligi;
- e’tiqodi, dinidan qat’iy nazar barcha fuqarolar uchun ta’lim olish imkoniyatlari yaratilganligi;
- ta’lim muassasalarining siyosiy partiyalar va harakatlar ta’siridan xoliligi.

1993-yil Respublikamiz Prezidenti tomonidan “O‘zbekistonda o‘quvchi yoshlarni rag‘batlantirish choralari to‘g‘risi”dagi farmoniga binoan talaba va aspirantlar uchun maxsus stipendiyalar belgilandi. Ular uchun rivojlangan davlatlardagi universitetlarda ta’lim olish, ulardagi

ilmiy markazlarda ishlash, malakalarini oshirish uchun sharoitlar yaratib berildi.

O‘zbekiston mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardan boshlab eng muhim masalalardan biri eski tafakkur, e’tiqodidan qutilgan istiqlol uchun, o‘z ona-yurti uchun xizmat qiladigan kadrlar tayyorlash masalasi turdi. Eski tuzumni asta-sekin tag-tomiri bilan tugatib batamom yangi, jahonning ilg‘or taraqqiy etgan mamlakatlari yo‘lidan boradigan haqiqiy demokratik jamiyat qurish endilikda yangicha fikrlaydigan quyidan tortib yuqori toifadagi kadrlarga bog‘liq bo‘lib qoldi.

Sobiq ittifoqda katta-kichik rahbar xodimlar har xil darajadagi partiya va komsomol maktablarida, kommunistik mafkura targ‘ibotchisi va tashviqotchilarini tayyorlaydigan Universitet va akademiyalarda tayyorlangan bo‘lsa, endilikda bu o‘quv yurtlari, tabiiyki, tarix sahnasidan tushib qoldi.

Bozor munosabatlariga asoslangan yangi jamiyatda rahbar kadrlarni tayyorlash maqsadida Prezident qoshidagi “Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi”, “Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti”, ayrim vazirliklar qoshida akademiyalarning tashkil etilishi katta ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Respublika va viloyatlarning rahbar xodimlari, huquq organlari rahbarlari bilan uchrashuvlarida hokimiyatlar, huquq organlarining ayrim xodimlari tomonidan tartib-intizomning, qonunchilikning buzilayotgani to‘g‘risida har gal kuyib-pishib gapiradi va urug‘-aymoqchilik, mahalliychilik, poraxo‘rlik kabi o‘tmish qoldiqlaridan toza, el-yurti va xalqiga halol mehnat qiladigan yosh kadrlarni tayyorlash, ularga yo‘l ochib berish zarurligini qayta-qayta takrorlab ko‘rsatadi.

O‘zbekiston mustaqilligining kelajagi yuqori malakali, ma’rifatli, el-yurtiga sadoqatli mutaxassislarni tayyorlashga bevosita bog‘liq. I.A.Karimov muxbirlarning “Sizning siyosatingizda ta’lim-tarbiya masalasiga katta e’tibor berishning sabablari nimada?”, deb so‘ragan savoliga ongni, tafakkurni o‘zgartirmasdan turib yangi jamiyat qurib bo‘lmaydi, ong, g‘oya, tafakkur ta’lim-tarbiya bilan uzviy bog‘liq, bir-birini to‘ldiradi deb javob beradi.

1997-yil, 29-avgustda Respublika Oliy Majlisining IX sessiyasida I.A.Karimovning “Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” ma’ruzasi asosida yangi tahrirda “Ta’lim to‘g‘risida” qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi.

Istiqlol yillarida maktabgacha tarbiya muassasalarda, boshlang‘ich sinflarda o‘quv-tarbiya ishlariga e’tibor kuchaytirilib, o‘rta-maxsus va

oliy o‘quv yurtlari tizimida litseylar, kollejlar, biznes maktablari ochildi, 8 ta institutlar asosida universitetlar tashkil qilindi. 2000-yil boshlariga kelib, mamlakatimizda 61 ta oliy, 258 ta o‘rta-maxsus o‘quv yurtlari, shu jumladan 75 ta kollejlarda 360 mingdan ortiq talaba bilim olmoqda. Mustaqilligimiz kelajagi yoshlar qo‘lida ekan bilimdon, ma’naviyatli, mustaqil fikrlab mustaqil ish yuritadigan yoshlarni yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda jamiyatimizning eng katta boyligi, millatimizning intelektual, aql-zakovat boyligi bo‘lmish yigit-qizlarimizni tarbiyalash mamlakatimiz hayotida birinchi darajali vazifa etib qo‘yilmoqda.

Bu borada “Umid” (1997-yil), “Ulug‘bek” (1993-yil) jamg‘armalari olib borayotgan ishlar alohida o‘rin tutadi. Faqat “Umid” jamg‘armasi sinovlarida 1997-1999 yillar mobaynida 5500 nafar yoshlar qatnashib, 658 tasi Prezident grantlariga sazovor bo‘ldi. 2000-2001-o‘quv yilidagi bu tanlovda 3000 nafar yoshlar bilimi sinovdan o‘tkazilib, ulardan 124 tasi xorijiy davlatlarni eng nufuzli o‘quv yurtlarida o‘qishga sazovor bo‘ldi.

Yaqinda o‘z faoliyatini boshlagan “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining asosiy maqsad va vazifalari kelajak avlodimiz diliga va ongiga milliy istiqlol g‘oyalari va mafkurasini singdirish, aholining aksariyatini tashkil qilgan yigit-qizlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlari asosida tarbiyalashga qaratilgandir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy tamoyillari aniq belgilab ko‘rsatildi:

- uzluksizlik: ta’lim-fan-ishlab chiqarish;
- mutaxassislarga talab istiqbolini o‘rganish;
- o‘qituvchi va murabbiylarni qayta tayyorlash;
- o‘quvchi yoshlarni Vatanga sadoqat, yuksak axloqli ma’naviyatli va vijdonli etib tarbiyalash;
- korxonalarda maktab-institutlar bazasini mustahkamlashdan foydalanish;
- chet el sarmoyalaridan foydalanish.

Ta’lim to‘g‘risidagi yangi qonunga ko‘ra, uzluksiz ta’lim bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi zarur:

Maktabgacha-oila va bog‘cha tarbiyasi.

Boshlang‘ich ta’lim 1-4 sinflar.

Umumiy ta’lim majburiy bo‘lib, 5-9 sinflarda umumiy bilim asoslari, dunyoqarash shakllanadi.

Majburiy-ixtiyoriy tusdagi o‘rta-maxsus bilim va kasb-hunar o‘quv yurtlari: 3 yilga mo‘ljallangan akademik litseylar, maxsus kasb-hunar kollejlari

Oliy ta’lim: bakalavr-4 yil, magistratura-2 yil o‘qish muddati, keyinchalik ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun aspirantura-3 yilga, doktorantura-2 yil muddatga belgilangan.

Ta’lim-tarbiya, ilm-fan sohasidagi islohotlar bosqichma- bosqich amalga oshirilishi zarur.

I. 1997-2001-yy. O‘tish davri.

II.2000-2005-yy. Islohotni keng miqyosda amalga oshirish davri.

III. 2005-yildan keyin kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish davr.

O‘tgan qisqa davr ichida “Kadrlar tayyorlashning milliy dasturini” amalga oshirishdagi birinchi bosqichidagi natijalar ko‘zga ko‘rinarli darajada bo‘ldi. Hozirgi kunda umuman ta’lim taraqqiyoti 2005-2004-yillarga mo‘ljallangan maxsus qaror asosida amalga oshirilmoqda.

Maorif sohasidagi islohotlar natijasida o‘rta maxsus bilim yurtlari tubdan qayta qurildi. Endilikda 9-sinflarni bitirganlar uchun akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining eshigi keng ochildi. 2003 yilning avgustida mamlakatda 6865 bolalar bog‘chalari mavjud bo‘lib, ularda 642000 bola tarbiya olmoqda. 64000 pedagoglar tarbiya ishlarini olib bormoqda. 9702 umumta’lim maktablarida 6 mln.272000 o‘quvchi ta’lim tarbiya olmoqda. 500 ming dan ortiq pedagog o‘qituvchilar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ayni vaqtda 51 akademik litseylarda 30620 o‘quvchi o‘qimoqda, 419 kasb-hunar kollejlarida esa 285.685 yigit-qizlar hunar o‘rganmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2004-2009 yillarga mo‘ljallangan umumta’lim maktablarining 9-sinfini bitirgan o‘quvchilar hammasi akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o‘qishlari zarur. Oliy ta’lim tizimi keng rivojlanmoqda. 1991 yili O‘zbekistonda 52 oliygoh bo‘lsa, hozirgi kunda ularning soni 63 taga yetdi, bulardan 19 tasi universitetlardir.

O‘zbekiston hukumati yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan keng shug‘ullanishi uchun barcha sharoitlarni yaratib qo‘ydi. Hozirgi kunda Respublikada jismoniy tarbiyaning 15085 boshlang‘ich tashkiloti shug‘ullangan bo‘lib ulardan 9501 maktablarda, 710 tasi litsey va kollejlarda 63 tasi oliygohlarda tashkil etilgan.

Respublikada sport inshootlarini qurishga ulkan e’tibor qaratilgan. Jumladan, hozirgi kunga kelib 500dan ortiq sport klublari, 536 sport maskanlari, 5 ta olimpiya klublari, 8ta Respublika oliy sport maktablari va jismoniy tarbiya instituti ishlab turibdi. Sport bilan shug‘ullanuvchilarga 233 stadion, 135 suzish havzasi, 32.865 sport maydonchalari xizmat

koʻrsatmoqda. 4841 futbol maydoni, 168 tennis, voleybol, basketbol maydonlari mavjuddir.

Mamlakatda sport va jismoniy tarbiya sohasida erishilgan yutuqlarni yanada rivojlantirish yuzasidan Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 1999-yil 27-maydagi 271-sonli qarori va shu qaror asosida qabul qilingan Davlat Dasturi katta ahamiyatga ega boʻldi. Dasturga koʻra ayniqsa qishloq yoshlari oʻrtasida jismoniy tarbiya va sport shaxobchalarini kengaytirib, ularning moddiy texnika bazalarini kuchaytirish tadbirlari belgilandi. Bunga javoban oʻtgan bir yildan koʻproq vaqt ichida qishloq tumanlarida 184 sport-sogʻlomlashtirish klublari tashkil qilindi.

2000-yil Oʻzbekiston Respublikasi sporti tarixida, umuman olganda, muvaffaqiyatli yil boʻldi. Saralash musobaqalarida gʻolib chiqqan 77 sportchimiz 13 sport turi boʻyicha Avstraliyaning Sidney shahrida boʻlib oʻtgan XXVII Olimpiada oʻyinlarida qatnashishga muyassar boʻldilar. Olimpiadachilarimiz 1 oltin, 1 kumush va 2 bronza medallarini qoʻlga kiritib, 200 mamlakat oʻrtasida 41-oʻrinni egalladilar. Respublika kurashchilari, bokschilari, tennischilari, dzyudochi va karatechilari mustaqil Oʻzbekistonimizni butun jahonga tanitmoqda.

Mustaqillik yillarida eng tez rivojlanib borayotgan sport turlaridan biri shaxmatdir. Sobiq Sovetlar davrida shaxmat boʻyicha bitta grossmeyster tayyorlangan boʻlsa, endilikda ularning soni 11 nafar boʻldi. Turkiyada boʻlib oʻtgan jahon shaxmat olimpiadasida hamyurtlarimiz 120 dan ortiq mamlakatlar ichida farqli 11 oʻrinni egalladilar. Respublika chempioni Rustam Qosimjonov oʻz taxtasida bronza medaliga ega boʻldi. 2004 yili dunyoning eng kuchli shaxmatchilari ishtirokida oʻtgan jahon chempionatida R.Qosimjonov jahon chempioni unvonini qoʻlga kiritdi.

Jamiyat taraqqiyotida roʻy berayotgan oʻzgarishlarni tushunish, hur fikrlilikka intilish kishilarni istiqlol yoʻlidan olib boruvchi gʻoyaviy qarashlar hozirgi kunning asosiy vazifalaridan biri boʻlib qolmoqda.

Jamiyatimizda siyosiy mustaqillikka erishib iqtisodiy, madaniy-maʼrifiy ishlar amalga oshirilayotgan bir vaqtda milliy istiqlol gʻoyasi va mafkurasi yurtboshimiz aytganidek, «suv bilan havodek zarurdir». Busiz, yaʼni fikrlash, eʼtiqod oʻzgarmasdan bozor munosabatlariga oʻtish davrida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlikka erishish murakkab vazifadir. I.A.Karimov milliy mustaqillik gʻoyasining zarurligi toʻgʻrisida gapirar ekan “Oʻzining kelajagini qurmoqchi boʻlgan har qanday davlat yoxud jamiyat, albatta oʻz milliy gʻoyasiga suyanishi va tayanishi kerak”, - deb taʼkidlaydi va milliy istiqlol mafkurasining vazifasini koʻrsatib uning:

“...asl ma’nosi eskicha aqidalardan xoli bo‘lgan, mustaqil va yangicha fikrlovchi kishilarni tarbiyalashdan iborat”,-deydi. Mustaqillik g‘oyasi va mafkurasining xalqimizga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi, uni birlashtiruvchi, buyuk maqsadlar uchun butun kuchlarimizni uyg‘unlashtiruvchi ahamiyatini nazarda tutib Prezident I.A. Karimov mustaqillikning dastlabki davrida, 1993-yil 6-may O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining II chaqiriq, XII sessiyasida “Oldimizda turgan eng muhim masala, bu-milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizga tadbiq etishdir”,- degan edi. Kishilarimizni qaysi toifa va guruhda bo‘lishidan qat’iy nazar ma’naviy inqirozdan chiqaradigan yagona milliy g‘oya atrofida birlashtiradigan birdan-bir qudratli kuch ana shu milliy mustaqillik mafkurasidir.

Yagona maqsad, yagona g‘oya bo‘lmasa jamiyat inqirozga uchraydi, halok bo‘ladi. Buni biz yaqin va olis o‘tmishdagi tariximizdan bilamiz. Milliy istiqlol g‘oyasi kelajak maqsadni ifodalaydigan xalqimizning ming yillik tarixini buyuk kelajak bilan bog‘laydigan, ana shu yuksak maqsad yo‘lida 120 dan ortiq millatlar va elatlarni, barcha kishilarimizni birlashtiruvchi bayroq vazifasini bajaradi.

Mustaqil O‘zbekiston tarixi milliy istiqlol g‘oyasining tarixidir. I.A.Karimov: “O‘zining hayotini, oldiga qo‘ygan maqsadlarini aniq tasavvur qila oladigan, o‘z kelajagi haqida qayg‘uradigan millat hech bir davrda milliy g‘oya va milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi”,-deydi.

Milliy istiqlol g‘oyasi O‘zbekiston respublikasining ko‘p millatli omilini saqlab qolishi va uni rivojlantirishdek buyuk maqsadni o‘zining adolatli, insonparvar huquqiy jamiyat qurish yo‘lidagi ustuvor yo‘nalish deb qaraydi. “O‘zbekiston vatanim manim” g‘oyasi barcha O‘zbekistonliklarning dilidan o‘rin olgan. Bu fikrlarning tasdig‘ini “Ijtimoiy fikr” markazi tomonidan 1999 yilning iyun oyida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlarning natijasida ko‘rish mumkin. Qoraqolpog‘iston Respublikasi, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona viloyatlari va Toshkent shahrida 1350 respondentlar ishtirokida o‘tkazilgan tadqiqotda o‘zbeklardan tashqari tojik, qozoq, tatar, qirg‘iz, rus, ukrain, belorus millatlari vakillari O‘zbekistonda millatlararo va fuqarolik barqarorlikning sabablari nimada?-degan savolga yakdillik bilan quyidagicha javob berdilar: 59,5%-Respublika Prezidenti I.Karimovning oqilona siyosati, 31,3%-davlatning oddiy xalq to‘g‘risidagi g‘amxo‘rligi, 22%-o‘zbek xalqining bag‘rikengligi, 15,3%-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotdagi barqarorlik.

O‘zbekistonning bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurish yo‘lida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy ishlarimizdagi barqarorlik mafkuraviy tahdidlarni oldini olishni muhim vazifa qilib qo‘yadi. Shu maqsadda xalqimizning an’analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma’rifat tuyg‘ularini kishilar ongiga singdirish lozimdir.

Milliy mustaqillik g‘oyasining eng muhim vazifalaridan biri mustaqilligimiz tayanchi va kelajagi yosh avlodni milliy g‘urur, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat. Mustaqillik g‘oyalariga e’tiborsizlik og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. 1999 yil 16-fevral ”qonli seshanba” kungi voqealar milliy mustaqillik g‘oyasini, mafkurasini yoshlarimiz diliga yetkazish zarurligini, buning uchun g‘oyaviy, mafkuraviy ishlarimizni kuchaytirish lozimligini ko‘rsatdi.

Bu borada yurtboshimiz I.A.Karimov 2000-yil aprelda Oqsaroy qarorgohida ziyolilar bilan o‘tkazilgan muloqotida, shu yilning iyun oyida “Fidokor” gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblaridagi milliy istiqlol mafkurasining mohiyati, zaruriyati, ahamiyati, uning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy asoslari to‘g‘risidagi ta’limoti istiqlolimizning buyuk g‘oyalarini kishilarimiz tafakkuriga singdirish borasidagi ishlarimizning dasturidir.

Milliy istiqlol g‘oyasini, uning tushuncha va tamoyillarini xalqimiz, birinchi navbatda yoshlarimiz o‘rtasida targ‘ib va tashviq etishning usul-uslublarini shakllantirish yo‘lida dastlabki qadamlar qo‘yilmoqda. ”Ma’naviyat va ma’rifat” markazi qoshidagi targ‘ibot-tashviqot markazining tuzilgani, jamoatchi ma’ruzachilar ishining yo‘lga qo‘yilayotgani, ular uchun ”Voizga yordam” ruknida risolalar chop etilayotgani shular jumlasidandir. Prezidentimiz farmoni bilan “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” maxsus fan sifatida ta’lim tizimining barcha bosqichlariga kiritildi.

Mustaqillik yillarida fan va madaniyatning rivojlanishi

O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekiston hududida qadimdan boshlab ilm-fanning hamma sohasi, ayniqsa, astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, me’morchilik, ma’danshunoslik, falsafa, musiqa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik rivojlangan. Hozirgi kunda O‘zbekiston olimlari ota-bobolari yaratib ketgan ilmiy merosni chuqurroq o‘rganib yanada boyitmoqdalar. Ular o‘z milliy asarlari va kashfiyotlari bilan jahon ilm-

fani va madaniyatiga munosib hissa qo‘shmoqdalar. Respublikamizda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi, Bank-moliya Akademiyasi, Nukus va Samarqandda O‘zbekiston Respublikasi FAning bo‘limlari ochilgan. Ilmiy tadqiqot ishlari xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatadigan ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, ilmiy markazlari, shuningdek, universitetlar va boshqa oliy o‘quv yurtlarida ham olib boriladi. Ilmiy kadrlar Fanlar Akademiyasi tizimida ham, oliy o‘quv yurtlari, xalq ta’lim tizimida ham tayyorlanadi. Faqat Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimidagi o‘quv yurtlarida 600 dan ortiq fan doktorlari va deyarli 6 mingga yaqin fan nomzodlari o‘qituvchilik va ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanadilar.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng mamlakatda ilm-fanga alohida e’tibor berildi. Xalq xo‘jaligi va madaniy hayotning tobora ortib borayotgan talablaridan orqada qolayotgan ilmiy tadqiqot institutlari tugatildi. Turmush taqozo etgan yangi institutlar ochildi. Respublika Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 3-aprelidagi qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi FAning yangi Nizomi tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-aprelidagi farmoni hamda uni amalga oshirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fanlar rivojlanishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tadbirlari va innovatsiya faoliyati haqida”gi qarori mamlakatda fanni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Respublika olimlarini xorijiy mamlakatlarga malaka oshirishga yuborishga alohida e’tibor berildi. Ilmiy yechimlarni ichki va tashqi bozorda targ‘ib etish va tarqatish maqsadida Respublika ilmiy ishlanmalari innovatsiya - tijorat markazi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy Attestatsiya komissiyasi tashkil etilishi munosabati bilan FAning mavqeyi ortdi.

O‘zbek olimlarining fan-texnika sohasidagi yutuqlari nafaqat O‘zbekiston balki jahon hamjamiyatida ham tan olina boshlandi va ko‘pchilik olimlarimiz davlatimiz mukofotlariga sazovor bo‘ldilar va xorijiy davlatlar akademiyalariga ham haqiqiy ham faxriy a’zolikka saylandilar. O‘zbekiston Respublikasining Fanlar Akademiyasi al-Xorazmiy nomidagi, Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi oltin medallarni ta’sis etdi. 1993-yilda O‘zbekiston Respublikasi FAning akademigi H.F. Fozilov tabiiy va texnikaviy sohada katta yutuqlarga

erishgani uchun al-Xorazmiy nomidagi oltin medalning birinchi sohibi bo‘ldi.

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi oltin medal birinchi bo‘lib shu yili ijtimoiy va gumanitar fanlar sohasida katta yutuqlarga erishgani uchun filologiya fanlari doktori, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining a’zosi U.I. Karimovga nasib etdi.

1992-yil oktabr oyida esa geologiya-minerologiya fanlari doktori, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining akademigi I.H. Hamroboyev geologiya va geofizika sohasida erishgan muvaffaqiyatlari uchun Habib Abdullayev nomidagi oltin medalning birinchi sohibi bo‘ldi. U AQSh da chiqadigan “Global tektonika va metallogeniya” xalqaro ilmiy jurnali tahririyatiga a’zo etib saylandi.

“Fan va texnikada kim haqiqatan kim?” deb nomlangan jahon fan va texnikasining rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan eng buyuk olimlarning hayoti va ilmiy faoliyati to‘g‘risidagi asosiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan qomusga O‘zbekiston Respublikasi FAning akademigi P.Q. Habibullayev kiritilgan. O‘zbek olimi bu sharafga o‘zining qattiq va yumshoq jismlar, issiqlik fizikasining katta muammolarini, energetikaning fizikaviy-texnikaviy muammolarini ishlab chiqqanligi uchun muyassar bo‘lgan.

Mustaqillik yillarida (1996) FAning 40 ga yaqin ilmiy markazi va tadqiqot laboratoriyalarida yirik olimlar faol mehnat qilmoqdalar. O‘zbekiston Respublikasi FA institutlari olimlari xorijiy davlatlar olimlari bilan hamkorlikda ilmiy aloqalarni kengaytirib bormoqdalar. Natijada, 1992-yil dekabr oyida texnika fanlari doktori G‘.G‘. Umarov K.E. Siolkovskiy nomidagi Kosmonavtika Xalqaro akademiyasining a’zosi bo‘ldi. U mazkur Xalqaro Akademiyaning a’zosi bo‘lgan birinchi o‘zbek olimidir. Shuningdek, o‘zbekistonlik M.S. Bulatov, S.M. Sutyagin, I.I. Notkinlar, 1993-yilda Iordaniya Islom Fanlar Akademiyasi a’zoligiga, M.S. Salohiddinov, YUNESKO Informatsiya Xalqaro akademiyasining haqiqiy a’zoligiga, 1994-yil oktabr oyida Xudoyor Olloyorov, 1995-yil fevral oyida Azamat Shamsiyev Nyu-York FAning faxriy a’zoligiga, ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi xalqaro akademiyasining haqiqiy a’zoligiga Z.S.Salimov, A.A. A’zamxo‘jayev, 1997-yil oktabrida U. Tojixonov va Z.Zaripovlar tabiat va jamiyat fanlari Xalqaro akademiyasining a’zoligiga, akademik E.Yusupov esa Turkiya fanlar akademiyasining haqiqiy a’zoligiga saylandilar. Amerika biografiya instituti O‘zbekistonning yetakchi olimlaridan biri Omonulla Fayzullayevga uning jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga qo‘shgan hissasiga asoslanib “2001 yil insoni”

unvonini berdi hamda mazkur institutning maslahatchilar Kengashi a’zoligiga saylandi. Bular O‘zbekiston fanining xalqaro miqyosda tan olinishining yaqqol misolidir. Yurtboshimiz aytganlaridek, XXI asrda quroli, qo‘shini bo‘lgan davlatgina emas, balki turli sohalar bo‘yicha kuchli mutaxassislari bo‘lgan davlatgina qudratli davlat hisoblanadi. Zeroki, har bir xalq fan sohasida katta yutuqlarni qo‘lga kiritgan mashhur farzandlari bilan buyukdir.

Mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qayta qurishlar qatorida madaniyat sohasida ham tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu avvalo teatr san’ati, milliy musiqa, me’morchilik, adabiyot sohalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Madaniyat mutaxassislarining ijodiy faoliyati, ularning moddiy va texnikaviy uskunalari, zamonaviy binolar bilan ta’minlanishi davlat rahbari Islom Karimovning bevosita g‘amxo‘rligida bo‘ldi. 2001-yilning davlat byudjetidan madaniyat va san’at muassasalarini rivojlantirish uchun 12 milliard 703 million so‘m (bu ko‘rsatkich 2000-yili 9 mlrd. 463 mln. so‘mni tashkil qilgan edi) ajratilishi fikrimizning guvohidir. Mustaqillikning dastlabki yillarida Respublikada yangi teatr jamoalari tashkil etildi. 1991-1994 yillarda bir qator viloyat markazlarida yangi teatrlar ishga tushirildi. 1993-yil avgust oyida Toshkent shahrida ish boshlagan “Turkiston” saroyi nafaqat me’morchilikning yorqin namunasi, balki sahna guruhlari va atoqli artistlarning chiqishlari bo‘ladigan dargohga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov “Turkiston” saroyi ochilishi marosimida nutq so‘zlab, “Ushbu saroyda xalqimizning, shuningdek, jahon xalqlarining, Markaziy Osiyo xalqlarining an’anaviy anjumanlarini, san’at bayramlarini o‘tkazishni niyat qilganmiz. Bu koshona, inshoolo, millatlar, el-elatlarning do‘stlik, birdamlik qal’asiga aylanadi”,-degan edi.

1998-yil 26-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning “O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida”gi farmoni e’lon qilindi. Bu farmonga muvofiq O‘zbekiston tomosha san’atining ko‘p asrlik an’analarini o‘rganish, boyitish va targ‘ib qilish, teatr san’atini har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni amalga oshirishda teatr arboblarining faol qatnashishini ta’minlash maqsadida “O‘zbekteatr” ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Teatrlarning 90-yillarning ikkinchi yarmidagi repertuarlarida tarixiy pyessalar keng o‘rin oldi. 1996 yili Amir Temurning 660 yillik yubileyi munosabati bilan 10 ta yangi spektakllar saxnalashtirildi. “Navro‘z-97” teatr festevali munosabati bilan Sohibqiron obrazini

ifodalovchi 14 spektakl namoyish etildi. 1998-yili al-Farg‘oniy, al-Buxoriylarni yubileylariga bag‘ishlangan pyessalar yaratildi. Mamlakatimizning boy tarixini namoyish etuvchi spektakllar Toshkentni yetakchi teatrlaridagina emas, barcha viloyatlarning teatr sahnalarida qo‘yildi. 1995-1997-yillari Respublika teatrlari tomonidan 313 yangi spektakllar qo‘yildi.

O‘zbekistonda musiqa va raqs san’atini rivojlantirish maqsadida “O‘zbeknavo” gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi. Unda musiqa-raqs san’atini rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash masalalari ko‘zda tutildi. San’atni barcha sohalari, madaniy-ma’rifiy muassasalari uchun malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash Respublika Prezidentining doimo e’tibor markazida bo‘lib keldi. Sovetlar davridagi madaniyat o‘quv ishlari qayta tuzilib ko‘plab yangi o‘quv maskanlari tashkil etildi. 90-yillar oxirida mamlakatda 27 ta maxsus o‘quv yurti faoliyat ko‘rsatdi. Shundan bittasi oliy o‘quv yurtlari, 20 ta o‘rta maxsus bilim yurtlari, 2 maktab-internat.

Mustaqillik yillarida o‘zbek adabiyoti, adabiyotshunoslik fani taraqqiyotida ham yangi sahifalar ochildi. Asarlari zararli, o‘zlari millatchi deb nohaq baholangan Cho‘lpon, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud, Munavvar qori singari millatparvar yozuvchi, ma’rifatparvarlar ijodi xolisona o‘rganilib, ularning asarlari chop etildi, teatr saxnalarida o‘z o‘rnini egalladilar.

Ma’rifatparvarlar faoliyatining asl mohiyatini, adabiy, madaniy, siyosiy hayotdagi o‘rnini ro‘yi-rost ko‘rsatish boshlandi. O‘tmishda diniy va saroy adabiyoti vakili deb tamg‘a bosilgan buyuk shoir va mutafakkirlar hayoti va ijodi o‘rganilib, asarlari xalqqa qaytarildi.

Mustaqillik sharofati bois mo`tabar Qur’oni Karim va hadislar chop etildi. Bunday asarlarning xalqimiz qo‘liga yetib borishi butunlay yangi, sog‘lom, sof milliy g‘oyalarimiznng, maqsad va intilishlarimizning sifat darajasini belgilaydi. Adabiyot sohasidagi va ko‘plab nashr etilgan boshqa asarlar milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasining buyuk xayotbaxsh kuchini ko‘rsatadi.

Mustaqillik davri adabiyotining bayroqlari O‘zbekiston qahramonlari Sayid Ahmad, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O‘zekiston xalq shoirlari Muhammad Yusuf, Habib Sa’dullayevlar ijodiy faoliyati bilan butun xalqimiz faxrlanadi.

Milliy istiqlol davridagi o‘zbek adabiyotshunosligi oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda Ozod Sharofiddinov, Begali Qosimov, Nayim Karimov, Erkin Karimov, Ahmad Aliyev, Najmiddin

Komilovlarning asarlari alohida o‘rin egallaydi. T.Malikning romanlari, O.Matjon, O.Hojiyeva, X.Sultonov, A.Suyun, Y.Eshbek, H.Do‘stmuhammad, Sh.Salimova singari shoir va adiblarning badiiy barkamol, g‘oyaviy yetuk asarlari o‘zbek milliy istiqlol adabiyotiga katta hissa bo‘lib qo‘shildi.

Mustaqillik yillarida madaniy-ma’rifiy muassasalar ishlarida ham keskin o‘zgarishlar yuz berdi. Bu muassasalarning soni 1997-yili 9442 ta bo‘lsa, bulardan 60 tasi muzeylar, 2657 tasi klublar, 6725 tasi kutubxonalardir. Mustaqillik yillari bu muassasalar aholi o‘rtasida madaniy-ma’rifiy tarbiyaning o‘chog‘iga aylandi.

Aholi o‘rtasida madaniy-ma’rifiy ishlarni tashkil qiluvchi muassasalardan biri kutubxonalar bo‘lib, ularning soni 1996-yili 6723 ta edi. Kutubxonalarda jami kitobxonlar 6 mln. 211 kishini tashkil qilsa, shundan 4 mln. 425 mingi qishloq rayonlarida edi. Kutubxona xodimlaridan 65 foizi oliy va o‘rta ma’lumotli mutaxassislardir.

Millatimizning o‘zligini anglashda milliy, tarixiy qadriyatlarmizni tiklashda muzeylar alohida o‘rin tutadi. Shu jihatdan Prezident I.A.Karimovning 1998-yil 12-yanvardagi “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni muzeylar ishlarini rivojlantirishda dastur rolini bajarmoqda.

Mustaqillik yillari respublikamizda muzeylarga bo‘lgan e’tibor oshib bormoqda “Temuriylar tarixi davlat muzeyi”ni qurilishi, ”O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi”, “Xalq amaliy san’ati muzeyi” ning qayta jihozlanishi buning dalolatidir. Hozirgi kunda davlat qaramog‘idagi muzeylar 81 tani tashkil qilib, shulardan 15 tasi tarix muzeylari, 23-o‘lkashunoslik, 10-badiiy san’at koshonasi, 20-memorial muassasa, 8-adabiyot, 4-tibbiyot muzeylaridir.

Shuningdek, mamlakatning shaharlari va tumanlarida 510 muzey xalqimizning boy tarixiy-madaniy xazinalarini namoyish etmoqda va kishilarimizni, yosh avlodni ma’naviy-ma’rifiy tarbiyalashga o‘zlarining hissalarini qo‘shmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi tasarrufidagi jami muzeylarda 2000-yil boshlarida 1.350 ming eksponantlar saqlanmoqda va bularni o‘tgan davrda 1.655.400 kishi tomosha qilgan.

Sharq va G‘arb me’morchiligi uyg‘unlashgan binolar yurtimiz poytaxti va viloyat markazlarida qad ko‘tarib, shaharlarimiz husniga husn qo‘shmoqda. Milliy bank, mehmonxona binolari hamda madaniyat va istirohat bog‘larining bunyod etilishi buning yorqin misolidir. Haykaltaroshlik, amaliy bezak san’ati, tasviriy san’at, raqs, kino

san’atlarida ham an’anaviy va zamonaviy usullar uyg‘unlashib yetuk asarlar yaratildi va yaratilmoqda.

Xulosa, O‘zbekiston o‘zining qisqa vaqtdagi mustaqillik yillari davomida iqtisodiy-ijtimoiy boradagi yutuqlari bilan bir qatorda; mafkuraviy-ma’naviy, madaniy ishlarga ham e’tiborni kuchaytirib, jahonning rivojlangan davlatlari orasida o‘z nufuzi va obro‘sini yuqori ko‘tarmoqda.

20-mavzu. O‘zbekiston va Jahon hamjamiyati
O`zbekistonning tinchliksevar mustaqil tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi

XX asrning oxirgi o‘n yilligi insoniyat tarixiga buyuk o‘zgarishlar davri bo‘lib kirdi, chunki yer yuzida vaziyat, kuchlar nisbati keskin o‘zgarib, bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan SSSR va AQSh yetakchilik qilgan ikki ijtimoiy-siyosiy tuzum, ikki harbiy-siyosiy blok barham topdi. Sotsialistik tuzum yemirilishi bilvosita butun mamlakatlar taqdiriga ta’sir etdi. Dunyo yangilanishi jarayonida har bir davlat o`z taraqqiyot ko`lami bilan jahon hamjamiyatidan munosib o`rin olish uchun harakat boshladi. Shular qatori O`zbekiston ham jahon hamjamiyatidan munosib o`rin olish maqsadida o`zining ijtimoiy-siyosiy yangilanish dasturini ishlab chiqdi. O‘zbekistonning o‘z taraqqiyot istiqbollari uchun qulay jo‘g‘rofiy-siyosiy imkoniyatlarga ega ekanligi ham mustaqil tashqi siyosat yuritish, jahon hamjamiyatidan munosib o`rin olish uchun imkon berdi. Xususan, O`zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi o`rni, bu hududda istiqomat qiladigan xalqlarning qadimdan hamfikr bo`lib kelgani Markaziy Osiyo mintaqasida tashqi siyosat yuritishda ijtimoiy zarurat hisoblanib kelinmoqda. O`zbekistonning bu borada amalga oshirgan ulkan yutuqlari umumjahon sivilizatsiyasi bilan mushtarak ekanligini alohida qayd etish bilan birga bu sermashaqqat yo`lda Prezident I. A. Karimovning o`rni beqiyosligini ham aytib o`tmoq lozim.

Ma’lumki, sobiq ittifoq davrida O`zbekiston tashqi siyosatda boshqa davlatlar bilan to`g‘ridan to`g‘ri aloqa qilish imkonidan mahrum bo`lib, respublikaning o`rni faqat qog‘ozlarda federatsiya subyekti sifatida mustahkamlangan edi, xolos. O`zbekiston o`z imkoniyatlarini dunyo miqyosida ko`rsatishdan ajrab qolgan, xorij bilan xalqaro aloqalar faqat markazning ruxsati bilan amalga oshirilar edi.

Istiqlolning dastlabki kunlaridan boshlab O`zbekistonda xalqaro tashkilotlarning faoliyatini o`rganish, xorijiy davlatlar bilan diplomatik,

turistik aloqalarni yo`lga qo`yish va bu ishlarda faoliyat yuritish uchun yuqori malakali milliy kadrlar yetishtirish ehtiyoji kelib chiqdi. Shuni ta'kidlash kerakki, O`zbekiston bu ishlarni rejali tarzda amalga oshirdi.

"Xalqaro hamjamiyatning to`la huquqli a'zosi bo`lgan O`zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, xalqaro huquq subyekti sifatida qatnashadi, uning maqsadlari mustahkam tinchlik, qurolsizlanish, o`z hududini qurol-yarog'lardan xoli qilish, yadroviy qurolni va boshqa ommaviy qirg'in qurollarini yo`qotish, suveren davlatlar o`rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatish va tazyiqqa yo`l qo`ymaslikdan iborat",-deb 1991-yil 31-avgustda Oliy Kengash VI sessiyasida qabul qilingan "Mustaqillik haqidagi Bayonot"da o`z tashqi siyosatining asosiy yo`lini belgilab olgan O`zbekiston Respublikasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitusiyamizning 17-moddasida bu yo`lni qonun bilan mustahkamladi. O`zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy ustuvor tamoyillarini mamlakatimiz rahbari I.A.Karimov o`zining asarlari, ma'ruzalari va nutqlarida nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi. Uning tamoyillari quyidagilarni tashkil etadi:

- milliy-davlat manfaatlarini ustun qo`ygan holda tashqi siyosatda davlatlarning suveren tengligini hisobga olish;
- umumbashariy qadriyatlarni ustun qo`ygan holda nizoli mojorolarni tinch yo`l bilan hal etish;
- tashqi siyosatdagi teng huquqlilik va o`zaro manfaatdorlikni o`rnatishda boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik
- barcha tinchliksevar davlatlar bilan tashqi aloqalarni o`rnatishga intilish;
- xalqaro huquq normalarini tan olgan holda jahon hamjamiyatida xalqaro talablarga rioya qilish;
- tashqi siyosatda ko`p tomonlama aloqalarni o`rnatishda xalqaro tashkilotlar doirasida aloqalarni kengaytirish masalalari kiritildi.

O`zbekiston Respublikasi butun jahon jamoatchiligi oldida xalqaro huquqning umumjahon e'tirof etgan normalariga sodiqligini Konstitusiya darajasida ham mustahkamladi. Xalqaro huquqning tamoyillari va normalarining butun bu majmui Konstitutsiyaga BMT Ustavidan, Inson huquqlari umumiy deklarasiyasidan, va inson huquqlariga oid boshqa xalqaro huquq bitimlardan, Xelsinki bitimi, Parij va Madrid xartiyalariga asoslandi. Shuningdek, asosiy qonunga kiritilgan qonunlarni rivojlantirish maqsadida "Diplomatik munosabatlarni o`rganish tartibi", "O`zbekistonda xalqaro shartnomalarni tuzish, ijro etish va bekor qilish" haqida aktlar

ham qabul qilindi. Ularda tashqi siyosatning har tomonlama asoslangan tamoyillari o`z aksini topdi.

Shu o`rinda aytib o`tmoq lozimki, bu tamoyillar yosh suveren davlatning asosiy tashqi siyosiy doktarinasini ifoda etish bilan birga davlatlararo munosabatlar yo`nalishlarining rivojlanishi va keng doiradagi tashqi muammolarni hal qilish imkonini berdi. Mamlakatimizni jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosati uning jahon miqyosida mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta'minladi. O'zbekiston Respublikisi o`zining tashqi siyosatdagi yo`nalishlarini demokratik prinsiplarga asoslangan holda olib borar ekan, 1991-yil dekabrdan 1992-yil iyul oyigacha bo`lgan davr ichida respublikani 111 davlat, hozirgi kunga qadar esa O`zbekiston mustaqilligini 180 dan ortiq davlat tan oldi, ularning 100 dan ortig'i bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Toshkentda AQSh, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston va boshqa rivojlangan mamlakatlarning elchixonalari ochildi. Shuningdek, O'zbekistonda 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. O`z navbatida O`zbekistonning elchilari dunyodagi 20 dan ortiq yirik davlatlarda faoliyat ko`rsatib turibdi.

Mustaqil O`zbekiston tashqi siyosatining asosini ochiq-oydinlik, teng huquqlik, demokratik prinsiplariga sodiqlik, umuminsoniy qadriyatlarini ulug'lash, respublika ijtimoiy hayotidagi demokratik jarayonga ta'sir qilish kabilar tashkil etadi va Respublika tashqi siyosati tinchlik va xavfsizlik uchun umumjahon e'tirof etgan ochiq yakdillik talablariga asoslanadi. 1992-yil 2-martda O`zbekiston xalqaro munosabatlarning to`la huquqli subyekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo`lib dunyo miqyosida tan olindi. Bu voqea Respublikaning mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiyatda munosib o'rin olishda ham katta ahamiyatga ega bo`ldi. 1993-yil fevral oyiga kelib Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi. Xolid Malik BMTning O`zbekistondagi vakili etib saylandi.

O`zbekiston BMTning to`laqonli a'zosi sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining yig'ilishlarida ishtirok etishi bilan o`zining xalqaro hamjamiyatga kirish jarayonini davom ettirdi. O`zbekiston rahbariyatining dunyodagi global muammolarga jahon miqyosida e'tiborini qaratishi O`zbekistonning tashqi siyosatda tutgan aniq o`rnini belgilab berdi. Chunonchi, 1993-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh

Assambleyasining 48-sessiyasidagi ma’ruzasida O`zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning ilgari surgan birinchi xalqaro tashabbusi O`zbekistonning xalqaro miqyosdagi adolatparvar siyosatidan darak berdi. Prezident I.A.Karimov bu ma’ruzasida bir qator aniq takliflarni tashladi. Bularga Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalari bo`yicha BMTning doimiy ishlaydigan seminarini chaqirish, BMT xavfsizlik kengashida yuzaga kelayotgan mojarolarni tahlil qilish va istiqbolini belgilash bo`yicha maxsus guruh tuzish, Markaziy Osiyoni yadrosiz zona deb e’lon qilish, bu mintaqada kimyoviy modda hamda bakteriologik qurolni ta’qiqlash bo`yicha xalqaro nazorat o`rnatish, Markaziy Osiyoda narkobiznesga qarshi hamkorlikda kurashish uchun BMTning mintaqaviy komissiyasini tuzish, Orol muammosini hal qilish masalasi bo`yicha BMTning maxsus komissiyasini tuzish kabilar kirdi.

O`zbekiston Prezidenti I.A.Karimov 1995-yil BMTning ellik yilligi munosabati bilan Bosh Assambleyaning maxsus tantanali yig‘ilishida so`zlagan nutqida ham asosiy e’tiborni bu tashkilotning faoliyatini yanada kengaytirish bilan bir qatorda yana mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik, ekstremizm, terrorizm, narkobiznesga qarshi kurash masalalariga qaratdi. Prezidentimiz muayyan “olovli nuqtalar” deb atalayotgan mintaqalarda birgalashib harakat qilib, tinchlik va barqarorlikka erishish lozimligi haqidagi aniq takliflarni kiritdi va O`zbekiston “ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatmaslikni ta’minlash bo`yicha kerakli xalqaro kafolatlarni qabul qilishni, yadro sinovlarini butunlay to`xtatish haqidagi shartnomaning tezda tuzilishi tarafdori” ekanligini ham ko`rsatib o`tdi.

Ushbu yig‘ilishda davlatimiz rahbari tomonidan Orol dengizi qurishi bilan bog‘liq bo`lgan global muammoni ko`tarib chiqqani ham muhim ahamiyat kasb etdi. Prezident I.A.Karimov “Orol dengizining qurishi bilan bog‘liq ekologik fojea, butun er yuzini qamrab oladigan biosfera, o`nlab million kishilarning hayot sharoitlari, salomatligi, nasliga halokatli ta’sir ko`rsatuvchi global muammo” ekanligini ko`rsatib, bugungi kunda BMTning tashkilotchilik faoliyatisiz bu muammoni hal etish mumkin emasligini ham asoslab berdi. Bunday muammolar Prezidentimizning fundamental asari “O`zbekiston XX1 asr bo`sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” kitobida batafsil nazariy va amaliy jihatdan asoslab berildi. Asarda dunyoda barqarorlik va jo`g‘rofiy-siyosiy muvozanat saqlanib qolgan sharoitdagina har qanday mintaqada rivojlanish kuchli bo`lishi asoslab o`tildi.

O`zbekiston rahbarining yuksak minbardan turib kiritgan xalqaro miqyosda manfaatli bo`lgan takliflari jahon hamjamiyati tomonidan qo`llab-quvvatlandi va shunga asoslanib 1995-yil 16-sentabrda Toshkentda BMTning Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag‘ishlangan seminar-kengashi ish boshladi. Dunyoning ko`p davlatlari ishtirok etgan bu seminarda O`zbekiston rahbarining so`zlagan nutqi bosh hujjat sifatida qabul qilindi. I.A.Karimov bu uchrashuvning “Tinchlik, Barqarorlik, Hamkorlik” shiori ostida o`tayotganini mamnuniyat bilan izhor qilib, bu uchrashuv mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim yo`l bo`lib xizmat qilishini ko`rsatib berdi.

Xalqaro munosabatlar ravnaqi mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikning, aholi turmush darajasini yuksaltirishning o`ziga xos kafolati ekanligi hech kimga sir emas. Shu bois ham O`zbekiston rahbariyatining tashqi siyosatda mintaqaviy barqarorlikni saqlab qolish maqsadida ilgari surgan tashabbuslari ko`pgina davlatlar va BMT tomonidan doimo tasdiqlanib kelindi. BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti sammitidagi yig‘ilishlarda O`zbekiston prezidentining kiritgan aniq tashabbuslari, mintaqa xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan taklifi BMT boshchiligidagi “6+2” guruhining tuzilishiga asos bo`lgan edi. (O`zbekiston, XXR, Rossiya, Eron, Pokiston, Tojikiston, kuzatuvchi sifatida BMT, Birlashgan front va “Tolibon” harakati) Ushbu guruhning 1999-yil iyul oyida Toshkentda o`tkazgan uchrashuvi muhim xalqaro voqea bo`ldiki, bu uchrashuv mintaqaning o`zida bo`lib o`tdi. Uchrashuvning yakuni sifatida 19-iyul kuni “Afg‘onistondagi mojorolarni tinch yo`l bilan hal qilishning asosiy prinsiplari to`g‘risidagi” tarixiy hujjat imzolandi. Ushbu hujjat BMTning rasmiy hujjati sifatida tarqatildi. Mazkur anjuman O`zbekiston rahbariyatining ko`p yillik sa’y-harakatlari natijasi edi. O`zbekiston rahbariyatining tinchlik yo`lidagi harakatlari mazkur uchrashuvdan Afg‘onistonda muxolif kuchlar o`rtasida boshlangan jangavor harakatlarning oldini olish uchun Respublika Tashqi ishlar vazirligining Bayonotida ham yaqqol ko`zga tashlandi. Mazkur Bayonot o`zaro qon to`kilishning oqibatlari haqida jiddiy tashvishlangan holda muxolif tomonlarning harakatlarini qoralab o`tdi. Bularning barchasi dunyo hamjamiyati oldida O`zbekistonning tinchlik yo`lidagi real harakatlarining asosi sifatida yaqqol ko`zga tashlanib qoldi.

O`zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo`lga qo`yilishi

O`zbekistonning tashqi siyosatida mintaqalararo havfsizlikni ta'minlashda xalqaro tashkilotlar faoliyatidan, ularning dasturlaridan ham keng foydalanishi istiqbolli natijalarni ko`rsatdi. Ko'pgina mintaqaviy tashkilotlar, chunonchi, NATO, EKO, Islom konfrensiyasi, Qo'shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorliklar yo`lga qo`yildi. 1994-yil iyul oyida O`zbekiston NATOning "Tinchlik yo`lidagi hamkorlik" Dasturiga qo`shildi. Bu dasturga ko`ra, O`zbekiston harbiy qismlari Shimoliy Korolina (AQSh)dagi Kemp Lejyup dengiz piyodalari poligonida o`tkazilgan harbiy mashqlarda, O`zbekiston xududida amerikaliklar bilan o`tkazilgan desantchilarning "Ultrabalans-96" harbiy mashqlarida qatnashdilar. Shuningdek Respublika harbiy bilim yurti talabalari 1997-yil Norvegiyada o`tkazilgan "Kooperativ bankers-97" mashqlarida ham qatnashdilar. Bu kabi hamkorliklar jangchilarimiz uchun o`ziga xos mahorat maktabi, tajriba bo`lib, ularning jangovarlik qobiliyatini oshirishlariga yordam berdi. 1999-yil aprelda I.A.Karimov Shimoliy Atlantika Ittifoqi qoshidagi "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturining a'zosi sifatida NATO ning 50 yillik yubiley tantanalarida qatnashdi. O`zbekistonning "Tinchlik yo`lida hamkorlik" Dasturida ishtiroki Markaziy Osiyo mintaqasida kollektiv xavfsizlik va barqarorlikning keng tizimini vujudga keltirishni rejalashtirishda O`zbekistonning ishtirokini kafolatladi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "NATO bilan hamkorlik qilish harbiy-siyosiy voqealardan xabardor bo`lib turish, bu uyushma doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar va ishlanmalardan bahramand bo`lish uchun imkon berar edi". NATO Bosh kotibi X.Solana va AQShning NATOdagi doimiy vakili R.Xanterning O`zbekistonga tashriflari O`zbekiston va mazkur tashkilot o`rtasidagi tinchlik yo`lidagi siyosatining hamohang ekanligini ham ko`rsatdi.

O`zbekiston BMTga a'zo bo`lib kirgan yillari EXHTning katta mansabdor xodimlari qo`mitasining Pragadagi yig'ilishida MDH tarkibidagi davlatlarni ushbu tashkilotga a'zo bo`lib kirishi masalasi ko`tarildi. 1992-yil 26-fevralga kelib O`zbekiston ham bu tashkilot kengashining yakunlovchi hujjatiga imzo chekdi. Mazkur hujjat imzolangan vaqtdan beri O`zbekistonning Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti bo`linmalaridagi ishtiroki tobora kengayib bormoqda. EXHTning Markaziy Osiyo bilan aloqalari bo`yicha Byurosi mintaqada

barqarorlikni ta’minlash maqsadida mintaqadagi respublikalar bilan hamkorlikni yo`lga qo`yib olgani quvonarli holdir. Ushbu byuroning tashabbusi bilan Toshkentda EXHTning “Inson xuquqlari bo`yicha milliy institutlar”, “Ommaviy axborot vositalari demokratlashtirish sharoitida” mavzusidagi bir qator anjumanlari o`tkazildi. Seminarlar Markaziy va Sharqiy Yevropada inson huquqlari bo`yicha milliy institutlar faoliyatini rivojlantirish, xalq ta’limi va ommaviy axborot vositalarining inson huquqlari sohasidagi roli masalasini ko`rib chiqdi. Bunday yig‘ilishlarda O`zbekistonning ishtiroki tinchlikparvar tashqi siyosat yuritishida asosiy omil bo`lib qoldi. O`zbekistonning 1996-yil Lissabon Sammitida ishtiroki respublika rahbariyatining xavfsizlik doirasiga kiruvchi qarashlarini bayon etishga ham imkon berdi. Unda O`zbekiston rahbariyati tomonidan “xavfsizlikning, shu jumladan, Yevropa xavfsizligining chegarasi yo`q. Shundan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining roli, ahamiyati, qolaversa, mas’uliyati Yevropa bilangina chegaralanib qolmasligi, undan tashqaridan kelayotgan xavfni ham hisobga olishi kerak bo`ladi” deb aytilgan so`zlari alohida ahamiyat kasb etdi. Mazkur anjumanda O`zbekiston xavfsizlik muammosiga doir o`z qarashlarini bayon etish huquqiga ega bo`ldi. Prezidentimiz yig‘ilish ishtirokchilariga Markaziy Osiyo mintaqasini yadrosiz zona deb yana bir bor e’lon qildi. O`zbekiston rahbariyatining mojorolar kuchayib borayotgan yerlarga qurol-yarog‘ yetkazib berishni to`xtatish haqidagi fikri Lissabon uchrashuvining yakunlovchi hujjatiga kiritildi.

1999-yil 18-19-noyabr kunlari mazkur tashkilotga a’zo 54 mamlakat rahbarlari uchun Turkiyaning Istambul shahrida Oliy darajadagi uchrashuv bo`lib o‘tdi. Mazkur anjumanda ancha dolzarb muammolar, jumladan Yevropada xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlashning asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan edi. Yig‘ilishda O`zbekiston rahbarining ma’ruzasi dunyo mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyotini, fuqarolarning ijtimoiy turmush tarzini faqatgina xavfsizlikni ta’minlagandagina amalga oshirish mumkinligiga qaratildi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti yig‘ilishda global ahamiyatga ega bo`lgan terorrizmga qarshi markaz tuzish haqidagi taklifini kiritdi va turli qabix niyatdagilarga yordam berayotgan tashkilotlarni ildizi bilan yo`qotish orqaligina mamlakatlar xavfsizligini ta’minlash mumkinligini alohida ta’kidladi. XX asr oxiri XXI asr boshlari xalqaro terrorizmga qarshi keskin kurash davri bo`ldi. Bu kurashga O`zbekiston o`zining katta hissasini qo`shmoqda. Buni AQSh senatorlaridan Liberman tasdiqlab:

“O`zbekistonsiz bizning Afg‘onistondagi aksilterrorchilarga qarshi kurashimiz muvaffaqiyatli bo`lmas edi”,-deydi.

Bu o`rinda O`zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan hamkorligi masalasiga ham to`xtab o`tmoq joiz. Mazkur ittifoq bilan hamkorlik uchun tuziladigan bitim bo`yicha ishlar respublikada 1995-yildan boshlangan bo`lib, bu muzokaralar 1996-yilga qadar davom etdi. Bu muzokaralarning natijasi o`laroq O`zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o`rtasidagi bitim 1996-yil 21-22 iyun kunlari Italiyaning Florensiya shahrida YI davlatlari rahbarlarining yig‘ilishida O`zbekiston Prezidenti I.A.Karimov tomonidan imzolandi. Florensiyaning “Fortezza de basso” qal’asida Yevropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlar va hukumat boshliqlarining navbatdagi uchrashuv - sammitida imzolangan sheriklik va hamkorlik to`g‘risidagi bu hujjat O`zbekistonning jahon hamjamiyatiga dadil kirib borishida o`z o`rni va ovoziga ega bo`lishida katta ahamiyat kasb etdi. I.A.Karimov qo`lga kiritilgan bu bitimni “O`zbekiston va Yevropa Ittifoqi o`rtasidagi munosabatlarda “yangi turmush nuqtasi” deb atadi. Mazkur bitim O`zbekistonni Yevropaning rivojlangan davlatlari bilan har tomonlama aloqalari respublika salohiyatini yuzaga chiqarishda, demokratiya va bozor islohotlarini amalga oshirish yo`lida muvaffaqiyatli harakat qilish uchun katta imkoniyat yaratdi. Xususan, Italiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi ilg‘or davlatlar bilan bo`layotgan hamkorliklar davlatlarning iqtisodiy, madaniy aloqalarida katta ahamiyatga ega bo`ldi. Ilm-fan, madaniyat, san’at, ta’lim sohasidagi o`zaro hamkorlikning keng ko`lamda olib borilishi ham respublika taraqqiyoti uchun muhim omil bo`lib xizmat qildi.

O`zbekiston Respublikasi Islom konferensiyasi tashkiloti, Qo`shilmaslik harakati kabi mintaqaviy tashkilotlar bilan ham samarali aloqalar o`rnatdi. Bular orasida, ayniqsa, yuzdan ortiq a’zoga ega. 1985-yilda tuzilgan Qo`shilmaslik harakati tomonidan olib borilayotgan siyosat O`zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillariga, xalqaro kelishmovchiliklarni tinch yo`l bilan hal qilish, turli harbiy-siyosiy bloklar faoliyatida qatnashmaslik, tinchliksevarlik kabi yo`nalishlarga to`la mos keladi. O`zbekiston bu tashkilotga 105-a’zo bo`lib kirdi.

O‘zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosatida jahon hamjamiyatiga qo‘shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o‘rnatish masalalari dolzarb vazifalar qatoriga kirdi. Shu bois O‘zbekiston jahon iqtisodiyotida integratsiyalashish yo‘lidan borib, Jahon banki, Xalqaro Valyuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy

taraqqiyotga ko‘maklashuv tashkiloti va boshqa moliyaviy iqtisodiy tashkilotlarga a’zo bo‘lib kirdi va ular bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yib oldi. Shu bilan birga O‘zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar-Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, BMT ning bolalar fondi, Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo‘yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro olimpiada qo‘mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro aloqalarni tiklab oldi. Ularning vakolatxonalari Respublikamizda ochildi va faoliyat ko‘rsatmoqda. BMT ning ta’lim, ilm-fan va madaniyat masalalariga ixtisoslashgan YUNESKO tashkiloti bilan ham Respublikamiz o`rtasidagi hamkorlik munosabatlari shu kunlarda muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. O`zbekiston 1993 yil YUNESKOga a’zo bo`lgan edi. (O`sha paytdayoq YUNESKO dasturiga buyuk munajjim Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek tavalludini dunyo miqyosida nishonlash masalasi O`zbekiston bilan ushbu tashkilot o`rtasidagi hamkorlikning yangi asosdagi rivojini boshlab berdi.) 1994-yilga kelib esa O`zbekiston Respublikasining YUNESKO ishlari bo`yicha Milliy komissiyasi tashkil etildi va bu ham o`zaro hamkorligimizning samaradorligini oshirishda muhim qadam bo`ldi. 1996-yilga kelib Toshkentda YUNESKOning vakolatxonasi ochildi. Shu o`tgan vaqtdan beri O`zbekiston va YUNESKO tashkiloti o`rtasidagi aloqalar yildan yilga kengayib bordi. Ayniqsa 1995-yil avgust oyida YUNESKO Bosh direktori F.Mayorning O`zbekistonga rasmiy tashrifi, uning O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov bilan muzokaralari muhim tarixiy voqea sifatida tarixga bitildi.

1996-yil O`zbekiston Prezidenti ham YUNESKO qarorgohiga rasmiy tashrif bilan bordi. Bu tashrif chog‘ida I.A.Karimov YUNESKO ijroiya kengashining 149-sessiyasida nutq so`zladi. YUNESKOning Bosh direktori va Fransiya Prezidenti ishtirokida YUNESKO qarorgoxida “Temuriylar davrida fan, madaniyat va ma’rifatning gullab-yashnashi “ ko`rgazmasini ochdi.

O`zbekiston bilan YUNESKOning o`zaro hamkorligi kengayshi natijasida YUNESKO ishtirokida Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti ochildi, 2000-yilda 28-dekabrda esa Shahrisabz YUNESKO ro`yxatiga kiritildi. Shaxrisabz bu ro`yxatga kiritilgan respublikamizdagi uchinchi shahar bo`ldi. Bunday aloqalar o`z navbatida munosabatlarimizni yanada yuqori pog‘onaga ko`tarib, hamkorligimiz sohalarini kengaytirdi. Mustaqillik yillari respublikada o`tkazilgan barcha tadbirlarda YUNESKO ishtirok etdi. Amir Temur tavallud topgan

kunining 660 yilligi, Axmad al-Farg‘oniy, Imom al-Buxoriy, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk shaxslarning yubiley tantanalari, Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, “Alpomish” dostonining 1000 yilligi kabi tadbirlar bevosita YUNESKO homiyligida o`tkazildi.

Mustaqil O‘zbekiston 2001 yilning iyun oyida «Shanxay beshligi» deb yuritilgan xalqaro tashkilotning XXRni Shanxay shahrida chaqirilgan sammitida bu tashkilotning to‘la huquqli a’zosi bo‘ldi. 1998 yili tashkil etilgan «Shanxay beshligi»ga Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘izston va Tojikiston Respublikalari a’zodir. Shundan keyin «Shanxay hamkorlik tashkiloti» nomi bilan yuritilib bosh maqsad har tomonlama hamkorlik o‘rnatishdan iborat bo‘lib, ayni bir vaqtda xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda tashkilotning faoliyat markazida turadigan bo‘ldi. Terrorizmga qarshi kurash qarorgohi (shtabi) Bishkekdan Toshkentga ko‘chirildi. Tashkilotning aniq vazifalari tashqi ishlar, mudofaa vazirliklarining kengashlarida hal qilinadi.

2005-yilning 2-iyul kuni Qozog‘istonning Astana shahrida «Shanxay hamkorligi» tashkilotining o‘ninchi marta uchrashuvi o‘tdi. Sammitda doimiy a’zo davlat rahbarlaridan tashqari Mo‘g‘uliston Respublikasining vakili kuzatuvchi sifatida qatnashdi. Kengash Hindiston, Pokiston va Eron davlatlarini tashkilotga kuzatuvchi sifatida qabul qildi va ularning vakillari sammitda ishtirok etdi. Astana uchrashuvi qatnashchilari «Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash konsepsiyasi»ni yakdillik bilan qabul qildi. O‘zaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirish to‘g‘risida hujjatlarni imzoladi.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi dunyo mamlakatlari bilan ko‘p tomonlama aloqalar o‘rnatish bilan bir vaqtda taraqqiy etgan davlatlar va qo‘shni mamlakatlar bilan ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirdi.

Keyingi yillarda yosh mustaqil davlatlar ichida Markaziy Osiyo davlatlari uchun dini, urf-odatlari va an’analari yaqin bo`lgan Sharq mamlakatlari bilan o`zaro aloqalar olib borish imkoniyatlari bu mamlakatlar o`rtasidagi munosabatlarni kengaytirdi. Bu o`rinda birinchi navbatda Saudiya Arabistoni bilan aloqalarni aytib o`tish o`rinlidir. Shuningdek, O`zbekiston 1992-yil 6 fevralda Turkiya, Pokiston, Eron tomonidan tuzilgan iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a’zo bo‘lib kirdi va 1992 yil Eron, Turkiya, Pokiston, Turkmaniston, Qozog‘iston davlat va hukumat rahbarlari bilan imzolangan “Trans-Osiyo” temir yo‘l aloqasini tiklash maqsadida Tajan-Seraxs-Mashhad yo`li qurilishi haqidagi bitimda faol ishtirok etdi. Bu O‘zbekiston uchun dengiz yo‘llariga, xalqaro transport tarmog‘iga, tovar va kapital xalqaro bozoriga chiqish

imkoniyatini berdi. Arab mamlakatlari bilan olib borilgan aloqalar madaniy va diniy tomondan ham uzviy bog‘liq bo`ldi. Bu yo`ldagi harakatlar natijasida savdo sotiq, turizmni rivojlantirish va kadrlarni o`qitish imkoniyatlariga yo`l ochdi.

O‘zbekistonning Xitoy Xalq Respublikasi bilan aloqalari kengayib, bu ikki davlat o`rtasidagi o`zaro manfaatli hamkorlik bir-birining ishiga aralashmaslik tamoyiliga asoslandi. Xitoy Xalq Respublikasi O‘zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo‘lib, 1991-yil 27-dekabrda tan oldi va 1992-yili 2-yanvarda diplomatik aloqalar o‘rnatdi. 1992-yilda ikki mamlakat o`rtasida hamkorlik aloqalari o`rnatilgandan keyin iqtisodiyot, savdo, fan va texnika, madaniyat va san’at sohasida o`zaro manfaatli hamkorlik jadal rivojlanishi uchun ko`pdan ko`p imkoniyatlar vujudga keldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining XXR ga qilgan bir necha bor davlat tashriflari xususan, 1992-yilning may oyida, 1994-yilning oktabrdagi, 1999-yilning noyabr oyidagi maxsus tashriflari, XXR Davlat Kengashi rayisi Li Peninng 1994-yil apreldagi, XXR hukumati raisining muovini Xu Szin Taoning 1995-il oktabrdagi XXR raisi Szyan Sze Minning 1996-yil iyunidagi Toshkentga qilgan maxsus tashriflari natijasida ikki mamlakat o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi hamkorliklar Kengashdan Xitoy investitsiyasi bilan ishlayotgan korxonalar, shu jumladan qo‘shimcha korxonalar ko‘payib bormoqda. Ikki davlat o‘rtasida tashrif, oliy ta’lim sohasidagi hamkorlik kengaymoqda. Xususan, 1977-yili O‘zbekiston Jahon tillari Universitetida 1977 yili Xitoy tili bo‘limi ochilgan edi. 2004-yili ikki davlat Toshkentda institut ochishga kelishgan edi. Bu 2005-yili Konfutsiy nomida Xitoy Instituti ochildi. O`zaro madaniy aloqalarda ham fan, madaniyat, san’at ahlining o`zaro foydali hamkorligini kuchaytirish borasida ham turli-tuman tadbirlar amalga oshirildi. Toshkent va Samarqandda o`tkaziladigan xalqaro kino hamda musiqa anjumanlarida ikki davlat madaniyat arboblarining ishtirok etib borishi ham fikrimizning dalilidir. O`zbekiston Prezidenti Islom Karimovning XXRga 2005-yilning iyun oyidagi tashrifi ikki davlat o‘rtasida munosabatlarning yangi, yuqori bosqichini ochdi. I.Karimov va XXR raisi Xu Szin Tao o‘rtasida O‘zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasida strategik sherikchilik to‘g‘risida bitim imzolandi. O‘zbekistonda energetika-yoqilg‘i sanoatini rivojlantirish, xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida tuzilgan bitimlar alohida ahamiyat kasb etadi. I.A.Karimov aytib o`tganidek, “O`zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko`p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish-davlatimizning

mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g‘oyat muhim vositasidir”.

Prezidentimizning jahondagi turli mamlakatlarga tashrifi O`zbekistonning xalqaro maydondagi mavqeini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, Yaponiya, AQShga tashrifi davomida bu mamlakatlar bilan o`zaro hamkorlik maslalalari hal etildi. Bu o`rinda AQSh bilan bo`layotgan o`zaro aloqalarga to`xtab o`tmoq joiz. Dunyoning yetakchi davlati, juda katta siyosiy, iqtisodiy, harbiy-texnikaviy, intelektual salohiyatga ega bo`lgan AQSh bilan har tomonlama munosabatlarni rivojlantirish va chuqurlashtirish mamlakatimiz uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ham ikki davlat uchun muhim bo`lgan yo`nalishlardagi munosabatlar izchillik bilan rivojlandi. O`zbekiston rahbariyatining 1995-yil AQSh vitse-prezidenti Albert Gor bilan uchrashuvi davomida O`zbekiston va AQSh o`rtasida teng huquqli va o`zaro manfaatli aloqalar rivojiga hamda MDHdagi xavfsizlikka daxldor masalalar hal etildi. Ayni paytda AQSh O`zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashdagi yetakchilik rolini tan olib, respublikamiz bilan terrorizm, narkobiznesga qarshi kurash, mintaqaviy xavfsizlik va I.Karimovning AQShga tashrifi chog‘ida muhokama etilgan boshqa masalalar sohasida teng huquqli hamkorlikni rivojlantirish niyatida ekanligini ma’lum qildi.

O`zbekiston rahbarining 1996-iyun oyida yil AQShga qilgan yetti kunlik tashrifi O`zbekiston tashqi siyosatida o`ziga xos o`rin tutadi. Mazkur tashrif davomida O`zbekiston va AQSh o`rtasidagi aloqalarni rivojlantirish, hamkorlikning huquqiy asoslarini kengaytirish, Markaziy Osiyoda barqarorlik va xavfsizlik masalalarida fikr yuritildi. Siyosiy jihatdan ushbu tashrifning ahamiyati shundan iborat bo`ldiki, O`zbekiston rahbariyati AQShda kamdan kam qo`llaniladigan udum mukammal askariy tashrifot bilan kutib olindi.

O`zbekistonning AQSh bilan munosabatlari yildan yilga mustahkamlanmoqda. O`tgan bir necha oy ichida yurtimizga Vashingtondan bir qancha davlat va jamoat rahbarlari, harbiy mutaxassislar, chunonchi 16 nafar senator va 8 nafar kongressmen kelib ketdi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2002-yil 11-14 mart kunlari rasmiy tashrif bilan Amerika Qo`shma Shtatlarida bo`ldi. Tashrif kunlari Yurtboshimiz AQSh Prezidenti Jorj Bush va bir qancha davlat rahbarlari bilan uchrashdi.

Jorj Bush O`zbekiston qat'iyat bilan aksilterror koalisiyatsini qo`llab-quvvatlaganini AQSh hukumati va xalqi unutmasligini, bu minnatdorlik va ehtirom kelgusida juda ko`p bor namoyon bo`lishini ta'kidladi. U Islom Karimovni, bundan buyon AQSh strategik sherik sifatida doim O`zbekiston bilan birdam bo`lishiga ishontirdi.

Vashingtonda AQSh hukumati 2002-yilga O`zbekistonga yordam tariqasida 160 mln. dollar ajratishini ma'lum qildi. O`zbekiston qurolli kuchlari islohotga ko`maklashish uchun 43 mln. dollar ajratilish ma'lum qilindi. O`tgan yili bu raqam 15,5 mln. dollar edi.

Hech bir mamlakat iqtisodiy hamkorliksiz rivojlana olmasligini hozirgi kun voqeligi isbotlab turibdi. O`zbekiston rahbariyatining bu vaziyatga chuqur yondashishi orqali tashqi iqtisodiy aloqalarda Respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni jalb etishga katta ahamiyat berildi. Iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb etishda O'zbekiston quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

-Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish;

-O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyadorlarni keng jalb qilishni ta'minlaydigan huquqiy ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish, tashkilotlar va muassasalar tuzish;

-Ilg'or texnologiyaning kirib kelishiga, xo'jalik tarkibini zamonaviylashiga ko'maklashadigan xorijiy sarmoyalarga nisbatan "ochiq eshiklar" siyosatini o'tkazish;

-Respublika mustaqilligini ta'minlaydigan o'ta muhim sohalarni ishlab chiqarish vositalar bilan ta'minlash hamda raqobat - bardosh mahsulot ishlab chiqarishga qaratish;

O`zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishi va bu aloqalarni erkinlashtirishida huquqiy jihatdan ta'minlovchi qonunlarning ahamiyati katta bo`ldi. "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida", "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi va "Xorijiy investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to'g'risida"gi, "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar shular jumlasiga kiradi. Shu qatorda respublika chet el investisiyalarini ishonchli sug'urta bilan himoyalashni ham ta'minladi. Bu huquqiy hujjatlar tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish, xalqaro shartnomalar tuzish va ularni bajarish uchun shart-sharoitlar yaratdi. Amaldagi qonunlar chet ellik investorlar uchun kafolatlar bilan bir qatorda soliq sohasida keng imtiyozlar berdi. Birinchi navbatda O`zbekiston iqtisodiga umumiy hajmi 50 million dollardan ortiq miqdorda qilinadigan investitsiyalar boj to`lashdan ozod qilindi. Bu investitsiyalarning davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarda

ishtiroki natijasida yetti yil mobaynida foydadan soliq to`lashdan va korxonalar daromadlarining ishlab chiqarishni kengaytirishga va texnologiya bilan qayta jihozlashga sarflanadigan qismi ham soliq to`lashdan ozod qilindi. Ishlab chiqarilgan tovarlarni import va eksport qilish uchun bojxona to‘lovlari ancha kamaytirildi.

Bu o`rinda shuni aytib o`tmoq lozimki, chet ellik investorlarga yordam ko`rsatish maqsadida O`zbekistonda ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va muassasalar tarmog‘i tashkil etildi. Bular qatorida “O`zbekinvest” Milliy eksport-import sug‘urta kompaniyasi, chet el investitsiyalari bo`yicha agentlik, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi katta ahamiyatga ega bo`ldi.

Ana shunday yaratilgan qulay shart-sharoitlar imkoniyatlar natijasida O‘zbekiston hukumati jahondagi nufuzli davlatlar Germaniya, XXR, Turkiya, Yaponiya, Italiya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlar bilan o`zaro manfaatli aloqalar o`rnatdi. Mustaqilikning dastlabki kunlaridan boshlab O`zbekistonga 12 milliard Amerika dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. O`zbekistonga kiritilgan chet el kapitali yordamida respublika hududida qayd qilingan qo`shma korxonalarning soni esa shu kunlargacha 1810 taga yetdi.

O`zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarda o`z mavqeiga ega bo`lib borishi quvonarli holdir. Bu o`rinda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab AQSh bilan o`zaro hamkorlik aloqalari bu ikki davlat o`rtasidagi iqtisodiy aloqalarni keng miqyosda olib borilishi xususida to`xtab o`tmoq lozim. O`zbekistonda mustaqillik dastlabki yillaridan AQSh bilan O`zbekiston o`rtasida imzolangan o`zaro manfaatli shartnomalar asosida O`zbekistonga AQShning sarmoyalari kirib keldi. Bu sarmoyalar ishtirokida respublikada qo`shma korxonalar tashkil topib faoliyat ko`rsatib turibdi. O`zaro tuzilgan shartnomalarga ko`ra, AQSh O`zbekistondagi bepoyon yer osti va yer usti boyliklarini o`zlashtirish uchun katta sarmoya mablag‘larni ajratishni o`z zimmasiga oldi, natijada respublikaga Amerikaning zamonaviy texnikasi kirib keldi. O`zbekistonda Amerikaning “Nyumont-Mayning” kompaniyasi bilan hamkorlikda oltin qazib oladigan “Zarafshon-Nyumont” qo‘shma korxonasi qurib ishga tushirildi.

Shuningdek, xorjiy sarmoyalar natijasida O`zbekistonda “SamKuchavto”, “UzDEUavto”, Ko`kdumaloq kompressor stansiyasi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi va boshqalar qurildi.

Janubiy Koreya sarmoyadorlari bilan “O‘zDEUavto”, “O‘zDEU elektroniks” hissadorlik birlashmalari keng faoliyat natijasi o`laroq

O`zbekiston jahondagi avtomobil ishlab chiqaruvchi 28 mamlakat qatoridan o`rin egalladi va yuqori baholarga sazovor bo`ldi. Bu mamlakat bilan hamkorlikda telefon tarmoqlari yangilandi.

O‘zbekistonning MDHdagi o‘rni va mavqeyining oshib borishi

1991-yil 8-dekabrda Minsk shahri yaqinida sobiq ittifoqning barham topishi munosabati bilan Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligiga asos solindi. MDHning vujudga kelishi haqidagi hujjatga dastlab Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Belorusiya davlatlari imzo chekdilar. 13-dekabrda Ashxobodda o‘tgan O‘rta Osiyo va Qozog‘iston Respublika rahbarlarining kengashida hamdo‘stlikni kengaytirish zarur deb topdi. Natijada shu yili 21 dekabrda Almatida o`tgan uchrashuvda MDH bitimini ja’mi 11 davlat MDHga a’zo bo`lib kirdi. Ular bu bitimda davlatlarning hududiy butunligini tan olish, amaldagi chegaralar, ularning ochiqligi, fuqorolarning harakati erkinligiga, xalqaro tinchlik va havfsizlikni ta’minlash, harbiy harakat va qurol-yarog‘ tarqatishning oldini olishda birgalikda harakat qilishga kelishib oldilar.

MDH a’zolarining birgalikdagi harakatlariga quyidagi vazifalar kiritildi:

-tashqi siyosiy faoliyatlarni muvofiqlashtirish, mudofaa siyosati va tashqi chegarani muxofaza qilish,

-umumiy iqtisodiy muhitni rivojlantirish va Umumyevropa, Yevroosiyo bozorini shakllantirish;

-iqtisodiy islohot o`tkazish;

-bojxona siyosatini birga olib boorish;

-tarnsport, aloqa, energetika tizimlarini rivojlantirish;

-ekologik, atrof-muhit xavfsizligini ta’minlash;

-uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida hamdo‘stlik mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berdi. O‘zbekiston ham davlatlararo bank va boshqa hamdo‘stlik iqtisodiy tuzilmalarining shakllanishida faol ishtirok etdi. “Mustaqil davlatlar hamdo`stligini tashkil qiluvchi mamlakatlar bilan bevosita va ko`p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish, -degan edi I.A.Karimov,-tashqi siyosatimizning ustivor yo`nalishlaridan biridir”.

O`zbekiston Prezidenti I.A.Karimov o`z asarlarida MDH doirasidagi hamkorlikka katta e'tibor berib, O`zbekistonning MDH doirasidagi ishtirokini quyidagi holatlarda belgilab bergan edi.

-Yangi mustaqil davlatlarning ko`p yillar mobaynida tarkib topgan munosabatlari chuqurlashishi xalqaro maydonda vaziyatni chigallashtirishga olib kelishi mumkinligi;

-Respublika iqtisodiyoti yagona transport va energetika tizimiga ega bo`lgan sobiq umumittifoq iqtisodiy makoni doirasida shakllanganligi, mustaqillik yillarida bo`lsa, MDH doirasidagi davlatlarning o`zaro aloqalarini uzib qo`yilishi ishlab chiqarish hajmlarining pasayib ketishiga olib kelishi mumkinligi;

-MDH doirasidagi davlatlarda chegaralarning ochiqligini saqlab qolish respublikada ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni va millatlararo munosabatlarda totuvlikni ta'minlashda muhim rol o`ynashi;

-Yosh mustaqil davlatlarning o`zaro hamkorligi xalqaro maqomda o`z mavqeyini saqlab qolishi uchun muhim omil bo`lib hisoblanishi;

1991-2000-yillarda MDH davlatlari boshliqlarining 30 ga yaqin kengashlari bo`lib o`tdi va muhim hujjatlar imzolandi. Ular orasida xavfsizlik masalalari, tinchlikni saqlash, iqtisodiy hamkorlikni yo`lga qo`yib olish uchun davlatlalaro iqtisodiy qo`mita tuzish, iqtisodiy integratsiyani to`laqonli amalga oshirish, bojxona va ittifoq to`lovi masalalarini izga solib olish kabilar muhim o`rin egalladi. O'zbekiston MDH doirasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalar bo'yicha shartnoma hamda kelishuvlarni Rossiya, Ukrayina, Belorussiya, Moldaviya va boshqa mamlakatlari bilan imzolab o'zaro manfaatli hamdo'stlik aloqalari uchun mustahkam asos yaratdi.

O`zbekiston MDH davlatlari bilan hamkorlikda iqtisodiy mintaqalararo munosabatlarni mustahkamlashga kirishar ekan, ularning siyosiy mustaqilligiga daxl qilmaslik nuqtai nazaridan yondashdi. 1992-yil may oyida MDH davlat rahbarlarining Toshkent uchrashuvida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan boshlangan kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi MDH doirasidagi davlatlarning o`rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko`tarilishiga sabab bo`ldi. 1993-yil MDH davlatlari bilan imzolangan "Iqtisodiy ittifoq" haqidagi shartnoma ham bu davlatlarning iqtisodiy taraqqiyoti va o`zaro hamkorliklarining yanada mustahkamlanishga katta ta'sir ko`rsatdi.

Ayni vaqtda, O`zbekiston 1996-yil Venada sobiq ittifoqdosh davlatlar Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon, Moldova davlatlari asos solgan

o`ziga xos tuzilmaga ham 1999-yil aprel oyida a'zo bo`ldi. Natijada, bu tuzilma unga uyushgan davlatlarning nomidan olingan bosh harflar asosida GUUAM deb yuritila boshlandi. Mazkur tuzilma mintaqaviy hamkorlik doirasidagi Osiyo-Kavkaz-Yevropa transport yo`lagini rivojlantirish, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishni maqsad qilib oldi. 2001 yil iyun oyida ana shu tashkilotga a'zo davlatlarning uchrashuvi bo`lib, unda O`zbekiston ham ishtirok etdi. Yaltada bo`lib o`tgan sammitda hamkorlikni mustahkamlashga doir ayrim masalalar ko`rib chiqildi.

So‘nggi yillarda GUUAM davlatlarining ko‘pchiligida ichki va tashqi siyosatida yuz bergan keskin o‘zgarishlar yuz berishi oqibatida O‘zbekiston bu tashkilotga a'zoligini bekor qildi.

Rossiya Federatsiyasi bilan mustaqillik yillarida bo`layotgan o`zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlik yaxshi samara berayotganini ta'kidlab o`tmoq joizdir. Bu ikki mamlakat o`rtasidagi 1992 yil o`rnatilgan diplomatik aloqalardan so`ng siyosiy, iqtisodiy sohalarda 150 dan ortiq shartnomalar imzolandi. Rossiya Federatsiyasi bosh vaziri V.Chernomirdin, keyinroq E.Primakov 1998-yil Rossiya Federatsiyasi prezidenti B.Elsin, 1999-yil dekabr va 2000-yil may oyida prezident V.V.Putinning O‘zbekistonga qilgan tashriflari Rossiya va O‘zbekistonning o‘zaro iqtisodiy hamkorliklarini yo`lga qo`yishda, diniy eksteremizm va xalqaro terrorizmga qarshi birgalikda kurashida alohida o‘rin tutdi.

2003-yilning avgustida ikki mamlakat Prezidentlarining navbatdagi uchrashuvi Samarqand shahrida bo‘lib o‘tdi. Rossiyaning «Gazirom» va «Lukoyl» kompaniyalarining O‘zbekistonda neft va gaz manbalarini qidiruv ishlayotgan korxonalarni texnika jihatidan qayta qurish masalalarini muhokama qildi. Ikki davlat o‘rtasidagi tovar almashuv 2002-yili bir milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2003-yili bu ko‘rsatkich 25 foizga oshdi.

2004-yili Rossiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlar yana ham mustahkamlandi. Shu yili ikki davlat Prezidentlari jami yetti marta uchrashdi. O‘zbekistonda 32 marotaba Rossiya hukumati delegatsiyalari tashrif buyurdi, shu jumladan, Rossiya davlati xavfsizlik kengashining rayisi, Mudofaa, Tashqi ishlar, Transport vazirlari o‘zbekistonlik davlat rahbarlari bilan muhim masalalar bo‘yicha bitimlar tuzdi. 16 iyun kuni I.Karimov va V.Putin uchrashuvi natijasida strategik hamkorlik to‘g‘risida bitim tuzildi. Bunda siyosiy, harbiy, harbiy-texnika, iqtisodiy-ijtimoiy va boshqa masalalar bo‘yicha alohida bitimlar imzolandi. Yoqilg‘i-

energetika sohasida neft va gaz qidiruv ishlarini bir milliard dollarga, «Gazprom» va Uzneftgaz birlashmasi o‘rtasida mavjud yoqilg‘i korxonalarini texnik jihatdan qayta qurish uchun 1 milliard 200 million dollar hajmda bajarishga kelishildi.

O‘zbekistonda 350 korxona Rossiya investitsiyasi asosida ishlab, shundan 300 tasi qo‘shma korxonalarda, Rossiyada esa 100 dan ortiq O‘zbekiston-Rossiya qo‘shma korxonalari ishlayapti.

V.V.Putin: «...biz har xil sohalarda munosabatlarni rivojlantirishdan manfaatdormiz» degan edi. O‘zbekistonda bir milliarddan ortiq rus millatiga mansub fuqarolar yashaydi. O‘zbekistonda rus tilida 159 ta maktab, rus-o‘zbek tillarida ishlaydigan 603 ta maktab mavjud. O‘zbekiston aholisining 84,9 foizi rus tilida erkin gaplashadi. Rus tilida 85 gazeta va 52 jurnal nashr etiladi. 2002-2004-yillari 500 mingdan ortiq darsliklarni Rossiya hukumati yubordi. Har yili Rossiya oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek yoshlari uchun tekin, barcha sharoitlarga ega o‘quv o‘rinlari ajratiladi.

Bunday uchrashuvlar nafaqat Rossiya Federasiyasi bilan, balki Ukraina bilan ham keng yo`lga qo`yildi. 1994-Ukraina prezidenti Leonid Kuchma davlat tashrifi bilan Toshkentga keldi. O`zbekiston va Ukraina davlat rahbarlarining o`rtasidagi o`zaro muloqotda iqtisodiy hamkorlik, transport, sanoat, qishloq xo`jaligi, mineral xom ashyo qazib olish, fan taxnika taraqqiyotidagi yutuqlarda o`zaro hamkorlikni amalga oshirish bo`yicha tuzilgan bitimlarni amalga oshirish bilan aloqador bo`lgan masalalar asosiy o`rin egalladi. Nafaqat iqtisodiy, balki madaniy aloqalar ham yo`lga qo`yildi. Leonid Kuchma o`zining O`zbekistonga tashrifi davomida O`zbekiston baynalminal madaniy markazida ham bo`ldi. O`z navbatida O`zbekiston Prezidenti ham Ukrainaga uch marotaba safar qildi. Bu ikki davlat o`rtasidagi aloqalar hozirgi kunga qadar davom etib, tovar ayirboshlash hajmi 300 million AQSh dollaridan oshdi. O`zbekiston Ukrainaga rangli metall, gazlama va boshqa turdagi mahsulotlarni yetkazib bergan bo`lsa, Ukrainadan O`zbekistonga texnika asbob-uskunalari keltirildi. Bugungi kunda O`zbekistonda 20 dan ortiq o`zbek-ukraina qo`shma korxonalari ishlab turibdi.

2001-yil MDH tashkil topganligining 10 yilligi munosabati bilan Rossiya davlati poytaxtida MDH davlatlari rahbarlari ishtirokida sammit o`z ishini boshladi. Sammitda o`tgan vaqt mobaynida qilingan ishlar sarhisob qilindi va o`zaro savdodagi cheklashlarni bartaraf etish, tovarlar va xizmatlar oqimini ko`paytirish uchun axborot-marketing markazlarini tuzish, ta’lim, madaniyat, soliq, bojxona sohalarida faoliyat ko`rsatuvchi

muassasalar, xo`jalik sudlari hamkorligini kengaytirish masalalari muhokama etildi. Sammit ishtirokchilari MDH tuzilganligining o`n yilligi munosabati bilan hamda Afg‘onistondagi vaziyatga doir bayonotga imzo chekdilar. O`zaro hamkorlik doirasidagi bunday uchrashuvlar o`z navbatida hamkorlik, davlat chegarasini himoya qilish, MDH doirasidagi davlatlarning fan-texnika taraqqiyotidagi yutuqlaridan o`zaro keng foydalanish, iqtisodiy aloqalarni keng qamrovli olib borish, ekologik muammolarni hal etishda muhim omil bo`lib xizmat qiladi.

O`zbekistonning Markaziy Osiyo respublikalari bilan o`zaro hamkorligi

1993-yil Markaziy Osiyo rahbarlarining Almatida bo`lib o`tgan uchrashuvidan so`ng Markaziy Osiyo hamdo`stligiga asos solindi. Hamdo‘stlikka a’zo bo‘lgan davlatlarga milliy mudofaani kafolatlashga, ilmiy texnika taraqqiyoti yutuqlari va aloqa vositalari, yangi texnologiyaga erishish, xorijiy davlatlardan mahsulot tashish, zarur xom-ashyo va tayyor mahsulotlarni keltirish hamda o‘z mahsulotini jahon bozoriga olib chiqish, tabiiy ofatlar oqibatini tugatish, ekologiya sohasida tadbirlarni birgalikda o‘tkazish uchun imkoniyatlar yaratildi.

Din, e’tiqod, til birligi, azaliy qardoshlik munosabatlari bu davlatlar iqtisodiy taraqqiyotida shubhasiz katta ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda o`ziga ruxan, urf-odatlari va an’analari bilan yaqin mamlakatlar bilan mustahkam munosabatlar o`rnatish suveren O`zbekistonning tashqi siyosatidagi muhim yo`nalishlardan biridir. Bu ishlar Turkiston xalqlarining asosiy manfaatlarini ifodalagani uchun, ular orasida qadimiy do`stlik va birodarlikni mustahkamlash, o`zaro iqtisodiy muammolarni yechish, milliy-madaniy aloqalarni tiklash uchun juda qulay sharoit yaratib, kishilar qalbida mehr-oqibat, birodarlik tuyg‘ularini, uyg‘otib kelmoqda.

1994-yil 10-yanvarda Qozog‘iston Prezdenti N.Nazarboevning O`zbekistonga tashrifi Markaziy Osiyo hamdo`stligiga amaliy poydevorni qo`ydi. Unda ikkala mamlakat rahbarlari “Yagona iqtisodiy hudud” barpo etish to`g‘risidagi shartnomani imzoladilar. Bu shartnomada O‘zbekiston bilan Qozog‘iston o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarining erkin o‘tib turishini nazarda tutuvchi hamda o‘zaro kelishilgan kredit, hisob-kitob, byudjet, soliq, narx, boj va valuta siyosatini ta’minlovchi yagona iqtisodiy makonni tashkil etish ko`zda

tutildi. Fan, maorif, sog‘liqni saqlash yo`lida imzolangan hujjatlar bo`lsa, o`zaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi omil bo`lib qoldi. Bu shartnomaga Qirg‘iziston keyinchalik Tojikistonning ham kirishi Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy integratsiya jarayonining chuqurlashuviga katta imkoniyat yaratdi. O`zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston Prezidentlarining bu oliy darajadagi uchrashuvining yangi nuqtasi 1994 yil Almati shahrida bo`lib o`tdi. Tomonlar Davlatlararo Kengash hamda uning doimiy ijroiya tashkiloti, Bosh Vazirlar kengashi, Tashqi ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi kengashini ta’sis etdilar. Kelishuvda qatnashgan mamlakat vakillarining davlatlararo ijroya qo‘mitasi Almati shahrida joylashdi.

1995-yil 15-dekabr Qozog‘iston va O‘zbekiston Respublikalari davlatlararo Kengashining Jambul shahrida navbatdagi kengashi bo‘ldi. Mazkur kengashda Prezidentlar 2000 yilgacha bo‘lgan iqtisodiy integratsiya va birinchi navbatda sarmoya sarflanishi lozim bo‘lgan loyihalar dasturlarni hayotga joriy etish, kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish masalalarini muhokoma etdilar. Integratsiya dasturida 53 ta loyiha ishlab chiqildi.

Iqtisodiy sohadagi uzviy hamkorolikning davomi Markaziy Osiyo respublikalari prezidentlarining 1999-yil aprel oyida Cho`lpon Ota shaharidagi uchrashuvi bo`ldi. Uchrashuvda I.A.Karimov barchaning diqqat e’tiborida turgan Afg‘oniston hisoblanmish xalqaro terrorizm o`chog‘ining xavfi masalasi keskinligini qayd etdi. O‘zbekiston Prezidenti yig‘ilish qatnashchilari hamda BMTni butun xalqaro hamjamiyatga tahdid solayotgan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashni kuchaytirishga chaqirdi. Uchrashuvda Tojikiston respublikasi rahbariyati va jamoatchiligi I.A.Karimovni tojik xalqining og‘ir kunlarda yordam beruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi haqiqiy birodari va do‘sti sifatida qabul qildi. Prezident I.Rahmonov I.A.Karimovni tojik xalqining “boshidagi toji, ko‘zidagi nuri” dedi. Kengashda mintaqaning suv resurslaridan samarali foydalanish, Saraz ko‘lining toshish xavfining oldini olishda Tojikistonga yordam berishga e’tibor qaratildi. Bu hamdo`stlik davlatchiligini qaror toptirish prezidentimiz ta’biri bilan aytganda “bozor munosabatlariga o`tishning murakkab davrida mintaqadagi mamlakatlarning kuch-g‘ayratlari va sa’y-harakatlarini jipslashtirishga qaratilgandir”.

Ayni paytda O`zbekiston Markaziy Osiyo respublikalari bilan aloqalarni yo`lga qo`yib borar ekan, bu mintaqada iqtisodiy, madaniy hamkorlikni yo`lga qo`yishdagi asosiy xavf Afg‘oniston mojorosi ekanligini doimo diqqat markazida saqlab turdi. Bularga siyosiy jihatdan

diniy ruhdagi ekstremizm, xalqaro terrorizm, korrupsiya va jinoyatchilik, narkotik moddalarni tarqatish, qurol-yarog‘ savdosi kabi muammolarni kiritish mumkin. “Boshqacha aytganda,- deydi Prezidentimiz,-yuqorida sanab o`tilgan tahdidlar, garchi turli mintaqalarda turlicha kuch bilan namoyon bo`lsa-da, insoniyatda bir xil tashvish, tug‘dirmog‘i darkor”.

Markaziy Osiyo respublikalarining diqqat markazida turgan xalqaro terrorizmga qarshi jipslashish masalasi mintaqadagi respublikalar rahbarlarining 2000-yil 20-21-aprel kunlari Toshkentda Prezidentning Do‘rmon qarorgohida bo‘lib o‘tgan uchrashuvda yana yuzaga chiqdi. I.A.Karimovning xalqaro terrorizmga qarshi kurash Xalqaro markazi tuzish haqidagi tashabbusini qo‘llab-quvvatladilar. To‘rt davlat rahbarlari mintaqada xalqaro terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizm va boshqa tahdidlarga qarshi birgalikda harakat olib borish haqida hujjatni imzoladilar. Shuningdek, uchrashuvda ikki davlat Qozog‘iston va O‘zbekiston respublikasi prezidentlari chegaralar masalasida ikkala davlat orasida erkin harakatlanish to‘g‘risida, yo‘lovchi va yuk tashish transportlarini kengaytirish to‘g‘risida kelishib olindi.

Ushbu mamlakatlarni birlashtirib turgan muhim muammolar qatorida Orol dengizi masalasi katta o`rin tutadi. Shu bois bu masalani to`la qonli hal etish mintaqadagi davlatlarning global muammolari qatoriga kiradi. Prezidentimiz so`zi bilan aytganda “Orol bo`yining barcha ne’matlarini “yagona sovet xalqi” bilan baham ko`rilgan” bo`lsa, “uning achchiq mevasi Orol bo`yi fojiasidan qutulish Markaziy Osiyo xalqlarining ishi bo`lib qoldi.”

Sobiq ittifoq parchalanib ketgandan beri bu muammoni hal etish Markaziy Osiyo respublikalarining o`zaro aloqalarida o`z aksini topib bormoqda. Orol dengizi muammosi bo`yicha Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Qizil O‘rda (1993), Nukus (1994), Toshhovuz (1995) uchrashuvlari bo`lib o`tdi. Bu uchrashuvlarda asosan Orol dengizi muammosiga bag‘ishlangan chora-tadbirlarni ko`rish belgilab olindi. O`zbekistonning tashqi siyosatidagi har tomonlama hamkorliklar qatorida Orol masalasi ham o`ziga xos o`ringa ega. Respublika rahbariyatining Orol bo`yi masalasini hal etishda nafaqat Markaziy Osiyo, balki Osiyodagi bir qancha tashkilotlar bilan hamkorlikni yo`lga qo`ydi. Jumladan, 2001 yil Osiyo taraqqiyot banki prezidenti Tadao Chino O`zbekistonga tashrif buyurib, Orol bo`yida yuz bergan holat bilan tanishib chiqdi. Ushbu tashrif natijasida Tadao Chino O`zbekiston hukumatining Orol bo`yidagi suv taqchilligini tugatishga qaratilgan sa’yi-

harakatlarini qo`llab-quvvatladi. U Yaponiyaning maxsus jamg‘armasidan beg‘araz grant ajratishni jadallashtirishini ta’kidlab o`tdi.

2002-yil 28-fevral 1-mart kunlarida Almati shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvida “Markaziy Osiyo hamkorligi” tashkilotini tuzish to‘g‘risidagi shartnomaga imzo chekildi va mazkur tashkilotning raisi etib O‘zbekiston prezidenti I.A.Karimov saylandi.

Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligining tuzilishi ularning boshqa davlatlardan uzoqlashishini ko‘rsatmaydi, balki murakkab o‘tish davrida mintaqa mamlakatlarining o‘zaro yordam va hamkorligini chuqurlashtirishga qaratilgandir. Respublikaning geosiyosiy va geostrategik ahvoli, iqtisodiy salohiyati, ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyoti va boshqa omillardan qat’iy nazar davlatning tashqi siyosatidagi ustuvor prinsipi davlatlarning suveren teng huquqlilik prinsipi bo`lib qoldi.

O`zbekiston Respublikasining xalqaro huquqiy tashabbuslari jahon hamjamiyati oldida turgan mintaqaviy va global muammolarni hal etishga qaratilgandir. Umuman, O‘zbekiston tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish borasida bir necha yillarga arziydigan ishlarni amalga oshirdi. O‘zbekiston o‘zining tinchliksevar, yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rnini egalladi, uning mavqeyi yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda.

Sovet davlati parchalanib ketgandan so‘ng Markaziy Osiyoga, xususan, O‘zbekistonga xalqaro terroristlar va diniy ektremistlar qo‘poruvchilik harakatlari bilan tazyiq o‘tkazishga harakat qilmoqdalar. Islom Karimov O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida, xalqaro tashkilotlarning majlislarida Tojikistondagi fuqarolar urushi, Afg‘onistondagi tolibonlar va diniy ekstremistlarning butun jahon xalqlari uchun xavfli ekanini qayta-qayta ta’kidlab aytgan edi.

1997-yili o‘zining «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asarida «hududiy mojarolar diniy ekstremistlar O‘zbekiston mustaqilligiga xavfli tahdiddir» degan edi. Haqiqatan ham, «Afg‘onistonda o‘rnashib ko‘p mamlakatlar tomonidan madad olib turgan diniy ekstremistlar 1999-yil 16-fevralda, 1999-2000-yillari davlat chegaralarini buzishlar, 2003-2004 yillarda Toshkent va Buxoroda amalga oshirilgan qo‘poruvchilik harakatlari O‘zbekiston Prezidentining fikrlarini tasdiqladi. 2001-yil 11-

sentabrda Nyu-Yorkdagi qo‘poruvchilik harakatlari yirik davlatlar rahbarlarining ko‘zini ochdi va O‘zbekiston rahbarining qanchalik haq ekanligini ko‘rsatdi. 2001-yili oxirida Islom Karimovga AQShda xalqaro yetakchi (lider) unvonini berdi.

Terrorizm butun dunyoni qamramoqda, uning uchun diniy, milliy ajratuvchilik, davlat chegaralari ham yo‘q. 1995-2003-yillarda faqat MDH davlatlari hududida 4.500 uyushgan jinoyatchilar guruhi tor-mor qilindi, 300 ming o‘qotar qurollar, 400 tonna portlovchi moddalar yo‘q qilindi.

Xalqaro terroristlar va diniy ekstremistlar o‘zlarining yovuz niyatlarini amalga oshirish, ya’ni O‘zbekistonda konstitutsion tuzumni ag‘darish, Farg‘ona vodiysida xalifalikni o‘rnatish uchun 2005-yil 13-mayga o‘tar kechasi Andijon shahrida amalga oshirishga urindi. Bu kimsalarning buzg‘unchilik harakatlarini Andijon xalqi qo‘llamadi. Shuning uchun ham Afg‘oniston, Qirg‘izston va boshqa davlatlardan moliyaviy, texnikaviy yordam olib, shundan beri tayyorlangan bir guruh diniy ekstremist, qo‘poruvchilar mamlakatimiz Prezidenti I.Karimovning shaxsiy rahbarligida Respublika qurolli kuchlari tomonidan bostirildi, ularning yovuz niyatlari puchga chiqdi. Dunyoning ko‘plab davlat rahbarlari, tinchliksevar xalqlari I.Karimov harakatini, o‘zbek xalqining ko‘rsatgan jasoratini qo‘llab-quvvatlamoqda, chunki O‘zbekistonda dunyoviy, demokratik tinchliksevar tuzumning saqlab qolinishi Markaziy Osiyoda, balki MDHning boshqa mamlakatlarida ham terroristik, ekstemistik harakatlar oldi olindi.

Yurtboshimiz ilgari surgan «Ogoh bo‘laylik», «Hushyor bo‘laylik» shiyorlari haqli tarzda davr talablariga aylanmoqda.

Xronologik jadval

3-3,5 mln. yil ilgari - Olduvoy odami (Sharqiy Afrika).
1 mln.-700-600 ming yil ilgari -Yava oroli odami (pitekantrop).
700-600 ming yil ilgari - Xitoy odami (sinantrop).
500-50 ming yil ilgari - arxantroplar, Neandertal.
1 mln. yildan ziyodroq - Selung‘ur (Fergantrop).
1 mln.-15-13 ming yil - O‘rta Osiyoda paleolit davri.
1 mln.-100 ming yil-Ilk paleolit .
100-40 ming yil-O‘rta paleolit (Teshiktosh odami).
40-12 ming yil-So‘nggi paleolit.
12-7 ming yilliklar-Mezolit davri (O‘rta tosh davri).
6-4 ming yilliklar- Neolit davri (Yangi tosh davri).
4 ming yillikning oxiri-3 ming yillikning boshlari-Eneolit (mis-tosh) davri.
3-2 ming yillik-Bronza asri.
6-4 ming yillik-Joytun, Kaltaminor va Hisor madaniyatlari.
4 ming yillik oxiri-3 ming yillik boshlari-Lavlakon, Sarazm.
Mezolit-neolit davri-O‘rta Osiyoda ibtidoiy tasviriy san’atning paydo bo‘lishi.
3-2 ming yillik-Zamonbobo, Sopollitepa madaniyatlari.
3 ming yillik-dunyo tarixidagi ilk yozuv paydo bo‘lishi.
4-3 ming yillik-dunyo tarixida ilk davlatlarning paydo bo‘lishi.
1 ming yillikning boshlaridan-temir asri.
Mil.avv. V-IV asrlar-O‘rta Osiyoda ilk yozuv paydo bo‘lishi.
Mil.avv. I ming yillik birinchi yarmi-”Avesto”ning paydo bo‘lishi.
Mil.avv. VII-VI asrning boshlari - Zarato‘shtra faoliyati.
Mil.avv. I ming yillik o‘rtalari - Eron ahamoniylarining O‘rta Osiyo viloyatlarini bosib olishi.
Mil.avv. I ming yillik boshlari-O‘rta Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo‘lishi.
Mil.avv.VI-IV asrlar-Ahamoniylar mixxat yozuvlari.
Mil.avv. 555-330 yy. O‘rta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlari Ahmonylar davlati tarkibida.
Mil.avv. 530 y.-Massagetlarning Kir II qo‘shinlarini tor-mor- etishi.
Mil.avv. 522-486 yy.-Doro I hukmronligi.
Mil.avv. 522-y.ning oxiri-Doro I ga qarshi Marg‘iyona qo‘zg‘oloni.
Mil.avv. 519-518 yy.-”Saklar o‘lkasi”dagi forslarga qarshi Skunha boshchiligidagi kurash.

Mil.avv. V asr o‘rtalari-Bolqon yarim orolidagi shahar-davlatlarning kuchayishi.
Mil.avv. 334 y. bahori-makedon qo‘shinlari forslarga qarshi yurish boshladi.
Mil.avv. 329 y. bahori-Makedoniyalik Iskandar qo‘shinlari Oks (Amudaryo) bo‘ylarga yetib keladi.
Mil.avv. 328 y. bahori- yunon-makedonlarga qarshi kurash avj oldi.
Mil.avv. 327 y. oxiri-Sug‘diyonadagi qo‘zg‘olonning so‘nggi o‘choqlari ham bostirildi.
Mil.avv. 334-324 yy.-makedoniyalik Iskandarning harbiy yurishlari natijasida ulkan davlat tashkil topdi.
Mil.avv. 323-y.-makedoniyalik Iskandarning Bobilda to‘satdan vafot etishi.
Mil.avv. 312-y.-Iskandarning eng ishonchli sarkardalaridan biri Salavka hukmronligi o‘rnatildi.
Mil.avv. 293-261 yy.-Antiox G‘arbga qilgan yurishlari bilan shuhrat qozondi.
Mil.avv. 250 y.-Parfiya va Yunon-Baqtriya davlatlari salavkiylar davlatidan ajralib chiqib o‘zlarini mustaqil deb e’lon qildilar.
Mil.avv. 247-y.-Parfiyada Arshak boshchiligidagi parnlar qabilasi Niso shahriga hujum qilib uni egallaydi.
Mil.avv.171-138 yy.-Parfiyada Mitridat I hukmronligi.
Mil.avv. III asrning ikkinchi yarmi-II asrning birinchi yarmi-Yunon-Baqtriya davlatining gullab yashnagan davri.
Mil.avv. 250-140G‘130 yy.-Yunon-Baqtriya davlati mustaqil davlat sifatida.
Mil.avv. III asr boshlari-Qang‘ davlatining paydo bo‘lishi.
Mil.avv. II asr boshlari-Qang‘ davlati yerlarini kengayishi.
Mil.avv. II-I asr- Qang‘ davlatining kuchaygan davri.
Mil.avv. III-mil. V asrlar-Qovunchi madaniyatining yoyilishi.
Mil.avv. II-I asrlar- Xitoy manbalarida Dovon (Da-yun) haqidagi ma’lumotlar.
Mil.avv. 125 y.-Mashhur Xitoy sayohatchisi Chjan Syanning Dovonga kelishi.
Mil.avv. II-asr oxiri-Xitoy va Dovon o‘rtasida harbiy to‘qnashuvlar.
Mil.avv. 172-161 yy.-Yuyechji qabilalarining xunnlardan mag‘lubiyatga uchrashi.
Mil.avv.140-130 yy.-yuyechjilarning Baqtriyaga bostirib kirishi.
Mil.avv. 125 y.-Katta Yuyechji davlatining inqirozi.

Mil.avv. I asrning oxiri-mil. I asrning boshlariga kelib Guyshuan hokimi Kiotszyukyu, Qobuliston va Qandarhorni zabt etadi.
Mil.avv. II-I asr-O‘rta Osiyoda yunon-makedon hukmronligi tugatilishi.
Mil.avv. IV asr-Hindistonda buddaviylik dinining paydo bo‘lishi.
IV asr-Turon o‘lkasiga shimoldan ko‘chmanchi xion qabilalarining hujumi boshlanadi.
IV asrning 60-70 yy.-Eron shohi Shopur II ning xiyoniylar bilan kurashi.
V asrning 30-yy.-Eftalitlar bilan Eron sosoniylari o‘rtasidagi birinchi to‘qnashuv.
459-y. - Eron taxtiga Peroz chiqadi.
470-529-yy. - Mazdak Hamadon zardo‘shtiylikning asl g‘oyalarini hayotga tadbiq qilmoqchi bo‘lib, o‘z harakat mafkurasini yaratdi.
496-y.- Kubod shohning taxtdan ag‘darilishi.
531-579-yy.-Kubodning o‘g‘li Xusrav I Anushervon.
V-VI asr-dehqonchilik vohalarida eftalitlarning o‘troqlashuvi kuchayishi.
551-y.-Markaziy Osiyodagi eng kuchli bo‘lgan jujanlar xonini turkiylar tomonidan mag‘lub etilishi.
551-744-yy.-Bumin yangi davlat-Turkiy xoqonlikka asos solishi
554-y. - Muqan xoqonning Sharqqa yurishi.
558-y. -Turkiylarning Ural va Volga bo‘ylarini zabt etib Shimoliy Kavkazdagi ko‘chmanchi ovarlar bilan to‘qnashuvi.
563-y.-eftallarga qarshi, shimoldan turkiylar, janubdan sosoniylar hujumi.
576-y.-Muqan xoqon va Istemi yabg‘ularni vafotidan so‘ng Turkiy xoqonlikning ta’siri ancha zayiflasha boshlashi.
600-y. - Qora Churin o‘zini xoqon deb e’lon qilishi.
603-y.- Xoqonlik to‘la mustaqil 2 qismga bo‘linishi.
618-y. - Xoqon Sheguy vafoti; Xoqon Tunyabg‘u davri boshlanishi.
630-y. -Xoqon Tunyabg‘u vafoti.
657-659-yy. - Xitoyning Tan imperiyasi qo‘shinlarini Yettisuvga bostirib kirishi.
570-632-yy. - Muhammad payg‘ambar faoliyati.
650-651-yy. - Arablarning O‘rta Osiyoga harbiy harakatlari boshlanishi.
651-y. - Marv shahrining arablar tomonidan egallanishi.
652-y. - Xuroson noibi Abdulloh Amir Chag‘aniyonni egallashi.
654-y. - Sug‘ddagi Maymurg‘ qal’asiga arablarning birinchi hujumi.
657-y. - Chag‘aniyonga arablarni qayta yurishi.
683-y. - Xalifa Yazidning vafotidan so‘ng toju-taxt uchun kurash.
705-y. - Qutaybanng Balx viloyatini bosib olishi.
706-y. - Qutaybaning katta qushin bilan Movarounnahrga kirib kelishi.

708-709-yy.-Qutaybaning Buxoro va uning atrofiga bir necha bor hujumi.
710-712-yy.- Xorazmshohning Qutayba bilan tinchlik sulhini tuzishi.
710-737-yy.-Tarxunning ukasi G‘urakning taxtga o‘tirishi.
712-y. kuzi-Samarqandda arab noibiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarilishi.
713-y. bahori-Qutaybaning yetib kelishi va qo‘zg‘olon bostirilishi.
720-y. - Arablar siyosatiga qarshi Sug‘d aholisining bosh ko‘tarishi.
727-730-yy.-Islom dinini qabul qilganlardan xiroj va jizya solig‘i olishni bekor qilinishi.
733-734 yy.-Zarafshon vohasidagi qurg‘oqchilik, mustamlaka zulmining kuchayishi.
736-737 yy.-Asadning qo‘shini Xurosondan Xorisni siqib chiqarishga muvaffaq bo‘lishi.
718-y. - maxfiy tarzda Muhammad Payg‘ambarning amakilari Abbosning tarafdorlari o‘z g‘oyalarini targ‘ib qila boshlashi.
744-750-yy. - Marvon II hukmronlik davrida Ummaviylar siyosatiga qarshi norozilik kuchayib ketishi.
749-y. - Abu Muslim qo‘shini xalifalikning markaziy viloyatlariga yurish qilishi.
749-754-yy. - Abbosiylardan bo‘lgan Abulabbos Safaroh xalifalik taxtiga o‘tirishi.
751-y. - Buxoro shahrida Shorik ibn Shayhulmahr boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tarilishi.
755-y. - Abu Muslimning Bag‘dodda o‘ldirilishi.
813-y. - Ma’munning xalifalik markazi Bag‘dodni egallashi.
821-y. - Tohir ibn Husaynning Xurosonga noib etib tayinlanishi.
822-y. - Tohir ibn Hasayn Ma’mun odamlari tomonidan o‘ldirildi.
822-830-yy. - Talxa ibn Tohir noib etib tayinlanadi.
839-840-yy. - Nuh ibn Asad Isfijob viloyatini bosib oldi va uni mustahkamladi.
IX asrning 60-70-yillari-Tohiriylarga qarshi xalq harakatlarining kuchayishi (“G‘oziylar”).
873-y. - Safforiylarning tohiriylarga qattiq zarba berib Nishopurni egallashi.
819-820-yy. - Somonxudot nabiralarining turli viloyatlarga noib etib tayinlanishi.
879-892-yy. - Ismoil Somoniyning Buxoroga hokimlik davri.
892-907-yy. - Ismoil Somoniyning Movarounnahr va Xurosonga humronligi.
992-y. - Qoraxoniylar xoni Bug‘roxon Buxoroni egallashi.

997-y. - Nuh II Somoniy ham, Sabuktegin ham vafot etadi.
1017-y. - Mahmud G‘aznaviy Xorazmni bosib oladi.
1068-y. - Movarounnahrda qoraxoniy Ibrohim ibn Nasr o‘g‘illari o‘rtasida taxt uchun kurashning boshlanishi.
1080-y. - Shamsulmulk vafotidan keyin Movarounnahrda hokimiyat uchun kurash avj oladi.
1089-y. - Malikshohning Movarounnahrga bostirib kirishi.
1130-y. - Saljuqiy Sanjar Samarqandni egallaydi.
1030-y. - Mahmud G‘aznaviy vafot etadi.
1030-1041-yy. - Ma’sud G‘aznaviy taxtni egalladi.
1035-y. - Saljuqiylarning Xurosonga yangi hujumi.
1040-y. - Ma’sud G‘aznaviy vafot etdi.
1038-1063-yy. - Saljuqiylar davlatining bosh sultoni etib Tog‘rulbek saylandi.
1118-1147-yy. - Hokimiyat buyuk saljo‘qiylar sulolasining so‘nggi yirik vakili Sulton Sanjar qo‘liga o‘tadi.
1127-1156 yy.- Qutbiddin Muhammad Otsiz hukmdor bo‘ldi.
1158-y. - Elarslon katta qo‘shin bilan Movarounnahrga bostirib kirdi.
1157-y. - G‘uriylar sultoni G‘iyosiddin Muhammad Hirotni egalladi.
1194-y. - mart oyida Takash qo‘shinlari Tog‘rul II ga qarshi urush ochdi.
1200-y. - Takash vafot etdi.
1203-y. - Muhammad Horazmshoh qoraxitoylarning yordamida Xurosonni butunlay bosib oldi.
783-850-yy. - Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy faoliyati.
797-865-yy.-Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Nosir al-Farg‘oniy yashab ijod qilgan.
873-951-yy. - Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad Forobiy (O‘tror) Forob yaqinida Vasij shaharchasida tavallud ko‘rgan va Damashqda vafot etgan.
899-959-yy. - Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiy faoliyati.
980-1037-yy. - Abu Ali ibn Sino faoliyati.
973-1048-yy. - Abu Rayhon Beruniy faoliyati.
960-1041-yy. - Abu Abdulloh Ja’far Rudakiy faoliyati.
809-870-yy. - Imom Buxoriy faoliyati.
824-892-yy. - Imom at-Termiziy faoliyati.
1103-1179-yy. - Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy faoliyati.
1145-1221-yy. - Najmiddin Kubro faoliyati davri.
1127-y. - Qoraxoniy Arslonxon tomonidan mashhur imorat-Minorayi Kalon barpo etildi.

1204-y. - Uyg‘ur alifbosi mo‘g‘ul yozuvi uchun asos sifatida qabul qilindi.
1215-y. -Dashti Qipchoq yurishida Xorazmshoh mo‘g‘ullarning Jo‘chi boshchiligidagi harbiy qo‘shiniga duch keladi.
1218-y.- Muhammad Xorazmshoh o‘zining yangi poytaxti deb e’lon qilgan Samarqand shahriga kirib keldi.
1219-y. - Chingizxon o‘z o‘g‘illari boshliq 200 mingga yaqin asosiy harbiy kuchlari bilan puxta tayyorlangan Xorazmshoh-Anushteginiylar davlati ustiga harbiy yurishni boshladi.
1220-y. - Chingizxon Termizga yurish boshladi.
1220-y. - Muhammad Xorazmshoh plevrit kasali bilan og‘rib Kaspiy dengizidagi Ashuradi orolida vafot etadi.
1221-y. - Jaloliddin Manguberdi G‘aznaga kirib keladi.
1221-y. - Sind daryosi bo‘yida uch kun davom etgan hal qiluvchi jang bo‘lib o‘tdi.
1230-y. - 10 avgustida Ko‘niya sultoni, Xims hokimi, Halab hokimi, Mayafiriqin hokimi va Baynas hokimlarining birlashgan ittifoqi Jaloliddinni mag‘lub etadi.
1227-y. - Chingizxon o‘limi arafasida o‘g‘illariga turli zabt etilgan yerlarni ulus etib bo‘lib berdi.
1238-y. - Mahmud Torobiy qo‘zg‘oloni.
1256-y. - Mo‘g‘ullar Xulagu boshchiligidagi Eron, Kurdiston, Iroq va Yaqin Sharqning boshqa yerlariga hujum qiladilar.
1241-y. - Oltin O‘rda davlatining tashkil topishi.
1261-1266-yy. - Chig‘atoyning nevarasi Olg‘uxon Oltin O‘rdaga qarshi kurashib, Chig‘atoy ulusini qayta tiklashga muvaffaq bo‘ldi.
1251-1259-yy. - Oltin O‘rdada Munqa hoqon hukmronligi.
1272-y. - Xulagiylar tomonidan Kesh va Nasafning talon-taroj etilishi.
1271-y. - Ma’sudbekning pul islohoti o‘tkazishga kirishishi.
1318-1326-yy. - Duvaxon hukmronligi davri va uning islohotlar o‘tkazishi.
1326-1334-yy. - Oloviddin Tarmashirin faoliyati.
1343-1346-yy. - Qozonxon hukmronligi.
1333-y. - Arab sayyohi Ibn Battuta Buxoroda bo‘ldi.
1247-1326-yy. - Pahlavon Mahmud faoliyati davri.
1318-1389-yy. - Bahovuddin Naqshband faoliyati davri.
1336-1405-yy. - Amir Temur faoliyati davri.
1360-1370 yy.-Amir Husayn va Temurning Movarounnahr siyosiy hayotida faollashuvi.

1361-1365-yy.- Amir Husayn va Temur o‘rtasidagi iliq munosabatlar davri.
1365-1370-yy. - Amir Husayn va Temur munosabatlarining yomonlashuvi.
1362-y. - Seyistondagi jangda Temurning jarohatlanishi.
1363-y. - Mo‘g‘ul xoni Ilyosxo‘janing Movarounnahrga yangi hujumi.
1365-y. - ”Loy jangi”.
XIV asrning 30-yillari-Eronda sarbadorlar harakatining paydo bo‘lishi va 50-60-yillarda Movarounnahrda yoyilishi.
1366-y. - Amir Husaynning Samarqand taxtiga o‘tirishi.
1370-y. - Amir Husaynning vafoti va Temurning taxtga o‘tirishi.
1372-1388-yy. - Amir Temurning Xorazmga besh marta yurish qilishi.
1386-1388-yy. - ”Uch yillik” yurish.
1392-1396-yy. - ”Besh yillik” urush.
1399-1404-yy. - ”Yetti yillik” urush.
1395-y. - To‘xtamishxonning batamom tor-mor etilishi.
1387-1392-yy. - Ozarbayjon, Armaniston va Gruziyaning Temurga bo‘ysundirilishi.
1398-y. - Hindiston yurishining tugashi.
1400-1402-yy. - Misr va Turkiyaning bo‘ysundirilishi.
1366-1408-yy. - Temurning o‘g‘li Mironshoh faoliyati.
1377-14470-yy. - Shohruh Mirzo faoliyati.
1394-1449-yy. - Ulug‘bek Mirzo faoliyati.
1405-1409-yy. - Samarqandda Xalil Sulton hukmronligi.
1405-1406-yy. - Xalil Sultonning Shohruh va Pirmuhammad qo‘shinlari bilan Movarounnahr taxti uchun kurashi.
1407-y. - Pirmuhammadning Pir Ali Toz tomonidan o‘ldirilishi.
1409-y. - Shohruhning Samarqandni egallashi.
1411-y. - Ulug‘bekning Samarqand taxtini mustaqil boshqara boshlashi.
1413-y. - Shohruh tomonidan Eronning egallanishi.
1414-1415-yy. - Ulug‘bekning Farg‘onani egallanishi.
1416-y. - Qoshg‘arni Ulug‘bekka topshirilishi.
1425-y. - Ulug‘bekning Mo‘g‘uliston qo‘shinlarini tor-mor etishi.
1427-y. - Ulug‘bekning Dashti Qipchoq qo‘shinlaridan mag‘lubiyatga uchrashi.
1428-y. - Ulug‘bekning Movarounnahrda pul islohoti o‘tkazishi.
1446-y. - Shohruh Mirzoning so‘nggi harbiy yurishi.
1448-y. - Ulug‘bek va Abdulatif qo‘shinlari Tarnob yaqinida Alouddavla qo‘shinlarini tor-mor etishi.

1449-y. - Abdulatif va Ulug‘bek o‘rtasida jang.
1450-y. - Padarkush Abdulatifning o‘ldirilishi.
1451-1469-yy. - Samarqandda Sulton Abusayid Mirzo hukmronligi.
XV asrning ikkinchi yarmi-Movarounnahr va Xurosonda Temuriy shahzodalarning toj-taxt uchun kurashlari.
1417-y. - Buxoroda madrasa bunyod etildi.
1420-y. - Samarqandda madrasa qurildi.
1433-y. - G‘ijduvonda madrasa qurildi.
1424-1429-yy. - Samarqandda Ulug‘bek madrasasi qurilishi.
1469-1506-yy. - Husayn Boyqaro hukmronligi.
1480-y. - Dashti qipchoqda Shaybonixon hokimiyat tepasiga keldi.
1494-y. - Farg‘onada Bobur Mirzo hokimiyat tepasiga keldi.
1497-y. - Bobur Mirzoning Samarqand taxtini egallashi.
1500-y. - Shayboniyxon Samarqandni egalladi.
1500-y. - Bobur Mirzo Samarqandni ikkinchi marta egalladi.
1501-y. - Shayboniyxon Samarqandni yana egalladi.
1505-y.- Shayboniyxon Xorazmni zabt etdi.
1507-y. - Shayboniyxon Xurosonni egalladi.
1510-y. - Shayboniyxonning Eron shohi Ismoil bilan to‘qnashuvi va halok bo‘lishi.
1511-y. - Shoh Ismoilning Movarounnahrga hujumi.
1512-y. - Xorazm xonligining tashkil topishi.
1526-1858-yy. - Hindistonda Boburiylar sulolasining hukmronligi.
1538-y. - Ubaydullaxonning Xorazmni egallashi.
1557-1598-yy. - Abdullaxon II hukmronligi. Uning Balxni (1573), Shahrisabz, Qarshi, Hisorni (1574), Samarqandni (1578), Toshkentni (1580), Urganchni (1595) zabt etishi.
1548-1549-yy. - Abdulazizxon xonaqohi, Mag‘oki Attori masjidi qurildi.
1558-1559-yy. - Antoniy Jenkinsonning Buxoroda bo‘lishi.
1581-y. - Modarixon madrasasi, Oyposhsha oyim madrasasi qurildi.
1587-y. - Shoir Mushfiqiy vafoti.
1601-y. - Ashtarxoniylar hukmronligining boshlanishi.
1612-1613-yy. - Toshkentda Imomqulixonga qarshi qo‘zg‘olon.
1616-y. - Arab Muhammad madrasasining qurilishi.
1619-1622-yy. - Elchi Ivan Xoxlovning Xiva xonligida bo‘lishi.
1619-y. - Sherdor madrasasining qurilishi.
1657-1662-yy. - Buxoroda Abdulazizxon madrasasi qurildi.
1669-1671-yy. - Elchilar aka-uka Pazuxinlarning Buxoro xonligida bo‘lishi.

1681-y. - Qoraqalpoqlarning Subhonqulixonga qarshi qo‘zg‘oloni.
1645-1724-yy. - Shoir So‘fi Olloyor hayoti va faoliyati.
1685-y. - Xiva xonining Samarqandni egallashi.
1688-y. - Xiva xonligining Buxoro xonligiga bo‘ysundirilishi.
1700-y. - Shohniyoz jo‘natgan elchining Rossiyaga borishi.
1708-y. - Ubaydullaxonning pul islohoti o‘tkazishi.
1710-y. - Qo‘qon xonligi tashkil topishi.
1714-1717-yy. - Bekovich-Cherkasskiyning Xiva xonligiga qarshi yurishi.
1716-y. - Xonquli to‘pchiboshi boshchiligida Buxoro xoni elchilarining Rossiyaga borishi.
1718-1724-yy. - Florio Beneveni elchiligi.
1722-1723-yy. - Jung‘orlarning O‘rta Osiyoga hujumi.
1740-y. - Nodirshohning O‘rta Osiyoga yurishi.
1741-y. - Xivaliklarning eronliklarga qarshi ozodlik kurashi.
1742-y. - Qoraqalpoq zodagonlarining Rossiya vassalligiga o‘tishi.
1753-y. - Buxoroda hokimiyat tepasiga mang‘itlar keldi.
1765-y. - Xivada Muhammad Amin inoq madrasasi qurildi.
1770-y. - Xiva xonligida hokimiyatni qo‘ng‘irotlar egalladi.
1774-1776-yy. - Ernazar Maqsud o‘g‘li elchiligining ikkinchi bor Rossiyada bo‘lishi.
1825-1899-yy. - Komil Xorazmiy Niyozmuhammad o‘g‘li yashagan yillar.
1827-1828-yy. - Qoraqalpoqlarning Oydo‘stbiy boshchiligidagi qo‘zg‘oloni.
1827-1900-yy. - Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li Berdaq hayoti va ijodiy faoliyati yillari.
1839-y. - General Perovskiy boshchiligidagi rus qo‘shinlarining Xivaga yurishi.
1841-1842-yy. - Ingliz josuslari Stoddart va Konollining xonliklarda bo‘lishi.
1842-y. - Amir Nasrulloning Qo‘qon xonligini bosib olishi.
1847-y. - General Obruchev Xivaning Rayim qal’asini egalladi.
1850-1903-yy. - Muhammad Aminxo‘ja o‘g‘li Muqimiy yashagan yillar.
1851-1914-yy. - Jadidlar yetakchisi Ismoil Gaspirali yashagan yillar.
1853-y. - Perovskiy qo‘mondonligidagi rus qo‘shinlari Oqmachit harbiy istehkom qal’asini egalladi.
1854-y. - Verniy istehkomi ruslar tomonidan egallandi.
1858-1909-yy. - Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat yashagan yillar.
1864-y. - Polkovnik Chernyayev qo‘shini Avliyoota qal’asni bosib oldi.

1864-y. 12-iyun - Polkovnik Veryovkin qo‘shini Turkiston shahrini zabt etdi.
1864-y. 22-sentabr-Chimkentga rus qo‘shinlari ikkinchi marta hujum boshladi va bosib oldi.
1865-y. 29-aprel - General Chernyayev Niyozbek qal’asini bosib oldi.
1865-y. 17-iyun - Toshkent shahri qattiq jangdan keyin bosib olindi.
1866-y. - General Romanovskiyning qo‘shini Yerjar yonida amirlik qo‘shinlarini tor-mor keltirdi.
1866-y. 24-may - Amirlikning Xo‘jand qal’asi egallandi.
1866-y. 2-oktabr - O‘ratepa bosib olindi.
1866-y. 18-oktabr - Ruslar Jizzaxni bosib oldi.
1867-y. 14-iyul - Podsho Aleksandr II farmoni bilan Turkiston general-gubernatorligi va Turkiston harbiy okrugi tashkil etildi.
1867-y. - Toshkentda meteorologik stansiya ochildi.
1868-y. 1-may - Fon Kaufman qo‘mondonligidagi qo‘shin Cho‘ponota tepaligini bosib oldi.
1868-y. 2-may - Ruslar Samarqand shahrini egalladi.
1869-y. 23-iyun - Zirabuloq shartnomasi tuzildi. Amir Muzaffarxon podshoga vassal “hukmdorga” aylandi.
1870-y. - Toshkentda kutubxona ochildi.
1871-y. - Muhammad Rahimxon madrasasi qurildi.
1873-y. - Chor Rossiyasi qo‘shinlarining Xiva xonlgiga hujumi.
1873-y. 23-may - Xazorasp qal’asi bosib olindi.
1873-y. 29-may - Xiva jang bilan egallandi.
1873-y. 12-avgust - Gandamiyon sharnomasi tuzildi va Xiva Rossiya vassaliga aylandi.
1873-y. - Turkiston general-gubernatorligiga bo‘ysundirilgan Amudaryo bo‘limi tashkil qilindi.
1809-1874-yy. - Muhammad Rizo Ogahiy yashagan yillar.
1873-1876-yy. - Po‘latxon boshchiligidagi qo‘zg‘olon.
1876-y. 3-mart-Qo‘qon xonligi tugatildi.
1875-y. - Avliyootada birinchi rus qishlog‘i tashkil etildi.
1878-1919-yy. - Turkistondagi jadidchilik harakatining yirik vakil Mahmudxo‘ja Behbudiy yashagan yillar.
1878-1931-yy. - Jadidchilik harakatining tashkilotchilaridan biri Munavvar Qori Abdurashidxon o‘g‘li yashagan yillar.
1879-y. - Toshkentda birinchi paxta tozalash zavodi ishga tushdi.
1881-y. - Go‘ktepa qal’asi bosib olindi va mudofaachilar butunlay qirib tashlandi.

1882-1883-yy. - podsho hukumati Turkiston general-gubernatorligi ma’muryati faoliyatini tekshirish uchun F.K.Girs boshchiligida komissiya jo‘natdi.
1882-1885-yy. - Farg‘ona vodiysida dehqonlar harakati.
1884-y. - Toshkentda birinchi rus- tuzem maktabi ochildi.
1885-y. - Buxoroda Rossiya siyosiy agentligi tashkiloti ochildi.
1886-y. 12-iyun - Turkiston o‘lkasini boshqarish “Nizomi” kuchga kirdi.
1886-y. - Mullaqordan boshlangan temir yo‘l Marvgacha yetkazildi.
1886-y. - Farg‘onada birinchi paxta tozalash zavodi ishga tushdi.
1886-1939-yy. - Jadidchilik harakatining yirik namoyondasi Fitrat yashagan davr.
1889-y. - Turkistonda Rossiya Markaziy banki bo‘limi ochildi.
1892-y. - Toshkent qo‘zg‘oloni.
1894-1940-yy. - O‘zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy yashagan yillar.
1896-1938-yy. - Taniqli davlat arbobi Fayzulla Xo‘jayev yashagan davr.
1897-y. - Andijonda birinchi yangi usul maktabi ochildi.
1898-y. 17-may - Andijonda Dukchi Eshon qo‘zg‘oloni.
1900-y. - ”Ustodi avval” alifbo kitobi nashr etildi.
1900-1906-yy. - Toshkent-Orenburg temir yo‘li qurib ishga tushirildi.
1909-y. - Toshkentda Munavvar Qori boshchiligida Jamiyati xayriya tuzildi.
1910-y. -Yosh buxoroliklar partiyasi vujudga keldi.
1912-y. - Toshkentda Sapyorlar qo‘zg‘oloni.
1913y.-Toshkentda jadidlarning “Taraqqiyparvarlar” tashkiloti tuzildi.
1914-y. 26-iyul - Turkistonda favqulodda holat e’lon qilindi.
1914-y. - Xivada Yosh xivaliklar partiyasi shakllandi.
1916-y. 4-iyul - Xo‘jand qo‘zg‘oloni.
1916-y. iyul - Toshkent qo‘zg‘oloni.
1916-y. iyul - Jizzax qo‘zg‘oloni.
1917-y. 28-fevral - Rossiyada fevral inqilobi g‘alaba qozondi.
1917-y. 13-mart - Toshkentda “Sho‘roi Islomiya” tashkiloti tuzildi.
1917-y. 16-23 aprel - Butunturkiston musulmonlarining I qurultoyi bo‘lib, unda Turkiston musulmonlari kengashi tashkil etildi.
1917-y. 26-aprel - Xiva xonligida Majlis (mahkamayi adliya) tuzildi.
1917-y. iyun - ”Sho‘roi Ulamo” tashkiloti tuzildi.
1917-y.17-20-sentyabr - Toshkentda Turkiston va Qozog‘iston musulmonlarining qurultoyi bo‘lib, unda “Ittifoqi muslimin” tuzildi.

1917-y. 1-noyabr - Toshkentda bolsheviklar zo‘ravonlik bilan hokimiyatni egalladi.
1917-y.26-28-noyabr - Qo‘qonda Butunturkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo‘ldi va Turkiston Muxtoriyati hukumati tuzildi.
1918-y.22-fevral - Turkiston Muxtoriyati hukumati qizil askarlar va dashnoqlar tomonidan tor-mor etildi.
1918-y.fevralning oxiri - Turkistonda sovet tuzumiga qarshi istiqlolchilik harakati boshlandi.
1918-y.mart - ”Kolesov yurishi” bo‘ldi va Buxoro amirligi bilan Turkiston respublikasi o‘rtasida Qiziltepa bitimi imzolandi.
1918-y.30- aprel - Turkiston avtonom sovet respublikasi tuzildi.
1919-y.mart - Turor Risqulov rayisligida Turkiston o‘lkasi musulmonlar byurosi tuzildi.
1919-y.9-aprel - Junayidxon bilan sovet Rossiyasi o‘rtasida Taxta bitimi imzolandi.
1919-y.22-oktyabr - Madaminbek boshchiligida Farg‘ona muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzildi.
1920-y.2-fevral - Sovet hukumati qo‘shinlari Xiva shahrini bosib oldi va Xiva xonligi tugatildi.
1920-y.26-aprel - Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligi e’lon qilindi.
1920-y.3-may - Shermuhammadbek boshchiligida Turkiston-turk mustaqil islom jumhuriyati tuzildi.
1920-y.2-sentyabr - Turkfront qo‘mondoni M.Frunze boshchiligidagi qizil askarlar Buxoro shahrini ishg‘ol qildi va Buxoro amirligi tugatildi.
1920-y.6-8-oktyabr - Buxoro Xalq Soveti Respublikasi tuzildi.
1921-y. avgust - Buxoroda Turkiston Milliy Birligi tashkiloti tuzildi.
1923-y.mart - O‘rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi tuzildi.
1925-y.13-fevral - O‘zbekiston SSR tuzildi.
1925-y.fevral - Qoraqalpog‘iston avtonom viloyati (Qozog‘iston ASSR tarkibida) tuzildi.
1925-1929-yy. - O‘zbekistonda yer-suv islohoti o‘tkazildi.
1927-y. - O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi qabul qilindi.
1927-y. - ”Hujum” kompaniyasi boshlandi.
1929-y.oxiri - Munavvar Qori boshchiligidagi “Milliy istiqlol” tashkiloti a’zolari qatag‘on qilindi.
1930-1932-yy. - O‘zbekistonda o‘ziga to‘q xo‘jaliklar “quloq” sifatida tugatilib, qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish amalga oshirildi.

1932-y.mart - O‘zbekiston SSR MIK huzurida Fanlar komiteti tashkil qilindi.
1934-y.mart - O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tuzildi.
1935-y. - Turkiston mintaqasida istiqlolchilik harakati mag‘lubiyatga uchradi.
1937-y.23-mart - Qoraqalpog‘iston ASSR Konstitutsiyasi qabul qilinib, QQASSR O‘zbekiston tarkibiga kirdi.
1937-1938-yy. - Mustabid sovet rejimi O‘zbekistonda ommaviy ravishda qatag‘onlar o‘tkazdi.
1939-y.1-avgust-15- sentyabr - Katta Farg‘ona kanali qazildi.
1941-y.22-iyun-1945-y.9-may - O‘zbekiston xalqlari Germaniya fashizmiga qarshi urushda ishtirok etdilar.
1943-y.4-noyabr - O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil etildi.
1943-1944-yy. - O‘zbekistonga qrim tatarlari, chechenlar, ingushlar, bolqarlar, pontiya greklari va mesxeti turklar ko‘chirildi.
1944-y.yanvar - Respublika paxtakorlarining birinchi qurultoyi.
1949-1952-yy. - Ko‘pgina mashhur o‘zbek ijodiy ziyolilari asossiz qatag‘on qilindilar.
1950-60-yy. - O‘zbekistonda qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish choralari ko‘rildi.
1951-1954-yy. - Toshkent botanika bog‘i yaratildi.
1956-y.5 noyabr - O‘rta Osiyoda birinchi Toshkent telemarkazi ishga tushdi.
1958-1960-yy. - Jarqoq - Buxoro - Samarqand - Toshkent magistral gaz quvuri qurildi.
1959-1965-yy. - 450 dan ziyod sanoat korxonalari ishga tushirildi.
1963-y. - Buxoro-Ural gaz quvuri ishga tushirildi.
1965-y. - Amu-Buxoro kanali qurildi.
1966-y.26-aprel - Toshkent shahrida kuchli zilzila bo‘ldi.
1967-y. - Dunyodagi eng uzun O‘rta Osiyo-Markaz gaz quvuri qurildi.
1969-y. - ”Tashavtomash” zavodi bazasida Toshkent traktor zavodi barpo etildi.
1977-y.6-noyabr - Toshkent metropolitenining birinchi navbati ishga tushdi.
1984-1989-yy. - ”Paxta ishi” natijasida O‘zbekistonda o‘n minlab kishilar qatag‘on qilindi.
1985-1990-yy. - Qayta qurish yillari
1989-y.21-oktyabr - ”O‘zbekiston SSRning davlati tili haqida”gi Qonun qabul qilindi.

1990-y.24-mart - I.A.Karimov O‘zbekiston SSR Prezidenti etib saylandi.
1990-y.20-iyun - O‘zbekiston SSR Oliy Soveti “Mustaqillik Deklaratsiyasi”ni qabul qildi.
1991-y.31-avgust - O‘zbekiston Oliy Kengashi “O‘zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligini e’lon qilish to‘g‘risida” Qonun qabul qildi.
1991-y.1-sentyabr - O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb e’lon qilindi.
1991-y.1-noyabr - O‘zbekiston xalq demokratik partiyasi tashkil topdi.
1991-y.18-noyabr - O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i tasdiqlandi.
1991-y.29-dekabr - I.Karimov muqobillik asosida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylandi.
1992-y.14-yanvar - O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil etildi.
1992-y.2-mart - O‘zbekiston BMT a’zoligiga qabul qilindi.
1992-y.may - ”Vatan taraqqiyoti” partiyasi tashkil topdi.
1992-y.2-iyul - O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi qabul qilindi.
1992-y.28-noyabr - O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining a’zosi bo‘ldi.
1992-y.8-dekabr - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.
1992-y.10-dekabr - O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilindi.
1993-y. - O‘zbekiston-AQSh hamkorligida oltin qazib olish bo‘yicha “Zarafshon-Nyumont” qo‘shma korxonasi tashkil etildi.
1993-y.7-may - I va II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni ta’sis etildi.
1994-y.5-may - ”O‘zbekiston Qahramoni” unvoni va “Oltin yulduz” medali ta’sis etildi.
1994-y.5-may - ”Mustaqillik ordeni”, “Do‘stlik” ordeni hamda “Jasorat” va “Shuhrat” medallari ta’sis etildi.
1994-y.1-iyul - O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi-So‘m muomalaga kiritildi.
1995-y.18-fevral - ”Adolat” sotsial-demokratik partiyasi tashkil topdi.
1995-y.29-mart - O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazuvchi Markaziy komissiya referendum yakunlari to‘g‘risida qaror qabul qilib, unda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning vakolat muddati umumxalq ovoz berishi natijasida 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirildi.
1995-y.6-may - ”Mehnat shuhrati”, I va II darajali “Shon sharaf” ordenlari ta’sis etildi.

1995-y.3- iyun - O‘zbekiston “Xalq birligi” harakati tashkil topdi.
1996-y. - Amir Temur yili.
1996-y.26-aprel - ”Amir Temur” ordeni ta’sis etildi.
1996-y.19-iyul - Asakada “O‘z DEU avto” zavodining rasmiy ochilishi bo‘ldi.
1996-y.28-avgust - Samarqand va Shahrisabz shaharlari “Amir Temur” ordenlari bilan mukofotlandi.
1996-y.21-oktyabr - Toshkentda Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya, Turkmaniston va O‘zbekiston Respublikalari Prezidentlari oliy darajadagi uchrashuvida Toshkent Deklaratsiyasi imzolandi.
1997-y.oktyabr - Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi nishonlandi.
1997-y. - Prezident I.A.Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asari nashr etildi.
1998-y.28-dekabr - Fidokorlar partiyasi tashkil topdi.
1998-y. - I.A.Karimovni “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” nomli kitobi nashrdan chiqdi.
1998-y.24-oktyabr - Ahmad al-Farg‘oniyning 1200 yillik yubileyi tantanali ravishda nishonlandi.
1998-y.23-oktyabr - Imom al-Buxoriyni 1225 yilligi nishonlandi.
1999-y.15-mart - O‘zbekiston va Turkiya hamkorligida “Sam Koch avto” korxonasi ishga tushdi.
1999-y.24-aprel - O‘zbekiston Gruziya, Ozarbayjon, Ukrayina, Moldoviya a’zo bo‘lgan, hozirda “Guuam” deb yuritiladigan iqtisodiy tashkilotga a’zo bo‘ldi.
1999-y.5-noyabr - Vatandoshimiz, mo‘g‘ullarga qarshi kurashgan Jaloliddin Manguberdining Xiva tuprog‘ida 800 yillik yubileyi nishonlandi.
1999-y. - I.A.Karimovning “O‘zbekiston buyuk kelajak sari” nomli kitobi nashrdan chiqdi.
2000-y.9-fevral - Shahrisabzda Amir Temurning tavalludi nishonlandi.
2000-y.14- aprel - ”Vatan taraqqiyoti” va “Milliy tiklanish” partiyasini qo‘shma qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Ikki partiya birlashib, “Fidokorlar milliy demokratik partiyasi” tuzildi.
2000-y.12-may - Toshkentning Yunusobod mavzeida istiqlol kurashchilariga atab “Shahidlar maydoni” ochildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Karimov I.A.** O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. T., “O‘zbekiston”, 1992
2. **Karimov I.A.** O‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1993.
3. **Karimov I.A** Istiqlol va ma’naviyat-T., “O‘zbekiston”, 1994.
4. **Karimov I.A** O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1995.
5. **Karimov I.A.** O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. T.,1995
6. **Karimov I.A.** O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari-T., “O‘zbekiston”, 1995.
7. **Karimov. I.A.** Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.-3, Toshkent, “O‘zbekiston”, 1996.
8. **Karimov I.A.** Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T., “O‘zbekiston”, 1997.
9. **Karimov I.A.** O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., “O‘zbekiston”, 1997.
10. **Karimov I.A.** Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q-T., “Sharq“, 1998.
11. **Karimov I.A.** Ma’naviy yuksalish yo‘lida.-T., “O‘zbekiston”, 1998.
12. **Karimov I.A.** “O‘zbekiston buyuk kelajak sari” T., “O‘zbekiston”, 1999.
13. **Karimov I.A.** Olloh qalbimizda, yuragimizda. “Turkiston-press axborot agentligi muhbirining savollariga javoblar-T., “O‘zbekiston”, 1999.
14. **Karimov I.A.** Oliy Majlis II-chaqiriq I-sessiyasi 2-yig‘ilishida so‘zlagan nutqi. “O‘zbekiston ovozi”, 12 fevral, 2000.
15. **Абаев И.И.** Миф и история в Гатах Зороастра. В кн.: Историко-филологические исследования. М., 1974

16. Abdullayev R. Milliy siyosiy g‘oyalar tarixidan G‘G‘ Inson va siyosat, 1991, № 9, 87-94-betlar.

17. Абдулщамидов А. Орошение в предгорьях Узбекистана. Т., 1990.

16. **Абдураимов М.А.** Очерк аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI в. - первой половине XIX века, т.I. Т., 1966.
17. **Abu Rayxon Beruniy.** Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. G‘G‘ Tanlangan asarlar. t.1.-T., “Fan”, 1968.
18. Avesto. Yasht kitobi-T., “Sharq”, 2001.
19. **Алексеев В.П., Першиц А.И.** История первобытного общества. М., 1990.
20. **Alimova D.A.** va b. O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). -T., “Sharq“, 2000.
21. **Алимова Д.А.** Джадидизм в Средней Азии. Пути обновления, реформы, борьба за независимость.-Т., “O‘zbekiston”, 2000.
22. **Alimova D. A., Golovanov A.A.** O‘zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari.-T., “O‘zbekiston”, 2000.
23. **Amir Sayyid Olimxon** Buxoro xalqining hasrati tarixi-T., “Fan”, 1991.
24. Amir Temur jahon tarixida. T., “Sharq”, 1996.
25. **Annayev T., Shaydullayev Sh.** Surxondaryo tarixidan lavhalar. T., “O‘zbekiston”, 1997.
26. **Арриан.** Поход Александра. Перевод М.Е.Сергеенко. М.-Л., 1962.
27. **Arsixovskiy A.** Arxeologiya asoslari. T., 1970.
28. Arxeologlar hikoya qiladi. Mualliflar jamoasi. T., 1976.
29. **Asqarov A.A.** Buxoroning ibtidoiy davr tarixidan lavhalar. T., 1973.
30. **Asqarov A.A.** Sappalitepa. T., 1978.
31. **Asqarov A.** Eng qadimiy shahar.-T., “Ma’naviyat”, 2001.
32. **Axmedov V.A.** O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari. T., 1991.
33. **Axmedov B.A.** O‘zbek ulusi. T., 1991.
34. **Axmedov B.A.** Tarixdan saboqlar. T., 1994.
35. **A’zamova G.** So‘nggi o‘rta asrlar O‘tra Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va savdo.-T., “O‘zbekiston”, 2000.
36. **A’zamxo‘jayev S.** Turkiston Muxtoriyati: milliy-demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi.-T., “Ma’naviyat”, 2000.
37. **Ahmedov B., Mukminova R.., Pugachenkova G.** Amir Temur. T., “Universitet”, 1999.

38. **Бартольд В.В.** Бактрия, Балх и Тохаристан. Соч., т. 7, М., 1972.
39. **Бартольд В.В.** Согд. Соч., т.3. М., 1965.
40. **Бартольд В.В.** Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч., т. 1. М., 1963.
41. **Бердяев Н.** Смысл истории - М.: Мысл, 1990.
42. **Behbudiy.** Tanlangan asarlar.-T., “Ma’naviyat”, 1999.
43. **Бертельс Е.** Суфизм и суфийская литература. М, 1986.
44. **Бичурин Н.Я.** Собрания сведений о народах Средней Азии в древние времена.т.1-3. М., Л., 1950.
45. **Бойс М.** Зороастрийцы. Верование и обычаи. М., 1987.
46. **Борисовский И.И.** Древнейшее прошлое человечества. М., 1980.
47. **Буниёдов З.** Ануштагин хоразмшощлар давлати (1097-1231). Т., /офур /улом нашриёти, 1998.
48. Buxoro tarixi sahifalari. Buxoro, 1998.
49. Buxoro Sharq durdonasi. T., “Sharq”, 1997.
50. **Validiy.** Bo‘linganni bo‘ri yer. Turkiston xalqlarining milliy mustaqillik uchun kurashi tarixidan xotiralar.-T., “Adolat”, 1997.
51. **Vamberi X.** Buxoro yohud Movarounnahr tarixi. T., 1991.
52. **Vahobov M.** O‘zbek sotsialistik millati. T., 1960.
53. **Геродот.** История в девяти книгах. Перевод и примечания Г.А.Стратановского. Л., 1972.
54. **Ãîëîâàíîâ À.À.** Êðåñòüÿíñòâî Óçáåêèñòàíà: ýâîëþöèÿ ñîöèàëüíîãî ïîëîæåíèÿ. 1917-1937 ãã. Ò., ”Ôàí”, 1992.
55. **Гумилев Л.Н.** Древние тюрки., М., 1967.
56. **Гумилев Л.Н.** Эфталиты и их соседи в IV в.-ВДИ, 1959. № 1.
57. **Дандамаев М.А.** Политическая история Ахеменидской державы. М., 1985.
58. **Дандамаев М.А. Луконин В.Г.** Культура и экономика древнего Ирана. М., 1980.
59. **Дьяконов И.М.** История Мидии от древнейших времен до конца IV в. до н.э. М.-Л., 1956.
60. **Дьяконов И.М.** Восточный Иран до Кира. В кн.: “История иранского государства”. М., 1971.
61. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar). Davriy to‘plam № 1.-T., “Universitet”, 1999.

62. Jaloliddin Manguberdi. T., “Sharq”, 1999.
63. **Заднепровский Ю.А.** Древнеземледельческая культура Ферганы. М.-Л., 1962.
64. **Зеймаль Е.В.** Амударьинский клад. Л., 1979.
65. **Ziyoev H.Z.** O‘rta Osiyo va Sibir (XV-XIX asrlar) T., 1962.
66. **Ziyoev H.Z.** O‘rta Osiyo va Volga bo‘ylari. T., 1965.
67. **Ziyoev H.Z.** Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T., “Sharq“, 1998.
68. **Ziyoev H.Z.** O‘zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi-T.2001 y.
69. **Ziyo A.** O‘zbek davlatchiligi tarixi (eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). T., “Sharq“, 2000.
70. Z**iyoeva D.** Turkiston milliy ozodlik harakati.-T., G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2000.
71. **Ibn Arabshoh.** Amir Temur tarixi. I-II kitoblar. T., 1992.
72. **Ibrohimov A**. Bizkim, o‘zbeklar... T., “Sharq“, 1999.
73. **Ibrohimov N.** Ibn Battuta va uning O‘rta Osiyoga sayohati. T., 1993.
74. **Иванов П.П.** Очерки по истории Средней Азии (XVI-середина XIX в.) М., 1958.
75. Из истории общественно-философской мысли в Узбекистане. Коллектив авторов. Т., 1977.
76. **Исламов У.** Пещера Мачай. Т., 1975.
77. **Исламов У., Тимофеев В.** Культура каменного века Центральной Ферганы. Т., 1986.
78. **Isomiddinov M.** Sopolga bitilgan tarix. T., 1993.
79. **Исомиддинов М.Х., Сулейманов Р.Х.** Еркурган. Т., 1984.
80. **Is’hoqov M.** Unutilgan podsholikdan xatlar. T., “Fan”, 1992.
81. История Бухары. Т., “Фан” 1976.
82. История Хорезма. Т., “Фан” 1977.
83. История Узбекистана. Т. III (XVI-первая половина XIX века). Коллектив авторов. Т., “Фан” 1993.
84. История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В.Лунин. Т., “Фан”, 1984.
85. История Узбекистана в источниках (VII-XVIII вв.). Составитель Б.В.Лунин. Т., “Фан”, 1988.
86. **Итина М.А.** История степных племен южного Приаралья. М., 1977.

87. **Yo‘ldoshev M.** Xiva xonligida yer egaligi va davlat tuzilishi. T., 1959.
88. **Кабанов С.К.** Нахшаб на рубеже древности и средневековья (III-VII вв.). М., 1977.
89. **Kabirov A.** Sarmishsoyning qoyatoshlaridagi rasmlar. T., 1976.
90. **Kabirov J., Sagdullayev A.** O‘rta Osiyo arxeologiyasi. T., 1990.
91. **Кадырова Т.К.** Из истории крестьянских движений в Мавераннахре и Хорасане в VIII- начале IX вв. Т., 1965.
92. **Êàìàëèääèíîâ Ø.** Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX-начала XIII вв.-Т., “Ûçáåêèñòîí”, 1996.
93. **Касымов А. Васькин И.** Основные направления внешней политики Республики Узбекистан. Т., 1994.
94. **Квинт Курций Руф.** История Александра Македонского. Под. ред. В.С. Соколова. М., Наука, 1963.
95. **Клавихо Р.Г.** Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406). М., 1970.
96. **Кляшторный С.Г.** Древнетюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. М., 1964.
97. **Литвинский Б.А., Соловьев В.В.** Средневековая культура Тохаристана. М., 1985.
98. **Лунин С.В.** Города Южного Согда в VIII-XII вв. Т., 1984.
99. **Мащмуд ибн Вали.** Море тайн относительно доблестей благородных. Пер. Б.А. Ахмедова. Т., “Фан”, 1977.
100. **Малов С.Е.** Памятники древнетюркской письменности. М.-Л., 1959.
101. **Массон В.М.** Древнеземледельская культура Маргианы. МИА, 1959, № 73.
102. **Массон В.М.** Страна тысячи городов. М., 1966.
103. **Массон В.М.** Средняя Азия и Древний Восток. М., Наука, 1964.
104. **Массон М.Е.** Средневековые торговые пути из Мерва в Хорезм и в Мавераннахр. Труды ЮТАКЭ, т. УП. Ашхабад, 1966.
105. **Массон М.Е.** Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. Т., 1973.
106. **Мец А.**Мусульманский ренессанс. М., 1973.

107. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T., “O‘zbekiston”, 2000.
108. Moziydan taralgan ziyo. Imom al-Buxoriy. T., “Sharq”, 1998.
109. **Muammar al-Kazzofi**. Yashil kitob.-T., 1992.
110. **Mo‘minov A.** Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. T., 1993.
111. **Munavvar Qori Abdurashidxonov.** Xotiralarimdan. Nashrga tayyorlovchi S.Xolboyev.-T., “Sharq“, 2001.
112. **Муртазаева Р.Х.** К вопросу идеологии независимости в Республике Узбекистан. Тезисы докладов Международной научной конференции. Ташкент, 15-17 апреля, 1997.
113. **Murtazayeva R.H.** va b. O‘zbekiston tarixi (Ma’ruzalar matni).-T., 2000.
114. Мусбюро РКП(б) в Туркестане, 1,2 и 3 Туркестанские Краевые Конференции РКП 1919-1920 гг. введением тов. Рыскулова.-Т., Туркгосиздат, 1922.-92 с.
115. Mustabid tuzumning O‘zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari.-T., “Sharq“, 2000.
116. **Мустафа Чокай оглы.** Туркестан под властью Советов (К характеристике диктатуры пролетариата). -Париж, Яш Туркестан, 1935.
117. **Mustafo Cho‘qay o‘g‘li.** Istiqlol jallodlari (1917 yil xotiralari).-T., G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1992.
118. **Muhammadjonov A.R.** Qadimgi Buxoro. T., “Fan” 1991.
119. **Muhammadjonov A.R., Ne’matov T.I.** Buxoro va Xevaning Rossiya bilan munosabatlari tarixiga doir ba’zi manbalar. T., 1957.
120. **Muhitdinov N.** Kremlda o‘tgan yillarim. 1-kitob. T., “O‘zbekiston”, 1995.
121. **Muhammadjonov A.R.** Qadimgi Toshkent. T., 1988.
122. **Nabiyev R.** XIV asrda O‘rta Osiyoda sarbadorlar qo‘zg‘oloni. T., 1942.
123. **Narshaxiy.** Buxoro tarixi. T., “Fan” 1966.
124. Негматов Н.Н. Государство Саманидов. Душанбе, 1977.
125. Независимость и история: новые подходы к изучению истории Узбекистана.-Т., “Университет”, 1997.
126. **Неразик А.Е.** Сельские поселения Афригидского Хорезма. М., 1966.
127. **Nizamiddinov N.** XVI-XVII asrlarda O‘rta Osiyo va Hindiston munosabatlari. T., 1966.

128. **Нильсен В.А.** Становление феодальной архитектуры Средней Азии (V-VIII вв.). Т., 1966.
129. **Nizomulmulk.** Siyosatnoma. T., “Adolat”, 1997.
130. **Norqulov N.** Beruniy va Xorazm. T., “Fan”, 1973.
131. **Norqulov N.K.** Temuriylar madaniyati tarixidan lavhalar. Urganch, 1966.
132. **Окладников А.П.** Палеолит и мезолит Средней Азии. “Средняя Азия в эпоху камня и бронзы”. М.-Л., 1966.
133. **Оранский И.М.** Иранские языки в историческом отношении. М., 1979.
134. **Ota-Mirzayev O.** Milliy aholi siyosati. Mustaqillik bu huquq. T., “O‘zbekiston”.
135. Очерки хозяйственной жизни Туркреспублики.-Т., изд ЦСНХ, 1920.
136. **Ошанин Л.В., Зезенкова В.Я.** Вопросы этногенеза народов Средней Азии в свете данных антропологии. Т., 1953.
137. **Пигулевская Н.В.** Маздакидское движение. “Известия Ан СССР”. Отделение истории и философии, т., I, № 3, 1949.
138. **Пидаев Ш.Р.** Поселения кушанского времени Северной Бактрии. Т., 1978.
139. **Pidayev Sh.R.** Sirli kushonlar saltanati. T., 1990.
140. **Pidayev Sh.R.** Qadimgi Termez-T.2001.
141. **Пилипко В.Н.** Поселения северо-западной Бактрии. Ашхабад. 1985.
142. **Polvonov N.** “Yosh xivaliklar” partiyasi tarixini o‘rganishda Polvonniyoz Xoji Yusupov “Xotiralar”ining ahamiyati. G‘G‘ “O‘zMU xabarlari”, 2000 yil, 4 son.
143. **Пугаченкова Г.А.** Пути развития Южного Туркменистана поры рабовладения и феодализма. М., 1958.
144. **Пугаченкова Г.А.** Халчаян. Т., 1966.
145. **Пугаченкова Г.А.** Термез, Шахрисабз, Хива. М., 1976.
146. **Пугаченкова Г.А.** Искусство Бактрии эпохи Кушан. М., 1979.
147. **Пугаченкова Г.А.** Шедевры Средней Азии. Т., 1986.
148. **Пугаченкова Г.А., Рempель Л.И.** Очерки искусства Средней Азии. М., 1982.
149. Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия-Тохаристан. Т., 1990.

150. **Пьянков И.В.** Средняя Азия в известиях античного историка Ктесия. Душанбе, 1975.
151. **Ravshanov P.** Qashqadaryo tarixi. T., “Fan”, 1995.
152. **Радкевич В.А.** Великий шелковый путь. М., 1990.
153. **Rajabova R.YO.** va b. O‘zbekiston tarixi (1917-1993 yillar).-T., “O‘qituvchi”, 1994.
154. **Раджапова Р.Я.** и др. История Узбекистана (1917-1993 гг.).-Т., “Ы=итувчи”, 1995.
155. **Rajabov Q.K.** Mustaqil Turkiston fikri uchun mujodalalar.-T., “O‘zbekiston”, 2000.
156. **Rizayev Sh.** Jadid dramasi. -T., “Sharq”, 1997.
157. **Rtveladze E.V.** “O‘rta Osiyoning qadimgi tangalari”. T., 1987.
158. **Ртвеладзе Э.В., Лившиц В.А.** Памятники древней письменности. Т., 1985.
159. **Ртвеладзе Э.В., Сагдуллаев А.С.** Памятники минувших веков. Т., 1986.
160. **Ртвеладзе Э.В.** Великий шелковый путь. Т., Т., “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 1999
161. **Rtveladze E.V., Sayidov A.X., Abdullayev YE.V.** Qadimgi O‘zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. T., “Adolat”, 2001.
162. **Рыскулов Т.** Революция и коренное население Туркестана. Часть I. 1917-1919 гг.-Т., Уз ГИЗ, 1925.
163. **Рыскулов Т.Р.** Собрание сочинений в трёх томах.-Т.1.-Алматы, Казахстан, 1997.
164. **Sayidov A, Sultonov S.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va inson huquqlari. T., “Adolat”, 1996.
165. **Sayidov A.** Saylov huquqi, O‘quv qo‘llanmasi T., 1999.
166. **Сафаров Г.** Колониальная революция (Опыт Туркестана). -М., Госиздат, 1921.
167. Самар=анд тарихи. I-II томлар. Т., “Фан” 1971.
168. **Сагдуллаев А.С.** Усадбы древней Бактрии. Т., 1987.
169. **Сагдуллаев А.С.** Огненные стрелы. Т., 1993.
170. **Sagdullayev A.S.** Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. T., 1996.
171. **Sagdullayev A.S., Eshov B.** Zaratushtra-haqiqatmi yo afsona? Fan va turmush, 1995, 4-son.

172. **Sagdullayev A, Aminov B, Mavlonov O‘, Norqulov N.** O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat qurish taraqqiyoti. T., 2000.
173. **Сарианиди В.А.** Древние земледельцы Афганистана. М., 1977.
174. **Ставиский Б.Я.** Средняя Азия в кушанский период. М., 1963.
175. **Смирнова О.И.** Очерки из истории Согда. М., 1970.
176. **Страбон.** География в 17 книгах. Пер. Г.А. Стратановского. М., 1964.
177. **Струве В.В.** Поход Дария I на саков-массагетов. В. кн. “Этюды по истории Северного Причерноморья, Кавказа и Средней Азии”. М., 1968.
178. **Сухарева О.А.** К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографический очерк). Т., 1958.
179. **Sulaymonova F.** Sharq va G‘arb. T., “Fan”, 1991.
180. **Тарн К.** Эллинистическая цивилизация. Пер. с анг. С.А. Ляковского. М., 1949.
181. **Тайлор Э.Б.** Первобытная культура. Пер. с анг. Д.А. Коропчевского. М., 1989.
182. Tarix, mustaqillik, milliy g‘oya.-T., “Akademiya”, 2001.
183. Tarix shohidligi va saboqlari. T., “Sharq”, 2001.
184. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. T., “Qomuslar bosh tahririyati”, 1996.
185. Temur davrining me’moriy kahkashoni. T., “Sharq”, 1996.
186. **Череножкин А.И.** Согд и Чач.-КСИИМК, вып. XXXIII. 1950.
187. ToshDu ilm va ma’rifat maskani. T., ”Universitet”, 1995.
188. Òîéíáè À. Äæ. Ïîñòèæåíèå èñòîðèè. ñá. - Ì.: Ïðîãðåññ, 1991.
189. Òîëñòîâ Ñ.Ï. Ïî äðåâíèì äåëüòàì Îêñà è ßêñàðòà. Ì., 1962.
190. **Tolstov S.P.** Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. T., 1964.
191. **Tursunov I.Y**. O`zbekiston maorifchilarining istiqlol yo`lidagi ishlari tarixidan (1917-1939). T., 1995.
192. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Научный редактор Р.Я.Раджапова.-Т., “Sharq“, 2000.
193. Turkiston mustaqilligi va birligi uchun kurash sahifalaridan.-T., “Fan”, 1996.
194. **Umanskiy YA.** O‘zbekiston Respublikasi: millatlararo munosabatlarning taraqqiyoti G‘G‘ Ijtimoiy fikr, 1998. №1, 31 b.

195. **Umnyakov I.I.** Toxaro‘ i toxarskiy vopros.-Tr. Uz. GU. Novaya seriya, № 31.
196. **Usmon Turon.** Turkiy xalqlar mafkurasi.-T., “Cho‘lpon”, 1995. **Fayzulla Xo‘jayev.** Tanlangan asarlar. t.1.-T.,”Fan”, 1976.
197. **Fayzulla Xo‘jayev.** Buxoro inqilobining tarixiga materiallar.-T., “Fan”, 1997.
198. **Fitrat.** Tanlangan asarlar.-t.1.-T., “Ma’naviyat”, 2000.
199. Fitrat. Tanlangan asarlar.t.2.-T., “Ma’naviyat”, 2000.
200. Ôðàé Ð. Íàñëåäèå Èðàíà. Ïåð. ñ àíã. Â.À. Ëèâøè÷à è Å.Â. Çåéìàëü. Ì., 1972.
201. Õàñàíîâ Á.Â. Íàöèîíàëüíàÿ èíòåëëèãåíöèÿ Óçáåêèñòàíà è èñòîðè÷åñêèå процессы 1917-íà÷àëà 50-õ ãîäîâ. Ò.,2000.
202. **Xasanov H.** O‘rta Osiyolik geograf va sayyohlar. T., 1964.
203. Xiva ming gumbaz shahri. T., “Fan”, 1997.
204. **Хлопон И.Н.** Историческая география южных областей Средней Азии (античность и ранее средневековье). Ашхабад, 1983.
205. **Ходжайов Т.К.** К палеантропологии древного Узбекистана. Т., 1980.
206. **Ходжайов Т.К.** Ызбек хал=и этногенези тарихидан. Т., “Университет”, 1995.
207. Ходжанов С. К 10-летию Туркестанской советской автономии Туркестана.-Т., изд. “Правда Востока”, 1928.Xorazm tarixi. t. 1-2. Urganch, “Xorazm”, 1997.
208. **Xusanov O.** Mustaqillik va mahalliy hokimiyat (huquqiy, tashkiliy masalalar va muammolar) T., 1996 y.
209. **Xusanov O.** Fuqarolik o‘z-o‘zni boshqarish, huquqiy demokratik islohotlar. T., “O‘zbekiston”, 1997y.
210. **Cheboksarov N.N., Cheboksarova I.A.** Narodo‘, raso‘, kulturo‘. M., 1985.
211. **Choriyev A.** Milliy istiqlol mafkurasi va uning asosiy xususiyatlari. “Muloqot”, №4, 1996.
212. **Cho‘lpon.** Go‘zal Turkiston.-T., “Ma’naviyat”, 1997.
213. **Shahobiddin Yassaviy Ismoilshayx o‘g‘li.** Turkistan Acciq Haqiqatlari.-Istanbul, 1984.
214. **Shamsutdinov R.** O‘zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlari. T., “Sharq”, 2001.
215. **Shamsutdinov R.** Istiqlol yo‘lida shahid ketganlar. T., “Sharq“, 2001.

216. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T., “Sharq”, 1997.
217. **Shoniyozov K.Sh.** Qang‘ davlati va qang‘lilar. T., 1990.
218. **Shoniyozov K.Sh.** O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. T., “Sharq”. 2001.
219. **Шишкин В.А.** Архитектурные памятники Бухары. Т., 1936.
220. **Шишкин В.А.** Варахша. Т., “Фан”, 1963.
221. **Ширинов Т.** Орудия производства и оружие эпохи бронзы среднеазиатского Междуречья. Т., “Фан”, 1986.
222. **Yegamnazarov A.** “Bu kimning tashvishi?” “Sharq yulduzi” 1992 y, 10-son, 140-147 b.
223. **Yusupov P.** Yosh xivaliklar tarixi (Xotiralar).-Urganch, “Xorazm”, 2000.
224. **Yunusova X.** Millatlararo munosabatlar tarixidan G‘G‘ “Muloqot”, 2001 2-son.
225. **Yakubovskiy A.YU.** K voprosu ob etnogeneze uzbekskogo naroda. T., 1941.
226. **Yakubov B.** Shahrisabz va Kitob tarixidan. Qarshi., Nasaf, 1996.
227. **Yaspers K.** Smo‘sl i naznacheniye istorii - M.: Izd. polit. literaturo‘, 1991.
228. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar tarixidan. Davriy to‘plam.-T., “Universitet”, 1998.
229. O‘zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. -T., “El’dimur”, 1998.
230. O‘zbekiston tarixi. 1-qism. II-nashri. (mas’ul muharrirlar A. Sagdullayev, B. Eshov) T., “Universitet”, 1999.
231. O‘zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida,. T., “Sharq”. 2000.
232. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida.-T., “Sharq“, 2000.
233. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari-T.-2001.
234. O‘zbekistonning yangi tarixi. 3-kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi T., “Sharq“, 2000.
235. O‘zbekistonning yangi tarixi. Konseptual-metodologik muammolar. T., “Akademiya”, 1998.
236. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. t.1-2.-T., O‘zMU nashriyoti, 2000-2001.

237. O‘zbekiston Respublikasi. Ensiklopediya. T., “Qomuslar bosh tahririyati”, 1997.
238. O‘zbekiston tarixi (qisqacha ma’lumotnoma). T., “Sharq”, 2000.
239. O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolariga yangi chizgilar. Davriy to‘plam № 2. -T., “Sharq”, 1999.
240. O‘zbek xalqi davlatchiligi tarixi konsepsiyasi. Loyiha. G‘G‘ “O‘zbekiston tarixi”, 1999, 1-son.
241. Qadimgi Kesh-Shahrisabz tarixidan lavhalar. A.S.Sagdullayev tahriri ostida. T., “Sharq“, 1998.
242. **Qudratov S.S.** Sardobalar o‘lkasi-T. 2001
243. **Qudratov S.S.** O‘rta Osiyoda ilk davlatlarnin paydo bo‘lish va rivojlanishi. Guliston. 1999.
244. Qoraqalpog‘iston tarixi (1917-1994 yy.), Nukus, 1995.
245. **G‘oibnazarov Sh.** Ijtimoiy rivojlanish saboqlari. 20-yillar tahlili. T., “O‘zbekiston”, 1994.
246. **G‘ulomov YA.G‘.** Xorazmninng sug‘orilish tarixi. T., 1959.
247. **G‘ulomov YA.G‘.** Arxeologiya-tarix fani xizmatida. T., “Fan”, 1976.
248. **/уломов Я./., Исломов У., Ас=аров А.** Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зерафшана. Т., 1966.
249. **Haydarov M.** Turkistonda sovet hokimiyati yuritgan siyosatning mahalliy aholiga bo‘lgan ta’siri (1917-1924 y.) G‘G‘ ToshDU xabarlari, 1998, № 1, 53-58-betlar.
250. **Haydarov M.** TASSR davrida sovet hokimiyati olib borgan siyosat: tarix va haqiqat. G‘G‘ O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar tarixidan.-T., “Universitet”, 1998, 44-52 betlar.
251. **Hayit Baymirza.** “Basmatcilar”. Turkistan Milli Mycadele Tarihi (1917-1934). -Ankara, 1997. 367 S.
252. **Hofiz Tanish Buxoriy.** Abdullanoma. I-II-kitoblar. T., “Sharq”, 1999-2000.

Mundarija

KIRISH. 3

1-mavzu. O‘zbekiston tarixi fani predmeti va obyekti, uni o‘rganishning metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati.. 6
O‘zbekiston tarixi fanining fan sifatida tutgan o‘rni. Uning o‘rganish predmeti va obyekti. 6
O‘zbekiston tarixi fanining metodologik ilmiy-nazariy asoslari va usullari 8
O‘zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi va tarixni o‘rganishda manbalarning ahamiyati. 13
Vatan tarixini o‘qitishning ahamiyati. 15

I. Eng qadimgi davr. 18
2-mavzu. O‘zbekiston insoniyat taraqqiyotining qadimgi o‘choqlaridan biri. 18
Insoniyatning dastlabki ajdodlari. Paleolit davri 18
Mil. avv. XII-IV ming yilliklarda O‘rta Osiyo. 24
Ibtidoiy tasviriy san’at. Bronza davri yutuqlari. Yozuv haqida yangi ma’lumotlar. 31

3-mavzu. O‘zbek xalqining etnik shakllanishi. 37
Etnogenez va uni o‘rganish masalalari. 37
O‘lkamiz hududlaridagi qadimgi mahalliy aholi va o‘zbek xalqining shakllanish bosqichlari. 40
O‘rta asrlardagi etnik-madaniy jarayonlar. “O‘zbek” atamasi. 45

4-mavzu. O‘zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari 48
Ilk davlatchilikning asosiy omillari. Dastlabki shaharsozlik madaniyati. 48
Ilk davlatlar haqidagi yozma manbalar. Qadimgi aholi. 52
Dastlabki davlatlar. 60
Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda O‘rta Osiyo. 67
“Avesto”. Madaniy hayot. 76

5-mavzu. Antik davr davlatlari. Buyuk ipak yo‘li, shakllanishi, rivojlanish bosqichlari. 78

Salavkiylar, Parfiya va Yunon-Baqtriya davlatlari. 78
Qang‘, Dovon va Kushon davlatlari. 87
Buyuk ipak yo‘li. Madaniy hayot. 96

II. O‘rta asrlar davri. 102

6-mavzu. Eftalitlar, Turkiy hoqonlik va arablar istilosi davrida O‘rta Osiyo. 102
Milodiy IV-VI asrlar Turon zamin tarixi. 102
Eftalitlar hukmronligi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. 105
Turkiy xoqonlik hukmronligi davrida O‘rta Osiyo. 109
Islom dini. O‘rta Osiyoga arab bosqinining dastlabki davri. Qutayba yurishlari. 119
Arablar bosib olgandan keyin Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-siyosiy ahvol. Xalq harakatlari 126
Arab bosqiniga qarshi xalq ozodlik harakatlari. 129

7-mavzu. IX-XII asrlarda o‘zbek davlatchiligi. Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot.. 135
Tohiriylar va Somoniylar davrida Movarounnahr. . . .. .135
Somoniylar va Qoraxoniylar o‘rtasidagi kurash. 144
G‘aznaviylar va Saljuqiylar. 149
Xorazmshohlar davrida o‘zbek davlatchiligi. 151

8-mavzu. O‘rta Osiyo xalqlari hayotida IX-XII asrlarda yuz bergan uyg‘onish davri. Fan va madaniyat ravnaqi. 154
IX-XII asrlar madaniy yuksalishining shart-sharoitlari. Ilm-fan. 154
IX-XII asrlarda islom dini va so‘fiylik. 169
Me’morchilik va san’at. 175

9-mavzu. Mo‘g‘ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi. 180
Mo‘g‘ul davlatining tashkil topishi. Chingizxon va Xorazmshoh munosabatlari. 180
Jaloliddin Manguberdi-yurt himoyachisi.. 197
Mo‘g‘ullar istilosidan keyingi siyosiy vaziyat. Chig‘atoy ulusi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xo‘jalik ahvoli. 206

XIII asr 2-yarmi XIV asr I-yarmidagi madaniy hayot.. 214

10-Mavzu. Amir Temur va Temuriylar davrida o‘zbek davlatchiligi. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot.. 217
Amir Temurning markazlashgan davlat tuzish uchun kurashi va harbiy yurishlari 217
Amir Temur vafotidan so`ng Temuriylar davlatidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. 223
XV asrning 2-yarmida Movarounnahr va Xuroson. Temuriylar saltanatining inqirozga yuz tutishi. 231
Temuriylar hukmronligi (1405-1506 yy.) davrida ilm-fan va madaniy hayot.. 233

11-mavzu. Turkistonning xonliklarga bo‘linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari. 240
XV asr oxiri-XVI asr boshlarida Mavarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot. Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolasi. 240
Buxoro amirligi. 251
Xiva xonligi. 256
Qo‘qon xonligi. 262

III. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri. 266
12- mavzu. Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi. 266
Rossiya imperiyasi istibdodiga qarshi Turkiston xalqlarining milliy-ozodlik kurashi. Jadidchilik va milliy uyg‘onish.. 266
Jadidchilik harakati va milliy uyg‘onish 285

IV. O‘zbekiston sovetlar hukmronligi davrida. 302
13-mavzu. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o‘rnatilishi va unga qarshi qurolli harakat. 302
1917-yil fevral inqilobining Turkistonga ta’siri. Muxtoriyatchilik harakati. 302
Oktabr to‘ntarishi. Turkistonda sovet tuzumining o‘rnatilishi, bolsheviklarning mustamlaka va shovinistik siyosati 305
Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning faoliyati. 308
Turkiston mintaqasida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakati va tarixiy ahamiyati 313

Xiva xonligining qizil armiya tomonidan tugatilishi. Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tuzilishi va undagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar. . .. 325
Buxoro amirligining ag‘darilishi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi va undagi siyosiy o‘zgarishlar. 330

14-mavzu. 20-30 yillarda sovet xokimiyatining O‘zbekistonda yuritgan iqtisodiy va madaniy siyosati, uning mustamlakachilik mohiyati. Siyosiy qatag‘onlik. 338
O‘zbekistonda sovet hokimiyatining iqtisodiy va ijtimoiy mohiyati . . .338
O‘zbekistonda mustamlakachilikka asoslangan iqtisodiy siyosatning oqibatlari. 352
O‘zbekistonda “madaniy inqilob” va uning oqibatlari. 358
Siyosiy qatag‘onlik. 366

15-mavzu. Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek xalqining fashizm ustidan qozongan g‘alabaga qo‘shgan hissasi. 372
Urushning boshlanishi. Umumiy harbiy safarbarlik. 372
Urush yillarida O‘zbekiston sanoati va qishloq xo‘jaligi. 379
Urush yillarida fan va madaniyat. 384
O‘zbekistonliklarning urush jangohlarida ko‘rsatgan jasoratlari. 387

16-mavzu. Urushdan keyingi yillarda O‘zbekistonning iqtisodiy va madaniy hayoti. Iqtisodiy va ma’naviy qaramlikning oqibatlari . ..393
Urushdan keyingi yillarda O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayoti.. 393
Respublikada 1946-90-yillardagi ma’naviy, madaniy qaramlik va uning oqibatlari. Qatag‘onlikning yangi to‘lqini.. 404

17-mavzu. O‘zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi va uning tarixiy ahamiyati. 413
Mustaqillikka erishuv yo‘lida. 413
I.A.Karimov-O‘zbekiston mustaqilligini asoschisi va yetakchisi. 419
O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 423

18-mavzu. O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyat asoslarining barpo etilishi. 426
O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li. Siyosiy islohotlar 426
O‘zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyat asoslarini yaratilishi.. . . .433

19-mavzu. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning iqtisodiy, ma’naviy va madaniy taraqqiyoti. 449
O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo‘nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari. 449
Iqtisodiyotda yuz bergan tarixiy o‘zgarishlar, bozor infratuzilmasining shakllanishi. 454
Qishloq xo‘jaligida islohotlar, uning vazifalari va yo‘nalishlari. Moliya-bank tizimi. 460
Mustaqillik yillarida ma’naviy va ma’rifiy hayot. Milliy istiqlol g‘oyasi va mafkuraviy masalalar. 463
Mustaqillik yillarida fan va madaniyatning rivojlanishi. 473

20-mavzu. O‘zbekiston va Jahon hamjamiyati.. 479
O‘zbekistonda tinchliksevar mustaqil tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi. 479
O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi. 484
O‘zbekistonning MDHdagi o‘rni va mavqeining oshib borishi 493
O‘zbekistonning Markaziy Osiyo respublikalari bilan o‘zaro hamkorligi. 497
Xronologik jadval. 502
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati. 517
Mundarija. 530